MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

"FAN VA TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

(2025-yil 20-noyabr)

MATERIALLARI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI TIZIMIDA
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI

“FAN VA TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
(2025-yil, 19-20-noyabr)
MATERIALLARI

"UTILIZING INTERNATIONAL EXPERIENCE IN IMPROVING THE CONTENT OF SCIENCE AND EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"

Republican Scientific-Practical Online Conference
(November 19–20, 2025)
MATERIALS

«ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОДЕРЖАНИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»

Республиканская научно-практическая онлайн-конференция
(19–20 ноября 2025 года)
МАТЕРИАЛЫ

JIZZAX –2025

UDK 377 (077)
KBK 74 (J)
P 29

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandi beshinchi xatboshisida belgilangan vazifalar ijrosi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “2025-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 27-dekabr 490-sonli buyrug‘i 1-ilovasi, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi ish rejasiga asosan 2025-yil 19-20-noyabr kunlari **“Fan va ta’lim mazmunini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya o‘tkazildi.

Mazkur konferensiyani tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta’lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us.

Наша цель, организации данной конференции – обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество.

TAHRIR HAY’ATI:	
I.N.Axmedov	Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, f.f.f.d., dotsent
A.Y.Raxmatullayev	Akademik faoliyat bo‘yicha o‘rinbosari, t.f.f.d., dotsent
A.J.Ruziyev	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosari, f.f.f.d., dotsent
J.A.Mardankulov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsent
A.S.Kubayev	“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
M.M.Xolboyeva	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.
M.M.Jabborov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.
M.A.Tilakova	“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, dotsent
N.A.Axmedjonov	“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d., dotsent
D.K.Norbekov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
O.U.Ergashev	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Sh.A.Egamqulov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
M.N.Turdaliyev	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 25-noyabrdagi navbatdan tashqari yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi konferensiyamizning “**Fan va ta’lim mazmunini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar**” mavzusiga bag‘ishlangani bejiz emas. Chunki XXI asrning ikkinchi choragida global ilm-fan, ta’lim va sanoat tarmoqlari keskin transformatsiya jarayoniga kirgan bo‘lib, bunda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, big data, kognitiv tizimlar, bulutli hisoblash, IoT (Internet of Things), robototexnika va kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlar taraqqiyotning asosiy drayveriga aylanmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari ta’kidlayotganidek (UNESCO Education 2030, OECD Future of Education 2040, McKinsey Global Institute, World Economic Forum), yaqin 10–15 yil ichida: ta’limning 60% dan ortiq jarayonlari raqamlashtiriladi, sun’iy intellekt yordamida ta’limni shaxsiylashtirish jarayoni uch barobar tezlashadi, raqamli ko‘nikmalar mehnat bozorida asosiy kompetensiyaga aylanadi, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bir butun ekotizim sifatida shakllanadi.

O’zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlarning yangi bosqichi sifatida **s**o‘nggi yillarda O’zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)” va “Raqamli O’zbekiston – 2030” dasturlari asosida ta’lim sohasida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshmoqda. Jumladan:

Raqamlashtirish jarayonida mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 90% dan ortig‘ida “Elektron kundalik” tizimi to‘liq joriy etildi, 4000 dan ortiq maktablar “Bilimlar portali”, “EduMarket”, “EduTest”, “EduScan” kabi AI asosidagi platformalar bilan integratsiyalashdi, 2024–2025-yillardan boshlab AI proktorlik tizimlari, avtomatik diagnostika, adaptiv testlar bosqichma-bosqich tatbiq etilyapti.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlaridan dunyo tajribasi (Koreya, Singapur, AQSh, Yaponiya, Estoniya) shuni ko‘rsatadiki, AI o‘quvchilar bilimini real vaqt rejimida baholaydi, ta’lim bo‘yicha shaxsiy o‘sish trayektoriyasini yaratadi, o‘quv jarayonini moslashuvchan (adaptive learning) qiladi.

O’zbekistonda ham AI asosidagi “Digital Pedagogy”, o‘quvchilarning psixometrik ko‘rsatkichlarini aniqlovchi AI-profil tizimlari, o‘qituvchilar malakasini baholovchi intellektual platformalar sinovdan o‘tkazilmoqda.

Xalqaro hamkorlikning kengayishi va ilg‘or tajribalar transferi sifatida bugungi globallashuv sharoitida ta’limni modernizatsiya qilish xalqaro hamkorliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O’zbekiston quyidagi yo‘nalishlarda faol integratsiyani amalga oshirmoqda:

Koreya modeli, “Digital Uzbekistan – Korea” dasturi doirasida: raqamli didaktika modellarini yaratish, AI asosidagi raqamli darsliklar ishlab chiqish, STEM laboratoriyalarini tashkil etish bo‘yicha loyihalar amalga oshmoqda.

Singapur va Finlyandiya tajribasi doirasida “Ta’limda kompetensiyalar modeli”, “Learning by doing” (amaliyot orqali o‘qitish), STEAM va kognitiv pedagogika metodlari joriy etilmoqda.

Rossiya, Qozog‘iston, Hindiston bilan hamkorlikda qo‘shma ilmiy-amaliy loyihalar, o‘quv dasturlari integratsiyasi, ilmiy tadqiqotlar almashinuvi, IT va pedagogika bo‘yicha malaka oshirish dasturlari izchil yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi konferensiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki konferensiyada O’zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Hindiston va Malayziya kabi davlatlarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari, doktorantlar, amaliyotchi mutaxassislari qatnashmoqda.

Ularning taklif etayotgan ma’ruzalari: innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, sun’iy intellektni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, ilm-fan va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish, ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish bo‘yicha muhim ilmiy asoslar va yechimlarni taklif etadi.

Xulosa o‘rnida raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va sun’iy intellektni o‘z ichiga olgan zamonaviy ta’lim strategiyasini yaratmasdan turib: millatning raqobatbardoshligi, yoshlar intellektual salohiyati, iqtisodiyotning innovatsion rivoji tasavvur etib bo‘lmaydi.

Bugungi konferensiya — aynan mana shu yo‘nalishlarda ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyatlar tilayman. E’tiboringiz uchun rahmat!

Ijod Axmedov
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi direktori,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

BUTUN DUNYODA AKT TA’LIMINING HOLATI, MUAMMOLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Nishonov Akmal Obidovich,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
“Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
Sulaymonova Oygul Abdulatif qizi,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: gofurovaoygul0405@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada butun dunyoda AKT (Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari) ta’limining rivojlanish holati, mavjud muammolar va samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqolada UNICEF, UNESCO, Huawei, IBM kabi yirik xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar tomonidan amalga oshirilayotgan global tashabbuslar, shuningdek Afrika davlatidagi mintaqaviy loyihalar ko‘rib chiqilgan. AKT ta’limidagi asosiy muammolar sifatida infratuzilmaning yetishmasligi, raqamli tengsizlik, o‘qituvchilarning malaka darajasi pastligi va mahalliy kontentning yo‘qligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, mahalliy o‘quv materiallarini yaratish, o‘qituvchilarni muntazam malaka oshirish dasturlariga jalb etish kabi samaradorlikni oshirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: AKT, raqamli ta’lim, global tashabbuslar, raqamli tengsizlik, ta’lim samaradorligi, o‘qituvchilar malakasi, davlat-xususiy sheriklik.

Annotation. This article analyzes the current state of ICT (Information and Communication Technologies) education worldwide, the existing challenges, and strategies to improve its effectiveness. It examines global initiatives carried out by major international organizations and companies such as UNICEF, UNESCO, Huawei, and IBM, as well as regional projects in African countrie. The main challenges in ICT education include insufficient infrastructure, digital divide, low teacher qualification levels, and lack of localized educational content. The article suggests ways to enhance effectiveness, including fostering public-private partnerships, creating learning materials tailored to local languages and cultures, implementing regular teacher training programs, and ensuring sustainable development of digital education.

Keywords: ICT, digital education, global initiatives, digital divide, education effectiveness, teacher qualification, public-private partnership.

Аннотация. В данной статье анализируется состояние развития образования в области ИКТ (информационно-коммуникационных технологий) во всем мире, существующие проблемы и пути повышения его эффективности. Рассматриваются глобальные инициативы, реализуемые такими крупными международными организациями и компаниями, как UNICEF, UNESCO, Huawei, IBM, а также региональные проекты в странах Африки. Основные проблемы в сфере ИКТ-образования включают недостаточную инфраструктуру, цифровое неравенство, низкий уровень квалификации учителей и нехватку локального учебного контента. В статье предлагаются пути повышения эффективности, включая развитие сотрудничества между государственным и частным секторами, создание учебных материалов на местных языках, регулярное повышение квалификации учителей и обеспечение устойчивого развития цифрового образования.

Ключевые слова: ИКТ, цифровое образование, глобальные инициативы, цифровое неравенство, эффективность образования, квалификация учителей, государственно-частное партнерство.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim sohasida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim samaradorligini oshirishda AKT muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’lim

jarayonlari AKTning ta’limdagi o‘rnini yanada kuchaytirib, uning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta’minlash zaruratini yaqqol namoyon qildi.

Shunga qaramay, butun dunyo miqyosida AKT ta’limi qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ulardan eng asosiylari — infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet va texnik vositalarning hududlar bo‘yicha teng taqsimlanmaganligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi hamda mahalliy sharoit va ehtiyojlarga mos o‘quv kontentining yetishmasligidir. Ushbu muammolarni hal etish nafaqat bir mamlakat, balki global ta’lim tizimi uchun ham ustuvor masaladir.

Mazkur mavzuga e’tibor qaratishning asosiy sababi shundaki, AKT ta’limi ta’lim sifatini oshirish, raqamli tengsizlikni kamaytirish va kelajak avlodni raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (UNICEF, UNESCO, Jahon banki va boshqalar) va yirik kompaniyalar (Huawei, IBM) tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar ham AKT ta’limining global miqyosda qanchalik ahamiyatli ekanini ko‘rsatib bermoqda.

Shu boisdan, “Butun dunyoda AKT ta’limining holati, muammolari va samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusini o‘rganish, turli mamlakatlar tajribasini tahlil qilish hamda samarali yechimlarni ishlab chiqish bugungi kun ta’limi oldida turgan eng muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Masalan bunga dunyo miqiyosida olib borilayotgan asosiy izlanishlar va tashabbuslarni keltirishimiz mumkin. Ulardan biri UNICEF Global Digital Education Initiatives — UNICEF 100 dan ortiq mamlakatda raqamli ta’lim tashabbuslarini amalga oshirmoqda. Ushbu tashabbuslarning asosiy yo‘nalishlari: barcha maktablarni internetga ulash, global raqamli platformalar yaratish va imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus resurslar tayyorlash.

NEPAD E-School Program Afrika mamlakatlarida ehtiyojmand maktablarni kompyuter va internet bilan ta’minlashga qaratilgan yirik loyiha bo‘lib, u orqali maktablarning raqamli infratuzilmasi rivojlantirilmoqda.

Huawei ICT Academy – Huawei kompaniyasi universitetlar bilan hamkokrlikda AKT bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash uchun xalqaro dastur yaratdi. 2024-yil oxiriga kelib, 1,3 milliondan ortiq talabalar uchbu dastur orqali bilim olgan.

IBM SkillsBuild – bepul onlayn ta’lim platformasi bo‘lib, u talabalar o‘qituvchilar uchun raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

UNESCO mobil o‘qish amaliyotlari – UNESKO mobil qurilmalar orqali o‘qitishni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq hududlaridagi bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda.

Mintaqaviy tajribalar ham hozirgi kunda AKT ning rivojiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bunga misol sifatida Afrikada NEPAD E-School Program orqali maktablarda kompyuter va internet infratuzilmasini rivojlantirish yo‘lga qo‘yilgan

AKT ta’limidagi asosiy muammolarini quydagilarda ko‘rib o‘tsak bo‘ladi:

Infratuzilma yetishmasligi – ko‘plab mamlakatlarda internet tezligi past, elektr energiyasi bararor emas va qurilmalar yetarli emas. Bundan tashqari raqamli tengsizlik (Digital divide) – shahar va qishloq joylar orasidagi imkoniyatlar farqi juda kata. O‘qituvchilarning malaka yetishmovchiligi – yangi texnologiyalarni o‘qituvchilarga o‘rgatish uchun muntazam treninglar yetarli emas. O‘qituvchilarning malaka yetishmovchiligi — yangi texnologiyalarni o‘qituvchilarga o‘rgatish uchun muntazam treninglar yetarli emas. Moslashtirilgan o‘quv kontentining yo‘qligi — o‘quv dasturlarini mahalliy tillar va madaniyatga moslashtirish hamon muammo bo‘lib qolmoqda. Moliyaviy barqarorlik — ko‘plab dasturlar qisqa muddatli bo‘lib, barqaror moliyalashtirish mavjud emas.

Xulosa qilib shuni aytish kerak, samaradorlikni oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish (PPP) — texnologiyalarni joriy etishda investitsiya va resurslarni birlashtirish. Mahalliy kontent ishlab chiqish o‘quvchilar uchun tillar va madaniyatga mos materiallar yaratish. O‘qituvchilarni muntazam malaka oshirish dasturlariga jalb etish. Arzon va bardoshli texnologiyalarni tanlash orqali xarajatlarni kamaytirish. Raqamli ta’lim loyihalarini monitoring qilish va samaradorligini baholash. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish,

masalan, pandemiya davridagi masofaviy ta’limni tezkor tashkil qilish. Bundan tashqari mamlakatimizda global hamkorlik, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik hamda mahalliy ehtiyojlarga moslashgan dasturlarni kuchaytirish orqali raqamli ta’limning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. A.Nishonov, O.Sulaymonova. Matematika va informatika anlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning dolzarb muammolari va ularning yechimlari. “STEAM va SMART” ta’lim texnologiyalar asosida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish: muammo, yechim va kamchiliklar: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. - Andijon. 2025.-266-271-b.

1. A.Nishonov, A.Soyibnazarov. O‘qituvchilarning AKT kompetentligini oshirish strategiyalari. Milliy ta’lim yaratilishida innovatsion yondashuvlar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - Navoiy. 2025.- 47-49-b.

2. Anderson T., & Dron J. *Learning in a Digital Age. Towards a Framework for Digital Education.* – Online Learning Journal. 2017-2-4-b.

3. Castells M. *The Rise of the Network Society.* – Wiley-Blackwell. 2010-4-b.

4. Huawei ICT Academy Global Program. *Huawei official site.* – https://www.huawei.com

5. IBM SkillsBuild Digital Education Platform. *IBM official site.* – https://www.ibm.com/skillsbuild

6. NEPAD E-School Program. Africa. *African Union Development Agency (AUDA-NEPAD).* – https://www.nepad.org

7. OECD. *Digital Education Outlook 2023.* – https://www.oecd.org

8. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2024.* – https://gem-report.unesco.org

9. UNICEF Global Digital Education Initiatives. *UNICEF official site.* – https://www.unicef.org

10. UNESCO Mobile Learning Initiatives. *UNESCO official site.* – https://www.unesco.org

11. World Bank. *Digital Dividends. World Development Report 2016.* – https://www.worldbank.org

GRASPS MODELIDAN FOYDALANISHNING TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

M.M.Xolboyeva
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi,
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim jarayonida o‘quv maqsadlariga erishishni ta’minlovchi GRASPS modeli (Goal – maqsad, Role – rol, Audience – auditoriya, Situation – vaziyat, Product/Performance – mahsulot yoki faoliyat, Standards – baholash mezonlari) ning amaliy qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Modelning o‘quvchilarda yuqori darajadagi kognitiv faoliyat, mas’uliyat va ijodkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, o‘quv maqsadlari, goal – maqsad, role – rol, audience – auditoriya, situation – vaziyat, product/performance – mahsulot yoki faoliyat, standards – baholash mezonlari

Аннотация: В статье анализируются особенности практического применения модели GRASPS (Цель, Роль, Аудитория, Ситуация, Продукт/Результат, Стандарты), обеспечивающей достижение целей обучения в образовательном процессе. Обосновывается роль модели в развитии высокой познавательной активности, ответственности и креативности учеников.

Ключевые слова: Образование, цели обучения, цель, роль, аудитория, ситуация, продукт/результаты, стандарты

Annotatsion: This article analyzes the practical application of the GRASPS (Goal, Role, Audience, Situation, Product/Result, Standards) model, which ensures the achievement of learning

goals in the educational process. The model's role in developing students' high cognitive activity, responsibility, and creativity is substantiated.

Key words: Education, learning objectives, purpose, role, audience, situation, product/results, standards

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoniga muvofiq, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Shunga ko‘ra, hozirgi kunda o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me’mori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g ‘oyaviv - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o ‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini hai tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi doimo o‘z kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borishi, o‘qitishning zamonaviy metodlarini o‘rganib borishi, o‘quvchilarini jahon standartlariga mos holda tayyorlab borishi lozim.

GRASPS bu ta’lim samaradorligini baholash modeli. Ta’lim samaradorligi ta’lim oluvchining mavjud bilimlarni haqiqatda tushunish va kundalik faoliyatda foydalanish sifati bilan o‘lchanadi. GRASPS modeli hayotiy (real) vaziyatlar orqali muammoli vazifalar (haqiqiy ishlash vazifalari)ni yaratish va ularni hal qilishni nazarda tutadi. GRASPS loyihaga asoslangan ta’lim uchun asos yaratadi.

U quyidagi 6 bosqichdan iborat: GRASPS

- Goal (maqsad) muammo yoki maqsadni aniqlash;
- Role (rol) o‘quvchining rolini aniqlash;
- Audience (auditoriya) maqsadli auditoriyani aniqlash;
- Situation (vaziyat) maqsadning konteksti yoki ssenariysi;
- Product or performance (mahsulot yoki natija) nima yaratilmoqda va u nima uchun yaratiladi;
- Standarts and Criteria (standart va mezonlar) muvaffaqiyat standartlari va mezonlari aniqlanadi.

GRASPS vazifalaridan foydalanib haqiqiy baholashni amalga oshiring. Tushunishga yordam beradigan haqiqiy ishlash vazifasini qanday yaratishim mumkin?

Buning uchun GRASPSdan foydalaning!

G - o‘quvchilar qanday vazifani bajarishlari kerak?

R - o‘quvchining vazifadagi roli qanaqa?

A - maqsadli auditoriya kimlardan iborat?

S - Kontekst nima? Muammo nimada?

P - o‘quvchilar nimani yaratadilar/o‘rganadilar/rivojlantiradilar?

S - muvaffaqiyat standartlari va mezonlari qanday baholanadi?

GRASPS vazifasiga misol:

Siz suzish-cho‘milish havzasida qutqaruvchisiz. Siz cho‘milish havzasiga kelganlarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirishga, suzish-cho‘milish havzasida xavfsizlikni ta’minlashga va eng muhimi cho‘kayotganlarni tez va aniqlik bilan qutqarishga mas’ulsiz. Siz cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq va to‘liq harakatlar rejangizni ishlab chiqing va u batafsil, to‘liq qo‘llab - quvvatlanadigan tavsiyalarni o‘z ichiga olishi kerak.

GRASPS qolipi:

G (maqsad) – (ssenariy bo‘yicha) cho‘kayotgan bolani qutqarish.

R (rol) – o‘quvchi qutqaruvchilar guruhi a’zosi.

A (maqsadli auditoriya) – suzish-cho‘milish havzasi.

S (vaziyat) – suzishni endi o‘rganayotgan va ehtiyotsizlik oqibatida cho‘kayotgan bola.

P (mahsulot) – cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha batafsil, aniq va to‘liq qo‘llab-quvvatlanadigan tavsiyalarni o‘z ichiga olgan harakatlar rejasi.

S (muvaffaqiyat mezonlari) - cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq standartlar va mezonlar.

Esda saqlang: Vazifalarni ishlab chiqishda real muammolardan foydalaning. Demak, siz GRASPS vazifalarini yaratishda:

G- Vazifa bayonnomasini taqdim eting. Vazifada maqsad, muammo, qiyinchilik yoki to‘siqlarni aniq belgilang.

R- O‘quvchilarning vazifani bajarishdagi rolini aniqlang. O‘quvchilarga topshiriqdagi aniq vazifasi va amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishini ayting.

A- Ssenariy kontekstida maqsadli auditoriyani aniqlang. Masalan, auditoriya mijoz, qo‘mita yoki guruhni o‘z ichiga olishi mumkin.

S- Ssenariy kontekstini bayon eting. Vaziyatni tushuntiring.

P- O‘quvchilar nimani va nima uchun yaratishini aniqlang.

S- O‘quvchilarga muvaffaqiyat haqida aniq tasavvur bering. Muvaffaqiyatga olib boruvchi maxsus standartlarni aniqlang.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

GRASPS modelidan biologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish tavsiya etiladi. Odam va uning salomatligi fani mavzulari doirasida birinchi yordam ko‘rsatish mashqlarida quyidagicha GRASPS vazifalarini yaratish mumkin.

Tayanch-harakatlanish sistemasi shikastlanganda birinchi yordam berish

G- Jismoniy tarbiya darsida e’tiborsizlik orqasidan Botirning muskul va paylari ezilishi, cho‘zilishi ro‘y berdi. Sinfdoshingizga birinchi yordam ko‘rsating.

R- O‘quvchilarning vazifani bajarishdagi rolini aniqlang. O‘quvchilarga topshiriqdagi aniq vazifasi va amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishini ayting.

A- Ssenariy kontekstida maqsadli auditoriyani aniqlang. Masalan, auditoriya mijoz, qo‘mita yoki guruhni o‘z ichiga olishi mumkin.

S- Ssenariy kontekstini bayon eting. Vaziyatni tushuntiring.

P- O‘quvchilar nimani va nima uchun yaratishini aniqlang.

S- O‘quvchilarga muvaffaqiyat haqida aniq tasavvur bering. Muvaffaqiyatga olib boruvchi maxsus standartlarni aniqlang.

Avtohalokatda qon yo‘qotgan kishiga donorlik qilish yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sintetik yelim o‘rniga uy sharoitida sun’iy yelim tayyorlab berish bo‘yicha haqiqiy ishlash vazifalarini GRASPS modeli asosida tushuntiring.

Amaliy mashg‘ulot.

Mashg‘ulot uchun ko‘rsatmalar:

• Har biri 4-6 a’zodan iborat kichik guruhlar hosil qiling.

• 5 ta fan sohalaridan biridan GRASPS ishlash vazifasini tanlang.

• Guruh rahbari, yozib turuvchi, vaqt nazoratchisi va savol beruvchi rollarini tayinlang.

• Mahsulot va ishlab chiqqan muvaffaqiyat standartlaringiz bo‘yicha taqdimot tayyorlang va himoya qiling.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitishga yangicha yondashuvni, o‘quvchilarning ushbu fanlardan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunga kelib, o‘quv axborotlari hajmining haddan tashqari ko‘payib ketganligi o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni “o‘qish va o‘rganishga o‘rgatish”ni talab qilyapti. Jadallik bilan o‘zgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko‘rsatish va yashash o‘quvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni o‘zlashtirishni, balki turfa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda. O‘quv jarayoni samaradorligini ko‘rsatuvchi GRASPS modeli va u asosida yaratilayotgan haqiqiy ishlash vazifalari esa aynan o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo‘llashga qaratilgan. Zero bugungi maktablarning o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarni hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni

2. “Fanni o‘qitishda zamonaviy ta’lim yondashuvlari”, o‘quv-uslubiy majmua, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2025-yil

3. B.Aminov “Biologiya” (Odam va uning salomatligi) umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun darslik, 8-sinf, Toshkent, 2019-yil

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030»

Абляева Венера Вахидовна
Преподаватель СамГИИЯ кафедры лексикологии и стилистики английского языка

Современная эпоха характеризуется стремительным развитием цифровых технологий, которые кардинально изменяют все сферы общественной жизни, включая образование. В Республике Узбекистан цифровизация системы образования рассматривается как стратегическое направление государственной политики, определяющее качество человеческого капитала и конкурентоспособность страны на международной арене.

Президент Шавкат Мирзиёев неоднократно подчёркивал, что цифровая трансформация образования является ключевым инструментом построения «нового Узбекистана», где знания и инновации становятся основой устойчивого развития государства [1, 32].

Внедрение цифровых технологий позволяет не только повысить доступность и эффективность обучения, но и создать условия для индивидуализации образовательных траекторий. Развитие искусственного интеллекта (ИИ) открывает новые возможности для анализа учебных данных, оценки результатов и адаптации образовательных программ под потребности обучающихся.

Программа «Цифровой Узбекистан – 2030», утверждённая в 2021 году, стала фундаментом для цифровых преобразований в стране. Она направлена на создание единой национальной цифровой экосистемы, включающей инфраструктурные, кадровые и технологические компоненты. Одним из ключевых направлений этой программы является модернизация образовательной системы.

В документе подчёркивается необходимость создания «интеллектуальной образовательной среды», где взаимодействие между педагогом, учащимся и государственными структурами осуществляется с использованием цифровых инструментов.

Это предполагает переход от традиционной модели обучения к гибридной, включающей онлайн-курсы, интерактивные платформы, виртуальные лаборатории и дистанционные формы оценки знаний.

По данным Министерства цифровых технологий, к 2025 году 96 % школ и колледжей Узбекистана будут подключены к высокоскоростному интернету [2, 17]. Это создаёт основу для внедрения систем электронного обучения, онлайн-тестирования и управления учебным процессом через облачные решения.

Кроме того, Министерство высшего образования, науки и инноваций активно продвигает идею интеграции всех образовательных учреждений страны в единую цифровую сеть, что позволит обеспечить преемственность программ и прозрачность образовательных результатов на всех уровнях.

Под руководством Президента Шавката Мирзиёева цифровизация образования стала частью глобальной стратегии модернизации страны. В своих посланиях народу Узбекистана он подчёркивает, что «цифровая грамотность является не роскошью, а жизненной необходимостью для каждого гражданина» [2, 11].

В рамках президентских инициатив реализованы следующие программы:

-Развитие цифровых компетенций педагогов.

С 2020 года в стране действует государственная программа повышения квалификации педагогов, направленная на освоение цифровых инструментов обучения. По данным Министерства образования, к 2025 году не менее 80 % преподавателей пройдут обучение по курсам цифровой педагогики.

-Создание национальных образовательных платформ.

Внедрены и активно развиваются платформы ZiyoNet, EduMarket, MySchool и Digital Education Portal, предоставляющие возможность дистанционного обучения, обмена материалами и проведения онлайн-экзаменов.

-Внедрение искусственного интеллекта в образовательный процесс.

В пилотных проектах университетов и лицеев Ташкента используются ИИ-системы для адаптации учебных планов, прогнозирования академической успеваемости и выявления индивидуальных потребностей учащихся [3, 22].

-Развитие EdTech-сектора.

Правительство активно поддерживает стартапы в сфере образовательных технологий, предлагая налоговые льготы и гранты. С 2023 года в Ташкенте функционирует EdTech-хаб, объединяющий университеты и IT-компании.

Цифровизация образования требует изменения подходов к преподаванию. Традиционная модель, основанная на передаче знаний от преподавателя к ученику, уступает место интерактивной модели, в которой обучающийся становится активным участником образовательного процесса.

Использование цифровых инструментов позволяет реализовать принципы обучения через исследование и обучения через сотрудничество. Онлайн-платформы предоставляют учащимся возможность взаимодействовать с преподавателями в реальном времени, получать мгновенную обратную связь и осваивать материалы в удобном темпе.

Согласно данным Министерства высшего образования, за последние три года количество образовательных программ, включающих элементы онлайн-обучения, увеличилось почти в три раза [4, 15]. Параллельно идёт разработка национальных стандартов цифровой грамотности, которые станут обязательными для педагогических вузов.

Большое значение придаётся созданию цифрового контента на узбекском языке, включая электронные учебники, симуляторы, виртуальные лаборатории и мультимедийные курсы. Это способствует расширению доступа к знаниям и повышению интереса обучающихся.

К числу очевидных достижений можно отнести:

1. Существенное повышение уровня цифровой инфраструктуры в школах и вузах.
2. Создание национальных платформ для дистанционного и смешанного обучения.

3. Активное развитие ИТ-компетенций у педагогов и студентов.

4. Расширение международного сотрудничества в области EdTech (в частности, с UNESCO и OECD).

Однако цифровая трансформация сопровождается и рядом проблем:

-неравномерность цифрового развития регионов;

-нехватка квалифицированных IT-специалистов в системе образования;

-ограниченные возможности по адаптации учебных программ под новые технологии;

-необходимость защиты персональных данных учащихся.

Решение этих проблем требует системного подхода, включающего инвестиции в инфраструктуру, кадровую подготовку и разработку единой нормативно-правовой базы цифрового образования.

Перспективы цифровизации образования в Узбекистане связаны с дальнейшей интеграцией технологий искусственного интеллекта, больших данных и облачных сервисов в учебный процесс.

В ближайшие годы ожидается развитие адаптивных систем обучения, которые будут анализировать прогресс учащихся и подбирать индивидуальные траектории.

Важным направлением станет развитие межведомственного взаимодействия между образовательными учреждениями, IT-компаниями и государственными структурами. Это позволит объединить ресурсы и ускорить создание национальной образовательной цифровой экосистемы.

Кроме того, особое внимание планируется уделить инклюзивности цифрового образования, чтобы каждый гражданин, независимо от места проживания, имел равные возможности для обучения и профессионального роста.

Цифровизация образования в Узбекистане является не только технологическим, но и социально-культурным процессом, отражающим стремление страны к модернизации и инновациям.

Благодаря инициативам Президента Ш.М. Мирзиёева и реализации программы «Цифровой Узбекистан – 2030», формируется современная образовательная экосистема, ориентированная на развитие человеческого капитала.

Цифровое образование открывает новые горизонты для преподавателей, учащихся и исследователей, создавая условия для формирования поколения, способного уверенно жить и работать в мире цифровых технологий.

Список литературы

1. Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. Программа «Цифровой Узбекистан – 2030». — Ташкент, 2021.

2. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития нового Узбекистана. — Ташкент, 2023.

3. UNESCO. Digital Education in Central Asia. — Paris, 2024.

4. OECD. Artificial Intelligence and Education: Challenges and Opportunities. — Paris, 2022.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAKTABGACHA VA UZLUKSIZ TA’LIM INTEGRATSIYASI

Abdurahmonova Latofat Abdusalim qizi,
Osiyo texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini maktabgacha, maktab, professional hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilingan. Asosiy e’tibor maktabgacha ta’lim bosqichida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarning erta yoshdan kognitiv, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga qaratilgan. Tadqiqotda tahliliy, taqqoslash va sotsiologik usullar qo‘llanilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Natijada, ta’lim

tizimining barcha bosqichlari uchun yagona raqamli ekotizimni yaratish, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish hamda sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o‘qitish modellarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, maktabgacha ta’lim, uzviy ta’lim tizimi, raqamli pedagogika, integratsiya, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, raqamli ekotizim.

Аннотация. В статье анализируются роль и возможности цифровых технологий и технологий искусственного интеллекта в развитии интегрированного взаимодействия дошкольных, школьных, профессиональных и высших учебных заведений. Основное внимание уделяется проблеме формирования когнитивных, творческих и коммуникативных навыков детей с раннего возраста посредством внедрения цифровых технологий на этапе дошкольного образования. В исследовании с использованием аналитических, сравнительных и социологических методов выявляются существующие проблемы и пути их решения. В результате обосновывается необходимость создания единой цифровой экосистемы для всех ступеней системы образования, повышения цифровой грамотности педагогов и внедрения персонализированных моделей обучения на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, дошкольное образование, интегрированная система образования, цифровая педагогика, интеграция, персонализированное обучение, цифровая экосистема.

Abstract. This article analyzes the role and potential of digital and artificial intelligence technologies in developing integrated interactions between preschool, school, vocational, and higher education institutions. The focus is on developing children’s cognitive, creative, and communication skills from an early age through the introduction of digital technologies in preschool education. Using analytical, comparative, and sociological methods, the study identifies existing problems and potential solutions. It substantiates the need to create a unified digital ecosystem for all levels of the education system, improve teachers’ digital literacy, and implement personalized learning models based on artificial intelligence.

Keywords: digital technologies, artificial intelligence, preschool education, integrated education system, digital pedagogy, integration, personalized learning, digital ecosystem.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) tizimlari ta’lim sohasining barcha bosqichlarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimini yagona raqamli platforma asosida bog‘lash, o‘quv jarayonlarini individuallashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ta’lim sifatini monitoring qilish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’limda SI texnologiyalaridan foydalanish bolalarning erta rivojlanish bosqichida kognitiv, emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, raqamli tizimlar ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzviy aloqani ta’minlab, o‘qituvchilar, metodistlar va ilmiy tadqiqotchilar o‘rtasida ma’lumot almashinuvini yengillashtiradi.

Metodologiya


Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – raqamli va SI texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni, ularning maktabgacha ta’limga ta’siri o‘rganildi;

Taqqoslash usuli – maktabgacha, maktab, professional va oliy ta’lim o‘rtasidagi hamkorlikning an’anaviy va raqamli modellarini solishtirildi;

Tajriba-tahlil yondashuvi – mavjud platformalar (masalan, “MyEdu”, “Preschool AI”, “Bilimlar.uz”) asosida bolalar rivojlanishini raqamli kuzatuv va baholash tizimlari tahlil qilindi;

Sotsiologik so‘rov – maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari o‘rtasida raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar va ehtiyojlar o‘rganildi.



https://my.edu.uz *yagona ta’lim portali*

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Raqamli integratsiya maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha yagona ma’lumotlar bazasi yaratish imkonini beradi. Bu esa bola rivojlanish dinamikasini uzoq muddatli kuzatish va individual o‘quv yo‘lini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Sun’iy intellekt asosidagi o‘quv ilovalari (masalan, nutqni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash o‘yinlari, avtomatik baholash tizimlari) bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, shaxsiylashtirilgan o‘qitish imkonini beradi.

3. Ta’lim bosqichlari o‘rtasida hamkorlik kuchayadi – oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan AI-modullar maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazilib, metodik qo‘llanmalar yaratiladi.

4. Pedagog malakasini oshirishda raqamli platformalarning ahamiyati ortadi. Onlayn kurslar, sun’iy intellekt yordamida avtomatik tahlil va tavsiyalar tizimi o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashini yengillashtiradi.

Muhokama

Raqamli va SI texnologiyalarining uzviy ta’lim tizimidagi integratsiyasi bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

Bolalarning erta yoshda raqamli savodxonligini oshirish – maktabgacha ta’limda interaktiv o‘yinlar orqali texnologiyaga to‘g‘ri munosabat shakllantiriladi;

Maktab va maktabgacha bosqich o‘rtasidagi uzviylik – bola maktabgacha bosqichda egallagan raqamli ko‘nikmalar maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun zamin yaratadi;

Ilmiy-tadqiqot hamkorligi – oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan AI-modellarni tajriba-sinov tarzida maktabgacha ta’lim muassasalariga joriy etish orqali ilmiy-amaliy bog‘liqlik kuchayadi.

Biroq, ayrim muammolar ham mavjud:

infratuzilma va texnik vositalarning yetishmasligi;

pedagoglarning raqamli ko‘nikmalari pastligi;

axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq xavf omillari.

Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat miqyosida raqamli pedagogika markazlarini tashkil etish, AI-pedagoglar tayyorlash dasturlarini joriy etish va uzluksiz raqamli ta’lim ekotizimini yaratish zarur.

Xulosa

Raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini maktabgacha ta’limdan boshlab joriy etish, butun ta’lim tizimini yagona raqamli ekotizim sifatida shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Kelajakda uzluksiz ta’lim tizimining raqamli integratsiyasi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti uchun intellektual resurslar bazasini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*. Paris, 2023.
3. Tursunov A., Karimova G. “Sun’iy intellekt texnologiyalari va ta’lim tizimi rivoji.” – *Ta’lim texnologiyalari jurnali*, 2024.
4. Ministry of Preschool Education of Uzbekistan. *Digital Transformation in Early Education*, 2023.

SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIM JARAYONIGA TADBIG‘I

Shodiyev Fayzulla Yusupovich dotsent,
Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi,
Telefon:+998(93) 930-85-73
E-mail: fayzulloshyu@gmail.com
Samadova Marjona Muxtor qizi, Axmatqulov Shahzodjon Fayzullo o‘g‘li,
Qo‘ziboyeva Zarina Sanjar qizi –
Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabalari, O‘zbekiston.

Annotatsiya. *Maqolada sun’iy intelekt yordamida ta’lim berish jarayonini takomillashtirish uchun qo‘llanilayotgan texnologiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Keltirilgan ma’lumotlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Sun’iy intellekt, ovozli yordamchi, virtual yordamchi, mashinali o‘qitish, platforma, chat-bot, tizim.*

Аннотация. *В статье представлена информация о технологиях, используемых для совершенствования образовательного процесса с использованием искусственного интеллекта. На основе представленной информации изложены рекомендации по организации образовательного процесса.*

Ключевые слова. *Искусственный интеллект, голосовой помощник, виртуальный помощник, машинное обучение, платформа, чат-бот, система.*

Abstract. *The article provides information about the technologies used to improve the educational process using artificial intelligence. Based on the information provided, guidelines for organizing the educational process are outlined.*

Key words. *Artificial intelligence, voice assistant, virtual assistant, machine learning, platform, chat-bot, system.*

1. Kirish. Sun’iy intellekt (SI) – aqlli mavjudotlarga xos bo‘lgan funksiyalar va vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega intellektual tizimdir. U qandaydir ijodiy qobiliyatlar namoyon bo‘lishi, mulohaza yuritishga moyillik, umumlashtirish, oldindan to‘plangan tajribalar asosida o‘rganish kabilarga tayanadi.

Ta’lim hayotni o‘zgartiradi va unga ta’lim texnologiyalarini joriy etish hisobiga o‘zi ham o‘zgaradi. Ilg‘or texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini osonlashtiradi, balki ularga ilmiy yondashuvchanlikni kuchaytiradi [1]. Bunday ilg‘or texnologiyalardan biri SI hisoblanadi. SI ta’lim jarayonida o‘qituvchi ish faoliyatining bir qismini avtomatlashtirishga yordam beradi. Natijada uning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun yetarlicha vaqt qoldirishga imkon tug‘diradi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. *Bill Geyts* ning ta’kidlashicha, yaqin kelajakda SI amalga oshiradigan eng muhim yutuqlardan biri ta’lim sifati va makammalligini tubdan yaxshilash bo‘ladi.

Microsoft kompaniyasining bashoratlariga koʻra, keyingi 5-10 yil ichida SI ga asoslangan dasturiy ta'minotlarning oʻqitish jarayonlarini tashkil etishi oʻz vaqtida shaxsiy kompyuterlarning keng tarqalishidan ham shiddatliroq boʻladi.

Oʻtkazilayotgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, ta'lim jarayonida SI dan foydalanish uchun quyidagilar zarur:

- Texnik imkoniyatlardan foydalanish, ya'ni katta hajmdagi ma'lumotlarni toʻplash;
- SI modellarini qurishda yuqori malakali mutaxassislarning koʻmaklaridan foydalanish;
- SI yordamida oʻqitishni tashkil etishning metodologik asoslarini ishlab chiqish.

3. Muhokama. Sun'iy intellekt uzoq muddatli investitsiya va texnologiya boʻlib, u bugungi kunda ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda. U oliy ta'lim muassasalari va maktablarda yanada moslashuvchan va chuqur oʻqitish imkoniyatlarini taklif qilmoqda. Ta'limda SI ning samarali qoʻllaniladigan sohasi, oʻrganuvchining qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab oʻquv materialni tashkil etadigan shaxsiylashtirilgan oʻquv jarayonini yoʻlga qoʻyish hisoblanadi. Bunday tizimlar oʻzini aniq va ta'biiy fanlar hamda tibbiyotda [2] juda muvaffaqiyatli koʻrsatmoqda.

"Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education" da intellektual oʻqitish tizimlari asosini tashkil etuvchi uchta uslub koʻrsatilgan:

Bilim sohasi modeli. SI ga oʻrganilayotgan fan (mavzular va ular orasidagi bogʻliqliklar) haqida ma'lumotlar kerak. Fan boʻyicha bilim berish materiallari qanchalik aniq tuzilgan boʻlsa, SI shunchalik samarali ishlaydi. Shuning uchun matematika, fizika, informatika va tibbiyot [3] fanlari SI ni qoʻllash uchun eng mos fanlar hisoblanadi.

Oʻrganuvchi modeli. SI ga oʻrganish uchun bilim kerak, ya'ni uning oldingi yutuqlari, u duch kelgan qiyinchiliklar, uning hissiy holati va jalb qilinganlik darajasi kabi bilimlar.

Pedagogik model. Ushbu model bilan ishlash uchun SI ga samarali oʻqitish yondashuvlari haqida bilim kerak: teskari aloqani ta'minlash, baholash, keyingi kontent boʻyicha tavsiyalar.

Sun'iy intellektni [4] qoʻllash hisobiga raqamli texnologik interfeyslar foydalanuvchiga va har bir talabaning qobiliyatlariga real vaqt rejimida moslashadi. Shaxsiylashtirilgan yondashuv oʻzgaruvchanlikning umumiy ramzi asosida emas, balki aniq bir talabaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'limdagi boʻshliqlarni toʻldirish va materialni mustahkamlash imkonini beradi.

Masalan, "Merlin" ovozli yordamchisi sun'iy intellekt asosida yaratilgan oʻqituvchi uchun raqamli yordamchi sifatida ishlatilishi mumkin. U kerakli taqdimotni taqdim etishga, tasvirlarni tezda topishga, qisqa bilim tekshiruvi uchun vaqtni oʻrnatishga qodir boʻlgan ovozli yordamchidir. "Merlin" oʻqituvchiga vaqtni tejash va muhim vazifalarga e'tibor qaratish koʻrsatmalarini beradi. Shuningdek, oʻqituvchining virtual yordamchilari roʻyxatiga chat-botlar ham kiradi mumkin. Ta'lim oluvchilar uchun doimiy mavjud boʻlgan chat-botlar oʻqituvchi rolini bajarishi mumkin, bu ta'lim oluvchilarga oʻquv materiallarini yetkazish imkoniyatini beradi. Chat-botlar yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlaridagi boʻshliqlarni ham aniqlash mumkin boʻladi.

ALP (Kidaptive) bulut platformasi – har bir oʻquvchining psixometrik profilini yaratishga va oʻquv jarayonini moslashtirishga qodir. Shuningdek, platforma ta'lim oluvchilarning ilm-fanning u yoki bu sohalaridagi qobiliyatlarini bashorat qila oladi.

Knewtone platformasi **–** oliy ta'lim uchun moslashtirilgan oʻqitishni taqdim etadi. Dasturiy ta'minot talabalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va u yoki bu fanlar boʻyicha tegishli vazifalar yordamida oʻqitishdagi boʻshliqlarni toʻldirish uchun sun'iy intellekt hamda mashinali oʻqitishdan foydalanadi.

Eng mashhur chat-bot yordamchilaridan biri IBM sun'iy intellekt tizimi asosidagi virtual yordamchi boʻlgan Jill Watson hisoblanadi. AQShdagi "Informatika va texnologiyalar" instituti professori Georgia talabalarning eng mashhur savollariga tezda javob beradigan SI yordamchini yaratdi. Bu mashinali oʻqitish algoritmi internetdagi 40 mingdan ortiq xabarni oʻrgandi va natijada u talabalarni qiziqtirgan savollar boʻyicha soʻroq oʻtkazdi. Bu vaqtda koʻpchilik talabalar chat-bot bilan muloqot qilayotganligini anglashmagan.

4. Natijalar. Ba'zi Xitoy maktablarida oʻquvchilar bilimini baholash uchun sun'iy intellektga asoslangan dasturlar allaqachon joriy etilgan. Keng koʻlamli testlar oʻtkazishda (120

milliondan ortiq kishi ishtirok etgan) virtual “o‘qituvchi” o‘zini to‘liq oqladi. Virtual “o‘qituvchi” 92% hollarda xato qilmaganligi sababli, u o‘qituvchi maqomini oldi.

AQSh ning Berkli Kaliforniya universiteti mutaxassislari tomonidan talabalar bilimini aniqlash uchun ishlab chiqilgan Gradescope loyihasi amalga oshirilgan, unda virtual o‘qituvchi talabalar bilimini 90% dan ortiq aniqlik bilan baholagan.

SI asosida ishlaydigan *“SCHOLAR”* dasturi qo‘llanilganda, tabiiy tilda qayta aloqa qilish bilan individual o‘quv dasturini taqdim etishi, bundan tashqari, ushbu dastur mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha o‘rganuvchilar bilan muloqotni ham qo‘llab-quvvatlashi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu dastur nafaqat intellektual o‘qitish tizimlarining, balki muloqotga asoslangan o‘qitish tizimlarining ham prototipi hisoblanadi.

Watson Tutor nomli dastur. *Pearson* va *IBM* kompaniyalari tomonidan oliy ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan muloqotga asoslangan o‘qitish tizimi sifatida talabalarni u yoki bu o‘qitish mavzusiga chuqur qiziqtirishga yordam beradi. Shuningdek, dastur qo‘shimcha materiallarni taklif qiladi, ya’ni talabalarning javoblarini kuzatib boradi va suhbatni moslashtiradi hamda javoblarga qarab xulosa chiqaradi.

Pittsburg universiteti tomonidan ishlab chiqilgan, neyron tarmoqlar kompleksi asosida talabalar savollariga javob beradigan *“Dialog”* dasturi o‘qituvchining raqamli yordamchisi hisoblanadi.

Yana bir SI texnologiyasi - *Deep Fak* bo‘lib, u mavjudlik effektini modellashtirish uchun o‘qituvchining yuzi tasvirini 3D qo‘g‘irchoq ustiga qo‘yish imkonini beradi.

ChatGPT, Cloud AI, Grok va GeminAI kabi ilg‘or vositalar talabalarga murakkab atamalarni yaxshiroq tushunishga va chuqurlashtirilgan o‘rganish uchun fan sohalarini (fizika, kimyo, iqtisodiyot bo‘yicha) tanlashga, hamda o‘qituvchilarga yozma ish vazifalarini tekshirishda yordam beradi.

2023-yildan boshlab Rossiya maktablarida o‘quvchilar tomonidan yozilgan insholarni SI yordamida tekshirish bo‘yicha loyihaning sinov jarayoni boshlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rus tili va adabiyoti, tarix kabi fanlar bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholash uchun SI ni qo‘llash taxminan 20% gacha o‘qituvchining ish vaqtini tejashga hamda xatolarni aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi.

5. Xulosa. SI algoritmlari barcha modellar ma’lumotlarini qayta ishlay oladi. Qayta ishlash natijalari o‘rganuvchi interfeysida adaptiv o‘quv kontenti (matn, ovoz, video, animatsiya, topshiriqlar) ko‘rinishida taqdim etiladi. O‘rganuvchi kontent bilan o‘zaro aloqada bo‘lishni boshlashi bilanoq, u raqamli iz qoldiradi, bu izlar SI usullari yordamida tahlil qilinadi. Raqamli izni tahlil qilish natijalari teskari aloqa va o‘quv kontentining yangi moslashuvi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayon davomida katta hajmdagi ma’lumotlar to‘planadi, ular tizim tomonidan dinamik optimallashtirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun siklik ravishda ishlatiladi. Ushbu sikl o‘rganuvchining ta’lim olish natijasiga erishguniga qadar davom etadi.

SI tizimlarini ishlab chiqishda ustuvor yondashuv – o‘qituvchili o‘qitish hisoblanib, bunda katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash hamda SI-modelga uzatish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.Shodiyev, N.Haqqulov Smart texnologiyalarning hozirgi kundagi o‘rni. “O‘zbekistonning umidli yoshlari” mavzusidagi Respublika talabalar, magistrantlar, yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy amaliy masofaviy konferensiyasi. Toshkent: «Tadqiqot», 2021-yil, 194-196-betlar.

2. Игнатьев Н. А., Рахимова М. А. Формирование и анализ наборов информативных признаков объектов по парам классов //Искусственный интеллект и принятие решений. – 2021. – №. 4. – С. 18-26.

3. Мадрахимов Ш. Ф., Розыходжаева Г. А. Построение нечётких правил вывода для диагностики нестабильности атеросклеротической бляшки //Врач и информационные технологии. – 2018. – №. 3. – С. 81-88.

4. Игнатьев Н. А., Мадрахимов Ш. Ф. О некоторых способах повышения прозрачности нейронных сетей //Вычислительные технологии. – 2003. – Т. 8. – №. 6. – С. 31-37.

IOT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLANILISHI

Eshboyev Erkin Abdirashidovich
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
Telefon:+998(99) 246-96-90
E-mail: eea17071974@gmail.com
Bobomirzayev Asadbek Alisher o‘g‘li, Axmatqulov Shahzodjon Fayzullo o‘g‘li,
Ikromova Shaxzoda Shuxrat qizi –
Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabalari, O‘zbekiston.

Annotatsiya. *Maqolada IoT(Internet of Things) texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishining afzalliklari keltirilgan. Keltirilgan ma’lumotlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Internet of Things, obyekt, sensorlar, “Aqlli uy”, “Aqlli shahar”, interaktiv ekranlar.*

Аннотация. *В статье представлены преимущества использования технологий Интернета вещей (IoT) в образовательном процессе. На основе представленной информации сформулированы рекомендации по организации образовательного процесса.*

Ключевые слова. *Интернет вещей, объект, датчики, «Умный дом», «Умный город», интерактивные экраны.*

Abstract. *The article presents the advantages of using IoT (Internet of Things) technologies in the educational process. Based on the information provided, guidelines for organizing the educational process are outlined.*

Key words. *Internet of Things, object, sensors, "Smart Home", "Smart City", interactive screens.*

1. Kirish. IoT (Internet of Things) – obyekt (sensorlar, qurilmalar, uy jihozlari, mashinalar va shu kabi)larni global tarmoqqa bog‘lab, ma’lumotlar to‘plash, yuborish va avtomatlashtirish imkonini beruvchi tizimlar majmuasidir. Bundan maqsad real dunyo holatini kuzatish, tahlil qilish va ularga nisbatan fikr bildirish (signal yuborish, aktuatorni boshqarish va hokazo).

Bugungi kunga kelib IoT texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va mutaxassislar IoTning amaliy ilovalarini, tarmoq imkoniyatlarini hamda ulanuvchi qurilmalarni ishlab chiqishni amalga oshirmoqda. IoT asosida “Aqlli uy”, “Aqlli shahar” kabi loyihalar ham rivojlanmoqda. Shuningdek IoT ilovalaridan sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, chakana savdo va boshqa ko‘plab turli sohalarda keng foydalanilmoqda. Yuqoridagilar bilan bir qatorda bu texnalogiyadan ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida foydalanishni amalga oshirish mumkin.

Hozirgi kunda mobil ilova orqali boshqariladigan chiroqlardan tortib, robotlashtirilgan [1] texnologiyalar tomonidan boshqariladigan yuk mashinalargacha bo‘lgan turli xil aqlli qurilmalar mavjud.

IoT shunchaki avtomatlashtirish emas. IoT raqamli algoritmlarni odamlarning xohish va istaklarini amalga oshirish uchun tadbiq qilish imkoniyatini beradigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. IoT tizimi turli manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanib, odamlar va ularning ehtiyojlari haqida bilimlar to‘playdi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. IoT texnalogiyasining rivojlanishi “Aqlli ta’lim”ga o‘tish va IoTni ta’limga joriy etish vaqti kelganligini bildirmoqda. Ta’limda IoTni qo‘llash orqali bu sohada ko‘plab yutuqlarga erishish mumkin. Mobil texnologiyalar va IoTning rivojlanishi maktablarga o‘z hududining xavfsizligini oshirish, asosiy resurslarni kuzatish va o‘quv jarayonida ma’lumotlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida mavjud asosiy muammolar sanab o‘tilganda ularning aksariyatini IoT texnologiyalari orqali hal qilish mumkinligini anglash mumkin.

3. Muhokama. *Ta’limga ananaviy yondashuv.* Ta’lim berish jarayonining katta qismi hamon eskicha uslubda qolmoqda. Ta’lim oluvchilar o‘z talabiga ega bo‘lmagan va zamonaviyroq yechimlar bilan almashtirilmagan dasturlardan foydalanishga majbur bo‘lmoqda. Bu shuni

anglatadiki, ta’lim oluvchilar mehnat bozoriga raqobatbardosh bo‘lmagan holatda chiqishmoqda. Chunki ularda hech bir ish beruvchi istamaydigan va muhtoj bo‘lmagan bilimlar mavjud. Shu sababli ularda yangi ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallashdan boshqa chora qolmayabti.

Standartlashtirilgan test sinovlari. Ta’lim oluvchilar bilimini tekshirish ham eskirgan usullar bo‘yicha olib borilmoqda, bu har doim ham haqiqiy vaziyatni to‘g‘ri baholamaydi. Bundan tashqari, test natijasiga o‘qituvchining noxolis yondashuvi, imtihondan yiqilish kabi talabani bezovta qiluvchi emotsional stresslar salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar imtihon oluvchi talabalarining ko‘nikmalarini tekshirishi uchun eng so‘nggi texnologiyalar (Masalan, ta’lim uchun IoT platformasi)dan foydalansa, yuqoridagilarning hech biri sodir bo‘lmaydi.

Zerikarli o‘quv jarayoni. Ta’lim oluvchilar doimo darslar zerikarli ekanligidan, yangi material esa qiziqarli emasligidan shikoyat qilishadi, shuning uchun ularning ta’lim muassasasiga istamay borishi va o‘qishga xohishi kamligi ajablanarli emas.

Mashg‘ulotni tashkil etishning mashaqqatli jarayoni. O‘qituvchilar o‘quv vaqtining kamida uchdan bir qismini o‘quv jarayonini tashkil etishga sarflashadi. Ta’lim oluvchilarga bu jarayon samarasiz bo‘lib tuyuladi.

Ta’lim oluvchilarning faolligi. Dars jarayonida ta’lim oluvchilarning o‘z fikrini jamlashi uchun yordam beruvchi omillarning yetishmasligi. Ya’ni, ularning turli qurilmalarga chalg‘ishi va mavzu materiallaridan zerikishi.

Yuqoridagilarning barchasini maxsus IoT-qurilmalar va uni qo‘llab-quvvatlovchi dasturiy ta’minot [2] yordamida yaxshilash mumkin.

4. Natijalar. Yuqorida sanab o‘tilgani kabi ta’lim tizimida bir qator muammolar mavjud. Ularni innovatsion texnologiyalar [3] yordamida hal qilish usullari bilan quyida batafsil tanishamiz.

Ta’lim muassasasini boshqarishni takomillashtirish. Bizga ma’lumki, maktab yoki universitetni boshqarish ancha murakkab. Barcha hujjatlar bilan ishlash, mablag‘lar harakatini kuzatish va boshqa shunga o‘xshash harakatlar ko‘p vaqt va mehnat talab etadi. Jarayonlarni raqamlashtirish esa bu vazifalarning bir qanchasini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish. Ta’limdagi IoT ilovalari doimiy ravishda turli sensorlar kabi manbalardan ma’lumotlarni yig‘adi va qayta ishlaydi. Natijada bu ma’lumotlar u yoki bu tarzda o‘quv jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi.

Dunyo bo‘ylab ta’lim qamrovi. Ta’limda IoT butun dunyo bo‘ylab qamrovni anglatadi. Aniqroq aytganda, IoT-qurilmalar bilan birgalikda ishlaydigan dasturiy ta’minot dunyoning istalgan nuqtasida mavjud. Shu sababli o‘quv dasturlarini birlashtirish va yagona ta’lim standartlarini yaratish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Qiziqarli o‘qitish formati. IoT o‘quv jarayonini diversifikatsiya qilish, unga o‘yin elementlarini qo‘shish va uni yanada qiziqarliroq qilish uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochadi. Boshqacha qilib aytganda, bu ta’lim oluvchilarni o‘qishdan zavq olishga ilhomlantiradi.

Tashkiliy jarayonni raqamlashtirish. Shuningdek, ta’lim muassasalaridagi IoT-ilovalar darslar davomida ko‘plab tashkiliy tadbirlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Jumladan davomatni yuz tasviri orqali qayd etish, talabalarning bulutli jurnallari, testlarni avtomatik tekshirish, darslarni qiziqarli tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash uchun aqlli kameralar va boshqa shunga o‘xshash yechimlarni joriy etishni nazarda tutadi.

Hissiy bosimlarni yo‘qotish. Ko‘pgina talabalar hissiy bosimdan aziyat chekishadi. IoT texnologiyasi ta’lim oluvchilarni omma oldida tanbeh eshitishdan xalos qilishi mumkin. Bu usulda ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning muloqoti ularning shaxsiy qurilmalari orqali “Sokin xabarlar” rejimida amalga oshiriladi.

Masofali ta’lim. Zamonaviy dunyo bizga hatto uydan chiqmasdan ham normal hayot tarzini olib borish uchun juda ko‘p imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shuningdek ta’lim jarayoni ham bundan mustasno emas! Vebinar formatidagi darslar, onlayn-chatlar, maxsus dasturiy ta’minot yordamida o‘quv materiallari ustida ishlash kabilar IOT imkoniyatlarining bir qismidir.

Individual yondashuv. IoT ta’lim jarayonini induiduvallashtirishga yordam beradi. Maxsus qurilmalar orqali o‘quvchining turli fanlar bo‘yicha yutuqlarini qayd etiladi va shundan so‘ng

dasturiy ta’minot olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi hamda ta’lim oluvchining natijalariga qarab ta’lim dasturini tuzadi.

Yuqorida ta’lim tizimi uchun IoT texnologiyasining qo‘llanishidagi asosiy afzalliklar tasvirlab berildi. Quyida uning tadbiqlariga doir misollar keltiriladi:

Interaktiv ekranlar. O‘qituvchi doskalari va o‘quvchi partalariga o‘rnatilgan maxsus ekran (tachpad)lar o‘qituvchini oddiy doskaga bo‘r bilan biror narsa yozishdek zerikarli va ko‘p vaqt talab qiladigan zaruratdan xalos qiladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘quv topshiriqlariga real vaqt rejimida javob berishini ta’minlaydi [4].

Ovozni matnga o‘girish texnologiyasi. O‘quvchilar yangi materialni o‘rganish jarayonida ta’lim olish jarayonida ma’lumotlarni qayt etish uchun IoT ovozli platformasidan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Ovozli ilova ularning nutqini matnga o‘giradi va raqamli bloknotda saqlaydi.

“Aqlli o‘quv xonalari”. Ta’lim oluvchilar uchun *“Aqlli o‘quv xona”*lari yaratish va shu orqali yuqorida sanab o‘tilgan barcha texnologiyalarni yagona tizimga birlashtirish mumkin. Natijada *“Aqlli o‘quv xona”*lari ta’lim oluvchilarni identifikatsiya qilish, ularning davomati va o‘zlashtirishini qayd etish, interaktiv doskalar, proyektorlar, shaxsiy kompyuterlar kabi qurilmalarni boshqarish va boshqa shunga o‘xshash vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi.

5. Xulosa. IoT ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga foydali bo‘lishi mumkin. U ta’lim oluvchilarga ta’limni shaxsiylashtirish, o‘qituvchilarga darslarni diversifikatsiya qilish, davomat va o‘zlashtirishlarni kuzatishni avtomatlashtirish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan bir qatorda, rahbariyat uchun ta’lim muassasalari binosida sodir bo‘layotgan jarayonlarni: yoritish, isitish, suv, gaz va tok sarflarini nazorat qilish kabi imkoniyatlarni beradi. Bu esa ta’lim muassasalari binosidan foydalanish xarajatlarini kamaytirish va keyingi qarorlarni qabul qilish uchun yig‘ilgan statistik ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Игнатьев Н. А., Згуральская Е. Н., Марковцева М. В. Нелинейные преобразования признаков и поиск закономерностей на данных больных хроническим лимфолейкозом //Информационные технологии и нанотехнологии (ИТНТ-2020). Сборник трудов по материалам VI Международной конференции и молодежной школы (г. Самара, 26-29 мая). – 2020. – №. 4. – С. 123-128.

2. Марахимов А. Р., Худайбергенов К. К., Игнатьев Н. А. Повышение обобщающей способности нейронных сетей и селекция обучающих выборок //Проблемы вычислительной и прикладной математики. – 2020. – №. 2. – С. 99-107.

3. Игнатьев Н. А., Згуральская Е. Н., Марковцева М. В. Поиск скрытых закономерностей, влияющих на общую выживаемость больных, методами интеллектуального анализа данных //Искусственный интеллект и принятие решений. – 2020. – №. 3. – С. 73-80.

4. F.Shodiyev, N.Haqqulov Smart texnologiyalarning hozirgi kundagi o‘rni. “O‘zbekistonning umidli yoshlari” mavzusidagi Respublika talabalar, magistrantlar, yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy amaliy masofaviy konferensiyasi. Toshkent: «Tadqiqot», 2021-yil, 194-196-betlar.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA O‘QUV MATERIALLARINI SAHIFALASH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH.

Maxammadaliyeva Shaxzoda Sherzodbek qizi
Andijon davlat texnika instituti IB va KT fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi
2-bosqich K-03-24 guruh.
Tell: +998500220722
email:@shaxzodamaxammadaliyeva80@gmail.com

Anotatsiya: Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish texnologik innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Sun’iy intellekt (AI) yordamida o‘quv materiallarini sahifalash jarayonini avtomatlashtirish — bu maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun ta’lim resurslarini

qulay, tezkor va mos shaklda taqdim etish imkonini beradigan ilg‘or yechimdir. Ushbu yondashuv o‘qituvchilar va ta’lim tashkilotlariga didaktik materiallarni ko‘rish, eshitish yoki idrok qilish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda avtomatik tarzda qayta ishlash imkonini beradi. Natijada, o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi, ta’lim resurslarining kirish imkoniyati kengayadi va har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlariga mos raqamli muhit yaratiladi. Sun’iy

intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan sahifalash tizimlari inklyuziv ta’limni raqamli rivojlanish bosqichiga olib chiqadi va ta’limda teng imkoniyatlar yaratish tamoyillarini amalda qo‘llashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, o‘quv materiallari, raqamli texnologiyalar, teng imkoniyatlar.

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri

bu - inklyuziv ta’limni rivojlantirishdir. Har bir shaxs, jumladan nogironligi yoki maxsus ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar ham, sifatli ta’lim olish huquqiga ega. Biroq amaliyotda bu imkoniyatlarni teng ta’minlash uchun ta’lim jarayonini texnologik asosda takomillashtirish talab etiladi. Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari bu borada keng imkoniyatlar ochadi. O‘quv materiallarini sahifalash — bu o‘quvchi uchun qulay shaklda bilim resurslarini tartiblash, matn, rasm, jadval va audio-videoni tizimli ravishda joylashtirish jarayonidir. Bu jarayonni AI yordamida avtomatlashtirish o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’limiy muloqotni soddalashtiradi hamda inklyuziv muhitda o‘qish imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash o‘quv jarayonini raqamlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada sun’iy intellekt yordamida o‘quv materiallarini sahifalash jarayonini avtomatlashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Taklif etilayotgan yechim o‘quv materiallarini matn, rasm, jadval va multimedia elementlari bilan uyg‘unlashtirilgan tarzda sahifalashni avtomatik amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qulay raqamli muhitni yaratib, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Maqolada shuningdek, ushbu tizimni startap loyihasi sifatida joriy etishning texnik va iqtisodiy asoslari ham yoritilgan.

Raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini soddalashtirish, moslashtirish va tezlashtirish imkonini bermoqda. O‘quv materiallarini sahifalash jarayonini avtomatlashtirish – bu o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan ma’lumotlarni o‘quvchi uchun qulay, tartibli va chiroyli formatda taqdim etish imkonini beruvchi texnologik yechimdir. An’anaviy sahifalash jarayonida o‘qituvchi matnni o‘zi tartiblaydi, rasm va jadvallarni joylashtiradi, bu esa ko‘p vaqt talab qiladi. Sun’iy intellekt yordamida bu jarayonni avtomatlashtirish esa vaqt va mehnatni tejaydi, ayniqsa maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun mos raqamli sahifalarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - har bir o‘quvchining individual ehtiyojiga mos, moslashuvchan o‘quv muhitini yaratishdir. Bunday sharoitda raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. AI o‘quv materiallarini avtomatik tahlil qiladi, sahifalaydi, audio yoki braille formatlariga o‘tkazadi va turli idrok imkoniyatlariga ega o‘quvchilarga moslashtiradi.AI yordamida sahifalash tizimi matnni sintaktik va semantik jihatdan tahlil qiladi, sarlavhalar, bo‘limlar, jadval va rasmlarni avtomatik aniqlaydi hamda ularni foydalanuvchiga qulay tarzda joylashtiradi. Masalan, ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun tizim matnni avtomatik ovozli formatga o‘tkazadi, eshitishida nuqsoni bo‘lganlar uchun esa subtitrli versiyalarni yaratadi.

Bunda quyidagi texnologik modullar muhim o‘rin tutadi:

- OCR (Optical Character Recognition) - matnni skanerlangan hujjatdan avtomatik ajratib olish;
- NLP (Natural Language Processing) - matn mazmunini tahlil qilish va soddalashtirish;
- TTS (Text-to-Speech) — matnni ovozli shaklga aylantirish;
- Layout Automation — materialning sahifa tuzilishini avtomatik belgilash.
- Ushbu modullar integratsiyasi natijasida o‘quv materiallari o‘quvchining idrok uslubiga mos ravishda taqdim etiladi.

Shuningdek, bunday tizimlar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda adaptiv o‘quv muhitini shakllantiradi. Bu esa ta’lim sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqaradi. Shunga qaramay, AI texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi va dasturiy ta’minotning moslashtirilmaganligi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish zarur:

- O‘qituvchilar uchun AI texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- O‘quv resurslarini ochiq kodli platformalarda yaratish;
- Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashtirilgan AI dasturlarini ishlab chiqish.

Ushbu chora-tadbirlar ta’lim tizimida sun’iy intellektni yanada kengroq va samarali qo‘llash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi roli

Sun’iy intellekt - bu mashinalarga inson tafakkuriga xos funksiyalarni, ya’ni o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va moslashuvchanlikni beruvchi texnologiyalar majmuasidir. AI ta’limda quyidagi yo‘nalishlarda samarali qo‘llanilmoqda:

• O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish;
• Shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish;
• Matnni avtomatik tahlil qilish va baholash;
• Interaktiv o‘quv kontentlarini generatsiya qilish;
• Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashgan raqamli interfeyslar yaratish.

O‘quv materiallarini sahifalash jarayonini avtomatlashtirish zarurati: Sahifalash — bu matn, rasm, jadval, grafik yoki video elementlarni muayyan tartibda joylashtirish jarayonidir. An’anaviy holatda bu ish qo‘lda bajariladi, bu esa katta hajmdagi o‘quv materiallari uchun noqulay. AI yordamida sahifalash esa jarayonni avtomatlashtirib, quyidagi afzalliklarni beradi:

• O‘quv materiallarini avtomatik strukturaga solish;
• Har xil formatdagi ma’lumotlarni yagona sahifaga uyg‘unlashtirish;
• Har bir o‘quvchiga moslashgan tartibda sahifa yaratish;
• Elektron darsliklar va onlayn kurslar uchun mos raqamli formatni yaratish.

Taklif etilayotgan startap yechimi: Ushbu maqolada taklif etilayotgan startap loyihasi — “AI PageMaster” deb nomlanadi. Uning asosiy vazifasi — o‘quv materiallarini sun’iy intellekt yordamida avtomatik sahifalab, interaktiv raqamli darslik shaklida taqdim etish. Tizim quyidagi modullardan iborat:

1. OCR (Optical Character Recognition) – matnni skanerlangan fayldan aniqlaydi;
2. NLP (Natural Language Processing) – matn mazmunini tahlil qiladi va mantiqiy bo‘limlarga ajratadi;
3. Layout AI – sahifalash tartibini va dizayn joylashuvini belgilaydi;
4. TTS (Text-to-Speech) – matnni ovozli shaklga o‘tkazadi;
5. Adaptive Output – o‘quvchi qurilmasi (telefon, planshet, kompyuter) ekraniga mos formatda chiqish yaratadi. AI PageMaster tizimi o‘qituvchi tomonidan yuklangan materialni avtomatik tahlil qilib, sahifalangan, tartibli va o‘qish uchun qulay elektron darslikka aylantiradi. Bundan tashqari, tizim foydalanuvchi uchun tahliliy hisobot, sahifalash samaradorligi va kontent sifati bo‘yicha baho ham taqdim etadi. Loyiha startap sifatida ta’lim muassasalari, onlayn ta’lim platformalari va kutubxonalar uchun mo‘ljallangan.

Natijalar va istiqbollar: Sun’iy intellekt asosida sahifalash tizimini joriy etish o‘quv materiallarini tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonini soddalashtiradi. O‘qituvchilar uchun bu vaqt tejamkorlik, o‘quvchilar uchun esa qulay raqamli interfeysni ta’minlaydi. Kelajakda bu tizimni boshqa ta’lim tarmoqlariga (masalan, oliy ta’lim, onlayn o‘quv kurslari, kutubxona arxivlari) kengaytirish mumkin. Shuningdek, sun’iy intellektni deep learning modellar bilan birlashtirish orqali sahifalash sifatini yanada oshirish rejalashtirilgan.

Xulosa: Sun’iy intellekt asosida o‘quv materiallarini sahifalash texnologiyasi inklyuziv ta’limni raqamli bosqichga olib chiqishning muhim omilidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, o‘qituvchilar ishini yengillashtirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. AI texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun, balki barcha ta’lim oluvchilar uchun samarali o‘qish muhiti yaratadi. Shunday qilib, raqamli inklyuziya va sun’iy intellekt uyg‘unligi ta’limning insonparvarlik tamoyillarini amalda ifodalaydi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv materiallarini sahifalash jarayonini avtomatlashtirish — bu ta’limni raqamli rivojlanish bosqichiga olib chiqadigan muhim texnologik yondashuvdir. AI PageMaster kabi tizimlar nafaqat o‘qituvchilar uchun qulaylik, balki inklyuziv ta’lim uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Mazkur startap g‘oyasi o‘zining texnik asoslari, amaliy foydasi va raqamli innovatsion jihati bilan ta’lim tizimining yangi bosqichini boshlab beradi.

Ilmiy raxbar: p.f.f.d., dotsent Atajonova S.B

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raj, R. et al. (2022). Artificial Intelligence in Education: A Review. Springer.
2. Kim, J. & Park, S. (2023). AI-based Layout Automation for Digital Learning Materials. IEEE Access.
3. Li, T. et al. (2021). Natural Language Processing for Automated Educational Content Structuring. ACM Journal.
4. Brown, T. (2020). Deep Learning and Adaptive Content Formatting. MIT Press.
5. UNESCO (2024). AI and Inclusive Education Report.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA SUN’IY INTELLEKTNING STRATEGIK AHAMIYATI: AMALIY TAJRIBA VA ILMIY ASOSLAR

O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi
ADPI dotsent v.b.
Usubjonova Durdona Fazliddin qizi
ADPI talabasi +998(91) 494-26-28
durdonausubjonova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta’limni modernizatsiya qilishda sun’iy intellektning strategik roli, amaliy tajribalar va ilmiy asoslar tahlil qilinib, ta’lim jarayonini samarali optimallashtirish yo‘llari yoritildi.

Аннотация: В статье проанализирована стратегическая роль искусственного интеллекта в модернизации непрерывного образования, представлены практический опыт и научные основания, а также рассмотрены пути эффективной оптимизации образовательного процесса.

Abstract: The article analyzes the strategic role of artificial intelligence in the modernization of continuous education, examines practical experiences and scientific foundations, and highlights ways to effectively optimize the educational process.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, Sun’iy intellekt, Modernizatsiya, Ta’lim jarayonini optimallashtirish, Strategik rol, Amaliy tajriba, Ilmiy asoslar

Ключевые слова: Непрерывное образование, Искусственный интеллект, Модернизация, Оптимизация образовательного процесса, Стратегическая роль, Практический опыт, Научные основы

Keywords: Continuous education, Artificial intelligence, Modernization, Optimization of the educational process, Strategic role, Practical experience, Scientific foundations

Kirish: Uzluksiz ta’lim – bu shaxsning hayot davomida bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi jarayon. Zamonaviy jamiyatda, texnologiyalar va ish bozorining tezkor o‘zgarishi sharoitida, uzluksiz ta’lim nafaqat shaxsiy, balki milliy darajada ham iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim omilga aylangan [2. 12-b.]. So‘nggi yillarda

sun’iy intellekt (SI) ta’lim tizimlarida keng qo‘llanilmoqda. SI texnologiyalari o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. [1. 25-b.] Shu orqali ta’lim jarayoni yanada interaktiv, samarali va natijaviy bo‘lib, o‘quvchilarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, SI yordamida uzluksiz ta’limni monitoring qilish, baholash va optimallashtirish jarayonlari sezilarli darajada soddalashadi. Ta’lim jarayonidagi avtomatlashtirilgan tizimlar o‘quvchilarning yutuqlari va qiyinchiliklarini aniqlashda yordam beradi, shuningdek, o‘qituvchilarga pedagogik qarorlar qabul qilishda qo‘llaniladigan ilg‘or vositalarni taqdim etadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada uzluksiz ta’limni modernizatsiya qilishda sun’iy intellektning strategik roli, uning amaliy tajribalari va ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Maqsad – ta’lim jarayonini samarali optimallashtirish yo‘llarini aniqlash va zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim sifatini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili: So‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim va sun’iy intellektni ta’lim jarayonlarida qo‘llash mavzusida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Masalan, Jones va boshq. (2020) sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish va o‘quvchilarning yutuqlarini real vaqtda monitoring qilish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Smith (2019) esa SI texnologiyalarining ta’limda samaradorlikni oshirishdagi strategik rolini o‘rganib, interaktiv o‘quv tizimlarini yaratishda ilg‘or algoritmlardan foydalanish tajribasini taqdim etadi. [3. 34-b.].

Shuningdek, Milliy ta’lim tizimlari bo‘yicha tadqiqotlar SI texnologiyalarining uzluksiz ta’lim jarayonini optimallashtirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Masalan, Li (2021) avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va pedagogik qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar yordamida o‘quv jarayonini soddalashtirish mumkinligini isbotlaydi. Shu bilan birga, o‘zbek olimlari ham uzluksiz ta’limni raqamli transformatsiya qilishda SI texnologiyalarining amaliy jihatlarini tadqiq qilmoqda (Mamatqulov, 2022). Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga integratsiyasi individual o‘qitish, samarali resurs taqsimoti, o‘quvchilarni monitoring qilish va baholash kabi sohalarda strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ilmiy manbalarda SI texnologiyalarining tatbiqi va natijadorligini baholash metodikasi hali ham rivojlanish bosqichida ekanligi qayd etilgan. [4. 57-b].

Metodologiya: Maqolada sun’iy intellektning uzluksiz ta’limdagi rolini tahlil qilish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: Tahliliy metod – mavjud ilmiy adabiyotlar, amaliy tajribalar va ilg‘or tadqiqot natijalari o‘rganildi, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilindi. Taqqoslash va solishtirish metodlari – turli mamlakatlar va ta’lim tizimlarida SI texnologiyalarini qo‘llash tajribasi solishtirildi. [5. 55-b.]. Amaliy misollar va case-study – uzluksiz ta’limda sun’iy intellektning konkret amaliy tadbiqlari ko‘rib chiqildi. Ilmiy asoslash – SI texnologiyalarining samaradorligi va ta’lim jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari statistik ma’lumotlar va ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlandi.

Ushbu metodologiya maqolaga sun’iy intellektning ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishdagi strategik rolini aniq va tizimli tahlil qilish imkonini beradi hamda samarali tavsiyalar ishlab chiqish asosini yaratadi

Muhokama: Adabiyotlar tahlili va amaliy tajribalar ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (SI) uzluksiz ta’lim jarayonini samarali optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi. SI texnologiyalari o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish, o‘quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish va ta’lim resurslarini maqbul taqsimlash imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining sifatini oshirish va o‘quvchilarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarini qo‘llashning asosiy afzalliklari quyidagilar:

Individual yondashuv – o‘quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatlariga moslashtirilgan dasturlar yaratish orqali o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyati.

Monitoring va baholash – avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida o‘quv jarayoni samaradorligini real vaqtda kuzatish va baholash.

Resurslarni samarali taqsimlash – ta’lim resurslari va o‘qituvchilarning mehnatidan optimal foydalanish.

Interaktiv va adaptiv o‘qitish – o‘quvchilarni faollashtirish va motivatsiyani oshirishga yordam beradigan interaktiv platformalar va simulyatsiyalar yaratish.

Shu bilan birga, SI texnologiyalarini qo‘llashda ayrim cheklovlar va muammolar mavjud. Masalan, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning raqamli savodxonligi darajasi, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq xavotirlar.[6. 44-b]. Shu sababli, sun’iy intellektni uzluksiz ta’lim tizimiga integratsiya qilish jarayonida nafaqat texnologik, balki pedagogik va huquqiy jihatlar ham hisobga olinishi lozim.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (SI) uzluksiz ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda strategik rol o‘ynaydi. SI texnologiyalari yordamida ta’lim jarayoni quyidagi jihatlardan samarali optimallashtirilishi mumkin: **O‘quv jarayonining individualizatsiyasi** – har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv dasturlari yaratish mumkinligi aniqlangan. **Monitoring va baholashning samaradorligi** – avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida o‘quvchilar faoliyati real vaqtda kuzatiladi va natijalar tahlil qilinadi, bu o‘qituvchilarga pedagogik qarorlarni tezroq va aniqroq qabul qilish imkonini beradi. [7. 1.1]. **Resurslardan optimal foydalanish** – ta’lim resurslari va o‘qituvchilar mehnati samarali taqsimlanadi, bu esa ta’lim jarayonini iqtisodiy va vaqt jihatdan optimallashtiradi. **Interaktiv va adaptiv o‘qitish imkoniyatlari** – SI texnologiyalari yordamida o‘quvchilarni motivatsiya qiluvchi va faollikni oshiruvchi interaktiv platformalar va adaptiv mashqlar yaratish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, SI texnologiyalarining uzluksiz ta’lim jarayoniga integratsiyasi nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki ta’lim sifatini yaxshilashga va o‘quvchilarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlashga yordam beradi. [8. 11-b]. Shu bilan birga, texnologik, pedagogik va huquqiy jihatlarni hisobga olgan holda SI tizimlarini tatbiq etish zarurligi ta’kidlandi.

Natijalar shuni isbotlaydiki, sun’iy intellektni uzluksiz ta’lim jarayoniga integratsiya qilish – ta’limni modernizatsiya qilish va optimallashtirishning samarali strategiyasi hisoblanadi.

Xulosa

Uzluksiz ta’limni modernizatsiya qilishda sun’iy intellektning roli katta ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayoni o‘quvchilar uchun yanada shaxsiylashtirilgan bo‘lib, ularni individual ehtiyojlariga moslashtirish mumkin.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan monitoring va baholash tizimlari o‘quv jarayonini yaxshiroq kuzatishga va ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt yordamida ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va interaktiv mashqlar yaratish ham mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, sun’iy intellektni qo‘llashda texnologik va huquqiy jihatlarni ham hisobga olish zarur. Umuman olganda, sun’iy intellekt uzluksiz ta’limni yaxshilash va modernizatsiya qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jones, A., Smith, B., & Taylor, C. (2020). *Artificial Intelligence in Continuous Education: Individualized Learning and Real-Time Monitoring*. Journal of Educational Technology, 15(2), 45–60.
2. Smith, J. (2019). *The Strategic Role of AI in Modernizing Education Systems*. International Review of Education, 65(4), 301–318.
3. Li, W. (2021). *Automated Assessment and AI-Supported Pedagogical Decision Making*. Computers & Education, 168, 104207.
4. Mamatqulov, O. (2022). *Raqamli Ta’lim va Sun’iy Intellekt: O‘zbekistonda Amaliy Tajribalar*. Toshkent: Ilmiy Nashrlar.
5. Brown, T., & Wilson, R. (2018). *Adaptive Learning Systems and AI in Lifelong Learning*. Educational Technology Research and Development, 66(3), 589–608.
6. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 4th Edition. Pearson.
7. Kumar, R., & Sharma, P. (2020). *AI in Education: Opportunities and Challenges*. International Journal of Educational Technology, 12(1), 12–28.

8. UNESCO. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*. Paris: UNESCO Publishing.

O‘QUVCHILARNING INTERNET VA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI.

Sodiqov Hamid Maxmudovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

Barchamizga ma’lumki yoshlar tarbiyasi va ularni ilmli, omilkor farzand sifatida kamolga yetkazish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozırda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida uzoq gapirish shart emas, chunki ularning natijasini barchamiz ko‘rib turibdi. Lekin, bugun yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta’sir etayotgan holatlar ham bor va bu borada ayrim mulohazalarni aytish o‘rinlidir.

Bugungi kunda axborot tayyorlash va tarqatishga hech qanaqangi monelik yo‘q. Har kim turli usulda axborot tayyorlashi va tarqatishlari mumkin. Faqat, axborot tayyorlash va tarqatishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlarimizga ko‘ra, har qanday shaxs inson huquqi va qadr-qimmatiga hurmat bilan qarashga burchli ekanligi doim yodimizda bo‘lmog‘i darkor. Har qanday axborot tarqatuvchi tarqatayotgan ma’lumoti uchun javobgarlikni o‘z bo‘yniga olishi lozim.

Afsuslar bo‘lsinkim, bugun internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan xabarlarning barchasini ham insoniyat uchun ma’lum ma’noda kerakli yoki jamiyat hayoti uchun zarur yoki foydali, deya olmaymiz. Aksincha, ayni paytda internet tarmoqlari orqali ko‘proq xiyonat, fahsh, jaholat haqidagi, hatto mazmunini tilga ham olib bo‘lmaydigan turli shov-shuvli xabarlar, ma’naviyatimizga butkul yot ma’lumotlar tarqatilmoqda. Hatto ayrimlar muomala madaniyatini butkul unutgan holda odob-axloq qoidalariga zid ravishda bir-birini ochiq haqoratlagan xolda chiqishlar qilmoqda-ki, bunga befarq, tomoshabin bo‘lib qarab turib bo‘lmaydi.

Agarda tahlil qilib qaraydigan bo‘lsak, fahsh, zo‘ravonlik yoki ig‘vodan iborat ma’lumotni tarqatayotganlarning maqsadi bitta, u ham bo‘lsa “layk” yig‘ish, o‘quvchisini ko‘paytirish, moddiy manfaat ko‘rish. Tayyorlagan materialining ko‘pchilikka, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta’sir etishi bilan ularning ishi yo‘q. Ular uchun kimningdir shaxsiy fojiasidan foydalanish oddiy holdek bo‘lib ko‘rinmoqda.

Ushbu axborot tarqatuvchilarda, “Bu tayyorlagan materialimdan odamlarga nima naf? Men o‘zi nimani targ‘ib qilayapman? Buni farzandim, ayolim yoki ota-onam ko‘rsa, nima deydi?”, degan o‘y bo‘lganida, qani edi?!...

Darhaqiqat, yoshlarimizning ko‘ngil mulkiga, dunyoqarashiga salbiy jarohat yetkazishning, axborot texnologiyalari orqali tarqatilayotgan milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan turli-tuman hayosizlik, ig‘vo, jaholat, zo‘ravonlik kabi illatlarning singdirilishi va shu yo‘l bilan ularning ongi zaharlanishining oldini olish eng dolzarb masaladir. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali ma’naviyatimizga qilinayotgan tajovuzlardan yoshlarni asrash juda dolzarblashdi.

Yoshlarning tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillardan yana biri internetdan noo‘rin foydalanishdir! Darhaqiqat, internetning imkoniyatlari cheksiz. Agar undan samarali foydalinilsa katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularda xalqaro tarmoq tomonidan taqdim etilayotgan turli axborot oqimidan haqqoniy ma’lumotlarni saralay bilish, to‘g‘ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta’minlash g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan yoshlarni internet saytlarga kirishida axborotdan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish zarur.

Haqiqatdan ham, ta’lim va tarbiya masalasi o‘ta muhim. Ayniqsa, bugun axborot tarqatish chegara bilmas darajaga yetgan bir paytda, biz ushbu masalaga befarq qarasak, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasiga bee’tibor bo‘lsak, ular ma’naviyatida milliy qiyofani asrash choralarini ko‘rmasak, ertaga birgina “bu noto‘g‘ri, bu mumkin emas”, degan tushuntirishlarimiz misqolcha xam

naf bermasligi aniq. Ma’naviy tarbiyaga salbiy ta’sir – bu ertangi kunimizga, millatimiz kelajagiga xiyonat deb baholanmog‘i joiz.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak o‘quvchi yoshlarga internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda ta’lim muassasasida ta’lim arbiya jarayonida har bir pedagog yetarli darajada tushuntirish berib borishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek ushbu masala yuzasidan ota onalari bilan ham xamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali nazoratni kuchaytirish lozim. Yoshlarning axborot vositalaridan va internet tarmoqlaridan ko‘rib borilayotgan va o‘qiyotgan ma’lumotlarini o‘qituvchilar va ota onalar tomonidan tekshirib, kuzatib borilishi hozirgi kundagi eng muhim jixatlardan deb qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 8 sentyabr kuni qabul qilingan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz

2. Безопасность детей в интернете: международный опыт и вызовы для России / Под ред. С. А. Грина. - М.: Центр изучения интернета и общества, Российская экономическая школа, 2012.

3. Yunogogika o‘quv qo‘llanma: G.T.Jumaeva Toshkent “Innovatsiya-ziyo” 359 b

RAQAMLI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TA’LIM MUASSASALARINING UZVIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Muallif: Professor Inomjon G‘ulomovich G‘aniyev,
Jizzax politexnika instituti, O‘zbekiston.
Telefon: +99897-702-74-04. E-mail: shayx.inomjon@gmail.com

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Автор: Профессор Ганиев Иномжон Гуламович Джизакский политехнический институт, Узбекистан. Телефон: +99897-702-74-04. E-mail: shayx.inomjon@gmail.com

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CONTINUITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Author: Professor Inomjon G. Ganiev. Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan. Phone: +99897-702-74-04. E-mail: shayx.inomjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va Sun’iy Intellekt (SI) vositalari yordamida maktabgacha, maktab, professional va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni ta’minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yagona raqamli ekotizim, e-portfolio mexanizmlari va SI-monitoring tizimlari ta’lim bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘quv dasturlari nomuvofiqligi, diagnostika va baholash mezonlari geterogenligi kabi tizimli muammolarni hal etish imkonini beradi. Raqamli integratsiya pedagoglar malakasini oshirish va bitiruvchilar kompetensiyasini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishning eng samarali yo‘li ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Raqamli integratsiya, Sun’iy Intellekt, uzviy hamkorlik, ta’lim ekotizimi, e-portfolio, adaptiv ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы обеспечения преемственности между дошкольными, школьными, профессиональными и высшими учебными заведениями с использованием цифровых технологий и инструментов Искусственного Интеллекта (ИИ). Исследования показывают, что единая цифровая экосистема, механизмы электронного портфолио и системы ИИ-мониторинга позволяют решить системные проблемы, такие как несоответствие учебных программ и гетерогенность

критериев оценки. Обосновано, что цифровая интеграция является наиболее эффективным способом повышения квалификации педагогов и доведения компетенций выпускников до уровня международных стандартов.

Ключевые слова: Цифровая интеграция, Искусственный Интеллект, преемственность, образовательная экосистема, е-портфолио, адаптивное обучение.

Abstract: This article analyzes the mechanisms for ensuring continuity between preschool, school, professional, and higher education institutions through the use of digital technologies and Artificial Intelligence (AI) tools. The research indicates that a unified digital ecosystem, e-portfolio mechanisms, and AI-monitoring systems can solve systemic problems such as curriculum mismatch and heterogeneity of assessment criteria among different educational stages. It is substantiated that digital integration is the most effective way to enhance teacher qualifications and elevate graduate competencies to the level of international standards.

Key words: Digital integration, Artificial Intelligence, educational continuity, education ecosystem, e-portfolio, adaptive learning.

1.Kirish

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida kuzatilayotgan tub o‘zgarishlar raqamlashtirish, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish hamda ta’lim jarayonlarini innovatsion integratsiya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu transformatsiyaning asosiy maqsadi - ta’lim samaradorligini oshirish va bitiruvchilarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos keladigan raqamli kompetensiyalarini shakllantirishdir.

Maktabgacha ta’limdan to oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlar o‘rtasidagi sistemali va uzviy hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ta’lim tizimi bo‘g‘inlarining uzluksizligi ta’lim sifatining kafolati hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar va SI asosidagi o‘quv modellari ("smart education")ning joriy qilinishi quyidagi fundamental masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O‘quv dasturlarini standartlashtirish va uyg‘unlashtirish.
2. Malaka talablari birligini shakllantirish.
3. Bitiruvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro ta’lim standartlari (masalan, PISA, TIMSS) darajasiga ko‘tarish.

Ushbu maqolaning asosiy predmeti – raqamli va SI texnologiyalari (masalan, adaptiv ta’lim tizimlari, katta hajmli ma’lumotlar tahlili) yordamida turli ta’lim muassasalari uzviyligini ta’minlashning real imkoniyatlari, institutsional mexanizmlari va pedagogik samaradorlik omillarini chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda mazkur texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi natijasida erishiladigan strategik natijalar asoslab beriladi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

2.1. Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy raqamli ta’lim (Digital Education) bo‘yicha rivojlangan davlatlar (masalan, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Estoniya, Kanada) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim bo‘g‘inlari o‘rtasidagi samarali uzviylikni (continuity) va vertikal integratsiyani ta’minlash uchun ma’lum shart-sharoitlar va texnologik yechimlar zarur. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi quyidagi fundamental omillar ajratib ko‘rsatiladi:

-Yagona elektron platformalar va ekosistemalar: Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ma’muriyat) uchun shaffof va uzluksiz ma’lumot almashinuvini ta’minlaydigan, bulutli texnologiyalarga asoslangan yagona Learning Management System (LMS) yoki milliy ta’lim portallarining mavjudligi.

-O‘quv jarayonida sun’iy intellektga (SI) asoslangan monitoring: Adaptiv ta’lim tizimlari (Adaptive Learning Systems) orqali o‘quvchilarning individual yutuqlari va ehtiyojlarini real vaqt rejimida baholash, proaktiv interventions (oldindan aralashuvlar)ni amalga oshirish.

-O‘quvchilar portfoliolari va natijalarining raqamli kuzatuvi (Digital Tracking): Maktabdan OTMga o‘tishda o‘quvchining akademik o‘sish traektoriyasini, yutuqlarini (nanodarajali sertifikatlar, layoqatlar) o‘zida aks ettiruvchi elektron portfolio mexanizmlarining joriy etilishi.

-Onlayn hamkorlik muhitlari (Collaborative Environments): O‘qituvchilar va ma’murlar o‘rtasida o‘quv metodikasini, dasturlarni va eng yaxshi amaliyotlarni almashish uchun tashkil etilgan virtual professional hamjamiyatlar.

-Metodik integratsiya va yagona kompetensiya modeli (Competency Framework): Ta’lim dasturlarini Maktabgacha, Maktab va Oliy ta’lim standartlari o‘rtasida moslashtirish, hamda bitiruvchining asosiy kompetensiyalarini (soft va hard skills) aniqlashning yagona tizimini yaratish.

2.2. Tadqiqot Metodologiyasi

Shuningdek, PISA baholashlarida o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda raqamli va interaktiv vositalar qo‘llanilishi muhim omil sifatida qayd etilgan (OECD, 2023).

2.2. Tadqiqot metodologiyasi

Maqola quyidagi metodlarga asoslanadi:

Pedagogik tajriba-sinov – 7-9-sinf o‘quvchilarida AI asosida masala yechish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy darslar tashkil etildi.

Diagnostik testlar – AI yordamida va an’anaviy darslarda masala yechish natijalari solishtirildi.

Matematik tahlil – o‘quvchilarning xatolarini klassterlash algoritmi orqali tahlil qilish.

Eksperimental model – AI platformalari (ChatGPT, Mathway, GeoGebra AI, Khan Academy Khanmigo) asosida metodika ishlab chiqildi.

Statistik tahlil – tajriba natijalari Student t-kriteriy yordamida solishtirildi.

3. Muhokama

Tadqiqot davomida AI vositalaridan foydalanish matematika masalalarini yechish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlandi. Quyida ishlab chiqilgan metodikaning asosiy bosqichlari yoritiladi.

3.1. Masala yechishni AI yordamida o‘rgatishning umumiy modeli

AI asosida masala yechish quyidagi bosqichlardan tashkil topdi:

Muammoni tushunish Chatbot yoki AI-assistent o‘quvchi masalani qanday tushunganini tekshiradi.

– “Masala nimalarni so‘rayapti?”

– “Qaysi ma’lumotlar berilgan?”

Strategiya tanlash AI algoritmlar orqali mos strategiya taklif qiladi:

– algebraik yechim,

– grafik yechim,

– modellashtirish,

– formuladan foydalanish.

Yechimni bosqichma-bosqich bajarish

O‘quvchi amallarni bajaradi, AI esa har bir bosqichni tekshiradi va xatoni izohlaydi.

Xatolarni avtomatik tahlil qilish

Clustering algoritmi orqali xatolar: “formulani noto‘g‘ri qo‘llash”, “ifodani tahlil qilmaslik”, “arifmetik xato” kabi guruhlarga ajratiladi.

Refleksiya

AI o‘quvchiga quyidagilarni taklif qiladi:

– “Yechimning qaysi bosqichi qiyin bo‘ldi?”

– “Bu masalaga o‘xshash yana qaysi masalalar mavjud?”

3.2. O‘qituvchi faoliyatining o‘zgargan modeli

AI texnologiyalari o‘qituvchining rolini “bilim beruvchi”dan “maslahatchi va tahlilchi”ga o‘zgartiradi:

o‘quvchilarning yechim strategiyalarini AI tahliliy hisobotlaridan foydalanib baholaydi;

AI vositalari asosida differensial topshiriqlar yaratadi;

vaqtning 40% dan ortig‘ini tahlil va yondashuv ishlab chiqishga yo‘naltiradi.

3.3. O‘quvchilarda kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar

Pedagogik tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

murakkab masalalarni yechish tezligi 32% ga oshdi;

xatolar soni 41% ga kamaydi;

mos strategiya tanlash ko‘nikmasi 52% ga yaxshilandi;

o‘quvchilarning matematika faniga qiziqishi aniq sezildi.

Bu natijalar AI yordamida bosqichma-bosqich teskari aloqa o‘quvchi faoliyatini sezilarli darajada faollashtirishini ko‘rsatadi.

4. Natijalar

Tadqiqot quyidagi asosiy natijalarni berdi:

AI asosida masala yechish metodikasi ishlab chiqildi, unga muammoni tushunish, algoritm tanlash, yechimni tekshirish va xatolarni tahlil qilish bosqichlari kiritildi.

AI vositalari o‘quvchilarning mantiqiy va algoritmik fikrlashini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, AI asosidagi o‘quv jarayoni an’anaviy darsga qaraganda samaraliroq bo‘ldi.

O‘quvchilar yechim strategiyalarini mustaqil tanlay olish ko‘nikmasini egalladi.

Matematik masalalarni yechishda AI vositalarining didaktik ahamiyati asoslab berildi.

5. Xulosa

Sun’iy intellekt matematik ta’limda innovatsion didaktik vosita bo‘lib, u o‘quvchilarning masala yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotdan kelib chiqib, AI matematik fikrlashni shakllantirishda quyidagi afzalliklarga ega ekani isbotlandi:

real vaqt rejimidagi teskari aloqa;

xatolarni chuqur tahlil qilish;

individual o‘quv trayektoriyalarini yaratish;

murakkab masalalarni vizualizatsiya qilish;

o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish.

AI texnologiyalarini matematika ta’limiga joriy etish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodika respublikadagi umumta’lim maktablarida keng qo‘llash uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Koedinger, K. R., & Corbett, A. (2015). *Cognitive Tutors: Technology bringing learning science to the classroom*. Cambridge University Press.
2. OECD (2023). *PISA 2022 Results: Mathematics Literacy*. OECD Publishing.
3. U.S. Department of Education (2022). *Artificial Intelligence in K-12 STEM Education*.

RAQAMLI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI TA’LIM BOSQICHLARI UZVIY INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Ortiqova Sabinabonu Dilshod qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi
Oblomurodov Elmurod Begmurod o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti
E-mail: elmurod.oblomurodov@gmail.com

Annotatsiya Maqolada raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘rni, ularning maktabgacha, maktab, professional va oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviy integratsiyani rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhitini yaratish, AI asosida ta’lim monitoringi va o‘quvchilarning individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish jarayonlari O‘zbekiston va xorijiy tajribalar misolida tahliliy yoritilgan.

Аннотация В статье анализируется роль цифровой трансформации и технологий искусственного интеллекта в системе образования Узбекистана, а также их значение в развитии последовательной интеграции между дошкольным, школьным, профессиональным и высшим уровнями образования. Процессы создания цифровой образовательной среды, мониторинга обучения на основе ИИ и формирования индивидуальных образовательных траекторий учащихся рассмотрены аналитически на примере опыта Узбекистана и зарубежных стран.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, uzluksiz ta’lim, ta’lim tizimi integratsiyasi, raqamli kompetensiya, raqamli tahlil, innovatsion texnologiyalar.

Ключевые слова: цифровая трансформация, искусственный интеллект, непрерывное образование, интеграция образовательной системы, цифровая компетентность, цифровой анализ, инновационные технологии.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas. O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida ta’limni modernizatsiya qilish, bilimlarni boshqarish tizimini raqamlashtirish va uzluksiz ta’lim bosqichlari o‘rtasida integratsiyani ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish nafaqat o‘qitish uslublarini yangilaydi, balki **ta’lim jarayonining uzviyligi, ma’lumotlar uzluksizligi va tahliliy boshqaruv imkoniyatlarini** yaratadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalari orqali o‘quvchilarning qobiliyatini aniqlash, individual yondashuv asosida o‘qitish, tahliliy baholash va natijalarni prognozlash imkoniyatlari kengaymoqda.

1. Raqamli transformatsiya ta’lim tizimi uchun yangi paradigma sifatida

Raqamli transformatsiya — bu faqat texnik vositalarni joriy etish emas, balki ta’lim mazmuni, metodikasi va boshqaruvini raqamli tahlil asosida yangilash jarayonidir. Bu jarayonning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. **Raqamli boshqaruv tizimlarini yaratish** — masalan, *Edu.uz* va *My.edu.uz* platformalari orqali o‘quv jarayonini raqamli nazorat qilish.
2. **O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi raqamli muloqot** — onlayn sinflar, LMS (Learning Management System) tizimlari.
3. **Big Data va Learning Analytics** texnologiyalaridan foydalanish — bu o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish va individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil sifatida. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli kundalik (“kundalik.com”) tizimidan 6 milliondan ortiq o‘quvchi va 400 mingdan ziyod o‘qituvchi foydalangan. Ushbu tizim orqali yig‘ilgan ma’lumotlar o‘quvchilarning ishtiroki, faolligi va natijalarini kuzatishda muhim tahliliy baza bo‘lib xizmat qilmoqda.

2. Sun’iy intellekt texnologiyalarining uzviy ta’limdagi roli

Sun’iy intellekt (SI) ta’limda tahlil, prognoz, baholash va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni tashkil etishda markaziy o‘ringa chiqmoqda. SI yordamida **“intellektual ta’lim ekotizimi”** yaratiladi, bunda har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasi raqamli shaklda kuzatiladi.

2.1. AI texnologiyalarining asosiy imkoniyatlari

- **Adaptive learning:** o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va qiziqishlariga mos o‘qitish (masalan, Duolingo, Coursera, Khanmigo AI tizimlari).
- **Predictive analytics:** o‘quv natijalarini oldindan bashorat qilish orqali orqada qolayotgan o‘quvchilarni erta aniqlash.
- **Natural language processing (NLP):** o‘quvchilarning yozma va og‘zaki javoblarini tahlil qilib, baholashda xolislikni oshirish.
- **AI mentor tizimlari:** talabalarga 24/7 yordam beruvchi sun’iy intellektli “raqamli yordamchilar” (masalan, ChatGPT Edu, IBM Watson Tutor).

Xorijiy amaliy tajriba:

- **Janubiy Koreya**da 2024-yildan “AI Teacher Assistant” dasturi joriy qilinib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning psixologik holati va o‘qish sur’atlarini SI orqali baholay boshlagan.
- **Finlyandiya**da “eKoulu” tizimi orqali bola maktabgacha davrdan boshlab oliygohgacha yagona raqamli profilga ega bo‘ladi, bu profil o‘quvchining barcha natijalarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston…tajribasi: Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2024-yildan boshlab “AI Analytics for Education” loyihasi sinov tariqasida ishga tushirilgan bo‘lib, talabalar faoliyatining avtomatik tahlili asosida individual o‘quv rejalari tuzilmoqda. Loyihada “big data” asosida har bir talabaga avtomatik tavsiyalar beriladi.

3. Ta’lim bosqichlari o‘rtasida raqamli integratsiya mexanizmlari

Ta’lim tizimi bosqichlarining uzviyligi — bu bilim va ko‘nikmalarning bir bosqichdan keyingisiga uzviy o‘tishini ta’minlovchi mexanizmdir. Bu mexanizmlarni raqamlashtirish orqali **uzluksiz ta’lim tarmog‘i** yaratiladi.

3.1. Maktabgacha bosqich

Raqamli o‘yinlar va AI asosida yaratilgan ta’lim ilovalari (masalan, “Smart Kids”, “Bilimdon bolajon”) bolalarning kognitiv rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Har bir bolaning rivojlanish ko‘rsatkichlari raqamli ma’lumot sifatida saqlanib, keyinchalik maktab tizimiga uzatiladi.

3.2. Maktab bosqichi

Elektron kundaliklar, raqamli test tizimlari va sun’iy intellekt asosida baholash vositalari o‘quvchilarni tahlil qiladi. Masalan, 2024-yilgi “Digital Education Uzbekistan” loyihasida 200 ta maktabda “AI Performance Analysis” tizimi sinovdan o‘tkazilib, o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi zaif nuqtalar avtomatik aniqlangan.

3.3. Professional ta’lim

Kasb-hunar ta’limida raqamli simulyatorlar, VR-laboratoriyalar va sun’iy intellekt yordamida malaka baholash tizimlari joriy etilmoqda. Misol: Andijon texnikumi “VR mexanika” loyihasini joriy etib, o‘quvchilarga 3D muhitte mexanik jarayonlarni bajarish imkoniyatini yaratgan.

3.4. Oliy ta’lim

Oliy o‘quv yurtlarida AI asosidagi “learning analytics” tizimlari, masofaviy laboratoriyalar va sun’iy intellektli baholash tizimlari keng qo‘llanmoqda. Masalan, TATU, TDIU va TTAda “AI-ta’lim ekotizimi” loyihasi joriy etilgan bo‘lib, talabalar faoliyati va baholari big data asosida tahlil qilinadi.

4. Raqamli va AI integratsiyasi asosida ta’lim hamkorligini rivojlantirish yo‘nalishlari

1. **Yagona raqamli ta’lim bazasini yaratish:** maktabgacha ta’limdan oliygohgacha bo‘lgan barcha o‘quvchilar uchun individual raqamli portfel (Digital Education ID).
2. **Sun’iy intellekt asosida monitoring:** ta’lim sifatini real vaqt rejimida kuzatish, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini baholash.
3. **Raqamli kompetensiyalar markazlari:** har bir viloyatda o‘qituvchilar uchun AI va raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘quv markazlarini tashkil etish.
4. **AR/VR texnologiyalarni keng joriy etish:** tabiiy fanlar, muhandislik, tibbiyot kabi yo‘nalishlarda interaktiv raqamli laboratoriyalar yaratish.
5. **Xalqaro integratsiya:** UNESCO, OECD, EdTech Global kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda “AI Education Network”ga qo‘shilish.

5. Kutilayotgan natijalar va ilmiy tahlil

Raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish natijasida:

- ta’lim tizimi bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik mustahkamlanadi;
- o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi oshadi;
- tahliliy boshqaruv asosida ta’lim sifati oshadi;
- o‘qituvchilar uchun vaqt tejaladi, individual yondashuv kuchayadi;
- mehnat bozorining talabiga mos kadrlar tayyorlanadi.

2024-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli ta’lim tizimini joriy etgan maktablarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rtacha **18%** ga oshgan, o‘qituvchilar vaqt tejalishi esa **25%**ni tashkil qilgan.

Xulosa.Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uzluksiz ta’lim zanjirini mustahkamlaydi, bilimlarning izchilligini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshiradi. Raqamli tahlilga asoslangan boshqaruv tizimi nafaqat o‘quvchilarning rivojlanishini, balki butun ta’lim tizimining samaradorligini baholashga imkon yaratadi.

Sun’iy intellektni o‘qitish jarayoniga kiritish O‘zbekiston ta’limini global raqamli ta’lim makoniga integratsiyalash imkonini beradi. Eng muhimi, bu jarayon **“inson omili”ni kuchaytiruvchi texnologiya** sifatida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori: *“Sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi (2021–2030)”*.
3. UNESCO (2023). *AI and the Future of Education: Challenges and Opportunities.*
4. OECD (2022). *Artificial Intelligence and Learning Analytics in Education Systems.*
5. World Bank (2024). *Digital Transformation in Education: Central Asia Report.*
6. Karimova D., Xusanov A. (2022). *Raqamli ta’lim va innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.

TALABALARNING INTELLEKTUAL VA IJTIMOIY FAOLLIGINI OShIRIShDA RAQAMLI PLATFORMALARNING O‘RNI

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna
CHDPU Pedagogika fakulteti professori

Аннотация: Мақолада талабаларнинг интеллектуал ривожланиши ва ижтимоий фаоллигини оширишда рақамли таълим платформаларининг ўрни таҳлил қилинган. Google Classroom, Moodle, Coursera, EdX, ZOOM, Microsoft Teams каби рақамли воситалар ёшларнинг билиш фаолиятини рағбатлантирувчи, мулоқот маданиятини ривожлантирувчи ва фуқаролик позициясини шакллантирувчи муҳит сифатида ёритилган. Шу билан бирга, рақамли таълимда учрайдиган муаммолар ва уларнинг ечимлари илмий асосда баён этилган. Мақолада рақамли платформаларнинг педагогик маълумот олаётган талабаларда ижтимоий фаоллик ва интеллектуал қобилиятларни шакллантиришдаги роли тизимли равишда ўрганилган.

Калит сўзлар: рақамли таълим, интеллектуал фаоллик, ижтимоий фаоллик, рақамли платформалар, онлайн таълим, танқидий фикрлаш, ўз-ўзини бошқариш, коммуникатив қобилият, педагогик технологиялар.

Аннотатsія: В статье рассматривается роль цифровых образовательных платформ в развитии интеллектуальной активности и социального участия студентов. Анализируются возможности Google Classroom, Moodle, Coursera, EdX, ZOOM, Microsoft Teams и других инструментов в формировании критического мышления, коммуникативной культуры и гражданской ответственности молодежи. Также приводятся проблемы цифрового образования и пути их решения. Материал раскрывает педагогический потенциал цифровых платформ в подготовке будущих учителей.

Annotation: The article examines the role of digital education platforms in enhancing students’ intellectual development and social engagement. It analyzes the potential of tools such as Google Classroom, Moodle, Coursera, EdX, ZOOM, and Microsoft Teams in fostering critical thinking, communication skills, and civic responsibility. The challenges of digital education and possible solutions are also discussed. The article highlights the pedagogical significance of digital environments in preparing future teachers.

Zamonaviy jamiyat tezkor axborot oqimi, raqamli innovatsiyalar va global muloqot maydonida shakllanar ekan, talabalarning intellektual va ijtimoiy faolligini oshirish ta’lim tizimining ustuvor vazifasiga aylandi. Raqamli platformalar — bu shunchaki texnik vosita emas, balki yosh avlod ongida yangi fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi, ularni ijtimoiy jarayonlarga faol jalb etuvchi tarbiya maskaniga aylanmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo‘lgan ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish bugungi kunda nafaqat an’anaviy ta’lim jarayoni, balki raqamli muhit imkoniyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Zero, insonning intellektual qudrati, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi mamlakat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezondir. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bu zamonda talaba shaxsi o‘z g‘oyalari, bilimlari va iqtidori bilan jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda. Raqamli platformalar ta’limda yangi muhit va yangi madaniyatni shakllantirayotgani bois ular talaba faolligini yanada kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy faol shaxs o‘z fikrini erkin bayon etadi, turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladi, ziddiyatlarni hal qila oladi, muloqot madaniyatiga ega bo‘lib, jamoada faol ishtirok etadi. An’anaviy ta’limda bu ko‘nikmalar asosan o‘qituvchi va jamoa bilan bevosita muloqot orqali shakllangan bo‘lsa, hozirda raqamli platforma bu jarayonni yanada tezkor, ochiq, keng qamrovli qilib bermoqda. Onlayn muhokamalar, virtual uchrashuvlar, forumlar va ijtimoiy ta’limiy tarmoqlar talabaga o‘z fikrini bildirish, yangi g‘oyalar bilan o‘rtoqlashish, jamoa bilan hamkorlikda masalalarni hal etish imkonini bermoqda. Bu esa uning ijtimoiy faolligini ko‘p qirrali va barqaror rivojlantiradi.

Intellektual salohiyatni kuchaytirishda raqamli texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. Talaba internet manbalari, elektron kutubxonalar, raqamli darsliklar, simulyatsiyalar va onlayn laboratoriyalar orqali mustaqil izlanadi, o‘rganadi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi. Ilm olish jarayonida chegaralar yo‘qoladi, har bir yosh o‘z qobiliyatiga mos resurslarni topa oladi. Bu esa uning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, ijodiy tafakkurini ochadi, intellektual kamolotini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli platformalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Masofaviy ta’lim, elektron baholash, onlayn kurslar va raqamli kontentlar talaba shaxsining ijtimoiylashuviga, axloqiy immunitetiga, madaniy saviyasiga musbat ta’sir ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar, ma’naviy tarbiya masalalari ham raqamli muhitda o‘z aksini topmoqda — buning natijasida talaba nafaqat zamonaviy bilimlarga ega bo‘ladi, balki o‘z millati va jamiyati oldidagi mas’uliyatini ham chuqur his etadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvida ta’limning insonparvarlashuvi, demokratlashuvi, differensiatsiyalashuvi va texnologiyalashuvi muhim o‘rin tutganidek, raqamli platformalar bu jarayonlar samarasini yanada oshirmoqda. Chunki ular talaba huquqlarini hurmat qilgan holda bilim olish uchun teng imkoniyat yaratadi, uning iqtidori va qiziqishlariga mos sharoit tayyorlaydi, mustaqil o‘rganishga undaydi. Bularning barchasining markazida esa pedagogning ilmiy va insonparvar faoliyati turibdi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar talabalarning intellektual va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular talaba shaxsida bilimga chanqoqlik, ijtimoiy mas’uliyat, mustaqil fikr, fuqarolik ongi, milliy g‘urur va zamonaviy tafakkurni uyg‘otadi. Ya’ni, raqamli imkoniyatlar va an’anaviy tarbiya uyg‘unlashgan joyda barkamol avlod shakllanadi — kelajak poydevori ana shunday mustahkam bo‘ladi.

Mazkur jarayonda shaxsning o‘z qobiliyati va ichki imkoniyatlarini anglay bilishi, intellektual va axloqiy salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga intiluvchan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayoni shaxsning qiziqishlari, hayotiy ehtiyojlari va intilishlarini inobatga olgan holda tashkil etilsa, uning yangi jamiyatda fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ijtimoiy faol shaxs sifatida voyaga yetishiga ko‘maklashadi. Bu jarayonda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham muhim o‘rin tutadi, chunki ular talaba ongida milliy qadriyatlar, mas’uliyat tuyg‘usi va jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytiradi.

Ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, har bir inson jamiyatning axloqiy me’yorlariga, ijtimoiy qadriyatlar tizimiga moslashish, ularni anglash va hayotiga tatbiq etish orqali takomil topadi. Bilim olish jarayonida talaba nafaqat shaxsiy rivojni boshdan kechiradi, balki jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, u bilan uyg‘un faoliyat yuritishni o‘rganadi. Uning hayotga bo‘lgan intilishlari, orzu va maqsadlari ham shu jarayon bilan birgalikda shakllanib boradi. Ijtimoiy faol shaxs rivojida talabaning bilimlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, yoshi, jinsi, fiziologik holati, xarakteri va uni o‘rab turgan muhitning ta’siri beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababli o‘quv jarayonida talabalarning layoqatlari va individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’limning turli shakl va usullarini qo‘llash, individual va guruh mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq yo‘lga qo‘yish, ularda bilim va malakalarning bosqichma-bosqich rivojlanishiga sharoit yaratish talab etiladi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning asosiy talablaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki pedagogik texnologiya nazariy g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishning eng qulay, samarali va ishonchli vositasi bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish bilan birga talaba shaxsining ijtimoiy faollik darajasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim jarayonida shaxsni rivojlantirish qonuniyatlariga tayanilgan holda eng maqbul metodlarni tanlash, ularni to‘g‘ri qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, intellektual salohiyatni yuzaga chiqarishga qaratilgan sharoitlarning mavjudligi jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan aql-zakovat va ijodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi. Ilm-fan va innovatsion texnologiyalar esa ijtimoiy faol shaxsni tayyorlashning poydevori sifatida jamiyat barqaror rivojlanishining asosini ta’minlaydi.

Shaxsning ijtimoiy faolligini rivojlantirish faqat fan asoslarini o‘rganish bilan cheklanmay, balki aqliy faoliyatning maqsadga muvofiq usullarini egallashni ham talab etadi. Aqliy faoliyat bilimlarni qiyoslash, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish va turli vaziyatlarda amalda qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon orqali talaba faoliyatning samarali usullarini o‘zlashtiradi, turli sharoitlarda faoliyatni mustaqil tashkil etish malakasini shakllantiradi. Ijtimoiy faol shaxs tayyorlashda uning mustaqil fikrlashi, vaziyatlarga munosabat bildirishi va nuqtai nazarini asoslay olishi katta ahamiyatga ega. Shu bois ta’lim jarayonida talabalarni fikrlashga, mushohada qilishga, ma’lumotlarni tahlil etishga o‘rgatish zarur bo‘ladi.

Mediya texnologiyalardan foydalanish talabaga axborotni anglash, saralash, qiyoslash va umumlashtirish imkonini beradi, o‘zlashtirilgan bilimlarni esa hayotiy vaziyatlarda tatbiq etish tajribasini shakllantiradi. Talabalarni oddiy masalalardan murakkab muammolargacha bosqichma-bosqich mustaqil yechim topishga o‘rgatish, topshiriqlarni rejalashtirish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida talaba o‘zi bajargan ish natijalarini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, fikrlar xilma-xillig‘ini qabul qilish va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Samarali fikrlashning maqsadi talabani yangi bilimlar kashfiyotiga yetaklash, ya’ni ijod qilish, yangilik yaratish, muammolarga noan’anaviy yechim topish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Bugungi kunda talaba shaxsini ijtimoiy va intellektual jihatdan yetuk qilib tayyorlash, unda nazariy tushunchalar tizimini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim jarayonining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero, talaba ongida shakllangan mustaqil tafakkur, ijodiy yondashuv va faol fuqarolik pozitsiyasi uning ijtimoiy faolligini mustahkamlaydi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish, avvalo, hayotiy va ta’limiy muammolarni to‘g‘ri hal qilish, egallangan bilimlarni amaliyotda mohirlik bilan qo‘llay olish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, yuzaga keladigan muammolar mohiyatini anglash va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini izlab topib, ulardan foydalana bilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishni talab etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy faollikning samarali usullarini qidirish, yangi g‘oyalarni ilg‘ab olish, ijodiy fikrlash, axborot texnologiyalaridan o‘z vaqtida va savodli foydalanish kabi ko‘nikmalar ham yosh o‘qituvchida shakllanishi zarur.

Ta’lim oluvchilarning ijtimoiy faolligi faqat bilimlar miqdori bilan emas, balki ularning tizimliligi, yaxlit va mazmunli tafakkurni shakllantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ijtimoiy faollikni rivojlantirishda aqliy faoliyat xususiyatlarini hisobga olish, bilish jarayonlarini faollashtirish va tahlil, sintez, qiyoslash kabi faoliyatlarni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Aqliy faoliyat bilish, xotira, yangi g‘oyalarni shakllantirish, ularni ifoda etish va baholash kabi jarayonlarga tayanadi, shu bois ijtimoiy faollikning ichki poydevori sifatida xizmat qiladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabaning intellektual rivoji — uning ijtimoiy faolligini shakllantirish uchun asosiy omildir. Chunki ijtimoiy faollik yakka, guruhli va ommaviy shaklda namoyon bo‘lib, har birida talaba shaxsi kamol topadi. Zamonaviy davr talablariga muvofiq ijtimoiy faollik yangicha yondashuv, yangicha fikr va yangicha munosabatni talab qilmoqda. Bugun ijtimoiy faollik har bir davlat taraqqiyotining ma’naviy tayanchiga aylangani bois, oliy ta’lim muassasalarida bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish ayni vaqtda dolzarb bo‘lib turibdi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning muhim sharti — bilimga yo‘naltirilgan faoliyatni ijodiy asosda tashkil etishdir. Bunda tayyor bilimlarni berib qo‘yish emas, balki talabani o‘qituvchi bilan hamkorlikka yo‘naltirish, uni faol fikrlashga, mustaqil hal etishga, topshiriqlarni rejalashtirish va bajarish jarayonini anglashga o‘rgatish muhim. Bilim olishdagi faollik — shaxsning o‘rganishga intilishi, diqqatni jamlay olishi, irodasini namoyon etishi va o‘z salohiyatini namoyon qilishga qodir bo‘lishini bildiradi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirishda idrok, diqqat, xotira, tafakkur, axloqiy me’yorlarni anglash, yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, hamdardlik, jasurlik kabi insoniy fazilatlar ham katta ahamiyatga ega. Talaba o‘z shaxsiy xususiyatlarini bilishi, hayotiy muammolar mohiyatini tushunishi, kamchiliklarini bartaraf etishga intilishi, o‘z qadr-qimmatini anglashi, bilim va tajribasini kengaytirishi, mustaqil izlanishi uning ijtimoiy yetukligini ta’minlaydi.

Har bir mashg‘ulotda talabalarning faolligini uyg‘otish, ularda ishonch va qiziqish uyg‘otish, individual imkoniyatlarini rivojlantirish, muloqotga kirisha olish qobiliyatini oshirish, axloq va madaniyat darajasini yuksaltirish, olamni ijodiy idrok etishga undash muhim vazifalardandir. Mustaqil izlanish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, natijalarni umumlashtirish kabi bosqichlar talaba shaxsini ijtimoiy jihatdan barkamol etib shakllantiradi.

Ijtimoiy faollik rivojining muhim asoslaridan biri — tilni bilishdir. Chunki muloqot, axborot almashish, o‘quv faoliyatini rejalashtirish va ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatish ayni til orqali amalga oshadi. Inson mantiq, hissiyot va fikr birligi orqali ijtimoiy faollikni namoyon qiladi. Demak, ijtimoiy faollik — insonni haqiqiy inson sifatida yuzaga keltiradigan, uning shaxsiy yetilganlik darajasini belgilaydigan muhim mezondir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonida olgan bilimlarini jamiyat, fan, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar ehtiyojlari bilan bog‘lay olishi, Davlat ta’lim standartlariga muvofiq malakalarini nazorat qila olishi, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayana olishi zarur. Ta’lim jarayonini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va differensiatsiyalash kabi yo‘nalishlar ular uchun asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy faollik shaxsning o‘ziga xosligini belgilaydi, chunki har bir inson o‘z qobiliyati, hayotiy pozitsiyasi va faoliyat usuli bilan boshqalardan farq qiladi. Mana shu jihatdan ijtimoiy faollik insonni jamiyatda munosib o‘rin egallashga yetaklaydi.

Shaxs rivojlanishida ijtimoiy faollikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayoni hisoblanadi. Tarbiya aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, avvalo shaxsni zaruriy bilimlar majmuasi, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, uni hayot va mehnatga tayyorlash, xulq-atvor me’yorlari va qadriyatlariga rioya qilish, odamlar bilan savodli muomala qilish, ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri yo‘l tutib yashashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Bu jarayonlarning barchasi tabiiy ravishda shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy faollik insonga ko‘rsatiladigan ta’sir, uning hayotdagi o‘rni va jamiyatdagi ishtirok darajasi bilan baholanadi. Shu bois tarbiya bilan bir qatorda muhit va irsiyat ham shaxs rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy faol shaxs doimo turli guruhlar bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘lib, jamiyat hayotida ishtirok etadi, odamlar bilan turlicha munosabatlarga kiradi, shu orqali uning aqliy darajasi, qobiliyati, qiziqishlari rivojlanadi, shaxs ijtimoiylashadi va o‘ziga xos xususiyatlari shakllanadi. Tarbiya asosida shaxsning his-tuyg‘ulari, ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari, ishbilarmonligi, vijdoni, insofi, oliyhimmatligi kabi axloqiy fazilatlar qaror topadi.

Tarbiya natijasida shaxs ongli ravishda bilim olishga intiladi, o‘ziga xos ko‘nikma, malaka va mahoratlar kamol topadi. Mehnatga, kasb-hunar egallashga ijodkor mutaxassis sifatida yondashish, fuqarolik mas’uliyatini his etish, zararli odatlar ta’siriga berilmaslik kabi fazilatlar shakllanadi. Ijtimoiy faollik shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, har tomonlama rivojlanish, mehnat tarbiyasi, fuqarolik va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash, axloq masalalarini o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasiga aylantiradi. Bu jarayonda shaxsning dunyoqarashi kengayadi, o‘z nuqtai nazarini ifoda etish, o‘z huquq va imkoniyatlarini anglash, shaxsiy qobiliyat, bilim va ko‘nikmalarini to‘la namoyon etishga intilish qaror topadi. Natijada o‘z-o‘zini anglash, o‘z shaxsini hurmat qilish, o‘z qadr-qimmatini bilish insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatida ham mas’uliyat va hurmat tuyg‘usini rivojlantiradi.

Ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishda talaba shaxsining bilim olishga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatini rivojlantirish, ta’lim jarayonida uning faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, har bir talaba shaxsiga individual yondashish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik nazokat, insoniy munosabat, adolatli va talabchan bo‘lish kabi o‘qituvchilik fazilatlari talabalarni aqliy, ma’naviy-axloqiy, hissiy-estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish bilan birga ularning ijodiy imkoniyatlarini ochishga, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy faol shaxs hayot, mehnat, ijtimoiy ijodkorlik, o‘z-o‘zini boshqarish, demokratik tamoyillarni anglash, Vatan va xalq oldidagi burchini his etish asosida jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shadi.

Ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda samarali tashkiliy-pedagogik shakl, metod va vositalarni qo‘llash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim o‘rin tutadi. Tarbiya jarayonida innovatsion metodlarni tatbiq etish esa yanada samarali natija beradi.

Innovatsion metodlar ijtimoiy faol shaxsda voqealarni oldindan ko‘ra bilish, o‘zini real voqelikda to‘g‘ri anglash, kelgusi hayot yo‘lini oqilona belgilash, axloq, e’tiqod, ishonch va qadriyatlar mohiyatini chuqur anglash, turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bugungi global o‘zgarishlar davrida raqamli texnologiyalar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Oliy ta’lim muassasalarida bilim oluvchilarning intellektual fikrlashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, kasbiy yetuklikka tayyorlash jarayonlarida raqamli platformalar tobora muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamlashuv ta’limning ochiqligi, samaradorligi va individuallashuvini ta’minlab, talabalarda zamonaviy dunyoqarashni, raqobatbardosh kompetensiyalarni, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli ta’lim platformalarining imkoniyatlari keng va rang-barang. Google Classroom, Moodle, Coursera, EdX, Zoom, Microsoft Teams kabi vositalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida tezkor aloqa o‘rnatish, o‘quv materiallarini tartibli taqdim etish, masofaviy va mustaqil o‘qishni tashkil etishga imkon beradi. Bu orqali talabalar axborotni izlash, tahlil qilish, taqqoslash, savollar berish, onlayn forum va muhokamalarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday interfaol muhit ularning intellektual faolligini rag‘batlantiradi, bilish jarayonlarini faollashtiradi, fikrlash madaniyatini yuksaltiradi.

Raqamli resurslar talabalarning mustaqil izlanishiga keng yo‘l ochadi. Elektron kutubxonalar, multimedia materiallar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar intellektual rivojlanish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Talaba nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki uni qayta ishlaydi, tahlil qiladi, yangi xulosalar chiqaradi. Bu jarayonlar Blum taksonomiyasida qayd etilgan yuqori darajali kognitiv faollik — tahlil, sintez va baholash bosqichlarini faollashtiradi, bilimni chuqur o‘zlashtirishga olib keladi.

Raqamli platformalar ijtimoiy faollikni oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Onlayn guruh ishlari, virtual muhokamalar, loyihaviy faoliyatda ishtirok etish talabalarning hamkorlikda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish, kelisha olish, vaqtni rejalashtirish, yetakchilik va jamoa a’zosi sifatida harakat qilish kabi ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. ZOOM va Teams orqali amalga oshiriladigan guruh loyihalari talabalar o‘rtasida vazifalarni adolatli taqsimlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, umumiy maqsadga shavq bilan intillash kabi fazilatlarni shakllantiradi. Miro, Padlet, Mentimeter kabi interaktiv platformalar esa talabalarning fikr bildirishi, muloqotda faol ishtirok etishi, boshqalar nuqtai nazarini hurmat qilishini rag‘batlantiradi.

Raqamli muhitda ijtimoiy faollikning yana bir muhim jihati — fuqarolik madaniyati va ijtimoiy tashabbuskorlikni kuchaytirishdir. Talabalar onlayn forumlar, ijtimoiy tarmoqlardagi ta’limiy guruhlar, virtual volontyorlik dasturlari orqali jamiyatdagi dolzarb masalalarga munosabat bildiradilar, tadbir va loyihalarda ishtirok etadilar. Bu esa ularni faol fuqaro sifatida tarbiyalaydi, jamiyatdagi voqea va jarayonlarga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatadi, ma’naviy mas’uliyat tuyg‘usini yanada kuchaytiradi.

Shu tariqa, an’anaviy tarbiya jarayoni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik va innovatsion metodlar, raqamli platformalar bilan uyg‘un holda qo‘llanilganida, shaxsning ijtimoiy faolligi yangi bosqichga ko‘tariladi. Bunday sharoitda shakllangan bo‘lajak o‘qituvchi, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, nafaqat o‘quvchilarga bilim beradi, balki ularda ham ijtimoiy faollik, mustaqil fikr, axloqiy barkamollik va raqamli savodxonlikni shakllantiradi. Shu bois ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash — bu jamiyatning ertasiga qo‘yilgan mas’uliyatli investitsiyadir.

Shu bilan birga, raqamli platformalardan foydalanish ta’lim jarayonida bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi. Internet tarmog‘ining barcha hududlarda bir xil sifatda emasligi, axborot ortiqchaligi sababli keraksiz ma’lumotlarning talaba diqqatini chalg‘itishi, onlayn o‘qish paytida o‘z-o‘zini nazorat qilishning murakkabligi, talabalarning faol izlanuvchi sub’ektdan passiv iste’molchiga aylanib qolish ehtimoli shu muammolar qatoriga kiradi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun raqamli gigiena madaniyatini shakllantirish, axborotni saralash va uni tanqidiy

tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, onlayn faollikni rag‘batlantiruvchi metod va texnologiyalarni qo‘llash muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar ta’lim jarayonida intellektual va ijtimoiy faollikni oshirishning eng samarali vositalaridan biriga aylandi. Ular talabalarning mustaqil o‘qishini, ijodiy fikrlashini, zamonaviy muammolarni anglashini, jamoa bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli ta’limdan foydalanishni maqsadli, ilmiy asoslangan va metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati

1. Avazov F. (2021). *Raqamli ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Bakiyev M. (2020). *Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Ergasheva, D. (2022). “Talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari”. *Pedagogika va psixologiya*, №3, 45–53.
4. Karimov K. (2021). *Raqamli pedagogika asoslari*. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.
5. To‘xtayeva, M. (2020). “Raqamli muhitda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish”. *Uzbek Journal of Education*, №5, 112–118.
6. Jalolov J. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent.
7. Abdurahmonov, Q., & Xolmatova, N. (2020). *Oliy ta’limda raqamli madaniyatni rivojlantirish*. TDIU ilmiy nashriyoti.
8. Raxmanova M. (2023). “Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari”. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, №4, 55–62.
9. Raxmanova M. (2024). “Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda raqamli ta’limning o‘rni”. *Pedagogik ta’lim masalalari*, №2, 34–40.
10. Raxmanova M. (2022). *Oliy ta’limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi*. Toshkent: Ilm Ziyo.
11. Raxmanova M. (2023). “Boshlang‘ich ta’limda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari”. *Boshlang‘ich ta’lim jurnali*, №6, 41–48.

SUN’IY INTELLEKTDAN TA’LIMDA FOYDALANISH: IMKONIYAT VA CHEKLOVLAR.

Murtozayeva Sabina Sirojiddinovna
Student of CSPU
Email; murtozayevasabina@gmail.com
Scientific advisor: Ruzmetova Diana
Act. assoc. prof (PhD) of Chirchik Pedagogical University

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri, ularning imkoniyatlari va mavjud cheklovlari tahlil qilinadi. Avvalo, sun’iy intellekt asosida yaratilgan o‘quv platformalari, adaptiv ta’lim tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash vositalari va shaxsiylashtirilgan o‘qitish modellari kabi innovatsion yechimlarning afzalliklari va bu sohaga bo‘lgan ayrim cheklovlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari va o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, biz ushbu maqolada sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq xavf va cheklovlar — axborot xavfsizligi, ma’lumotlar maxfiyligi, texnik infratuzilma yetishmovchiligi, algoritmik xatoliklar va pedagogik nazoratning kamayishi kabi muammolarni ham muhokama qilamiz. Maqola sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar hamda metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, ta’lim, motivatsiya, o‘quv platformalari, axborot xavfsizligi, infratuzilma, integratsiya, adaptiv ta’lim, texnologiyalar, ta’lim tizimi.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние технологий искусственного интеллекта (ИИ) на образовательный процесс, а также рассматриваются их возможности и существующие ограничения. Прежде всего, изучаются преимущества инновационных решений, таких как обучающие платформы на основе ИИ, адаптивные системы обучения, автоматизированные средства оценивания и модели персонализированного обучения, а также некоторые ограничения в данной сфере. Исследования показывают, что эти технологии играют важную роль в повышении мотивации учащихся, развитии навыков самостоятельного обучения и повышении эффективности учебного процесса. Наряду с этим в статье обсуждаются риски и ограничения, связанные с использованием искусственного интеллекта, включая вопросы информационной безопасности, конфиденциальности данных, недостаточность технической инфраструктуры, алгоритмические ошибки и снижение педагогического контроля. Статья также содержит необходимые условия и методические рекомендации для эффективной интеграции технологий ИИ в систему образования.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, образование, мотивация, обучающие платформы, информационная безопасность, инфраструктура, интеграция, адаптивное обучение, технологии, образовательная система.

Abstract. This article analyzes the impact of artificial intelligence (AI) technologies on the educational process, as well as their potential and existing limitations. It first examines the advantages of innovative solutions such as AI-based learning platforms, adaptive learning systems, automated assessment tools, and personalized learning models, along with certain limitations in this field. Research shows that these technologies play a significant role in enhancing student motivation, developing independent learning skills, and improving teaching effectiveness. At the same time, the article discusses the risks and limitations associated with the use of AI, including issues of information security, data privacy, insufficient technical infrastructure, algorithmic errors, and reduced pedagogical control. The article also outlines the necessary conditions and methodological recommendations for the effective integration of AI technologies into the education system.

Keywords. Artificial intelligence, education, motivation, learning platforms, information security, infrastructure, integration, adaptive learning, technologies, education system.

Bugungi globallashuv davrida deyarli barcha insonlar sun’iy intellekt kabi ko‘plab ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishmoqda. Bu kabi vositalar nafaqat ta’lim balki oddiy turmush tarzimizda ham muhim ro‘l egallamoqda. Albatta hozirgi kunda bu kabi imkoniyatlarning talabi tobora oshib bormoqda. Ammo bu imkoniyatlar ba’zida salbiy oqibatlarga olib kelmayotganmikan. Biz ushbu maqolada sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishning imkoniyat va cheklovlarini ko‘rib chiqamiz.

Sun’iy intellekt (SI) ta’lim sohasida inqilobiy o‘zgarishlar yaratmoqda. U o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini individuallashtirishdan tortib, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarigacha bo‘lgan keng ko‘lamli imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Sun’iy intellekt asosida o‘qitish texnologiyalari. AI yordamida o‘qitish texnologiyalari adaptiv o‘quv tizimlarini yaratish imkonini beradi. Misol uchun, har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi tahlil qilinadi va unga mos topshiriqlar taklif etiladi. Bu jarayon “learning analytics” va “adaptive learning” tamoyillariga asoslanadi. Sun’iy intellekt o‘quv jarayonini kuzatadi, o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va xatolarini tahlil qiladi. Shunga asoslanib, tizim har bir o‘quvchiga individal – ya’ni moslashtirilgan (adaptiv) o‘quv yo‘nalishini shakllantiradi. Bunday tizimlar “adaptiv o‘quv tizimlari” (adaptive learning systems) deyiladi. AI yordamida o‘qituvchi faoliyatini avtomatlashtirish AI tizimlari o‘qituvchining kundalik ishlarini yengillashtiradi. Masalan, testlar yaratish, baholash, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish kabi jarayonlar avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Natijada o‘qituvchi ko‘proq pedagogik va ijodiy faoliyatga e’tibor qaratadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kundalik faoliyatini yengillashtirish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va boshqaruvni avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. AI asosidagi tizimlar o‘qituvchilarning ma’muriy, tashkiliy hamda takroriy vazifalarini bajarishda yordam beradi

va ularning asosiy e’tiborini pedagogik, tahliliy hamda ijodiy faoliyatga qaratish imkonini yaratadi. Xususan, sun’iy intellekt vositalari yordamida test topshiriqlari, oraliq va yakuniy baholash jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. Bu jarayon o‘quv dasturining mazmuni, o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga mos tarzda individual topshiriqlarni shakllantirish imkonini beradi. Natijada, baholash jarayoni inson omilidan kamroq ta’sirlanadi va obyektivlik darajasi oshadi.

Bundan tashqari, AI tizimlari o‘quvchilarning faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qiladi, ularning darsdagi faolligini, topshiriqlarni bajarish tezligi va xatoliklarini aniqlaydi. Ushbu tahlil natijalari asosida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatib, o‘qitish metodikasini moslashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, AI tizimlari yordamida yaratilgan analitik modullar o‘qituvchiga o‘quvchilarning umumiy natijalari, kuchli va zaif tomonlari haqida chuqur statistik ma’lumot beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modelini qo‘llash hamda pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Umuman olganda, sun’iy intellekt tizimlarining ta’limdagi joriy etilishi o‘qituvchini almashtirmasdan, balki uning faoliyatini raqamli yordamchi sifatida qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada o‘qituvchi ko‘proq strategik, kreativ va tarbiyaviy vazifalarga e’tibor qaratadi, bu esa o‘qitish jarayonining sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. AI asosida baholash, monitoring va tahlil Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilimlarini doimiy ravishda tahlil qiladi, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatadi. Bu nafaqat baholash jarayonini tezlashtiradi, balki xolislikni ham ta’minlaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida AI joriy etish istiqbollari. O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish istiqbollari yuqori. Kelgusida AI asosida darsliklar yaratish, avtomatik baholash tizimlarini joriy etish, o‘quvchilarning individual rivojlanish xaritalarini shakllantirish rejalashtirilgan. Bu esa mamlakatda ta’lim sifatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ammo bu kabi **intellekttan** foydalanishning bir qancha cheklovlari ham mavjud. Quyida bu kabi cheklovlarning bir qanchasi keltirib o‘tilgan. 1. Empatiya va insoniy muloqotning yetishmasligi AI o‘quvchining kayfiyatini, ruhiy tushkunligini yoki motivatsiyasi pasayganini sezolmaydi.

Misol: O‘quvchi darsda qiynalayotganini yashirsa, AI buni sezmaydi va odatdagi tempda davom etaveradi.

2. Ta’lim sifati ma’lumotlar sifatiga bog‘liq

AI faqat unga yuklangan ma’lumotlarga tayanadi. Agar ma’lumotlar:

noto‘g‘ri, eski, bir tomonlama bo‘lsa — AI ham xato natija beradi.

Misol: AI noto‘g‘ri matematik misolni asos qilib, noto‘g‘ri yechimni qaytarishi mumkin.

3. O‘quvchilarda mustaqil fikrlashning pasayishi

AI har doim javobni tez beradi. Bu esa o‘quvchining:

o‘zi izlanish, muammoni tahlil qilish, kreativ fikrlash ko‘nikmalarining sekin-asta susayishiga olib keladi.

Misol: O‘quvchi insho yozish o‘rniga AI’dan har safar matn oladigan bo‘lsa, yozma nutqi rivojlanmaydi.

4. Texnik muammolar va infratuzilma yetishmasligi

AI ishlashi uchun kuchli:

internet, kompyuter, dasturiy ta’minot kerak. Bu sharoit hamma joyda mavjud emas.

Misol: Qishloq maktablarida internet past bo‘lsa, AI platformalaridan foydalana olmaydi.

5. Maxfiylik, xavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish

AI tizimlari ko‘p shaxsiy ma’lumot to‘playdi. Agar himoya kuchsiz bo‘lsa:

ma’lumotlar tarqalishi, ruxsatsiz foydalanish xavfi mavjud.

Misol: O‘quvchi reytinglari yoki shaxsiy ma’lumotlari uchinchi shaxslarga chiqib ketishi mumkin.

6. Baholash jarayonida adolatsizlik bo‘lishi mumkin

AI avtomatik baholash tizimlari ba’zan kreativ javoblarni yoki standartdan tashqari fikrlarni tushunmaydi.

Misol: Inshoda original fikr bo‘lsa, AI uni noto‘g‘ri deb baholashi mumkin.

7. O‘qituvchilarning texnologiyaga moslasha olmasligi

Ko‘pchilik o‘qituvchilar:

AI dan qanday foydalanishni bilmasligi, texnologiya qo‘llashdan qo‘rqishi natijasida undan to‘liq foydalana olmaydi.

Misol: O‘qituvchi AI yordamida testlar yaratishni bilmasa, tizimdan samarali foydalanmaydi.

8. AI dars mazmunini noto‘g‘ri tushunishi

AI ba’zan kontekstni noto‘g‘ri talqin qiladi:

kinoya, nozik fikr, madaniy ma’no kabi narsalarni to‘g‘ri anglay olmaydi.

Misol: Ingliz tilidagi idiomani so‘zma-so‘z tarjima qilib, noto‘g‘ri ma’no beradi.

9. Xarajatlar

Rivojlangan AI platformalari: litsenziya, texnik xizmat, mutaxassis yollash kabi xarajatlarni talab qiladi.

10. Mualliflik va plagiat muammolari

AI orqali tayyorlangan ishlar:

o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining o‘zi yozganmi, yoki AI yaratganmi ajratish qiyinlashadi.

Misol: O‘quvchi referatni AIda to‘liq yozdirib, topshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘qitish va o‘rganish sifatini oshirish, o‘quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda o‘qituvchilarning mehnatini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adaptiv o‘quv tizimlari, learning analytics va avtomatik monitoring kabi zamonaviy vositalar ta’lim jarayonini yanada samarali va shaxsga yo‘naltirilgan ko‘rinishga keltiradi. Biroq sun’iy intellektning imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, empatiyaning yetishmasligi, ma’lumotlar sifati bilan bog‘liq muammolar, texnik infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, maxfiylik va xavfsizlik masalalari, o‘qituvchilarning texnologiyaga moslashishi kabi masalalar AI’dan foydalanishni murakkablashtiradi. Shuningdek, sun’iy intellektga ortiqcha tayanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvning pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bois ta’lim tizimida sun’iy intellektni to‘laqonli va samarali joriy etish uchun texnik bazani mustahkamlash, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash hamda AI vositalaridan mas’uliyat bilan foydalanish zarur. Sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, aksincha uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi kuchli raqamli yordamchi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, T., & Dron, J. (2014). *Teaching and Learning with Artificial Intelligence Tools.* Educational Technology Publications.
2. Luckin, R. (2018). *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education in the 21st Century.* UCL Institute of Education Press.
3. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Center for Curriculum Redesign.
4. UNESCO. (2021). *AI and Education: Guidance for Policy Makers.* Paris: UNESCO Publishing.
5. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). “Siri, Siri, in My Hand: Who‘s the Fairest in the Land?” *Business Horizons*, 62(1), 15–25.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). *Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi 2023–2030.*
7. Yang, S. & Chen, P. (2020). *Adaptive Learning Systems in Modern Education.* Springer.
8. OECD (2021). *AI in Education: Challenges and Opportunities.* OECD Publishing.

ХАРАКТЕРИСТИКА СОПРОВОЖДЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЭКЗАМЕНА НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ОБЪЕКТИВНОЙ ОЦЕНКИ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РОДИТЕЛЕЙ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ И РАННЕГО ИНЖЕНЕРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ

Шабаева Гузель Фагимовна,
кандидат педагогических наук, доцент, заведующий кафедрой дошкольной педагогики и психологии Института педагогики Башкирского государственного педагогического университета имени М.Акмуллы,
г. Уфа, Россия
Чинаева Зиля Мансуровна, заведующий МАДОУ детский сад № 264 г. Уфа, Россия
Шабаева Авелина Артуровна, студентка 3 курса Направление подготовки «Психолого-педагогическое образование», Профиль подготовки «Психологическое консультирование и медиация в социальной сфере» Факультет психологии
ФГБОУ ВО Башкирский государственный педагогический университет имени М.Акмуллы, *89649549205ava@gmail.com*

Characteristics of support for a professional exam based on artificial intelligence for the objective assessment of the competencies of preschool teachers and parents in financial literacy and early engineering education of children

Аннотация. Настоящее исследование посвящено разработке системы сопровождения профессионального экзамена педагогов дошкольного образования и родителей (законных представителей) с использованием технологий искусственного интеллекта. Целью работы является создание объективной и эффективной платформы для оценки компетенций в области финансовой грамотности и раннего инженерного образования детей. В рамках проекта разрабатываются алгоритмы автоматического анализа результатов, адаптивные тестовые задания, а также системы мониторинга и обратной связи, основанные на искусственном интеллекте. Такой подход обеспечивает высокую точность оценки, минимизирует субъективизм и повышает доступность проверки знаний. Внедрение системы способствует повышению профессиональной компетентности педагогов и информированности родителей, а также способствует развитию у детей начальных навыков в области финансовой грамотности и инженерных основ. Результаты могут стать значимым вкладом в модернизацию системы дошкольного образования и повышения качества воспитания и обучения.

Abstract: This study focuses on the development of a system for supporting the professional examination of preschool teachers and parents (legal representatives) using artificial intelligence technologies. The aim of the work is to create an objective and effective platform for assessing competencies in the field of financial literacy and early engineering education of children. The project involves developing algorithms for automatic analysis of results, adaptive test tasks, and monitoring and feedback systems based on artificial intelligence.

This approach ensures high assessment accuracy, minimizes subjectivity and increases the accessibility of knowledge testing. The implementation of the system helps improve the professional competence of teachers and the awareness of parents, and also helps children develop basic financial literacy and engineering skills.

Ключевые слова: искусственный интеллект, дошкольное образование, подготовка кадров, раннее технологическое образование, инженерное образование, финансовая грамотность, родительское просвещение, профессиональная компетентность.

Key words: artificial intelligence, preschool education, personnel training, early technological education, engineering education, financial literacy, parental education, professional competence.

Введение. Создание и операционное развертывание научно-исследовательской деятельности по проектированию и реализации модели сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования. Модель сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования для разработки, апробации и внедрения в педагогический процесс БГПУ им. М. Акмуллы конкретных AI-решений, обеспечивающих цифровую трансформацию образования через автоматизацию рутинных операций, персонализацию обучения и методическую поддержку ППС. Актуальность проектирования, разработки и реализации модели сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования в ФГБОУ ВО «БГПУ им. М. Акмуллы» обусловлена комплексом стратегических, технологических и операционных вызовов и инновационных решений, стоящих перед системой высшего педагогического образования.

Данное направление проблематики является прямым соответствием государственным приоритетам, закрепленным в Указе Президента Российской Федерации от 26.02.2024 г. № 163, Стратегии научно-технологического развития Российской Федерации (Указ Президента № 143 от 28.02.2024) и перечню важнейших наукоемких технологий (Указ Президента № 529 от 18.06.2024). В частности, тема напрямую отвечает приоритетам:

- «Технологии искусственного интеллекта в сферах экономики, социальной сферы (включая сферу общественной безопасности) и органах публичной власти» (Указ Президента Российской Федерации от 15.02.2024);

- «Укрепление социокультурной идентичности российского общества и повышение уровня его образования» (Указ Президента Российской Федерации от 18.06.2024);

- «Технологии создания, доверенного и защищенного системного и прикладного программного обеспечения, в том числе для управления социальными и экономически значимыми системами» (Указом Президента Российской Федерации от 18 июня 2024 г. № 529 «Об утверждении приоритетных направлений научно-технологического развития Российской Федерации»);

- Технологии сохранения технологического суверенитета России: обеспечение способности страны самостоятельно разрабатывать, производить и контролировать ключевые технологии и инфраструктуру, критически важные для её национальной безопасности и экономической независимости («Стратегия научно-технологического развития Российской Федерации» (Указ Президента Российской Федерации от 28 февраля 2024 года № 145), «Доктрина информационной безопасности Российской Федерации» (Указ Президента РФ от 5 декабря 2016 г. № 646), «Концепция технологического развития Российской Федерации до 2030 года» (Распоряжение Правительства РФ от 20 мая 2023 г. № 1315-р) и др.).

В условиях перехода к информационному обществу и стремительной цифровизации всех сфер жизни существует устойчивый запрос на цифровую трансформацию педагогического университета. Как отмечается в тексте концепции, современное образование требует перехода от дискретного использования цифровых сервисов к их глубокой интеграции в образовательный процесс, что превращает ИИ из модного тренда в повседневный, практичный и надежный инструмент преподавателя и сотрудника. Однако, существующие на рынке решения (адаптивные системы, ЦОС) демонстрируют фрагментарность, ограниченные возможности персонализации и зачастую не учитывают психолого-педагогические особенности обучающихся и специфику педагогического вуза.

Обзор литературы и методология.

Обзор существующих исследований по проблематике:

- **Цифровая трансформация образования и оценка компетенций:** «Разработка модели оценки профессиональных компетенций педагогов на основе цифрового портфолио»;

«Методы формирования и оценки цифровых следов педагога, использование big data для анализа профессионального роста»;

- **Искусственный интеллект в образовании:** «Применение методов машинного обучения для прогнозирования успешности педагогической деятельности»; Алгоритмы для анализа текстов (эссе, планы уроков), распознавания образов (анализ видеоуроков), чат-боты для подготовки к экзаменам;

- **Психометрика и адаптивное тестирование:** «Разработка и апробация адаптивной системы тестирования профессиональных компетенций учителей»; Создание алгоритмов, которые подстраивают сложность и последовательность заданий под уровень испытуемого, что повышает точность оценки;

- **Непосредственно оценка качества дошкольного образования:** «Проектирование диагностического инструментария для оценки профессиональной компетентности педагогов дошкольной образовательной организации (далее, ДОО) в условиях реализации ФГОС ДО, федеральной образовательной программы (далее, ФОП ДО)»; Критерии и показатели качества работы воспитателя, методы наблюдения и анализа деятельности;

- **Компетентностный подход в педагогическом образовании:** «Формирование профессиональных компетенций у будущих педагогов дошкольного образования в условиях вуза»; Модели компетенций, пути их развития, методы их валидной и надежной оценки;

- Исследования в области алгоритмов ИИ, машинное обучение, обработка естественного языка, компьютерное зрение и др. (НИУ ВШЭ (Факультет компьютерных наук, Институт образования); МПГУ (Московский педагогический государственный университет); РГПУ им. А.И. Герцена (Российский государственный педагогический университет в Санкт-Петербурге); МГПУ (Московский городской педагогический университет); ТГУ (Томский государственный университет) и др.

Таким образом, актуальность проекта заключается не в фундаментальном исследовании ИИ как такового, а в прикладном решении проблемы внедрения существующих технологий искусственного интеллекта в образовательный и административный контур педагогического университета по направлению подготовки Педагогическое образование, профиля подготовки «Педагогика и психология дошкольного образования», этики и научно-методического сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования.

3. Обсуждение. Проектирование, разработка и реализация модели сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования позволит системно подойти к цифровой трансформации, обеспечив:

- Технологическую экспертизу: разработку, адаптацию и интеграцию конкретных AI-решений («ИИ-тестировщик», «ИИ-рецензент», «ИИ-секретарь») под нужды БГПУ.

- Методическое сопровождение: разработку нормативной базы и обучение ППС, что снимет ключевые барьеры на пути внедрения.

- Операционализацию исследований: перевод теоретических наработок университета в области цифрового обучения (включая модель интеллектуального помощника, представленную в исходной заявке) в работающие прототипы и пилоты.

Реализация данного проекта позволит БГПУ им. М. Акмуллы не только соответствовать государственным приоритетам, но и закрепиться в роли регионального лидера в области цифровизации педагогического образования, обеспечив передачу успешных практик в систему общего образования. Наличие разработанной и апробированной модели сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования станет катализатором всего процесса и тиражирования на другие специальности, обеспечивая необходимое ресурсное, кадровое и методологическое ядро.

4. Результаты.

1. Разработана и апробирована модель сопровождения профессионального экзамена на основе искусственного интеллекта для объективной оценки компетенций педагогов дошкольного образования в рамках проектирования и апробации опытного образца (прототипа версии 1.0) платформы на основе искусственного интеллекта для обеспечения объективности и стандартизации процедуры демонстрационного экзамена, включая создание основных нормативно-методических документов.

2. Успешно проведен содержательный и критериальный анализ процедуры демонстрационного экзамена для студентов направления подготовки «Педагогическое образование», профиля подготовки «Педагогики и психология дошкольного образования» для последующей алгоритмизации оценивания.

3.Создан действующий прототип (версия 1.0) программной платформы для сопровождения демонстрационного экзамена. Создан функциональный прототип веб-платформы, интегрирующий работу всех модулей и предоставляющий интуитивно понятный интерфейс для пользователя

4. Спроектированы и разработаны четыре взаимосвязанных модуля с применением искусственного интеллекта для анализа профессиональных компетенций: автоматизации процессов контроля знаний («ИИ-тестировщик»), рецензирования учебно-научных работ («ИИ-рецензент») и документооборота («ИИ-секретарь»).

5. Разработаны и верифицированы на исторических данных три модуля с применением искусственного интеллекта, показавшие уровень согласованности с экспертной оценкой не менее 80%.

6. Сформирован и применен на практике валидный и надежный банк тестовых заданий, кейсов по педагогике и психологии дошкольного образования в условиях организации демонстрационного экзамена.

7. Осуществлена первичная апробация прототипа на выборке студентов профиля Педагогика и психология дошкольного образования и провести его корректировку по результатам пилотного испытания.

8. Обеспечена подготовка кадрового состава кафедр Института педагогики ФГБОУ ВО БГПУ им.М.Акмуллы: кафедры дошкольной педагогики и психологии, кафедры педагогики, кафедры педагогики и социального образования для работы с разработанным комплексом. Формирование и обучение ядра преподавателей-инноваторов для активного использования инструментов искусственного интеллекта в профессиональной деятельности и трансляции успешных практик.

9. Апробированы и внедрены разработанные AI-решения в учебный процесс и административную деятельность пилотной кафедры дошкольной педагогики и психологии Института педагогики университета с последующей оценкой эффективности и масштабированием, переноса опыта на другие специальности ВУЗа.

10. Разработан проект нормативных и методических документов, регламентирующих применение системы искусственного интеллекта в образовательном процессе, включая кодекс этики. Подготовлен пакет нормативно-методической документации, включающий:

- Положение об использовании искусственного интеллекта в процедурах итоговой аттестации в форме демонстрационного экзамена (тестирование, решение кейсов, а также сохранение выполнение выпускной квалификационной работы по запросу практики ДОО).
- Методические рекомендации для преподавателей и студентов.
- Методические рекомендации по формированию банка тестовых заданий для пополнения и обновления системы.
- Проект кодекса этики применения искусственного интеллекта в университете.

Данное направление имеет обширное поле для дальнейшего исследования.

Список использованной литературы

1. Шабаева Г.Ф. Технология ранней профессиональной ориентации старших дошкольников в детском саду // Учебно-методическое пособие для воспитателей ДОО, студентов СПО и ВО по направлению подготовки «Педагогическое образование»,

«Психолого-педагогическое образование» профиль «Дошкольное образование» // С.В. Иванова, И.Г. Боронилова, Г.Ф. Шабаева // Под общей редакцией Г.Ф. Шабаевой - Издательство: Мир печати - Уфа, 2023. – 110 с.

2. Шабаева Г.Ф. Разработка и реализация современных технологий раннего развития детей [Текст] / Коллективная монография для воспитателей ДОО, методистов, магистрантов, студентов СПО и ВО по направлению подготовки «Педагогическое образование», «Психолого-педагогическое образование» профиля «Дошкольное образование», (с двумя профилями подготовки), (профиль) Родной (башкирский) язык, литература и дошкольное образование // И.Г. Боронилова, Г.Ф. Шабаева, Н.Ш. Сыртланова // Под общей редакцией Г.Ф. Шабаевой, И.Г. Бороииловой - Издательство: Мир печати - Уфа, 2023. – 211 с. Коллективная монография

ONLAYN TA’LIMNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN SAMARADORLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR TAHLILI

Fatxullayeva Diyora
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 3-guruh talabasi
diyora.tolqinova02@gmail.com +998950300949
Ilmiy Rahbar:Ruzmetova Diana
d.ruzmetova@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonida onlayn o‘qitish formatining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik yoshdagi bolalarning kognitiv xususiyatlari, diqqatni jamlash muammolari, shuningdek, texnik infratuzilmaning ta’lim sifatiga ta’siri o‘rganilgan. Onlayn darslarni "bo‘laklash", gamifikatsiya va interaktiv vizualizatsiyadan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha aniq metodik yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Onlayn ta’lim, Boshlang‘ich sinf, Samaradorlik, Raqamli pedagogika, Gamifikatsiya, Gibrid yondashuv.

Аннотатция: В данной статье проанализирована научно-практическая эффективность формата онлайн-обучения в образовательном процессе учащихся начальных классов. В исследовании изучены когнитивные особенности детей младшего возраста, проблемы концентрации внимания и влияние технической инфраструктуры на качество обучения. Предлагаются конкретные методические решения по повышению эффективности онлайн-уроков с помощью «разделения», геймификации и интерактивной визуализации.

Ключевые слова: Онлайн-обучение, Начальные классы, Эффективность, Цифровая педагогика, Геймификация, Гибридный подход.

Annotation: This article provides a scientific and practical analysis of the effectiveness of the online learning format in the educational process of primary school students. The study explores the cognitive characteristics of young children, challenges with attention span, and the impact of technical infrastructure on educational quality. Specific methodological solutions are proposed to enhance the effectiveness of online lessons through "chunking," gamification, and interactive visualization.

Keywords: Online Education, Primary School, Effectiveness, Digital Pedagogy, Gamification, Hybrid Approach. |

KIRISH

Ta’lim tizimining globallashuvi va raqamli transformatsiyasi sharoitida, ayniqsa 2020-yilda boshlangan pandemiya davri ta’limning uzluksizligini ta’minlashda masofaviy (onlayn) o‘qitish usullarini joriy etishni zarur qildi. Boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar) bolaning kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanadigan asosiy bosqich bo‘lgani sababli, uning onlayn formatga o‘tishi ta’lim samaradorligi borasida jiddiy savollarni yuzaga keltirdi.

Mavzuning dolzarbligi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, ya’ni qisqa muddatli diqqatni jamlash qobiliyati, shaxsiy nazoratning pastligi va texnologik savodxonlik

darajasi, onlayn ta’lim jarayonida o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, ushbu formatning aynan shu yoshdagi o‘quvchilar uchun afzalliklari va cheklovlarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, samaradorlikni oshirishning zamonaviy metodlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini onlayn o‘qitishning samaradorligini tahlil qilish, yuzaga kelayotgan asosiy pedagogik va texnik muammolarni aniqlash hamda xorijiy va mahalliy tajribalar asosida ularni hal etish yo‘llarini taklif qilishdan iborat.

Asosiy vazifalar:

Boshlang‘ich ta’limda onlayn o‘qitishning nazariy asoslari va xorijiy amaliyotini o‘rganish. O‘quvchilarning ehtiyojlari va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda onlayn darslarni tashkil etishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklarni (motivatsiya, diqqatni jamlash, ijtimoiy o‘zaro aloqa) aniqlash. Onlayn ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan interaktiv metodlar, platformalar va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘zaro aloqasining optimal modellarini taklif etish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

2.1. Adabiyotlar tahlili

Onlayn ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar ko‘pincha yuqori sinflar va oliy ta’limga qaratilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich ta’limda masofaviy o‘qitishning samaradorligi haqida bir qancha asarlar yaratilgan.

L.S.Vigotskiyning [1] “ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi”ga ko‘ra, ta’lim jarayoni ijtimoiy o‘zaro aloqa orqali amalga oshadi. An’anaviy sinf sharoitida bu o‘zaro aloqa oson bo‘lsa, onlayn muhitda uni ta’minlash, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun murakkabdir.

Ko‘plab tadqiqotlar [2, 3] shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ekran qarshisida 15-20 daqiqadan ortiq diqqatini jamlay olmaydi. Bu esa onlayn darslarning davomiyligini qisqartirishni va tez-tez interaktiv tanaffuslar kiritishni talab qiladi. Shvetsiya va Finlyandiyadagi tajribalar onlayn ta’limni mustaqil ishlash uchun ishlatish va asosiy tushunchalarni o‘rgatish uchun qisqa video darslardan foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatgan [4].

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ota-onalar ishtirokisiz onlayn ta’limning samaradorligi sezilarli darajada pasayishini ta’kidlaydi [5].

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani yozishda tizimli tahlil, sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda onlayn ta’limning samaradorligini o‘rganishda quyidagilar qo‘llanildi:

Qiyosiy tahlil: An’anaviy va onlayn o‘qitish shakllarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv natijalariga ta’sirini qiyoslash.

Sintez: Xorijiy tajribalarni (masalan, Zoom orqali o‘tkazilgan darslar va LMS tizimlari) umumlashtirish va O‘zbekiston ta’lim sharoitlariga moslashtirish.

Kuzatish: O‘qituvchilarning onlayn darslarni tashkil etishdagi yondashuvlari kuzatilgan (ma’lumotlar ochiq manbalar va mavzuga oid platformalardagi videolar asosida tahlil qilingan).

MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun onlayn ta’limning samaradorligi asosan ikki omilga bog‘liq: ta’lim mazmunini vizualizatsiya qilish darajasi va o‘quvchi-o‘qituvchi o‘zaro aloqasining sifati.

3.1. Asosiy muammolar

Texnik cheklovlar: Aksariyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari oilalarida yetarli texnik ta’minot (tez internet, shaxsiy kompyuter/planshet) va doimiy texnik yordam mavjud emas.

Kognitiv muammolar: 6-10 yoshli bolalar uzoq vaqt bir joyda o‘tirishga, o‘qituvchining yuzini va tana harakatlarini tushunishga qiynaladi. Bu muloqotning 93% nonverbal ekanligini hisobga olsak, muhim kamchilikdir.

Ota-onalarning roli: Onlayn darslarda o‘qituvchi asosan nazoratchiga aylanadi, o‘quv jarayonining bevosita nazorati esa ota-onalar zimmasiga tushadi, bu esa ularning ish yukini oshiradi.

SAMARADORLIKNI OSHIRISH YECHIMLARI

Muammo, Yechimlar, Metodologiya.

Diqqatning tez chalg‘ishi | “Bo‘laklash” texnikasi: Darsni 10-15 daqiqalik qismlarga bo‘lish, har bo‘lakdan so‘ng jismoniy mashg‘ulotlar yoki qisqa o‘yinlar (gamifikatsiya) kiritish. | V.F.Shatalovning tayanch signallar sxemasidan foydalanish. Ijtimoiy o‘zaro aloqa yo‘qligi | Kichik guruhlarga bo‘lib ishlash (Zoom’ning “Breakout Rooms” funksiyasi), juftlikda ishlash, rolli o‘yinlarni onlayn formatga moslashtirish. Interaktiv va kooperativ ta’lim. O‘qitishning zerikarliligi | Vizualizatsiya: Animatsiyalar, 3D modellar, bolalarning sevimli personajlaridan foydalangan holda qisqa videodarslar. | AR/VR (to‘liq bo‘lmasa ham, o‘xshash) texnologiyalaridan foydalanish. |Mustaqil ishlash qobiliyatining pastligi | Quizizz, Kahoot! Kabi platformalardan foydalangan holda topshiriqlarni o‘yin shaklida berish va darhol fikr-mulohaza (feedback) bildirishGamifikatsiya va tezkor baholash.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘g‘ri tashkil etilgan onlayn ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ma’lum shartlar ostida an’anaviy ta’limga teng, ba’zi hollarda esa samaraliroq bo‘lishi mumkin: Texnologik savodxonlikning oshishi: Onlayn ta’lim boshlang‘ich yoshdagi bolalarning kompyuter, planshet va internet bilan ishlash bo‘yicha raqamli ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Individual yondashuv imkoniyati: Onlayn format o‘qituvchiga har bir o‘quvchining tezligini kuzatish va topshiriqlarni individual ravishda yuborish imkoniyatini beradi.

O‘quv natijalari barqarorligi: Agar darslar yuqorida keltirilgan metodlar (bo‘laklash, gamifikatsiya, vizualizatsiya) asosida tashkil etilsa, o‘quvchilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy darslardagiga yaqin bo‘ladi. Eng muhim cheklov: Onlayn format kichik yoshdagi o‘quvchilarda jamoaviy ishlash, empatiya va bevosita ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda an’anaviy dars o‘rnini to‘liq bosa olmaydi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun onlayn ta’lim faqatgina zaruriy chora emas, balki to‘g‘ri yondashuv bilan ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatidir. Maqola tahlili natijalariga ko‘ra, bu jarayonning samaradorligi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

Gibrid yondashuvni qo‘llash: Onlayn ta’limni ijtimoiy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan qisqa muddatli, yuzma-yuz darslar bilan birlashtirish.

O‘qituvchilar malakasini oshirish: O‘qituvchilarni raqamli pedagogika, gamifikatsiya va interaktiv darslarni yaratish bo‘yicha maxsus o‘qitish.

Ota-onalarga ko‘mak: Onlayn darslar davomida ota-onalarga bolaga qanday yordam berish bo‘yicha aniq qo‘llanmalar va treninglar taqdim etish.

Kelajakdagi tadqiqotlar onlayn muhitda o‘quvchilarning hissiy-irodaviy sohasini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishning samarali usullarini topishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vigotskiy L. S. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.: Pedagogika, 1991. – 480 s.
2. Clark, R. E. Media Will Never Influence Learning. Educational Technology Research and Development, 1994. Vol. 42(2), pp. 21–29.
3. Shataev A. T. Raqamli ta’lim muhiti: boshlang‘ich sinf tajribasi. – Toshkent: “Yangi Asr Avlodi”, 2023. – 188 b.
4. Meyers, C. K., & Miller, J. A. Effective Pacing Strategies in Remote Primary Education. Journal of Online Learning and Teaching, 2021. Vol. 17(1), pp. 45–60.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston, 2017. – 488 b. (Anjuman axborot)

RAQAMLI TA’LIM TRANSFORMATSIYASIDA STEAM TEXNOLOGIYALARI VA SUN’IY INTELLEKT (AI) ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Tayirov Mansur Anorboyevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti Registrator ofisi menejeri
(+99850)515-17-72
mtayirov.86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi yoritiladi. STEAM texnologiyalari va sun’iy intellekt (AI)ni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilinib, metodik kompetentlikni oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ushbu integratsiya o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi, kreativlik va dars dizayni ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim transformatsiyasi, STEAM texnologiyalari, sun’iy intellekt (AI), bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, innovatsion metodik tayyorgarlik, metodik kompetentlik, raqamli pedagogika, interaktiv ta’lim, kreativlik, dars dizayni.

Annotation. This article explores the issue of developing innovative methodological training for future primary school teachers in the context of digital education transformation. The scientific, theoretical, and practical foundations of integrating STEAM technologies and artificial intelligence (AI) into the educational process are analyzed, and their significance in enhancing methodological competence is substantiated. The research results show that such integration significantly improves teachers’ technological literacy, creativity, and lesson design skills.

Keywords: digital education transformation, STEAM technologies, artificial intelligence (AI), future primary school teachers, innovative methodological training, methodological competence, digital pedagogy, interactive learning, creativity, lesson design.

Аннотация. В статье рассматривается проблема развития инновационной методической подготовки будущих учителей начальных классов в условиях цифровой трансформации образования. Анализируются научно-теоретические и практические основы интеграции технологий STEAM и искусственного интеллекта (AI) в образовательный процесс, обосновывается их значение для повышения методической компетентности. Результаты исследования показывают, что такая интеграция значительно повышает технологическую грамотность, креативность и навыки проектирования урока у педагогов.

Ключевые слова: цифровая трансформация образования, технологии STEAM, искусственный интеллект (AI), будущие учителя начальных классов, инновационная методическая подготовка, методическая компетентность, цифровая педагогика, интерактивное обучение, креативность, дизайн урока.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta’limga keng joriy etish global miqyosda ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni taqozo etmoqda.

Raqamli ta’lim transformatsiyasi — bu o‘quv jarayonini sun’iy intellekt (AI), virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn platformalar, masofaviy hamkorlik va boshqa ilg‘or raqamli vositalar bilan boyitish orqali uning mazmuni, shakli va metodikasini yangilash jarayonidir. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son)[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son

[1] *O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son*

Farmoni[2] raqamli iqtisodiyot va ta’limni raqamlashtirishga doir Prezident farmon va qarorlari raqamli transformatsiyani jadallashtirishni ko‘zda tutadi.

Ta’limning ushbu yangi bosqichida **boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini** tayyorlov jarayoni alohida ahamiyatga ega. Chunki, boshlang‘ich maktab davrida o‘quvchilar tafakkurining poydevori shakllanadi, ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Kelajak avlodning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan o‘qituvchilarga bog‘liq. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion metodik tayyorgarligini rivojlantirish raqamli transformatsiya jarayonida strategik ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda xalqaro miqyosda keng ommalashgan **STEAM ta’lim yondashuvi** (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) o‘quv jarayonini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish, o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqotga qiziqishi, kreativlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ushbu yondashuvni qo‘llashga doir qator metodik qo‘llanmalar, tajriba-sinov ishlari olib borilmoqda. Biroq, STEAM ta’limning barcha imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirish uchun uni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Sun’iy intellekt (AI) o‘z navbatida o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirish, avtomatik baholash, moslashtirilgan ta’lim, real vaqt rejimidagi tahlil kabi ilg‘or imkoniyatlarni yaratadi. STEAM yondashuvi bilan sun’iy intellekt **(**AI) integratsiyasi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga darslarni zamonaviy raqamli vositalar bilan boyitish, interaktiv tajribalar yaratish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos metodik yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa ularning metodik kompetentligini yangi bosqichga ko‘taradi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining **STEAM texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha innovatsion metodik tayyorgarligini rivojlantirish** nafaqat dolzarb ilmiy muammo, balki ta’lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqola ushbu jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish, xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish hamda metodik kompetentlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida **raqamli ta’lim transformatsiyasi** masalasi bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, **STEAM ta’lim konsepsiyasi**ning ilmiy-nazariy asoslari avvalo AQSh va Yevropa olimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Yakman va Miller (2018)[3] tadqiqotlarida STEAM yondashuvi o‘quvchilarda nafaqat aniq fanlarga oid bilimlarni, balki ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishini ko‘rsatadi. Koreya va Singapur kabi davlatlarda esa STEAM ta’limi milliy ta’lim standartlariga kiritilib, boshlang‘ich maktabdan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni bo‘yicha ham ko‘plab xorijiy tadqiqotlar mavjud. Holmes va hamkorlari (2019)[4] AI ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni rivojlantirish, adaptiv testlash va individual ta’lim yo‘llarini yaratishda samarali ekanini asoslab berishgan. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi ta’limiy platformalar (masalan, *Smart Learning Systems, Intelligent Tutoring Systems*) o‘qituvchilarga katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘quvchilar bilim darajasiga mos metodlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

---

[2] *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni*

[3] *Yakman, G., & Miller, C. (2018). Evolving STEM into STEAM Education. STEAM Education Journal, 2(1), 1–11.*

[4] *Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.*

Rossiyalik olimlardan Ivanova (2022)[5] o‘z tadqiqotlarida AI va STEAM integratsiyasi o‘quvchilarda yuqori darajadagi tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishini, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun esa metodik yangilanish zarurligini ta’kidlaydi.

Yurtimiz olimlari ham so‘nggi yillarda **STEAM va raqamli texnologiyalar**ni ta’lim jarayoniga tatbiq etishga oid izlanishlarni faollashtirdilar. Kenjaboyeva N. M. (2024)[6] “STEAM ta’lim texnologiyasi asosida boshlang‘ich sinf darslarini tashkil qilish” mavzusidagi tadqiqotida bu yondashuvning boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, o‘qituvchilarning esa interaktiv metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Atamuratov R. K. (2021)[7] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda virtual reallik texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi istiqbollari yoritilib, ular boshlang‘ich ta’limda vizual ko‘mak vositalari sifatida samarali bo‘lishi asoslab berilgan.

Shuningdek, G‘aniyeva Sh. N. (2023)[8] va Sidiqova Y. S. (2024)[9] tadqiqotlarida VR va AR texnologiyalarining o‘qitish jarayoniga integratsiyasi, ta’lim sifatiga ta’siri, o‘qituvchi metodik tayyorgarligini oshirishdagi imkoniyatlari batafsil tahlil qilingan.

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM texnologiyalari va sun’iy intellektni o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga tatbiq etish raqamli transformatsiyaning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Biroq, amaliyotda bu texnologiyalarni uyg‘unlashtirish metodikasi hali to‘liq ishlab chiqilmaganligi sababli, mazkur masala yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi raqamli ta’lim transformatsiyasida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishni o‘rganishga yo‘naltirildi.

Tadqiqot jarayonida raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar, tajribalar va tahlillar qator muhim ilmiy natijalarni ko‘rsatdi.

Avvalo, STEAM texnologiyalari va sun’iy intellekt (AI)ning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘qituvchilarning zamonaviy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi kuzatildi. Bu jarayon o‘qituvchilarda yangi metodik qarashlar, innovatsion pedagogik yechimlar va dars jarayonini zamonaviylashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantiradi.

STEAM yondashuvi va sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha shakllantirilgan metodik faoliyat bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarni an’anaviy ta’lim usullaridan ko‘ra samaraliroq va ijodiyroq faoliyatga yo‘naltiradi. Ularning dars dizaynini ishlab chiqishdagi yondashuvlarida yangicha fikrlash, fanlararo bog‘liqlikni tashkil etish va texnologik vositalardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilish yaqqol sezildi. Ayniqsa, sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining qo‘llanilishi individual yondashuvni kuchaytirib, o‘qituvchining o‘quvchi bilan ishlash jarayonida aniqroq va moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida metodik kompetentlikning asosiy ko‘rsatkichlari — texnologik savodxonlik, kreativlik, dars dizayni va fanlararo integratsiyani amalga oshirish salohiyati — sezilarli darajada mustahkamlanadi.

Kuzatuvlar davomida o‘qituvchilar nafaqat texnik vositalardan foydalanishni o‘rgandilar, balki ularni pedagogik jarayon mazmuni bilan uyg‘unlashtirishni ham o‘zlashtira oldilar. Bu esa o‘qituvchining ta’lim jarayonida yangilik yaratish, interaktiv metodlardan samarali foydalanish va o‘quvchilarni faol o‘quvchi sifatida shakllantirishga qaratilgan qobiliyatlarini rivojlantirdi.

---

[5] *Ivanova, N. (2022). Artificial Intelligence in STEAM Education: Challenges and Opportunities. Russian Journal of Education and Psychology,* 14(2), 45–53.


[6] *Kenjaboyeva, N. M. (2024). STEAM ta’lim texnologiyasi asosida boshlang‘ich sinf darslarini tashkil qilish.* Zenodo, *1(1), 96–101*. https://doi.org/10.5281/zenodo.7071168

[7] *Atamuratov, R. K. (2021). Virtual reallik texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari. Pedagogik mahorat jurnali,* (4), 204–206.

[8] *G‘aniyeva, Sh. N. (2023). Zamonaviy ta’limni tashkil etishda VR texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.* Qo‘qon universiteti xabarnomasi, *1(1), 135–137.*

[9] *Sidiqova, Y. S. (2024). VR va AR texnologiyalari bilan o‘qitish: virtual va kengaytirilgan reallik yordamida interaktiv ta’lim. The Latest Pedagogical and Psychological Innovations in Education*

Tadqiqot jarayonlarida yana bir muhim natija shundan iboratki, STEAM va sun’iy intellekt (AI) integratsiyasi o‘qituvchilarning dars jarayonini tashkil etishda motivatsiyasini oshirdi. Ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan yondashuvlarida an’anaviylikdan ko‘ra innovatsionlik ustunlik qila boshladi. Bu esa o‘qituvchilarda mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va yangicha metodlarni qo‘llashga bo‘lgan ishonchni kuchaytirdi va quyidagi asosiy jihatlar ajralib chiqdi:



Ta’limda innovatsion yondashuvlar *(1-rasm)*

- **metodik yangilanish** – STEAM va sun’iy intellekt (AI) integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanishga tayyorligini oshiradi.

- **ijodkorlik va kreativlik** – o‘qituvchilar dars mazmunini boyitishda mustaqil loyihalar ishlab chiqish va yangi pedagogik g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- **texnologik savodxonlik** – raqamli vositalar, ta’limiy platformalar va sun’iy intellekt (AI) ilovalari bilan ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada kengayadi.

- **shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** – STEAM va sun’iy intellekt (AI) asosidagi metodlar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olish, ularga mos o‘quv resurslarini taqdim etishda samarali natija beradi.

- **fanlararo integratsiya** – STEAM yondashuvi yordamida turli fanlar o‘rtasida uzviy bog‘lanish yaratish imkoniyati kengayadi.

Natijaviy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida STEAM texnologiyalari va sun’iy intellektning qo‘llanishi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun metodik tayyorgarlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

Bu esa nafaqat o‘qituvchilarning individual kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki umumiy ta’lim sifati va samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot jarayonlari va o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda STEAM texnologiyalari va sun’iy intellekt (AI)ning integratsiyasi muhim o‘rin tutadi.

Birinchidan, STEAM yondashuvi o‘quv jarayonini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion metodlardan foydalanishga keng imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlab, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quv jarayonini adaptivlashtirish va samarali tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchidan, STEAM va sun’iy intellekt (AI) integratsiyasi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning texnologik savodxonligini, kreativ yondashuvini, dars dizayni bo‘yicha metodik ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ularning dars jarayonini tashkil etishda yangicha metodlarga murojaat qilishi, ta’limni interaktiv va samarali tashkil etishga intilishi oshiradi.

To‘rtinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion metodik tayyorgarligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda ta’lim tizimini global standartlarga yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, STEAM texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshiradi, balki boshlang‘ich ta’limning zamonaviy talablarga mos rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.

3. Yakman, G., & Miller, C. (2018). *Evolving STEM into STEAM Education.* STEAM Education Journal, 2(1), 1–11.

4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: Center for Curriculum Redesign.

5. Ivanova, N. (2022). Artificial Intelligence in STEAM Education: Challenges and Opportunities. *Russian Journal of Education and Psychology*, 14(2), 45–53.

6. Kenjaboyeva, N. M. (2024). STEAM ta’lim texnologiyasi asosida boshlang‘ich sinf darslarini tashkil qilish. *Zenodo*, 1(1), 96–101. https://doi.org/10.5281/zenodo.7071168

7. Atamuratov, R. K. (2021). Virtual reallik texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari. *Pedagogik mahorat jurnali*, (4), 204–206.

8. G‘aniyeva, Sh. N. (2023). Zamonaviy ta’limni tashkil etishda VR texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 1(1), 135–137.

9. Sidiqova, Y. S. (2024). VR va AR texnologiyalari bilan o‘qitish: virtual va kengaytirilgan reallik yordamida interaktiv ta’lim. *The Latest Pedagogical and Psychological Innovations in Education*, 1(1).

10. Tayirov, M. A. (2025). Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari STEAM ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari. https://doi.org/10.5281/zenodo. 15002514

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКИХ КОМПЬЮТЕРНЫХ ИГР

MANTIQIY KOMPYUTER O’YINLARIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHI

INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS THROUGH THE USE OF LOGICAL COMPUTER GAMES

Гуломова Мухлиса Улугбек Кизи
E-mail: *Muxlisa.omonboyeva@mail.ru*
Т.: +998*90 200 6365*
Докторант Андижанского педагогического института

Аннотация. Современные дети растут в цифровой среде, где компьютерные технологии становятся не только средством развлечения, но и инструментом познания. Однако в практике дошкольного образования часто наблюдается недостаток методически обоснованного использования логических компьютерных игр, способствующих формированию интеллектуальных способностей. Цель статьи — определить педагогические условия и возможности использования логических компьютерных игр для

стимулирования интеллектуального развития дошкольников. В исследовании выявлено, что систематическое и педагогически направленное применение логических игр повышает уровень развития мыслительных операций — анализа, синтеза, обобщения и классификации, способствует формированию произвольного внимания, развитию памяти и элементарного логического мышления.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, дошкольники, логические компьютерные игры, когнитивные процессы, развитие мышления.

Annotatsiya. Zamonaviy bolalar raqamli muhitda ulg‘aymoqda, bunda kompyuter texnologiyalari nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki bilim olish quroli ham bo‘lib qolmoqda. Biroq, maktabgacha ta’lim amaliyotida intellektual qobiliyatlarni shakllantirishga ko‘maklashadigan mantiqiy kompyuter o‘yinlaridan metodik asoslangan holda foydalanish yetarli emas. Maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini rag‘batlantirish uchun mantiqiy kompyuter o‘yinlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy o‘yinlarni tizimli va pedagogik yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash fikrlash jarayonlari - tahlil, sintez, umumlashtirish va tasniflash darajasini oshiradi, ixtiyoriy diqqatning shakllanishiga, xotira va oddiy mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: aqliy rivojlanish, maktabgacha yoshdagi bolalar, mantiqiy kompyuter o‘yinlari, kognitiv jarayonlar, tafakkurni rivojlantirish.

Abstract. Modern children are growing up in a digital environment where computer technologies are becoming not only a means of entertainment but also a tool for learning. However, in preschool education practice, there is often a lack of methodologically sound use of logical computer games that contribute to the development of intellectual abilities. The aim of this article is to determine the pedagogical conditions and possibilities for using logical computer games to stimulate the intellectual development of preschoolers. The study revealed that the systematic and pedagogically-directed application of logical games increases the level of development of mental operations - analysis, synthesis, generalization, and classification, contributes to the formation of voluntary attention, and enhances memory and elementary logical thinking.

Keywords: intellectual development, preschoolers, logical computer games, cognitive processes, thinking development.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема интеллектуального развития детей дошкольного возраста занимает центральное место в современной педагогике и психологии. В условиях активного внедрения цифровых технологий особую актуальность приобретает вопрос об использовании компьютерных средств для развития мыслительных процессов ребёнка. В педагогической практике наблюдается тенденция к включению игровых технологий в образовательный процесс, однако не все формы цифровых игр одинаково полезны для когнитивного роста ребёнка [1].

По мнению Л. С. Выготского, развитие мышления ребёнка связано с активной деятельностью, направленной на освоение новых способов действий с предметами и символами [2]. Именно игра, как ведущий вид деятельности дошкольника, обеспечивает зону ближайшего развития, позволяя переходить от наглядно-действенного мышления к логическому и абстрактному [3]. В современных условиях такая игровая деятельность может быть реализована не только в традиционных, но и в цифровых формах — через логические компьютерные игры, специально адаптированные под образовательные задачи.

- Har bir tumanda **axborot-ta’lim markazlari**ni tashkil etish va rahbarlarni doimiy raqamli treninglardan o’tkazish;
- Boshqaruv faoliyatiga **sun’iy intellekt asosidagi tahlil tizimlarini** (AI analytics) joriy etish;
- Xalqaro tajribalarni (OECD, UNESCO, EdTech platformalari) mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O’zbekiston maktabi — taraqqiyot poydevori.* Toshkent: O’zbekiston, 2023.
2. Drucker P. *Management Challenges for the 21st Century.* New York: HarperCollins, 2007.
3. Fullan M. *The New Meaning of Educational Change.* Teachers College Press, 2016.
4. Xodjayev A. *Ta’lim menejmenti asoslari.* Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
5. Tursunov Z. *Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim menejmenti.* Toshkent, 2022.
6. OECD. *School Leadership for Learning: Insights from TALIS 2018.* Paris: OECD, 2020.
7. Ochilov M. *Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o’rni.* Toshkent, 2023.
8. Karimova N. *Pedagogik boshqaruvda innovatsion yondashuvlar.* Toshkent: Fan, 2024.

TABIIY FANLARNI O’QITISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Xamidova Maftuna Xalil qizi
Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi
kimyo fani metodisti
maftuna.92mxx@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda ta’lim sohasining rivojlanishi fanlarni interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu ehtiyojlar esa barcha fan yo‘nalishida xorijiy tajribalarni o‘rganishni taqoza etadi. Xalqaro ta’limida zamonaviy va sifatli bilim berish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. O’qitish amaliyotiga ta’limning innovatsion shakllarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Аннотация: В настоящее время развитие сферы образования вызывает необходимость совершенствования преподавания наук на основе интерактивных методов, информационно-коммуникационных и педагогических технологий. Эти потребности требуют изучения зарубежного опыта во всех направлениях образования. В международной системе образования предоставление современного и качественного обучения является одной из важнейших задач. Внедрение инновационных форм обучения в образовательную практику способствует формированию у учащихся знаний, умений, навыков и компетенций.

Kalit so‘zlar: PhET, Google Earth, STAR Legocy modeli, integratsiyalashgan yondahshuv, innavatsion metod;

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish har bir davlat uchun muhim masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitish sohasida xorijiy tajribalar o‘quv jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda

muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va ularni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari — AQSH, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Germaniya ta’lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitishga katta e’tibor qaratiladi. Bu mamlakatlarda ta’lim jarayoni tajriba va amaliyotga asoslangan, interaktiv metodlar (laboratoriya ishlari, modellashtirish, loyiha asosida o‘qitish)dan foydalaniladi, raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalar keng qo‘llaniladi. Masalan, AQShda tabiiy fanlarni (biologiya, fizika, kimyo, geologiya, ekologiya va boshqalar) o‘qitishda faktlarni yodlash emas, tushunish, izohlash va qo‘llashga urg‘u beriladi. O’quvchilar ilmiy tafakkur, muammo yechish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, o‘qituvchi tayyor javobni bermaydi, o‘quvchilar o‘zlari tajriba orqali xulosa chiqaradilar. Finlandiya ta’lim tizimida o‘quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularni mustaqil izlanishga, ilmiy tahlil qilishga o‘rgatish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Yaponiyada hatto boshlang‘ich sinflarda ham bolalar **“Nima uchun?”, “Qanday?”, “Agar shunday bo‘lsa, nima bo‘ladi?”** kabi savollar berishga o‘rgatiladi. Yaponiyada tabiiy fanlar boshqa fanlar (matematika, texnologiya, ekologiya) bilan **bog‘liq holda o‘qitiladi.** Masalan, o‘quvchilar suvni o‘rganayotganda matematik o‘lchovlar qiladi, ekologik muammolarni tahlil etadi va texnologik yechimlar ishlab chiqadi.

Ko‘p mamlakatlarda ilmiy tahlil va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari faqat o‘rta maktab bosqichidan, ya’ni 7–9-sinflardan boshlab rivojlantiriladi.

NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish faol davom etmoqda. Xususan, STAR Legocy modeli, 5E modeli, HPL modeli va STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’limi yo‘nalishlarida yangi dasturlar dars jarayonlarida joriy etildi, o‘quv jarayoniga multimedia vositalari, raqamli laboratoriyalar va elektron resurslar joriy etilmoqda. xalqaro hamkorlik asosida o‘qituvchilarning malakasini oshirish dasturlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu tajribalar orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Ko‘plab maktablarda Z**amonaviy tabiiy fan laboratoriyalari, 3D-modellar, simulyatsiyalar, interaktiv doskalar** o‘rnatildi. Bu esa o‘quvchilarga tabiiy hodisalarni nafaqat o‘qish, balki **ko‘rish, sinab ko‘rish va tushunish** imkonini berdi. Xorijiy tajribalar asosidagi yangi metodlar o‘quvchilarni **faol ishtirokchi**ga aylantirdi; **fan olimpiadalari, ekologik tanlovlar, ilmiy loyihalar** soni ortdi; tabiiy fanlarni o‘rganish **amaliy foyda berishini** o‘quvchilar anglay boshladilar**.**

MUHOKAMA

Xorijiy tajribalarda keng qo‘llaniladigan innovatsion metodlar quyidagilardan iborat: Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) – o‘quvchilar muayyan muammoni mustaqil tadqiq qiladi; Integratsiyalashgan yondashuv – biologiya, kimyo va fizika fanlarini birgalikda o‘rganish orqali kompleks bilim hosil qilinadi; Raqamli ta’lim platformalari (masalan, PhET, Google Earth, NASA ilovalari, **3D-modellashtirish, AR/VR texnologiyalari** Google Classroom, Khan Academy) yordamida o‘quvchilarning mustaqil ishlashi ta’minlanadi. Mazkur yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, balki ularning amaliy tajribasini ham mustahkamlaydi.

Xorijiy tajribalar asosida yangi avlod darsliklari yaratildi. Tabiiy fanlar integratsiyalashgan holda o‘qitilmoqda (boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy fanlar” yagona kursi), darsliklar endi kuzatish, tajriba va muammoli vaziyatlar asosida tuzilgan hamda ilgari nazariy ma’lumot ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, hozir amaliy topshiriqlar ko‘paygan. Xorijiy tajribalar asosida O’zbekiston o‘qituvchilari **Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya** kabi davlatlarda malaka oshirish dasturlarida qatnashmoqda hamda mamlakatda **InnoWeek**, **EduTech**, **STEM-ta’lim** markazlari tashkil etildi..

XULOSA

Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyodagi rivojlangan ta’lim tizimlarining

o‘rganilishi natijasida O’zbekistonda ham tabiiy fanlarni o‘qitish mazmuni, metodlari va shakllari yangilanmoqda. Yaponiyadagi amaliy yondashuv, AQShdagi innovatsion o‘qitish usullari, Finlyandiyadagi integratsiyalashgan ta’lim modeli va Koreya tajribasidagi texnologik yondashuvlar O’zbekiston maktablarida keng joriy etilmoqda. Natijada darslar yanada qiziqarli, mazmunli va o‘quvchini faol fikrlashga undovchi tus oldi.

Bu tajribalar o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasi oshib, darslarda zamonaviy texnologiyalar, laboratoriya jihozlari va interfaol metodlar keng qo‘llanilmoqda. Umuman olganda, xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish O’zbekistonda tabiiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy tafakkurli, ilmga qiziqqan yoshlarni tarbiyalash hamda mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda.Xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni O’zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa zamonaviy dunyo talablariga javob bera oladigan, ilmiy tafakkuri rivojlangan, ekologik madaniyatga ega yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Kelgusida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalarini ommalashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tabiiy fanlar ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari.
2. OECD Education Reports, 2023.
3. UNESCO Education for Sustainable Development, 2022.
4. PhET Interactive Simulations (University of Colorado Boulder).
5. Finlyandiya Milliy Ta’lim Agentligi (EDUFI) hisobotlari, 2024.

BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA KASBGA QADRIYATLI YONDASHUV KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon: +998917793882
munisxonernazarova21@gmail.com

Tayanch so‘zlar: o‘qituvchi, pedagogika, qadriyat, tarix, ko‘nikma, ma’naviyat, malaka, bilim, texnologiya, tarbiya, odob-axloq, yondashuv.

Ключевые слова: педагог, педагогика, ценности, история, навыки, духовность, квалификация, знания, технология, воспитание, манеры, подход.

Key words: teacher, pedagogy, values, history, skills, spirituality, qualification, knowledge, texnology, upbringing, manners, approach.

Резюме: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvini shakllantirish, o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta’lim – tarbiyaga oid an’analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o‘rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etishni shakllantirish, metodikalarni to‘g‘ri tanlay olish layoqatini shakllantirish borasida so‘z yuritilgan.

Резюме: В статье речь идет о формировании у будущих учителей ценностного подхода к профессии, формировании у учителей навыков использования цифровых технологий, формировании существующих педагогических взглядов, национальных образовательных традиций, ценностей, научном изучении, тщательном анализе и реализации народной педагогики, умении правильно выбирать методики.

Summary: The article talks about the formation of a valuable approach to the profession in future teachers, the formation of the skills of using digital technologies in teachers, the formation of

existing pedagogical views, traditions of national education, values, scientific study, thorough analysis and implementation of folk pedagogy, the formation of the ability to correctly choose methodologies.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirishda bu texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. O’qituvchilik kasbi nafaqat bilim berish, balki tarbiya, qadriyatlarni yuksaltirish va shaxsiyatni rivojlantirishdir. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish metodikasi ko‘rib chiqiladi.

Kasbga qadriyatli yondashuvning mohiyati va ahamiyati

Kasbga qadriyatli yondashuv – bu o‘qituvchilik kasbiga nisbatan professionallik, mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar, madaniyat va shaxsiy tajribalarni inobatga olishdir. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z kasbiga nisbatan ijobiy his-tuyg‘ularini va ichki motivatsiyasini shakllantiradi. asbga qadriyatli yondashuv — bu kasbni yoki professional faoliyatni qadriyatlar, prinsiplar va axloqiy tamoyillar asosida yuritishdir. Ushbu yondashuv, kasbga nisbatan insonning daxldorligini, shuningdek, o‘z ishini qanday qilib ahloqiy va ijtimoiy mas’uliyatli ravishda bajarishini ta’minlaydi.

Kasbga qadriyatli yondashuvda inson o‘z ishini faqat iqtisodiy foyda uchun emas, balki ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlarni inobatga olgan holda bajaradi. Bu, o‘z navbatida, kasbning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Bu yondashuvda professionallar o‘z ishlarini amalga oshirayotganda axloqiy mas’uliyatni hisobga olib, moshina va shaxslar hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlar qabul qiladilar.

Kasbga qadriyatli yondashuv professionalizm darajasini oshiradi va jamoatchilik orasida ishonchni kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, ishchilar va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi.

Qadriyatlarga asoslangan yondashuv ish joylarida raqobatni kuchaytiradi, chunki bu sohada ishlovchi shaxslar o‘z malakalarini yangilab, ovozlarini oshirishga intilishadi.

Kasbga qadriyatli yondashuv insonlarning ijtimoiy muammolarni hal qilishda faolligini oshiradi va umumiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Bu yondashuv ijtimoiy adolat, tenglik va barqarorlikni ta’minlaydi.

Qadriyatli yondashuv orqali ishlab chiqilgan ishlar, insoniyat xavfsizligini oshirishga yordam beradi, chunki bu, ixtisoslashgan bilimlarni va shaxsiy mutaxassislarning malakalarini kuchaytiradi.

Qadriyatliga asoslangan yondashuv yirik innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga undaydi. Bu esa, kasbga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

Qadriyatli yondashuv insonlarni o‘zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashishga tayyorlaydi, chunki bu yondashuv doimo ahloqiy tamoyillar va qadriyatlar asosida qaror qabul qilishni ta’minlaydi.

Kasbga qadriyatli yondashuv, nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarda ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali kasb sohasidagi mutaxassislar o‘z ishlarini qilayotganda ahloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni unutmasliklari lozim. Qadriyatlar va prinsiplar orqali kasbning natijalari, nafaqat foydali, balki ijtimoiy jihatdan ham manfaatli bo‘lishi mumkin.

Kasbga qadriyatli yondashuv, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali aloqani o‘rnatish, o‘quv jarayonida yuqori motivatsiya yaratish va pedagogik faoliyatni ma’noli bajarish uchun zarurdir. O’qituvchi o‘z kasbini faqat ish sifatida emas, balki shaxsiy faoliyat sifatida ham qabul qilishi muhim. Bu esa, o‘qituvchilarning ijtimoiy, axloqiy va professional qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar va ularning ta’limdagi o‘rni

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Online platformalar, interaktiv taqdimotlar, multimedia vositalari, virtual reallik sistemalari va boshqa innovatsiyalar ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirayotgan omillardan biridir. Raqamli texnologiyalar yordamida

o‘quvchilarning o‘qish progressini monitoring qilish, tahlil qilish va baholash yanada osonlashadi. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Ular bugungi kunda o‘qish va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish, yanada qiziqarli va interaktiv ta’lim muhitini yaratish uchun keng qo‘llanilmoqda. Ular yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarga zamonaviy axborotlarni yetkazib berish, yosh biluvchilarni tadqiqotlar haqida o‘qitish va ular bilan interaktiv muloqot o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Raqamli texnologiyalar ta’limda zamonaviy metod va usullarni o‘z ichiga oladi. Ular o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, video darslar va online platformalar, o‘quvchilarga dars jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu esa o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi.Raqamli platformalar va vositalar yordamida o‘qituvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar:

Raqamli vositalar yordamida o‘qituvchilar dars davomida o‘quvchilarni kuzatish, ularning muvaffaqiyatlarini o‘lchash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘qituvchilar o‘z fikrlarini, tajribalarni va resurslarni boshqa mutaxassislar bilan almashishlari mumkin. Raqamli platformalar (masalan, Google Classroom, Moodle) o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va innovatsion loyihalar yaratishga imkoniyat yaratish mumkin.

O’qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, shuningdek, pedagogik qadriyatlarni o‘rganish uchun online platformalardan foydalanishlari mumkin. MOOCs (Katta Ochiq Online Kurslar) orqali turli yo‘nalishlarda malaka oshirish mumkin. Raqamli platformalarda interaktiv taqdimotlar shaklida dars o‘tkazish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun qadriyatlardan kelib chiqib, o‘z fikrlarini ochiq va samarali ifoda etish imkonini beradi. O’qituvchilar qadriyatlar va axloqiy me’yorlar haqida ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etishlari mumkin, bu esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. O’qituvchilar virtual muhitda o‘quv jarayonini simulyatsiya qilishlari orqali akademik bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lashlari mumkin. Raqamli platformalarda jamoaviy ishlash o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishiga, ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirishga va kasbga qadriyatli yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat ta’lim sifatini yaxshilash, balki o‘quvchilarda ijobiy munosabat va motivatsiyani rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash usullarini o‘rganish va tadbiq etish bo‘lajak o‘qituvchilar

Zamonaviy ta’lim tizimining burchagi sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni ularga kasbga nisbatan qadriyatli yondashuvni shakllantirishni talab etadi. Bu yondashuv o‘qituvchilik faoliyatining muvaffaqiyatiga, ta’lim sifatini oshirishga ta’sir qiladi. Ushbu maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ulardan foydalanish metodikasi ko‘rsatiladi.

Kasbga qadriyatli yondashuv, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali aloqani o‘rnatish, o‘quv jarayonida yuqori motivatsiya yaratish va pedagogik faoliyatni ma’noli bajarish uchun zarurdir. O’qituvchi o‘z kasbini faqat ish sifatida emas, balki shaxsiy faoliyat sifatida ham qabul qilishi muhim. Bu esa, o‘qituvchilarning ijtimoiy, axloqiy va professional qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar ta’limda zamonaviy metod va usullarni o‘z ichiga oladi. Ular o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli platformalar va vositalar yordamida o‘qituvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar:

Metodika va tavsiyalar

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirishda quyidagi metodikalarni qo‘llash mumkin:

- **O’qitishning amaliy uslublari**: O’quvchilar bilan interaktiv darslar o‘tkazish va ularni raqamli texnologiyalar orqali rag‘batlantirish.
- **Proyektga asoslangan o‘qitish**: Talabalarga ijtimoiy muammolarni hal qilishda raqamli vositalar yordamida proyektlar yaratishga imkon berish. Bu ularning kasbiy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantiradi.
- **Mentorlik tizimi**: Talabalar uchun ma’lum bir sohalarda tajribali o‘qituvchilar bilan mentorlik aloqalari o‘rnatish. Bu ularga real hayotiy tajribalar asosida o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali va ma’noli qilish imkonini beradi. Ushbu metodika o‘qituvchilarning kasbga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, ularda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, shuningdek, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Azizxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2003.
2. Abdullayeva. S. H., Axatova. D.A “Pedagogika”. Toshkent. “Fan” 2004-y.
3. Avliyoqulov N.H. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”. Toshkent. 2001.
4. Qodirov, R. Pedagogik yondashuvlar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. Karimov, A. Qadriyatlar va milliy ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat 2019.
6. Ernazarova M.J. (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish. “Mug‘allim ham uzluksiz bilimdendiru” jurnali

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sodiqova Vazira Yaxyoqul qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Amaliy matematika kafedrasi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati va rivojlanish istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ishda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari taqdim etilgan hamda O’zbekiston sharoitidagi istiqbolli yo‘nalishlar belgilangan.

Kalit so‘zlar:raqamli iqtisodiyot, ta’lim tizimi, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, elektron ta’lim, innovatsion ta’lim, raqamli kompetensiya

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat biznes va sanoat sohalarini, balki ta’lim tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’limning raqamlashtirilishi shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish, amaliy mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazish va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. O’zbekiston Respublikasining “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim tizimini raqamlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Shu bilan birga, maktab va oliy ta’lim muassasalarida masofaviy va gibrid o‘qitish tizimlari kengaymoqda, bu esa ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali darslik va o‘quv resurslarni elektron shaklga keltirish, sun’iy intellekt yordamida individual o‘quv dasturlarini yaratish va katta ma’lumotlar texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari esa amaliy mashg‘ulotlarni xavfsiz va interaktiv tarzda o‘tkazishga yordam beradi. Bu esa o‘quv jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va innovatsion qiladi.

O’zbekiston sharoitida elektron platformalar — ZiyoNet, EduMarket va My.edu.uz kabi resurslar o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron jurnallar va onlayn reyting tizimlari o‘quv jarayonini samarali kuzatish imkonini beradi, o‘qituvchilarning malakasini oshirish

kurslari esa ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv va multimediya resurslari asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Shu jarayonda ba’zi muammolar ham mavjud. Texnik infratuzilma yetishmasligi, ayniqsa chekka hududlarda internet tezligi va qurilmalar bilan bog‘liq muammolar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi o‘qituvchilarning malakasini past darajada saqlashga sabab bo‘ladi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi esa zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni cheklaydi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun hududlararo infratuzilma farqlarini kamaytirish, o‘qituvchilarni muntazam malaka oshirish kurslari bilan ta’minlash va xalqaro tajribalarni tatbiq etish muhimdir.

Kelajak istiqbollarini hisobga olsak, shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari sun’iy intellekt yordamida talabalar ehtiyojiga moslashtiriladi. Big Data texnologiyalari ta’lim jarayonini tahlil qilish va optimallashtirish imkonini beradi, VR va AR texnologiyalari amaliy mashg‘ulotlarni interaktiv va xavfsiz o‘tkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi diplom va sertifikatlarni xavfsiz autentifikatsiya qilish imkonini yaratadi. ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyotning tatbiqi nafaqat bilim berish jarayonini yaxshilaydi, balki talabalar va o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshiradi, mamlakatning innovatsion rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi. O’zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyani kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali milliy kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish va global raqobatbardosh mutaxassislar yetkazib berish imkoniyati mavjud. Shu sababli, ta’lim tizimining raqamlashtirilishi — bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi, PF–6079-son Farmoni, Toshkent, 2020.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. W. W. Norton & Company.
3. Tapscott, D. (2016). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill.
4. Karimov, B., & Usmonova, D. (2022). “Raqamli transformatsiyaning ta’lim tizimidagi o‘rni”. *Oliy ta’lim muammolari jurnali*, №3.
5. O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hisobotlari, 2023-yil.

O’QUV RESURSLARINI AVTOMATIK TAHLIL QILISH VA SHAXSIYLASHTIRILGAN TAVSIYALAR BERISHDA NEYRON TARMOQ MODELLARINING QO’LLANILISHI

Sh.Sh.Allamova. TIPI, p.f.f.d(PhD), dotsent.
shohistabonu55@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim tizimlarida raqamli transformatsiya jarayonlari o‘quv resurslarini samarali boshqarish va talabalarga shaxsiylashtirilgan yondashuvni talab etmoqda. Ushbu maqolada neyron tarmoq modellarining (xususan, OpenAI GPT seriyasi) o‘quv resurslarini (PDF, DOCX, video va boshqa formatlar) avtomatik tahlil qilish va talaba progressiga asoslangan tavsiyalar berishdagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: neyron tarmoqlar, o‘quv resurslari tahlili, shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, OpenAI, Django platformasi.

Аннотация. В современных образовательных системах процессы цифровой трансформации требуют эффективного управления учебными ресурсами и персонализированного подхода к обучающимся. В данной статье рассматривается применение моделей нейронных сетей (в частности, серии openai gpt) для автоматического анализа учебных ресурсов (pdf, docx, видео и других форматов) и предоставления рекомендаций на основе прогресса студентов.

Ключевые слова: нейронные сети, анализ учебных ресурсов, персонализированные рекомендации, openai, платформа django.

Abstract. In modern educational systems, digital transformation processes demand effective management of learning resources and a personalized approach to students. This article examines the application of neural network models (specifically the openai gpt series) for the automatic analysis of learning resources (pdf, docx, video, and other formats) and the provision of recommendations based on student progress.

Keywords: neural networks, learning resource analysis, personalized recommendations, openai, django platform.

Kirish. O’zbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturlar doirasida o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirish dolzarb masalaga aylandi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchilar resurslarni qo‘lda tahlil qilish va talabalarga individual tavsiyalar berishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Neyron tarmoq modellarining paydo bo‘lishi (deep learning va transformer arxitekturalari) bu muammolarni hal etishga imkon beradi.

Zamonaviy ta’lim muhitida ta’lim sifatini oshirish va talabalar bilimini obyektiv baholash tizimini yaratish dolzarb masalalar sirasiga kiradi [1]. An’anaviy baholash usullari, odatda, subyektivlikka yo‘l qo‘yilishi, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar va vaqtni samarali boshqarishda yuzaga keladigan cheklovlar bilan ajralib turadi. Bu muammolarni hal etish uchun zamonaviy texnologiyalarni, xususan, neyron tarmoqlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish zarurati tug‘iladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Talabalar bilimini baholashda neyron tarmoqlardan foydalanish sohasida ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. **Ahlam Almalawi, Ben Soh, Alice Li va Halima Samraning** “Predictive Models for Educational Purposes: A Systematic Review” nomli maqolasida, neyron tarmoqlar va boshqa mashina algoritmalarining ta’limda prediktiv model sifatida ishlatilishi haqida ma’lumotlar berilgan [2]. **Naveed Ur Rehman Junejo, Muhammad Wasim Nawaz, Qingsheng Huang, Xiaoqing Dong va Chang Wang**lar tomonidan “Accurate Multi-Category Student Performance Forecasting at Early Stages of Online Education Using Neural Networks” nomli tadqiqot ishida, neyron tarmoqlar yordamida ta’lim tizimida talabalar bilimini aniq baholash va ularning rivojlanishini tahlil qilish usullari o‘rganilgan [3]. **Shanshan Xu, Yangxin Wang va Wenbo Luo**lar “Hybrid SEM-ANN model for predicting undergraduates’ e-learning continuance intention based on perceived educational and emotional support” nomli tadqiqot ishida, universitet talabalari tomonidan ta’limiy va emosional qo‘llab-quvvatlashning onlayn ta’limni davom ettirish niyatiga ta’siri o‘rganilgan [4]. Ushbu tadqiqotda talabalarning onlayn ta’limni davom ettirish niyatini aniqlash uchun kombinatsiyalangan strukturaviy tenglama modellari (SEM) va sun’iy neyron tarmoqlari (ANN) ishlatilgan.

Muhokama. Neyron tarmoqlar asosida baholash tizimini yaratish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’lumotlar to‘plash va tayyorlash: Talabalar bilim darajasini baholash uchun test natijalari, uy vazifalari va o‘quv jarayonidagi faoliyat ko‘rsatkichlari yig‘iladi. Ushbu ma’lumotlar neyron tarmoq uchun mos formatda tayyorlanadi.
2. Modelni tanlash: Ushbu tizim uchun eng mos neyron tarmoq arxitekturasi tanlanadi. Masalan, talabalar javoblarini analiz qilishda rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) yoki konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) ishlatilishi mumkin.
3. Modelni o‘qitish: Talabalar ma’lumotlari asosida neyron tarmoqni o‘qitish jarayoni amalga oshiriladi. O’qitish jarayonida asosiy e’tibor ma’lumotlarning aniqligiga va balansiga qaratiladi.
4. Modelni tekshirish va optimallashtirish: Olingan model test ma’lumotlari orqali tekshiriladi va uning aniqligi baholanadi. Zarurat bo‘lsa, model parametrlari qayta sozlanadi.

Neyron tarmoqlar yoki sun’iy neyron tarmoqlar, haqiqatan ham biologik neyronlardan ilhomlanib yaratilgan matematik modellar hisoblanadi. Ular katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega [6].

Neyron tarmoqlar sun’iy intellekt sohasining asosiy qismi bo‘lib, ular katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega [5].

Ta’lim tizimida ular quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

1. **Bilimni baholash:** Neyron tarmoqlari talabalar bilimini sinov va testlar orqali avtomatik baholashda yordam beradi. Bu usul orqali baholash natijalari tez va aniq bo‘ladi.
2. **Talabalarni kuzatish:** O’quv jarayonida talabalar faolligini kuzatish va ularning rivojlanishini tahlil qilish uchun neyron tarmoqlardan foydalanish mumkin.
3. **Shaxsiylashtirish:** Har bir talabaga moslashtirilgan ta’lim uslublarini ishlab chiqish va taqdim etish imkoniyatini beradi.


Natijalar. Talabalar bilimini baholashda neyron tarmoqlardan foydalanadigan platformalar asosan ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt (SI) yechimlarini joriy qiluvchi tizimlar hisoblanadi. Ushbu tezisda “Adaptiv raqamli ta’lim platformasi” asosida o‘quv resurslarini avtomatik tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berishda neyron tarmoq modellari tadqiq etiladi.

Platforma quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- **Resurs tahlili:** Fayllar (PDF, DOCX, PPTX) va videolarni (YouTube transkriptlari) mazmunini ajratib olish.
- **Test generatsiyasi:** OpenAI yordamida savollar yaratish (single_choice, multiple_choice).
- **Progress kuzatuvi:** Talaba resurslarni ko‘rish vaqti (StudentResourceView) va ballarini hisoblash.
- **Tavsiyalar:** AIRecommendation orqali mavzu doirasidagi ta’lim bo‘shliqlarini aniqlash va to‘ldirish uchun talabalarga tavsiyalar berish.

Platfromada resurs tahlili quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:


1. Fayl yuklash bosqichi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi tizim interfeysi orqali tegishli fan bo‘yicha yangi mavzuni kiritadi (1-rasm).



1-rasm. Mavzularni biriktirish oynasi

Mavzu kiritish jarayonida o‘qituvchi mashg‘ulot turini (ma’ruza, amaliy yoki mustaqil ta’lim) tanlaydi, bu esa keyinchalik resurslarning toifalanishi va ta’lim jarayonining strukturaviy tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur mexanizm platformaning ma’lumotlar bazasida o‘quv kontentini tartibli saqlash, mashg‘ulot turlariga mos metodik yondashuvlarni qo‘llash hamda foydalanuvchi tajribasini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu bosqichda o‘qituvchi tanlangan mavzuga oid o‘quv resurslarini tizimga yuklaydi (2-rasm). Ushbu resurslar tarkibiga **ma’ruza matnlari, taqdimotlar, amaliy topshiriqlar, videodarslar, grafik materiallar** va boshqa turdagi o‘quv kontentlari kiradi. Har bir fayl **resurs turi, format va tegishli mashg‘ulot turi** bo‘yicha avtomatik ravishda belgilab olinadi.



2-rasm. Resurs yuklash oynasi

2. Mazmunni ajratish va tahlil qilish bosqichi. Mazkur bosqichda platforma yuklangan resurslarning turiga qarab ularning mazmuniy tarkibini avtomatik ajratish va tahlilga tayyorlash jarayonini amalga oshiradi. Jarayonning maqsadi — o‘qituvchi tomonidan yuklangan turli formatdagi (PDF, DOCX, PPTX, video) o‘quv materiallardan asosiy matnni ajratib olish hamda keyingi neyron tarmoq tahliliga tayyor holga keltirishdan iborat.

Bu bosqich maxsus algoritmlar va kutubxonalar yordamida amalga oshiriladi:

PDF formatidagi fayllar PyPDF2 kutubxonasi yordamida tahlil qilinadi. extract_text_from_pdf() funksiyasi har bir sahifani o‘qib, matnni sahifalar kesimida ajratadi va ularni “--- page N ---“ shaklida belgilaydi.

PPTX (taqdimot) fayllari python-pptx yordamida qayta ishlanadi. Har bir slaydning matni, jadval va matn maydonlari tahlil qilinib, “--- slide N ---“ belgisi bilan ajratiladi.

Video kontent holatida tizim yt-dlp yordamida video fayldan audio trekni ajratib oladi va YouTubeTranscriptApi va OpenAI Whisper API asosida avtomatik transkripsiya qiladi. Natijada video mazmuni matnga aylantiriladi hamda [MM:SS] vaqt belgilari asosida segmentlanadi.

Olingan matn qismlari birlashtirilib, yagona strukturaviy formatga keltiriladi.


Bu yondashuv resurslarning turli formatlarini yagona tahliliy strukturaga keltirish imkonini beradi. Shu tarzda yaratilgan kontent keyinchalik AI modeli tomonidan konseptual tahlil (asosiy tushunchalarni aniqlash, tavsiflash, joylashuvni ko‘rsatish) va metodik kontent generatsiyasi uchun ishlatiladi.

Natijada ushbu bosqich ta’lim resurslarini avtomatik raqamli qayta ishlash, matnli ma’lumotni semantik tahlilga tayyorlash, hamda AI integratsiyasi uchun zarur bo‘lgan standart formatdagi kirish ma’lumotlarini shakllantirishni ta’minlaydi.

3. Neyron tarmoq integratsiyasi bosqichi. Mazkur bosqichda o‘quv resurslarining tahlil qilingan mazmuni asosida **OpenAI GPT-4** modeli bilan integratsiya amalga oshiriladi. Ushbu neyron tarmoq modeli matn, video transkript yoki taqdimot mazmuni asosida **mavzuning semantik tahlilini, asosiy tushunchalar aniqlanishini** hamda **shaxsiylashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqilishini** ta’minlaydi.

Tizim talabaning test natijalariga asoslanib, bilim bo‘shliqlarini yopish uchun ikki bosqichli adaptiv mexanizmni ishga tushiradi:

- **1-bosqich: Past sath kognitiv yuklama (Shallow Remediation):** Talaba birinchi urinishda testdan o‘tolmasa, tizim unga murakkab tushuntirish bermaydi. Buning o‘rniga, **source_location** bo‘yicha talaba to‘g‘ridan-to‘g‘ri manbaning tegishli qismiga yo‘naltiriladi.
- **2-bosqich: Yuqori sath kognitiv yuklama (Deep Remediation):** Agar talaba ikkinchi urinishda ham testdan o‘tolmasa, SI tizimi unga xato tahliliga asoslangan individual tushuntirish, to‘g‘ri javob izohi va amaliy misol taqdim etadi (3-rasm).



3-rasm. Test natijalari uchun 1-bosqichli Ai tavsiyalari

Sun’iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan individual tavsiyalar saqlanib boriladi, Ushbu tavsiyalar xar bir mavzu doirasida yaratilgan test natijalari uchun bo‘lib, talaba va o‘qituvchi ushbu tavsiyalarni ko‘rish imkoniga ega.

Xulosa. Neyron tarmoqlar asosidagi o‘quv resurslarini avtomatik tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish texnologiyasi ta’lim jarayonini raqamlashtirishda yangi bosqichni boshlab bermoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, OpenAI GPT-4 kabi sun’iy intellekt modellarini Django platformasiga integratsiya qilish o‘qituvchi faoliyatini yengillashtiradi, resurslar bilan ishlash jarayonini avtomatlashtiradi hamda talabalarning individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Allamova Sh. Sh. Ispol’zovaniye metodov smeshannogo obucheniya dlya povysheniya effektivnosti prakticheskikh zanyatiy v vuzakh [Using blended learning methods for increasing the effectiveness of practical training in higher education]. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta – Tomsk State Pedagogical University Bulletin, 2023, vol. 5 (229), pp. 112–120 (in Russ.). https://doi.org/10.23951/1609- 624X-2023-5-112-120

2. Naveed Ur Rehman Junejo, Qingsheng Huang, Xiaoqing Dong, Chang Wang, Adnan Zeb, Mahammad Humayoo & Gengzhong Zheng // SAPPNet: students’ academic performance prediction during COVID-19 using neural network. *Scientific Reports* volume 14, Article number: 24605 (2024)

3. Ahlam Almalawi, Ben Soh, Alice Li, Halima Samra // Predictive Models for Educational Purposes: A Systematic Review. Big Data Cogn. Comput. 2024, 8, 187. https://doi.org/10.3390/ bdcc8120187

4. Xu S, Wang Y, Luo W (2024) Hybrid SEM-ANN model for predicting undergraduates’ e-learning continuance intention based on perceived educational and emotional support. PLoS ONE 19(12): e0308630. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0308630

5. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning. *Nature*, 521(7553), 436-444.

6. Sh.Sh.Allamova. Talabalar bilimini neyron tarmoqlar asosida baholash tizimini takomillashtirish // Kasb-hunar ta’limi. -№12, 2024. S. -82-85

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA O’QUV REJALARINI MOSLASHTIRISH ORQALI MAKTAB–KOLLEJ–UNIVERSITET O’RTASIDA UZLUKSIZLIKNI TA’MINLASH

Djurayeva Buvsara Abdumannonovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti Axborot texnologiyalari va tizimlari kafedrasi
Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD).v.b.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanib maktab, kollej va universitet bosqichlari o‘rtasida o‘quv rejalari va kompetensiyalarni uzluksiz bog‘lash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning kompetensiya xaritasini yaratish, o‘quv dasturlarini integratsiyalash, o‘quv jarayonini moslashtirish va ta’lim analitikasi kabi yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ta’lim uzluksizligini ta’minlashning afzalliklari, muammolari va joriy etish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, uzluksiz ta’lim, kompetensiyalar xaritasi, moslashtirilgan o‘quv rejasi, ta’lim analitikasi.

Zamonaviy ta’lim tizimida uzluksizlikni ta’minlash – bu maktab, kollej va universitet tizimi o‘rtasida izchil, uyg‘un hamkorlik yaratish, o‘quv rejalari va kompetensiyalar o‘rtasidagi bo‘shliq va takrorlanishlarni kamaytirish demakdir. An’anaviy yondashuvlarda o‘quv dasturlarini solishtirish ko‘p vaqt talab etuvchi va sub’yektiv jarayon bo‘lib kelgan. Sun’iy intellekt texnologiyalari bu jarayonni avtomatlashtirish, o‘quvchilar profillarini shakllantirish va individuallashtirilgan o‘quv yo‘llarini yaratish imkonini beradi [2].

Sun’iy intellektning o‘quv rejalarini moslashtirishdagi roli. Talabalarni baholash va individual profillar yaratish deganda, sun’iy intellect (SI) algoritmlari o‘quvchilarning bilim darajasini, qiziqishlarini va o‘rganish tezligini aniqlab, individual profillar yaratadi. Ushbu profillar asosida moslashtirilgan o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Masalan, matematika bo‘yicha kuchli, lekin ingliz tili bo‘yicha zaif talaba uchun qo‘shimcha materiallar va modul tavsiya qilinadi [4].

O’quv yo‘nalishlarini integratsiyalash orqali sun’iy intellekt (SI) o‘quv dasturlarini maktabdan kollejga va kollejdan universitetga uzluksiz moslashtiradi. Bu talabalarga bilim bo‘shliqlarini bartaraf etish va keyingi bosqichga muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlash imkonini beradi.

Ta’lim analitikasi (Learning Analytics) sun’iy intellekt (SI) yordamida o‘quv jarayonini real vaqt rejimida kuzatadi, muvaffaqiyatsizlik xavfini oldindan aniqlaydi va kerakli choralarni tavsiya qiladi. Bu esa uzluksizlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi [1].

O’quv jarayonini moslashtirish yondashuvlari adaptiv o‘quv tizimlari, talabaning bilim darajasiga qarab material va topshiriqlarni moslashtiradi. Kompetensiyalar xaritasi esa talabaning rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatib, keyingi bosqichga o‘tishda qaysi kompetensiyalarni mustahkamlash kerakligini aniqlaydi. Individual o‘quv rejalari, sun’iy intellekt (SI) asosida o‘quvchi uchun shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishi yaratiladi, bu esa maktabdan universitetgacha uzluksizlikni kafolatlaydi.

Afzalliklar:

- O’quvchilar bilim bo‘shliqlarini bartaraf etadi.
- Ta’lim jarayoni samarali va uzluksiz bo‘ladi.
- Talabalar o‘z qiziqish va salohiyatiga mos yo‘nalishda rivojlanadi.
- Ta’lim muassasalari o‘rtasida integratsiya kuchayadi.

Muammolar:

- Sun’iy intellekt (SI) tizimlarini joriy etish xarajat talab qiladi;
- O’qituvchilar va talabalarning texnologiyaga tayyorligi talab qilinadi;
- Ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash zarur[3].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida o‘quv rejalarini moslashtirish maktab–kollej–universitet uzluksizligini ta’minlashga sezilarli hissa qo‘shadi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini individuallashtirish, bilim bo‘shliqlarini kamaytirish va talabalarning to‘liq imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Kelajakda sun’iy intellekt (SI) integratsiyalangan ta’lim tizimlari mamlakatlar ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy ish bozoriga tayyorlashda muhim vosita bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati

1. Baker, R., & Siemens, G. (2014). Educational data mining and learning analytics. In K. Sawyer (Ed.), Cambridge Handbook of the Learning Sciences (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
3. Kasimova, D. (2024). Sun’iy intellekt yordamida uzluksiz ta’lim tizimlarini rivojlantirish. Ta’lim Innovatsiyalari Jurnali, 5(2), 34–45.
4. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. EDUCAUSE Review, 46(5), 30–40.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗНЫХ СТРАНАХ, В ТОМ ЧИСЛЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ

Абдуллаева Нилуфар Бахриддиновна
Преподаватель кафедры языков университета ZARMED
Бухара, Узбекистан
abdullaevanilus@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются современные подходы к оценке качества образования в различных странах мира, включая Узбекистан. Проанализированы ключевые модели международных систем оценивания (PISA, TIMSS, PIRLS) и национальные практики внутреннего и внешнего мониторинга качества образования. Особое внимание уделено реформам, проводимым в Республике Узбекистан в контексте интеграции в международное образовательное пространство. Определены общие тенденции и отличительные особенности подходов к оценке качества образования, выделены направления совершенствования национальных систем на основе международного опыта.

Ключевые слова: *качество образования, международные исследования, PISA, TIMSS, Узбекистан, оценка образовательных результатов, образовательные реформы.*

1. Введение

Качество образования является стратегическим приоритетом для устойчивого развития общества и национальной конкурентоспособности. В современном мире повышение качества образовательных результатов рассматривается не только как внутренняя задача государства, но и как элемент международного сравнения и сотрудничества.

Международные организации, такие как **OECD**, **UNESCO** и **IEA**, разработали системы глобальных исследований, позволяющих оценивать эффективность образовательных систем на основе объективных данных. Среди них — **PISA**, **TIMSS** и **PIRLS**, результаты которых активно используются для выработки образовательной политики.

В последние годы активные шаги в направлении модернизации системы оценки качества образования предпринимает **Республика Узбекистан**, ориентируясь на интеграцию в международное образовательное пространство и развитие национальных механизмов мониторинга качества.

2. Анализ литературы и методология исследования

Исследование базируется на анализе научных публикаций и официальных документов международных и национальных организаций в области оценки качества образования[1][2][3] .

Методы исследования:

- **Контент-анализ** отчетов международных исследований (PISA, TIMSS, PIRLS) и национальных стратегий;
- **Сравнительный анализ** систем оценки качества образования в России, Финляндии, США, Великобритании и Узбекистане;
- **Аналитический обзор** нормативных документов Министерства дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан (2022–2024 гг.).

Методологическая основа опирается на системный и компетентностный подходы, позволяющие рассматривать качество образования как совокупность показателей, отражающих достижения обучающихся, педагогов и образовательных организаций.

3. Обсуждение

Международные исследования показывают, что разные страны используют различные модели оценки качества образования, отражающие их культурные, экономические и управленческие особенности.

- **США** применяют систему **NAEP**, которая ориентирована на регулярные национальные тестирования по ключевым предметам.

- **Великобритания** использует инспекционную модель (**Ofsted**), сочетающую количественные и качественные методы анализа.
- **Финляндия** делает акцент на **внутренней самооценке школ** и профессиональной автономии педагогов.
- **Россия** сочетает **внешнюю оценку (ЕГЭ, ВПР)** и участие в международных исследованиях.

Узбекистан в последние годы активно реформирует систему оценки качества образования. В 2019 году республика впервые приняла участие в исследовании **PISA**, что стало важным шагом в интеграции в международное образовательное пространство. В рамках национальной стратегии развития образования (2022–2026) создаётся **Национальная система оценки качества образования (НСОКО)**, включающая:

- мониторинг образовательных достижений учащихся;
- внедрение национальных и международных стандартизированных тестов;
- развитие цифровых платформ для сбора и анализа данных;
- подготовку педагогов в области оценочных компетенций.

Кроме того, Министерство дошкольного и школьного образования Узбекистана активно сотрудничает с **Всемирным банком**, **OECD** и **UNESCO**, что способствует внедрению международных практик в национальную систему[4][5][6].

4. Результаты исследования

Сравнительный анализ позволил выявить ряд закономерностей и отличий:

1. **Международные исследования** способствуют выработке единых индикаторов оценки качества образования, обеспечивающих сопоставимость результатов.

2. **Развитые страны** (Финляндия, Великобритания, США) делают акцент на комплексной оценке — сочетании тестирования, наблюдения, самоанализа и цифровой аналитики.

3. **Развивающиеся страны**, включая Узбекистан, находятся в стадии формирования устойчивой системы оценки, активно внедряя международные подходы и цифровые инструменты.

4. **Узбекистан** демонстрирует положительную динамику: участие в PISA стимулировало пересмотр учебных программ, методов преподавания и критериев оценивания.

5. **Тенденция к цифровизации** оценки качества образования становится глобальной — активно применяются платформы для Learning Analytics и автоматизированные инструменты обратной связи[7][8][9].

5. Заключение

Проведённое исследование показало, что универсальной модели оценки качества образования не существует. Вместе с тем можно выделить общие направления развития: интеграция международных инструментов, развитие цифровых технологий оценивания и повышение профессиональной компетентности педагогов.

Для Узбекистана приоритетными задачами остаются:

- дальнейшая адаптация международных критериев к национальному контексту;
- развитие системы внутреннего и внешнего мониторинга качества;
- формирование культуры оценки как элемента профессионального роста педагогов;
- укрепление международного сотрудничества в сфере образования.

Таким образом, Узбекистан движется в направлении создания гибкой, прозрачной и ориентированной на развитие личности системы оценки качества образования, соответствующей мировым тенденциям.

Список использованной литературы

1. Болотов В.А., Ковалева Г.С. Оценка качества образования: современные подходы и тенденции. // Педагогика. — 2018. — № 6. — С. 5–15.

2. Шлейхер, А. PISA 2018: Аналитические материалы и интерпретации. — Издательство ОЭСР, Париж, 2020.

3. ОЭСР. Education at a Glance 2023: Показатели ОЭСР. — Париж: Издательство ОЭСР, 2023.
4. ЮНЕСКО. Глобальный доклад по мониторингу образования 2022. — Париж, 2022.
5. Министерство дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан. Стратегия развития образования на 2022–2026 годы. — Ташкент, 2022.
6. Всемирный банк. Анализ сектора образования Узбекистана: пути к результатам. — Вашингтон, округ Колумбия, 2023.
7. Ofsted. Система инспекции образования. — Лондон, 2021.
8. Сальберг, П. Финские уроки: чему может научиться мир из изменений в образовании в Финляндии? — Teachers College Press, 2021.
9. Национальный центр образовательной статистики (NCES). Национальный отчёт (NAEP). — Вашингтон, округ Колумбия, 2022.

ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALAR VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA NEMIS TILI DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYASI

Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna
Qo‘qon davlat universiteti
2-bosqich doktoranti, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+998 90 055 46 22
Zulfiya1980@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy didaktik ta’minot vositalari va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanib, nemis tili darsliklarini yaratish masalalari yoritilgan. Ilmiy tadqiqot uchun olib borilgan tajriba-sinov ishlari O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Samarqand davlat chet tillari institutida amalga oshirilgan bo‘lib, natijalar tahlili darsliklarning samaradorligi hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalarining darslik yaratish jarayonida o‘qituvchi uchun yordamchi metodik manba sifatidagi afzalliklari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы создания учебников немецкого языка с использованием современных дидактических средств и технологий искусственного интеллекта (ИИ). Экспериментальные исследования были проведены в Узбекском государственном университете мировых языков, Чирчикском государственном педагогическом университете и Самаркандском государственном институте иностранных языков. Анализ результатов показал эффективность учебников и их положительное влияние на развитие коммуникативной компетенции студентов. Кроме того, в статье проанализированы преимущества использования инструментов искусственного интеллекта, таких как ChatGPT, в качестве вспомогательного методического ресурса для преподавателей в процессе создания учебных материалов.

Abstract. This article explores the development of German language textbooks using modern didactic tools and artificial intelligence (AI) technologies. The experimental studies were conducted at the Uzbekistan State University of World Languages, Chirchik State Pedagogical University, and Samarkand State Institute of Foreign Languages. The analysis of results demonstrates the effectiveness of the textbooks and their positive impact on the development of students’ communicative competence. Furthermore, the article highlights the advantages of using artificial intelligence tools, such as ChatGPT, as a supportive methodological resource for teachers in the textbook creation process.

Kalit so‘zlar: nemis tili, didaktik ta’minot, sun’iy intellekt, darslik texnologiyasi, kommunikativ yondashuv, tajriba-sinov, ChatGPT.

Ключевые слова: немецкий язык, дидактическое обеспечение, искусственный интеллект, технология учебников, коммуникативный подход, эксперимент, ChatGPT.

Keywords: German language, didactic support, artificial intelligence, textbook technology, communicative approach, experimental study, ChatGPT.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalarning joriy etilishi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Til o‘qitish, xususan nemis tili ta’limida zamonaviy didaktik ta’minot vositalariga bo‘lgan talab sezilarli darajada ortmoqda. Nemis tili darsliklari ko‘p hollarda an’anaviy formatda tuzilgani bois, ularning amaliy, interaktiv va kommunikativ jihatlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, zamonaviy talablar asosida yangi avlod darsliklarini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan bo‘lib, unda sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan ChatGPT modeli yordamida o‘quv materiallarini avtomatik yaratish, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish hamda o‘qituvchining metodik ishini yengillashtirish imkoniyatlari o‘rganildi.

2. Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tahlil va sintez metodi – mavjud nemis tili darsliklarining mazmuniy, lingvodidaktik va metodik jihatdan tahlil qilinishi;

- Tajriba-sinov metodi – yangi darslik loyihasi asosida o‘quv jarayonini to‘rt oliy ta’lim muassasasida sinovdan o‘tkazish (O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Qo‘qon davlat universiteti);

- Kuzatuv va intervyu – o‘qituvchilar va talabalar fikrini aniqlash, yangi texnologiyalar bo‘yicha takliflarni yig‘ish;

- Sun’iy intellekt integratsiyasi – ChatGPT platformasidan foydalanib, B1 darajadagi mamlakatshunoslik mavzulariga oid interaktiv mashg‘ulotlar, testlar va matnlar yaratish.

Tajriba-sinov 2024–2025 o‘quv yillarida amalga oshirildi. Unda jami 429 nafar talaba va professor-o‘qituvchilar ishtirok etdi.

3. Natijalar. Tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

1. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasi 25–30% ga oshdi.

2. Interaktiv darslik modullari (LearningApps, Kahoot, Wordwall, Lückentext va Zuordnungstyp mashqlari) talabalarning mustaqil ishlash motivatsiyasini kuchaytirdi.

3. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan mashqlar o‘qituvchining tayyorgarlik vaqtini 40% ga qisqartirdi.

4. ChatGPT orqali ishlab chiqilgan matnlar va testlar B1 daraja talablariga to‘liq mos kelgani aniqlandi.

5. Talabalarning fikricha, SI asosidagi mashg‘ulotlar “ko‘proq muloqotga yo‘naltirilgan” va “zamonaviy” sifatida baholandi.

4. Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy darslik yaratishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish didaktik samaradorlikni sezilarli oshiradi. ChatGPT kabi tizimlar yordamida o‘qituvchi:

- mavzular uchun soddalashtirilgan matn va topshiriqlarni tez tayyorlaydi;
- interaktiv platformalar (LearningApps, Kahoot, Wordwall) bilan integratsiyalangan mashqlarni yaratadi;

- talabalarning individual o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda materialni moslashtiradi.

Biroq, sun’iy intellektdan foydalanishning ayrim cheklovlari ham mavjud:
- SI tomonidan yaratilgan matnlarning ilmiy aniqligi va madaniy mosligi o‘qituvchi tomonidan tahrir qilinishi zarur;

- pedagogik mas’uliyatni to‘liq avtomatlashtirish mumkin emas;

- talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun SI faqat yordamchi vosita sifatida ishlatilishi kerak.

Shunga qaramay, o‘qituvchi va sun’iy intellekt o‘rtasidagi samarali hamkorlik darslik yaratish jarayonida yangi didaktik paradigmaga asos soladi.

5. Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektga asoslangan darslik yaratish texnologiyasi nemis tili o‘qitish jarayonining sifatini oshiradi. ChatGPT va shunga o‘xshash platformalar yordamida:

- o‘qituvchi dars materiallarini avtomatik ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- talabalarning mustaqil ishlash va fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;
- darsliklar zamonaviy, interaktiv va kommunikativ yondashuvga mos shaklga ega bo‘ladi.

Kelgusida bu yo‘nalishda SI asosida adaptiv o‘quv modullarini yaratish, avtomatik baholash tizimlarini ishlab chiqish hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi onlayn darsliklarni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Köbis, L. (2023). Künstliche Intelligenz in der DaF/DaZ-Lehre: Theoretischer Überblick und praktischer Einsatz. GFL Journal, 2, 31–53.

2. Saydalieva N.F. Chet Tillarini O’qitishda Kommunikativ Yondashuv // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. - 2022. - T. 2. - №. Special Issue 20. - S. 275-281.

3. OpenAI. (2024). ChatGPT in Education: Applications and Ethics. – San Francisco: OpenAI Research Paper.

4. Yo‘ldashev, A. (2022). Ta’limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 3(11), 726-729

TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEHANIZMLARI

Usanov Sarvar Anvarovich
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Registrator ofisi menejeri
Telefon:+998(93) 301-11-76
E-mail: sarvar_uzb@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada, zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishdagi o‘rni o‘rganilgan. Raqamlashtirishning oliy ta’lim tizimiga ta’siri tahlil etilib, raqamli texnologiyalar yordamida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlar bazasini rivojlantirish va o‘quv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari belgilangan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, axborot tizimlari, boshqaruv faoliyati, hemis, integratsiya, elektron ta’lim, mehnat bozori, ijtimoiy integratsiya, ta’lim sifati, innovatsion g‘oya, raamli platforma.

Аннотация: В статье рассматривается применение современных технологий и цифровых инструментов в системе образования, особенно в высших учебных заведениях, для повышения эффективности управления. Проанализировано влияние цифровизации на систему высшего образования, а также определены пути автоматизации процессов управления, развития баз данных и повышения эффективности управления образовательным процессом с использованием цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровизация, информационные системы, управленческая деятельность, полусистемы образования, интеграция, электронное обучение, рынок труда, социальная интеграция, качество образования, инновационная идея, фреймворковая платформа.

Annotation: This article examines the use of modern technologies and digital tools in the education system, especially in higher education institutions, in increasing management efficiency. The impact of digitalization on the higher education system is analyzed, and ways to automate management processes, develop databases, and increase the efficiency of educational process management using digital technologies are identified.

Key words: digitization, information systems, management activities, hemis, integration, e-learning, labor market, social integration, quality of education, innovative idea, framework platform

Kirish. Dunyo bo‘ylab raqamlashtirish jarayonlari tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Ta’lim tizimlari ham raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali global talab va ehtiyojlarga

moslashmoqda. Bu esa mamlakatimizda raqobatbardosh ta’lim tizimini shakllantirish uchun oliy ta’limda boshqaruvni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish hamda ta’lim sohasini zamon talablari asosida yanada takomillashtirishni taqazo qilmoqda.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyillari asosida yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilishi inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali ijtimoiy davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borilishi mamlakatimizning bosh strategik maqsadi qilib belgilab berildi.[1]

Ayniqsa mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotni va jamiyatni rivojlantirisga mo‘ljallangan "Raqamli O’zbekiston – 2030" strategiyasining amalga oshirilishi Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, oliy ta’lim tizimi xalqaro standartlar asosida raqamlashtirish va ta’lim sifatini oshirishni, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni samarali boshqarish, talabalar va pedagoglar uchun zamonaviy raqamli platformalarni joriy etish, Innovatsion texnoloiyalarni joriy etish kabi maqsadlarni belgilab berdi.[2]

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada O’zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti ning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909 sonli, “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ 3151-sonli, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-3775-sonli Qarori va O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish to‘g‘risidagi 2019 yil 8 oktabrdagi qabul qilingan konsepsiyasi, "Raqamli O’zbekiston – 2030" strategiyasi 2020-yil 5-oktabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli farmonibitiruv ishini tayyorlashda asosiy dastur qilib olingan.

MUHOKAMA

Oliy ta’limda raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Jumladan:

- Jamiyatda teng imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi.
- Innovatsiyalarni rivojlantiradi va mehnat bozoriga mos kadrlarni tayyorlaydi.
- Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi, resurslarni tejaydi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Oliy ta’limni raqamlashtirish jarayoni nafaqat ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qiladi, balki uning ta’siri jamiyat va iqtisodiyotning turli jabhalarida ham seziladi. Uning asoslari kengroq tahlil qiladigan bo‘lsak:

Ijtimoiy ta’sir jihatidan

1. Ta’limga teng imkoniyatlar yaratishi - nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratilishi va ta’limda korrupsiyaning kamayishiga olib keladi.

2. Raqamli savodxonlikning oshishi - talabalar va o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganadilar. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatning raqamli madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi;

3. Ijtimoiy integratsiya - Raqamli platformalar orqali talabalar va o‘qituvchilar turli mamlakatlardagi hamkasblar bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu ta’limning xalqaro

integratsiyasini tezlashtiradi, shuningdek innovatsion g‘oyalarni muhokama qilish va hamkorlikni kuchaytiradi.

Iqtisodiy ta’siri jihatdan

1. Mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashuvi - iqtisodiyotga zarur kadrlarni tayyorlash. Bu ta’limni raqamlashtirish orqali talabalar zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtiradi va kelajakda raqamli iqtisodiyotning ehtiyojlariga javob beruvchi malakali mutaxassislarni yetishtirishga imkon beradi.

2. Samaradorlikni oshirish - Qog‘oz va jismoniy resurslarni tejash. Bu elektron darsliklar, onlayn kurslar va raqamli platformalar orqali qog‘oz sarfi kamayadi va natijada iqtisodiy va ekologik jihatdan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali talabalar hujjatlarini yuritish, qabul jarayonlarini boshqarish va baholash tizimlarini avtomatlashtirish vaqt va mablag‘ni tejaydi.

3. Innovatsiyalarni rivojlantirish - raqamlashtirish va ilm-fan integratsiyasi. Bu ta’lim muassasalari innovatsion texnologiyalarni tadqiqot va o‘quv jarayonlariga keng tatbiq qiladilar va yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish uchun imkoniyat ochadi. Startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali raqamli muhit talabalar va professorlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va startap loyihalarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

4. Ta’lim xizmatlarining eksporti - xalqaro talabalarni jalb qilish. Bu raqamlashtirilgan ta’lim platformalari orqali xorijiy talabalar masofaviy ravishda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi va oliy ta’lim xizmatlarining eksportini oshiradi.

Raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri nafaqat ta’lim tizimini, balki jamiyatning turli sohalarini rivojlantirishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi texnologiyalar yordamida ta’limning samaradorligini, tenglik va global raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirish va jamiyatda innovatsiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari ochiladi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish davomida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davlatlar va jamiyatlar darajasida keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Bu jarayon davlatni global raqamli iqtisodiyot va ta’lim bozorida yuqori o‘rinlarga olib chiqishga zamin yaratadi.

NATIJALAR

Oliy ta’lim tizimida hozirgi kunda boshqaruv faoliyatini va o‘quv jarayonlarini tashkil etish 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab asosan HEMIS axbarot tizimida olib borilmoqda. Bu esa OTMlarning boshqaruv faoliyatini samarali tashkil metishda muhim omil bo‘lmoqda.

HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma’muriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar hamda talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi. Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimining (HEMIS) yaratilishi universitetning ma’muriy, o‘quv va ilmiy faoliyatini avtomatlashtirish, o‘qituvchilar va talabalar uchun zamonaviy elektron xizmatlarni taqdim etish, oliy ta’lim muassasalarining axborot-ta’lim korporativ portalini yaratish imkonini beradi.

Hemis tizimning joriy etilishi natijasida oliy ta’lim muassasalari bilan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o‘rtasida ta’lim jarayoni va ma’muriy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarning elektron almashinuvi va vazirlikning axborot tizimlari bilan integratsiyalashuviga erishiladi.

Tizimda o‘quv jarayoniga tegishli quyidagi hujjatlar hisobini avtomatlashtiriladi: kontingent, o‘quv dasturlari, ishchi o‘quv dasturlari, dars jadvali, talabalr akademik guruhlarining jurnali, talabalar reyting qaydnomasi, talabalar reyting daftarchasi, akademik ma’lumotnoma.

Hemis axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o‘zaro aloqasini integratsialashuvi bu oliy ta’limni boshqaruv jarayonida juda kata samara beradi.

Raqamlashtirilgan axborot tiziminig Oliy ta’lim tizimida qo‘llanishi **bu, ma’lumotlar almashinuvini tezlashtirishga, samaradorlikni oshirishga, shaffoflik va adolatni ta’minlashga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, talabalar uchun qulayliklar yaratishga, strategik rejalashtirishni kuchaytirishga eng asosiysi boshqaruv samaradorligining yuqori darajada oshishiga olib keladi.**

XULOSA

Oliy ta’limda tizimida strategik qarorlar qabul qilishga ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning ta’siri juda katta. Ta’lim tizimi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan bo‘lib, bu omillar universitetlarning strategik qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasalari o‘z strategiyalarini belgilashda ijtimoiy-iqtisodiy holatni hisobga olishlari kerak, chunki ular har bir sohaga oid muammolar va imkoniyatlardan foydalanish orqali rivojlanishga harakat qiladilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oliy ta’lim tizimida boshqaruvning samaradorligini oshirish ta’lim sifatini yaxshilash va muassasaning global miqyosda raqobatbardoshligini ta’minlash uchun zarurdir. Raqamli texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va samarali strategiyalar oliy ta’lim tizimining rivojlanishiga katta yordam beradi. Boshqaruvning samarali tashkil etilishi o‘quv jarayonining sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash va jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”dagi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi ““Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 103-sonli qarori 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-sonli qarori.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O’zbekiston -2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son farmoni -sonli Farmoni

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi «O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5185-sonli Farmoni // www.lex.uz.

CASE STUDY TEXNOLOGIYASINING MATEMATIKA FANINI O’QITISHDAGI IMKONIYATLARI

Usarov Sardor Abdunazirovich
JDPU Matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi
sardorusarov10@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Case study texnologiyasini matematika darslarida qo‘llash ijobiy va salbiy tomonlari hamda ana’naviy darslarda ushbu texnologiyani singdirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Case study, matematika, muammoli vaziyat.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarni faol fikrlashga, ijodkorlikka va tanqidiy yondashuvga undaydigan metodlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, aniq fanlar, jumladan matematika fanini o‘qitishda bu zarurat yanada yaqqol sezilmoqda. Chunki matematika abstrakt tushunchalar, mantiqiy qonuniyatlar va formulalarga boy bo‘lib, uni faqat izohlash yoki ma’ruza tarzida o‘qitish o‘quvchilarni zeriktirishi va mavzuni chuqur anglashlariga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu boisdan, o‘quv jarayoniga interaktiv, muammoli va amaliy yondashuv asosidagi metodlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.


Shunday zamonaviy yondashuvlardan biri — Case Study, ya’ni muammoli o‘qitish texnologiyasi hisoblanadi. Mazkur texnologiya XX asr boshlarida Garvard universitetida

huquqshunoslikni o‘qitishda ilk bor qo‘llanilgan (Mersin, 1921). Keyinchalik u tibbiyot, iqtisodiyot, menejment va pedagogika kabi ko‘plab sohalarda o‘z samarasini ko‘rsatgan. Ushbu metodning asosiy g‘oyasi — o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda fikrlash, muammoni tahlil qilish, turli yechimlarni solishtirish va asosli qaror qabul qilishga o‘rgatishdir.

Amerikalik pedagog va faylasuf J. Dewey ta’limni hayotiy tajriba bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan. Case Study metodining psixologik asoslari ham aynan Deweyning faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik konsepsiyasida o‘z aksini topgan. Shuningdek, I. Lerner, V.V. Kraevskiy va M.N. Skatkin singari olimlar ta’limda muammoli yondashuv o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashi, yangi bilimni o‘zi izlab topishga sharoit yaratishini qayd etishgan. Ularning fikricha, Case Study metodikasi o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol izlanish ishtirokchisiga aylantiradi.

O’zbekistonlik tadqiqotchilar — R. Qodirov, M. Mamajonov, G. Jo‘rayev va boshqalar ham innovatsion o‘qitish metodlari, xususan, real vaziyatlarga asoslangan o‘quv topshiriqlarning samaradorligini ilmiy jihatdan o‘rganishgan. Ularning izlanishlariga ko‘ra, Case Study texnologiyasi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish, tahliliy qarash va muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, matematika fanining o‘ziga xos jihatlari — aniq formulalar, qat’iy mantiq va isbot talab etilishi — ushbu metodni qo‘llashda ma’lum metodik murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ammo to‘g‘ri tanlangan holatlar, real hayotdan olingan iqtisodiy, texnik yoki ijtimoiy mazmundagi masalalar yordamida bu qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin. Masalan, o‘quvchilarga amaliy muammo asosida matematik model tuzish yoki tahliliy yechim topish topshirig‘i berilsa, ular nafaqat bilimni qo‘llash, balki mantiqiy, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitishda Case Study texnologiyasini qo‘llashning metodik asoslari, amaliy tajribasi va natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu metodning o‘quvchilarning bilim darajasi va faolligiga ta’siri eksperimental jihatdan o‘rganiladi. Case Study texnologiyasining matematika darslaridagi qo‘llanilishi bir qancha ijobiy pedagogik va psixologik afzalliklarga ega.



1-rasm. Case study texologiyasi o‘quvchilarda yuqoridagi qobilyatlarni shakllantiradi.

Shu bilan birga, Case Study texnologiyasini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ayrim muammoli jihatlar ham mavjud:

- O’qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik talab qilinadi. Har bir case (holat) uchun alohida ssenariy, savollar tizimi, muhokama yo‘nalishlari ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchidan kreativlik, tajriba va didaktik mahoratni talab etadi.

- Vaqt jihatidan murakkabliklar tug‘ilishi mumkin. Bir nechta case ustida ishlash odatdagi darsga nisbatan ko‘proq vaqt talab etadi. Shuningdek, guruhlar bilan ishlashda vaqtni boshqarish muhim bo‘ladi.

- Moslashtirilgan materiallarning yetishmasligi ham katta muammo hisoblanadi. Ko‘plab o‘quv qo‘llanmalarda an’anaviy yondashuvlar ustuvor bo‘lib qolmoqda. Aksariyat case-lar xorijiy kontekstga asoslangan bo‘lib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish lozim bo‘ladi.

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur. Ularda turli sinf va mavzular uchun moslashtirilgan Case Study ssenariylari, baholash mezonlari va savol-javob tizimlari bo‘lishi kerak.
- O’qituvchilar uchun trening va seminarlar tashkil etilishi lozim. Bu orqali pedagoglar bu texnologiyani qanday qo‘llash, vaqtni taqsimlash, baholash mezonlarini aniqlash kabi ko‘nikmalarni egallaydi.
- O’zaro tajriba almashinuvi uchun platformalar yaratish – ya’ni o‘qituvchilar o‘z Case Study tajribalarini boshqa hamkasblari bilan baham ko‘rishi mumkin bo‘lgan elektron kutubxona yoki forumlar tashkil etilishi lozim.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, Case Study texnologiyasi matematika darslarida o‘quvchilar bilimining chuqurlashuvi, fikrlash darajasining rivojlanishi hamda real muammolarni tahlil qilish va samarali yechim topish ko‘nikmalarining shakllanishida samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

An’anaviy yondashuv bilan solishtirilganda, Case Study:

1. O’quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi;
2. Abstrakt matematik tushunchalarni real kontekstda tushunishga yordam beradi;
3. O’quvchilarda metakognitiv va reflektiv fikrlash, jamoaviy ishlash, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi;
4. O’quv motivatsiyasini oshiradi va darsni hayotga yaqinlashtiradi.

Eksperiment natijalari, so‘rovnomalar va test baholari asosida ushbu metodning ijobiy pedagogik samarasi isbotlangan. Ayniqsa, o‘quvchilarning darsdagi faolligi, qiziqishi va mustaqil fikrlashga tayyorligi sezilarli darajada oshgan.

Bu metodni umumiy o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, ya’ni darsliklar, ish daftarlari va elektron resurslarda maxsus Case Study ssenariylarini kiritish lozim. O’qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, treninglar va amaliy seminarlar tashkil etilishi orqali bu texnologiyaning keng joriy etilishi ta’minlanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Case Study texnologiyasi ta’lim sifatini oshirish, funksional savodxonlikni shakllantirish va o‘quvchini XXI asr talablari darajasida tayyorlash yo‘lida istiqbolli va samarali usullardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education.* New York: Macmillan.
2. Bruner, J. S. (1961). *The Act of Discovery*. Harvard Educational Review, 31(1), 21–32.
3. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. New Jersey: Prentice Hall.
4. Vigotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
5. Savery, J. R. & Duffy, T. M. (1995). *Problem Based Learning: An Instructional Model and its Constructivist Framework.* Educational Technology, 35(5), 31–38.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTNING O’RNI

Qarshieva Dilbar Eshpulatovna.
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD),
CHDPU pedagogika fakulteti“Umumiy pedagogika” kafedrasi v.b dotsenti
Email: d.karshiyeva1986@gmail.com
Тел: +998 88 249 08 86
CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili) yo‘nalishi talabalari
Aminbayeva Dilnura muxtar qizi, Baxtiyorova Shoira Nurbek qizi, Egamerova Kibriyobonu Nu’monjon qizi, Mammatsalayeva Shodiyaxon Mansur qizi, Turaboyeva Shoxsanam Zoxiddin qizi

Аннотatsiya: Maqolada ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektni qabul qilish o‘ziga xos imkoniyatlar va

muammolarni yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada O’zbekistondagi ta’limning bugungi holati o‘rganilib, ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalar belgilab berilgan, ushbu muammolarni hal qilishda AIning roli atroflicha tahlil qilingan va ta’limga AIni samarali tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ta’limda sun’iy intellekt, modernizatsiya, muammolar, yechimlar, innovatsiya, raqamli savodxonlik, ta’lim islohoti, masofaviy ta’lim.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье исследуется, как интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в образование становится преобразовательной силой во всем мире, предлагая инновационные решения вековых проблем и формируя будущее образования. В условиях Узбекистана, где реформирование и модернизация системы образования является главным приоритетом, внедрение искусственного интеллекта представляет уникальные возможности и проблемы. В данной статье изучено современное состояние образования в Узбекистане, определены основные задачи, стоящие перед системой образования, подробно анализируется роль ИИ в решении этих проблем, а также обсуждаются практические рекомендации по эффективному внедрению ИИ в образование.

Ключевые слова: образование, искусственный интеллект в образовании, модернизация, проблемы, решения, инновации, цифровая грамотность, образовательная реформа, дистанционное образование**.**

USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

ABSTRACT: The article explores how the integration of artificial intelligence (AI) into education is emerging as a transformative force around the world, offering innovative solutions to age-old problems and shaping the future of education. In the conditions of Uzbekistan, where the reform and modernization of the education system is the main priority, the adoption of artificial intelligence presents unique opportunities and challenges. In this article, the current state of education in Uzbekistan is studied, the main tasks facing the education system are defined, the role of AI in solving these problems is analyzed in detail, and practical recommendations for the effective implementation of AI in education are discussed.

Keywords: education, artificial intelligence in education, modernization, problems, solutions, innovation, digital literacy, educational reform, distance education.

KIRISH.

Milliy taraqqiyotning hal qiluvchi tayanchlari sifatida ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilishga ustuvor ahamiyat qaratdi. Biroq, so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, O’zbekiston ta’lim tizimi hali ham ko‘plab muammolarga duch kelmoqda, jumladan, sifatli ta’limdan foydalanishdagi nomutanosiblik, eskirgan o‘qitish metodologiyasi va boshqa jihatlarni aytsak bo‘ladi. Sun’iy intellektni ta’limga joriy etish O’zbekistonda muammolarni hal qilish va yechimlarni amalga oshirish yo‘lida inqilob qilish imkoniyatiga ega. Sun’iy intellekt talabalar uchun o‘rganish tajribasini shaxsiylashtirishga, ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirishga va talabalarning faolligi va hamkorlikni yaxshilashga yordam beradi. Ta’limda sun’iy intellektni tatbiq etish bilan O‘zbekistonda har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatiga mos keladigan dinamik va inklyuziv ta’lim muhitini yaratish mumkin [1,23]. Bundan tashqari, sun’iy intellekt til siyosatini samarali boshqarishda va til naqshlari va madaniy xilma-xillikni tahlil qilish va tushunish qobiliyati orqali millatlararo munosabatlarni rag‘batlantirishda yordam berishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot bo‘yicha Karimova N.M. Iskanarov Sh.S va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish turli muammolarni hal qilish va samarali yechimlarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda transformativ o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin[2,33]. O’zbekiston sun’iy intellekt kuchidan foydalanish orqali o‘z ta’lim tizimini qayta tasavvur qilishi va inklyuziv ta’lim, til siyosati va millatlararo munosabatlar yo‘lidagi to‘siqlarni

engib o‘tishi mumkin. O’zbekiston sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘zining oliy ta’lim tizimini jahon ta’lim landshaftiga integratsiyalashda sezilarli yutuqlarga erisha oladi [3,14]. Sun’iy intellektning ta’limga integratsiyalashuvi O’zbekiston uchun o‘zining ta’lim muammolarini hal qilish va samarali yechimlarni amalga oshirish uchun transformativ imkoniyat yaratadi. Ta’limdagi sun’iy intellect bo‘yicha adabiyotlar informatika, ta’lim psixologiyasi va pedagogika kabi sohalarni o‘z ichiga olgan turli xil fanlarni qamrab oladi[4,22]. Ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanilishini o‘rganib, uning ta’lim tajribasini shaxsiylashtirish, talabalar natijalarini yaxshilash va o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqdilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asr O’tgan asrning 30-yillari o‘rtalaridan boshlab, turli xil murakkab muammolarni mustaqil hal qilishga qodir qurilmalarni yaratish muammolari muhokama qilingan Turing mashinani intellektual vosita sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi, uni testeruni o‘zi bilan aloqa qilish jarayonida odamdan ajratib turolmaydi. 1956 yilda kibernetika asoschilari AQShda “Sun’iy intellect” loyihasini amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilish uchun yig‘ilishdi. Konferentsiya qatnashchilari orasida Makkarti, Minski, Shannon, Turing va boshqalar bor edi. Dastlab, ushbu tushuncha insonning individual funktsiyalarini bajaradigan mashinalarning xususiyatlariga, masalan, bir tildan boshqasiga tarjima qilish, ob’ektni tanib olish va maqbul qaror qabul qilishga bag‘ishlangan edi.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida AI texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan o‘qitishda foydalanish uchun katta mablag‘larini ta’minlashga e’tibor berilmoqda. Butun dunyoda ta’limda (maktab va universitetlarda) sun’iy intellekt texnologiyalarini yaratish va joriy etish byudjeti doimiy ravishda o‘sib bormoqda va 2024-yilga borib moliyalashtirish 6 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Bu avval ajratilganidan sezilarli darajada ko‘p. Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab ta’lim muhitining raqamli transformatsiyasi AIning asosiy mavjudligi va amalga oshirilishini nazarda tutadi. Biroq, oliy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi katta murakkabliklar va ko‘plab xavf-xatarlar bilan birga keladi, bunday texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq doimiy ravishda paydo bo‘ladigan muammolarga ilmiy echimlarni talab qiladi.

O’zbekiston ta’lim tizimi oldida barcha fuqarolarga teng va sifatli ta’lim berish qobiliyatiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha asosiy muammolar mavjud. Bu qiyinchiliklarga quyidagilar kiradi:

1. Eskirgan o‘qitish metodologiyalari: An’anaviy o‘qitish usullari talabalarni samarali jalb qilmasligi yoki turli xil o‘quv uslublari va ehtiyojlarini qondira olmaydi.

2. Cheklangan raqamli savodxonlik: Ko‘pgina talabalar va o‘qituvchilar raqamli ko‘nikmalarga ega emaslar, bu ularning o‘rganish va o‘qitish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi.

Sun’iy intellekt (AI) ushbu muammolarni hal qilish va o‘qitish va o‘rganish tajribasini oshirish orqali ta’limni o‘zgartirish uchun katta va’da beradi. Sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribasini taklif qilishi, real vaqtda fikrmulohaza va baholashni ta’minlashi va o‘qituvchilarga qiziqarli va interaktiv o‘quv muhitini yaratishda yordam berishi mumkin. [5,12]. Bundan tashqari, sun’iy intellekt ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni osonlashtirishi mumkin, bu esa ta’lim muassasalariga tendentsiyalarni aniqlash, talabalar taraqqiyotini kuzatish va resurslarni taqsimlashni optimallashtirish imkonini beradi. O’zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga va talabalarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlashga intilayotgan bir paytda sun’iy intellekt (AI) integratsiyasi asosiy muammolarni hal qilish hamda o‘qitish va o‘rganish tajribasini o‘zgartirish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, o‘quv dasturlari integratsiyasi, raqamli savodxonlik, davlat-xususiy sheriklik, tadqiqot va ishlanmalar, monitoring va baholashga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalarni amalga oshirish orqali O’zbekiston ta’limda tenglik, innovatsiyalar va mukammallikni rivojlantirish uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi mumkin.

XULOSA

AIga asoslangan bashoratli modellar talabalarning potentsial muammolari yoki muvaffaqiyatini bashorat qilish uchun o‘quv jarayoni, akademik samaradorlik va boshqa omillar haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Bu qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lgan talabalarni tezda aniqlashga va ularni yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rishga yordam beradi. Ta’limda sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘rganishni avtomatlashtirish va shaxsiylashtirishdir. AI yordamida siz individual ta’lim dasturlarini yaratishingiz va har bir talabaning ehtiyojlari, qobiliyati va materialni o‘rganish tezligini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini boshqarishingiz mumkin. AI topshiriq va test natijalari kabi talabalarning o‘quv faoliyati ma’lumotlarini tahlil qilishi va mos materiallar va o‘qitish usullarini taklif qilishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ernazarov, D. (2020). ЁШЛАРДА Ахборот истеъмоли маданиятини шакллантиришнинг баъзи жиҳатлари. Архив научных исследований.
2. L. Damsgaard, A. Nielsen, A. Gejl, A. Malling, S. Jensen and J. Wienecke, "Effects of 8 Weeks with Embodied Learning on 5–6-Year-Old Danish Children’s Pre-reading Skills and Word Reading Skills: the PLAYMORE Project, DK". 5. Ф. А. Бабашев (2021).
3. Наумов В.В. "Искусственный интеллект в образовании: проблемы и перспективы" // Информационные технологии в профессиональной деятельности образовательного учреждения: проблемы и перспективы. - 2019. - № 2. - С. 112-118.
4. Рахимова Ш.Б. "Интеграция искусственного интеллекта в образовательный процесс." // Технологии и технологии. - 2017. - № 4. - С. 42-48.
5. Ergashevich, E. A. (2024). Analysis of the Use of Modern Educational Clubs and Technologies in Educational Courses. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(1), 62-63.

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Karshiyeva Dilbar Eshpulatovna
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD),
CHDPU Pedagogika fakulteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi v.b dotsenti
CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili) yo‘nalishi talabalari
Raxmonova Zilola Marat qizi,
Norqulova Lobar Absalom qizi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash. Inson salohiyatining sifati, odamlarning tabiiy va ijtimoiy muammolarga qarshi turishga tayyorligi ko‘p jihatdan ta’lim tizimi faoliyati samaradorligiga bog‘liqligi dolzarb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, ta’lim, ta’limdagi texnologiyalar, raqamli madaniyat, ta’limni modernizasiya qilish.

Аннотация: В статье использование цифровых технологий в системе образования, определение приоритетов развития образовательного процесса на основе анализа их возможностей. Важно, что качество человеческого потенциала, готовность людей к решению природных и социальных проблем во многом зависит от эффективности системы образования.

Ключевые слова: цифровизация, образование, технологии в образовании, цифровая культура, модернизация образования.

Annotation: In the article, the use of digital technologies in the educational system, the identification of priorities for the development of the educational process based on the analysis of their possibilities. It is important that the quality of human potential, people’s readiness to face natural and social problems largely depends on the effectiveness of the educational system.

Key words: digitization, education, technologies in education, digital culture, modernization of education.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi” [1]. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot bo‘yicha hozirgi vaqtda raqamli ta’lim muhitining tarkibi masalasi munozarali hisoblanadi. Ko‘pchilik olimlar raqamli ta’lim muhitlarini strukturalash muammolarini o‘rganishmoqda”. Ushbu xususiyatlar raqamli axborot muhitining imkoniyatlariga juda mos keladi, bu talabalarni faollik, harakatchanlik va boshqalarga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishda axborot texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha S.N.Zlobina, L.A.Zyateva, G.S.Isakova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga loyiqdir. Ular o‘z ilmiy izlanishlarida raqamliinfratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha qator yutuqlarni qo‘lga kiritganlar.

Ko‘plab izlanishlarning tahlilariga asosan raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi[2-134]. Bunga qo‘yidagilarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- katta hajmli axborotlar bilan ishlashni ta’minlaydi;
- ta’lim-tarbiya jarayonini shafoflik, ochiqlik va tizimliligini kengaytiradi;
- ta’lim jarayonini diagnostika va monitoringqilish tizimini yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi

Ta’lim tizimida axborot texnologiyalari infratuzilmasidan foydalanish, me’yoriy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni o‘qitish sifatini tubdan yaxshilashga, ularning barcha zarur qobiliyatlarini shakllantirishga, muammoni hal qilish uchun mavjud bo‘lgan barcha raqamli vositalar, materiallar va xizmatlardan faol (ongli va ijodiy) foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ta’lim muassasalarining raqamli transformatsiyasining asosi raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish eng samarali bo‘lgan o‘quv jarayonini shaxsiylashtirilgan tashkil etishga o‘tishdir [3-25]. Ta’lim tashkilotlari faoliyatini o‘zgartirish ta’limni raqamli transformatsiya qilis uchun normativ-huquqiy bazani o‘zgartirishni talab qiladi.

Ko‘plab izlanishlarning tahlilariga asosan raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi[4-12].

Bunga qo‘yidagilarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- katta hajmli axborotlar bilan ishlashni ta’minlaydi;
- ta’lim-tarbiya jarayonini shafoflik, ochiqlik va tizimliligini kengaytiradi;
- ta’lim jarayonini diagnostika va monitoring qilish tizimini yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi

Hozirgi vaqtda ta’limni raqamli transformatsiyas vazifasi – ta’lim tizimini axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotning vazifalari, muammolari va imkoniyatlariga moslashtirish juda dolzarbdir. Ta’limni axborotlashtirish o‘quvchilarning komptyuter savodxonligini shakllantirish va o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishning tobora murakkablashib borayotgan vazifalarini hal etishga qaratilishi lozim. Bugungi kunda kompyuterlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va roli haqidagi fikr yana bir bor o‘zgardi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O’zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet,

fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozimva bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti shavkat-mirziyeevning-oliy-25- 01-2020.

2. Петрова Н.П., Бондарева Г.А. Цифровизatsiя и цифровые технологии в образовании // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 5 (78). С. 353–355. 6. Меняйся или уходи. Цифровое образование бросает вызов преподавателям вузов [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.poisknews.ru/theme/edu/31969/ (дата обращения: 30.03.2020)

3. Каракозов С.Д., Уваров А.Ю. Успешная информатизatsiя –трансформatsiя учебного процесса в цифровой образовательной среде // Проблемы современного образования. 2016.№ 2. С. 7–19.

4. Уваров А.Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформatsии. М.: ГУ-ВШЭ, 2018. 168 с.

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET RESURSLARINING O’RNI.

Yusupova Feruza Umrbek qizi
Email: fyusupova820@gmail.com
Scientific advisor : Ruzmetova Diana
Act. assoc. prof (PhD) of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. In this article discusses the importance of student independent work in higher education institutions,research conducted in this area,the importance of the Internet in the development of education,as well as effective methods and resources for preparing independent work. In addition,the problems and shortcomings encountered in the process of preparing independent work are analyzed, and several practical solutions to address them are proposed.

Key words. Independent work, The Internet, higher education, self-study,student’s self-study,effective methods,learning process, challenges,solutions,electronic literature,applications.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях, исследования, проводимые в этой области, значение Интернета в развитии образования, а также эффективные методы и ресурсы для подготовки самостоятельной работы. Кроме того, анализируются проблемы и недостатки, возникающие в процессе подготовки самостоятельной работы, и предлагается ряд практических решений для их устранения.

Ключевые слова.Самостоятельная работа, Интернет, высшее образование, самостоятельная работа, самостоятельная работа студента, эффективные методы, учебный процесс, проблемы, решения, электронная литература, приложения.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ishining ahamiyati, bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, ta’limni rivojlantirishda internetning ahamiyati, shuningdek, mustaqil ishlarni tayyorlashning samarali usullari va resurslari haqida so‘z boradi.

Bundan tashqari, mustaqil ishlarni tayyorlash jarayonida uchrayotgan muammo va kamchiliklar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning bir qancha amaliy yechimlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar. Mustaqil ish, Internet, oliy ta’lim, mustaqil ta’lim, talabaning mustaqil ishlashi, samarali usullar, o‘quv jarayoni, muammolar, yechimlar, elektron adabiyotlar, ilovalar.

Bugungi kunda Oliy ta’lim tizimi talabalaridan nafaqat bilim olishni,balki mustaqil ta’lim faoliyatini ham talab etadi.Talaba mustaqil ravishda o‘qisa, u o‘z bilimini mustahkamlaydi,yangi manbalarni izlashni o‘rganadi va eng muhimi tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.Zamonaviy davrda esa mustaqil ta’lim internet resurslari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda.Internet orqali ma’lumot olish,ilmiy maqolalarga murojaat qilish,onlayn kurslardan foydalanish talabalarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

1. Milton, John. Areopagitica. London: 1644.
2. Milton, John. Paradise Lost. London: 1667.
3. Bunyan, John. The Pilgrim's Progress. London: 1678.
4. Hill, Christopher. Milton and the English Revolution. London: Faber & Faber, 1977.
5. Nuttall, A.D. The Alternative Trinity: Gnostic Heresy in Marlowe, Milton, and Blake. Oxford: Clarendon Press, 1998.
6. Greenblatt, Stephen. Renaissance Self-Fashioning: From More to Shakespeare. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Lewalski, Barbara K. Protestant Poetics and the Seventeenth-Century Religious Lyric. Princeton: Princeton University Press, 1979.
8. Broadbent, John. John Bunyan and the English Reformation. Cambridge University Press, 1963.
9. Ferguson, Margaret W. Rewriting England: Milton, Bunyan, and the English Nation. Cambridge: Harvard University Press, 1994.
10. Hughes, Merritt Y. Ten Perspectives on Milton. Oxford University Press, 1965.

PEDAGOGIK KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI.

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
p.f.f.d(PhD) Ko‘bayev Akmal Sirliyevich.
Tel: (99) 3555551

Annotatsiya: Maqolada pedagogik kadrlar malakasini oshirish jarayonining globallashuv va raqamli transformatsiyalar davridagi nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. XXI asrda o‘qituvchi kompetensiyalariga qo‘yilayotgan yangi talablar hamda ularning malaka oshirish mazmuniga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: strategik boshqaruv**,** ta’lim sifati**,** yangi kompetensiyalar**,** raqamli transformatsiya**,** moslashuvchan ko‘nikmalar, gibrid model**,** proaktiv yondashuv**,** tizimli yondashuv.

Аннотация В статье анализируются теоретико-методологические основы процесса повышения квалификации педагогических кадров в эпоху глобализации и цифровых трансформаций. Раскрываются новые требования, предъявляемые к компетенциям учителя в XXI веке, а также их влияние на содержание повышения квалификации.

Ключевые слова Стратегическое управление, качество образования, новые компетенции, цифровая трансформация, гибкие навыки (soft skills), гибридная модель, проактивный подход, системный подход.

Abstract The article analyzes the theoretical and methodological foundations of the professional development process for pedagogical staff in the era of globalization and digital transformations. It reveals the new requirements for teacher competencies in the 21st century and their impact on the content of professional development.

Keywords Strategic management, quality of education, new competencies, digital transformation, soft skills, hybrid model, proactive approach, systemic approach.

XXI asr – globallashuv, axborotlashgan jamiyat va raqamli transformatsiyalar davri bo‘lib, ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi, ilgari kuzatilmagan vazifalarni qo‘ymoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bevosita kadrlar salohiyatiga, kadrlar salohiyati esa ularning malakasini oshirish tizimining samaradorligiga bog‘liqdir. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish shunchaki qo‘shimcha bilim berish jarayoni emas, balki uzluksiz ta’lim paradigmasining yadrosi, ta’lim sifatini ta’minlovchi strategik mexanizmdir. Ushbu bobda malaka oshirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari, uning zamonaviy talablari, tarixiy retrospektivasi va strategik boshqaruv modellari tahlil etiladi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi pedagog faoliyatining mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirdi. Agar an’anaviy yondashuvda o‘qituvchi asosiy bilim manbai sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi kunda uning vazifasi o‘quvchida mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu esa pedagogik kadrlardan quyidagi yangi kompetensiyalarni talab qiladi:

- O’qituvchi nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanuvchi, balki ular yordamida yangi pedagogik kontent yarata oluvchi, o‘quvchilarni axborot oqimida tanqidiy fikrlashga (critical thinking) o‘rgatuvchi sub’ekt bo‘lishi lozim.
- Bugungi kun o‘qituvchisi faqat o‘z fanining chuqur bilimdoni bo‘lishi yetarli emas. Undan kommunikatsiya, jamoada ishlash, muammolarni nostandart hal etish (problem-solving), emotsional intellekt kabi moslashuvchan ko‘nikmalar talab etiladi.
- Har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyati va o‘rganish tempini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan (differensial) ta’lim trayektoriyalarini loyihalay olish zamonaviy pedagogning asosiy mezonidir.
- Ta’limdagi o‘zgarishlar tezligi shunchalik yuqoriki, o‘qituvchining o‘zi "life-long learning" (butun umr davomida o‘qish) tamoyiliga amal qilishi, o‘z malakasini mustaqil oshirib borishga motivatsiyaga ega bo‘lishi shart.

Demak, zamonaviy talablar malaka oshirish tizimining mazmunini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Endilikda asosiy urg‘u metodik yangilanishlarga emas, balki o‘qituvchining kognitiv moslashuvchanligi va kasbiy kompetensiyalarining yangi matritsasini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimi doimiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga javoban shakllanib kelgan. Jahon tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, malaka oshirishning bir necha muvaffaqiyatli modellari mavjud:

- Finlandiya modelida o‘qituvchilarga o‘z malakasini oshirish yo‘llarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Asosiy urg‘u universitetlar huzuridagi tadqiqot guruhlari va o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligiga (mentorlik) qaratilgan.
- Singapur va Janubiy Koreya modeli ta’lim sifati milliy strategiyaning bir qismi sifatida qaraladi. Malaka oshirish institutlari (Singapurda – NIE, Milliy ta’lim instituti) o‘qituvchi karerasining har bir bosqichi uchun aniq belgilangan modullarni taklif etadi. Bu yerda o‘qituvchining maktabdagi faoliyati natijalari (KPI) malaka oshirish mazmuni bilan bevosita bog‘lanadi.
- Yaponiya modeli "pastdan yuqoriga" tamoyiliga asoslangan model bo‘lib, unda o‘qituvchilar kichik guruhlarda birgalikda darslarni rejalashtiradilar, kuzatadilar, tahlil qiladilar va takomillashtiradilar. Bu kasbiy rivojlanishning maktab ichidagi, amaliyotga maksimal yaqinlashgan usulidir.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, "ideal" universal model mavjud emas. Samaradorlikka erishish uchun milliy xususiyatlarni (ijtimoiy-madaniy kontekstni) hisobga olgan holda, markazlashgan strategik rejalashtirish (Singapur) va amaliyotga yo‘naltirilgan (Yaponiya, Finlandiya) yondashuvlarni integratsiya qiluvchi gibrid modelni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Malaka oshirish tizimini strategik rejalashtirish – bu ta’lim sohasidagi uzoq muddatli maqsadlarga (masalan, PISA reytingidagi o‘rin) erishish uchun malaka oshirishning mazmuni, texnologiyalari va resurslarini optimal taqsimlash jarayonidir.

Nazariy nuqtai nazardan, bu jarayon quyidagi asosiy tamoyillarga qurilishi kerak:

- Malaka oshirishni alohida olingan jarayon sifatida emas, balki umumiy ta’lim tizimining (maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim, maktab amaliyoti, attestatsiya) ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqish. Bir elementdagi o‘zgarish qolganlariga qanday ta’sir qilishini modellashtirish.
- Aniq, o‘lchanadigan natijalarga (KPI) asoslangan dasturlarni ishlab chiqish. Masalan, "bir yilda 1000 nafar o‘qituvchini o‘qitish" (jarayonga yo‘naltirilgan) o‘rniga, "bir yil ichida aniq fandan o‘quvchilar o‘zlashtirishini 15% ga oshiradigan 1000 nafar o‘qituvchini tayyorlash" (natijaga yo‘naltirilgan).
- Tizim nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etishi (reaktiv), balki mehnat bozori va ta’lim texnologiyalaridagi bo‘lajak o‘zgarishlarni bashorat qilib (proaktiv), ularga tezda moslasha olishi (adaptiv) kerak.
- Malaka oshirish kurslarining samarasini baholashning uzluksiz tizimini joriy etish. Bu nafaqat kursdan keyingi test, balki o‘qituvchining sinfdagi amaliy faoliyatidagi o‘zgarishlarni uzoq muddatli kuzatishni (longitudinal tadqiqotlar) o‘z ichiga olishi kerak.

Pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimini strategik boshqarish uning samaradorligini ta’minlovchi yagona mexanizmdir. Bu jarayon ilmiy asoslangan rejalashtirish, aniq indikatorlarga asoslangan monitoring va xalqaro tajribalarni milliy kontekstga adaptiv tatbiq etish nazariyalariga tayanishi shart.

Umumta’lim maktablari oldida turgan zamonaviy vazifalar o‘qituvchi faoliyatining mazmunini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kun pedagogi endi shunchaki "bilim uzatuvchi" sub’ekt emas, balki o‘quvchini mustaqil o‘rganishga yo‘naltiruvchi fasilitator, raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi va meta-kompetensiyalarga ega shaxs bo‘lishi talab etilmoqda. Bu esa malaka oshirish tizimi oldiga yangi, ancha murakkab vazifalarni qo‘yadi. Ushbu yangi talablarga javob beradigan tizimni yaratishda tarixiy tajriba va ilg‘or xalqaro modellar tahlili ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirish samarasiz ekanligini ko‘rsatadi. Samarali yondashuv – Singapurning natijadorlikka yo‘naltirilgan markazlashgan rejalashtirishi, Finlandiyaning o‘qituvchi erkinligiga asoslangan modeli va Yaponiyaning amaliyotga maksimal yaqinlashgan "Lesson Study" kabi turli yondashuvlarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda sintez qiladigan gibrid modelni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagi gibrid modelning amaliyotda samarali ishlashi va barqarorligini ta’minlash an’anaviy, reaktiv boshqaruv usullaridan voz kechishni talab qiladi. Buning o‘rniga, tizimli yondashuv, aniq natijadorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) asoslangan maqsadli-dasturiy rejalashtirish va o‘zgarishlarni oldindan bashorat qiluvchi (proaktiv) strategik boshqaruv nazariyasiga tayanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Yo‘ldoshev, J.G‘., Usmonov, S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O’qituvchi”, 2004.

2. Begimqulov, U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007.

3. Inoyatov, U.I., va boshq. Pedagogik kadrlar malakasini oshirishning innovatsion modellari. // "Xalq ta’limi" jurnali. - 2021.

4. Моисеев, А. М. Теория стратегического управления школой: ключевые вопросы и подходы к их решению // Педагогика: история, перспективы. – 2019.

5. Белогуров, А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA "AXBORO T TIZIMLARI" FANNI O’QITISH METODIKASINING TAKOMILLASHTIRISH

Barakayev Akmal Musurmonovich,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat Universitetining
Urgut filiali assistenti
akmal3575455@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida "Axborot tizimlari" fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hibrid ta’lim modeli, immersiv texnologiyalar, loyihaga asoslangan o‘qitish va pedagogik innovatsiyalar o‘rganilgan. Maqolada o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish va zamonaviy IT mutaxassislarini tayyorlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, axborot tizimlari, hibrid ta’lim, virtual laboratoriya, loyihaga asoslangan o‘qitish, pedagogik innovatsiya, bulutli texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются современные методы и подходы к преподаванию дисциплины "Информационные системы" в цифровой образовательной среде. В исследовании изучены гибридная модель обучения, иммерсивные технологии, проектное обучение и педагогические инновации. Рассматриваются вопросы повышения эффективности обучения, усиления мотивации студентов и подготовки современных IT-специалистов.

Ключевые слова: цифровое образование, информационные системы, гибридное обучение, виртуальная лаборатория, проектное обучение, педагогические инновации, облачные технологии.

Annotation: This article analyzes modern methods and approaches to teaching "Information Systems" in a digital educational environment. The research examines hybrid learning models, immersive technologies, project-based learning, and pedagogical innovations. Issues of improving learning efficiency, strengthening student motivation, and training modern IT specialists are considered.

Keywords: digital education, information systems, hybrid learning, virtual laboratory, project-based learning, pedagogical innovation, cloud technologies.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, **“Axborot tizimlari”** singari texnik fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

Raqamli ta’lim muhitining ahamiyati zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi, o‘qitishning samaradorligini oshirish va ta’limni global miqyosda yanada erkin va imkoniyatlarga boy qilish bilan bevosita bog‘liq. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarga ko‘proq interaktivlik, moslashuvchanlik va samaradorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi deyarli barcha sohalarda axborot tizimlaridan keng foydalanishni ta’minlamoqda. Axborot tizimlari nafaqat informatika va dasturlash sohasidagi mutaxassislar, balki barcha kasb egalarining ish faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Zamonaviy ta’lim muhitining xususiyatlari

Bugungi kunda hibrid ta’lim modeli (blended learning) eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Bu model an’anaviy auditoriya darslarini onlayn ta’lim elementlari bilan birlashtiradi. Sinxron va asinxron o‘qitish kombinatsiyasi talabalarni real vaqt rejimida o‘qituvchi bilan aloqada bo‘lish bilan birga, o‘z vaqtlarida mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari axborot tizimlari fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Virtual laboratoriyalar talabalarga haqiqiy server xonalari, tarmoq infratuzilmalari bilan ishlash tajribasini beradi. 3D vizualizatsiya ma’lumotlar bazasining tuzilishi va algoritm ishlash jarayonlarini ko‘rgazmali tushuntirishga yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyalar

Axborot tizimlari fanida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun loyihaga asoslangan o‘qitish usuli eng samarali hisoblanadi. Real loyihalar bilan ishlash orqali talabalar haqiqiy kompaniyalar uchun axborot tizimlarini ishlab chiqish tajribasini oladi. Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida katta loyihalar kichik guruhlarga bo‘lib bajariladi.

Mikroo‘qitish (Microlearning) yondashuvi katta mavzularni kichik bo‘laklarga bo‘lib o‘rgatishni nazarda tutadi. 5-10 minutlik video darslar har bir modul yoki tushuncha uchun qisqa videolarni o‘z ichiga oladi. Interaktiv kartochkalar asosiy tushunchalarni eslab qolish uchun, mini-testlar esa har bir mavzudan keyin tez baholash uchun ishlatiladi.

Texnologik vositalar va platformalar

Zamonaviy bulutli xizmatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Amazon Web Services (AWS) Educate bulutli infrastruktura bilan ishlash tajribasi beradi. Microsoft Azure for Students professional darajadagi cloud xizmatlar bilan tanishishni ta’minlaydi. Google Cloud Platform Big Data va Machine Learning texnologiyalari bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.

DevOps va CI/CD o‘rgatish zamonaviy dasturiy ta’minot ishlab chiqish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Docker konteynerlar ilovalarni paketlash va deploy qilish usullarini o‘rgatishga, Git version control kod versiyalarini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Baholash va monitoring tizimi

O’qish jarayonida doimiy baholash tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Real vaqt so‘rovlari dars davomida tezkor so‘rovlar o‘tkazishni, rivojlanish kuzatuvi har bir talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatishni ta’minlaydi. O’zaro baholash tizimi talabalarning bir-birini baholash imkoniyatini yaratadi.

Portfolio baholash talabalarning barcha ishlarini jamlovchi portfolioni tayyorlashni nazarda tutadi. Bitirish loyihalari katta tizimlar yaratish orqali bilim va ko‘nikmalarni namoyon etishga yordam beradi.

Amalga oshirilayotgan ishlar:

1. Hibrid ta’lim modelini joriy etish va an’anaviy darslarni onlayn elementlar bilan birlashtirish
2. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish
3. Loyihaga asoslangan o‘qitish metodikasini qo‘llash orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish
4. Bulutli platformalar (AWS, Azure, Google Cloud) orqali zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish
5. Sanoat mutaxassislari bilan hamkorlik qilish va real loyihalar ustida ishlash

6. AI va Machine Learning texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga joriy etish

Muammo:

An’anaviy o‘qitish metodlari zamonaviy axborot tizimlari sohasining tez rivojlanish sur’atlariga javob bera olmaydi. Talabalar nazariy bilim olishadi, lekin amaliy ko‘nikmalar yetarli darajada rivojlanmaydi. O’qituvchilarning raqamli kompetensiyalari past darajada bo‘lib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyati cheklangan. Sanoat bilan ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqa zaif bo‘lib, talabalar real ishchi muhit bilan tanisha olmaydi.

Yechim:

1. **Hibrid ta’lim modelini joriy etish**: An’anaviy va raqamli ta’lim usullarini kombinatsiyalash
2. **Virtual laboratoriyalar yaratish**: Real texnik muhitni simulyatsiya qiluvchi virtual muhitlar tashkil etish
3. **Loyiha asosida o‘qitish**: Haqiqiy kompaniyalar uchun loyihalar bajarish orqali amaliy tajriba berish
4. **O’qituvchilarni qayta tayyorlash**: Zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha o‘qituvchilar kompetensiyasini oshirish
5. **Sanoat hamkorligi**: IT kompaniyalar bilan strategik sheriklik o‘rnatish
6. **Doimiy monitoring**: Talabalar rivojlanishini kuzatish va baholash tizimini takomillashtirish

Xulosa

Zamonaviy ta’lim muhitida "Axborot tizimlari" fanini o‘qitish faqat texnik bilimlarni berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon talabalarga kelajakda muvaffaqiyatli karera qurish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va global raqamli jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Muvaffaqiyatli o‘qitish uchun amaliyotga yo‘naltirilganlik, texnologik dolzarblik, shaxsiy rivojlanish, sanoat integratsiyasi va global qarashlarga amal qilish kerak. Takomillashtirish jarayoni ta’limga ko‘p jihatli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi: ta’lim sifatini oshiradi, talabalar motivatsiyasini kuchaytiradi, o‘qituvchilarning professional kompetensiyalarini rivojlantiradi va ta’lim resurslarini samarali boshqarish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Spector, J. M. (2014). Conceptualizing the emerging field of smart learning environments. *Smart Learning Environments*, 1(1), 1-10.
2. Zhang, D., Zhao, J. L., Zhou, L., & Nunamaker, J. F. (2004). Can e-learning replace classroom learning? *Communications of the ACM*, 47(5), 75-79.
3. Vaughan, N. D. (2008). Perspectives on blended learning in higher education. *International Journal on E-Learning*, 6(1), 81-94.
4. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3-10.
5. Kirkwood, A., & Price, L. (2014). Technology-enhanced learning and teaching in higher education: what is ‘enhanced’ and how do we know? *Learning, Media and Technology*, 39(1), 6-36.

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISh ISTIQBOLLARI

Sobirova Ra’no,
1-bosqich magistranti, Maktabgacha ta’lim fakulteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi,
Andijon davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: professor T. Kaziyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning ta’lim tizimidagi ahamiyati, xususan, maktabgacha ta’lim sohasidagi roli va rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini takomillashtirish, pedagog va tarbiyachilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, maktabgacha ta’lim, raqamli kompetensiya, innovatsiya, texnologiya.

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda yangilanmoqda. O’zbekiston Respublikasida “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida barcha ta’lim bosqichlarida raqamli muhitni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi bu jarayonning boshlang‘ich bosqichi sifatida bolalarda raqamli madaniyat va texnologik fikrlashni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va ta’lim integratsiyasiga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

D. Karimova (2023) o‘z tadqiqotida ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘qitish samaradorligini 30–40% ga oshirganini ta’kidlaydi.

Smith (2022) esa “Digital Transformation in Early Education” asarida raqamli muhit bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam berishini qayd etgan.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4851-son qarorida raqamli infratuzilmani kuchaytirish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Ushbu manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimini raqamlashtirish raqamli iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismidir va uni maktabgacha ta’limda qo‘llash zamon talabi hisoblanadi.

Metodologiya. Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va kuzatuv metodlari qo‘llanildi. Raqamli iqtisodiyotning ta’lim tizimiga ta’siri, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi o‘rganildi. Mahalliy va xorijiy tajribalar asosida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllandi: Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshiradi. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasi — raqamli iqtisodiyotga moslashuvning asosiy omili. Interfaol o‘quv dasturlar bolalarda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash bolalarni internetdagi noxush kontentdan himoya qilishda muhim.

Munozara. Raqamli iqtisodiyot ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda yangi muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ayrim hududlarda texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi, ota-onalarning raqamli ta’limga nisbatan ishonchsizligi bu jarayonda to‘siq bo‘lmoqda. Shu bois davlat siyosati, ta’lim muassasalari va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bolalarda bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘qituvchilarning mehnatini yengillashtiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha izchil choralar kelajakda raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ–4851-son qarori.

Karimova D. “Innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish.” – Toshkent, 2023.

Smith J. Digital Transformation in Early Education. – Oxford University Press, 2022.

“Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi. Toshkent, 2020.

www.edu.uz (http://www.edu.uz/)

www.stat.uz (http://www.stat.uz/)

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ И СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Мустафаева Замира Саидкуловна
Преподаватель, Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри
@Zamira240980@gmail.com
+998 97 639 61 61

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki aynan maktabgacha yosh bolaning shaxsiyati, ma’naviy dunyosi va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadigan muhim davrdir. Ushbu maqolada xorijiy pedagogik tajriba, xususan, M. Montessori, Reggio Emilia va Valdorf pedagogikasining ilg‘or g‘oyalari tahlil qilinib, ularni maktabgacha ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirishning samarali shakllari, ya’ni interfaol o‘yinlar, raqamli vositalar va vizual kontent orqali bolalarda mehr-oqibat, halollik, hurmat, mas’uliyat, bag‘rikenglik va hamkorlikni shakllantirish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari xorijiy metodikalarning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi maktabgacha ta’limda tarbiya samaradorligini oshirishga, o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga hamda ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, axloqiy qadriyatlar, xorijiy pedagogik tajriba, raqamli texnologiyalar, gumanistik yondashuv, Montessori, Reggio Emilia, Valdorf pedagogikasi, tarbiya, ma’naviy rivojlanish.

Аннотация: Формирование нравственных и социальных ценностей в системе дошкольного образования является одной из наиболее актуальных задач современного общества, так как именно в этот период закладываются основы духовного, эмоционального и социального развития личности ребёнка. В статье подробно рассматриваются возможности использования зарубежного педагогического опыта — методик Монтессори, Реджио Эмилия и Вальдорфской педагогики — для совершенствования нравственного воспитания дошкольников. Отмечается, что эти подходы основаны на гуманистических принципах: уважении к индивидуальности ребёнка, стимулировании самостоятельности, ответственности и способности к сотрудничеству. Особое внимание уделено вопросам внедрения цифровых технологий в воспитательный процесс, которые позволяют сделать его более наглядным, интерактивным и современным. Использование мультимедийных игр, обучающих платформ и интерактивных материалов в сочетании с зарубежными методическими идеями способствует формированию у дошкольников таких качеств, как доброжелательность, эмпатия, честность, толерантность и уважение к другим людям. Автор подчёркивает, что интеграция международного опыта и цифровых решений в дошкольную систему образования повышает преемственность между ступенями обучения и обеспечивает целостное развитие личности ребёнка.

Ключевые слова: дошкольное образование, нравственные ценности, социальное воспитание, гуманистический подход, зарубежный опыт, Монтессори, Реджио Эмилия, Вальдорфская педагогика, цифровые технологии, воспитание, преемственность образования.

Abstract: The formation of moral and social values in preschool education is one of the main priorities of the modern educational system, as early childhood represents the foundation for a child’s personal, emotional, and social development. This article explores the integration of international pedagogical practices — specifically the Montessori, Reggio Emilia, and Waldorf approaches — into Uzbekistan’s preschool education system to enhance the moral and ethical upbringing of young children. The study emphasizes the importance of humanistic principles such as respect for individuality, independence, empathy, and cooperation, as well as the effective use of digital technologies in moral education. The application of multimedia games, visual aids, and

interactive digital resources is shown to significantly enrich the educational process, making moral and social learning more engaging and relevant for children. The results indicate that the adaptation of foreign pedagogical experiences, when aligned with national traditions and cultural values, improves the quality and continuity of education across all stages and strengthens collaboration between teachers and parents. Ultimately, the integration of digital pedagogy and international best practices fosters a generation of socially responsible, empathetic, and morally conscious individuals.

Keywords: preschool education, moral values, social development, humanistic approach, foreign pedagogical experience, Montessori, Reggio Emilia, Waldorf pedagogy, digital technologies, educational continuity, upbringing.

Введение: Современное общество предъявляет новые требования к системе образования, где ключевое внимание уделяется не только интеллектуальному развитию ребёнка, но и его духовно-нравственному и социальному становлению. Именно в дошкольном возрасте формируются первые представления о добре и зле, справедливости, честности, уважении и ответственности, которые в дальнейшем становятся основой мировоззрения и поведения личности. В этих условиях система дошкольного образования Узбекистана направлена на воспитание гармонично развитого ребёнка, способного к самостоятельному мышлению, эмпатии, сотрудничеству и уважению к другим людям. Развитие нравственных и социальных качеств у дошкольников невозможно без системного обновления образовательного процесса, основанного на синтезе национальных традиций и передового зарубежного педагогического опыта. Международные образовательные подходы — Монтессори, Реджио Эмилия, Вальдорфская педагогика — акцентируют внимание на формировании у ребёнка внутренней мотивации, ответственности, способности к моральному выбору и саморазвитию. Их интеграция в национальную педагогическую практику способствует гуманизации дошкольного образования, делает его более гибким, эмоционально насыщенным и ориентированным на личность ребёнка. Современные цифровые технологии создают новые возможности для совершенствования процесса нравственного воспитания. Использование интерактивных игр, мультимедийных материалов и образовательных платформ помогает сделать воспитательный процесс более интересным, наглядным и доступным для восприятия детьми. Комбинирование цифровых инструментов с элементами зарубежных методик способствует созданию эмоционально-развивающей образовательной среды, где ребёнок становится активным участником познавательного и воспитательного процесса.

Обзор литературы: Проблема формирования нравственных и социальных ценностей у детей дошкольного возраста занимает важное место в педагогической науке. В трудах М. Монтессори подчеркивается, что моральное воспитание должно строиться на свободе выбора, самостоятельности и внутренней дисциплине ребёнка. Концепция Реджио Эмилия, разработанная Л. Малиагуцци, рассматривает ребёнка как активного созидателя знаний, а нравственное развитие — как результат взаимодействия, сотрудничества и сотворчества. Вальдорфская педагогика Р. Штайнера акцентирует внимание на духовно-нравственном становлении личности, гармонии с природой и эстетическом восприятии мира. Среди отечественных педагогов В. А. Сухомлинский и Л. С. Выготский отмечали, что нравственность формируется через деятельность, игру и личностное общение ребёнка с окружающими. Современные исследования показывают, что использование цифровых технологий и интерактивных методов в сочетании с традиционными педагогическими средствами усиливает воспитательный эффект, делая процесс нравственного развития более наглядным и эмоционально насыщенным.

Методология: Методологическая основа исследования базируется на гуманистическом, личностно-ориентированном и деятельностном подходах, которые рассматривают ребёнка как активного субъекта образовательного процесса. Основное внимание уделялось развитию самостоятельности, ответственности, эмпатии и способности к моральному выбору. Для достижения цели использовались методы анализа и сравнения

педагогической литературы, наблюдения за образовательной деятельностью дошкольников, опроса воспитателей и родителей. Также применялись элементы педагогического эксперимента, направленные на внедрение отдельных аспектов зарубежных методик — Монтессори, Реджио Эмилия и Вальдорфской педагогики — с использованием цифровых и интерактивных технологий. Эксперимент позволил выявить наиболее эффективные способы интеграции традиционных ценностей и инновационных подходов в воспитательный процесс. Полученные результаты подтвердили, что сочетание гуманистических принципов и цифровых средств способствует более успешному формированию нравственных и социальных качеств у детей дошкольного возраста.

Задачи: Определить эффективные педагогические условия, формы и методы формирования нравственных и социальных ценностей у детей дошкольного возраста на основе зарубежного педагогического опыта и современных цифровых технологий. Для решения этой задачи необходимо проанализировать особенности методических систем Монтессори, Реджио Эмилия и Вальдорфской педагогики, выявить их воспитательный потенциал в развитии личности ребёнка, а также определить пути их адаптации к национальной системе дошкольного образования Узбекистана. В рамках исследования требуется изучить возможности применения цифровых инструментов — интерактивных игр, мультимедийных заданий и онлайн-платформ — как средств, способствующих формированию у дошкольников нравственных качеств, таких как доброжелательность, эмпатия, ответственность, честность и сотрудничество. Особое внимание уделяется созданию условий, при которых взаимодействие традиционных и инновационных подходов позволит сделать процесс нравственного воспитания более осознанным, эмоционально насыщенным и практико-ориентированным.

Решение: Для реализации поставленной задачи в образовательную практику были внедрены элементы зарубежных методик, адаптированные к национальным условиям дошкольного образования. Из системы Монтессори использовались принципы самостоятельности, свободы выбора и ответственности за результат, что позволило формировать у детей осознанное отношение к своим действиям и поступкам. Подход Реджио Эмилия применялся в организации совместной проектной деятельности, где дети учились сотрудничеству, взаимопомощи и уважению к мнению других. Из Вальдорфской педагогики были заимствованы элементы художественно-творческого воспитания, направленные на развитие эмпатии и внутренней гармонии ребёнка. В сочетании с этим активно применялись цифровые технологии: интерактивные игры, мультимедийные презентации, видеосюжеты о моральных ситуациях. Эти средства позволили сделать воспитательный процесс более наглядным, эмоционально выразительным и приближённым к опыту ребёнка. Результаты наблюдений показали, что дети стали чаще проявлять доброжелательность, стремление к сотрудничеству и умение анализировать нравственные поступки, что подтверждает эффективность интеграции зарубежных педагогических идей и цифровых инструментов в систему нравственного воспитания дошкольников

Таблица 1.

Применение зарубежных педагогических подходов и цифровых технологий в процессе формирования нравственных ценностей у дошкольников.

Педагогический подход	**Основные идеи и методы**	**Применяемые цифровые технологии**	**Формируемые нравственные качества**
М. Монтессори	Самостоятельность, свобода выбора, личная ответственность; обучение через деятельность.	Интерактивные обучающие игры, цифровые карточки-задания.	Осознанность поступков, чувство ответственности, самоконтроль.

Реджио Эмилия (Л. Малиагуцци)	Взаимодействие, коллективное творчество, проектная работа.	Совместное создание мультимедийных проектов, использование интерактивных досок	Уважение к мнению других, эмпатия, сотрудничество, коммуникабельность
Р.Штайнер (Вальдорфская педагогика)	Художественно-творческая деятельность, воспитание через искусство и эмоции	Цифровые презентации и видеоролики о моральных историях, музыка и визуальные образы	Эмоциональная чувствительность, доброжелательность, внутренний баланс

Заключение: Формирование нравственных и социальных ценностей у дошкольников является важнейшим направлением современного образования, определяющим духовно-нравственное развитие личности ребёнка. Результаты исследования показали, что интеграция зарубежных педагогических подходов — Монтессори, Реджио Эмилия и Вальдорфской педагогики — с национальной системой воспитания и современными цифровыми технологиями значительно повышает эффективность образовательного процесса. Использование интерактивных средств, мультимедийных игр и цифровых историй способствует развитию у детей эмпатии, ответственности, честности и способности к сотрудничеству. Применение гуманистических принципов делает воспитательный процесс более личностно-ориентированным и эмоционально насыщенным, а цифровая среда — более доступной и интересной для ребёнка. Таким образом, сочетание традиционных ценностей, инновационных методов и цифровых инструментов создаёт основу для гармоничного нравственного и социального развития дошкольников, обеспечивая преемственность воспитания на последующих этапах образования.

Список литературы:

1. Абитова Г. Т. Формирование основ информационной культуры детей старшего дошкольного возраста средствами социально-культурной деятельности: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.05. - СПб., 2015. - 220 с.

2. Захарова, Л. М. Социально-коммуникативное развитие детей дошкольного возраста : учебное пособие / Л. М. Захарова. - М. : РУСАЙНС, 2022. - 154 с.

3. Кондрашова, Н. В. Ценностно-целевые ориентиры формирования культуры личности у дошкольников в условиях стандартизации и цифровизации образования / Н. В. Кондрашова // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2020. - № 2. - С. 12-29. - URL: http://e-koncept.ru/ 2020/201010.htm (дата обращения: 07.03.2025).

4. Коломийченко, Л. В. Дорогою добра. Концепция и программа социально-коммуникативного развития и социального воспитания дошкольников / Л. В. Коломийченко. - М. : Сфера, 2017. - 160 с.

ДАРС ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ.

Холова Нодира Ахмедовна
Бухоро давлат техника университети
мустақил изланувчиси

Кириш. Дарс жараёнида талабаларда рақамли технологияларни қўллаш бугунги кунда замонавий таълим тизимида жуда долзарб ҳисобланади. Ҳозирги кунда таълим тизими рақамли трансформация жараёнини бошдан кечирмоқда. Талабалар рақамли саводхон

бўлиши ва таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиши зарур. Бугунги кунда рақамли саводхонлик ва ахборот технологияларини самарали қўллаш олий таълим муассасаларининг асосий вазифаларидан бирига айланди. Бундан асосий мақсад талабаларнинг таълим жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш, уларнинг билим олиш, таҳлил қилиш, талабаларда рақамли компетенциялар ривожлантириш усулларини кўрсатиш ва янгилик яратиш имкониятларини оширишдан иборат. Рақамли технологиялар нима? Рақамли технологиялар-бу ахборотни яратиш, сақлаш, ахборотни рақамли форматда қайта ишлаш ва узатишни рақамли усулда амалга оширадиган восита ва дастурлардир. Улар қуйидагиларни ўз ичига олади: компьютер ва планшетлар, интернет ва булутли хизматлар (Google Workspace, Microsoft 365 ва ҳ.к.), мультимедиа воситалари виртуал ва қўшимча реаллик (VR/AR), таълим платформалари (Moodle, Coursera, Edmodo, Google Classroom).

Миллий ва хорижий манбалар таҳлили. Ўзбекистонда таълимни рақамлаштириш соҳасида бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилган. Йўлдошев Ш. ва ҳаммуаллифлар (2021) таъкидлашича, рақамли таълим муҳитини яратиш талабаларнинг фаоллигини оширади, уларни ахборот излаш ва таҳлил қилишга ўргатади.**Турсунова Н. (2020)**нинг фикрича, дарс жараёнида рақамли платформалар (Moodle, Google Classroom, ZOOM, MS Teams ва бошқалар)дан фойдаланиш таълимнинг интерактивлигини оширади ва индивидуал ёндашувни таъминлайди. Қодирова Г. (2022) эса талабаларнинг рақамли компетенцияларини ривожлантиришда мультимедиа ресурслар, симуляциялар ва виртуал лабораторияларнинг ролини ёритган. Халқаро тадқиқотларда ҳам рақамли технологияларни таълим жараёнига интеграция қилиш масалалари кенг ўрганилган. Prensky M. (2001) “Digital Natives, Digital Immigrants” асарида замонавий талабалар рақамли муҳитда ўсгани сабабли анъанавий ўқитиш усулларига эмас, балки рақамли воситалар орқали билим олишга мойил эканлигини таъкидлайди. Redecker C. (2017)нинг “European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu)” концепциясида педагоглар ва талабаларнинг рақамли компетенциялари таълим самарадорлигининг асосий омили сифатида кўрсатилган. Selwyn N. (2020) таълимда рақамли технологияларнинг ижтимоий таъсири ва чуқур ўрганиш жараёнига таъсирини таҳлил қилган. Унинг фикрича, рақамли воситалар фақат техник жиҳатдан эмас, балки педагогик ва маданий жиҳатдан ҳам мувофиқлаштирилиши лозим.

Муҳокамалар ва натижалар. Дарс жараёнида рақамли технологияларни қўллашнинг асосий йўналишлари мавжудки, улар қуйидагилардан иборат: интерактив дарслар ташкил этиш, буларга презентациялар (PowerPoint, Canva, Prezi) Онлайн тестлар (Kahoot, Quizizz, Mentimeter) Виртуал лабораториялар ва симуляторлар киради. Масофавий таълим ва онлайн курслар буларга Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams орқали дарс ўтказиш, талабаларга электрон ресурслар, е лектрон журнал ва баҳолаш тизимлари? видеодарслар тақдим этиш кабилар киради. **Мультимедиа материаллар яратиш:** видеодарслар, подкастлар, инфографикалар. **Автоматлаштирилган баҳолаш тизимлари:**онлайн тестлар, LMS орқали автоматик натижалар. **Талабалар мустақил ишини ташкил қилиш:** Google Docs, Padlet, Notion каби платформаларда жамоавий иш.

Дарс жараёнида талабаларда рақамли технологияларни қўллаш уларни рақамли компетенциялар шакллантиришга олиб келади. Талабаларда қуйидаги рақамли компетенциялар ривожлантирилиши керак: ахборотни излаш, саралаш ва таҳлил қилиш, ахборот хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш, ижодий ва танқидий фикрлаш, интернет маданияти ва ахлоқи ва ҳ.

Дарс жараёнида талабаларда рақамли технологияларни қўллашнинг талабалар учун афзалликлар: таълим жараёнида фаол иштирок ва интерактивлик, ахборот технологияларидан эркин фойдаланиш кўникмаси, мустақил таълим олиш имконияти, таълимнинг сифатини ошириш ва замон талабига мослашиш.

Дарс жараёнида рақамли технологияларни қўллашнинг ўқитувчи учун тавсиялар: дарс мақсадига мос рақамли воситани танлаш, талабаларнинг рақамли компетенцияларини

баҳолаб бориш, ахборот хавфсизлиги ва академик ҳалоллик қоидаларига риоя этиш, дарсни анъанавий ва рақамли усулларни уйғунлаштирган ҳолда ташкил этиш ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, дарс жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланиш биринчи навбатда таълимнинг сифатини оширади, талабаларнинг билим олиш самарадорлигини оширади, талабаларнинг қизиқишини кучайтиради ва уларнинг фаол иштирокини таъминлайди, мустақил фикрлаш ва ижодий ёндошувни кучайтиради. Таълим жараёнида фаол иштироки ва интерактивлик, ахборот технологияларидан эркин фойдаланиш кўникмаси, мустақил таълим олиш имконияти, таълимнинг сифатини ошириш ва замон талабига мослашиш. Шу билан бирга, рақамли компетенциялар меҳнат бозорида рақобатбардош мутахассислар етиштиришга замин яратади. Рақамли саводхонлик XXI аср кўникмалари қаторига киради ва ҳар бир мутахассис учун зарур компетенция ҳисобланади. Лекин шу билан бирга дарс жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланишда баъзи муаммо ва камчиликлар мавжудки, буларга қўйидагилар киради: интернет ёки техник жиҳозларнинг етишмаслиги, талабаларнинг рақамли саводхонлик даражаси паст бўлиши, ўқитувчиларда рақамли компетенцияларни ривожлантириш зарурати ва ҳ. Бу жараёнда техник, методик ва инсон омили билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш талаб этилади. Ўқитувчи ва талабаларда рақамли компетенцияларни ривожлантириш орқали рақамли таълим муҳитини барқарор ва самарали ташкил этиш мумкин. Айни пайтда ана шу камчиликларни бартараф этиш борасида мамлакатимизда шу йўналишда қизғин ишлар олиб бориляпти ва натижалар кўриняпти.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta’limning afzalliklari. “O’zMU xabarlari”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.
2. O’rinov U.A. Nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda masofaviy ta’lim tizimini tashkil etish prinsiplari. “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari”. Ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent, 2020.№3,196-203b.
3. DIGITAL TECHNOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN — Ўзбекистон таълим тизимида рақамли технологияларнинг интеграцияси, муваффақиятлари ва муаммолари.
4. Kholova N., Abdullaev R. Censuring the durability of foundations of buildings and structures // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – T. 839. – №. 5. – C. 052044.
5. Kholova N. A. Production of Reinforced Concrete Products by Application of Energy Saving Methods is the way of Increasing the Economic Efficiency of National Economy // european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 297 - 298.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.

O’QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISHDA MEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA ULARNING ISTIQBOLLARI

Alimov Asadulla Urokbayevich
Samarqand davlat pedagogika instituti
“Fizika” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: asadullaalimov0@gmail.com
Tel: + 998 93 963 72 64

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda media texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda media texnologiyalari (video, animatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar)ning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. So‘nggi

yillardagi xalqaro tadqiqotlar tahliliga koʻra, media vositalari orqali ta’lim jarayonini interaktivlashtirish oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, media texnologiyalarini notoʻgʻri yoki haddan ziyod qoʻllash raqamli kognitiv yukni oshirib, oʻquvchining psixologik holatiga salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkinligi ham ta’kidlanadi.

Kalit soʻzlar: kognitiv faollik, media texnologiyalar, interaktiv ta’lim, gamifikatsiya, virtual reallik, raqamli pedagogika, shaxsiylashtirilgan oʻrganish.

Аннотация: В данной диссертации анализируются теоретические и практические аспекты использования медиатехнологий для повышения познавательной активности студентов. В исследовании на основе научных источников рассматривается влияние интеграции медиатехнологий (видео, анимация, виртуальная и дополненная реальность, интерактивные платформы, мобильные приложения и социальные сети) в образовательный процесс на активизацию познавательных процессов студентов. Согласно анализу международных исследований последних лет, интерактивность образовательного процесса посредством медиаинструментов развивает у студентов навыки самостоятельного мышления, решения проблем и креативности. В то же время отмечается, что неправильное или чрезмерное использование медиатехнологий может увеличить цифровую когнитивную нагрузку и негативно повлиять на психологическое состояние студента.

Ключевые слова: познавательная активность, медиатехнологии, интерактивное образование, геймификация, виртуальная реальность, цифровая педагогика, персонализированное обучение.

Bugungi kunda ta’lim tizimida faqat oʻquvchilarga ma’lumot berish emas, balki ularni ongli ravishda oʻqishga jalb qilish — ya’ni kognitiv faollikni oshirish — muhim vazifa sifatida koʻrilmoqda. Media texnologiyalari (masalan, video-materiallar, interaktiv simulyatsiyalar, virtual realiti, onlayn platformalar va boshqalar) ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu munosabat bilan, oʻquvchilarning kognitiv faolligini oshirishda media texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ular bilan bogʻliq nazariy asoslar, amaliy yoʻllar va istiqbollarini koʻrib chiqish zarur.Ayniqsa, kognitiv faollik — oʻquvchilar tomonidan bilimni ongli ravishda qabul qilish, tahlil qilish, muammolarni echish va natija yaratish jarayonida faol ishtirok etish — ta’limning samaradorligini oshirishda muhim oʻrin egallaydi. Shu munosabat bilan, media texnologiyalari orqali oʻquvchilarning kognitiv faolligini oshirish metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Ushbu tezisda, avvalo kognitiv faollik va media texnologiyalari tushunchalariga yondoshamiz, soʻngra oʻquvchilarning kognitiv faolligini oshirishda media texnologiyalarining imkoniyatlarini koʻrib chiqamiz. Keyin metodik jihatdan — qanday qilib media texnologiyalari yordamida kognitiv faollikni faollashtirish mumkinligi, oʻqituvchining roli, baholash mexanizmlari va amaliy tavsiyalar haqida fikr yuritamiz.

Kognitiv faollikning oshishi oʻquvchilarning chuqurroq oʻrganishiga, bilimlarni yodda saqlashga, fikrlash malakalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktab darajasida didaktik jarayonlarda oʻquvchilarning kognitiv faolligini ragʻbatlantirish muhim: darslar interaktiv boʻlmasa, oʻquvchi faqat oʻqituvchining soʻzini tinglashi, passiv ishtirok qilishi mumkin. Shu sababli, ta’lim jarayonida oʻquvchilarning — fikrni shakllantirish, savollarga javob berish, muammolarni tahlil qilish, yangi vazifalarni bajarishga jalb etilishi zarur.

Kognitiv faollik deganda oʻquvchilarning faqat passiv tinglovchi boʻlib qolmasdan, bilimlarni qabul qilishda, analiz qilishda, sintez qilishda, muammolarni hal qilishda faol qatnashishi tushuniladi. Masalan, oʻquvchi berilgan ma’lumotni shunchaki eslab qolish emas, balki uni tahlil qilib, oʻz fikrini shakllantirib, amaliyotga tadbiq etadi. Bu esa ta’lim jarayonida chuqur oʻzlashtirishga, mustaqil fikrlashga, ijodiy yechim topishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilarning kognitiv va metakognitiv faoliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Media texnologiyalari deganda turli vositalar, jumladan audio-video materiallar, multimedia taqdimotlar, interaktiv dasturlar, onlayn platformalar, videolar va animatsiyalarni anglash mumkin.

Ta’lim jarayonida bu vositalar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, vizual va eshitish kanallarini uyg‘un ishlatish, o‘quv jarayoniga qiziqarli format qo‘shish imkonini beradi. Masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyalarini joriy etish orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlash va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligi ta’kidlangan. Shuningdek, oliy ta’limda mediakompetentlikni rivojlantirishga oid materiallar ham mavjud.

Shunday qilib, media texnologiyalari ta’lim jarayonini yangicha shakllantirishda qulay vosita hisoblanadi.

O’quv jarayonida interaktiv media vositalarni (masalan, videotasvirlar, animatsiyalar, grafikalar) qo‘llash o‘quvchilarning vizual va eshituv chanallarini uyg‘un faollashtiradi. Bu turdagi materiallar o‘quvchilarga mavzuni yanada tushunarli qilishi, diqqatni jalb qilishi va murakkab tushunchalarni aniqroq tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Masalan, animatsiya orqali jarayonni bosqichma-bosqich ko‘rsatish, grafik tasvirlarda trend yoki o‘zgarishlarni vizual tarzda aks ettirish mumkin. Shu tarzda o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari — tushunish, tahlil, sintez — qo‘zg‘atiladi.

Media vositalarni qo‘llashda bir jihatga: vizual materiallarni passiv tomoshabinlik emas, balki faol «o‘zgarishlar kiritish», «savollar bilan ishlash», «animatsiyani to‘xtatib fikr yuritish» tarzida tashkil etish lozim. Bu esa o‘quvchilarning faolligini, muammolarni izlash va yechim topish jarayoniga jalb qiladi.

O’yinlashtirilgan metodika — o‘quvchilarga o‘yin elementlari, interaktiv vazifalar, simulyatsiyalar taqdim etish orqali o‘rganishni qiziqarli qilish usuli — media texnologiyalari bilan uyg‘un qo‘llanilganda, kognitiv faollikni sezilarli oshira oladi. Masalan, virtual muhit, simulyatsiya o‘yinlari, multimedia dasturlar orqali o‘quvchilar muammoli vazifalarni hal qilishga, turli sharoitlarda qaror qabul qilishga ko‘nikishadi. Bu ularning mustaqil fikrlash, tahlil, tanqidiy fikr yuritish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim texnologiyalari va multimedia vositalarini birlashtirish o‘quvchilarda kreativ va kognitiv faoliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Maktab (o‘rta, boshlang‘ich) ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish uchun media texnologiyalaridan foydalanishning bir necha amaliy imkoniyatlari mavjud:

Visual-interaktiv dars materiallari

Darsning oddiy taqdimotidan tashqari, video, animatsiya, interaktiv simulyatsiyalar orqali tushuntirish o‘quvchida ko‘rish, tinglash va ishtirok etish imkonini yaratadi. Masalan fizika darslarida virtual tajribalar va animatsiyalar orqali tushunchalar vizual tarzda ifodalanishi mumkin. Bu esa kognitiv yukni kamaytirish va tushunishni yaxshilashga yordam beradi.O’quvchilarning tasavvur qilish doirasini kengaytiradi

Mobil va onlayn o‘quv platformalari

O’quvchilar mobil ilovalar yoki onlayn platformalar orqali modul tarzida o‘rganishlari mumkin. Misol uchun, uyga vazifa sifatida interaktiv video ko‘rish va so‘ng virtual testni bajarish. Bu ularga o‘z sur’atida o‘rganish, qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Tadqiqotlarda mobil o‘rganish uslublari o‘quvchilarning kognitiv faolligiga ijobiy ta’sir qilgani aniqlangan.

Media texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchining roli juda muhim. Faqat media vositalarni taqdim etish bilan kifoyalanib qolmasdan, o‘qituvchi ularni mazmunli, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda kiritishi lozim. Masalan, interaktiv slaydlarning tarkibi, animatsiyalarni qo‘llash paytida o‘quvchilarga so‘zsiz taqdimot sifatida emas, balki muammo-savollar bilan ishlash, guruh muhokamalari orqali faol sayt qilish usuli qo‘llanilishi kerak.

Shuningdek, o‘qituvchi media faoliyatni rejalashtirayotganda o‘quvchilarning boshqacha o‘rganish uslublari, faollik darajasi va media texnologiyalarga tayyorgarligi kabi jihatlarni hisobga olishi zarur. Bu nuqtai nazardan, media vositalar sinf ichida passiv tinglovchilik jarayonini faollikka aylantiruvchi vosita bo‘lishi mumkin. Masalan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning tafakkuri, xotira va nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Media texnologiyalarining kognitiv faollikni oshirishdagi istiqbollari juda istiqbolli. Quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- **Shaxsiylashtirilgan o‘rganish**: AI va katta ma’lumotlar (Big Data) yordamida o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida mos o‘quv yo‘llarini yaratish. Masalan, generativ AI vositalarini qo‘llash orqali talabalarning tahlil qilish, fikrlash darajasini oshirish mumkin.
- **Immersiv ta’lim muhitlari** (VR/AR) kengayadi: Talab va imkoniyat ortgani sayin maktablarda ham arzonroq, qulayroq immersive muhitlar paydo bo‘ladi, bu o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.
- **Gamifikatsiya va o‘yin-aspektli o‘qitish** yanada keng qo‘llaniladi: Bu nafaqat motivatsiyani oshirish, balki kognitiv jarayonlarni rag‘batlantirishga yordam beradi.
- **Ijtimoiy o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi platformalar**: O’quvchilararo hamkorlik, muhokama, refleksiya, o‘zaro fikr almashish imkoniyatlari kengayadi.
- **Ta’lim jarayonida ma’lumotlarni tahlil qilish (learning analytics)** orqali o‘quvchilarning faolligi, qiyinchiliklari, ehtiyojlari aniqlanadi va pedagogik yondashuvlar optimallashtiriladi.
- **Pedagogik dizayn va o‘qituvchilarning malakasini oshirish**: Media texnologiyalarini samara bilan integratsiya qilish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash, darsini moslashtirish zarur.
- **Infratuzilma va teng imkoniyatlar yaratish**: Texnologiyaga kirish imkoniyati bo‘lmagan o‘quvchilarni ajratib qo‘ymaslik uchun maktablar va jamiyatlar resurslarni kengaytirishi lozim.

Ushbu istiqbollarni amalga oshirishda maktab tizimi, ta’lim siyosati, maktab rahbariyati, o‘qituvchilar hamkorlikda ishlashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, media texnologiyalari o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga katta imkoniyatlar ochmoqda. Interaktiv simulyatsiyalar, mobil va onlayn platformalar, ijtimoiy hamkorlik va gamifikatsiya elementlari dars jarayonini yanada faol, qiziqarli va maqsadli qiladi. Shu bilan birga, bularning samarasi faqat texnologiyani qo‘llash bilan emas, balki pedagogik maqsad bilan, dars dizayni bilan, o‘qituvchilar tayyorgarligi bilan belgilanishi kerak. Media texnologiyalarini joriy etishda infratuzilma, teng imkoniyatlar, raqamli yukni nazorat qilish kabi muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Tadqiqotda media vositalarni dars jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, ularni pedagogik tamoyillar asosida ishlab chiqish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish zarurligi ta’kidlanadi. Taklif etilgan metodik yondashuvlar o‘quvchilarning fizik qonuniyatlarni anglash, tahlil qilish, metakognitiv o‘ylash va tanqidiy fikrlashni o‘stiradi,tajriba o‘tkazish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Yuqorida taklif qilingan metodika, zamonaviy media texnologiyalaridan foydalanish orqali fizika darslarida o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi.Abstrakt tushunchalarni vizualizatsiya qilish orqali tushunishni yengillashtiradi.O’quvchilarning faol ishtirokini taminlaydi va ijodiy ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jaeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – T.: TDPU, 2010.
2. Karimov B., Usmonxo‘jayev M. "Fizika o‘qitish metodikasi". – T.: O’qituvchi, 2022.
3. Юсупова М.Ш. “Замонавий таълимда АКТ воситаларидан фойдаланиш”. – Тошкент, 2021.
4. PhET Interactive Simulations: https://phet.colorado.edu
5. Khan Academy – Physics Videos: https://www.khanacademy.org/science/physics
6. Салиева С. “Физика фанини ўқитишда рақамли ресурслардан самарали фойдаланиш усуллари”. – “Инновацион таълим”, №3, 2022.
7. Akhmetova, A., Karmanova, Z., Demissenova, S., Sadvakassova, N., & Koshkumbaev, K. (2024). Pedagogical Technologies and Cognitive Development in Secondary Education. *Open Education Studies*, 6(1). (degruyterbrill.com)
8. (2025). Impact of multiple educational technologies on well-being: the mediating role of digital cognitive load. *BMC Nursing*. (BioMed Central)
9. Guiotto Nai Fovino, L., Zanella, A., Di Mascolo, L., Ginolfi, M., Carpita, N., & Trovato Manuncola, F., Grassi, M. (2024). Evaluating the effectiveness of sonification in science education using Edukoi. (preprint) (arXiv)

10. Bashiri, M., & Kowsari, K. (2024). Transformative Influence of LLM and AI Tools in Student Social Media Engagement: Analyzing Personalization, Communication Efficiency, and Collaborative Learning. (preprint) (arXiv)

AXBOROT TA’LIM MUHITINING INNOVATSIYALAR JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Sattarova Sevinch Berdiyor qizi
JDPU o‘qituvchisi
+99899 355 23 28, E-mail. sevinchsattarova1997.@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-ta’lim muhiti va axborot-kommunikatsion ta’lim muhitining mohiyati, tarkibiy qismlari hamda ularni ta’lim jarayoniga joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Mualliflar tomonidan axborot-ta’lim muhiti ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, mustaqil o‘qish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida shakllangan elektron axborot ta’lim muhiti tushunchasi, uning o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishidagi o‘rni, motivatsion omillarning ta’siri hamda innovatsiyalar diffuziyasi jarayoni tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsion muhitning samaradorligi o‘quv jarayonida vizuallashtirish, baholash va interaktiv nazorat tizimlarini qo‘llash bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: axborot-ta’lim muhiti, axborot-kommunikatsion muhit, elektron ta’lim, AKT, dasturiy-metodik majmua, innovatsiyalar diffuziyasi, mustaqil ta’lim, ta’lim texnologiyalari, o‘qituvchi kompetensiyasi, ta’lim samaradorligi.

Kirish. Axborot-ta’lim muhiti – bu ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun maqsadli yaratilgan axborot muhiti. Ta’lim jarayoni maxsus ta’lim muassasalarida (maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji, oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish) va undan tashqarida (masalan, inson mustaqil ta’lim olish bilan shug‘ullanadi va buning uchun Internet resurslari, axborot resurs markazlari fondi va boshqalardan foydalanadi) kechishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. J.N.Zaytseva “axborotlashgan ta’lim muhiti ta’lim oluvchilarning haqiqiy bunyodkorligi, iste’dodini ochish uchun oldindan tayyorlangan axborot muhiti” deb hisoblaydi. O.A.Ilchenko esa “Axborot-ta’lim muhiti – ta’lim jarayoni subyekti inson bilan bog‘liq axborot, texnik va o‘quv metodik ta’minotlarning birgalikdagi tizimli tashkil etilishi” deb ta’riflaydi.

Bizning nuqtai nazarimizcha, axborot-ta’lim muhiti – bu har bir sohada axborotlarni uzatish, tarqatishga xizmat qiluvchi, ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati va axborot resurslaridan samarali foydalanishini ta’minlovchi va zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan yaxlit ijtimoiy-psixologik borliq. Axborot-kommunikatsiya muhiti – AKTning interaktiv vositalaridan foydalangan holda axborot aloqasining sub’ekti o‘zaro aloqada bo‘lgan axborot resursi bilan foydalanuvchi faoliyatini amalga oshirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlar to‘plami. Axborot-kommunikatsiya muhiti quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ko‘plab axborot obyektlari va ular orasidagi aloqalar; axborotni yig‘ish, to‘plash va uzatish, qayta ishlash, ishlab chiqarish va tarqatish uchun vositalar va texnologiyalar, audiovizual ma’lumotni ko‘paytirish uchun vositalar; axborot jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi tashkiliy-huquqiy tuzilmadir.

Muhokama. Axborot-kommunikatsion ta’lim muhitini yaratishdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirish (o‘quvchanlik, mustaqil ta’lim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati ortadi, ijodiy qobiliyatlar, axborotni mustaqil izlash va baholash yo‘li bilan bilim olish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati rivojlanadi); ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish (lokal tarmoqlar va internet orqali muloqot); shaxsiy tajribasini hisobga olib shaxsning ma’naviy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish; variativlikni ta’minlash; tez o‘zgarayotgan sharoitlarda ta’lim oluvchilarning mobilligi va moslashuvchanligini oshirishdir. Axborot-kommunikatsion ta’lim muhitiga kiruvchi sub’ektlar unga moslashadi, o‘zining ehtiyojiga uni moslashtiradi, ya’ni muayyan tartibda uni o‘zgartiradi.

Axborot-ta’lim muhitining eng muhim komponentlaridan biri, o‘quv faoliyatini axborotlashtirishga qaratilgan va axborot-ta’lim muhitining o‘quv komponentiga asos bo‘ladigan dasturiy-metodik majmuadir .

Har bir dasturiy-metodik majmuada fan bo‘yicha o‘quv materialini o‘rganish rejasi va maqsadi, o‘quv kursi mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati, fanlararo aloqadorlikka ko‘rsatma, o‘rganiladigan kursni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar (o‘rgatuvchi, modellashtiruvchi dasturlar) shakllantirilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, har bir o‘quv-metodik majmua nazariy, amaliy bilimlar va ularni tashxislash vositalarini o‘z ichiga olishi lozim.Axborot-kommunikatsion ta’lim muhitining samaradorligi dasturiy ta’minotida quyidagi elementlarning mavjudligi bilan belgilanadi: obyektlarni, tushunchalarni, hodisa va jarayonlarni vizuallashtirish;

ta’lim oluvchilarning bilim darajasini nazorat qilish va baholashning kompyuter test, tashxis metodikalariga egalik; ta’lim oluvchining intellektual potentsialini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, axborot-o‘quv, eksperimental-tadqiqotchilik, axborotni mustaqil qayta ishlash faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi metodik tizimga egalik.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayonida joriy etish – zamonaviy jamiyatda mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirishning ayrim masalalarini hal qilish, har bir insonga, uning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda butun o‘qish davomida kompyuter texnologiyasidan foydalanish ko‘zda tutilgan yangi predmetli dasturlar ishlab chiqish demakdir.

Elektron axborot ta’lim muhiti – bu kompyuter texnikasi va dasturiy telekommunikatsiya vositalaridan iborat, o‘qituvchilarning kasbiy extiyojlarining sifatli axborot ta’minotini yaratish, kasb faoliyati davomida uzluksiz metodik tayyorgarligi faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik ta’minotga asoslangan ta’lim olish jarayoni hisoblanadi. Elektron axborot ta’lim muhitida o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim olishi uchun qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillardan biri motivlashtirish hisoblanadi. Elektron axborot ta’lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta’lim paradigmasiga, insonning individualligini anglash, katta yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlarini bilish va hisobga olishga asoslanadi. Shuningdek, elektron axborot ta’lim muhiti innovatsiyalar diffuziyasi samaradorligining asosi sifatida belgilanadi.

Xulosa. Ilmiy adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, innovatsiyalar diffuziyasi ijtimoiy tizim a’zolari o‘rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalar orqali vaqti-vaqti bilan uzatilish jarayoni bo‘lib, avval ishlatilgan va o‘zlashtirilgan innovatsiyalarni yangi sharoitda yoki yangi joyda ommalashtirishni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov K.A. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida axborot ta’lim muhitini takomillashtirish: Dis. ... ped. fan. fal. dok. (PhD). – Toshkent, 2018. – 150 b.

2.Зайцева Е.М. Технология управления развитием информационной компетентности студентов радиотехнических специальностей.: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ижевск, 2007. – 19 с.

3.Ильченко О.А. Организационно-педагогические условия разработки и применения сетевых курсов в учебном процессе: На примере подготовки специалистов с высшим образованием: Дис. ... канд. пед. наук. 2002.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Sattarova Sevinch Berdiyor qizi
JDPU o‘qituvchisi
+99899 355 23 28, E-mail. sevinchsattarova1997.@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash va ta’lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Xususan, oliy ta’lim tizimida kredit-

modul tizimini joriy etish, xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashish, Bolonya jarayoni tamoyillarini milliy ta’lim tizimiga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada Bolonya kelishuvi asosida yaratilgan yagona Yevropa oliy ta’lim makonining maqsadi, ya’ni o‘quv jarayonini uyg‘unlashtirish, umumyevropa mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ta’lim sifatini xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, kredit-modul tizimining afzalliklari — talabani ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirish, o‘qituvchining maslahatchi rolini kuchaytirish kabi jihatlar tahlil etilgan. Binar va vebinar kabi zamonaviy o‘qitish uslublarining ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada xalqaro pedagogik hamkorlikning O’zbekiston ta’lim tizimi rivojiga ta’siri, ilmiy-tadqiqot va innovatsion jarayonlar integratsiyasi, shuningdek, onlayn ta’limning global tendensiyalari haqida ham so‘z yuritilgan. Xulosa o‘rnida, xalqaro integratsiya orqali ta’lim sifatini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish O’zbekiston oliy ta’lim tizimi taraqqiyotining muhim omili ekanligi ta’kidlanadi.

Abstract: This article discusses the modernization of the education system in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, with a focus on training specialists that meet international standards and improving the quality of education. In particular, the article analyzes the theoretical and practical aspects of introducing the credit-modular system in higher education, integrating into the international educational space, and applying the principles of the Bologna Process to the national education system. The main goal of the Bologna Agreement — the creation of a unified European Higher Education Area aimed at harmonizing educational processes, preparing competitive specialists for the European labor market, and ensuring international recognition of educational quality — is explored in detail. Moreover, the advantages of the credit-modular system, such as placing the student at the center of the learning process, developing independent learning skills, and strengthening the teacher’s role as a mentor, are examined. The importance of modern teaching methods such as binary and webinar lessons is also highlighted. The article further discusses the impact of international pedagogical cooperation on the development of Uzbekistan’s education system, the integration of scientific research and innovation, and global trends in online education. In conclusion, it is emphasized that international integration plays a crucial role in improving education quality, training highly qualified professionals, and effectively utilizing modern educational technologies — all of which are key factors in the progress of Uzbekistan’s higher education system.

Аннотация: В данной статье рассматривается модернизация системы образования в Республике Узбекистан в годы независимости, а также проводимые реформы, направленные на подготовку кадров, соответствующих международным стандартам, и повышение качества образования. В частности, анализируются теоретические и практические аспекты внедрения кредитно-модульной системы в высшем образовании, интеграции в международное образовательное пространство и применения принципов Болонского процесса в национальной системе образования. Отмечается основная цель Болонского соглашения — создание единого Европейского пространства высшего образования, направленного на гармонизацию учебных процессов, подготовку конкурентоспособных специалистов для общеевропейского рынка труда и обеспечение международного признания качества образования. Кроме того, рассматриваются преимущества кредитно-модульной системы, такие как ориентация учебного процесса на студента, развитие навыков самостоятельного обучения и усиление роли преподавателя как наставника. Также подчеркнута значимость современных методов обучения, таких как бинарные занятия и вебинары. В статье освещено влияние международного педагогического сотрудничества на развитие системы образования Узбекистана, интеграцию научных исследований и инновационных процессов, а также глобальные тенденции онлайн-образования. В заключение подчеркивается, что международная интеграция играет важную роль в повышении качества образования, подготовке высококвалифицированных специалистов и эффективном использовании

современных образовательных технологий, что является ключевым фактором прогресса системы высшего образования Узбекистана.

Kalit so‘zlar: Bolonya jarayoni, kredit-modul tizimi, oliy ta’lim, xalqaro integratsiya, pedagogik hamkorlik, ta’lim sifati, binar dars, vebinar, ECTS tizimi, mustaqil ta’lim, innovatsion texnologiyalar, onlayn ta’lim.

Keywords: Bologna Process, credit-modular system, higher education, international integration, pedagogical cooperation, quality of education, binary lesson, webinar, ECTS system, independent learning, innovative technologies, online education.

Ключевые слова: Болонский процесс, кредитно-модульная система, высшее образование, международная интеграция, педагогическое сотрудничество, качество образования, бинарное занятие, вебинар, система ECTS, самостоятельное обучение, инновационные технологии, онлайн-образование.

Kirish

Bugungi kunda dunyodagi barcha mamalakatlarning ta’lim tizimi o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda va anashu maqsadda har xil davlat va nodavlat ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyaAna shunday ta’lim tizimlaridan biri Yevropada 48 ta mamlakat ishtirok etadigan “Boloniya kelishuvi” yoki “Boloniya jarayoni” ta’lim tizimidir.

Ma’lumki, Bolonya kelishuvi yagona oliy ta’lim maqomini yaratishga qaratilgan bo‘lib, Yevropa mamlakatlari o‘quv yurtlarini bir-biriga uyg‘unlashtirish, umumyevropa mehnat bozori uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash, talabaga esa xalqaro ta’limga to‘siqlarsiz kirish imkonini yaratadi. Bolonya deklaratsiyasi 1999 yilda 29 ta mamlakat vakili tomonidan imzolangan bo‘lsa, hozirgi vaqtda 48 ta davlat ushbu jarayon ishtirokchisi hisoblanadi.

Qayd etish o‘rinliki, Bolonya jarayoniga qo‘shilish umumiy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning xalqaro miqyosda tan olinishi yo‘lidagi muhim qadamdir. Chunki oliy o‘quv yurtlarida kadrlar tayyorlanishini ilg‘or xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yishi maqsadida o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich kredit – modul tizimini joriy etish davr talabi bo‘lib kelmoqda.

Bolonya jarayoniga kirish milliy oliy ta’lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki bunda oliy ta’lim to‘g‘risidagi umumyevropa diplom ilovasi joriy qilinadi. Kreditlarni o‘tkazish va jamg‘arishning Yevropa tizimi (ECTS – European Credit Transfer and Accumlation System), ya’ni talabalar o‘zlashtirgan bilim va malakalarni hisobga olishning umumyevropa tizimiga o‘tiladi. Talabalar bilimini nazorat qilish uchun yagona umumyevropa baholash mezonlari qo‘llaniladi va o‘qitish sifati yaxshilanadi, ekvivalent ta’lim dasturlari, akademik darajalar joriy qilinadi. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchayadi.

Muhokama. Modulli o‘qitish texnologiyasini qo‘llashning yana bir xususiyati shundan iboratki, talaba bir modulni o‘zlashtirmasdan ikkinchisiga o‘ta olmaydi. Bu esa ta’lim dasturining kafolatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O’quv modullarini tuzishda ko‘p hollarda ish beruvchilar ham jalb qilinadilar. Ular modulli ta’lim dasturlariga tanlov fanlarini kiritish bo‘yicha o‘z takliflarini beradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kredit-modul tizimi modul ko‘rinishida shakllantirgan fan bloklarini to‘liq o‘zlashtirish orqali kreditlar yig‘ib borishga asoslangan tizim.

Kredit-modul tizimida o‘qituvchining yagona bilim manbasi sifatidagi roli kamayadi, talaba o‘quv jarayoni markaziga ko‘chadi. Ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarda yangi ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talabalarning mustaqil ravishda bilim olish madaniyatini shakllantirish masalalari dolzarb bo‘ladi. Darslar sifatini oshirish talabi zamonaviy uslublardan foydalanishga ehtiyojni oshiradi.

Bolonya kelishuvi ta’lim tizimining ijobiy xususiyatlaridan biri undagi binar va Vebinar darslarning mavjudligidir.

Binar dars deganda muayyan mavzuning ikki o‘qituvchi yoki o‘qituvchi va bir amaliy soha vakili tomonidan hamkorlikda o‘tilishi tushuniladi. Bunda dars beruvchilar nafaqat o‘zaro, balki auditoriya bilan ham muloqatda bo‘lib, mavzuning har tomonlama ko‘rib chiqilishiga imkon

yaratiladi. Binar darslar muqobil fikrlarning bayon etilishi, baxs -munozara yuritishning odobi shakllanishi, ma’lumotni faolroq qabul qilishga yo‘l ochishi nuqtai nazaridan samarali pedagogik uslubdir. Vebinar esa dars, maslahat, suhbat, taqdimot jarayonlarining internet orqali onlayn ravishda o‘tkazilishidir. Uning asosiy xususiyati interfaollik bo‘lib real vaqt rejimida o‘ zaro ma’lumot almashish, uni tahlil qilish va qayta ishlash mumkin.

Tahlil va natijalar**.** Hozirgi kunda shuni alohida ta’kidlash kerakki, O’zbekistonda ham Bolonya jarayonining ayrim shartlari bajarilgan. Misol uchun, bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli oliy ta’lim tizimiga o‘tilgan. Navbatdagi bosqichda kreditlar to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimini qo‘llash qoidalari, talabalar, pedagog va ma’muriy xodimlar harakatchanligini amalga oshirish mexanizmlari, milliy hamda tarmoq malaka tizimlari (kvalifikatsiya raqamlari) ishlab chiqilmoqda. Ta’lim sohasining ekspertlari O’zbekistonning Bolonya jarayoniga qo‘shilishini ijobiy baholab, u milliy oliy ta’lim tizimining jahon amaliyoti bilan uyg‘un rivojlanishi hamda kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilishini ta’kidlashmoqda. Shuningdek, bu yurtimizda bir qator masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos kadrlar tayyorlash, yoshlarning Yevropa ta’limiga kirib borishlarini yengillashtirish va milliy ta’lim tizimlarini o‘zaro yaqinlashtirish, xalqaro ta’lim maqomida mutaxassislar tayyorlash darajasini tenglashtirish, kredit tizimini joriy qilish va talabalar diplomiga umumyevropa namunasidagi ilovalarni berish, oliy ta’lim sohasidagi faoliyatini davlatlararo muvofiqlashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ta’limning yangi sifat darajasiga o‘tish, uning samaradorligini oshirish va ta’lim olishni osonlashtirish, shuningdek, akademik birdamlik va o‘zaro yordam asosida ilmiy maktablar hamda ta’lim tizimlari o‘rtasidagi raqobatni rag‘batlantirish shular sirasidan.

Xulosani bir so‘z bilan aytganda, oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar izchil hayotga tadbiq etib kelinayotgan mamlakatimizning oliygohlarida yurtga tayanch va suyanch bo‘ladigan, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida mehnat qiladigan salohiyatli yoshlarni tayyorlashda xalqaro integratsion ta’limning roli kundan-kunga oshib bormoqda.

Demak, ta’lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik hamkorlikning ahamiyati juda katta, chunki bu hamkorlikning hammasini natijalari integratsiyalanib ta’lim sohasiga qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.** – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2020.

2.**O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PQ–4359-son qarori** “2019–2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3.**O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni** “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019-yil 8-oktabr, PF–5847-son.

4.**Bolonya deklaratsiyasi (The Bologna Declaration).** – Yevropa oliy ta’lim maydonini shakllantirish to‘g‘risidagi hujjat, 19-iyun 1999-yil, Bolonya (Italiya).

5.**European Commission.** “European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) Users’ Guide.” – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2015.

6.**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.** “Kredit-modul tizimini joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma.” – Toshkent, 2021.

7.Karimov, I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008.

MEDIASAVODXONLIK ORQALI CHET TILLARINI O'RGANISH AFZALLIKLARI

Karshieva Dilbar Eshpulatovna.
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD),
CHDPU Pedagogika fakulteti "Umumiy pedagogika"
kafedrasi v.b dotsenti
CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili)
yo'nalishi talabalari
Atamuratova Gulnar Erpolatovna
Xalmuratova Xolisxon Xolmuratovna

Annotatsiya. Maqolada Netflix platformasi orqali ingliz tilini o'rganishning afzalliklari va zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida media asosidagi o'qitish metodlarini joriy etish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Netflix yordamida til o'rganish nafaqat fonetik va leksik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki o'quvchining madaniy tafakkurini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: Netflix, ingliz tili, media ta'lim, raqamli o'qitish, interaktiv yondashuv, xorijiy tajriba.

Annotation. This article analyzes the advantages of learning English through the Netflix platform and its role in modern education. The prospects of implementing media-based learning methods in the context of Uzbekistan are examined. Learning via Netflix enhances not only phonetic and lexical skills but also broadens students' cultural understanding.

Keywords: Netflix, English language, media education, digital learning, interactive approach, foreign experience.

Аннотация. В статье анализируются преимущества изучения английского языка с помощью платформы Netflix и её роль в современном образовательном процессе. Рассматриваются перспективы внедрения медиабазированных методов обучения в условиях Узбекистана. Изучение через Netflix развивает не только фонетические и лексические навыки, но и расширяет культурное восприятие студентов.

Ключевые слова: Netflix, английский язык, медиаобразование, цифровое обучение, интерактивный подход, зарубежный опыт.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi [17]Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Zamonaviy dunyoda ingliz tili o'rganish nafaqat akademik ehtiyoj, balki kundalik hayot talabi hisoblanadi. Raqamli platformalar va media vositalarining kengayishi o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Netflix platformasi dunyo bo'ylab ko'plab foydalanuvchilar uchun interaktiv o'quv muhiti yaratadi va til o'rganishni qiziqarli qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot bo'yicha Smith, Lee, H, J. Johnson va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiqdir. Globallashuv jarayoni va fan-texnika taraqqiy etgan zamonamizda farzand tarbiyasi nafaqat ota-ona, balki pedagoglar zimmasiga zarur axborotni kerak emasidan ajratish, media orqali savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. Mediasavodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Zotan, bugungi axboriy

[17] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori. (2023-yil).

muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mediasavodxonlik vizual xabarlar ostida beriladigan koʻrinmas maʼlumotlarni “oʻqiy olish”, [18]axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini oʻzida aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud boʻlib, inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi masʼuliyatini his qilgan holda faol va savodli boʻlishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

Media taʼlim oʻquvchining faol ishtirokiga asoslangan, real vaziyatlar orqali bilim olishni ragʻbatlantiradigan yondashuvdir. Netflix platformasi bu jarayonni yanada interaktiv qiladi: oʻquvchi sevimli serial va filmlarni tomosha qilib, tabiiy nutq va zamonaviy leksikaga duch keladi. Masalan, “Friends”, “The Crown” va “Stranger Things” kabi seriallar tilni kontekstual oʻrganishga imkon beradi.

AQSh, Janubiy Koreya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda media-based learning muvaffaqiyatli qoʻllanilgan. Masalan, Janubiy Koreyada Lingopie platformasi yordamida talabalar film sahnalari asosida dialoglarni tahlil qiladi, yangi soʻzlarni amalda qoʻllaydi va madaniy kontekstni muhokama qiladi. O’zbekistonda ham shunday metodni darslarga integratsiya qilish mumkin, bu esa oʻquvchining mustaqil oʻrganishini va kommunikativ kompetensiyasini oshiradi.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilda O’zbekiston PISA (Xalqaro oʻquvchilarni baholash dasturi) reytingida 79 ta davlat orasida oʻrta koʻrsatkichdan past natijalarni qayd etdi. Shu bilan birga, mamlakat taʼlim sifati boʻyicha Global raqobatbardoshlik indeksida 140 davlat ichida 98-oʻrinni egalladi. Bu koʻrsatkichlar taʼlim tizimini modernizatsiya qilish va xorijiy tajribani oʻrganishga zarurat mavjudligini koʻrsatadi. Zamonaviy yondashuvlar esa taʼlimda interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va talabalarga individual yondashuvni talab qilmoqda. Masalan, Finlandiya taʼlim tizimida
oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar muvaffaqiyatli natija bermoqda. Shu bilan birga, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yondashuvi asosiy ustuvor yoʻnalish sifatida qoʻllanilmoqda.

O’zbekiston taʼlim tizimida xalqaro tajribalardan foydalanish orqali, raqamlashtirish va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni joriy etish, taʼlim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu sababli, milliy oʻziga xoslikni hisobga olgan holda zamonaviy yondashuvlarni moslashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Netflix orqali oʻrganishning afzalliklari va amaliy natijalar

Netflix orqali til oʻrganishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Autentik til muhiti va real aksent bilan tanishish;
- O’quvchi motivatsiyasini oshirish; sevimli film va seriallar bilan tilni oʻrganish qiziqarli boʻladi;
- Madaniy tafakkurini kengaytirish; film orqali ingliz madaniyati va ijtimoiy odatlar bilan tanishish;
- Mustaqil oʻrganish imkoniyati; oʻquvchi darsdan tashqari oʻz vaqtida mashq qiladi.

-Analiz qila olish darajasi oshadi va lug`at boyligi koʻrsatkichi oshadi.[19]

Tadqiqotlar (Johnson, 2022) shuni koʻrsatadiki, haftasiga atigi 3–4 soat Netflix orqali tomosha qilgan talabalar 2 oy ichida lugʻat boyligini oʻrtacha 20 foizga oshirgan.

[18] Smith, J. (2021). Media Learning in the Digital Age. Oxford University Press.

[19] Johnson, R. (2022). Motivation and Language Learning via Netflix. TESOL Quarterly.

Filmlar orqali tinglash bilan bog‘laydigan o‘rganish vositasidir. Darslarni boshlashdan oldin talabalar umumiy o‘quv dasturiga ega bo‘lishi kerak. Ushbu reja asosan uchta jihatni o‘z ichiga oladi (1) nimani o‘rganish kerak (2) qanday jarayon va materiallardan foydalanish (3) talabalarning reaktsiyalarini qanday bilish kerak? O‘quv dasturi xuddi tematik reja Hinkel E. (1999) tomonidan taklif qilingan jarayondir.[20] Kino ta’limi darslarining maqsadi talabalarga sinfdagi faoliyatida mavzuli nozik narsalarni o‘rganishga yordam berish va maqsadli til haqida boy ma’lumotlarga ega bo‘lishdir. Shuning uchun kino til o‘qitishga muljallangan darslarida talabalar quyidagi turli yo‘llar bilan tashkil etishlari kerak: filmga oid ba’zi tayanch so‘zlar, idiomalar va qoliplarni tushuntirish; berilgan nom asosida film syujetini bashorat qilish; madaniy kelib chiqishi haqida umumiy tasavvurni kiritish; film mavzusini muhokama qilish; turli fikrlarni ifodalash va juftlik yoki o‘z guruhlarida xarakterga taqlid qilish. Sinfda talabalar talabalarning hayoliy va ijodiy dunyoda bo‘lishlariga imkon berish uchun hamma narsani qilishlari kerak. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin: Tushuntirish talabalarning o‘rganayotgan tilini sinfda to‘g‘ri yo‘naltirish uchun birinchi qadamdir.

Xulosa

Netflix orqali ingliz tili o‘rganish - zamonaviy o‘quvchi uchun interaktiv va qiziqarli yondashuvdir. Bu metod raqamli davr talablari bilan uyg‘un va o‘quvchini mustaqil, motivatsiyalangan shaxs sifatida shakllantiradi. Xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali O’zbekiston ta’limida innovatsion, samarali va interaktiv model yaratish mumkin. Til o‘rganish jarayoni endi faqat dars emas, balki hayotiy va interaktiv tajriba sifatida qabul qilinadi. Undan tashqari, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O’quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Bu esa o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi. Ta’lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o‘z xissamizni qo‘shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori. (2023-yil).
2. Smith, J. (2021). Media Learning in the Digital Age. Oxford University Press.
3. Johnson, R. (2022). Motivation and Language Learning via Netflix. TESOL Quarterly.
4. www.netflix.com, www.lingopie.com

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК МЕТОД ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Юлдашев Ф.К.
преподаватель Кафедра общего языкознания
Узбекский Государственные Университет мировых языков
yuldashevfarxod499@gmail.com

Аннотация: В статье говорится о том, как правильно использовать игровые технологии в обучении русскому языку. Выделены современные методы обучения языку и литературе, характеристика и классификация игровых технологий, а также проанализированы методы, используемые в образовательном процессе. А также широкое использование игровых технологий на уроках русского языка и литературы открывает перед

[20] www.netflix.com, www.lingopie.com

учителями новые возможности в преподавании, а также существенно облегчает их труд, повышает эффективность обучения и улучшает качество преподавания.

Annotation: The article talks about how to properly use gaming technologies in teaching the Russian language. Modern methods of teaching language and literature, characteristics and classification of gaming technologies are highlighted, and the methods used in the educational process are analyzed. In addition, the widespread use of gaming technologies in Russian language and literature lessons opens up new teaching opportunities for teachers, and also significantly facilitates their work, increases the efficiency of learning and improves the quality of teaching.

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o‘rgatishda o‘yin texnologiyalarini qanday to‘g‘ri qo‘llash haqida gap boradi. Til va adabiyotni o‘qitishning zamonaviy usullari, o‘yin texnologiyalari xususiyatlari va tasnifi yoritilgan, shuningdek, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan usullar tahlil qilinadi. Rus tili va adabiyoti darslarida o‘yin texnologiyalarining keng qo‘llanilishi o‘qituvchilar uchun dars berishda yangi imkoniyatlar ochadi, shuningdek, ularning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, o‘qitish samaradorligini oshiradi va o‘qitish sifatini oshirishi haqida fikrlar keltirilgan.

Ключевые слова: Образования, игровые технологии, учащиеся, школа, дидактическая игра, пальчиковые игры, метод, рисование, письмо, литература, мотивация, фонетика, педагогические технологии.

Key words: Education, gaming technologies, students, school, didactic game, finger games, method, drawing, writing, literature, motivation, phonetics, educational technologies.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, o‘yin texnologiyalari, o‘quvchilar, maktab, didaktik o‘yin, barmoq o‘yinlari, metod, chizmachilik, yozuv, adabiyot, motivatsiya, fonetika, ta’lim texnologiyalari.

Образование, полученное в начальной школе, служит базой, фундаментом для последующего освоения знаний. Основная задача государственного стандарта состоит в том, чтобы обеспечить учащегося качественным образованием на первой ступени обучения.

Образовательная технология – это система совместной деятельности учащихся и учителя по проектированию, организации, ориентированию и корректированию образовательного процесса с целью достижения конкретного результата при обеспечении комфортных условий участникам [11].

В современной школе учащегося недостаточно обучить только чтению, счету и письму. Его необходимо обеспечить новыми умениями. Это универсальные учебные действия, составляющие основу умения учиться, а также сформированная сознательная мотивация к обучению, самоорганизация и саморазвитие. Поэтому необходимо создать такие условия, которые позволят повысить у учащихся интерес к учебе, научить осознавать, что осталось непонятным, а в конечном итоге научить учиться. И тогда ученик начнет получать радость от процесса самостоятельного познания и от результата своего учебного труда.

От современного учителя требуется не только дать учащимся образование в виде системы знаний-умений-навыков, но учитель должен и всемерно развивать познавательные и творческие возможности учеников, воспитывать личность.

По нашему мнению, целью работы современного учителя должно стать развитие личности учащегося, его творческих способностей, интереса к учению, формирование желания и умения учиться; освоение системы знаний, умений и навыков, опыта осуществления разнообразных видов деятельности; охрана и укрепление физического и психического здоровья учащихся.

На наш взгляд, игровым технологиям нужно уделять больше внимания, так как игровые технологии являются одной из уникальных форм обучения, которая позволяет сделать интересными и увлекательными не только работу учащихся на творческо-поисковом уровне, но и будничные шаги по изучению предметов.

Игра – это естественная для учащегося и гуманная форма обучения. Обучая посредством игры, мы учим учащихся не так, как нам, взрослым, удобно дать учебный материал, а как учащимся удобно и естественно его взять [6].

Уроки с использованием игр или игровых ситуаций являются эффективным средством обучения и воспитания, поскольку отход от традиционного построения урока и введение игрового сюжета привлекают внимание учащихся всего класса. Содержание игры – это всегда осуществление ряда учебных задач. В игре ученики попадают в ситуацию, позволяющую им критически оценивать свои знания в действии, привести эти знания в систему.

Таким образом, можно с уверенностью сказать, что включение в учебный процесс игры или игровой ситуации приводит к тому, что учащиеся, увлеченные игрою, не заметно для себя приобретают определенные знания, умения и навыки.

Применение игровой технологии даёт возможность сделать то или иное обобщение, осознать правила, которые только что изучили, закрепить, повторить полученные знания в системе, в новых связях, что содействует более глубокому усвоению пройденного материала.

Одно из эффективных средств развития интереса к учебному предмету, наряду с другими методами и приёмами, используемыми на уроках, дидактическая игра.

Дидактическая игра – это метод обучения, в процессе которой в игровой ситуации решаются учебно-воспитательные задачи [8].

Дидактическая игра может использоваться на всех ступенях обучения, выполняя различные функции. Место игры в структуре урока зависит от той цели, с которой ее использует учитель.

Ценность дидактических игр заключается и в том, что учащиеся в значительной мере самостоятельно учатся, активно помогая друг другу и взаимно себя проверяя.

С помощью увлекательных игр учащийся изучает буквы, учится читать, запоминает правильность написания слов, осваивает основы фонетики.

Уроки русского языка и литературы для многих учащихся достаточно сложные, поэтому не вызывают повышенного интереса. Трудности усвоения предмета ведут к недостаточной грамотности.

На наш взгляд, чтобы пробудить интерес к занятиям, повысить грамотность письма нужно вводить игровые моменты на разных этапах урока. С помощью различных ребусов, кроссвордов на одном дыхании проходит работа над словарными словами. Хорошему и быстрому запоминанию слов с непроверяемыми гласными помогают загадки. Загадки помогают развивать образное и логическое мышление, умение выделять существенные признаки и сравнивать, тренируют быстроту и гибкость ума, сообразительность. Игры «в слова» обогащают лексический запас учащегося, приучают быстро находить нужные слова («не лезть за словом в карман»), актуализируют пассивный словарь. Большинство таких игр рекомендуется проводить с ограничением времени, в течение которого выполняется задание. Это позволяет внести в игру соревновательный мотив и придать ей дополнительный азарт.

Очень важно на уроках русского языка и литературы развивать воображение учащихся. Воображение учащегося развивается постепенно, по мере приобретения ими реального жизненного опыта. Для развития воображения и творчества учащихся, необходимо расширять их реальный жизненный опыт. Здесь помогут игры на составление рассказов.

1. «Пальчиковые игры» - это инсценировка каких-либо рифмованных историй, сказок при помощи пальцев [5]. В ходе «пальчиковых игр» учащийся, повторяя движения взрослых, достигает хорошего развития мелкой моторики рук, которая не только оказывает благоприятное влияние на развитие речи, но и подготавливает учащегося к рисованию, письму.

2. На уроках русского языка и литературы ученики должны заучить много правил. В этом им тоже помогает игра. Например, при изучении правила определения ударного гласного в словах, ученики с удовольствием играют в «Запоминалочку»:

Мы в слове слог ударный
Найдем э-ле-мен-тар-но.
А когда его найдем,

Громче всех произнесём

и инсценируют грамматические сказки («Волшебник Ударение»)

3. «Составь текст и озвучь его».

Учащимся предлагается набор слов, которые могут представлять какие-то трудности в произношении. Слова записаны на доске. Задача учащихся – за 2-3 минуты составить связный текст (используя данные слова) и прочитать его, соблюдая орфоэпические нормы. Учитель может назначить экспертов, которые должны внимательно прослушать текст и сделать вывод о соблюдении произносительных норм.

Подобное задание может быть несколько видоизменено: учитель предлагает учащимся тему (например, «Научное исследование» или «Меню»), учащиеся в течение определенного времени должны составить текст на эту тему, используя слова из орфоэпического словарика, включенного в учебник.

4. «Пригласи на обед». Задача: Озвучить меню обеда, на который вы хотите пригласить своего друга (коллегу, знакомого). В меню, конечно, должны оказаться тефтели, щавель, пирожки с творогом, сливовый или грушевый компот и т.д. (другие слова, традиционно вызывающие трудности в произношении).

5. «В эфире – новости». Данный тип заданий предполагает составление текста со словами, представляющими определенные трудности произношения. Тематика текста: события, происходящие в мире (стране, области). Подобное задание позволяет не только отработать произносительные нормы, по и стимулировать интерес учащихся к событиям, происходящим в мире, а значит, обеспечивают расширение кругозора. Как показывает опыт, систематическое применение подобного задания превращает школьников в зрителей новостных программ.

6. «Собери фразеологизм». Как; Макар; свистит; на языке; ветер; вертится; в карманах; куда; в рукавицах; канул; телят; в воду; не гонял; ежовых.

Ответы:

- Куда Макар телят не гонял.
- Как в воду канул.
- Ветер свистит в карманах.
- На языке вертится.
- В ежовых рукавицах.

7. «Угадай-ка». Объяснить, о ком говорят: «стреляный воробей», «гусь лапчатый», «собаку съел».

8. Восстановить пословицы, части которых соединены неверно. Раскрыть скобки.

1) Бояться (не)счастья - в лес (не)ходить.

2) (Не)другу поверить - словам твоим никогда веры (не)будет.

3) Волков бояться - друга обмануть.

4) (Не)плюй в колодец - стыдно (не)учиться.

5) Раз скажешь (не)правду - и счастья (не)видать.

6) (Не)стыдно (не)знать - пригодится воды напиться.

Ключ: правильно - 1 + 5; 2 + 3; 3 + 1; 4 + 6; 5 + 2; 6 + 4.

9. Восстановить пословицы, части которых соединены неправильно. Указать, какие предложения получились: сложносочиненные или простые с однородными членами.

1) Семь раз отмерь, а реч(?) короткая.

2) Без грамоты хоть плач(?) а корень свеж(?).

3) Веревка хороша длинная, а один раз отрсж(?).

4) Стар дуб, а с грамотой хоть вскач(?).

Ключ: правильно- 1 +3; 2 + 4; 3 + 1; 4 + 2.

В настоящее время идёт поиск новых технологий воспитания и обучения, целью которых должно стать создание условий для максимального раскрытия творческого потенциала каждого конкретного учащегося. Реформа общеобразовательной школы нацеливает на использование всех возможностей для повышения эффективности учебно-
Vizual dizaynlarni tez va oson yaratish uchun eng qulay vosita.

- minglab shablonlar;
- infografika, taqdimot, flayer va bannerlar yaratish;
- elementlarni sudrab olib joylashtirish (drag&drop);
- ranglar uyg‘unligi bo‘yicha tayyor paletlar.

Pedagoglar, blogerlar, marketologlar uchun ideal.

Sahifa maketini yaratish bosqichlari

1. Reja va struktura tuzish

Hujjatning bo‘limlari, sarlavhalari, boblar ketma-ketligi aniqlanadi.

2. Sahifa parametrlari

- o‘lcham: A4, Letter, A3;
- chekkalar: 2–2,5 sm (standart), reklama uchun 1 sm gacha;
- yo‘nalish: portret yoki landshaft.

3. Shriftlar bilan ishlash

- asosiy matn uchun serif yoki sans-serif shrift;
- sarlavhalar uchun yirik va kontrast shrift;
- 12–14 pt (matn), 20–36 pt (sarlavha);
- bir hujjatda 2–3 shrift oilasidan oshmaslik.

4. Ranglar va grafika

- professional hujjatlar: minimal ranglar;
- taqdimotlar: kontrast va jozibador ranglar;
- rasm sifati: kamida 300 dpi (nashr uchun).

5. Tekshirish va tahrirlash

- imlo xatolarini tekshirish;
- dizayn uyg‘unligini baholash;
- PDF formatida eksport qilish.

Sahifa maketining ta’lim jarayonidagi o‘rni

Ta’lim jarayonida sifatli hujjatlar — dars ishlanmalari, taqdimotlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali vositalar — o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. To‘g‘ri tanlangan maket:

- ma’lumotni tushunarli qiladi;
- o‘quvchini chalg‘itmaydi;
- vizual fikrlashni rivojlantiradi;

• dars samaradorligini oshiradi.

Pedagoglar o‘z darslarida sahifa maketi tamoyillaridan foydalansalar, o‘quvchilarda estetik did, dizayn madaniyati va vizual savodxonlik shakllanadi.

Xulosa. Sahifa maketi hujjat yaratish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat tashqi ko‘rinish, balki mazmunning samarali va mantiqiy yetkazilishiga ham xizmat qiladi. Hujjat maqsadi va auditoriyasiga mos maket tanlash, zamonaviy dasturiy vositalardan oqilona foydalanish va dizayn qoidalariga rioya qilish professional va ta’sirchan hujjat yaratish imkonini beradi.

Shu bois har bir pedagog, tadqiqotchi, dizayner yoki xodim sahifa maketini to‘g‘ri tuza olishi — zamonaviy kompetensiyalardan biri sanaladi. Sifatli maket o‘quvchi, talaba yoki mutaxassisning hujjatni qanday qabul qilishiga bevosita ta’sir etadi va har qanday axborotning samaradorligini oshiradi.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Бегматова Нодира Хакимовна,
Қарши давлат университети “Алгоритмлар ва дастурлаш технологиялари” кафедраси доценти, педагогика фанлари номзоди,
Телефон: + 998 91 637 35 02, e-mail: 3171640@rambler.ru
Қодирова Сарвиноз Икром қизи, Бахтиёрова Фарангиз Алишер қизи Қарши Давлат университети "Амалий математика" йўналиши 3-курс талабалари.

Аннотация. Мақолада мактабгача таълим ташкилотларида рақамли технологиядан, жумладан, мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг педагогик-психологик жихатлари ва тамойиллари баён этилган бўлиб, бу таълим-тарбия жараёнида мультимедиа технологиясидан мазмунли фойдаланиш имкониятини беради.

Калит сўзлар. Компьютер, таълим, технология, тизим, тақдимот, инновация, услуб, мультимедиа.

Аннотация. В статье изложены педагогико-психологические аспекты и принципы использования цифровых технологий, в том числе мультимедийных технологий, в дошкольных образовательных учреждениях. Это обеспечивает возможность содержательного применения мультимедийных технологий в процессе обучения и воспитания.

Ключевые слова. Компьютер, образование, технология, система, презентация, инновация, метод, мультимедиа.

Annotation. The article describes the pedagogical and psychological aspects and principles of using digital technologies, including multimedia technologies, in preschool education institutions. This provides opportunities for meaningful use of multimedia technologies in the educational and upbringing process.

Keywords. Computer, education, technology, system, presentation, innovation, method, multimedia.

Мактабгача тарбия педагогикаси педагогика фанининг муҳим соҳаси бўлиб, тарбиянинг ёш билан боғлиқ бўлган жиҳатларини очиб беради. Шу билан бирга, мактабгача тарбия педагогикаси махсус ва ёш педагогикалари билан умумий илмий-назарий асосларга эга.

Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуннинг 5-моддасида “Таълим ташкилотларида инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлаш ва ўқув дастурларини инновацион технологияларни қўллаган ҳолда амалга ошириш”, 46-моддасида эса педагог ходимларнинг мажбуриятлари сифатида “Ахборот-коммуникация технологияларидан, ўқитиш ва тарбиянинг илғор ҳамда инновацион шакллари ва усулларидан фойдаланиши”[28], - лозимлиги таъкидланган.

[28] Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон. - https://lex.uz/docs/5013007

Шунингдек, 36-модда - Таълим соҳасидаги экспериментал ва инновацион фаолият бандида: “Таълим соҳасидаги экспериментал ва инновацион фаолият таълимни модернизация қилиш мақсадида амалга оширилади ҳамда янги таълим технологиялари ва ресурсларини ишлаб чиқишга, уларни синовдан ўтказишга ҳамда таълим жараёнига жорий этишга қаратилган ”[29], - дейилган.

Мультимедиа технологияларидан таълим соҳасида фойдаланишнинг долзарблиги тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 5-октябрдаги «Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сонли Фармонида “Таянч олий таълим муассасаларида етакчи профессор-ўқитувчилари маърузаларининг аудиовизуал таълим контентини ҳамда мультимедиа таълим маҳсулотларини (аудиокитоблар, 3D, VR ва бошқалар) ишлаб чиқарувчи **махсус медиа марказлар**ни ташкил этиш” вазифалари белгиланган[30].

Кундалик иш фаолиятимизда бир қатор технологиялар кенг қўлланилмоқда, жумладан, мультимедиа атамаси жуда кўп ишлатилмоқда. Мультимедиа замонавий ахборот технологиялари бўлиб, у ўз ичига нутқ, мусиқий видеофильмлардан парчалар, телекадрлар, анимация кўринишидаги ахборот турларини қамраб олади. Мактабгача таълим ташкилотларида мультимедиа воситалари ёрдамида машғулотлар самарадорлигини ошириш ҳозирги куннинг долзарб масалаларидандир.

Бу жараёнда **асосий мақсад**, мактабгача таълим ташкилотларида мультимедиа технологияларидан фойдаланишнинг педагогик ва психологик жихатларини ўрганиш ва амалиётга жорий этиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади.

Асосий қисм. Мактабгача тарбия педагогикаси маълум бир даражада мактабгача таълим ташкилотларининг таълим-тарбия жараёнларини амалга оширишга қаратилган бўлиб, кўп олимлар, педагоглар, изланувчиларнинг ишлари натижасида шаклланди.

Мактабгача тарбия педагогикасининг илмий-назарий асослари ва тарбиявий (жисмоний, ақлий, ахлоқий, меҳнат, эстетик) жиҳатлари бўйича кўпгина олимлар, амалиётчилар, педагоглар ўз фикрларини баён этганлар.

Бу борада ватандошларимиздан Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, А.Навоий, Ал-Хоразмий, шунингдек, хориж педагогларидан Я.А.Коменский, Л.Д.Ушинский, Н.К.Крупская, Л.С.Выгодский, А.П.Усова, И.Я.Лернер, М.Н.Скаткин ва бошқаларнинг ишлари эътиборга лойиқдир. Ҳозирги даврда, мактабгача тарбия педагогикасини ривожлантиришда ватандошларимиздан Н.Юсупова, О.Ҳасанбоевалар ҳам ўз ҳиссаларини қўшиб келмоқдалар.

Мактабгача таълим дидактикаси – умумий дидактиканинг бир соҳаси бўлиб, мактабгача ёшдаги болалар таълими ва ўқитиш назарияси ҳисобланади, унинг мақсадини белгилайди, мактабгача ёшдаги болаларни ҳар томонлама ривожлантириш ва уларни мактабга тайёрлашни таъминловчи таълимнинг мазмуни, услублари ва ташкилий шаклларини ишлаб чиқади.

Мактабгача ёшдаги болаларга таълим ва тарбия бериш ҳам, билиш назариясига асосланади, жумладан, унинг «жонли мушоҳададан абстракт фикрлашга ва ундан амалиётга» деган қонунини мактабгача таълим ташкилотларининг компьютерли таълим жараёнига ҳам қўллаш мумкин. Жонли мушоҳада мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчиларига кўрсатиладиган дидактик материаллар, ҳарфлар, расмлар, чизмалар каби воситаларни киритиш мумкин. Буларни таълим-тарбия жараёнида фойдаланиш ёш болаларга турлича психологик таъсир кўрсатади.

Тарбияланувчи монитор экранида кўрган (кузатган) объектлари тўғрисида маълум бир фикр юрита бошлайди. Ёш болаларнинг унсурар математик тушунчалар бўйича

---

[29] Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон

[30] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги «Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон Фармони. - https://lex.uz/docs/5030957

фикрлашларини шакллантириш масалалари кўпгина услубий адабиётларда, қўлланмаларда таҳлил этилган. Масалан, М.Жумаев ва Л.С.Выгодскийлар фикрлашнинг ривожланиш муаммосини ўрганиб, дастлаб математик тушунчаларни шакллантиришни илгари суради. Бунда, улар болаларда математик тушунчаларни шакллантириш учун энг қулай шароитларни топиш лозимлигини таъкидлайдлари. Л.С.Выгодскийнинг фикри бўйича, боланинг тасаввурининг ривожланиши билимларни ўзлаштириш жараёнисиз ўтмайди, фақат ўқув ахборотлар тўплами (билиш, билим) болаларнинг фикрлашни ҳаракатлантиради, уларнинг фикрини ривожлантиради.

Мактабгача таълим ташкилотлариларда эса, юқоридаги фикрдан ўлароқ, билиш асосларидан бири бўлган "жонли кузатиш" ёш болаларнинг фикрлашларини ривожлантиришга олиб келади. Масалан, мультимедиали слайдларда предметлар турли рангларда берилади – бири оқ, бири қизил, бири яшил. Ёш болалар монитор экранида уларни кўришлари биланоқ – ранглар тўғрисида фикр юрита бошлайдилар.

Қуйида, мультимедиа технологияси (компютерли таълим) таълим-тарбия жараёнига татбиқ этишнинг педагогик–психологик жиҳатлари ва тамойилларини қараб ўтамиз.

Педагогик жиҳатлари. Педагогика нуқтаи назаридан, муьтимедиа технологиясининг мактабгача таълим ташкилотларилардаги таълим-тарбия жараёнига татбиғи – уларга компьютерлар асосида янгича технологик ёндашув ҳисобланади. Шунинг учун, мультимедиа технологиясини ўзига хос белгилари, хусусиятлари ва тамойиллари мавжуд. Асосий белгилари - техник воситалардан фойдаланиш, тарбияланувчиларнинг билимларини аниқлаш мезонларини ишлаб чиқиш, таълим самарадорлигини ошириш, монитор экранига қараб ва экрандаги материаллардан фойдаланиб билим олишдан иборат. Мультимедиа технологиясидан таълим-тарбия жараёнида фойдаланиш бир вақтнинг ўзида болаларнинг компьютер саводхонликларини шаклланишига ҳам олиб келади.

Масалан, анъанавий таълим технологиясида компьютер - фақат техник восита сифатида қаралади, мультимедиа технологиясида эса, у кўргазмали воситадан ташқари "Таълим манбаи" сифатида мужассамланади, яъни ўрганиладиган материал олдиндан компьютер хотирасига киритилган бўлади. Ушбу материал тарбиячининг анъанавий услуб билан машғулот ўтказиш бўйича тузган ишланмасига ўхшайди.

Тарбияланувчиларнинг компьютердан фойдаланиш жараёнида мантиқий тафаккурлари ривожланади, билим олишга ҳаваслари ва иштиёқлари ортади, дунёқарашлари ошади.

Психологик жиҳатлари. Болаларнинг ёшларини ва фикрлаш даражаларини ҳисобга олиш, болаларнинг таълим материалини хотираларида сақлаш имкониятларини ҳисобга олиш, компьютер билан ишлаганда кўз толиқишини олдини олиш, болаларнинг хотираларини ривожлантириш, диққатларини барқарорлаштириш, таълим материалларига қизиқишларини орттириш, ҳис-ҳаяжонли ҳиссиёт уйғотиш, компьютерда ишлаш қобилиятларини ўстиришлар психологик жиҳатларни ташкил этади. Монитор экранида тасвирни кўрганда ва ўқиётганда бола миясининг иккала ярим шари бир вақтда ишлайди ва объект образи бир вақтда қабул қилиб олинади.

Анимацияли маълумотларнинг инсонга таъсири катта бўлиб, ундан мактабгача таълим ташкилотлари таълим-тарбия жараёнида фойдаланиш болаларнинг диққатларини кўпроқ жалб қилиш хусусиятига эга.

Мультимедиани бир вақтнинг ўзида ҳам кўриш, ҳам эшитиш орқали билим олишнинг самарали эканлиги ҳаётий тажрибадан аллақачон синовдан ўтган. Масалан, халқимизда бу тўғрида "юз марта эшитгандан кўра, бир марта кўрмоқ яхши " деган мақоли бор. Психологлар ҳам бир вақтнинг ўзида ҳам кўриш, ҳам эшитиш орқали билим беришда ўзлаштириш юқори бўлишини таъкидлаб келмоқдалар.

Бу борада С.С.Ғуломов ва бошқалар қуйидагиларни таъкидлайдилар:"Агар ўқувчилар берилаётган материалларни кўриш (видео) асосида қабул қилса, ахборотни хотирада сақлаб қолиши 25-30 % га ошади. Бунга қўшимча сифатида ўқув материаллари аудио, видео ва

графика кўринишида мужассамлашган ҳолда берилса, материалларни хотирада сақлаб бориш 75 % га ортади ”.

Тамойиллари. Асосий тамойили, кафолатланган якуний натижа, таълимнинг маҳсулдорлиги, тўғри ва тескари алоқанинг мавжудлиги, таълим мақсадининг аниқ шаклланишидан иборат. Шунингдек, педагогик тажриба натижалари мультимедиа воситаларидан мактабгача таълим ташкилотлари таълим-тарбия жараёнида фойдаланишнинг дидактик тамойиллари қаторига: “компьютер монитори кўрсатуви каби бажар” ёки “компьютер мониторига қараб бажар” бўлиб, умумий тамойилларига дастурлаштиришлик, илмийлик, мослик, жадаллик, таълим мақсадларининг ўзаро боғлиқлиги, кўргазмалилик, тизимийлик, материални тушунарли бўлиши, фаоллик ва мустақиллик, ривожлантирувчи ва тарбияловчи омиллари, восита(компьютер)нинг ихчамлиги ва умумийлиги (барча турдаги техник воситаларни ўрнини боса олиши) киришини кўрсатди.

Булардан ташқари, мультимедиа технологиясида изчиллик ва кетма- кетлик тамойиллари ҳам амалга ошади.

Юқорида таъкидланган асосий “компютерга қараб бажар “ тамойили компьютер хотирасига киритилган ўқув материалларини монитор экранига чиқариш ва намойиш этиш сосида амалга оширилади. Тарбиячи ўқув материалини тушунарли бўлиш тамойилига алоҳида эътибор бериш керак. Жумладан, танланган ўқув материаллар мураккаб бўлмасдан тарбияланувчиларга тушунарли бўлиши лозим.

Юқорида баён этилганлардан келиб чиқиб қуйидаги **хулосаларни** келтириш мумкин, яъни, мультимедиа технологиясидан фойдаланиш мультимедиали дидактик восита жозибали, таъсирчан, харакатчан (динамик ҳолат) самара беради, ўқув материалини мультимедиали кўринишда тақдим этилиши натижасида таълим олувчи миясининг иккала ярим шари бир вақтда ишлайди, мультимедиавий ҳужум натижада уларнинг диққатлари барқарорлашди, фикрлашлари ортади ва ўқув материаллари мукаммал қабул қилинади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон. - https://lex.uz/docs/5013007
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон Фармони. - https://lex.uz/docs/5030957
3. Абдуқодиров А.А., Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти (ўқув-услубий қўлланма). – Қарши: “Насаф”, 2011. – Б.163.
4. Боймуродов Н. Амалий психология. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. - 313 б.
5. Ғуломов С.С., Шермуҳаммедов А.Т., Бегалов Б.А. Иқтисодий информатика. – Т.: Ўзбекистон, 1999. - 527 б.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA ADAPTIV O’QUV TIZIMLARINI YARATISH

Sulaymonov Mirobid Abduxoliqovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kefedrasi o‘qituvchisi
Telefon:+998(94) 474-06-09, E-mail: mirobid30@gmail.com
Usanov Rashid Sharofovich.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kefedrasi o‘qituvchisi
Telefon:+998(33) 932-86-86, E-mail: rusanov30@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib adaptiv o‘quv tizimlarini yaratishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Maqolada

sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi o‘rni, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, bilim olish jarayonini moslashtirish hamda o‘qituvchiga metodik yordam berishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dunyo tajribasida qo‘llanilayotgan adaptiv ta’lim tizimlari misolida sun’iy intellekt vositalarining o‘quv jarayonidagi afzalliklari, samaradorligi va ularni O’zbekiston ta’lim tizimida joriy etish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, o‘quv tizimi, avtomatlashtirish, o‘quvchi faoliyati, individual yondashuv, virtual yordamchi, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы создания адаптивных учебных систем с использованием технологий искусственного интеллекта в цифровой образовательной среде. В статье анализируется роль искусственного интеллекта в учебном процессе, его возможности в определении индивидуальных особенностей обучающихся, адаптации процесса обучения и методической поддержке преподавателя. Также рассматриваются преимущества и эффективность инструментов искусственного интеллекта на примере адаптивных образовательных систем, применяемых в мировой практике, а также перспективы их внедрения в систему образования Узбекистана.
Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровое образование, адаптивное обучение, учебная система, автоматизация, деятельность обучающегося, индивидуальный подход, виртуальный ассистент, педагогические технологии.

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of developing adaptive learning systems using artificial intelligence technologies within a digital educational environment. The paper analyzes the role of artificial intelligence in the learning process, its capabilities in identifying learners’ individual characteristics, personalizing the learning process, and providing methodological support for teachers. Furthermore, it examines the advantages and effectiveness of AI-based adaptive learning systems implemented worldwide and discusses the prospects for their integration into Uzbekistan’s education system.
Keywords: artificial intelligence, digital education, adaptive learning, learning system, automation, learner activity, individual approach, virtual assistant, pedagogical technology.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya jarayoni ta’lim tizimiga chuqur kirib bordi. An’anaviy o‘qitish shakllari bilan bir qatorda onlayn platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari, virtual sinflar va interaktiv o‘quv vositalarining keng qo‘llanilishi zamonaviy pedagogikaning ajralmas qismiga aylandi. Shu jarayonda eng ilg‘or texnologik yo‘nalishlardan biri — sun’iy intellekt vositalaridir. Sun’iy intellekt — bu mashinalarning inson tafakkuri, xotirasi, o‘rganish qobiliyati va qaror qabul qilish jarayonini modellashtirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Ta’lim tizimida u o‘quvchilarning faoliyatini kuzatish, bilim darajasini tahlil qilish, shaxsga moslashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish va o‘qituvchining metodik ishini yengillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitida adaptiv o‘quv tizimlarini yaratishda Bugungi kunda ta’lim sohasida bir nechta muhim masalalar dolzarb bo‘lib bormoqda. Bular qatoriga sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib o‘quvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish**,** o‘qituvchilarga metodik yordam berish, baholashni avtomatlashtirish hamda mamlakatimizda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarini joriy etishning afzalliklari va cheklovlarini o‘rganish kiradi. Ushbu maqolada aynan shu masalalarga ilmiy asoslangan yondashuv asosida javoblar taqdim etiladi.

Xorijiy tadqiqotlar sun’iy intellekt vositalarining ta’limga qo‘shgan hissasini keng yoritgan. **Luckin 2019 yil** o‘z ishida sun’iy intellekt vositalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlariga mos o‘quv materiallarini tavsiya etish orqali ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini kuchaytirish mumkinligini ta’kidlaydi [1]. Bundan tashqari **Holmes 2020** yil sun’iy intellektning ta’limdagi uch asosiy funksiyasini ko‘rsatadi: bilimlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish, adaptiv o‘quv kurslarini yaratish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarga tezkor yordam ko‘rsatish [2].

O’zbekiston olimalaridan **Nilufar Nabieva** o‘zining “Masofaviy ta’lim platformalarining qiyosiy tahlili va funksional xususiyatlari” nomli ilmiy ishida Moodle, Google Classroom, Microsoft Team – tizimlari bilan ishlash bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilgan.

Asosiy qism. Adaptiv o‘quv tizimlari — bu o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, bilim darajasini, qiziqishlarini va o‘rganish tezligini avtomatik aniqlab, o‘quv jarayonini shunga moslashtiruvchi raqamli ta’lim platformalaridir. Ushbu tizimlarning markazida **sun’iy intellekt** turadi, u foydalanuvchining harakatlarini tahlil qilib, unga mos o‘quv resurslarini taklif etadi. Sun’iy intellektning asosiy komponentlari — **ma’lumotlarni tahlil qilish data analysis**, **mashinali o‘rganish machine learning** va **tabiiy tilni qayta ishlash NLP** — ta’limda o‘quvchilarning bilim holatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Masalan, tizim o‘quvchining testdagi javoblarini, faol ishtirokini va vaqt sarfini tahlil qilib, unga **shaxsiylashtirilgan tavsiyalar** beradi.

Adaptiv tizimlarning pedagogik afzalliklari shundaki Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan adaptiv ta’lim tizimlarining bir qator pedagogik ustunliklari mavjudir ular. Individuallashtirilgan yondashuv — har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish tezligi va uslubini hisobga oladi, Avtomatik tahlil va baholash — o‘qituvchining vaqtini tejaydi, natijalarni xolis baholash imkonini beradi va Motivatsiyani oshirish — tizim o‘quvchining muvaffaqiyatlarini real vaqt rejimida kuzatadi va rag‘batlantiradi.[3]

Adaptiv tizimlarda m**etodik yordam ko‘rsatishda** o‘qituvchi tizim orqali o‘quvchilar faoliyatining tahliliy hisobotlarini oladi va **Doimiy o‘rganishlar orqali** tizim sun’iy intellekt yordamida yangi ma’lumotlardan o‘rganadi va o‘zini takomillashtirib boradi. Ushbu afzalliklar natijasida o‘qituvchi o‘z faoliyatini samarali rejalashtiradi, o‘quvchilar esa o‘z qobiliyatiga mos tempda o‘qish imkoniga ega bo‘ladi.

Xorijiy tajriba va adaptiv tizimlar amaliyoti bugungi kunda dunyo miqyosida bir qator AI asosidagi ta’lim platformalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda:

Coursera Learning Paths — foydalanuvchining oldingi kursdagi natijalariga qarab keyingi tavsiyalarni beradi.

Knewton — o‘quvchilar uchun mos darajadagi mashqlarni avtomatik tanlaydi.

Smart Sparrow — o‘qituvchiga o‘quvchilar faoliyatini kuzatish va real vaqt rejimida tahrir kiritish imkonini beradi.

Duolingo — til o‘rganishda foydalanuvchi xatolariga asoslanib, dars tartibini o‘zgartiradi.

Ushbu tizimlar sun’iy intellektning ta’limdagi asosiy ustunligini yaqqol ko‘rsatadi — ya’ni, **moslashuvchanlik va shaxsga yo‘naltirilgan o‘rganish**.[4]

O’zbekiston Respublikasida “**Raqamli ta’lim**” konsepsiyasi va “**Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi 2021–2030”** doirasida ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish rejalashtirilgan.

Shu jumladan milliy o‘quv platformalarini **AI modullar bilan integratsiya qilish**, o‘quvchilarning faoliyatini avtomatik tahlil qiluvchi **raqamli baholash tizimlari**ni yaratish, o‘qituvchilar uchun **virtual yordamchi AI-teacher assistant** vositalarini joriy etish, masofaviy ta’lim tizimlarida **talaba faoliyatini kuzatuvchi analitik panellar** ishlab chiqish.

Bu yo‘nalishdagi dastlabki ishlar **ZiyoNet-https://ziyonet.uz/ru**, **EduMarket-https://edumarket.uz/**, **EDU AI-https://eduailast.com/ -ushbu Platform** loyihalarida sinov tariqasida amalga oshirilmoqda. Biroq, ularni to‘liq amalga oshirish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bo‘yicha tayyorlash va milliy o‘quv kontentini AI modellariga moslashtirish zarur.[5] Adaptiv tizimlarni joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud ular o‘quv ma’lumotlarining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi, Pedagoglarning AI texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasining pastligi va Ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muammolari mavjud. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar tavsiya etiladi:

- O’quv ma’lumotlarini yagona raqamli bazaga birlashtirish. Bunda ta’lim muassasalari, fan o‘qituvchilari va o‘quvchilarning barcha raqamli natijalarini yagona ma’lumotlar bazasida jamlash. Bu adaptiv tizimlarga o‘quvchilar faoliyati haqida keng tahlil imkonini beradi.

- Sun’iy intellektga asoslangan o‘quv kontentini milliy standartlarga moslashtirish. Chet el platformalaridagi AI modellarini bevosita ko‘chirib olish o‘rniga, mahalliy ta’lim dasturlariga mos, o‘zbek tilidagi o‘quv materiallarini ishlab chiqish.
- Universitet va IT kompaniyalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish. Adaptiv ta’lim tizimlarini ishlab chiqish jarayoniga mahalliy dasturchilar, AI startaplari va oliy ta’lim muassasalarini jalb qilish.
- Pilot loyihalar va sinov maydonlarini tashkil etish. Dastlab ayrim fanlar yoki ta’lim muassasalarida adaptiv tizimlarni sinovdan o‘tkazish orqali samaradorlikni baholash. Natijalarga qarab kengroq joriy etish strategiyasini ishlab chiqish.
- O’quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish. Talaba va o‘quvchilarni AI tizimlaridan foydalanish, ma’lumotlarni xavfsiz saqlash, onlayn o‘qish madaniyati bo‘yicha tayyorlash.
- Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha milliy me’yoriy-huquqiy asos yaratish. Ta’limda AI texnologiyalaridan foydalanishning axloqiy, huquqiy va psixologik jihatlarini tartibga soluvchi me’yorlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa. Sun’iy intellektga asoslangan adaptiv ta’lim tizimlari zamonaviy raqamli ta’lim muhitining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular o‘quv jarayonini shaxsga moslashtirish, o‘qituvchining metodik ishini yengillashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xorijiy va mahalliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, AI texnologiyalari o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish tezligini hisobga olgan holda individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Biroq, bunday tizimlarni joriy etishda ma’lumotlarning raqamlashtirilmaganligi, pedagoglarning raqamli ko‘nikmalari yetarli emasligi, hamda ma’lumotlar xavfsizligi masalalari dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shu bois, AI asosidagi ta’lim tizimlarini samarali tatbiq etish uchun o‘quv ma’lumotlarini yagona raqamli bazaga birlashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, milliy kontentni moslashtirish, hamkorlikni kengaytirish va sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha normativ asos yaratish zarur. Umuman olganda, adaptiv tizimlar O’zbekiston ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va samarali qilish imkonini beradi. Ularni milliy sharoitlarga mos ravishda ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etish raqamli ta’limning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: The Center for Curriculum Redesign. Link: https://curriculumredesign.org/wp-content/uploads/AIED-Book-Excerpt-CCR.pdf UCL Discovery+4DergiPark+4docslib.org+4
2. Luckin, R. & Cukurova, M. (2019). *Designing educational technologies in the age of AI: A learning sciences-driven approach.* British Journal of Educational Technology, 50(6), 2824-2838. DOI: 10.1111/bjet.12861 https://ouci.dntb.gov.ua/en/works/7XYrm334/?utm_source=chatgpt.com
3. **Nilufar Nabieva** *Masofaviy ta’lim platformalarining qiyosiy tahlili va funksional xususiyatlari”* — joylashgan: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5928
4. LEX.UZ Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlari kengaytirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida https://lex.uz/acts/-6252503
5. M. Sulaymonov - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi - Ta’lim jarayonida tabiiy fanlarini o‘qitishda virtual laboratoriya dasturidan crocodile physics dasturi imkoniyatlaridan foydalanish. 2025 yil

BO’LAJAK AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O’QITUVCHILARI KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH.

Andijon davlat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Fizika va astronomiya yo‘nalishi 301 guruh talabasi Xatamova Adolatxon

Annotatsiya: O‘qituvchilar uchun raqamli ta’lim resurslari, masofaviy o‘qitish platformalari, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar va multimediya vositalarining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, kasbiy mahorat, axborot texnologiyalari o‘qituvchilari, innovatsion ta’lim, masofaviy ta’lim

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari o‘qituvchilari uchun raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash – ularning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga imkon beradi. Ular quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: Axborot resurslaridan samarali foydalanish – o‘qituvchilar turli raqamli ta’lim platformalari (Moodle, Coursera, Google Classroom) orqali dars jarayonini interfaol tashkil etishi mumkin. Moslashuvchan ta’lim muhiti – o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish imkonini beradi. Innovatsion o‘qitish metodlari – masofaviy ta’lim, gibrid ta’lim, video darsliklar, sun’iy intellekt yordami bilan moslashtirilgan ta’lim usullaridan foydalanish imkonini beradi. Kasbiy mahorat — bu pedagogning o‘z kasbiga oid bilim va ko‘nikmalarni mukammal egallash darajasi bo‘lib, zamonaviy ta’lim muhitida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilari uchun quyidagi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli katta. Pedagogik kompetensiya – ta’lim jarayonida interfaol va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati.

Texnik kompetensiya – dasturiy ta’minot, kodlash va tarmoq texnologiyalarini tushunish va ulardan foydalanish ko‘nikmalari. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) kompetensiyasi – raqamli resurslarni tahlil qilish, yaratish va ulardan samarali foydalanish.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash usullari

Axborot texnologiyalari o‘qituvchilari kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun quyidagi raqamli texnologiyalar keng qo‘llaniladi:

1.Elektron ta’lim resurslari – elektron darsliklar, video darslar, virtual laboratoriyalar.

2.Masofaviy ta’lim platformalari – Zoom, Microsoft Teams, Moodle, Edmodo kabi tizimlar orqali onlayn darslarni tashkil etish.

3.Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlari – o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va individual ta’lim dasturlarini yaratish uchun ishlatiladi.

4.Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash) – ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun interfaol o‘yin elementlari, testlar, viktorinalar.

5.Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy mahorati quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

6.Pedagogik kompetensiya – dars jarayonida ilg‘or o‘qitish usullaridan foydalanish.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya – raqamli texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rnini tushunish va ulardan foydalanish. Innovatsion yondashuv – ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni tatbiq etish qobiliyati. Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda raqamli texnologiyalar muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini samarali tashkil etishda quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi. Raqamli resurslardan foydalanish. Elektron darsliklar, masofaviy kurslar va virtual laboratoriyalar orqali o‘qitish jarayoni yanada qulay va interfaol bo‘ladi.O’qituvchi o‘quvchilar bilimini onlayn test tizimlari orqali real vaqt rejimida baholashi mumkin. Masofaviy ta’lim platformalari bular-Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams, Edmodo kabi tizimlar orqali interfaol ta’lim tashkil etiladi. Talabalar istalgan joydan bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar

AI yordamida moslashtirilgan o‘quv rejalarini yaratish – o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab individual ta’lim dasturlarini tuzish. Tahliliy vositalar – ta’lim natijalarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)

VR laboratoriyalar – talabalar murakkab tajribalarni real hayotga yaqin sharoitlarda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

AR dasturlari – darsliklar va o‘quv materiallarini vizuallashtirish orqali ta’lim jarayonini jonlantirish. Raqamli texnologiyalar orqali o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi Bo‘lajak AT o‘qituvchilari o‘z kasbiy mahoratini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanishlari mumkin. Onlayn kurslar va o‘quv platformalari – Coursera, Udemy, Khan Academy kabi platformalar orqali doimiy ravishda bilimlarini yangilash. Professional tarmoq hamjamiyatlari – Telegram, Stack Overflow, GitHub kabi platformalar orqali tajriba almashish. Kodlash va dasturiy ta’minot yaratish – Python, Java, HTML/CSS kabi dasturlash tillarini chuqur o‘rganish. O’z-o‘zini rivojlantirish uchun raqamli resurslar – blog yuritish, ilmiy maqolalar yozish, ta’lim texnologiyalariga oid konferensiyalarda qatnashish.

Xulosa: Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunda ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga, o‘qituvchilarning pedagogik va texnik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion vositalar va masofaviy ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilar bilan aloqani mustahkamlash, ularning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish va o‘qituvchilarga yangi metodlarni joriy etishda imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, o‘qituvchilarga nafaqat o‘quv materiallarini taqdim etishda, balki talabalar bilan interfaol va individual yondashuvlar orqali ishlashda ham katta yordam beradi. Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va ulardan to‘g‘ri foydalanish zarur.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni qo‘llashning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilarning doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishlari, yangi texnologiyalarni o‘rganishga intilishlari muhimdir. Bo‘lajak pedagoglar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish orqali nafaqat o‘qituvchining o‘zining kasbiy rivojlanishi, balki ta’limning sifatli va samarali bo‘lishi ta’minlanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga, ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ghulamov, A. A., & Tashkent, A. (2020). Pedagogik texnologiyalar: nazariy va amaliy asoslar. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Jabborov, D. T. (2019). Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta’limda qo‘llash. Toshkent: O’zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

3. Zeynallieva, G. A. (2018). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O’zbekiston pedagogika nashriyoti.

4. Karimov, U. A., & Mahkamov, R. U. (2021). Raqamli ta’lim resurslari va ularning samarali qo‘llanilishi. Tashkent: InnoTech Publishing.

5. Ibragimov, A. R. (2017). Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli. O’zbekiston ta’limi va rivoji jurnali, 12(2), 35-42.

6. O’rtaev, Z. F., & Mirzaev, T. M. (2022). Axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda raqamli vositalarning ahamiyati. Journal of Digital Education and Teaching, 6(1), 58-65.

7. Asimov, S. D. (2020). Virtual ta’lim platformalari va ularning pedagogik ishlatish imkoniyatlari. Tashkent: TDTU nashriyoti.

8. Smirnova, I. A. (2019). Innovatsion pedagogika: raqamli texnologiyalar va metodlar. Moscow: Yuridik va pedagogik nashriyotlar.

TEXNOLOGIK TA’LIM YO’NALISHI TALABALARINI O’QITISHDA KASBIY RIVOJLANISH: AXBOROT-TA’LIM MUHITI VA XALQARO TAJRIBALARNI RIVOJLANTIRISH.

Nurmanova Maxfuza Urozovna
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Samarqand Kampusi dotsenti (PhD)
[2]TATU Samarqand filiali dotsenti (PhD)
Телефон:+998(91) 528-92-83, E-mail: maxfuzaxon1483@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy rivojlanishida axborot-ta’lim muhiti, raqamli pedagogik vositalar va xalqaro tajribalar o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida yaratilayotgan zamonaviy ta’lim muhiti talabalarni amaliy ko‘nikmalari, mustaqil ta’lim olish kompetensiyalari va innovatsion fikrlashini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Maqolada Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya tajribalari o‘rganilib, O’zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologik ta’lim, axborot-ta’lim muhiti, raqamli kompetensiya, xalqaro tajriba, professional rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ роли информационно-образовательной среды, цифровых педагогических инструментов и международного опыта в профессиональном развитии студентов технологического образования. Обосновано, что современная цифровая образовательная среда способствует формированию у студентов практических навыков, компетенции самостоятельного обучения и инновационного мышления. Изучен опыт Финляндии, Южной Кореи, Сингапура и Японии, а также разработаны рекомендации по его применению в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *технологическое образование, информационно-образовательная среда, цифровая компетентность, международный опыт, профессиональное развитие.*

Abstract. *This article presents a scientific analysis of the role of the information-educational environment, digital pedagogical tools, and international experience in the professional development of students in technological education. It is justified that the modern digital learning environment contributes to the development of students’ practical skills, self-learning competencies, and innovative thinking. The study explores the experiences of Finland, South Korea, Singapore, and Japan and provides recommendations for applying these practices in the context of Uzbekistan.*

Keywords: *technological education, information-educational environment, digital competence, international experience, professional development.*

Kirish. XXI asrda ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi texnologik ta’lim yo‘nalishida kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlar, robototexnika, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi talabalar kompetensiyalarini global mehnat bozori talablariga mos shakllantirishni zarur qilib qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, axborot-ta’lim muhitini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ta’lim jarayoniga joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi — texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy rivojlanishida axborot-ta’lim muhiti o‘rni hamda xalqaro ilg‘or tajribalarni tahlil qilish, shuningdek O’zbekiston ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini asoslab berishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda quyidagi yo‘nalishlar faol o‘rganilgan: Axborot-ta’lim muhiti — UNESCO, OECD ta’lim hisobotlarida raqamli ta’lim vositalarining o‘quv jarayoniga ta’siri chuqur yoritilgan [1].

Raqamli kompetensiyalar — Yevropa Ittifoqining “DigComp Framework” modeli asosiy mezon sifatida keng qo‘llanmoqda[2].

Xalqaro ta’lim tajribasi — PISA, TALIS va TIMSS natijalari orqali ilg‘or davlatlar tajribasi o‘rganiladi[3].

Texnologik ta’limda innovatsion yondashuvlar — loyihaviy ta’lim, STEAM yondashuvi va raqamli laboratoriyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda [2].

Metodologiya

-Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

-ilmiy adabiyotlar va xalqaro hisobotlar tahlili;

-qiyosiy tahlil (Finlyandiya, Koreya, Singapur, Yaponiya tajribasi bilan solishtirish);

-tizimli va kompetensiyaga asoslangan yondashuv;

-normativ hujjatlarni kontent-tahlil qilish;

-ekspertlar fikrini umumlashtirish.

Muhokama.

1**. Axborot-ta’lim muhitining texnologik ta’limdagi ahamiyati**

Axborot-ta’lim muhiti — bu o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalar, platformalar, elektron resurslar va virtual laboratoriyalar majmuasi bo‘lib, u:

-bilimlarni interaktiv usulda o‘zlashtirish,

-amaliy mashg‘ulotlarni simulyatsiya qilish,

-masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash,

-o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi bu 1-jadvalda aks etirilgan.

1-jadval. Xalqaro tajribalarni taqqoslanishi.

Davlat	**Asosiy yondashuv**	**Afzalliklari**	**Texnologik ta’limda qo‘llanishi**
Finlyandiya	Phenomenon-based learning	Shaxsga yo‘naltirilgan, mustaqil fikrlash	Integratsiyalashgan loyihalar
Janubiy Koreya	Smart Education Strategy	AR/VR laboratoriyalar, 5G ta’lim	Virtual simulyatorlar
Singapur	Applied Learning (ITE model)	Ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq	Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim
Yaponiya	Robototexnika markazli ta’lim	Innovatsion texnika, avtomatika	Robototexnika loyihalari

Ma’lumotlarni quyidagicha tahlil qilindi.

2. Xalqaro tajribalar tahlili

Finlyandiya tajribasi

-Ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan.

-Raqamli pedagogika darslarning ajralmas qismiga aylangan.

-“Phenomenon-based learning” keng qo‘llanadi [4].

Janubiy Koreya tajribasi

-“Smart Education Strategy” orqali barcha maktablar raqamlashtirilgan.

-Virtual va qo‘shma reallik (VR/AR) texnologiyalari texnologik ta’limda keng qo‘llanadi[6].

Singapur tajribasi

-ITE College tizimi orqali ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

-Talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun “Learning by doing” tamoyili ustuvor[5].

Yaponiya tajribasi

-Texnik yo‘nalishlarda robototexnika va avtomatika bo‘yicha maxsus laboratoriyalar mavjud.

-Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchli [7].

3. O’zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘unlik

O’zbekistonda:

-“Raqamli ta’lim” platformalari kengaymoqda;

-texnologik ta’lim yo‘nalishlari modernizatsiya qilinmoqda;

-dual ta’lim tizimi joriy etilmoqda [8].

Ammo xalqaro tajribaga ko‘ra, mavjud imkoniyatlarni yanada kuchaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

-Axborot-ta’lim muhiti texnologik ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi bu 2-jadvalda berilgan.

Jadval 2. Axborot-ta’lim muhitining elementlari

Komponent	**Tavsif**	**Talabalar uchun foyda**
Raqamli platformalar	LMS, elektron kutubxonalar	Mustaqil ta’lim, 24/7 axborot
Virtual laboratoriyalar	Simulyatorlar, VR	Amaliy tajribani oshirish
Interaktiv resurslar	Video darslar, testlar	Tez o‘zlashtirish
Sun’iy intellekt yordamchilari	Avtomatik baholash, tavsiyalar	Individual ta’lim
Kooperativ platformalar	Onlayn guruh ishlari	Jamoaviy kompetensiyalar

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, O’zbekistonda qo‘yidagicha baholanadi.

-Raqamli platformalar talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

-Xalqaro tajribani o‘rganish O’zbekiston ta’lim tizimi uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

-Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar amaliy ko‘nikmalarni real sharoitga yaqinlashtiradi.

-O’qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini doimiy oshirib borish texnologik ta’lim samaradorligini belgilaydi.

Xulosa. Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy rivojlanishi zamonaviy axborot-ta’lim muhitisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, elektron ta’lim platformalari va xalqaro tajribalar integratsiyasi kelajak mutaxassislarining raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish va O’zbekiston sharoitiga moslashtirish texnologik ta’limni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir.

Kelgusi tadqiqotlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni mahalliy o‘quv dasturlariga implementatsiya qilish bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.OECD. (2023). Future of Education and Skills 2030 Report.

2.UNESCO. (2022). Digital Learning Strategy and Framework.

3.European Commission.(2020). DigComp 2.1:

4.Ministry of Education, Finland. (2021). Phenomenon-Based Learning Guidelines.

5.Singapore Ministry of Education. (2022). ITE Applied Learning Model.

6.Korean Ministry of Education. (2020). Smart Education Strategy.

7.Japan MEXT. (2021). STEM and Technical Education Development Program.

8.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va hujjatlar.

MOBIL ILOVA VA PLATFORMALARNING EVOLUTISIYASI

Ergasheva Shohida Eshpo‘lat qizi

Jizzax viloyati Zafarobod tumani 1-maktab informatika o‘qituvchisi

Sunnatova Gulmira Baxtiyor qizi

Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani 18-maktab informatika o‘qituvchisi

Tel:+998995570202, +998885229888,

Email: shohida1996.0202@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Мобильные приложения стали неотъемлемой частью современного цифрового ландшафта, оказывая значительное влияние на повседневную жизнь и бизнес-среду. Настоящая научная статья представляет анализ современных тенденций в мобильных приложениях и платформах. Обсуждаются инновации в дизайне интерфейсов, развитие технологий и влияние новых парадигм использования, таких как искусственный интеллект и

расширенная реальность. Авторы также рассматривают перспективы развития мобильных технологий, включая влияние 5G и реакцию на требования пользователей в эпоху глобальной цифровизации.

Ключевые слова: мобильные приложения, мобильные платформы, тенденции развития, искусственный интеллект, дизайн интерфейсов, 5G, расширенная реальность, пользовательский опыт, инновации, цифровая трансформация.

KIRISH. Mobil texnologiyalar hozirgi zamonda muhim elementga aylandi. Zamonaviy jamiyatning o‘zaro munosabati, ishlash va o‘yin usullariga chuqur ta’sir qiladi. Ushbu maqolada biz mobil aloqa rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz. Ilovalar va platformalar, ularning evolyutsiyasini shakllantiruvchi omillarni kundalik hayotga ta’sirini ko‘ramiz.

Mobil ilovalar rivojlanishidagi yo‘nalishlar

1. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish: Zamonaviy mobil ilovalar tobora ko‘proq sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish imkoniyatlarini o‘z ichiga olmoqda. Bu esa kontentni shaxsiylashtirish, foydalanuvchi xatti-harakatini bashorat qilish va kundalik vazifalarni avtomatlashtirish kabi yo‘nalishlarda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ma’lumotlarni qayta ishlash va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashda mashinaviy o‘qitish algoritmlaridan foydalanish endilikda odatiy holga aylandi.

2. Kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR):

Mobil ilovalar foydalanuvchi tajribasini yanada interaktiv va qiziqarli qilish uchun AR va VR texnologiyalari bilan faol tajriba o‘tkazmoqda. AR texnologiyalaridan foydalanadigan ilovalar – haqiqiy dunyoni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitadi. VR ilovalari esa foydalanuvchini virtual olamlarga to‘liq sho‘ng‘itadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim, ko‘ngilochar soha va biznesda tobora mashhur bo‘lib bormoqda.

3. 5G texnologiyasi: 5G tarmoqlarining rivojlanishi mobil ilovalar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ma’lumot uzatish tezligining oshishi va kechikishning juda pastligi video translyatsiya, onlayn o‘yinlar, bulutli hisoblash va real vaqt rejimidagi o‘zaro aloqalar uchun yangi ufqlarni ochadi. Mobil ilovalar ushbu imkoniyatlarga moslashib, foydalanuvchilarga yanada silliq va yuqori unumdorlikka ega tajribani taqdim etmoqda.

Biznes va jamiyatga ta’siri

1. Biznes uchun yangi imkoniyatlar:

Sun’iy intellekt, AR, VR va 5G texnologiyalaridan foydalanadigan mobil ilovalar nafaqat foydalanuvchi xizmatlari sifatini oshiradi, balki yangi biznes modellari uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Ma’lumotlarni qayta ishlovchi aqlli algoritmlar iste’molchi trendlarini oldindan bashorat qilishga yordam beradi, AR va VR texnologiyalari esa ta’lim, marketing va ko‘ngilochar sohalar uchun innovatsion yechimlarni taklif qiladi.

2. Foydalanuvchi tajribasining o‘zgarishi:

Mobil ilovalarga AR va VR texnologiyalarining joriy qilinishi foydalanuvchilarning qurilmalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Yassi interfeysdan uch o‘lchamli va virtual o‘zaro ta’sirga o‘tish yanada chuqur va kuchli foydalanuvchi tajribasini yaratadi.

3. Xavfsizlik va maxfiylik talablari:

Mobil ilovalar tomonidan qayta ishlanadigan ma’lumotlar va shaxsiy axborotlar hajmining ortib borishi xavfsizlik va maxfiylikni ta’minlashni juda muhim qilib qo‘ymoqda. Mobil texnologiyalar rivoji ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik tahdidlarini oldini olish bo‘yicha tegishli choralarni talab qiladi.

4. Marketing va reklamaning yangi usullari:

Foydalanuvchi xatti-harakati va uning joylashuvi haqidagi ma’lumotlardan foydalanish mobil ilovalarni nishonlangan (targeted) reklama uchun kuchli vositaga aylantirmoqda. Bu bizneslarga o‘z auditoriyasiga yanada dolzarb kontent bilan yetib borish imkonini yaratadi.

5. Bulutli texnologiyalarning rivojlanishi:

Bulutli texnologiyalar mobil ilovalar imkoniyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda. Ular yuqori mavjudlik, kengaytiriluvchanlik va ma’lumot saqlash imkonini beradi. Bulutli hisoblash rivoji ishlab chiquvchilarga qurilma resurslari bilan cheklanmasdan murakkab va funksional ilovalar yaratish imkonini bermoqda.

Muammolarga javob va kelajak istiqbollari

Evaluation and feedback mechanisms, integrated with continuous data analysis, enable education systems to refine programs and measure their impact on both teachers and students. By investing strategically in digital CPD, countries can create ecosystems that empower educators, promote lifelong learning, and ultimately enhance the quality of national education. In conclusion, the integration of digital learning environments with international best practices represents a transformative opportunity for teacher development. By balancing innovation with contextual relevance, fostering collaboration, and prioritizing reflective practice, education systems can cultivate a resilient, competent, and globally informed teaching workforce capable of addressing the challenges of the 21st-century classroom.

REFERENCES

Avalos, B. (2011). Teacher professional development in teaching and teacher education over ten years. Teaching and Teacher Education, 27(1), 10–20. https://doi.org/10.1016/j.tate.2010.08.007

Darling-Hammond, L. (2017). Empowered educators: How high-performing systems shape teaching quality around the world. Jossey-Bass.

Darling-Hammond, L., & Cook-Harvey, C. (2020). Educating the whole child: Improving school climate to support student success. Learning Policy Institute.

Ertmer, P. A. (1999). Addressing first- and second-order barriers to change: Strategies for technology integration. Educational Technology Research and Development, 47(4), 47–61. https://doi.org/10.1007/BF02299597

Fullan, M. (2016). The new meaning of educational change (5th ed.). Teachers College Press.

Hairon, S., & Tan, C. (2017). Teacher professional development in Singapore: Shaping the teaching profession. Asia Pacific Journal of Education, 37(3), 315–329. https://doi.org/10.1080/02188791.2017.1321040

Kim, J., & Lee, H. (2019). Digital professional development in South Korea: Policy and practice. Journal of Education Policy, 34(2), 256–274.

https://doi.org/10.1080/02680939.2018.1529784

Kumpulainen, K. (2020). Teacher learning and digital innovation in Finnish schools. Nordic Journal of Digital Literacy, 15(2), 45–60.

Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

Redecker, C. (2020). European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union.

Tabulawa, R. (2013). International aid agencies, learner-centred pedagogy, and political democratisation: A critique. Comparative Education, 49(2), 193–207.

https://doi.org/10.1080/03050068.2013.768062

Voogt, J., & Knezek, G. (2018). Understanding teacher professional development in the digital era. Computers & Education, 121, 22–33. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2018.01.004

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIDA IJTIMOIY MUHITNI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARI

Saidqulov Sodiqjon Botirovich
A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy institute, Tayanch doktoranti
saidqulovsodiqjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning ikki asosiy mexanizmlari tahlil qilinadi hamda ushbu tahlillar O’zbekiston maktablari boshqaruvidagi mavjud holatlar bo‘yicha tadqiq qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy muhit, boshqaruv, ta’lim, rahbar, pedagog, mexanizm, model, usul, maktab, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy muhitning ahamiyati beqiyosdir. Maktab bugungi kunda nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy makon sifatida ham qaralmoqda. Xalqaro tadqiqotlar, jumladan, UNESCO hamda zamonaviy ta’lim psixologiyasi ishlanmalari ijtimoiy muhitning o‘quvchilar natijalari va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslab bermoqda. Shu bois mazkur muammoni chuqur o‘rganish va maktab boshqaruvida samarali mexanizmlarni aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhit - jamiyatda istiqomat qilayotgan insonlarning ega bo‘lgan resurslaridan samarali foydalanish maqsadida, ularga moddiy hamda ma’naviy shart-sharoitlar hamda ruhiy sog‘lom muhitni tashkil etib berishdan iborat jarayondir[31].


Ushbu jarayonning tashkil etilishidagi mavjud mexanizmlarni tahlil qilish esa, jamiyatda istiqomat qilayotgan insonlarning ega bo‘lgan resurslaridan samarali foydalanish maqsadida, ularga moddiy hamda ma’naviy shart-sharoitlar hamda ruhiy sog‘lom muhitni tashkil etish o‘rtasidagi dielektik bog‘lanishlarni o‘rganishga sababchi bo‘ladi.

Ushbu maqolada maktab ijtimoiy muhitini rivojlantirish ikki asosiy mexanizm orqali amalga oshiriladi. Birinchi mexanizm psixosotsial maktab iqlimiga asoslanadi. Bu o‘quvchilar va o‘qituvchilarning farovonligi, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish, shaxsiy munosabatlarning sifati, dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlar hamda sinfni boshqarish hamda intizom kabi elementlardan tashkil topadi. Mazkur elementlarning uyg‘unligi o‘quv jarayonining samaradorligi va o‘quvchi hamda o‘qituvchi farovonligiga bevosita ta’sir etadi. Ikkinchi mexanizm esa maktab muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni qamrab oladi. Ular samarali o‘quv muhiti, maktab xavfsizligi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, ota-onalar ishtiroki va o‘quv jarayonida psixologik yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillarning uyg‘unligi maktab boshqaruvini demokratik, ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tizim sifatida shakllantiradi.

UNESCOning Hindistonda joylashgan “Mahatma Gandhi Institute of Education For Peace and Sustainable Development” nomidagi ilmiy-tadqiqot institutida maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitning o‘quvchilar ta’lim natijalariga ta’siri o‘rganiladi[32]. Ushbu maqolada ta’limni rejalashtiruvchilar va qaror qabul qiluvchilar uchun ijobiy ta’lim muhitini qanday ta’minlashi mumkinligi haqida takliflar beradi.

[31] S.B.Saidqulov “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning nazariyasi”. “Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio” Ilimiy-metodikalьıq jurnal 2025-yil 3/5-san Nukus

[32] https://mgiep.unesco.org/article/the-psychosocial-school-enviroment



1-mexanizm: Ijtimoiy-psixologik muhitning o‘quvchilar ta’lim natijalariga ta’siri

Ushbu mexanizm psixosotsial maktab iqlimiga hissa qo‘shuvchi asosiy bo‘lgan beshta elementlarni ko‘rsatmoqda. Har bir qism o‘quvchilar hamda o‘qituvchilarning umumiy farovonligi va ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchi navbatda o‘quvchilar va o‘qituvchilarning farovonligi, maktabdagi iqlimga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy element tariqasida ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda jismoniy va ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash hamda stressni kamaytirish va xavfsiz muhit yaratish ushbu elementni tashkil etuvchilari deya ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchi eng asosiy element deb ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish belgilab o‘tilgan. Ushbu elementni tashkil etuvchi muhim qismlari esa, empatiya, o‘zini boshqarish, muloqot hamda hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchilar orasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish kabilar belgilab berilgan.

Uchinchi element bu maktabdagi shaxsiy munosabatlarning sifati, uning qismlari o‘qituvchi-o‘quvchi va o‘quvchi-o‘quvchi munosabatlarining samimiy, hurmat asosida bo‘lishi hamda jamoada o‘zaro qo‘llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantirish kabilar belgilangan.

To‘rtinchi element bu o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metodlardir. Bunga dars jarayonida innovatsion va interaktiv pedagogik yondashuvlardan foydalanish hamda o‘quvchilarni faollashtirish, mustaqil fikrlashga undash kabi metodlar kiradi.

Ohirgi element esa pedagoglarning dars davomidagi sinfni boshqaruvi va intizomi etib ko‘rsatilgan. Bunda adolatli va izchil qoidalarni joriy etish, intizomni jazolash emas, balki tushuntirish hamda hamkorlik asosida shakllantirishlar asosiy qismlar tariqasida ushbu elementni to‘ldirib turadi.


Ushbu mexanizmdan kelib chiqgan holatda, Respublikamiz maktablaridagi ijtimoiy muhitini yaxshilash bo‘yicha ushbu amaliy tavsiyalarni berib o‘tish mumkin.:

- Stressni kamaytirish uchun maktabda psixologik xizmatlarni kuchaytirish;
- O’qituvchilar uchun dam olish va kasbiy rivojlanish dasturlarini doimiy yo‘lga qo‘yish;
- O’quvchilar uchun sport hamda madaniy tadbirlarni samarali tashkil etish va ko‘paytirish;
- Maktab miqyosida “do‘stona muloqot” tadbirlarini o‘tkazish;
- O’quvchi va o‘qituvchilar orasida hurmat hamda ishonch madaniyatini rivojlantirish;
- O’qituvchilarni samarali kommunikatsiya usullari bo‘yicha muntazam o‘qitish;
- Raqamli vositalardan foydalanib o‘quv jarayonini qiziqarli qilish;
- Intizomni faqat jazoga emas, hamkorlik va tushuntirishga asoslash;
- O’qituvchilarga sinfni boshqarish bo‘yicha treninglar tashkil etish:

Ushbu mexanizmdan o‘rganganlarimizdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, psixosotsial muhit faqat intizom yoki o‘quv dasturi bilan emas, balki farovonlik, ijtimoiy-emotsional ta’lim, munosabatlar sifati va pedagogik usullar bilan ham bevosita bog‘liq. Ushbu elementlarning barchasi uyg‘unlashgandagina, maktab boshqaruvida sog‘lom, ijtimoiy, qo‘llab-quvvatlovchi va samarali muhit vujudga keladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida maktab nafaqat ta’lim beruvchi muassasa, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi muhit sifatida ham qaralmoqda. Maktab boshqaruvida ijtimoiy muhitni rivojlantirish mexanizmlari samarali ta’lim jarayonini tashkil etish, xavfsiz, do‘stona makon yaratish, shuningdek, o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

BAAning Al Ain Universiteti hamda “Fatima Sog‘liqni Saqlash Fanlari Kolleji” pedagoglari Wafaa El Zaatari va Imad Maalouf tomonidan yozilgan “How the Bronfenbrenner Bio-ecological System Theory Explains the Development of Students’ Sense of Belonging to School?” nomli maqolada[33] maktab muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillarning mexanizmi quyidagicha aks ettiriladi: (2-mexanizm)



Ushbu mexanizmning asosiy maqsadi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sog‘lom-ijtimoiy muhitni rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga ta’sir ko‘rsatuvchi eng asosiy omillar tariqasida, samarali o‘quv muhiti, maktab xavfsizligi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, o‘quv jarayoni hamda psixologiya, ta’limga ota-onalar ishtiroki, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari belgilab o‘tiladi.

Yuqoridagi eng asosiy omillarni, maktab boshqaruvida amalga oshirishning jarayonlari esa quyidagicha aks ettiriladi:

a) Samarali o‘quv muhitini amalga oshirish, maktabda tartibsizlik va tajovuzning oldini olish, pedagoglar hamda o‘quvchilarni yaratuvchanlik va yangilikga undash, tayanch usullar va madaniyatga mos o‘qitish, jazolashdan ko‘ra intizomga rioya qilish kabi usullar orqali amalga oshiriladi.

Samarali o‘quv muhiti ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini belgilovchi asosiy omildir. Bunda o‘quvchilarda ijodkorlik va yangilikka intilish, madaniyatga mos pedagogik

[33] Wafaa El Zaatari va Imad Maalouf. “How the Bronfenbrenner Bio-ecological System Theory Explains the Development of Students’ Sense of Belonging to School?”. DOI: 10.1177/21582440221 134089

usullardan foydalanish, intizomni jazo emas, balki ongli rioya qilish orqali mustahkamlash muhimdir. Shuningdek, psixologik-ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va turli darajadagi kompetensiyalarga ega bo‘lgan hamkasblarni hurmat qilishga o‘rgatish jarayonning ajralmas qismi sanaladi.

b) O’quvchilarning maktabda va maktabdan tashqarida o‘zaro munosabatlari ham ijtimoiy muhitni rivojlantirishda muhim sanaladi. Buning uchun o‘quvchilarning psixologik-ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, darslar davomida barchani birdek qabul qilish va bir-birini hurmat qilishga undash muhim ekanligini pedagoglarga alohida ta’kidlash lozim hisoblanadi.

d) Ta’limga ota-onalar ishtirokiga ham alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Bunda ota-onalarning maktab faoliyatiga oid qarorlarni qabul qilishda ishtiroki, farzandlar bilan maktabdagi o‘quv jarayonlari hamda uy vazifalarini muhokama qilish hamda ochiq muloqot olib boorish muhim sanaladi.

Maktab muhitini rivojlantirishda ota-onalarning hamkorligi katta ahamiyatga ega. Ular farzandlari bilan ochiq muloqot olib borishi, maktab qarorlarida ishtirok etishi hamda turli madaniy va ijtimoiy guruhlarni qabul qilish hamda hurmat qilishga undashi lozim.

e) O’quv jarayoni hamda psixologiya: O’quv jarayonida bir-biriga psixologik yordam ko‘rsatish, o‘quvchilar bilan ochiq muloqot olib borish.

O’quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun psixologik yordam ko‘rsatish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Bu jarayon ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlaydi.

f) O’qituvchi-o‘quvchi munosabatlari: o‘qituvchi va o‘quvchini ta’lim jarayoniga jalb qilish, ta’lim jarayonida hissiy, ijtimoiy va akademik qo‘llab-quvvatlash, o‘quv jarayonida bir-biriga psixologik yordam ko‘rsatish.

Pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom muloqot, ta’lim sifatini oshiradi. O’quvchini ta’lim jarayonga faol jalb etish, hissiy, ijtimoiy va akademik qo‘llab-quvvatlash - bu jarayonning muhim komponentlaridan biridir. Shundan kelib chiqgan holda, ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining ijobiy holatda bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

g) Maktab xavfsizligi: Zo‘ravonlikga qarshi strategiya ishlab chiqish, o‘quv xonalarida nazoratni kuchaytirish, xavfsiz ta’lim muhitini yaratish.

Xavfsiz muhit o‘quvchilarning o‘zini maktabga tegishli his etishi uchun asosiy shartdir. Buning uchun tartibsizlik va tajovuzning oldini olish, zo‘ravonlikka qarshi KiVa dasturini amalga oshirish[34], maktab ichida ham tashqarisida nazoratni kuchaytirish, toza va zarar yetkazmaydigan muassasa yaratish zarur.

Maktab boshqaruvida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning yuqorida ko‘rib chiqgan mexanizmlarimiz, ta’lim beruvchi hamda ta’lim oluvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishga qaratilgan. Samarali o‘quv muhiti, xavfsizlikni ta’minlash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom muloqot, ota-onalarning faol ishtiroki hamda psixologik yordam maktabni haqiqiy ijtimoiy-ta’limiy muassasaga aylantiradi. Natijada, ta’limning ishtirokchilari jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarni ham egallaydilar.

O’zbekiston ta’lim tizimida mazkur mexanizmlarni samarali tatbiq etish uchun qator amaliy choralar ko‘rish lozim. Jumladan, maktablarda psixologik xizmatlarni kuchaytirish, o‘qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish va dam olish dasturlarini yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilar uchun sport va madaniy tadbirlarni ko‘paytirish, do‘stona muloqot madaniyatini rivojlantirish, ota-onalarni maktab qarorlarini qabul qilish jarayoniga faol jalb etish, shuningdek, maktab xavfsizligini ta’minlash va zo‘ravonlikka qarshi strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan tahlillardan xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy muhit maktab boshqaruvining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishi ta’lim ishtirokchilarining shaxsiy, ijtimoiy va akademik taraqqiyotini ta’minlaydi. Yuqoridagi mexanizmlardan kelgusida tadqiqotning

[34] KiVa dasturi Finlyandiyada Turku universiteti tomonidan bulingga qarshi ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan tashabbus bo‘lib, Finlyandiya Ta’lim va madaniyat vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Uning samaradorligi keng ko‘lamdagi tadqiqotlar va tasodifiy nazorat qilinadigan sinovlar orqali ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

yakunlovchi qismlari uchun, maktab boshqaruvida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning konseptual modeliga tavsiyalar ishlab chiqiladi, psixosotsial iqlimning ta’lim natijalariga ta’siri amaliy tavsiyalar asosida asoslab beriladi hamda o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar hamkorligi ijtimoiy muhitni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri ekanligi ko‘rsatiladi. Bu esa kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va milliy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.B.Saidqulov “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning nazariyasi”. “Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio” Ilimiy-metodikalьıq jurnal 2025-yil 3/5-san Nukus

2. Wafaa El Zaatari va Imad Maalouf. “How the Bronfenbrenner Bio-ecological System Theory Explains the Development of Students’ Sense of Belonging to School?”. DOI: 10.1177/21582440221 134089

3. I.Ikromov. “Maktablarda o‘quvchilarning bilim olishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar: Bulling yoki bezorilik”. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti” https://t.me/ifmr_public

4. https://mgiep.unesco.org/article/the-psychosocial-school-enviroment

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA YAPON TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING MODELI

Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti
O’zbek va sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Baqoyev Navro‘zjon Abdullo o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida yapon tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi. An’anaviy metodikalarning cheklanganliklari tahlil qilinib, raqamli ta’lim muhitiga moslashtirilgan, nutqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan to‘rt bosqichli innovatsion model taklif etiladi. Modelning reproduktiv-imitatsion, situativ-manipulyativ, konstruktiv-kommunikativ va produktiv-ijodiy bosqichlarining har biri nazariy (biheviorizm, kognitivizm, konstruktivizm) jihatdan asoslanib, undagi o‘qituvchi va talabaning roli, faoliyat mazmuni hamda qo‘llaniladigan maqsadli raqamli vositalar (Forvo, Flipgrid, HelloTalk, Canva va b.) batafsil yoritib berilgan. Maqolaning maqsadi – o‘quv jarayonini imitatsiyadan erkin ijodiy nutqqa olib chiquvchi yaxlit metodik tizimni taqdim etishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *yapon tili, gapirish ko‘nikmasi, raqamli ta’lim muhiti, kommunikativ kompetensiya, innovatsion model, reproduktiv bosqich, konstruktiv bosqich, produktiv nutq, onlayn vositalar.*

XXI asr globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi va raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda xorijiy tillarni, xususan, jahon iqtisodiyoti va texnologik taraqqiyotida yetakchi o‘rin tutuvchi Yaponiya tilini kommunikativ darajada o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj misli ko‘rilmagan darajada ortib bormoqda. O’zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarining mustahkamlanib borayotgani, iqtisodiy, madaniy va ta’lim sohalaridagi hamkorlik loyihalarining kengayishi yapon tilida erkin muloqot qila oladigan, jonli nutq vaziyatlarida o‘z fikrini ravon bayon eta oladigan malakali kadrlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shu nuqtayi nazardan, yapon tilini o‘qitish metodikasida jiddiy muammo yuzaga kelmoqda. Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy, asosan grammatik-tarjima metodiga asoslangan yondashuvlar talabalarning lingvistik kompetensiyasini (grammatik qoidalar, leksik birliklarni bilish) shakllantirishda muayyan yutuqlarga erishsa-da, ularning eng muhim ko‘nikmasi – gapirish (nutqiy kompetensiya) qobiliyatini rivojlantirishda yetarli samara bermayapti. Natijada, o‘quvchilar

murakkab grammatik konstruksiyalarni yoddan bilgani holda, real muloqot vaziyatida fikrini ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladi, talaffuz va intonatsiyada xatoliklarga yo‘l qo‘yadi, spontan nutqda “til blokadasi” holatiga tushib qoladi. Bu bo‘shliq ayniqsa til muhiti mavjud bo‘lmagan sharoitda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Raqamli ta’lim muhitining keng imkoniyatlari (interaktiv platformalar, til almashinuv ilovalari, sun’iy intellektga asoslangan trenajyorlar, autentik audio va video materiallarning mavjudligi) ushbu muammoni hal etish uchun noyob imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq, texnologiyalardan pala-partish, tizimsiz foydalanish kutilgan natijani bermaydi. O’rganuvchini oddiy takrorlashdan (imitatsiya) murakkab ijodiy nutqiy faoliyatga (produktiv nutq) bosqichma-bosqich olib chiquvchi, har bir bosqichning psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olgan va maqsadli raqamli vositalarni integratsiya qilgan yaxlit, tizimli yondashuv zarur.

Raqamli muhitda yapon tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishdan avval uning poydevorini tashkil etuvchi fundamental nazariy yondashuvlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Taklif etilayotgan model bir necha muhim metodologik tamoyillarning sinteziga asoslanadi.

Birinchidan, bu **kommunikativ yondashuvdir**. XX asrning ikkinchi yarmida keng ommalashgan ushbu yondashuv tilni grammatik qoidalar majmuyi sifatida emas, balki real muloqot quroli sifatida o‘rganishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. D. H. Hymes ta’kidlaganidek, “lingvistik kompetensiya (til qoidalarini bilish) kommunikativ kompetensiyaning bir qismi, xolos. Haqiqiy muloqot uchun tildan o‘rinli va mos (appropriate) foydalana olish qobiliyati muhimroqdir”[35]. Bu g‘oya bizning modelimiz uchun asosiy mezondir: asosiy maqsad – til haqida bilish emas, balki tildan amalda foydalana olishdir.

Ikkinchidan, model **kompetensiyaviy yondashuv** tamoyillarini o‘zida aks ettiradi. M. Canale va M. Swain (1980) tomonidan taklif etilgan kommunikativ kompetensiya modeli to‘rt tarkibiy qismdan iborat:

1. Lingvistik (grammatik) kompetensiya: leksika va grammatikani bilish.
2. Sotsiolingvistik kompetensiya: nutqiy vaziyatga (rasmiy/norasmiy), suhbatdoshning maqomiga qarab til vositalarini to‘g‘ri tanlay olish (masalan, yapon tilidagi *keigo* – hurmat shakllari).
3. Diskursiv kompetensiya: gaplarni o‘zaro mantiqiy bog‘lab, yaxlit matn (monolog/dialog) hosil qila olish.
4. Strategik kompetensiya: muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni (masalan, biror so‘zni unutib qo‘yish) yengib o‘tish uchun turli strategiyalardan (sinonim ishlatish, qayta so‘rash, mimika va imo-ishoralardan foydalanish) foydalana bilish[36].

Uchinchidan, psixolingvistik aspektlar ham muhim ahamiyatga ega. Nutq faoliyati, L. S. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: motiv → ichki nutq → tashqi nutq[37]. Gapirishdan oldin fikr avval ichki nutqda shakllanadi. Boshlang‘ich bosqichda esa bu jarayon juda sekin kechadi. *Shadowing* (soyaning izidan borish) texnikasi aynan shu yerda yordamga keladi. Talaba audionutqni bir vaqtning o‘zida yoki bir necha soniya kechikish bilan qaytarar ekan, u nafaqat artikulyatsion apparatini mashq qildiradi, balki eshitish va gapirish jarayonlari o‘rtasidagi neyron aloqalarini mustahkamlaydi, bu esa fikrni ongli ravishda "tarjima qilish" bosqichini chetlab o‘tib, ichki nutqdan tashqi nutqqa o‘tishni avtomatlashtirishga yordam beradi.

Nihoyat, to‘rtinchidan, zamonaviy **raqamli pedagogika tamoyillari** modelning ajralmas qismidir. O’zbekistonlik olim M. M. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shunchaki yordamchi vosita emas, balki o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartiruvchi, uni individuallashtirish va interfaollashtirish imkonini beruvchi muhim

[35] Hymes, D. H. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269–293). Penguin Books.

[36] Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47.

[37] Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and language*. MIT Press.

komponentdir”[38]. Modelimizda **personalizatsiya** (talabaning o‘z sur’atida va qiziqishiga mos o‘rganishi), **interaktivlik** (talabaning passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishi), **hamkorlikda o‘rganish** (guruh va juftlikdagi ishlar) hamda **geymifikatsiya** (o‘yin elementlari orqali motivatsiyani oshirish) kabi tamoyillarga alohida e’tibor qaratilgan.

Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning to‘rt bosqichli modeli

Yuqoridagi nazariy asoslarga tayanib, biz raqamli muhitda yapon tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan to‘rt bosqichli modelni taklif qilamiz. Bu model “pilla poya” tamoyili asosida qurilgan bo‘lib, har bir keyingi bosqich avvalgisida egallangan bilim va ko‘nikmalarga tayanadi.

1-bosqich: Reproduktiv-imitatsion bosqich (Tayanch poydevorni qurish)

- **Nazariy asos:** Bu bosqich asosan bihevioristik “stimul (S) → reaksiya (R)” nazariyasiga tayanadi. Bu yerda stimul – o‘qituvchi yoki audioyozuvdagi mukammal nutq namunasi, reaksiya esa – talabaning uni imkon qadar aniq takrorlashga urinishidir. Maqsad – ongli tahlildan ko‘ra, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani avtomatik darajaga olib chiqish orqali mustahkam artikulyatsion bazani shakllantirishdir. Bu davrda xatolarni darhol tuzatish muhim, chunki noto‘g‘ri o‘rnashib qolgan talaffuzni keyinchalik to‘g‘rilash ancha qiyin kechadi.
- **O’qituvchining roli: Namuna beruvchi (model)** va **tuzatuvchi (corrector)**. O’qituvchi mukammal talaffuz namunasini taqdim etadi (masalan, yapon tilidagi uzun va qisqa unlilar, [tsu], [fu] kabi maxsus tovushlar). Talabaning audioyozuvlarini tahlil qilib, xatolarini yumshoqlik bilan, o‘z vaqtida tuzatadi. Natijada talaba yapon tiliga xos bo‘lgan barcha fonemalarni to‘g‘ri talaffuz qila oladi, asosiy intonatsion modellarni (darak, so‘roq, undov) amalda qo‘llay oladi, tanishish, salomlashish, minnatdorchilik bildirish kabi vaziyatlarga oid 50-100 ta tayyor iborani yoddan aytib bera oladi. **Forvo** kabi kraudsorsing lug‘atlar orqali talaba bir so‘zning turli yaponiyaliklar (erkak, ayol, turli yoshdagilar) tomonidan aytilishini eshitib, talaffuzning variantivligini his qiladi. **Online Japanese Accent Dictionary (OJAD)** esa so‘zlardagi ohang ko‘tarilishi va pasayishini vizual sxemalar orqali ko‘rsatib, to‘g‘ri aksentni o‘zlashtirishga yordam beradi. **Anki** yoki **Quizlet** kabi ilovalardagi intervalli takrorlash metodi (spaced repetition) esa yangi iboralarni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga samarali o‘tkazishni ta’minlaydi.

Situativ-manipulyativ bosqich (qoliplardan foydalanishni o‘rganish). Bu bosqichda biheviorizmga kognitiv nazariya elementlari qo‘shiladi. Talaba endi shunchaki takrorlamaydi, balki o‘rgangan nutqiy andozasini (qolipni) ongli ravishda tahlil qilib, uning tarkibidagi ayrim elementlarni (ot, sifat, ravish) almashtirish orqali yangi gaplar hosil qiladi. Bu jarayonni “Lego bloklari”dan yangi shakllar yasashga o‘xshatish mumkin.

- **O’qituvchining roli: Fasilitator (yo‘naltiruvchi)** va **vaziyat yaratuvchi (scenario designer)**. O’qituvchi real hayotga yaqin, ammo nazorat ostidagi muloqot vaziyatlarini (masalan, “Do‘konda xarid qilish”, “Restoranda buyurtma berish”) modellashtiradi. U talabalarni oddiy savollar bilan rag‘batlantiradi (「これはいくらですか。」→「その時計はいくらですか。」) va almashtirish uchun zarur leksikani taqdim etadi. Talaba o‘rgangan 10-15 ta asosiy dialog andozasini 3-4 xil yangi vaziyatga moslashtira oladi. “Kim?”, “Nima?”, “Qayerda?”, “Qachon?”, “Qancha?” kabi maxsus so‘roq olmoshlari yordamida andoza asosida savollar beradi va ularga javob qaytara oladi. Japan Foundation tomonidan ishlab chiqilgan **MARUGOTO+** platformasidagi situativ videolar va ularga asoslangan interaktiv mashqlar talabaga tilni tabiiy kontekstda ko‘rish imkonini beradi. O’qituvchi tomonidan **Genially** yoki **Google Slides** kabi vositalarda yaratilgan interaktiv o‘yin-topshiriqlar (“virtual sayohat”, “onlayn do‘kon”) o‘quv jarayonini geymifikatsiya qilib, talabalar motivatsiyasini keskin oshiradi.

Konstruktiv-kommunikativ bosqich (mustaqil fikr qurish). Bu bosqich to‘liq konstruktivizm nazariyasiga, xususan, L. S. Vigotskiyning ijtimoiy konstruktivizm g‘oyalariga asoslanadi. Bilim endi tashqaridan passiv qabul qilinmaydi, balki talaba tomonidan, ayniqsa, tengdoshlari bilan hamkorlikda faol ravishda yaratiladi. “Yaqin rivojlanish zonasi” (Zone of

[38] Yo‘ldoshev, M. M. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish. *Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie*, (6), 18-24.

Proximal Development) konsepsiyasiga koʻra, talaba oʻqituvchi yoki undan kuchliroq tengdoshi yordamida oʻzi mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni uddalay oladi[39]. O'qituvchi endi asosiy bilim manbai emas. U munozara uchun mavzular taklif qiladi, guruh ishlarini tashkil etadi va kuzatadi. U talabalarning xatolariga darhol aralashmaydi, agar xato fikrning tushunilishiga jiddiy toʻsqinlik qilmasa, mazmun va ravonlikka e'tibor qaratadi. Talaba tanish mavzular ("Mening oilam", "Sevimli mashgʻulotim", "Kelajak rejalarim") boʻyicha 5-7 ta gapdan iborat mantiqan bogʻlangan monolog tuza oladi. Juftlikdagi rolli oʻyinlarda oldindan berilgan scenariydan chetga chiqib, improvizatsiya qila boshlaydi. Audioxabarlar orqali oʻz fikrini qisqa va loʻnda bayon eta oladi. **Flipgrid** platformasi video orqali asinxron muloqot uchun ideal muhit yaratadi. Talabalar berilgan savolga video-javob yozadi va bir-birining javoblariga izoh berib, oʻzaro baholash (peer-feedback) koʻnikmasini rivojlantiradi. **HelloTalk** va **Tandem** kabi til almashinuv ilovalari esa eng qimmatli resurs – yaponiyaliklar (native speakers) bilan bevosita muloqot qilish imkonini beradi. Unda nafaqat matnli, balki ovozli xabarlar almashish va talaffuzni tuzatish funksiyalari mavjud. **Padlet**dan "audio-devor" sifatida foydalanib, bir mavzu atrofida barcha talabalarning ovozli fikrlarini jamlash mumkin.

Produktiv-ijodiy bosqich (Erkin va spontan muloqot). Bu bosqichda **sotsio-kultural yondashuv** va **avtonom oʻrganish (learner autonomy)** tamoyillari ustuvorlik qiladi. Til shaxsiyatni va madaniyatni ifodalash vositasiga aylanadi. H. Holec ta'riflaganidek, avtonom oʻrganuvchi oʻz oʻquv jarayoni uchun mas'uliyatni oʻz zimmasiga oladi, oʻziga maqsad qoʻyadi, oʻrganish materiallarini va strategiyalarini oʻzi tanlaydi[40]. O'qituvchi murakkab, autentik va muammoli vazifalarni (debatlar, loyiha ishlari, amaliy tadqiqotlar) taklif etadi. U baholashda nafaqat lingvistik toʻgʻrilikka (accuracy), balki nutqning ravonligi (fluency), mantiqiy izchilligi (coherence) va vazifani bajarishdagi ijodiy yondashuvga ham e'tibor qaratadi. Talaba notanish yoki munozarali mavzularda ("Atrof-muhit muhofazasi", "Zamonaviy jamiyatda an'analarning oʻrni") oʻz nuqtayi nazarini erkin bayon qila oladi va dalillar bilan himoya qila oladi. Autentik materiallar (film, yangiliklar lavhasi) asosida uning mazmunini aytib berib, oʻz shaxsiy munosabatini bildira oladi. Yapon tilida mustaqil ravishda kichik loyiha taqdimotini yoki 3-5 daqiqalik podkast epizodini tayyorlay oladi. **Canva** yoki **Prezi** yordamida taqdimot tayyorlash nafaqat mazmun, balki yapon estetikasiga xos vizual dizayn elementlaridan foydalanishni ham oʻrgatadi. Bepul dasturlar **Audacity** (audio tahrir) va **CapCut** (video tahrir) yordamida talabalar sifatli media mahsulot yaratish texnik koʻnikmalarini egallaydi. O'z loyihalarini **YouTube** kanali yoki **Google Sites**da yaratilgan shaxsiy portfoliolarida ommaga taqdim etish esa haqiqiy auditoriya uchun ishlash hissini berib, motivatsiyani yuksak darajada ushlab turadi.

O'tkazilgan nazariy tahlillar va taklif etilgan metodik yechimlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Yapon tilida gapirish koʻnikmasini raqamli muhitda rivojlantirish an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, oʻquv jarayonini tubdan qayta koʻrib chiqishni talab etadi. Ushbu tadqiqotda taqdim etilgan toʻrt bosqichli model – reproduktiv-imitatsion, situativ-manipulyativ, konstruktiv-kommunikativ va produktiv-ijodiy – aynan shu maqsadda ishlab chiqilgan boʻlib, u oddiy takrorlashdan murakkab ijodiy nutqqa oʻtishning mantiqiy va izchil trayektoriyasini ta'minlovchi yaxlit tizimdir. Ushbu modelning asosiy kuchi uning har bir bosqichining aniq psixolingvistik va pedagogik nazariyalarga asoslanganida hamda oʻrganuvchini passiv bilim iste'molchisidan faol bilim yaratuvchisiga aylantirishga qaratilganida namoyon boʻladi.

Tadqiqot shuni yaqqol koʻrsatdiki, zamonaviy raqamli texnologiyalar bu jarayonda shunchaki qoʻshimcha yordamchi vosita emas, balki oʻquv muhitining ajralmas, motivatsiyani kuchaytiruvchi va imkoniyatlarni kengaytiruvchi fundamental komponentidir. Forvo, Flipgrid, HelloTalk, Canva kabi vositalar til oʻrganishni sinf xonasi chegaralaridan olib chiqadi, autentik muhitni simulyatsiya qiladi va talabalarga oʻz bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda sinab koʻrish uchun xavfsiz va samarali platforma yaratib beradi. Texnologiyalar talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish,

[39] Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.

[40] Holec, H. (1981). *Autonomy and Foreign Language Learning*. Pergamon.

o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va o‘quv jarayonini qiziqarli o‘yinga aylantirish orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish samaradorligini keskin oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **amaliy tavsiyalarni** berish maqsadga muvofiq:

- **O’qituvchilar uchun:** Taklif etilgan modeldan amaliyotda foydalanishda talabalarning xatolariga nisbatan konstruktiv yondashuvni shakllantirish lozim. Boshlang‘ich bosqichlarda talaffuz va grammatik aniqlikka e’tibor qaratilsa, yuqori bosqichlarda asosiy urg‘u fikrning ravonligi va mantiqiyligiga berilishi, xatolar muloqotga xalaqit bergandagina tuzatilishi muhim. Shuningdek, har bir bosqich uchun tavsiya etilgan raqamli vositalarni o‘zlashtirib, ularni dars rejasiga kreativ tarzda integratsiya qilish talab etiladi.
- **Ta’lim muassasalari uchun:** Oliy ta’lim muassasalarining yapon tili kafedralari o‘quv dasturlari va ishchi rejalarini qayta ko‘rib chiqib, ularga ushbu model elementlarini singdirish tavsiya etiladi. Buning uchun zarur texnik baza – yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuter sinflari, audio va video yozish uskunalari bilan ta’minlash hamda kerakli dasturiy ta’minotlar uchun litsenziyalar xarid qilish masalasini hal etish lozim.

Kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari sifatida ushbu modelni turli yosh va darajadagi (maktab, litsey, universitet) guruhlarda aprobatsiyadan o‘tkazish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali empirik baholashni belgilash mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellektga asoslangan nutqni avtomatik tahlil qiluvchi va baholovchi (masalan, talaffuzdagi xatolarni aniqlaydigan) tizimlarni modelning, ayniqsa, birinchi va ikkinchi bosqichlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1
2. Holec, H. (1981). *Autonomy and Foreign Language Learning*. Pergamon.
3. Hymes, D. H. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269–293). Penguin Books.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
5. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and language* (A. Kozulin, Trans.). MIT Press.
6. Yo‘ldoshev, M. M. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish. *Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie*, (6), 18-24.

RAQAMLI TA’LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA, UMUMIY VA OLIY TA’LIM MUASSASALARI INTEGRATSIYASINING SAMARALI MODELI

Saidova Dilfuza Ergashovna
Qarshi davlat universiteti Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Телефон:+998(97) 229-79-99, E-mail: saidovad.1989@gmail.com
Xushvaqtova Gulsevar Xamid qizi
Qarshi davlat universiteti Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi 2-kurs talabasi, E-mail: hushvaqtivagulsevar@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli ta’lim tizimi sharoitida maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi uzviy integratsiyani ta’minlashning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Raqamli platformalar, sun’iy intellekt texnologiyalari va ta’lim tahlil tizimlari orqali o‘quv jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash hamda bosqichlararo hamkorlikni kuchaytirish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli ta’lim tizimini shakllantirish, o‘quv dasturlarini uyg‘unlashtirish va kompetensiyalarni muvofiqlashtirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, integratsiya, sun’iy intellekt, hamkorlik, uzviylik, innovatsiya, platforma

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические основы обеспечения эффективной интеграции между дошкольными, общеобразовательными и

высшими учебными заведениями в условиях цифрового образования. Анализируются возможности использования цифровых платформ, технологий искусственного интеллекта и систем образовательной аналитики для обеспечения непрерывности учебного процесса и укрепления межуровневого сотрудничества. Представлены предложения по формированию современной системы цифрового образования и согласованию образовательных программ.

Ключевые слова: цифровое образование, интеграция, искусственный интеллект, сотрудничество, непрерывность, инновация, платформа

Abstract: The article explores theoretical and practical approaches to ensuring effective integration among preschool, general, and higher education institutions within the digital education system. It examines how digital platforms, artificial intelligence technologies, and learning analytics tools can enhance continuity and strengthen inter-level collaboration in education. The study also presents proposals for building a modern digital education system and aligning curricula and competencies across different educational stages.

Keywords: digital education, integration, artificial intelligence, collaboration, continuity, innovation, platform

Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari global ta’lim tizimlarining barcha bosqichlari o‘rtasida uzluksiz axborot almashinuvi, metodik uyg‘unlik va kompetensiyalar bo‘yicha izchillikni ta’minlashni talab qilmoqda. Maktabgacha ta’limdan boshlab umumiy o‘rta ta’lim, professional va oliy ta’lim bosqichlarining bir butun raqamli tizim sifatida ishlashi ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. O’zbekiston ta’lim tizimida raqamli ta’lim platformalarini joriy etish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, Learning Management System (LMS) tizimlarini rivojlantirish hamda pedagogik jarayonni avtomatlashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay, ta’lim bosqichlari o‘rtasida metodik, texnologik va axborot integratsiyasi yetarli darajada shakllanmagan. Mavjud muammolardan biri – o‘quv dasturlari va kompetensiya mezonlarining uyg‘unlashmaganligi, o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar, o‘qituvchilarning raqamli pedagogika bo‘yicha tayyorgarlik darajasi hamda ta’lim bosqichlari o‘rtasida yagona monitoring tizimining yo‘qligi hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – raqamli ta’lim tizimi sharoitida maktabgacha, umumiy va oliy ta’lim muassasalari integratsiyasining samarali modelini ishlab chiqish, integratsiya jarayonlarining asosiy omillarini aniqlash va sun’iy intellekt asosidagi yangi yondashuvlarni taklif etishdan iborat.

Raqamli ta’lim integratsiyasiga oid xalqaro tadqiqotlar (OECD, UNESCO, World Bank) uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirishda raqamli platformalarning markaziy o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Xususan, “digital continuity” konsepsiyasiga ko‘ra, ta’limning har bir bosqichi oldingi bosqich bilan metodik va kompetensiyalar nuqtayi nazaridan mos kelishi kerak. Janubiy Koreya, Finlyandiya va Singapur tajribalarida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim monitoringi keng qo‘llanilib, o‘quvchilarning taraqqiyoti real vaqt rejimida kuzatiladi.

Mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O’zbekiston ta’lim tizimida raqamli platformalarning joriy etilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ta’lim bosqichlari o‘rtasida yagona integratsion model hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Metodologiya sifatida:

- ta’lim tizimlari integratsiyasi bo‘yicha nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;
- raqamli platformalar (Maktab.uz, Kundalik, Moodle, Google Classroom, ZiyoNet)ning funksional imkoniyatlarini o‘rganish;
- solishtirma tahlil;
- integratsion modelni ishlab chiqish uchun tizimli yondashuv;
- AI asosida ta’lim jarayonini boshqarish algoritmlarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida raqamli resurslar cheklangan, umumiy ta’lim maktablarida esa raqamli ta’lim texnologiyalari yetarli qo‘llanilmayapti. Oliy ta’lim muassasalari (OTM)da LMS va masofaviy ta’lim tizimlari kengayib borayotgan bo‘lsada, ular maktab o‘quvchilari yoki tarbiyalanuvchilarning raqamli tayyorgarlik darajasi bilan integratsiyada ishlamaydi. Shu sababli uzluksiz tayyorgarlik zanjiri uzilib qoladi.

Asosiy muammolar:

–ta’lim dasturlari va standartlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik;

–o‘quv jarayonlarini monitoring qilish bo‘yicha yagona raqamli tizimning yo‘qligi;

–sun’iy intellekt asosidagi diagnostika vositalarining yetarli emasligi;

–o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining turlicha darajada bo‘lishi;

–texnik infratuzilma va raqamli resurslar notekisligining mavjudligi.

Taklif etilayotgan **“Yagona raqamli ta’lim tizimi”** modeli quyidagi komponentlardan iborat:

Yagona raqamli platforma – maktabgacha, maktab va oliy ta’lim uchun umumiy ma’lumotlar bazasi, elektron portfoliolar, o‘quv natijalari reyestri.

AI asosidagi tahlil moduli – o‘quvchilarning o‘sish dinamikasi, qiyinchilik darajalari, individual ta’lim trayektoriyasini aniqlash.

Kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish mexanizmi – bosqichdan bosqichga o‘tishda o‘quv dasturlari va standartlarni moslashtirish.

Virtual hamkorlik muhiti – maktab tarbiyachilari, o‘qituvchilar va OTM professor-o‘qituvchilari uchun masofaviy bilim almashinuvi tizimi.

Digital Portfolio – har bir o‘quvchi va talabaning maktabgacha bosqichdan OTM bitiruvigacha bo‘lgan barcha o‘quv natijalarini yagona tizimda saqlovchi elektron portfel.

Sun’iy intellekt (ChatGPT, analitik modullar), Big Data, Learning Analytics, AR/VR texnologiyalari ta’lim integratsiyasini osonlashtiradi. Chatbotlar orqali maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqini baholash, maktab o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha qiyinchiliklarini aniqlash, OTM talabalarining malakasini monitoring qilish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. **Integratsiyalashgan raqamli ta’lim modeli** ta’lim bosqichlari o‘rtasida metodik va texnologik hamkorlikni kuchaytiradi.

2. **AI asosidagi diagnostika tizimlari** o‘quvchilarning o‘quv natijalarini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

3. **Raqamli portfoliolar** uzluksiz ta’limni monitoring qilishning samarali vositasiga aylandi.

4. **Kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish mexanizmi** orqali maktab va OTM dasturlari o‘rtasidagi tafovutlar qisqardi.

5. Taklif etilgan model ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish va o‘qituvchilarning metodik hamkorligiga zamin yaratadi.

Raqamli ta’lim tizimida maktabgacha, umumiy va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida izchil integratsiyani tashkil etish – ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy talabi hisoblanadi. Taklif etilgan model ta’limning barcha bosqichlarida raqamli tizimni shakllantirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish, kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish hamda o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelajakda ta’limning raqamli transformatsiyasida AI, VR/AR, learning analytics, virtual laboratoriyalar kabi texnologiyalar integratsiyasi yanada muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim bosqichlari o‘rtasida yagona raqamli hamkorlik muhiti yaratish O’zbekistonning uzluksiz ta’lim modelini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University, 2020.
2. Siemens G. Learning Analytics: The Future of Education. EDUCAUSE Review, 2019.
3. Semenov A. V. Цифровая педагогика: принципы, модели и перспективы. Moskva: Pedagogika Press – 2019.
4. Abduraimov Sh. S. va Xolmatov J. Y. Umumiy o‘rta va oliy ta’lim o‘rtasida integratsiyalashgan ta’limning pedagogik mexanizmi. Nordik elektron jurnali – 2025.
5. Xurboyev S.X. *Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini yuksaltirish.* Scientific-JL, 2025. – 171-174 b.
6. Xalikova U. M. Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning integratsiyasini ta’minlash. Scientific progress – 2021. 42-48 b.

7. Xojiyeva M. I. O'zbekistonda raqamli transformatsiya sari qadam: talabalar IT sohasini qanday egallamoqda va yaqin yillarda qanday natijalar kutilyapti. Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi, Vol. 8 no. 02 2025. 61-65 b.

8. Najmetdinova N. S. *Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llashning ilmiy-asosiy farqlari va tahlili.* Digital Transformation and Artificial Intelligence (DTAI) jurnali. 3(4), 148-153 b.

THE IMPACT OF INTEGRATIVE MOTIVATION ON A2-LEVEL LEARNERS' WILLINGNESS TO SPEAK ENGLISH IN THE CLASSROOM

Lola Botiraliyevna Ochilova
Student, Chirchik State Pedagogical University
+998(94) 515-83-38, *lolabotiralievna@gmail.com*
Scientific adviser: Eldorbek Erkinovich Khamitov
A senior teacher, Chirchik State Pedagogical University
+998(33) 310-12-10, *khamitoveldorbek@gmail.com*

Annotation: This study investigates how integrative motivation shapes the willingness to communicate (WTC) and speaking behaviour of A2-level English learners in classroom settings. By combining teacher observations, a mini-survey of learners, and qualitative analysis, the research shows that learners with stronger integrative motivation — that is, a desire to connect with English-speaking communities and cultures — participate more actively in speaking tasks, display greater confidence, and persist despite anxiety. The findings suggest that fostering integrative motivation in low-level learners may be a practical pedagogical strategy to increase participation and communicative competence.

Keywords: integrative motivation; willingness to communicate; A2 learners; second language acquisition; classroom participation

Аннотация: В данном исследовании анализируется, каким образом интегративная мотивация влияет на готовность к общению (WTC) и речь учеников уровня A2 в классе. Используя наблюдения преподавателя, мини-опрос учащихся и качественный анализ, показано, что учащиеся с более высокой интегративной мотивацией — то есть стремлением к связи с англоговорящим сообществом и культурой — активнее участвуют в заданиях на говорение, проявляют большую уверенность и сохраняют настойчивость, несмотря на страх или тревогу. Результаты свидетельствуют о том, что развитие интегративной мотивации у начинающих изучающих может быть эффективной педагогической стратегией для повышения коммуникативной активности и компетенции.

Ключевые слова: интегративная мотивация; готовность к общению; учащиеся уровня A2; усвоение второго языка; участие в классе

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot A2 darajadagi ingliz tili o'rganuvchilarning sinfdagi gapirishga bo'lgan istagi (willingness to communicate, WTC) va gapirish xulq-harakatlariga integrativ motivatsiyaning ta'sirini o'rganadi. O'qituvchi kuzatuvlari, talabalar bilan mini-so'rov va sifatli tahlil yordamida, ingliz tilida so'zlashuvchi jamoalar va madaniyatga bog'lanish istagi (integrativ motivatsiya) kuchli bo'lgan talabalar gapirish vazifalarida faolroq ishtirok etadi, o'ziga ishonchi yuqori, va xavotir yoki uyalmadan qat'i nazar davom etadi. Natijalar ko'rsatadiki, A2 darajadagi o'rganuvchilarda integrativ motivatsiyani rag'batlantirish o'quvchilarni ko'proq muloqotga jalb qilish va ularning kommunikativ kompetentsiyasini oshirish yo'lida amaliy strategiya bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: integrativ motivatsiya; muloqot qilishga tayyorlik; A2 darajali o'rganuvchilar; ikkinchi tilni o'zlashtirish; sinfdagi ishtirok

INTRODUCTION

Learning to speak a foreign language in classroom settings is often hampered by learners' low confidence, limited exposure, and anxiety. Among the many factors affecting oral participation, motivation is widely recognized as a core driver. One influential framework is Gardner's socio-

educational model, which distinguishes between integrative motivation — a desire to identify with the target-language community and culture — and instrumental motivation, which is driven by pragmatic goals (career, exams, etc.). Historically, integrative motivation has been linked to more genuine engagement and long-term persistence.

In parallel, the construct of Willingness to Communicate (WTC) in L2 classrooms has drawn considerable attention. WTC refers to a learner's predisposition to initiate communication when given the opportunity. High WTC is correlated with more speaking practice, which in turn helps develop communicative competence. Previous research shows mixed results on how integrative motivation predicts WTC: for example, Peng (2007) found a positive relationship but weaker predictive power compared to instrumental motivation. Other studies show that motivational self-systems, teacher support, and personality traits (e.g., shyness) mediate this relationship.

However, much of this research has focused on older or higher-level learners (e.g., university students). Less is known about A2-level (elementary) learners, who typically struggle more with confidence, risk-taking, and participation. By focusing on this group, this study aims to fill a gap: How does integrative motivation influence A2 learners' WTC, their confidence, and their actual participation in speaking tasks? Understanding this dynamic is pedagogically important: if integrative motivation can boost participation at the beginner level, then teachers may incorporate strategies to foster it early.

Research questions:

1. To what extent does integrative motivation correlate with A2 learners' willingness to communicate in English in the classroom?

2. How does integrative motivation manifest in observable communicative behavior (participation, confidence, persistence) among A2 learners?

3. What classroom strategies or teacher behaviors seem to support or hinder the development of integrative motivation in low-level learners?

METHODOLOGY

Participants

This study was conducted in a secondary school (or language institute) with approximately 30 A2-level English learners, aged 14–16, attending regular English classes twice a week. Their placement at A2 level was confirmed via a standardized placement test (e.g., CEFR-aligned).

Instruments and Data Collection

To address the research questions, a mixed-methods approach was used:

1. Mini-survey: A brief questionnaire was administered to all participants ($n \approx 30$) to measure their integrative motivation and willingness to communicate. The instrument was adapted from validated scales (e.g., Ubaid Ullah et al.'s WTC-motivation questionnaire; development and validation described in Issues in Language Studies). The survey included Likert-scale items (e.g., "I want to speak English because I like English-speaking culture"; "I feel comfortable speaking English in class if I imagine I'm talking with people from English-speaking countries").

2. Teacher observations: Over 8 weeks, the classroom teacher recorded anecdotal notes after each speaking activity (pair work, role-play, whole-class discussion) to capture observable behaviors: who volunteers, who stays silent, hesitation, error-avoidance, signs of anxiety, and persistence in follow-up tasks.

3.Short interviews: At the end of the intervention period, 6 volunteer students (balanced for gender, motivation levels from the survey) took part in semi-structured interviews (10–15 minutes) to reflect on why they speak (or not), how they feel, and whether cultural interest affects their desire to communicate.

Procedure

Week 1: survey distributed; baseline observation begins.

Weeks 2–7: regular speaking tasks designed into lessons (dialogue drills, role plays, "culture talk" tasks where students discuss English-speaking countries, media, etc.). The teacher tried to introduce short cultural prompts (songs, pictures, short texts) to activate integrative orientation.

Week 8: interviews conducted, more observation, and follow-up mini-survey (same items as baseline) to check for change or reinforcement.

ANALYSIS

Quantitative: Survey data were analyzed for correlation (Spearman's rho) between integrative motivation scores and WTC scores. Pre- and post-survey comparison to see change over time.

Qualitative: Teacher notes and interview transcripts were coded thematically (using inductive coding) for patterns of behavior (confidence, anxiety, persistence) and for reported motivational reasons (cultural interest, identity, community).

RESULTS

Survey Findings

At baseline, survey data showed a moderate positive correlation between integrative motivation and WTC (Spearman's $\rho \approx +0.45$).

After the 8-week period, the average integrative motivation score slightly increased (mean difference +0.3 on a 5-point scale), and WTC scores also rose modestly. Those students who reported strong integrative motivation initially tended to have bigger increases in WTC.

Observation Findings

Participation: Students with higher self-reported integrative motivation volunteered more often in pair and group speaking tasks. During "culture talk" tasks (e.g., discussing a British or American holiday), these students tended to take initiative, ask more questions, and sustain longer conversations.

Confidence: Observer notes recorded fewer signs of hesitation (pausing, self-correction, refusal) among integratively motivated learners over time. Initially shy students became more willing to attempt responses.

Anxiety and Persistence: Some low-motivation learners declined or tried minimal utterances; by contrast, motivated learners persisted even after making mistakes, seeking clarification, or repeating tasks.

DISCUSSION

Integrative Motivation and WTC in A2 Learners

The moderate correlation between integrative motivation and WTC among A2 learners aligns with prior findings (e.g., Peng, 2007; other studies) that integrative orientation contributes to communicative willingness. Although instrumental motivation often predicts WTC more strongly in some contexts (e.g., as shown in Thai EFL learners by Ma, Wannaruk & Lei), the present study suggests that even at a very elementary level, interest in culture and community can positively influence willingness to speak.

Classroom Behavior: Confidence, Participation, Persistence

Observation and interview data provide rich, practical evidence: integratively motivated students not only say they are more willing, but behave more communicatively in class. Their greater confidence, risk-taking, and persistence mirror findings from motivational and psychological research in SLA: for example, positive emotions and teacher support mediate WTC. Moreover, individual differences (like shyness) may moderate this process. Nikitina, Lan & Woo's study found that shyness moderates the relationship between L2 motivation and WTC in a mediated model.

Pedagogical Implications

Based on the evidence, several practical strategies emerge for teachers of A2 learners:

Introduce cultural content early and meaningfully: Use songs, short videos, pictures, and discussions about English-speaking cultures to stimulate integrative motivation.

Create "imagined community" tasks: Encourage students to imagine future interactions (travel, friendships, online communication) with people in English-speaking countries.

Scaffold risk-taking: Provide low-stakes speaking tasks, pair and small-group work, and explicit encouragement so that students feel safe to try.

Monitor and support anxiety: Recognize that even motivated students may still feel shy; teachers should build a supportive environment, and perhaps pair motivation-building with emotional support.

Limitations and Future Research

Sample size & generalizability: The small class (≈ 30) limits statistical power. Larger-scale studies across different contexts are necessary.

Duration: Eight weeks is relatively short; longitudinal research could examine how integrative motivation and WTC develop over a full course.

Measurement: Self-reports (via survey) may be biased by social desirability. Future research could include more objective measures (e.g., audio recording of spoken output, WTC behavioral tasks).

CONCLUSION

This study provides preliminary but meaningful evidence that integrative motivation plays a significant role even at the A2 level in shaping students' willingness to speak, their confidence, and their communicative persistence in class. By drawing on cultural interest, imagined communities, and supportive instructional strategies, teachers can foster a classroom environment where beginners feel more connected, motivated, and willing to take risks. While more research is needed, the findings support the value of integrating motivational design into early-stage language teaching.

REFERENCES

1. Youvalari, F. E. (2021). *Willingness to Communicate: The Predictive Roles of the L2 Motivational Self-System and Self-Efficacy*. Journal of English Language Teaching and Linguistics, 6(3).

2. Nikitina, L., Lan, G., & Woo, W. S. (2022). *L2 motivation and willingness to communicate: a moderated mediation model of psychological shyness.* Linguistics Vanguard, 8(1).

3. Ma, X., Wannaruk, A., & Lei, Z. (Year). *Exploring the Relationship Between Learning Motivation and L2 WTC in an EFL Classroom Among Thai EFL Learners.* English Language Teaching, CCSE.

4. Chen, Y.-L., Cheng, H.-F., Tang, H.-W., & Wang, C. (2019). *The roles of English varieties and L2 motivation in English learners' willingness to communicate in the internationalization at home (IaH) context*. International Review of Applied Linguistics in Language Teaching, 59(3).

5. Kanat-Mutluoğlu, A. (2016). *The Influence of Ideal L2 self, Academic Self-Concept and Intercultural Communicative Competence on Willingness to Communicate in a Foreign Language.* Eurasian Journal of Applied Linguistics, 2(2), 27–46.

6. Peng, J. (2007). *Relationship between integrative motivation and L2 willingness to communicate*. (As discussed in English Language Teaching research.) According to Peng's model in socio-educational theory.

7. Hvozdíková, S. (2021). *Willingness to Communicate and Motivation of English Language Learners*. American Journal of Educational Research, 9(8), 543–548.

8. Ubaid, U., Rethinasamy, S., & Ramanair, J. (2021). *Development and Validation of Willingness to Communicate, Language Use, and Motivation Questionnaires.* Issues in Language Studies, 10(1).

9. BMC Psychology (2024). *Teacher support, grit and L2 willingness to communicate: the mediating effect of foreign language enjoyment.*

10. Tadqiqotlar.uz: Saidova, N. (2023). *Ingliz tili o'qitishda motivatsiyaning o'rni.* Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar.

11. Norboyeva, Z. A. (2025). *Til o'rganishda psixologik to'siqlar va ularni yengish yo'llari*. TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali.

12. Yuldasheva, N. O. (2025). *Ingliz tilini o'qitishda o'zbek madaniyatini hisobga olinishining ahamiyati*. Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'lim.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA BULUTLI HISOBLASHNI OPTIMALLASHTIRISH

Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani 11-umumta’lim maktabining informatika fani o‘qituvchisi
Absalomov Amir Yusup o‘g‘li
Telefon: +998 93 856 91 29

АННОТАЦИЯ: В работе рассмотрены тенденции использования искусственного интеллекта для оптимизации облачных вычислений. Акцент сделан на примерах мировых и российских компаний, которые успешно внедряют технологии машинного обучения, глубокого обучения и нейронных сетей в свои бизнес-процессы. Раскрыты достоинства и недостатки, а также перспективы развития использования искусственного интеллекта в технологиях облачных вычислений.

Kalit so‘zlar: bulutli hisoblash, sun’iy intellekt, interfeys, mashinani o‘rganish.

Bulutli hisoblash texnologiyalari resurslarni virtualizatsiya qilish va taqsimlangan hisoblashga asoslangan integratsiyalashgan usullar va arxitektura tamoyillari to‘plamidir. Ular hisoblash quvvatiga, ma’lumotlarni saqlashga va tarmoq orqali xizmatlarga talab bo‘yicha kirishni ta’minlaydi, bu esa “to‘lov asosida” modelidan foydalangan holda xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi [5, 27-bet]. Bulutli hisoblash texnologiyalari ushbu xizmatlarni tarmoq orqali taqdim etish uchun birgalikda ishlaydigan bir nechta asosiy komponentlar va qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Ularning tuzilishi bir nechta asosiy qatlamlardan iborat:

1. Ma’lumotlar markazlarida joylashgan jismoniy serverlar, ma’lumotlarni saqlash va tarmoq uskunalarini o‘z ichiga olgan jismoniy qatlam.

2. Jismoniy resurslarni virtualizatsiya qilish uchun gipervizorlardan foydalanadigan virtualizatsiya qatlami.

3. Bulutli infratuzilmani boshqarish va monitoring qilish vositalarini o‘z ichiga olgan boshqaruv qatlami [3, 215-bet]. 4. Hisoblash quvvati (virtual mashinalar), ma’lumotlarni saqlash, ma’lumotlar bazalari, tarmoq xizmatlari, sun’iy intellekt va boshqalar kabi turli xil bulut xizmatlarini o‘z ichiga olgan xizmat ko‘rsatish qatlami.

5. Foydalanuvchilarning bulut platformasi bilan o‘zaro ta’siri uchun interfeys. Bu veb-portal, API (dasturiy dasturlash interfeysi) yoki bulut bilan boshqarish va o‘zaro ta’sirning boshqa vositalari bo‘lishi mumkin.

6. Tarmoq bulutli hisoblash texnologiyasida muhim rol o‘ynaydi, turli komponentlar va foydalanuvchilar o‘rtasida aloqani ta’minlaydi. Umumiy g‘oya shundaki, bulut tarmoq orqali hisoblash resurslari va xizmatlariga kirishni ta’minlaydi, bu foydalanuvchilarga zaruratga qarab infratuzilmani kengaytirish imkonini beradi [1, 18-bet].

Ushbu maqolada bulut texnologiyalari va sun’iy intellektning uyg‘unligi o‘rganiladi. Resurslarni boshqarishni avtomatlashtirish, ish oqimlarini optimallashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish asosida qaror qabul qilishni ko‘rib chiqish biznes va texnik yechimlar uchun yangi imkoniyatlarni yoritishi mumkin. Shu bilan birga, bulut muhitida sun’iy intellektdan foydalanish kontekstida potentsial to‘siqlarni ko‘rib chiqish muhimdir. Ushbu mavzu bugungi kunda tashkilotlar resurslardan samarali foydalanishni maksimal darajada oshirish va ularning unumdorligini oshirishga intilayotgani sababli dolzarbdir. Bu nafaqat hisoblash resurslaridan foydalanishni optimallashtiradi, balki o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan aqlli tizimlarni ham yaratadi. Bulutli hisoblashni optimallashtirish - bu bulut infratuzilmasining samaradorligi va ish faoliyatini maksimal darajada oshirish jarayonidir, bu esaBulutli hisoblash resurslardan foydalanishni yaxshilash, ilovalarning ishlashini optimallashtirish, resurslarni boshqarishni avtomatlashtirish va bulutli muhitda hisoblash tizimlarining umumiy ishlashini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishni o‘z ichiga oladi [4, 115-bet]. Uning maqsadi talablarga javob berish va tizimning yuqori moslashuvchanligi va ishonchliligini ta’minlash uchun hisoblash resurslari, tarmoq infratuzilmasi va ma’lumotlarni saqlashdan optimal foydalanishni ta’minlashdir.

Yirik xalqaro va Rossiya kompaniyalari turli texnologiyalar va yondashuvlardan foydalangan holda bulutli hisoblashni optimallashtirish uchun sun’iy intellektni faol ravishda joriy etmoqdalar. Google* TensorFlow mashina o‘rganish kutubxonasida (turli xil mashina o‘rganish modellarini yaratish va o‘qitish imkonini beradi) va DeepMind (murakkab muammolarni hal qilish uchun chuqur o‘rganish, AI ni ishlab chiqish) bulutli hisoblashni optimallashtirish uchun sun’iy intellektdan faol foydalanadi. Bu jarayonlar ma’lumotlar markazining energiya sarfini optimallashtirish va avtomatlashtirilgan resurslarni boshqarish uchun neyron tarmoqlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi [5]. Amazon Web Services bulutli xizmatlarining ishlashini yaxshilash uchun AI dan foydalanadi. Bunga misol qilib real vaqt rejimida kompyuter ko‘rish imkoniyatlarini taqdim etish uchun Amazonning bulutli xizmatlari bilan integratsiyalashgan mashina o‘rganish qurilmasi bo‘lgan AWS DeepLensni keltirish mumkin.

Microsoft o‘zining Azure Cognitive Services platformasida sun’iy intellektdan foydalanadi va nutqni aniqlash, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuterni ko‘rish kabi turli vazifalar uchun bulutli API-larni taqdim etadi. Bu ishlab chiquvchilarga sun’iy intellekt imkoniyatlarini bulutli ilovalariga osongina integratsiya qilish imkonini beradi. IBM Watson sun’iy intellektdan foydalanadigan bulutli xizmatlar va mahsulotlarni, jumladan, mashinani o‘rganish va ma’lumotlar tahlilini taqdim etadi. Bu bulutda tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Rossiyadagi yetakchi texnologiya kompaniyalaridan biri bo‘lgan Yandex, bulutli hisoblash, mashinani o‘rganish va qidiruv texnologiyalari kabi turli sohalarda sun’iy intellektdan foydalanadi. Rossiyaning eng yirik banki bo‘lgan Sberbank, bank jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini faol ravishda joriy etmoqda. Rossiya kompaniyalari, global hamkasblari singari, turli xil sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadilar: mashinani o‘rganish, chuqur o‘rganish, neyron tarmoqlari va ma’lumotlarni tahlil qilish.

Har bir kompaniya bulutli hisoblashni optimallashtirish uchun o‘zining sun’iy intellekt texnologiyalari va usullaridan foydalanadi, bu aniq vazifalar va talablarga bog‘liq.

Sun’iy intellekt bir nechta asosiy mexanizmlar orqali ishlashni sezilarli darajada yaxshilaydi va bulutli hisoblashni optimallashtiradi: avtomatlashtirilgan resurslarni boshqarish, yukni prognozlash va optimallashtirish. Aqlli ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini yaratish, energiya sarfini optimallashtirish va ma’lumotlar xavfsizligini oshirish.

Sun’iy intellekt ish hajmidagi dinamik o‘zgarishlarni tahlil qilishi va hisoblash resurslarini real vaqt rejimida samarali taqsimlashi mumkin. Bu ortiqcha yuklanishning oldini oladi va bulut tizimlarining umumiy ish faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, u oldingi ish yuklamalari bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qiladi, kelajakdagi ehtiyojlarni bashorat qilishi va bulut infratuzilmasi resurslarini shunga mos ravishda avtomatik ravishda masshtablashi mumkin. Bu hisoblash quvvatidan samaraliroq foydalanishni ta’minlaydi.

Bulutda ma’lumotlarni tahlil qilish uchun sun’iy intellektdan foydalanish axborotni qayta ishlashni optimallashtirish imkonini beradi. Aqlli algoritmlar ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligini oshirishi mumkin, bu ayniqsa katta hajmdagi axborot kontekstida muhimdir. Sun’iy intellekt foydalanilmagan hisoblash qurilmalarini o‘chirish yoki qayta taqsimlash orqali bulut resurslarining energiya sarfini samarali boshqaradi va shu bilan energiya samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, u xavfsizlik tahdidlarini topish va oldini olish, bulut tarmoqlari va ma’lumotlaridagi g‘ayrioddiy naqshlar yoki anomaliyalarni aniqlash, shu bilan xavfsizlik darajasini oshirish uchun ham ishlatilishi mumkin. Shuning uchun sun’iy intellekt nafaqat bulutli hisoblash samaradorligini oshiradi, balki uni yanada moslashuvchan, moslashuvchan va atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga sezgir qiladi.

Ko‘pgina afzalliklariga qaramay, sun’iy intellektni bulutli hisoblashga integratsiya qilishning ba’zi kamchiliklari ham mavjud, masalan, amalga oshirishning murakkabligi, bulutda maxfiy ma’lumotlarni qayta ishlash va uning maxfiyligini saqlashdagi qiyinchiliklar, katta hajmdagi katta ma’lumotlardan foydalanish zarurati, xavfsizlikni ta’minlashdagi qiyinchiliklar va sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq axloqiy muammolar [2, 34-bet]. Bundan tashqari, bulutli

hisoblashda sun’iy intellektdan foydalanish mutlaqo mos bo‘lmagan ayrim stsenariylar mavjud. Kichik hajmdagi ma’lumotlar yoki oddiy vazifalar uchun murakkab mashina o‘rganish modellaridan foydalanish ortiqcha va samarasiz bo‘lishi mumkin.

Oddiy vazifalar minimal kechikish va yuqori ishlashni talab qilganda, murakkab sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish keraksiz bo‘lishi mumkin. Bulutli hisoblashda sun’iy intellektni qo‘llashdan oldin aniq ehtiyojlar va kontekstni batafsil tahlil qilish va haqiqiy ehtiyojlar va imkoniyatlarga asoslanib qarorlar qabul qilish muhimdir.

Bulutli hisoblashda sun’iy intellektni qo‘llash istiqbollari bir nechta muhim yo‘nalishlarga ega. Avtomatlashtirish va optimallashtirishni rivojlantirish: Resurslarni boshqarishni avtomatlashtirish, ish yuklamalarini bashorat qilish va bulutli tizimlarning ishlashini optimallashtirish uchun sun’iy intellektni integratsiyalashni chuqurlashtirish. Bu undan samaraliroq foydalanish imkonini beradi. resurslarni kengaytirish va bulut infratuzilmalarining moslashuvchanligini oshirish [5]. Tarmoq chekkasida sun’iy intellektdan foydalanish (Edge AI) ma’lumotlarni manbaga yaqinroq qayta ishlash imkonini beradi, kechikishni kamaytiradi va bulutli ma’lumotlar markazlariga yukni kamaytiradi. Real vaqt rejimida qaror qabul qilish uchun AI dan foydalanadigan avtonom tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish resurslarni boshqarish samaradorligini oshiradi va dinamik stsenariylarda yuqori darajadagi tezkorlikni ta’minlaydi [5]. Bulutli hisoblashni optimallashtirish uchun sun’iy intellektdan foydalanish ham global, ham Rossiyada muhim tendentsiya hisoblanadi. Yetakchi global kompaniyalar va Rossiya korporatsiyalari ushbu texnologiyani faol ravishda joriy qilmoqdalar. Mashina o‘rganish, chuqur o‘rganish va neyron tarmoqlari hisoblash jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun qo‘llanilmoqda. Kelajakda resurslarni boshqarishni avtomatlashtirish, ma’lumotlar xavfsizligini oshirish va bulutli hisoblashni rivojlantirish uchun sun’iy intellektning yanada kengroq integratsiyasi kuzatilishi kutilmoqda. Biroq, axloqiy va maxfiylik masalalari, shuningdek, xavfsizlik muammolari ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish va tartibga solishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Buxanov, S.A. "SAP HANA bulutli platforma boshqaruv muhiti", Moskva: Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti, 2019. 44 b.

2. Gafarov, F.M., Galimyanov, A.F. "Sun’iy neyron tarmoqlari va ilovalari." Qozon: Qozon universiteti nashriyoti, 2018. 121 b.

3. Bulutli xizmatlar. Rossiyadan bir qarash. E. Grebnev tomonidan tahrirlangan. Moskva: CNews, 2011. 282 b.

4. Reese, J. "Bulutli hisoblash: Ingliz tilidan tarjima qilingan", Sankt-Peterburg: BHV-Peterburg, 2011. 288 b.

5. Google* DeepMind – Sun’iy intellekt va mashinani o‘rganishning yangi davri [Elektron resurs]. –

2023. – URL: https://olganikitina.ru/google-deepmind-novaya-era-iskusstvennogo-intellekta-i-mashinnogoobucheniya/ (kirish sanasi 01.12.2023).

FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI MUAMMOLI VAZIFALARNI YECHISH HAMDA MUTAXASSISLIK TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Nurmaxamadov Xusan Shaxobiddin o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti 3-bosqich talabasi
Tel:+998935736144**, E-mail:** nurmaxamadovxusan11@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonining dolzarb muammosi – fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarning muammoli vazifalarni yechish qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda fanlararo integratsiya tushunchasining pedagogik mohiyati, uning tarixiy ildizlari va ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlii qilinadi. Muallifning maqsadi

ushbu yondashuvning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish va amaliyotda qo‘llash yo‘llarini taklif etishdir.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, muammoli vazifalar, kompetensiya, ta’lim sifati, differensiatsiya, loyihaviy ta’lim.

Аннотация: В статье рассматривается актуальная проблема современного образовательного процесса – развитие у студентов умения решать проблемные задачи посредством межпредметной интеграции. В исследовании анализируются педагогическая сущность концепции межпредметной интеграции, её исторические корни и значение в повышении эффективности образования. Целью автора является рассмотрение теоретических основ данного подхода и предложение способов его практического применения.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, проблемные задачи, компетентность, качество образования, дифференциация, проектное обучение.

Abstract: This article examines a pressing issue in modern education: developing students’ problem-solving skills through interdisciplinary integration. The study analyzes the pedagogical essence of the concept of interdisciplinary integration, its historical roots, and its importance in improving the effectiveness of education. The author’s goal is to examine the theoretical foundations of this approach and propose methods for its practical application.

Keywords: interdisciplinary integration, problem-solving, competence, educational quality, differentiation, project-based learning.

Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, shuningdek, o‘quvchilarda kompleks dunyoqarashni shakllantirish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv turli fanlarni o‘zaro bog‘lash orqali o‘quvchilarga keng qamrovli tushunchalarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va ularning muammoli vazifalarni yechishdagi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiyaning pedagogik mohiyati. “Integratsiya” tushunchasi (lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish; integer – butun) pedagogikada fanlarning yaqinlashuvi va o‘zaro aloqadorligini ifodalovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. U differensiatsiya tamoyili bilan birgalikda, ya’ni fanlarni ajratish va chuqurlashtirish bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llaniladi. Fanlararo integratsiya – bu o‘quvchilarga turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni namoyish etish va ularning aloqalarini mustahkamlash jarayonidir. Integratsiya tamoyillari pedagogikaning klassik asarlarida, xususan, Ya.A. Komenskiy, J. Lokk va I. Gerbartning ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, bu tamoyillar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilimlar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi [1].

Muammoli vazifalarning o‘rni va integratsiyaning amaliy ahamiyati. Muammoli vazifalar o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlovchi vazifalardir. Fanlararo integratsiya ushbu vazifalarning yechimini sezilarli darajada samaraliroq qiladi. Masalan: Fizika va matematika integratsiyasi: O’quvchilar fizik qonunlarni matematik modellashtirish va formulalar orqali o‘rganish natijasida muammolarni yechishda ikki fanning o‘zaro to‘ldiruvchi ekanligini amaliyotda ko‘rib chiqadilar. Biologiya va kimyo integratsiyasi: Biologik jarayonlarni (masalan, fotosintez) kimyoviy reaktsiyalar va moddalar almashinuvi nuqtai nazaridan o‘rganish, o‘quvchilarning bilimlarini izchil va tizimli shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya bir nechta fanlarni o‘zaro bog‘lash va ularning o‘zaro aloqalarini kuchaytirishni maqsad qiladi. Bu metodika o‘quvchilarning tushunchalarini, fikrlash qobiliyatini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, ularga turli bilimlarni (masalan, adabiyot, tarix, ona tili) integrativ tarzda idrok etishga yordam beradi. Shu orqali o‘quvchilarning bilimlari kengayadi va tizimlashtiriladi [2, 3].

Fanlararo integratsiya o‘quvchilarda xalqaro muloqotda ishtirok etish, muammolarni muhokama qilish, masalalar yechish va ijtimoiy muzokaralar olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon ularni zamonaviy globallashgan dunyoga moslashuvchan va faol shaxs sifatida tayyorlaydi, intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fanlararo integratsiya ta’limda motivatsiyani oshiradi, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni mustahkamlaydi.

Natijada, o‘quvchilarning bilimlari ilmiy asoslanadi va ularning jamiyat bilan integratsiyasi yaxshilanadi.

Fanlararo integratsiya, turli fanlar va disiplinlarning bir-biriga bog‘lanishi jarayoni sifatida ta’riflanadi. Ushbu jarayon, o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va ko‘p yo‘nalishli bilimlarni birlashtirish orqali yangi bilim va texnologiyalar yaratishga imkon beradi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, biologiya, injinerlik va informatika kabi sohalarning integratsiyasi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va yaratuvchi fikrlash usullarini rivojlantiradi.Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiyaning istiqboli yuqori darajada bo‘lishini ta’minlash, o‘quvchilarga muammoli vazifalarni yechishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Bu jarayon, o‘quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Fanlararo integratsiya, o‘quv jarayonida integrativ yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarni real hayotdagi muammolar bilan tanishtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va interdisiplinar muammolarni hal qilishda samaradorlikni oshiradi.Shu sababli, fanlararo integratsiya o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada, o‘quvchilar o‘zaro bog‘liq fanlar orqali murakkab vazifalarni yechishga tayyor bo‘ladilar, bu esa ularning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi [3, 4].

Fanlararo integratsiya – bu nafaqat turli fanlarni birlashtirish, balki ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli tarzda tushunish va shu asosda kompleks bilimlar shakllantirish jarayonidir. Ushbu yondashuv mutaxassislik ta’limida muammoli vazifalarni samarali yechishning muhim omiliga aylanib, talabalarni amaliyotga tayyorlovchi pedagogik platforma vazifasini o‘taydi.

Fikrimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya orqali:

- O’quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati rivojlanadi;
- Muammolarni ko‘p qirrali tahlil qilish va izchil yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasi shakllanadi;
- An’anaviy ta’limdagi fanlararo kesilishlar va ma’lumotlarning bo‘laklanganligi bartaraf etiladi.

Zamonaviy mutaxassislik ta’limida fanlararo integratsiyani joriy etish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- O’quv dasturlarini integrativ modullar asosida qayta ishlash;
- Loyihaviy ta’lim va holatlar tadqiqini (case-study) keng joriy etish;
- O’qituvchilarni fanlararo hamkorlikka tayyorlash va ularning metodik tayyorgarligini oshirish.

Xulosa qilib, fanlararo integratsiyaga asoslangan ta’lim modeli nafaqat o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi, balki kelajak mutaxassislarni kompleks fikrlash, innovatsion yondashuvlar va raqobatbardoshlik qobiliyatlari jihatidan tayyorlashning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.R.Dusbayev. International Scientific and Practical Conference Science, education, innovation: modern tasks and prospects, Tashkent Institute of Economics and Pedagogy. https://tipi.uz/ May 3, 2024 11-13 betlar.
2. N.A. Ergasheva. Zamonaviy pedagogik ta’limda integratsiyaning ahamiyati va o‘rni. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia https: econferencezone.org May 23rd 2023.
3. Muydinovich, R.I. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli paydo bo‘lgan kasblar va ularni o‘rganish. pedagogs jurnali, 2022 yil, 13(1), 117-122 betlar.
4. Muydinovich R.I. Integrity and continuity of computer science in the system of continuing education. In E Conference Zone 2022, April (pp. 322-326).

MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISHDAGI INNOVATSION YONDOSHUVLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Nurmaxamadov Xusan Shaxobiddin o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti 3-bosqich talabasi
Tel:+998935736144**, E-mail:** nurmaxamadovxusan11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ushbu maqola O’zbekistonda mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajribalarni qo‘llashning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, jumladan, modulli-kredit tizimi, aralash ta’lim (Blended Learning) va Keys Study kabi metodlarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, mutaxassislik fanlari, modulli-kredit tizimi, aralash ta’lim, Keys Study, pedagogik texnologiyalar, xorijiy tajriba, ta’lim sifati.

Аннотация: Данная статья посвящена актуальным вопросам применения инновационных подходов и зарубежного опыта в преподавании специальных дисциплин в Узбекистане. В исследовании анализируется применение современных образовательных технологий, включая модульно-кредитную систему, смешанное обучение (Blended Learning) и метод case study. В статье разработаны предложения по реформам, осуществляемым в высших учебных заведениях, повышению квалификации педагогических кадров и улучшению профессиональной подготовки студентов.

Ключевые слова: инновационное образование, специальные дисциплины, модульно-кредитная система, смешанное обучение, кейс-стади, педагогические технологии, зарубежный опыт, качество образования.

Abstract: This article is devoted to current issues of applying innovative approaches and foreign experience in teaching specialized disciplines in Uzbekistan. The study analyzes the application of modern educational technologies, including the modular-credit system, Blended Learning and the Case Study method. The article develops proposals for reforms implemented in higher educational institutions, improving the qualifications of teaching staff and enhancing students’ professional training.

Keywords: innovative education, specialized disciplines, modular-credit system, blended learning, case study, pedagogical technologies, foreign experience, quality of education.

Bugungi kunda O’zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, zamonaviy kadrlarni tayyorlashni hamda innovatsion ta’lim uslublarini joriy etishni taqozo etmoqda. Ta’lim tizimida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovativ yondashuvlar, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bunda, o‘qitish jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘shish, ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

O’zbekistonning ta’lim tizimi XXI asrda jahon standartlariga mos ravishda islohotlar olib bormoqda. Bu esa bir qator innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Innovatsion ta’lim uslublarini joriy etish, talabalarni yangicha fikrlashga, kreativ yondashuvga va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga o‘rgatish muhimdir. Shuningdek, zamonaviy kadrlar tayyorlashda ustuvor vazifalardan biri jahon tajribasini o‘rganish va o‘qitish jarayonida qo‘llashdir. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, "Taqsimlangan tizimlar" fanini o‘qitishda fizik, matematik va informatika fanlaridan olingan bilimlarni birlashtirish natijasida o‘quvchilar zamonaviy muammolarni yechishda universal yondashuvlarni o‘rganadilar.

Innovatsiya ta’lim jarayonida bilimlar, usullar va yondashuvlarni yangilashni anglatadi. Yangiliklar, o‘z navbatida, amalda qo‘llanilganda innovatsiyaga aylanadi. Bu jarayonlar tomonidan yaratilgan me’yorlar va standartlar, ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga olib keladi. Amaldagi yutuqlar, mashg‘ulotlarning mazmunini va samarasini oshiradi.Oliy ta’lim muassasalarida

innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, masofaviy ta’lim va interaktiv o‘quv dasturlarini joriy etish talabalarni zamonaviy uslublar va texnologiyalar bilan tanishtiradi. Bu orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Davlat rahbari tomonidan belgilangan xujjatlar ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu jarayonlar oliy ta’limda zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashni ta’minlaydi. Bu esa, shuningdek, o‘qituvchilarning kasb mahorati va ilmiy faoliyatini oshiradi[1].

Oliy ta’limda xorijiy tajribalarni joriy etish, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga xizmat qiladi. Masalan, AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarida muqobil ta’lim uslublari, masofaviy ta’lim va interaktiv o‘rganish metodlariga keng e’tibor berilmoqda. Bunday tajribalar O’zbekistonda ham qo‘llanilishi, talabalarni yangi g‘oyalar va zamonaviy qarashlar bilan tanishtirishga yordam beradi.Ta’lim jarayonida innovatsion resurslar, zamonaviy texnologiyalar va barcha zarur vositalarni joriy etish orqali talabalarning ta’lim jarayoni tezlashadi. Masalan, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy optik tolali kompyuter tarmoqlarining ishga tushirilishi, ta’lim resurslariga kirishni osonlashtiradi, video-anjumanlar o‘tkazishga imkon beradi.

O’zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida innovatsion o‘zgarishlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Innovativ yondashuv tanlanishi, pedagogik sifatni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.Oliygohlar o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasi va uslublari doimiy ravishda yangilanib turishi muhim hisoblanadi. O’quv dasturlarini har bir mutaxassislikni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish o‘qitish jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunda talabalar tajriba va nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham qo‘llaniladigan uslublarni o‘rganadilar.

Ushbu maqola mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajribalarni qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatadi. O’zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg‘or yondashuvlar yordamida o‘qituvchilar va talabalar uchun innovatsion imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa, jamiyatda ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar, innovativ yondashuvlar va xorijiy tajribalarni chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Bu bilan birga, ta’lim jarayonida amaliyot va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish zarur. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, kadrlar tayyorlashda aniq strategiyalarni ishlab chiqish, yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni amalga oshirish orqali samaradorlikni ta’minlaydi [2, 3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib oliy ta’lim tizimi o‘quv jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan ayrim metodlarni ko‘rib chiqamiz. Modulli-kredit tizimi va Blended learning Modulli texnologiyalar-eng zamonaviy texnologiya bo‘lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, talabaning mustaqil faoliyatiga asoslangan, bilim, ko‘nikma va malakalar diagnostikasida turli shakllaridan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayon. Modul-mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo‘lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo‘lgan birlikdir. Modul dastur - bir fan doirasidagi modul bloklarining yig‘indisi bo‘lib, erishish lozim bo‘lgan didaktik maqsad, qo‘llaniladigan usullar va vositalar yig‘indisidir. O’quv moduli–nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo‘lgan o‘quv kursining bo‘lagidir. U o‘quv metodik ta’minotdan nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat. Blended learning – aralash o‘qitish tizimi bo‘lib, ta’limiy konsepsiya hisoblanadi, qaysiki mustaqil ravishda bilimlarni onlayn orqali va kunduzgi holatda o‘qituvchi ishtirokida o‘rganiladi,ya’ni “shu yerda va hozir” degan ma’nolarni tushuniladi. Brick and Mortar (kirpich i rastvor) ingliz tili idiomasi bo‘lib, an’anaviy ma’noni anglatadi. Demak, Brick and Mortar Education kunduzgi o‘qitishning an’anaviy shaklidir. Bu holatda kompyuter ta’limda mediatr bo‘lib xizmat qiladi. Aralash o‘qitish shakllari, bular:

- ✓ Blended learning;

- ✓ Hubrid learning;
- ✓ Technology-Mediated Instruction;
- ✓ Web-Enhanced Instruction;

Mixed-Model Instruction. Bu shakllar XX asrning 60 yillarida mavjud bo‘lib, tushunchasi 1999 yilda Amerika pressasi Interctive learning Center markazi EPIC Learning deb o‘zgartirdi va bu usullarni internet orqali o‘qitish tavsiya qilingan. Blended learning metodologiyasidan foydalanishi e’tiborga olingan. 2006 yilda Bonk va Grem kitoblarida “yuzma-yuz” va kompyuter orqali o‘qitish ekanligi e’tiborga olingan. 1998 yilda Aleksandr Mak Kenzi tadqiqotida kompyuter yordamida BKMlarini o‘zlashtirishini osonligi qayd etilgan. Blended learning uch qismdan iborat, ya’ni:

- ❖ Masofali o‘qitish (Distance learning);
- ❖ Sinfda o‘qitish (Face – To – Face learning);
- ❖ Internet orqali o‘qitish (Online learning).

Foydali jihatlari: bilimlar to‘plami va baholash imkoniyati hamda o‘qituvchiga ko‘p odamlarni o‘qitish imkoniga ega.

Kamchiliklari: AKT bo‘yicha Blended learning modellari:

Face–To–Face Driver (Drayver kunduzgi ta’lim), Rotation Model (Rotatsiya modeli), Flex Model (Moslashuvchan model), Online lab (Onlayn laboratoriya), Self-Blend Model (O’zing aralashtir), Online Driver Model (Drayver onlayn ta’lim), Case study va masofali o‘qitish. Keys study 1870 yilda Garvard universitetida, keyinchalik 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo‘llanilgan. Keyslar tipologiyasi asosiy manbalari, syujetli mavjudligi, vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi, keys ob’ekti, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy xarakterga egaligi, o‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli, didaktik maqsadi, taqdim etish usuliga ko‘ra ajratiladi. Keys metodini amalga oshirish bosqichlari:

- ➢ Keys bilan tanishuv;
- ➢ Asosiy muammoni ajratib olish;
- ➢ G‘oyalar yig‘ish va izlash;
- ➢ Keys yechimini tavsiya qilgan g‘oyalarni tahlil qilish;
- ➢ Keys yechimi va tavsiyalar.

Umuman olganda yuqorida qayd etib o‘tilgan usullar va ilg‘or innovatsion tajribalar talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida ta’lim uzviyligini ta’minlash bilan birga mutaxassislik fanlarini o‘rganishda ko‘nikma va malakalari shakllanib boradi [4, 5, 6].

Xulosa qilib shuni aytish joizki, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion yondoshuvar va ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish O’zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omilidir. Zamonaviy sharoitda professor-o‘qituvchilarning doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi talab etiladi.Ta’lim sohasidagi islohotlar nafaqat yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda innovatsion yondoshuvar va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha izchil islohotlarni amalga oshirish davlat taraqqiyotining muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mallaboev N.M., Olimov A.F., Madraximova M.B. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali, Maxsus son 2022, № 1 (1). 239-243 betlar.

2.Kamolova Nigora, Xadjamuratova Zulfiya, Haydarov Sulaymon, & Haydarov Sulaymon. (2025). Mutaxasisslik fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda integrativ yondashuv . tadqiqotlar, 73(1), 238-241. https://journalss.org/index.php/tad/article/view/3512

3.Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... . -Toshkent: TDPU, 2006. - 263 bet

4./I.R.Dusbayev. International Scientific and Practical Conference Science, education, innovation: modern tasks and prospects, Tashkent Institute of Economics and Pedagogy. https://tipi.uz/ May 3, 2024 11-13 betlar.

5.N.A. Ergasheva. Zamonaviy pedagogik ta’limda integratsiyaning ahamiyati va o‘rni. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia https: econferencezone.org May 23rd 2023.

6.Muydinovich R.I. Integrity and continuity of computer science in the system of continuing education. In E Conference Zone 2022, April (pp. 322-326).

7.Mallaboev N., Madraximova M., Teshaboev R. Iqtisodiy matematik modellarni klassifikasiyasi // Экономика и социум. – Россия, 2021. – №4 (83). – Б.93-102.

8.Mallaboev N., Madraximova M. Масофавий таълим тизимининг дидактик воситалари // Экономика и социум. – Россия, 2021. – №2 (81). – Б.100-108.

MUTAXASSISLIK FANLARNI O’QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATIV YONDOSHUV

Nurmaxamadov Xusan Shaxobiddin o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti 3-bosqich talabasi
Tel:+998935736144**, E-mail:** nurmaxamadovxusan11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda integrativ yondoshuvning nazariy asoslari, metodologik jihatlari va amaliy qo‘llanilishi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda an’anaviy o‘qitish metodlarining cheklovlari, fanlar o‘rtasidagi izchillikning yo‘qligi, nazariya va amaliyotning uzilishi kabi muammolarga integrativ yondoshuv orqali yechim topish imkoniyatlari o‘rganilgan.Maqolada integrativ yondoshuvni joriy etishning bosqichlari: diagnostik-tayyorgarlik, loyihalash va rejalashtirish, eksperimental-amaliy, tahlii va takomillashtirish bosqichlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, integrativ yondoshuvning psixologik-pedagogik samaradorligi, uning kognitiv qobiliyatlar, motivatsiya va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondoshuv, mutaxassislik fanlari, samaradorlik, fanlararo integratsiya, metodologiya, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetensiya, diagnostika, loyihalash, takomillashtirish.

Аннотация: В статье комплексно анализируются теоретические основы, методические аспекты и практическое применение интегративного подхода в повышении эффективности преподавания профильных дисциплин. В исследовании рассматриваются возможности решения таких проблем, как ограниченность традиционных методов обучения, междисциплинарная несогласованность, разрыв связи теории и практики, посредством интегративного подхода. В статье подробно описаны этапы реализации интегративного подхода: диагностико-подготовительный, проектно-конструкторский, экспериментально-практический, анализ и совершенствование. Также научно обоснованы психолого-педагогическая эффективность интегративного подхода, его значение в развитии когнитивных способностей, мотивации и практических навыков.

Ключевые слова: интегративный подход, профильные дисциплины, эффективность, междисциплинарная интеграция, методология, педагогическая технология, профессиональная компетентность, диагностика, проектирование, совершенствование.


Abstract: This article comprehensively analyzes the theoretical foundations, methodological aspects, and practical application of an integrative approach to improving the effectiveness of teaching specialized disciplines. The study examines the potential of addressing issues such as the limitations of traditional teaching methods, interdisciplinary inconsistency, and the disconnect between theory and practice through an integrative approach. The article describes in detail the stages of implementing the integrative approach: diagnostic and preparatory, design and development, experimental and practical, and analysis and improvement. It also provides scientific substantiation of the psychological and pedagogical effectiveness of the integrative approach and its importance in developing cognitive abilities, motivation, and practical skills.

Keywords: integrative approach, specialized disciplines, effectiveness, interdisciplinary integration, methodology, pedagogical technology, professional competence, diagnostics, design, improvement.

Zamonaviy ta’lim tizimi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi, bu esa an’anaviy o‘qitish metodlaridan foydalanish bilan amalga oshirish qiyin. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda samaradorlik muammolari ko‘pincha fanlar o‘rtasidagi izchillikning yo‘qligi, nazariya va amaliyotning uzilishi, o‘quv materialining murakkabligi bilan bog‘liq. Integrativ yondoshuv ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali vositasi sifatida ko‘rilmoqda.

Integrativ ta’lim nafaqat bilimlarni birlashtirish, balki turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, muammolarni kompleks yechish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada integrativ yondoshuvning mutaxassislik fanlarini o‘qitish samaradorligiga ta’siri, uning metodologik jihatlari va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi [1].

Integrativ yondoshuv - bu turli fanlarni o‘zaro bog‘lab, ularning o‘qitilishini tashkil etishning pedagogik tamoyili bo‘lib, unda bilimlar tizimi yagona butunlikni tashkil qiladi. Bu yondoshuvning psixologik-pedagogik asoslari quyidagilardan iborat:



Integrativ yondoshuvni joriy etish tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan murakkab jarayon hisoblanadi.

Birinchi bosqich diagnostik-tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda ta’lim muassasasining mavjud holati, resurs imkoniyatlari va pedagogik kadrlarning tayyorgarlik darajasi chuqur tahlii qilinadi. Bu bosqichda integrativ ta’limning metodologik asoslari, me’yoriy-huquqiy bazasi o‘rganiladi va dasturiy-metodik ta’minotning dastlabki modeli ishlab chiqiladi.

Ikkinchi bosqich - loyihalash va rejalashtirish bosqichi. Ushbu bosqichda integrativ o‘quv dasturlari, modullar va o‘quv-metodik majmualar yaratiladi. Fanlararo bog‘lanishlarni aniqlash, ularning o‘zaro mazmuniy va metodik uyg‘unligini ta’minlash, shuningdek integrativ mashg‘ulotlarning didaktik modelini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich - eksperimental-amaliy bosqich bo‘lib, unda ishlab chiqilgan integrativ modellar va dasturlar amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. Ushbu bosqichda pedagogik kuzatuvlar, diagnostik tadqiqotlar o‘tkaziladi va dasturiy-metodik ta’minotning samaradorligi baholanadi.

To‘rtinchi bosqich - tahlil va takomillashtirish bosqichi. Eksperiment natijalari asosida integrativ yondoshuvning samaradorligi aniqlanadi, kamchiliklar bartaraf etiladi va dasturiy-metodik majmualar takomillashtiriladi. Yakuniy bosqich sifatida integratsiyalashgan ta’lim tizimini tashkil etish va uni uzluksiz takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish amalga oshiriladi.

Integrativ yondoshuvning ta’lim samaradorligi uning ko‘p qirrali psixologik-pedagogik va metodologik afzalliklarida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondoshuv orqali o‘qitilgan talabalarning bilimlari an’anaviy usulda o‘qitilgan talabalarnikiga nisbatan uzoqroq xotirada saqlanadi va amaliyotda samaraliroq qo‘llaniladi. Bu holat, birinchi navbatda, bilimlarning strukturasi va idrok etilishining psixologik qonuniyatlariga asoslanadi [2, 3].

Integrativ yondoshuv bilimlarni izchil tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Turli fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni kognitiv darajada qurish bilimlarning assotsiativ tarmog‘ini mustahkamlaydi, natijada yangi ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayoni samaraliroq amalga oshadi.

Ikkinchi tomondan, integrativ yondoshuv o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, sintez qilish va qiyosiy tahll kognitiv operatsiyalarni faollashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ darslarda o‘qigan talabalarning kreativlik ko‘rsatkichlari va muammolarni yechish qobiliyati sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Uchinchi jihatdan, integrativ yondoshuv motivatsion faktor sifatida ham samaradorlikni oshiradi. O’quvchilar turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rganlarida, o‘qitilayotgan materialning amaliy ahamiyatini tushunishlari osonlashadi. Bu esa o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va ichki motivatsiyani shakllantiradi.

To‘rtinchi omil sifatida, integrativ yondoshuvning amaliy yo‘nalganligini ta’kidlash lozim. Bu yondoshuv talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi, chunki professional faoliyatda ko‘pincha bir nechta soha bilimlarini integratsiyalash talab qilinadi. Natijada, integrativ yondoshuv orqali tayyorlangan mutaxassislar o‘z kasbiy vazifalarini ancha samarali bajaradilar.

Nihoyat, integrativ yondoshuv ta’limning individual va differensiallashgan xususiyatini ta’minlaydi. Turli fanlarni o‘zaro bog‘lash orqali har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatlariga mos ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa o‘quv jarayoni samaradorligini yanada oshiradi [4, 5].

Xulosa qilib, Integrativ yondoshuv mutaxassislik fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishning zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. U nafaqat bilimlarning sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularni murakkab va o‘zgaruvchan dunyoga tayyorlashga yordam beradi.Integrativ yondoshuvni muvaffaqiyatli joriy etish uchun o‘quv dasturlarini qayta ishlash, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va baholash tizimini takomillashtirish zarur. Ushbu yondoshuvni amalga oshirish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirib, jamiyatning raqobatbardosh mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.Integrativ ta’lim nafaqat pedagogik usul, balki zamonaviy ta’lim falsafasidir, u bilimlarning butunligi, amaliy ahamiyati va ijtimoiy zarurat bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Kamolova Nigora, Xadjamuratova Zulfiya, Haydarov Sulaymon, & Haydarov Sulaymon. (2025). Mutaxasisslik fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda integrativ yondashuv . tadqiqotlar, 73(1), 238-241. https://journalss.org/index.php/tad/article/view/3512

2.Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... . -Toshkent: TDPU, 2006. - 263 bet

3.I.R.Dusbayev. International Scientific and Practical Conference Science, education, innovation: modern tasks and prospects, Tashkent Institute of Economics and Pedagogy. https://tipi.uz/ May 3, 2024 11-13 betlar.

4.N.A. Ergasheva. Zamonaviy pedagogik ta’limda integratsiyaning ahamiyati va o‘rni. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia https: econferencezone.org May 23rd 2023.

5.Muydinovich R.I. Integrity and continuity of computer science in the system of continuing education. In E Conference Zone 2022, April (pp. 322-326).

O’ZBEKISTONDA TA’LIM INTEGRATSIYASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Jabbarov Majidbek Erzodovich
Ma’mun universiteti katta o‘qituvchisi
Telefon:+998(50) 511-30-81
E-mail: jabbarovmajidbek2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekistonda ta’lim tizimi rivojlanishi va uning xalqaro integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq tahliliy ma’lumotlar, muammolar va uni rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлены аналитические данные, связанные с развитием системы образования в Узбекистане и процессами ее международной интеграции, проблемы и предложения по перспективам ее развития.

Abstract. This article presents analytical data related to the development of the education system in Uzbekistan and its international integration processes, problems, and proposals for its development prospects.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sifati; Xalqaro standartlar; O’zbekiston ta’limi; PISA natijalari; Oliy va umumiy ta’lim; Kompetensiyalar; Ta’lim islohotlari

Ключевые слова: Качество образования; Международные стандарты; Образование в Узбекистане; Результаты PISA; Высшее и среднее образование; Компетенции; Реформы образования

Keywords: Education quality; International standards; Education in Uzbekistan; PISA results; Higher and secondary education; Competencies; Education reforms

Kirish. Globallashuv davrida milliy ta’lim tizimlari xalqaro bilim maydoniga integratsiyalashish zaruriyati bilan duch kelmoqda. Ta’lim sifati, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni samarali yo‘naltirish milliy rivojlanishning asosiy omillari sifatida ajralib turadi.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

-maktabgacha ta’lim;
-umumiy o‘rta ta’lim;
-o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
-oliy ta’lim;
-oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
-kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
-maktabdan tashqari ta’lim.

O’zbekiston ta’lim tizimi so‘nggi yillarda tub islohotlarga kirib, xalqaro standartlarga moslashuvni kuchaytirmoqda. Bu jarayon quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Umumiy va oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish;
- Xalqaro akkreditatsiya va baholash tizimlarida ishtirok etish;
- Talabalar kompetensiyalarini oshirish va PISA, TIMSS kabi xalqaro testlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishni ta’minlash;
- Ilmiy faoliyatni SCOPUS va Web of Science kabi xalqaro bazalarga yo‘naltirish.

Shu bois, ushbu maqola O’zbekiston ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvini, amalga oshirilgan islohotlarni, mavjud muammolarni va kelajak istiqbollarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tadqiqotda quyidagi metodlar ishlatilgan:

1. **Nazariy-metodologik tahlil:** Xalqaro (OECD, UNESCO, ISO, ENQA) va milliy standartlar tahlil qilindi.

2. **Empirik kuzatuv:** 2018–2022 yillardagi PISA testlari natijalari, maktab va oliy ta’lim statistikalari o‘rganildi.

3. **Taqqoslash:** Milliy ko‘rsatkichlar xalqaro standartlar bilan solishtirildi.

Metodologiya kombinatsiyasi mamlakat ta’lim tizimining real holatini batafsil va ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar

1. PISA 2018–2022 natijalari

Yil	Matematika	O’qish	Tabiiy fanlar
2018	380	347	360
2022	364	336	355

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari biroz pasaygan, o‘qish bo‘yicha esa barqarorlik saqlangan. Bu o‘zgarishlar ta’lim sifatini oshirish va pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish zaruratini ko‘rsatadi.

2. Umumiy va oliy ta’lim statistikalari

Ko‘rsatkich	Ma’lumot (2023/2024)	Manba
Maktablar soni	10 224	Statistika agentligi
O’quvchilar soni	6,8 mln	Statistika agentligi
O’qituvchilar soni	520 000	Statistika agentligi
Oliy ta’lim muassasalari	198	Statistika agentligi
Talabalar soni	1 mln+	Statistika agentligi
Xorijlik talabalar	14 200	O’zA

Ushbu ko‘rsatkichlar O’zbekiston ta’lim tizimining hajmini va global integratsiyaga tayyorgarligini ko‘rsatadi.

4. Ta’limdagi islohotlar va ularning natijalari

1. **Kredit-modul tizimi:** Talabalarga mustaqil o‘qish imkoniyati berildi, akademik mobillik oshdi.

2. **Xalqaro akkreditatsiya:** 30 dan ortiq ta’lim dasturi AQAS, FIBAA va ASIIN kabi agentliklar tomonidan akkreditatsiyadan o‘tdi.

3. **Raqamli ta’lim:** Moodle, EdX platformalari keng qo‘llanmoqda; onlayn baholash tizimi joriy qilindi.

4. **Ilmiy faoliyat:** SCOPUS va WoS bazalaridagi maqolalar soni yiliga 25–30% ga oshmoqda, bu ilmiy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama

O’zbekiston ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashishda ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda:

- Pedagogik malakani oshirish, yangi metodikalarni joriy etish va raqamli texnologiyalardan foydalanish.
- Ilmiy infratuzilmani kuchaytirish, laboratoriyalar va ilmiy grantlar sonini oshirish.
- O’quv dasturlarini xalqaro kompetensiyalarga moslashtirish.

Biroq ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda:

- O’qituvchilarni malaka oshirish jarayoni yetarli darajada emas.
- Ayrim maktab va OTMlar xalqaro standartlarga mos infratuzilmaga ega emas.
- Talabalar kompetensiyalari va natijalari hali ham xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichdan past.

Shu bilan birga, davlat tomonidan qabul qilingan islohotlar va sarmoyalar tufayli bu muammolar asta-sekin yechilmoqda.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

1. O’zbekiston ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashuv yo‘lida izchil islohotlar olib bormoqda.

2. PISA, maktab va oliy ta’lim statistikalari milliy ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘yicha asosiy indikatorlarni belgilaydi.

3. Kelgusida pedagogik malakani oshirish, ilmiy va laboratoriya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

4. Raqamli ta’lim platformalari va xalqaro akkreditatsiya jarayonlari ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Umumiy o‘rta va oliy ta’lim statistikasi*, 2023–2024. https://stat.uz

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (UzEdu). *Ta’lim statistika bo‘limi*. https://uzedu.uz/uz/page/statistics

3. O’zbekiston Milliy axborot agentligi (O’zA). *Xorijlik talabalar soni bo‘yicha ma’lumot.* https://uza.uz

4. UNESCO, OECD. *International Assessment Reports*.

5. https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_ed6fbcc5-en/uzbekistan_2bb94bf1-en.html

PEDAGOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDA AXBOROT-TA’LIM MUHITI VA XALQARO TAJRIBALAR

Jo‘raboyeva Sevinch Egamberdi qizi
Andijon davlat texnika instituti “Avtomobilsozlik va transport” fakulteti
“Logistika” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi Email: sevinchjurabaeva896@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida axborot-ta’lim muhiti va xalqaro tajribalarning o‘rni, ular orqali kasbiy o‘sish va rivojlanish haqida ma’lumotlar xalqaro tajribalarning mamlakatimiz va chet davlatlarda qo‘llanilish misollarida keltirib o‘tiladi. Shuningdek, boshqa davlatlarning ta’lim tajribalari va dasturlari orqali davlatimizda iqtisodiy va global o‘sish ko‘zda tutiladi.

Kalit so‘zlar: OTM(Oliy Ta’lim Muassasalari), umumta’lim maktablari, Cambridge Press University, SCOPUS, Web of Science, BIS(baholash va sinov tiimi),IGCSE(International General Certificate of Secondary School)

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida, ularning ta’lim olish yoki berish tizimlaridan tashqari xalqaro tajribalar, ma’lumotlar omborining kengligi, ta’lim dasturining ommabop va zamon talablariga javob berishi ham muhim omillardan hisoblanadi. Bunda, pedagoglar nafaqat ta’lim dasturini bilishi balki, xalqaro ma’lumotlar omboridan foydalana olishi va dasturiy tajribalardan habardor bo‘lishi darkor hisoblanadi. Hozirda, bizning mamlakatimizga horijdan bir nechta dars ta’limiy dasturlari kirib kelmoqda, bu o‘rinda bunday xalqaro dasturlardan foydalanib faoliyat yuritishda albatta pedagoglarning o‘zlari ham bu dasturlardan yetarli darajada habardor, ulardan dars jarayonida foydalana olish, qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak bo‘ladi.

Tabiiyki, pedagoglar ish faoliyatini yuritishlaridan avval, mutaxasislik fanlaridan oliy ta’lim muassasalarida(OTM) ta’lim oladilar. Oliy ta’limda xalqaro tajribalar orqali talabalar amaliyot darslarini ko‘nikmalarni shakllantirish orqali o‘qiy oladilar. Bu o‘z o‘rnida talabalarga yaxshiroq o‘zlashtirish, intellektual o‘sish va nazariy bilimlarni amaliyotda xalqaro usullarda qo‘llashga imkoniyat yaratadi.

“Yaponiya oliy ta’lim tizimi jahon miqyosida o‘zining yuqori sifati, innovatsion yondashuvi va sanoat bilan integratsiyasi bilan mashhur. Yaponiyada oliy ta’lim muassasalari talabalarni mustaqil fikrlashga, innovatsion yechimlar ishlab chiqishga va amaliy ko‘nikmalarga ubdaydi.” [2]

“Tadqiqotda Yaponiya va O’zbekiston oliy ta’lim tizimlarini solishtirish uchun solishtirma tahlil usuli qo‘llanildi.

Ma’lumotlar manbalari sifatida Scopus va Web of Science platformalarida chop etilgan ilmiy maqolalar, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy hisobotlari, shuningdek yaponiyaning ta’lim sohasiga oid statistik ma’lumotlari ishlatildi.

Tahlil jarayonida quyidagi ko‘rsatkichlar asos qilib olindi:

1. Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o‘rni.
2. Ilmiy nashrlar soni va sifati(Scopus va Web of Science ma’lumotlari) “[3]

Bunday mamlakatimizga chetdan kirib kelgan ta’limiy dasturlarga misol qilib, umumta’lim maktablarida qo‘llanilayotgan “Cambridge university press” va “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” hamkorligidagi dasturni ham misol qilib olish mumkin.

“ Kembrij o‘rta maktabi odatda 14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan.U o‘quvchilarga Cambridge IGCSE orqali yo‘nalishni taklif qiladi.

O’rta ta’limning xalqaro umumiy sertifikati (GCSE) ingliz tilidan imtihon bo‘lib, talabalarga ularni A darajasiga yoki keyingi xalqaro ta’limga tayyorlash uchun taklif etiladi.Talaba 10-sinf boshida dasturni o‘rganishni boshlaydi va yil oxirida imtihon topshiradi.

Kembrij IGCSE o‘quv dasturi keng ko‘lamli qobiliyatga ega, shu jumladan birinchi tili ingliz tili bo‘lmagan talabalar uchun turli yo‘nalishlarni taklif etadi.

Asosiy fanlarning poydevoridan boshlab, kenglik va o‘zaro o‘quv istiqbollarini qo‘shish oson.Talabalarni turli fanlar bilan shug‘ullanishga va ular o‘rtasida aloqa o‘rnatishga undash bizning yondashuvimiz uchun asosdir.

Talabalar uchun Cambridge IGCSE ijodiy fikrlash, izlanish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi.Bu ilg‘or o‘rganish uchun mukammal tramplindir.

Bu dastur dars jarayonini quyidagi tartibda rejalashtiradi:

- Mavzu mazmuni
- Yangi va tanish vaziyatlarda bilim va tushunishni qo‘llash
- Intellektual so‘rov
- O’zgarishlarga moslashuvchanlik va sezgirlik
- Ingliz tilida ishlash va muloqot qilish
- Natijalarga ta’sir qilish
- Madaniy xabardorlik.

BIS Cambridge IGCSE ni ishlab chiqishda ishtirok etgan.O’quv dasturlari xalqaro ko‘rinishga ega, ammo mahalliy ahamiyatga ega.Ular xalqaro talabalar jamoasi uchun maxsus yaratilgan va madaniy tarafkashlikdan qochishadi.

Cambridge IGCSE imtihon sessiyalari yiliga ikki marta, iyun va noyabr oylarida bo‘lib o‘tadi.Natijalar avgust va yanvar oylarida chiqariladi.”[1]

Ushbu dastur pedagoglarga, xalqaro tajriba va dasturlardan foydalanish orqali dars jarayonlarini yanada tushunarli, tartibli va baholash tizimini aniq va yengillashtirish orqali dars o‘tish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu dasturdan hozirda mamlakatimiz bo‘ylab barcha umumta’lim maktablari foydalanmoqda.

Xalqaro talimdagi tajribalarga yana bir yorqin misol Germaniya ta’lim tizimi bo‘la oladi deb oylayman. Germaniy ta’lim berish bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan hisoblanib, u chet davlatlar talabalariga ham ta’lim berib kelmoqda.Hozirda Germaniyada 400 mingga yaqin yurtdoshlarimiz ta’lim olib istiqomat qilishadi.

“Germaniya ta’lim tizimi: Germaniya jahon ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega.

Maktab ta’lim tizimi boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul.

Germaniyada maktab ta’limi quyidagi maktab tiplariga bo‘linadi: boshlangi’ch maktab; yo‘nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab.

Boshlang‘ich maktab ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish maktabga o‘tishadi. Asosiy yoki to‘liq xalq maktabi boshlang‘ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o‘quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o‘qituvchilari o‘zlarini o‘qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o‘quvchilar yomon o‘zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta’lim olishiga majbur bo‘lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo‘lib, odatda 5-10-sinflarni o‘z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta’lim beradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mas’uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yadigan kasb egalari bo‘lishi uchun kasbiy ta’lim kurslariga tayyorlaydi.

Germaniya ta’lim tizimi: Germaniya jahon ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta’lim tizimi boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul. Germaniyada maktab ta’limi quyidagi maktab tiplariga bo‘linadi: boshlangi’ch maktab; yo‘nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab. Germaniya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o‘rin olishda o‘zini oqlab kelayotgan ta’lim tizimi mavjud.”[4]

Chet davlatlarning ta’lim tajribalarini qo‘llash orqali o‘qituvchilarni qulay atmosfera va keng qamrovli ma’lumotlar ombori bilan ta’minlash, ta’lim sifatining oshishi va global raqobatlashuvni oshira olamiz. Boshqa ta’lim dasturlari bilan tanishish va ularni amaliyotda sinab ko‘rish orqali, biz dunyoqarash va intellektual salohiyatimizni kengaytira olamiz. Bunday usullar zamonaviy ta’lim tizimida ilg‘or davlatlar ro‘yxatiga kirib global raqobatlashish imkoniyatini yaratib beradi.

Xalqaro tajriba va axborotlardan foydalanish orqali pedagoglar raqamli texnologiyalardan foydalanish, muammolarni oson hal qilish, malaka oshirish va bilimlarini amalda sinab ko‘rish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Bunday tajriba va dasturlar o‘quvchilarda yangi ko‘nikmalar, yangiliklardan habardor bo‘lish va ularga ko‘nikish, ijodkorlik, jamoaviy ishlash va tanidiy fikrlash kabi bilimlarni o‘zlashtirishlari mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek:

“Ta’limda xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash,oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etmoq zarur”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://uz.bisguangzhou.com/cambridge-international-upper-secondary-curriculum-product/
2. University of Tsukuba (2020) Annual Report on Higher Education and Research.
3. Yaponiya tajribasini O’zbekiston oliy ta’lm tizimida qo‘llash imkoniyatlari. O.O.Jakbarov
4. Shavkat Mirziyoyev oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi. https://kun.uz/71003202

FAN VA TA’LIMNI XALQARO VA MILLIY TAJRIBAGA ASOSAN RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Murtazoyev Baxtiyor Axrorovich
Ravshanov Jo‘rabek Ravshan o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti
Yo‘l muhandisligi kafedrasi o‘qituvchilari
E-mail: ravshanovjurabek@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada fan va ta’lim tizimini xalqaro hamda milliy tajribalar asosida rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Jahon miqyosida qo‘llanilayotgan ilg‘or ta’lim texnologiyalari, raqamli o‘qitish metodlari, pedagogik innovatsiyalar va ta’lim sifati monitoringi kabi yondashuvlar ko‘rib chiqilgan hamda ularning O’zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilish imkoniyatlari o‘rganilgan. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar, islohotlar, milliy kadrlar tayyorlash modeli va zamonaviy ta’limni boshqarish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fan va ta’lim; xalqaro tajriba; milliy tajriba; pedagogik innovatsiyalar; raqamli ta’lim; ta’lim boshqaruvi; kadrlar tayyorlash tizimi; ta’lim sifati; uzluksiz ta’lim; modernizatsiya

Kirish (introduction) Bugungi globallashuv jarayonida fan va ta’lim tizimining jadal rivojlanishi davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biriga aylangan. Xalqaro miqyosda ilg‘or ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish, ilmiy yangiliklarni joriy qilish, o‘qitish metodlarini modernizatsiya qilish hamda raqamli ta’limni amaliyotga keng tatbiq etish orqali jamiyatning kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan O’zbekiston ham fan va ta’limni modernizatsiya qilish, uni milliy va xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishni ustuvor vazifa qilib belgilagan. So‘nggi yillarda ta’lim dasturlarini yangilash, o‘quv standartlarini xalqaro ECTS (European Credit Transfer System), ISO 21001 kabi tizimlarga moslashtirish, ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, oliygohlarni xalqaro reytinglarga olib chiqish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy amaliyotga moslasha olish fan va ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy sharti bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot O’zbekiston sharoitida fan va ta’limni rivojlantirish mexanizmlarini xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Metodologiya (methods) Maqola quyidagi ilmiy metodlar asosida tayyorlandi:

1. Tahliliy qiyosiy metod – Yevropa, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH va O’zbekiston ta’lim tizimlari solishtirildi.

2. Normativ-huquqiy tahlil – ta’lim sohasidagi milliy qonunchilik, Prezident farmonlari, rivojlangan davlatlar ta’lim standartlari o‘rganildi.

3. Statistik baholash – xalqaro reytinglar (QS, ARWU va THE), ilmiy nashrlar soni, talaba qamrovi bo‘yicha mavjud ma’lumotlar tahlil qilindi.

4. Ekspert yondashuvi – oliygoh o‘qituvchilari, tadqiqotchilar hamda xalqaro tashkilotlarning ilmiy xulosalari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari asosida O’zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar (results)

1. Xalqaro tajribada ta’limni rivojlantirishning umumiy tendensiyalari:

Tahlil natijalariga ko‘ra, rivojlangan davlatlarda ta’lim taraqqiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Ta’limning raqamlashtirilishi – masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt, elektron baholash tizimlari.

- Hayot davomida o‘qish (LLL – Lifelong Learning) konsepsiyasining joriy etilishi.

- Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi – universitetlar “klaster”, “texnopark”, “startup ekotizimlari” bilan bog‘langan.

- Baholashning kompetensiyaga asoslangan modeli – bilim emas, amaliy ko‘nikmalar ustuvor.

- Akademik mobillik va diplomlar tan olinishi – kredit tizimlari, ikki diplomli dasturlar keng qo‘llaniladi.

2. O’zbekistonda ta’lim sohasidagi milliy tajribalar:

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida quyidagi yutuqlar kuzatilmoqda:

- Oliy ta’lim qamrovi 10 yildan kam vaqt ichida 9% dan 40% dan oshdi.
- 100 dan ortiq universitetlarda kredit-modul tizimi joriy qilindi.
- Bir qator oliygohlar xalqaro reytinglarda qayd etila boshladi.
- 60 dan ortiq qo‘shma fakultetlar ochildi.
- Ta’limga xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va xalqaro fondlar kiritilmoqda.

3. Ilmiy faoliyatdagi natijalar:

Tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- So‘nggi yillarda O’zbekiston olimlarining Scopus va Web of Science bazalaridagi nashrlari soni bir necha baravar oshgan.
- Ilmiy loyihalar soni ko‘paydi, fundamental + amaliy tadqiqotlar uchun grantlar kengaytirildi.
- Ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishlarga (IT, energetika, transport, biotexnologiya va boshqa) yo‘naltirilmoqda.

4. Rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar:

Tadqiqot quyidagi muammolarni aniqladi:

- Ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida hamkorlik yetarli darajada emas.
- Rivojlangan davlatlarga nisbatan laboratoriyalar darajasi past.
- Akademik mobillik ko‘rsatkichlari cheklangan.
- O’quv dasturlarining amaliyotga moslashuvi bo‘yicha kamchiliklar mavjud.
- Ilmiy maktablar va ilmiy merosni davom ettirish tizimi yetarli shakllanmagan.

Munozara (discussion)

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O’zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda xalqaro tajribani to‘liq ko‘chirib olish emas, balki milliy sharoitga mos holda transformatsiya qilish samarali natija beradi.

Xalqaro tajribadan moslashtirib olinishi mumkin bo‘lgan istiqbolli yo‘nalishlar:

1. Universitet–sanoat integratsiyasini kuchaytirish.
2. Ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash.
3. Sun’iy intellektdan foydalanish.
4. Hayot davomida o‘qish tizimini kengaytirish.

Milliy modelning afzalliklari:

- Yoshlar demografiyasi yuqori.
- Davlat ta’limga katta investitsiya kiritmoqda.
- Oliy ta’lim islohoti tez sur’atlarda borayapti.
- Yangi ilmiy markazlar, texnoparklar tashkil qilinmoqda.

Xulosa (conclusion)

Tadqiqot fan va ta’limni rivojlantirishda quyidagi ilmiy xulosalarni berdi:

1. Zamonaviy ta’limning rivojlanishida raqamlashtirish, amaliy ko‘nikmalar, xalqaro hamkorlik hal qiluvchi omillardir.

2. O’zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish kuzatilmoqda, biroq u xalqaro mezonlarga to‘liq moslashish jarayonini davom ettirishi lozim.

3. Ta’lim sifatini oshirish uchun:

- universitet–ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish;
- xalqaro akkreditatsiyalarni kengaytirish;
- ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiya qilish;

- raqamli ta’lim platformalaridan faol foydalanish zarur.

4. Xalqaro tajribani to‘liq ko‘chirib olish emas, balki milliy xususiyatlarga mos innovatsion model yaratish eng maqbul yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (references)

1. OECD. Education at a Glance 2023. Paris: OECD Publishing.
2. UNESCO (2022). Global Education Monitoring Report.
3. President of Uzbekistan. “Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”. Toshkent, 2023.
4. QS Top Universities Ranking 2024.
5. Kim, J. (2019). Higher Education Innovation in South Korea.
6. World Bank (2021). Human Capital and Learning Development Report.
7. European Commission. ECTS Users’ Guide. Brussels, 2020.

BULUTLI TIZIMLARDAGI HUJUMLARGA ERTA JAVOB BERISHNING AQLLI USULLARI

Aliqulova Madina Mo‘minjonovna
Jizzax shahar 10-maktab informatika fani o‘qituvchisi
***+998(91) 627-90-02, E-mail*:** madinaalikulovaj@gmail.com

Annotatsiya: Bulutli tizimlar resurslarni tejashga imkon beradi, apparat vositalariga katta kapital xarajatlarni oldini oladi va masshtablash va moslashuvchanlik uchun imkoniyatlar yaratadi. Bulutli xizmatlar hisoblash quvvati, ma’lumotlarni saqlash va obuna modeli orqali mavjud bo‘lgan turli xil dasturiy ta’minot yechimlarini o‘z ichiga oladi.

Barcha afzalliklarga qaramay, bulutli tizimlar ma’lumotlar va ilovalar uchun bir qator xavfsizlik xavflariga ega. Bulutli infratuzilmalarga qarshi hujumlar tobora murakkablashib bormoqda va xilma-xil bo‘lib bormoqda, bu esa yangi xavfsizlik usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu tahdidlarga samarali javob berish nafaqat shifrlash va autentifikatsiya kabi an’anaviy xavfsizlik usullaridan foydalanishni, balki real vaqt rejimida tahdidlarni aniqlash va ularga javob berishga qodir aqlli texnologiyalarni joriy etishni ham talab qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi bulutli tizimlarda hujumlarga erta javob berishning aqlli usullarini o‘rganishdir. Maqolada bulutli infratuzilma xavfsizligini ta’minlash uchun mashina o‘rganish, sun’iy intellekt (AI) va boshqa aqlli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bulut xavfsizligi, tahdidlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish, kiberhujum, himoya usullari, sun’iy intellekt, erta javob.

IT sektori bulutli hisoblashdan foydalanishning barqaror o‘sishini kuzatmoqda, bu butun dunyo bo‘ylab tashkilotlarga xarajatlarni tejash, miqyoslash va moslashuvchanlik ko‘rinishida sezilarli foyda keltirmoqda. Bulutli infratuzilmaga o‘tish bilan bulutli xavfsizlik - bulutli resurslar, axborot va dasturiy ta’minotni himoya qilish uchun mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan chora-tadbirlar to‘plami - juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralar foydalanuvchilar va uskunalarni qat’iy autentifikatsiya qilish, ma’lumotlar maxfiyligini saqlash va resurslarga kirish huquqlarini tartibga solishga qaratilgan. Biznes bulutga o‘tishi bilan shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish juda muhim ahamiyatga ega [1]. Biroq, bulutli texnologiyalardan foydalanish o‘ziga xos xavfsizlik xavflaridan xoli emas, bu esa potentsial xavf va tahdidlarga qanday samarali qarshi turishni chuqur tushunishni talab qiladi.

Bulutli hisoblash ko‘plab keng tarqalgan tahdidlarga moyil. Buning sababi shundaki, bulut platformasi butunlay texnologiyaga asoslangan, ya’ni u istalgan vaqtda potentsial kibertahdidlarga duch kelishi mumkin. Masalan, ma’lumotlarning oqishi ko‘pincha bu kontekstda sodir bo‘ladi. Ular ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish yoki uning o‘g‘irlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, ma’lumotlarning oqishi tashkilotga maxfiy ma’lumotlarni oshkor qiladi, bu esa obro‘ va moliyaviy

yo‘qotishlarga salbiy oqibatlarga olib keladi. Eng keng tarqalgan tahdidlar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. DDoS hujumlari. Bu hujumlar

turli manbalardan katta hajmdagi so‘rovlarni yuborish orqali serverlarga yuk yaratishga qaratilgan bo‘lib, natijada xizmat ko‘rsatish rad etiladi [8]. Bunday hujumlardan ham siyosiy maqsadlarda, ham jiddiyroq tahdidlardan e’tiborni chalg‘itish uchun foydalanish mumkin.

2. Ruxsatsiz kirish. Ushbu turdagi tahdid

ham tashqi hujumlarni (masalan, dasturiy ta’minot zaifliklaridan foydalanish yoki ijtimoiy muhandislik), ham ichki tahdidlarni, masalan, shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan maxfiy ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lgan xodimlarni o‘z ichiga oladi.

3. Ma’lumotlarning oqishi. Bulutli tizimlar ko‘pincha

foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini, tranzaksiya ma’lumotlarini va boshqa muhim ma’lumotlarni saqlaydi. Ushbu ma’lumotlarning oqishi foydalanuvchilar uchun jiddiy oqibatlarga va provayderlar uchun huquqiy va moliyaviy jarimalarga olib kelishi mumkin.

4. Tarmoq infratuzilmasiga hujumlar. Bularga ma’lumotlarni ushlab qolish (o‘rtadagi odam hujumlari), tranzitdagi ma’lumotlarni o‘zgartirish,

shuningdek, marshrutizatsiya tizimiga hujumlar kiradi [4].

Bulutli tizimlarda xavfsizlik

bir nechta qatlamlarga

asoslangan bo‘lib, ularning har biri himoyaning ma’lum bir jihati uchun javobgardir. Asosiy elementlarga quyidagilar kiradi [9]:

• Shifrlash. Bulutda saqlangan barcha ma’lumotlar ham dam olish vaqtida, ham uzatish paytida shifrlangan bo‘lishi kerak. Bu tajovuzkorlar tomonidan ushlab qolish va ularga kirishning oldini oladi.

• Ko‘p faktorli autentifikatsiya. Foydalanuvchi hisoblari va ma’muriy kirishni himoya qilish uchun ko‘p faktorli autentifikatsiya (MFA) qo‘llaniladi, bu foydalanuvchidan o‘z shaxsini tasdiqlovchi bir nechta dalillarni taqdim etishni talab qiladi.

• Xavfsizlik monitoringi. IDS (Intrusion Detection Systems) va IPS (Intrusion Prevention Systems) kabi monitoring tizimlari bulut muhitidagi anomal faollikni kuzatish va unga darhol javob berish uchun ishlatiladi.

Intrusion Detection Systems (IDS) va Intrusion Prevention Systems (IPS) kabi an’anaviy monitoring tizimlari bulut xavfsizligining asosini tashkil qiladi. Ushbu tizimlar foydalanuvchilarning anomal xatti-harakatlarini va tarmoq operatsiyalarini, jumladan, trafikning kutilmagan o‘sishini va ruxsatsiz kirishga urinishlarni aniqlaydi [2]. Ular shuningdek, tarmoq trafikini tahlil qiladi, DDoS hujumlari va boshqa anomal faollik turlarining belgilarini aniqlaydi. Nihoyat,

agar tahdidlar real vaqt rejimida aniqlansa,

ular zararli so‘rovlarni blokirovka qilish orqali,

intrusionlarning oldini olishlari mumkin.

Keng qo‘llanilishiga qaramay, an’anaviy xavfsizlik usullari bir qator muhim kamchiliklarga ega. Birinchidan, ular noto‘g‘ri ijobiy natijalar ehtimoli yuqori bo‘lishiga moyil bo‘lib, bu tizimning istalmagan yuklanishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, ular ko‘pincha moslashuvchanlikka ega emaslar va yangi kiruvchi ma’lumotlardan o‘rganish qobiliyatiga ega emaslar, bu esa o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishni qiyinlashtiradi. Uchinchidan, ular yangi, ilgari ko‘rilmagan kiberhujum turlarini aniqlash va yumshatish uchun kurashadilar. An’anaviy tizimlarda qo‘llaniladigan tasniflash va imzo tahlili usullari oldindan belgilangan naqshlar asosida tahdidlarni aniqlaydi. Bu usullar ma’lum hujumlarga qarshi yaxshi ishlaydi, ammo yangi, noma’lum tahdidlarga qarshi yomon ishlaydi. Oldindan belgilangan naqshlarga mos kelmaydigan anomal hodisalar aniqlanmasligi mumkin.

Mahalliy resurslarda saqlangan ma’lumotlarni himoya qilishning an’anaviy paradigmasi doirasida xavfsizlikni ta’minlash uchun mas’uliyat yuki butunlay foydalanuvchiga tushadi. Mahalliy zaxira nusxalarini tashkil qilish katta vaqt, material va mehnat xarajatlarini talab qiladi,

shuningdek, apparat va jismoniy maydonga qo‘shimcha investitsiyalarsiz masshtablashni qiyinlashtiradi [5]. Bu yondashuv IT mutaxassislarining tajribasi va doimiy nazoratiga juda bog‘liq. Qo‘lda boshqarishga ishonish nafaqat jarayonni resurslarni ko‘p talab qiladi, balki ma’lumotlar xavfsizligini umuman xavf ostiga qo‘yishi mumkin bo‘lgan inson xatolari uchun ham imkoniyat yaratadi.

Klassik xavfsizlik usullari o‘tmishda samarali ekanligi isbotlangan bo‘lsa-da, ular jiddiy kamchiliklardan xoli emas. Doimiy texnik xizmat ko‘rsatish zarurati, sezilarli darajada dastlabki kapital qo‘yilmalar va masshtablashdagi qiyinchiliklar zamonaviy biznes duch keladigan muhim muammolardan faqat bir nechtasidir. Bu avtomatlashtirilgan, osongina kengaytiriladigan va tejamkor xavfsizlik yechimlariga bo‘lgan shoshilinch ehtiyojni ta’kidlaydi.

Mashinaviy o‘rganish bulut xavfsizligi uchun muhim vositaga aylanib bormoqda. Oldindan belgilangan imzolarga tayanadigan an’anaviy tizimlardan farqli o‘laroq, mashinaviy o‘rganish algoritmlari ma’lumotlardan o‘rganishi va potentsial tahdidlarni ko‘rsatadigan naqshlarni topishi mumkin [6].

Xavfsizlik nuqtai nazaridan mashhur mashinaviy o‘rganish usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Hujumlarni bashorat qilish yoki tasniflash uchun tasniflash va regressiya. • Ma’lumotlarni guruhlash, normal xatti-harakatlardan chetga chiqadigan anomaliyalarni aniqlash imkonini beruvchi klasterlash.

• Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va yashirin naqshlarni aniqlash uchun chuqur o‘rganish, ayniqsa neyron tarmoqlaridan foydalanish.

Bulut xavfsizligida chuqur o‘rganish neyron tarmoqlaridan foydalanish an’anaviy usullar yordamida aniqlash qiyin bo‘lgan murakkab bog‘liqliklar va naqshlarni aniqlash imkonini beradi.

Chuqur o‘rganish turli darajadagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan ko‘p qatlamli arxitekturalardan foydalangan holda tahdidlarni tasniflash va bashorat qilish muammolarini samarali hal qiladi.

Chuqur o‘rganishga misol qilib, tarmoq trafikidagi vaqt qatorlari ma’lumotlarini tahlil qilish uchun takroriy neyron tarmoqlaridan (RNN) foydalanishni keltirish mumkin, bu esa tarixiy ma’lumotlarga asoslanib potentsial hujumlarni bashorat qilish imkonini beradi [2].

Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va tahdidlarni bashorat qilish uchun modellar yaratishga qodir. Masalan, AI yangi tahdidlarning paydo bo‘lishini bashorat qilish va foydalanuvchi yoki tizim xatti-harakatlaridagi yaqinlashib kelayotgan hujumni ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash uchun tarixiy xavfsizlik ma’lumotlaridan foydalanishi mumkin [3].

Hujumga erta javob berish uchun samarali modellarni ishlab chiqish nafaqat foydalanuvchi xatti-harakatlarini, balki trafik xususiyatlarini, so‘rov parametrlarini va boshqa ko‘rsatkichlarni ham hisobga oladigan kompleks yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Ushbu modellar moslashuvchan bo‘lishi mumkin, bu esa yangi turdagi tahdidlarga tezkor javob berish imkonini beradi.

Normallashtirish - bu ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash usuli. Bundan tashqari, oldindan qayta ishlash asl ma’lumotlarni tozalash va o‘rganish algoritmlarining samaradorligini oshirish uchun ishlatiladigan usuldir [7]. Boshqacha qilib aytganda, agar ma’lumotlar bir nechta manbalardan to‘plansa, u xom tarzda to‘planadi, bu esa qayta ishlash va mashinada o‘rganishni imkonsiz qiladi. Oddiy xususiyatlarni masshtablash, min-max va boshqalarni o‘z ichiga olgan ko‘plab taniqli normallashtirish usullari mavjud. Dastlab, uzluksizlik tenglamasidan foydalanib, odatda oddiy xususiyatlarni masshtablash yondashuvi qo‘llaniladi [6]:

$Xnorm = Xold/\text{Xmax}$

Min-Max usulida ma’lumotlarni belgilangan diapazonga, odatda 0 dan 1 gacha masshtablash orqali, standart og‘ishlar cheklangan diapazonga qarab kamayadi. Tenglama Min-Max uchun masshtablash tenglamasidir.

$Xnorm = Xold - Xmin/\text{Xmax} - \text{Xmin}$

Bulutli hisoblash tizimlariga kiberhujumlarni oldindan bilish uchun konvolyutsion neyron tarmog‘idan foydalanish mumkin.

Shubhali IP-manzillarni blokirovka qilish yoki buzilgan tizimlarga kirishni cheklash kabi vazifalarni avtomatlashtirish orqali sun’iy intellekt real vaqt rejimida tahdidlarni tez va samarali ravishda kamaytirishga yordam beradi [9]. Ushbu avtomatlashtirish javob berish vaqtini — hodisani aniqlash va zarur qarshi choralarni amalga oshirish orasidagi vaqtni qisqartiradi. Tezroq va aniqroq javob himoya choralarini ma’lum jarayonga, tarmoq trafigiga va foydalanuvchi kirish kontekstiga moslashtirish imkonini beradi.

Bu aniqlik qonuniy faoliyatdan kelib chiqadigan tahdidlarni kamaytirish bo‘yicha samaraliroq qarorlarni qabul qilishni osonlashtiradi. Qarshi choralarni avtomatlashtirish orqali AI xavfsizlik tizimining umumiy samaradorligini oshiradi, bu esa xodimlarga tanqidiy fikrlashni talab qiladigan vazifalarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda bulut xavfsizligi ko‘plab istiqbolli sohalarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bunday misollardan biri konteynerizatsiya — dasturiy ta’minot ilovalarini va ularning bog‘liqliklarini alohida konteynerlarda ishlab chiqish va joylashtirishni o‘z ichiga olgan yondashuv bo‘lib, ko‘chma va tezkor joylashtirish imkonini beradi. Bu usul bulut xavfsizligini samarali ravishda yaxshilaydi.

Biroq, konteynerizatsiyani amalga oshirishda tashkilotlar ma’lumotlarni boshqarish va tartibga solishga muvofiqlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun, konteynerlarda mavjud bo‘lgan maxfiy ma’lumotlarning HIPAA yoki GDPR kabi sanoat standartlariga mos kelishini ta’minlash juda muhim [4].

Serversiz hisoblash ham istiqbolli yondashuvdir.

Bu yondashuv ishlab chiquvchilarga serverlar yoki server infratuzilmasini boshqarish haqida qayg‘urmasdan dasturiy ta’minotni loyihalash va ishga tushirish imkonini beruvchi dastur modelini yaratishni o‘z ichiga oladi [10]. Eng mashhur misollar qatoriga AWS Lambda, IBM Cloud Functions va Google* Cloud Functions kiradi. Ko‘pgina afzalliklariga qaramay, serversiz hisoblash, ayniqsa mavjud mahalliy tizimlar yoki uchinchi tomon xizmatlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda, muayyan integratsiya muammolarini keltirib chiqaradi. Xavfsizlik va samarali ishlashni ta’minlash uchun serversiz funksiyalar va dastur arxitekturasining qolgan qismi o‘rtasida uzluksiz o‘zaro ta’sir juda muhimdir.

Kibertahdidlarning oldini olish, aniqlash va ularga javob berish choralarini qamrab oluvchi aniq va tuzilgan rejalarni ishlab chiqish bulut muhitining xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Shuning uchun, bulut infratuzilmasini nishonga oluvchi kiberhujumlar turlarini tasniflash maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish, biznesning uzluksizligini ta’minlash va kiberjinoyatchilarning o‘sib borayotgan faoliyati bilan bog‘liq potentsial zararni minimallashtirish yo‘lidagi asosiy qadamdir [8].

Modelga misol qilib, tizimning joriy holati va hujum ehtimolini tahlil qilish asosida xavfni baholashni keltirish mumkin. Xavf modellari avtomatik ravishda himoya choralarini, masalan, ma’lum IP manzillarini blokirovka qilish yoki xavfsizlik devori konfiguratsiyalarini o‘zgartirishni faollashtirishi mumkin. Aqlli erta ogohlantirish tizimlari hujumlar va g‘ayritabiiy hodisalarni bashorat qilish uchun algoritmlardan foydalanishi mumkin. Masalan, algoritm yangi tahdidlar ehtimolini aniqlash uchun oldingi hujumlar haqidagi ma’lumotlardan foydalanishi mumkin. Agar xavf tasdiqlansa, tizim darhol administratorlarga xabar berishi yoki potentsial tahdidni blokirovka qilish jarayonini avtomatlashtirishi mumkin.

Xavfsizlik tizimlarining moslashuvchanligi ularga dinamik ravishda o‘zgarib turadigan tahdidlarga asoslangan holda strategiyalarini o‘zgartirish imkonini beradi. Masalan, tizim ma’lum foydalanuvchilarning xatti-harakatlari g‘ayritabiiy bo‘lib qolsa, ularning ishonch darajasini pasaytirishi yoki hujumga shubha qilingan taqdirda tizimlarga kirishni vaqtincha to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Haqiqiy bulutli tizimlarda mashinani o‘rganish DDoS hujumlaridan himoya qilish uchun faol qo‘llaniladi. Mashinani o‘rganish algoritmlari real vaqt rejimida trafikni tahlil qilishi va serverga so‘rovlar sonining keskin ko‘payishi kabi hujumlar belgilarini aniqlashi mumkin [3].

Masalan, odatiy hujumlar bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarga o‘rgatilgan model potentsial DDoS hujumini boshlanishidan bir necha soniya oldin bashorat qilishi mumkin, bu esa serverlarni himoya qilish uchun choralar ko‘rish imkonini beradi. Bulutda sun’iy intellektning muvaffaqiyatli qo‘llanilishiga misol sifatida ma’lumotlar oqishini aniqlash uchun mashina o‘rganish tizimlaridan foydalanishni keltirish mumkin. Sun’iy intellekt modellari foydalanuvchi harakatlarini kuzatishi va ularning xatti-harakatlaridagi ruxsatsiz kirishga urinish yoki ma’lumotlar oqishini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan anomaliyalarni avtomatik ravishda aniqlashi mumkin [1]. Agar tahdid tasdiqlansa, tizim kirishni bloklashi yoki boshqa himoya choralarini boshlashi mumkin.

Tarmoq faoliyatini tahlil qilish uchun chuqur o‘rganish va mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanish orqali AI tizimlari buzilgan ma’lumotlar yoki ichki tahdidlarni signal beruvchi anomaliyalarni aniqlashi mumkin. Masalan, agar xodim kutilmaganda ish vaqtidan tashqarida yoki g‘ayrioddiy geografik joylashuvdan maxfiy ma’lumotlarga kirishni boshlasa, AI bu anomaliyani aniqlab, hisobni vaqtincha blokirovka qilishi va shu bilan potentsial ma’lumotlarning oqishini oldini olishi mumkin [4].

Agar g‘ayritabiiy tarmoq faoliyati aniqlansa, masalan, ma’lumotlar uzatish hajmining keskin oshishi yoki tarmoq ichidagi qurilmalarning g‘ayrioddiy harakati, AI tizimi buzilgan so‘nggi nuqtalarni avtomatik ravishda ajratib qo‘yishi mumkin. Masalan, tizim tahdidning boshqa tarmoq segmentlariga tarqalishining oldini olish uchun ransomware infektsiyasi belgilarini ko‘rsatuvchi ish stantsiyasini darhol karantinga olishi mumkin.

Bulutli tizimlarda mashinani o‘rganish va AIni muvaffaqiyatli qo‘llash ko‘p miqdordagi yuqori sifatli ma’lumotlarni talab qiladi. Biroq, real hayot sharoitida ma’lumotlarning yetarli emasligi yoki sifatsiz ma’lumotlar ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi, bu esa modellarning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Foydalanuvchi ma’lumotlarini qayta ishlash uchun AI dan foydalanish maxfiylik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma’lumotlarni himoya qilish qonunlariga rioya qilish zarur.

Mashina o‘rganish va sun’iy intellektdagi yutuqlar bulutli tizimlarning xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilaydigan yangi usul va yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Eng istiqbolli sohalardan biri katta ma’lumotlarni tahlil qilish uchun chuqur o‘rganishdan foydalanish bo‘lib, bu tahdid va anomaliyalarni aniqroq va samaraliroq aniqlash imkonini beradi [2]. Reinforcement Learning (RL) kabi usullar real vaqt rejimida tarmoq infratuzilmasidagi o‘zgarishlar va tahdid dinamikasiga moslashishi mumkin.

Bundan tashqari, kelajakda aqlli xavfsizlik usullarini blokcheyn va 5G kabi yangi texnologiyalar bilan integratsiyalashuvini kutish mumkin. Masalan, bulut xavfsizlik tizimlarida blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish hujumlar va foydalanuvchi harakatlarini kuzatish uchun shaffof va xavfsiz tizimlarni yaratishga olib kelishi mumkin, bu esa bulut xizmatlariga ishonchni sezilarli darajada oshiradi.

Yana bir istiqbolli soha xavfsizlikni yaxshilash uchun xulq-atvor tahlili va kontekstual ma’lumotlardan foydalanishdir [3]. Faqat imzolar va ma’lum hujum naqshlariga tayanish o‘rniga, tizimlar foydalanuvchi harakatlarining kontekstini, masalan, joylashuv, foydalanish vaqti, ishlatiladigan qurilmalar va boshqalarni tahlil qiladi. Bu anomaliyalarni aniqroq tasniflash va noto‘g‘ri ijobiy natijalar sonini kamaytirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning rivojlanishi bilan tizimlar tobora ko‘proq o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘zini o‘zi ta’minlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Kelajakda xavfsizlik tizimlari operator aralashuvisiz o‘zgaruvchan tahdidlarga javoban o‘z parametrlarini avtomatik ravishda sozlashi mumkin. Masalan, tizimlar xavfsizlik algoritmlarini mustaqil ravishda yangilashi, trafikni filtrlash qoidalarini o‘zgartirishi va AI bashoratlariga asoslanib, hali aniqlanmagan hujumlarning oldini olishi mumkin. Aqlli usullarni an’anaviy mudofaa usullari bilan birlashtirgan gibrid modellar kelajakda tobora muhim rol o‘ynaydi.

Bunday tizimlar AI ning yuqori javob tezligini xavfsizlik devorlari, buzg‘unchilikni aniqlash tizimlari va boshqalar kabi an’anaviy xavfsizlik vositalarining ishonchliligi va tasdiqlangan samaradorligi bilan birlashtira oladi.

Zamonaviy bulut texnologiyalari biznes uchun moslashuvchanlik va miqyoslanish nuqtai nazaridan sezilarli afzalliklarni taqdim etadi, ammo ular yangi xavfsizlik muammolarini ham yaratadi. Bulutli xizmatlarga qilingan hujumlar tobora xilma-xil va murakkablashib bormoqda, bu esa ularni himoya qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganishga asoslangan aqlli usullar bulutli tizimlarning xavfsizligini ta'minlashning eng istiqbolli vositalarini ifodalaydi. Erta hujumga javob berish tizimlarida mashinani o'rganish va AI dan foydalanish mudofaa samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Algoritmlar yangi tahdidlarga moslashishi, hujumlarni bashorat qilishi va ularni zararsizlantirish uchun avtomatik ravishda choralar ko'rishi mumkin. Bu nafaqat xavfsizlikni yaxshilaydi, balki hodisalarga javob berish vaqtini qisqartiradi va potentsial zararni minimallashtiradi.

*Roskomnadzor iltimosiga binoan, sizga Google axborot resurslariga egalik qiluvchi xorijiy tashkilot Rossiya Federatsiyasi qonunlarini buzayotganini ma'lum qilamiz – muharrir eslatmasi.

Adabiyotlar:

1. Bilgil N., Trajtenberg N., Ebi M. So'rovnomalarda kiberjinoyatchilik va kiberdeviansni o'lchash. - Routledge, 2023. - 250 b.

2. Chen H., Zhou J., Yu S. Bulutli hisoblash xavfsizligi uchun mashinani o'rganish. - Springer, 2020. - 180 b.

3. McDermott J.M., Laporta T.F. Kiberxavfsizlik uchun sun'iy intellekt va mashinani o'rganish: Zamonaviy texnologiyalar. - Springer, 2021. - 210 b.

4. Zhang J., Li Z. Bulutli xavfsizlik va maxfiylik: Amaliy qo'llanma. - Elsevier, 2019. - 195 b.

5. Rajasekaran K. A. S. K. P. Kiberxavfsizlik uchun mashinaviy o'rganish: tushunchalar, usullar va qo'llanmalar. – CRC Press, 2022. – 225 b.

6. Morovat K., Panda B. Kiberxavfsizlikda sun'iy intellektga sharh // 2020-yilgi Hisoblash fanlari va hisoblash intellektlari bo'yicha xalqaro konferensiya (CSCI). – 2020. – 109-115-betlar.

7. Hossain M. S. A., Reaz M. B. I., Rahman M. S. Bulutli hisoblash xavfsizligi muammolari: sharh //Xalqaro tarmoq xavfsizligi jurnali. – 2018. – 20-jild, 5-son. – 823-835-betlar.

8. Sutton R. S., Barto A. G. Mustahkamlash bo'yicha o'rganish: Kirish. – 2-nashr. – MIT Press, 2018. – 550 b. 9. Sait S. M. Bulutli hisoblashda xavfsizlik va maxfiylik. – Wiley, 2021. – 300 b.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING

Xusanboyeva Shahnoza Xusanboy qizi
Chirchik State Pedagogical University
Email: shahnozaxusanboyeva05@gmail.com
Scientific adviser: Ruzmetova Diana Kamilovna
PhD teacher, Chirchik State Pedagogical University

ANNOTATION: This study explores the role of artificial intelligence (AI) in English language learning, highlighting its advantages, challenges, and implementation methods. AI-based tools, such as language apps, virtual tutors, chatbots, and automated writing assessment systems, provide personalized learning experiences, interactive practice, and immediate feedback. These technologies help students improve reading, writing, listening, and speaking skills while supporting teachers in monitoring progress and managing diverse classrooms. Despite challenges like reduced human interaction, over-reliance on technology, and implementation costs, AI enhances student engagement, motivation, and language proficiency when integrated thoughtfully. The findings suggest that AI can complement traditional teaching, fostering a more adaptive, student-centered, and effective learning environment.

Keywords: *Artificial intelligence, English language learning, personalized learning, interactive practice, language skills, student engagement, educational technology.*

АННОТАЦИЯ: Данное исследование рассматривает роль искусственного интеллекта (ИИ) в изучении английского языка, выделяя его преимущества, трудности и методы применения. Инструменты на базе ИИ, такие как языковые приложения, виртуальные

репетиторы, чат-боты и системы автоматической оценки письменных работ, обеспечивают персонализированное обучение, интерактивную практику и мгновенную обратную связь. Эти технологии помогают студентам улучшать навыки чтения, письма, аудирования и говорения, а также поддерживают преподавателей в отслеживании прогресса и управлении разнообразными классами. Несмотря на такие трудности, как снижение человеческого взаимодействия, чрезмерная зависимость от технологий и затраты на внедрение, ИИ повышает вовлеченность, мотивацию и языковую компетентность учащихся при разумной интеграции. Результаты исследования показывают, что ИИ может дополнять традиционное обучение, способствуя более адаптивной, ориентированной на студента и эффективной образовательной среде.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, изучение английского языка, персонализированное обучение, интерактивная практика, языковые навыки, вовлеченность студентов, образовательные технологии*

ANNOTATSIYA: Ushbu tadqiqot sun’iy intellektning (AI) ingliz tilini o‘rganishda roli, uning afzalliklari, qiyinchiliklari va qo‘llanilish usullarini o‘rganadi. AI-ga asoslangan vositalar, jumladan, til ilovalari, virtual repetitorlar, chat-botlar va avtomatlashtirilgan yozma ishlarni baholash tizimlari, o‘quvchilarga individual o‘qish tajribasi, interaktiv mashqlar va tezkor fikr-mulohaza beradi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga o‘qish, yozish, tinglab tushunish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va o‘qituvchilarga dars jarayonini kuzatish va turli darajadagi sinflarni boshqarishda yordam beradi. Texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik, insoniy muloqotning kamayishi va amalga oshirish xarajatlari kabi qiyinchiliklarga qaramay, AI to‘g‘ri integratsiya qilinsa, o‘quvchilarning ishtiroki, motivatsiyasi va til ko‘nikmalarini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI an’anaviy ta’limni to‘ldirishi va o‘quv markazlashtirilgan, moslashuvchan va samarali o‘quv muhiti yaratishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar*: Sun’iy intellekt, ingliz tilini o‘rganish, individual o‘qish, interaktiv mashqlar, til ko‘nikmalari, o‘quvchilarning ishtiroki, ta’lim texnologiyalari*

Introduction. In recent years, the use of technology in education has grown rapidly, and one of the most promising tools is artificial intelligence (AI). In English language learning, AI provides innovative opportunities to enhance students’ skills in reading, writing, listening, and speaking. Unlike traditional methods, AI-based applications can offer personalized learning experiences, immediate feedback, and interactive practice tailored to each learner’s needs. These tools help teachers manage diverse classrooms more effectively and support students in practicing language outside of school. However, integrating AI also requires careful planning to ensure it complements, rather than replaces, human instruction. Overall, AI has the potential to make English language learning more engaging, adaptive, and effective for learners of all levels.

Main Body. Artificial intelligence (AI) has increasingly become a valuable tool in English language learning. One of its main advantages is the ability to provide personalized learning experiences. AI systems can adapt exercises and feedback based on each learner’s level, helping students improve more efficiently. Additionally, AI tools offer interactive practice in reading, writing, listening, and speaking, which encourages active engagement and enhances motivation. Another benefit is immediate feedback, allowing learners to correct mistakes in real-time and develop language accuracy faster. AI also supports teachers by helping them monitor progress and manage diverse classroom needs.

However, there are some disadvantages. Relying too heavily on AI may reduce human interaction, which is crucial for practicing communication skills. Some learners might become dependent on technology, and the cost of implementing AI tools can be a limitation for certain institutions.

Methods of implementation include AI-powered language apps, chatbots for conversation practice, virtual tutors, and automated writing assessment tools. These methods allow students to practice independently and track their progress. Teachers can integrate AI activities with traditional lessons, creating a blended learning environment that combines technology with human guidance.

Results from recent studies show that students using AI tools in English learning demonstrate improved vocabulary, grammar, and speaking skills. Learners report higher engagement, confidence, and autonomy compared to traditional methods. Overall, AI supports a more adaptive, efficient, and student-centered approach to language learning, making lessons more interactive and effective.

Methods and Challenges of AI in English Language Learning

Artificial intelligence offers many opportunities to enhance English language learning. Students can use AI-powered apps and platforms to practice grammar, expand vocabulary, and improve listening and speaking skills. Virtual tutors and chatbots allow learners to engage in interactive dialogues, while automated writing assessment tools provide instant feedback and suggestions for improvement. Gamified learning systems make practice more engaging, and adaptive learning platforms personalize exercises according to each learner's strengths and weaknesses, supporting a more efficient and student-centered approach.

However, implementing AI in English learning also brings some challenges. Over-reliance on technology may reduce real-life communication practice and limit human interaction. The cost of AI tools and platforms can be a barrier for some institutions. Privacy and data security are important considerations, as AI systems often collect student performance data. Additionally, students need guidance and supervision from teachers to use AI tools effectively and benefit fully from personalized learning experiences. Despite these challenges, AI remains a valuable support for enhancing engagement, motivation, and language proficiency.

CONCLUSION. Artificial intelligence has become an effective tool in English language learning, offering students personalized practice, interactive activities, and instant feedback. By using AI-powered apps, virtual tutors, and adaptive learning platforms, learners can improve their reading, writing, listening, and speaking skills more efficiently. AI also supports teachers by providing data-driven insights and helping manage diverse classrooms. Despite challenges such as reduced human interaction, dependence on technology, and implementation costs, AI can enhance motivation, engagement, and language proficiency when integrated thoughtfully. Overall, incorporating AI into English learning creates a more flexible, student-centered, and effective educational environment that complements traditional teaching methods and fosters meaningful language development.

REFERENCE

1. Cai, W. (2025). Using Artificial Intelligence in Language Education: Principles and Prompting Activities. Bloomsbury Academic.
2. Paiz, J. M., Toncelli, R., & Kostka, I. (2025). Artificial Intelligence, Real Teaching: A Guide to AI in ELT. University of Michigan Press.
3. Ibrahim, M. (2025). Application and Prospect of Artificial Intelligence in English Teaching. Scholar Publishing Group. ISBN: 978-1-80053-642-5.
4. Ali, M. M. (2025). AI Applications for English Language Learning. IGI
5. Tian, Z., & Wang, C. (2025). Rethinking Language Education in the Age of Generative AI. Routledge. ISBN: 9781032727639.

FAN VA TA'LIMDA XALQARO STANDARTLAR: MUAMMO, YECHIM VA MILLIY TAJRIBAGA MOSLASHTIRISH YO'LLARI

Nazirova Sevinch Jonuzoq qizi
Guliston davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Telefon: +998(94) 775-05-30, E-mail: sevinchn190@gmail.com
Babajanova Fotima Farmanovna
Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi (ilmiy rahbar)
Email: babajanovafotima@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada fan va ta'lim sohasida xalqaro standartlarni joriy etish zarurati, bu jarayonda uchrayotgan muammolar, ularning samarali yechimlari hamda xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga moslashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Xalqaro akkreditatsiya tizimlari, sifat

menejmenti, pedagog kadrlar salohiyati, o‘quv dasturlari kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi va baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy yo‘nalishlar yoritilgan. Shuningdek, O’zbekiston ta’lim tizimi misolida xalqaro standartlarning milliy qadriyatlar, til va madaniyat bilan uyg‘unlashuvi asosida integratsiyalashuv istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, xalqaro standartlar, fan, akkreditatsiya, sifat menejmenti, raqamli transformatsiya, kompetensiya, innovatsion ta’lim, milliy tajriba, baholash tizimi.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar fan va ta’lim tizimlarining xalqaro standartlarga moslashuvini strategik zaruratga aylantirmoqda. Xalqaro standartlar — bu ta’lim sifatini, ilmiy faoliyat samaradorligini va kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy mezonlar majmui hisoblanadi. Ular orqali mamlakatlarning ta’lim tizimlari o‘zaro solishtiriladi, diplomlar va ilmiy natijalar tan olinadi, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari kengayadi. O’zbekiston ham so‘nggi yillarda ta’lim va fan sohasini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish bo‘yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda. “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlar va qator normativ hujjatlar bu yo‘nalishning konseptual asosini tashkil etadi. Biroq xalqaro standartlarni joriy etish jarayoni murakkab tizimli jarayon bo‘lib, u faqat tashkiliy islohotlar emas, balki mazmuniy, metodik va madaniy moslashuvni ham talab etadi. Shuning uchun xalqaro talablarni milliy qadriyatlar, til, tarixiy an’analar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Asosiy qism. Ta’limning jamiyat va mamlakat taraqqiyotidagi ustuvor ahamiyati ko‘plab me’yoriy hujjatlarda yuqori darajada qayd etilgan. Ta’lim sohasidagi loyihalarni amalga oshirish jarayonida “innovatsion ta’lim”dan “sifatli ta’lim”ga e’tibor qaratila boshlandi. Hozirgi vaqtda ta’limni modernizatsiya qilish doirasida ta’lim xizmatlari sifatini boshqarish tizimini faol rivojlantirish davom etmoqda. Ta’lim siyosati sohasida jahonning yetakchi ekspertlaridan biri bo‘lgan Maykl Barber bir maqolasida samarali maktab tizimini tavsiflovchi tarkibiy elementlardan biri yuqori malakali o‘qituvchilar jamoasi hamda ularning pedagoglik fazilati va malakasini muttasil takomillashtirishdir, deb ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, bugun tez o‘zgarayotgan zamonda iqtisodiyot, fan va ta’lim mislsiz sur’atda rivojlanib bormoqda. Mavjud ilmiy axborotlar, shu jumladan, maktab fanlariga doir ma’lumotlarni har yili to‘la yangilashga ehtiyoj sezilyapti. Ushbu munosabatlar tizimidagi baholash endi nafaqat aniqlash va sinovdan o‘tkazish, balki shakllantiruvchi, aniqlovchi va rag‘batlantiruvchi, motivatsion, maktab va kasbiy yo‘riqnomadir. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim tizimiga joriy etish tamoyillari: Xalqaro baholash dasturlari belgilangan standartlarga, shu jumladan haqiqiylik, ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikka rioya qilishni talab qiladi. Dastur talablari ko‘pincha qattiq psixometrik tahlillar, standartlashtirish protseduralari va sifatni ta’minlash bo‘yicha doimiy choratadbirlarni talab qiladi. Ishtirok etuvchi yurisdiktsiyalar va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik baholash natijalarining yaxlitligi va ishonchliligini ta’minlash uchun juda muhimdir.Ta’lim maqsadlariga moslashish: xalqaro baholash dasturi o‘quv dasturlari standartlari va o‘quv natijalarini qo‘llab-quvvatlaydigan ishtirokchi mamlakatlarning ta’lim maqsadlari va vazifalariga mos kelishi kerak. Ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayonini yaxshilashda xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratishga e’tiborni kuchaytirish, ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash ta’lim berish sifatini oshishiga va o‘qitishni tashkil etish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik ko‘nikmasini hamda ilmiy tadqiqot ishlarida va yangi adabiyotlar yaratishdagi o‘rnini hisobga olish, umuman, pedagoglar o‘rtasida raqobat muhitini yuzagakeltirish zarur.

Muammo. Xalqaro standartlarni ta’lim va fan tizimiga tatbiq etishdagi asosiy muammolardan biri — mezonlarning turlicha talqin qilinishi va metodologik tafovutlardir. Masalan, OECD, UNESCO yoki PISA kabi tashkilotlar ta’lim sifatini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llaydi, biroq ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘quv jarayoni hanuz reproduktiv, nazariy bilimga tayanadi. Ikkinchi muhim muammo — pedagog kadrlar salohiyati va ilmiy infratuzilmaning yetarli emasligi. Yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash, ularning xalqaro darajadagi malaka oshirish tizimiga kiritilishi va doimiy o‘qituvchi rivojlanishini ta’minlash hali ham to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Shuningdek, resurslar yetishmasligi, ya’ni zamonaviy texnologiyalar, elektron kutubxonalar, ilmiy laboratoriyalar va raqamli platformalarning cheklanganligi ham xalqaro standartlarni to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, madaniy va til tafovutlari ham ayrim xalqaro baholash dasturlarida milliy o‘quvchilarning natijalariga ta’sir qiladi. Shu sababli xalqaro testlar va baholash tizimlarini moslashtirish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Yechim. Muammolarni hal etishda kompleks yondashuv zarur. Avvalo, sifat menejmenti tizimini xalqaro ISO 21001:2018 “Educational Organizations Management Systems” standarti asosida joriy etish ta’lim muassasalarining barqaror ishlashini ta’minlaydi. Ikkinchidan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. Bu o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. Uchinchidan, xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlarida faol ishtirok etish orqali ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini global mezonlar bilan o‘lchay oladi. Masalan, QS, Times Higher Education reytinglariga kirish yo‘lidagi islohotlar O’zbekiston oliy ta’limining global tan olinishi uchun muhim bosqichdir. Yana bir muhim yo‘nalish — raqamli ta’lim infratuzilmasini kengaytirish. Masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalar, adaptiv baholash tizimlari xalqaro standartlarga yaqinlashuvda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bundan tashqari, ilmiy hamkorlik va akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish, qo‘shma ilmiy loyihalar tashkil etish orqali xalqaro tajriba milliy tizimga singdirilishi mumkin.

Milliy tajribaga moslashtirish yo‘llari. Xalqaro standartlarni milliy sharoitga moslashtirish — bu oddiy tarjima yoki ko‘chirish emas, balki **adaptatsiya** jarayonidir. U milliy qadriyatlar, til, mintaqaviy ehtiyojlar va mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi kerak.

O’zbekiston tajribasida bu yo‘nalishda qator yutuqlar mavjud:

- Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tishi;
- Xorijiy universitetlar filiallari faoliyatining kengayishi;
- Pedagoglar malakasini oshirish bo‘yicha xalqaro dasturlar (British Council, Erasmus+, DAAD, Fulbright va boshqalar);
- Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish (“OneID”, “EduMarket”, “Bilim” platformalari);
- Xalqaro baholash tizimlari — PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarida ishtirok etish.

Bularning barchasi xalqaro standartlarni O’zbekiston sharoitiga bosqichma-bosqich singdirish, ularni milliy ehtiyojlarga moslashtirish yo‘lida muhim qadamdir.

Xulosa. Fan va ta’lim sohasida xalqaro standartlarni joriy etish — mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, xalqaro standartlarni to‘liq ko‘chirish emas, balki ularni milliy qadriyatlar va madaniy an’analar bilan uyg‘unlashtirish eng maqbul yondashuv hisoblanadi. O’zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, sifat menejmenti tizimini yo‘lga qo‘yish va xalqaro akkreditatsiyada faol ishtirok etish orqali ta’lim tizimi global miqyosda e’tirof etilmoqda. Umuman olganda, xalqaro standartlarni milliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish natijasida ta’lim sifati, ilmiy faoliyat samaradorligi va mamlakatning jahon ta’lim makonidagi nufuzi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.A.Soatova, M.U. Ibrohimova. TA’LIM SOHASIDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINING AHAMIYATI. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024

2. D. B.Maxmudova, TA’LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OS H I RISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNI TAYYORLASH, “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni — *“Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”*.

4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi 144-son Qarori — *“Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*.

5. UNESCO. (2023). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. – Paris: UNESCO.

6. OECD. (2022). *Education Policy Outlook 2022: Transforming Pathways for Lifelong Learning*. – Paris: OECD Publishing.

7. Barber, M. (2020). *How the world’s best-performing school systems come out on top*. – McKinsey & Company Global Report.

8. World Bank. (2021). *Improving Quality of Education: Global Practices and Lessons for Developing Countries*. – Washington, D.C.

9. D.Rasulov, , N. Xolmatova, *Ta’lim sifati va xalqaro akkreditatsiya: dolzarb masalalar va istiqbollar*. – “Ta’lim va Innovatsiya” jurnali, 2023. №2, 45–52-betlar.

10. European Higher Education Area (EHEA). *Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG)*. (2020). – Brussels: EHEA Secretariat.

11. M. Tursunova. *O’zbekiston oliy ta’limida xalqaro standartlarni qo‘llash muammolari va yechimlari*. – Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy to‘plami, (2021). №4, 33–40-betlar.

12. United Nations. *Transforming Education Summit: Global Report*. (2023). – New York: UN Publishing.

XALQARO BAHOLASH TIZIMLARI (PISA, TIMSS, PIRLS)NING O‘ZBEKISTON TA’LIMIGA INTEGRATSIYASI

Alimova Shaxlo Bafayevna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Telefon: +998(91) 445-29-0, E-mail: shahloalimova778@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlarining O’zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi, amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va zamonaviy yechimlar tahlil qilingan. Xalqaro baholash natijalarining milliy ta’lim siyosatiga ta’siri va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan.

Аннотация. В статье анализируется интеграция международных оценочных программ PISA, TIMSS и PIRLS в систему образования Узбекистана, проводимые реформы, существующие проблемы и современные решения. Показано влияние международных исследований на образовательную политику и модернизацию учебных программ.

Abstract. The article analyzes the integration of international assessment programs PISA, TIMSS, and PIRLS into the education system of Uzbekistan, the reforms carried out, existing challenges, and modern solutions. It highlights the impact of international assessments on national education policy and curriculum modernization.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, PISA, TIMSS, PIRLS, ta’lim sifati, integratsiya, kompetensiya.

Ключевые слова: международная оценка, PISA, TIMSS, PIRLS, качество образования, интеграция, компетенции.

Key words: international assessment, PISA, TIMSS, PIRLS, quality of education, integration, competencies.

1. Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimining samaradorligini xalqaro mezonlar asosida baholash davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi yetakchi omil sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon amaliyotida PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari o‘quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidiy fikrlashi, ilmiy-tadqiqotga moyilligi va amaliy muammoni hal qilish ko‘nikmalarini o‘lchashda eng ishonchli mexanizmlar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mazkur dasturlar natijalari ta’lim islohotlarini rejalashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, OECD ma’lumotlariga ko‘ra, PISA baholashida yuqori natija ko‘rsatgan davlatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Finlandiya) iqtisodiy innovatsion rivojlanish bo‘yicha ham yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu holat ta’lim sifatining milliy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O’zbekistonning mazkur dasturlarda ishtiroki ham ta’lim sohasida yangi bosqichni boshlab berdi.

PISA-2022 natijalariga ko‘ra, o‘zbekistonlik 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘rtacha bali 372, matematika bo‘yicha 379, fan bo‘yicha 389 ballni tashkil etdi.

TIMSS-2019 da esa 4-sinf matematika bo‘yicha ko‘rsatkich 472, tabiiy fanlar bo‘yicha 459 ball bo‘ldi.

Mazkur natijalar ta’lim sifatini oshirish uchun o‘quv dasturlari, baholash mexanizmlari va metodik yondashuvlarni modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O’zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda xalqaro tajribaga asoslangan quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda:

- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat o‘quv dasturlarini yaratish;
- o‘quv jarayoniga STEAM, loyiha asosida o‘qitish va tadqiqot metodlarini kiritish;
- o‘qituvchilarni xalqaro baholashga tayyorlash bo‘yicha maxsus modul va kurslar joriy etish;
- o‘quvchilarning funksional savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratish kabi ishlar amalga oshirildi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xalqaro baholash dasturlari — PISA, TIMSS va PIRLS — ta’lim sifatini xalqaro miqyosda solishtirish uchun yaratilgan standart instrumentlar bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos maqsad va metodologiyaga ega.

PISA 15 yoshdagi o‘quvchilarning o‘qish, matematika va fan bo‘yicha funksional savodxonligini va bilimlarni real hayot vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini baholashga mo‘ljallangan. OECDning mamlakatlarga oid “country notes” hujjatlarida PISA - 2022 doirasida O’zbekiston ishtiroki, testda qamrab olingan ta’lim muhitiga oid kontekstual ma’lumotlar va ishtirokchi namuna hajmi haqida aniq ma’lumotlar taqdim etilgan (masalan, 2022-yilda O’zbekistonda 7 293 o‘quvchi va 202 maktab testda qatnashgan).

TIMSS esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha IV va VIII sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini, shu jumladan “bilish”, “qo‘llash” va “mantiqiy fikrlash” kabi kognitiv sohalarni o‘lchaydi; TIMSS 2019 global hisobotida qatnashchi davlatlarning darajalari, taqqoslashlar va kontekstual savollar tahlili keltirilgan.

PIRLS esa IV sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, matnni tushunish va talqin qilish jihatidan baholaydi; O’zbekiston PIRLS - 2021 sikliga qatnashuvni amalga oshirib, mamlakatga xos hisobotlar yaratilgan.

Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlar O’zbekistonda xalqaro baholash natijalarining ta’limga ta’siri, pedagogik amaliyot va o‘quv dasturlarini yangilash zaruriyati haqida fikr bildiradi. Ba’zi mahalliy tahlillar PISA natijalarining mamlakat uchun signal vazifasini bajargani va o‘quv

dasturlarini kompetensiyaviy yondashuvga o‘tkazish bo‘yicha islohotlarga turtki berganini qayd etadi. Shuningdek, UNICEF va mahalliy ilmiy maqolalar asosida erta bosqichdagi o‘quv yutuqlari (boshlang‘ich sinflar) ham TIMSS ma’lumotlari bilan solishtiriladi va “bilish” hamda “mantiqiy tahlil” bo‘yicha farqlar tahlil qilingan.

Bu borada ma’lumot manbalari quyidagilar:

Xalqaro manbalar: OECD (PISA 2022 country note va umumiy hisobotlar), IEA/TIMSS (2019 report), IEA/PIRLS (2021 materiallari).

Milliy manbalar: O’zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, milliy ta’lim monitoringi, mahalliy ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari (masalan, 2023–2024 yillardagi PISA–TALIS–TIMSS tayyorgarlik bo‘yicha hisobotlar).

Empirik ma’lumotlar: PISA 2022 uchun O’zbekistondan olingan namuna (7293 o‘quvchi, 202 maktab), shuningdek TIMSS va PIRLSda e’lon qilingan O’zbekiston natijalari va kontekstual ma’lumotlar.

PISA: 15 yoshdagi representativ namuna (o‘rta maktablarda o‘qiyotgan 15-yosh atrofidagi o‘quvchilar). O’zbekiston uchun 2022 kursida 7293 o‘quvchi qamrab olingan.

TIMSS: 4-va 8-sinf namunasi; maqolada TIMSS-2019 O’zbekiston natijalari bilan solishtirish amalga oshiriladi.

PIRLS: 4-sinf o‘quvchilari namunasi (PIRLS 2021 O’zbekiston ma’lumotlari ko‘rib chiqiladi).

Tadqiqot usullari va analiz modellari

1. Komparativ (solishtirma) tahlil: PISA/TIMSS/PIRLS asosiy indikatorlari (o‘rtacha ballar, kompetensiya darajalari, yuqori va past natijalar ulushi) hamda O’zbekiston milliy o‘quv dasturlari (o‘quv rejasi, darsliklar, baholash vositalari) o‘rtasida mazmuniy va struktural taqqoslashlar o‘tkaziladi. OECD/IEA hisobotlaridagi taqqoslovchi jadvallar va indikatorlardan foydalaniladi.

2. Tizimli tahlil (sistema yondashuvi): Baholash tizimi, o‘qituvchilar malakasi va maktab infratuzilmasi kabi komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Bu bosqichda kontekstual so‘rovnomalar (maktab, o‘qituvchi, oila) va xalqaro hisobotlardagi kontekstual o‘zgaruvchilar tahlil qilinadi.

3. Empirik statistik tahlil: O’zbekistonning PISA 2022, TIMSS 2019 va PIRLS 2021 natijalari bo‘yicha deskriptiv statistikalar (o‘rtacha ball, dispersiya), guruhlar bo‘yicha taqqoslash (hududlar, maktab turi), hamda kerak bo‘lganda z-test qo‘llanadi.

4. Kontent-tahlil (sifatli tahlil): Milliy o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini PISA/TIMSS/PIRLS baholash mezonlari bilan solishtirish uchun kontent-tahlil usuli qo‘llanadi: kompetensiyalar bo‘yicha darsliklarda qamrab olingan mavzular, topshiriq turlari va amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor tekshiriladi.

5. Ekspert bahosi va intervyular: Agar mavjud bo‘lsa, o‘qituvchilar, metodistlar va ta’lim siyosati ekspertlari bilan qisqa yarimstruktural intervyular o‘tkazilib, milliy amaliyotdagi zaif joylar va takliflar yig‘iladi.

3. Muhokama

O’zbekiston ta’lim tizimiga xalqaro baholash dasturlarining integratsiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. O’quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash. Xalqaro baholash tizimlari bilimning amaliy qo‘llanishi, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini baholaydi. Shu maqsadda umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqildi.

2. PISA va TIMSS tipidagi topshiriqlarni baholash jarayoniga kiritish. So‘nggi yillarda milliy testlar ko‘proq kompetensiyaviy yondashuvga moslashtirildi.

3. O’qituvchilar malakasini oshirish. Xalqaro formatdagi topshiriqlarni tuzish va o‘quvchilarni tayyorlash bo‘yicha muntazam seminar-treninglar o‘tkazilmoqda.

4. Texnik baza va raqamli ta’limni rivojlantirish. PISA-CBT (kompyuter asosidagi test) formatiga moslash uchun maktablarda raqamli infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda.

4. Natijalar

Tadqiqot natijalari xalqaro baholash tizimlarining O’zbekiston ta’limiga integratsiyasi o‘quv jarayonini isloh qilishga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Xususan, xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish mamlakatda ta’lim sifatiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi, o‘quv dasturlarining mazmuni chuqur tahlil qilinib, kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqildi. Natijada, dars jarayonlarida amaliy vaziyatlar, hayotiy misollar asosida fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar soni ortib, o‘quvchilarning funksional savodxonlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, baholash jarayonining ochiqligi va shaffofligi oshib, ta’lim natijalarini tahlil qilish bo‘yicha xalqaro amaliyot joriy etildi. PISA, TIMSS va PIRLS metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan milliy topshiriqlar o‘quvchilarning real hayotga yaqin vaziyatlarda bilimni qo‘llash qobiliyatlarini baholashga yordam bermoqda. Bu esa ta’lim sifatiga oid qarorlarni ilmiy dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkonini yaratdi.

Pedagoglar uchun yaratilgan yangi metodik qo‘llanmalar, trening va seminarlar xalqaro baholash mezonlarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O’qituvchilarda murakkab kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dars ishlanmalarini yaratish, test topshiriqlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga yo‘naltirish ko‘nikmalari shakllanmoqda.

Biroq o‘tkazilgan tahlillar ayrim muammolarning hanuz dolzarbligicha qolayotganini ham ko‘rsatadi. Jumladan, barcha o‘quvchilar orasida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, bu ko‘nikma maktabdan maktabga farq qiladi. Hududlar o‘rtasida texnik infratuzilma nuqtai nazaridan tenglik yetarli emas: ayrim maktablarda kompyuterlar, internet va raqamli texnologiyalar yetarli bo‘lmagani sababli PISA-CBT kabi elektron baholash formatlariga to‘liq moslashish qiyinlashmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham bir xilda emas — tajribali pedagoglar bilan yangi ish boshlagan o‘qituvchilar orasidagi farq sezilarli bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, integratsiya jarayoni ta’lim sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, biroq yanada barqaror va samarali natijalarga erishish uchun hududlararo tenglikni ta’minlash, raqamli infratuzilmani yaxshilash va o‘qituvchilarning professional rivojlanishini izchil davom ettirish talab etiladi.

5. Xulosa

O’zbekistonning xalqaro baholash tizimlarida ishtiroki ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida muhim o‘rin tutmoqda. PISA, TIMSS va PIRLS dasturlarining mazmuni, baholash mexanizmlari va metodologik yondashuvlari milliy ta’lim siyosati uchun yo‘nalish beruvchi asosiy manbaga aylandi. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, xalqaro baholash standartlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quv dasturlarining zamonaviy kompetensiyalar asosida yangilanishiga, o‘quvchilarda funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil kompetensiyalarining bosqichma-bosqich rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, pedagoglarning metodik tayyorgarligi oshib, xalqaro tajribaga mos dars ishlanmalari, baholash vositalari va yangi metodik qo‘llanmalar yaratildi. Baholash tizimining ochiqligi va shaffofligi kuchayib, ta’lim sifatini o‘lchash ilmiy asoslangan mezonlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida ta’lim siyosatini takomillashtirish, muammoli sohalarni aniqlash va samarali qarorlar qabul qilishga yordam bermoqda.

Biroq, mamlakat miqyosida hal etilishi zarur bo‘lgan bir qator omillar mavjud. Xususan, hududlararo texnik baza teng emasligi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasidagi farqlar va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligida kuzatilayotgan nomutanosiblik integratsiya jarayonining samaradorligini cheklab turibdi. Shuningdek, barcha maktablarda raqamli platformalardan samarali foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada emas.

Kelgusida xalqaro baholash tizimlarining talablari va metodologiyasini to‘liq joriy etish, raqamli infratuzilmalarni kengaytirish, pedagoglarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va funksional savodxonlikni rivojlantiruvchi ta’lim materiallarini ko‘paytirish zarur. Ta’lim jarayonida xalqaro standartlarni izchil amalga oshirish orqali O’zbekiston o‘quvchilari global

raqobatbardoshlikga ega, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxslar sifatida shakllanishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O’zbekiston, 2017. — 488 b.

2. OECD. PISA 2022 Results (Volume I–III) —Paris: OECD Publishing, 2023.

3. Xoliyorov M. O’zbekiston o‘quvchilarining PISA baholash tizimidagi ishtiroki: muammolar va imkoniyatlar. — “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, 2021, №4, 45–52-b.

4. Abduqodirova G. Milliy ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslari.—Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. — 176 b.

5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash agentligi. O’zbekistonning PISA 2022 natijalari bo‘yicha tahliliy hisobot. — Toshkent, 2023.

6. Qodirova S., Yo‘ldosheva M. Funksional savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. — “Pedagogika” jurnali, 2022, №2, 60–67-b.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI INTEGRATSIYALASH

Samarqand davlat pedagogika instituti
Rasulov Ulug‘bek Murodulloyevich,
Bo‘riyev Raxmat,
O’ktamova Shaxrizoda

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzluksiz ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiyasining ahamiyati, maqsadlari, usullari va uning ta’lim tizimiga ta’siri o‘rganilgan. Ilmiy-tadqiqot faoliyati ta’lim tizimining sifatini oshirish, yangi bilimlar yaratish va pedagogik metodlarni modernizatsiya qilishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarning o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ta’lim jarayonini yanada samarali qilish, shuningdek, o‘quvchilarning ilmiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qanday rol o‘ynashi haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, ilmiy izlanishlarni ta’lim jarayoniga samarali singdirish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan bosqichlar va qo‘llaniladigan metodlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Ilmiy-tadqiqot, uzluksiz, pedagogik innovatsiyalar, integratsiya, ilmiy izlanishlar, ta’lim tizimi, o‘qituvchilar, O’quvchilar, Innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, ko‘nikmalar.*

Kirish

Uzluksiz ta’lim tizimi bu o‘quvchilarning yoshiga, kasbiy holatiga, ijtimoiy yoki shaxsiy ehtiyojlariga qarab ta’lim olish jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi tizimdir. Ilmiy-tadqiqot faoliyati esa ta’limning sifatini oshirish, yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish, mavjud bilimlarni yangilash va modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining uzluksiz ta’limga integratsiyalashuvi ta’lim tizimining mustahkamlanishi, yangi innovatsion metodlar va pedagogik yondashuvlarni joriy etishda asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolada ilmiy-tadqiqot faoliyatini uzluksiz ta’lim tizimiga integratsiyalashning asosiy maqsadlari, usullari va uning samaralari haqida so‘z boradi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarning ta’lim jarayoniga ta’siri, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ta’lim muassasalarining rivojlanishiga qanday hissa qo‘shish mumkinligi haqida ham fikrlar bildirilib, mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan qadamlar ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ilmiy-tadqiqot faoliyati ta’lim tizimida yangi bilimlar yaratish va mavjud bilimlarni yangilash uchun zarur bo‘lgan jarayon bo‘lib, u ta’limning sifatini oshirishga, o‘quvchilarning bilim darajasini yanada rivojlantirishga, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik uslublarini takomillashtirishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar ta’limni zamonaviy talablarga moslashtirish,

o‘qitish metodlarini diversifikatsiya qilish va ta’limni yanada interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyalashuvi, nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchilar va o‘quvchilarni ilmiy va tadqiqotga yo‘naltiradi. Ilmiy tadqiqotlar o‘qituvchilarga o‘z metodologiyalarini takomillashtirish imkonini berib, o‘quvchilarga ham o‘z ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini uzluksiz ta’lim tizimiga integratsiyalash usullari

Fanlararo tadqiqotlar va ko‘p yo‘nalishli o‘qitish metodlari: Ilmiy-tadqiqot faoliyatini uzluksiz ta’limga integratsiyalash jarayonida interdisipliner yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan, matematika va informatika fanlari birlashtirilgan holda o‘qitilishi mumkin. Bu o‘qituvchilarni innovatsion metodlarni qo‘llashga rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarini yaxshilaydi. Tadqiqotlar asosida ta’limning bir nechta sohalari o‘rtasida aloqalar o‘rnatiladi, bu esa bilimlar tizimini yanada kengaytiradi.

O’qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish: O’qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish ta’lim tizimining rivojlanishida muhim omildir. Ularning ilmiy izlanishlari va amaliy tadqiqotlari, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni etkazish jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi, ularning pedagogik mahoratiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O’quvchilarni tadqiqotga jalb etish: O’quvchilarda ilmiy izlanishlarga qiziqishni kuchaytirish uchun ta’lim jarayoniga ilmiy-amaliy loyihalar, tajriba va laboratoriya mashg‘ulotlarini kiritish muhimdir. Bu jarayonda o‘quvchilarga ilmiy izlanishlar olib borish uchun kerakli resurslar, metodik qo‘llanmalar va ilmiy rahbarlik taqdim etilishi kerak.

- **O’quv dasturlarini ilmiy tadqiqotlar bilan boyitish**: O’quv dasturlari va o‘quv materiallarini doimiy ravishda yangilash va ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga asoslash zarur. Ilmiy izlanishlar natijalari ta’lim dasturlariga integratsiya qilinsa, o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yangi bilim hamda ko‘nikmalarni egallash imkoniyati taqdim etiladi

Ilmiy-tadqiqot faoliyatining uzluksiz ta’lim tizimiga ta’siri

- **Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish**: Ilmiy-tadqiqot faoliyati orqali pedagogik innovatsiyalar amalga oshiriladi. O’qitish metodikalaridagi yangiliklar, masalan, interaktiv darslar, onlayn ta’lim resurslarining joriy etilishi, o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqotlar ta’limning eng samarali va zamonaviy usullarini aniqlashga yordam beradi.
- **Ilmiy izlanishlarning sifatini oshirish**: Ilmiy tadqiqotlar orqali o‘qituvchilarning ilmiy malakasi oshadi va ular yangi bilimlarni yaratish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimida o‘qituvchilarning salohiyatini oshiradi va ilm-fan sohasida yangi yondashuvlar ishlab chiqilishiga imkon beradi.
- **O’quvchilarni ilmiy fikrlashga o‘rgatish**: Ilmiy-tadqiqot faoliyatining uzluksiz ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi o‘quvchilarni ilmiy fikrlash va mustaqil izlanishlarga o‘rgatishga yordam beradi. O’quvchilar tadqiqot ishlarini olib borish orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal etish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda qatnashadilar.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini uzluksiz ta’limga integratsiyalashning afzalliklari

O’qitish sifatini oshirish: Ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta’lim tizimiga integratsiyasi o‘qitish sifatini oshirishga yordam beradi. O’qituvchilar yangiliklarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshiradilar.

Yangi bilimlar yaratish: Izlanishlar yangi ilmiy va pedagogik bilimlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, natijada ta’lim jarayonining rivojlanishiga xizmat qiladi.

O’quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish: Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga o‘quvchilarni jalb qilish, ularning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Xulosa

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini uzluksiz ta’lim tizimiga integratsiyalash – bu ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, yangi bilimlarni yaratish va ulardan ta’limda foydalanishning samarali

mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladigan muhim qadamdir. Ilmiy tadqiqotlar o‘qituvchilarni va o‘quvchilarni ilmiy fikrlashga, yangi bilimlarni ishlab chiqish va qo‘llashga rag‘batlantiradi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda, ta’lim jarayonining zamonaviy usullari bilan boyitilishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish, o‘quv dasturlarini yangilash, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va o‘quvchilarga ilmiy tadqiqotlarga oid qo‘llanmalar yaratish kabi qadamlar zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Baxtiyorov, A.** (2020). *Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’lim tizimiga ta’siri*. Tashkent: O’zbekiston Ta’limi Noshir.
2. **Jumayev, K.** (2019). *Ilmiy tadqiqotlar va ta’limni rivojlantirish: metodologiya va amaliyot*. Toshkent: Ta’lim Nashriyoti.
3. **Xushvaktova, L.** (2021). *Uzluksiz ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyati: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar*. Tashkent: Science and Education Publishing House.
4. **Mamedov, Z.** (2022). *Innovatsion texnologiyalar va ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiyalash*. Journal of Education and Science, 45(3), 112-118.
5. **Karimov, R.** (2020). *Ilmiy tadqiqot va pedagogik metodlar: Tizimlashtirish va integratsiya*. Tashkent: National Publishing House.
6. **Kadirov, M.** (2018). *Pedagogik innovatsiyalar va metodik yondashuvlar*. Toshkent: UzScience Press.
7. **Toshpo‘latov, U.** (2023). *Uzluksiz ta’limda ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘rni*. Journal of Pedagogical Sciences, 4(1), 47-52.

THE LOST GENERATION: WRITERS BETWEEN THE WARS

Nasiba Ibragimova Boltaboyevna
3rd-year student,
Chirchiq State Pedagogical University
Karimova Charos Xurshid qizi
Chirchik State Pedagogical University, Tourism Faculty,
e-mail: inasiba647@gmail.com, Scientific adviser: Rozikova Zilola Tursunboy qizi
A teacher at Chirchik State Pedagogical University,
Tourism Faculty, e-mail: rozikova1625@gmail.com

Abstract: This article analyses lost generation focusing on how World War I shaped the themes and styles of writers such as Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, Gertrude Stein, and T. S. Eliot. It explores their feelings of disillusionment, loss, and exile, showing how these experiences influenced modern literature. The study also highlights the role of expatriate life in Europe and the writers’ search for meaning in a world transformed by war. Ultimately, it concludes that the Lost Generation reshaped modern writing by capturing the moral and emotional crisis of their time.

Keywords: lost Generation; World War I; disillusionment; modernism; exile; identity; Ernest Hemingway; F. Scott Fitzgerald; gertrude Stein; T. S. Eliot; post-war literature

INTRODUCTION

The Lost Generation represents a group of writers whose works reflect the disillusionment and uncertainty that followed World War I. These authors, who came of age during or soon after the war, struggled to find meaning in a world marked by chaos, destruction, and the collapse of traditional values. The term “Lost Generation,” popularized by Gertrude Stein and later used by Ernest Hemingway, came to symbolize a whole generation’s moral and emotional confusion. Many of these writers, including Hemingway, Fitzgerald, and Stein, lived as expatriates in Europe, particularly in Paris, where they sought creative freedom and intellectual renewal. Their writing captured the emptiness of post-war society and the alienation of individuals searching for purpose in a fragmented world. Through realism, symbolism, and psychological depth, they expressed the spiritual loss and restlessness of their time. The literature of the Lost Generation marked a turning

point in modern writing. It broke away from idealism and romanticism, offering instead a raw and honest portrayal of life, love, and disillusionment. By focusing on human weakness, emotional struggle, and the search for identity, these writers gave voice to a generation forever changed by the trauma of war.

METHODOLOGY

This study employs a qualitative and analytical approach to examine how the writers of the Lost Generation reflected the cultural, social, and psychological consequences of World War I in their literary works. The research is based on close reading and textual analysis of key novels, poems, and essays by prominent authors such as Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, and Gertrude Stein. Through this method, the study identifies recurring themes of alienation, disillusionment, and the search for identity that define the literature of this period. The analysis also incorporates a historical and contextual perspective, linking literary themes to the broader post-war reality that shaped the writers' worldview. Biographical details and critical interpretations from literary scholars are used to better understand how personal experiences, war trauma, and expatriate life influenced creative expression. Secondary sources, including academic articles, biographies, and historical studies, support the interpretation of the texts and provide insight into how the Lost Generation writers contributed to the development of modernist thought. By combining literary and cultural analysis, the study seeks to uncover the artistic and philosophical significance of this movement within twentieth-century English literature.

RESULTS

The study finds that the writers of the Lost Generation transformed post-war disillusionment into a new form of literary realism and psychological depth. Their works reveal a strong sense of alienation, loss of faith in traditional values, and a search for meaning in a world destabilized by war. The research shows that themes of moral emptiness, identity crisis, and existential questioning dominate the literature of this era. Stylistically, the Lost Generation introduced simplicity, understatement, and fragmented narrative structures that reflected the uncertainty of the modern world. Their focus on inner conflict and emotional restraint replaced the romantic idealism of earlier literature. The results also indicate that the experience of exile and cultural displacement played a crucial role in shaping their artistic vision, leading to the creation of universal works that transcended national and temporal boundaries.

DISCUSSION

The findings demonstrate that the literature of the Lost Generation was not merely a reflection of post-war despair but also a conscious artistic response to the moral and social collapse of the early twentieth century. The writers used their sense of displacement and disillusionment as creative energy, transforming trauma into artistic innovation. Their works became a medium through which they questioned the values of modern civilization and explored the fractured human condition that emerged in the aftermath of war. Ernest Hemingway's minimalist style, characterized by simplicity and emotional restraint, reflected the silent suffering and endurance of individuals struggling to find meaning in a chaotic world [1]. F. Scott Fitzgerald's portrayal of the Jazz Age revealed the emptiness beneath material success and social glamour, exposing a generation's failed pursuit of happiness. Gertrude Stein's experimental prose, with its repetition and abstraction, challenged linguistic norms and redefined narrative form, influencing the evolution of modernist literature. The discussion also highlights that the Lost Generation's rejection of moral certainty and traditional ideals mirrored a broader philosophical shift toward skepticism and existentialism. Their focus on individual experience, psychological realism, and fragmented identity represented a new understanding of human consciousness in modern art. Collectively, these writers gave voice to a generation that felt spiritually adrift yet artistically awakened — one that sought to rebuild meaning from the ruins of history.

CONCLUSION

The Lost Generation stands as one of the most significant literary movements of the twentieth century, reflecting the disillusionment and uncertainty that followed World War I. These writers transformed their sense of loss and alienation into a new artistic vision that reshaped modern

literature. Through psychological realism, fragmented structure, and emotional restraint, they captured the emptiness and confusion of a world that had lost faith in traditional values. Authors such as Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, and Gertrude Stein expressed a universal struggle for identity and purpose in a time of moral and social upheaval. Their works transcended their historical moment, offering timeless insights into the human condition. The Lost Generation's exploration of truth, identity, and disillusionment not only defined an era but also laid the foundation for modernist and existentialist thought in literature.

REFERENCES

1. Hemingway, E. (1926). The Sun Also Rises. Charles Scribner's Sons, New York. pp. 1–251.
2. Fitzgerald, F. S. (1925). The Great Gatsby. Charles Scribner's Sons, New York. pp. 1–180.
3. Stein, G. (1933). The Autobiography of Alice B. Toklas. Harcourt, Brace and Company, New York. pp. 5–310.
4. Cowley, M. (1951). Exile's Return: A Literary Odyssey of the 1920s. Viking Press, New York. pp. 12–295.
5. Broer, L. R. (2000). Hemingway's Spanish Tragedy. The University of Alabama Press, Tuscaloosa. pp. 24–340.

PEDAGOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING ROLI

A.X.Karomatov
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi bosh mutaxassisi
Tel: +998 99-623-53-59, axliddinkaromatov79@gmail.com**.**

Annotatsiya. Maqolada pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida axborot-resurs markazlari(ARM)ning o‘rni, ularning innovatsion resurslari tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ta’lim jarayonida elektron kutubxonalar, raqamli ma’lumotlar bazalari, masofaviy o‘qitish platformalari va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan bilimlarni boshqarish tizimlarining afzalliklari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-resurs markazi, pedagog kadrlar, kasbiy rivojlanish, elektron kutubxona, raqamli resurslar.

Аннотация. В статье рассмотрена роль информационно-ресурсных центров (ИРЦ) в непрерывном профессиональном развитии педагогических кадров. На основе международного опыта проанализированы преимущества электронных библиотек, цифровых баз данных, дистанционных образовательных платформ и систем управления знаниями для учителей.

Ключевые слова: информационно-ресурсный центр, педагогические кадры, профессиональное развитие, электронная библиотека, цифровые ресурсы.

Abstract. This article analyzes the role of the information-educational environment and information-resource centers (IRC) in the continuous professional development of teachers. Based on international practices, the advantages of electronic libraries, digital databases, distance learning platforms, and knowledge-management systems for educators are examined.

Keywords: information-resource center, teacher development, professional growth, digital library, online resources.

Globallashuv sharoitida ta’lim sifati va pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi axborot-ta’lim muhiti, raqamli resurslar va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga bevosita bog‘liq.

Axborot-resurs markazlari (ARM) zamonaviy ta’lim ekotizimining muhim bo‘g‘ini sifatida o‘qituvchilarga ilmiy, metodik va elektron ta’lim resurslariga keng imkoniyat yaratmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ARMlar o‘qituvchilarning malakasini oshirish, bilimni yangilab borish va innovatsion pedagogik amaliyotlarni joriy etishda muhim o‘rin tutadi.

Dunyo miqyosida pedagoglarning uzluksiz o‘qitilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar quyidagi asosiy omillarni ta’kidlaydi:

Elektron ta’lim resurslari va raqamli kutubxonalar – AQSh, Koreya, Yevropa davlatlarida pedagoglar uchun asosiy axborot manbai.

Professional Learning Communities (PLCs) – Singapur, Kanada tajribasida o‘qituvchilarning onlayn hamkorlik tizimlari.

Open Educational Resources (OER) – xalqaro ochiq ta’lim platformalari (Coursera, EdX, ERIC).

Knowledge Management Systems – Finlandiya va Yaponiya ta’lim tizimida keng qo‘llaniladi.

O’zbekiston tajribasida esa ARMlar o‘quv-metodik ta’minot, elektron kutubxonalar, raqamli arxivlar, uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslarini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi.

Umumlashtirish – ARMlarning kasbiy rivojlanishdagi roli bo‘yicha xulosalar chiqarildi.

1. Xorijiy tajribada ARMlarning o‘rni

AQSh – Professional Development Libraries
raqamli ma’lumotlar bazalari (EBSCO, ERIC)
o‘qituvchilar uchun onlayn treninglar
masofaviy sertifikatlashtirish tizimlari
Yaponiya – Media Resource Centers
multimedia laboratoriyalari
elektron darsliklar banki
o‘qituvchilar uchun texnologik ko‘nikmalar kurslari
Finlyandiya – Learning Resource Hubs
o‘quvchi va o‘qituvchi uchun yagona resurs platformasi
muntazam seminar va mahorat darslari
kompetensiya asosida baholash tizimi

2. O’zbekiston ARMlarida kuzatilayotgan muammolar

1. Raqamli resurslar sonining yetarli emasligi
2. Elektron kutubxonalarning sekin yangilanishi
3. Internet tezligining pastligi
4. ARM xodimlarining IT-kompetensiyasi turlicha
5. O’qituvchilarning ARMdan foydalanish madaniyati yetarli emas

3. Taklif va tavsiyalar

ARMlarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish
yagona respublika elektron kutubxona tizimini yaratish
xalqaro ma’lumotlar bazalariga ulanish
Pedagoglar uchun maxsus “ARM – Professional Development” platformasini yaratish
onlayn kurslar
vebinarlar
metodik yangiliklar arxivi
ARM xodimlarini qayta tayyorlash
IT-kompetensiya kurslari
digital librarian (raqamli kutubxonachi) modeli
Xalqaro tajribani moslashtirish
Finlandiya modeli asosida o‘qituvchilarning onlayn hamjamiyatlarini tashkil etish
Koreya tajribasi asosida ARMlarni raqamli laboratoriyalar bilan jihozlash

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, axborot-ta’lim muhiti va ARMlar pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Xalqaro tajribalar raqamlashtirish, elektron ta’lim resurslari yaratish, o‘qituvchilar uchun masofaviy o‘quv tizimlarini takomillashtirish va axborot resurslarini markazlashtirish samaradorligini tasdiqlaydi. ARMlarning imkoniyatlarini kengaytirish O’zbekistonda pedagogik malaka oshirish tizimining sifatini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Innovative Learning Environments. – Paris, 2019.
2. ERIC Education Resources Information Center. – USA, 2020.
3. Ministry of Education Finland. Teacher Professional Development Report. – Helsinki, 2021.
4. Korea Digital Library Association. – Seoul, 2019.
5. O’zbekiston Respublikasi XTV. Axborot-resurs markazlari faoliyati bo‘yicha nizom. – Toshkent, 2021.
6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018. Coursera for Teachers Development – 2020.

MATEMATIKANI O’RGATISH JARAYONINING ELEKTRON BOSHQARUV MODELI

Mardankulov Jasur Amirddinovich,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, p.f.f.d., dotsent.

Annotatsiya.
Ushbu maqolada matematikani o‘qitish jarayonini raqamlashtirish va elektron boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O’quv jarayonida elektron boshqaruv modeli (EBM)ning tarkibiy qismlari, funksional mexanizmlari hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri yoritiladi. Taklif etilayotgan model matematika ta’limi jarayonida monitoring, tahlil, baholash va individual o‘quv yo‘nalishlarini boshqarishda innovatsion yechimlar yaratishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: elektron boshqaruv, raqamli ta’lim, matematika ta’limi, pedagogik texnologiyalar, sun’iy intellekt, elektron ta’lim muhiti, o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, elektron didaktik modellar, interaktiv platformalar, o‘quv axborot tizimlari, ta’limni boshqarish tizimi (LMS), raqamli kompetensiya, adaptiv ta’lim, masofaviy o‘qitish texnologiyalari.

Kirish. Raqamli ta’lim sharoitida matematikani o‘rgatish jarayonini samarali tashkil etish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy etishni talab qilmoqda. An’anaviy boshqaruv tizimlari o‘quvchilarning real vaqt rejimidagi o‘quv jarayonini monitoring qilish, differensial yondashuvni qo‘llash va individual o‘quv marshrutlarini shakllantirish imkoniyatini to‘liq ta’minlamaydi. Shu bois, matematika darslarida elektron boshqaruv modeli o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish, o‘quv faoliyatini raqamli nazorat qilish va analitik asosda boshqarishning zamonaviy shakli sifatida qaraladi.

Matematikani o‘rgatishda elektron boshqaruvning nazariy asoslari: Matematik ta’lim jarayonini raqamlashtirish va elektron boshqaruv elementlarini joriy etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Elektron boshqaruv modeli (EBM) ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, boshqarish, monitoring qilish va tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, uning nazariy asoslari bir nechta ilmiy paradigmalarga tayanadi. Quyida mazkur nazariy asoslar tizimli ravishda yoritiladi[1].

Axborotlashtirish pedagogikasining nazariy qarashlari - Ta’limni axborotlashtirish nazariyasi o‘quv jarayonini raqamli axborot resurslari asosida boshqarishning ilmiy-metodik asosini belgilaydi. Ushbu nazariya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Axborot jarayonlarining avtomatlashtirilishi — o‘qitish, baholash, tahlil va monitoring jarayonlari raqamli muhit orqali tashkil etiladi.
- O’quv kontentining elektronlashuvi — matematik materiallar elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va interaktiv platformalar orqali taqdim etiladi.
- O’quvchi faoliyatining raqamli izlari (learning analytics) — har bir o‘quvchining faoliyati elektron tarzda qayd etilib, tahliliy ma’lumotlar shakllantiriladi.

Ushbu g‘oya matematikani o‘rgatishda elektron boshqaruvni metodik asoslashda muhim o‘rin tutadi.

Tizimli yondashuv nazariyasi - Tizimli yondashuv ta’lim jarayonining barcha komponentlarini – o‘quv kontenti, o‘quvchilar, o‘qituvchi, tashkiliy vositalar, nazorat va boshqaruv mexanizmlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bu nazariya quyidagilarni asoslaydi:

- O’quv jarayoni murakkab tizim sifatida o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat.
- Matematikani o‘rgatish jarayonida elektron boshqaruv tizimi barcha elementlar o‘rtasidagi bog‘lanishni raqamli vositalar orqali boshqaradi.
- Har bir bo‘limning samaradorligi tizimning umumiy natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Elektron boshqaruv modeli tizimli yondashuvga asoslangan holda o‘quv jarayonini kompleks tarzda optimallashtiradi[2].

Kibernetika va boshqaruv nazariyasi - Elektron boshqaruvning eng muhim nazariy poydevorlaridan biri — kibernetika bo‘lib, u boshqaruv jarayonlarining quyidagi tamoyillarini matematik ta’limga tatbiq etadi: Teskari aloqa tamoyili, Boshqariladigan jarayon, Optimizatsiya tamoyili.

Kognitiv psixologiya va rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi - Elektron boshqaruv nazariyasi o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida ko‘radi. Bu yo‘nalish:

- Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasiga” asoslangan differensial yondashuv,
- Brunerning “konstruktiv o‘qitish” g‘oyasi,
- Piagetning kognitiv bosqichlari

bilan uyg‘unlashadi.

Bu asoslar matematika darslarida elektron boshqaruvning quyidagi funksiyalarini belgilaydi:

- o‘quvchi fikrlash darajasiga mos topshiriq tanlash;
- tafakkur operatsiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish;
- murakkab masalalarni yengillashtiruvchi algoritmlar berish.

Adaptiv o‘qitish nazariyasi - Elektron boshqaruvning markaziy g‘oyalaridan biri — adaptiv ta’lim bo‘lib, u har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish tezligi va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda:

- o‘quv materiallarini individual tarzda taqdim etish;
- moslashtirilgan testlar yaratish;
- o‘quvchi yo‘l xaritasini shakllantirish imkonini beradi.

Bu nazariya elektron boshqaruv tizimining algoritmlarini shakllantirishda asosiy metodologik tamoyil hisoblanadi[3].

Pedagogik diagnostika nazariyasi - Elektron boshqaruv tizimi o‘quvchilar bilimini tekshirish, baholash va bilim dinamikasini nazorat qilish imkoniyatiga ega. Pedagogik diagnostika nazariyasiga ko‘ra:

- diagnostika — o‘quv jarayonining ajralmas qismi;
- nazorat — rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishi lozim;
- baholash — o‘quvchini rag‘batlantirishi va yo‘naltirishi kerak.

Elektron boshqaruv modeli diagnostika jarayonini avtomatlashtiradi, natijada:

- xatoliklar xaritasi tuziladi,
- individual rivojlanish monitoringi yuritiladi,
- o‘qituvchi uchun analitik hisobotlar shakllantiriladi.

Matematikani o‘rgatishda elektron boshqaruvning nazariy asoslari axborotlashtirish, tizimli yondashuv, kibernetika, kognitiv psixologiya, adaptiv o‘qitish va pedagogik diagnostika kabi yetakchi ilmiy konsepsiyalarga asoslanadi. Ushbu nazariy asoslar elektron boshqaruv modelining mazmuni, funksional imkoniyatlari va metodologik yo‘nalishini belgilaydi. Natijada matematika ta’limi jarayoni aniq boshqariladigan, tahliliy yondashuvga tayangan va o‘quvchi rivojlanishini markazga qo‘ygan zamonaviy tizimga aylanishi ta’minlanadi[4].

Matematikani o‘rgatishda elektron boshqaruvning metodologiyasi quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanadi:

- **Tizimli yondashuv** – o‘quv jarayoni kontent, o‘quvchi faoliyati, o‘qituvchi faoliyati, monitoring va baholashdan iborat yagona tizim sifatida ko‘riladi.
- **Adaptiv yondashuv** – tizim har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv trajektoriyalarini yaratadi.
- **Analitik yondashuv** – o‘quv ma’lumotlari asosida tahliliy hisobotlar ishlab chiqiladi.

- **Interfaollik** – o‘quv jarayonining real vaqt rejimida ikki tomonlama boshqarilishi va teskari aloqaning mavjudligi.

Matematikani o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi modeli quyidagi asosiy bloklardan iborat:

Diagnostika va monitoring bloki: o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligini aniqlash, real vaqt rejimidagi monitoring, xatoliklar xaritasini shakllantirish, sun’iy intellekt asosida muammoli nuqtalarni aniqlash.

Elektron ta’lim kontenti bloki: raqamli darslar, videodarslar, simulyatsiyalar, masalalarning avtomatik yechim jarayonini ko‘rsatish, interaktiv testlar va moslashtirilgan topshiriqlar.

Adaptiv boshqaruv bloki: har bir o‘quvchi uchun shaxsiy o‘quv trajektoriyasi, kognitiv darajaga mos topshiriqlarni avtomatik tanlash, o‘qituvchi uchun metodik tavsiyalar.

Tahlil va baholash bloki: natijalar bo‘yicha grafik va statistik tahlil, matematik fikrlash dinamikasini aniqlovchi indikatorlar, ota-ona va o‘qituvchilar uchun analitik hisobotlar.

O’qituvchi boshqaruv paneli: dars jarayonini masofadan turib boshqarish, o‘quvchilarning individual ko‘rsatkichlarini ko‘rish, rivojlantiruvchi topshiriqlarni avtomatik tavsiya qilish.

Elektron boshqaruv modelining afzalliklari: o‘quv jarayonini raqamli va aniq diagnostika asosida boshqaradi, har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan (adaptiv) o‘quv marshrutlari yaratiladi, o‘qituvchining vaqtini tejaydi, tahlil va baholashni avtomatlashtiradi, o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshiradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, ta’lim sifatini oshirishda katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellektdan foydalanadi.

Elektron boshqaruv modeli joriy etilganda quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:

1. O’quvchilarning matematik bilim darajasida o‘sish;
2. Xatoliklar sonining sezilarli kamayishi;
3. Mustaqil ishlash, tahlil qilish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
4. O’qituvchi mehnat unumdorligining oshishi;
5. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining samaradorlik ko‘rsatkichi ortishi.

Xulosa.

Matematikani o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi modeli ta’limning raqamli transformatsiyasiga mos zamonaviy tizim bo‘lib, o‘quv jarayonini avtomatlashtirish va tahliliy boshqarishni ta’minlaydi. Mazkur model o‘quvchilarning individual rivojlanish yo‘llarini elektron nazorat qilishga, matematik tafakkur evolyutsiyasini tahlil qilishga, o‘qituvchi faoliyatini optimallashtirishga hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O’quv jarayonining elektron boshqaruvi o‘z navbatida matematika ta’limida innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llash imkonini yaratadi va rivojlantiruvchi ta’lim modelining amaliyotda to‘liq ishlashini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abduqodirov A. A. / *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* — T.: O’qituvchi, 2020.
2. To‘xtasinov M. / *Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni.* — T.: Fan, 2021.
3. Mamarasulov B. / *Matematika o‘qitish metodikasi.* — T.: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Jo‘rayev, A., Qosimov, B. / *Elektron ta’lim tizimlari va ularning didaktik asoslari.* — T.: Innovatsiya, 2022.
5. O’zbekiston Respublikasi Raqamli ta’lim konsepsiyasi (2020–2025). – T., 2020.

TEXNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Abdurashidov Sharofiddin Do‘smatovich
Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi bo‘lim boshlig‘i,
Telefon: +998 (99) 014-47-90
E-mail: abdurashidovsharofiddin0509@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda texnologiya fanini o’qitish tajribalari tahlil qilinib, ularning O’zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya, AQSH kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o’rganilib, ta’lim jarayonida innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari ko’rsatib o’tilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется опыт преподавания предмета технологии в зарубежных странах и рассматриваются возможности его внедрения в систему образования Узбекистана. Изучен передовой опыт таких стран, как Финляндия, Япония, Германия, США, а также показаны методы использования инновационных и цифровых технологий в образовательном процессе.

Annotation: This article analyzes the experience of teaching technology in foreign countries and explores the possibilities of implementing these practices in the education system of Uzbekistan. The paper studies the advanced experience of countries such as Finland, Japan, Germany, and the USA, and highlights the use of innovative and digital technologies in the educational process.

Kalit so’zlar: texnologiya ta’limi, xorijiy tajriba, raqamli ta’lim, pedagogik innovatsiyalar, STEAM, loyiha asosida o’qitish.

Ключевые слова: технологическое образование, зарубежный опыт, цифровое обучение, педагогические инновации, STEAM, проектное обучение.

Keywords: technology education, foreign experience, digital learning, pedagogical innovations, STEAM, project-based learning.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, fanlarni o’qitishda xorijiy tajribalarni o’rganish va ulardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, texnologiya fani o’quvchilarda amaliy ko’nikmalarni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va mehnat madaniyatini tarbiyalashda muhim o’rin tutadi. Shu sababli, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va ularni O’zbekiston ta’lim amaliyotiga moslashtirish, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida fanlarni o’qitish samaradorligini oshirish, ayniqsa texnologiya fani orqali o’quvchilarning amaliy ko’nikmalarini rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o’rganish, ularni O’zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish orqali nafaqat o’quvchilarning bilim sifati, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muhandislik tafakkuri ham rivojlantiriladi. Mazkur maqolada Finlyandiya, Yaponiya, AQSH, Germaniya va O’zbekiston ta’lim tizimidagi texnologiya fanini o’qitishning ilg‘or tajribalari, ularning afzalliklari hamda qo’llanilayotgan innovatsion usullar aniq misollar asosida tahlil qilinadi.

Dunyoning ko’plab rivojlangan mamlakatlarida texnologiya fani o’quv dasturlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng samarali modellaridan biri sifatida tan olingan. Bu mamlakatda texnologiya fani “Craft Education” (qo’l mehnati va texnik ijodkorlik) nomi bilan 1-sinfdan boshlab o’qitiladi. O’quvchilarga turli loyihalar, masalan, yog‘ochdan buyum yasash, kichik elektr qurilmalarini yig‘ish, 3D printerda model yaratish kabi amaliy mashg‘ulotlar taklif etiladi. Masalan, “Oodi School Innovation Project” loyihasi doirasida o’quvchilar maktabdagi jihozlarni o’zlari loyihalab, 3D chop etish orqali yangilaydilar. Bu jarayon o’quvchilarning ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal etish va jamoada ishlash ko’nikmalarini rivojlantiradi. Finlyandiyada baholash jarayoni raqamli portfoliolar orqali amalga oshiriladi - har bir o’quvchi o’z loyihalarini elektron shaklda taqdim etadi.

Yaponiya ta’lim tizimi an’anaviylik va innovatsiyaning uyg‘unligiga asoslanadi. Texnologiya darslari maktablarning “Kogyo Gijutsu” dasturi asosida o’qitiladi. O’quvchilarga mexanik tizimlar, elektronika, robototexnika, muhandislik asoslari va ekologik muhandislik bo’yicha amaliy mashg‘ulotlar o’tiladi. Tokiodagi “Shibuya Junior High School”da har yili “Robot Challenge” tanlovi o’tkazilib, o’quvchilar Arduino va Lego Mindstorms asosida o’z robotlarini yaratadilar. Bu tajriba yoshlarni muhandislik, texnika va dasturlash sohalariga qiziqtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yaponiya ta’limida “Kaizen” tamoyili – doimiy takomillashtirish falsafasi asosida darslar olib boriladi, bu o’quvchilarda mehnatsevarlik va aniqlikni shakllantiradi.

Yaponiyada esa texnologiya darslari texnik tafakkurni rivojlantirishga, muhandislik yo'nalishiga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

AQSHda texnologiya ta'limi STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) va STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvlari orqali amalga oshiriladi. Bu tizim o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish, amaliy fikrlash, dizayn va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan, "Project Lead The Way (PLTW)" dasturi butun mamlakat bo'ylab 12 mingdan ortiq maktablarda joriy etilgan bo'lib, o'quvchilarga real muammolar asosida loyihalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, "MIT FabLab Network" orqali o'quvchilar 3D printerlar, lazer kesuvchilar va mikrokontrollerlar yordamida o'z innovatsion mahsulotlarini yaratadilar. Darslarda o'quvchilar jamoa sifatida ishlaydi, loyiha natijalarini onlayn platformalarda taqdim etadi va tahlil qiladi.

Germaniya ta'lim tizimida texnologiya fanining amaliy yo'nalishi kuchli. Mamlakatda "Dual Education System" (ikkilamchi ta'lim tizimi) joriy etilgan bo'lib, o'quvchilar bir vaqtning o'zida maktabda nazariy bilim oladi va korxonalarda amaliyot o'taydi. Masalan, Siemens kompaniyasi bilan hamkorlikdagi "Berufsschule" dasturi o'quvchilarga texnik loyihalar yaratish, ishlab chiqarish liniyalarini boshqarish va muhandislik dizaynini o'rganish imkonini beradi. Bu tizim o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ishlab chiqarishdagi real muammolarni hal etishga o'rgatadi. Bundan tashqari, Germaniyada texnologiya fanini o'qitishda ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va yashil texnologiyalar alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Masalan, Buyuk Britaniya maktablarida texnologiya fanini o'qitishda 'Design and Technology' moduli doirasida 3D-modellashtirish, robototexnika va dasturlash fanlari integratsiyalashgan. Bu tizim o'quvchilarda amaliy tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal etish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, interfaol doskalar, raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar texnologiya fanini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish haqidagi qarorlari so'nggi yillarda ta'lim tizimida katta islohotlarga sabab bo'lmoqda. Texnologiya fanini o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish, masalan, loyiha asosida o'qitish, STEAM dasturlarini tatbiq etish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida o'qituvchilar malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish jarayoni faol olib borilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda xorijiy tajribalarga asoslangan islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, "Raqamli ta'lim" platformalari, "STEAM markazlari", "Yosh texniklar" to'garaklari va "Innovatsion maktablar" tizimi yo'lga qo'yildi. Toshkent shahridagi 81-maktabda texnologiya fanini o'qitishda Finlyandiya modeli asosida loyiha-metodik yondashuv sinov tariqasida joriy etilgan. Namangan va Farg'ona viloyatlarida esa Yaponiya tajribasi asosida robototexnika laboratoriyalari tashkil etilgan. Shuningdek, "Yosh muhandislar" tanlovi orqali o'quvchilar o'z g'oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish imkoniga ega bo'lishmoqda. Bu tashabbuslar o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish, ixtirochilikka qiziqishini kuchaytirish hamda mehnat madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish texnologiya fanining mazmunini boyitadi, o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlaydi va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. Finlyandiya modeli o'quvchini ijodiy fikrlashga undasa, Yaponiya tizimi aniqlik va mehnatsevarlikni shakllantiradi. AQSH tajribasi orqali loyiha asosida o'qitish, Germaniya modeli orqali esa ishlab chiqarish amaliyotini ta'lim bilan uyg'unlashtirish mumkin. O'zbekiston uchun bu tajribalardan o'rganish, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish va ta'limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanini o'qitishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va raqamli tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni samarali amalga

oshirish uchun o’qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy ta’lim vositalari bilan ta’minlash hamda ilg‘or pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida”.
2. European Commission. (2023). Education and Training Monitor – Finland, Germany, Japan, USA.
3. OECD (2022). The Future of Education and Skills: Education 2030.
4. UNESCO (2023). Innovative Teaching and Learning in the Digital Era.
5. Project Lead The Way (PLTW). (2023). USA National STEM Education Initiative.
6. Siemens AG. (2022). Dual Education Model in Germany.
7. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2024). Raqamli ta’lim platformalari va STEAM markazlari faoliyati.
8. Karimov, B. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan.
9. Sayidov, A. (2020). Ta’limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot.

MILLIY TA’LIM TIZIMIDA XALQARO STANDARTLAR INTEGRATSIYASI: UMUMTA’LIM FANLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ollayorov Ulug‘bek Abdusattor o’g‘li
Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Fanlarni rivojlantirish bo‘limi” bosh mutaxassisi
tel 99-454-59-19
ollayorovulugbek27@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekiston milliy ta’lim tizimida xalqaro standartlarni integratsiya qilish masalalari, umumta’lim fanlarini rivojlantirishdagi dolzarb yo’nalishlar va istiqbollar yoritilgan. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, TALIS, CEFR)ning mazmuni tahlil qilinib, ularning milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish mexanizmlari o’rganilgan. Shuningdek, xalqaro tajribani milliy o’quv dasturlari bilan uyg‘unlashtirish, o’qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish va ta’lim sifatini baholashning yangi yondashuvlari bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: xalqaro standartlar, integratsiya, ta’lim sifati, PISA, TIMSS, umumta’lim fanlari, Milliy o’quv dasturi, ta’lim modernizatsiyasi

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы интеграции международных стандартов в национальную систему образования Узбекистана, актуальные направления и перспективы развития общеобразовательных предметов. Проанализировано содержание международных программ оценки (PISA, TIMSS, TALIS, CEFR) и изучены механизмы их внедрения в национальную систему образования. Также разработаны предложения по гармонизации международного опыта с национальными учебными программами, повышению профессионального потенциала учителей и новым подходам к оценке качества образования.

Ключевые слова: международные стандарты, интеграция, качество образования, PISA, TIMSS, общеобразовательные предметы, Национальная учебная программа, модернизация образования

Abstract: This article highlights the issues of integrating international standards into the national education system of Uzbekistan, current directions and prospects for the development of general education subjects. The content of international assessment programs (PISA, TIMSS, TALIS, CEFR) was analyzed, and the mechanisms for their implementation in the national education system were studied. Also, proposals have been developed for harmonizing international experience with national curricula, increasing the professional potential of teachers, and new approaches to assessing the quality of education.

Keywords: international standards, integration, quality of education, PISA, TIMSS, general education subjects, National Curriculum, modernization of education

Globallashuv sharoitida ta’lim sohasida xalqaro standartlarga moslashish va ularni milliy tizimga integratsiya qilish davlatning raqobatbardoshligini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi. O’zbekiston ta’lim tizimida ham xalqaro standartlar asosida fanlarni o’qitish mazmunini yangilash, o’quv dasturlarini modernizatsiya qilish va o’qituvchilar kompetensiyasini oshirish yo’lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro standartlarning milliy ta’lim tizimiga uyg‘un integratsiyasi o’quvchilarning ijodiy fikrlashini, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini va amaliy bilimlardan samarali foydalanish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Milliy ta’lim tizimida xalqaro standartlarni integratsiya qilish jarayonlarini tahlil etish, umumta’lim fanlarini rivojlantirishda ularning o’rni va istiqbollarini aniqlash, shuningdek, samarali integratsiya yo’llarini taklif etish.

Bugungi kunda ta’lim sifati xalqaro darajada baholanmoqda. O’zbekistonning PISA, TIMSS, TALIS kabi dasturlarda ishtiroki milliy ta’lim tizimining global baholash mezonlariga moslashuvini taqozo etmoqda. Xalqaro standartlar asosida o’quv jarayonini tashkil etish, ta’limda natijaga yo’naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi va o’quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantiradi. Shu sababli xalqaro standartlarni milliy sharoitda to’g‘ri qo’llash strategik ahamiyatga ega.

UNESCO, OECD, va World Bank kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida ta’lim sifatini oshirishning asosiy yo’li sifatida kompetensiyaga yo’naltirilgan yondashuv, natijaviy ta’lim va integratsion dasturlarni joriy etish taklif etiladi. O’zbekistonda Milliy o’quv dasturi (2022) ushbu yo’nalishda muhim qadam bo’lib, u PISA va TIMSS mezonlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Mahalliy olimlar — F. Karimov, Z. To’xtayev, G. Nazarova va boshqalar ta’limda xalqaro tajribani milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

1. Xalqaro standartlarni integratsiya qilishdagi asosiy muammolar:

O’qituvchilarning xalqaro baholash tizimlari va metodik yondashuvlar bo’yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi;

O’quv dasturlarining xalqaro mezonlarga to’liq mos kelmasligi;

Ta’lim sifatini baholashda yagona xalqaro o’lchovlar bilan uyg‘unlik yetishmasligi;

Ta’lim jarayonida amaliy, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarning kamligi.

2. Integratsiya jarayonidagi yechimlar:

O’qituvchilar uchun xalqaro standartlarga mos metodik kurslar tashkil etish;

Milliy o’quv dasturlarini PISA, TIMSS kabi mezonlarga moslashtirish;

Ta’lim jarayoniga raqamli resurslar, xalqaro onlayn platformalar (Khan Academy, Coursera, UNESCO Learning Portal)ni tatbiq etish;

O’quvchilarni mustaqil fikrlashga yo’naltiruvchi kompetensiyaviy topshiriqlar tizimini joriy etish.

3. Umumta’lim fanlarini rivojlantirish istiqbollari:

Har bir fan kesimida xalqaro standartlarga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish;

Xalqaro tajribani milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan integratsion o’quv dasturlarini yaratish;

O’qituvchilar va ilmiy-metodik markazlar o’rtasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

STEM-ta’lim, CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi zamonaviy yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish.

Xulosa

Milliy ta’lim tizimida xalqaro standartlarni integratsiya qilish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o’quvchilarning global fikrlashini, kompetensiyalarini va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsiya jarayonida milliy qadriyatlar, til, madaniyat va o’ziga xos o’qitish uslublarini saqlab qolish, ularni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish zarur. Shu tariqa,

O’zbekiston ta’lim tizimi nafaqat xalqaro darajada raqobatbardosh, balki o’z milliy o’zligini saqlagan zamonaviy tizim sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta’lim sohasidagi farmon va qarorlari.

2. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – 2015.

3. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning Outcomes. – 2023.

4. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Milliy o’quv dasturi. – Toshkent, 2022.

5. Karimov F. “Ta’limda xalqaro standartlarni milliy tizimga tatbiq etish istiqbollari”. – Ta’lim va innovatsiya, 2024.

MILLIY TARBIYA VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKA: AN’ANALAR VA INNOVATSIYALAR UYG‘UNLIGI

Almuratova Gulbaxor Mansur qizi
JDPU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada milliy tarbiya tushunchasi, uning o‘zbek an’analari asosidagi mohiyati hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashuvi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, pedagogika, jadidlar, milliy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, uzluksiz tarbiya, innovatsion metodlar.

Аннотация: В статье раскрывается понятие национального воспитания, основанное на узбекских традициях, и его сочетание с современными педагогическими подходами.

Ключевые слова: национальное воспитание, педагогика, современность, национальные ценности, современные технологии, непрерывное воспитание, инновационные методы.

Abstract: The article discusses the concept of national education, its foundation in Uzbek traditions, and its integration with modern pedagogical approaches.

Keywords: national education, pedagogy, new developments, national values, modern technologies, continuous education, innovative methods.

Yoshlar ongi va qalbida ma’naviy-axloqiy tushunchalarning chuqur o‘rin egallashi uchun xalqning milliy tarbiya usullari, buyuk allomalarimizning ilm-fanga qo‘shgan hissalari va boy merosiga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya tushunchasi shaxs ongiga, fe’l-atvoriga va dunyoqarashiga ta’sir etuvchi, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi qadriyatli yo‘nalishlarni shakllantirish jarayonidir.

Bugungi globallashuv davrida milliy tarbiyaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Turli madaniy ta’sirlar, axborot oqimi va texnologik taraqqiyot natijasida yoshlar ayrim hollarda milliy qadriyatlardan uzoqlashmoqda, xorijiy madaniyatlarga taqlid qilish holatlari kuzatilmoqda. Shu bois, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida ta’lim-tarbiya tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qarori — *“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”*gi hujjat yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishga qaratilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori bilan tasdiqlangan *“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”* milliy tarbiya tizimini rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi jadid namoyandalari yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor berganlar. Ular ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’kidlab, milliy tarbiyani millatning madaniy merosi, ma’naviy qadriyatlari va axloqiy me’yorlari bilan chambarchas bog‘lash zarurligini ilgari surganlar. Behbudiy tarbiyani ijtimoiy hayot va xalqaro voqealar bilan bog‘lab olib borishni,

Munavvarqori esa bola tarbiyasida nafaqat ota-onalar, balki jamiyat a’zolari ham mas’ul ekanligini ta’kidlagan.

Bugungi kunda milliy tarbiyani zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida har yili “Milliy tarbiya va zamon” mavzusida pedagogik simpoziumlar o‘tkazish rejalashtirilgan. Bunday anjumanlar o‘qituvchilarning malakasini oshirish, milliy qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Milliy tarbiyani zamonaviy shakllarda tatbiq etish yo‘llari:

- Interfaol ta’lim metodlari – o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirishda multimedia vositalaridan foydalanish.
- Onlayn ta’lim platformalari – masofaviy o‘qitish orqali milliy tarbiya g‘oyalarini keng targ‘ib etish.
- Tajriba asosida o‘qitish – amaliy mashg‘ulotlar orqali milliy qadriyatlarni bevosita o‘rgatish.

Shuningdek, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila milliy tarbiya tizimining poydevoridir. Ota-ona va maktab hamkorligi milliy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu maqsadda ota-onalar uchun maxsus seminarlar, treninglar, interfaol darslar tashkil etilishi lozim.

Oila sharoitida milliy tarbiya metodlari:

- O‘zbek xalq ertaklari, maqollari va rivoyatlari orqali ma’naviy qadriyatlarni singdirish;
- Ota-onaning shaxsiy namunasida milliy qadriyatlarni ko‘rsatish;
- Uy sharoitida tarixiy-madaniy suhbatlar o‘tkazish.

Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori doirasida “Milliy tarbiya maktabi” rukni ostida multimedia taqdimotlari va o‘quv materiallari tayyorlanishi rejalashtirilgan. Bu materiallar pedagoglarga milliy tarbiyaga oid innovatsion yondashuvlarni o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Milliy tarbiya yo‘nalishidagi tashabbuslar:

- “Milliy tarbiya ensiklopediyasi”ni yaratish – milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatga oid ilmiy-ma’rifiy bilimlarni tizimlashtirish;
- Televideniye va radio orqali “Tarbiyamiz maktabi”, “So‘rang! Javob beramiz, o‘rgatamiz” ruknida tok-shou va eshittirishlar tashkil etish;
- Ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib etish;
- Ota-onalarga milliy tarbiya bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish;
- Yoshlar orasida milliy g‘oya va qadriyatlarni mustahkamlash.

Milliy tarbiya nafaqat o‘zbek xalqining boy madaniy merosini asrab-avaylash, balki uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitish imkonini beradi. Bugungi kunda davlat tomonidan pedagogik simpoziumlar, multimedia vositalari, ensiklopediya yaratish, tele-radio loyihalar orqali milliy tarbiyani keng targ‘ib etish yo‘lida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milliy tarbiya tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish yosh avlodning ma’naviy yetuk, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, OAV va madaniy markazlar o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ–4307-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori.
3. Bekmurodov A. “Tarbiya ustuvor yo‘nalishlari.” // *Xalq ta’limi,* 2004. №1. – 21-b.
4. *Jadid.uz* elektron gazetasi.

TABIIY FANLAR DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Xolboyeva Munisxon Mavlanovna
Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi,
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqola tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishning afzalliklari va samaradorligini yoritishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar*:** *Tabiiy fanlar, SCIENCE, ta’lim, PISA, XXI asr ko‘nikmalari kreativ fikrlash, qobiliyat.*

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Kreativlik inglizcha ”create” so‘zidan olingan bo‘lib, ”yaratish” ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda, insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Bu qobiliyatni shakllantirishda, rivojlantirishda ustoz va o‘qituvchilarning roli nihoyatda katta hisoblanadi.

Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmalarini, shu jumladan, ijodiy iste’dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. O‘quvchining qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki, avvaldan belgilangan ta’lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu ayniqsa, ta’lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. Boshqa ko‘nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo‘naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin.

PISA baholash dasturidan kreativ fikrlashni baholashning asosiy doirasi sifatida foydalanish mumkin. PISA dasturida15 yoshli o‘quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta’sirchan ko‘rinishlarga olib keladigan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta’riflanadi. Ushbu tavsif o‘quvchilarning turfa kontekst va ta’lim darajasida g‘oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o‘rganishlari kerakligiga, g‘oyaning o‘ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g‘oyani takomillashtirishga urg‘u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan.

Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo‘lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an’anasiga ega bo‘ladi. Quyida o‘quvchilarni tabiiy fanlar darslari orqali kreativ fikrlashini oshirishga qaratilgan topshiriqlardan namunalar keltiriladi.

1-TOPSHIRIQ

Anvar diabet bilan og‘riydi.

U quyida keltirilgan mahsulotlardan qaysi birini o‘ta ehtiyotkorlik bilan iste’mol qilishi zarur?

A. Mol go‘shti B. Tuxum C. Sut D. Mevali sharbat

2-TOPSHIRIQ


Mashqlarning salomatlikka nima uchun foydali ekanligining bitta sababini ayting.

_____

3-TOPSHIRIQ

1-va 2- rasmlarda tashqi muhit sharoitining o‘zgarishiga bitta odamga mansub ko‘zlarning javob reaksiyasi tasvirlangan. Bunda tashqi muhitning qaysi omillari ta’sir etadi hamda 1-va 2-


rasmlarda tasvirlangan ko‘zlar bir-biridan qanday farq qiladi?



4-TOPSHIRIQ

Rasmda Menks zotiga tegishli ikkita mushuk tasvirlangan. Bunday zotli mushuklarning dumi yo‘q yoki juda kalta bo‘ladi.

Ota-onasi Menks zotiga tegishli bo‘lgan, birgalikda o‘sgan mushuk bolalarida dum bo‘ladimi?



Ha / Yo‘q

Javobingizni tushuntiring.

5-TOPSHIRIQ

Asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi

1/5-savol

O‘ng tomonda joylashgan “asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi” matnini o‘qing. Savolga javobingizni yozing.

Matn: “Butun dunyodagi asalari uyalariga xavfli hodisa tahdid soladi. U “asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi” deb nomlanadi. Buning mohiyati shunda-ki, asalarilar o‘z uyalarini tark etishadi va natijada nobud bo‘lishadi. Shunday qilib, mazkur sindrom o‘n milliardlab asalarilarning o‘limini keltirib chiqardi. Olimlarning fikricha, asalarilar oilalari nobud bo‘lishining bir nechta sabablari bor.”



Savol: “Asalarini ko‘paytirayotgan va ularni tadqiq etayotgan insonlar shuni bilishlari muhimki, “asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi” asalarilargagina ta’sir etib qolmaydi. Qushlarni o‘rganayotgan insonlar ham uning ta’sirini payqashdi. Kungaboqar ham asalarilar, ham qushlar uchun oziq manbai bo‘lib xizmat qiladi. Asalarilar o‘simlikning nektari, qushlar esa urug‘i bilan oziqlanadi.

Shu bog‘liqlikni inobatga olib, asalarilarning yo‘q bo‘lib ketishi qushlar populyasiyalarining qisqarishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiring”.

Mazkur savolga to‘g‘ri javob berib, ball olishlari uchun o‘quvchilar gullar changlanmasdan turib, urug‘ hosil qila olmasliklarini o‘z javoblarida ifodalashlari kerak. Bu topshiriq “Hodisalarni ilmiy asoslash” kompetensiyasiga oid bo‘lib, o‘quvchilar tabiiy fanlardan egallagan bilimlariga asoslanib, hodisani ta’riflashlari zarur.

6-TOPSHIRIQ

Asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi

2/5-savol


Savol: O‘ng tomonda joylashgan “Imidaklopridning ta’siri” matnini o‘qing. Ochiluvchan ro‘yxatdan to‘g‘ri tugallangan jumlani tanlang.

Keyingi jumlani to‘ldirib, olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribani tavsiflang.

Matn:“Olimlar fikricha, asalarilar oilalarining nobud bo‘lishining bir qancha sabablari bor. Shulardan bittasi imidakloprid deb nomlangan insektesid bo‘lib, uning ta’sirida asalarilar uyasidan tashqarida mo‘ljal olish qobiliyatini yo‘qotishlari mumkin.



Olimlar imidakloprid asalarilar oilalarining nobud bo‘lishiga ta’sir etishi yuzasidan bir necha tajribalar o‘tkazishdi. Ular uch hafta davomida asalalarilar oziqasiga imidaklopriddan qo‘shishdi. Turli uyalarda turli xil konsentrasiyalar qo‘llanildi. Ayrim uyalarda esa insektesid umuman qo‘llanilmadi. Insektesid bilan ta’sirlashganidan keyin hyech bir asalari oilasi darhol nobud bo‘lmadi. Shunga qaramasdan, 14-haftaga kelib, asalarilar uyalari bo‘shab qoldi. Tajriba natijalari quyida chizmada keltirilgan. O‘quvchilar ochiluvchan ro‘yxatdagi uchta javobdan bittasini, ya’ni to‘g‘ri javobni tanlashlari kerak bo‘ladi. Bunda ular savol mazmunini tushunishlari aniqlanadi. Shunday qilib, bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarning tabiiy fanlarning tadqiqot metodlarini qo‘llay olish kompetensiyasiga tegishli bo‘lgan ko‘nikmalari tekshiriladi. Ochiluvchan menyuda quyidagi uchta variant taqdim etiladi: asalarilar oilasining nobud bo‘lishi; imidaklopridning ovqatdagi konsentrasiyasi; asalarilarning imidaklopridga ta’sirchan emasligi.



To‘g‘ri javob - bu birinchi variant. “Asalarilar oilasiga ko‘p miqdorda imidokril ta’sir ettirilganda, asalari oilalari tezroq nobud bo‘lgan. Chizmani tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkin, ya’ni 14-haftadan 20-haftagacha 20 mg/kgga nisbatan 400 mg/kg miqdorda preparat ta’sir ettirilganda asalarilar oilasining nobud bo‘lish foizi oshgan.

Kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko‘nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining eng muhim elementlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Mazkur ko‘nikma, yoshlarga, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan, zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko‘ra ko‘proq natija, ya’ni, tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so‘z bilan aytganda, XXI asr ko‘nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga moslanuvchan shaxs bo‘lib voyaga yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni

2. Sh.Yuvashov, B.Akbarov “Kreativ fikrlash” o‘quv qo‘llanma, Namangan-2024

3. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash” qo‘llanmasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, Toshkent, 2019 yil

4. “Kreativ fikrlashni baholash” qo‘llanmasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, Toshkent, 2021 yil

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALALABALARIDA KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKA FANIDAN AMALIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Jalolov Ilxomjon Azamjonovich
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalariida klinik laborator diagnostika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ularning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Klinik laborator diagnostika ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlari, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi, innovatsion texnologiyalar va simulyatsion treninglarning o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: klinik laborator diagnostika, amaliy ko‘nikma, tibbiy ta’lim, simulyatsion texnologiya, kompetensiya, laborator mashg‘ulot, innovatsion metod.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития практических навыков студентов медицинских вузов при изучении дисциплины «Клиническая лабораторная диагностика» с применением современных педагогических технологий. Научно обоснованы особенности образовательного процесса по клинической лабораторной диагностике, методика организации практических занятий, а также роль инновационных технологий и симуляционных тренингов в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: клиническая лабораторная диагностика, практические навыки, медицинское образование, симуляционные технологии, компетенция, лабораторное занятие, инновационный метод.

Annotation: This article explores the issues of developing and enhancing the practical skills of medical university students through the use of modern pedagogical technologies in teaching the discipline *Clinical Laboratory Diagnostics*. The specific features of the educational process in clinical laboratory diagnostics, the methodology of organizing practical classes, and the role of

innovative technologies and simulation training in improving learning effectiveness are scientifically analyzed.

Keywords: clinical laboratory diagnostics, practical skills, medical education, simulation technology, competence, laboratory practice, innovative method.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish kurslarning soni va sifati: Ushbu mezonni tahlil qilishda ikki omilni hisobga olish kerak. Birinchidan, ta’limning masofaviy shakli elementlaridan foydalanishning tabaqalashtirishni amalga oshirish kabi maqsadi haqida gap ketganda, unga ko‘ra, deyarli har bir dars, va binobarin, kursning barcha bo‘limlari va mavzulari bo‘yicha (miqdorga talab) uchun masofaviy kurslarning keng doirasiga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, bu vaziyatda bir qator talablarga javob berishi shart[3].

Xususan, bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning komponentlari hisoblangan o‘quv elektron nashrlar tabaqalashtirilgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan modullarning yetarli sonidan tashkil topgan bo‘lishi zarur. Har bir model mantiqiy tugallanganlik bilan ifodalanishi zarur.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish kurslarnig soni va sifati masalasi haqida gap ketganda ularning Internetning rus tilidagi segmentida juda kamligini (yetarli emasligini) va ularning juda oz qismi yuqorida ko‘rsatilgan talablarga javob berishini ta’kidlab o‘tish lozim. Shu bilan birga, masofaviy kurslar, ayniqsa klinik laborator diagnostika bo‘yicha masofaviy kurslar sonining tez oshib borayotganlik an’anasini ham ta’kidlash joiz.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning barcha ehtiyojlarini to‘laqonli darajada qondirmaydi. O‘qitishning interfaol shakli talabalarning ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligining rivojlanishiga juda past darajada qaratilgan, mustaqil ta’lim olish bo‘yicha zarur malakalarni rivojlantirish imkonini bermaydi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, bunday malakalar talabalar uchun ayniqsa klinik laborator diagnostikani o‘qitishda zarur. Bu asosan klinik laborator diagnostikada bilimlarning eskirib borish jarayoni boshqa fanlardagiga qaraganda tezroq kechishi bilan bog‘liq. Yangi kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi klinik laborator diagnostika kursi mazmuniga yangi bo‘limlar va mavzularni kiritish zaruratiga olib keladi. Shu munosabat bilan, nafaqat bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan, balki yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish ham shakllantirish imkonini beradigan klinik laborator diagnostikaga o‘qitishni tashkil qilishga ehtiyoj yuzaga keladi. Ko‘p sonli didaktik va metodik tadqiqotlar o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash o‘quv jarayonini jadallashtirish, talabalarning ijodiy faolligini oshirish imkonini beradi, hamda ularning ijodiy mustaqil faoliyati uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydi.

Masalan, E.I.Mashbits axborot texnologiyalarining quyidagi didaktik imkoniyatlarini ko‘rsatadi:

o‘quv axborotining kengaytirilgan imkoniyatlarini taqdim etish (berish);

o‘qitish jarayonini individuallashtirish imkoniyati;

o‘qish (ta’lim olish) uchun motivatsiyani kuchaytirish imkoniyati;

mustaqil o‘quv faoliyatini boshqarishning samarali usullarini amalga oshirish imkoniyati

Demak, yuqorida o‘rganilgan mezonlar bugungi kunda avvalambor klinik laborator diagnostika fanini o‘qitishda ta’limning bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishan foydalanishning mavjud imkoniyatlari mavjudligi haqida dalolat beradi. Bundan tashqari, klinik laborator diagnostika kabinetining texnik jihatdan tegishlicha jihozlanganligi, o‘qituvchining klinik laborator diagnostika darslarida ta’limning masofaviy shaklini qo‘llashga tayyorligi, tarmoqda sifatli bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning yetarli sonining mavjudligi shartidagina bazaviy kurs doirasida

bo‘lajak tibbiyot xodimlarini klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelini samarali amalga oshirsa bo‘lishini takidlab o‘tish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tayloqov N.I. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Ma’ruza matni. motm.tma.uz/site/wp-content/.../09/3-2-1-MA’RUZA.pdf.

2. Toshtemirov D. E. Klinik laborator diagnostika va axborot texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. http://uz.denemetr.com/docs/769/index-317751-1.html?page=6.

3. Толипов Ў.Қ., М.Усмонбоев Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари// ўқув қўлланма//- Тошкент, 2006. – 116 б.

TA’LIM TIZIMIDA STRATEGIK MENEJMENTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Bo‘ronboyeva Xushriyo Toshkenboyevna,
Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimida strategik menejmentning o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Strategik menejment tushunchasi, uning asosiy bosqichlari hamda ta’lim muassasalarida qanday tatbiq etilishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar fonida strategik yondashuvning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va ilg‘or xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim menejmenti, strategik boshqaruv, rejalashtirish, ta’lim islohotlari.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются роль и значение стратегического управления в системе образования. В теоретическом и практическом плане анализируются понятие стратегического управления, его основные этапы и особенности его реализации в образовательных учреждениях. Обосновывается актуальность стратегического подхода на фоне реформирования системы образования Узбекистана. Также рассматриваются существующие проблемы, пути их преодоления и возможности использования передового международного опыта.

Ключевые слова: управление образованием, стратегическое управление, планирование, реформа образования.

Annotation: This article extensively discusses the role and importance of strategic management in the education system. The concept of strategic management, its main stages, and how it is implemented in educational institutions are analyzed theoretically and practically. The relevance of the strategic approach is also substantiated against the background of reforms in the education system of Uzbekistan. The article also considers existing problems, ways to overcome them, and opportunities for using advanced international experiences.

Keywords: Educational management, strategic management, planning, educational reforms.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’limda kredit-modul tizimining joriy etilishi, xalqaro reytinglarga kirish bo‘yicha intilish, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limda sifatli kadrlar tayyorlashga e’tiborning kuchayishi bularning barchasi strategik rejalashtirish zaruratini oshiradi. Strategik menejment bu tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv faoliyatidir. U tashqi va ichki muhitni chuqur tahlil qilish, real maqsadlar qo‘yish, samarali strategiyalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va doimiy monitoring orqali natijalarni baholash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Strategik menejmentning asosiy xususiyati kelajakka yo‘naltirilganlik, tizimli fikrlash va harakatlarning uzviyligini ta’minlashdir.Ta’lim tizimi uchun bu yondashuv juda muhim, chunki bugungi global raqobat va texnologik o‘zgarishlar sharoitida ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi tashkilot, balki innovatsion va strategik sub’yekt sifatida faoliyat yuritishi kerak. Strategik

menejment yordamida ta’lim muassasalari o‘z yo‘nalishlarini aniqlaydi, resurslarini rejalashtiradi va natijalarni o‘lchab boradi.[41]

Strategik menejment ta’lim muassasalari faoliyatining barcha yo‘nalishlarida qo‘llanilishi mumkin.

a) Har bir ta’lim muassasasi o‘zining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Bu strategiyada o‘quv dasturlarini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi masalalar qamrab olinadi.

b) Ta’limda raqamli texnologiyalar, masofaviy o‘qitish, STEAM yondashuvi kabi innovatsion usullarni joriy etish strategik qarorlar asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

s) Strategik menejment resurslarni – inson kapitali, moliyaviy mablag‘lar, moddiy-texnik baza – oqilona boshqarishni taqozo etadi. Bu orqali ta’lim muassasasining barqaror va samarali ishlashi ta’minlanadi.

d) Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ta’lim muassasasi o‘zining imijini yaratishi, sifatli ta’lim xizmatlarini taklif etishi zarur. Strategik menejment ushbu jarayonlarni boshqarishda muhim vositadir.[42]

Bugungi kunda strategik menejmentni ta’lim tizimida to‘liq joriy etishda qator muammolar mavjud. Ko‘plab ta’lim rahbarlari strategik boshqaruvga oid bilim va ko‘nikmalarga ega emas. Bu esa uzoq muddatli rejalashtirishda qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘plab muassasalarda qarorlar statistik yoki ilmiy asosda emas, balki an’anaviy tajribaga asoslangan holda qabul qilinadi. Strategik rejalar ishlab chiqilgani bilan, ularning bajarilishi ustidan samarali monitoring olib borilmaydi. Bu esa natijalarga erishishni qiyinlashtiradi. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda har bir sohada, xususan, ta’lim tizimida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi kuchli ijtimoiy institut sifatida har doim e’tiborda bo‘lib kelgan. Shu boisdan, ta’lim sohasini boshqarishda an’anaviy yondashuvlar o‘zini oqlamay qoldi va o‘rnini strategik menejment kabi ilg‘or konsepsiyalar egallamoqda.

Strategik menejment – bu tashkilotning uzoq muddatli maqsadlarini aniqlash, ularni amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqish, resurslarni samarali taqsimlash va tashqi hamda ichki muhitdagi o‘zgarishlarga mos ravishda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimidir[43]. Bu yondashuv bugungi kunda korxonalar, davlat muassasalari bilan bir qatorda ta’lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar – texnologiyalar jadal rivojlanishi, mehnat bozorining tez o‘zgarishi, yosh avlodning ehtiyojlari va qadriyatlaridagi farqlanishlar – ta’lim muassasalaridan oldindan rejalashtirilgan, puxta o‘ylangan va barqaror rivojlanishga qaratilgan boshqaruvni talab qilmoqda.

1. Strategik menejment ta’lim muassasasining faoliyatini rejalashtirishda, natijadorligini oshirishda va uni raqobatbardosh sub’yekt sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy vazifalarini quyidagicha izohlash mumkin:

2. Missiya va vizionni shakllantirish: Har qanday strategik boshqaruv eng avvalo ta’lim muassasasining maqsadini – ya’ni nima uchun faoliyat yuritayotganini, kelajakda qanday holatga erishmoqchi ekanini aniqlashdan boshlanadi. Bu orqali tashkilotning umumiy yo‘nalishi belgilanadi.

3. Atrof-muhit tahlili: Strategik menejment tashqi va ichki muhitni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bunga siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy omillar, raqobatchilar, texnologik o‘zgarishlar, ta’lim sohasidagi davlat siyosati, qonunchilik va mehnat bozori ehtiyojlari kiradi.

---

[41] Bozorov, D. M. Innovatsion texnologiyalar va strategik menejment: ta’lim tizimida qo‘llanilishi. Toshkent: Universitet nashri. Innovatsiyalar va strategik boshqaruv o‘rtasidagi bog‘liqlik. 2021.

[42] UNESCO. Strategy for Education 2030. Paris: UNESCO Publishing. Ta’limni strategik rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hujjat. 2019.

[43] Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press. Strategik menejment asoslari va raqobatbardoshlik haqida klassik asar. 1985.

4. SWOT-tahlil: Muassasaning kuchli (Strengths) va zaif (Weaknesses) tomonlari, tashqi imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlar (Threats) aniqlanadi. Bu tahlil asosida rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi.

5. Strategik maqsadlar belgilash va rejalashtirish: Strategik menejment uzoq muddatli maqsadlar va ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi. Masalan, 5 yillik rivojlanish dasturlari, ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro reytinglarda yuqori o‘rin egallash kabi.

6. Natijadorlikni baholash: Strategik menejment doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini o‘lchash, natijalarni tahlil qilish va kerak bo‘lsa strategiyani qayta ko‘rib chiqish muhim bosqich hisoblanadi.[44]

Ta’lim tizimida strategik menejmentni joriy etish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, bu tizim orqali ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini aniq maqsadlar asosida yo‘naltiradi va samarasizlik holatlarini kamaytiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, strategik boshqaruv tizimi mavjud bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari ko‘proq ilmiy innovatsiyalar, xalqaro grantlar, talabalar almashinuvi kabi yo‘nalishlarda muvaffaqiyat qozonmoqda.

a) Resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi;

b) Ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

s) Kadrlar siyosatini takomillashtiradi;

d) Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi;

Tashqi muhitda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga tezkor moslashishga yordam beradi, ichki tizimda barqarorlikni ta’minlaydi.

Bugungi kunda aksariyat oliy ta’lim muassasalari o‘z rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Xususan, elektron ta’lim tizimini keng joriy qilish, raqamlashtirish, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish, ilmiy salohiyatni oshirish kabi yo‘nalishlar ustuvor strategik vazifalar sirasiga kiradi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga chuqur kirib kelishi boshqaruvga nisbatan yondashuvlarni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn platformalar, sun’iy intellekt yordamida baholash tizimlari, o‘quv jarayonini monitoring qilish vositalari – bularning barchasi strategik menejment orqali samarali boshqarilishi mumkin bo‘lgan jarayonlardir.

Strategik menejment raqamli transformatsiyani nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv madaniyati, kadrlar salohiyati va o‘quv jarayonining butunlay yangi formatga o‘tishi sifatida qabul qiladi. Bu borada strategik yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ta’lim tizimida strategik menejmentni joriy etishdagi quyidagi muammolar mavjud.

a) Rivojlangan strategik fikrlashga ega menejerlar yetishmasligi;

b) Ta’lim muassasalarining o‘zini o‘zi moliyalashtirish darajasining pastligi;

s) Oliy ta’limdagi byurokratik to‘siqlar;

d) Innovatsion g‘oyalarga bo‘lgan qarshiliklar.

Axborot texnologiyalarini joriy etishdagi texnik va moliyaviy cheklovlar.Bu muammolarni hal etish uchun ta’lim tizimini boshqarishda markazlashgan emas, balki desentralizatsiyalashgan, ya’ni muassasalarni mustaqil strategik qarorlar qabul qilishga undovchi mexanizmlarni joriy etish lozim. Shuningdek, menejerlar va rahbar xodimlar uchun strategik boshqaruv bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press. Strategik menejment asoslari va raqobatbardoshlik haqida klassik asar. 1985.

2. Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. Exploring Corporate Strategy. Pearson Education.Strategik menejmentning nazariyasi va amaliyoti. 2008.

[44] Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. Exploring Corporate Strategy. Pearson Education.Strategik menejmentning nazariyasi va amaliyoti. 2008.

3. Bozorov, D. M. Innovatsion texnologiyalar va strategik menejment: ta’lim tizimida qo‘llanilishi. Toshkent: Universitet nashri. Innovatsiyalar va strategik boshqaruv o‘rtasidagi bog‘liqlik. 2021.

4. UNESCO. Strategy for Education 2030. Paris: UNESCO Publishing. Ta’limni strategik rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hujjat. 2019.

5. Uzbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi. Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.Milliy ta’lim strategiyasining rasmiy hujjati. 2023.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA QILISHDA RAQAMLI TA’LIM TEHNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi.
Saydullayeva Oydina Dilshod qizi
University of business and science
Oliy ta’lim muassasasi

Annotatsiya: *Diagnostika qilishda raqamli ta’lim texnalogiyalaridan foydalanish bugungi rivojlanish jarayonida ancha oson kechadi, buning uchun raqamli ta’lim texnalogiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va diagnostika jarayonida to‘g‘ri qo‘llash lozim hisoblanadi. Ushbu maqolada diagnoz qilish usullaridan foydalanishda raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so‘zlar: raqamli ta’lim, *tashxislash, aqliy rivojlanish, texnalogiya, yo‘riqnoma, suhbat, kuzatish, ko‘nikma, tayyorgarlik, diagnoz qilish,yondashish,omil.*

Kirish. Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish, jumladan bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’limning Davlat o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqilib, unda rivojlantiruvchi, ijodiy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda. 2019-2023-yillar davomida qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosida diagnostik vositalarni joriy etish va pedagoglar malakasini oshirish dasturlari takomillashtirildi. Bolaning maktabga tayyorgarlik darajasini baholovchi milliy indikatorlar ishlab chiqilmoqda. Katta va tayyorlov guruhlari misolida baholash tizimining standartlashtirilishi bolalarning rivojlanishini kuzatishda muhim omil bo‘lmoqda. Bundan tashqari, psixologik-pedagogik kuzatuv, ko‘p bosqichli diagnostika, va kompleks rivojlanish xaritasi kabi ilg‘or metodlar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Dunyoda maktabgacha ta’limda diagnostika tizimini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilgan. Jumladan Kanadada maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligi va tayyorgarlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan “Rivojlanish monitoringi tizimi” (Early Development Instrument – EDI) loyihasi amalga oshirilgan. Buyuk Britaniyada “Boshlang‘ich tayyorgarlikni baholash modeli” (School Readiness Assessment Framework) loyihasi maktabgacha yoshdagi bolalarning tayyorgarligini aniqlash uchun ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan. AQSHda bolalarning ijtimoiy-emotsional va lingvistik rivojlanishini aniqlash maqsadida “Bolalar uchun integral rivojlanish diagnostikasi” (Diagnostic Assessment of Preschool Children) ilmiy-tadqiqot loyihasi amalga oshirilgan.

Diagnostika (yunon tilida «dia»- shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma’noni bildiradi)-o‘rganilayotgan ob’ekt yoki jarayon to‘g‘risida aniq ma’lumot olishning umumiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtai nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to‘g‘ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato tashxis esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo‘qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana aozolari salomatligi to‘g‘risida aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog‘liqqa ham bevosita aloqadordir.

Ta’lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo‘lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv maskanlari o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchi-

yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta’lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning echimlarini topishga o‘rinishmaydi. O‘quvchilar va bolalarning aqliy rivojlanishlari ko‘p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, zarur bo‘lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik tashxis- pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy -psixologik ta’sir ko‘rsatish haqidagi axborotlarning majmui. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «tarbiya» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo‘lgan obraz- «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo‘lib hisoblanadi.

Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida taokidlab, «Janobi Haq insonlarning asl xilqatda isteodod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi»-deb ta’kidlaydi. SHunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va echimini topishda pedagogik tashxis hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalarida hukmronlik qilayotgan dunyoda ta’lim tizimi bolalarni raqamli innovatsiyalar bilan to‘ldirilgan kelajakka tayyorlashdek muhim muammoga duch kelmoqda. Shu sababdan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning diagnostik tizimini metodik takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini oshirishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo‘lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qobiliyatiga ega, fanning asosiy prinsiplari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodiy tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash zarur. Bu esa, ayniqsa, tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish lozimligini ko‘rsatadi. Kasbiy pedagogik faoliyatdagi dolzarb masalalardan biri zamonaviy tarbiyachi-pedagog imidjini shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu orqali tarbiyalanuvchilarning maktab ta’limidagi raqamli muhitga sifatli tayyorlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda pedagogik diagnostika jarayonida raqamli ta’lim texnalogiyalaridan foydalanish: birinchidan, individual ta’lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika va raqamlashtirish yordamida ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T.: 2018.

2.Sh.A.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. Tafakkur sarchashmalari. T.2017-y.

3.N.M.Kayumova Maktabgacha pedagogika. TDPU nashriyoti. 2017-y.

4. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ -T., 1994 .-89 б

5. F.Qodirova.Maktabgacha pedagogika.darslik.2019 y.T.Tafakkur nashriyoti.

5.D.Q.Asqarova.Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi.o‘quv qo‘llanma.Namangan.2020.

KATTA VA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING KITOBGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI TARBIYALASHDA ZAMONAVIY YONDOSHUV.

Muminova Dilfuza Bahromjanovna
University of Business and Science
Oliy ta’lim muassasasi magistranti
Telefon.(998503019197)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshning bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning zamonaviy usullari keltirilgan bo‘lib, katta va tayyorlov guruhlarida bolalarni badiiy adabiyotga qiziqishlarini shakllantirish va ularni axloqan va ma’nan yetuk qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o‘rni haqida yoritilgan. *Maqola pedagog va tarbiyachilarga metodik tavsiyalar berish bilan birga amaliy mashg‘ulotlar uchun ham foydalidur.*

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, badiiy adabiyot, ota –onalar bilan ishlash, metodika , *didaktik o‘yinlar,pedagogik metodika,raqamli texnalogiyalar.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son “Qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-sonli “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, qarorlari va farmonlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunday sa’y-harakatlar zamirida o‘z fikri va dunyoqarashi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan bilimli va ma’naviyatli yoshlarni har jihatdan mukammal tarbiyalash vazifasi turibdi. Kitob bolaning aqliy ma’naviy estetik jihatdan boyishi uning kelajakda etuk inson bo‘lib etishishiga uchun yordami kattadir. Bolalarni badiiy adabiyot bilan maqsadga yo‘llagan holda puxta o‘ylangan tarzda tanishtirish ularning ijodiy qobiliyatlarini, nutq, fikr yuritishdagi mustaqilliklarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda ota-onalar va tarbiyachilar – badiiy adabiyot asarlarini o‘qib yoki hikoya qilib berishlari katta ahamiyat kasb etadi. Biroq asarlarni bolalarga o‘qib berishdan oldin kattalarning o‘zi uni tahlil qilib chiqishi, uning g‘oyaviy mazmunini tushunib, badiiy mujassamlashtirish usuliga muvofiqligini aniqlab olishlari kerak. Hikoya yoki she’rnining g‘oyaviy yo‘nalganligini tushunish, uning syujet-mantiqiy, ma’naviy qismlarni, umuman kayfiyatini ajratib ko‘rsatish, ularning har birida muallif nima demoqchiligini aniqlash muhimdir. To‘g‘ri tushunilgan muallif fikri, badiiy obrazlar kitobni ifodaliroq o‘qishga yordam beradi. Maktabgacha ta’limda badiiy adabiyot orqali bolalarda ko‘plab jihatlar rivojlanadi.

1. Manaviy tarbiya .
2. Nutqi, tafakkuri xotirasi o‘sadi.
3. Tasavvur qilish qobilyati o‘sadi.
4. Ijodkorlik faollashadi .
5. Savodga tayyorgarlik bosqichi rivojlanadi .

Bolalarni maktabga tayyorlash va badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otishda matnni bolalarga ifodaliroq o‘qishga taqdim etish uchun ba’zi texnik usullarni ham egallagan bo‘lish kerak: nafas

olishni ovoz tembrini, uning kuchini boshqara olish, diktsiyaning aniqligi, urg‘ularning to‘g‘riligini kuzatish va hokazo. O‘qishda intonatsion jihatdan xilma-xillikka erishish ovozga emotsional tus berish orqali mazmun bera bilish tasvirlangan hodisalarga o‘z munosabatini bildira olish muhimdir. Faqat ifodali o‘qishgina asarning bola tomonidan to‘laqonli idrok etilishiga yordam beradi, uni fikr yuritishga, asar mazmunini personajlar va ularning xatti-harakatlarini baholashga undaydi. Bunga suhbat orqali, asarning nimasi yoqqanligi, nega yoqqanltgt, nimani eslab qolganligi va shu kabi savollar orqali erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta va tayyorlov guruhlari ertakalarni sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan: “Sholg‘om” ertagi, “Zumrad va Qimmat”, “Bo‘g‘irsoq”, “Oltin tarvuz” kabi ertakalar. Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o‘qib berish, sahna ko‘rinishi kabi didaktik o‘yinlardan foydalanadi .

Xulosa qilib aytganda kitobxonlik maktabgacha yoshdagi bolalarni mushohoda va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrini charhlaydi, teranlashtiradi, hodisalar mohiyatiga xos farqlar va mushtarak xususiyatlarni idrok qilishga, ulardan umumlashma xulosalar chiqarishga yo‘l ochadi. Badiiy adabiyot bolalardagi insonparvarlik his-tuyg‘ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a’zolariga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham qaysi bir bayram tadbirlar, badiiy kechalar va xar bir faoliyatlarni badiiy adabiyotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi . Badiiy adabiyot orqali har bir guruh kichik, o‘rta , katta va tayyorlov guruhlari bolajonlari qalbiga mardlik, ezgu yaxshi fazilatlar , fidoiylik kabi fazilatlarni xislatlarni singdirib kelmoqdamiz .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T..“O‘zbekiston”, 2017 y.
2. Mirziyoev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 y. 7 dekabr. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.* https://lex.uz/docs/4646908
4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312- son Qaroriga ilova.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «M**aktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori. 2020 yil 22 dekabr.
6. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T:. 2013
7. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. –T. “O‘qituvchi”, NMIU, 2011 y. – 320 b.
8. Safarov O., Mahmudov M. Kitobxonlik – ma’naviyat kaliti. /“Oila ma’naviyati”. –T.: “Ma’naviyat”, 2009 y. – 248 b.
9. Xasanboeva O. U. va boshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2012.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK TIZIMI

Naqibjonova Maftuna Zohidjon qiz
University of Business and Science
Oliy ta’lim muassasasi magistranti
Telefon.(998939478243)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv faoliyatini rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlashning didaktik tizimlari yoritilgan. Kognitiv*

qobilyatlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, bolalarda o‘rganish va rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Kognitivlik jarayonlari bo‘lada bilish, his qilish, aqliy faoliyatlar orqali turli xil didaktik o‘yinlar orqali namoyon bo‘ladi. Maqola pedagog va tarbiyachilarga metodik tavsiyalar berish bilan birga amaliy mashg‘ulotlar uchun ham foydalidur.

Kalit so‘zlar. *Kognitiv faoliyat, maktabgacha ta’lim, didaktik tizim, bolalarni maktabga tayyorlash, psixologik xususiyatlar, bilish jarayoni, didaktik o‘yinlar,pedagogik metodika*

Kirish

Maktabgacha ta’lim tizimiga bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda . Respublikamizda ta’lim tarbiya tizimining boshlang‘ich poydevori bolgan maktabgacha ta’limni sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini taminlash borasida keng qamrovli islohotlar , qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ahamiyatli tomoni « O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi» da maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intelektual, ahloqiy va estetik rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratishmasalasi ustuvor masalalaridan biridir. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi qaror farmonlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘gini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda dasturilamalga aylandi. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga quyiladigon davlat talablari» va «Ilk qadam» Davlat dasturining ishlab chiqarilishi uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Bolalarning kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlash muhim pedagogik vazifa bo‘lib qolmoqda. Didaktik tizim orqali bolalarning mantiqiy tafakkuri, e’tibor xotira va kuzatuvchanlik qobilyatlarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

Kognitiv pedagogika va psixologiya sohalarida ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv ta’lim- xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimi. Ushbu tizim orqali maqsadlar quyiladi va ma’lum bir vaziyatda bolalarni bilish qiziqish jarayonlarini tarbiyachilar kuzatishi orqali bolalarni ma’lum bir qobilyatlariga qiziqishlarini bilib olish mumkin. XX- asrning ikkinchi yarmidan kognitiv pedagogika atamasi qo‘llanila boshlangan. Kognitiv pedagogik pedagogikaning eng yosh istiqbolli tarmog‘i bo‘lganligi uchun ham o‘zining shakllanish, rivojlanish tarixi va takomillashtirish tendensiyalariga ega. Kognitiv pedagogika kognitiv psixologiyaga tayanadi. Kognitiv pedagogika kognitiv o‘qitish muammolarini o‘rganadi. Pedagogika entsiklopediyasida «kognitiv», kognitiv ta’lim tushunchalariga quyidagicha ta’rif berilgan; kognitiv shaxsning- mustaqil ijodiy fikrlash jarayonini ifodalovchi atama. Kognitiv ta’lim- atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta’limi, psixologik tadqiqot sohalarida hamda pedagogikaning yonalishlaridan biri. Kognitiv faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim konikmalarining ichki qat’iyat va ma’lum bilimlar to‘plash uchun turli xil xarakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi. Kognitiv faoliyat- dunyo obyektlari va hodisalari haqida to‘liq ma’lumotga intilish. Bolaning kognitiv faolligini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar sifatida ularni qiziqishlarini inobatga olish zarur. Ta’lim jarayonida o‘yin uslublarini qo‘llashga tarbiyachilarning qiziqishi ortishi quyidagi hodisalar bilan bog‘liq. Birinchidan, o‘yin texnikasini amaliyotga joriy etish ijtimoiy tashkil etishning yangi shakllarini va tarbiyachi va bola ortasidagi munosabatlar ma’daniyatini topishga qaratilgan bir qator umumiy ijtimoiy –ma’daniy jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Didaktik jarayonda bolalarning muloqot ma’daniyatini oshirish zarurati maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligini oshirish va o‘rganilayotgan mavzularga qiziqishini rag‘batlantirish zarurati bilan izohlanadi. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatni shakllantirishdan maqsad ham mazmunli bilimga ega bo‘lib maktab ta’limiga aqlan rivojlangan qilib tarbiyalashdir.

Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko‘nikma, ichki qat’iyat va ma’lum bilimlarni to‘plash va kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga

kognitiv faoliyatini rivojlantirishning eng samarali tomonlari matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarida namoyon bo‘ladi va matematika o‘qitish metodikasida asosiy o‘rinni metodik usullar sifatida beriladigon savollar didaktik o‘yinlar egallaydi. Kognitiv faoliyat bu bolalarning bilimlarini qabul qilishi, eslab qolishi, qayta ishlashi va amalda qo‘llash qobilyatidur. Bunga quyidagilar kiradi: diqqat, tafakkur, xotira, idrok, nutq faoliyati. Bolalarni psixologik hususiyatlarini bilish. Obrazli tafakkur asosida fikrlashi, o‘yin faoliyatini kuzatish orqali bilish, rangli va harakatli tasvirlar orqali bilish jarayonini kuzatish. Kognitiv faoliyatini rivojlantirish usullari, didaktik o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar, hikoyalar va ertaklar asosida tahlil qilish kuzatish mashqlari, multimedia materiallardan foydalanish.

Bolaning maktabga intellektual tayyorgarligini ta’minlash. Bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yonaltirilgan materiallar. Vizual va interaktiv yondashuvlar. Didaktik materiallar o‘yinchoqlar, audio-vizual vositalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki kognitiv faoliyatini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biridir. Bu faoliyat orqali avvalo bolani bilim darajasini tekshirib fikrlashni, bilish jarayonini tekshirib shu asosida didaktik o‘yinlar orqali mashgulotlar o‘tish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28 yanvardagi PF–60-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30 sentabrdagi PQ–3305-sonli Qarori.

4. Axmedova.N Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi,Toshkent 2021

5. Vigotiskiy. L , S Pedagogika psixologiya Moskva 1983

6. Qodirova Z va boshqalar Maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti Toshkent 2020

7. Safarova R. G Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar.

8. Fotima Qodirova Maktabgacha pedagogika. Toshkent - 2019

NEMIS TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARINING O‘RNI

Arifova Dildora Osimjonovna
Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi metodisti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada nemis tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta’lim platformalarining o‘rni tahlil etilgan. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘qituvchilarning kommunikativ, metodik, lingvistik hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan. Xususan, Goethe-Institut, DW Deutsch Lernen, Quizlet, Duolingo, Moodle kabi platformalarning imkoniyatlari o‘rganilgan hamda ularning O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilinish yo‘llari yoritilgan. Maqolada shuningdek, CEFR talablari asosida raqamli didaktika, kompetensiyaviy yondashuv va xalqaro tajribaning mahalliy sharoitga moslashtirilgan modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, nemis tili o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, raqamli platformalar, CEFR, metodika.*

АННОТАЦИЯ: В статье проанализирована роль цифровых образовательных платформ в развитии профессиональной компетенции учителей немецкого языка. Показано, что цифровая обучающая среда способствует формированию лингвистической, методической, коммуникативной и ИКТ-компетенций педагога. Рассмотрены возможности таких платформ, как Goethe-Institut, DW Deutsch Lernen, Duolingo, Moodle, Quizlet, а также пути их адаптации в системе образования Узбекистана. В работе предлагается модель цифрового обучения на основе требований CEFR и международного опыта.

ABSTRACT: This article analyzes the role of digital learning platforms in developing the professional competence of German language teachers. It is argued that digital education environments contribute to the formation of linguistic, methodological, communicative and ICT competences of teachers. The study examines the use of platforms such as Goethe-Institut, DW Deutsch Lernen, Duolingo, Moodle and Quizlet, as well as their integration into the educational system of Uzbekistan. A CEFR-based digital competency model adapted to the national context is proposed.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida chet tillarini o‘qitish jarayoni nafaqat til kompetensiyasini shakllantirish, balki raqamli texnologiyalar asosida ta’limni yangicha tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Xususan, nemis tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi bugungi kunda faqat grammatik va leksik bilimlar bilan emas, balki raqamli ta’lim muhitini boshqara olish, ta’limni personalizatsiya qilish va interaktiv platformalar orqali kommunikativ vaziyatlar yaratish qobiliyati bilan belgilanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishni modernizatsiyalash jarayonlari davlat miqyosidagi strategik maqsadlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar — kelajagimiz” g‘oyasi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, “Chet tillarini o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi”da raqamli resurslar asosida til ta’limi sifatini oshirish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchidan yangi turdagi kompetensiyalarni talab etadi: masofaviy dars tashkil etish, multimedia resurslaridan foydalanish, raqamli baholash vositalarini tatbiq etish, interaktiv metodlar bilan ishlash va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini yaratish.

Bugungi kunda dunyo miqyosida nemis tili o‘qituvchilari uchun keng ko‘lamda faoliyat yuritayotgan raqamli ta’lim platformalari mavjud: Goethe-Institut’ning “Deutsch lehren lernen (DLL)” modullari, DW Deutsch Lernen, Duolingo, Moodle, LinguaHouse, Quizlet, Edmodo, Zoom, Google Classroom kabi platformalar o‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Bunday platformalar yordamida o‘qituvchi nafaqat til o‘rgatadi, balki o‘quvchida nemis tilida muloqot qilish motivatsiyasini kuchaytiradi, real kommunikativ vaziyatlar yaratadi va mustaqil ta’limga yo‘naltirilgan raqamli muhitni shakllantiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, XXI asr o‘qituvchisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi shart**: lingvistik, sotsiokultural, metodik, raqamli, kommunikativ, refleksiv.** CEFR (Common European Framework of Reference) talablari asosida chet tili o‘qituvchisining faoliyati dars jarayonini boshqarish bilan cheklanmaydi, balki doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga asoslangan kasbiy kompetensiya modeli asosida quriladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar o‘qituvchini “ma’lumot beruvchi shaxs”dan “ta’lim dizayneri”ga aylantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish tendensiyasi kuchaygan bo‘lsa-da, aynan nemis tili o‘qituvchilari uchun metodik jihatdan to‘liq yo‘naltirilgan milliy platformalar yetarli emas. Bu esa qo‘shimcha ilmiy izlanish, metodik tavsiyalar, kompetensiyaviy model va raqamli resurslarni moslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu bois mazkur maqola nemis tili o‘qituvchilari uchun raqamli ta’lim platformalarining o‘rnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, xalqaro amaliyotni tahlil qilish hamda milliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan modelni ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nemis tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda chet tili o‘qituvchisining kompetensiyasi ko‘pincha **“Professional Teacher Competence Model”, “Digital Pedagogy Framework” va CEFR for Teachers** kabi nazariy asoslar bilan izohlanadi. Xususan, Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan **CEFR Companion Volume (2020)** hujjatida nafaqat til o‘rganish darajalari, balki o‘qituvchining metodik, mediatsion va raqamli kompetensiyalari ham aniq belgilangan.

Goethe-Institut tomonidan ishlab chiqilgan **“DLL — Deutsch Lehren Lernen”** modullari o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ilmiy-metodik asosda tashkil etuvchi xalqaro model sifatida e’tirof etiladi. Mazkur dasturda o‘qituvchi kompetensiyasining asosiy komponentlari sifatida **refleksiya, til materialini tanlash, darsni loyihalash, raqamli vositalar integratsiyasi va kommunikativ metodika** ko‘rsatib o‘tilgan.

Nemis tili ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llash borasida R. Meyer, F. Klippel, H. Grotjahn, K. Kleppin, J. Kivistö-Ahro, F. Helm kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar raqamli til ta’limini **multimodal, adaptiv va interaktiv o‘quv muhiti** sifatida talqin qiladi. DW Deutsch Lernen, Deutschfuchs, Schritte International Digital, Lingoda, Duolingo kabi platformalarning o‘rganishni individuallashtirish va gamifikatsiya asosida tashkil etishi raqamli metodikaning ustuvor jihati sifatida ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston olimlari orasida S. Inomxo‘jayev, D. Abdurahmonova, X. Nishonova, R. Mamatova, G. G‘ulomova va boshqalar xorijiy tillar o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalardan foydalanish madaniyati, masofaviy ta’lim metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Biroq nemis tili o‘qituvchilariga yo‘naltirilgan maxsus platformalar, kompetensiyalar modeli va milliy tajribaga moslashtirilgan raqamli metodika bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas.

Metodologik yondashuv sifatida maqolada quyidagi ilmiy asoslar qo‘llanildi:

1. **Kompetensiyaviy yondashuv** – o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilim emas, kompetensiyalar majmuasi orqali baholanadi.
2. **Raqamli pedagogika modeli** – ta’lim jarayonining markazida o‘quvchi emas, balki “o‘quvchi + raqamli muhit + o‘qituvchi” tizimi turadi.
3. **Xalqaro taqqoslash metodi** – O‘zbekiston ta’lim tizimi Germaniya, Avstriya va Shveysariya tajribasi bilan solishtiriladi.
4. **Tahliliy-deskriptiv metod** – mavjud raqamli platformalar funksional imkoniyatlari ilmiy asosda tavsiflanadi.
5. **Amaliy-tavsiyaviy yondashuv** – raqamli platformalarni o‘qituvchilar malaka oshirish jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik model ishlab chiqiladi.

Mazkur yondashuvlar asosida nemis tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalari **faqat resurs emas, balki didaktik transformatsiya omili** sifatida talqin etiladi. Shu bois raqamli platformalarni qo‘llash masalasi faqat texnik emas, balki metodik, psixologik va tahliliy yondashuvni talab qiladi.

MUHOKAMA

Raqamli ta’lim platformalari bugungi kunda chet tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida muhim metodik vosita sifatida qaralmoqda. Agar an’anaviy ta’lim jarayoni resurs va makonga bog‘langan bo‘lsa, raqamli ta’lim vositalari o‘qitish jarayonini chegarasiz, moslashuvchan va individuallashtirilgan holga keltirmoqda. Nemis tili ta’limida esa bu jarayon ikki yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda:

1. **o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi uchun platformalar,**
2. **o‘quvchilar bilan dars jarayonida qo‘llaniladigan platformalar.**

Germaniya, Avstriya, Shveysariya kabi davlatlarda nemis tili o‘qituvchilari uchun kasbiy rivojlanish majburiy ravishda **raqamli kompetensiya baholash mezonlari** asosida tashkil etiladi. Bu tizimga binoan, o‘qituvchi nafaqat dars o‘tishi, balki raqamli muhitda darsni loyihalashi, platformalar orqali o‘quv materiallarini differensial taqdim etishi va o‘quvchi natijalarini monitoring qilishi shart.

O‘zbekiston ta’lim tizimidagi mavjud holat

So‘nggi yillarda nemis tilini o‘qitish jarayonida raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar mavjud. Jumladan:

- Maktablarda “Elektron kundalik” joriy etildi;
- Xorijiy tillar uchun “LearningApps”, “Wordwall” kabi platformalar keng tarqaldi;
- Onlayn kurslar orqali o‘qituvchilar malaka oshirmoqda;
- Geyote-Institut bilan hamkorlikda treninglar yo‘lga qo‘yilgan.

Lekin amaliyotda muammolar hamon saqlanib qolmoqda:

- Nemis tili bo‘yicha yagona milliy raqamli platforma yo‘q;
- O‘qituvchilarning raqamli materiallar yaratish ko‘nikmalari yetarli emas;
- Metodik adabiyotlar ko‘proq ingliz tili yo‘nalishiga qaratilgan;
- Ko‘pchilik o‘qituvchilarda raqamli baholash madaniyati shakllanmagan;
- Raqamli kompetensiyani baholash standarti mavjud emas.

Bu holat O‘zbekiston ta’limi uchun **nemis tili o‘qituvchisi kompetensiyasining raqamli modeli**ni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

3.3. Nemis tili o‘qituvchilari uchun raqamli kompetensiya modeli (taklif)

Model quyidagi 5 komponent asosida shakllanishi mumkin:

- **Didaktik-kommunikativ kompetensiya** – interaktiv dars ssenariysi tuzish
- **Texnik-raqamli kompetensiya** – platformalar bilan mustaqil ishlash
- **Metodik-kompetensiyaviy dizayn** – darsni raqamli muhitga moslashtirish
- **Baholash va tahlil kompetensiyasi** – onlayn baholash vositalarini qo‘llash
Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Klax pedagogikasi g‘oyasi dastlab Germaniyada yaratilgan bo‘lib, u o‘zining markazida bolani mustaqil yaratuvchi shaxs sifatida e’tirof etadi. Mazkur yondashuvning nazariy asoslari Loris Malaguzzi tomonidan ilgari surilgan Reggio Emilia pedagogikasi tamoyillariga yaqin bo‘lib, Klax tizimi bolani tabiat bilan uyg‘un holda, san’at, texnologiya va ijodiy faoliyat orqali o‘z imkoniyatlarini ochishga yo‘naltiradi [1]. Zamonaviy tadqiqotlarda Klax pedagogikasining eng muhim jihatlaridan biri sifatida bolalarning erkin ijodiy ifodasi va shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi [2]. Shu bilan birga, bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda texnologik tafakkurni rivojlantirish, ya’ni oddiy texnik jarayonlarni anglash, muammoni tahlil qilish, model yaratish va uni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qaraladi [3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Klax pedagogikasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar o‘z g‘oyalarini amaliy loyihalar orqali ifoda etish, turli materiallar bilan ishlash, texnologik fikrlash va dizayn asoslarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [4]. Ushbu yondashuv, ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalarida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) tamoyillarini joriy etish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi, chunki Klax pedagogikasi san’at va texnologiyani uyg‘unlashtirib, bolalarning ilmiy va ijodiy tafakkurini bir vaqtda rivojlantirishni nazarda tutadi [5]. Shuningdek, Klax tizimi o‘qituvchini yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi emas, balki bolaning ijodiy izlanish jarayonida sherik sifatida ko‘radi, bu esa maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi [6].

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Klax pedagogikasi vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy natija beradi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat va amaliy mashg‘ulotlar asosida aniqlanishicha, Klax yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishga, yangi narsalarni kashf qilishga va mustaqil qaror qabul qilishga intiladi. Klax tizimi bolani faol subyekt sifatida ko‘radi va uning ichki ijodiy salohiyatini ochishga yo‘naltirilganligi sababli, ta’lim jarayonida bolalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, jamoaviy fikrlash va mas’uliyat hissi rivojlanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, Klax pedagogikasi doirasida tashkil etilgan texnologik faoliyatlar — masalan, qurish, yasash, modellashtirish, dizayn va tajriba o‘tkazish kabi mashg‘ulotlar — bolalarning amaliy tafakkurini rivojlantiradi, ularni mantiqiy tahlil va ijodiy yechim topishga undaydi. Shuningdek, san’at va texnologiyaning uyg‘unlashuvi bolalarda estetik idrok, muvofiqlik hissi va o‘z fikrini obrazli ifoda etish ko‘nikmasini kuchaytiradi. Klax pedagogikasi shuningdek, o‘qituvchining rolini qayta talqin qiladi: pedagog bu jarayonda nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va sherik sifatida ishtirok etadi, bu esa bolalarda o‘zini erkin his qilish va ijodiy tashabbusni namoyon etish uchun qulay muhit yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Klax yondashuvi asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida bolalarning texnologik tafakkuri, innovatsion fikrlashi va ijodiy faoliyati bir-birini to‘ldiruvchi shaklda rivojlanadi. Bu esa nafaqat ularning kognitiv salohiyatini, balki emotsional, ijtimoiy va estetik rivojlanish darajasini ham oshiradi. Umuman olganda, Klax pedagogikasining maktabgacha ta’lim tizimiga tatbiq etilishi bolalarni kelajakdagi ta’lim bosqichlariga puxta tayyorlaydi, ularning mustaqil fikrlovchi, ijodkor va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga asos yaratadi. Shu sababli, mazkur pedagogik yondashuvni amaliyotga keng joriy etish maktabgacha ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy innovatsion ta’lim modelini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida Klax pedagogikasining nazariy va amaliy jihatlari chuqur o‘rganildi hamda ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qanday samaradorlik ko‘rsatishi tahlil qilindi. O‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, Klax metodikasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar o‘zlarini erkin, ishonchli va faol his qiladilar, bu esa ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba davomida bolalar turli materiallar bilan ishlash, konstruktsiyalar yaratish, rang va shakl uyg‘unligini topish, shuningdek o‘z g‘oyalarini vizual tarzda ifodalash jarayonida texnologik tafakkur va ijodiy fikrlashni faol namoyon etishdi.

Natijalar. Tadqiqot davomida Klax pedagogikasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlariga ta’siri tajriba va nazorat guruhlari misolida o‘rganildi. Tadqiqotda jami 40 nafar maktabgacha yoshdagi bola ishtirok etdi. Dastlabki bosqichda (tajriba boshlanishida) ikkala guruhda ham texnologik va ijodiy ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lgan, ammo Klax pedagogikasi asosida olib borilgan mashg‘ulotlardan so‘ng tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatildi. Quyidagi jadvallar tajriba natijalarini aks ettiradi**.**

1-jadval. Bolalarning texnologik qobiliyat darajasining o‘zgarishi (foizlarda)

Guruh nomi	**Dastlabki bosqich (%)**	**Yakuniy bosqich (%)**	**O‘sish (%)**
Tajriba guruhi	48	87	+39
Nazorat guruhi	50	61	+11

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Klax pedagogikasi asosida mashg‘ulot olib borilgan tajriba guruhida texnologik tafakkur, muammoni hal etish, qurilish va konstruksiya faoliyatiga qiziqish darajasi sezilarli darajada oshgan.

2-jadval. Bolalarning ijodiy qobiliyatining rivojlanish ko‘rsatkichlari (ballarda)

Guruh nomi	Dastlabki bosqich (10 ballik tizimda)	Yakuniy bosqich	O‘sish (ball)
Tajriba guruhi	5.2	9.1	+3.9
Nazorat guruhi	5.0	6.2	+1.2

Ushbu jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Klax pedagogikasi asosidagi mashg‘ulotlar bolalarning ijodiy ifoda, rang va shakl uyg‘unligi, mustaqil g‘oya yaratish, hamda amaliy faoliyatda innovatsion yondashuv ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Klax pedagogikasi vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda texnologik tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda samarali yondashuv bo‘lib, ularni faol, mustaqil va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Klax pedagogikasining maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llanilishi bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilish va ijodiy yechim topishga o‘rganadilar. Klax pedagogikasi bolani markazga qo‘ygan holda, uning shaxsiy tajribasi, qiziqishi va ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida tajriba guruhi bolalarining texnologik tafakkuri, dizayn va qurilish faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi, hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori darajada rivojlangani aniqlandi. Bu esa Klax yondashuvi orqali bolalarda innovatsion tafakkur, estetik idrok va amaliy faoliyatga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllanishini tasdiqlaydi. Shuningdek, mazkur pedagogik tizim o‘qituvchini yo‘naltiruvchi, bola esa faol subyekt sifatida ishtirok etuvchi interaktiv muhitni yaratishga asoslanadi. Shu bois, Klax pedagogikasini maktabgacha ta’lim muassasalarida joriy etish nafaqat bolalarning ijodiy rivojlanishini, balki ularning ijtimoiy, hissiy va intellektual o‘sishini ham ta’minlaydi. Kelgusida ushbu yondashuvni amaliyotda keng tatbiq etish va milliy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Malaguzzi, L. (1998). The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach to Early Childhood Education. New York: Ablex Publishing.
2. Klax Group. (2015). Klax Pedagogy: Creativity, Research and Responsibility in Early Childhood Education. Berlin: Klax Verlag.
3. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (2012). The Power of Play and Creativity in Early Childhood Learning. London: Routledge.
4. Craft, A. (2015). Creativity in Education: Nurturing Creative Thinking in the Classroom. London: RoutledgeFalmer.
5. Yakimanskaya, I. S. (2017). Razvitie tvorcheskogo myshleniya detey doshkolnogo vozrasta v protsesse obrazovatel’noy deyatel’nosti. Moskva: Akademkniga.
6. Jalolova, D. (2022). “Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning samarali yo‘llari.” Ta’lim va innovatsiya jurnali, №4, 45–50.
7. Nurmuhamedova, S. (2023). “Ijodiy yondashuv orqali bolalarda texnologik tafakkurni rivojlantirish.” Maktabgacha ta’lim metodikasi, №2, 33–38.

TA’LIM-TARBIYADA O‘SMIRLIK DAVRI

Norpulat Akramovich Axmedjonov
PhD, t.f.f.d., Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti

KIRISH

Shaxs rivojlanishining eng muhim va mas’uliyatli bosqichlaridan biri — bu o‘smirlik davridir. Ushbu davr bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi murakkab bosqich bo‘lib, unda shaxsning jismoniy, aqliy, psixologik, ijtimoiy, axloqiy va huquqiy jihatdan shakllanish jarayoni faol kechadi. O‘smirlik asosan 11–16 yosh oralig‘ini qamrab oladi va bu davrda bolaning “men”i shakllanadi, mustaqil fikr yuritish, o‘zini anglash, emotsional o‘zgarishlar kuchayadi. Mazkur maqolada o‘smirlik davrining asosiy psixologik va pedagogik xususiyatlari, tarbiya jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

O‘smirlik davri bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi murakkab davr hisoblanadi. O‘smirlik davri asosan 5-8 sinflar 11-12 yoshlardan 15-16 yoshlar oralig‘ida kechadi. O‘smirlik davrida rivojlanishning barcha jihatlari jismoniy, ijtimoiy, huquqiy, axloqiy, aqliy, psixologik, fiziologik

jihatdan rivojlanish birdek koʻzga tashlanadi. Oʻsmirlik davrida bola oʻz menini topadi. Boʻy oʻsishi 10-15 smgacha kuzatiladi. Ovoz yoʻg ʻonlashadi. Ilk jinsiy belgilar namayon boʻladi. Oʻsmir ruhiyatida qiziquvchanlikning ortib borishi bilan birga qoʻrslik, jizzakilik kabi hislatlar ustunlik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagog va psixolog olimlar — Z. K. Solieva (2011), X. Uzorov, Ye. Gʻoziev, A. Oripov (1995), M. Usmonboeva (2004) kabi tadqiqotchilar oʻsmirlik davrining huquqiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanish jihatlarini keng yoritgan. Ularning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, oʻsmirlik yoshi inson hayotidagi inqirozli, ammo imkoniyatlarga boy davr boʻlib, bu davrda toʻgʻri pedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, oʻsmirlik davrida huquqiy, makoniy, emottsional avtonamik xolatlar yuzaga keladi. Oʻsmirni tarbiyalashda tarbiyachi, oʻqituvchi va ota-onadan oʻsmirlik davriga oid maxsus pedagogik bilimlarni bilish talab etiladi.

Bunday bilimlarga ega boʻlmagan ayrim oʻqituvchi yoki ota-onalar oʻsmirdagi psixologik oʻzgarishlarni toʻgʻri tushunmay notoʻgʻri talqin qiladilar. Oʻsmirga nisbatan munosabatlari oʻzgaradi. Oʻzlari bilmagan holda oʻsmir ruhiyatiga kuchli psixologik zarba berib qoʻyishlari mumkin. Bunday holatlar oʻsmir ruhiyatiga salbiy ilatlarning shakllanishiga sabab boʻladi. Oʻsmirlik davrining yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqib koʻpgina pedagog va psixologlar oʻsmirlik davrini ogʻir davr, murakkab davr, inqiroz davr deb ataydilar. Ba’zi psixologlar esa oʻsmirlik davrining inqirozidan kuyinib gapiradilar.

MUHOKAMA

Oʻsmirlik davrida shaxsda jismoniy va ruhiy oʻzgarishlar bir vaqtda kechadi. Boʻy oʻsishi 10–15 sm gacha, ovozning yoʻgʻonlashuvi, jinsiy yetilish, mustaqillikka intilish — bu davrning tabiiy belgilaridir. Shu bilan birga, oʻsmirda qoʻrslik, jizzakilik, his-tuygʻularga beriluvchanlik, oʻzini tasdiqlash istagi kuchayadi.

Bizningcha oʻsmirlik davrining inqirozi haqida gapirishidan oldin oʻsmir va kattalar oʻrtasidagi munosabatlarning inqirozi haqida gapirish maqsadga muvofiq boʻlar edi. Zero oʻsmirlik bolalikdan yoshlikkga oʻtuvchi davr ekan bunda oʻsmirlik koʻproq erkin boʻlishni oʻz muammolarini mustaqil hal qilishni, shaxsiy hayotiga ota-ona va oilaning boshqa katta yoshli a’zolari aralashaverishini xoxlamaydi. Shuning uchun oʻsmirni nazorat qilishda uning hayotiga toʻgʻridan-toʻgʻri aralashish kutilgan natijani beravermaydi. Aksincha oʻsmirni ota-onadan sezilarli darajada uzoqlashishga olib kelishi mumkin.

Oʻsmirlik davriga emotsiya ya’ni his-tuygʻuga beriluvchanlik yuqori boʻladi. Koʻp hollarda (sevgi munosabat, oʻzaro janjal, tushkunlik v.h.k) oʻz joniga qasd qilish holatlari kuzatiladi.

Bugungi kunda oʻsmirlar orasida ham huquqbuzarlik holatlari koʻzga tashlanmoqda. Oʻsmirlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik holatlarining eng koʻp uchraydigan sabablari: uydan chiqib ketib daydichilik, tilanchilik qilish maktabga sababsiz bormaslik mayda oʻgʻriliklar sodir etish. Oʻsmirlar orasida sodir etilgan huqubuzarlik holatlari shax rivojlanishining boshqa davrlarida sodir etiladigan huquqbuzarlik holatlaridan mazmun-mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi.

Oʻsmirlar sodir etgan huquqbuzarlik asosan ijtimoiy sabablar bilan bogʻliq. Ya’ni oʻsmirlar huquqbuzarlikning asosiy sabablari quyidagilardir:

-ota-onada pedagogik bilimlarning yetishmasligi;

-ota-ona va oilaning boshqa katta a’zolari oʻsmir uchun shaxsiy koʻrsata olmasliklari;

-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida ota-onalarning xorijiy mamlakatlarga ketishi natijasida nazoratsiz, qarovsiz qolib ketishi;

-oilada salbiy ilatlar (urush janjal, ichkilikbozlik, giyohvandlik, shaxboniy hayotga moyillik va.h.k)ning mavjudligi;

-oila a’zolari orasida sudlanganlarning uchrashi;

-oʻsmirning tengqurlari orasida salbiy illatlarning mavjudligi.

-oʻqituvchi va oʻquvchi orasidagi munosabatlaridagi kamchiliklarning mavjudligi;

-jamoatchilik ta’siri (loqaydlik, beparvolik) kabi kamchilik va muammolarning mavjudligi o‘smirlar orasida huquqbuzarlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

NATIJALAR

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davridagi inqiroz ko‘pincha o‘smir va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarning inqirozi bilan bog‘liq. O‘smir mustaqil qaror qabul qilishni, o‘z hayotiga hurmat bilan qaralishini xohlaydi. Shuning uchun pedagoglar va ota-onalar:

- o‘smirga ishonch bildirish, uni tinglash va fikrini inobatga olish;
- oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash;
- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- sport, hunarmandchilik va ijodiy to‘garaklarga jalb etish;
- ota-onalar uchun pedagogik savodxonlik mashg‘ulotlarini tashkil etish zarur.

Ushbu chora-tadbirlar orqali o‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik inqiroz va huquqbuzarliklarning oldi olinadi.

O‘smirlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish va bartaraf etish quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

-ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish ota-onalar uchun mo‘ljalangan pedagogik ma’ruzalarni muntazam ravishda tashkil etib borish;

- har bir jamiyat a’zosida o ‘smirlar va kelajak avlod taqdiriga dahldorlik hissini uyg‘otish;

-maktabdan tashqari tadbir va mashg‘ulotlarning mazmun mohiyatini g‘oyaviy va axloqiy jihatdan boyitish, o‘quvchilarning bunday tadbir ishtirokchisiga aylantirishni ta’minlash;

-pedagog va ijtimoiy pedagog xodimlar xizmatini keng joriy etish;

-oila, maktab va mahalla hamkorligini joriy etish;

Xulosa

O‘smirlik davri shaxs kamolotining murakkab, ammo imkoniyatlarga boy bosqichidir. Ushbu davrda o‘smir shaxsini to‘g‘ri yo‘naltirish, unga individual yondashuv asosida tarbiya berish pedagog va ota-onalarning eng muhim vazifasidir.
Oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi uzviy hamkorlik orqali o‘smirlar ongida ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirish, ularning ijtimoiy faol, mas’uliyatli va vatanparvar shaxs bo‘lib yetishishini ta’minlash mumkin.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mohirona tashkil etish, mahalla, tuman va viloyatlar miqyosidagi sport to‘garaklari, sog‘lomlashtirish markazlari, hunarmadchilik, zarduzlik to‘garaklari va jamiyatda mavjud bo‘lgan ustoz shogird maktablariga o‘quvchilarni jalb etish orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Solieva Z.K.* Voyaga yetmagan bolalarning fuqarolik huquqiy maqomi. 12.00.03-fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, oila huquqi, xulqaro huquq. Yuridik fan.nom.ilm.dar. olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. 2011 y.

2. *Uzorov X., G ‘oziev Ye.,Oripov A.* Oila axloqi va odobi. -T.:O‘qituvchi, 1995 - 87 bet.

3. *Usmonboeva M.* Demokratik jamiyat barpo yetish jarayonida o‘quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirish. /Uzluksiz ta’lim tizimida huquqiy, badiiy va mehnat madaniyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. - T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, - 17-23-betlar.

O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY TARMOQLARDAN OQILONA FOYDALANISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Astanova Sevara Uktamovna
Sh.Rashidov tumani 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Tel: +998 91 590 56 58
E-mail: Sevara0907@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot makonida o‘quvchilarni ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishga o‘rgatish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning raqamli madaniyatini shakllantirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish,

shuningdek, salbiy ta’sirlardan himoyalanishga oid metodik yondashuvlar ko‘rib chiqildi. Pedagogik monitoring, so‘rovnoma va kuzatuv metodlari asosida olib borilgan tahlillar ijtimoiy tarmoqlar ta’sirining ikki tomonlama (ijobiy va salbiy) xususiyatlarini ochib berdi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishda ota-onalar, o‘qituvchilar va psixologlarning o‘zaro hamkorligi muhim ekani ta’kidlandi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обучения школьников грамотному использованию социальных сетей в современном информационном пространстве. В исследовании рассмотрены методические подходы к формированию цифровой культуры школьников, развитию навыков критического анализа информации, а также защите от негативных влияний. Анализ, проведенный на основе педагогического мониторинга, анкетирования и методов наблюдения, выявил двойственные (позитивные и негативные) характеристики влияния социальных сетей. В статье подчеркивается важность сотрудничества родителей, педагогов и психологов в формировании культуры рационального использования социальных сетей.

Abstract: This article discusses the issues of teaching students to use social networks wisely in the modern information space. The study examined methodological approaches to forming students’ digital culture, developing skills in critical analysis of information, as well as protection from negative influences. The analysis, conducted on the basis of pedagogical monitoring, questionnaires and observation methods, revealed the dual (positive and negative) characteristics of the influence of social networks. The article emphasizes the importance of cooperation between parents, teachers and psychologists in forming a culture of rational use of social networks

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, raqamli madaniyat, media savodxonlik, o‘quvchilar, axborot xavfsizligi, tarbiya, pedagogik yondashuvlar.

Keywords: social networks, digital culture, media literacy, students, information security, education, pedagogical approaches.

Ключевые слова: социальные сети, цифровая культура, медиаграмотность, студенты, информационная безопасность, образование, педагогические подходы.

KIRISH

So‘nggi yillarda internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi yoshlar hayot tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar – Instagram, Telegram, TikTok, Facebook va boshqa platformalar o‘quvchilar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ularning muloqot qilish, o‘z fikrini bildirish, axborot olish hamda bo‘sh vaqtini o‘tkazishdagi asosiy vositasiga aylangan. Har bir yosh foydalanuvchining kundalik faoliyatida ijtimoiy tarmoqlarga kirish, kontent tomosha qilish yoki ulashish odatiy holga aylangan.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati shakllanmagan hollarda, bu vositalar o‘quvchi shaxsi va uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, vaqtni samarasiz o‘tkazish, darsga e’tibor kamayishi, psixologik charchoq va ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘on va noto‘g‘ri ma’lumotlarga ishonish, shuningdek, radikal, g‘ayriaxloqiy yoki zo‘ravonlikka undovchi kontentlar bilan to‘qnash kelish kabi xavf-xatarlar mavjud. Bundan tashqari, yoshlar orasida virtual hayotga haddan tashqari bog‘lanish ularning real hayotdagi muloqot ko‘nikmalarining zaiflashuviga, ijtimoiy faoliyatdan chekinishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Shu sababli o‘quvchilarni ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishga o‘rgatish, ya’ni axborotni tanqidiy tahlil qilish, zararli kontentlardan himoyalanish, vaqtni rejalashtirish, axloqiy va ma’naviy mezonlarga sodiq qolgan holda raqamli muhitda ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Bu esa o‘quvchilarda raqamli savodxonlikni, media madaniyatni rivojlantirish bilan birga, ularning intellektual, ijtimoiy va axloqiy kamolotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dolzarbligi Bugungi raqamli asrda axborot oqimini nazorat qilish yoki to‘xtatish deyarli imkonsiz bo‘lib qolmoqda. Har kuni millionlab ma’lumotlar internet tarmog‘i orqali tarqalmoqda, bu esa, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘quvchilar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng imkoniyatlarga ega bo‘layotgan bo‘lsalar-da, ularning ushbu axborotlardan oqilona, maqsadli va xavfsiz tarzda foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi

kuzatilmoqda. Bu esa ularning shaxsiy, intellektual va axloqiy rivojlanishida muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Ayniqsa, yoshlar orasida axborotning haqqoniyligi, manba ishonchliligi, uning mazmuniy tahlili va saralash qobiliyatining sustligi natijasida notoʻgʻri maʼlumotlarga ishonish, ijtimoiy tarmoqlarda yolgʻon xabarlar, fitna va zoʻravonlikni targʻib qiluvchi kontentlar taʼsirida qolish holatlari uchrab turibdi. Shu bilan birga, turli gʻayriijtimoiy, axloqiy meʼyorlarga zid boʻlgan virtual guruhlar, zararli tendensiyalar va destruktiv oqimlar maktab yoshidagi oʻquvchilar ongiga salbiy taʼsir oʻtkazmoqda. Ular orasida ruhiy tushkunlik, yolgʻizlik, depressiya, real hayotdan begonalashish holatlari ortib bormoqda.

Shunday sharoitda maktab taʼlimi tizimi oldida muhim va masʼuliyatli vazifa turibdi: oʻquvchilarni nafaqat bilimli, balki axborotga nisbatan ongli yondasha oladigan, tahlil qilish, fikrlash, tanlash va himoyalanish madaniyatiga ega boʻlgan shaxs sifatida tarbiyalash. Bunga erishish uchun oʻquvchilarning raqamli madaniyatini rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qoidalari, axborot xavfsizligi madaniyati boʻyicha tizimli yondashuvlar zarur.

Mazkur masalaga tizimli yondashuvda pedagogik, psixologik va texnologik omillar uygʻunligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada oʻquvchilar, ularning ota-onalari va pedagoglar oʻrtasidagi hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtni samarali tashkil etish, ijobiy kontent yaratish va uni ommalashtirish orqali sogʻlom raqamli muhit shakllantiriladi. Shuningdek, oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, axborotga tanqidiy yondashish, ijtimoiy masʼuliyatni his qilish, raqamli odob-axloq meʼyorlariga amal qilish kabi koʻnikmalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb talabidir.

Xulosa

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish zamonaviy taʼlim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda bir qancha muhim omillarni hisobga olish zarur boʻlib, ular oʻquvchilarning raqamli axborot olamida mustaqil, ongli va masʼuliyatli harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Birinchidan, **media savodxonlik** darslarini taʼlim jarayoniga joriy etish orqali oʻquvchilar axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, soxta va manipulyativ kontentni farqlash, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz va madaniyatli muloqot qilish koʻnikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning axborotga boʻlgan munosabatini yanada ongli va masʼuliyatli qiladi.

Ikkinchidan, **ota-onalar va pedagoglar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish** lozim. Ota-onalarning raqamli texnologiyalar boʻyicha xabardorligini oshirish, ularni bolalarning internetdagi faoliyatini nazorat qilish va qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirish oʻquvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Uchinchidan, **psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish** ham dolzarbdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga keladigan psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etish, oʻquvchilarning emotsional muvozanatini saqlash hamda virtual muhitdagi xavf-xatarlardan himoyalashda maktab psixologlarining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Toʻrtinchidan, oʻquvchilar uchun **ijobiy, tarbiyaviy va motivatsion kontentlarni yaratish va ommalashtirish** zarur. Bu orqali ularning raqamli muhitdagi ishtiroki foydali faoliyatga yoʻnaltiriladi, boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Yoshlar oʻz tengdoshlari uchun ijobiy namuna boʻla oladigan shaxslarni koʻrib, ijtimoiy tarmoqlardan foydali va samarali foydalanishga intiladilar.

Xulosa qilib aytganda, oʻquvchilarning raqamli muhitda toʻgʻri yoʻnaltirilgan, ongli, maʼnaviyatli va masʼuliyatli foydalanuvchiga aylanishi nafaqat ularning shaxsiy intellektual va axloqiy taraqqiyotiga, balki butun jamiyatda sogʻlom axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yoʻnalishda uzluksiz tarbiyaviy ishlar olib borilishi, taʼlim, oilaviy muhit va ijtimoiy muhit oʻrtasidagi uzviy aloqaning taʼminlanishi dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

2. Rasulov N. “Raqamli makon va yoshlar: muammolar va imkoniyatlar” – Toshkent, 2022.

3. Murodova Z. “Media savodxonlik asoslari” – Toshkent, 2021.

4. UNESCO. “Media and Information Literacy Curriculum for Teachers”, 2011.

5. Tursunov A., Sharipova M. “Axborot xavfsizligi va ijtimoiy tarmoqlar: yoshlar uchun qo‘llanma” – Samarqand, 2023.

CHALLENGES IN TRANSLATING ENGLISH IDIOMS INTO UZBEK

Farxadova Maftuna Umidjan qizi
Student of CSPU
EMAIL: farxadovamaftuna1@gmail.com
Scientific advisor: Ruzmetova Diana Komilovna
Act.assoc. prof(PhD)of Chirchik State Pedagogical University

ABSTRACT: One of the trickiest and most delicate parts of translation studies is translating idioms. Idioms are words that express a country’s worldview, historical experience, and cultural heritage. Cultural differences, the absence of direct equivalents, and the difficulty of communicating figurative meanings are some of the difficulties translators encounter when translating English idioms into Uzbek. In order to preserve semantic and emotional equivalency between the source and target languages, this article will identify and analyze these difficulties, offer examples, and recommend practical translation techniques.

Keywords: Idioms, translation, equivalence, culture, figurative meaning, linguistic differences, phraseology, Uzbek language, English language, cross-cultural communication.

ANNOTATSIYA: Frazeologik birliklar — idiomalarni tarjima qilish tarjimashunoslikning eng murakkab va nozik jihatlaridan biridir. Idiomalar xalqning madaniy merosi, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi til birliklaridir. Ingliz tilidagi idiomalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimonlar madaniy tafovutlar, bevosita ekvivalentlarning yo‘qligi va majoziy ma’nolarni to‘g‘ri ifodalashdagi qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu maqolada ana shu muammolar tahlil qilinadi, misollar keltiriladi. ekvivalentlikni saqlab qolishga yordam beruvchi samarali tarjima strategiyalari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar; Idiomalar, tarjima, ekvivalentlik, madaniyat, majoziy ma’no, til farqlari, frazeologiya, o‘zbek tili, ingliz tili, madaniyatlararo muloqot

АННОТАЦИЯ: Перевод идиом является одним из самых сложных и тонких аспектов переводоведения. Идиомы — это языковые выражения, отражающие культурное наследие, исторический опыт и мировоззрение нации. При переводе английских идиом на узбекский язык переводчики сталкиваются с рядом трудностей, таких как культурные различия, отсутствие прямых эквивалентов и сложности в передаче переносного значения. В данной статье рассматриваются и анализируются эти проблемы, приводятся примеры и предлагаются эффективные стратегии перевода, позволяющие сохранить как смысловое, так и эмоциональное соответствие между исходным и целевым языками.

Ключевые слова; Идиомы, перевод, эквивалентность, культура, переносное значение, языковые различия, фразеология, узбекский язык, английский язык, межкультурная коммуникация.

Language is not only a means of communication but also a reflection of the mentality and culture of its speakers. one of the most expressive elements of any language is idioms — fixed phrases that carry meanings beyond the literal sense of the words. Idioms often contain historical, cultural, or emotional connotations that make them unique to each nation. One of the most diverse languages in the world, English contains thousands of idioms that are used in academic writing as well as in journalism, literature, movies, and everyday conversation. These idioms aid speakers in

clearly and succinctly expressing difficult concepts. Idioms, however, pose significant challenges for translators working between Uzbek and English. While cultural ignorance may result in misunderstandings, literal translation frequently produces meaningless or ridiculous outcomes.

In order to achieve equivalency while maintaining stylistic and cultural flavor, this paper will examine the primary difficulties in translating English idioms into Uzbek and offer solutions. Background in Theory

A fixed combination of words whose overall meaning cannot be inferred from the meanings of its constituent words is called an idiom.

For example, the phrase *"to let the cat out of the bag"* literally means *"to reveal a secret"* and has nothing to do with either a cat or a bag. Idioms are regarded as culturally specific expressions and fall under the category of phraseology. Idioms represent "the linguistic creativity of a nation," according to Baker (2018). Idiom translation is therefore a process of cultural transfer rather than just a linguistic one.

Idioms present challenges in translation studies because:

They frequently reflect distinct cultural experiences; their meanings are figurative rather than literal; and their constituent parts are fixed, meaning they cannot be freely altered. Idioms (frazeologik birikmalar) serve a similar purpose in Uzbek. Expressions like *"bitta o‘q bilan ikki quyonni urmoq"* (do two things at once), *"sabr kosasi to‘ldi"* (lost patience), and *"ko‘ngli tog‘dek"* (generous) also demonstrate how figurative language reflects national mentality. Translation is a creative process rather than a mechanical substitution, though, because Uzbek and English idioms do not correspond exactly.

Principal Difficulties with Idiom Translation

Linguistic and Cultural Disparities

Idioms have a close relationship to the culture in which they originated. Many English idioms are derived from biblical allusions, historical occurrences, or antiquated practices hat may not be present in Uzbek [45]culture. Given that Newcastle was well-known for its coal industry, the phrase *"carry coals to Newcastle"*, for instance, denotes doing something needless. An uninformed Uzbek reader could interpret it incorrectly. Thus, the translator needs to find a comparable Uzbek phrase like *"ariqqa suv tashish"* or *"bexuda ish qilish."

In a similar vein, English metaphors that may not align with Uzbek imagery include idioms such as *“the apple of one’s eye”* (someone very precious). * "ko‘zimning nuri"* or * "jonu dilim" are examples of culturally appropriate substitutes that the translator should look for.

Lack of Direct Equivalent

Many idioms have no identical equivalents in Uzbek. For instance:

* *“once in a blue moon”* → “juda kam hollarda”

* *“beat around the buh”* → “gapni aylantirib aytmoq”

* *“bite the bullet”* → “og‘ir holatga chidamoq”

In such cases, the translator must interpret the idiom’s meaning and render it in natural Uzbek, even if the form changes. This requires both linguistic skill and deep understanding of idiomatic usage.

Meaning: Figurative versus Literal

Determining whether a phrase is literal or idiomatic is a significant challenge. For instance, the phrase *"break the ice"* can mean both literally breaking the ice in a physical setting and initiating a conversation in a social setting. In the absence of context, the translator may make a mistaken interpretation. Idioms must therefore always be translated according to their situational meaning. 3.4 Ambiguity and Polysemy

Some idioms have multiple meanings depending on context. The phrase *“hit the roof”* can mean “to become very angry” or “to increase sharply” (for prices or numbers). Context analysis is thus essential before selecting a proper Uzbek equivalent such as *“jahl qilmoq”* or *“keskin oshmoq.”

[45] Culture

Methods of Translation

Various academics offer a variety of approaches to handling idioms. The most useful ones are as follows:

1. Employing a comparable expression in the language of instruction

* * "The final straw"* → * "Sabr kosasining to‘lishi." Both meaning and stylistic tone are maintained using this approach.

2. Making use of a rough equivalent

* * "To burn the midnight oil"* → * "Kecha bilan ishlamoq."

The sense is retained even if the metaphor is slightly altered. 3. Rephrasing the meaning

* * "Spill the beans"* → * "Sirni oshkor etmoq."[46]

Clarity is ensured by paraphrasing when there is no Uzbek idiom.

4. Explanation and literal translation

* * "Bite the bullet"* → * "Og‘riqqa sabr bilan chidayotgan odamdek bo‘lish." *

This is used to illustrate cultural differences in academic or instructional settings

The Value of Culture and Context

Understanding context is essential to translating idioms. Depending on the context and speaker, the same idiom can convey entirely different emotions. To prevent misunderstandings, translators must also be cognizant of cultural background.

In English, for example, *"a white elephant"* means *"a useless but expensive possession." * Elephants have no such symbolic meaning in Uzbek culture, so the translator may substitute *"foydasiz, ammo qimmat narsa"*. The target audience will perceive the translation as natural thanks to cultural adaptation

Conclusion

Translating idioms from English into Uzbek is a multifaceted process that goes beyond literal word substitution. It requires knowledge of both languages’ phraseological systems, cultural awareness, and contextual understanding.

The main challenges include:

* absence of direct equivalents,
* differences in cultural symbolism,
* figurative meaning and ambiguity,
* and the need for creativity in maintaining stylistic tone.

Effective translation strategies such as paraphrasing, using equivalent idioms, or providing explanations help preserve the original meaning and emotional impact.Ultimately, idioms are a bridge between language and culture. By mastering idiom translation, learners and translators can gain a deeper understanding of both English and Uzbek ways of thinking, enriching their linguistic and cultural competence.

LIST OF USED LITERATURE

References

1. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation.* Routledge.

2. Larson, M. L. (REFERENCES1998). *Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence.* University Press of America.

3. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating.* Brill.

4. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* Cambridge University Press.

5. Oxford Learner’s Dictionary of English Idioms (Online version, 2024).

6. Mirzayev, A. (2019). *Til va Madaniyat: Frazeologizmlarning Milliy Xususiyatlari.* Tashkent: O’zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

[46] process

MAHALLA VA TA’LIM MUASSASASI HAMKORLIGIDA TARBIYAVIY ISHLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raxmonqulova Shahnoza Fayzulla qizi
Sh.Rashidov tumani 58-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Tel: +99890-496-19-91
E-mail: shaxnoza91@gmail.com

Anotatsiya:Mazkur maqolada mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorlikda olib borayotgan tarbiyaviy ishlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda ushbu hamkorlikni yanada samarali tashkil etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mahalla faollari, ota-onalar va pedagoglarning o‘zaro hamjihatligi, yoshlar orasida ijtimoiy faollik va ma’naviy uyg‘oqlikni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется воспитательная работа, проводимая махаллей и образовательными учреждениями совместно, их роль в развитии общества, пути более эффективной организации этого сотрудничества. В исследовании подчеркивается важность взаимного сотрудничества активистов махалли, родителей и педагогов в формировании социальной активности и духовного сознания молодежи. Также приводятся существующие проблемы и предложения по их устранению.

Abstract:

This article analyzes the educational work carried out by the makhalla and educational institutions in cooperation, their role in the development of society, and ways to organize this cooperation more effectively. The study highlights the importance of mutual cooperation between makhalla activists, parents, and teachers in the formation of social activity and spiritual awareness among young people. It also presents existing problems and proposals for their elimination.

Kalit so‘zlar: Mahalla, ta’lim muassasasi, hamkorlik, tarbiya, yoshlar, ijtimoiy faollik, ma’naviy tarbiya, pedagogik hamkorlik, oila.

Ключевые слова: Добрососедство, образовательное учреждение, сотрудничество, воспитание, молодежь, общественная активность, духовное воспитание, педагогическое сотрудничество, семья.

Keywords: Neighborhood, educational institution, cooperation, upbringing, youth, social activity, spiritual upbringing, pedagogical cooperation, family.

Kirish:

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda faqat ta’lim muassasalarining emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, mahallalarning ham faol ishtiroki zarur. Mahalla qadimdan ijtimoiy nazorat, ahloqiy qadriyatlar va tarbiyani shakllantirishning asosiy o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Bugungi kunda maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston – yangi tarbiya” tamoyili asosida olib borayotgan siyosati, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni yot g‘oyalardan himoya qilish, mahalla va maktablar o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatishni dolzarb masalaga aylantirdi. Ayni paytda ayrim hududlarda ushbu hamkorlikning sustligi yoki tizimli emasligi yoshlar tarbiyasida muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham maktab-mahalla hamkorligi ustuvor vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Asosiy qism:

1. **Mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik shakllari:**

Tarbiyaviy suhbatlar, ota-onalar yig‘ilishlarida mahalla faollarining ishtiroki;

Mahalladagi yoshlar bilan profilaktik suhbatlar;

Maktabdagi “Murabbiylar soati”da mahalla yettilik vakillarining chiqishlari;

“Maktab – oila – mahalla” uchlik modeli asosida ishlash.

2. **Ushbu hamkorlikning ijobiy natijalari:**
Yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligini kamaytirish;
Mahallada yashovchi o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish;
Oilaviy muhitda yuzaga kelgan muammolarni erta aniqlash va hal etish;
Milliy qadriyatlar, urf-odatlar asosida ma’naviy tarbiya berish.
3. **Mavjud muammolar:**
Ayrim hududlarda mahalla va maktablar o‘rtasida aloqa yo‘qligi;
Hamkorlikning faqat hujjatlarda ko‘rsatilgan holda qolishi;
Faollarning yetarlicha pedagogik tayyorgarlikka ega emasligi;
Ota-onalar va jamiyatning loqaydligi.

Takliflar:

1. Mahalla raislari va maktab direktorlarining o‘zaro muntazam uchrashuvlarini yo‘lga qo‘yish;
2. Mahalla faollarini pedagogik va psixologik bilimlar bilan muntazam tanishtirib borish;
3. “Mahalla – maktab hamkorligi” bo‘yicha maxsus Dastur ishlab chiqish va joriy etish;
4. Ijtimoiy tarmoqlarda hamkorlikdagi tarbiyaviy ishlar targ‘ibotini kuchaytirish;
5. Maktab psixologlari va mahalla faollarining hamkorlikdagi monitoringini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa:

Mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi – bu yosh avlodning barkamol, ma’naviy yetuk, ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topishida muhim omildir. Mazkur hamkorlik tizimli, rejali va natijadorlikka yo‘naltirilgan holda amalga oshirilsa, yoshlar orasida axloqiy, huquqiy va ijtimoiy ongning yuksalishiga erishiladi. Shuning uchun ham ta’lim tizimida mahallaning o‘rni va rolini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (2021–2025 yy.).
2. “Mahalla” fondi faoliyati to‘g‘risidagi Nizom. Toshkent, 2022.
3. Qosimova N. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi”. Toshkent, 2020.
4. Mamatqulov A. “Maktab va oila hamkorligi asoslari”, Toshkent, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi metodik qo‘llanmalari, 2023.
6. Axborot xizmati materiallari – www.mahalla.uz
7. Pedagogik va psixologik jurnallar (Yilnomalar, “O‘qituvchi” nashriyoti, 2021–2024).

HAYOTIY MAQSAD PARADIGMALARIDAGI O‘ZGARISH TENDENSIYALARINIMG TA’LIM-TARBIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI

Karimov Sanjar Sindorqulovich
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
tel: +998 90 229 18 15
E-mail: haqiqiysanjar0088@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborotlashgan dunyoda hayotiy maqsad paradigmalarining o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. An’anaviy jamiyatda shakllangan hayotiy maqsadlar milliy qadriyatlar va ijtimoiy an’analarga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy global sharoitda shaxsiy erkinlik, individual qiziqishlar va texnologik imkoniyatlar ustuvor ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Hayotiy maqsad, paradigma, axborotlashuv, globallashuv, shaxsiy erkinlik, individual qiziqish, milliy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar, motivatsiya, refleksiya, innovatsiya.

Kirish

Zamonaviy davrda inson hayotining mazmuni, qadriyati va yo‘nalishini belgilovchi hayotiy maqsadlar paradigmasi chuqur falsafiy o‘zgarish jarayonini boshdan kechirmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va ma’naviy qadriyatlar tizimidagi siljishlar inson ongida yangi maqsadlar, yangi hayotiy orientirlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Inson endilikda nafaqat moddiy farovonlik, balki ma’naviy to‘liq qanoat va ijtimoiy foydalilikni hayot mazmuni sifatida anglashga

intilmoqda. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonlari ham shaxsni bilim bilan qurollantirishdan tashqari, uni o‘z maqsadini anglab, ijtimoiy va axloqiy jihatdan asoslangan faoliyatga yo‘naltirishga xizmat qilishi lozim. Hayotiy maqsad paradigmalaridagi o‘zgarishlar pedagogik tafakkurni yangilash, shaxsni o‘z hayot strategiyasini mustaqil ravishda belgilovchi, mas’uliyatli va ijodkor subyekt sifatida tarbiyalash zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mavzuga oid bir qator dolzarb nazariy xulosalar va ilmiy-amaliy natijalar shakllandi, ular esa tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini yanada oydinlashtirish imkonini berdi. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi bir biridan farq qiluvchi paradigmalar aniqlandi:

1. An’anaviy paradigma. Hayotiy maqsadlarning an’anaviy paradigmasi asosan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy majburiyatlar bilan belgilanadi. Bu jarayon shaxsning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, uni muayyan ijtimoiy normalar va ma’naviy tamoyillarga moslashtirishga xizmat qiladi. O‘zining **madaniy antropologiya** sohasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan AQSH lik olim Clifford Geertzning fikricha: “Madaniyat insonning dunyoni idrok etish va unda o‘z o‘rnini topish jarayonida asosiy ramziy tizim sifatida namoyon bo‘ladi” [1.89]. Demak, an’anaviy jamiyatlarda hayotiy maqsadlar faqat shaxsiy qarashlar yoki individual ehtiyojlarga emas, balki madaniy ramzlar, ijtimoiy an’analar va tarixiy qadriyatlar tizimiga asoslangan holda shakllangan.

Bunday paradigmaning afzalligi shundaki, shaxsning hayotiy maqsadlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi. Masalan, oilani mustahkamlash, jamiyatda obro‘ qozonish, kasb-hunarda barqarorlikka erishish kabi maqsadlar ko‘proq ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lgan. Shu sababli an’anaviy paradigmaning o‘zagi “jamiyat uchun yashash” tamoyiliga tayanadi.

ijtimoiy falsafa va sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlarida fransuz olimi Emile Durkheim ham an’anaviy jamiyatlarda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka urg‘u berib quyidagicha fikr bildiradi: “Jamiyat shaxsga maqsad beradi, maqsadsiz shaxs esa o‘z yo‘lini topishda muqarrar ravishda yo‘qotadi” [2.210]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy paradigmada shaxsning hayotiy maqsadlari jamiyat tomonidan qo‘yilgan normalar orqali yo‘naltirilgan.

Shuningdek, an’anaviy jamiyatlarda diniy qadriyatlar ham hayotiy maqsadlarning asosiy manbasi bo‘lgan. Masalan, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy yoki Jaloliddin Rumiy kabi tarixiy mutafakkirlarning qarashlarida hayotiy maqsadlar ko‘proq ruhiy poklanish, komillikka intilish va jamiyatda yaxshilik urug‘ini ekish bilan bog‘langan.

Ammo shuni ham ta’kidlash kerakki, an’anaviy paradigmada shaxsning erkin tanlov imkoniyatlari cheklangan. Hayotiy maqsadlar asosan avloddan-avlodga o‘tadigan ijtimoiy qadriyatlar va an’analar asosida shakllangan. Shu sababli shaxsiy qiziqishlar ko‘pincha jamiyat manfaatlariga bo‘ysundirilgan.

Demak, an’anaviy paradigma shaxsning hayotiy maqsadlarini milliy qadriyatlar va ramziy tizimlar asosida shakllantirgan holda, uni jamiyat hayotiga uyg‘unlashtiradi. Bunda madaniyat shaxsning yo‘nalishini belgilovchi “ramziy kompas” vazifasini bajaradi. Clifford Geertz va Emile Durkheim kabi olimlarning fikrlari shuni tasdiqlaydiki, an’anaviy jamiyatlarda hayotiy maqsadlarning asosiy vazifasi — shaxsni jamiyatga integratsiyalash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan.

2. Axborotlashgan paradigma. Zamonaviy axborotlashgan sharoitda shaxsiy erkinlik, ijodkorlik va individual qiziqishlar hayotiy maqsadlarning asosiy yo‘naltiruvchi kuchiga aylanmoqda. Endilikda shaxs hayot yo‘lini belgilashda avloddan-avlodga o‘tib kelgan an’analar yoki qat’iy ijtimoiy normalardan ko‘ra, shaxsiy tanlov va subyektiv qarashlarga tayanmoqda. Bu jarayon hayotiy maqsadlarni barqarorlikdan ko‘ra o‘zgaruvchanlik bilan namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy Polyak jamiyatshunos olimi Zygmunt Bauman o‘zining mashhur “Suvuq zamonaviylik” asarida shunday yozadi: “Suyuqlik jamiyatida shaxsning hayotiy maqsadlari tezkor, o‘zgaruvchan va moslashuvchan bo‘lishga majbur” [3.8]. U “suyuqlik” metaforasi orqali barqaror ijtimoiy tuzilmalar yemirilganini, shaxsning hayotiy yo‘nalishlari esa doimiy ravishda qayta

shakllanishini ifodalaydi. Bu shuni koʻrsatadiki, axborotlashgan paradigmada maqsadlar statik emas, balki dinamik jarayon sifatida namoyon boʻladi.

Bugungi davr fanida oʻzining **kommunikatsiya nazariyasi** sohasidagi tadqiqotlari bilan mashhur **Ispaniyalik olim** Manuel Castells ham axborotlashgan jamiyatni tahlil qilar ekan, shaxsiy erkinlikning koʻlami global tarmoqlar orqali kengaygayishi haqidagi yondashuvini - “axborot davrida identitet va hayotiy yoʻnalishlar tarmoqlar orqali shakllanadi, va ular doimiy ravishda global oqimlarga moslashadi” deb tushuntiradi [4.22]. Bu fikr Bauman konsepsiyasini toʻldirib, axborotlashgan paradigmada shaxsning maqsadlari beqaror boʻlishi tabiiy jarayon ekanini koʻrsatadi.

Germaniyalik sotsiolog olim, zamonaviy ijtimoiy nazariyaning eng nufuzli vakillaridan biri Ulrich Beckning “xavf jamiyati” konsepsiyasi ham ushbu jarayonni yoritadi. U shunday deydi: “Modernlikning ikkinchi bosqichida hayotiy qarorlar va maqsadlar tobora noaniqlikka, xavflar va ehtimolliklarga asoslanadi” [5.34]. Demak, axborotlashgan paradigmada hayotiy maqsadlar shaxsni himoya qiluvchi barqaror tayanch emas, balki doimiy moslashuv mexanizmi sifatida ishlaydi.

Shu nuqtada, amerikalik pedagog va psixolog Seana Moranning quyidagi fikrlarini eslash oʻrinlidir. “Maqsadlar inson faoliyatini yoʻnaltiruvchi kompasdir; ular shaxsga oʻz hayotining mazmunini kashf etish va uni qayta-qayta talqin qilish imkonini beradi”[6.57]. Moran ta’kidlashicha, axborotlashgan davrda maqsadlarning oʻzgaruvchanligi shaxsni zaiflashtirmasligi kerak, balki unga oʻz hayotini turli sharoitlarda qayta tashkil etish, moslashish va yangi mazmun topish imkoniyatini beradi.

Axborotlashgan paradigmada shaxsning hayotiy maqsadlari dinamik va moslashuvchan xarakterga ega. Bauman “suyuqlik” metaforasi orqali ularning tez-tez oʻzgarishini koʻrsatgan boʻlsa, Castells ularni global tarmoqlarga bogʻliq, Beck esa xavflar va noaniqliklarga asoslangan deb talqin qiladi. Moran esa bu oʻzgaruvchanlikni ijobiy qirra sifatida koʻrib, maqsadlar shaxsni oʻz hayotida “kompas” bilan ta’minlaydi, deya ta’kidlaydi. Demak, axborotlashgan davrda hayotiy maqsadlarning beqarorligi bilan bir qatorda, ularning ijodkorlik, erkinlik va moslashuvchanlikni kuchaytiruvchi imkoniyati ham mavjud.

3. Global tendensiyalar. Bugungi kunda texnologiyalar, raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar hayotiy maqsadlarning shakllanishi va oʻzgarish jarayoniga bevosita ta’sir koʻrsatmoqda. Maqsadlar endilikda milliy yoki mahalliy qadriyatlarga emas, balki global axborot oqimlari, raqamli kommunikatsiya va virtual hamjamiyatlar orqali shakllanmoqda.

Manuel Castells bu jarayonni “tarmoqlar jamiyati” nazariyasi orqali izohlar ekan, shunday deydi: “Axborot davrida insonning ijtimoiy oʻzligi va maqsadlari tarmoqlar orqali shakllanadi va ularning barqarorligi global aloqalar kuchiga bogʻliq”[4.23]. Bu fikr shuni koʻrsatadiki, shaxsning hayotiy yoʻnalishlari endilikda global axborot oqimlari bilan uygʻunlashgan holda shakllanadi va barqarorlik darajasi ham global tarmoqlarning mustahkamligiga bogʻliqdir.

Raqamli madaniyatning kuchayishi ham hayotiy maqsadlarning tez-tez oʻzgarishiga sabab boʻlmoqda. Oʻzining media va madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan amerikalik olim Henry Jenkins ta’kidlaganidek: “Konvergent madaniyat shaxslarning qarashlarini oʻzgartiradi; ular oʻz hayotiy maqsadlarini endi media oqimlaridan kelib chiqib qayta shakllantiradi” [8.15]. Bu shuni anglatadiki, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar shaxsning maqsadlarini qayta belgilashda asosiy rol oʻynamoqda.

Shuningdek, raqamli madaniyat va psixologiya sohasidagi tadqiqotlarida amerikalik olima Sherry Turkle shaxsning virtual hayotga bogʻlanib qolishini tahlil qilib, shunday deydi: “Biz texnologiya orqali tobora koʻproq **“birga yolgʻiz”** yashashni oʻrganmoqdamiz, va bu jarayon maqsadlarimizni ham raqamli makonga koʻchirmoqda”[9.12]**.** Bu shaxsiy maqsadlarning real hayotiy qadriyatlar oʻrniga koʻproq virtual dunyo talablari va koʻrsatkichlari asosida belgilanayotganini bildiradi.

Global hamjamiyatning shakllanishi esa shaxsiy maqsadlarni milliy chegaralardan chiqarib yubordi. Qadriyatlar evolyutsiyasi sohasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan amerikalik olim Ronald Inglehart postmodern qadriyatlarni tahlil qilar ekan, “Global hamkorlik va birdamlik postindustrial jamiyatlarda shaxsiy maqsadlarning ajralmas qismiga aylanmoqda” [7.41] deya ta’kidlaydi. Bu esa

shaxsning hayotiy yo‘nalishlari endilikda nafaqat individual qoniqish, balki xalqaro miqyosdagi birdamlik va hamkorlik qadriyatlariga ham asoslanayotganini anglatadi.

Demak, global tendensiyalar shaxsning hayotiy maqsadlarini shakllantirishda yangi paradigmaga olib kelmoqda. Bu paradigma esa asosan quyidagi hususiyatlarni namoyon etadi:

- texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar maqsadlarni tez-tez o‘zgaruvchan qilib qo‘ymoqda;
- raqamli madaniyat shaxsni virtual ko‘rsatkichlar va media oqimlariga bog‘liq qilib qo‘ymoqda;
- global aloqalar esa shaxsiy maqsadlarni xalqaro hamkorlik va birdamlik qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirmoqda.

Shunday qilib, axborotlashgan davrda hayotiy maqsadlarning shakllanish jarayoni tobora ko‘proq raqamli makon, transmilliy aloqalar va global qadriyatlar ta’siri ostida kechmoqda.

4. Shaxsiy va global birdamlik. Axborotlashgan davrda hayotiy maqsadlar endilikda nafaqat individual qoniqish, balki global hamkorlik va xalqaro qadriyatlarga ham yo‘naltirilmoqda. Bu shaxsiy manfaatlar bilan global ijtimoiy mas’uliyatning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi paradigma hisoblanadi.

Qadriyatlar siljishi nazariyasi muallifi Ronald Inglehart o‘zining postmodern qadriyatlar haqidagi tadqiqotida - “postmodern jamiyatlarda shaxsiy erkinlik va o‘zini ifoda etish qadriyatlari ijtimoiy hamkorlik va global birdamlik bilan uyg‘unlashadi” deb yozadi. [7.33].

Ronald Inglehartning qadriyatlar siljishi nazariyasi doirasida keltirilgan ushbu iqtibos zamonaviy jamiyatning chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, postmodern davrda shaxsning asosiy hayotiy maqsadlari faqat individual erkinlik va o‘zini ifoda etish bilan cheklanmaydi. Balki ular tobora ijtimoiy hamkorlik va global birdamlik kabi umumiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib boradi.

Bu yerda muhim nuqta shundaki, Inglehart shaxsning hayotiy yo‘nalishi endilikda alohida, yakka holda mavjud bo‘lolmasligini ta’kidlaydi. Ya’ni, inson o‘z erkinligini namoyon etar ekan, shu bilan birga boshqa insonlar, jamiyatlar va butun insoniyat oldidagi mas’uliyatini ham anglab yashaydi. Shu sababli postmodern jamiyatda “shaxsiy maqsadlar – ijtimoiy birlik” o‘rtasida yangi uyg‘unlik paydo bo‘ladi.

Boshqacha aytganda, bugungi kunda erkinlik va ijodkorlik kabi individual qadriyatlar global hamkorlik, birdamlik, tinchlik, ekologik barqarorlik kabi umumiy qadriyatlar bilan kesishgan holda shakllanmoqda. Bu jarayon shaxsning hayotiy maqsadlarini yanada kompleks va mas’uliyatli qiladi: inson o‘zini anglash bilan birga, butun insoniyat taqdiriga daxldor ekanini ham his qiladi.

Ilmiy jamoatchilik orasida o‘zining “Tarixning intihosi” asari bilan mashhur bo‘gan amerikalik siyosatshunos olim Francis Fukuyama ham zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy birdamlikning rolini ta’kidlab, “ijtimoiy ishonch va hamkorlik kapitalistik jamiyatlarning barqarorligi va shaxsiy muvaffaqiyatning asosiy tayanchlaridan biridir” degan fikrni ilgari suradi[10.7].

Francis Fukuyama zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy birdamlik va ishonchning hal qiluvchi rolini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, kapitalistik jamiyatlar faqat iqtisodiy tizim va bozor mexanizmlari orqali emas, balki odamlar orasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlik orqali barqarorlikka erishadi. Chunki ijtimoiy ishonch — bu odamlarni birlashtiruvchi, jamiyatni uyg‘un ishlashiga imkon beruvchi “ko‘rinmas kapital”dir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, shaxsning hayotiy maqsadlari ham mustahkam ijtimoiy poydevorga tayanishi zarur. Agar jamiyatda birdamlik, hamkorlik va ijtimoiy kapital kuchli bo‘lsa, shaxsiy maqsadlar ham barqaror va izchil rivojlanadi. Aks holda, maqsadlar beqaror, o‘zgaruvchan va individual darajada cheklangan bo‘lib qolishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, Fukuyama ta’kidlaganidek, shaxsiy muvaffaqiyat va ijtimoiy barqarorlik bir-biridan ajralmas: insonning individual orzu-maqsadlari jamiyatdagi ishonch, birdamlik va global hamkorlik qadriyatlari bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy barqarorlikka erishadi.

Demak, shaxsiy hayotiy maqsadlar ham barqaror bo‘lishi uchun ijtimoiy kapital va global hamkorlik qadriyatlariga tayanishi lozim.

Nemis faylasafu Yurgen Habermas esa bu jarayonni kommunikativ amaliyot bilan izohlaydi. U ta’kidlaganidek: “Shaxsiy erkinlik va ijtimoiy birdamlik faqatgina muloqot va o‘zaro tushunish jarayonida uyg‘unlashadi” [11.101]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, hayotiy maqsadlar global miqyosda ham dialog, hamkorlik va birgalikdagi qarashlar orqali shakllanadi.

Yurgen Habermasning qarashlarida kommunikativ amaliyot jamiyat va shaxs o‘rtasidagi eng muhim bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida talqin qilinadi. U ta’kidlaganidek, shaxsiy erkinlik faqat individual qarorlar bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv va o‘zaro muloqot orqali mazmun kasb etadi. Xuddi shunday, ijtimoiy birdamlik ham zo‘ravonlik yoki majburlash asosida emas, balki dialog va o‘zaro tushunish orqali shakllanadi.

Bu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, insonning hayotiy maqsadlari ham yakkama-yakka, izolyatsiyada emas, balki jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan muloqotda, ularning qarashlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi. Zamonaviy globallashgan dunyoda esa bu jarayon faqat mahalliy yoki milliy miqyosda emas, balki global darajadagi dialog va hamkorlik orqali yuz beradi.

Demak, Habermasning fikridan kelib chiqilsa, hayotiy maqsadlarni shakllantirishda shaxs o‘z erkinligini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishi, buning uchun esa eng asosiy vosita — muloqot, kelishuv va birgalikdagi qarashlardir. Bu jarayon shaxsiy maqsadlarning ijtimoiy va global qadriyatlar bilan uyg‘unlashishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqsak, shaxsiy va global uyg‘unlik hayotiy maqsadlar paradigmasida yangi bosqichni bildiradi. Inglehartning postmodern qadriyatlar haqidagi fikri, Fukuyamaning ijtimoiy ishonch nazariyasi, Habermasning kommunikativ amaliyot konsepsiyasi va Giddensning refleksiv modernlik yondashuvi barchasi shuni ko‘rsatadiki:

- shaxsiy erkinlik global birdamlik bilan uyg‘unlashmoqda;
- hayotiy maqsadlar ijtimoiy kapital va ishonchga tayanmoqda;
- muloqot va global hamkorlik barqarorlikni ta’minlamoqda;
- shaxs o‘z maqsadlarini global kontekstda shakllantirmoqda.

Demak, bu uyg‘unlik shaxsni nafaqat individual muvaffaqiyatga, balki global ijtimoiy mas’uliyatga ham tayyorlaydi.

Muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborotlashuv jarayonlari hayotiy maqsadlar paradigmasini tubdan o‘zgartirmoqda. Qolaversa bu jarayon o‘zida qator ijobiy va salbiy jihatlarni ham mujassamlashtiradi.

Bu jarayonning ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Individual erkinlik va tanlov imkoniyatlarining kengayishi. Axborotlashuv jarayoni shaxsga o‘z hayotiy yo‘lini erkin belgilash imkoniyatlarini kengaytirdi. Manuel Castells ta’kidlaganidek: *“Axborot davrida shaxsiy identitet va tanlov imkoniyatlari tarmoqlar orqali shakllanadi va ular individga global erkinlik darajasini beradi”[4.22]*. Bu shuni anglatadiki, zamonaviy sharoitda shaxs hayotiy maqsadlarini nafaqat milliy muhit, balki global miqyosdagi imkoniyatlar asosida belgilay oladi.

2. Kreativlik va innovatsion fikrlashning rivojlanishi. Zamonaviy sharoitda erkin tanlov ijodiy salohiyatni yuzaga chiqaradi. “Ijodkor sinf” nazariyasinig muallifi amerikalik olim Richard Florida o‘zining “Ijodkor sinfning yuksalishi” asarida shunday yozadi: *“Innovatsion jamiyatning kuchi shaxslarning ijodkorligi va yangi g‘oyalarni erkin amalga oshira olish qobiliyatiga tayanadi”[13.4]*. Bu fikr axborotlashuv davrida hayotiy maqsadlarning ijodkorlik va yangilik yaratish bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

3. Global hamjamiyat bilan uyg‘unlashgan hayotiy maqsadlar shakllanishi. Ronald Inglehart fikricha: *“Postmodern jamiyatlarda shaxsiy erkinlik qadriyatlari global birdamlik va hamkorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi”* [7.33]. Bu jarayon shaxsning hayotiy maqsadlari nafaqat individual, balki global ijtimoiy ehtiyojlarga ham moslashayotganini bildiradi.

Salbiy tomonlari sifatida esa quyidagi jihatlarni sanab o‘tish mumkin:

1. Maqsadlarning beqarorligi va tez-tez o‘zgarishi. Zygmunt Bauman zamonaviy jamiyatni *“suyuqlik”* metaforasi orqali tavsiflab, shunday yozadi: *“Suyuqlik zamonida hech bir hayotiy loyiha barqaror emas, u har doim o‘zgaruvchan va qayta shakllanadigan jarayonga aylanadi”[3.8]*. Bu iqtibos axborotlashuv jarayonida hayotiy maqsadlarning tez-tez o‘zgarishini ilmiy asoslaydi.

2. Iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi. Jean Baudrillard bu holatni iste’mol jamiyati nazariyasida shunday izohlaydi: *“Zamonaviy jamiyatda maqsadlar tobora iste’mol ob’ektlariga aylanib, shaxsning hayotiy mazmuni iste’mol jarayoniga bog‘liq bo‘lib qolmoqda”* [14.46]. Demak, axborotlashuv davrida maqsadlar ko‘pincha iste’molchilik kayfiyatining mahsuliga aylanmoqda.

3. “Ma’no inqirozi.” Bauman ta’riflaganidek: *“Suyuqlik davrida barqaror qadriyatlarning yo‘qolishi shaxsni ma’no bo‘shlig‘ida qoldiradi”*[3.12]. Bu “ma’no inqirozi” yoshlarning hayotiy maqsadlarida beqarorlik, kelajakni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy begonalashuvga olib keladi.

Keltirilgan ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, axborotlashuv jarayoni hayotiy maqsadlarni ijobiy tomondan shaxsiy erkinlik, ijodkorlik va global hamkorlik bilan boyitsa, salbiy tomondan esa maqsadlarning beqarorligi, iste’molchilik kayfiyati va ma’no inqirozini keltirib chiqarmoqda. Shu bois, pedagogika va falsafa oldida yoshlarni barqaror, ma’noli va global qadriyatlarga asoslangan hayotiy maqsadlar sari yo‘naltirish strategik vazifa sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

“Hayotiy maqsad paradigmalaridagi o‘zgarish tendensiyalarining ta’lim-tarbiya jarayonlariga ta’siri” bir nechta asosiy falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlarda namoyon bo‘ladi. Ularning eng muhimlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin::

1. Qadriyatlar tizimidagi o‘zgarish

Zamonaviy davrda inson hayotiy maqsadlari an’anaviy – moddiy farovonlik, ijtimoiy mavqe yoki kasbiy muvaffaqiyat bilan cheklanmayapti. Endilikda insonning ma’naviy o‘sishi, o‘zini anglash, jamiyatga foyda keltirish kabi maqsadlar ustuvor bo‘lib bormoqda. Bu holat ta’lim jarayonida qadriyatga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

2. Shaxsiylashtirilgan ta’lim tamoyilining kuchayishi

Har bir o‘quvchi yoki talabaning hayotiy maqsadi va dunyoqarashi turlicha. Shu sababli ta’lim tizimi “bir xil andaza”dan voz kechib, individual yo‘naltirilgan, shaxsga mos rivojlanish strategiyasini shakllantirishi zarur bo‘ladi.

3. Refleksiya va o‘zini anglash kompetensiyasining rivoji

O‘z hayotiy maqsadini belgilash uchun shaxs refleksiv tafakkurga ega bo‘lishi kerak. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni o‘z fikrini tahlil qilish, qarorlarini baholash, o‘z yo‘lini tanlashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Maqsadga yo‘naltirilgan pedagogikaning shakllanishi

Ta’lim jarayonida bilim emas, balki hayotiy maqsad sari yo‘naltirilgan faoliyat markaziy o‘ringa chiqmoqda. Bu yondashuvda o‘qituvchi – “maqsad yo‘lchi” sifatida, o‘quvchini o‘z istiqbolini anglashga yo‘naltiruvchi subyekt bo‘ladi.

5. Innovatsion va STEAM yondashuvlarning ta’siri

Raqamli davrda hayotiy maqsadlar ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois STEAM texnologiyalari ta’limda faqat texnik ko‘nikma emas, balki maqsadli fikrlash madaniyatini shakllantiradi.

6. Axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatning kuchayishi

Yangi hayotiy maqsad paradigmasi insonni shunchaki muvaffaqiyatli emas, balki jamiyat oldida mas’ul, halol va insonparvar shaxs sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Ta’lim-tarbiya jarayonlari shunga yo‘naltirilishi zarur.

7. O‘qituvchi rolidagi transformatsiya

O‘qituvchi endilikda faqat bilim manbai emas, balki maqsadli tafakkurni shakllantiruvchi mentor va yo‘lko‘rsatuvchiga aylanadi. U yoshlarni o‘z hayotiy yo‘lini topishga, uni anglab yetishga undaydi.

8. Ma’noli hayot falsafasining shakllanishi

Ta’limning yakuniy maqsadi – insonni ma’noli hayot kechiruvchi, o‘z hayot mazmunini ongli belgilay oluvchi shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu – hayotiy maqsad paradigmalarining eng chuqur falsafiy ifodasidir.

Yuqoridagilardan ayon bo‘ladiki, Hayotiy maqsad paradigmalaridagi o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya jarayonlarida shaxsiylashtirilgan yondashuv, ma’naviy qadriyatlar ustuvorligi, refleksiya madaniyati, maqsadga yo‘naltirilgan pedagogika, innovatsion tafakkur, axloqiy mas’uliyat va o‘qituvchining mentorlik rolida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon shaxsni ongli, maqsadli va ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hayotiy maqsad paradigmalaridagi o‘zgarishlar insonning o‘zini anglash, dunyoni idrok etish va jamiyatdagi o‘rnini belgilash jarayonlariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda shaxs maqsadlari nafaqat individual ehtiyojlarga, balki ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatga tayanmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimi ana shu yangi maqsad paradigmasiga mos tarzda, insonni faqat bilimli emas, balki maqsadli, ongli va ijtimoiy jihatdan faol subyekt sifatida shakllantirishi zarur. Shu bois pedagogik jarayonlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan falsafiy, psixologik va axloqiy yondashuvlar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy maqsadlarni anglagan shaxs – o‘z hayoti va jamiyat taraqqiyotining ijodkori sifatida, yangilanayotgan dunyoda barqaror qadriyatlar va ma’naviy poydevorlarni tiklovchi asosiy kuchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Geertz, C. *The Interpretation of Cultures.* – New York: Basic Books, 1973. – 470 p.
2. Durkheim, Émile. *Les Formes élémentaires de la vie religieuse.* Paris: Félix Alcan, 1912. https://archive.org/details/elementaryformso00durkrich/page/n11
3. Bauman, Z. *Liquid Modernity.* – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p. – P. 8.
4. Castells, M. *The Rise of the Network Society.* – 2nd ed. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2010. – 597 p.
5. **Beck, U.** *Risk Society: Towards a New Modernity.* — London: Sage Publications, 1992. — 272 p.
6. **Moran, S.** *Purpose Development in Youth: Understanding the Role of Goal-Setting.* — New York: Springer, 2017. — 245 p.
7. Inglehart, R. *Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic, and Political Change in 43 Societies.* – Princeton: Princeton University Press, 1997. – 464 p.
8. **Jenkins, H.** *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide.* — New York: New York University Press, 2006. — 308 p. — P. 15. https://archive.org/details/isbn_9780814742815
9. **Turkle, Sh.** *Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other.* — New York: Basic Books, 2011. — 360 p.
10. **Fukuyama, F.** *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity.* — New York: Free Press, 1995. — 457 p.
11. **Habermas, J.** *The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society.* — Boston: Beacon Press, 1984. — 465 p.
12. **Giddens, A.** *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age.* — Cambridge: Polity Press, 1991. — 256 p.
13. Florida, R. *The Rise of the Creative Class: And How It’s Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life.* — New York: Basic Books, 2002. — 404 p.
14. Baudrillard, J. *Consumer Society: Myths and Structures.* — London: Sage Publications, 1998. — 208 p.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБУЧЕНИЯ: ОТ ДОШКОЛЬНОГО УРОВНЯ ДО ВУЗА

Каримова Малика Абди-Хафизовна,
Преподаватель Гулистанского государственного университета,
Телефон: + 998(91)507-76-61
Email: mk6122268@mail.com

Аннотация. Maqolada filologik ta’limning raqamli transformatsiyasi tahlil qilinadi - maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda. Til va adabiyot o‘qitishda zamonaviy raqamli va sun’iy intellekt vositalari, ta’lim bosqichlari uzviyligi va raqamli savodxonlik rivojlanishiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, filologik ta’lim, sun’iy intellekt, uzviylik, raqamli savodxonlik.

Аннотация. В статье анализируются особенности цифровой трансформации филологического образования на всех уровнях непрерывного обучения - от дошкольного до высшего. Рассматриваются современные цифровые и искусственно-интеллектуальные инструменты, используемые для преподавания языка и литературы, а также их влияние на преемственность образовательных этапов и развитие цифровой грамотности. Особое внимание уделяется интеграции технологий искусственного интеллекта и цифровых платформ в учебный процесс.

Ключевые слова: цифровизация, филологическое образование, искусственный интеллект, преемственность, цифровая грамотность.

Abstract. The article examines the digital transformation of philological education across all levels of continuous learning - from preschool to university. It discusses modern digital and artificial intelligence tools used in language and literature teaching, their impact on continuity between educational stages, and the development of digital literacy. Special attention is given to integrating AI technologies and digital platforms into the educational process.

Keywords: digitalization, philological education, artificial intelligence, continuity, digital literacy.

Введение. Современное филологическое образование переживает период значительных трансформаций, связанных с внедрением цифровых технологий и искусственного интеллекта. Цифровизация образовательного процесса охватывает все уровни непрерывного обучения - от дошкольного образования, где формируются первые навыки речевой и когнитивной деятельности, до высших учебных заведений, где студенты осваивают сложные аналитические, исследовательские и интерпретационные навыки. В этой связи возникает необходимость системного подхода к цифровой трансформации, обеспечивающего преемственность всех образовательных ступеней и формирование ключевых компетенций XXI века [1].

Актуальность темы обусловлена рядом факторов.

Во-первых, стремительное развитие информационных технологий и появление новых цифровых образовательных ресурсов создают новые возможности для преподавания языков и литературы, но одновременно требуют от педагогов высокой цифровой компетентности и умения эффективно интегрировать технологии в учебный процесс.

Во-вторых, современные требования рынка труда и общества предъявляют повышенные требования к навыкам коммуникации, критического мышления и цифровой грамотности, которые должны формироваться на всех уровнях образования.

В-третьих, внедрение технологий искусственного интеллекта в образовательные процессы позволяет персонализировать обучение, адаптируя его под индивидуальные потребности обучающихся, что особенно важно для филологического образования, ориентированного на развитие языковой личности.

Цель настоящего исследования заключается в системном анализе возможностей интеграции цифровых инструментов в филологическое образование, а также в изучении их

влияния на преемственность образовательных этапов и формирование цифровой грамотности обучающихся. Задачи исследования включают:

1. Изучение современных цифровых инструментов и технологий, применяемых в филологическом образовании;
2. Анализ влияния цифровизации на преемственность образовательных ступеней - от дошкольного уровня до университета;
3. Выявление возможностей использования искусственного интеллекта для персонализации обучения и повышения эффективности образовательного процесса;
4. Разработка рекомендаций по интеграции цифровых технологий в систему филологического образования.

Объект исследования - система филологического образования в Республике Узбекистан, включающая дошкольные, школьные, профессиональные и высшие образовательные учреждения [2]. Предмет исследования - цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении русскому языку и литературе, их роль в формировании языковой компетенции, преемственности образовательных этапов и цифровой грамотности обучающихся [3].

Методологическую основу исследования составляют системный, деятельностный и компетентностный подходы, методы сравнительного анализа, педагогического моделирования, кейс-стади и эмпирические наблюдения за использованием цифровых технологий в образовательных учреждениях. Теоретическая значимость работы заключается в расширении научного понимания процессов цифровой трансформации филологического образования, практическая значимость - в разработке рекомендаций по эффективному внедрению цифровых инструментов на различных образовательных уровнях.

Таким образом, цифровая трансформация филологического образования рассматривается не только как технический процесс внедрения технологий, но и как комплексное явление, влияющее на структуру, содержание и методику обучения, а также на формирование современных компетенций у обучающихся, что делает тему исследования чрезвычайно актуальной и востребованной в современных условиях.

Обзор литературы и методологии. Цифровая трансформация филологического образования в последние годы стала предметом активного изучения как отечественных, так и зарубежных исследователей. Актуальность данной темы обусловлена быстрым развитием информационно-коммуникационных технологий, появлением интерактивных образовательных платформ и внедрением искусственного интеллекта в учебный процесс.

В отечественной педагогической науке вопросы цифровизации образования подробно рассматриваются Полатом (2020), который подчеркивает, что внедрение цифровых технологий способствует индивидуализации учебного процесса, расширяет возможности формирования языковой и речевой компетенции, а также повышает мотивацию обучающихся. Хуторской (2021) рассматривает цифровую среду как инструмент реализации компетентностного подхода в обучении, отмечая, что современные образовательные технологии обеспечивают переход от репродуктивного к деятельностному обучению, что особенно важно для филологических дисциплин, требующих развития критического мышления, анализа текста и творческой интерпретации.

Зарубежные исследования также подтверждают значимость цифровых технологий в филологическом образовании. Levy (2020) рассматривает онлайн-платформы и интерактивные курсы как ключевой элемент формирования цифровой грамотности и навыков самообучения у студентов, а Salmon (2019) акцентирует внимание на использовании электронных ресурсов для активного вовлечения обучающихся в учебный процесс, в том числе через проектную деятельность и коллаборативное обучение. Brown (2021) подчеркивает роль искусственного интеллекта в адаптации учебных материалов под индивидуальные потребности обучающихся, что особенно актуально для изучения сложных языковых конструкций и литературных текстов [4].

Методологической основой данного исследования являются системный, деятельностный и компетентностный подходы. Системный подход позволяет рассматривать филологическое образование как единую непрерывную систему, состоящую из взаимосвязанных уровней - от дошкольного до высшего образования. Деятельностный подход делает акцент на активной роли обучающегося в образовательном процессе и использовании цифровых инструментов для развития самостоятельной учебной деятельности. Компетентностный подход ориентирован на формирование у студентов ключевых компетенций XXI века, таких как критическое мышление, коммуникабельность, исследовательские навыки и цифровая грамотность.

В рамках исследования применялись методы сравнительного анализа, педагогического моделирования и кейс-стади. Метод сравнительного анализа позволил сопоставить опыт внедрения цифровых технологий в филологическое образование в различных образовательных учреждениях Узбекистана и зарубежья. Метод педагогического моделирования использовался для разработки концептуальных схем интеграции цифровых инструментов на разных образовательных уровнях. Кейс-стади предоставил возможность изучить конкретные примеры успешного применения интерактивных платформ, электронных учебников, систем дистанционного обучения и инструментов искусственного интеллекта.

Особое внимание уделялось изучению цифровых образовательных платформ, таких как «Российская электронная школа» (РЭШ), платформа «ZiyoNET» и «Ustoz», которые используются на разных уровнях образования для поддержки преемственности учебного процесса и формирования цифровой компетентности обучающихся. Анализ функционала этих платформ позволил выявить основные возможности цифровых инструментов: интерактивные упражнения, онлайн-тестирование, электронные библиотеки, системы обратной связи и адаптивные учебные материалы [5].

Таким образом, обзор литературы показывает, что цифровая трансформация филологического образования является комплексным процессом, включающим педагогические, технологические и методологические аспекты. Интеграция цифровых инструментов и технологий искусственного интеллекта способствует повышению качества образования, обеспечению преемственности между образовательными этапами и формированию у обучающихся необходимых компетенций для успешной профессиональной и личностной деятельности.

Обсуждение и результаты. Цифровая трансформация филологического образования проявляется на всех уровнях непрерывного обучения - от дошкольного до высшего. Анализ практик внедрения цифровых технологий позволяет выделить несколько ключевых направлений:

1. **Интеграция цифровых инструментов на всех уровнях обучения.** На дошкольном этапе активно используются интерактивные обучающие игры, мультимедийные приложения и электронные карточки для развития речи и базовых языковых навыков. В начальной школе внедряются электронные учебники и онлайн-тренажеры, позволяющие систематизировать знания по орфографии и грамматике. В средней школе применяются образовательные платформы, блоги и электронные проекты для формирования аналитических и коммуникативных навыков. Профессиональные колледжи и вузы используют онлайн-курсы, вебинары, платформы дистанционного обучения и инструменты ИИ для повышения профессиональной компетентности и развития исследовательских навыков.

2. **Формирование цифровой компетентности педагогов и обучающихся.** Одним из ключевых аспектов цифровой трансформации является подготовка педагогов к использованию современных технологий. Курсы повышения квалификации, мастер-классы по работе с онлайн-платформами и интерактивными средствами обучения способствуют повышению эффективности учебного процесса. Аналогично, обучающиеся приобретают

навыки работы с цифровыми инструментами, что формирует их информационную и медиаграмотность.

3. **Обеспечение преемственности образовательных этапов.** Цифровые инструменты позволяют поддерживать преемственность между уровнями образования. Например, интерактивные платформы могут сохранять результаты учащихся с дошкольного и начального этапов и использовать их для адаптации задач на следующих уровнях. Это способствует персонализации обучения и более эффективному развитию языковых компетенций.

4. **Использование искусственного интеллекта для адаптации обучения.** Инструменты ИИ, такие как интеллектуальные системы оценки, адаптивные онлайн-тренажеры и чат-боты для изучения языка, позволяют учитывать индивидуальные особенности обучающихся и создавать персонализированные траектории обучения. Это особенно важно для студентов вузов, где обучение требует углубленного анализа литературных текстов, критического мышления и исследовательской работы.

5. **Повышение мотивации и творческого потенциала обучающихся.** Цифровые платформы предоставляют возможности для проектной деятельности, участия в онлайн-конференциях, создания мультимедийных презентаций и блогов, что способствует развитию творческого мышления и мотивации к изучению языка и литературы.

Таблица 1. Уровни образования и цифровые инструменты

Уровень образования	Цифровые инструменты	Цель использования
Дошкольный	Интерактивные игры, мультимедийные приложения	Развитие речи и базовых языковых навыков
Начальная школа	Электронные учебники, онлайн-тренажеры	Формирование орфографической и речевой компетенции
Средняя школа	Образовательные платформы, блоги, электронные проекты	Развитие аналитических и коммуникативных навыков
Профессиональные колледжи	Онлайн-курсы, вебинары, системы тестирования	Повышение профессиональной компетентности и цифровой грамотности
Высшие учебные заведения	Платформы дистанционного обучения, ИИ, цифровые библиотеки	Формирование исследовательских и критических навыков, научная деятельность

Таблица 2. Ключевые компетенции, формируемые с помощью цифровых технологий

Уровень образования	Компетенции	Примеры цифровых средств
Дошкольный	Речевая и когнитивная грамотность	Образовательные приложения, интерактивные игры
Начальная школа	Орфографическая и языковая грамотность	Электронные учебники, онлайн-тренажеры
Средняя школа	Коммуникативные и аналитические навыки	Онлайн-платформы, блоги, электронные проекты
Колледжи	Профессиональная компетентность и цифровая грамотность	Системы тестирования, вебинары
Вузы	Научные, исследовательские и критические навыки	ИИ, цифровые библиотеки, платформы дистанционного обучения

Практические примеры использования цифровых технологий

1. **Дошкольный уровень:** интерактивные приложения, такие как Lingokids или ABCmouse, позволяют детям изучать буквы, слова и простые фразы через игры, что способствует раннему развитию языковой компетенции.
2. **Начальная школа:** платформа «Российская электронная школа» используется для закрепления правил грамматики и орфографии через онлайн-тесты и мультимедийные задания.
3. **Средняя школа:** проектная деятельность через Google Classroom и Padlet позволяет создавать коллективные исследовательские проекты по литературе, что развивает критическое мышление и навыки презентации.
4. **Колледжи и вузы:** адаптивные платформы с ИИ, такие как Smart Sparrow или Edmodo, создают индивидуальные траектории обучения, учитывая уровень знаний и скорость усвоения материала каждым студентом.

Заключение. Цифровая трансформация филологического образования в системе непрерывного обучения является ключевым фактором модернизации современного образовательного процесса. Внедрение цифровых технологий и искусственного интеллекта позволяет повысить качество преподавания русского языка и литературы, обеспечить преемственность образовательных этапов и формировать у обучающихся ключевые компетенции XXI века - цифровую грамотность, аналитическое и критическое мышление, коммуникативные навыки, способность к самостоятельному обучению и исследовательской деятельности.

Анализ внедрения цифровых инструментов на различных образовательных уровнях показал, что их эффективное использование зависит от нескольких факторов:

1. **Подготовка педагогов.** Педагоги должны владеть современными цифровыми инструментами и методами их интеграции в образовательный процесс. Для этого необходимы курсы повышения квалификации, семинары и мастер-классы.
2. **Разработка адаптированных электронных ресурсов.** Учебные материалы должны быть интерактивными, мультимедийными, включать элементы персонализации и адаптивного обучения, чтобы учитывать индивидуальные потребности учащихся.
3. **Обеспечение преемственности и системности.** Использование единой цифровой среды позволяет сохранять результаты обучения на предыдущих уровнях и формировать индивидуальные траектории развития, начиная с дошкольного уровня и до вуза.
4. **Использование искусственного интеллекта.** ИИ-инструменты позволяют автоматизировать проверку знаний, адаптировать задания под уровень обучающихся, создавать интерактивные тренажеры и платформы для самостоятельного обучения.
5. **Мониторинг и оценка эффективности.** Регулярное отслеживание результатов внедрения цифровых технологий позволяет корректировать методы преподавания, выявлять успешные практики и распространять их среди образовательных учреждений.

Практическое внедрение предложенных подходов способствует повышению мотивации обучающихся, развитию творческих и исследовательских навыков, а также формированию устойчивой языковой компетенции. Важно отметить, что цифровая трансформация не заменяет традиционные методы обучения, а выступает как инструмент их усиления, обеспечивая интеграцию классического и инновационного подходов [6].

Таким образом, цифровизация филологического образования рассматривается как комплексный процесс, объединяющий педагогические, технологические и методологические аспекты. Реализация предложенных рекомендаций позволит создать устойчивую систему непрерывного образования, где цифровые и искусственно-интеллектуальные технологии гармонично сочетаются с традиционными методами преподавания, обеспечивая эффективное формирование современных компетенций у обучающихся.

Рекомендации для дальнейшего развития цифровой трансформации в филологическом образовании:

- Активное использование мультимедийных и интерактивных материалов на всех уровнях обучения.
- Внедрение онлайн-платформ и ИИ-технологий для индивидуализации учебного процесса.
- Проведение регулярного повышения квалификации для педагогов в области цифровых технологий.
- Разработка комплексных моделей преемственности образовательных этапов с использованием единой цифровой среды.
- Организация исследовательских проектов и проектной деятельности, поддерживаемой цифровыми инструментами.

Реализация данных рекомендаций создаст условия для эффективного формирования языковой, коммуникативной и цифровой компетентности, обеспечивая подготовку обучающихся к требованиям современного общества и рынка труда.

Список литературы:

1. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2020.
2. Хуторской А.В. Педагогика XXI века: компетентностный подход и цифровая трансформация. – М.: Просвещение, 2021.
3. ZiyoNET. Raqamli ta’lim platformasi. – Toshkent, 2023.
4. Российская электронная школа (РЭШ). – URL: https://resh.edu.ru
5. Министерство высшего образования, науки и инноваций РУз. Konsepsiya raqamli ta’limni rivojlantirish (2024).

INNOVATSION TA’LIM KLASTERINING AFZALLIKLARI

R.Musurmanov Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Umumiy pedagogika” kafedrasi, pedagogika fanlari doktori, dotsent.
Bakdurdiev Mardonbek Bazarbay o‘g‘li, Djumaniyazova Maftuna Maxsetovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fakulteti maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabalari.

Annotatsiya: Maqolada modernizatsiyalashgan ta’lim sharoitida pedagogik ta’lim klasteri yondashuvining o’ziga xos jihatlari yoritilgan bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligiga ijobiy ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida tavsiyalar berilgan. Ma’lumki, shaxs tarbiyasi uzluksiz jarayon bo’lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta’lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan, shu maqsadga qaratilgan bo’lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdan iboratdir.

Jamiyatda o’sib kelayotgan yoshlar orasida tarbiyasi og‘ir va noqobil farzandlar ham uchrab turadi. Ayniqsa, farzand tarbiyasiga yetarli darajada e’tibor bermaydigan ota-onalarning farzandlari, oilaviy mojarolar tufayli nazoratsiz qolayotgan o’smirlarning taqdiri, ularning tarbiyasi va ta’limiga alohida e’tibor hamda yondashuv talab etiladi. Ana shunday toifadagi bolalar tomonidan dars jarayoniga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

Yana shuni e’tirof etish lozimki, dars jarayoniga nisbatan salbiy munosabatlarning shakllanishida u yoki bu fanlardan saboq berayotgan o’qituvchilar ham sababchi bo’lishlari mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar: klaster yondashuv, ta’limni rivojlantirish, ilmiy-amaliy ahamiyati, tizim raqobatbardoshligi, ijtimoiy ahamiyati, innovatsion yondashuv, klasterli integratsiya, ta’lim-tarbiya samaradorligi, ta’lim-tarbiyaning asosiy subyektlari.

Abstract: The article highlights the specifics of the pedagogical educational cluster approach in modernized educational conditions, and gives recommendations on factors that positively affect the effectiveness of the educational process. It is known that personal development

is a continuous process, starting from the moment a person is born and continuing until the end of his life. During this process, the negative or positive impact of environmental events on a person determines the degree to which his human qualities are formed. One of the most pressing problems facing the education sector today is precisely this goal, which is to ensure that the future generation is formed as a complete person. Among the young people growing up in society, there are also children who are difficult to educate and who are not capable of learning. In particular, the fate of children of parents who do not pay enough attention to their children's upbringing, and of adolescents who are left without supervision due to family conflicts, requires a special approach to their upbringing and education. It is precisely in such children that a negative attitude towards the learning process is formed.

It is also necessary to recognize that teachers who teach certain subjects can also be responsible for the formation of negative attitudes towards the teaching process.

Key words and phrases: cluster approach, development of education, scientific and practical significance, system competitiveness, social significance, innovative approach, cluster integration, educational effectiveness, main subjects of education.

Аннотация: В статье освещается специфика применения педагогического образовательного кластера в условиях модернизации образования, а также даются рекомендации по факторам, положительно влияющим на эффективность образовательного процесса. Известно, что развитие личности – это непрерывный процесс, начинающийся с момента рождения человека и продолжающийся до конца его жизни. В ходе этого процесса негативное или позитивное воздействие на человека факторов окружающей среды определяет степень сформированности его человеческих качеств. Одной из наиболее актуальных проблем, стоящих сегодня перед сферой образования, является именно эта цель – обеспечить формирование будущего поколения как полноценной личности. Среди молодёжи, взрослеющей в обществе, есть и трудновоспитуемые, неспособные к обучению дети. В частности, судьба детей родителей, не уделяющих достаточного внимания воспитанию своих детей, и подростков, оставшихся без присмотра из-за семейных конфликтов, требует особого подхода к их воспитанию и образованию. Именно у таких детей формируется негативное отношение к процессу обучения. Необходимо также признать, что преподаватели, преподающие определённые предметы, также могут быть ответственны за формирование негативного отношения к процессу обучения.

Ключевые слова и фразы: кластерный подход, развитие образования, научно-практическая значимость, конкурентоспособность системы, социальная значимость, инновационный подход, кластерная интеграция, эффективность образования, основные предметы образования.

Ma'lumki, shaxs tarbiyasi uzluksiz jarayon bo'lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta'lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan, shu maqsadga qaratilgan bo'lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdan iboratdir.

Jamiyatda o'sib kelayotgan yoshlar orasida tarbiyasi og'ir va noqobil farzandlar ham uchrab turadi. Ayniqsa, farzand tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor bermaydigan ota-onalarning farzandlari, oilaviy mojarolar tufayli nazoratsiz qolayotgan o'smirlarning taqdiri, ularning tarbiyasi va ta'limiga alohida e'tibor hamda yondashuv talab etiladi. Ana shunday toifadagi bolalar tomonidan dars jarayoniga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

Yana shuni e'tirof etish lozimki, dars jarayoniga nisbatan salbiy munosabatlarning shakllanishida u yoki bu fanlardan saboq berayotgan o'qituvchilar ham sababchi bo'lishlari mumkin.

O'qituvchining o'quvchiga nisbatan qo'pol muomalasi, o'quvchi qalbiga yo'l topa bilmaslik, o'rinsiz tanbeh va dashnomlar, o'quvchini mensimaslik, adolatsizlik singari illatlar ham o'quvchida o'sha dars berayotgan o'qituvchining nafaqat o'ziga, balki uning faniga nisbatan ham

nafrat uyg‘otadi.

Tajribalar ko’rsatadiki, umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarining dars intizomiga salbiy munosabati oqibatida fanlardan DTS talablari darajasida o’zlashtirmaslikdan tashqari qoidabuzarliklar, bezorilik, jinoyatchiliklar sodir etilayotganligi hech kimga sir emas. Ota-onalarning befarqliklari, mas’uliyatsizliklar, maktab bilan aloqani yo’lga qo’ymaslik, bolaning bo’sh vaqtini nazorat qilmaslik, farzandlarining kelajak taqdirlari bilan qiziqmaslik singari holatlar vaziyatni yanada chigallashtirib yubormoqda. Mumtoz adabiyotimizda nizom so’zi ham intizom ma’nosida qo’llanganini kuzatish mumkin. Masalan, “Dunyoga kelgan payg‘ambarlarning har birlari din va shariatlarini tartib va nizom ila yuritmishlar. Xususan, islom dini mukammal ravishda tartib va nizomga rioya qilishdir”. Abdulla Avloniy aytgandek “Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o’z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo’lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar”[47]. A.Avloniyning fikricha, intizomsiz odam jamoaga qarshi turadigan madaniyatsiz, ma’naviyatsiz shaxsdir. Tartib intizomga o’rgatish va o’rganish birinchi navbatda o’zi yashayotgan jamiyatga, jamiyat tomonidan o’rnatilgan tartib-qoidalarga hurmat belgisidir[48].

Agar biz farzandlarimizni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalamoqchi bo’lsak, ularning xatti-harakatlarini har tomonlama o’rganishimiz shart. Jamiyatimiz uchun noqobil, intizomsiz, qonun-qoidalarni hurmat qilmaydigan mas’uliyatsiz insonlar ortiqchalik qiladi. Shuning uchun ham bolalarimizning ta’lim-tarbiyasida bo’shliqlarga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Buning uchun esa ota-onaning, ta’lim muassasalari o’qituvchi-pedagoglari, psixologlar, jamoatchi tashkilotlar hamda keng jamoatchilikning har biriga tegishli bo’lgan mas’uliyati borki, bu mas’uliyat ularga salmoqli vazifalarni yuklaydi.

Pedagogik innovatsion ta’lim rivojlanishining klaster modeli ta’lim va tarbiya berish, o’quv adabiyotlari yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo’nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanligini ko’rsatadi. Ayni paytda, bu umumiy yo’nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo’nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta’minlash, o’qitish metod va vositalari kabi yo’nalishlarda xususiylashadi.

Pedagogik ta’lim klasteri faoliyatining asosiy **maqsadi** quyidagilardan iborat:

- pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta’minlash va eng yaxshi o’quvchilarni pedagog kasbiga targ‘ib qilish;
- pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amaliyotga tayangan holda va manfaatdor subyektlar teskari aloqasini operativ ta’minlagan holda olib borish;
- bo’lajak ta’lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo’lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish;
- yosh mutaxassislarning kasbiy ko’nikmalarni egallash davrini qisqartirish;
- pedagogik ta’limda yangi avlod o’quv, o’quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish;
- pedagogik ta’lim ilmiy, ilmiy-pedagogik salohiyatni oshirish;
- pedagogik ta’limni rivojlantirishning dolzarb zamonaviy masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;
- ta’lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl, usul hamda vositalarini izlab topish va izchil ta’limga tatbiq etish;
- ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlovchi ichki hamda tashqi mexanizmlarni takomillashtirish;
- mutaxassis pedagog kadrlar tayyorlashda maktabgacha, o’rta ta’lim va OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o’zaro tezkor qayta bog‘lanish imkoniyatini yaratish;

---

[47] Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 1993. –B. 38.

[48] Musurmonov R. Oilada farzand tarbiyasi muammolari //“Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendirio‘”. Nukus, №1, 2020. –B. 66-69.

- pedagogik ta’lim bo’g‘inlari o’rtasidagi aloqadorlik, bog‘liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

- hududdagi ta’lim muassasalari uchun zamonaviy kompetensiyaga ega bo’lgan pedagog kadrlar tayyorlash;
- ta’lim sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali natijadorlikka erishish;
- modernizatsiyalashgan ta’lim sharoitida ilmiy-metodik va amaliy faoliyatning optimal omillarini aniqlash, amaliyotga izchil joriy etish;
- ta’limning asosiy (darslik) va yordamchi (lug‘atlar, qomuslar, elektron manbalar va b.) vositalari mazmun-mohiyatining ta’lim bosqichlari kesimidagi uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;
- hududdagi ta’lim muassasalari o’qituvchilarining kompetentlik tayyorgarligidagi bo’shliqlarni to’ldirish maqsadida qisqa muddatli o’quv seminar va kurslari tashkil qilish;
- umumta’lim maktablarida fanlarni natijador o’qitish bilan bog‘liq subyektiv muammolarni bartaraf qilish maqsadida metodbirlashmalar faoliyatini kuchaytirish, ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilish;
- oliy pedagogik ta’lim tizimidagi professor-o’qituvchilarning ilmiy-metodik salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish;
- umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan va ilmiy tadqiqot olib borish layoqatiga ega o’qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, ularni qo’llab-quvvatlash;
- pedagogika sohasidagi zamonaviy ilg‘or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish maqsadida yetakchi xorijiy OTMlarga stajirovkalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Dars intizomi ijobiy munosabatni shakllantirishda klasterli yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasasi, oila, mahalla, o’quvchilar ota-onalari mehnat faoliyati ko’rsatadigan korxona tashkilot va muassasalar, huquqni himoya qiluvchi organlar hamkorligida tarbiyaviy ishlarni olib borish o’zining aniq samarasini berishiga ishonch hosil qildik[49].

Tadqiqotda tartiblilik – talablarini bajarish va tashabbuskorlik, bo’ysunuvchanlik va mustaqillik, faollik va sustlik; intizomlilikni esa – o’z xulqini malaka va ko’nikmalari bilan o’zaro bog‘liq holda boshqara olish, ularni shaxsiy qoidalar hamda talablariga, shuningdek, individual hamda jamoa intizomligi evaziga ong elementi hamda odatiy tajribalar, muvaffaqiyat va yutuqlar usuli sifatida to’planib boradigan jamoa va jamiyat tomonidan qo’yiladigan qoida hamda talablariga bo’ysundira bilishdek shaxsiy xususiyatlarning mujassamliligi sifatida yondashadilar; mazkur xususiyatlarning shakllanish jarayonida zaruriy holat, anglanmagan xohishlar, tashqi tarbiyaviy ta’sirlardan, erkinlik, mustaqillikka yo’naltirilgan xulq-atvordan o’tib borish va ushbu xususiyatlarning birlikdagi jamlanmasi sifatida yondashuvchi mualliflarning nuqtayi nazarlari bo’linadi. Maktabda o’quvchilik davridagi umumiy intizomlilik namoyon bo’ladigan: ongli, tadqiqotchilik, mehnat, axloqiy-etik, ekologik-valeologik, moliyaviy-iqtisodiy, huquqiy, maishiy-servis va boshqa ko’plab tur va shakllar bilan farqlanadi.

Tadqiqot ishining nazariy qismida maktabdagi intizomsizlikning sabablarini aniqlashga yo’naltirilgan turli yondashuvlar, intizomsizlik shakllanishining sharoitlari, vositalari, shakllari va usullari hamda aniqlash mezonlari (A.V.Barabanshikov, F.G.Bondar, V.E.Gurman, L.Yu.Gordin, I.Dolinskaya, B.P.Yesipov, D.Leychenkov, N.S.Lukin, O.N.Maykina, G.Xolodyuk, G.I.Shukina va boshqalar) ko’rib chiqildi. Mazkur yondashuvlar, shuningdek, uzluksiz va pedagogik tajribalar majmuasini tashkil etish bo’yicha turli adabiyotlar, dasturlarning tahlili hozirgi zamon maktab

[49] Musurmonov R. Dars intizomiga nisbatan salbiy munosabatdagi o‘smirlarni tarbiyalash usullari // Uzluksiz ta’lim. –Toshkent: maxsus son, 2020. –B. 63-67.

intizomi muammosiga yagona yondashuv yo'q, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Rus olimlari tomonidan ta'lim klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan: a) kasbiy ta'limga nisbatan klaster yondashuvi (B.Pugacheva, A.V.Leontiyev); b) faoliyat va pedagogik loyihalash nazariyasi (V.V.Davidov, V.P.Bespalko, G.I.Ibragimov, B.S.Lednev, M.I.Maxmutov, A.A.Slastenin); c) uzluksiz ta'lim konsepsiyasi (B.S.Gershunskiy, G.V.Muxametzyanova, A.M.Novikov); d) kasb-hunar maktablarida ta'limning ijtimoiy sheriklik va boshqaruv muammolarini ochib beruvchi tadqiqotlar (P.F.Anisimov, G.V.Muxametzyanova, G.I.Ibragimov, Ye.A.Korchagin, V.P.Panasyuk, A.S.Subetto)[50]. N.N.Davidova, B.M.Igoshev kabi tadqiqotchilar tomonidan klasterning geografik, gorizontal, vertikal, texnologik, fokusli va sifat strategiyalari mavjudligi qayd qilingan[51].

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Klasterda ishlarning holati haqida ma'lumotlarning juda obyektiv bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Klaster yordamida hukumat, ta'limni nazorat qiluvchi davlat idoralari klaster amal qiladigan mintaqadagi ta'limni rivojlantirish uchun tajriba va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini samarali qo'llashlari mumkin bo'ladi. Ta'limga nisbatan klaster yondashuvi boshqaruv organlariga tizim ichida samarali o'zaro ta'sir o'tkazish uchun muayyan vositalar bilan ta'minlash, muammolarni yaxshiroq tushunish, mintaqada rivojlanishning ilmiy asoslarini rejalashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1.Davletshin M.G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o'zbek oilasining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 1993. –B. 38.

2.Musurmonov R. Oilada farzand tarbiyasi muammolari //"Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'". Nukus, №1, 2020. –B. 66-69.

3.Musurmonov R. Dars intizomiga nisbatan salbiy munosabatdagi o'smirlarni tarbiyalash usullari // Uzluksiz ta'lim. –Toshkent: maxsus son, 2020. –B. 63-67.

4.Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // Интернет-журнал "Эйдос". 2006. 5 мая;

5.Musurmonov R. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etishning nazariy va metodologik asoslari // Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari, rahbarlari, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlarga mo'ljallangan monografiya. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi. 2015. -203 b.

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SINONIMLARNING SEMANTIK VA USLUBIY IMKONIYATLARI

Bazarova Dildor Baxronovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti
Izzatillayeva Mohlaroyim Ulug'bek qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi sinonimik birliklarning semantik, uslubiy va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. O'tkir Hoshimov asarlaridagi sinonimlarning qo'llanishi orqali tilning badiiy-estetik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida sinonimlarning ma'no nozikliklari va ularning matndagi ta'sirchanlik darajasi aniqlangan.

Kalit so'zlar: sinonim, ma'nodoshlik, uslubiylik, ma'no, badiiy ifoda.

[50] Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // Интернет-журнал "Эйдос". 2006. 5 мая; Musurmonov R. Oilada farzand tarbiyasi muammolari "Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'". Nukus, №1, 2020. –B. 66-69.

[51] Musurmonov R. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etishning nazariy va metodologik asoslari // Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari, rahbarlari, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlarga mo'ljallangan monografiya. –Toshkent: Noshirlik yog'dusi. 2015. -203 b.

Annotation. This article analyzes the semantic, stylistic, and functional features of synonymic units in the Uzbek language. The use of synonyms in O‘tkir Hoshimov’s works reveals the artistic and aesthetic potential of the language. The study identifies subtle semantic distinctions and the expressive impact of synonyms in the text.

Key words: synonym, synonymy, stylistics, semantics, artistic expression.

Tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, uning zanginligi va ranginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan salmoqli miqdordagi so‘z gavharlari zaxirasiga ega tildir[52].

Sinonimlar — shaklan turlicha, ammo ma’no jihatdan yaqin yoki bir-biriga o‘xshash bo‘lgan leksik birliklar bo‘lib, ular tilning **ekspressiv, emotsional hamda uslubiy** imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Tilning leksik tizimi va uning ifoda imkoniyatlari darajasi, eng avvalo, undagi **sinonimik qatlamning kengligi va boyligi** bilan belgilanadi. Tildagi sinonimik boylik fikrni yanada aniqlik, lo‘ndalik va ta’sirchanlik bilan ifodalash imkonini beradi.

Sinonimik munosabatdagi so‘zlar nafaqat asosiy (denotativ) ma’nosi bilan, balki ularning **uslubiy qo‘llanilish darajasi, matn doirasidagi ma’nosining nozik farqlari hamda emotsional-ekspressiv qiymati** bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Shu bois sinonimlarni o‘rganishda faqat ma’nodosh birlik sifatida emas, balki **mazmuniy, funksional va uslubiy farqlovchi belgilar** asosida tahlil qilish muhimdir.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, sinonimik qatlamning kengligi nafaqat tildagi lug‘aviy birliklar miqdoriga, balki ularning **nutq jarayonida to‘g‘ri tanlanishi va mos ravishda qo‘llanish qobiliyatiga** ham bog‘liqdir. Demak, sinonimlar tilda **mazmunni boyitish, badiiy-estetik ifodani kuchaytirish va kommunikativ samaradorlikni oshirish** kabi muhim funksiyalarni bajaradi.

Sinonimlarning qo‘llanilishi orqali muallif bir harakat, holat yoki kechinmani turli burchaklardan tasvirlay oladi, bu esa matnning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, bunday holat O‘tkir Hoshimov kabi yirik adiblar ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, adib ***“aniqlamoq, ma’lum bo‘lmoq, bilinmoq, ayon bo‘lmoq”*** kabi ma’nodosh so‘zlardan turli kontekstlarda foydalanib, har birining ma’no nozikliklarini ifodalashga erishadi. **Ma’lum bo‘lmoq** biror narsaning oshkor bo‘lishi holatini bildirsa, **bilinmoq** narsa yoki holatni bilib olish, sezish ma’nosida ishlatiladi. **Ayon bo‘lmoq** esa bir narsaning mutlaqo aniq va ravshan bo‘lishini ifodalaydi. Masalan: *“Sud tibbiy tekshiruvida shu narsa aniqlandiki, yurak faoliyati sustlashgan edi”* (137-b), *“Hali qayoqqa borishimiz ma’lum emas”* (41-b), *“Bir mahal qorni ochgani bilindi”* (84-b), *“Endi hammasi ayon edi”* (55-b). Shu tarzda, o‘zbek tilidagi sinonimlarni faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki ularning uslubiy, funksional va semantik xususiyatlarini tahlil etish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi boshqa ko‘plab sinonimlar ham ma’nodosh bo‘lishiga qaramay, **mazmuniy va hissiy noziklik jihatidan bir-biridan farqlanadi**. Bunga misol tariqasida **ruhiy va jismoniy kechinmalarni ifodalovchi *“dard, alam, azob, g‘am, og‘riq, kasallik, tashvish, hasrat, sitam”*** kabi so‘zlarni keltirish mumkin. Ushbu birliklar ham inson kechinmalarini turlicha darajada ifodalaydi: ba’zilarida ruhiy iztirob kuchli bo‘lsa, boshqalarida jismoniy og‘riq ma’nosi ustuvor bo‘ladi.

Dard, og‘riq, kasallik so‘zlari odatda jismoniy og‘riqni ifodalaydi. Masalan, *“Eski dardi yana qo‘zg‘adi shekilli” (1-b)* jumlasida **dard** so‘zi kasallik yoki og‘riqning qaytalanib, yana bezovta qilayotgan holatini anglatadi. Bu yerda “dard” so‘zi jismoniy holatni ifodalasa-da, u bilan bir qatorda **ruhiy og‘riq** ma’nosini ham sezdirib, so‘zning ikki qirrali (jismoniy va ma’naviy) xususiyatini ko‘rsatadi.

[52] N.Mahmudov va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 512 bet.

“*Boshimda chidab bo‘lmas og‘riq turdi” (107-b)* misolida esa og‘riq so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanadagi azob, ya’ni jismoniy noqulaylikni bildiradi. Bu so‘zda hissiy ma’no deyarli yo‘q, u fiziologik holatni aniq ifodalaydi.

“*Sen shaharda o‘z tashvishlaring bilan bo‘lib, xabar ololmading” (106-b)* jumlasidagi tashvish esa ruhiy bandlikni, ya’ni insonning ichki hayajoni, g‘amxo‘rligi yoki o‘y-xayolini bildiradi. Bu yerda so‘zning hissiy bo‘yoqdorligi kuchli, u ruhiy og‘irlikni aks ettiradi.

Alam, azob, g‘am, hasrat so‘zlari esa insonning ruhiy iztiroblarini ifodalaydi. Masalan, *“O‘kinch bilan, alam bilan tilayapti” (124-b)* misolida **alam** so‘zi insonning o‘tkir g‘amgin tuyg‘usini, ichki achinishini bildiradi. U yerda jismoniy og‘riq emas, **ko‘ngildagi og‘riq** tasvirlangan.

“*Afg‘onistonga borib azob ham chekmasding” (126-b)* gapida **azob** so‘zi ruhiy va jismoniy qiynalish ma’nosini birlashtirgan: bu yerda og‘ir hayot sharoiti va ruhiy iztirob bir butun holatda aks etgan.

“*U dunyo-yu bu dunyo g‘am ko‘rmang!” (70-b)* ifodasidagi **g‘am** so‘zi esa ruhiy tinchlik va baxt istagini bildiradi. “G‘am ko‘rmaslik” iborasi insonni qayg‘udan, tashvishdan yiroq bo‘lishni tilash ma’nosida ishlatilgan.

“*Yoshlar aynib ketdi, – dedi yonidagi kampirga hasrat qilib” (127-b)* misolida **hasrat** so‘zi insonning o‘tgan kunlarni sog‘inish, afsus va armon tuyg‘usini ifodalaydi. Bu so‘z ruhiy og‘riqning yumshoq, ammo chuqur ko‘rinishini beradi.

Shu kabi tilimizda harakat yoki voqeaning tezligi va kutilmaganligini ifodalovchi sinonimlar ham mavjud bo‘lib, ular ma’nodosh bo‘lishiga qaramay, ifoda darajasi va hissiy ta’siri jihatidan farq qiladi. Bunday so‘zlarga ***“to‘satdan, bir onda, birdaniga, nogahon, shoshilinch, kutilmaganda, vaqt-bevaqt”*** kabi birliklarni keltirish mumkin.

Masalan, *“Avval yomg‘ir aralash yakkam-dukkam uchqunlab turadi-da, to‘satdan zaptiga oladi” (26-b)* jumlasida **to‘satdan** so‘zi voqeaning bexosdan, kutilmagan tarzda sodir bo‘lganini bildirsa, *“Qur’onni shoshilinch varaqladi” (36-b)* misolida **shoshilinch** so‘zi harakatning tezligi va zaruriyat ta’sirida bajarilganligini ifodalaydi. *“Otishma qanday kutilmaganda boshlangan bo‘lsa, shunday tugadi” (58-b)* gapida esa **kutilmaganda** so‘zi holatning tasodifiyligi va beqarorligini ko‘rsatadi.

Harakatning kutilmaganligi bilan bir qatorda, tilimizda uning **tezligi va shiddatini** ifodalovchi sinonimlar ham mavjud. Bular qatoriga ***“yugurmoq, yelmoq, chopmoq, shoshilmoq, yelib-yugurmoq”*** kabi so‘zlar kiradi. Ular bir xil harakatni anglatsa-da, har birining tezlik darajasi va ifoda ohangi turlicha: *yelib-yugurmoq* so‘zi betinim, mashaqqatli harakatni bildirsa, *shoshilmoq* zaruriyat ta’siridagi shoshilinchlikni, *yugurmoq* esa oddiy tezlikni yoki o‘zini tuta olmaslikni ifodalaydi.

“*To‘xtovsiz o‘q uzgancha, chakalakzorga yugurdim” (58-b)* jumlasida ***yugurdim*** so‘zi tez, ammo oddiy harakatni bildiradi.

“*Tanklar, BTRlar, BMPlar yelib boryapti” (59-b)* misolida ***yelib boryapti*** so‘zi mashaqqatli, shiddatli harakatni ko‘rsatadi.

“*Poshsho chopib borib, o‘g‘lini yerdan ko‘tarib olibdi” (66-b)* gapida ***chopib*** so‘zi tezlik va kuch bilan bajarilgan harakatni ifodalaydi.

“*Qurbonoy xola shoshilmasdan qor kuray boshladi” (73-b)* misolida ***shoshilmasdan*** so‘zi harakatning zaruriy shoshilinchlik bilan, ammo ehtiyotkorlikni yo‘qotmasdan amalga oshirilganini bildiradi.

“*Shaxnoza birpasda yelib-yugurib xizmat qilishga tushdi” (122-b)* jumlasida esa ***yelib-yugurib*** so‘zi harakatning tez, mashaqqatli va samarali bo‘lganini ta’kidlaydi.

Tilimizda harakat yoki ish bajarish tarzini ifodalovchi so‘zlar ham o‘zaro ma’nodosh bo‘lishiga qaramay**, ifoda darajasi va hissiy ohang** jihatidan farq qiladi.

Masalan, ***“astoydil, sidqidildan, yurakdan, chindan, rosta-kami(ga), chinakami(ga), uvvalo”*** so‘zlari bir-biriga sinonim bo‘lib, biror ishni bajarishda insonning e’tibor va bag‘ishlanish darajasini bildiradi.

“Grisha astoydil yalinib iltijo qildi” (30-b) jumlasida ***astoydil*** so‘zi harakatning chin dildan, samimiy ravishda, berilib bajarilishini ko‘rsatadi.

“Biroq o‘z yumushini sidqidildan bajaradi” (43-b) misolida esa ***sidqidildan*** so‘zi ishning ongli, pok niyat bilan bajarilishini bildiradi.

“Tank ichi chindan ham do‘zaxdek qizib borar edi” (57-b) jumlasida ***chindan*** so‘zi voqeaning real va kuchli ta’sirini ifodalaydi.

“Qiziq, uvvalo urinadiki, qani aqalli bir quloch surilsa!” (18-b) gapida ***uvvalo*** so‘zi eskirgan bo‘lib, ish bajarishdagi avvalgi tajribaga urg‘u beradi. Ushbu sinonimlar harakatning tezlik, shiddat va mashaqqat darajasini turlicha ifodalash imkonini beradi.

Harakatning tezligi bilan bir qatorda, uning maqsadliligi va ongli tarzda bajarilishini bildiruvchi sinonimlar ham mavjud. Bular qatoriga ***“ataylab, atay, atayin, ataydan, jo‘rttaga, jo‘rtta, azza-bazza”*** kabi so‘zlar kiradi. Bu so‘zlarning barchasi **biror ishni bilib, maqsad bilan, ongli tarzda bajarish** ma’nosini bildiradi. Ammo ularning orasida **uslubiy va hissiy farqlar** mavjud:

Ataylab, atay, atayin, ataydan so‘zlari odatda **rasmiy yoki badiiy nutqda** ishlatilib, harakatning ongli ravishda bajarilganini ifodalaydi.

Jo‘rttaga, jo‘rtta so‘zlari esa **so‘zlashuv nutqiga xos** bo‘lib, bilib turib, qasddan, biroz kinoya yoki injiqlik ohangida bajarilgan ishni bildiradi. **Azza-bazza** so‘zi esa **erkalik, injiqlik yoki maqtanchoqlik bilan** bajarilgan harakatni anglatadi. Masalan: *“Jang qilishni xohlamay, ataylab qochibdi” (33-b)* jumlasida **ataylab** so‘zi harakatning ongli ravishda, maqsad bilan amalga oshirilganini ko‘rsatadi. *“Qurbonoy xola atay gapni boshqa yoqqa burdi” (3-b)* misolida **atay** so‘zi ham shu ma’noda — ongli yo‘naltirish, bilib qilinishni bildiradi.

Shuningdek, joy yoki makonning suv bilan tutashgan qismini ifodalovchi so‘zlar ham o‘zaro sinonim bo‘lib, **ma’nodagi nozik farqlar** orqali tasviriylikni boyitadi. Bular qatoriga ***“qirg‘oq, sohil, yoqa, bo‘y, lab, chet, kanora, rosh”*** kabi so‘zlar kiradi. Ularning barchasi suv havzasi bilan tutashgan quruqlikni anglatsa-da, **uslubiy va qo‘llanish jihatidan** farqlanadi: **Sohil** — badiiy nutqda ko‘proq ishlatiladi, tasviriy ohangga ega. **Qirg‘oq** — neytral, umumiy so‘z bo‘lib, suvning chekkasini bildiradi. **Yoqa, bo‘y, lab, chet** — so‘zlashuvda faol qo‘llanadi, tabiiylik ohangini beradi. **Kanora** — eskirgan, kam ishlatiladigan so‘z. **Rosh** — shevaga xos shakl hisoblanadi. Masalan:*“Qishloq **etagida** yoyilib oqayotgan Qonqus olisdan jigarrang ilondek to‘lg‘anayotgani ko‘zga tashlanardi” (26-b)* — bu jumlada **suvning qirg‘oqqa tutashgan manzarasi** badiiy tarzda tasvirlangan.

“Shahnoza ikkalamiz anhor labida, o‘zimizning na’matak tagida o‘tirgan emishmiz” (43-b) misolida **lab** so‘zi suv bo‘yidagi yaqin joyni bildiradi.

“Narigi qirg‘oq — tik. Sohilga suzay desa, raqiblari tizilib turibdi” (19-b) gaplarida ***qirg‘oq*** va ***sohil*** so‘zlari suvning chegarasini ifodalash bilan birga, voqeaning kuchli tasviriy fonini yaratadi.

“Qonqus bo‘yidagi tollar qorong‘ida hurpayib turibdi” (35-b) misolida **bo‘y** so‘zi **qirg‘oqqa tutash yer chizig‘i** ma’nosida ishlatilgan.

“Qarasam, jar yoqasida bir tup archa bormish” (105-b) jumlasida **yoqa** so‘zi **tik, xavfli chekka** ma’nosini beradi.

“Qirg‘og‘i betonlangan ariqlar chetida maysalar unib chiqibdi...” (142-b) misolida esa **chet** so‘zi **suvning chegarasidagi qattiq joyni** anglatadi. Shunday qilib, bu sinonimlar o‘zbek tilida **joy manzarasini, tabiiy makonning tuzilishini va tasviriylik darajasini** turlicha ifodalash imkonini beradi.

Sinonimlar o‘zbek tilining boy leksik qatlamini tashkil etib, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular orqali inson tafakkuri, ruhiy kechinmalari va hayotiy tajribasi yanada rang-barang, ta’sirchan shaklda ifodalanadi. O‘tkir Hoshimov sinonimik birliklardan faqat ma’nodosh so‘z sifatida emas, balki ma’no, ohang va uslubiy qiymatni chuqur ochuvchi badiiy vosita sifatida foydalanadi. Shu tariqa, sinonimlar yozuvchi nutqining tabiiyligini, ifoda ravonligini va emotsional kuchini oshiradi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, sinonimik tizimning o‘rganilishi nafaqat muallif so‘z boyligini aniqlash, balki ularning sharoitga

mosligini, uslubiy va semantik funksiyalarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o‘zbek tilining badiiy-estetik salohiyatini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.N.Mahmudov va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 512 bet.

2.Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.115.

3. A.Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1974. – 308 bet.

4. Hoshimov O‘ . Tanlangan asarlar. To‘rtinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2011. – 476 b.

O‘QITUVCHILAR TA’LIMI DASTURLARIDA ILMIY-TADQIQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR: KASBIY RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Musoyeva Aziza Botirovna
Dotsent (PhD)
Samarqand davlat chet tillar instituti
musoyeva@samdchti.uz

Annotatsiya: O‘qituvchilar ta’lim dasturlari doirasida ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning integratsiyalashuvi, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari sharoitida ta’limni takomillashtirishga hissa qo‘shadigan o‘qituvchilarni tayyorlashning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xos bo‘lgan ko‘p qirrali muammolar va imkoniyatlarni o‘rganadi. Mavjud amaliyotlar, institutsional to‘siqlar va innovatsion yondashuvlarni har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi o‘qituvchilar ta’lim muassasalarida tadqiqot malakasini oshirish tashabbuslarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi ta’limi, tadqiqot kompetensiyasi, dalillarga asoslangan amaliyot, ta’lim tadqiqotlari, malaka oshirish, ta’lim islohotlari.

Abstract: The integration of research skills development within teacher education programs is emerging as an essential component in preparing educators who contribute to improving education under the ongoing reforms in Uzbekistan. This study explores the multifaceted challenges and opportunities related to the development of teachers’ research skills in the Uzbek education system. Through a comprehensive analysis of existing practices, institutional barriers, and innovative approaches, the research identifies key factors influencing the successful implementation of initiatives aimed at enhancing research competence in teacher education institutions in Uzbekistan.

Keywords: teacher education, research competence, evidence-based practice, educational research, professional development, educational reforms

Аннотация: Интеграция развития исследовательских навыков в программы подготовки учителей выступает как важная составляющая подготовки педагогов, способных внести вклад в совершенствование образования в условиях проводимых в Узбекистане реформ. Данное исследование рассматривает многогранные проблемы и возможности, связанные с развитием исследовательских компетенций учителей в системе образования Узбекистана. Путём всестороннего анализа существующих практик, институциональных барьеров и инновационных подходов определяются ключевые факторы, влияющие на успешную реализацию инициатив по повышению исследовательской компетенции в педагогических вузах Узбекистана.

Ключевые слова: подготовка учителей, исследовательская компетенция, основанная на доказательствах практика, педагогические исследования, повышение квалификации, образовательные реформы

Kirish

O‘zbekistondagi zamonaviy ta’lim manzarasi nafaqat tadqiqot iste’molchisi, balki tadqiqot jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lgan o‘qituvchilarni ham talab qilmoqda. Ushbu paradigma o‘zgarishi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” doirasida boshlangan, ta’lim amaliyotini dalillarga asoslangan yondashuvlar orqali o‘zgartirishga urg‘u berilgan keng qamrovli ta’lim islohotlari tufayli tezlashdi (Karimov va boshq., 2018).

Tadqiqot kompetensiyasi mavjud tadqiqotlarni tanqidiy baholash, tadqiqotlarni loyihalash va o‘tkazish, ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘quv dasturlarining o‘ziga xos kontekstida ta’lim amaliyotini yaxshilash uchun qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida olib borilgan so‘nggi tadqiqotlar tadqiqotchilik kompetensiyasi o‘qituvchilarning malakasini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etilayotganini ko‘rsatdi. Umarovaning (2020) O‘zbekistonning besh viloyatida o‘qituvchilar malakasini oshirish amaliyotini o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar tadqiqotga asoslangan yondashuvlarga katta qiziqish bildirishadi, biroq muhim tarkibiy va institutsional to‘siqlarga duch kelishadi. Xuddi shunday, Toshmatov va Rahimovaning (2021) O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogik innovatsiyalar tahlili ham boshlang‘ich, ham malaka oshirish pedagoglari o‘rtasida tizimli tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim zaruratini ko‘rsatadi.

Uning ahamiyati keng e’tirof etilishiga qaramay, O‘zbekistondagi o‘qituvchilar ta’limi dasturlari doirasida ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning integratsiyasi tizimli va madaniy omillarga asoslangan ayrim muammolarga duch kelmoqda. Bular akademik muassasalardagi infratuzilma cheklovlari, an’anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy xalqaro tadqiqot metodologiyalari bilan bog‘lash kabilar. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik, texnologik taraqqiyot va hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ta’limni modernizatsiya qilish tashabbuslari orqali paydo bo‘layotgan imkoniyatlar uchun istiqbolli yo‘llarni taklif etadi (Shadmanova va Abdullayeva, 2019).

Adabiyotlar tahlili

O‘qituvchi ta’limidagi tadqiqot kompetensiyasi akademik tadqiqotning an’anaviy tushunchalaridan tashqariga chiqadi va Stenxaus (2012) “o‘qituvchi tadqiqotchi sifatida” deb atagan qobiliyatlarni qamrab oladi. Ushbu nazariya bir nechta o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi: uslubiy bilim, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, ma’lumotlar savodxonligi va tadqiqot natijalarini amaliy sinf strategiyalariga tarjima qilish qobiliyati (Burns & Westbrook, 2019).

Oxirgi izlanishlar tadqiqot kompetensiyasi va tadqiqot savodxonligi o‘rtasidagi farqni ta’kidladi. Tadqiqot savodxonligi tadqiqotni iste’mol qilish va tushunish qobiliyatini o‘z ichiga olsa, tadqiqot kompetensiyasi tizimli so‘rovlar orqali yangi bilimlarni yaratish qobiliyatini o‘z ichiga oladi (Gitlin va boshq., 2015). Bu farq o‘qituvchilar ta’limi dasturini ishlab chiqish va baholash strategiyalari uchun muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqot malakasini rivojlantirishda bir qancha doimiy muammolar borligini aniqladi (Normatova, 2018). Mazkur muammolardan biri infratuzilma cheklovlari bo‘lib, O‘zbekiston sharoitiga xos asosiy muammo hisoblanadi. Yusupov va Xolmatovaning (2020) O‘zbekiston bo‘ylab o‘qituvchilar ta’lim muassasalarini har tomonlama o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, tadqiq etilgan yo‘nalishlarning 73 foizida xalqaro ma’lumotlar bazalari, statistik dasturiy ta’minot va ma’lumotlarni yig‘ishning zamonaviy vositalaridan foydalanish imkoni yo‘q. Ushbu raqamli tafovut, ayniqsa, qishloq joylarida o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga ta’sir ko‘rsatib, tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Boshqa bir muammolardan biri til to‘siqlari bo‘lib, O‘zbekiston kabi ko‘p tilli mamlakatga xosdir. Ko‘pgina xalqaro tadqiqot metodologiyalari va resurslari faqat ingliz yoki rus tillarida mavjud bo‘lib, asosiy o‘quv tili o‘zbek tili bo‘lgan professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun foydalanish imkoniyatiga muammolar tug‘diradi (Ortiqova, 2019). Abdullayevning (2021) O‘zbekistonning o‘nta universitetida o‘qituvchilar tayyorlash fakulteti bo‘yicha o‘tkazgan so‘rovi

shuni ko‘rsatdiki, 68 foizi oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, atigi 34 foizi xalqaro standartlarga mos zamonaviy tadqiqot metodologiyalari bo‘yicha rasmiy tayyorgarlikdan o‘tgan.

Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, so‘nggi o‘zgarishlar O‘zbekiston ta’lim tizimida tadqiqot malakasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Davlatimiz rahbarining “Xalq ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha hukumat majburiyatlari innovatsion pedagogik yondashuvlarni, jumladan, ilmiy-tadqiqot asosidagi pedagog kadrlarni tayyorlashni institutsional qo‘llab-quvvatlashni yaratdi.

Xalqaro hamkorlik tadqiqot malakasini oshirish uchun muhim imkoniyat sifatida paydo bo‘ldi. O‘zbekiston universitetlari va xalqaro institutlar o‘rtasidagi hamkorlik shartnomalari, masalan, Namangan davlat universiteti va AQSH ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha yangi uslubiy yondashuvlar va resurslarni joriy qildi (Rahimov, 2020). Ushbu hamkorliklar professor-o‘qituvchilar almashinuvi dasturlari, qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish va xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazalariga kirish imkonini berdi (Mirzayeva va Tursunova, 2020).

Milliy raqamlashtirish tashabbusi internetga ulanishni yaxshiladi va onlayn tadqiqot vositalari va ma’lumotlar bazalariga kirishni ta’minladi (Nazarov va Karimova, 2021). COVID-19 pandemiyasi davrida ishlab chiqilgan masofaviy ta’lim platformalari o‘zbek ta’lim texnologiyalari tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hujjatlashtirilganidek, hamkorlikdagi tadqiqot faoliyati va xalqaro ekspertizadan foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Xalq ta’limi vazirligi huzurida Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi o‘qituvchilar ta’lim muassasalari o‘rtasida ilmiy hamkorlik yangi imkoniyatlar yaratdi. Ushbu institutsional asos tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga integratsiyalashni qo‘llab-quvvatlaydi va tegishli tadqiqotlar bilan shug‘ullanish uchun yo‘l ochib beradi (Ismailova, 2019).

Mahalliy tadqiqot salohiyatini oshirish tashabbuslari ham jadallik bilan oshib bormoqda. O‘qituvchilar ta’lim muassasalari o‘rtasida mintaqaviy tadqiqot tarmoqlarining rivojlanishi professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida tadqiqot kompetensiyasini shakllantirishda mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim muammolarini hal qiluvchi hamkorlikdagi so‘rov loyihalari uchun imkoniyatlar yaratdi (Botirovna, 2024).

Metodologiya

Ushbu tadqiqot tadqiqot malakasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o‘rganish uchun aralash usullardan foydalangan. Tadqiqot loyihasi uchta qo‘shimcha ma’lumot to‘plash strategiyasini o‘z ichiga olgan: tizimli adabiyotlarni ko‘rib chiqish, institutsional amaliy tadqiqotlar va manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar. Barcha suhbatlar tematik tahlil tartib-qoidalari yordamida transkripsiya qilindi va tahlil qilindi. Keys tadqiqotlari va suhbatlardan olingan sifatli ma’lumotlar Braun va Klarkning (2019) olti bosqichli yondashuvidan foydalangan holda tizimli tematik tahlildan o‘tkazildi.

Munozara

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, bir qator muammolar o‘qituvchilar ta’limi dasturlarida samarali tadqiqot malakasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Vaqt cheklovlari eng tez-tez tilga olinadigan to‘siq bo‘lib, intervyu qilingan professor-o‘qituvchilarning 78 foizi keng qamrovli tadqiqot ta’limi uchun o‘quv dasturida joy yetarli emasligini ma’lum qilishdi.

Suhbatdan o‘tgan professor-o‘qituvchilarning 67 foizi doktorlik darajasiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, faqat 42 foizi amaliyotchilar tadqiqoti metodologiyasi bo‘yicha rasmiy tayyorgarlikdan o‘tganligini ma’lum bo‘ldi. Bu bo‘shliq an’anaviy akademik tadqiqotlarga tayyorgarlik va o‘qituvchilarning tadqiqot ta’limi uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos vakolatlar o‘rtasidagi farqni ta’kidlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatli tadqiqot malakasini rivojlantirish individual kurslar yoki professor-o‘qituvchilarning harakatlaridan tashqarida bo‘lgan tizimli o‘zgarishlarni talab qiladi. Institutsional yordam, jumladan, resurslarni taqsimlash va siyosatni muvofiqlashtirish dastur samaradorligida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot malakasini rivojlantirish bo‘yicha aniq

institutsional majburiyatlarga ega bo‘lgan dasturlar, bunday rivojlanish alohida-alohida sodir bo‘ladiganlarga qaraganda yuqori natijalarni namoyish etadi.

Xulosa

O‘qituvchilar ta’limi dasturlarida tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish kasb uchun muhim muammo va o‘zgaruvchan imkoniyatdir. Vaqt cheklovlari, fakultet tayyorgarligi va talabalarning qarshiligi kabi to‘siqlar saqlanib qolsa-da, yangi yondashuvlar taraqqiyot uchun istiqbolli yo‘llarni taklif qiladi. Dalillar shuni ko‘rsatadiki, samarali tadqiqot malakasini rivojlantirish har tomonlama institutsional majburiyat, innovatsion pedagogik yondashuvlar va akademik va amaliy kontekstlarni bog‘laydigan strategik hamkorlikni talab qiladi.

Bu sohadagi kelgusi ishlanmalar bir nechta asosiy ustuvorliklarga qaratilishi kerak. Birinchidan, o‘qituvchilar uchun ta’lim dasturlari kengroq dastur maqsadlari va professional standartlarga mos keladigan tadqiqot kompetensiyasi uchun izchil asoslarni ishlab chiqishi kerak. Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarni rivojlantirish tashabbuslari, samarali tadqiqot ta’limi uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos kompetensiyalarga murojaat qilishi kerak. Uchinchidan, haqiqiy tadqiqot ishtiroki uchun barqaror imkoniyatlar yaratish uchun hamkorlik modellari kengaytirilishi va rasmiylashtirilishi kerak.

References

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. Abdullayev B. K. Faculty development in teacher education: Challenges and opportunities in Uzbekistan’s higher education institutions // *Central Asian Journal of Educational Research.* – 2021. – Vol. 4, No. 2. – P. 45–62.
3. Botirovna M. A. Improving the quality of research with the help of new educational platforms // *Multidisciplinary Journal of Science and Technology.* – 2024. – Vol. 4, No. 4. – P. 159–164.
4. Braun V., Clarke V. Reflecting on reflexive thematic analysis // *Qualitative Research in Sport, Exercise and Health.* – 2019. – Vol. 11, No. 4. – P. 589–597.
5. Burns T., Westbrook J. The role of research competence in teacher professional development // *International Journal of Educational Development.* – 2019. – Vol. 71. – P. 1–12.
6. Cochran-Smith M., Lytle S. L. *Inquiry as stance: Practitioner research for the next generation.* – New York: Teachers College Press, 2015.
7. Gitlin A., Barlow L., Burbank M. D., Kauchak D., Stevens T. Pre-service teachers’ thinking on research: Implications for inquiry oriented teacher education // *Teaching and Teacher Education.* – 2015. – Vol. 26, No. 8. – P. 1484–1492.
8. Ismailova D. A. Educational policy and research integration in Uzbekistan: The role of pedagogical sciences institute // *Asian Educational Development Quarterly.* – 2019. – Vol. 12, No. 3. – P. 134–148.
9. Karimov U. N., Saidova M. K., Rahimova L. T. Educational reform and teacher preparation in Uzbekistan: National development strategy implementation // *Central Asian Educational Review.* – 2018. – Vol. 5, No. 2. – P. 23–41.
10. Mirzayeva G. U., Tursunova S. B. Cultural barriers to inquiry-based learning in Central Asian contexts // *International Journal of Cross-Cultural Educational Studies.* – 2020. – Vol. 8, No. 4. – P. 67–81.
11. Nazarov A. S., Karimova F. N. Digital transformation in teacher education: Uzbekistan’s experience with technology integration // *Educational Technology & Society.* – 2021. – Vol. 24, No. 1. – P. 112–125.
12. Normatova Z. I. From Soviet pedagogy to contemporary practice: Transforming teacher education in Uzbekistan // *Post-Soviet Educational Studies.* – 2018. – Vol. 15, No. 3. – P. 189–206.

13. Rakhimov T. B. International partnerships in teacher education: Lessons from Uzbekistan-U.S. collaboration // *Comparative Education Review.* – 2020. – Vol. 64, No. 3. – P. 412–428.

14. Shadmanova N. K., Abdullayeva M. R. Multilingual education challenges in post-Soviet Uzbekistan: Implications for teacher preparation // *Language and Education.* – 2019. – Vol. 33, No. 4. – P. 298–315.

15. Stenhouse L. *An introduction to curriculum research and development.* – London: Heinemann Educational Books, 2012.

16. Toshmatov S. A., Rakhimova Y. M. Pedagogical innovation in Uzbek higher education: A mixed-methods analysis // *Higher Education Policy.* – 2021. – Vol. 34, No. 2. – P. 267–284.

17. Umarova H. S. Teacher professional development in Uzbekistan: Regional variations and challenges // *Professional Development in Education.* – 2020. – Vol. 46, No. 3. – P. 445–461.

18. Yusupov A. K., Kholmatova D. S. Research infrastructure in teacher education institutions: A comparative study across Uzbekistan // *Central Asian Educational Infrastructure Review.* – 2020. – Vol. 6, No. 1. – P. 34–52.

К ВОПРОСУ О СЕМАНТИЧЕСКОЙ АНАЛОГИИ ВО ФРАЗЕОЛОГИИ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА)

Амриддинова Назира Шамсидиновна
(СамГИИЯ)

Введение. Значение большого числа фразеологизмов имеет точки соприкосновения. Например, это может быть общий образ, положенный в основу ФЕ (фразеологическая единица). А данное явление подразумевает похожие или общие у фразеологизмов компоненты, составляющие ФЕ. Так, Н.Г. Рахматуллаева называет 10 из 15 фразеологизмов, имеющих в своем составе компонент road, которые можно объединить на основе сходства образа, положенного в их основу. Ср. убедительные на наш взгляд примеры, которые она приводит из словаря А.В. Кунина: to be on the road to - быть на пути к достижению цели); to be in sb's road - препятствовать, стоять поперек дороги; in the road - препятствующий, мешающий; royal road - легкий, прямой путь; to set sth on the road to (success / victory) - открыть чему-либо путь к успеху - все объединены образом дороги как пути к достижению цели [Там же]. Ср. также пример семантической аналогии: sip and see (party) - празднование рождения ребенка, который возник по ассоциации с оборотами baby shower и to wet the baby's head [Н.Г. Рахматуллаева 2014: 195].

Аналогия во фразеологии может быть двоякого рода:

1) семантическая аналогия (ассоциации содержательного характера) при типах ФЕ, различающихся по структуре и лексико-грамматическому составу;

2) структурная аналогия ФЕ, различающихся значением.

Анализ литературы и методология. Трудности, возникающие с первым типом, связаны с проблемой не всегда возможным установлением деривационной связи между производящей и производной ФЕ. Проблема может быть заключена и в субъективном подходе к подбору ассоциаций, т.к. это связано с прагматическим аспектом (например, с фоновыми знаниями) [J. Allwood 2006: 498, E. Bates 2006, 448, S. Bean 2008: 146, T.A. Bushuy 2017: 252-255].

Случаи структурной аналогии встречаются чаще, чем семантической. Она предполагает замену слов-компонентов во фразеологизме, что приводит к изменению семантики ФЕ. Ср.: grass widow и golf widow. Первый фразеологизм имеет значение «соломенная вдова; женщина, оставленная мужем», а второй – «женщина, которая редко видит своего мужа из-за его увлечения гольфом».

Замена слова-компонента в ФЕ ведет к изменению значения:

1) несущественно (ср.: golf widow и baseball widow)

2) кардинально (ср.: grass widow и golf widow) [Н.Г. Рахматуллаева 2014: 195].

Следует особо отметить, что при сочетании обоих видов аналогий (т.е. и в семантике, и в структуре) создается достаточно продуктивная модель, по которой образуются многочисленные неологизмы.

По принципу аналогии образование новых ФЕ сопровождается следующими закономерностями:

1) опора на форму базового фразеологизма, т.е. морфологические и синтаксические показатели, которые частично заимствуются; заимствование одного или более слов-компонентов;

2) учитывается предыдущая информация, связанная с семантикой исходной формы;

3) новый фразеологизм воспринимается как трансформация базового воспроизводимого в языке фразеологизма, что способствует объективному пониманию семантики ФЕ-неологизма.

Концептуальная модель является основой, используемой для неразвернутого, подразумеваемого семантического потенциала ФЕ. Так образуются новые смыслы через семантические и структурные преобразования исходной ФЕ. Поэтому с точки зрения когнитивного подхода окказиональные изменения базовой ФЕ посредством сложившейся деривационной схемы и по имеющейся языковой модели не воспринимаются обладателями С1, как нечто невероятное, а достаточно свободно расшифровываются и получают адекватное восприятие и определение.

Наряду с процессом семантической деривации ФЕ по аналогии наблюдается в развитии фразеологии и образование сложных слов на основе базовой ФЕ. Ср.: an also ran - alsoran runners - неудачливые бегуны, участники состязания в беге, a hot shot - a hotshot lawyer - опытный адвокат.

Обсуждение. Так, ФЕ an also ran разговорного характера в первом своем значении толкуется как неудачливый участник состязания, «горе-чемпион», «первый от конца». Кстати, обращение к этимологии этой ФЕ проясняет ее семантику. В словаре А.В. Кунина объясняется, что «в отчетах о скачках или бегах имена лошадей, не занявших призового места, приводятся после сведений о победителях. Это перечисление начинается словами also ran также участвовали…» [АРФС 1984: 42]. Второе значение рассматриваемого фразеологизма уже не носит специальный характер, но пересекается с первым. Ср. дефиницию «неудачник; не выдерживающий сравнения» [АРФС 1984: 42].

Фразеосемантика второй ФЕ a hot shot, относящейся к американскому жаргону, имеет первое значение «важная персона, важная птица, «шишка»» и второе значение «преуспевающий и напористый (молодой) человек; одаренный человек, мастер своего дела». Однако третье значение имеет явно отрицательную коннотацию с оттенком иронии, а именно: «излишне самоуверенный человек, зазнайка» [АРФС 1984: 681].

Проблема семантики фразеологических единиц современного русского языка хорошо представлена в исследованиях российского ученого А.М. Мелерович [1979: 214].

Семантическая деградация как тенденция в развитии значения английских фразеологических единиц, роль метафоры и метонимии в семантической деривации английских фразеологических единиц раскрываются в работах О.В. Щербань [2010: 227-240; 2011: 104-112].

Плодотворно работает в области фразеологии Е.В. Рыжкина, акцентирующая свое внимание на когнитивно-коммуникативных аспектах английской фразеологии. При этом она затрагивает такие вопросы, как: фразеологическая окказиональность [2003: 229]; многозначность ФЕ [2008: 58-74]; неология во фразеологии [2009 а: 64-72]; моделируемость ФЕ [2009 б: 31-45]; фразеологизмы как фактор интертекстуальности современного дискурса [2013: 833-839], отражение квалификационно-оценочной деятельности человека во фразеологии [2016: 600-607].

Особо она выделяет в своих исследованиях раздельнооформленность, как один из существенных признаков фразеологизма, который основан на словном характере

составляющих ФЕ компонентов и двуплановости в области семантики. Именно раздельнооформленность способствует преобразованию ФЕ и в структурном, и в семантическом плане, потому что компоненты, составляющие ФЕ, реализуют свои потенциальные возможности слов и приводят к различному роду трансформациям [Е.В. Рыжкина 2008: 61].

Проблема фразеологического значения привлекалась исследователями в ракурсе структурно-семантической плоскости в современном английском газетном стиле. Скажем, Х.Н. Галимова анализируя значения ФЕ на материале английских престижных газет «The Independent» и «The Guardian», отмечает: «Несомненно, особой жизнью живут фразеологизмы в текстах газетных изданий» [2019: 267-269]. Исследователь сделал определенный вклад в представлении классификации ФЕ, с опорой на раскрытие функционирования фразеологических сочетаний, которые наиболее характерны для современных британских СМИ. Была представлена структурная типизация, показаны экспрессивные и эмоциональные особенности ФЕ данного типа в рамках конкретного языкового стиля. Широко продемонстрированы изменения семантики фразеологизмов журналистами, которые иногда сопровождаются некоторого рода искажениями и зачастую недопустимыми. Х. Н. Галимова считает, что «большинство ученых лишь сходятся во мнении, что фразеологизмы - это словосочетания, чьи значения не выводятся из значения их составляющих. Проблемы универсального определения ФЕ и критерии их классификации до сих пор остаются открытыми вопросами и представляют большой интерес для лингвистов» [Х. Н. Галимова 2019: 268]. Исследователь акцентирует внимание на особенностях, связанных с номинативными значениями составляющих ФЕ слов, и характеристиках его переноса.

В области актуализации ФЕ с рассмотрением возможностей имплицирования и эксплицирования как одних из существенных способов модификации семантики фразеологизмов на базе прозаического дискурса плодотворно работает О.Н. Ярыгина [2015: 217-219]. Материалом исследования становятся драматические произведения, например XVIII и XX веков, на основе которых изучаются индивидуально-авторские преобразования ФЕ [И.А. Шевелева 2017: 21].

Таким образом, лингвисты интенсивно проводят работы по изучению окказиональных изменений ФЕ, определяются приемы и способы их образования, эмоционально-экспрессивные характеристики полученных модификаций, исследуется деривационный потенциал фразеосемантики. Наряду с многочисленными преобразованиями ФЕ в пределах определенного контекста, выделяют, прежде всего, преобразования в области семантики и структурно-семантический тип. Исследование модификаций фразеологизмов осуществляется на базе различного типа контекстов: газетных, рекламных, художественных текстов, целых корпусов языков. Причем работы проводятся на основе как одного, так и нескольких языков.

Проблему выражения языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка) с привлечением не только лексического, но и фразеологического материала, описательных контекстов, паремий разрабатывает Н. З. Нормуродова [2012: 26].

В этом же направлении работают Н.В. Харитонова, С.Н Барышникова, О.В. Монастырецкая, сосредотачиваясь на концепте «характер человека», посредством которого раскрывается семантика, связанная с нравственными качествами людей [2018: 375-378].

Результаты. Структурно-семантический анализ английских ФЕ позволил показать системную организацию этой тематической группы с учетом родовых и видовых отношений, а также парадигматики и синтагматики, раскрыть конкретную микросистему языка. Авторы используют для анализа словарь П. П. Литвинова «3500 английских фразеологизмов и устойчивых словосочетаний» – 2007, объемом 287 страниц.

В их исследовании была представлена классификация ФЕ английского языка, отражающая основные черты, свойственные характеру человека с различными коннотативными оттенками, а также нейтральные значения ФЕ. В результате были выделены типы ФЕ, отражающие:

Положительные черты характера человека (30%): спокойствие: cool as a cucumber – спокойный; сильный характер: hard nut to crack - крепкий орешек; доброта: a heart of gold - золотое сердце; смелость: not a coward - не робкого десятка.

Отрицательные (49%): жадность a skin flint – скряга; равнодушие a shard as nails – бесчувственный; зазнайство a smart aleck - человек с высоким самомнением; склонность к сплетням busy body – сплетник; подлость crooked as a dog‘s hind leg - подлый, лживый; трусость: feet of clay – слабый; вспыльчивость to lose one’s cool - выйти из себя; хитрость as clever/cunning as a fox - хитрый как лиса.

Нейтральное значение ФЕ (22 %) типа a bird of passage - залетная птица/перелетная птица, т.е. ФЕ, «в значении которых отсутствует ярко выраженное одобрение или осуждение, но присутствуют как положительные, так и отрицательные характеристики» [Н.В. Харитонова, С.Н Барышникова, О.В. Монастырецкая 2018: 375-378].

Интересен тот факт, что ФЕ такого рода включают в свой состав:

1) компонент, называющий часть человеческого тела head, heart, eye, chin;

2) название птицы, рыбы, животного, насекомого.

В работе справедливо отмечается, что переносное значение этих компонентов играет основную роль в построении образа всего фразеологизма в целом. Например, сердце (heart) вызывает ассоции, связанные с выражением боли, переживаниями. Ср.: to have one’s heart in the right place - быть добрым человеком; голова ассоциируется с рассудком; глаза (eyes) подтверждают достоверна или нет информация. Ср.: to have an eye for smth. быть знатоком.

Очень часто в ФЕ присутствует компонент, обозначающий какое-либо животное, растение, насекомое, птицу. Ср.: funny as a barrel of monkeys - веселый, смешной. Здесь компонент monkeys (обезьяны) связан с семой, содержащей семантический элемент «проказницы», «забияки», «смешные животные». Кроме того, компонент ‘funny’ также добавляет эту коннотацию.

Выводы. Подобного рода исследования помогают понять систему языка в целом, так как из микросистем складывается макросистема языка, кроме того, ФЕ «характер человека» составляют в количественном отношении достаточно большую группу и отличаются высокой степенью употребления. Кроме того, данный концепт имеет разветвленную семантическую систему. Исследователи сосредотачивают свое внимание на богатой образной основе этой тематической группы ФЕ, а также выявляют типичные средства выражения, помогающие раскрыть нравственные характеристики личности.

Исследование определенного концепта зачастую усложняется наложением проблемы перевода. Так, скажем концепт «возраст» исследуется на материале английских ФЕ с решением способов передачи правильного значения на русский язык. Например, использование приемов перевода фразеологического повтора, а именно: повтор компонентов ФЕ, имеющих основной смысловой стержень и повтор фразеологизма в целом.

Литература:

1. Галимова. Х.Н. Структурно-семантические особенности фразеологических единиц в современном английском газетном стиле // Балтийский гуманитарный журнал. – Тольятти, 2019. – Т. 8. - № 3 (28). – С. 267-269.

2. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 4-е. – М., 1984. – 944 с. [АРФС].

3. Мелерович А.М. Проблема семантического анализа фразеологических единиц современного русского языка: учебное пособие. – Ярославль: Ярослав. гос. пед. ин-т, 1979. – 214 с.

4. Нормуродова Н.З. Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка): Автореф. дис. … канд. филол. Наук. – Самарканд: СамГИИЯ, 2012. – 26 с.

5. Рахматуллаева Н.Г. Номинативный потенциал структурно-семантической аналогии в английской фразеологии // Современная лингвистика: взаимодействие парадигм и школ. – М.: ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2014. – С. 187– 197.

6. Шевелева И.А. Индивидуально-авторские преобразования фразеологических единиц (на материале английских драматических произведений XVIII и XX веков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Смоленск, 2017. – 21 с.

7. Щербань О.В. Семантическая деградация как тенденция в развитии значения английских фразеологических единиц // Многоаспектность лексикологических исследований: английский язык и проблемы перевода. – М.: ИПК МГЛУ «Рема», 2010. – С. 227-240.

8. Allwood J. Linguistic Communication in Action and Co-operation: A Study in Pragmatics. – Gothenberg: Universitat Goteborg, Department of Linguistics, 2006. – 498 p.

9. Amriddinova, N. S. (2021). Extra-Linguistic Reasons for Semantic Variation of Phraseologisms. Theoretical & Applied Science Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 652-654.

10. Bates E. Language and Context: the Acquisition of Pragmatics. – New York: Academic Press, 2006. – 448 p.

11. Bean S. Symbolic and Pragmatic Semantics. – University of Chicago Press, 2008. – 146 p.

12. Bushuy T.A. Word and Pragmatics // Language and Speech in Synchrony and Diachrony: Papers from an International Linguistics Conference.-Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2017. – P.252-255.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNING SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Bazarova Dildor Baxronovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti
Podvigina Nadya Ruslanovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Unda o‘qituvchining kasbiy mahorati, innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish, modulli ta’lim texnologiyalarining ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, o‘quvchini faollikka, ijodkorlikka va o‘z fikrini asoslab ifoda etishga yo‘naltirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Mustaqil fikrlovchi o‘quvchini tarbiyalash — zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifasi sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich talim, mustaqil fikrlash, interfaol metod, ijodkorlik, o‘quvchi faolligi.

Annotation. The article discusses the pedagogical foundations of developing independent thinking in primary school students. It analyzes the importance of teachers’ professional skills, the use of innovative and interactive methods, and the role of modular learning technologies. The paper emphasizes effective ways to foster student activity, creativity, and reasoning skills. Educating independently thinking students is regarded as a key objective of modern education.

Key words: primary education, independent thinking, interactive method, creativity, student activity.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ijodkor, erkin fikrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu maqsadda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bu islohotlar bugungi kunda ham izchil davom ettirilib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, *bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak* [53].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa aynan shunday zamonaviy, bilimli pedagoglar orqali bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi, tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadigan muhim davr hisoblanadi.

Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik mahorati, zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali tadbiq eta olishi, ilg‘or tajribalarni ijodiy qo‘llay bilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini fikrlashga, o‘z g‘oyasini himoya qila olishga, muammoga yechim topishga o‘rgatuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ***modulli ta’lim texnologiyasi*** muhim o‘rin tutadi. Bu texnologiya o‘quv jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich tashkil etishga, har bir o‘quvchining individual imkoniyatini inobatga olishga yordam beradi. Modulli yondashuv orqali o‘quvchi o‘z faoliyatining subyekti sifatida bilimlarni izlab topish, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydi. Natijada, o‘quvchi faqat tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki uni mustaqil ravishda izlovchi va yaratuvchi shaxsga aylanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri hali shakllanish jarayonida bo‘ladi. Shu bois ularning fikrlash darajasi, tahlil qilish va mantiqiy bog‘liqliklarni anglay olish qobiliyati aynan boshlang‘ich ta’lim davrida jadal rivojlanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllantirishi lozim.

O‘yin elementlaridan foydalanish bu jarayonda samarali vosita hisoblanadi. Chunki o‘yin orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, turli predmetlar bilan munosabatga kirishadi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadi. O‘yinli mashg‘ulotlar o‘quvchilarda muammo yechish madaniyati, ijodiy tafakkur, jamoa bilan ishlash, o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda o‘qituvchining nutqi, tafakkuri, bilim darajasi va metodik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning har bir fikrini diqqat bilan tinglashi, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’i nazar, o‘quvchini fikrlashga, o‘z mulohazasini asoslab berishga rag‘batlantirishi kerak. Agar o‘quvchi xato fikr bildirgan bo‘lsa ham, o‘qituvchi uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri inkor etmasligi, balki tahlil asosida to‘g‘ri yo‘lni topishga yo‘naltirishi zarur. Bu jarayon o‘quvchilarda o‘z fikrini himoya qilish, tanqidni to‘g‘ri qabul qilish va mustaqil ravishda xulosa chiqarish malakasini rivojlantiradi. Fikrimizni quyidagi ***“To‘g‘rimi yoki yo‘qmi?” (Fikrni asosla!)*** torshiriqi bilan dalillaymiz.

Ushbu topshiriqning maqsadi o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, o‘z fikrini dalillar asosida asoslab bayon etishni, boshqalarning fikrini hurmat qilishni hamda tahlil orqali to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Topshiriqni bajarish jarayonida kartochkalarda yozilgan turli vaziyatli gaplardan foydalaniladi, bu gaplarning ba’zilari to‘g‘ri, ba’zilari esa xato fikrlar bo‘lishi mumkin.

Dars jarayoni quyidagicha tashkil etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriqning mohiyatini tushuntiradi va ularga shunday deydi:

“Men sizlarga bir nechta fikrlarni aytaman. Sizlar esa bu fikrlar to‘g‘rimi yoki yo‘qligini o‘ylab ko‘rasizlar. Eng muhimi — nima uchun shunday deb o‘ylayotganingizni aytish.” So‘ngra o‘qituvchi bir nechta namuna fikrlarni o‘qib eshittiradi,

masalan:

– “Quyosh tunda chiqadi.”

– “Daraxtlar nafas oladi.”

---

[53] Sh.M. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent: O‘zbekiston, 2021-yil, 229-bet**.**

– “Kitob o‘qish bizni fikrlashga o‘rgatadi.”

– “Matematika faqat raqamlarni yod olishdan iborat.”

Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi va quyidagicha javob beradi:

“Menimcha, bu fikr to‘g‘ri (yoki noto‘g‘ri), chunki...”

O‘qituvchi esa hech bir fikrni darhol “xato” yoki “noto‘g‘ri” deb baholamaydi, balki o‘quvchini fikrlashga undaydigan savollar beradi:

“Nega shunday o‘ylaysan?”, “Boshqacha fikr bormi?”, “Kimda boshqa dalil bor?”

Mashg‘ulotning yakuniy — tahlil bosqichida, o‘qituvchi o‘quvchilar bildirgan fikrlarni umumlashtiradi va to‘g‘ri xulosani birgalikda topishga yo‘naltiradi. Shu tarzda o‘quvchilar o‘z fikrini asoslab himoya qilishni, boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, shuningdek, dalil asosida xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

Natija kutilgan kompetensiyalar:

O‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon qiladi.

Xatoni tahlil orqali anglash va to‘g‘ri xulosaga kelish malakasiga ega bo‘ladi.

Tanqidni to‘g‘ri qabul qilish va o‘z fikrini asoslashni o‘rganadi.

Jamoa oldida fikr bildirishdan cho‘chimaydi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish ta’lim jarayonining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon o‘qituvchidan chuqur bilim, yuksak pedagogik mahorat, tahliliy tafakkur hamda bolalar psixologiyasini to‘liq anglay olishni talab etadi. O‘quvchini faollikka, fikrlashga, o‘z g‘oyasini dalillar bilan asoslab bera olishga yo‘naltirish orqali o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalaydi.

“To‘g‘rimi yoki yo‘qmi?” kabi interfaol topshiriqlar o‘quvchilarda tafakkur jarayonini faollashtiradi, ularni o‘rganilgan mavzuga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishga, o‘z fikrini himoya qilishga, boshqalarning nuqtayi nazariga hurmat bilan yondashishga o‘rgatadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, ularda dalil-isbot asosida xulosa chiqarish malakasini shakllantiradi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchisi dars jarayonida faqat bilim oluvchi emas, balki uni izlovchi, tahlil qiluvchi va yangilik yaratuvchi faol shaxs sifatida kamol topadi. Bu esa mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, zamonaviy dunyoqarashga ega yosh avlodni tarbiyalash yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish — zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon o‘qituvchining yuqori kasbiy saviyasi, metodik tayyorgarligi, nutq madaniyati va psixologik yondashuviga bevosita bog‘liqdir. Mustaqil fikrlaydigan o‘quvchini tarbiyalash — kelajakda jamiyatning ijodkor, yangilikka intiluvchi, mas’uliyatli fuqarosini shakllantirish garovidir. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim tizimida har bir dars jarayoni o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshirishga, ularni erkin, mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkur sohibi etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sh.M. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent: O‘zbekiston, 2021-yil, 446-b.

2. J. Musayev. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Toshkent, «Sharq», 2010.

3. A.Avliyoqulov. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –** Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2011.

4. Abduvaliyev M. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.

5. Karimova D. Boshlang‘ich ta’limda ijodiy fikrlash metodikasi. Samarqand, 2022.

BEOWULF AS THE EARLIEST MASTERPIECE IN ENGLISH LITERATURE TRADITION

Turayeva Ayajan Yerali qizi[1]
Email: ayajanyeraliqizi@gmail.com
[1]Third year student at Chirchik State Pedagogical University,
[1]Bo‘stonlik district, Yangiaul, Kora Tepa 50
Isroilova Tursuntosh

Abstract: This article explores Beowulf, the earliest and most significant epic poem in English literature. It examines the poem’s historical background, literary characteristics, themes, and its importance in shaping the English literary tradition. The research also analyzes the heroic ideals, moral values, and cultural identity reflected in the poem, showing how Beowulf bridges pagan and Christian elements in early English society.

Keywords: Beowulf, Old English literature, epic poetry, heroism, Anglo-Saxon culture.

Introduction: Beowulf is widely considered the first great epic of English literature and one of the most important surviving works from the Anglo-Saxon period. Written between the 8th and 11th centuries, the poem tells the story of a heroic warrior, Beowulf, who fights monsters such as Grendel, Grendel’s mother, and a dragon.

The purpose of this article is to analyze the cultural and literary significance of Beowulf, exploring its structure, themes, and values that continue to influence English literature today. By doing so, the paper aims to demonstrate how this early epic serves as a foundation for later literary traditions in the English-speaking world.

Literature Review: Scholarly research on Beowulf has evolved significantly over the past century, reflecting different critical perspectives on the poem’s literary, linguistic, and cultural importance. Early studies, such as those by Frederick Klaeber (1950), focused on the poem’s philological features and historical background. Klaeber’s comprehensive edition of Beowulf remains one of the most authoritative sources, presenting the poem as both a heroic and moral text that preserves the oral traditions of the Anglo-Saxons. Later, J. R. R. Tolkien’s (1936) essay “Beowulf: The Monsters and the Critics” transformed scholarly attitudes by arguing that the poem should be studied as a work of art, not merely as a historical record. Tolkien highlighted the symbolic importance of the monsters, interpreting Grendel, his mother, and the dragon as representations of evil and chaos against which human courage must struggle. C.L. Wrenn (1953) and R.D. Fulk (1992) expanded on Tolkien’s approach, exploring the poem’s Christian allegory and the moral tension between faith and fate. These scholars suggested that Beowulf mirrors the cultural shift from pagan heroism to Christian humility, where the hero‘s strength is guided by divine will rather than destiny alone. More recent studies (for example, Greenfield 1982; Liuzza 1999) have emphasized the poem’s linguistic artistry, including its use of alliteration, kennings, and formulaic expressions, which link it to the oral poetic tradition known as scop poetry. Critics also note the poem’s complex narrative structure and use of interlaced stories (such as the tales of Sigemund and Finn) that reflect a sophisticated literary consciousness. Finally, feminist and cultural critics have examined the role of gender and power in Beowulf. Scholars like Jane Chance (1986) interpret Grendel’s mother as a symbol of both threat and maternal power, revealing how the poem reflects the limited but significant roles of women in Anglo-Saxon heroic culture.

Overall, the literature suggests that Beowulf is not only the earliest known English epic but also a multidimensional text that unites history, myth, religion, and psychology — a poem that bridges the oral and written traditions of medieval England.

Methodology

This study is based on textual and thematic analysis of the Beowulf manuscript and secondary scholarly sources. The research focuses on:

1. The narrative structure and poetic features of the poem.
2. The main themes such as heroism, loyalty, fate, and morality.
3. The cultural and religious context of the Anglo-Saxon world and its influence on literary expression.

Data were collected through close reading of the text, comparison with academic interpretations, and review of secondary literature. The analytical method allows for understanding how Beowulf reflects both its historical background and timeless human values.

Results

The analysis revealed several key findings:

Beowulf represents the ideal Anglo-Saxon hero—strong, brave, loyal, and generous. The poem demonstrates the tension between pagan values and Christian beliefs, where fate (wyrd) and divine will coexist. The structure of the poem, organized around three major battles, symbolizes the stages of human life: youth, maturity, and death. The use of alliteration, kennings, and repetition gives the poem its musical rhythm and oral character. Central themes of honor, mortality, courage, and legacy reveal the cultural importance of fame and remembrance in Anglo-Saxon society. These findings show that Beowulf is both a heroic narrative and a moral reflection on life, faith, and human destiny.

Discussion

Beowulf continues to attract attention because it reflects the moral and cultural values of early English society. The central theme of the poem is heroism, which combines physical bravery with moral strength and loyalty. Beowulf's courage and sense of duty illustrate the Anglo-Saxon idea of comitatus, or loyalty between a leader and his followers. At the same time, the poem shows the limits of human life. Beowulf's final battle with the dragon symbolizes aging and mortality, emphasizing that even great heroes must face death. The mix of pagan beliefs and Christian faith in the poem reveals a society in transition. While fate (wyrd) plays a strong role, the poet also attributes success to God's will. From a literary point of view, Beowulf demonstrates high poetic skill through its use of alliteration, kennings, and rhythm. The three main battles represent different stages of life and create a sense of unity in the story. As the first English epic, Beowulf connects past traditions with future literary development, expressing timeless themes of courage, honor, and moral responsibility.

Conclusion

Beowulf stands as the first and most powerful expression of English literary identity. It connects the heroic traditions of the past with the moral consciousness of the emerging Christian age. Through its poetic form, universal themes, and moral depth, Beowulf remains a timeless work that continues to shape the understanding of English literature and culture. Its study helps readers appreciate how early English poets used storytelling not only to entertain but also to express the values, fears, and hopes of their civilization.

References

1. Klaeber, F. (1950). Beowulf and The Fight at Finnsburg. 3rd ed. Lexington: D.C. Heath.
2. Tolkien, J. R. R. (1936). Beowulf: The Monsters and the Critics. Oxford University Press.
3. Alexander, M. (2003). Beowulf: A Verse Translation. Penguin Classics.
4. Greenfield, S. (1982). Hero and Exile: The Art of Old English Poetry. Bloomsbury.
5. Liuzza, R. M. (1999). Beowulf: A New Verse Translation. Broadview Press.

PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

Butayeva Nargiza Buriboyovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV 2-sonli Toshkent akademik litseyi
n95047381@gmail.com

Annotatsiya: Talabalarni dars mashg‘ulotlarida o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, guruhdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash shuningdek o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish.

Kalit so‘zlar: interaktiv metod, differensial yondashuv, metadologik yondashuv, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, kontekstli yondashuv, individual yondashuv, loyihaviy yondashuv.

Аннотация: Определить уровень владения учащимися предметом, преподаваемым на уроках, и владение основными понятиями предмета, уметь самостоятельно выражать свои знания, уметь оценивать свой уровень знаний, уметь работать индивидуально и в группах, уважать мнение сокурсников, а также учить их систематизировать свои знания.

Ключевые слова: интерактивный метод, дифференцированный подход, методологический подход, личностно-ориентированный подход, контекстный подход, индивидуальный подход, проектный подход.


Abstract: To determine the level of students’ proficiency in the subject taught in lessons and mastery of the basic concepts of the subject, to be able to independently express their knowledge, to be able to assess their level of knowledge, to be able to work individually and in groups, to respect the opinions of fellow students, and also to teach them to systematize their knowledge.

Key words: interactive method, differentiated approach, methodological approach, person-centered approach, contextual approach, individual approach, project approach.

Kirish. O‘tilgan dars jarayonidan ma’lum bo‘ldiki, talabalar nazariy va amaliy mashg‘ulot davomida innovatsion muhandislik faoliyatining rivojlanganligiga guvoh bo‘ldilar. Chunki innovatsion muhandislik faoliyati rivojlanmagan talaba kasbiy faoliyat jarayonidagi innovatsion muhandislik ko‘nikmasiga ega bo‘lmasliklarini tushundilar.

Yuqoridagi fikrlarga asosan aniq fanlarni o‘qitish jarayonida yangi mavzuni tushuntirish uchun namoyish qilish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, munozaralar tashkil qilish, o‘quvchilarning fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashish, ularning ijodiy faolliklarini o‘stirish, mustaqil fikrlashga undash orqali innovatsion muhandislik faoliyati rivojlanishiga erishildi.

Dars jarayonida sinab ko‘rilgan interaktiv metod va pedagogik texnologiyalarning samaradorliligini oshirish ma’lum darajada o‘qituvchi shaxsiyatiga bog‘liq bo‘lgan: axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarning samarali, o‘rinli madsaqga muvofiq va o‘zaro moslikda qo‘llashga erishish, tashkilotchilik, doimiy nazorat va talabalar diqqatini jalb qila olish qobiliyati, pedagogik-psixologik bilimlari, ish tajribasi va pedagogik malakasi, didaktik vositalarga ega bo‘lishi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ishonch va hurmatga asoslangan hamkorlikka erishish kabi xususiyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi.



O‘z o‘rnida talabalardan, interaktiv metodlarni qo‘llash samaradorligini oshirishda o‘zlashtirish darajasi, talabalarning o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablarga amal qilishi, o‘zaro va o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlashlari, talabalarning dars mashg‘ulotiga tayyor bo‘lishi va darsga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishlari talab etiladi.

Yuqorida sanab o’tilgan metodlardan tashqari, ilg‘or ta’lim metodlarini izlayotgan o’qituvchilar talabalarga fanning ilmiyligini his qilishlariga yordam berish uchun guruh muhokamasi, amaliy tadqiqotlar, laboratoriya tajribalari, seminar, auditoriyadan tashqari o’qitish va interaktiv ma’ruza namoyishlarini ham sinab ko’rishlari mumkin.

Talabalarning texnologik komepetentligini rivojlantirish jarayoni bir qator yondashuvlarga bog‘liq bo‘ladi. Ana shunday differensial yondashuv, metadologik yondashuv, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, kontekstli yondashuv, individual yondashuv, loyihaviy yondashuv va tizimli yondashuvlar nimalardan iborat va ularni tashkil etish qanday muhim masalalardan hisoblanishini atroflicha qarab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili: Ta’lim jarayoniga tizimli tahlilni qo‘llash, tizimli yondashuv asosida fizika fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha yurtimiz olimlaridan K.Z.Zaripov, S.Q.Qahhorov, H.O.Jo‘rayev, M.Qurbonov, M.Yu. Mansurova, S.Y.Maxmudova, B.N.Nurillayev, G.Y.Karlibayeva, Q.Sh.Tursunovlar MDH davlatlari olimlari V.G. Afanasev, B.T. Lixachev, tadqiqotchi I.A. Suchevlar va boshqalar shug‘ullanganlar.

Kompetenetlik tushunchasi, talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish, texnologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik, texnologik va metodik mohiyatiga oid ilmiy tadqiqot ishlari bilan respublikamizning etakchi olimlaridan R.Djo‘rayev, A.Xodjaboev, N.Muslimov, O‘.Tolipov, Q.Abdullaeva, Sh.Sharipov, O.Qo‘ysinov, J.Hamidov, I.B.Asqarov, M.A.Choshanov, B.Muqimov, I.I.Umirov va boshqalar ilmiy tadqiqot shlarini olib borganlar.

MDH davlatlaridan E.I.Ogarev, A.A.Skamnitskiy, S.A.Yefimova O.P.Oleynikova, A.A.Skamnitskiy G.V.Yarochkina, A.Markova, V.I.Zagvyazinskiy, V.M.Simonov, .A. Alekseyev va boshqalarning ishlarida talabalarda texnologik kompetentliknirivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot olib borishgan

Xorij mamlakatlari olimlaridan talabalarda tizimli yondashuv asosida texnologik kompetentsiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari Lyudvig Fon Bertalanfi, L.Bertalanfi, F.E.Temnikov, N.D. Xmel, M.Lederer, J.M.Hollander, I.Perlman, V.V.Serikov, A.Markeev, B.Bloom va boshqalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Talabalarning texnologik komepetentligini rivojlantirish jarayoni bir qator yondashuvlarga bog‘liq bo‘ladi. Ana shunday differensial yondashuv, metadologik yondashuv, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, kontekstli yondashuv, individual yondashuv, loyihaviy yondashuv va tizimli yondashuvlar nimalardan iborat va ularni tashkil etish qanday muhim masalalardan hisoblanishini atroflicha qarab chiqildi.

Bo‘lajak muhandislarni texnologik kompetentligini rivojlantirishning metodik modelini keltirib o‘tamiz. Mazkur metodik model o‘zaro bog‘langan va bashoratlash imkonini beruvchi beshta maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik-natijaviy bloklardan tashkil topgan model ishlab chiqildi. Maqsad komponenti ijtimoiy buyurtma va maqsadni o‘z ichiga oladi. Mazmun komponenti vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, rivojlantiriladigan texnologik kompetentlik komponentlari va didaktik shart-sharoitlardan tashkil topgan bo‘lib, bo‘lajak sanoat muhandislarini texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asosini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishini boshlashdan avval va uning davomida fan mazmunini ochib beruvchi ma’lumotlar, tadqiqotchi hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi tadqiqotimiz ilmiy farazini tekshirish jarayonida bo‘lajak sanoat muhandislarining bilim darajasi o‘sib borishi tasniflangan mezonni ko‘rsatdi. “Muhandislik fizikasi” fani malakaviy amaliyotlarni o‘tash jarayonida, kurs loyihalari va bitiruv malakaviy ishlarni bajarish yuzasidan ma’lumotlarni o‘zlashtirish, tahlil qilish, ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini shakllantirish, bo‘lajak sanoat muhandislarining mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligini hamda kasbiy sifatlarini rivojlantirish “Muhandislik fizikasi” fani hamda o‘quv, malakaviy va pedagogik amaliyotlarning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida qabul qilindi.

O‘qituvchining ijodiy yondashuvi talaba tomonidan nazariy mexanikani o‘rganishga ijodiy yondashuvining bevosita shartidir. Odatdagi ma’ruza darslarining an’anaviytarzda, ilg‘or pedagogik usullarsiz olib borilishi talabadan faollik talab qilmaydi. Darsni o‘zlashtirish ham osonday tuyuladfi, fanga nisbatan qiziqish uyg‘onmaydi. Muammoli holatlarning yaratilishi, talabani fanga qiziqtirish, uning faoliyatini oshirib, kengroq fikrlashga, maqsadga qarab intilishga, kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga xalqaro andozalarga mos keluvchi mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarning yuqori iqtisodiy ta’lim darajasini ta’minlash, bu vazifani sifatli, samarali tushunarli amalga oshirish nazariy mexanika fanining asosiy uslubiy vazifasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar: Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarda “Muhandislik fizikasi” fani modullari bo‘yicha tizimli yondashuv asosida bo‘lajak sanoat muhandislarining texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajalari belgilangan mezon va darajalar asosida aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari tahlili dastlab har bir oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha alohida o‘rganildi. So‘ngra barcha natijalar umumlashtirilib matematik-statistik tahlil qilindi

Texnika oily ta’lim muassasalaida umumiy o‘rtacha natija: 1-Tajriba-sinov guruhida qatnashgan talabalarda “Muhandislik fizikasi” fani modullarini o‘qitish bo‘yicha bo‘lajak sanoat muhandislarining texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 9,7%, tajriba oxirida 20,3% yuqori darajani ko‘rsatdi. O‘rta daraja tajriba boshida 16,1% dan tajriba oxirida 39,1% o‘sdi, past daraja esa 74,2 % dan 40,6 % ga kamaydi.

2-Nazorat guruhida qatnashgan talabalarda “Muhandislik fizikasi” fani modullarini o‘qitish bo‘yicha bo‘lajak sanoat muhandislarining texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajalari tajriba boshida yuqori daraja 11,3%dan tajriba oxirida 9,7%ga past darajani ko‘rsatdi. O‘rta daraja tajriba boshida 17,7% va tajriba oxirida 19,1 % bo‘ldi, past daraja esa 71% dan 69,4 % ga kamaydi.

Xulosa: Tadqiqot davomida oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari yakunida tajriba guruhlaridagi bo‘lajak sanoat muhandislarining texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajalari nazorat guruhlariga nisbatan 1,123 barobarga (12%) yuqori ekanligi matematik-statistik jihatdan isbotlandi. Bu esa o‘z navbatida tadqiqot ishida samaradorlikka erishilganligini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida olib borilgan metodik ishlar nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi. Bu esa bo‘lajak sanoat muhandislarining texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajalari yanada yuqori darajada bo‘ladi.

Talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish, uni tashkil etish, shuningdek ularni ilmiy va ijodiy ishlarida katta ahamiyatga ega ekanligi hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarliklarini ham yaxshilashga imkon berdi.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishni amalga oshirishga hizmat qiladigan maqsadli faoliyat, axborotli faoliyat, kasbiy faoliyat va samarali faoliyat faoliyat turlaridan kelib chiqib texnologik operatsiya mazmuni bilan belgilanadigan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun subyektning tayyorligi mutaxassisning operatsion texnologik kompetentligini rivojlantirishga asoslangan. Bo‘lajak sanoat muhandislarini texnologik kompetentligini rivojlantirishning metodik modelini keltirib o‘tamiz. Mazkur metodik model o‘zaro bog‘langan va bashoratlash imkonini beruvchi beshta maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik-natijaviy bloklardan tashkil topgan model ishlab chiqildi. Maqsad komponenti ijtimoiy buyurtma va maqsadni o‘z ichiga oladi. Mazmun komponenti vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, rivojlantiriladigan texnologik kompetentlik komponentlari va didaktik shart-sharoitlardan tashkil topgan bo‘lib, bo‘lajak sanoat muhandislarini texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asosini belgilab berad Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash. –T.: “Istiqbol”, 2002.-62 b.
2. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: Moliya, 2003.-172 b.

3.Смолянинова О.Г. Развитие методической системы формирования информасионной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мултимедиа-технологий: Дис. … докт. пед. наук. – СПб., 2002. – 504 с.

4.Tolipov O‘.Q, Usmonboeva M, Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- Toshkent. Fan, 2005. - 205 b.

CHET TILINI O‘QITISHDA 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Raximova Hursanoy
Namangan tuman 23-sonli maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Chet tilini o‘qitishda ijodkorlik, hamkorlik ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning mavzuni tushunish va faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchilarga chet tilidagi tushunchalarga yanada dinamik va amaliy yondashish imkonini beradi, bu esa chuqurroq va yaxlit o‘rganish tajribasini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar:chet tilini o‘qitish, 4K ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, kreyativ fikrlash, muloqot ko‘nikmalari, hamkorlikda ishlash, XXI asr kompetensiyalari, kompetensiyaga asoslangan ta’lim, innovatsion metodlar, interaktiv yondashuv, raqamli ta’lim texnologiyalari, kommunikativ metod, projekt asosida o‘qitish, task-based learning, o‘quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijodkorlik, muammo yechish ko‘nikmalari, lingvodidaktik yondashuv.

Chet tilini o‘qitishda 4K ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasidan foydalanishning ahamiyati

1. Kirish

XXI asr ta’limi yangi kompetensiyalarni — ijodkorlik (kreativlik), tanqidiy fikrlash (kritiklik), kommunikatsiya (kommunikativlik) va hamkorlik (kollaboratsiya) — shakllantirishni talab qiladi. Bu 4K (4C) deb ataladigan ko‘nikmalar xalqaro ta’lim ekspertlari tomonidan ta’kidlangan bo‘lib, ularni chet tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning til bilimi bilan birga muammolarni hal qilish, axborotni tahlil qilish va jamoadagi samarali ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Maqolaning maqsadi: chet tilini o‘qitishda 4K ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasining nazariy asoslarini tahlil qilish, amaliy metodlarni bayon etish va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini ko‘rsatishdir.

Vazifalar:

- 4K kontseptsiyasining nazariy asoslarini ko‘rib chiqish;
- Chet tilini o‘qitishda 4Kni rivojlantirish usullarini tasniflash;
- Metodik tajriba va kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish;
- O‘qituvchilarga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Adabiyotlarda 4K ko‘nikmalari ta’lim jarayonining markaziy elementiga aylanib borayotgani qayd etilgan. Trilling va Fadel (21st Century Skills), Dewey (Experience and Education), Bloom (Taxonomy) kabi olimlarning asarlari kompetensiya yondashuvi va o‘quvchilarning faol-tadqiqotchilik rolini himoya qiladi. Til o‘qitish metodikalari bo‘yicha Richards va Rodgers, Harmer kabi tadqiqotchilar kommunikativ va vazifaga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali til o‘qitish jarayonida yuqori natijalar ko‘rsatilishini ta’kidlaydi.

Chet tilini o‘qitishda 4K ko‘nikmalaridan foydalanishning ahamiyati

4K Ko‘nikmasi	Tushunchasi	Dars jarayonida qo‘llanishi	O‘quvchi uchun ahamiyati
Tanqidiy fikrlash	Ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish	Matn tahlili, savol-javob, muammo topish	Mustaqil fikrlaydi, fikrini asoslay oladi

Kreyativ fikrlash	Yangi g‘oya, fikr va yechim yaratish	Hikoya tuzish, role-play, dizayn topshiriqlari	Ijodkorlik rivojlanadi
Muloqot	Og‘zaki va yozma ravishda aniq ifoda qilish	Juftlikda ishlash, debatlar, taqdimotlar	Tilni faol qo‘llaydi
Hamkorlik	Guruhda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish	Guruh projekti, jamoaviy vazifalar	Jamoada ishlashni o‘rganadi

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar (masalan, oqituvchilar orasidagi pedagogik tajribalar, dars kuzatuvlari va o‘quvchilarning nazorat natijalari) 4K integratsiyasining o‘zaro bog‘liqligini va til o‘rganish jarayonida til ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, adabiyotlar 4Kni baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

2.2 Metodologiya

Tadqiqot dizayni: maqola ilmiy tahliliy usulga asoslanadi va quyidagi metodlardan foydalangan:

- Adabiyotlarni tahlil qilish — ilmiy maqolalar, metodik qo‘llanmalar va xalqaro standartlar o‘rganildi.
- Pedagogik kuzatuv va eksperiment — sinf ichidagi darslarda 4K usullarini joriy etish bo‘yicha kichik ko‘lamli pedagogik tajriba o‘tkazildi (3 ta sinf, 10–12 haftalik kurs).
- Sifatli intervyular — o‘qituvchilar va tanlangan o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazildi.
- Natijalarni tahlil qilish — o‘quvchilarning nutq faoliyati, baholashlar va o‘z-o‘zini baholash shakllari solishtirildi.

Ma’lumotlar analizi sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirdi: kuzatuvlar orqali olingan kvantitativ natijalar (test natijalari, baholar) va intervyular orqali olingan sifatli ma’lumotlar (o‘qituvchilarning fikrlari, o‘quvchilarning taassurotlari) tahlil qilindi.

3. Muhokama

3.1 4K elementlarining chet tiliga ta’siri

Kreativlik (Creativity): Til o‘rganishda kreativlik o‘quvchilarga yangi iboralar, kontekstlar va g‘oyalarni yaratish imkonini beradi. Storytelling, loyiha ishlari, dramatizatsiya kabi faoliyatlar o‘quvchilarning tilni yaratish va sinovdan o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, loyiha asosida yozish mashqlari (project-based writing) o‘quvchining nutq doirasini kengaytiradi va o‘z-o‘zini ifoda etish imkoniyatini oshiradi.

Kritik fikrlash (Critical thinking): Debatlar, matnlarni tahlil qilish, argumentatsion yozuvlar va mantiqiy savollar o‘quvchilarga matn mazmunini chuqur tahlil qilish, noroziliklarni aniqlash va o‘z xulosasini asoslashga yordam beradi. Til kontekstida bu — grammatika va leksika elementlarini yodlashdan ko‘ra, ularni mazmuniy vazifalarda qo‘llashni o‘rgatadi.

Kommunikativlik (Communication): Tilni realtime (real-time) vaziyatlarda qo‘llashni rag‘batlantiruvchi vazifalar — information-gap, role-play, muammoga asoslangan muloqot — o‘quvchilarning so‘zlashish va tinglash, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini uyg‘un ravishda rivojlantiradi.

Kollaboratsiya (Collaboration): Jamoaviy loyihalar, guruh bahs-munozaralari va kooperativ ta’lim vazifalari o‘quvchilarga hamkorlikda ishlash, mas’uliyat taqsimlash va fikr almashishni o‘rgatadi. Bu qobiliyatlar tilni ijtimoiy kontekstda samarali qo‘llashga xizmat qiladi.

3.2 Metodik vositalar va mashqlar

Chet tilini o‘qitishda quyidagi uslublar 4K ni shakllantirishga mos keladi:

- Loyiha asosidagi o‘qitish (Project-Based Learning): O‘quvchilar real hayot muammosi bo‘yicha jamoaviy loyiha bajaradi. Bu usul kreativlik va kollaboratsiyani oshiradi; loyiha natijasini og‘zaki va yozma tarzda taqdim etish kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Debatlar va argumentatsion yozuv: Kritiklikni rivojlantirish uchun samarali. O‘quvchilar mavzuni tahlil qiladi, dalillar keltiradi va qarama-qarshi nuqtai nazarni konstruktiv tarzda baholaydi.

Role-play va simulyatsiyalar: Haqiqiy hayot vaziyatlarida tilni qo‘llash imkoniyati. Bu kommunikatsiya va kreativlikni uyg‘unlashtiradi.

Kross-funksional vazifalar (Interdisciplinary tasks): Til darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lash (masalan, tarix yoki fan bilan) o‘quvchilarning ma’lumotni tahlil qilish va integratsiyalash ko‘nikmalarini oshiradi.

3.3 Baholash va indikatorlar

4K ko‘nikmalarini baholash an’anaviy testlardan farq qiladi — u ko‘proq performativ, portfel va rubrikalar yordamida amalga oshiriladi. Taklif etilgan indikatorlar:

Kreativlik: original g‘oyalar soni, muammoni yechish variantlari.

Kritiklik: argumentlarning mantiqliligi, dalillarni tekshirish qobiliyati.

Kommunikativlik: laqqi va mazmunlilik (fluency & accuracy)dagi muvozanat, muloqotdagi maqsadga erishish darajasi.

Kollaboratsiya: guruh ichidagi ro‘l va mas’uliyatni bajarish, jamoaviy natijaga qo‘shgan hissasi.

Rubrikalar yordamida o‘qituvchilar nazorat va baholashni aniqroq olib borishi mumkin. Masalan, loyiha ishlari uchun 4 ta mezon (kontent, til, ijodkorlik, hamkorlik) bo‘yicha 4 ballik tizim ishlab chiqiladi.

4. Natijalar

Pedagogik tajriba natijalari va kuzatuvlar quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Loyiha va jamoaviy vazifalar muntazam qo‘llanganda, o‘quvchilarning og‘zaki nutqdagi faolligi 25–40% ga oshdi (kuzatuv va o‘zaro baholashga asoslangan).
- Debatlar va argumentatsion yozuvlar natijasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari (mantiqiy xulosa chiqarish va dalil keltirish) sezilarli darajada yaxshilandi.
- Kommunikativ vazifalar (role-play, information-gap) natijasida o‘quvchilarning muloqot maqsadini bajarishdagi muvaffaqiyati oshdi — ularning nutq qamrovi kengaydi va erkinlik darajasi yaxshilandi.
- Hamkorlik elementlari jamoaviy ishlashga moslashish va ishni bo‘lib bajarish qobiliyatini oshirdi; shu bilan birga, shaxsiy va guruh natijalari o‘rtasidagi muvozanat yaxshilandi.

Kvantitativ test natijalari o‘rta statistik metodlar bilan tahlil qilinganda, 4K metodikasi dasturini qo‘llagan sinflarda an’anaviy darslar olib borilgan sinflarga nisbatan tilga oid ko‘rsatkichlarda kichikdan o‘rta darajagacha ($p<0.05$) o‘sishlarni ko‘rsatdi.

5. Xulosa va tavsiyalar

Xulosa

Chet tilini o‘qitishda 4K ko‘nikmalarini integratsiyalash — bu nafaqat til bilimlarini, balki o‘quvchilarning keng qamrovli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvdir. Tadqiqot va pedagogik tajribalar 4K metodikasining o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish, tilni amaliy ravishda qo‘llash va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi.

Amaliy tavsiyalar

1. Dars rejasini qayta ko‘rib chiqish: Loyihaviy va vazifaga yo‘naltirilgan mashqlarni dars rejasiga kiritish.
2. Baholash tizimini yangilash: An’anaviy testlar o‘rniga rubrika, portfel va performance-based baholashni qo‘llash.
3. O‘qituvchilar uchun treninglar: 4K metodikasini qo‘llash bo‘yicha doimiy professional rivojlanish kurslari tashkil etish.
4. Resurslar va materiallar: Interaktiv platformalar, multimediya materiallar va real-vaziyat vazifalarini yaratish.
5. Integratsiya: Til darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lab, interdisciplinary loyihalarni yo‘lga qo‘yish.

Cheklovlar va kelajak uchun yo‘nalishlar

- Tadqiqot kichik ko‘lamda o‘tkazildi; kengroq miqyosdagi eksperimentlar va uzoq muddatli kuzatuvlar zarur.
- 4Kni baholash indikatorlarini yanada chuqurroq ishlab chiqish va moslashtirish kerak.
- Raqamli va onlayn muhitda 4Kni rivojlantirish istiqbollari va vositalarini o‘rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Qodirov, A. "XXI asr kompetensiyalari va ta’lim jarayonida ularning ahamiyati." Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Jo‘rayev, B. *Chet tillarini o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Hasanov, M. "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari." *Pedagogika va psixologiya jurnali*.

4. Karimova, D. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi.

5. Raxmonova, S. "Kommunikativ yondashuvning chet tili o‘qitishdagi roli." *Til va adabiyot ta’limi jurnali*.

6. Abdullayev, O. *Interaktiv metodlar asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

7. Tursunov, Sh. "Kollaborativ o‘qitish va jamoaviy o‘rganish jarayonlari." *Pedagogik mahorat jurnali*.

THE INDUSTRIAL REVOLUTION AND ITS REFLECTION IN VICTORIAN LITERATURE

Komiljonova Sabrina Kamoldin qizi
Student,Chirchik State Pedagogical University
Scientific adviser: Isroilova Tursuntosh Ro‘zi qizi

ANNOTATION: This article examines how the Industrial Revolution influenced Victorian literature. It shows how industrialization changed society, creating new social classes, urban problems, and moral conflicts. Victorian authors such as Charles Dickens, Elizabeth Gaskell, and Thomas Hardy reflected these changes in their works, criticizing social inequality, dehumanization, and the dark side of progress. The conclusion states that Victorian literature not only described industrial change, but also questioned its moral consequences.

Key words: Industrial Revolution, Victorian literature, social change, class conflict, realism, morality.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Sanoat inqilobining Viktoriya davri adabiyotiga ta’siri yoritiladi. Industrializatsiya jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini o‘zgartirib, yangi sinflar, shahar muammolari va axloqiy ziddiyatlarni keltirib chiqargani ko‘rsatiladi. Dikens, Gaskell va Xardi kabi yozuvchilar asarlarida ushbu o‘zgarishlarni tanqidiy yondashuv bilan aks ettirganlar. Muallif Viktoriya adabiyoti nafaqat o‘z vaqtining ijtimoiy jarayonlarini tasvirlagan, balki ularning axloqiy oqibatlarini ham savol ostiga qo‘yganini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Sanoat inqilobi, Viktoriya adabiyoti, ijtimoiy o‘zgarish, sinf ziddiyati, axloq.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается влияние промышленной революции на викторианскую литературу. Показано, как индустриализация изменила общество, вызвав появление новых социальных групп, городских проблем и моральных конфликтов. Писатели, такие как Диккенс, Гаскелл и Харди, отражали и критиковали эти изменения в своих произведениях. Делается вывод, что викторианская литература не только фиксировала социальные перемены, но и поднимала вопросы об их нравственных последствиях.

Ключевые слова: промышленная революция, викторианская литература, социальные изменения, классовый конфликт, мораль.

INTRODUCTION: The Industrial Revolution, beginning in late eighteenth-century Britain, brought rapid technological change that transformed the economy, social structure, and moral values. Machines, factories, and urban growth created new opportunities for wealth and innovation, but also produced poverty, class division, and ethical problems that shaped Victorian consciousness.

Victorian literature developed alongside these changes and acted as both reflection and criticism of industrial society. Authors such as Charles Dickens, Elizabeth Gaskell, and Thomas Hardy exposed the human cost of progress — harsh working conditions, loss of rural life, and the conflict between material development and moral integrity. Through realistic narratives, they highlighted social inequality, labor exploitation, and the struggle to maintain humanity in an industrialized world.

This article therefore explores how industrialization appears in Victorian literature through social, moral, and psychological themes, focusing on Dickens, Gaskell, and Hardy. It asks how industrial progress influenced the emotional tone of Victorian novels, and how writers supported or criticized the era's changes. The conclusion is that Victorian fiction not only represented society, but also evaluated the ethical consequences of modernization.

LITERATURE REVIEW

Scholars widely agree that the Industrial Revolution reshaped Victorian culture and consciousness. Raymond Williams (1973) notes that the nineteenth century became increasingly concerned with the "social question," and literature became a major medium for responding to industrial capitalism and its moral effects.

Charles Dickens is central in this field: critics such as House and Lucas view *Hard Times* as a critique of utilitarianism and the dehumanizing logic of factory life. *Oliver Twist* similarly exposes the cruelty of industrial-era poverty. Dickens combines realism with moral reform, calling for compassion.

Elizabeth Gaskell provides a more balanced approach. In *North and South*, as scholars like Stoneman suggest, she compares industrial Milton with the pastoral South to show class tension. Her narrative emphasizes communication between workers and mill owners rather than conflict, arguing for ethical capitalism.

Thomas Hardy, writing later, expresses disillusionment with industrial modernity. Critics note that *Tess of the d'Urbervilles* and *The Mayor of Casterbridge* mourn the destruction of rural life and moral harmony. His pessimistic vision contrasts with Dickens's reformism and Gaskell's mediation.

Overall, critics view Victorian realism as a collective response to industrial modernity. Literature served not only as art but also as ethical commentary and social documentation.

METHODOLOGY

This research uses qualitative literary analysis to examine how industrialization influenced themes, characters, and moral tone in novels by Dickens, Gaskell, and Hardy. The study applies thematic and comparative analysis to identify recurring concerns such as poverty, exploitation, class conflict, and the tension between progress and human values.

Primary texts include *Hard Times* (1854), *Oliver Twist* (1837), *North and South* (1855), and *Tess of the d'Urbervilles* (1891). Secondary sources are scholarly works on industrialization, realism, and ethics in Victorian writing.

This approach focuses on interpretation and meaning rather than statistical data, revealing the symbolic and emotional dimensions of the Industrial Revolution in literature.

ANALYSIS & DISCUSSION

Dickens exposes the dehumanization of labor and the failures of utilitarian logic, urging moral reform and empathy. Gaskell presents industrial conflict as something resolvable through dialogue, proposing reconciliation between workers and owners. Hardy portrays industrialization as tragic, emphasizing the loss of rural values and the alienation of modern individuals.

Together they represent three Victorian moral responses: reform (Dickens), negotiation (Gaskell), and despair (Hardy). All agree that progress without ethics leads to human suffering.

CONCLUSION

The Industrial Revolution produced deep moral and cultural change, and Victorian fiction became a key space for responding to it. Dickens, Gaskell, and Hardy each offered different views, but all highlighted the human cost of progress. Their works show that true progress requires moral

responsibility. Victorian literature remains relevant today as society continues to face the ethical challenges of technological change.

REFERENCES

Dickens, Charles. *Hard Times.* London: Bradbury & Evans, 1854.

Dickens, Charles. *Oliver Twist.* London: Richard Bentley, 1837.

Gaskell, Elizabeth. *North and South.* London: Chapman & Hall, 1855.

Hardy, Thomas. *Tess of the d'Urbervilles.* London: Osgood, McIlvaine & Co., 1891.

Hardy, Thomas. *The Mayor of Casterbridge.* London: Smith, Elder & Co., 1886.

Chapman, Raymond. *The Victorian Debate: English Literature and Society, 1832–1901.* London: Routledge & Kegan Paul, 1986.

Flint, Kate. *The Victorians and the Visual Imagination.* Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

Harvey, Geoffrey. *The Complete Critical Guide to Thomas Hardy.* London: Routledge, 2003.

House, Humphrey. *The Dickens World.* London: Oxford University Press, 1942.

Lucas, John. *The Melancholy Man: A Study of Dickens's Novels.* London: Methuen, 1970.

Sanders, Andrew. *The Short Oxford History of English Literature.* 3rd ed., Oxford: Oxford University Press, 2004.

ДИСТАНЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ДЕГРАДАЦИИ РАСТИТЕЛЬНОГО ПОКРОВА ПРИАРАЛЬЯ

Юсупова Мехрибон Тулкиновна
Преподаватель университета Мамун
Телефон:+998(99) 564-18-16
E-mail: yusupova_mehribon@mamunedu.uz

Аннотация: В статье рассматриваются дистанционные методы оценки деградации растительного покрова в регионе Приаралья. Особое внимание уделяется применению спутниковых данных и беспилотных летательных аппаратов (БПЛА) для мониторинга динамики растительности. Анализ временных рядов, мультивременная кластеризация и обнаружение аномалий позволяют выявлять ключевые изменения в состоянии растительного покрова и прогнозировать дальнейшие экологические процессы. В заключении обсуждаются перспективы использования дистанционного зондирования для экологической устойчивости региона.

Ключевые слова: дистанционное зондирование, мониторинг растительности, Приаралье, спутниковые данные, БПЛА.

Экосистема Приаралья подвергается значительным изменениям из-за процессов засоления почв, расширения солончаков и колебаний уровня грунтовых вод. Для комплексной оценки состояния растительного покрова требуется анализ временных данных, полученных с аэрокосмических платформ. Современные методы дистанционного зондирования, включая использование спутниковых снимков и беспилотных летательных аппаратов, позволяют эффективно отслеживать изменения экосистемы и выявлять критические зоны деградации.

Экосистема Приаралья находится под воздействием ряда динамичных процессов: засоление почв, расширение солончаков, пыльные бури, колебания уровня грунтовых вод и др. Поэтому для всесторонней оценки состояния растительности недостаточно разового спутникового снимка — необходимо изучать **последовательности изображений** за разные периоды:

- **Анализ временных рядов индексов**
  - Позволяет прослеживать тенденции роста/снижения значений в течение 5, 10 или более лет;
  - Выявлять сезонные и годовые колебания;

- Оценивать влияние климатических факторов (температур, осадков) на растительность.

- **Мультивременная кластеризация**
  - Проводится классификация для каждого временного среза (сезона, года), после чего результаты сопоставляются;
  - Позволяет увидеть, как меняется распределение типов растительности и пустынных участков со временем.

- **Обнаружение аномалий**
  - Сравнивая текущие значения индексов с усреднёнными многолетними, можно выделить области, где внезапно произошло резкое снижение (или повышение) показателей растительности (например, массовое усыхание, новые очаги засоления).

Применение мультивременного анализа даёт объективные основания для прогнозирования развития опустынивания и помогает планировать меры по восстановлению растительного покрова.

В дополнение к спутниковым изображениям всё более широкое применение находят **беспилотные летательные аппараты (дроны)**:

- **Высокое пространственное разрешение** (сантиметры на пиксель) даёт возможность получать детальные снимки отдельных участков, что важно для уточнения классификации, верификации и учёта неоднородной структуры растительности.
- **Гибкое оснащение сенсорами**: мультиспектральные, тепловые, гиперспектральные камеры и т. п., позволяющие точно измерять спектральные характеристики даже на небольших территориях.
- **Оперативность**: при необходимости можно выполнять полёты в нужное время (при благоприятной погоде или для быстрого обнаружения критических изменений).

Однако применение БПЛА осложняется затратами на обслуживание, логистикой (радиус действия, источники электропитания), а также требованиями законодательства (получение разрешения на полёты в некоторых зонах). Несмотря на это, сочетание данных, полученных с дронов и спутников, даёт наиболее полную картину состояния растительности в Приаралье.

Регион Приаралья характеризуется сложными экологическими условиями, которые требуют комплексного подхода к исследованию и мониторингу растительного покрова. Использование аэрокосмических изображений (спутниковых данных разного разрешения и беспилотных летательных аппаратов) позволяет:

- Оценивать текущее состояние и динамику растительного покрова в условиях засоления и дефицита влаги;
- Выделять основные типы растительности и отслеживать процессы их деградации или восстановления;
- Выявлять аномалии (массовое усыхание, появление новых солончаков, изменение гидрологического режима);
- Принимать более взвешенные решения в области мелиорации, рекультивации и сохранения биоразнообразия.

Спектральные индексы, методы классификации и мультивременной анализ выступают надёжным инструментарием для специалистов, занимающихся сохранением и восстановлением природных ресурсов Приаралья. Формирование регулярной системы мониторинга с использованием дистанционного зондирования Земли — одно из ключевых направлений для обеспечения экологической устойчивости и дальнейшего развития региона.

Использование спутниковых данных и БПЛА в мониторинге растительного покрова Приаралья позволяет выявлять тенденции деградации, прогнозировать экологические изменения и разрабатывать стратегии восстановления. Современные алгоритмы анализа временных рядов и мультивременной кластеризации делают возможным более точное выявление деградационных процессов. В перспективе интеграция технологий

искусственного интеллекта и машинного обучения поможет автоматизировать обработку данных и повысить эффективность дистанционного мониторинга региона.

Список использованной литературы:

1. Лопатин Е.В. Методы дистанционного зондирования для оценки растительности. Москва: Наука, 2019.

2. Сеитназаров К. К. и др. ОБЗОР МЕТОДОВ ПОЛУЧЕНИЯ КОСМИЧЕСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ С ВЫСОКИМ РАЗРЕШЕНИЕМ //НАУКА и ОБЩЕСТВО. – С. 28.

3. К.К. Сеитназаров, Д.Х. Турдышов, Б.К. Туремуратова. ОБЗОР МЕТОДОВ ПОЛУЧЕНИЯ КОСМИЧЕСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ С ВЫСОКИМ РАЗРЕШЕНИЕМ// НАУКА и ОБЩЕСТВО

4. Kuenzer, C., Dech, S. "Remote Sensing Time Series – Revealing Land Surface Dynamics". Springer, 2016.

5. Ткаченко В.Н. Основы дистанционного зондирования Земли. Санкт-Петербург: Политехника, 2020.

KING ARTHUR LEGENDS: FACT AND FICTION

G‘oziyeva Nodirakhon
Chirchik State Pedagogkal University 3 year student of the Faculty of Tourism Foreign Language and Literature
goziyevanodira57@gmail.com
Scientific adviser: Umarova Dilafruz
EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University
Dilafruzumarova91@gmail.com

Abstract: The legends of King Arthur have long captured the imagination of readers and historians alike. This article explores the complex relationship between historical facts and fictional elements surrounding King Arthur and his knights. It examines early sources such as Historia Regum Britanniae and Le Morte d’Arthur, highlighting how myth, folklore, and medieval literature shaped Arthur’s image as an ideal king and hero. While there is little concrete evidence to prove Arthur’s real existence, the enduring power of his legend reflects deep cultural values of bravery, loyalty and justice. Ultimately, the study reveals that King Arthur’s story stands at the crossroads of history and imagination, illustrating how myth can transform historical possibility into timeless cultural heritage.

Keywords: *King Arthur, medieval legend, Camelot, knights, mythology, fact and fiction, British history, folklore, myth, cultural heritage.*

“King Arthur” is one of our most popular heroes: noble yet flawed, a great leader (but perhaps not such a great judge of character), a brave soldier who died fighting for a noble yet hopeless cause. There are tantalising fragments of evidence that the legendary figure may be based on a real king who fought to defend Britain against Anglo-Saxon invaders around the 5th-6th centuries. But was he a Celt, a Roman, a Briton or an Anglo-Saxon, and did he really take on the Anglo-Saxons?

If King Arthur existed at all, we will probably never know the truth about what he was really like. The sources that describe him were written centuries later, when his life had already turned to legend. But what endures about King Arthur are the many stories that people crafted about him thoughout the Middle Ages. Here we explore some of the manuscripts that contributed to the growth of Arthur’s legend.

Two of the earliest accounts of King Arthur were by William of Malmesbury (b. c. 1090, d. c. 1142) and Geoffrey of Monmouth (d. 1154/55), Anglo-Norman clerics who wrote historical chronicles in Latin in the first half of the 12th century. Geoffrey’s History of the Kings of Britain portrayed Arthur at the outset as a brave and fearsome young warrior, who dons his battle regalia (as in the image above, from Royal MS 20 a ii, which is of a later date) and defeats multiple

enemies single-handedly. He established Arthur's reputation as a powerful Christian monarch who embodies the qualities of generosity and culture, qualities demonstrated in the earliest surviving image of Arthur in a manuscript, where he is shown as a tall, venerable figure with a beard and a long robe.

The legend of King Arthur is a mix of fact and fiction. While some parts may have roots in real history, most of the details are creative inventions from later writers. What makes the story special is not its truth, but its lasting message about courage and leadership.

LIST OF USED LITERATURE

1. Geoffrey of Monmouth. The History of the Kings of Britain. Translated by Lewis Thorpe. Penguin Classics, 1966.

2. Malory, Thomas. Le Morte d'Arthur. Edited by Helen Cooper. Oxford University Press, 1998.

3. Ashe, Geoffrey. King Arthur: The True Story. Thames & Hudson, 1995.

4. Lacy, Norris J. (ed.). The New Arthurian Encyclopedia. Garland Publishing, 1996.

5. Barber, Richard. King Arthur: Hero and Legend. Boydell Press, 1986.

6. Matthews, John. The Search for King Arthur. Thames & Hudson, 2008.

7. Padel, O. J. "The Nature of Arthur." Cambrian Medieval Celtic Studies, vol. 27, 1994, pp. 1–31.

O‘ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA PEDAGOGLARNING KASBIY O‘SISHI

Jamol Yuldashev Juraboevich,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi.

O‘zbekiston ta'lim tizimi asrlar davomida xalqimizning ma'naviy, madaniy va ilmiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutib kelgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekiston hududida qadimdan ilm-ma'rifat markazlari shakllangan. IX–XII asrlarda Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar nafaqat Sharq, balki butun dunyo ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganlar [1]. Ularning ilmiy merosi ta'lim jarayonining asosiy tamoyillarini – tizimlilik, mantiqiylik va izchillikni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishi har bir davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Jadidchilik davri o‘zbek pedagogik tafakkurining yangi bosqichi sifatida e'tirof etiladi [2]. Bu davrda xalqni ma'rifatli qilish, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surish, o‘qituvchi shaxsining jamiyatdagi o‘rnini oshirish asosiy maqsadga aylangan.

Mustaqillikdan so‘ng esa O‘zbekiston ta'lim tizimi tub islohotlarni boshdan kechirdi. Xususan, "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonun [1997-yil] va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mamlakat ta'lim tizimining yangi bosqichini boshlab berdi [3].

Bugungi kunda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, raqamli ta'lim muhiti va xalqaro hamkorlik orqali tajriba almashish jarayoni ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda [4].

O‘zbekiston hududida ta'lim va tarbiya tizimining ilk shakllari qadimiy madaniyat markazlarida – Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz kabi shaharlarda shakllangan. Bu davrda madrasalar ilm maskanlari sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda din, falsafa, matematika, tibbiyot, mantiq va adabiyot o‘rgatilgan [1].

Allomalar ilmni jamiyatni taraqqiy ettiruvchi eng muhim kuch sifatida baholaganlar. Masalan, Beruniy ta'limni insonni kamolga yetkazuvchi vosita, deb hisoblagan; Ibn Sino esa o‘qituvchini "ma'naviy rahbar" sifatida talqin qilgan [5].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda yangi tipdagi maktablar - "usuli jadid" maktablari paydo bo‘ldi. Jadid pedagoglari [Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy,

Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar] xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni maqsad qilganlar. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: *“O‘qituvchi millatning rahnamosi, xalqni jaholatdan nurga olib chiqadigan zotdir”* [2].

Jadidchilik davrida o‘qituvchi kasbiga hurmat kuchaydi, metodika va dars jarayonlari yangilandi. Bu jarayon pedagog kasbiy o‘sishining milliy ildizlarini shakllantirdi.

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, ta’lim tizimi markazlashgan holga keltirildi. Bu davrda maktablar soni ko‘paydi, o‘qituvchilarni tayyorlash uchun maxsus pedagogika institutlari tashkil qilindi. Ammo bu davrda ta’lim mafkuraviy nazorat ostida bo‘lib, milliy qadriyatlar ko‘p hollarda e’tibordan chetda qoldi. Shunga qaramay, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi shakllandi, ilmiy-metodik bazalar yaratildi va o‘qituvchi kasbining ijtimoiy mavqei oshdi.

1991-yilda mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida bir qator tub islohotlarni boshladi. Bu islohotlar huquqiy-me’yoriy hujjatlar, ta’lim mazmuni va tashkiloti, kadrlar tayyorlash, ta’lim sifati kabi bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi. 1997 yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida Qonun” O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni ko‘zlagan muhim hujjat bo‘ldi. Qonunda ta’limning ustuvorligi, uzluksizligi, umumiy majburiyligi, davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hammaga ochiqligi kabi printsiplar belgilab qo‘yildi. Shuningdek, yana bir muhim hujjat - “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bo‘lib, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan strategik hujjat sifatida xizmat qildi. 2020-yil 23-sentabrda esa yangi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, bu bilan 1997-yildagi qonun va unga aloqador hujjatlar o‘z kuchini yangiladi.

Mustaqillikdan keyin ta’lim tashkiloti jihatdan ham qator o‘zgarishlar kiritildi. Umumiy o‘rta ta’limdan tortib kasb-hunar ta’limi, oliy va oliy ta’limdan keyingi bosqichlarda ta’limning tarkibi, o‘quv dasturlari, metodikasi yangilandi.

Ta’lim sohasida uzluksiz ta’lim tamoyili kuchaytirildi - ya’ni shaxs hayot davomida o‘rganishi, pedagoglar kasbiy rivojlanishi, yangi pedagogik yondashuvlar joriy etilishi ko‘zda tutildi. Kadrlar tayyorlash tizimi ham katta e’tibor markazida bo‘ldi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida yangi model yaratilgan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollanish, xalqaro tajribalardan foydalanish maqsad qilingan.

Shuningdek, oliy ta’lim sohasida ham sifatni oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda: bakalavriat-magistratura tizimi, davlat va xalqaro akkreditatsiya-sertifikatlash tizimlari, ta’lim xizmatlari raqamlashtirilishi va boshqalar. Islohotlar jarayonida O‘zbekiston xalqaro ta’lim maydoniga ham ochildi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo‘lga qo‘yildi.

Har qanday islohot jarayonida muammolar ham yuzaga keladi. Masalan, infratuzilma, o‘qituvchi malakasi, ta’lim resurslari teng taqsimlanishi kabi masalalar hali ham dolzarb. Kelajakda esa ta’lim sifatini yanada oshirish, raqamli ta’lim muhitini kengaytirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini mustahkamlash asosiy vazifalardan bo‘ladi.

Pedagogning kasbiy o‘sishi - bu o‘qituvchining o‘z kasbiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirish jarayonidir.

Ushbu jarayon quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

- **Malaka oshirish kurslari** hududiy va respublika miqyosida;
- **Innovatsion pedagogika** va AKT texnologiyalarini o‘zlashtirish;
- **Masofaviy ta’lim** va **elektron platformalar** orqali o‘qish;
- **Ilmiy izlanishlar**da faol ishtirok etish.

Bugungi kunda “ZiyoNet”, “EduMarket”, “MyEdu”, “Avloniy ta’lim portali” kabi platformalar pedagoglarga o‘z kasbiy kompetensiyasini oshirish imkonini bermoqda [3].

O‘zbekiston hukumati tomonidan 2024-yilda “Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi” joriy etilishi bu jarayonni huquqiy asos bilan mustahkamladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi UNESCO, JICA, KOICA, British Council kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda pedagoglarni tayyorlash va qayta o‘qitish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirmoqda [4].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimlarida o‘qituvchi shaxsiga katta sarmoya kiritiladi. Masalan, Finlandiyada o‘qituvchilar magistr darajasigacha o‘qitiladi, Singapurda esa “Teacher Growth Model” [o‘qituvchi o‘sish modeli] amalda [3].

O‘zbekiston ham bu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib, “lifelong learning” - uzluksiz o‘rganish tamoyilini bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

Xulosa o‘rnida shu aytish mumkinki**,** O‘zbekiston ta’lim tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari - qadimiy ilmiy an’analar, jadidchilik davri yangiliklari, sovet davrining institutsional tajribasi hamda mustaqillik davrining innovatsion islohotlarini o‘zida mujassam etgan murakkab, ammo izchil jarayondir. Ushbu tarixiy uzluksizlik ta’lim tizimining barqarorligi va milliy o‘ziga xosligini ta’minlab kelmoqda.

Qadimiy davr allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-ma’naviy meros, jadidlarning milliy uyg‘onish g‘oyalari, sovet davrida shakllangan tizimli ta’lim tajribasi va mustaqillikdan so‘ng amalga oshirilgan milliy islohotlar bugungi ta’lim siyosatining poydevorini tashkil etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi global ta’lim makoniga integratsiyalashib bormoqda. Xalqaro tajriba, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitining joriy etilishi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, “Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi”ni huquqiy jihatdan mustahkamlash, raqamli platformalar orqali o‘qituvchilarning malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy hamkorlik dasturlari asosida o‘qituvchilar almashinuvi - bularning barchasi zamonaviy pedagog shaxsini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarida ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa davlat miqyosida pedagogik sohaning strategik ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

Kelajakda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash, zamon talablari asosida pedagoglarning malakasini oshirish, ularni ilmiy faoliyatga keng jalb etish - milliy ta’lim taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Demak, O‘zbekiston ta’lim tizimi o‘z tarixiy ildizlari va zamonaviy islohotlarini uyg‘unlashtirgan holda, yangi davr pedagogini — yuksak bilimli, zamonaviy tafakkurga ega, xalqparvar va innovatsion fikrlovchi mutaxassisni tayyorlash yo‘lida izchil taraqqiyot yo‘lidan bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abiturtest.uz – *Pedagogik fikrlar va g‘oyalar rivojining tarixi*, 2024.
2. Karimov M. – *Jadidchilik harakati va yangi usul maktablari tarixi*, Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun*, 1997-yil.
4. Saidova P.M., Abduhalimova M.A. – *Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari*, *Journal of Universal Science Research*, 2023.
5. ZiyoNet portali – *ziyonet.uz*, 2025.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA STEAM YONDASHUVINING AHAMIYATI.

Usarov Sardor Abdunazirovich
JDPU Matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi
sardorusarov10@gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM yondashuv ahamiyati, dolzarbligi, imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Steam, science, texnology, engineering, matematika.

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion pedagogik metodlarga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshmoqda. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy raqamlashtirish va sanoatning texnologik transformatsiyasi sharoitida ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini faqat nazariy bilimlarni uzatishdan

amaliy, kompetensiyalarga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tkazishi kerak. Shu nuqtai nazardan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi o‘quvchilarda muammolarni sistematik tahlil qilish, eksperimental tajriba o‘tkazish, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish kabi 21-asr ko‘nikmalarini integratsiyalash orqali shakllantiradi.

STEAM ning pedagogik salohiyati bir qancha nazariy va amaliy bosqichlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, fan va matematikaning nazariy asoslari texnologiya va muhandislik loyihalari kontekstida amaliyotga yo‘naltiriladi, bu esa kontseptual tushunchalar bilan ularning real dunyo qo‘llanmalarini bog‘laydi. Ikkinchidan, san’at komponenti (A) ijodiy, estetik va dizayn yo‘nalishlarini ta’lim jarayoniga kiritib, talabalarning divergentsial fikrlashini rag‘batlantiradi — ya’ni mavjud bilimlarni qayta kontekstlashtirish va yangi g‘oyalar hosil qilish imkonini beradi. Uchinchidan, STEAM o‘quvchilarda kognitiv (analitik, mantiqiy) hamda metakognitiv (o‘zini baholash, o‘qishni boshqarish) ko‘nikmalarni rivojlantiradi, bu esa ularni raqamli iqtisodiyotning doimiy o‘zgarishlariga moslashishga tayyorlaydi.



Science — bu o‘quvchilarda atrof-muhitni tushunish uchun zarur bo‘lgan konseptual (nazariy), protseduraviy (amaliy) va epistemik (ilmiy tizimlilik, dalillarga asoslanish) bilimlarni rivojlantirish jarayonidir. Uning asosiy maqsadlari:

“Science” STEAMning markazi sifatida ilmiy fikrlash, tajriba o‘tkazish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu komponent nafaqat nazariy bilimni, balki amaliy, metodologik va etika jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Samarali ilmiy ta’lim uchun pedagogik yondashuvni so‘rovlarga, loyihalarga va hodisalarga asoslangan metodlar bilan bog‘lash, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va zarur infratuzilmani ta’minlash zarur.

STEAM ta’limidagi Technology komponenti o‘quvchilarda turli texnologik vositalardan samarali, xavfsiz va maqsadli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni ko‘zlaydi. Bu nafaqat mavjud texnik qurilmalardan foydalanish, balki ularning imkoniyatlarini o‘rganish, yangi muammolarni hal etishda qo‘llash va texnologiyaning ijtimoiy hamda etik oqibatlarini anglashni ham o‘z ichiga oladi. STEAM ta’limida Technology komponenti faqat vositalardan foydalanish emas, balki ularni ijodiy qo‘llash, yangi imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy-axloqiy mas’uliyatni anglashni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida texnologiyani integratsiya qilish o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki raqamli iqtisodiyotga tayyor kompetentli shaxs sifatida shakllantiradi.

Engineering STEAM yondashuvida muammolarni aniqlash, loyihalash, prototiplash va sinovdan o‘tkazish orqali nazariy bilimlarni real dunyo yechimlariga aylantirishni maqsad qilgan komponentdir. Quyida bu komponentning maqsadi, asosiy jarayoni, pedagogik usullari, rivojlantiriladigan ko‘nikmalar, baholash yondashuvlari, misollar, talab etiladigan resurslar va amaliy tavsiyalar ilmiy-tahliliy uslubda bayon etiladi. Engineering STEAM tizimining amaliy markazi bo‘lib, talabalarga real dunyo muammolarini tizimli va etik jihatdan hal etish imkonini beradi. U faqat texnik bilimni emas, balki loyiha boshqaruvi, jamoaviy ish, ijodkorlik va mas’uliyatni ham shakllantiradi. Muvaffaqiyat uchun maktablar infratuzilma, o‘qituvchilar malakasi va baholash tizimini modernizatsiya qilish ustida tizimli ishlashi lozim.

STEAM ta’limidagi Art komponenti san’at, dizayn va kreativlik elementlarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, estetik tafakkur va vizual kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi. U nafaqat chiroyli ifodani, balki inson markazli dizayn, ijodiy muammo hal qilish va g‘oyalarni samarali yetkazish jarayonini ham qamrab oladi. Art komponenti STEAM ta’limini to‘laqonli, balansli va inson markazli qiladi. U nafaqat estetik go‘zallikni qo‘shadi, balki o‘quvchilarda kreativ tafakkur, empatiya va murakkab g‘oyalarni qulay shaklda yetkazish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada ilmiy va texnik loyihalar yanada tushunarli, jozibali va innovatsion tus oladi.

STEAM ta’limidagi Mathematics komponenti o‘quvchilarda tahliliy tafakkur, mantiqiy xulosalar chiqarish, abstrakt modellashtirish va miqdoriy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Matematika nafaqat hisob-kitob, balki muammolarni formal ifodalash, optimallashtirish va prognoz qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mathematics komponenti STEAM ta’limining intellektual asosi bo‘lib, talabalarga muammolarni mantiqiy, tizimli va tahliliy yondashuv bilan hal qilishni o‘rgatadi. U boshqa fanlarga asos bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilarni nafaqat aniq hisob-kitoblarga, balki kreativ va strategik qarorlar qabul qilishga ham tayyorlaydi.

STEAM ta’limi o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni targ‘ib qiladi: muammoni aniqlashdan boshlab yechim topishgacha bo‘lgan jarayonda talabalar o‘z qarorlarini asoslashni o‘rganadi va tajriba asosida xatolardan saboq oladi. Amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar (tajribalar, loyihalar, prototiplash) nazariy bilimni hayotiy vaziyatlarga qanday tatbiq etishni ko‘rsatadi va bilimlarning chuqurligini oshiradi. Shu bilan birga STEAM kreativlik va tanqidiy fikrlashni birgalikda rivojlantiradi: talabalar yangi g‘oyalarni sinab ko‘radi, ularni tahlil qiladi va yaxshilash yo‘llarini izlaydi. Bularning barchasi esa mehnat bozorida yuqori talabga ega bo‘lgan — muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, texnologik savodxonlik va innovatsion fikrlash — ko‘nikmalarini shakllantiradi, natijada talabalar kelajakda turli sohalarda raqobatbardosh va moslashuvchan mutaxassislar bo‘lib yetishadi.

Xulosa qilib aytganda STEAM ta’limi nafaqat fanlarni integratsiya qilish, balki o‘quvchilarni real hayotga tayyorlash, kreativ fikrlovchi mutaxassislar yetishtirish imkonini beradi. Shu bois, O‘zbekistonda ham ta’lim jarayonida ushbu yondashuvni keng joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Karimov, A. (2021). STEAM ta’lim texnologiyasining o‘quv jarayonidagi ahamiyati. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Raxmatova, D. (2022). Innovatsion ta’lim yondashuvlari va STEAM tizimi. O‘zbekiston pedagogika jurnali, №4, 45–52.

3. Yakubova, N. (2020). Integratsiyalashgan fanlar asosida o‘qitish metodikasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, №2, 63–68.

4. Beers, S. Z. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. National Education Association.

5. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. Virginia Tech University.

MATEMATIKA FANI O‘QUV MASSHG‘ULOTLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH.

Usarova Shohsanam Odil qizi
JDPU Matematika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fani darslarini tashkil etishda integrative yondashuv haqida va integrativ yondashuv yutuq va kamchiliklari ma’lumotlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar*:** Integratsiya, integrativ yondashuv, simulyator va boshqalar.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida innovatsion ta`lim texnologiyalari, interfaol o‘qitish usullari va axborot – kommunikatsion texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Integrativ yondashuv, matematika darslarini turli fan va ko‘nikmalarga bog‘liq mavzularni birlashtirib, o‘quvchilarning matematikadan rivojlanishini oshirishni maqsad qilgan o‘quv uslubi hisoblanadi. Bu uslubda, matematika darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lash va amaliyotga yo‘naltirish orqali o‘quvchilarga matematikaning amaliyotiy asoslarini tushuntirishga harakat qilinadi.

Integrativ yondashuvning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

1. Reallik: O‘quvchilar uchun matematikadan kelib chiqqan muammolar va masalalar real hayot bilan bog‘liqligini ta’minlash maqsadida o‘quvchilarning real hayot bilan bog‘liq muammolar bilan tanishishiga imkon beriladi.

2. Bog‘lanish: Matematika darslarining boshqa fanlar bilan bog‘lanishi, o‘quvchilarning matematikani boshqa sohalarda qanday qo‘llashini tushuntiradi. Misol uchun, fizika, kimyo yoki informatika bilan bog‘lash orqali matematika darslarini amaliyotga yo‘naltirish mumkin.

3. Amaliyot: Integrativ yondashuv matematikaga amaliy yondashuvni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar matematikani amaliyotda qanday qo‘llashlariga doir mashg‘ulotlar orqali matematikani ko‘rgan va uni amaliyotda qo‘llashga o‘rgangan bo‘ladi.

4. Tuzilish: Matematika darslarini tuzilishi, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tuzishga, ta’riflashga va masalalar yechishga yordam beradi. Masalalar tahlil qilish, topshirishlar, loyihalar yaratish va matematikaviy ko‘nikmalar bilan ishlash kabi elementlar matematika darslarini birlashtirish uchun qo‘llaniladi.

5. Kooperativlik: Integrativ yondashuvning boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlik qilishni talab qilishi mumkin. O‘quvchilar guruh halida masalalar yechish, loyihalar yaratish yoki sarmoyalar tashkil qilish orqali bir-biriga yordam berish va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Integrativ yondashuv matematika darslarini amaliyotga yo‘naltirish, o‘quvchilarning matematikani haqiqiy hayotda qanday qo‘llashlariga doir tushunchalarini rivojlantiradi va ularning o‘zlashtirish imkoniyatini oshiradi. Bunday uslub o‘quvchilarning matematikani samarali tarzda o‘rganishini, ulardagi qiziqish va tushunchalarni oshirishini ta’minlaydi.

Ushbu jarayonning jadallashish sabablaridan biri, insoniyatning barcha faoliyat sohalariga kompyuter va axborot texnologiyalarining keng ko‘lamda kirib kelishi bo‘lsa, ikkinchi asosiy sababi, raqobatbardosh yosh mutaxassislarni tayyorlash tizimiga zamonaviy ta`lim texnologiyalari borgan sari kengroq ko‘lamda joriy etilishidir.


Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga o‘ziga xos uslubiy yangiliklar, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol o‘qitish usullaridan foydalaniladi. Interfaol o‘qitish - bu jamoa bo‘lib fikrlash jarayoniga faol pedagogik ta`sir etish usullari bo‘lib, ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Ta’limdagi integratsiya o’quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko’rib chiqiladi. Zamonaviy o’qituvchi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo’lishi, o’z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o’zlashtirishga intilishi, o’quv axborotlarini o’quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko’rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy sub’ektlar, xususan, o’quvchilar tomonidan ham istalgan ma’lumotni ixtiyoriy ravishda o’zi uchun qulay sharoit va turli joydan axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o’zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo’lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o’zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo’lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma’lumotlarning muayyan sohalar bo’yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o’zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Ta’lim tizimida tom ma’noda o’quvchiga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib

bera olishi uchun bugungi kun o’qituvchi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o’quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o’qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishi zaruriyat sifatida bugungi kunda dolzarbligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o’ylab, rejalashtirilib qo’yilishi o’quvchilar uchun qiziq bo’lmayotgandir, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi o’quvchilar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O’quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o’quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o’ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo’lgan munosabatni o’zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo’lar. O’quv mashg‘lotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Matematika darslarini tashkil etishda juda ham ko‘p interaktiv manbalar va simulyatorlar mavjud bo‘lib ulardan biri phet.colorado.com sayti bo‘lib, unda matematika fani darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan juda ham animatsion ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u o‘quvchilarda bo‘layotgan xodisa yoki jaroyonni tasavvur qilishlariga juda ham yordam beradi. Ushbu web sahifada nafaqat matematika fani balki boshqa fanlar bo‘yicha ham kerakli animatsion ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Matematika fani bo‘yicha barcha bo‘limlar uchun tashkil simulyatorlar o‘quvchilarda o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha kerakli tushunchani shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki integrative yondashuv asosida tashkil etilgan har qanday dars mashg‘uloti o‘quvchilarning ushbu fanni o‘rganishlarida eng samarali yo‘l xisoblanadi. Bu esa o‘qituvchilardan o‘z fanlarini mukammal bilish barobarida fan yangiliklari bilan hamohang ishlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1. Andreev A.L. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа педагогика // Педагогика. - М. - 2005. - № 4. -С.19-26.
- 2. Usarov S.A. Raxmonkulov F. P.. “Organization of practical and laboratory activities in the educational process// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 539-547-betlar.
- 3. Usarov S. “ Bo‘lajak matematika fani o‘qituvchilarida mantiqiy savodxonlikni shakllantirish omillari”. 5th - International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education 2022.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATNING O‘RNI

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD),
CHDPU Pedagogika fakulteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi v.b dotsenti
CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili)
yo‘nalishi talabasi
Bo‘lisbekova Nurila Aloubekovna

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid dalillar va ularning nazariy asoslarini keltirgan. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhim ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Urf-odat, ma’naviy boylik, aqlli, iymon-e’tiqodli, ro‘za, poklik, fidoyi, ishchan, milliy, kamolot.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлены аргументы и их теоретические основы относительно воспитания зрелого поколения в духе верности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Говорят, что чрезвычайно важно опираться на наследие предков, особенно в духе национальных и общечеловеческих ценностей, при воспитании молодежи как всесторонне развитой личности.

Ключевые слова: Традиция, духовное богатство, умный, верующий, пост, чистота, преданный, трудолюбивый, национальный, зрелость.

ABSTRACT: In this article, the arguments and their theoretical foundations are presented regarding the upbringing of a mature generation in the spirit of loyalty to our national and universal values. It is said that it is extremely important to rely on the heritage of ancestors, especially in the spirit of national and universal human values, when educating young people as well-rounded people.

Keywords: Tradition, spiritual wealth, intelligence, faith, fasting, purity, devotion, diligence, nationality, perfection.

KIRISH

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” deb nomlangan kitobida “Biz yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”, deb ta’kidlaydi.[1; 23] Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma’naviy narsa yoki hodisa o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy mahsulidir.

Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari majmuidir. [2;32] Qadriyatlar ahloqiy qoida va me’yorlar, g‘oyalar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o‘zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o‘zaro yordam va adolatliligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas’uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo‘ladi. Qadriyat-boshqa bir ta’rifda esa qadriyat bu atrof muhitdagi narsalarni, hodisalarni ularning inson va jamiyat uchun ahamiyatga qarab, ijobiy yoki salbiy deb asosiy yoki ikkinchi darajali deb belgilash natijasida vujudga keladigan tushuncha yoki nuqtai nazarlarda aks etuvchi ob’eklardir, deb belgilangan.

Qadriyat–bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma’naviy boyliklar bo‘lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o‘sishini rag‘batlantirish omilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot bo‘yicha Pedagogika fani sohasida S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Q.Qurbonboyev, J.Toshmatova, Sh.Olimov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga loyiqdir. Ular o‘z ilmiy izlanishlarida yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha qator yutuqlarni qo‘lga kiritganlar.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an’ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo‘ygan. Bu borada O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. [3;64] Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma’naviy qiyofamiz, an’analarimiz va o‘zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi. [4;34] Zero, o‘z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy omil hisoblanadi.

Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta’limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma’naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borish ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. [5;28] Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarning qudratli manbai va azaliy urf-odatlarimizdan biri-oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Kattalarni hurmat qilish, o‘zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g‘amxo‘rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo‘lib kelgan.

Uchinchidan, “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama- qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf- xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda.” [6;32] 1998 yil 2 fevralda Respublika xotin qizlar qo‘mitasi xuzurida “Oila” ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taalluqli milliy an’analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lida katta qadam qo‘yildi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoylashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, komolga etkazish, rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida insonni tarbiyalash, unga ta’lim berish, yuksak qadratli, dunyoqarashi keng qamrovli chuqur, bilimdon hamda sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ayniqsa, dolzarbdir.

Inson-eng oliy qadriyat, Shu bois, millatimizga xos bo‘lgan qadriyatlardan yana biri-bolajonlik, Oilada ko‘p farzandlarni dunyoga keltirish va ularni kamolga etkazish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66- moddasida “Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxurlik qilishga majburdirlar” 4-deyiladi.

[7;34] Shunisi quvonarli-ki, biror-bir xorijiy davlatning Konstitutsiyasida bu kabi modda uchramaydi.

Aytish lozimki, bizning Konstitutsiyamiz nafaqat demokratik tamoyillar, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhi bilan sug‘orilgan. Oila qanchalik qudratga ega bo‘lmasin, u farzand tarbiyasida qo‘ni-qo‘shnilardan iborat bo‘lgan mahalla va tarbiya maskanlarining ko‘magisiz yuqori natijalarga erisha olishi mushkul. Milliy qadriyatlarimizning asosiy xazinaboni-oila deb oladigan bo‘lsak, bu xazinani asl san’at asari darajasiga ko‘taruvchi naqqoshlar mahalla va maktabdir. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi beqiyosdir. “Mahalla-ham ota, ham ona” degan hikmatli naql haqiqat, bejiz aytilmagan.[8;56]Chunki, mahalla haqida gapirganda, ko‘pchilik ana shunday chuqur ma’noli so‘zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy.

Biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti ichki dunyosidagi mustahkam o‘rin olgan, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an’analarimizni, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan olijanob qadriyatlarni, g‘ururimizni ko‘taradigan, xalqimizni obro‘siga obro‘ qo‘shadigan insoniy odat va fazilatlarni saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik sifatida yangi kelajak avlodlarga etkazish zarur.

XULOSA: Bugun yurtimizda qadriyatlarimizni qadrlaydigan, ezgu an’analarga o‘z hayotiy mo‘ljalida muhim omil sifatida munosabatda bo‘ladigan yoshlar ko‘p. Lekin hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarning o‘rnini biroz to‘g‘ri tushunmaydigan yoki o‘zini undan xoli holda ko‘rib milliy madaniyatimizga e’tiborsizroq bo‘lgan yoshlarimiz borligini ham hozircha inkor etolmaymiz.

Barchamiz guvohmiz-bugun dunyo misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan keskin o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e’tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo‘lmaydi.

Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasida quydagilarni taklif qilish mumkin:

1. “Shaxs erkinligi” ga qarshi oila va jamiyat oldidagi yuksak ma’suliyatni shakllantirish;
2. “Egotsentrizm”ga qarshi ota-ona, qarindosh-urug‘larni hurmat qilish, mehr-oqibatni kuchaytirish;
3. Jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma’naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san’atkor, huquqshunos, ta’lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog‘liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish;

REFERENCES

5. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.

6. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G‘G‘ O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.

7. A.Allayarov, G„.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

8. Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g‘urur-ma’naviy komillik mezoni. T, Dizayn-Press 2011.327 b.

9. Xudoyqulov X.J. Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. - 308 b.

10. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003.

11. Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.

12. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.

COMPARATIVE CULTURAL STUDIES IN EFL CLASSROOMS THROUGH LITERARY TEXTS
ADABIY MATNLAR ORQALI INGLIZ TILI O‘RGATILADIGAN SINFLARDA MADANIYATLARARO TAQQOSLAMA TADQIQOTLAR
СРАВНИТЕЛЬНЫЕ КУЛЬТУРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО ЧЕРЕЗ ЛИТЕРАТУРНЫЕ ТЕКСТЫ

Xoliqnazarov Shaxzodbek Shavkatjon o‘g‘li
3rd year student, Chirchik State Pedagogical University
Scientific adviser: Zilola Mahmudova Shukhrat qizi
EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

ANNOTATION: This article explores the integration of comparative cultural studies into English as a Foreign Language (EFL) classrooms through the use of literary texts. The study highlights how literature serves as an effective tool for developing intercultural competence, critical thinking, and communicative skills among learners. By comparing cultural themes and perspectives from different literary traditions, students gain deeper insights into global values and social norms. The paper also discusses practical teaching strategies that promote cultural awareness and empathy in language learning.

Keywords: comparative cultural studies, EFL classrooms, literary texts, intercultural competence, critical thinking, cultural awareness, teaching methodology.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ingliz tili chet tili sifatida o‘qitiladigan auditoriyalarda taqqoslamali madaniy tadqiqotlarni badiiy matnlar orqali joriy etish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda adabiyot til o‘rgatish jarayonida madaniyatlararo kompetensiya, tanqidiy fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatib beriladi. Turli adabiy an’analar o‘rtasidagi madaniy mavzularni taqqoslash orqali talabalar global qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladilar. Shuningdek, maqolada madaniy ong va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy metodlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: taqqoslamali madaniyatshunoslik, EFL darslari, badiiy matnlar, madaniyatlararo kompetensiya, tanqidiy fikrlash, madaniy ong, o‘qitish metodikasi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается внедрение сравнительных культурных исследований в обучение английскому языку как иностранному посредством литературных текстов. Исследование подчеркивает, что литература является эффективным инструментом развития межкультурной компетенции, критического мышления и коммуникативных навыков. Сравнивая культурные темы и перспективы из различных литературных традиций, студенты получают более глубокое понимание глобальных ценностей и социальных норм. Также обсуждаются практические методы преподавания, направленные на развитие культурного сознания и эмпатии в процессе изучения языка.

Ключевые слова: сравнительные культурные исследования, обучение английскому языку, литературные тексты, межкультурная компетенция, критическое мышление, культурное осознание, методика преподавания.

MAIN TEXT**:** In recent years, the importance of cultural awareness in foreign language education has been increasingly emphasized. Language and culture are inseparable, and understanding one without the other limits genuine communication. Comparative cultural studies, when integrated into English as a Foreign Language (EFL) classrooms, allow learners to analyze and reflect on similarities and differences between their own culture and those represented in English literary texts [2; 18]. This approach not only enhances linguistic competence but also fosters global citizenship and empathy.

Literary texts—such as short stories, poems, dramas, and novels—serve as authentic cultural artifacts that reveal the beliefs, values, and traditions of societies. By examining literature from British, American, and other world literatures, students develop an understanding of both target and native cultures [4; 33]. For instance, comparing themes of individual freedom in American literature

with collectivist ideals in Eastern works enables learners to appreciate diverse worldviews while expanding their vocabulary and grammatical knowledge. Integrating comparative cultural studies through literature also supports critical thinking development. When students analyze cultural conflicts or moral dilemmas in texts, they learn to question assumptions, interpret perspectives, and express opinions in English [6; 27]. This pedagogical process aligns with communicative and constructivist approaches, which emphasize active learner participation and contextualized meaning-making rather than rote memorization of language forms [1; 41]. Moreover, literature-based cultural comparison creates opportunities for dialogic learning. Classroom discussions, debates, and role-playing activities based on literary themes encourage learners to use English for authentic communication. Such interactions promote intercultural dialogue, tolerance, and respect for diversity [3; 22]. For example, while reading Chinua Achebe's *Things Fall Apart* alongside George Orwell's *Animal Farm*, students can explore differing perspectives on power, tradition, and resistance, deepening both their linguistic and cultural understanding. Empirical studies confirm that incorporating comparative cultural analysis in EFL instruction enhances students' motivation, interpretive skills, and cross-cultural sensitivity. Research by Kramsch (2013) and Byram (1997) suggests that intercultural competence—defined as the ability to interact effectively with people from different cultures—is most effectively developed through engagement with authentic cultural products, particularly literature [5; 38]. To implement this approach successfully, teachers should select literary texts that reflect diverse cultures and encourage cross-cultural comparisons. Tasks such as thematic analysis, comparative essays, and creative reinterpretations (e.g., rewriting scenes from another cultural perspective) help learners internalize both linguistic and cultural knowledge [8; 14]. Teachers also need to create a supportive classroom environment that values students' cultural identities and encourages respectful discussion. Ultimately, comparative cultural studies through literature transform EFL classrooms into spaces of cultural dialogue and reflection. Students not only learn a language but also learn *through* language — acquiring empathy, tolerance, and global-mindedness. This integration of literature, language, and culture thus represents a holistic and humanistic approach to modern foreign language education.

CONCLUSION

Teaching English through comparative cultural studies using literary texts provides learners with meaningful opportunities to explore global perspectives and linguistic diversity. Literature allows students to experience culture in context, developing both communicative and intercultural competence. By engaging with multiple literary traditions, learners learn to appreciate cultural diversity and use language as a bridge for understanding. Therefore, the use of literary texts for comparative cultural analysis should be considered an essential component of effective EFL pedagogy.

REFERENCES

1. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence.* Multilingual Matters.
2. Carter, R., & Long, M. (1991). *Teaching Literature.* Longman.
3. Collie, J., & Slater, S. (1987). *Literature in the Language Classroom.* Cambridge University Press.
Didaktik maqsad: Iqlim zonalarini farqlashni o‘rganish, inson faoliyatini geografik sharoitga moslashtirishni tushunish va muloqot hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.Tabiiy fanlar integratsiyasi: “Tabiatdagi suv aylanishi” O‘quvchilar bug‘lanish, kondensatsiya, yog‘ingarchilik, daryo, okean, bulut, quyosh kabi rollarni bajaradi. Ular o‘z o‘rnini tushuntirib, aylanishni jonli ko‘rsatadi. Didaktik maqsad: Suv aylanishi jarayonini tushunish, ekologik tafakkurni shakllantirish va guruhda ishlash kompetensiyasini rivojlantirish.

4. “Klaster” texnologiyasi. Geografiya darsida “Vulqon otilishi” mavzusida o‘quvchilar turli rollarni bajaradilar: magma, lava, yer po‘sti, gazlar, aholi va olim kabi. Sahna jarayonida vulkan faollashuvi, otilishi va uning oqibatlari vizual tarzda namoyish etiladi.

5. **Tabiiy fanlar bo‘yicha umumlashtiruvchi sahna: “Ekotizim ishtirokchilari”.** Har bir o‘quvchi o‘simlik, o‘txo‘r, yirtqich, parazit, qush, mikroorganizmlar, suv yoki quyosh nuri kabi rollarni ijro etadi. Sahna jarayonida ekotizimdagi energiya oqimi, modda aylanishi va tabiiy muvozanat harakatlar va dialoglar orqali jonlantiriladi.

Didaktik maqsad: Ekotizim elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, o‘quvchilarda ekologik fikrlash va tizimli yondashuvni rivojlantirish.

6. Loyiha asosida o‘qitish. 9-sinfda “Ekologik muammolar va ularning yechimlari” mavzusida loyiha tayyorlash. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, o‘z hududidagi ekologik muammo va uni hal qilish bo‘yicha loyiha ishlab chiqadilar. Didaktik maqsad: Mustaqil o‘rganish, muammoni aniqlash va yechim ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. Raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish (Quizlet, Kahoot, Moodle va boshqalar).Ingliz tili darsida o‘qituvchi Kahoot platformasi orqali “Vocabulary quiz” o‘tkazadi. Har bir savol uchun raqobat asosida ball beriladi va g‘oliblar belgilanadi. Didaktik maqsad. Bilimlarni qiziqarli va interaktiv shaklda mustahkamlash.

Mazkur metodlar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, muammoni hal etish va samarali kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular zamonaviy darslarni jonlantirib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Innovatsion va an’anaviy usullarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari yuqori ekanligi aniqlangan. Olingan natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

Ushbu metodlar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, muammoni hal etish va samarali kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular zamonaviy darslarni jonlantirib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion va an’anaviy usullarni uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda o‘quvchilarning kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar, jumladan, klaster texnologiyasi, brainstorming, interaktiv muloqot va raqamli platformalar, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, an’anaviy metodlar — ma’ruza, savol-javob, taqdimotlar — nazariy bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlashda o‘zining ahamiyatini saqlab qoladi.

Innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, faolligini kuchaytirish hamda bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, pedagoglarning moslashuvchanligi va metodlarni darsning maqsadiga hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga muvofiq tanlashi ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Barcha kompetensiyalarning kompleks rivojlanishi (bilimiy, ijtimoiy, kommunikativ, amaliy) uchun innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy va amaliy faolligini oshiradi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning individual o‘rganish sur’ati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta’limda differentsial yondashuvni qo‘llash hamda metodlarni bir-birini to‘ldiruvchi tarzda tanlash - o‘qitishning yuqori samaradorligini ta’minlaydi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratib, ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi. Shu bilan birga, an’anaviy metodlar, mustahkamlash va nazorat vositasi sifatida — bilimlar bazasini yaratishda o‘z ahamiyatini saqlaydi.

Shu boisdan, ta’lim jarayonida eng samarali natijalarga erishish uchun innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘un modellarini ishlab chiqish zarur. Bunday modellarning yanada mukammallashuvi va amaliy tajribalarda keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ko‘nikmalarni to‘liq rivojlantirishga yordam beradi.

Kelgusida, ta’limda innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘unlashtirilgan yondashuvini yanada chuqurroq o‘rganish, uning samaradorligini baholash va takomillashtirish zarur. Buning uchun pedagogik amaliyotda bu metodlarni birlashtirgan holda tajriba o‘tkazish va ularni turli o‘quv guruhlari, turli mavzular asosida sinovdan o‘tkazish talab etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va an’anaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, ta’lim tizimining kelajakdagi rivojlanishining muhim asosidir. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning barcha kompetensiyalarini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi, ta’lim sifatini yanada oshiradi va o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘raeva G‘. (2019). *Zamonaviy dars: kompetensiyaviy yondashuv asosida.* Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Abduqodirov A. (2020). *Didaktika: Nazariya va amaliyot.* Toshkent: Fan.
3. Karimova D. (2021). “An’anaviy va zamonaviy ta’lim yondashuvlari”, *Ilm-fan va taraqqiyot*, №4, 33–36.
4. Qodirov S. (2022). “Innovatsion metodlar orqali kompetensiya rivoji”, *Ta’lim va innovatsiyalar,* №3, 45–49.
5. OECD (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030.* Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org
6. UNESCO (2021). *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education.* Paris: UNESCO Publishing.
7. Murodova N. (2022). “Kompetensiyaga asoslangan ta’limda dars metodikasining o‘rni”, *Ta’lim texnologiyalari*, №2, 25–30.
8. Shamsiyev B. (2020). *Interaktiv metodlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
9. Anderson L. W., & Krathwohl D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives.* New York: Longman.
10. Shodmonova M. (2018). “Didaktik yondashuvlar va ta’lim texnologiyalari”, *Pedagogik izlanishlar jurnali,* №1, 12–18.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI PEDAGOGIK KOUCHING VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Akramova Zuxra Botir qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti Tayanch doktoranti,
Telefon: +998(90) 297-80-85
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0320-7766
E-mail: fotimazuxra0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik kouchingning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritilib, kouching metodikasi bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlashga nisbatan motivatsiya, tanqidiy fikrlash va o‘zgarishga tayyorgarlik kabi jihatlarni qamrab olganligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik kouching; o‘qituvchi tayyorlash; kasbiy kompetensiyalar; GROW modeli; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari; refleksiv fikrlash; o‘qituvchi tayyorlashda kouching.

Аннотация: В статье рассматривается роль педагогического коучинга в развитии профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов. Подчёркивается, что методика коучинга охватывает такие аспекты, как мотивация к саморазвитию, критическое мышление и готовность к изменениям у будущих педагогов.

Ключевые слова: педагогический коучинг; подготовка учителей; профессиональные компетенции; модель GROW; будущие учителя начальных классов; рефлексивное мышление; коучинг в подготовке учителей.

Abstract: This article discusses the role of pedagogical coaching in developing the professional competencies of prospective primary school teachers and emphasizes that the coaching methodology encompasses aspects such as motivation for self-improvement, critical thinking, and readiness for change in future teachers.

Keywords: pedagogical coaching, teacher education, professional competencies, GROW model, prospective primary school teachers, reflective thinking, coaching in teacher training.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga yuqori kasbiy kompetensiyalarni egallashni talab qilmoqda. O‘qituvchidan nafaqat an’anaviy bilim va ko‘nikmalar, balki reflektiv fikrlash, kommunikatsion madaniyat, tashabbuskorlik, jamoa bilan ishlash va muammolarni hal qila olish qobiliyatlari talab etilmoqda.

Ushbu ehtiyojlardan kelib chiqib, so‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy amaliyotda pedagogik kouchingga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Kouching — bu o‘qituvchining ichki salohiyatini ochib berish, o‘z ustida ishlashga motivatsiya berish va kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘zaro hamkorlikdagi metodik jarayondan biri sifatida e’tirof etilmoqda (Whitmore, 2009; Parslow & Ray, 2003).

Jumladan, John Whitmore tomonidan ishlab chiqilgan GROW modeli o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini to‘rtta muhim bosqichda tashkil etishni taklif etadi: **Goal** (maqsad), **Reality** (reallik), **Options** (imkoniyatlar) va **Will** (iroda yoki harakat rejasi). Bu model asosida qurilgan kouching metodikasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy o‘sishini strategik rejalashtirish, nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishda an’anaviy yondashuvlar yetarli samara bermayotgani, shu sababli, pedagogik kouching asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hamda amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazishni talab qiladi.

Nazariy asoslar

Pedagogik kouching — bu shaxsning ichki salohiyatini ochishga, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z ustida ishlash va kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik pedagogik hamkorlik jarayonidir (Parslow & Ray, 2003). Bu metodika ko‘proq o‘rgatuvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, fikrlash va harakat qilishga undovchi sifatida faoliyat yuritadigan kouch orqali amalga oshiriladi.

“Coaching a do ya” nomli manbada qayd etilishicha, kouching — bu jarayonga yo‘naltirilgan, ijobiy muhitda bo‘ladigan, har ikki tomonning o‘zaro ishonchiga asoslangan o‘quv modeli bo‘lib, uni an’anaviy pedagogik yondashuvlardan ajratib turadigan jihat aynan o‘quvchining (yoki talabaning) faol ishtirokchi sifatida ko‘rilishidir.

Jahon miqyosida eng samarali kouching modellaridan biri bu **John Whitmore** tomonidan ishlab chiqilgan **GROW modeli** bo‘lib, u to‘rtta asosiy bosqichdan iborat: **Goal** (maqsadni aniqlash), **Reality** (haqiqiy holatni tahlil qilish), **Options** (mumkin bo‘lgan yechimlarni aniqlash) va **Will** (ancha qat’iy va konkret harakat rejasini belgilash) (Whitmore, 2009).

Yechimga yo‘naltirilgan kouching yondashuvi (de Shazer; de Jong & Berg; Greene & Grant) kouching suhbatini natijaga yo‘naltirilgan, ixcham va vaqt samarador shaklda tashkil etishni taklif etadi. Pemberton (2006) bu yondashuvni **STARTED** karkasi (Set up, Tangibles, Assumptions, Reality Bites, Targeting, Emergent Solutions, Delivery) orqali amaliylashtiradi; har bir bosqich “fikr/harakat” hamda “qo‘llab-quvvatlash/chaqiriq” tenglamasidagi aniq rolga ega. Shu tariqa GROW (Goal-Reality-Options-Will) qaror tuzilmasi STARTED bilan integratsiyalanib, suhbatning **mazmun** (yechimni topish) va **jarayon** (muvozanatli yordam va chaqiriq) sifatlarini birlashtiradi (Pemberton, 2006).

Ushbu model asosida olib boriladigan pedagogik kouching bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, kommunikatsiya, refleksiya, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal qilish kabi yumshoq kompetensiyalarni shakllantirishda kouching yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi (Nurimbekova, 2022).

Boshqa tadqiqotlar, jumladan, “Amplifying teachers’ voices…” nomli maqolada ham kouching jarayonining o‘qituvchilar motivatsiyasi va reflektiv fikrlash qobiliyatini oshirishdagi samarali jihatlari aniqlangan. Maqolada ko‘rsatilishicha, samarali kouching jarayoni o‘qituvchilarni o‘z pedagogik amaliyotlarini mustaqil tahlil qilishga undaydi, bu esa ularda metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kouching o‘qituvchining o‘z ishiga nisbatan ongli yondashuvi, innovatsion fikrlashi, mas’uliyat hissi va kasbiy o‘sishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi (Dubinenkova, 2020; Coaching in Diversity, 2018).

Shu boisdan, pedagogik kouching nafaqat o‘quv jarayonida, balki o‘qituvchini tayyorlashda ham muhim metodik yondashuv sifatida qaralmoqda. Bu model yordamida talabaning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual yondashuvlar orqali samaradorlikka erishish mumkin.

1. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida kouching yondashuvi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda samarali metodik vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik kouching an’anaviy ustozlik va mentorlikka nisbatan ko‘proq o‘qituvchining ichki salohiyatini ochish, o‘z-o‘zini anglash va reflektiv tahlil asosida rivojlanishiga yo‘naltirilgan murabbiylik jarayoni hisoblanadi (Parslow & Ray, 2003; Maksimov, 2004).

Ushbu yondashuvning nazariy asoslarini John Whitmore tomonidan ishlab chiqilgan **GROW modeli** tashkil etadi. Mazkur model (Goal – maqsad, Reality – real holat, Options – imkoniyatlar, Will – iroda/harakat rejasini belgilash) pedagogik amaliyotda aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasini taqdim etadi (Whitmore, 2009). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, GROW modeli orqali o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirishi, muammolarni tahlil qilishi va shaxsiy rivojlanishga qadam qo‘yishi mumkin (Nurimbekova, 2020).

Bundan tashqari, bir qancha tadqiqotlarda pedagogik kouchingning amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Masalan, **Dubinenkova (2021)** kouchingning o‘qituvchilarda ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishdagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. **“Amplifying teachers’ voices in the coaching partnership: An inductive exploration of teacher motivation and perceived learning” (2022)** maqolasida esa kouching jarayoni o‘qituvchilarning motivatsiyasi va reflektiv fikrlash salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Bu esa metakognitiv kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Nurimbekova (2022) ham o‘z tadqiqotida pedagogik kouching boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kommunikatsiya, refleksiya, sinfni boshqarish kabi soft skills (yumshoq ko‘nikmalar) rivojlanishiga olib kelishini kuzatgan. Bu holat o‘qituvchining o‘z ustida ishlash motivatsiyasi va kasbiy refleksiyasini kuchaytiradi.

Shuningdek, **Zubova va Parkhomenko (2020)**, **Parslo & Ray (2003)** kabi tadqiqotchilar kouchingni pedagogik texnologiya sifatida baholab, uning yordamida o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash madaniyati, muloqot strategiyasi va konstruktiv baholash kompetensiyalari shakllanishini ta’kidlaydilar.

Ko‘rilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik kouching o‘qituvchi tayyorlash jarayonida innovatsion va samarali yondashuv bo‘lib, u boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada keltirilgan metodika – GROW modeliga asoslangan pedagogik kouching – zamonaviy o‘qituvchi tayyorlashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot **amaliy-tajribaviy xarakterga ega bo‘lib**, unda pedagogik kouching asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqiladi va amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini **konstruktiv yondashuv**, **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi** hamda **kouching metodologiyasi** tashkil etadi (Whitmore, 2009; Parslow & Ray, 2003; Dubinenkova, 2020).

Kouching metodikasi **John Whitmore tomonidan ishlab chiqilgan GROW modeli** asosida quriladi. Metodik jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Goal (Maqsad)**: Har bir talaba bilan individual suhbat o‘tkazilib, ularning qisqa va uzoq muddatli kasbiy maqsadlari aniqlashtiriladi.
2. **Reality (Reallik)**: Talabalarning mavjud kompetensiyalari diagnostika qilinadi — o‘zini baholash varaqalari, savolnomalar va reflektiv yozuvlar yordamida.
3. **Options (Imkoniyatlar)**: Talabalarning rivojlanishi uchun mavjud strategiyalar, metodik vositalar va o‘quv faoliyatidagi variantlar ishlab chiqiladi. Shu bosqichda mini-loyihalar, amaliy topshiriqlar va kichik guruhlar faoliyati tashkil etiladi.
4. **Will (Iroda va reja)**: Har bir talaba uchun yakka tartibdagi rivojlanish rejasi ishlab chiqilib, haftalik monitoring va refleksiya asosida nazorat qilinadi.

Ma’lumot yig‘ish vositalari sifatida quyidagilar tanlanadi:

- **Kompetensiyalar diagnostikasi testi** (o‘zlashtirish, refleksiya, muammoli vaziyatlar bilan ishlash),
- **Reflektiv kundaliklar**,
- **Audio yozuvlar** (kouching sessiyalaridan),
- **So‘rovnomalar va o‘zini baholash shakllari**.

Tahlil usuli sifatida sifatli kontent-tahlil va deskriptiv statistikalar asosida ishtirokchilarning kouchinggacha va undan keyingi kompetensiya darajalari solishtiriladi. Shuningdek, talabalarning yozma va og‘zaki mulohazalari ham tahlil qilinib, kouching jarayoni ta’sirining subyektiv bahosi aniqlashtiriladi.

2. Muhokama

Tadqiqot davomida maxsus ishlab chiqilgan diagnostik so‘rovnoma asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari baholanadi. So‘rovnoma quyidagi bloklardan iborat bo‘ladi:

- umumiy ma’lumotlar (yosh, jins, amaliyot tajribasi),
- pedagogik kouching haqidagi bilim darajasi,

• kasbiy kompetensiyalarni 5 ballik tizimda o‘z-o‘zini baholash,
• kouchingning amaliy foydasi haqidagi subyektiv fikrlar,
• kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ehtiyojlar va takliflar.

Masalan, so‘rovnomadagi 7-savolda ishtirokchilardan quyidagi ko‘nikmalarni baholash so‘ralgan:

T/r 7. Ko‘nikma/Sifatlar (1– juda past; 5 – juda yuqori):
• Darsni interfaol metodlar asosida rejalashtirish
• Sinfni boshqarish va ijobiy muhit yaratish
• O‘z darsini tahlil qilish va refleksiya yuritish
• O‘z-o‘zini baholash va rivojlantirish

Sessiyalar **mikro-kouching** formatida o‘tkazildi (5–10 daqiqa, ko‘pincha darsdan keyin yoki koridorda). Har uchrashuvdan **bitta aniq harakat** chiqishi shart (“Bugundan boshlab qanday **bitta narsani** boshqacha qilasiz?”). Harakat hajmi va ishonch darajasi **1–10 shkalada** aniqlanib, “Nimani qilsak bu ishonch 1 punktga oshadi?” kabi savollar bilan qo‘llab-quvvatlandi. Suhbatlar **o‘z vaqtida** va norasmiy o‘tkazilgani talaba qayta-qayta yordam izlash ehtiyojini kamaytiradi.

STARTED bo‘yicha namunaviy savollar (chek-list sifatida):

- *Set up:* “Bugun suhbatdan qanday natija kutyapsiz?”
- *Tangibles:* “Vaziyat sizning ko‘zingiz bilan qanday?”
- *Assumptions:* “Bu yerda qaysi taxminlaringiz ishni toraytirayotgan bo‘lishi mumkin?”
- *Reality Bites:* “Muammo qachon **bo‘lmaydi**? Qaysi holatlarda yengillashadi?”
- *Targeting:* “Siz uchun hozir eng mos va **real** maqsad nima?”
- *Emergent Solutions:* “Oldingi tajribangizdan qaysi kuchli tomonlarni bu yerda ishga sola olasiz?”
- *Delivery:* “1 hafta ichida qilinadigan eng kichik qadam?” — “Ishonchingiz necha ball?” — “+1 ball uchun nima qo‘shamiz?”

3. Natijalar

Kouching dasturi asosida o‘tkazilgan tajriba natijalari talabalarning kasbiy kompetensiyalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Tadqiqotning boshlanishida ishtirokchilarning ko‘pchiligida (87%) refleksiya, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, dars jarayonini rejalashtirishda tizimlilik kabi kompetensiyalarda past yoki o‘rta daraja qayd etiladi. Dastur yakunida esa talabalarning 73% ida bu kompetensiyalar yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

Norasmiy va **fokuslangan** suhbatlar (ko‘pincha **bir martalik**) talabada **insayt** uyg‘otadi; aynan shu ichki ko‘rish o‘zgarishi xatti-harakatni o‘zgartirishga olib keladi. Natijada “yordamga qayta kelish” soni kamayadi, chunki talaba kerakli e’tiborni **o‘z vaqtida** oladi

Quyida GROW modelining har bir bosqichi asosida kuzatilgan o‘zgarishlar ko‘rsatiladi:

1. Goal **bosqichi (Maqsadni belgilash)**

Talabalar dastlab o‘zlarining kasbiy yo‘nalishlari haqida yetarli darajada aniq tasavvurga ega emas edilar. Kouching orqali ular real va qisqa muddatli maqsadlar (masalan, “dars ishlanmalarni mustaqil tuzish”, “sinf muhitini boshqarish”) bilan uzoq muddatli maqsadlar (“yuqori sinflarda ishlashga tayyorlik”, “o‘z metodikasini ishlab chiqish”)ni farqlashni o‘rgandilar.

2. Reality **bosqichi (Haqiqiy holatni baholash)**

Reflektiv kundaliklar va o‘zini baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar ko‘pchilik kasbiy ko‘nikmalarini nazariy jihatdan bilsalar-da, amaliyotda qo‘llashda muammolarga duch kelishgan. Bu bosqichda ular real vaziyatlarni tan olish, xatolarini ochiq baholash va konstruktiv mulohaza yuritishni o‘rgandilar.

3. Options **bosqichi (Imkoniyatlarni aniqlash)**

Bu bosqichda talabalar mustaqil o‘qish, jamoa bilan ishlash, loyiha metodidan foydalanish, resurslarni to‘g‘ri boshqarish, metodik topshiriqlarni modellashtirish kabi yangi strategiyalarni kashf etdilar. Ayniqsa, “kouching juftligi” (co-coaching) metodikasi orqali ular o‘zaro fikr almashish va tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

4. Will **bosqichi (Iroda va reja)**

Talabalar individual rivojlanish rejasini tuzib, uni aniq bosqichlarga bo‘ldilar. Monitoring natijalari asosida ko‘rsatadiki, ushbu rejalarning 85% talabalarning o‘z tashabbusi bilan doimiy yangilanib borgan. Bu esa ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchayganini ko‘rsatadi.

Kouchingdan keyingi yakuniy baholash anketasi va yozma refleksiyalar shuni ko‘rsatdiki:

- Talabalar o‘zlarini “o‘qituvchi sifatida his qilishlari” kuchaygan;
- Kasbiy xavotir darajasi kamaygan;
- Kommunikatsion kompetensiya va liderlik elementlari (ayniqsa guruh ishida) aniq shakllangan;
- O‘z-o‘zini rivojlantirishga ehtiyoj ortgan.

Kouching dasturidan so‘ng talabalar o‘zlarida qanday o‘zgarish bo‘lganini quyidagi tarzda bildirganlar:

Ishtirokchi №12 (so‘rovnoma, 16-savoldan):

“Ilgari o‘z ustimda ishlashni qiyin deb o‘ylardim. Kouching sessiyalaridan so‘ng o‘z salohiyatimni angladim va darslarni baholashga o‘zim intiladigan bo‘ldim”.

Ishtirokchi №4 (savol 14):

“Agar yana imkon bo‘lsa, bunday sessiyalarda yana qatnashardim. Bu meni mustaqil fikrlashga o‘rgatdi”.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, kompetensiyalarni umumiy baholashda dastlabki diagnostik testda ishtirokchilar o‘rtacha 56% natija ko‘rsatgan bo‘lsa, kouching dasturi yakunida bu ko‘rsatkich 82% ga ko‘tarilgan. Bu esa metodikaning samarali ekanini ko‘rsatadi. 1-jadvalda ko‘rsatilganidek, kouchingdan oldingi va keyingi baholarda sezilarli farq kuzatildi.

Jadval 1. Kompetensiyalar bo‘yicha kouchingdan oldin va keyingi baholar

Kompetensiya	Dastlabki baho (%)	Kouchingdan keyingi baho (%)
Refleksiya	53	81
Muammoli vaziyatda qaror	49	79
Liderlik	56	84
O‘zini baholash	51	86
Kommunikatsiya	61	85

Bu natijalar GROW modeli asosida tashkil etilgan kouching jarayoni ishtirokchilarning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, reflektiv tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish va kommunikatsion ko‘nikmalarda aniq ijobiy siljishlar kuzatildi.

Tadqiqot davomida to‘plangan **sifatli ma’lumotlar (kundaliklar, intervyular, mulohazalar)** GROW modeliga asoslangan kouching yondashuvi talabalarning kasbiy ongini faollashtirganini va ular orasida o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirganini isbotlaydi.

4. Xulosa va bibliografiya (References)

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik kouching metodikasi, xususan GROW modeliga asoslangan yondashuv, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Pedagogik amaliyotda **internal coaching** mexanizmini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi: amaliyot rahbarlari va metodistlar darsdan keyingi **7–10 daqiqalik** “STARTED cheklovli” suhbatlarni yo‘lga qo‘yadi; haftalik **co-coaching** juftliklari bilan qo‘llab-quvvatlanadi; har bir suhbat **“bitta narsa boshqacha”** tamoyili bilan yakunlanadi. Tadqiqot davomida talabalar quyidagi metakognitiv va reflektiv ko‘nikmalarni egallashga muvaffaq bo‘ldilar:

- maqsadni belgilash va uni strategik rejalashtirish (Goal),
- o‘zining real kasbiy holatini baholash (Reality),
- imkoniyatlarni tahlil qilish va tanlash (Options),
- irodaviy qaror va aniq harakat rejasini ishlab chiqish (Will).

Kouching yondashuvi talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy refleksiya yuritish, jamoa bilan ishlash va kommunikatsiya yuritish ko‘nikmalarini kuchaytirgan. Shuningdek,

talabalarda o‘z ustida ishlash motivatsiyasi ortib, o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan ichki ishonch mustahkamlangan.

Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi **amaliy tavsiyalar**ni berish mumkin:

1. Pedagogik ta’lim muassasalarida kouching yondashuvi asosida maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi lozim.
2. Talabalar o‘rtasida o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil harakat rejalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.
3. GROW modeliga asoslangan metodikani pedagogik amaliyotga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, hamda bu jarayonni muntazam monitoring qilish tavsiya etiladi.
4. Co-coaching (juft kouching) yondashuvini joriy etish orqali talabalar o‘rtasida o‘zaro tahlil va fikr almashish madaniyatini shakllantirish mumkin.
5. Digital refleksiya vositalaridan (masalan, video yozuvlar, raqamli kunliklar, onlayn mulohazalar) foydalanish orqali kouching samaradorligini yanada oshirish mumkin.
6. Kelgusidagi tadqiqotlarda ishtirokchilar sonini oshirish, turli hududlar va OTMlar miqyosida tadqiqotni takrorlash tavsiya etiladi.

Tadqiqot cheklovlari sifatida namunaviy tanlovning nisbatan kichikligi, monitoring muddasi qisqaligi, hamda ayrim ishtirokchilarda kouchingga doir boshlang‘ich tushunchalarning pastligi qayd etilishi mumkin. Agar suhbat faqat “quvvatlantirish”ga qursa — yoqimli, lekin natijasiz; faqat “chaqiriq” bo‘lsa — coachee o‘zini bosim ostida his qiladi. Kouching roli mentorlik va nazoratdan farqlanishi, mas’uliyatning **coachee**da qolishi kerak. Shu bois, kelgusida uzoq muddatli, maktab amaliyoti bilan integratsiyalashgan kouching dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

5. Whitmore, J. (2009). Coaching for performance: The principles and practice of coaching and leadership (4th ed.). Nicholas Brealey Publishing.
6. Parslow, E., & Ray, M. (2003). Coaching in education: Practical methods and techniques. Piter.
7. Dubinenkova, E. N. (2020). Коучи, играйте с коучи! Методология коучинговой игры. Monografiya.
8. Nurimbekova, S. A. (2022). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
9. Yorks, L., Marsick, V. J., & Kasl, E. (2014). Amplifying teachers’ voices in the coaching partnership: An inductive exploration of teacher motivation and perceived learning. Teaching and Teacher Education, 37, 99–107. https://doi.org/10.1016/j.tate.2013.10.013
10. Pemberton, C. (2006). Coaching to solutions: A manager’s toolkit for performance delivery. Butterworth-Heinemann.
11. Maksimov, V. E. (2004). Kouching ot A do Ya. Vozmozhno vsyo. Rech
12. Parsloe, E., & Leedham, M. (2009). Coaching and mentoring: Practical conversations to improve learning. Kogan Page.
13. Zakirova, D. A. (2021). Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. O‘zbekiston pedagogik jurnali, 1(2), 45–51.
14. Hasanova, M. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida zamonaviy texnologiyalar. Ta’lim va Rivojlanish, 3(1), 33–39.
15. Yusupova, N. T. (2019). Refleksiya o‘qituvchilar malakasini oshirishda muhim omil sifatida. Innovatsion Pedagogika, 2(4), 18–22.
16. Sayidova, G. M. (2021). Kouching metodlarining talaba-o‘qituvchi munosabatlariga ta’siri. Pedagogika va Psixologiya, 5(3), 64–69.
17. Kurbanova, L. (2022). Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kouching tajribalari. Xalqaro ta’lim jurnali, 7(2), 41–46.
18. Ganieva, D. N. (2020). Kouching va mentorlikning solishtirma tahlili. Ta’lim Innovatsiyalari, 4(1), 28–34.

19. Sharipova, Z. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi: nazariy asoslar. Ilm-fan va Zamonaviy Jamiyat, 6(1), 51–56.
20. Karimova, F. (2022). GROW modeli asosida kouching metodikasi. Yangi Pedagogik Tadqiqotlar, 1(3), 12–18.
21. Abdullaeva, M. (2021). O‘qituvchilarda reflektiv fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Zamonaviy Pedagogika, 9(1), 23–27.
22. Jo‘raeva, S. T. (2020). Coaching texnologiyasi o‘qituvchilarning kommunikativ malakasini rivojlantirishda. O‘zbekiston Ta’lim Forumi, 4(2), 36–40.
23. Qodirov, A. (2019). Oliy ta’limda kouching yondashuvining o‘rni. Ilmiy-amaliy pedagogika, 2(2), 14–19.
24. Umarova, L. N. (2020). Kouching metodikasining psixologik asoslari. Psixologiya va Ta’lim, 3(1), 11–17.
25. Rustamov, N. (2022). O‘qituvchilar tayyorlashda samarali kouching modellari. Ta’lim Strategiyasi, 5(2), 58–62.
26. Ismoilova, D. (2021). Kompetensiyaviy yondashuvda kouchingning ahamiyati. Yangi Ta’lim G‘oyalari, 6(3), 43–47.

USING VALIDITY IN TEACHING ENGLISH IN EFL CLASSES

Xaitova Gulhayo Tovasharovna
Termiz davlat poedagogika institute o‘qituvchisi
+998978101227
E-mail: xaitovagulhayo@gamil.com

Abstract. Validity — broadly understood as the degree to which inferences drawn from assessment results are appropriate and useful — is a cornerstone of effective language teaching. This paper examines how deliberate attention to different types of validity (content, construct, criterion-related, and consequences validity) can improve teaching practice in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. Using a mixed-methods classroom action research design, the study implemented a validity-focused assessment cycle across three intermediate-level EFL classes. The study implemented a validity-focused assessment cycle across three intermediate-level EFL classes for eight weeks. Classroom observations and teacher reflections showed positive influence on alignment, task authenticity and student engagement.

Keywords: validity, assessment, EFL, classroom action research, test alignment, content validity

Annotatsiya. Validlik — baholash natijalari asosida chiqariladigan xulosalarning to‘g‘riligi va foydaliligini anglatadigan tushuncha bo‘lib samarali til o‘qitishning asosiy tayanchidir. Ushbu maqola validlikning turli turlari ya’ni mazmuniy, konstrukt, mezonli va oqibatlar validligiga ongli e’tibor qaratish va EFL (English as a Foreign Language) sinflaridagi o‘qitish amaliyotini qanday yaxshilashi mumkinligini o‘rganadi. Tadqiqotda aralash usullarga tayangan sinfiy amaliyot qo‘llanildi. Uchta o‘rta darajadagi EFL guruhlari asosida sakkiz haftalik validlikka yo‘naltirilgan baholash sikli joriy qilindi. Kuzatishlar va o‘qituvchi refleksiyalari shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv o‘quv maqsadlari hamda baholash o‘rtasidagi uyg‘unlikka, topshiriqlarning haqiqiylik darajasiga va o‘quvchilarning ishtirokiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: validlik, baholash, EFL, sinfiy amaliy tadqiqot, test uyg‘unligi, mazmuniy validlik

Аннотация. Валидность — это понятие, обозначающее корректность и полезность выводов, сделанных на основе результатов оценивания, и является основным опорным принципом эффективного обучения языку. Данная статья изучает, как осозренное внимание к различным типам валидности — содержательной, конструктной, критериально-обусловленной и валидности последствий — может улучшить практику преподавания в классах. В исследовании применялся смешанный метод (mixed-methods) в формате классного action research. На основе трех групп среднего уровня EFL был введен восьминедельный

цикл оценивания, ориентированный на валидность. Наблюдения в классе и рефлексии преподавателей показали, что такой подход положительно влияет на согласованность учебных целей и оценивания, на аутентичность заданий и на вовлечённость учащихся.

Ключевые слова: валидность, оценивание, EFL, согласование тестов, содержательная валидность.

Introduction

Assessment is not merely the measurement of what learners know; it shapes what teachers teach and learners learn. In EFL contexts, where resources and formal testing pressures often collide, decisions about what to assess and how to interpret results carry significant pedagogical consequences. The central argument of this paper is that teaching becomes more effective when validity considerations move from being an afterthought to an integral part of curriculum design, daily instruction, and assessment practice.

Validity in language assessment is multi-faceted[4:154]. Content validity concerns whether test content samples the targeted domain; construct validity asks whether the test actually measures the underlying ability (e.g., speaking proficiency, communicative competence); criterion-related validity examines how well test scores relate to other measures or external criteria; and consequences validity attends to the effects of assessment on teaching and learning. Each dimension has direct implications for classroom practice: content validity affects syllabus and item design; construct validity informs task formats and scoring; criterion-related validity guides benchmarks and placement decisions; consequences validity makes us consider washback and fairness.

Despite its importance, validity is often invoked only in high-stakes testing literature. This paper brings validity into the everyday work of EFL teachers by reporting a classroom-level initiative that integrated validity-focused procedures into assessment cycles and by discussing outcomes and practical lessons.

Methods

A mixed-methods classroom action research design was adopted to allow both measurement of learning gains and exploration of teacher/student perceptions[3:12]. The action research cycle included planning, action (implementation), observation, and reflection. Participants were three EFL teachers and their three intermediate-level classes at a mid-sized language institute. Teachers had 3–12 years of EFL teaching experience and were willing to engage in collaborative test design and reflection. The instructional period for the intervention lasted eight weeks during a regular semester.

Four main instruments/procedures were used:

Assessment blueprint and test: A teacher-developed 40-item mixed-skills test (listening, reading, writing task, speaking task checklist) was blueprinted to the syllabus and targeted CEFR-aligned descriptor statements for intermediate learners. Blueprints and tasks were reviewed for *content validity* by two external colleagues and piloted with a small group before use[2:95].

Pre- and post-test: The same test format (with different items sampling the same blueprint) was administered before and after the eight-week cycle. Tests were scored according to rubrics developed with analytic criteria to support *construct-valid* interpretation. Short Likert-scale questionnaires and open reflections collected from learners focused on perceived task authenticity, fairness, and usefulness of feedback [1:114].

In the planning stage teachers mapped learning objectives to test blueprints and redesigned some class activities to better align with assessment tasks (e.g., more integrated speaking-writing tasks). During implementation, teachers used the blueprinted tasks as frequent formative checks and provided criterion-referenced feedback using rubrics. After eight weeks, the post-test and qualitative instruments were administered. Quantitative data were analyzed descriptively; qualitative data were analyzed thematically.

Pre/post test scores were summarized using means and standard deviations to show direction and magnitude of change. Questionnaire data were summarized with percentages and illustrative learner quotes. Teacher interview transcripts were coded inductively to identify recurring themes related to validity implementation[3:11].

RESULTS

Teachers reported clearer alignment between objectives and assessment, and students reported that assessment tasks were more authentic, fair and useful for learning.

Three main themes emerged from teacher interviews and learner reflections:

Alignment improved teaching clarity. Teachers reported that constructing a blueprint forced them to make the syllabus and learning targets more explicit. One teacher observed: “When I wrote down what the test would sample, I realized I had to show students how to practice those exact skills.”

Task authenticity raised motivation and perceived usefulness. Many learners commented that integrated tasks, like listening-recorded monologue followed by a short writing response, felt more like real communicative use of English and hence more motivating. On the questionnaire, 78% of learners agreed or strongly agreed that assessment tasks were representative of classroom goals.

Workload and item development remain challenges. Teachers noted that creating quality items and rubrics that genuinely tapped the intended constructs required time and collaborative effort. Some scoring tasks (especially speaking) demanded calibration and peer moderation.

DISCUSSION

The results support the argument that foregrounding validity in routine assessment practices can improve both learning outcomes and perceptions of instructional relevance. The pre/post descriptive gains, combined with positive learner perceptions, indicate that when assessment design, instruction, and feedback are aligned, learners benefit. Teachers can use simple blueprints that link learning objectives with item/task types; this clarifies what will be taught and assessed. Focus on task authenticity. Incorporating integrated, real-world tasks enhances construct validity for communicative competence and improves student engagement. Rubrics make scoring transparent, support construct-valid interpretation, and provide actionable feedback for learners. Combine test scores, classroom observations, and learner reflections to make stronger validity arguments for classroom decisions[2:112].

This study used a small convenience sample and a short intervention period; findings are therefore tentative and context-bound. The quantitative analysis was descriptive rather than inferential, so causal claims should be limited. Longer-term, larger-scale studies using randomized designs or matched comparison groups would strengthen claims about the causal impact of validity-focused interventions. Research could also examine how different facets of validity (e.g., consequences vs. construct) relate to learning trajectories across proficiency levels.

In conclusion, validity is not an abstract technicality reserved for standardized test developers; it is a practical, teachable set of concerns with direct implications for day-to-day EFL teaching. When teachers intentionally design assessments that are aligned with learning goals, sample the target domain, use tasks that reflect the construct, and monitor the consequences of assessment, teaching becomes clearer and more effective. The modest but meaningful improvements reported here suggest that bringing validity into the classroom is both feasible and beneficial.

REFERENCES

1. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (2010). *Language assessment in practice: Developing language assessments and justifying their use in the real world.* Oxford University Press.

2. Brown, H. D., & Abeywickrama, P. (2018). *Language assessment: Principles and classroom practices* (3rd ed.). Pearson.

3. Messick, S. (1989). Validity. In R. L. Linn (Ed.), *Educational measurement* (3rd ed., pp. 13–103). American Council on Education/Macmillan.

4. FORMATIVE AND SUMMATIVE ASSESSMENT IN EDUCATION. (2024). *International Conference on Multidisciplinary Science, 2*(12), 55-57. https://mjstjournal.com/index.php/icms/article/view/2259

TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

X.Umarova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, p.f.f.d., (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini baholashning zamonaviy mezonlari va asosiy ko‘rsatkichlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Boshqaruv tizimining samaradorligini aniqlashda strategik rejalashtirish, pedagogik kadrlar salohiyati, ta’lim jarayonini tashkil etish sifati, moddiy-texnika bazasidan foydalanish darajasi, moliyaviy menejment va monitoring natijalari kabi yo‘nalishlar kompleks tarzda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tashkiloti, boshqaruv samaradorligi, baholash mezonlari, ko‘rsatkichlar, ta’lim sifatini boshqarish, strategik menejment, innovatsion faollik, pedagogik kadrlar salohiyati, ichki nazorat, monitoring va baholash.

Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan yangilanishlar ta’lim tashkilotlarida boshqaruv tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Davlat ta’lim standartlari, xalqaro talablar va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan islohotlar sharoitida boshqaruv samaradorligini aniq baholash mexanizmlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Samarali boshqaruv ta’lim sifati, pedagogik kadrlar salohiyati, o‘quv jarayonining natijaviyligi va ta’lim tashkiloti faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois, ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim vazifa hisoblanadi.

Samaradorlikni baholashning mezonlari sifatida tashkilot faoliyatining natijaviyligi, resurslilik, innovatsion faollik, rahbarlik kompetensiyalari va ichki nazorat tizimi ijrosi asosiy omillar sifatida belgilash zarur. Shuningdek, baholash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda milliy va xalqaro tajribalarni taqqoslash, ta’lim muassasalarida boshqaruv sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligi – bu rahbar va boshqaruv mexanizmining ta’lim jarayonini maqsadli, tizimli va natijaviy tashkil etish qobiliyati bilan belgilanadigan kompleks kategoriyadir. Samaradorlik tushunchasi bir nechta mezonlar asosida baholanadi, jumladan:



1-rasm. Samaradorlik tushunchasining mezonlar asosida baholanishi

Boshqaruv samaradorligini baholashning nazariy asoslari menejment nazariyasi, pedagogik menejment, sifatni boshqarish tizimlari (TQM, EFQM), strategik menejment va pedagogik diagnostika konsepsiyalariga asoslanadi.

Ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini aniqlashda quyidagi mezonlar asosiy hisoblanadi:

1. Strategik rejalashtirish va tahlil mezonlari:
- Tashkilot missiyasi va strategik maqsadlarining aniqligi;
- Strategik rejalarni amalga oshirish dinamikasi;
- Ichki va tashqi muhit tahlilining tizimliligi.

Bu mezon ta’lim tashkilotining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi qay darajada samarali boshqarilayotganini ko‘rsatadi.

2. Tashkiliy-boshqaruv mezonlari:
- Boshqaruv tuzilmasi rejalashtirilganligi va optimalligi;
- Kadrlar o‘rtasida vazifalar taqsimotining aniqligi;
- Hujjat aylanishi va ish yuritish tartibining samaradorligi;
- Boshqaruv qarorlarining tezkor va aniq qabul qilinishi.

Tashkiliy mezonlar rahbarlik kompetensiyalarini baholashda ham muhim ahamiyatga ega.

3. Pedagogik kadrlar salohiyatini baholash mezonlari:
- Pedagoglarning malaka darajasi;
- Inovatsion metodlardan foydalanish ko‘lami;
- Pedagoglarning malaka oshirish faolligi;
- Ilmiy-metodik faoliyat samaradorligi.

Pedagogik kadrlar salohiyati – ta’limning sifatiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omil.

4. Ta’lim jarayonini tashkil etish sifatiga oid mezonlar:
- O‘quv reja va dasturlarining bajarilishi;
- O‘quv-metodik ta’minotning yetarliligi;
- Dars jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- Ta’lim sifati monitoringining yo‘lga qo‘yilganligi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish, ya’ni bu yo‘nalish ta’lim sifatiga doir asosiy mezonlardan hisoblanadi.

5. Moddiy-texnika baza va infratuzilmadan foydalanish mezonlari:
- Laboratoriya va kompyuter sinflarining holati;
- Internet va axborot texnologiyalardan foydalanish darajasi;
- Infratuzilmaning xavfsizligi va qulayligi;
- Resurslarni tejamkor boshqarish.

6. Moliyaviy menejment mezonlari:
- Moliyaviy resurslarni rejalashtirish va taqsimlash;
- Byudjetdan maqsadli foydalanish;
- Iqtisodiy tahlil va xisobot yuritish;
- Qo‘shimcha mablag‘lar jalb etish (grant, loyiha, hamkorlik).

7. Ichki nazorat va monitoring mezonlari:
- Ta’lim sifati bo‘yicha muntazam monitoring tizimining mavjudligi;
- Ichki audit va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari;
- Natijalarni tahlil qilish va korrektiv choralar ko‘rish.

Samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlari (indikatorlar) ta’lim tashkiloti faoliyatini raqamli va sifat jihatdan aniqlash imkonini beradi. Asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1-jadal.

Samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Natijaviylik ko‘rsatkichlari	**Kadrlar faolligi ko‘rsatkichlari**	**Boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari**	**Infratuzilma ko‘rsatkichlari**	**Moliyaviy ko‘rsatkichlar**
O‘quvchilarning akademik natijalari; Bitiruvchilarning bandlik darajasi; Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilinish ko‘rsatkichi; Olimpiada va tanlovlarda qatnashish natijalari.	Malaka oshirish kurslariga qatnashgan o‘qituvchilar ulushi; Ilmiy ishlar, innovatsion loyihalar soni; O‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan metodik mahsulotlar soni.	Qabul qilingan qarorlarning amalga oshish darajasi; Tashkilotdagi mehnat muhiti va qoniqish indeksi; Hujjat aylanishining avtomatlashtirilganligi.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bilan ta’minlanganlik darajasi; Jihozlardan foydalanish koeffitsienti; Infratuzilma yangilanishi dinamikasi.	Byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi; Iqtisodiy tejamkorlik darajasi; Qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish ko‘lami.

Amaliy natijalarni baholashni taxlil qilganimizda quyidagi natijalarga kelib chiqdi.

Milliy darajada OTMlar soni 2017-2025 yillarda 72 tadan 219 tagacha → 304% o‘sgan bo‘lsa, talabalar qamrovi 2017 yilda 8,3% → 2025 yilda 47,7% oshgan va QS va THE xalqaro reytinglarida qatnashuvchi OTMlar soni 2018 yilda 0 ta → 2025 yilda 23 tanitashkil etgan.

Pilot universitetlarda, masalan: O‘zMU, TDYuU, TATUlarida boshqaruvda KPI tizimi joriy etildi (2023-2024), LMS orqali 100% reyting hisob-kitoblari avtomatlashtirildi, raqamli hujjat aylanmasi 80–95% gacha qamrab oldi, OTM moliyaviy xarajatlarni 12–15%ga optimallashtirdi.

Shuningdek, milliy va xalqaro tajriba tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, boshqaruv samaradorligini baholashda xalqaro ta’lim tizimida quyidagi yondashuvlar keng qo‘llanadi:

- OECD Education Indicators;
- EFQM Excellence Model;
- ISO 21001:2018 (Education organizations management systems);
- TQM – Total Quality Management.

Ular asosida milliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan indikatorlarni takomillashtirish va raqamli monitoring tizimini joriy etish mumkin.

Taxlillardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. Institutsional darajada:

Har bir OTM o‘zining strategik rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishi;

Metodik qo‘mita va boshqaruv innovatsiyalari markazini tashkil etish;

Boshqaruvda KPI va OKR tizimlarini birlashtirib, yillik baholash jarayonini avtomatlashtirish.

2. Milliy darajada:

Oliy ta’lim boshqaruvining milliy modeli (UzEduGov 2.0)ni ishlab chiqish;

OTMlarning raqobatbardoshligini baholash indeksi (universitet reytinglari)ni yaratish;

Boshqaruv kadrlari uchun davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash.

3. Xalqaro integratsiya:

Xalqaro boshqaruv standartlarini (ISO 21001, EFQM) tatbiq etish;

Chet ellik ekspertlar va OTMlar bilan boshqaruv tajribasini almashish.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini baholash kompleks yondashuvni talab qiladi.

2. Mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimida strategik, tashkiliy, pedagogik, infratuzilmaviy va moliyaviy komponentlar birlashishi zarur.

3. Samaradorlik indikatorlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish kelajakda samaradorlikni oshiradi.

4. Pedagogik kadrlar salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirish – boshqaruv samaradorligining asosiy omili.

5. Xalqaro standartlardan foydalangan holda milliy baholash tizimini takomillashtirish ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy boshqaruv – bu natijadorlik, shaffoflik va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan boshqaruv tizimidir. U an’anaviy vertikal boshqaruvdan farqli ravishda, ishtirokchining fikrini inobatga oladi, raqamli texnologiyalarga tayanadi va strategik qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgandir.

O‘zbekistonda oliy ta’limini tubdan yangilash, global talablarga moslashtirish va xalqaro reytinglarda yuksalish uchun boshqaruv tizimini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

o‘z o‘quvchilarini ma’nan yuksaltirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yoshlarning qiziqishlarini inobatga olish eng muxim omillardan biri xisoblanadi. Misol uchun tafakkurning eng qiziq, ajablanarli va murakkab tomoni shundan iboratki, inson bilgan, eshitgan, ko‘rgan narsalarini va ularning xossalarini ular yo‘q paytda ham bemalol o‘z ongida aks ettiradi va tariflab bera oladi. Deylik, o‘quvchi er globusini o‘rganib chiqqan bo‘lsa tog‘lar, daryolar, saxrolar, okeanlar, qittalar, davlatlarning nomi va joylashuvini globusga qaramasdan ham aytib berish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday imkoniyatni o‘quvchilarda yaratish o‘z – o‘zidan amalga oshadigan jarayon emas, balki, o‘qituvchining tinimsiz mexnati, tajribasi, pedagogik maxorati va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi yotadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning tafakkurinii shakllantrishda o‘qituvchi quyidagilarga e’tbor qaratsa maqsadga muoffiq bo‘ladi. Bular:

- ta’lim mazmunini hayotiy misollar bilan boitish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda yosh davrlar xussusiyatlariga e’tibor berish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda idrok qila oldirish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda analiz, sintez, xulosaga katta e’tibor berish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda zamonaviy axborot va telekommunikatsion vositalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda axborotni tushunib, uni kabul kilishlariga e’tibor qaratish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda va teskari aloqani o‘rnatishda obrazli qilib gaprib berish san’atini shakllantirish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda va teskari aloqa jarayonlarida ro‘y bergan hodisalarni formulalar va statistik xisob kitoblar vositasida isbot qilish va unga o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda va teskari aloqa jarayonlarida fikrni tartibga solishga e’tibor berish»
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda irodani chiniqtirish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda diqqatni taqsimlay olish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda o‘quvchilar diqqatini to‘lay olish, yo‘naltirish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda ichki yoki tashqi nutq vositasidga e’tibor qaratish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda muammoli ta’limdan kenng foydalana olish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda qo‘yilgan masalaga limiy nuqtai nazardan qarashga o‘rgatish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga fikr doimo bir narsa xususida va uning bir nechta echimiga qaratilishi kerakligiga e’tibor qaratish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda aniqlik va yo‘naltirilgan g‘oyaning mavjudligiga o‘rgatish;
- ta’lim mazmunini o‘quvchilarga etkazishda masala echimining shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilishga odatlantirishga o‘rgatish muxim axamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘qituvchilar doimiy ravishda o‘z ustilarida ishlab, o‘quvchilarning tafakkurini ishakllantirishga harakat qiladi va uning natijasida o‘quvchilarda:

- ko‘rgazmali-harakat tafakkuri;
- ko‘rgazmali obrazli tafakkuri;
- mantqiy (mavxum) tafakkuri;
- reproduktiv tafakkuri;
- produktiv (ijodiy) tafakkurlar shakllanadi.

Ko‘rgazmali - harakat tafakkuri – insonning mavjud predmetlar bilan ish qilayoggan paytdagi fikrlash jarayonini o‘z ichiga qamrab oladi.

Ko‘rgazmali obrazli tafakkur - ko‘rgan kechirgan narsalar va hodisalar aniq obrazlar yordamida ko‘z oldimizda gavdalanadi va ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettiriladi

Mantiqiy tafakkur — bu mavhum tafakkur bo‘lib, so‘zlar, so‘zda ifodalangan bilim, g‘oya va tushunchalar yordamida bevosita idrok doirasida bo‘lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlardir.

Reproduktiv tafakkur — ko‘rgan - bilgan narsalarni aynan qanday bo‘lsa, shundayligicha fikrda bayon etish.

Produktiv (ijodiy tafakkur) — fikrlash elementlariga yangilik, ijodiy yondoshuvning amalga oshirilishi maqsad qilinadi va amalga oshiriladi.

Ta’lim – tarbiya jarayonlarida shakllantirilgan tafakkur ertangi kunda yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga boshqarishga, jamiyatning faol a’zosi sifatida faoliyat yuritishga, ota – ona va yaqinlariga nisbatan o‘z burchini his qilishga, Vatan oldidagi farzandlik burchiga ongli yondoshuvini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J. Hasanboev, X. To‘raqulov va boshq. Pedagogika fanidan izoxli lug‘at. T:, 2009y., - 288 b.
2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. T:, 2009y. - 231,676 b.

O‘ZBEKISTONDA 1991–2016-YILLARDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Ollayorov Ulug‘bek Abdusattor o‘g‘li
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi bosh mutaxassisi
tel 99-454-59-19
Email; ollayorovulugbek27@gmail.com
ORCID. 0009-0005-8215-7064

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 1991–2016-yillar davomida ommaviy axborot vositalari (OAV) sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy asoslari tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida OAVning jamiyatdagi roli, axborot erkinligi, matbuot va nashriyot tizimining rivojlanishi, elektron va raqamli axborot vositalarining shakllanish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari OAVning mustaqil faoliyat yuritishiga, so‘z erkinligi va fuqarolik jamiyati tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot vositalari, mustaqillik, so‘z erkinligi, axborot siyosati, matbuot, islohotlar, qonunchilik, demokratiya.

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, проведенные в Республике Узбекистан в сфере средств массовой информации (СМИ) в 1991-2016 годах, их правовые, организационные и социальные основы. Освещены роль СМИ в обществе в годы независимости, свобода информации, развитие печати и издательской системы, процессы формирования электронных и цифровых средств массовой информации. Результаты исследования показывают, что это способствовало независимому функционированию СМИ, формированию принципов свободы слова и гражданского общества.

Ключевые слова: СМИ, независимость, свобода слова, информационная политика, пресса, реформы, законодательство, демократия.

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in the field of mass media in the Republic of Uzbekistan during 1991-2016, their legal, organizational, and social foundations. During the years of independence, the role of the media in society, freedom of information, the development of the press and publishing system, and the processes of formation of electronic and digital media are highlighted. The results of the study show that it contributed to the independent functioning of the media, the formation of the principles of freedom of speech and civil society.

Keywords: Mass media, independence, freedom of speech, information policy, press, reforms, legislation, democracy.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida 1991-yilda davlat mustaqilligiga erishilishi bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ommaviy axborot vositalari tizimida ham tub o‘zgarishlar

boshlandi. Mustaqillikdan avvalgi davrda OAV asosan mafkuraviy nazorat ostida faoliyat yuritgan bo‘lsa, yangi siyosiy davrda ularning erkin va mustaqil ishlashi uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi[59].

OAV jamiyatni axborot bilan ta’minlash, fuqarolik ongini shakllantirish, davlat siyosatini yoritish va jamoatchilik fikrini ifoda etish vositasi sifatida demokratik jarayonlarning ajralmas qismiga aylandi[60]. Shu jihatdan 1991–2016-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekistonning axborot siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston OAV tizimi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 1990-yillarning boshidan boshlab matbuot erkinligini ta’minlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 1997-yil “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun[61], 2002-yil “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun[62], 2007-yil “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun[63] va boshqa me’yoriy hujjatlar sohaning rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Birinchi prezident Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili[64] asosida OAV faoliyatida ochiqlik, fuqarolik nazorati va so‘z erkinligining kengayishi kuzatildi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod – OAV sohasidagi huquqiy islohotlar tarixiy ketma-ketlikda o‘rganildi;

Qiyosiy tahlil – turli yillardagi qonunlar va ularning natijalari solishtirildi;

Kontent tahlili – matbuot, televideniye va internet nashrlarining mazmuni tahlil qilindi;

Umumlashtirish – OAV islohotlarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati bo‘yicha xulosalar chiqarildi.

Natijalar va muhokama

1991–2016-yillar mobaynida O‘zbekiston OAV tizimi rivojlanishida bir necha muhim bosqichlar kuzatildi:

1. Huquqiy asoslar yaratildi. 1997-yil “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun OAV faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatini belgiladi[3]. Shu bilan birga, 2002-yildan boshlab senzura bekor qilindi va tahririyatlarning mustaqilligi ta’minlandi[4].
2. Axborot infratuzilmasi kengaydi. Mustaqillik yillarida davlat televideniyesi bilan bir qatorda xususiy telekanallar, axborot agentliklari, internet nashrlar paydo bo‘ldi. 2005-yildan boshlab internet-axborot tarmoqlari faol rivojlanib, onlayn jurnalistika yo‘nalishi shakllandi[7].
3. So‘z erkinligi va jamoatchilik nazorati kuchaydi. Matbuot orqali davlat organlari faoliyati yoritilib, fuqarolar va tashkilotlarning axborot olish huquqi mustahkamlandi[8].
4. Kasbiy tayyorgarlik tizimi takomillashdi. Jurnalistika sohasida yangi o‘quv dasturlari joriy qilinib, axborot etikasi, mediamadaniyat va mediaxavfsizlik kabi yo‘nalishlar rivojlandi[9].

Natijada O‘zbekiston OAV tizimi milliy manfaatlarga asoslangan, xalqaro standartlarga mos, demokratik axborot makoniga aylandi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida 1991–2016-yillarda amalga oshirilgan islohotlar ommaviy axborot vositalarining huquqiy, tashkiliy va ma’naviy jihatdan mustaqil tizim sifatida shakllanishiga xizmat qildi. Ushbu davrda so‘z erkinligi, axborot siyosatining ochiqligi va jurnalistlarning huquqiy

---

[59] Karimov I.A. *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. — Toshkent: O‘zbekiston, 1997

[60] Toshmatov Sh., Qodirova M. *Ommaviy axborot vositalari va jamiyat.* — Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

[61] O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 1997.

[62] O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2002.

[63] O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2007.

[64] Karimov I.A. *Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari.* — Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

himoyasi ta’minlandi. Kelgusida OAVni raqamlashtirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyatining axborot madaniyatini oshirish sohada asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va snoskalar

1. Karimov I.A. *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* — Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

2. Toshmatov Sh., Qodirova M. *Ommaviy axborot vositalari va jamiyat.* — Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 1997.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2002.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2007.

6. Karimov I.A. *Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari.* — Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

7. www.press-service.uz – Prezident matbuot xizmati rasmiy axborotlari.

8. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.

9. O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti o‘quv dasturlari. — Toshkent, 2015.

THEMES OF LOVE AND DEATH IN ENGLISH BALLADS

G‘oziyeva Nodirakhon
Chirchik State Pedagogkal University 3 year student of the Faculty of Tourism Foreign Language and Literature
goziyevanodira57@gmail.com
Scientific adviser: Umarova Dilafruz EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University Dilafruzumarova91@gmail.com

Abstract: This article explores the intertwined themes of love and death in traditional English ballads, two of the most powerful emotions that shape human experience and poetic imagination. Ballads such as Barbara Allen, Lord Randall, and The Unquiet Grave reveal how love often leads to sorrow, loss, or tragedy. Through simple yet emotional language, repetition, and strong imagery, these ballads express the intensity of human feelings and the inevitability of death. The study also shows how these themes reflect the values, beliefs, and emotional depth of medieval and early modern English society. Ultimately, the paper highlights that in English ballads, love and death are not opposites but closely linked forces that define the beauty and sadness of life.

Keywords: *English ballads, love, death, tragedy, romance, sorrow, folk literature, emotion, medieval poetry, human experience.*

English ballads are among the oldest and most expressive forms of English folk literature. They were passed down orally from generation to generation and often tell stories of human emotions, particularly love and death, which are the two most recurring and deeply connected themes. These ballads reflect the feelings, beliefs, and values of common people in the past, showing how they understood life, fate, and relationships.

Love is one of the most dominant themes in English ballads. It is portrayed in many forms—romantic, faithful, tragic, and sometimes forbidden. The lovers in ballads often face difficulties such as family opposition, social class differences, betrayal, or fate. Despite these obstacles, their love remains strong and sincere.

In Barbara Allan, love becomes a source of both joy and sorrow. Sir John dies of a broken heart because Barbara rejects him, and later she also dies from grief and guilt. In Lord Thomas and Fair Annet, love leads to tragedy when jealousy and misunderstanding result in the deaths of the lovers. In such stories, love is powerful but often doomed, showing that human emotions can be both beautiful and destructive. The lovers’ devotion, even in suffering, makes their stories memorable and emotional.

Death is another central theme in English ballads. It often comes as a result of love, revenge, war, jealousy, or fate. Death is not only the end of life but also a way to express eternal loyalty and the idea that love can survive beyond the grave.

A good example is The Unquiet Grave, where a woman mourns her dead lover for twelve months and a day. Her endless grief disturbs his rest, showing that death cannot easily separate true lovers. Similarly, in Edward, Edward, death is linked to guilt and moral punishment after a tragic act.

In many ballads, death also carries a sense of mystery and supernatural presence, suggesting that the boundary between life and death is thin. The dead often appear in dreams, speak to the living, or return as ghosts, reflecting old folk beliefs about the afterlife.

Love and death are often intertwined in English ballads. When love is strong and pure, it frequently leads to death—either as a sacrifice or as the result of fate. This combination creates deep emotional contrast: the tenderness of love and the finality of death.The deaths of lovers symbolize eternal unity, as they can finally be together in death if not in life. Such stories touch listeners' hearts and express the universal truth that love and death are inseparable parts of human existence.

The themes of love and death in English ballads give them their emotional power and timeless appeal. Through these stories, we see how people in the past viewed love as both a blessing and a curse, and how death could bring both tragedy and peace. These ballads continue to move modern readers because they deal with emotions that are still deeply human and universal.

LIST OF USED LITERATURE

1. Bronson, Bertrand H. The Traditional Tunes of the Child Ballads. Princeton University Press, 1959.
2. Child, Francis James. The English and Scottish Popular Ballads. 5 vols. Houghton Mifflin, 1882–1898.
3. Henderson, T. F. The Ballad in Literature. Cambridge University Press, 1912.
4. Atkinson, David. The English Traditional Ballad: Theory, Method and Practice. Ashgate, 2002.
5. Buchan, David. The Ballad and the Folk. Routledge, 1972.
6. Cheesman, Tom. "Love and Death in the Traditional Ballads." Folklore, vol.
7. Simpson, Jacqueline, and Steve Roud. A Dictionary of English Folklore. Oxford University Press, 2000.
8. Lloyd, A. L. Folk Song in England. Faber & Faber, 1967.
9. Rosenberg, Bruce A. The Language of the Ballad: A Stylistic Study. Garland Publishing, 1975.

YOSHLARNI ILMGA VA ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALTIRISH

Karshieva Dilbar Eshpulatovna.
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD), CHDPU Pedagogika fakulteti
"Umumiy pedagogika" kafedrasi v.b dotsenti CHDPU Turizm fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalari
Toyirov Alibek Hamdam o'g'li, Xamidullayeva Gavhar Bakitjan qizi
Djumamuratova Feruza Xojamuratovna,
Usmonov Ozodbek Ulug'bek o'g'li
Hasanova Mahliyo Rajabboy qizi
Email: d.karshiyeva1986@gmail.com
Тел: +998 88 249 08 86

ANNOTATSIYA: Maqolada jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichida professional ta'lim tizimida yoshlarni mehnat bozori ehtiyojlari asosida zamonaviy va sifatli kasbga o'qitish shakllari. Har qanday kasb egasi o'z sohasini to'g'ri tanlay olishi uchun qanday kasbiy va shaxsiy talabalarni bilishi lozimligi masalasi keng tarzda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, faoliyat, kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasbiy moslashish, ta’lim, ta’limdagi texnologiyalar.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются формы обучения молодежи современным и качественным профессиям с учетом потребностей рынка труда в системе профессионального образования на современном этапе развития нашего общества. Вопрос о том, какими профессиональными и личностными качествами должен обладать любой специалист, чтобы правильно выбрать сферу своей деятельности, широко анализируется.

Ключевые слова: студент, деятельность, профессиональное образование, профессиональное консультирование, профессиональный отбор, профессиональная адаптация, образование, технологии в образовании.

ABSTRACT: The article discusses the forms of training young people in modern and high-quality professions in the vocational education system based on the needs of the labor market at the current stage of development of our society. The issue of what professional and personal students should know in order for any professional to choose their field correctly is analyzed in detail.

Keywords: student, activity, vocational education, vocational counseling, vocational selection, vocational adaptation, education, technologies in education.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh kasb egalarini shakllantirish lozim. O‘quvchi-yoshlarlarni kasbiy faoliyatga to‘g‘ri yo‘naltirish va ta’lim samaradorligini oshirishda yuqori natijalarni beradigan uslublardan foydalanish muhim omillardan hisoblanadi. Yosh mutaxassislarga pedagogik-psixologik bilimlar, uslubiy ko‘rsatmalar berish bilan birgalikda, jamiyatda mavjud bo‘lgan turli kasblar haqida ham keng qamrovli bilimlar berish maqsadga muvofiqdir. [1]

Yoshlarni kelajakda mutaxassis sifatida o‘zlarini teranroq tasavvur qilishlari va egallayotgan kasbiga xos-mos sifatlarni shakllantirishda pedagoglar va amaliyotchi psixologlarning o‘rni kattadir. Yoshlarga ertangi kunda o‘z faoliyatlaridan qoniqish hissini paydo qilishlari hamda o‘z hayotlaridan mamnun yashashlari bugungi kundagi kasbni to‘g‘ri tanlay olishlariga bog‘liqligini anglata olishlari lozim. Shundagina har bir inson har tomonlama sifatli hayot kechirishi va mavjud to‘siqlarni osonlikcha yengib o‘tishi mumkin bo‘ladi. Natijada sohaning rivoji ancha tezlashadi. Bu esa jamiyat ravnaqidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot bo‘yicha Qodirov B.R., Qodirov K.B. S.N.Zlobina va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga loyiqdir. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishda har tomonlama qo‘llab - quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko‘nikmalarini ham shakllantirib borish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik o‘quvchilarda tanlagan kasbiga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: [2]

- O‘quv materiallarini, umuman ta’limni hayot bilan bog‘lash.
- Ma’lumotlarni o‘zlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish.
- O‘tgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobiy zamin hozirlash.
- Istiqbol rejani muvofiqlashtirish va yosh bosqichining yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish.
- O‘quv-uslubiy qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari o‘rtasidagi uzviylikni yo‘qotish.
- Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi bo‘lib, ishdagi muvaffaqiyatlar o‘ziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Shu boisdan ham har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni o‘qitish sifatini tubdan yaxshilashga, ularning barcha zarur qobiliyatlarini shakllantirishga, muammoni hal qilish uchun mavjud bo‘lgan barcha raqamli vositalar, materiallar va xizmatlardan faol (ongli va ijodiy) foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. [3]

Kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1) Ta’lim - tarbiya tizimida kasbga yo‘llash faoliyatining mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.

2) O‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatishda o‘qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.

3) Sinf rahbarining ota - onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi.

4) Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.

5) Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko‘rsatilishi.

6) Maktablarda, ishlab chiqarish tashkilotlarida kasb tanlashni ommaviy va keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi.

7) Maxsus muassasalar faoliyati.

8) Kasbga oid ko‘rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.

9) Ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi.

10) Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.

11) Mutaxassis psixologlar tomonidan kasbiy bilimlarning o‘quvchilarga doimiy tarzda berilishi va ular bilan individual ishlash.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash lozim bo‘ladi. Buning uchun oilada farzandnlarni tug‘ilgan onlaridanoq uning o‘ziga xos individualligini, layoqati va qobiliyatlarini o‘rganish talab etiladi. [4]

Bu ishda ota-onalar ko‘magidan foydalaniladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassisi yordamida bolaning rivojlanayotgan qobiliyati aniqlanadi. Boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlarini to‘g‘ri tashxislanib, kasbga yo‘naltirish ishlariga asos solinadi. Yoshlarning kasb-hunar tanlashi esa asosan o‘rta maktabdan boshlanadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yosh va turli jinsdagi maktab o‘quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o‘zini-o‘zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabda olib borilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samarasi bevosita kasb - hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis va psixolog mutaxassisning olib borayotgan ishlari ko‘lami, saviyasi va malaka ko‘rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasbhunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rgatilishi, to‘garak va qo‘shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko‘rgazmalari tashkil qilishlari zarur bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlarni kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual

- tipologik xususiyatlari va his - tuyg‘ularini, layoqat, qobiliyatlarini hisobga olish va psixologik savodxonligini oshirish, ularning kasbhunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo‘yiladigan psixografik, professiogrammali talablarga moslashishga imkon beradi. Yoshlarni o‘z vaqtida individualligi asosida to‘g‘ri kasb tanlashlari ta’minlansa, ularda hayotning mazmuni anglanadi va sohaning bardavomligi asoslanadi. Bu esa hayotning sifatini oshirib, jamiyatimizning ertangi kuniga ishonch tuyg‘usini shakllantiradi. Yoshlarimizni kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlanib yashashlari uchun bugundanoq har birimiz o‘z salohiyatimizdan kelib chiqib to‘g‘ri yo‘naltirishimiz lozim, zero ular tanlagan yo‘lining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishsin va o‘z hayotlaridan mamnun bo‘lishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma.T.2003 yil.

2. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarova Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424.O‘zbekiston

3.Проектирование воспитателного пространства современного вуза средствами ИКТ-технологий: монография / Е.В.Елисеева, С.Н.Злобина, Л.А.Зятева, Г.С.Исакова, И.И.Киютина. - Брянск: РИО БГУ, ООО «Новый проект», 2018. - 180 с.

4.F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi. Darslik. T. 2018. 176 b.

BOSHLANG‘ICH SINFDA “ONA TILI” O‘QUV FANLARIDA O‘QUVCHILAR KOMMUNIKATIV NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS’ COMMUNICATIVE SPEECH IN THE SUBJECT OF ‘MOTHER TONGUE’ IN PRIMARY SCHOOL

Sabirova Charosxon Atamamatovna
Urganch innovatsion universiteti dotsenti
charossabirova85@gmail.com
Bekberganova Nazokat Oybek qizi
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi
bekberganovanazokat8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” o‘quv fani orqali o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni, balki o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maqolada kommunikativ kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda boshlang‘ich ta’lim bosqichida unga erishishning metodik asoslari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Xususan, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘yinli mashg‘ulotlar va xalq og‘zaki ijodi asosida tashkil etilgan topshiriqlarning samaradorligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq malakasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini aniq ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar tahlil qilinadi. Natijada, maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-metodik tavsiyalarni taqdim etadi.

Annotation: This article analyzes modern approaches to developing students’ communicative speech through the subject “Mother Tongue” in primary school. In today’s context of globalization, the educational process emphasizes not only the acquisition of theoretical knowledge but also the cultivation of students’ communication culture. Therefore, the article scientifically examines the concept of communicative competence, its components, and the methodological foundations for achieving it at the primary education stage. In particular, the effectiveness of interactive methods, information and communication technologies, play-based

activities, and tasks based on oral folklore is highlighted. The study explores approaches that contribute to the development of students' oral and written speech skills, independent thinking, and the ability to express their ideas clearly. As a result, the article provides scientific and methodological recommendations of both theoretical and practical significance for primary school teachers.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, nutqiy rivojlanish, ona tili ta’limi, boshlang‘ich ta’lim metodikasi, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, og‘zaki nutq, yozma nutq, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati

Keywords: communicative competence, speech development, mother tongue education, primary education methodology, interactive methods, information and communication technologies, oral speech, written speech, independent thinking, communication culture

Kirish. Hozirgi davrda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan bir qatorda ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta’minlash, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini mustahkamlash, muloqot madaniyatini shakllantirish ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki mazkur bosqichda berilgan bilim va malakalar keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchining muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik usullar ona tili darslarining samaradorligini oshirishda alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilarni erkin fikrlashga, o‘z mulohazalarini og‘zaki va yozma shaklda izchil bayon etishga yo‘naltirish ularning mustaqil tafakkurini rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga zamin yaratadi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi, badiiy asarlar va turli didaktik materiallardan foydalanish o‘quvchilarda til boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, boshlang‘ich ta’limda “Ona tili” fanida o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash ilmiy-metodik jihatdan dolzarb bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot muammosi. Boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirish jarayoni mavjud metodikalar asosida olib borilayotgan bo‘lsa-da, ularning zamonaviy ta’lim talablari va xalqaro standartlarga to‘liq mosligi ta’minlanmagan. Amaliyotda ko‘plab o‘qituvchilar an’anaviy yondashuvlardan foydalanish bilan cheklanmoqda, bu esa o‘quvchilarning erkin fikrlash, muloqotga kirisha olish, og‘zaki va yozma nutqni samarali rivojlantirish ko‘nikmalarida cheklanishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, dars jarayonida qo‘llanilayotgan metodik vositalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va psixolingvistik rivojlanish bosqichlarini to‘liq inobatga olmaydi. Natijada o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda uzilishlar yuzaga kelmoqda.

Demak, tadqiqotning muammosi shundan iboratki, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishga oid samarali, innovatsion va integrativ yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari to‘liq asoslanmagan.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularda mustaqil fikrlash, kreativ tafakkur va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirish masalasi bugungi kunda juda dolzarbdir. Chunki til – shaxsning tafakkurini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarda faol qatnashish va madaniy merosni o‘zlashtirishning eng muhim vositasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida ta’kidlangan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”[3] va Xalq ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ona tili ta’limi orqali

o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik jihatdan yetuk, ijodkor va erkin fikrlovchi shaxs bo‘lib shakllanishi zarurligi qayd etilgan. Bu esa boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchilar oldiga yangicha metodik yondashuvlarni qo‘llash vazifasini qo‘yadi.

Amaldagi o‘quv dasturlari va darsliklarda o‘quvchilarning o‘qish, yozish va nutqiy malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar mavjud bo‘lsa-da, kommunikativ kompetensiyani chuqur shakllantirish uchun yetarli darajada tizimli va interfaol yondashuvlar ishlab chiqilmagan. O‘quvchilar ko‘pincha matnni mexanik tarzda o‘qish, yod olish bilan cheklanadilar, biroq mazmunni tahlil qilish, o‘z fikrini asoslab bayon etish, turli nutqiy vaziyatlarda erkin muloqotga kirishish ko‘nikmalarida muammolar kuzatiladi. Bu holat xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA tadqiqotlari natijalarida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda [7].

Bugungi kunda nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya faqat filologik bilim emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar – interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari, dramatizatsiya, rol o‘yinlari, klaster va loyihaviy topshiriqlardan foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat – milliy qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib, o‘quvchilarning nutqiy va ma’naviy rivojlanishini uyg‘unlashtirishdir. Ertaklar, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda nafaqat so‘z boyligini kengaytiradi, balki ularni milliy g‘oyaga sodiq, estetik didi rivojlangan shaxs sifatida shakllantiradi. Shunday qilib, tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirish bo‘yicha yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud o‘quv materiallarini zamonaviy texnologiyalar asosida boyitish va ularni amaliyotga joriy etish zaruriyati dolzarb ehtiyoj sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi va amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi. Natijalarda, avvalo, an’anaviy dars metodlariga qo‘shimcha ravishda interfaol usullarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Xususan, “fikrlar almashinuvi”, “klaster”, “rol o‘yinlari” kabi metodlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon qilish, suhbatlarda faol ishtirok etish va muloqotda mustaqillikni namoyon eta boshladilar.

Tajriba jarayonida milliy folklor namunalari – ertaklar, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, nutqiy izchillikni ta’minlash va obrazli ifodalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, audio va video materiallardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirdi, ularni tinglab tushunish, qayta hikoya qilish va o‘z fikrini baholash faoliyatiga jalb etdi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ nutqni rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuv o‘quvchilarning o‘qib tushunish, fikrni asoslash va muloqot madaniyatini egallash darajasini oshirdi. O‘quvchilar matnni nafaqat o‘qish, balki tahlil qilish, undagi g‘oyalarni hayotiy misollar bilan bog‘lash, ijodiy xulosalar chiqarishga ham odatlandilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy metodlar va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan “Ona tili” mashg‘ulotlari o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirish, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun samarali ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirish muammosi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, uni samarali hal etish uchun yangi metodik yondashuvlarni joriy etish zarur. Olingan ilmiy-amaliy xulosalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

Birinchidan, “Ona tili” darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun an’anaviy mashg‘ulotlarga qo‘shimcha tarzda **interfaol metodlardan** keng foydalanish maqsadga

muvofiqdir. Xususan, “Rol o‘yinlari”, “Munozara”, “Debat”, “Savol-javob aylanmasi” kabi usullar[5] o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, **milliy folklor namunalari** – ertak, maqol, matal, hikmatli so‘zlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning lug‘at boyligini kengaytirib, ularning nutqiy ifodalanish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan dars jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiya qilish metodikasi keng yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Uchinchidan, zamonaviy ta’lim jarayonida **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** (AKT) imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur. Audio, video materiallar, interaktiv dasturlar, elektron kitob va platformalar orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish, qayta hikoya qilish, muloqotga kirishish kabi ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchilarning **metodik tayyorgarligini oshirish** ham dolzarb vazifalardan biridir. Chunki o‘qituvchi zamonaviy metodlarni puxta egallagan taqdirdagina o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga erisha oladi. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish kurslarida interfaol metodika, kommunikativ yondashuv va raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha maxsus modullar joriy etilishi lozim.

Beshinchidan, kommunikativ nutqni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning **ijodiy va tanqidiy tafakkurini rag‘batlantirish** muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda kichik ijodiy topshiriqlar, matn asosida mustaqil hikoya tuzish, o‘z fikrini baholash va dalillash kabi mashg‘ulotlarni dars jarayoniga muntazam kiritish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Ona tili” fanida kommunikativ nutqni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar, milliy qadriyatlar va zamonaviy AKT vositalarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning muloqot madaniyati, nutqiy kompetensiyasi va ijodiy tafakkuri sezilarli darajada rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodni intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimova, K. (2016). *Ona tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Zunnunov, A., Hamidov, H. (2018). *Boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish metodlari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). *Ta’lim to‘g‘risida Qonun*. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2019). *Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent.
5. Hasanboeva, O. (2021). Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, №2, 45–52.
6. UNESCO. (2021). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO Publishing.
7. OECD. (2022). *PISA 2022 Results: Reading, Mathematics and Science Performance*. Paris: OECD Publishing.
8. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. Cummins, J. (2000). *Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire*. Clevedon: Multilingual Matters.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI

Ahmedova Zuhraxon Mamurovna
University of business and science
Oliy ta’lim muassasasi magistranti
Telefon.(998946427949)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda tarbiyachi faoliyatini zamonaviy talablarga mos tashkil etishda STEAM ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. STEAM yondashuvi orqali bolalarda ijodiy, mantiqiy va muhandislik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: STEAM, ta’lim texnologiyasi, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, innovatsiya, Ijodkorlik, *tashxislash, aqliy rivojlanish ko‘nikma, tayyorgarlik,*

Kirish.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmonda ta’lim sifatini yanada oshirish, yosh avlodni raqamli tafakkur va ilmiy izlanish ruhida tarbiyalash zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Hususan maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalarini qo‘llash ana shu vazifalarni amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston — maktabgacha ta’limdan boshlanadi” g‘oyasi maktabgacha ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yasamoqda. Xususan, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon, hamda 2017-yil 30-sentabrdagi PQ–3305-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarda bolalarning erta yoshdan ilmiy-texnik fikrlashini shakllantirish, raqamli va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. Sababli bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar faoliyatni STEAM ga bog‘lab o‘tishlari va STEAM nimaligini bilishlari kerak. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta’lim texnologiyasi — bu bolalarda ilmiy, texnik va badiiy fikrlashni uyg‘unlashtirgan holda rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik tizimdir. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish, tajriba o‘tkazish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yechim topishga o‘rgatadi. Tarbiyachi bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Tarbiyachining STEAM faoliyatini tashkil etishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: - bolalarda qiziqish uyg‘otish; - tajriba va amaliy faoliyatni tashkil etish; - kichik loyiha ishlarini yo‘lga qo‘yish; - bolalarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash; - natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish. Masalan, “Kichik muhandislar” loyihasi orqali bolalar LEGO to‘plamlari yordamida inshootlar quradi, “Ranglar kimyosi” tajribasida suv va bo‘yoqlarning o‘zgarishini o‘rganadi, “Texnologik burchak” mashg‘ulotlarida esa oddiy dasturlash o‘yinlari orqali algoritmik fikrlashni shakllantiradi. STEAM texnologiyasining afzalligi shundaki, u bolalarda nafaqat bilim, balki kommunikativlik, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bu yondashuvni qo‘llash tarbiyachi faoliyatining innovatsion ko‘rinishini ta’minlaydi. Zamonaviy vositalar va texnik imkoniyatlar Bugungi kunda STEAM ta’limini samarali tashkil etish uchun turli innovatsion vositalardan foydalanish mumkin. Ular orasida LEGO Education konstruktiv to‘plamlari, ScratchJr dasturi, raqamli interaktiv o‘yinlar, robototexnika modullari va maker-space ustaxonalari mavjud. Bunday vositalar bolalarning tajriba asosidagi o‘qish motivatsiyasini oshiradi va ularni ijodiy faoliyatga jalb etadi. Bizga ma’lumki maktabgacha ta’limda faoliyatning yetakchi turi o’yin deb hisoblanadi lekin STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko’ra bolalarning

yetakchi faoliyat turi bu tajriba deb hisoblanadi. O’yinchoqlar yordamida bolalar o’qish, o’lchash, tekislash, hisoblash, bo’ash, muloqot qilishni o’rganadilar va jamoa malakalarini egallaydilar. Bu ularga zarur matematik, filologik va muhandislik san’at ko‘nikmalarini olishga yordam beradi. Bolalar o‘zlari uchun yangi va noaniq g_oyalar tanlash va ular asosida ilk tajribalarni o‘tkazadi va shu orqali qiziqarli o‘yin shaklida yaratish salohiyati rivojlanadi. STEAM ta‟lim texnologiyasi bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- muammolarni keng qamrovli tushunish
- ijodiy fikrlash
- muhandislik yondashuv
- tanqidiy fikrlash
- ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash
UMURTQALI HAYVONLARNING QON AYLANISH SISTEMASINI MODELLASHTIRISH VA TAQQOSLASH

Komilov Kamol Orif o‘g‘li
Forish tuman 12-maktab biologiya fani o‘qituvchsi
Shodmanov Diyor Lochin o‘g‘li
Mirzacho‘l tuman 5-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qon aylanish tizimini modellashtirishning asosiy tamoyillari, didaktik afzalliklari hamda turli sinfdagi umurtqalilarda qon aylanish tizimining tuzilish va funksional farqlari tahlil qilindi. Modellashtirish jarayoni o‘quvchilarda mavzuni chuqur tushunish, vizual tasavvurni shakllantirish va ilmiy-amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: modellashtirish, qon aylanish tizimi, ikki kamerali yurak, uch kamerali yurak, to‘rt kamerali yurak, umurtqalilar.

Kirish qism. Qon aylanish tizimi biologiya fanida eng murakkab fiziologik jarayonlardan biri bo‘lib, uni chuqur anglash uchun ko‘rgazmalilik, modellashtirish va taqqoslash usullaridan keng foydalaniladi. Modellar yordamida o‘quvchilar murakkab anatomik tuzilmalar va jarayonlarni soddalashtirilgan shaklda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida modellashtirishning o‘rni katta.

Asosiy qism. Modellashtirishning biologiyadagi ahamiyati

Biologik modellashtirish:

- murakkab tuzilmalarni soddalashtirib ko‘rsatadi;
- mavhum jarayonlarni ko‘rgazmali qiladi;
- o‘quvchi tafakkurini rivojlantiradi;
- laboratoriya tajribalarini osonlashtiradi;
- vaqt va resurslarni tejaydi.

Qon aylanish tizimini modellashtirishda plastilin, karton, rangli qog‘oz, 3D modeli, virtual simulyatorlar va grafik dasturlardan foydalanish mumkin.

Turli sinfdagi umurtqalilarda qon aylanish tizimi

1. Baliqlarda

- Yurak 2 kamerali: 1 bo‘lmacha + 1 qorincha.
- Qon aylanishi bitta aylana orqali amalga oshadi.
- Qon bosimi past, kislorod tashish samaradorligi nisbatan sust.

2. Amfibiyalarda

- Yurak 3 kamerali: 2 bo‘lmacha + 1 qorincha.
- Ikkita aylana (katta va kichik) shakllangan.
- Qorincha ichida arterial va venoz qon qisman aralashadi.

3. Sudralib yuruvchilarda

- Ham ko‘pchilikda 3 kamerali yurak, ammo qorincha qisman septum bilan bo‘lingan.
- Aylanmalar ikki xil.
- Qonning aralashishi amfibiyalarga nisbatan kamroq.

4. Qushlarda

- Yurak 4 kamerali, to‘liq ajratilgan.
- Arterial va venoz qon aralashmaydi.
- Metabolizm yuqori bo‘lgani uchun o‘ta samarali tizim.

5. Sutemizuvchilarda

- To‘liq 4 kamerali yurak.
- Aylanmalar ikki xil, qon to‘liq ajratilgan.
- Eng samarali qon aylanish tizimi.

Qon aylanish tizimini modellashtirish usullari

1. Fizik modellar

Plastilin, rangli qog‘oz, karton yoki 3D bosma moddiy modellar orqali yurak kameralarini ko‘rsatish.

2. Grafik (rasm) modellar

• Diagrammalar
• Sxemalar
• Raqamli chizmalar

3. Virtual modellar

• Kompyuter simulyatorlari
• 3D animatsiyalar
• Virtual laboratoriyalar

4. Dinamik modellar

• Suv nasosi yordamida qon oqimini ko‘rsatish
• Shlang va pompalar bilan aylanish jarayonini ko‘rsatish

Muhokama

Modellashtirish jarayoni o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, umurtqalilar orasida mavjud farqlarni vizual taqqoslash o‘quvchi biologik tafakkurini shakllantiradi. Qushlar va sutemizuvchilarning 4 kamerali yuragi eng mukammal tizim bo‘lsa, baliq yuragi eng sodda tizimdir.

Xulosa

Qon aylanish tizimini modellashtirish — o‘qitish jarayonida samarali didaktik vositadir. Bu usul orqali o‘quvchilar murakkab tuzilmalarni oson tushunadi va ularni amaliyotda qo‘llay oladi. Turli sinfdagi umurtqalilarda qon aylanish tizimining farqlanishi modellar orqali aniqroq namoyon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solomon, E. Biology.
2. Campbell, N. Essential Biology.
3. Tortora, G. Principles of Anatomy and Physiology.
4. O‘zbekiston biologiya darsliklari (7–10-sinflar).

YASHASH MUHITIGA MOSLASHISH


Toshpo‘latova Ma’rifat Iskandar qizi
Nurmatova Dilorom Danaboyevna
Biologiya fani o‘qituvchilari kursi tinglovchilari

Annotatsiya: Moslashish — bu organizmlarning tashqi muhit sharoitlariga mos keluvchi belgilarning shakllanish jarayonidir. Bu belgilar tirik mavjudotning yashab qolish, o‘zini himoya qilish va ko‘payish imkoniyatini oshiradi. Yashash muhiti organizmlarning nafaqat yashashiga, balki geografik jihatdan tarqalishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Moslashish, tirik organizm, adaptatsiya, suv muhiti, havo muhiti, quruqlik muhiti, cho‘l hayvonlari,

Tabiatda har bir tirik mavjudot o‘z yashash joyiga, ya’ni muhit sharoitlariga moslashgan holda yashaydi. Organizm, populatsiya yoki tur yashaydigan, ularga bevosita yoki bilvosita ta’sir etadigan, muhitning biotik va abiotik sharoitlarning majmuasi yashash muhiti deb ataladi. Yashash muhiti tirik organizm bilan uning butun hayot davomida o‘zaro munasobatda bo‘ladigan tabiatning bir qismi hisoblanadi. Har bir tirik organizmning yashash muhiti tabiatning biotik va abiotik tarkibiy qismlar – komponementlardan tarkib topadi. Tabiatning tirik organizmlarga ta’sir ko‘rsatadigan va ularda moslanish reaksiyalari –adaptatsiyalarining hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladigan har qanday tarkibiy qism yoki komponenti ekologik omillar deb ataladi. Organizm-muhit tizimidagi asosiy qonuniyatlar V.I.Vernadskiy tomonidan kashf etilgan bo‘lib, organizm va uning yashash muhiti birligi qonuni deb ataladi. Muhit sharoitlari — bu harorat, yorug‘lik, suv, tuproq, havo, oziqa va boshqa omillardir.

Moslashish — bu organizmlarning tashqi muhit sharoitlariga mos keluvchi belgilarning shakllanish jarayonidir. Bu belgilar tirik mavjudotning yashab qolish, o‘zini himoya qilish va ko‘payish imkoniyatini oshiradi. Yashash muhiti organizmlarning nafaqat yashashiga, balki geografik jihatdan tarqalishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tirik organizmlar uchun har bir ekologik omil turlicha ahamiyatga ega. Evolutsiya jarayonida barcha tirik organizmlarda yashash muhitiga nisbatan o‘ziga xos morfologik, fiziologik, etologik va boshqa moslanishlar – adaptatsiyalar paydo bo‘lgan. Adaptatsiya (lotincha <<adaptation>>-moslanish) - tirik organizmlarning muayyan yashash muhitida yashashi va ko‘payishini ta’minlovchi belgi yoki belgilar yig‘indisi hisoblanadi.



Hayvonlarda yashash muhitiga moslashish.

Hayvonlarning yashash muhiti — suv, quruqlik, havo yoki tuproq bo‘lishi mumkin. Har bir guruhda o‘ziga xos moslanish mavjud:

Suvda yashovchilar: Baliqlar tanasining suzishga mos shakli bor. Ular suzgichlar yordamida harakatlanib, jabralar orqali suvdagi kislorodni yutadi. Suvda ko‘rish va hid bilish sezgilari rivojlangan.

Nam joylarda yashovchilar: Qurbaqalar suvda va quruqlikda yashaydi.Ular o‘pkasi va terisi orqali nafas oladi.Nam muhitda teri doim nam bo‘lib turadi.

Sudralib yuruvchilar (ilon, kaltakesak) tanasi quruqlikka moslashgan, terisi quruq va tangacha bilan qoplangan. Sutemizuvchilar tanasi tuk bilan qoplangan, o‘pkasi rivojlangan. Ular haroratni o‘zgartirmasdan saqlay oladi. Masalan Shimoliy muz okeanning katta qismini muz qoplagan, shuning uchun oziq va suv topish mushkul. Oq ayiqlar qor va muz bilan qoplangan sovuq Arktikada yashaydi. Oq ayiqning qalin yungi va teri ostida yog‘ qatlami oq ayiqni sovuqdan himoya qiladi va tanadan issiqlik chiqib ketishini kamaytiradi. Suvga sho‘ng‘iganda oq ayiqning burun teshiklari yopiladi. Bu esa uzoq vaqt suv ostida qolish imkonini beradi. Uzun tirnoqlar va panjalar ostidagi qalin qoramtir yostiqchalar oq ayiqning muz ustida sirpanib ketmasligini ta’minlaydi.

Cho‘l hayvonlari: Tuyaning o‘rkachida yog‘ zaxira sifatida to‘planadi. Yog‘ parchalanganda ko‘p miqdorda suv va energiya ajraladi. Shuning uchun tuyalar uzoq vaqt davomida suv oziqsiz yashashi mumkin. Tuyaning burun teshiklari kuchli shamol esganda nafas yo‘liga qum kirmasligi uchun yopiladi. Uzun va qalin kipriklar ko‘zga qum kirmaslikka yo‘l qo‘ymaydi. U kam suv bilan uzoq yashaydi. Quloqlari kichik, tuklari tanani issiqdan himoya qiladi.



Havoda yashovchilar: Qushlarning suyaklari yengil va ichi bo‘sh bo‘lib, qanotlari parvozga moslashgan. Tanasi oqimga qarshi harakatlanishga qulay.

Funksional moslashuv - bu hayvon o‘z tanasini ma’lum bir shaklda shakllantirishni o‘z ichiga oladi, shunda u o‘z oziq-ovqatini osonroq olishi mumkin, masalan:

Lochinlar tumshug‘ini o‘tkirroq va qattiqroq qiladi, shunda ular o‘ljalarini osongina yirtib tashlashadi.

Kolibri juda uzun va ingichka tumshug‘iga ega bo‘lib, unga gullar nektaridan oziq-ovqat olish imkonini beradi.

To‘tiqushning uzun va qalin tumshug‘i bor, bu unga meva va yong‘oqlarni osongina eyish imkonini beradi.

Pelikanning tumshugi juda uzun bo‘lib, u baliqni suvdan osongina olish imkonini beradi.

Hayvonlarda moslashishning umumiy misollari

Kanadalik g‘ozlar qish kelganda ko‘chib ketishadi va yil oxirigacha oziq-ovqat olish uchun joy qidiradilar.

Sincap qish uchun oziq-ovqat saqlaydi.

Dushman uni tinch qo‘yish uchun yaqinlashganda, opossum o‘zini o‘lgandek ko‘rsatadi.

Aardvark qishda qishki uyqu holatiga kiradi.

Skunk dushmanlari yaqinlashmoqchi bo‘lganlarida, zaharini tupurish uchun dumini ko‘taradi.

Zebralar yirtqichlar hujumidan qochishlari uchun podada yashaydilar.

Hayvonlarning atrof-muhitga moslashuviga ta’sir qiluvchi omillar

Hayvonlarning atrof-muhitga yaxshi moslashish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar mavjud, masalan:

Ekologik o‘zgarishlar

Iqlim sharoitlari o‘zgarganda, bu organizmlarning atrofdagi muhitga moslashish qobiliyatiga katta ta’sir qiladi.Ushbu vaziyatga moslashish uchun o‘ziga mos keladigan echimni topa oladiganlar ham bor, boshqalari esa soni sezilarli darajada kamayishni boshlaydi. .

Organizmlar o‘rtasidagi raqobat

Organizmlar har doim, garchi ular bir xil turdagi bo‘lsalar ham, mintaqadagi oziq-ovqat manbalari uchun raqobatlashadilar va ularning har biri imkon qadar ko‘proq nazorat qilishga harakat qiladi, bu ularning moslashish qobiliyatiga katta ta’sir qiladi.

O‘simliklarda yashash muhitiga moslashish

O‘simliklar ham o‘z yashash joyiga qarab tuzilish jihatidan farqlanadi. O‘simliklarning yashash muhitiga moslashishi (Adaptatsiyasi) o‘simliklar turli sharoitlarda yashash uchun tuzilishi, fiziologiyasi va hayotiy siklini o‘zgartirgan. Quyida eng asosiy moslashish turlari va misollar bor. Qalin kutikula — bug‘lanishni kamaytiradi (kaktuslar, sho‘rak). Ularning barglari tikanga aylangan bo‘lib, ular suv bug‘lanishini kamaytiradi. Shuningdek, hayvonlarga oziq bo‘lishdan himoya qiladi. Sho‘rak va kaktusning ildizlari yon-atrofga keng tarqalib, tuproqning ustki qatlamidan suv va minerallarni ko‘proq o‘zlashtirishga imkon beradi. Kaktusning seret poyasi suv zaxiralash xususiyatiga ega.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Aleksandr Grey. Tabiiy fanlar 5-sinf (matn):darslik . Aleksandr Grey, - Toshkent: Novda Edutainment,2024-yil 164 bet.

2.Biolog.uz

3.BIO_OLAM rasmiy kanali

4.www.biologiya.uz- Biologiyaga oid o‘quv-uslubiy resurslar portali

YOSHLARGA MILLIY G‘OYA MAZMUNINI SINGDIRISH ORQALI “OMMAVIY MADANIYAT” TAЪSIRIDAN HIMOYALASH

Jumaev Eshtemir Toshmamatovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi PhD, dots.v.b.

Maqolada yoshlarga mavkuraviy tarbiya mazmunini singdirish ularning dunyoqarashida g’oyaviy bo‘shliqlar paydo bo‘lishining oldini olish, turli mafkuraviy, ma’naviy tahdidlar va taziyiqlardan asrash, hamda ommaviy madaniyat ta’siridan himoyalash maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalar va takliflar berilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: yoshlar, ma’naviyat, mafkura, tarbiya, ommaviy madaniyat, ta’sir, himoya, maqsad, ezgulik, vazifa, burch, e’tiqod, vatanparvarlik.

ЖУМАЕВ Э.Т. ЗАЩИТА МОЛОДЕЖИ ОТ ВЛИЯНИЯ “МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ” ПУТЕМ ВНЕДРЕНИЯ В ИХ СОЗНАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

В статье представлен ряд задач и предложений, которые должны быть реализованы в целях недопущения возникновения идейных пробелов в мировоззрении молодежи, защиты ее от различных идеологических, духовных угроз и репрессий, а также воздействия массовой культуры.

Ключевые слова и понятия: молодежь, духовность, идеология, воспитание, массовая культура, влияние, защита, цель, благородство, задача, долг, вера, патриотизм.

JUMAYEV E.T.THE PROTECTION OF THE YOUNG FROM THE INFLUENCE OF “MASS CULTURE” BY ABSORBING THE CONTENT OF IDEOLOGICAL EDUCATION

The article presents a number of tasks and proposals that should be carried out in order to integrate the content of the abstract education into the youth in order to prevent the emergence of ideological gaps in their worldview, to protect them from various ideological, moral threats and protests, as well as from the influence of mass culture.

Key words and concepts: youth, spirituality, ideology, ideology, mass culture, influence, protection, purpose, nobility, task, duty, faith, patriotism.

O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi, xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish va ayniqsa yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Chunki, biz yashayotgan XXI asr – intelektual boylik hukmronlik qiladigan asr.

Kimki bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intelektual bilim, intelektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa-bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar. Bugun unib-o‘sib kelayotgan yoshlarning har tomonlama barkamol avlod bo‘lib hayotga kirib borishida to‘sqinlik qilayotgan mafkuraviy, ma’naviy tahdidlar, ularning ko‘rinishi hamda oqibatlarini ilmiy asosda o‘rganish, xulosalar berish muhimdir.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda avvalambor, oila maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litseylar, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini mustahkamlagan holda uzluksiz ta’lim-tarbiyani faoliyatini, mafkuraviy tarbiya borasida aniq maqsad va vazifalarini belgilab olishda taklif va tavsiyalar beradi. Zero, mafkuraviy maqsadlarni kishilar va ayniqsa yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bugun masofalar qisqarayotgan, munosabatlar yaqinlashayotgan madaniyatlar mushtaraklashayotgan zamon tili bilan aytganda hamma narsa “globallashayotgan” bir davrda yashab turibmiz. Iqtisod va siyosatning globallashuvi madaniyatlar globallashuviga sabab bo‘lmoqda.

Dunyo xalqlari o‘rtasidagi keng integratsion aloqalarga, hamkorlikka qurilayotgan hozirgi davrda turmush tarzi global munosabatlar ta’siridan chekkada qololmaydi. Global jarayonlar mohiyatga ko‘ra, xalqlarni yaqinlashtirishi, insonning hayot tarziga umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan ta’sir etishning omiliga aylanmoqda.

Yoshlarga mafkuraviy tarbiyada ko‘proq Vatanparvarlik tushunchasini kengroq tushuntirish va tushunish taqoza etiladi. Shu sababli mafkuraviy tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqib, mafkuralar kurashiga oid “mafkuraviy kurash”, “mafkuraviy qarshi turish”, “informatsion xuruj”, “mafkuraviy diversiya”, “mafkuraviy infilьtratsiya”, “mafkuraviy qo‘poruvchilik” kabi tushunchalar ma’nosini yoshlar bilishlari kerak.

“Axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog’liq xolatlar bugungi taraqqiyotga, ison hayoti, oila va muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda”, deya alohida ta’kidlaydi. Bugun turli yo‘llar bilan, har xil “ezgu” niqoblar ostida “ommaviy madaniyat” mamlakatimizga ham tahdid solayotgani sir emas. Ayniqsa, jangari filьmlar, yoshlarni soatlab o‘tirishga “majbur” qilayotgan kompьyuter o‘yinlari beto‘xtov yovuzlikni targ’ib etsa, bolasining otasi kimligini bilmasdan boshi qotib DNK tekshiruvini o‘tkazmoqchi bo‘lgan xonimlar haqidagi seriallar, internet olamida ayol va erkaklarga lazzatlanish haqida berilayotgan “eng yaxshi maslahatlar” faxsh hamda buzuqlik ko‘chasi sari chorlaydi.

Buning ustiga estrada san’atiga kirib kelayotgan ayrim yo‘nalishlar va qo‘shiqlar, kliplar, yaratilayotgan kinofilьmlar, reklama roliklarida targ’ib etilayotgan turlicha kiyinish va so‘zlashuv “madaniyati”, uman hayot tarzimizga to‘g’ri kelmaydigan holatlarga yo‘l qo‘yilayotgani achinarlidir. “Ommaviy madaniyat kirib kelmaydi, avvalo juda kichik detallar, arzimas voqealar orqali odamlarni o‘ziga o‘rgatadi, ko‘niktiradi. Ana shunda 4 yoshdagi farzandimiz reper bo‘lib kuylasa ham, o‘g’limiz qulog’iga zirak taqib, qizimiz yirtiq shimni kiyganida ham “zamona zayli” deya beparvo bo‘lamiz. Qolaversa, farzandimizning zamonaviyligidan quvonamiz.

Aslida “ommaviy madaniyat” soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayolik zo‘ravonlik va buzuqlik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham to‘g’ri kelmaydi. Hususan, bizning zaminimizda tug’ilib o‘sgan, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg’iloniy, Ahmad Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug’bek va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meros bugun ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Xalqimizning go‘zal ma’naviy qadriyatlarga yo‘g’rilgan or - nomus, uyat va andisha sharmu hayo kabi tushunchalari hayotimizga singib ketgan.

Ayniqsa, ota - onaga hurmat, ayolga ehtirom, mardlik va jasurlik singari tuyg’ularimiz butun dunyo xalqlarini rom etib keladi. Mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu bois “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi tura olish tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

Xo‘sh “Ommaviy madaniyat” nimasi bilan xatarli? “Ommaviy madaniyat” – ko‘p hajmda sanoat usulida ishlab chiqariladigan madaniyat elementlarining umumjahon ehtiyojlarini qondiruvchi majmuidir.

Bugungi zamonaviy fan “Ommaviy madaniyat”ning (inglizcha-mass culture) tub zamirida tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini e’tirof etadi. Bu turmush tarzimizga ommaviy axborot-vositalari va boshqa vositalar orqali targ’ib-tashviq qilinadi, tarqatiladi, amalga oshiriladi. Ommaviy madaniyat mazmunini zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi, kino-televideniya, kitoblar, gazetalar, jurnallar, sport, turizm va boshqalar tashkil etadi. U mahsulotlarni iste’mol qilish-ommaviy iste’moldir, chunki mazkur madaniyatni iste’mol qiladigan auditoriya-katta zallar, stadionlar, kinoekran, televideniya ishqibozlaridan iborat bo‘lgan ommaviy auditoriyadir.

Umuman aytganda “pop-musiqa” ijrochiligi ko‘ngilochar musiqa niqobi ositida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvsali, badaxloq raqslar, ko‘pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib yetadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. 1970 yilda Kaliforniyaning Altamone shahrida bo‘lgan musiqa festivalida o‘zini “pop-muzika” qiroli hisoblaydigan “Rolling Stoun” (“Aylanayotgan tosh” guruhi kontserti ana shunday ur-yiqitlar bilan tugab, politsiya bu mojaro oqibatlari bilan uzoq muddat shug’ullanishiga to‘g’ri kelgan edi “Pop-muzika”

namoyandalari o‘z “ommaviy”liklarini ta’kidlash uchun sahnadagi hatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg’ularini rad etib-asosan ko‘cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar.

1964 yilda AQShda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan “Kendi (“Asal qiz”) nomli romannini nashrdan chiqarishdi. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilьm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. “Kendi” qahramoni, “Asal qiz” deb ta’riflagan juvon duch kelgan odam bilan to‘shakda aysh–ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. “Kendi” romani Amerika adabiyotida shakllangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go‘zal o‘y–xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin xajv qiladi. Ularning ustidan kuladi.

Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan fil’mlar-g’arbdagi “ommaviy madaniyat” ning adabiyotdagi, televideniya va kinodagi yo‘lini belgilab berdi. Intim munosbatalar, shahvatparastlik, zo‘ravonlik, xudbinlik, “Kim kuchli bo‘lsa-o‘sha haq” degan changalzorlar qonunini poetiklashtirish AQSh va Yevropa “ommaviy madaniyat” ida mana shunday asarlar ta’sirida keng ommalashadi. Agar ayrim G’arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o‘rtasida nikoh-hayratlanarli hodisa bo‘lmay qolayotganligi nazarda tutilsa, “ommaviy madaniyat” targ’ib etayotgan ma’naviy tubanliklar, behayoliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas.

Xulosa va takliflar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: bugungi teleradiokanallarni buraydigan, matbuot nashrlarini, varaqlaydigan bo‘lsangiz yoki internet “changalzorlari” bo‘ylab “sayyohat” qiladigan bo‘lsangiz, hech shubhasiz, foydali axborotlardan ko‘ra, zararli axborotlarga ko‘proq duch kelasiz. Ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan yoshlar bu axborotlarni real haqiqat sifatida qabul qilish yolg’on va uydirma gaplarga aldanib qolishi mumkin. Shu tariqa ularning hayoti arzimagan bir axborot tufayli butunlay noma’qul tomonga burilib ketishi hech gap emas. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarning qalbi va ongida axborot immunitetini tarbiyalashimiz lozim.

“Ommaviy madaniyat” yoshlarning hayotini butunlay zaharlaydi va ularni o‘z tarixi, milliy qadriyatlari, hatto ota-onasini tanimaydigan maxluqqa aylantirib qo‘yadi. Bizning qalbimizdan milliy o‘zlik tuyg’usi, vatan hissini siqib chiqarmoqchi bo‘ladi. “Ommaviy madaniyat” ga qarshi kurashning eng samarali yo‘li yigit-qizlarimizni yoshligidan boshlab yuksak madaniy saviya, did va farosat egasi, mustaqil fikrlaydigan, ma’rifatli qilib tarbiyalashdan iborat.

Ana shunday fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlar “ommaviy madaniyat” namunalaridan xazar qiladi.

"Ommaviy madaniyat" bizning milliy tabiatimiz, ko‘xna qadriyatlarimiz, insoniy intilishlarimizga zid. Shuning uchun ularga qarshi jamiyatimiz hamjihatlikda kurash olib borishi lozim. Shundagina yosh avlodimizni har tomonlama sog’lom va barkamol qilib voyaga yetkazishga erishishimiz mumkin.

"Ommaviy madaniyat" nikobidagi istilochilikka qarshi kurashda o‘zbek xalqida immunitet mavjud. Ammo bu taskin oldimizda turgan real xavfni mensimaslik yoxud bemalolchilikka asos bo‘lolmaydi. Binobarin, turli xuruj va g’arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomnidan kata kuch, mablag’ sarflanayotgan harakatlar va shu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogox, bo‘lishimiz darkor.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. - T: «O‘zbekiston», 2016.

3. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch.-T., 2008.-46 b.

4. Т.Сазерн ва М.Хоффенберг “Кенди”- АҚШ-1964 йил

ТИЛ – ХАЛҚНИНГ ТАРИХИДИР

Қурбонова Марғуба Болтаевна
катта ўқитувчи Иқтисодиёт ва Педагогика Университети

Аннотация: *Мазкур мақолада Она тилимиз давлат тили мақомига эга бўлганлиги унинг аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган бебаҳо мерос сифатида она тилимизни асраб-авайлаш, бойитиш, нуфузини ошириш устувор вазифалардан бири эканлиги ёритилган.*

Калит сўзлар: *давлат тили , миллий тил, ёзув, тилшунослик, миллий муносабатлар, тараққиёт*

Она тилимиз давлат тили мақомига эга бўлгани унинг ривожи учун ҳуқуқий кафолат демакдир. Бироқ тилнинг чинакам ривожи учун бунинг ўзигина кифоя қилмайди.

2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепциясини 2020-2022 йилларда амалга ошириш дастури; 2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари тасдиқланди[67].

Миллий тил, ёзув, тилшунослик фани истиқболига доир энг сара фикрлар Ислом Каримовнинг 2008 йилда ёзилган “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида жамланди. Мазкур китобда истиқлол йилларида тил сиёсати борасида амалга оширилган ишларни сарҳисоб қилиш билан бирга она тили олдида турган навбатдаги вазифаларни белгилаб берар экан, Биринчи Президентимиз қуйидагиларни қатъий таъкидлайди: “Айни вақтда жамиятимизда тил маданиятини ошириш борасида ҳали кўп иш қилишимиз лозимлигини ҳам унутмаслигимиз зарур. Айниқса, баъзан расмий мулоқотларда ҳам адабий тил қоидаларига риоя қилмаслик, фақат маълум бир ҳудуд доирасида ишлатиладиган шева элементларини қўшиб гапириш ҳолатлари учраб туриши бу масалаларнинг ҳали-ҳануз долзарб бўлиб қолаётганини кўрсатади.

Хорижий мамлакатларда тилимизга эътибор ва уни ўрганишга қизиқиш кучаймоқда. Бугунги глобаллашув даврида ҳар бир халқ, ҳар қайси мустақил давлат ўз миллий манфаатларини таъминлаш, бу борада аввало ўз маданиятини, азалий қадриятларини, она тилини асраб-авайлаш ва ривожлантириш масаласига устувор аҳамият қаратиши табиийдир[68].

Жамият аъзоларининг тилга муносабатида икки жиҳатни — умуман, тилга муносабат ҳамда она тилига муносабатни фарқлаб олиш лозим. Биринчи ҳолатда -тилнинг халқни бирлаштиришдек вазифани бажаришини англаб муносабат кўрсатилиши, «Давлат тили ҳақида»ги қонун талабларига риоя этилиши, иш юритишда адабий тил меъёрларига амал қилиниши зарур. Иккинчи ҳолатда — она тили ўта миллий, этномаданий ҳодиса деб тушунилиши, она тили тақдирига миллат тақдири деб қаралиши, она тили борича қабул қилиниши керак. Бугунги ўзбек жамиятида ҳар икки муносабатга алоқадор муаммолар етарли. Бу «Давлат тили ҳақида»ги қонун талабларининг кўп ҳолларда бажарилмаётгани, давлат тилининг амалиётга кенг жорий этилмаётгани, таълимнинг турли бўғинлари ва иш юритишда лисоний лаёқатлилик даражасининг пастлиги, давлат тилига ҳам, она тилига ҳам беписанд муносабатнинг учраётгани, тил маданиятининг лозим даражада шаклланмаётганида кўринади.

Она тилимиз ҳозирги кунга қадар бир қатор баланду пастликларни кўрган, кези келганда чўққиларни забт этган, кези келганда жарлик остонасида заиф ва бахтсиз титраган тилдир. Мустабид тизим даврида миллатнинг маданиятини, санъати ва тилини асраб қолиш

---

[67] Мирзиёев Ш.М Мамлакатимизда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш онцепцияси. Тошкент ш.,2020 йил 20 октябрь,ПФ-6084-сон.

[68]Ш.Мирзиёев. Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мақеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. Тошкент ш.,2019 йил 21 октябрь,ПФ-5850-сон

учун курашган маърифатпарвар зиёлилар-жадидлар буни теран англаб етганлар. Зеро, миллатни асраш-унинг дину диёнати, имон-эътиқоди, аҳлоқ одоб, урф-одат, анъаналари ва тилини асраш демакдир. Юртимизда 1989 йил 21 октябрда миллатпарвар инсонларнинг жиддий саъй-ҳаракатлари натижаси ўлароқ, халқимиз асрлар давомида орзиқиб кутган ва курашиб келган она тилимизга Давлат тили мақоми берилди. Бу эса миллий озодлигимиз, мамлакатимиз мустақиллиги учун қўйилган илк қадам эди. “Давлат тили ҳақида”ги қонун, шунингдек, ўзбек тилининг давлат тили мақомини мустаҳкам белгилаб қўйилган Ўзбекистон Республикаси Конституцияси асосида тил сиёсатида ўта муҳим жараёнларни бошлаб берди.

Ўтган давр мобайнида она тилимизнинг кенг имкониятларини очиб бериш, унинг миллат ҳаёти ва маънавий-мафкуравий қарашларидаги таъсирини янада кучайтириш мақсадида жуда кўплаб ишлар амалга оширилди. Натижада она тилимиз том маънода давлат тилига айланиб, сиёсий-хуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий жабҳаларда фаол қўлланиб, халқаро минбарларда баралла янграмоқда. Шунингдек, Ўзбек тилининг халқимиз ижтимоий ҳаётида ва халқаро миқёсдаги нуфузини ошириш, ўсиб келаётган ёш авлод онгида миллат бойлиги хисобланмиш она тилимизга, халқимизнинг минг йиллик тарихи, урф-одатлари ва анъаналарига хурмат хиссида тарбиялаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг мухим –“Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилиниши ҳамда ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган кун – 21 октябрь санасини ”Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилиниши мамлакатимизда давлат тилининг тўлақонли жорий этилишини таъминлашга қаратилган яна бир жиддий қадамдир.

Тил халқни бирлаштиради, тарбиялайди, ўқитади, урф-одат, анъаналаринисақлайди. Шундай экан, она тилимизнинг халқаро миқёсдаги обрў-эътиборини юксалтиришда, уни миллий ва умумбашарий тушунчалар асосида тараққий этган тиллар сафига қўшишда ҳар биримиз тилимизга чуқур ҳурмат билан ёндашимиз керак.

Адабиётлар

1.Мирзиёев. Ш.М Мамлакатимизда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси. Тошкент ш., 2020 йил 20 октябрь, ПФ-6084-сон.

2.Мирзиёев Ш.М Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мақеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. Тошкент ш., 2019 йил 21 октябрь,ПФ-5850-сон

3.Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир // Халқ сўзи газетаси. – 2019 йил 22 октябрь, 218-сон.

4.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон. 1997.

5.Р.Нурматов,С.Авезов,Ўзбек тили чиндан ҳам давлат ва халқ тили даражасига эриша олдими? 07.10.2020.

6.Низомиддин Маҳмудов. Тил мавқеи — эл мавқеи «Ёшлик» журнали, 1988 йил, 6-сон.

7.Akhmedova Dilrabo Sadullayevna. **“**SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW” in Volume 3, Issue 11 of “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal on November, 2023.304-309 ст

8.Akhmedova Dilrabo Sadullayevna. Young People - The Creators of New Uzbekistan" In Volume 25 of The Peerian Journal ISSN (E): 2788-0303, Journal Impact Factor: 7.425, December 2023. 11-14ст

9. Axmedova D. “Yoshlarimizning ongu shuurida vatanparvarlik, milliy g‘urur g‘oyalarini mustahkamlash” in Volume 4, Issue 4 of “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal on April, 2024134-140ст

10.Akhmedova Dilrabo Sadullayevna " THE FUTURE OF A STATE WITH EDUCATED, HIGHLY SPIRITUAL, ALL-ROUND MATURE YOUTH WILL BE BRIGHT” BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:3 Issue: 5|2024 182-186ст

11.Axmedova D. Axloqning dolzarb muammolari. in Volume 4, Issue 5 of “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal on May, 2024 612-616ст

BAXSHILARIMIZ IJRO ETGAN DOSTON VA TERMALARDA XALQIMIZGA XOS YUKSAK VATANPARVARLIK

Axmatov Abdulla
Qarshi DU doktoranti
(+998 90 4266228)

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston,Qashqadaryo, Madaniyat, vatanparvarlik, olijanoblik, insonparvarlik, Qamay, YUNESKO, baxshichilik, doston, Ergash Jumanbulbul og`li, Fozil baxshi, Islom shoir, Bola baxshi Abdullayev, xalq og‘zaki ijodi.*

Rezyume: Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasida dostonchilik va baxshichilik san’atining ahvoli xalq og‘zaki ijodi namoyondalari ham izlanishlarini davom ettirdilar. Xalqning o‘tmishi bilan hamohang bo‘lgan ertak-dostonlar, qo‘shiq va rivoyatlar, maqol va matallarda xalqimizning his-tuyg‘ulari, orzu umidlari ifodalangan. Bu davrda Respublikamizda adabiyot va san`at vakillari yashab ijod qilishdi. Ularning asosiy qismi O‘zbekistonning janubiy viloyatlari bo‘lmish Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida istiqomat qilishadi. Ana shu nuqtai-nazardan ham Qashqadaryo xalq og‘zaki ijodi dostonchilik va baxshichilik maktabi tarixini o‘rganish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Qashqadaryo hayotida sovet davrida ijod qilgan taraqqiyot yo’lining qonuniyatlarini aniqlab olish uchun eng avvalo unga xos bo’lgan umumiy jarayonlarni tarixiylik nuqtai-nazardan ko’zdan kechirmoq lozim.

Ключевые слова: *Узбекистан, Кашкадарья, Культура, патриотизм, дворянство, гуманизм, Камай, ЮНЕСКО, человеколюбие, эпос,Эргаш Джуманбулбул оглы, Фазиль бакши, исламский поэт, Бола бакши Абдуллаев, фольклор.*

Резюме: В данной статье представители народного устного творчества продолжили исследование состояния эпической письменности и искусства бакшики в Кашкадарьинском оазисе. Чувства и надежды нашего народа выражаются в сказках, песнях и рассказах, пословицах и поговорках, которые созвучны прошлому народа. В этот период в нашей республике жили и творили представители литературы и искусства. Большинство из них проживает в оазисах Кашкадарьи и Сурхандарьи, которые являются южными регионами Узбекистана. С этой точки зрения изучение истории Кашкадарьинской школы эпоса и поэзии чрезвычайно важно. Поэтому, чтобы определить сложившиеся в советскую эпоху закономерности пути развития в жизни Кашкадарьи, прежде всего, необходимо рассмотреть общие процессы, характерные для нее, с исторической точки зрения.

Key words: Uzbekistan, Kashkadarya, Culture, patriotism, nobility, humanitarianism, Kamay, UNESCO, philanthropy, epic, Ergash Jumanbulbul ogli, Fazil bakshi, Islamic poet, Bola bakshi Abdullayev, folklore.

Resume In this article, the representatives of the folk oral creativity continued their research on the state of epic writing and bakshiki art in the Kashkadarya oasis. The feelings and hopes of our people are expressed in fairy tales, songs and narratives, proverbs and sayings, which are in harmony with the past of the people. During this period, representatives of literature and art lived and created in our Republic. Most of them live in the oases of Kashkadarya and Surkhandarya, which are the southern regions of Uzbekistan. From this point of view, studying the history of the Kashkadarya school of epics and poetry is extremely important. Therefore, in order to determine the laws of the path of development created in the Soviet era in the life of Kashkadarya, first of all, it is necessary to examine the general processes characteristic of it from the historical point of view.

Baxshilarimiz ijro etgan doston va termalarda xalqimizga xos yuksak vatanparvarlik, olijanoblik, insonparvarlik, ona yurtimizga muhabbat va sadoqat o‘z ifodasini topgan. Shu sababli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev e’tirof etganidek, “Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida,

tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan folklor san’atiga e’tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa, bu-insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir”[1].

Baxshichilik, xalq dostonchiligi o‘zbek xalqining qadim madaniyati, milliy qadriyatlarining ilk ko‘rinishlaridan biri sifatida ardoqlanib kelinayotgan san’at turidir. Baxshilar deb azaldan terma, qo‘shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi xalq dostonchilari aytilgan, o‘zbek xalqining to‘yu bayramlari, yaxshi kunlari, ularning ishtirokisiz o‘tmagan. Bugun yurtimizda baxshichilik san’atiga alohida e’tibor berilmoqda. 2018 yil 1 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshchilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar Akademiyasi va Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan shu yilning 5-10 aprel kunlari Xalqaro baxshichilik festivali bo‘lib o‘tkazildi. Mazkur tadbirda 200 nafardan ortiq baxshilar, hay’at a’zolari va boshqa mehmonlar ishtirok etdilar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning mazkur muhim tadbir o‘tkazilishining asosiy tashabbuskori bo‘lishi ham diqqatga sazovordir. O‘zbekiston-atoqli baxshilar yurti. Ular orqali yurtimizning boy qadriyatlari, o‘tmishi, orzu va umidlari ifoda etiladi.

Xalq baxshilarini yig`ish ularga har tomonlama g`amxo‘rlik ko‘rsatish, ijodiy tajribalarini keng targ`ibot qilish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Xalq yig`inlarida, bayramlarda, maktab va oliy o‘quv yurtlarida xalq baxshilari bilan uchrashuvlar, baxshilarning badiiy kechalari, mushoirlar, aytishuvlar, mashhur doston aytuvchilar uyushtirish an`ana tusini olmoqda. O‘zbekiston zamini Ergash Jumanbulbul og`li, Fozil baxshi, Islom shoir, Bola baxshi Abdullayev, Shoberdi Boltayev, Boborayim Mamatmurodov, Abdunazar Poyonov, Qora baxshi Umirov, Shomurod Tog`ayev, Qodir baxshi Rahimov, Ziyodulla Islomov, Norbek baxshi Abdullayev, Qalandar baxshi Normetov, Abduqahhor va Abdumurod Rahimovlar kabi o‘nlab betakror istedod sohiblarini yetishtirdi va bu an`ana izchil davom etmoqda so‘ngi yillarda respublikamizda xalq og`zaki ijodiga etibor kuchaydi.

Mamlakatimizda ushbu qadimiy san`at turini asrab-avaylash, rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida so‘ngi paytda qabul qilingan Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari soha rivojiga yangi hayot bag`ishlaganini takidlash o‘rinlidir. Jumladan, yurtimizda YUNESKO shafeligida har ikki yilda Xalqaro baxshichilik san`ati festivalini o‘tkazish yaxshi an`ana tusiga kirdi. 2019 yil aprel oyida Termiz shahrida o‘tkazilgan birinchi va joriy yil sentabr oyida Nukus shahrida tashkil etilgan ikkinchi festival mintaqa va xalqaro hamjamiyat madaniy doiralarida katta qiziqish uyg`otdi. Shuningdek, 2021 yil 16 dekabrda YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo‘mitasi tomonidan Baxshichilik san`ati insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi[2].

Dostonlarni ijro etadigan baxshilar va ularning hayoti va turmush tarzi bilan shug‘ullanish jarayonidagi tahlillardan kelib chiqib, baxshi so‘zining ma’nosi mo‘g‘ulcha va buryatcha baxsha, bag‘sha – ustod, ma’rifatchi; sanskritcha bhikshu – qalandar, darvesh degan ma’noni beradi deb izohlanadi. O‘zbekistonda qo‘shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor. Baxshi so‘zi ba’zan shaman ma’nosida ham qo‘llanadi, umuman, dostonchilar, doston aytuvchilarni esa yuzboshi, soqi, sannovchi, jirov deb ataydilar. Baxshilar, asosan, ikki toifaga –ijrochi va ijodkor baxshilarga bo‘linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o‘rgangan dostonlarni juz’iy o‘zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og‘zaki epik an’ana asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb ham yuritiladi, masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va boshqalar. Baxshilar doston va qo‘shiqlarni qo‘biz, do‘mbira, dutor kabi sozlar jo‘rligida kuylaydi.

«Baxshi» mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, ustod, ma’rifatchi degan ma’noni anglatadi.O‘zbeklar orasida baxshi yana bir qancha nomlar bilan ataladi. O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida yuzboshi, sozanda, Tojikistonning o‘zbek-laqaylari orasida soqi, Farg‘ona vodiysida sanovchi, shuningdek, jirov, jirchi, oqin kabi nomlar bilan yuritiladi. Bunday xalq ijodkorlari boshqa turkiy xalqlar orasida ham mavjud bo‘lib, qozoqlarda oqin va jirov, qirg‘izlarda manaschi, mo‘g‘ullarda to‘lchi, o‘g‘uzlarda uzan, deyiladi. Tojik folklorshunosligida halq eposi ijrochilari go‘yanda, hofiz va shoir

deyiladi. Biroq «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar ijrochisini dostonga qiyosan go‘ro‘g‘lisaro, deb ham atashadi. Yirik o‘zbek baxshilarining nomiga «shoir» so‘zini qo‘shib ishlatish hollari mavjud[3].

Betinim izlanishlar natijasida Hazratqul baxshichilik sanatini o‘rganib oladi. Hazratqul baxshi ananaviy dostonlar bo‘lgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Nurali”, “Yusuf Ahmad” kabi halq asarlarini mohirlik bilan kuylagan. Bu dostonlarda yurtsevarligi, do‘stligi, mehnatsevarligi, sevgi va vafo, odamiylik tarannum etiladi. Hazratqul baxshining repurtuarida 20 ga yaqin an’anaviy dostonlar bor.”Alpomish” , «Guro‘g‘li» , «Avazxon» , «Nurali» , “Yusuf Ahmad” kabi xalq asarlarining variantlari shular jumlasidandir. Bu dostonlarda yurtsevarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, sevgi va vafo, odamiylik tarannum etiladi. Tug`ilib ota onadan yosh yetim qolib ko‘plab xalq dostonlarini yaratdi shulardan biri “Avazxonning keltirilishi” 1979 yilda gram plastinkada chop etilgan. “Og‘a Yunusning olib qochilishi” kabi asarlari «Madhiya», «Qamay», “Qamashiliklar” kabi yirik asarlari shuningdek paxtakorlar, Qarshi dashtini o‘zlashtirib, bog‘u-rog‘lar yaratayotgan azamat cho‘lquvarlar, chorvadorlar mehnatini ulug‘lovchi, kishilarimiz ma’naviy dunyosidagi ibratli tomonlarni tarannum etuvchi o‘nlab termalar ijod qilgan.

Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilarining ko‘pchiligi doston kuylayotganda odatdagi ovozini musiqa asbobi navosiga moslab o‘zgartirishadi. Ovozni sozga jo‘rlash baxshilar orasida «Tillo tarozi», deb ataladi. Baxshilar orasida yana bir qancha turkum ijodkorlar bor. Ularning ayrimlari dostonlarni do‘mbira chertib, biroq tovushini o‘zgartirmasdan, odatiy bir tarzda aytsalar, boshqa bir ijrochilar dostonlarni hech bir sozsiz, faqat og‘zaki aytishgan. Baxshichilik san’atida o‘zbek dostonchiligi mif – afsona – rivoyat – naql – ertak – doston bosqichlarida shakllanadi.

Baxshilik san’ati markazi O‘zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung‘ur, Nurota, Narpay, Qo‘rg‘on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o‘zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma’lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma’lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi.

“Doston” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she’riy shaklda yaratiladi. Ikkinchi tur dostonlar og‘zaki ijod mahsuli sifatida folklor an’analarga bo‘ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M. Saidov ta’rificha, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she’riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo‘lishi kerak.. .Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo‘lishi lozim (Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik muzika asari bo‘lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur. To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘shiq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur[4].

“Qamay” dostonchilik maktabining vakillaridan biri Hazratqul baxshi Xudoyberdi o‘g`li ham shu sohaning ijod qilgan ijodkorlardan hisoblanadi. Hazratqul baxshi Xudoyberdi o‘g`li 1920-yil Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Qoraqo‘ton qishlog`ida to‘g`ilgan. 1927-yil Aleksandr Sergevich Pushkin nomidagi hozirgi (82-maktabga) o‘qishga borib 1937-yilda a`lo baholar bilan to‘gatgan.1937-yilda Tojikiston Davlat Pedagogika institutiga tarix faniga o‘qishga topshirib, sirtdan o‘qib 1942-yida tamomlagan. Mehnat faoliyatini Dehqonobod xalq sudida kotib lavozimi bilan boshlagan keyinchalik Qamashi tumani Chim qishlog`idagi 4-sonli maktabda o‘qituvchi, Uchtut qishlog`idagi Karim Musulmonov nomidagi hozirgi (21-sonli maktabda) o‘quv ishlari buyicha direktor o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan.1973-yildan Qoraquton qishlog`idagi Dobrolyubov hozirgi (32-sonli) maktabda direktor lavozimida faoliyat yuritgan.Hazratqul baxshi Xudoyberdi o‘g‘lining asl kasbi – murabbiylikdir. Ammo Hazratqul baxshi boshqa hamkasblaridan farqli o‘laroq ana shu olijanob kasb–o‘qituvchilikni baxshichilik sanati bilan qo‘shib olib borgan. Hazratqulda dostonchilikka havas juda erta uyg‘ongan. Buning ma`lum sabablari bor, albatta. Shoir tug‘ilib usgan qishloqning o‘zida yigirmadan ortiq xalq baxshilari istiqomat qilishib, bir necha xil ohanglarda doston hamda termalar ko‘ylashib, mehnatkash ommani xushnud etishardi. Jumladan

Boynazar baxshi, Xidir baxshi, Abdukarim baxshi, Xolnazar baxshi, Sherqul baxshi, Mamatqul baxshi, Bozor baxshi Omon o‘g‘li shular jumlasidandir[5].

1976 yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan xalq baxshilar anjumanida ishtirok etib sovrindor bo‘lgan. 1980 yil Sirdaryo viloyatidagi G‘afur G‘ulom nomidagi Sirdaryo davlat pedagogika institutida Qashqadaryolik taniqli xalq baxshilari Xazratqul Xudoyberdi o‘g‘li va Abduraxmon ota Ostonovlar bilan talabalar o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tadi. Baxshi tomonidan xalq dostonlarini yoddan aytish bilan birga o‘zi xam zamonaviy mavzuda “Abl Botir”, “Pardaxol”, “Qamay yerlari va erlari” kabi dostonlar juda ko‘plab termalar yaratilgan. Uchrashuvda u o‘zinig “Suyla do‘mbiram”, “Bo‘lmasa”, “Suring davron” deb atalgan zamonaviy she’rlarini xamda “Alpomish” dostonidan ayrim parchalarni kuyga solib aytib beradi. Xazratqul Xudoyberdi o‘g‘li har 2 yilda o‘tkazilayotgan baxshichilik Respublika ko‘rik tanlovlarda yuqori sovrinlarni olib kelgan. U 1980 yilda O‘zbekiston Respublikasi “xalq maorifi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. 1986 yilda nafaqaga chiqqan. Olti nafar farzandi bor Hazratqul baxshi Xudayberdi o‘g‘li 1996 yilda vafot etgan[6].

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo hohasida dostonchilik va baxshichilik san’atida vatandoshlarimizning baxshichilik an’analarini davom ettirib, halq dostonlari bilan birga termalar ham yaratib qisqa vaqt ichida odamlarning mehrini qozondi. Shu bilan birga maktabda tarix fanidan dars berib, rahbarilk lavozimlarida faoliyat olib bordi. Ijodkorning fazilatlaridan yana biri uning hozir javob dostonchi sifatida hayotimizda ruy berayotgan voqealar, halqning buyuk mehnati shijoatiga atab ham asarlar yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2019 yil, 8 aprel.
2. https://president.uz/uz/lists/view/.
3. O‘zbek folklorining epik janrlari / O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 7-kitob. - T.: Fan, 1981. B 12.
4. Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – T.: Fan, 1969.B 6.
5. Boymirov T. Boyqobilov O‘. Qamashi va qamashiliklar. T. 2016.-47.b.
6. Kommunizm uchun . 1980 yil, 5 sentabr

O‘YINLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING SAMARASI.

E.T.Jumayev -Iqtisodiyot va pedagogika universiteti PhD, v.b. dotsenti.

Hozirgi talim muassalaridagi samarador o‘qitish texnologiyasi - bu o‘yinli texnologiyalardan foydalanib o‘qitishdir. O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosi - bu talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatdir. O‘yinli texnologiyalar shaxsini namoyon qilishda, hayotida o‘z o‘rnini barqaror qilishida, o‘zini-o‘zi boshqarishda, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishda katta ahamiyatga egadir. O‘yinli texnologiyalar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faolitiyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo‘llanadi. O‘yining didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlaitirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma’lum yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga birlashishni, jamoaga kirishib keta olishni, komunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, taqqoslash, solishtirish, o‘xshashlikni topish. faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatni motivasiyalashni rivojlantirishga qaratilgai.

Ijtimoiylashtirilgan o‘yinlar jamiyatning me’yorlari va qadriyatlarga jalb qilinishi, muhim sharoitlarga ko‘nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatishni nazarda tutadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar "O‘yinli pedagogik texnologiyalar" ni tashkil etadi.

Talim muassasalarining amaliyotida tadbirkorlik o‘yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o‘yinlari nazariyasi boshqa o‘yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog‘langan. Tadbirkorlik o‘yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A. N. Leontev. P.Ya. Galporin va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida nazariy jihatdan asoslaganlar. Tadbirkorlik o‘yinlari o‘z xarakteriga ko‘ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o‘yinlari bilan o‘qitish XX asrning 20- yillarida rivojlandi. Tadbirkorlik o‘yinlariga tashkiliy (imitasion) o‘yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo‘ladi.Taqlidiy (imitasion) o‘yinlarga esa harbiy va harbiy-siyosiy o‘yinlar asos bo‘lgan.

Tadbirkorlik o‘yini yangi texnologiya sifatida quyidagilarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi:

-ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o‘quv materiali mazmunining izchilligi;

-kelgusidagi kasbiy faoliyat tarkibiy qismlarini yaratish;

-bilimlarga ehtiyojlarni tug‘dirish va ularni amalda qo‘llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

-o‘yinning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirish;

-o‘yinni olib boruvchi o‘qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishdan talabalarning o‘z hatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o‘tishni ta’minlashi;

Tadbirkorlik o‘yinini ijtimoiy - pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

Talabalarning tadbirkorlik o‘yinlariga tayyorgarlikni aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko‘rish.

Talabalarga tadbirkorlik o‘yinlarini o‘tkazish va unda qatnashish bo‘yicha yo‘l- yo‘riqlar berish, ularni rol o‘ynash bo‘yicha taqsim qilish, zarurat tugilganda har biriga qo‘shimcha yo‘l-yo‘riqlar berish.

Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo‘yicha talabalarning tadbirkorlik o‘yinlari.O‘yin ishtirokchilariga joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.

O‘yin ishtirokchilarining o‘yin davomida o‘zi o‘ynagan rollariga baho berishi, o‘z-o‘zini nazorat qiladi.

Tadbirkorlik o‘yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o‘quv-o‘yin faoliyatiga baho berish.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq, berish xususiyatiga ega bulgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi.

Lingvistik adabiyotlarda esa “Badiiy matn har qanday nobaadiy matndan farqli o‘laroq alohida vazifani kommunikativ vazifa bilan murakkab o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘luvchi va matnning o‘ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”. [76]

Agnonimlarni badiiy matn namunalari misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, F.Dostoyevskiy “Братья Карамазовы” asarida *“совесть”* (vijdon) tushunchasini falsafiy-axloqiy kategoriya sifatida qo‘llagan, biroq bu so‘z kundalik nutqda ko‘pchilik tomonidan oddiy *“ichki ovoz”* ma’nosida anglanadi. O‘zbek adabiyotida esa Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi *“vijdon”, “or”, “hamiyat”* so‘zlari chuqur ijtimoiy-falsafiy ma’noga ega bo‘lsa-da, hozirgi so‘zlovchilar ularni ko‘pincha yuzaki ma’noda ishlatadilar.

Shunday qilib, o‘zbek va rus tillarida kuzatiladigan bu hodisa shuni ko‘rsatadiki, *agnonimiya* nafaqat so‘zning kam qo‘llanishi yoki dialektal xususiyatlari bilan, balki foydalanuvchining **semantik anglash darajasi** bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli til tizimini tahlil etishda leksik birlikning **formal faolligi** bilan bir qatorda, uning **mazmuniy anglanish darajasi**ni ham hisobga olish zarur.

Badiiy adabiyotda agnonimlar alohida estetik vazifa bajaradi. Agnonimlarning badiiy matnda uslubiy maqsad bilan qo‘llanilish hodisasini agnomaziya deb atash mumkin. Agnomaziyaga yuklanadigan vazifalar sirasiga qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funksiya bajarish kabilarni kiritish mumkin.

Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasida Boqijon Baqoyev obrazining nutqida uchraydigan praktikum, minimum, maksimum, Detirding, Stending, Mering, Demping kabi so‘zlar agnonim birliklar sifatida alohida diqqatga sazovor. Bu terminlar qahramonning ijtimoiy va madaniy ko‘rsatkichini ifodalaydi — u bilimdon ko‘rinishga intiladi, biroq nutqida ishlatgan terminlarning ma’nosini o‘zi ham to‘liq anglamaydi.[77] Shu tariqa yozuvchi soxta ziyolilikni, tashqi “intellektual” ko‘rinish ortidagi mazmuniy bo‘shliqni kinoyaviy shaklda ochib beradi.

---

[73] Саликҳова Э. А., Ситдикова М. Г. Формирование и совершенствование познавательной метапредметной компетенции как гарантия успешной сдачи экзамена по русскому языку // Достижения в педагогической деятельности – 2023: ИИ Международный конкурс исследовательских проектов. – Петрозаводск, Новая наука, 2023. – С. 68–80.

[74] Саликҳова Э. А., Ситдикова М. Г. Формирование и совершенствование познавательной метапредметной компетенции как гарантия успешной сдачи экзамена по русскому языку // Достижения в педагогической деятельности – 2023: ИИ Международный конкурс исследовательских проектов. – Петрозаводск, Новая наука, 2023. – С. 68–80.

[75] Buryak N. Yu. *Problemy agnonimii v kulture yazykovoy lichnosti* // *Kulturnaya zhizn Yuga Rossii*. – 2015. – № 1 (56). – S. 54–56.

[76] Gorelikova M.I., Magomedova D.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. – M.: Russkiy yazyk, 1989. S. 5.

[77] Юлдошев Маруфжон. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таомили асослари. – Toshkent, Фан, 2007. – Б. 65.

Xuddi shunday hodisani Anton Pavlovich Chexov asarlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, “Толстый и тонкий” (“Semiz va oriq”) hikoyasida “oriq” (тонкий) obrazining nutqida rasmiy, begona so‘z va iboralar o‘rinsiz ishlatiladi: *“Моя жена — благородная, в коллежском регистре состоит…”* Bu kabi nutqiy xatti-harakatlar oriq obrazining ijtimoiy-madaniy pastligi va o‘zini yuqori tutishga bo‘lgan g‘ayritabiiy urinishini fosh etadi. Yana bir misol sifatida Chexovning “Человек в футляре” (“Futlyardagi odam”) hikoyasidagi Belikov obrazini eslash mumkin. U “по уставу”, “как предписано циркуляром” kabi iboralardan doimo foydalanadi, biroq ularning mazmunini anglamaydi. Bunda agnonimlar qahramonning fikrlash chegaralanganligini va ruhiy konservatizmini ifodalovchi vositaga aylanadi.

Shunday qilib, Qahhor va Chexov asarlarida agnonimlar ikki xil, ammo o‘xshash maqsadga xizmat qiladi: ular qahramonning nutqiy individualligini shakllantiradi, satirik mazmunni chuqurlashtiradi hamda ijtimoiy tanqidni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, agnonimlar badiiy asarda faqat semantik noaniqlik belgisi emas, balki obrazning ijtimoiy-madaniy psixologiyasini ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Abdulla Qahhor va Anton Chexov ijodidagi bunday birliklar o‘z davrining “soxta ziyoli” tipini ochishda muhim estetik rol o‘ynaydi. Har ikki yozuvchi agnonimlardan ironik, tanqidiy va xarakterologik maqsadlarda foydalanadi. Agnonimlar til va tafakkur o‘rtasidagi ziddiyatni yorituvchi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy nomuvofiqlikni ko‘rsatib beruvchi kuchli badiiy vosita sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qahhor. Adabiyot muallimi. – Toshkent: «Ziyo nashr» nashriyoti, 2019. – 128 b.
2. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019 . – 400 b.
3. Anton Chexov. Semiz va oriq. – Toshkent: «Ziyo nashr» Mas’uliyati cheklangan jamiyati, 2019. – 128 b.
4. Достоевский Ф. М. Собрание сочинений в 15-ти томах. Л., "Наука", 1991. Том 9-10. Добавлено в библиотеку: 07.07.05.
5. Чехов А.П. Человек в футляре. Рассказы. Издательский дом: Наука, 1986.
6. Мандрикова Г.М. Русская лексическая система в теоретическом и прикладном рассмотрении: категории агнонимии и таронимии: автореф. дис. … д-ра филол. наук. – М., 2011.
7. Морковкин В. В., Морковкина А. В. Русские агнонимы: понятие, состав и смысловое разнообразие. – Москва, 1997. – 32 б.
8. Buryak N. Yu. Problemy agnonimii v kulture yazykovoy lichnosti // Kulturnaya zhizn Yuga Rossii. – 2015. – № 1 (56). – S. 54–56.
9. Саликҳова Э. А., Ситдикова М. Г. Формирование и совершенствование познавательной метапредметной компетенции как гарантия успешной сдачи экзамена по русскому языку // Достижения в педагогической деятельности – 2023: ИИ Международный конкурс исследовательских проектов. – Петрозаводск, Новая наука, 2023. – С. 68–80.
10. Юлдошев Маруфжон. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таомили асослари. – Toshkent, Фан, 2007. – Б. 63–65.

JADID ADABIYOTIDA XUDKUSHLIK MOTIVI: HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING “ZAHARLI HAYOT” VA “BOY ILA XIZMATCHILARI” ASARLARI MISOLIDA

Shukurova Sabohat Odilovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi f.f.f.d.(PhD), dotsent
E-mail: sabohatshukurova04@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotida xudkushlik (suitsid) motivining badiiy va psixologik talqini Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot” va “Boy ila xizmatchilari”

pyesalari misolida tahlil qilinadi. Asarlarda ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy bosim, zo‘ravon muhit va shaxsning ruhiy sinishi kabi omillar qahramonlarning fojeiy qarorlariga qanday ta’sir qilgani lingvopoetik, konfliktologik va psixologik yondashuvlar asosida ochib beriladi. Tadqiqot Niyoziyning badiiy uslubida suitsid motivi ijtimoiy-ma’naviy muhitning tanazzuli sifatida tasvirlanishini ko‘rsatib, jadid adabiyotida inson ruhiyati tasvirining yangi ilmiy talqinini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, suitsid motivi, Hamza Hakimzoda Niyoziy, pyesa, fojea, ruhiy bosim, ijtimoiy tengsizlik, konflikt.

Abstract. This article examines the artistic and psychological interpretation of the suicide motif in Jadid literature through the analysis of Hamza Hakimzoda Niyoziy’s plays “Zaharli Hayot” and “Boy ila Xizmatchilari.” The study explores how social inequality, moral pressure, violence, and psychological breakdown influence the characters’ tragic choices, using linguopoetic, conflict-based, and psychoanalytic approaches. The research demonstrates that in Niyoziy’s works, suicide is portrayed as a direct consequence of social decay and moral collapse, offering a new scholarly perspective on the representation of human psychology in early 20th-century Uzbek Jadid literature.

Keywords: Jadid literature, suicide motif, Hamza Hakimzoda Niyoziy, play, tragedy, psychological pressure, social inequality, conflict.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественная и психологическая интерпретация мотива самоубийства в джадидской литературе на примере пьес Хамзы Хакимзоды Ниязия «Захарли хаёт» и «Бой ила хизматчилари». Анализируется, как социальное неравенство, моральное давление, насильственная среда и психологический надлом влияют на трагические решения персонажей. В исследовании используются лингвопоэтические, конфликтологические и психоаналитические подходы. Показано, что в творчестве Ниязия мотив суицида раскрывается как результат социально-нравственного кризиса, что предлагает новое научное прочтение психологии личности в джадидской литературе начала XX века.

Ключевые слова: джадидская литература, мотив суицида, Хамза Хакимзода Ниязий, пьеса, трагедия, психологическое давление, социальное неравенство, конфликт.

Kirish. Jadid adabiyoti o‘zbek ma’naviy hayotida chuqur iz qoldirgan badiiy hodisalardan biridir. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, mustamlaka zulmi, patriarxal tuzumning zo‘ravonligi, ma’naviy tanazzul va savodsizlik kabi omillar jadidlarning badiiy qarashlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ularning asarlarida inson ruhiyatining ezilishi, ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik, ayolning jamiyatdagi o‘rni, erkinlikka intilish va ruhiy iztirob motivlari alohida o‘rin tutadi. Aynan shu jarayonda Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining keskin tanqidiy ruhga ega pyesalari bilan ajralib turadi. Uning “Zaharli hayot” va “Boy ila xizmatchilari” asarlari shaxsning ruhiy sinishi, jamiyat tomonidan bosimning kuchayishi va fojeiy yakunlarga eltuvchi psixologik jarayonlarni aks ettiruvchi badiiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Zaharli hayot” pyesasida qahramonning ruhiy inqirozi oilaviy zo‘ravonlik, majburiy nikoh, erkak hukmron muhit va ayolning shaxsiy fikri qadrsizlanishi kabi omillar ta’sirida shakllanadi. Qiz qahramon o‘z hayoti ustidan egalik huquqidan mahrum bo‘lgan, erkin fikr ayta olmaydigan, jamiyat tomonidan qo‘llov topmaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning ichki iztiroblari “hayotning zahari”, “yuragimni bosgan qora tun”, “ko‘nglimni ezgan yuk” kabi metaforalar orqali lingvopoetik jihatdan chuqurlashtiriladi. Qahramonning ko‘plab sahnalarda sukut saqlashi, fikrini oxiriga yetkazmasligi, uzilib qolgan jumlalar — bularning barchasi tushkunlik va ruhiy sinishning badiiy ko‘rinishidir. Hamza bu pyesada shaxsning xudkushlikka olib boruvchi ruhiy holatini nafaqat voqealar orqali, balki nutqning ichki strukturasida, timsollar orqali ham ko‘rsatadi. Mazlum qahramonning o‘z joniga qasd qilishi — ma’naviy-ijtimoiy zulmning natijasi sifatida talqin qilinadi. Bu Durkheim tasnifida “egoistik suitsid”ga mos keladi: jamiyatdan ajralgan, qo‘llovdan mahrum shaxsning ichki bo‘shligi.

“Boy ila xizmatchilari” pyesasida esa ijtimoiy tabaqalanish, boylarning zulmi, ekspluatatsiya va qashshoqlik muammolari dramatik asosni tashkil etadi. Xizmatkorlar boylarning zo‘ravonligi, haqoratlari va og‘ir mehnat sharoitlari ostida yashaydi. Asarda bevosita xudkushlik sodir bo‘lmasa-

da, qahramonlarning ruhiy ezilishi, tobora kuchayib borayotgan qo‘rquv, umidsizlik, o‘zini ayblash, o‘z qadrini yo‘qotish kabi holatlar ularni suqutsidga yaqin ruhiy holatga olib keladi. Dialoglarning qisqaligi, qo‘rquvdan titragan nutq, bevosita javob berishdan qochish, uzoq sukutlar — bularning barchasi shaxsning ruhiy qulashining lingvistik ko‘rinishlaridir. Hamza bu pyesada kamsitilgan odamning o‘z hayotidan umid uzishini ochiq ko‘rsatib, jamiyatdagi adolatsizlikni keskin tanqid qiladi.

Har ikkala asarda suitsid motivi shaxsning individual muammosi sifatida emas, balki jamiyatning axloqiy tanazzuli, zulmkor munosabatlar tizimi va ijtimoiy tengsizlik natijasi sifatida talqin qilinadi. Hamza uchun xudkushlik — jamiyatdagi ko‘rinmas kasallikning alomati. Qahramonlarning ruhiy sinishi badiiy vositalar, tilning semantik qatlamlari, metafora va ramzlar orqali kuchli estetik ifodaga ega bo‘ladi. Jadid adabiyoti uchun xos bo‘lmagan psixologik fojia motivlari Hamza ijodida yangicha mazmun kasb etadi, chunki u suitsidni shunchaki fojiali yakun emas, balki ijtimoiy muammolar yig‘indisining badiiy hukmi sifatida ko‘rsatadi.

Hamza Niyoziy pyesalarida xudkushlikka olib keluvchi omillar ko‘p qatlamli: patriarxal zo‘ravonlik, iqtisodiy tengsizlik, ma’naviy bosim, ta’limning yo‘qligi, shaxsning fikri qadrsizlanishi, erksizlik, jamiyat tomonidan qo‘llov topmaslik. Bu omillar qahramon nutqi, harakatlari, ichki monologlari, sukut va emotsional portlashlar orqali tasvirlanadi. Ayniqsa, ichki monologlar Hamza poetikasida shaxsning ruhiy dunyosini ochib beruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qahramonlar o‘z iztiroblarini doim ovoz chiqarib aytmasada, ularning nutqidagi o‘zgarish, ohangning pasayishi, umidsiz so‘zlarning ko‘payishi — suitsidning til orqali ifodalanayotgan psixologik belgilaridir.

Natijada, “Zaharli hayot” va “Boy ila xizmatchilari” pyesalarida suitsid motivi jadid dramaturgiyasidagi eng teran psixologik qatlamlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Hamza shaxsiy fojeani emas, balki jamiyatning fojiasini tasvirlaydi. Xudkushlikning badiiy talqini orqali u mustamlaka siyosatini, ijtimoiy tengsizlikni, patriarxal zulmni va ma’naviy zulmatni keskin tanqid qiladi. Bu pyesalar orqali Hamza inson ruhiyatiga yetkazilgan adolatsizlikni fosh etadi va jamiyatning sog‘lomlashuvi uchun ma’naviy kurash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot ana shu jihatlarni aniqlash orqali jadid adabiyotida suitsid motivining badiiy-psixologik mohiyatini ochib beradi, Hamza ijodining lingvopoetik jihatlarini chuqur ilmiy yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida suitsid motivining badiiy talqini jadid adabiyotining ma’naviy-psixologik qatlamlarini chuqur anglash uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. “Zaharli hayot” va “Boy ila xizmatchilari” pyesalarida xudkushlik yoki unga yaqin ruhiy holatlar shaxsiy fojea sifatida emas, balki ijtimoiy-axloqiy tuzumning og‘ir oqibatlari sifatida tasvirlanadi. Har ikki asarda qahramonning ruhiy sinishiga olib kelayotgan bosimlar patriarxal zo‘ravonlik, iqtisodiy tengsizlik, ma’naviy tahqirlash, ekspluatatsiya va jamiyat tomonidan qo‘llovning yo‘qligi kabi tizimli muammolardan kelib chiqadi. Bu yondashuv Hamzaning dramaturgiyasini o‘zbek adabiyotida yangi psixologik yo‘nalishga olib chiqqan ijodiy innovatsiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

“Zaharli hayot” pyesasida majburiy nikoh, zo‘ravon munosabatlar va oilaviy zulm tufayli ruhiy iztirobga tushgan qiz qahramonning o‘z hayotiga qasd qilishi — bir insonning ko‘ngil holati emas, balki jamiyatdagi ma’naviy inqirozning timsolidir. Pyesadagi metaforalar, sukutlar, uzilib qolgan jumlalar va emotsional kuchayishlar qahramonning ruhiy parokandaligini lingvopoetik darajada kuchaytiradi. “Boy ila xizmatchilari”da esa bevosita xudkushlik tasvirlanmasa-da, xizmatkorlarning ruhiy ezilishi, umidsizlik, o‘z qadrini yo‘qotish, kuchli qo‘rquv va doimiy tahdid ostida yashash holatlari suqutsidga yaqin psixologik muhitni yuzaga keltiradi. Bu esa Hamzaning ijtimoiy fojialarni psixologik qatlamga ohista singdirish mahoratini ko‘rsatadi.

Hamzaning suitsid motiviga yondashuvi uni klassik tragediyadan farqlaydi. U insonning fojiasini ma’naviy tanazzulga uchragan jamiyatning bevosita mahsuli sifatida talqin qiladi. Shaxsning ruhiy tushkunligi jamiyatdagi axloqiy buzilish, savodsizlik, erkak hukmron munosabatlar va ijtimoiy adolatsizlik bilan chambarchas bog‘langan holda ifodalanadi. Bunda ichki monologlar, psixologik tasvir, ramziy obrazlar va konfliktologik unsurlar muhim rol o‘ynaydi. Jadid adabiyotida

ilgari ko‘p uchramagan psixologik fojia Hamza ijodida yangi badiiy shakl, yangi ma’naviy mazmun kasb etadi.

Shu tariqa, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot” va “Boy ila xizmatchilari” pyesalaridagi suitsid motivi — shaxsiy fojea emas, balki jamiyatning og‘riqli nuqtalarini yorituvchi kuchli badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu pyesalarda ruhiy inqirozning sabablari, uning lingvopoetik ifodasi va ijtimoiy zamiridagi omillarni tahlil qilish Hamza ijodining psixologik va ijtimoiy-estetik qirralarini yanada chuqur anglashga yordam beradi. Natijada, Tadqiqot Hamza dramaturgiyasi o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati va ijtimoiy adolatsizlikning kesishgan nuqtalarini yoritishda alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi va jadidlar davridagi ma’naviy-mafkuraviy kurashning badiiy aksini ilmiy jihatdan tahlil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. (1926). *Zaharli hayot*. Toshkent: O‘rta Osiyo Davlat Nashriyoti.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy. (1925). *Boy ila xizmatchilari*. Toshkent: O‘rta Osiyo Davlat Nashriyoti.
3. Qosimov, B. (2000). *Jadidchilik harakati*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
4. Rajabov, A. (2012). *O‘zbek dramaturgiyasi tarixi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Hamdam, H. (2015). *Dramaturgiya nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Karimov, H. (2010). *O‘zbek adabiyotida fojea janri*. Toshkent: Akademnashr.
7. Ahmedova, M. (2019). Jadid dramaturgiyasida ayol obrazining talqini. *Adabiyotshunoslik jurnali*, 3(2), 55–63.
8. Mukhitdinov, A. (2018). *XX asr o‘zbek adabiyotida ijtimoiy konflikt*. Samarqand: Registon.
9. Rasulov, S. (2021). Hamza dramaturgiyasida psixologik tahlil unsurlari. *Filologiya masalalari*, 4(1), 112–119.
10. G‘afurova, F. (2017). Jadid asarlarida ma’naviy tanazzul motivi. *Sharq yulduzi*, 5(3), 98–106.
11. Qizi, H. Z. M. (2024). WOMEN’S ROLES AND GENDER PORTRAYAL IN THOMAS HARDY’S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(57), 344-347.
12. Хамзаева, З. (2025). Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(2), 17-22.

AYOL MASALASI VA MA’NAVIY UYG‘ONISH: IQBOL MIRZO IJODIDA JADIDCHILIK RUHINING TALQINI

Hamzayeva Zebo Murodjon qizi
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
E-mail: **hamzahakimzoda@outlook.com**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Iqbol Mirzoning *Bonu* romanida ayol masalasi va ma’naviy uyg‘onish motivlari jadid adabiyoti merosi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Asarda ayolning o‘zligini anglash, erkin fikrlash va jamiyatdagi o‘rnini qayta topish jarayoni Behbudiy, Fitrat, Avloniy va Cho‘lpon ijodida shakllangan jadid ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy aloqada ko‘rsatildi. Tadqiqot Iqbol Mirzo tomonidan ayol obrazining zamonaviy badiiy talqini orqali jadidchilikning ma’naviy o‘zagini qayta jonlantirish jarayonini yoritadi. Maqola ayolning ruhiy uyg‘onishi milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin qilinganini ilmiy asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Jadid adabiyoti, ayol masalasi, ma’rifat, ma’naviy uyg‘onish, *Bonu* romani, ayol obrazining evolyutsiyasi.

Abstract. This article examines the representation of the female question and spiritual awakening in Iqbol Mirzo‘s novel *Bonu* in connection with the intellectual legacy of Jadid literature. The heroine’s pursuit of self-awareness, independent thought, and social agency is

interpreted as a modern continuation of the reformist and educational ideals articulated by Behbudiy, Fitrat, Avloniy, and Choʻlpon. The study demonstrates that Mirzoʻs portrayal of womanhood revitalizes core Jadid principles, emphasizing female enlightenment as a crucial catalyst for cultural and moral renewal in contemporary society.

Keywords: Jadid literature, female question, enlightenment, spiritual awakening, *Bonu* novel, female representation.

Аннотация. В данной статье анализируются проблема женщины и мотив духовного пробуждения в романе Икбола Мирзо *«Бону»* в контексте наследия джадидской литературы. Процесс самоосознания, интеллектуального роста и поиска социальной роли главной героини рассматривается как современная интерпретация просветительских идей Бехбуди, Фитрата, Авлони и Чулпона. Исследование показывает, что художественное решение Мирзо продолжает духовные и социальные ориентиры джадидов, подчеркивая значимость женского пробуждения для общего культурного развития общества.

Ключевые слова: Джадидская литература, женский вопрос, просвещение, духовное пробуждение, роман *«Бону»*, женский образ.

Iqbol Mirzoning *Bonu* romani zamonaviy oʻzbek adabiyotida ayolning maʼnaviy uygʻonishi, oʻzligini anglash va jamiyatdagi oʻrnini qayta belgilash masalalarini yoritib beruvchi muhim badiiy tajribalardan biridir. Ushbu mavzular XX asr boshidagi jadid adabiyotining asosiy gʻoyalari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, Behbudiy, Fitrat, Avloniy va Choʻlpon kabi maʼrifatparvarlarning ayolning taʼlimi, erkin fikrlashi va ijtimoiy mavqeini yuksaltirishga qaratilgan qarashlari bilan uygʻunlashadi. Jadidlar uchun ayolning maʼrifati millatning maʼnaviy yangilanishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlganidek, *Bonu* romanida ham ayolning ruhiy oʻzgarishi jamiyatning umumiy maʼnaviy taraqqiyoti uchun asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Shu bois mazkur mavzuni oʻrganish oʻzbek adabiyotida jadidchilik merosining zamonaviy badiiy shakllardagi davomiyligini ochib berish nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

1. Bonu romanida ayolning oʻzligini anglash jarayoni

Bonu romanining markazida ayolning ichki uygʻonishi, oʻz shaxsiy qiymatini anglash va jamiyatdagi anʼanaviy rollarga tanqidiy munosabati turadi. Qahramonning maʼnaviy oʻsishi avvalo ichki dialoglar, oʻz-oʻzini savolga tutish, jamiyatning ayol haqidagi stereotiplariga qarshi ruhiy kurash orqali ochiladi. Ayolning oʻzligini topish jarayoni jadid adabiyotidagi “maʼrifatli ayol” konsepsiyasining zamonaviy badiiy koʻrinishi sifatida talqin qilinadi.

2. Jadid adabiyotidagi ayol masalasining asosiy tamoyillari

Jadid adabiyoti ayolni avvalo maʼrifatga muhtoj shaxs sifatida koʻradi. Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Hamza va Choʻlpon singari adiblar ayolning taʼlim olish huquqi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va shaxs sifatida eʼtirof etilishi gʻoyalarini faol ilgari surgan. Jadidlar fikricha:

- ayolning savodli boʻlishi millat yuksalishining sharti;
- ayolning ijtimoiy mavqeini koʻtarish – maʼnaviy uygʻonishning boshlanishi;
- oila va jamiyatda ayolga nisbatan adolatli munosabat – taraqqiyot mezoni.

Bonu romani ana shu tamoyillarni zamonaviy adabiy jarayonda qayta aks ettirgan asar sifatida ahamiyatlidir.

3. “Bonu” romanining jadidchilik bilan ideaviy-badiiy bogʻliqligi

Asar qahramonining maʼnaviy uygʻonishi jadidlarning “yangi inson” haqidagi qarashlariga yaqin turadi. Bonuning ongidagi oʻzgarishlar:

- mustaqil fikrlashga intilish,
- jamiyat tamoyillarini qayta koʻrib chiqish,
- oʻz hayot yoʻlini tanlashga boʻlgan iroda,
- qadriyatlarni individual idrok etish,

Romanda ayolning subyektiv tajribasi orqali jamiyatning maʼnaviy holati, qadriyatlar tizimi, patriarxal normalar tanqid qilinadi. Bu esa jadidlarga xos “jamiyatni ayol orqali isloh qilish” gʻoyasining zamonaviy talqinidir.

4. Ayolning maʼrifiy uygʻonishi — jamiyat islohoti omili sifatida

Jadidlarda bo‘lgani kabi *Bonu* romanida ham ayolning ichki yetilishi faqat shaxsiy jarayon emas, balki butun jamiyatning ma’naviy yangilanishi uchun zarur bo‘lgan kuch sifatida talqin qilinadi. Qahramonning ruhiy uyg‘onishi:

- jamiyatdagi qadriyatlar inqiroziga qarshi pozitsiya,
- oila va muhitdagi adolatsizliklarga norozilik,
- ayollarning ma’naviy huquqlari uchun ramziy kurash sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada *Bonu* romani ayolning o‘zligini topishi orqali jamiyatning ma’naviy qiyofasini tiklash g‘oyasini ilgari suradi.

5. Jadid adabiy merosining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi davomiyligi

Ushbu roman jadid an’analarining hozirgi adabiy jarayondagi izchil davomiyati borligini ko‘rsatadi. Xususan:

- Jadidlarning ayol haqidagi qarashlari zamonaviy badiiy tahlilda qayta talqin qilinmoqda.
- Ayol mutafakkir, izlanayotgan shaxs sifatida gavdalanadi.
- Ma’naviy uyg‘onish va jamiyat o‘zgarishi o‘zaro bog‘langan g‘oya sifatida ko‘rsatiladi.

Shu tariqa, Iqbol Mirzo jadidchilik ruhini mazmunan davom ettirib, zamonaviy ijtimoiy muammolarni yoritadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Iqbol Mirzoning *Bonu* romanida ayol masalasi va ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari jadid adabiyotining asosiy tamoyillari bilan uzviy tarzda bog‘langan. Asardagi Bonuning o‘zligini anglash, ma’rifatga intilish va jamiyatdagi o‘rnini qayta belgilash jarayoni Behbudiy, Fitrat, Avloniy va Cho‘lpon singari jadid ziyolilari ilgari surgan “ma’rifatli ayol” konsepsiyasining zamonaviy badiiy talqini sifatida namoyon bo‘ladi. Romanda ayolning ruhiy o‘zgarishi faqat shaxsiy kechinma emas, balki jamiyatdagi qadriyatlarning yangilanishiga turtki bo‘ladigan ma’naviy hodisa sifatida tasvirlanadi. Bonuning ichki kurashi, mustaqil fikr yuritishga bo‘lgan intilishi va jamiyatdagi ayrim patriarxal normalarga tanqidiy munosabati jadidlarga xos ma’rifatparvarlik ruhining davomiyligini tasdiqlaydi. Yozuvchi jadid merosini zamonaviy adabiy-estetik shakllar orqali qayta jonlantirib, ayollarning psixologik dunyosi va ruhiy kechinmalarini yanada chuqurroq ochib beradi. Tadqiqotning eng muhim xulosasi shuki, *Bonu* romanida ayolning ma’naviy uyg‘onishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinib, jadidchilikning ayol va jamiyat haqidagi g‘oyalari bugungi adabiyotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini yaqqol ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu maqolada Iqbol Mirzoning *Bonu* romanida ayol masalasi va ma’naviy uyg‘onish motivlari jadid adabiyoti tamoyillari bilan bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, romandagi ayol obrazi XX asr boshidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining zamonaviy badiiy davomiyati bo‘lib, ayolning o‘zligini anglash jarayoni jamiyatning ma’naviy yuksalishi bilan chambarchas bog‘langan. Bonuning ma’naviy uyg‘onishi – milliy adabiyotimizda jadidchilikning yangi bosqichda davom etayotganini ko‘rsatuvchi muhim badiiy hodisadir. Iqbol Mirzo asarida ayolning ichki ovozi, ruhiy izlanishlari va jamiyatdagi o‘rniga bo‘lgan intilishi orqali eski qadriyatlar tanqid qilinadi va yangi, ma’rifatparvar yondashuv taklif etiladi. Bu esa jadid an’analarining bugungi adabiyotda ham o‘z ta’sirini yo‘qotmaganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. Behbudiy, M. (1913). Padarkush. Toshkent.
2. Fitrat, A. (1923). Oila yoki oilaning boshqarilishi. Buxoro.
3. Avloniy, A. (1917). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent.
4. Cho‘lpon, A. (1928). Kecha va kunduz. Toshkent.
5. Mirzo, I. (yil). Bonu. (Nashr tafsilotlari).
6. Rasulov, R. (2012). O‘zbek jadid adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Qosimov, B. (2005). Jadidchilik harakati va adabiyot. Toshkent.
8. Qizi, H. Z. M. (2024). WOMEN’S ROLES AND GENDER PORTRAYAL IN THOMAS HARDY’S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(57), 344-347.

9. Хамзаева, З. (2025). Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(2), 17-22.

LEXICAL INNOVATION AND LIFECYCLE DYNAMICS OF GAMING-ORIGIN NEOLOGISMS IN DIGITAL ENGLISH (2004–2025)

Mamadjanova Maftuna Uktamovna
Fergana state university, Applied English department
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Senior teacher
Phone number: +998(91)1064643
E-mail: maftuna.mamadjanova85@mail.ru
Javohir Akbarov Azimjon o‘g‘li
Second year student at Fergana State University
Phone number: +998(91) 120-22-81
E-mail: javokhr.akbarov@gmail.com

Abstract: This study examines the life cycle of neologisms originating in games that have been absorbed into English between 2004 and 2025, using Reddit, Google Trends, and the world’s biggest gaming discussion forums to show that gaming communities are rapid lexical innovators. It examines 23 terms, including “GG”, “noob”, “AFK”, “meta”, “nerf”, “buff”, “glitch”, and “speedrun”, looking at their morphological and semantic change and frequency over time. Abbreviations, acronyms and other types of compression occur most frequently, perhaps due to the need for rapid communication in a fast-paced game. The most frequent terms of general importance, such as “buff”, “nerf” and “meta” have the longest lifespans, while specific terms such as “rage quit” and “clutch” have shorter viral spikes. Semantic broadening also seems to be present, which could potentially play a role in the word’s continued use. Therefore, this study shows that the processes of innovation-diffusion within gaming can create durable vocabulary through semantic extension and digital diffusion.

Keywords: gaming neologisms, lexical innovation, digital English, abbreviation, semantic shift, lexical diffusion, gaming discourse.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot 2004 yildan 2025 yilgacha ingliz tiliga kirib kelgan o‘yinlardan kelib chiqqan yangiliklarning hayotiy siklini tahlil qiladi va Reddit, Google Trends hamda dunyodagi eng katta o‘yin forumlaridan foydalanib, o‘yin jamoalari tezkor leksik innovatorlar ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot 23 ta atamani, jumladan “GG”, “noob”, “AFK”, “meta”, “nerf”, “buff”, “glitch” va “speedrun”ni o‘rganib, ularning morfologik va semantik o‘zgarishlari hamda vaqt o‘tishi bilan chastotasini tahlil qiladi. Qisqartmalar, akronimlar va boshqa kompressiya turlari eng ko‘p uchraydi, bu tezkor o‘yinlarda samarali muloqot zaruratidan kelib chiqishi mumkin. Umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan “buff”, “nerf” va “meta” kabi atamalar uzoq vaqt davomida ommalashib qoladi, shu bilan birga, “rage quit” va “clutch” kabi maxsus atamalar qisqa muddatli viral o‘sishlarga ega bo‘ladi.. Semantik kengayish ham mavjud bo‘lib, bu atamaning uzoq muddatli ishlatilishiga yordam berishi mumkin. Shunday qilib, ushbu tadqiqot o‘yinlarda innovatsiya-diffuziya jarayonlari semantik kengayish va raqamli diffuziya orqali mustahkam lug‘at yaratishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘yin neologizmlari, leksik innovatsiya, raqamli ingliz tili, qisqartmalar, semantik o‘zgarish, leksik diffuziya, o‘yin diskursi.

Аннотация: Это исследование анализирует жизненный цикл неологизмов, происходящих из игр и вошедших в английский язык в период с 2004 по 2025 годы, используя данные с Reddit, Google Trends и крупнейших игровых форумов для демонстрации того, что игровые сообщества являются быстрыми лексическими инноваторами. Рассматриваются 23 термина, включая “GG”, “noob”, “AFK”, “meta”, “nerf”, “buff”, “glitch” и “speedrun”, исследуются их морфологические и семантические изменения, а также частота использования во времени. Аббревиатуры, акронимы и другие формы сжатия встречаются

чаще всего, возможно, из-за необходимости быстрого общения в динамичных играх. Наиболее частые термины общего значения, такие как “buff”, “nerf” и “meta”, имеют наибольшую продолжительность жизни, в то время как специфические термины, такие как “rage quit” и “clutch”, имеют более короткие вирусные пики. Также наблюдается явление семантического расширения, что может способствовать продолжительному использованию этих слов. Таким образом, исследование показывает, что процессы инновации и диффузии в играх могут создавать долговечный лексикон через семантическое расширение и цифровую диффузию.

Ключевые слова: игровые неологизмы; лексические инновации; цифровой английский; аббревиатуры; семантический сдвиг; лексическая диффузия; игровой дискурс

Introduction. In the 21st century, the internet has been influential in coining new words and phrases, with viral ecosystems that produce, disseminate, and expire words in a matter of days. Video games are an abundant source of lexicalization. In this way, social interaction becomes both collaborative and adversarial, requiring explicitness, conciseness, and expressiveness. Players invent and adapt a wide vocabulary to describe the rules of the game, their own performance, and social relations between themselves and others at the table. Customary neology studies have focused on the processes of derivation, compounding, borrowing, and meaning change, but today, the processes of neologization in electronic media are accelerated by algorithmic distribution and memetic culture. Additionally, neologisms often have short lifespans: they are typically adopted globally before they begin to become less common. Research has also shown that the persistence of such neologisms is sensitive not only to the conversational requirement that they exist, but also to the structure of online social networks, with tightly-knit communities helping to stabilise a neologism before its later spread.

Literature Review and Methodology

The study uses twenty-three gaming-origin English language neologisms, including GG, noob, AFK, rage quit, respawn, level up, grind, OP, nerf, buff, meta, pwn, troll, boss fight, clutch, glitch, cheat code, XP, loot, spawn, speedrun, combo, 1v1, to assess the linguistic and functional devices used in lexical innovation in gaming language. The terms were selected based on actual usage of the words in gaming communities, which was tracked through Google Trends from 2004 to 2025, and confirmed through Reddit posts made in the most popular gaming subreddits. Corpus linguistics methods were used in this descriptive analysis to both qualitatively interpret the morphological, semantic, and practical features and evolution of each term and quantitatively identify trends relating to the emergence, spread, stabilisation, or decline of digital neologisms in the observed semiotic networks.

Discussion. The results suggest that abbreviations or acronyms (GG, AFK, OP, XP, 1v1) are the most common type in situations where time is limited and speed of typing is of the essence. There also exist compounds (rage quit, boss fight), derivations (respawn, level up) and semantic shifts (grind, meta), but these appear less frequent. Such abbreviations are in keeping with a general trend in digital communication of brevity.

Another morphological pattern defines terms with game-specific applications, like respawn, buff, or nerf. Another pattern, however, is when the term extends the metaphor of the broader use to the game-specific context, as “grind” refers to both a repeated action in the game and long-term practice to finish tasks in reality. Semantic broadening, from the specific best play in a game to any broader cultural trends, is one way to greatly extend a term’s lifespan. Sociolinguistically, gaming neologisms such as the terms “noob”, “OP”, or “troll” indicate group membership and social evaluation through their judgement of in-game behaviour, skill or strategy as well as by encouraging in-group behaviour. Their ability to expand outside the gaming context indicates their broad usability. For some of these terms, use outside gaming communities entails some degree of realistic bleaching in general use.

Results. Future work focusing on the diffusion patterns found in this corpus showed that general and system-specific terms such as “buff”, “nerf” or “meta” maintained their search statistics over the long term, while context and event-specific terms like “rage quit”, “clutch” and “grind”

had very high dictionary hits for a very short period of time based on the release of a game or a relevant cultural event, only to lose traction when these events are no longer relevant. Most neologisms survived through semantic broadening. Stable neologisms mostly map to universal game concepts for example “spawn” “respawn” “speedrun” while unstable neologisms are specific community slang for example “pwn” “troll”. The results indicate that Reddit and Discord serve as incubators for new lexicon, while TikTok and Twitter are used in ephemeral bursts of visibility. As a whole, gaming discourse appears to drive lexical turnover and contribute durable features to digital English via semantic flexibility and cross-contextual re-usage (see Table 1).

Table 1: Gaming Neologism Findings

Term Type	Examples	Finding Summary
General/System-Specific	buff, nerf, meta	Maintain long-term search stats
Context/Event-Specific	rage quit, clutch, grind	High dictionary hits but short-lived, based on events like game releases
Universal Game Concepts	spawn, respawn, speedrun	Map to universal game concepts, long-lasting
Community Slang	pwn, troll	Specific to gaming communities, short-lived
Survival Through Semantic Broadening	Yes	Terms survive by broadening their meaning
Stable/Unstable Neologisms	Stable: spawn, respawn, speedrun; Unstable: pwn, troll	Stable terms are universal game concepts; unstable terms are community slang
Platforms	Reddit, Discord, TikTok, Twitter	Reddit and Discord incubate new lexicon; TikTok and Twitter provide short-term visibility bursts

Conclusion

The flexible use of English in hybrid online spaces has been a subject of research in gaming studies. The fast-paced and collaborative nature of communication in such spaces results in players constantly coining new, short, and expressive forms to accomplish their immediate communicative goals. Though the majority of neologisms are ultimately short-lived, cross-domain semantic broadening also allows some to become moderately established features of standard everyday digital English. As a result, neologisms emerging from gaming typically spread quickly before fading or spread more slowly until achieving wider acceptance. Where crowds of users are large, the public use of language is often less fleeting than viral forms of social media. Gaming continues to innovate the modern English lexicon, and future work may develop on the multimodal, cross-linguistic, and computational approaches defining this investigation into how digital ecosystems shape the lexicon.

References

1. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods, and applications.* John Benjamins.
2. Cook, G. (2010). *Applied linguistics and language teaching*. Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2001). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
4. Fischer, R. (1998). Lexical change in present-day English: A corpus-based study of neologisms. *Lexicology, 4*(1), 119–137.
5. Keidar, D., Peled, L., & Goldberg, Y. (2022). Slangvolution: A causal analysis of semantic change and frequency dynamics in slang. *arXiv:2203.04651*.
6. Labov, W. (1994). *Principles of linguistic change: Internal factors.* Blackwell.
7. Lehrer, A. (2007). Neologisms. In *Lexical creativity, texts and contexts* (pp. 1–15). John Benjamins.
8. Milroy, J., & Milroy, L. (1992). Social network and social class: Toward an integrated sociolinguistic model. *Basil Blackwell*.

9. Shahlee, R. N., & Ahmad, N. (2022). Morphological processes of social media neologisms. *Discourse and Interaction in Language Studies, 3*(2), 45–59.
10. Zappavigna, M. (2012). *Discourse of Twitter and social media: How we use language to create affiliation on the web*. Bloomsbury.
11. Zhu, J., & Jurgens, D. (2021). The structure of online social networks modulates the rate of lexical change. In *Proceedings of the 2021 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing*.

THE INFLUENCE OF CHRISTIANITY ON OLD ENGLISH LITERATURE

Turayeva Ayajan Yerali qizi[1]
Email: ayajanyeraliqizi@gmail.com
[1]Third year student at Chirchik State Pedagogical University,
[1]Bo‘stonlik district, Yangiaul, Kora Tepa 50
Isroilova Tursuntosh[2]
[2]Teacher at the Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This article explores the profound influence of Christianity on Old English literature from the 5th to the 11th centuries. The arrival of Christian missionaries in England, notably St. Augustine in 597 AD, led to the incorporation of biblical themes, moral teachings, and religious symbolism into poetry, prose, and historical texts. The study examines major literary works, including Beowulf, The Dream of the Rood, and hagiographical writings, highlighting the ways in which Christian ideology reshaped literary forms and cultural values. The research demonstrates how Christianity served as both a moral compass and a creative inspiration, fostering a synthesis between pagan traditions and Christian teachings.

Keywords: Christianity, Old English literature, Anglo-Saxon, hagiography, Beowulf, The Dream of the Rood

Annotatsiya: Ushbu maqola V–XI asrlarda xristianlikning Qadimgi ingliz adabiyotiga ko‘rsatgan chuqur ta’sirini o‘rganadi. 597-yilda Avliyo Avgustin boshchiligidagi xristian missionerlarining Angliyaga kelishi she’riyat, nasr va tarixiy matnlarga bibliyaviy mavzular, axloqiy ta’limotlar hamda diniy ramzlarning singib kirishiga sabab bo‘lgan. Tadqiqot “Beovulf”, “The Dream of the Rood” (“Xochning tushlari”) kabi yirik asarlar hamda hagiografik matnlarni tahlil qilib, xristian mafkurasi adabiy shakllar va madaniy qadriyatlarni qanday yangidan shakllantirganini ko‘rsatadi. Maqola xristianlikning axloqiy mezon sifatida ham, ijodiy ilhom manbai sifatida ham xizmat qilganini, shuningdek, butparast an’analar bilan xristian ta’limotlarining sintezini rivojlantirgani haqida xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: xristianlik, qadimgi ingliz adabiyoti, anglo-sakson, hagiografiya, Beovulf, The Dream of the Rood

Аннотация: Данная статья посвящена изучению глубокого влияния христианства на древнеанглийскую литературу V–XI веков. Прибытие христианских миссионеров в Англию, в частности святого Августина в 597 году, способствовало проникновению библейских сюжетов, нравственных учений и религиозной символики в поэзию, прозу и исторические тексты. В исследовании рассматриваются крупные литературные произведения, такие как «Беовульф», «The Dream of the Rood» («Сон о Кресте»), а также агиографические сочинения, что позволяет выявить, каким образом христианская идеология преобразовала литературные формы и культурные ценности. Работа демонстрирует, что христианство выступало одновременно нравственным ориентиром и источником творческого вдохновения, обеспечивая синтез языческих традиций и христианских учений.

Ключевые слова: христианство, древнеанглийская литература, англосаксы, агиография, Беовульф, The Dream of the Rood

Introduction. Old English literature represents a period of cultural and spiritual transformation in England. Prior to the Christianization of the Anglo-Saxons, literature was primarily influenced by pagan traditions, focusing on heroic deeds, oral storytelling, and ritualistic

expressions. With the arrival of Christian missionaries, most notably St. Augustine of Canterbury in 597 AD, England experienced a profound cultural shift. Christian teachings introduced new moral frameworks, theological concepts, and literary forms. Anglo-Saxon writers, faced with the challenge of integrating these new ideals, began blending Christian motifs with traditional pagan narratives, creating a literary tradition that reflects the coexistence of both cultural influences.

The significance of Christianity in shaping Old English literature is multifaceted. It affected the thematic content of texts, the moral purpose of storytelling, and the literary devices employed. Christian writers emphasized moral instruction, divine providence, and spiritual reflection, often framing human experience within the context of God's plan. This literary evolution illustrates how Christianity not only altered religious practice but also shaped the intellectual and artistic expression of the Anglo-Saxon period (Treharne, 2014).

Christianity in Old English Poetry

Christianity's influence on Old English poetry is evident both in content and form. The epic Beowulf, while rooted in a heroic and martial culture, integrates a Christian perspective. The poet frequently references God's providence, framing the hero's victories and survival as acts guided by divine will rather than mere human skill. For example, when Beowulf confronts Grendel, the poem suggests that it is God who grants him the strength to succeed, reflecting the Christian concept of divine intervention (Liuzza, 2000). This integration of Christian ethics into a traditionally pagan narrative exemplifies the transitional nature of the period.

The Dream of the Rood, another pivotal work, demonstrates the fusion of Christian ideology with Anglo-Saxon poetic techniques. In this poem, the cross itself is personified, speaking to the audience as a witness to Christ's crucifixion. The cross is depicted as both a loyal companion and a heroic figure, reflecting the Anglo-Saxon admiration for courage and loyalty while simultaneously conveying a Christian message of salvation and divine sacrifice. Scholars argue that the poem's structure and imagery reveal how Christian writers adapted existing heroic conventions to communicate spiritual truths (Orchard, 1995).

Religious poetry often served didactic purposes, aiming to instill moral virtues in the audience. Poems such as Christ II emphasize the fleeting nature of earthly life and the eternal significance of spiritual devotion. The recurrent themes of sin, redemption, and divine judgment underscore the moral authority of Christianity in guiding human behavior. Through these poetic works, writers sought to educate audiences while also preserving elements of their cultural heritage, resulting in a hybrid literary form that merges traditional heroism with Christian morality.

Hagiography and Moral Instruction

Hagiographical literature, which narrates the lives and miracles of saints, became a central literary form during the Christianization of England. Works such as The Life of St. Guthlac and The Life of St. Cuthbert provide detailed accounts of saints' lives while promoting ideals of piety, humility, and obedience. These texts contrast the spiritual achievements of saints with worldly vices, demonstrating the transformative power of Christian virtue in the lives of believers.

Hagiography also served a pedagogical function. By presenting saints as role models, these texts guided Anglo-Saxon audiences in moral and spiritual development. The narratives were often structured to highlight trials, temptations, and triumphs, reinforcing the importance of faith, perseverance, and devotion. In this sense, hagiographical writing not only preserved historical and spiritual knowledge but also contributed to the moral education of early English society (Bede, 1990).

Christianity in Old English Prose

Prose works from the Old English period also reflect Christian influence. The Anglo-Saxon Chronicle, a key historical record, interprets events through a Christian framework, presenting military victories, natural disasters, and political changes as manifestations of divine will. Such interpretations reinforced the notion that human history was guided by God and emphasized the moral responsibility of rulers and communities. Bede's Ecclesiastical History of the English People provides another example of Christian literary influence in prose. Bede combined historical fact with moral commentary, demonstrating how writing could serve both an educational and spiritual

purpose. Through his work, Bede established a precedent for blending historical narrative with theological reflection, shaping the development of English prose and promoting the moral and intellectual authority of the Church (Bede, 1990).

Symbolism and Allegory

Christian symbolism and allegory became important literary devices in Old English literature. Texts like The Dream of the Rood and Christ utilize symbolic figures and allegorical frameworks to communicate theological concepts. The cross, Christ, and other religious symbols are often imbued with layered meanings, combining spiritual, ethical, and cultural significance. This symbolic richness allowed writers to engage audiences on multiple levels, blending familiar cultural imagery with Christian teachings.

Conclusion

Christianity profoundly shaped Old English literature, influencing poetry, prose, hagiography, and historical writing. By introducing moral frameworks, biblical themes, and spiritual symbolism, Christian writers transformed traditional Anglo-Saxon literary forms, creating a synthesis of pagan and Christian values. Works such as Beowulf, The Dream of the Rood, and hagiographical texts illustrate how literature became a medium for moral instruction, cultural integration, and spiritual reflection. The enduring impact of Christianity on Old English literature underscores the dynamic interplay between faith and culture, highlighting the importance of religious ideology in shaping the literary imagination of early medieval England.

References

1. Bede, Venerable. Ecclesiastical History of the English People. Translated by Leo Sherley-Price, Penguin Classics, 1990.
2. Liuzza, R. M., ed. Beowulf: A New Verse Translation. Broadview Press, 2000.
3. Orchard, Andy. Pride and Prodigies: Studies in the Monsters of the Beowulf Manuscript. Cambridge University Press, 1995.
4. Treharne, Elaine. Old and Middle English Literature. Oxford University Press, 2014.

ПЕДАГОГ СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ -ЭТО ЧЕЛОВЕК, ПРЕДАННЫЙ СВОЕМУ ДЕЛУ И СВОИМ УЧЕНИКАМ

Нишанов Шавкат Турабович,
Старший преподаватель кафедры методики преподавания языков
Сарибоев Хусниддин Алмахамматович
Джизакского областного центра педагогического мастерства.
Учитель русскоко языка ср.шк.№16 Фаришского района

Аннотация: статья посвящена актуальной на сегодняшний день проблеме, каким должен быть современный педагог. Представлено определение понятия «фасилитатор», т.е педагог, являющийся активным и объективным участником процесса обучения.

Аннотация: мазкур мақолада бугунги кунда долзарб булган, замонавий ўқитувчи қандай булиши керак деган мавзуси хақида сўз юритилади. Замонавий ўқитувчи “фасилитатор” бўлиши лозим.

Resume: On this article devoted to the actual problem how should be modern teacher for today. The term “facilitator” is defined. A modern teacher should be a facilitator.

kislotalari va trans yog‘ kislotalariga (TYK) aylanadi, shu bilan birga yog‘ning oksidlanishga chidamliligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yog‘ning haddan tashqari namligi jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, gidrolizga va erkin yog‘ kislotalarining hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Ushbu salbiy ta’sirni yumshatish uchun tadqiqotchilar yog‘larni avtoklavlashdan oldin yoki keyin quritishni tavsiya qiladilar, chunki bu birikmalar yuqori haroratli gidrogenlash sharoitida va nikel katalizatoridan foydalanishda sovunlanishi mumkin. Gidrogenlash jarayonining dastlabki bosqichi yog‘ni 140°C gacha qizdirishni o‘z ichiga oladi, bu tahlil qilingan barcha tadqiqotlarda xabar qilingan reaksiya uchun boshlang‘ich haroratdir. Reaksiyaning o‘ziga xos harorati yog‘ turiga va trans yog‘ kislotalari hosil bo‘lishining kerakli darajasiga qarab o‘zgarishi mumkinligi aniqlandi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, moyni gidrogenlashning eng keng tarqalgan ta’rifi nikel katalizator sifatida ishlatilganda to‘yinmagan yog‘lardagi qo‘shaloq bog‘lanishlarning to‘yinganligidir. Bu jarayon haqiqiy to‘yinganlikdan tashqari murakkab reaksiyalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Bosqichma-bosqich gidrogenlash uskunasi nisbatan oddiy dizaynga ega. Barcha tahlil qilingan tadqiqotlarda aniqlangan asosiy dizayn xususiyatlari 35-40 kPa o‘lchov bosimiga bardosh bera oladigan idish, aralashtirgich, isitish va sovutish mexanizmi, vodorod kirish joyi, quvur liniyasi, xom ashyo nasosi va reaksiya jarayonini kuzatish uchun namuna olish trubkasini o‘z ichiga oladi. Ushbu uskuna uchta asosiy parametrni boshqarish imkonini beradi: bosim, harorat va aralashtirish tezligi.

Tahlil qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, reaksiyadagi vodorod bosimi asosiy reaktor bo‘shlig‘ida o‘lchanadi va kirish klapani tomonidan boshqariladi. Metan, azot, karbonat angidrid va uglerod oksidi kabi gazsimon aralashmalarni olib tashlash uchun bosh bo‘shlig‘idan ham ventilyatsiya qilish mumkin. Biroq, bu ventilyatsiya jarayoni vodorod gazining yo‘qolishiga olib keladi. Sanchez va boshqalar ventilyatsiya reaksiya aralashmasi orqali vodorod oqimini oshiradi, natijada aralashtirish kuchayadi, deb xabar berishadi [6]. Reaktorni aralashtirishga bir nechta omillar ta’sir qiladi. Asosiylari aralashtirgich pichoqlarining turi va tezligidir. Bundan tashqari, umumiy aralashtirish effektiga isitish va sovutish bobinlarining dizayni va soni, to‘siqlarning mavjudligi va vodorodning reaktorning pastki qismidagi teshilgan taqsimlash halqasi orqali kirish tezligi ta’sir qiladi. Partiyali gidrogenlash paytida moyni isitish odatda yuqori bosimli bug ‘bobinlari yordamida amalga oshiriladi. Tahlil qilingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, nikel katalizatori bilan gidrogenlash uchun 140 dan 225 daraja Selsiy oralig‘idagi harorat ishlatilgan. Lang va boshqalar. yuqori haroratga reaksiyani standart boshlang‘ich haroratda boshlash va uni kerakli darajaga ko‘tarish uchun ekzotermik reaksiya issiqligini ta’minlash orqali erishish mumkinligini isbotladilar [7].

Gidrogenlash jarayonida trans yog‘ kislotasi izomerlarining hosil bo‘lishiga moyning to‘yinmaganlik darajasi va turli jarayon sharoitlari ta’sir qilishi aniqlangan. 1-jadvalda bu omillar TFA ishlab chiqarishga qanday ta’sir qilishi haqida umumiy ma’lumot berilgan. Vodorod trans izomerizatsiya jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaganligi sababli, katalizatorga yetarli miqdorda yetkazib berish muhimdir. Bunga bosimni oshirish yoki aralashtirish sharoitlarini yaxshilash orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, to‘yinmagan yog‘ kislotalariga boy yog‘lar yuqori darajada to‘yingan yog‘larga qaraganda ko‘proq vodorod talab qiladi.

Yog‘larni qotishmali katalizatorlarda gidrogenlash orqali kerakli xususiyatlarga ega bo‘lgan iste’mol qilinadigan yog‘larni olish bir qator sabablarga ko‘ra qiyin bo‘lishi mumkin. Samaraliroq jarayon qotishmali katalizatorlarda qisman gidrogenlash orqali ma’lum bir qattiq-suyuq nisbatga ega suyuq yog‘larni ishlab chiqarish bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, nonlar uchun juda muhimdir, chunki bir xillik uchun tanlab gidrogenlash talab qilinadigan margarin va qattiq qandolat yog‘laridan farqli o‘laroq, tanlab gidrogenlashmagan yog‘larda qattiq va suyuq glitseridlarning bir vaqtning o‘zida mavjudligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun Isabaev va boshqalar paxta yog‘ini gidrogenlash uchun ikki bosqichli uzluksiz texnologiyani ishlab chiqdilar [5 Jarayon nikel-mis-rodiy-alyuminiy katalizatoridan foydalangan holda bir qator ustunli reaktorlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot mualliflarining fikriga ko‘ra, ushbu texnologiya tanlanmagan qisman gidrogenlash imkonini beradi, natijada belgilangan qattiq-suyuq nisbatga ega yog‘lar ishlab

chiqariladi. Bunday texnologiyalarning rivojlanishi texnologik mulohazalar (masalan, kerakli yog‘ tarkibi), iqtisodiy omillar (masalan, unumdorlik) va ijtimoiy jihatlar (masalan, trans yog‘ kislotalari miqdorini kamaytirish) bilan bog‘liq. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p funksiyali faol qotishma katalizatorlarida tanlanmagan gidrogenlash kabi ikki bosqichli to‘yinganlik jarayonidan foydalanish iste’mol qilinadigan yog‘larni ishlab chiqarishda kerakli texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqotda bosqichma-bosqich gidrogenlash texnologiyasidan foydalangan holda maqsadli yog‘larni ishlab chiqarishning asosiy yondashuvlari tahlil qilindi va ularni qo‘llash usullari o‘rganildi. Yog‘larni bosqichma-bosqich gidrogenlashning eng keng tarqalgan jarayon xususiyatlari, shuningdek, reaksiya davomida ishlatiladigan vodorod va katalizatorga qo‘yiladigan talablar aniqlandi. Gidrogenlash ko‘pincha 140 dan 225 daraja Selsiygacha bo‘lgan haroratlarda amalga oshirilishi ko‘rsatildi. Suyuq shaklda olingan vodorod va katalizator sifatida nikel eng ko‘p ishlatiladi.

Tadqiqot shuni aniqladiki, yog‘larni gidrogenlash katalizatorining eng muhim xususiyatlari uning faolligi, chidamliligi, selektivligi va izomer hosil bo‘lishining barqarorligidir. Katalizator selektivligi bosqichma-bosqich gidrogenlash orqali maqsadli yeyiladigan yog‘larni olishda asosiy omil ekanligi aniqlandi. Turli tadqiqotchilar bu atamaning turli ta’riflaridan foydalanishlari aniqlandi. Selektivlikning eng mos ta’rifi gidrogenlash paytida turli reaksiyalarning tezligidir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, katalizatorni qayta ishlatish selektivlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, eng muhim komponentlarni olish uchun uni qayta ishlatishdan qochish kerak. Yog‘larning ozuqaviy sifatini pasaytiradigan trans-yog‘ kislotasi izomerlarining hosil bo‘lishi bosqichma-bosqich gidrogenlash texnologiyasining asosiy kamchiliklaridan biri sifatida aniqlandi. Trans-yog‘ kislotasi izomerlarining hosil bo‘lishiga hissa qo‘shadigan asosiy omillar yuqori harorat, katalizatorning o‘ziga xosligi va yuqori darajada to‘yinmagan yog‘ kislotalariga ega xom ashyolardan foydalanish sifatida aniqlandi.

Sanoatdagi asosiy ehtiyojlardan biri trans to‘yinmaganlikni hosil qilmasdan dienlar va trienlarni monoenlarga samarali aylantira oladigan katalizatorlarni ishlab chiqish ekanligi ko‘rsatildi. Bu barqaror yeyiladigan yog‘larni yaratish uchun yuqori to‘yinmagan yog‘ kislotalari miqdoriga ega substratdan foydalanish imkonini beradi va refrakter glitseridlarni olib tashlash uchun qo‘shimcha ishlov berish zaruratini yo‘q qiladi. Gidrogenlash tadqiqotlarida sezilarli yutuqlarga qaramay, bu masalalar qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi. Bosqichma-bosqich gidrogenlash texnologiyasi soya sanoatida, shuningdek, moslashtirilgan xususiyatlarga ega qandolat va non mahsulotlari yog‘larini ishlab chiqarishda eng faol qo‘llanilishi aniqlandi.

Olingan natijalar sis/trans izomerizatsiyasi muammosini hal qilishda ma’lum erish nuqtasiga ega bo‘lgan, shuningdek, kerakli organoleptik xususiyatlarga ega bo‘lgan maqsadli yog‘larni olish uchun bosqichma-bosqich gidrogenlash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Патель, А. Р., Николсон, Р. А. и Марангони, А. Г. Применение жировых миметиков для замены насыщенных и гидрогенизированных жиров в пищевых продуктах. Current Opinion in Food Science, 2020. 33 (3), 61-68.

2. Бхандари, С. Д., Дельмонте, П., Хонигфорт, М., Ян, В., Дионисси, Ф., Флейт, М. и Бергесон, Л. Л. Изменения в регулировании, влияющие на производство и использование жиров и масел: фокус на частично гидрогенизированные масла. Журнал Американского общества нефтехимиков, 2020. 97 (8), 797-815.

3. Брюс, Дж. Х. Технологические проблемы снижения содержания насыщенных жиров в пищевых продуктах. Nutrition Bulletin, 2020. 45 (3), 315-320.

4. Отенг, А. Б. и Керстен, С. Механизмы действия трансжирных кислот. Advances in Nutrition, 2020. 11 (3), 697-708.

5. Исабаев,И.Б.,Худайкулов,А., Н, Д., Ашурова, З, Турсунова, У. Получение технологически и физиологически функциональных жировых продуктов специального

назначения. Серия конференций IOP: Науки о Земле и окружающей среде, 2021. 848 (1), 12-20.

6. Санчес, М. А., Торрес, Г. К., Мацциери, В. А. и Пик, К. Л. Селективное гидрирование жирных кислот и метиловых эфиров жирных кислот для получения жирных спиртов — обзор. Журнал химической технологии и биотехнологии, 2017. 92 (1), 27-42.

7. Jang, E. S., Jung, M. Y. и Min, D. B.. Гидрогенизация для низкотранс- и высококонъюгированных жирных кислот. Comprehensive Reviews in Food Science and Food Safety, 2005.4 (1), 22-30.

8. Саттаров К. Получение целевых пищевых жиров в технологии ступенчатого гидрирования и их использование. Innovaciencia Facultad de Ciencias Exactas Físicas y Naturales, 2023. 11 (1), 1–13

MODDA MIQDORI MASALALRINI YECHISH ORQALI 7 – SINF O‘QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Bosimov Sulton Dilshodjon o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi
O‘zbekiston
Telefon: +998(94) 346-50-28
E-mail: sultonbekbosimov125@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 7–sinf kimyo darslarida modda miqdori masalalarini yechish jarayoni orqali o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo‘llari, didaktik yondashuvlar va amaliy misollar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: masala, kompetensiya, kimyo ta’limi, tafakkur, kimyoviy qonunlar, individual qobiliyatlar, mantiqiy tafakkur, ta’lim strategiyalari.

Аннотация: В этой статье анализируются эффективные способы, дидактические подходы и практические примеры развития компетенций у учащихся в процессу решения задач на количество вещества на уроках химии в 7– классах.

Ключевые слова: Пример, компетентность, химическое образование, мышление, химические законы, индивидуальные способности, логическое мышление, образовательные стратегии

Annotation: This article analyzes effective ways, didactic approaches, and practical examples of developing competencies in students through the process of solving problems with the amount of substance in 7th grade chemistry classes.


Keywords: examples, competence, chemistry education, thinking, chemical laws, individual abilities, logical thinking, educational strategies

Kimyoviy masalalarni yechishdan asosiy maqsad - kimyoviy qonun va qoidalarni, ulardan foydalanishni bilish, kimyoviy formulalar tuzishni o‘rganish va ularni tobora rivojlanayotgan hozirgi zamon kimyo faniga, uning yutuqlariga tatbiq eta olishdan iboratdir. Masalalarni yechishga kirishishdan oldin zarur nazariy vaamaliy materiallarni takrorlash muhim ahamiyatga ega. Kimyoviy masalalarni yechish usullari turlicha bo‘lib, masalalarni yechishda qaysi usulni tanlash masalaning shartidan kelib chiqadi. Masala yechish uchun uning aniq rejasini tuzib olish va imkoni boricha ixcham, qisqa usul bilan yechishga harakat qilish kerak. Har qanday holatda ham masala yechishda e’tiborni quyidagilarga qaratish zarur:

- Masalani o‘qib, tanishib chiqib ayni masala orqali hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni aniqlash;
- Masala shartida qaysi modda va uning tarkibida qaysi element ishtirok etishini belgilash;
- Masalada ishtirok etuvchi moddalarning molyar massasi, nisbiy molyar massasi, molyar hajmi, elementning tartib nomeri, nisbiy atom massasi vaboshqa tushunchalarni aniqlash;
- Masala kimyoning qaysi bo‘limiga taalluqli ekanligini aniqlash;

Kompetensiya — bu o‘quvchining o‘z bilimini amalda qo‘llash, muammoni mustaqil hal qila olish, qaror qabul qilish va muloqot qilish kabi qobiliyatlar majmuidir. Kimyo ta’limida masalalar yechish quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi:

- Fanga oid kompetensiya — kimyoviy formulalar, tenglamalar, nisbatlar va qonunlarni qo‘llash.
- Mantiqiy-ijodiy fikrlash kompetensiyasi — berilgan ma’lumotlardan yangi xulosa chiqarish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish.
- Amaliy kompetensiya — laboratoriya ishlarida modda miqdorini hisoblash, reaktivlar sarfini aniqlash.
- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi — jadval, diagramma, davriy jadval ma’lumotlarini mustaqil izlash va qo‘llash.
- Kommunikativ kompetensiya — guruhda masalalar muhokamasi, bir-birini tinglash va dalillash.
- O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — mustaqil ishlash, topqirlik va mas’uliyatni shakllantiradi.



Modda miqdori masalalarini yechish 7–sinflarda mavzuni samarali o‘qitishning eng muhim usullaridan biridir. To‘g‘ri tanlangan va tizimli berilgan masalalar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki mantiqiy fikrlash, amaliy ko‘nikma, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, mustaqil o‘rganish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Masalalar tizimini bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish esa o‘quvchilarning fan bo‘yicha tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi. 7–sinf kimyo darsida modda miqdori masalalarini yechish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki **hayotiy kompetensiyalarni**, ya’ni mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, tahlil qilish, muloqot qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini kuchli ravishda shakllantiradi. Shu bois masalalarni metodik jihatdan to‘g‘ri tanlash, ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash hamda o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etish zamonaviy ta’limning muhim talabidir. Masalan quyidagi 7–sinf o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantiradigan kimyoviy masalalarni bir nechtasini ko‘rib chiqamiz.



1 – masala. Massasi 72 gr bo‘lgan suvning (H_2O) modda miqdorini aniqlang?

1 – usul.
Berilgan:
m(H_2O) = 72 gr
Mr(H_2O) = 18 gr/mol
Topish kerak:
n(H_2O) = ?

Yechish: $\mathbf{n = \frac{m}{M_r}}$ formuladan foydalanib berilgan suv massasini uning nisbiy molekulyar massasiga bo‘lamiz.

$$\mathbf{n = \frac{m}{M_r} = \frac{72\ gr}{18\ gr/mol} = 4\ mol}$$

Javob: *4 mol*

2 – usul.
Berilgan:
m(H_2O) = 72 gr
Mr(H_2O) = 18 gr/mol
Topish kerak:
n(H_2O) = ?

Yechish: Berilgan qiymatlardan foydalanib berilgan masalani yechishda proporsiyadan foydalanamiz.

1 mol ——————— 18 gr/mol (H_2O)

x mol ——————— 72 gr (H_2O)

$\boldsymbol{x = \frac{72\ gr * 1\ mol}{18\ gr/mol}}$ = 4 mol **Javob:** *4 mol*



2 – masala. Hajmi 33,6 L bo‘lgan suvning (H_2O) modda miqdorini aniqlang?

1 – usul.
Berilgan:
$V(H_2O)$ = 33,6 L
$V_M(H_2O)$ = 22,4 L
Topish kerak:
$n(H_2O)$ = ?

Yechish: $n = \frac{V}{V_M}$ formuladan foydalanib berilgan suv hajmini molyar hajmga bo‘lamiz.(***Izoh:****suvning massasini hisobga olmang.)*

$$n = \frac{V}{V_M} = \frac{33,6}{22,4} = 1,5\ mol$$

Javob: 1,5 *mol*

2 – usul.
Berilgan:
$V(H_2O)$ = 33,6 l
$V_M(H_2O)$ = 22,4 l
Topish kerak:
$n(H_2O)$ = ?

Yechish: Berilgan qiymatlardan foydalanib berilgan masalani yechishda proporsiyadan foydalanamiz.

1 mol ——————— 22,4 l (H_2O)

x mol ——————— 33,6 l (H_2O)

$x = \frac{33,6*1}{22,4}$ = 1,5 mol **Javob:** 1,5 *mol*



3 – masala. Molekula soni 15,05 * 10^{23} bo‘lgan suvning (H_2O) modda miqdorini aniqlang?

1 – usul.
Berilgan:
$N(H_2O)$ = 15,05 * 10^{23} ta
$N_A(H_2O)$ = 6,02 * 10^{23} ta
Topish kerak:
$n(H_2O)$ = ?

Yechish: $n = \frac{N}{N_A}$ formuladan foydalanib berilgan suv hajmini molyar hajmga bo‘lamiz.(***Izoh:****suvning massasini hisobga olmang.)*

$$n = \frac{N}{N_A} = \frac{15,05 * 10^{23}}{6,02 * 10^{23}} = 2,5\ mol$$

Javob: 2,5 *mol*

2 – usul.
Berilgan:
$N(H_2O)$ = 15,05 * 10^{23} ta
$N_A(H_2O)$ = 6,02 * 10^{23} ta
Topish kerak:
$n(H_2O)$ = ?

Yechish: Berilgan qiymatlardan foydalanib berilgan masalani yechishda proporsiyadan foydalanamiz.

1 mol ——————— 6,02 * 10^{23} (H_2O)

x mol ——————— 15,05 * 10^{23} (H_2O)

$x = \frac{15,05 * 10^{23} * 1}{6,02 * 10^{23}}$ = 2,5 mol **Javob:** 2,5 *mol*

Bundan tashqari 7 – 8 – sinf o‘quvchilarining darga qiziqishini orttirish uchun turli hil tarqama materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kimyoviy bilimlarni, tushunchalarni o’quvchiga yetkazishda o’qituvchi og‘zaki, ko’rgazmali va amaliy metodlardan foydalanishi kerak bo’ladi. Bunday metodlarga anagrammalar, kimyoviy usulda tayyorlangan skanvordlar va krossvordlar, blits savollar jadvali va boshqalarni misol qilish mumkindir.

Kimyogar o‘zbek olimlar anagrammmasi

S	O	D	I	Q	O	V	N	Q	O	D	I	R
P	Y	S	O	L	I	H	O	V	A	S	Q	O
A	U	Y	U	S	U	P	B	A	O	R	A	V
R	N	U	S	O	V	V	E	H	V	F	G	A
P	A	U	V	R	R	O	K	M	R	I	S	Q
I	B	D	A	H	O	B	O	E	V	E	Y	I
E	Z	I	Y	O	D	U	V	D	O	V	S	D
V	A	A	S	S	D	L	L	A	Y	E	V	D


Kimyogar o‘zbek olimlar anagrammasi javoblari: SODIQOV, YUNUSOV,PARPIEV,SOLIHOV,YUSUPBEKOV,ABDUVAHOBOV, ZIYADULLAYEV, QODIROVA, AHMEDOV, ASQAROV, RISQIYEV

Kimyoviy elementlar

krassvordi


KRIPTON

SAMARIY
RUTENIY
RUBIDIY
MENDELEVIY
KOBALT
LITIY



Kimyogar olimlar krassvordi

Kataklarni to’g‘ri to’ldirsangiz chiziq ostida azotni kashf etgan olim familiyasi topiladi: 1.Yodning kashfiyotchisi. 2.Vodorod kashfiyotchisi. 3.Argonni topgan olimlarning biri. 4.Kislorod kashfiyotchisi. 5.Fosforni topgan olim. 6.Stronsiyni kashfiyotchisi. 7.vismutni topgan olim. 8.Alyuminiy kashfiyotchisi. 9.Radonni topgan olim.



Javobi: Kurtua, Kavendish, Pristli, Ramziy, Sheeli, Krofora, Pott, Ersted, Dori

Berilgan moddalarni nomlari bilan juftlab yozing:

$CuSO_4$	
NH_4Cl	
H_2SO_4	
$Zn(OH)_2$	
$Fe(CN)_3$	
$BrCl_2$	
KNO	
Cu	

$Cu(OH)_2$	
KCN	
NH_3	
Cl_2	
K	
H_2O	
HCN	
K_3PO_4	

XULOSA. Ta’limiy – tarbiyaviy va ilmiy – metodik adabiyotlardagi har xil zamonaviy axborot texnologiyalarini o’rganib chiqish orqali, ushbu zamonaviy ilmiy va metodologik adabiyotlarda interfaol metodlarning maktab ta’lim tizimida kimyo fanini 7 – 8 - sinflarda o’qitishda samarali, ta’limiy – tarbiyaviy nuqta’i nazardan foydalanishga juda ham qulay. Har bir kimyo fani o’qituvchisi dars berish jarayonida yuqoridagi tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollardan foydalanib dars o’tishi uning o’quvchilarining fanga qiziqishini va bilim saviyasini

oshiradi. Modda miqdorini o‘quvchilarga tushunarli qilib o‘tish va masalalarini yechish usullarini o‘rgatish o‘qituvchi oldidagi eng ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Р.Ишмухамедов, М.Юлдашев.: Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технолониялар.:Тошкент-2013 й
2. Rasulov K., Yo’ldoshev O., Qorabolaev B. Umumiy va anorganik kimyo. – T.: O’qituvchi, 1996. 6-10 betlar. 5. Glinka N.L. Obhaya ximiya. – L.: Ximiya, 1982.
3. Z.Z.yaxshiyeva. Anorganik kimyo (5110300 – kimyo va uni o’qitish metodikasi bakalavriat ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik)
4. Mo’minova N.I., Bosimov S.D. “Yangi O’zbekistonda axborot texnologiyalari vositalarining kimyo fanida tutgan o‘rni”.: “XXI ASR KO’NIKMALARINI OMMALASHTIRISHDA TALABALARNING ROLI”.: Xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiya, 2022 – yil 18 – noyabr.: Jizzax – 2022, 19 – 24 – betlar
5. Shodiev M. Ta’limda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Toshkent: Fan va Texnologiya. 2019.
6. A.Eminov, Q.Ahmerov, S.Turobjonov. “Umumiy va anorganik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari” O‘zbekiston, 2007 y. 224 b
7. Rahmatullayev N.G‘., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. “Kimyo o‘qitish metodikasi”, O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2013 yil.
8. Public Perceptions of Chemistry, Qualitative Research, Management Report (Royal Society of Chemistry, 1995

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DARSLIKLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Omonova Dilafruz
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Magistratura bo‘limi Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Magdiyeva Marhabo Erkinovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limdagi darsliklar va ularning rivojlanish jarayoni bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Shuningdek darsliklarning zamon talablariga mos ravishda takomillashib borishi, yangi metod va texnologiyalar qo‘llanilishi haqida fikr mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, darslik, texnologiya, takomillashtirish, metod, dars jarayoni.

Эволюционные этапы развития учебников начальной школы

Аннотация Статья посвящена анализу развития учебников для начальной школы и основным этапам их совершенствования. Особое внимание уделяется модернизации содержания учебников в соответствии с современными образовательными требованиями, а также внедрению инновационных методов и педагогических технологий в процесс обучения.

Ключевые слова: начальное образование, учебные материалы, педагогические технологии, модернизация, методология, процесс обучения.

Evolutionary Stages in the Development of Primary Education Textbooks

Abstract: The article examines the evolution of primary education textbooks and highlights the main stages of their development. Particular attention is given to how textbooks are being updated to meet contemporary educational demands and to the integration of innovative teaching methods and technologies into the learning process.

Keywords: primary education, educational materials, pedagogical technologies, modernization, methodology, instructional process.

Barchamizga ayonki, ta’lim jarayonida darsliklar katta ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida uzviylikni ta’minlash, barcha o‘quvchilarga bir xil bilim berilishi va davlatimizdagi barcha bolalar bepul ta’lim olishi uchun respublikamizdagi barcha maktablarda bir xil darsliklar asosida dars o‘tiladi. Darslik – o‘quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o‘quv materialini o‘zlashtirishda o‘quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg‘otishi, shu soha bo‘yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirish kerak. Obrazli qilib aytganda, darslik o‘qitish jarayonining „ssenariysi“dir. Unda o‘qituvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash yo‘llari belgilanadi, emotsional – qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko‘rsatiladi. Darslikda ta’limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o‘quvchilarning ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlaydigan bosqichlar bo‘yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang‘ich maktab darsliklari bag‘oyat o‘ziga xosdir[93]. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olishi uchun darsliklar jamiyat rivojining har bir bosqichida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Ta’lim jarayoni takomillashib borishi jarayonida dastlab boshlangich ta’lim alohida ajratilmagan. Ta’lim yaxlit shaklda olib borilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlang‘ich ta’lim shakli ajratila boshlangan. O‘sha davrda boshlang‘ich diniy maktablar tashkil etilgan. Unda Alifbe, Xaftiyak (2, 3 yil o‘qitilar edi), chor kitob, So‘fi Olloyor hamda Qur’oni Karim o‘qitilar edi. Tarbiyaviy tadbirlar Qur’oni Karim hamda hadis ilmiga oid bo‘lgan.

Keyinchalik Rossiya mustamlaksi davrida darsliklar asosan tarjima uslubida(1884-1897) va ko‘rgazmali natural uslubida(1897-1917) olib borilgan. Kitoblar rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Shuningdek keyinchalik boshlang‘ich ta’lim uchun o‘zbek sinflariga moslangan darsliklar ham yartilgan. O‘zbek sinflari uchun Saidrasul Saidaziziv yaratgan “Ustodi avval” darsligi juda katta shuhrat qozongan.

Samarqand shahrida yangi usul maktablaridan birini tashkil qilgan ziyolilardan biri Abduqodir Shakuriy birinchi alifbe darsligini yozadi. “Rahnamoi savod” (“Savod chiqarish rahbari”) deb nomlangan bu alifbe darsligi yaxshi qog‘ozda nastaliq xati bilan yozilgan bo‘lib Shakuriyning shogirdi Rahim Hashimning aytishicha unda harflar alohida bo‘g‘inlarga bo‘lib o‘rgatilgan. U tovush harf usuli samarali ekanligini aniqlaydi.1913-yilda uning shogirdlaridan biri Samarqanddagi mashxur pedagoglardan biri Ismatulla Rahmatullayev tovush -harf usuli yordamida o‘zining yangi “Alifbe to‘plami” kitobini tuzadi. U mana shunday xizmatlari bilan boshlang‘ich ta’lim rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Keyinchalik jadidchilik harakati boshlangandan keyin ham turli darsliklar yaratilgan. Masalan Fitrat o‘zining “o‘zbek adabiyotidan namunalar” darsligini yartagan. Bunda bolalarga o‘zlikni anglashga yordam berish, milliy asarlarimizni ularga tanishtirish muhim ahamiyatga ega edi.

Shuningdek Abdulla Avloniy “Maktab jug‘rofiyasi”, “Hisob masalari”,” Uchinchi muallim “ kabi turli xil darsliklar yozadi. Afsuski bu darsliklar bosmadan chiqarilmay qolgan . Ammo o‘sha vaqtlarda keng foydalanilgan.

Keyinchalik boshlang‘ich ta’lim fidoyi o‘qituvchilaridan biri bo‘lgan Oqilxon Sharafiddinov (1898-1970) tomonidan 1-sinflar uchun “Mehnat bolalari”(1930), “Bilim va mehnat”(1929), “Alifbe” (1938), “Chiroyli yozuv”(1941) , “O‘qish kitobi”(1944), “Kattalar alifbesi” (1939) nomli darsliklar yaratilgan . Bu darsliklar o‘sha vaqtda boshlang‘ich ta’limda bolalarni o‘qitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Hozirgi darsliklar yartilishi uchun ham zamin vazifasini o‘tagan.

Boshlang‘ich ta’limning zabzrdast vakillaridan biri pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Imomxon Husanxo‘jayev (1905-1971) tomonidan ham turli darsliklar yaratildi. Uning “O‘qish kitobi”(boshlang‘ich ta’limning birinchi sinflari uchun) va “O‘qish darsligi”(Boshlang‘ich

[93] Mavlonova, R., Vohidova, M., & Raxmonqulova, N. (2023). *Pedagogika nazariyasi va tarixi*.(196-bet) Toshkent: Renessans-Edu. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-07-06-20-53_a55bba47390eff1dafe5c52b34b2d63a.pdf

ta;limning 2-sinflari uchun) darsliklari chop etildi. Bu darsliklar o‘sha davrda o‘quvchilarga dastlabki bilimlarni berish uchun muhim ahamiyat kasb etar edi. Bu darsliklar keyingi ijodiy izlanishlar va kelajak avlod darsliklari yaratilishi uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Hozirgi kunda o‘qish, ona tili savodxonligi, matematika savodxonligi, tabiatshunoslik savodxonligiga oid ko‘plkab darsliklar zamon talablariga mos ravishda yaratilib kelinmoqda. Turli horijiy davlatlar tajribalari asosida yangicha texnologiyalardan foydalanib barcha fanlarga oid o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratilmoqda. Bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoniga nazar solar ekanmiz dastlabki darsliklar hozirgi yutuqlarga debocha bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Shunday ekan mana shunday yutuqlarga erishishimiz va ta’lim jarayoni rivojiga hissa qo‘shgan fidoi pedagoglarimizga chuqur minnaddorchilik bildirishimiz lozimdir. Ularning qilgan mehnatlarini hozirgi yosh avlod davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mavlonova, R., Vohidova, M., & Raxmonqulova, N. (2023). *Pedagogika nazariyasi va tarixi*.(196-bet) Toshkent: Renessans-Edu. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-07-06-20-53_a55bba47390eff1dafe5c52b34b2d63a.pdf

2. **Hasanboyeva, O.; Hasanboyev, J.; Homidov, H.** — *Pedagogika tarixi*, Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 2004.

3. Shodmonova, Sh. S. ***Pedagogika nazariyasi va tarixi***, Toshkent, 2022

4. ziyonet internet sahifasi.

O‘ZBEKISTON KASBIY TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: YANGI BOSQICH VA USTUVOR YO‘NALISHLAR

Muallif: Dostova Nilufar
Parkent tuman texnikumi o‘qituvchisi
Telefon: +998 (93) 605-90-77
E-mail: nilufardostova1234@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston kasbiy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning mazmuni, 2025-yilda qabul qilingan PQ–316 qarori va PF–190 farmonining tizim rivojiga ta’siri ilmiy tahlil qilingan. Kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish, dual ta’limni kengaytirish, ta’limning xalqaro standartlar asosida takomillashtirilishi yoritilgan.

Аннотация: В статье проводится научный анализ реформ системы профессионального образования Узбекистана, включая влияние постановления PQ–316 и указа PF–190, принятых в 2025 году. Освещены направления модернизации, расширение дуального образования и внедрение международных стандартов.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the reforms in the vocational education system of Uzbekistan, including the impact of Presidential Decree PQ–316 and Decree PF–190 adopted in 2025. It highlights modernization processes, expansion of dual education, and the implementation of international standards.

Kalit so‘zlar: Kasbiy ta’lim, dual ta’lim, texnikumlar, PQ–316, PF–190, kasbiy malaka, ta’lim islohotlari, innovatsion infratuzilma, boshqaruv samaradorligi, pedagog kadrlar, raqamli ta’lim, xalqaro standartlar.

Ключевые слова: Профессиональное образование, дуальное обучение, техникумы, ПП–316, ПФ–190, профессиональная квалификация, образовательные реформы, инновационная инфраструктура, эффективность управления, педагогические кадры, цифровое образование, международные стандарты.

Keywords: Vocational education, dual training, technical colleges, PP–316, PF–190, professional qualification, educational reforms, innovative infrastructure, management efficiency, teaching staff, digital education, international standards.

Zamonaviy globallashuv davrida mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlash har bir mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omilga aylangan. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda kasbiy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni

xalqaro standartlarga moslashtirish, ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash yo‘lida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2025-yil 23-oktabr kuni qabul qilingan Prezidentning **PQ–316-sonli “Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori** hamda **PF–190-sonli “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni** ushbu yo‘nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ular kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish, pedagoglar salohiyatini mustahkamlash va yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Kasbiy ta’lim tizimini yangilash va takomillashtirish yo‘lida yangi yondashuvlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–316-sonli qarorida 2030-yilgacha mo‘ljallangan kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi aniq belgilab berilgan. Qarorda kasbiy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta’lim dasturlarini yangilash va xalqaro tajribalarni joriy etish asosiy yo‘nalish sifatida qayd etilgan.

Qarorga muvofiq:

- Kasbiy ta’lim bilan qamrov darajasi 9-sinf bitiruvchilari orasida 2025-yildagi 29 foizdan 2030-yilgacha 50 foizga yetkaziladi.

- Dual ta’lim tizimi (ya’ni o‘qish va ishlab chiqarish amaliyotini uyg‘unlashtirish) ulushi 9 foizdan 40 foizga oshiriladi.

- Xalqaro va qo‘shma ta’lim dasturlari asosida faoliyat yurituvchi texnikumlar soni 250 taga yetkaziladi.

- O‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha xorijiy stajirovka dasturlari kengaytiriladi, 2024-yilda 100 nafar pedagog xorijda tajriba o‘tagan bo‘lsa, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 2 500 nafarga yetkaziladi.

-Kasb va mehnat kuni sifatida 5-may sanasi rasman belgilandi. Bu kasbiy ta’lim nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, texnikumlar uchun zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualar, raqamli platformalar, masofaviy o‘qitish tizimlari joriy etilishi belgilandi. Endilikda o‘quvchilar nafaqat an’anaviy tarzda, balki onlayn shaklda ham bilim olish imkoniga ega bo‘ladi.

2. Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish: PF–190-sonli farmon mazmuni

Kasbiy ta’limdagi islohotlar faqat o‘quv jarayonini emas, balki boshqaruv tizimini ham tubdan yangilashni talab qiladi. Shu maqsadda Prezidentning PF–190-sonli farmoni bilan Kasbiy ta’lim agentligi tashkil etildi.

Bu yangi tuzilma kasbiy ta’lim muassasalari faoliyatini markazlashtirilgan tarzda boshqarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda yagona ta’lim standartlarini joriy etish bilan shug‘ullanadi.

Farmonga muvofiq:

-Kasbiy ta’lim agentligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tarkibida faoliyat yuritadi.

-Agentlik texnikumlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, o‘quv dasturlarining zamon talablariga mosligini nazorat qiladi.

-Hududiy kasbiy ta’lim kengashlari tashkil etilib, ular ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.

-Kasbiy ta’limdagi pedagog kadrlarning attestatsiya tizimi takomillashtiriladi, ustozlar malaka oshirish uchun xorijiy tajriba almashish dasturlarida qatnashadi.

-10-sinf o‘quvchilariga ixtiyoriy ravishda texnik kasb-hunar ta’limiga o‘tish imkoniyati yaratildi, bu esa yoshlarni erta kasbga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Farmonning eng muhim jihatlaridan biri — ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlashdir. Endilikda texnikumlar ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etadi, bitiruvchilar esa korxonalarning o‘zida ish bilan ta’minlanadi.

3. Kasbiy ta’limda innovatsiyalar va zamonaviy infratuzilma Hozirgi islohotlarning

markazida innovatsion o‘quv infratuzilmasini yaratish masalasi turibdi.

Texnikumlar bazasida yangi laboratoriyalar, startap markazlari, texnoparklar tashkil etilmoqda. Bu yoshlar uchun nafaqat bilim olish, balki o‘z g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalar joriy etilishi orqali o‘qituvchilar dars jarayonida virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, 3D modellar va elektron test tizimlaridan foydalanmoqda.

Bu esa ta’lim sifatini oshiradi va talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini amaliy tarzda shakllantiradi.

4. O‘qituvchilarni rag‘batlantirish va kasbiy nufuzni oshirish

Kasbiy ta’lim tizimida o‘qituvchi endilikda nafaqat bilim beruvchi, balki ishlab chiqarish hamkoriga aylangan. Shu sababli ularning faoliyatini rag‘batlantirish, malaka oshirish, moddiy qo‘llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Yangi tizimga ko‘ra, ustozlarga ishlab chiqarishdagi natijadorlik, innovatsion metodlardan foydalanish va o‘quvchilar yutuqlari bo‘yicha baholash tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, kasbiy ta’lim nufuzini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida muvaffaqiyatli bitiruvchilar, ilg‘or texnikumlar va innovatsion ustozlar faoliyati yoritilmoqda. Bu yoshlar orasida kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

5. Kutilayotgan natijalar

Kasbiy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida:

-2030-yilgacha kasbiy ta’lim bilan qamrov 1,5 barobar oshadi;

-Ishlab chiqarish uchun tayyor mutaxassislar soni 2 barobar ko‘payadi;

-Xorijiy investorlar ishtirokidagi qo‘shma texnikumlar soni ortadi;

-Raqamli ta’lim tizimlari butun mamlakat bo‘ylab joriy etiladi;

-Kasbga yo‘naltirilgan yoshlar soni yil sayin ortib boradi.

Natijada O‘zbekiston iqtisodiyotining turli sohalari – sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va IT yo‘nalishlari uchun malakali, zamonaviy fikrlovchi kadrlar zaxirasi yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kasbiy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar — bu shunchaki tizimni yangilash emas, balki butun iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatadigan, jamiyatning intellektual va mehnat salohiyatini yuksaltiradigan strategik jarayondir. Prezidentning PQ–316-sonli qarori va PF–190-sonli farmoni ushbu islohotlarning mustahkam huquqiy poydevorini yaratib, kelgusida raqobatbardosh, ijodkor va mehnatsevar yoshlar avlodini voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Kasbiy ta’limni rivojlantirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, har bir fuqaro uchun munosib mehnat va o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini ta’minlash — O‘zbekistonning ertangi kunini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–316-sonli qarori, 2025-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–190-sonli farmoni, 2025-yil.
3. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy ma’lumotlari.
4. UNESCO. Technical and Vocational Education Reports.
5. ILO. Skills Development and Vocational Training Guidelines.

TARIX TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Tursunova Sevarxon Umarovna
Namangan davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
998 91 363 57 62; E-mail: tsevara13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim paradigmalari nuqtai nazaridan tarix darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning dolzarbligi asoslangan. Kognitiv konstruktivizm, "o‘sish tafakkuri" nazariyasi va neyropedagogika tamoyillarining tarix ta’limi metodikasi bilan integratsiyasi tahlil qilingan. Maqolada o‘smir yoshidagi (7–8-sinf)

o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda "Keys-stadi", "Rollik o‘yinlar", "Teskari sinf" kabi interfaol metodlar va loyihaga asoslangan ta’limning ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishdagi samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ta’lim amaliyoti uchun aniq takliflar va kelgusi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar belgilangan.

Kalit so‘zlar: jodiy tafakkur, tarix ta’limi, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, kognitiv konstruktivizm, o‘sish tafakkuri (growth mindset), neyropedagogika, o‘qituvchi-fasilitator, o‘smirlik davri psixologiyasi, keys-stadi.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVE THINKING IN HISTORY EDUCATION

Tursunova Sevarxon Umarovna
Independent Researcher, Namangan
State Pedagogical Institute
+998 91 363 57 62; E-mail: tsevara13@gmail.com

Abstract: This article substantiates the relevance of developing students’ creative thinking in history lessons from the perspective of modern educational paradigms. It analyzes the integration of principles from cognitive constructivism, "growth mindset" theory, and neuropedagogy with the methodology of history education. The article examines the effectiveness of interactive methods such as "case studies," "role-playing games," "flipped classroom," and project-based learning in stimulating creative thinking, taking into account the psychophysiological characteristics of adolescent students (7th–8th grades). Based on the research findings, specific recommendations for educational practice and promising directions for future scientific research are identified.

Keywords: creative thinking, history education, pedagogical technology, interactive methods, cognitive constructivism, growth mindset, neuropedagogy, teacher-facilitator, adolescent psychology, case study.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ОБУЧЕНИИ ИСТОРИИ

Турсунова Севархон Умаровна
Независимый исследователь, Наманганский государственный педагогический институт
+998 91 363 57 62; E-mail: tsevara13@gmail.com

Аннотация: В данной статье с точки зрения современных образовательных парадигм обосновывается актуальность развития творческого мышления учащихся на уроках истории. Анализируется интеграция принципов когнитивного конструктивизма, теории «мышления роста» и нейропедагогики с методикой преподавания истории. В статье рассматривается эффективность таких интерактивных методов, как «кейс-стади», «ролевые игры», «перевернутый класс», а также проектного обучения в стимулировании творческого мышления с учетом психофизиологических особенностей учащихся подросткового возраста (7–8 классы). На основе результатов исследования определены конкретные рекомендации для образовательной практики и перспективные направления для будущих научных изысканий.

Ключевые слова: творческое мышление, историческое образование, педагогическая технология, интерактивные методы, когнитивный конструктивизм, мышление роста (growth mindset), нейропедагогика, учитель-фасилитатор, психология подросткового возраста, кейс-стади.

KIRISH. Jamiyatning globallashuvi va axborot oqimining shiddatli tus olishi zamonaviy ta’lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kun o‘quvchisi nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi, balki nostandart vaziyatlarda mustaqil yechim topa oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “...yoshlarimizning ilm-fan va innovatsiyalarga bo‘lgan intilishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur”. Bu

vazifalarni amalga oshirishda tarix ta’limi alohida o‘rin tutadi. Zero, tarix fani shunchaki o‘tmish haqidagi faktlar yig‘indisi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilish va kelajakni bashorat qilishga o‘rgatuvchi tafakkur maktabidir.

Afsuski, amaliyotda tarix darslari ko‘pincha reproduktiv (xotirada qayta tiklashga asoslangan) xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yetarli imkoniyat yaratmayapti. Bu esa tarix ta’limida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni tadqiqotning dolzarb vazifasi sifatida belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Inklyuziv ta’lim va raqamli texnologiyalar kesishmasidagi ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xorijiy tadqiqotchilardan Florian va Linklater o‘z ishlarida inklyuziv ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning rolini o‘rganib, ularning maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun yaratadigan yangi imkoniyatlari haqida ma’lumot beradilar[94]. Rose va Meyer tomonidan ishlab chiqilgan Ta’lim uchun Universal Dizayn konsepsiyasi maxsus ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish tamoyillarini belgilab beradi[95]. Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari quyidagi yirik tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan:

-Lev Vygotskiy – "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi asosida o‘quvchilarning qobiliyatlariga mos murakkablik darajasidagi topshiriqlar samaradorlikni oshirishini ta’kidlaydi.

-Jean Piaget – "Bilish rivojlanish nazariyasi" asosida ta’lim jarayonini o‘quvchilarning rivojlanish bosqichiga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

-Jerome Bruner – "Konstruktivistik o‘qitish nazariyasi" asosida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi.

-John Dewey – "Tajriba orqali ta’lim" nazariyasi asosida o‘quvchilarning tajribasi asosida bilim berish samarali ekanini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar raqamli ta’lim muhitida inklyuziv ta’limning nazariy asoslarini o‘rganishda muhim hissalar qo‘shmoqdalar. **S**unatov J.T. o‘zining *"Raqamli muhitda inklyuziv ta’lim. Alohida ta’limga muhtoj talabalar uchun imkoniyatlar va muammolar"* nomli tadqiqotida raqamli muhitning inklyuziv ta’lim jarayonidagi ahamiyati, afzalliklari va muammolarini batafsil yoritib bergan. Muallifning fikriga ko‘ra, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta’limni qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Sunatov J.T. raqamli muhit orqali imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berish, ularning ehtiyojlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga moslashtirilgan interaktiv vositalarni qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, muallif raqamli muhitda inklyuziv ta’limni tashkil qilishda texnik infratuzilma, internet sifati, o‘qituvchilarning malakasi va psixologik moslashuv kabi qiyinchiliklar mavjudligini qayd etadi.[96] Islomova O.S. o‘zining *"Inklyuziv ta’limda “Ta’lim hamma uchun” umummilliy dasturi mohiyatini targ‘ib qilish"* nomli tadqiqotida ushbu dastur mohiyatini va uning inklyuziv ta’lim jarayoniga ta’sirini chuqur tahlil qilgan. Muallifning fikricha, "Ta’lim hamma uchun" dasturi inklyuziv ta’limni rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur asosida imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv materiallari, maxsus texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar ishlab chiqiladi. Islomova O.S. ta’kidlaganidek, dastur ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish va ta’lim jarayonida ularni faol ishtirokchi qilish imkonini beradi.[97] "Ta’lim hamma uchun" dasturi inklyuziv ta’limni rivojlantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Islomova O.S. ta’kidlaganidek, ushbu dastur imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun qulay ta’lim

[94] Florian, L., & Linklater, H. (2021). Preparing teachers for inclusive education: using inclusive pedagogy to enhance teaching and learning for all. Cambridge Journal of Education, 45(2), 175-192.

[95] Rose, D. H., & Meyer, A. (2022). Universal Design for Learning: Theory and practice. CAST Professional Publishing.

[96] Sunatov J.T. Raqamli muhitda inklyuziv ta’lim. Alohida ta’limga muhtoj talabalar uchun imkoniyatlar va muammolar. ISSN:3060-4567 Modern education and development.173-179 b.

[97] Islomova O.S. Inklyuziv ta’limda “ta’lim hamma uchun” umummilliy dasturi mohiyatini targ’ib qilishhttps://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/6232/4462/15722 30-43 b.

sharoitlarini yaratish, moslashtirilgan pedagogik yondashuvlarni joriy qilish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim materiallarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu esa inklyuziv ta’lim sifatini oshirishga va ta’lim jarayonini samarador qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi Mansurov U.J. inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u inklyuziv ta’limni rivojlantirish jarayonida pedagoglarning malakasi, texnik infratuzilmaning yetishmasligi va metodik ta’minot bilan bog‘liq muammolarni hal qilish lozimligini qayd etadi.[98] O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish ta’lim sohasidagi muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Mansurov U.J. ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berish, maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va pedagoglarning malakasini oshirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni rivojlantirish jarayonida texnik infratuzilmani yaxshilash va metodik ta’minotni takomillashtirish zarurati mavjud.

Raqamli texnologiyalar har bir o‘quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv materiallarini yaratish imkonini beradi. E.I. Leonova ta’kidlaganidek, "Raqamli ta’lim resurslarining moslashuvchanligi maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi[99]. Bunday yondashuv inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillariga to‘liq mos keladi, ya’ni ta’lim muhiti o‘quvchiga emas, balki o‘quv muhiti o‘quvchiga moslashishi kerak. Raqamli ta’lim resurslari orqali o‘quvchilar uchun individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish mumkin bo‘ladi, bu esa ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi va ta’lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bu yo‘nalish O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va barcha toifadagi o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi.

MUHOKAMA. Ta’lim jarayoniga moslashtirilgan dasturlar orqali individual yondashuvni ta’minlash raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

- O‘quvchilarning bilish qobiliyatiga ko‘ra ta’lim materiallarini moslashtirish.
- Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning rivojlanish darajasini tahlil qilish va mos mashg‘ulotlar taqdim etish.

Har bir o‘quvchining bilim olish jarayonini kuzatish va baholash. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va bilish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining bilim olish qobiliyati, fikrlash usuli va bilish jarayoniga yondashuvi har xil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ta’lim jarayonini individual qobiliyatlarni hisobga olgan holda tashkil qilish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Bu borada Lev Vygotskiy va Jean Piaget ta’lim jarayoni haqida muhim nazariyalarni ilgari surganlar.

- **Lev Vygotskiy** o‘zining "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga asoslanib, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil qilish samaradorlikni oshirishini ta’kidlaydi. Vygotskiy fikriga ko‘ra, o‘quvchilar o‘zlari mustaqil bajara olmaydigan, biroq kattalar yoki tajribali tengdoshlarning ko‘magi bilan bajara oladigan topshiriqlar asosida o‘qitilishi kerak. Bu jarayon orqali o‘quvchilar asta-sekin mustaqil ravishda bilim olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar va rivojlanishning yuqori bosqichiga chiqadilar.
- **Jean Piaget** bilish jarayonini rivojlantirish nazariyasida o‘quvchilarning bilish qobiliyatlariga ko‘ra ta’lim jarayonini tashkil qilish ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi. Piaget fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning rivojlanish jarayoni ma’lum bosqichlarda amalga oshadi va ta’lim jarayonini o‘quvchilarning bilish bosqichlariga mos ravishda tashkil qilish zarur. U

[98] Mansurov U.J. O`zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta’lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 683-688 b.

[99] Пак Н.И. Проектирование цифровой образовательной среды как условие эффективного обучения // Информатика и образование. – 2018. – № 5. – С. 16-22.

bolalarning bilish qobiliyatlari yoshga bog‘liq holda rivojlanishini, yangi bilimlar mavjud bilimlarga asoslangan holda o‘zlashtirilishini qayd etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) asosida moslashtirilgan ta’lim dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta’lim platformalari o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari, qiziqishlari va bilim olish sur’atlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Bunday tizimlar o‘quvchilarga individual topshiriqlar berish, bilim darajasini real vaqt rejimida baholash va o‘quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.Masalan:

 Eduten – Sun’iy intellekt yordamida moslashtirilgan ta’lim dasturlari orqali o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlaydi. Eduten tizimi o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos o‘quv materiallari va mashg‘ulotlarni tavsiya etadi. Ushbu dastur o‘quvchilarning bilim olish jarayonini soddalashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

 Knewton – O‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ko‘ra moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi. Knewton tizimi o‘quvchilarning bilim olishdagi kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, ularga mos keladigan o‘quv materiallarini tavsiya etadi. Bu tizim o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish va individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

 Smart Sparrow – Individual moslashtirilgan topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Smart Sparrow tizimi o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi natijalarini tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos ravishda yangi mashg‘ulotlarni ishlab chiqadi. Bu tizim o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi moslashtirilgan ta’lim platformalari o‘quv jarayonini individual ehtiyojlarga mos ravishda tashkil qilish imkonini beradi. **Eduten**, **Knewton** va **Smart Sparrow** tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos keladigan o‘quv materiallarini tavsiya etish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu tizimlar o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berish, bilim olish jarayonini soddalashtirish va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘liq ochib berish va ularning bilim olish jarayonini optimallashtirishda muhim rol o‘ynayd. **Interaktiv mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarning faolligini oshirish**-raqamli vositalar asosidagi interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishini oshirish bilan birga, ularni faol o‘qitish imkonini beradi. Interaktiv mashg‘ulotlar quyidagi natijalarga olib keladi:

✓ O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

✓ Guruhli ishlarda hamkorlik qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

✓ O‘quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki bilimni chuqurroq o‘zlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika nazariyalari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va o‘quv jarayoniga jalb qilishning ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘quvchilar bilim olish jarayonida faol ishtirok etganda, ular yangi bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bu borada Jerome Bruner va John Dewey muhim nazariyalarni ilgari surganlar.

Jerome Bruner – O‘quvchilar bilim olish jarayonida faol ishtirok etsa, bilim samaradorligi oshadi, deb ta’kidlaydi. Bruner fikriga ko‘ra, o‘quvchilar bilim olish jarayonida faol ishtirok etishlari uchun ularga qiziqarli va interaktiv mashg‘ulotlar taqdim etish zarur. Brunerning "konstruktivistik ta’lim nazariyasi"ga ko‘ra, o‘quvchilar yangi bilimlarni o‘z tajribalariga asoslanib, faol ishtirok orqali o‘zlashtiradilar. U "spiral ta’lim modeli"ni taklif qilib, bilimlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirib o‘qitish ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi.[100]

XULOSA. Raqamli ta’lim muhitida inklyuziv ta’limni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalarining

[100] **Jerome Bruner** – O‘quvchilar bilim olish jarayonida faol ishtirok etsa, bilim samaradorligi oshadi.

koʻrsatishicha, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilinishi orqali maxsus ta’lim ehtiyojlari boʻlgan oʻquvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlari yanada kengaymoqda. Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari Lev Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi", Jean Piagetning "Bilish rivojlanish nazariyasi", Jerome Brunerning "Konstruktivistik oʻqitish nazariyasi" va John Deweyning "Tajriba orqali ta’lim" nazariyalariga tayangan holda, raqamli ta’lim muhitida quyidagi yoʻnalishlarda rivojlantirilmoqda:

Birinchidan, raqamli ta’lim resurslari oʻquvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan oʻquv materiallarini yaratish imkonini beradi. Bu esa maxsus ta’lim ehtiyojlari boʻlgan oʻquvchilar uchun individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim muhiti oʻquvchiga emas, balki oʻquv muhiti oʻquvchiga moslashishi - inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biridir.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt asosidagi moslashtirilgan ta’lim platformalari (Eduten, Knewton, Smart Sparrow kabi) oʻquvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos keladigan oʻquv materiallarini tavsiya etish orqali ta’lim samaradorligini oshirmoqda. Bu tizimlar oʻquvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berish, bilim olish jarayonini soddalashtirish va oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, raqamli vositalar asosidagi interaktiv mashgʻulotlar oʻquvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishini oshirish bilan birga, ularni faol oʻqitish imkonini bermoqda. Bu esa oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga undash, guruhli ishlarda hamkorlik qilish koʻnikmasini shakllantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan.

Toʻrtinchidan, Oʻzbekistonda "Ta’lim hamma uchun" umummilliy dasturi doirasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish boʻyicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu dastur asosida imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan oʻquv materiallari, maxsus texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Biroq, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar ham mavjud boʻlib, ular asosan quyidagilardir:

- Texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi
- Internet sifatining barqaror emasligi
- Oʻqituvchilarning raqamli kompetensiyalari darajasining pastligi
- Metodik ta’minotning yetishmasligi
- Psixologik moslashuv bilan bogʻliq qiyinchiliklar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli ta’lim muhitida inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasini takomillashtirish va internet sifatini yaxshilash
2. Oʻqituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish boʻyicha maxsus kurslar va trening dasturlarini ishlab chiqish
3. Maxsus ta’lim ehtiyojlari boʻlgan oʻquvchilar uchun moslashtirilgan oʻquv dasturlari va materiallarni yaratish
4. Inklyuziv ta’lim jarayonida psixologik qoʻllab-quvvatlash tizimini rivojlantirish
5. Xalqaro tajribani oʻrganish va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish

Kelajakda raqamli texnologiyalar va inklyuziv ta’lim tamoyillarini samarali uygʻunlashtirish, hamda oʻqituvchilarning bu boradagi bilim va koʻnikmalarini oshirish boʻyicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. Bu esa barcha toifadagi oʻquvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Florian, L., & Linklater, H. (2021). Preparing teachers for inclusive education: using inclusive pedagogy to enhance teaching and learning for all. Cambridge Journal of Education, 45(2), 175-192.

2. Rose, D. H., & Meyer, A. (2022). Universal Design for Learning: Theory and practice. CAST Professional Publishing.

3. Sunatov J.T. Raqamli muhitda inklyuziv ta’lim. Alohida ta’limga muhtoj talabalar uchun imkoniyatlar va muammolar. ISSN:3060-4567 Modern education and development.173-179 b.

4. Islomova O.S. Inklyuziv ta’limda “ta’lim hamma uchun” umummilliy dasturi mohiyatini targ‘ib qilish 30-43 b.

5. Mansurov U.J. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta’lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 683-688 b.

6. Пак Н.И. Проектирование цифровой образовательной среды как условие эффективного обучения // Информатика и образование. – 2018. – № 5. – С. 16-22.

7. Н. А Абдухолиқова Жамият ахборотлашувининг ижобий салбий хусусиятлари Conferencea, 125, 2022.

8. НА Абдухоликова Талаба ёшларнинг интернет қарамлигини олдини олишда таълим маърифати. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022.

ALLEGORY IN PIERS PLOWMAN

Inagamova Sarvinoz Farruh qizi
A student, Chirchik state pedagogical university faxriddinovasarvinoz61@gmail.com
Scientific supervisor: Khamitov Eldorbek E.
A senior teacher, Chirchik state pedagogical university
e.xamitov@cspu.uz
khamitoveldorbek@gmail.com

Abstract: Piers Plowman, attributed to William Langland, is a major fourteenth-century Middle English visionary poem in which allegory is the dominant mode. Through dream-vision structure and sustained personifications (e.g., truth, conscience, errour, lady meed), Langland dramatizes moral dilemmas, critiques ecclesiastical and secular corruption, and instructs readers about ethical conduct. This article outlines the main allegorical strategies Langland employs, examines key allegorical figures and scenes, and discusses how allegory functions both as a didactic tool and as a vehicle for social and religious critique. For the purposes of this article, allegory is treated as a polyvalent rhetorical and narrative technique that operates by mapping abstract concepts onto embodied figures and by organizing sequences of action that exemplify ethical or doctrinal propositions. This definition emphasizes three linked functions of allegory in Piers Plowman: *pedagogical* teaching moral distinctions through exempla and personification, *performative* staging debates that invite readerly judgment and participation and *polemical* enabling critique of institutions and practices under the cover of imaginative representation. Recognizing these functions helps to explain why Langland’s poem resists a single-track reading and instead rewards layered and contextual interpretation.

Keywords: allegory, personification, Piers Plowman, William Langland, medieval literature, social critique, errour,conscience,truth,meed,tone.

Introduction: Allegory in Piers Plowman functions at several interlocking levels. The poem’s dream-vision frame provides a formal space in which abstract qualities can appear as embodied characters and dramatic encounters. This allowed Langland to present doctrinal and ethical issues in vivid, concrete terms accessible to a broad audience. Recurrent passus (sections) structure the narrative into episodic scenes, each typically organized around an allegorical encounter or debate that advances the poem’s moral inquiry. *Key features of Langland’s allegorical method:* Personification abstract concepts become characters (e.g., truth, conscience), making moral debate theatrical. *Typology and exempla:* Stories and episodes illustrate abstract principles by example. *Double address:* the poem often speaks to both a contemporary English audience and a broader theological tradition, allowing allegory to operate on local and universal levels. *Key allegorical figures several figures recur and shape the poem’s argument:* Errour frequently depicted as a monstrous, shapeshifting figure, errour embodies false doctrine, sin, and social disorder. Encounters with errour dramatize the consequences of ignorance and moral error. Lady

meed (meed / reward) symbolizes bribery, worldly reward, and corruption. Through her, Langland exposes the temptations of material gain and the moral compromises in both lay and clerical life. Conscience and truth these personifications function as moral interlocutors, guiding the visionary (and thus the reader) through evaluation and repentance. Their dialogues explore the tensions between intention, action, and salvation. Dowel, dobet, dobest a set of characters representing "do well," "do better," "do best," useful for exploring gradations of moral behavior and the practical outworking of virtue.

Each of these figures performs both a moral and a social function: they teach ethical precepts and simultaneously critique institutions and behavior within fourteenth-century English society. Allegory as social and religious critique Langland's allegory is not merely pedagogical; it is polemical. The poem stages scathing portraits of institutional corruption—particularly clerical greed and simony—and of social inequity. Scenes such as the "Fair field full of folk" render a panoramic allegorical marketplace in which bishops, lawyers, merchants, and plowmen reveal systemic failings. By animating institutional vices as characters who speak and act, Langland exposes how moral decay operates through social structures.

Allegory also permits subtlety: critiques can be embedded in dialogue, satire, and paradox rather than presented as direct invective. This strategy enables Langland both to instruct and to invite readers into interpretive reflection about their society and themselves. Stylistic and narrative strategies

Vivid imagery and variable tone: Langland mixes didactic directness with comic and grotesque elements, enhancing reader engagement.

Layered meaning: Many scenes contain multiple allegorical levels—ethical, theological, socio-political—rewarding sustained and repeat reading.

Readerly involvement: the dreamer's ambiguous status (as both "I" and a representative of "the common man") invites readers to identify with the inquiry and to apply moral lessons personally.

Allegory in Piers Plowman serves as both a literary technique and a moral instrument. Langland's personifications transform abstract debates into dramatic encounters, enabling a forceful critique of contemporary religious and social life while offering ethical instruction. The poem's allegorical richness makes it a durable text for medievalists and for readers interested in how literature can mediate social critique via imaginative embodiment.

Types of allegory in piers plowman: Moral allegory the whole poem is a guide to how a Christian should live. Will's search for "Truth" represents the human search for: virtue, repentance, right conduct.

Example: The seven deadly sins appear as living characters (e.g., rage, sloth, gluttony), which is a classic moral allegory. Religious and spiritual allegory many episodes symbolize Christian theology. Piers represents Christ the laborer, leading people to salvation through honest work. The pilgrimage to Truth symbolizes spiritual struggle. The Harrowing of Hell episode symbolizes Christ's victory over sin. Social and political allegory Langland criticizes medieval society through symbolic figures. False corruption among clergy meed (reward) bribery and moral decay in government Conscience the ideal judge and moral guide. These characters embody social problems, not individual people.

Allegory allows Langland to: criticize corruption without naming real people, teach Christian values to a wide audience, show complex theological ideas in simple images, create a timeless moral story of the human soul's struggle

References:

William Langland, The Vision of Piers Plowman (various critical editions; consult major critical editions for textual variation and editorial commentary).

Derek Pearsall, studies and commentaries on Piers Plowman and medieval literature.

Collections of critical essays and reference companions on Piers Plowman and late medieval English poetry (e.g., Cambridge and Oxford collections on medieval literature).

General works on allegory and personification in medieval literature.

Langland, William. Piers Plowman. Ed. A. V. C. Schmidt. Oxford University Press, 2011.
Langland, William. Piers Plowman: A New Translation. Trans. Piers Plowman Project. Penguin Classics, 2009.
Aers, David. Community, Gender, and Individual Identity: English Writing 1360–1430. Routledge, 1988.
Benson, C. David. “Piers Plowman.” In The Cambridge Companion to Medieval English Literature, Cambridge UP, 2010.
Brewer, Derek. Piers Plowman: The Critical Heritage. Routledge, 2000.
Simpson, James. Piers Plowman: An Introduction. Exeter University Press, 2007.
Kelen, Sarah. Langland’s Early Modern Identities. Palgrave Macmillan, 2007.

MATRITSALAR MODULINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O‘QITISH

Xummamatova Kamola Xayrullayevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Telefon: +998995828786
E-mail: xikmatilla2016@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada algebra va sonlar nazariyasi fanining “Matritsalar va determinantlar” mavzusini STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida integratsiyalashgan holda o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Mazkur yondashuvning har bir komponenti orqali talabalarda fanlararo bog‘liqlikni anglash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, real jarayonlarni modellashtirish va amaliy masalalarni yechish kompetensiyalari shakllanishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. STEAM integratsiyasining kimyo, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlarida matritsalar qo‘llanilishiga doir misollar berilib, uning ta’lim jarayonidagi samaradorlik jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: STEAM, integratsiyalashgan ta’lim, matritsalar, determinantlar, chiziqli algebra.

Kirish (Introduction):

Oliy ta’lim jarayonida algebra va sonlar nazariyasi fanining “Matritsalar va determinantlar” moduli talabalarning nafaqat matematik bilimlarini mustahkamlash, balki ularni boshqa fanlar bilan uyg‘un o‘rganishga tayyorlash uchun keng imkoniyatlarga ega. An’anaviy yondashuvda ushbu mavzular odatda faqat nazariy jihatdan o‘rganilib, formulalar, teoremalar va isbotlar bilan cheklanadi. Biroq STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida integratsiyalashgan o‘qitish talabalarni chuqur tushunishga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va real hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga yo‘naltiradi.

Metodlar (Methods):

STEAM integratsiyasi har bir komponenti orqali talabalarda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi [9]:

1.Science (Fan): Matritsalar va determinantlar tabiiy fanlarda, xususan fizika va kimyo jarayonlarini modellashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, elektr zanjirlarini tahlil qilishda Kirchhoff qonunlari asosida tuzilgan chiziqli tenglamalar sistemasini yechishda matritsalar va determinantlardan foydalaniladi. Kvant mexanikasida zarracha spin holatlari vektorlar yordamida ifodalanib, ular ustida amalga oshiriladigan operatorlar matritsalar ko‘rinishida ifodalanadi. Optikada esa linzalar tizimidan o‘tuvchi yorug‘lik nurlarining yo‘nalishi va intensivligini hisoblashda matritsali usullar qo‘llaniladi. Shu tarzda, talaba algebraik tushunchalarni boshqa fanlardagi real jarayonlar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2.Technology (Texnologiya): Zamonaviy hisoblash texnologiyalari yordamida matritsalar ustida turli amallarni bajarish, determinantlarni hisoblash algoritmlarini tuzish va modellashtirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, MS Excel dasturida MMULT, MINVERSE, MDETERM kabi funksiyalar orqali matritsalarni ko‘paytirish, teskari matritsani topish va determinantni hisoblash mumkin. Shuningdek, Maple dasturida murakkabroq algebraik amallarni bajarish va jarayonlarni

modellashtirish qulaydir. Talaba ushbu vositalar yordamida nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda matematik tushunchalarni real jarayonlar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3.Engineering (Muhandislik): Matritsalar yordamida mexanik tizimlarning barqarorligini tahlil qilish, binolar va inshootlar loyihasida hisob-kitoblarni bajarish, robotlar harakatini boshqarish yoki turli qurilmalarda koordinata o‘zgarishlarini aniqlash mumkin. Shu orqali talaba matematikani real muhandislik masalalarida qanday qo‘llash mumkinligini ko‘radi. Bunday yondashuv esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga yanada puxtaroq tayyorlaydi.

4.Art (San’at): Grafik dizayn, animatsiya va tasvirlarni qayta ishlashda matritsalarni transformatsiya vositasi sifatida qo‘llash san’at va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Masalan, 2D va 3D grafikalarni aylantirish, masshtablash, deformatsiya qilish amallari matritsa yordamida amalga oshiriladi, bu esa talabalarni kreativ tafakkur bilan matematikani bog‘lashga o‘rgatadi.

5.Mathematics (Matematika): Matritsa va determinantlarning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, ularning xossalari va amaliy masalalardagi ahamiyatini tahlil qilish talabalarda nazariy bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Determinantlar orqali chiziqli tenglamalar sistemasini yechish, geometriyada yuzalar va hajmlarni hisoblash, shuningdek, ma’lumotlar modellashtirish va tahlil qilish kabi jarayonlarni amalga oshirish mumkin.

Shu tariqa, STEAM asosida matritsa va determinantlarni o‘qitish nafaqat matematik bilimlarni chuqurlashtirish, balki ularni real hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlash, ijodiy fikrlash va fanlararo integratsiyani rivojlantirish imkonini beradi. Talabalar nafaqat nazariy bilimni egallaydi, balki uni texnologik, muhandislik va san’at sohalarida amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Natijalar (Results):

Matritsalar modulini STEAM asosida o‘qitish

S - Science (Fan): kimyo fanida qo‘llanilishi.

Reaksiya:

$$aC_7H_{16} + bO_2 \rightarrow cCO_2 + dH_2O$$

Ushbu reaksiyadagi a,b,c,d koeffisientlarni toping?

An’anaviy usul: Biz odatda birinchi koeffitsientni a=1 deb olamiz.

Elementlar bo‘yicha tenglamalar tuzamiz. Har bir element (C, H, O) uchun atomlar soni teng bo‘lishi kerak.

Uglerod (C): $7a=c$, $a=1$ ekanligidan $c=7$ kelib chiqadi.

Vodorod (H): $16 \cdot a=2d$, $a=1$ ekanligidan $2d=16$, bundan $d=8$ kelib chiqadi.

Kislorod ()**:** (O): Chap tomonda 2b atom, o‘ng tomonda 2c+d atom:

$2c+d=2b$, $c=7$ va $d=8$ ekanligidan b=11 kelib chiqadi.

T- Technology (Texnologiya): Endi a=1 shartda matritsali tenglamani Exel dasturida yechamiz:

$$\begin{pmatrix} 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 2 \\ 2 & -2 & -1 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} b \\ c \\ d \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 7 \\ 16 \\ 0 \end{pmatrix}$$

bu tenglamani MINVERSE va MMULT funksiyalari yordamida yechib, $b=11$, $c=7$, $d=8$ topiladi.

E-Engineering (Muhandislik): Robot qo‘lini boshqarishda matritsalar qo‘llanilishi

Robot qo‘llari bir nechta bo‘g‘imlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir bo‘g‘imning burchagi va harakati vektor orqali ifodalanadi. Robot qo‘lini ma’lum bir nuqtaga harakatlantirish uchun har bir bo‘g‘imning holati va koordinatalarini matematik tarzda aniqlash zarur.

Ushbu jarayonni matritsalar yordamida ifodalash qulaydir. Masalan, robot qo‘lini bir nuqtaga siljitishda har bir bo‘g‘imning koordinatalari quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$\begin{pmatrix} x \\ y \\ z \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \cos\alpha & -\sin\alpha & 0 \\ \sin\alpha & \cos\alpha & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_0 \\ y_0 \\ z_0 \end{pmatrix}$$

Bu yerda:

x_0, y_0, z_0 — bo‘g‘imning boshlang‘ich koordinatalari,

x, y, z — burilishdan so‘ng bo‘g‘imning yangi koordinatalari,

α — birinchi bo‘g‘imning burilish burchagi.

Matritsadagi qiymatlar bo‘g‘imning x–y o‘qi atrofida aylanmasini ifodalaydi va burilish (rotation) matritsasi deb ataladi. Shu orqali har bir bo‘g‘imning holati va koordinatalari birlashtiriladi, natijada robot qo‘lini kerakli pozitsiyaga aniq harakatlantirish mumkin bo‘ladi. Matritsalardan foydalangan holda robot qo‘lini boshqarish algoritmlari ko‘p bo‘g‘imli tizimlarda koordinatalarni tez va aniq hisoblash imkonini beradi. Bu esa robotning real vaqt rejimida harakatini boshqarishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

A-Art(San’at): Grafik dizayn va animatsiyada matritsalar transformatsiya vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan, kompyuter yoki telefondagi rasmni kattalashtirish, kichraytirish, aylantirish va siljitishda har bir nuqta (x,y) matritsa yordamida yangi koordinataga o‘tkaziladi.

Umuman olganda, 2D rasmni skalalash (o‘lchamini o‘zgartirish) formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{pmatrix} k_x & 0 \\ 0 & k_y \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} k_x x \\ k_y y \end{pmatrix}$$

bu yerda $k_x x$, $k_y y$ — x va y bo‘yicha o‘lcham koeffitsiyentlari.

Oddiy misol sifatida, telefondagi yoki kompyuterdagi rasmni 2 barobar kattalashtirishni olaylik. Bu holatda $k_x = k_y = 2$ bo‘ladi va formula quyidagicha yoziladi:

$$\begin{pmatrix} 2 & 0 \\ 0 & 2 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2x \\ 2y \end{pmatrix}$$

Masalan, rasmning nuqtasi (x,y)=(3,2) bo‘lsa, kattalashtirish natijasida yangi koordinata:

$$\begin{pmatrix} 2 & 0 \\ 0 & 2 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 3 \\ 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 6 \\ 4 \end{pmatrix}$$

Natijada, rasm markazdan ikki barobar kattalashadi. Shu tarzda, matritsalar yordamida kompyuter yoki telefondagi rasmni o‘lchamini o‘zgartirish va kreativ dizayn qilish mumkin.

M-Matimatics(Matematika): Matritsa va determinantlarning nazariy asoslarini o‘rganish talabalar uchun foydalidir, chunki ular nazariy bilimni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, determinantlardan chiziqli tenglamalar sistemasini yechishda foydalanish mumkin.

Misol: $\begin{cases} x + y + z = 6 \\ 2x - y + z = 3 \\ x + 2y - z = 3 \end{cases}$ chiziqli tenglamalar sistemasi berilgan.

Yechish: $A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 2 & -1 & 1 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix}$, $X = \begin{pmatrix} x \\ y \\ z \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 6 \\ 3 \\ 3 \end{pmatrix}$ deb, $AX = B$ ko‘rinishiagi matritsali tenglamga keltirib yechamiz. Bu matritsali tenglamaning yechimi quyidagicha topiladi:

$$X = A^{-1} * B$$

Teskari matritsani topib, tenglamani yechsak,

$$X = \begin{pmatrix} \frac{9}{7} \\ \frac{15}{7} \\ \frac{18}{7} \end{pmatrix}$$

kelib chiqadi.

Muhokama (Discussion):

	Kimyoviy reaksiyalarni tenglashtirishda
	Exel dasturida matritsalarni oson xisoblashda
	Robot qo‘lini boshqarishda
	Kompyuter yoki telefondagi rasmni kattalashtirish, kichraytirishda

	Chiziqli tenglamalar sistemasini matritsalar yordamida yechda

Xulosa:

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, matritsalar matematikaning faqat nazariy bo‘limi bo‘lib qolmasdan, balki fizika, informatika va muhandislik fanlarida muhim amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. STEAM yondashuvi asosida matritsalarni integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarga fanni chuqurroq tushunish, uni real hayotiy jarayonlarda qo‘llash va kelajak kasbiy faoliyatida samarali foydalanish imkonini beradi. Shu tariqa, algebra va sonlar nazariyasi fanidagi matritsalar bo‘limi nafaqat nazariy bilim manbai, balki ko‘plab amaliy sohalarda qo‘llaniladigan universal vosita sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yakubova, D. Yu. STEAM yondashuvi asosida tabiiy fanlar integratsiyasini ta’minlashning innovatsion metodik asoslari // *Science and Education Scientific Research Journal*. – 2022. – №4. – B. 215–222. – URL:

2. Jumabayev, A.T. STEM ta’limini asosiy maqsadi va undan foydalanish usullari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2, № 11. – B. 45–51.

3. Yakman, G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // *PATT 2008: The 20th International Conference on Design and Technology Education Research.* – Netherlands: Delft University of Technology, 2008. – P. 335–358.

FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH


Xummamatova Kamola Xayrullayevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Telefon: +998995828786
E-mail: xikmatilla2016@gmail.com


Annotatsiya: Maqolada Flipped Learning texnologiyasining mazmuni va uni ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etishda qo‘llashning asosiy xususiyatlari yoritiladi. Ushbu yondashuvda ta’lim jarayonining bir qismi — nazariy materiallarni o‘zlashtirish — talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatiga ko‘chirilishi, auditoriya mashg‘ulotlarida esa tahlil, muhokama va amaliy topshiriqlarga ko‘proq e’tibor qaratilishi ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada Flipped Learningning talaba faolligini oshirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va ma’ruza samaradorligini yaxshilashdagi imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Shuningdek, texnologiyani joriy etishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sodda metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Flipped Learning, texnologiya, ma’ruza, taqqoslama.

Kirish (Introduction):

Oliy ta’lim tizimida Flipped Learning texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari haqida so‘z boshlashdan oldin, bu texnologiyaning mohiyatini tushunib olish muhim. Flipped Learning (teskari o‘qitish) texnologiyasi zamonaviy ta’limda talabalarga o‘ziga mos ritmda bilim egallashga imkon yaratadigan samarali innovatsion metod sifatida shakllanmoqda. An’anaviy ta’limdan farqli ravishda, Flipped Learning modelida nazariy material darsgacha o‘zlashtiriladi, darsda esa amaliy faoliyatga asoslangan muhokamalar o‘tkaziladi. Talabalar darsdan oldin uyda video leksiyalar, matnlar yoki boshqa materiallar orqali mavzuni o‘rganadi, sinf mashg‘ulotlari esa muhokama, savol-javob va amaliy mashqlarga bag‘ishlanadi.





Bu usul ilk bor 2007-yilda amerikalik o‘qituvchilar Jonatan Bergmann va Aaron Sams tomonidan sinovdan o‘tkazilgan. Ular Kolorado shtatidagi o‘rta maktabda kimyodan dars o‘tayotgan paytlarida, ba’zi o‘quvchilarning darslarni o‘tkazib yuborayotganini payqashgan. Bu muammoni hal qilish uchun ular darslarni videoga yozib, o‘quvchilarga uyda ko‘rish uchun taqdim etishgan. Natijada, o‘quvchilar o‘tkazib yuborilgan mavzularni mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan va bu tajriba kutilmaganda katta muvaffaqiyatga erishgan.

Flipped Learningning paydo bo‘lishi tasodifiy emas edi. Bergmann va Sams o‘z tajribalarida oddiy muammodan boshlagan bo‘lsalar-da, ularning usuli tezda ta’lim sohasida yangi yo‘nalishga aylandi. Dastlab bu usul faqat o‘quvchilarning darslarga qatnasha olmasligi muammosini hal qilish uchun ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik uning samaradorligi tufayli butun o‘quv jarayonini qayta tashkil etish vositasiga aylandi. 2012-yilda ular “Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day” nomli kitoblarini nashr etishgan va bu kitob Flipped Learningning asosiy qo‘llanmasiga aylangan. Kitobda ular o‘z tajribalarini batafsil yoritib, usulning afzalliklari va qo‘llanilishi haqida misollar keltirishgan. Shu vaqtdan boshlab, Flipped Learning dunyoning turli mamlakatlarida — AQShdan tortib Yevropa va Osiyogacha — sinovdan o‘tkazila boshlandi.

Metodlar (Methods):

Oliy ta’limda ma’ruzaning ahamiyati shundaki, u talabalarga fan bo‘yicha umumiy tushuncha beradi, mavzular o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi va ularni mustaqil izlanishga undaydi. Shu bilan birga, ma’ruza talabalarni mantiqiy fikrlashga, muhim ma’lumotlarni ajratib olishga va bilimlarni tizimli tarzda qabul qilishga o‘rgatadi. Zamonaviy ma’ruzalarda o‘qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarni taqdim etadi, balki ularni real hayotdagi misollar bilan boyitib, talabalarning qiziqishini oshirishga harakat qiladi.

Ma’ruzaning samarali bo‘lishi o‘qituvchining professional mahorati, ishlatiladigan metodlar va talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish darajasiga bog‘liq. Ma’ruza nafaqat bilim berish vositasi, balki talabalarni ilhomlantiruvchi, ularning qiziqishini uyg‘otuvchi va o‘quv jarayonini qiziqarli qiluvchi shakl bo‘lishi kerak. Quyida ma’ruzaning samaradorligini oshirish uchun asosiy shartlar va strategiyalar keltiriladi.

1. Zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish

Ma’ruzaning qiziqarli va tushunarli bo‘lishi uchun zamonaviy texnologik vositalardan keng foydalanish muhimdir. Bular orasida quyidagilarni alohida ta’kidlash mumkin: videoroliklar, proyektorlar va slaydlar, interaktiv doskalar, Flip-chartlar.

2. Faol va innovatsion ma’ruza usullarini qo‘llash

An’anaviy monolog shaklidagi ma’ruzalar o‘rniga quyidagi innovatsion usullarni qo‘llash ma’ruzani yanada samarali qiladi: muammoli ma’ruza, suhbatli ma’ruza, munozarali ma’ruza, anjuman uslubidagi ma’ruza, konspektsiz ma’ruza, qaytar aloqaga asoslangan ma’ruza, real hayot misollariga asoslangan ma’ruza.

3. Talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish

Ma’ruzada talabalarni passiv tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashishi uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish muhim: savollar orqali jalb qilish, qisqa fikr almashish sessiyalari, real hayot misollari va muammoli vaziyatlar, savol berishga undash, oldingi bilimlar bilan bog‘lash, tushunishni tekshiruvchi savollar.

Ma’ruzachi o‘z nutqini talabalarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga moslashtirishi kerak. Shuningdek, ma’ruza vaqtini oqilona taqsimlash, ortiqcha ma’lumot yuklamasidan qochish va talabalarning diqqatini doimiy jalb qilib turish uchun qiziqarli hikoyalar, kutilmagan faktlar yoki hazil elementlaridan foydalanish lozim. Ma’ruzada o‘qituvchining ovozi, tana harakatlari va talabalarga munosabati ham katta rol o‘ynaydi – o‘qituvchi ilhomlantiruvchi, ochiq va do‘stona bo‘lishi kerak.

Natijalar (Results):

Ma’ruza mashg‘ulot texnologiyasi

Vaqti- 2 soat	Talabalar soni 85-90 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	ma’ruza
O‘quv mashg‘ulotining mavzusi	Taqqoslamalar va ularning xossalari
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	1. Taqqoslama tushinchasi. 2. Taqqoslamalarning asosiy xossalari
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga taqqoslama tushunchasi, uning asosiy xossalari haqida bilim berish.	
Pedagogik vazifalar: - Taqqoslamalar va ularning xossalari haqida bayon etish;	O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Taqqoslamalar va ularning xossalariga oid tushunchalarga ega bo‘lishadi;
O‘qitish uslubi va texnikasi	Ma’ruza, Flipped learning texnologiyasi (charxpalak metodi, muammoli holatlarni yechish, BBB jadval)
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, o‘quv qo‘llanmasi, proektor, doska, flipchartlar, slaydlar.
O‘qitish shakli	Individual va jamoada ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Proektor va kompyuter, doska bilan ta’minlangan auditoriya.

Muhokama (Discussion):

B/B/B metodi (Bilaman/Bilishni xohlayman/Bilib oldim)

Ushbu metod muayyan mavzular boyicha qo‘llaniladi. Bu metodda gurux yoki ommaviy yollarda qo‘lash mumkin. Har bir gurux umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruxlarning munosabatlari loyixa bandlari bo‘yicha umumiashtiriladi. Guruxlar umumiy sxemening aloxida bandlari boyicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O‘quv faoliyati quydagi sxema asosida tashkil etiladi.



Bu metod 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. O‘quchilarning o‘rganishi rejalashtrilayotgan mavzu bo‘yicha qanchalik tushinchalarga ega ekanligi aniqlanadi.

2. Mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarnning boytishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi.

3. O‘quvchilar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batavsil tanishtriladilar.

Bilaman (+)	Bilishni xohlayman (?)	Bilib oldim (-)		
№	Tushunchalar	(+)	(?)	(-)
1	Taqqoslama			
2	Refleksivlik xossasi			
3	Simmetriklik xossasi			
4	Tranzitivlik xossasi			
5	Taqqoslamalarni hadlab qo‘shish (ayirish) xossasi			
6	Taqqoslamalarni hadlab ko‘paytirish xossasi			
7	Taqqoslamani ikkala qismini modul bilan tub bo‘lgan songa qisqartirish xossasi			
8	Taqqoslamalarni bir xil musbat songa ko‘paytirish xossasi			

Charxpalak metodi

Ushbu metoddan yangi mavzuni o‘rganishda hamda o‘tilgan mavzularni takrorlashda foydalanish mumkin.

O‘tkazilish tartibi:

Birinchi bosqich: Flipped learning texnologiyasiga asoslangan dars bo‘lganligi uchun bir dars oldin talabalar 2 ta guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruhga alohida mavzu yuzasidan matn yozilgan tarqatma beriladi. Guruh a’zolari ushbu matn yuzasidan taqdimot tayyorlab kelishadi.

Ikkinchi bosqich: Har bir guruh o‘zlarining mavzusi bo‘yicha taqdimot qilib berishadi. Keyin har bir guruhga bitta flipchart va bir dona marker beriladi. (har bir guruh markerining rangi alohida bo‘lishi shart.) Flipchartda guruhlar taqdimot tayyorlagan mavzuning nomi yozilgan bo‘ladi. (Masalan: “Taqqoslamalar va ularning xossalari” mavzusi o‘rganilayotgan bo‘lsa, har bir guruhga mavzuning qaysidir qismi matn holida birinchi bosqichda guruhlarga berilgan bo‘lib , ular aynan shu mavzular bo‘yicha taqdimot tayyorlagan bo‘ladilar. 1-guruhga ” Taqqoslama tushinchasi.”, 2 –guruhga ” Taqqoslamalarning asosiy xossalari” kabi . Flipchartlar charxpalak singari har ikki daqiqada guruhlar bo‘ylab sayr qiladi. Bu vaqt ichida guruh a’zolari taqdimot vaqtida eslab qolgan ma’lumotlarini hamkorlikda eslab flipchartga yozadilar. Bir flipchart barcha guruhlarga tashrif buyurib bo‘lgach, skoch bilan doskaga yopishtiriladi. Barcha guruhning flipcharti doskaga yopishtirilib bo‘lingach o‘qituvchi tomonidan yoki har bir guruhdan bir taqdimotchi chiqib, ma’lumotlar taqdim qilinadi va o‘qituvchi tomonidan xulosalanadi. (Har bir guruhga alohida rangli marker berilishining ahamiyati shundaki, flipchartlar doskaga yopishtirilgach, qaysi guruh a’zolari ko‘proq va aniqroq ma’lumot o‘rganganligi yaqqol ko‘rinadi.) Guruh ishlari, yozilgan to‘g‘ri ma’lumotlariga qarab baholanadi. Guruhlarga quyidagi matnlar yozilgan tarqatmalar tarqatiladi.

Xulosa:

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, ta’lim sifatini ta’minlashda bilim oluvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va mahorati bilan birga o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishi ta’lim jarayonining negizi hisoblanadi. “Flipped learning” modellari respublikamiz oliy ta’lim tizimida ham joriy etilishi,bilim oluvchilarning fanlarini samarali o‘zlashtirishida istiqbolli ta’lim texnologiyalaridan biri bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan masofaviy va ommaviy ochiq online kurslaridan talabalar o‘zlari uchun qulay vaqtda, joyda ta’lim olishiga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. N. M. Aliyeva, M. R. Rasulova, Sh. S. Xalilova, Sh. U. Yalgasheva “Blended learning-ta’lim tizimida zamonaviy yondashuv” . Science and Education. 2021-yil.

2. G. A. Yusupova “ Features of the use of mixed education in uzbek language glasses” . Hosted from Singapore. 10-may 2021-yil.

3. S. S. Qo‘chqorova “Masofaviy ta’lim texnologiyasi” o‘quv uslubiy majmua. Navoiy-2020-yil.

4. D. I. Yunusova “Oliy ta’limda matematika fanlarini o‘qitish metodikasi” o‘quv uslubiy majmua. Toshkent -2017-yil.

DEATH AND SADNESS IN POE’S AND HARDY’S WORKS

Ruziyeva Maftuna
Student, Chirchik State Pedagogical University
ruzievam13@gmail.com
Scientific adviser: Abduramanova Diana Valervevna
Head of the English theory and practice department, Chirchik state pedagogical university
diana1207saliveva@gmail.com

Abstract: The topic *“Death and Sadness in Poe’s and Hardy’s Works”* analyzes how Edgar Allan Poe and Thomas Hardy portray the themes of death, loss, and human suffering. Both authors explore the fragility of life and the inevitability of fate. While Poe focuses on psychological horror and inner despair, Hardy presents the tragic consequences of destiny and social circumstances. Their works reveal the deep emotional and philosophical reflection on mortality and sorrow.

Аннотация: Тема *«Смерть и печаль в произведениях По и Харди»* рассматривает, как Эдгар Аллан По и Томас Харди изображают темы смерти, утраты и человеческих страданий. Оба автора исследуют хрупкость жизни и неизбежность судьбы. Если По сосредоточен на психологическом ужасе и внутреннем отчаянии, то Харди показывает трагические последствия судьбы и общественных обстоятельств. Их творчество отражает глубокие эмоциональные и философские размышления о смерти и печали.

Keywords: English literature, American literature, death, sadness, fate, pessimism, Gothic atmosphere, romanticism, naturalism, loss.

Ключевые слова: Английская литература, американская литература, смерть, печаль, судьба, пессимизм, готическая атмосфера, романтизм, натурализм, утрата.

The main text of the report

The theme of death and sadness occupies a central place in the works of both Edgar Allan Poe and Thomas Hardy, though each writer approaches it from a distinct philosophical and artistic perspective. Poe, one of the founders of the Gothic tradition in American literature, treats death as a psychological and metaphysical mystery, exploring the fine line between love and loss, beauty and decay. Hardy, representing the late Victorian and early modern English novel, views death as a natural and inevitable outcome of human fate, shaped by the cruelty of circumstance and the indifference of the universe.

In Poe’s stories and poems such as The Raven, Annabel Lee, and The Fall of the House of Usher, death is intertwined with beauty and obsession. His characters often face the terror of loss, isolation, and madness. Through dark imagery and musical language, Poe creates an atmosphere of melancholy that reflects both romantic longing and existential despair. Death, for Poe, is not merely an end but a doorway to the unknown—a realm where love and sorrow merge into eternity.

Hardy’s vision, in contrast, is grounded in realism and naturalism. In novels such as Tess of the d’Urbervilles and Jude the Obscure, death and suffering arise from the tragic conflict between human aspiration and the harsh determinism of fate. Hardy’s protagonists struggle against rigid social conventions and indifferent nature, only to be defeated by forces beyond their control. His treatment of sadness is deeply moral, revealing the vulnerability of human life and the futility of resistance against destiny.

Both Poe and Hardy reveal the fragility of human existence and the inevitability of loss, yet their approaches differ in tone: Poe’s is mystical and psychological, Hardy’s philosophical and tragic. Together, their works form a profound meditation on mortality, loneliness, and the search for meaning in a world marked by sorrow. Through their art, death becomes not only a subject of

despair but also a lens through which the beauty and complexity of human emotion are most clearly seen.

REFERENCES

1. Poe, E. A. The Raven and Other Poems. — Moscow: Azbuka, 2020.
2. Poe, E. A. The Fall of the House of Usher and Other Tales. — St. Petersburg: Labyrinth, 2018.
3. Hardy, T. Tess of the d'Urbervilles. — London: Penguin Classics, 2003.
4. Hardy, T. Jude the Obscure. — Oxford: Oxford University Press, 2008.
5. Bloom, Harold. Edgar Allan Poe: Modern Critical Views. — New York: Chelsea House, 2008.
6. Millgate, Michael. Thomas Hardy: A Biography Revisited. — Oxford: Oxford University Press, 2004.
7. Armstrong, Tim. Thomas Hardy: Selected Poems. — London: Routledge, 2001.
8. Kennedy, J. Gerald. A Historical Guide to Edgar Allan Poe. — Oxford: Oxford University Press, 2001.
9. Death and Tragedy in Poe and Hardy. — https://cyberleninka.ru/article/n/death-and-tragedy-in-poe-and-hardy/viewer.

SLAVERY AND TRAUMA IN TONI MORRISON'S BELOVED

Ruziyeva Maftuna
Student, Chirchik State Pedagogical University
ruzievam13@gmail.com
Scientific adviser: Abduramanova Diana Valervevna
Head of the English theory and practice department, Chirchik state pedagogical university
diana1207saliveva@gmail.com

Abstract: The topic "*Slavery and Trauma in Toni Morrison's Beloved*" explores how Morrison depicts the psychological and emotional scars left by slavery. Through the experiences of Sethe and other characters, the novel reveals how the past continues to haunt those who survived enslavement. Morrison combines realism and symbolism to show the struggle for identity, healing, and freedom in the face of deep trauma.

Аннотация: Тема *«Рабство и травма в романе Тони Моррисон "Возлюбленная"»* исследует, как писательница изображает психологические и эмоциональные раны, оставленные рабством. Через судьбу Сэти и других персонажей роман показывает, как прошлое продолжает преследовать тех, кто пережил рабство. Моррисон сочетает реализм и символизм, раскрывая борьбу за личность, исцеление и свободу перед лицом глубокой травмы.

Keywords: American literature, slavery, trauma, memory, motherhood, identity, freedom, African American history, realism, symbolism, psychological depth, Toni Morrison, Beloved, Sethe, Baby Suggs, Paul D.

Ключевые слова: Американская литература, рабство, травма, память, материнство, идентичность, свобода, афроамериканская история, реализм, символизм, психологическая глубина, Тони Моррисон, Возлюбленная, Сете, Бэби Саггс, Пол Д.

The main text of the report

Toni Morrison's Beloved (1987) stands as one of the most powerful literary works exploring the psychological and emotional consequences of slavery. Combining historical realism with elements of magical symbolism, Morrison creates a haunting narrative about trauma, memory, and the struggle for identity. Her novel depicts the long shadow that slavery casts over generations, showing how its horrors persist not only in physical suffering but also in emotional and spiritual scars.

The protagonist, Sethe, is a formerly enslaved woman haunted by her past and by the ghost of her dead daughter, Beloved. Through Sethe's memories, Morrison explores the dehumanizing brutality of slavery, which denies individuals their identity, love, and dignity. The supernatural element—the return of Beloved—serves as a symbol of repressed trauma that refuses to be forgotten. Morrison's narrative technique, characterized by shifting time frames and fragmented memories, mirrors the disordered consciousness of trauma survivors and the difficulty of reconstructing a coherent self after such devastation.

Morrison highlights the vital role of motherhood and community as sources of healing and resilience. Baby Suggs and Paul D represent compassion and the possibility of renewal, reminding readers that love and memory are essential for reclaiming one's humanity. Yet Morrison does not idealize her characters: their moral struggles reflect the deep wounds inflicted by oppression.

Through Beloved, Morrison exposes the psychological legacy of slavery and insists on the importance of historical remembrance. Her novel becomes a collective act of healing, restoring the voices of those silenced by violence. By blending realism, symbolism, and oral tradition, Morrison transforms personal trauma into a universal moral lesson about the human capacity to endure and overcome.

REFERENCES

10. Morrison, T. Beloved. — New York: Alfred A. Knopf, 1987.
11. Morrison, T. Playing in the Dark: Whiteness and the Literary Imagination. — New York: Vintage, 1992.
12. Kubitschek, Missy Dehn. Toni Morrison: A Critical Companion. — Westport: Greenwood Press, 1998.
13. Page, Philip. Dangerous Freedom: Fusion and Fragmentation in Toni Morrison's Novels. — Jackson: University Press of Mississippi, 1995.
14. Mbalia, Doreatha. Toni Morrison's Developing Class Consciousness. — Westport: Greenwood Press, 1991.
15. Henderson, Mae G. Speaking in Tongues: Dialogics, Dialectics, and the Black Woman Writer's Literary Tradition. — New York: Oxford University Press, 1993.
16. Otten, Terry. The Haunted Muse: Memory, Slavery, and Trauma in Toni Morrison's Beloved. — Amherst: University of Massachusetts Press, 2004.

HUMOR AND MORAL LESSONS IN JONATHAN SWIFT'S GULLIVER'S TRAVELS

Ruziyeva Maftuna
Student, Chirchik State Pedagogical University
ruzievam13@gmail.com
Scientific adviser: Abduramanova Diana Valervevna
Head of the English theory and practice department, Chirchik state pedagogical university
diana1207saliveva@gmail.com

Abstract: The topic "*Humor and Moral Lessons in Jonathan Swift's Gulliver's Travels*" explores how Swift uses satire and irony to criticize human nature and society. Through humor, exaggeration, and absurd adventures, the author exposes moral corruption, pride, and hypocrisy. The novel encourages readers to reflect on their own behavior and the flaws of civilization, combining entertainment with deep moral reflection.

Аннотация: Тема *«Юмор и нравственные уроки в романе Джонатана Свифта "Путешествия Гулливера"»* раскрывает, как Свифт с помощью сатиры и иронии критикует человеческую природу и общество. Через юмор, преувеличение и абсурдные приключения он обличает моральное разложение, гордыню и лицемерие. Роман побуждает читателя задуматься о собственном поведении и недостатках цивилизации, сочетая развлечение с глубокими нравственными размышлениями.

Keywords: humor, satire, irony, morality, society, criticism, human nature.

Ключевые слова: юмор, сатира, ирония, мораль, общество, критика, человеческая природа.

The main text of the report

Jonathan Swift, one of the most influential satirists of the 18th century, used humor not merely for entertainment, but as a powerful tool for exposing the vices, follies, and moral weaknesses of his time. In his most famous work, Gulliver's Travels (1726), Swift combines fantasy and realism to create a sharp moral and philosophical commentary on human nature and society. His humor is often double-edged—witty and ironic on the surface, yet profoundly serious in its moral implications. Through the adventures of Lemuel Gulliver, Swift explores the contradictions of reason and pride, the corruption of politics, and the moral decay hidden beneath the surface of civilization.

Each of the four voyages in the novel presents a different mirror reflecting humanity's moral state. In Lilliput, Swift mocks the pettiness of political disputes and human arrogance, showing how trivial conflicts can lead to absurdity. The satire deepens in Brobdingnag, where human achievements appear insignificant when viewed from the perspective of moral reason. The land of Laputa reveals the dangers of intellectual pride and scientific detachment from reality. Finally, the country of the Houyhnhnms and Yahoos exposes the duality of human nature, contrasting rational virtue with bestial instincts.

Swift's moral lessons are rooted in the belief that human beings are capable of reason and virtue, yet often corrupted by pride, greed, and ignorance. His irony uncovers hypocrisy and self-deception in society, urging readers toward self-reflection and moral improvement. The contrast between humor and seriousness gives the novel its unique power: laughter becomes a means of revealing uncomfortable truths. Swift's blend of irony and moral vision made Gulliver's Travels not only a masterpiece of satire, but also a profound moral allegory about the human condition—one that continues to resonate with modern readers.

REFERENCES

1. Swift, J. Gulliver's Travels. — Moscow: Azbuka, 2019.
2. Swift, J. A Modest Proposal and Other Satires. — London: Penguin Classics, 2005.
3. Rawson, Claude. Jonathan Swift: A Collection of Critical Essays. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1995.
4. Ehrenpreis, Irvin. Swift: The Man, His Works, and the Age. — Cambridge: Harvard University Press, 1983.
5. Damrosch, Leo. Jonathan Swift: His Life and His World. — New Haven: Yale University Press, 2013.
7. Price, Martin. Swift's Rhetorical Art: The Power of Irony. — Oxford: Clarendon Press, 1985.
8. Greene, Donald. The Political Satire of Jonathan Swift. — Lexington: University Press of Kentucky, 1982.
9. Abrams, M. H. The Norton Anthology of English Literature. — New York: W.W. Norton, 2006.
9. Gulliver's Travels and Moral Satire — https://cyberleninka.ru/article/n/jonathan-swift-gullivers-travels-as-moral-satire/viewer.

DARYOLAR BULOQ VA CHASHMALAR SUVLARINI IFLOSLANISHIGA ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRI

Djalilov Farrux Sobirovich
Samarqand davlat pedagogika instituti (PhD) katta o'qituvchisi,
Ibragimov Abdumaruf Shodi o'g'li
Xayitboyeva Nilufar Uzoqboy qizi
Nodirov Shaxbozbek Nurali o'g'li
Suyunova Iroda Fazliddin qizi
Телефон:+998(93) 337-37-64
E-mail: jalilovfarrux1989@gmail

Annotatsiya: O'lkaning asosiy suv manbai Zarafshon daryosidir. U Zarafshon muzligidan boshlanadi. Daryoning o'rta va quyi oqimi O'zbekistonga qaraydi. Bu qismda Zarafshon daryosi keng o'zanda sekin oqadi va Samarqand shahri yaqinida ikki tarmoqqa bo'linadi. Shimoliy tarmog'i Oqdaryo (uzunligi 131 km), janubiy tarmog'i Qoradaryo Xatirchi yaqinida qo'shilib, Miyonqala orolini hosil qiladi. Zarafshon Amudaryoga yetib bormaydi.

Аннотация: Главный источник воды страны – река Зарафшан. Она берёт начало из ледника Зарафшан. Среднее и нижнее течение реки протекает по территории Узбекистана. На этом участке река Зарафшан течёт медленно, в широком русле, и разделяется на два рукава у города Самарканд. Северный рукав – Акдарья (длина 131 км), а южный – Карадарья, которая сливается у Хатырчи, образуя остров Миёнкала. Зарафшан не доходит до Амударьи.

Abstract: The main water source of the country is the Zarafshan River. It originates from the Zarafshan Glacier. The middle and lower reaches of the river flow into Uzbekistan. In this section, the Zarafshan River flows slowly in a wide bed and divides into two branches near the city of Samarkand. The northern branch is the Akdarya (131 km long), and the southern branch is the Karadarya, which joins near Khatirchi, forming the island of Miyonkala. The Zarafshan does not reach the Amu Darya.

Kalit so'zlar Zarafshon tizmasining g'arbiy qismidan boshlanuvchi soylarning eng yiriklari Urgutsoy, Omonqo'tonsoy, Og'aliqsoy kabilar.

Zarafshon muz va qorlarning erishidan to'yinadi. Shu sababli uning to'lin suvli davri iyun-iyul oylariga, eng kam suvli davri qishga to'g'ri keladi. Lekin endilikda uning suvi Samarqand vohasini sug'orishga sarflanib, Eski Tuyatortar arig'i orqali Sangzor vodiysiga, Eskianhor arig'i orqali esa Qashqadaryo viloyatiga oqizish tufayli Buxoro vohasida tugaydi. Zarfshon o'lkasining Buxoro va Qorako'l vohalaridagi yerlari esa Amu-Qorako'l va Amu-Buxoro ariqlari orqali Amudaryo suvlari bilan sug'orilmoqda. Zarafshon daryosi tog'li qismida tor o'zanda tez oqadi. O'lka xududida unga xech qandan irmoq qo'shilmaydi. Faqat atrofdagi tog'lardan boshlanuvchi 120 ga yaqin soy bor. Ularning suvi sug'orishga sarflanadi, faqat bahorgi toshqin davridagina bazilari Zarafshonga yetib kelishi mumkin. Nurota-Oqtog'dan boshlanuvchi eng katta soylar-Tursunsoy, Kattasoy, Ko'ksaroy, Zarafshon tizmasining g'arbiy qismidan boshlanuvchi soylarning eng yiriklari Urgutsoy, Omonqo'tonsoy, Og'aliqsoy kabilar. Bu soylar qor-yomg'ir va yer osti suvlaridan to'yinadi. Shu sababli ularning suvi bahorda toshib, yozda va qishda juda kamayib qoladi. Bazan bahorgi jalalar tufayli ularning suvi ko'payib, toshib ketib juda ko'p joylarga zarar keltiradi. Shu sababli o'sha soylarga hovuzlar qurib, yozda ulardan sug'orishda foydalansa bo'ladi. Bunday inshootlar qadimgi vaqtlarda qurilgan. Bunda Oqchonsoyidagi Abdulla bandi (suv ombori) misoldir. Buxoro amiri Abdullaxon XVII asrda qurdirgan Abdulla bandi suv ombori to'g'onining bir qismi hozirgacha saqlanib qolgan.

Zarafshon tabiiy-geografik o'lkasida ko'llar kam. So'nggi yillarda Buxoro va Qorako'l vohasidan zovur suvlari hisobiga To'dako'l, Sho'rko'l, Dengizko'l, Mahnko'l kabi ko'llar vujudga keldi. Bu ko'llarning suvi sho'r, maydoni kichik bo'lib, ularning ayrimlari ilgarigi ko'llar o'rniga paydo bo'lgan. Zarafshon daryosining bahorgi va qishki suvlarini to'plab qolib yozda sug'orishda foydalanish maqsadida o'lkada Kattaqo'rg'on va Quyimmozor suv omborlari qurilgan.

Kattaqo‘rg‘on suv ombornida 1 mlrd.m^3, quyimozorda esa 350 mln.m^3 suv to‘planadi. Zarafshon vodiysida yer osti suvlari ancha ko‘p. Ular asosan Samarqand botig‘i, Buxoro va Qorako‘l vohalarida to‘planadi. Ularning to‘yinishida yog‘inlar, ariq, daryo va sug‘oriladigan yerlardan suv shimilishi muhim rol o‘ynaydi. Yuza grunt (sizot) suvlar sho‘r, ichish uchun yaroqsiz. 100-130 m chuqurlikda joylashgan antropogen yotqiziqlardagi suvlar esa chuchukdir. Grunt suvlaridan foydalanib, qo‘shimcha 80-90 ming gektar yerni sug‘orish mumkin. O‘lkada yana ancha chuqurdan chiquvchi artezian suvlari, jumladan minerallashgan issiq suvlar ham bor. Lekin bu suvlardan hozircha kam foydalanilmoqda.

Ilgarigi yer osti suvlaridan korizlar qazib foydalanilgan. Ayniqsa, Nurota va Orasoy cho‘llarini suv bilan taminlash maqsadida qadimdan bir necha koriz qazilgan. Lekin so‘nggi yillarda ular qarovsiz qolib, ishdan chiqdi. O‘lkaning tog‘ zonasi va tog‘ oldi zonasida ko‘plab sersuv buloqlar bor. Hatto Nurota qishlog‘i ilgari butunlay buloqdan suv ichar edi. Bunday sersuv buloqlar Chorchinorda (Urgutda) ham mavjud. Bu daryo Turkiston, Zarafshon va Oloy tog‘lari tutashgan Ko‘ksuv (Mastchoh) tog‘ tugunidagi Zarafshon muzligidan 2772,5m balandlikdan Mastchoh nomi bilan qo‘shilgach Zarafshon nomini oladi. Zarafshon qadim Amudaryoga 20 km yetmasdan Sandiqli qumligiga shimilib ketar edi. Zarafshon daryosining uzunligi muzlikdan Sandiqli qumligigacha 751km edi. Daryoning suv yig‘adigan maydoni 12374$km^{2.}$. Zarafshon daryosi quyi qismida Qoraquldaryo nomini olib, Qoraqul shahri yaqinida ikki tarmoqqa bo‘linib, chapdagisi Toyqir o‘ng tomondagisi Sarbozor deb atalar edi. Zarafshon sersuv bo‘lgan yillarida Toyqir Dengizqulga, Sarbozor esa Chigarko‘lga yetib borar edi. Endilikda esa Zarafshonning suvi ko‘plab sug‘orishga sarflanishi tufayli daryo u yerlarga yetib bormaydi.

Zarafshon daryosining tog‘li qismi Tojikston, ravotxo‘ja to‘g‘onidan quyi qismi O‘zbekistonga qaraydi. Zarafshon tog‘li qismida tor va chuqur o‘zanda sekundiga 6 m tezlikda shiddat bilan oqadi. Tekislikka chiqqach uning tezligi sekinlashib sekundiga 2-3 m ga tushib qoladi. Zarafshon tog‘li qismida har bir km masofada 6 - 6,5 m pasaysa, Panjakent shahridan o‘tgach 3m dan kam pasayadi. Zarafshon ravotxo‘ja to‘g‘onidan quyida ilon izi kurinish hosil qilib, sekin oqadi. Daryo o‘zani va qayirrlari kengayadi, ba’zi joylarda tarmoqlanib, orolchalar hosil qilib oqadi.

Zarafshon daryosiga o‘ng va chap tomondan 200 ga yaqin daryo va soylar kelib qo‘shiladi. Ularning eng muhimlari chap irmoqlari - Fandaryo, Kishtutdaryo, Mog‘inyodaryo, Urgutsoy: o‘ng irmoqlari - Rom, tursunsoy va Kattasoydir. Zarafshon muzlik-qorlarning erishidan to‘yinib, to‘lin suv davri iyul-avgustga, eng kam suv davri esa qishga to‘g‘ri keladi. Daryoda suv aprelning ikkinchi yarmidan boshlab tog‘larning quyi qismidagi mavsumiy qorlarning erishi hisobiga ko‘paya boshlaydi. Eng ko‘p suv sarfi iyul - avgust oylarida tog‘larning chuqqi qismidagi muz va doimiy qorlarning erishi hisobiga sodir bo‘ladi. Zarafshon daryosining o‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi Ravotxo‘ja to‘g‘onida sekundiga 165m^3. Buning 55,4% iyul - sentyabr oylariga, 30,3 % mart - iyun oylariga, 14,1% oktyabr-fevral oylariga to‘g‘ri keladi.Zarafshon daryosining eng katta maksimal suv sarfi 1942 yili 7 iyulda kuzatilib, Dupulida sekundiga 930m^3 suvo‘tkazgan. Eng kam suv sarfi esa 1928 yili 31 yanvarga to‘g‘ri kelib, sekundiga 24,0m^3 suv oqizgan xolos.

Zarafshon daryosi tog‘li qismida havzasini tez yuvadi. Agar Zarafshon havzasi bo‘yicha o‘rtacha har bir km^2 suv yig‘adigan maydondan 401 tonna oqiziq yuvsa, bu ko‘rsatgich uning yuqori qismida 943 tonnaga yetadi. Zarafshon daryosining o‘rtacha yillik loyqa oqiziqlar miqdori Dupuli yonida yiliga 4320 ming tonnaga teng, suvning o‘rtacha loyqaligi esa har m^3 da 0,88kg.

Zarafshon daryosi loyqa oqiziqlarining miqdoriy yil davomda suv sarfiga bog‘langan tarzda o‘zgarib turadi. Shu sababli oqiziqlarining eng ko‘p qismi to‘lin suv davriga to‘g‘ri keladi. Agar daryo oqiziqlar miqdorining Dupuli yonida 100% desak, shuning 75% iyul - avgust - sentyabr oylariga, 24,4% mart - iyun oylariga, atigi 0,6% daryo suvi eng kam bo‘lgan oktyabr - fevral oylariga to‘g‘ri keladi. Zarafshon tog‘ zonasi buyicha suvning jadal oqqanligi sababli muzlamaydi.

Yer usti suvlarining suvning ifloslanish indeksi (SII) bo‘yicha ifloslanish mezonlari

Suv sifatining tasniflanishi	Ta’rifi	SII miqdori
I	Juda toza	0,3 dan kam yoki teng
II	Toza	0,3 dan 1,0 gacha
III	O‘rtacha ifloslangan	1,0 dan 2,5 gacha

IV	Ifloslangan	2,5 dan 4,0 gacha
V	Toza emas	4,0 dan 6,0 gacha
VI	Juda ifloslangan	6,0 dan 10,0 gacha
VII	O‘ta ifloslangan	10,0 dan ortiq

XULOSALAR

1.Biologik tozalash texnologiyasi mikroorganizmlar va suv o‘simliklari yordamida kislorodli biokimyoviy jarayonlar yordamida oqava suvlarni tarkibi organik moddalar bilan ifloslanishini tozalash texnologiyasini qamrab oladi. Biologik tozalash suv tarkibidagi mikroorganizmlarni yo‘qotadi.

2. Zarafshon daryosi sohilidagi ifloslangan oqava suvlarning suyuq qismi tabiiy va suniy uslubdagi biologik tozalanadi. Tabiiy biologik tozalash jarayoni biologik hovuzlarda filtratsiya maydonlarida sug‘orish dalalarida amalga oshirildi. Su’niy biologik tozalash biologik filtrlar aerotenkalar kabi mahsus inshootlardan foydalaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 19 сентябрдаги “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2013 йил 27 майдаги 142-сонли, 2014 йил 20 октябрдаги “Биологик ресурслардан фойдаланишни тартибга солиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасида рухсат бериш тартиб тамойилларидан ўтиш тартиб тўғрисида”ги қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби. Ж-2. Ҳайвонот олами. – Тошкент: Chinor ENK, 2009. - 216 б.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 ноябрдаги “Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3657 сонли Қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 7 августдаги, “Табиий сув ҳавза участкаларини балиқ овлаш хўжаликларига ижарага бериш ва балиқчиликни ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ВМ-593-сонли қарори.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 сентябрдаги “Балиқчилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ВМ-719-сонли қарори.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 18 октябрдаги “Чорвачилик ва балиқчилик тармоқларининг озуқа базасини мустаҳкамлаш чора-тадбирларида тўғрисида”ги ВМ-845-сон қарори.

9. Галкин Г.Г. Атлас чешуи пресноводных костистых рыб. – Известия Всесоюзного научно-исследовательского института северного и речного рыбного хозяйства, т. 46, 1958. – С.39-41.

10. Терентьев П. В., Ростова Н.С. Практикум по биометрии. – Л.: 1977. -105 с.

11. Камилов Б.Г., Курбанов Р.Б., Салихов Т.В. Рыбоводство – разведение карповых рыб в Узбекистане. – Ташкент: Chinor ENK, 2003. - 9-12 с.

THE MODERNIST REVOLUTION IN ENGLISH LITERATURE

Author: **Nasiba Ibragimova, 3rd-year student, Chirchiq State Pedagogical University**
inasiba647@gmail.com
Scientific Supervisor: Zilola Roziqova— Lecturer, Department of English Language Practice and Theory, Chirchiq State Pedagogical University
rozikova1625@gmail.com

Annotation: This research investigates the Modernist Revolution in English literature, a transformative movement that reshaped literary expression in the early twentieth century. The study examines how Modernist writers rejected Victorian moralism and traditional narrative structures, seeking instead to capture the complexities of the modern mind and the fragmented realities of industrial and post-war society.

Keywords: Modernism; English literature; stream of consciousness; fragmentation; symbolism; World War I; experimentation; psychological realism; narrative innovation; cultural transformation.

INTRODUCTION

The Modernist Revolution in English literature represents one of the most profound transformations in artistic and intellectual history. Emerging in the early twentieth century, Modernism reflected the disillusionment and uncertainty brought about by rapid industrialization, technological progress, and the devastation of World War I. Writers began to question traditional beliefs, social institutions, and literary conventions that no longer seemed adequate to express the complexities of modern experience. Modernist authors sought new ways of depicting reality, turning inward to explore consciousness, perception, and individual psychology. Instead of linear plots and omniscient narration, they experimented with fragmented structures, interior monologues, and symbolic imagery. Language itself became a tool for innovation rather than mere communication[1]. This artistic revolution aimed to mirror the fragmented and alienated condition of modern life, emphasizing subjectivity and ambiguity.

METHODOLOGY

This study employs a qualitative, analytical, and descriptive approach to explore the Modernist Revolution in English literature. The research focuses on examining selected literary works and critical essays by prominent Modernist writers such as T. S. Eliot, James Joyce, Virginia Woolf, and Ezra Pound. The main goal is to identify the thematic and stylistic innovations that distinguish Modernist literature from earlier traditions. The analysis relies on close reading as a primary research tool, emphasizing language, structure, and symbolism within the texts. Through this method, the study investigates how Modernist writers reflected the psychological, social, and philosophical transformations of their time. Historical and cultural contexts are also considered to understand how events such as World War I, industrialization, and scientific discoveries influenced literary creativity and experimentation[2]. Secondary sources, including academic journals, literary criticism, and historical analyses, are used to support interpretations and establish connections between individual works and broader Modernist principles. The combination of textual and contextual analysis provides a comprehensive understanding of how Modernism redefined the function and form of English literature in the early twentieth century.

RESULTS AND DISCUSSION

The findings of this study reveal that the Modernist Revolution in English literature fundamentally reshaped the way writers perceived art, identity, and society. Modernist authors rejected traditional storytelling and instead pursued artistic freedom through experimentation, fragmentation, and ambiguity. Their innovative methods were not merely stylistic choices but intellectual responses to the instability and uncertainty of modern life. One of the key outcomes of Modernism was the shift from external reality to the inner workings of the human mind. Writers like James Joyce and Virginia Woolf developed the stream of consciousness technique to represent thought as a fluid, non-linear process. This narrative approach allowed readers to experience the complexity of perception and emotion directly, rather than through conventional narration[3].

Similarly, T. S. Eliot's The Waste Land reflected the disillusionment of post-war society through fragmented imagery, intertextual references, and a tone of spiritual desolation. Modernist literature also redefined the concept of time and structure. Linear progression was replaced by psychological and associative patterns, allowing multiple perspectives to coexist[4]. This fragmentation mirrored the breakdown of traditional values and the growing sense of alienation in the modern world. Furthermore, Modernist writers infused their works with myth, symbolism, and irony to express the universal struggles of humanity within an age of uncertainty. The discussion highlights that Modernism was not a unified movement but a convergence of diverse experiments united by a shared rejection of the old and a search for new meaning. By challenging linguistic conventions and exploring consciousness, Modernist authors transformed literature into a tool for philosophical inquiry and artistic renewal. Their influence continues to shape contemporary narrative forms and literary criticism, proving that the Modernist spirit of innovation remains vital in understanding human experience through art[5].

CONCLUSION

The Modernist Revolution in English literature marked a turning point in artistic and intellectual expression, breaking away from the constraints of traditional narrative and moral certainty. Modernist writers sought to capture the fragmented, uncertain, and rapidly changing nature of modern existence through innovative literary forms and experimental techniques. Their focus on subjectivity, psychological depth, and linguistic complexity redefined the boundaries of fiction and poetry, giving voice to the disillusionment and introspection of the twentieth century. The movement's emphasis on individual perception and inner consciousness reflected a profound shift in how literature represented reality. Authors such as T. S. Eliot, James Joyce, and Virginia Woolf transformed the English literary landscape by using fragmentation, symbolism, and multiple perspectives to reveal the chaos and beauty of the modern world. Their works continue to challenge readers and inspire writers to explore new artistic possibilities.

REFERENCES

1. Eliot, T. S. (1922). The Waste Land. Faber & Faber, London. pp. 1–64.

2. Joyce, J. (1922). Ulysses. Shakespeare and Company, Paris. pp. 1–730.

3. Woolf, V. (1925). Mrs. Dalloway. Hogarth Press, London. pp. 1–296.

4. Bradbury, M., & McFarlane, J. (Eds.). (1991). Modernism: A Guide to European Literature 1890–1930. Penguin Books, London. pp. 12–450.

5. Levenson, M. (2011). The Cambridge Companion to Modernism. Cambridge University Press, Cambridge. pp. 5–320.

EKONOMETRIKA FANINI O'QITISHDA OLIY MATEMATIKA USULLARI ORQALI HISOBLASH METODI

Matkarimova Intizor Atabayevna
Ma'mun universiteti NTM, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti, (PhD)
+998905871951
E-mail: intizor-matkarimova@mail.ru
Otajonova Malika Sadulla qizi
Ma'mun Universiteti NTM, "Aniq fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
+998995639705
E-mail:malikabonuotajanova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada, ekonometrika fanini o'qitish jarayonida oliy matematika usullarining qo'llanishi va ular asosidagi hisoblash metodlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Xususan, chiziqli regressiya modellarini qurishda eng kichik kvadratlar uslubi, matritsali algebra yordamida ko'p o'zgaruvchisli regressiyani baholash, ehtimollik nazariyasi va matematik statistika elementlarining amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekonometrika, oliy matematika, hisoblash metodlari, eng kichik kvadratlar uslubi, matritsali algebra, chiziqli regressiya, matematik modellashtirish, o'qitish metodikasi

Аннотация В данной статье анализируется применение методов высшей математики в преподавании эконометрики и эффективность вычислительных методов, основанных на них. В частности, рассматривается метод наименьших квадратов при построении моделей линейной регрессии, оценивание множественной регрессии с помощью матричной алгебры, практическое использование элементов теории вероятностей и математической статистики.

Ключевые слова: эконометрика, высшая математика, вычислительные методы, метод наименьших квадратов, матричная алгебра, линейная регрессия, математическое моделирование, методика преподавания

Abstract The article examines the application of higher mathematics methods in teaching econometrics and the effectiveness of computational techniques based on them. Particular attention is paid to the ordinary least squares method in constructing linear regression models, multiple regression estimation using matrix algebra, and the practical application of probability theory and mathematical statistics.

Keywords: econometrics, higher mathematics, computational methods, ordinary least squares, matrix algebra, linear regression, mathematical modeling, teaching methodology

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotni chuqur tahlil qilish va bashorat qilish uchun eng muhim fanlardan biri ekonometrika hisoblanadi. Ekonometrika – bu statistika, matematika va iqtisodiy nazariyani birlashtirgan fan bo‘lib, iqtisodiy jarayonlarni raqamli modellashtirish va empirik tekshirish imkonini beradi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida ekonometrika fanini o‘qitishda talabalarga yuqori darajada matematik bilim va hisoblash mahorati talab etiladi.

Har qanday iqtisodiyot yo‘nalishidagi mutaxassislik fanlari hozirgi zamon talablariga mos o‘qitishda matematik apparat va usullarni keng qo‘llash talab qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi kunga kelib matematik usullardan foydalanish har qanday iqtisodiy fanning, shu jumladan, iqtisodiyot nazariyasi, moliya, moliyaviy tahlil, statistika, iqtisodiy statistika, ekonometrika, iqtisodiy- matematik usullar va modellar, biznes jarayonlarini modellashtirish, ekonometrikaga kirish, amaliy ekonometrika va boshqa fanlarning tarkibiy qismiga aylanib ulgirgan. Masalan, statistik ma’lumotlar matematik usullar bilan tahlil qilinib, o‘rganilayotgan muammoning optimal yechimi topiladi va jarayon uchun zaruriy qaror qabul qilinadi va hakoza.

Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda matematik apparatdan keng foydalanish yo‘li bilan qabul qilinadigan iqtisodiy yechimlarni oydinlashtirish va asoslash mumkin bo‘ladi. Boshqa tomondan, matematika fanlarini iqtisodiy ahamiyatga bog‘lab o‘qitish jarayonida matematik tushunchalar va qonuniyatlar amaliy iqtisodiyotga dahldor ekanligi isbotlanadi, matematik apparat ham ma’lum ma’noda takomillashadi.

Ekonometrika matematik va statistik usullar orqali iqtisodiy nazariya bilan isbotlangan iqtisodiy qonuniyatlarni masalani to‘g‘ri shakllantirish, ekonometrik hisob-kitoblarni tizimli yo‘naltirish, bozor noaniqligini hisobga olish va mavjud muqobillarni takomillashtirish hamda yangilarini izlash tamoyillari asosida tahlil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Matematik statistika usullari orqali iqtisodiyotdagi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishda, O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan iqtisodchi olimlardan A.Abdug‘afarov, R.A. Alimov, S.S.G‘ulomov, S.V.Chepel, A.V.Vaxabov, A.A.Mamatov, S.A.Abdullaev, B.M Mahmudov, X. Nabiev, T.Sh.Shodiev, N.M.Soatov, Yo.Abdullaev, B.K.G‘oyibnazarov, B.Berkinov, A.Nabixo‘jaev, N.Soatov, A.R. Qorabaevlarning qo‘shgan hissalarini e’tirof etish lozim.**[1,2]**

O’zbekistonda “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” fanining nazariy va ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq qilishga, ekonometrik yondashuvni iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini tahlil va prognozlashtirishga, iqtisodiy statistikani va ekonometrikaning asoslarini ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullarida tashkil qilishga, shuningdek axborot tizimlarini yaratishga joriy qilish muammolariga Q.Safaeva, B.Salimov, S.H. Sirojiddinov, M.Mamatov, Adirov T, Mamurov Ye, Abdushukurov A.A, Nurmuxamedova N.S, Sagidullaev K.S va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. **[4,5,6]**

Asosiy qism. Ekonometrika fanining zamonaviy ta’rifi sifatida ekonometrika-statistik va boshqa matematik usullar hamda modellar yordamida miqdoriy va sifat jihatidan iqtisodiy munosabatlarni o‘rganadigan fan deb ta’rif berish mumkin. Chunki, ekonometrika iqtisodiy nazariyani rivojlantirish uchun statistika va matematikadan foydalanishni asosiy maqsadi sifatida namoyon etadi.

Biz ekonometrik tahlilda nafaqat hisib-kitiblarning o‘zi va ko‘rsatkichlarning asoslanishi, birinchi navbatda, ushbu ko‘rsatkichlar nimani, qanday tavsiflanishini ko‘rsatadigan tushuntirishlar hamda xulosalar muhim ekanligidan kelib chiqadi. Talaba nafaqat korrelyatsiya va regressiya jadvallarini tuza olishi, balki ularni sharhlay olishi kerak. Buning uchun qo‘llaniladigan birlashtirilgan vazifalar tegishli tahliliy fazilatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan maxsus hisobotlar bilan to‘ldiriladi. So‘zma –so‘z ekonometrika iqtisodiyotda o‘lchashni anglatadi. Mohiyatiga ko‘ra ekonometrika o‘z ichiga iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilishda ishlatiladigan barcha statistik va matematik texnikalarni qamrab oladi.

Ekonpmetrik bilimlar iqtisodiy nazariya, iqtisodiy matematika, iqtisodiy statistika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanlarning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishining natijasi sifatida ajralib chiqqan va shakillangan.

Tahlil va natijalar. Korrelyatsion bog‘lanishning eng sodda tavsifi to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi hisoblanadi. Ushbu holda natijaviy va omil belgilar orasidagi bog‘lanish to‘g‘ri chiziqli funksiya orqali ifodalanadi.

$$y = \beta_1 + \beta_2 x + u$$

$$\sum u^2 \to \min$$

$$\sum (y - \hat{Y}_x)^2 = \sum (y - b_1 - b_2 x)^2 \to \min$$

Ushbu ko‘rinishdagi regression model parametrlarini aniqlashda nemis matematigi Karl Fridrix Gauss tomonidan ishlab chiqilgan eng kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi.

Bu usulning mohiyati qoldiqlar kvadratlari yig‘indisini minimumlashtirishga asoslangan bo‘lib, minumumlashtirish natijasida quyidagi normal tenglamalar tizimi hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases} nb_1 + b_2 \sum x = \sum y \\ b_1 \sum x + b_2 \sum x^2 = \sum xy \end{cases}$$

bu yerda b_1-ozod xad, b_2-burchak koeffitsiyenti bo‘lib, ushbu tenglama omil belgi bir birlikka o‘zgarganda natijaviy belgi necha birlikka o‘zgarishini ko‘rsatadi.

$$\begin{cases} a_0 n + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 = \sum y \\ a_0 \sum x_1 + a_1 \sum x_1^2 + a_2 \sum x_1 x_2 = \sum y x_1 \\ a_0 \sum x_2 + a_1 \sum x_1 x_2 + a_2 \sum x_1^2 = \sum y x_2 \end{cases}$$

Ushbu ko‘rinishdagi regression model parametrlarini aniqlashda Shved matematigi va statistigi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistikada dunyoga mashhur olim Xarold Kramer (Harold Cramer, 1893–1985) usulidan foydalaniladi.

Endi Kramer usulida hisoblaymiz

$$\begin{cases} 8a_0 + 91000a_1 + 20a_2 = 40 \\ 91000a_0 + 1108500000a_1 + 203000a_2 = 487700 \\ 20a_0 + 203000a_1 + 60a_2 = 88,6 \end{cases}$$

$$\begin{cases} a_0 + 11375a_1 + 2,5a_2 = 5 \\ a_0 + 12181a_1 + 2,23a_2 = 5,36 \\ a_0 + 10150a_1 + 3a_2 = 4,43 \end{cases}$$

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 11375 & 2,5 \\ 1 & 12181 & 2,23 \\ 1 & 10150 & 3 \end{vmatrix} = 1 \cdot 12181 \cdot 3 + 1 \cdot 10150 \cdot 2,5 + 1 \cdot 11375 \cdot 2,23 -$$

$$-(1 \cdot 12181 \cdot 2,5 + 1 \cdot 10150 \cdot 2,23 + 1 \cdot 11375 \cdot 3) = 73.35$$

$$\Delta_0 = \begin{vmatrix} 5 & 11375 & 2,5 \\ 5,36 & 12181 & 2,23 \\ 4,43 & 10150 & 3 \end{vmatrix} = 5 \cdot 12181 \cdot 3 + 5,36 \cdot 10150 \cdot 2,5 + 4,43 \cdot 11375 \cdot 2,23 -$$

$$-(4,43 \cdot 12181 \cdot 2,5 + 5 \cdot 10150 \cdot 2,23 + 5,36 \cdot 11375 \cdot 3) = 117,15$$

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} 1 & 5 & 2,5 \\ 1 & 5,36 & 2,23 \\ 1 & 4,43 & 3 \end{vmatrix} = 1 \cdot 5,36 \cdot 3 + 1 \cdot 4,43 \cdot 2,5 + 1 \cdot 5 \cdot 2,23 -$$

$$-(1 \cdot 5,36 \cdot 2,5 + 1 \cdot 4,43 \cdot 2,23 + 1 \cdot 5 \cdot 3) = 0,03$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} 1 & 11375 & 5 \\ 1 & 12181 & 5,36 \\ 1 & 10150 & 4,43 \end{vmatrix} = 1 \cdot 12181 \cdot 4,43 + 1 \cdot 10150 \cdot 5 + 1 \cdot 11375 \cdot 5,36 -$$

$$-(1 \cdot 12181 \cdot 5 + 1 \cdot 10150 \cdot 5,36 + 1 \cdot 11375 \cdot 4,43) = -19,41$$

$$a_0 = \frac{117,15}{73,35} = 1,59$$

$$a_1 = \frac{0,03}{73,35} = 0,36 \cdot 10^{-3}$$

$$a_2 = -\frac{19,41}{73,35} = -0,26$$

Bu qiymatlarning barchasi yaxlitlangan holda hisoblangan.

$$(a_0 = 1,59; \quad a_1 = 0,36 \cdot 10^{-3}; \quad a_2 = -0,26)$$

$$\overline{Y}_{y(x_1x_2)} = 1,59 + 0,36 \cdot 10^{-3} x_1 - 0,26 x_2$$

Kramer usuli–bu vaqt seriyalarining spektral tahlilida trend (determinirovanniy tendensiya)ni aniqlash va uni ma’lumotlardan ajratib olish uchun ishlatiladigan klassik matematik usuldir.

Korrelyatsion tahlil kuzatuvlar ma’lumotlarini tasodifiy va ko‘p o‘lchamli normal qonun bo‘yicha taqsimlangan bosh yig‘indidan tanlangan ma’lumotlar deb hisoblash mumkin bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Korrelyatsion tahlil ikkita omil o‘rtasidagi (juft bog‘liqlikda) hamda natijaviy omillar bilan boshqa ko‘p omillar o‘rtasidagi (ko‘p omilli bog’liqlikda) bog‘liqlikning zichligini miqdoriy jihatini aniqlashdan iborat.

Bog‘lanish zichligini baholashda Pirgen tomonidan taklif etilgan quyidagi chiziqli korrelatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi:

$$r_{xy} = \frac{\overline{xy} - \bar{x}\bar{y}}{\sigma_x \sigma_y}$$

Quyidagi berilgan ma’lumotlar asosida universitet talabalarining “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” va “Statistika” fanlarining o‘zlashtirish natijalari asosida regression tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Quyidagi to‘g‘ri chiziqli regressiya funksiyasini hosil qilamiz:

$$y = -6.0 + 1.1x$$

Ushbu funksiyaga ko‘ra, talabaning “Ehtimollar nazariyasi va statistik matematika” fanidan olgan bahosi bir balga ortganda, “Statistika” fanidan o‘zlashtirish natijasida o‘rtacha “2” ga kamayadi.

Bog‘lanish zichligi $r_{xy} = 0,853$ ni tashkil qiladi.

Demak, talabalarning “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” hamda “Statistika” fanlaridan o‘zlashtirish darajalari o‘rtasida kuchli korrelatsion bog‘lanish mavjud.

Determenatsiya koeffitsiyenti korrelatsiya koeffitsiyentini kvadrat shaklida aniqlab, natijaviy belgining necha foizi omil belgi ta’sirida shakllanishini ifodalaydi.

$$r_{xy}^2 = 0,853^2 = 0,7276 \quad 72.8\%$$

Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalarning “Statistika” fanidan o‘zlashtirish darajasi “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” fanini o‘zlashtirish darajasi bilan aniqlanadi.Yuqoridagi ma’lumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, talabalarning barcha fanlarni o‘zlashtirishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘ladi. Har bir fanning boshqa bir fan bilan bog‘liq ekanligi, mazkur fanga oid bilimlar boshqasini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi, ayniqsa “Statistika” fanlarini o‘zlashtirishda talabalarning chuqur matematik bilimga ega bo‘lishlari talab etiladi. Ekonometrika fanini o‘qitishda (Eng kichik kvadratlar usulida parametrlarni hisoblashda), Gauss usuli, Kramer usulidan tashqari oliy matematika fanida matritsalardan foydalanish ham yahshi samara beradi. Iqtisodiy masalalarni matematik modellashtirishda, ya’ni iqtisodiy muammoni matematik yordamida hal qilishda matritsalardan keng foydalaniladi. Matritsa so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, “birinchi man’ba” ma’nosini bildiradi. Matritsa to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar qadimgi Xitoyga borib taqaladi.Ular uni “Sehrli kvadratlar” deb atashgan. Matritsalar bo‘yicha fundamental nazariyalarni birinchilardan bo‘lib, XVIII asrda nemis olimi Veyershtrass kiritgan. Hozirgi kunda matematika, fizika, iqtisod va boshqa sohalarda sonli miqdorlar bilan berilgan faktlar, hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni matritsa va ular ustida bajariladigan amallar yordamida oson yechilishi katta ahamiyat kasb etadi.**[3]**

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ekonometrika fanini o‘qitishda oliy matematika usullari orqali hisoblash metodi asosida asosiy ko‘rsatkichlarni turli maxsus matematik statistika usullarida tahlil qilish, ularni baholash iqtisodiy rivojlanish dinamikasini real statistik tasvirlashga, aholini turmush darajasini haqqoniy baholashga, shuningdek, statistik kuzatuvlar asosida olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda ekonometrik modellardan foydalanish masalalari va bu borada yuzaga kelayotgan mu ammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini yechishga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1.Soatov N.M. “Statistika” . T.: “Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti” , 2003
2.Berkinov B.B “Ekonometrika” .T.: “Fan va texnologiya nashriyoti ” O’quv qo‘llanma , 2015
3.Xashimov A.R., Sotvoldiyev A.I., Xujaniyozova G.S., Xolbozorov Q.X. Iqtisodchilar uchun matematika: Darslik, 1-Modul.T.: “ Nihol print” OK, 2022. 316 bet.
4.Abdushukurov A.A. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, O’zMU, 2010 y.
5.Abdushukurov A.A., Nurmuxamedova N.S., Sagidullaev K.S. Matematik statistika. Universitet, 2013 y.
6.S.H. Sirojiddinov, M.Mamatov. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Toshkent, “O’qituvchi”, 1980 y.
7.http// stat.uz
8 http//www.imf.org.

“INFO-DARS” TA’LIM PLATFORMASI YORDAMIDA BO’LAJAK INFORMATIKA FANI O’QITUVCHILARINING METODOLOGIK TAYYORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ashirova Anorgul Ismoilovna
Ma’mun universiteti Aniq fanlar kafedrasi pedagogika fanlari nomzodi, professori v.b.
Manzil: Oʻzbekiston, Xiva shahri
Email:anorgul76@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3399-7527

Annotatsiya. Ushbu maqolada “INFO-DARS” ta’lim platformasi asosida boʻlajak informatika fani oʻqituvchilarining metodologik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt vositalari va interaktiv elektron resurslar asosida metodik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda platformaning funksional imkoniyatlari – elektron dars ishlanmalari konstruktori, adaptiv topshiriqlar moduli, avtomatik tahlil tizimi va raqamli oʻqitish vositalari – boʻlajak oʻqituvchilarning darsni loyihalash, oʻqitish jarayonini modellashtirish hamda baholash faoliyatiga ta’siri nuqtayi nazaridan oʻrganilgan. Shuningdek, “INFO-DARS” platformasidan foydalanish boʻlajak informatika oʻqituvchilarining metodologik savodxonligini oshirishi, amaliy darslarni samarali tashkil etishi va innovatsion yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish koʻnikmalarini rivojlantirishi tajriba-sinov ishlari orqali asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari platforma asosidagi raqamli ta’lim resurslari boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini koʻrsatdi.

Kalit soʻzlar. INFO-DARS platformasi; metodologik tayyorgarlik; boʻlajak informatika oʻqituvchisi; raqamli ta’lim muhit; elektron dars ishlanmasi; metodik kompetensiya; adaptiv topshiriqlar; raqamli pedagogika; ta’limni loyihalash; innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Аннотатsiя. В данной статье рассматриваются вопросы формирования методической подготовки будущих учителей информатики на основе образовательной платформы «ИНФО-ДАРС». Анализируются теоретико-методические основы формирования методических компетенций на основе цифровой среды обучения, инструментов искусственного интеллекта и интерактивных электронных ресурсов. В исследовании изучаются функциональные возможности платформы – конструктора разработки электронных уроков, модуля адаптивных заданий, системы автоматического анализа и цифровых средств обучения – с точки зрения их влияния на проектирование уроков, моделирование процесса обучения и оценочную деятельность будущих учителей. Также в ходе экспериментальной работы обосновано, что использование платформы «ИНФО-ДАРС» способствует повышению методической грамотности будущих учителей информатики, эффективной организatsiи практических занятий и формированию навыков планирования образовательного процесса на основе инноватsионного подхода. Результаты исследования показали высокую эффективность цифровых образовательных ресурсов, базирующихся на платформе, в повышении профессионально-методических компетенций будущих учителей.

Ключевые слова: Платформа «ИНФО-ДАРС»; методическая подготовка; будущий учитель информатики; цифровая среда обучения; разработка электронных уроков; методическая компетентность; адаптивные задания; цифровая педагогика; образовательное проектирование; инноватsионные образовательные технологии.

Abstract. This article examines the development of methodological training for future computer science teachers using the INFO-DARS educational platform. It analyzes the theoretical and methodological foundations for developing methodological competencies using a digital learning environment, artificial intelligence tools, and interactive electronic resources. The study examines the platform’s functionality—an e-lesson designer, an adaptive assignment module, an automatic analysis system, and digital teaching tools—from the perspective of their impact on lesson design, learning process modeling, and the assessment of future teachers. The experimental study also demonstrated that the INFO-DARS platform enhances the methodological literacy of future computer science teachers, effectively organizes practical classes, and develops skills in

planning the educational process based on an innovative approach. The study results demonstrated the high effectiveness of digital educational resources based on the platform in enhancing the professional and methodological competencies of future teachers.

Keywords: INFO-DARS platform; methodological training; future computer science teacher; digital learning environment; e-lesson development; methodological competence; adaptive assignments; Digital pedagogy; educational design; innovative educational technologies.


1.Kirish. Texnika universitetlarida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni an’anaviy metodologik tizimlar doirasida tayyorlash talabalar, o‘qituvchilar va ish beruvchilarni qoniqtirmay qo‘ymoqda. Birinchi sabab - talabalarning rasmiy va real amaliyotdan uzilgan fanlarni o‘rganishga bo‘lgan past motivatsiyasi. Yana bir sabab, nazariy o‘qitish va amaliy tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘qligi sababli metodologik fanlarni o‘rganishga qiziqish pasayib bormoqda. Uchinchi sabab - ta’lim jarayonida doimiy ravishda tajriba orttirish va professional tayyorgarlikni rivojlantirish mexanizmining yo‘qligi. Bu, ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari kursining dinamikasi (kontentni yangilash sikli to‘rt yildan kam) tufayli informatika o‘qituvchilari uchun muhimdir. Uning rivojlanishi tadqiqot va real dunyo o‘qitish bilan integratsiyalashgan bo‘lishi kerak.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida informatika fani o‘qituvchilarining metodologik tayyorgarligini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektdan foydalanish, elektron resurslar yaratish va ilg‘or pedagogik yondashuvlarni qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, “INFO-DARS” ta’lim platformasi raqamli pedagogik vositalar, adaptiv topshiriqlar, elektron dars ishlanmalari konstruktori, avtomatlashtirilgan baholash tizimi va interaktiv kontent yaratish imkoniyatlari orqali metodologik tayyorgarlikni takomillashtirishda katta salohiyatga ega.

Maqolada mazkur platformaning bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining metodologik tayyorgarligiga ta’siri, platformadan foydalanish samaradorligi hamda uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning amaliy mexanizmlari ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Alohida universitetlarning maktab muhitidan avtonom izolyatsiyasini hisobga olgan holda, bu omillarni yengib o‘tish qiyin. Ko‘pgina tadqiqotchilar pedagogika universitetlarini maktab muhiti bilan integratsiyalashning turli modellarini taklif qilmoqdalar. S.D. Karakozov, A.V. Ovcharov, O.A. Osipenko, B.E. Starichenko, G.A. Fedorova va boshqalarning ishlari alohida e’tiborga loyiqdir. Ular yaratilgan "maktab-universitet" axborot-ta’lim muhitining didaktik ta’sirini bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliyotga yo‘naltirilgan va professional faoliyati nuqtai nazaridan asoslaydi.



1-rasm. Info-dars platformasi bosh sahifasi

Muhokama. Info-dars platformasida ta’lim jarayonini amaliy amalga oshirish orqali quyidagi samaralarga erishish mumkin:

Maktab o‘quvchilari uchun: sinfga asoslangan tizimdan real hayot sharoitga asoslangan o‘rganish paradigmasiga o‘tish, teng va qulay ta’lim, kelajak uchun ota-onalarini qoniqtiradigan yuqori sifatli ta’lim olish imkoniyati va ularning kommunikativ kompetensiyalari va kognitiv qobiliyatlarini bevosita rivojlantirish tufayli maktabda o‘qishga qiziqishning sezilarli darajada oshishi.

O’qituvchilar uchun: akademik sinf ishidan "ustoz-shogird" paradigmasi doirasida loyihaga asoslangan tadqiqotlar va amaliy faoliyatga o‘tish, haqiqiy info-darslarni loyihalash va o‘tkazishda ishtirok etish tufayli o‘rganishga qiziqishning sezilarli darajada oshishi. Bu motivatsiyalangan fanni o‘rganish va pedagogik amaliyotni, shuningdek, aqlli jamiyatda tarmoq faoliyati uchun professional ko‘nikma va qobiliyatlarni bevosita egallashni ta’minlaydi.

Amaliyotchi o‘qituvchilar uchun bu talabalar, universitet professorlari, olimlar va IT mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash orqali ularning professional faoliyati davomida doimiy professional rivojlanishni anglatadi**.**


Universitet o‘qituvchilari va tadqiqotchilari uchun bu akademik va pedagogik tadqiqotlarni real hayotdagi auditoriya amaliyoti va hayoti bilan bog‘lashni anglatadi. IT sohasi xodimlari uchun bu o‘z mahsulotlari va xizmatlarini, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini targ‘ib qilish uchun inson va intellektual resurslarni jalb qilishni anglatadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodologik tayyorlash mustaqil ilmiy soha sifatida fanni o‘qitish usullarining tuzilishi va funktsiyalari bilan belgilanadigan ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Talabalar uchun bunday o‘qitish universitetda o‘qish davomida davom etadi, ammo bu jarayonda asosiy rol talabalar odatda uchinchi o‘quv yilida boshlaydigan fanni o‘qitish metodologiyasi kursiga tegishli. Bizning holatimizda bu "Ta’lim nazariyasi” kursi.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining metodologik tayyorgarligini rivojlantirishning klassik modeli bir necha bosqichlardan o‘tadi: Birinchi bosqichda talabalar kasbiy kompetensiyalar va kasbiy faoliyat mazmuni bilan tanishadilar va o‘zlarining kasbiy faoliyatlaridagi kamchiliklarni aniqlaydilar. Ikkinchi bosqich asosiy bo‘lib, ta’lim nazariyasi va maktab informatika o‘quv dasturi konsepsiyasi bo‘yicha metodologik va ixtisoslashgan bilim va ko‘nikmalarni egallashni o‘z ichiga oladi, bu esa informatika darsini yaxlit metodologik o‘qitish tizimi sifatida loyihalash uchun mo‘ljallangan. Uchinchi bosqich ixtisoslashtirilgan kurslar, ixtisoslashtirilgan seminarlar va talabalarning tanlangan sohadagi o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishi orqali o‘qituvchi-tadqiqotchi darajasida metodologik tayyorgarlikni rivojlantirishga mo‘ljallangan. Yakuniy bosqich metodologik tayyorgarlikni oshirish va amaliy o‘qitish orqali metodologik ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining metodologik tayyorgarligi darajasini baholash uchun "Metodik portfel" tuziladi, uning mazmuni metodologik tayyorgarlik va qo‘llab-quvvatlashning rivojlanishini kuzatishga yordam beradi, shuningdek, ijobiy o‘rganish va kognitiv motivatsiyani rag‘batlantiradi.

"Metodik portfel" o‘quv guruhi uchun zarur bo‘lgan topshiriqlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. Ushbu topshiriqlar keng qamrovli va ta’lim natijalarini professional faoliyatning muayyan turlari bilan taqqoslash orqali baholash uchun etarli.



2-rasm. Info-dars platformasida elektron resurslarini joylashtirish muloqot oynasi

Natijalar. Tadqiqot natijalari “INFO-DARS” platformasi bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining metodologik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi:

1.Metodik loyihalash kompetensiyasi oshdi, **t**alabalar platformaning elektron dars ishlanmalari konstruktori orqali mavzu strukturasini to‘g‘ri shakllantirish, maqsadlarni SMART modellari asosida qo‘yish, darsning texnologik xaritasini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘ldi.

2.Raqamli didaktik vositalarni tanlash malakasi kuchaydi. Talabalar interaktiv testlar, animatsiyalar, video darslar, adaptiv mashqlar yaratish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar, xususan “INFO-DARS”, metodologik tayyorgarlikni rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish;
- o‘quv materialining multimediali va adaptiv shaklda berilishi tufayli o‘zlashtirish samaradorligini oshirish;
- dars jarayonini rejalashtirish va baholashning aniq va tizimli mexanizmlarini yaratish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil ta’limni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Yuqoridagi afzalliklarga qaramay, platformani joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham kuzatildi:

- ayrim talabalar uchun raqamli vositalar bilan ishlashda dastlabki qiyinchiliklar;
- o‘qituvchilarning dars jarayonini to‘liq raqamlashtirishga tayyor emasligi;
- internet tezligi va texnik infratuzilma bilan bog‘liq cheklovlar.

Shunga qaramay, platformaning pedagogik va texnologik ustunliklari bu muammolardan ustun keladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, “INFO-DARS”ning o‘quv jarayoniga integratsiyasi bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa. Tadqiqot davomida quyidagi natijalar va xulosalar olindi:

1. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashning metodologik tizimini takomillashtirish ularning integratsiyalashgan jamoalarda elektron ta’lim va masofaviy ta’lim sharoitida kelajakdagi professional ishlariga metodologik tayyorgarligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilishi kerak. Universitetlarida talabalarni tayyorlash metodologik tizimidagi kamchiliklarni tahlil qilish ta’lim jarayonida ta’lim platformalariga asoslangan yangi modellarni joriy etish zarurligini asosladi.

2. Talabaning metodologik yutuqlar portfeliga asoslangan metodologik tayyorgarlik darajasini baholash usuli taklif qilindi. Talabalarning professional yutuqlarini hisobga olgan holda tuzilgan metodologik portfel ularning metodologik tayyorgarligi dinamikasini kuzatish, ijobiy o‘rganish va kognitiv motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, o‘zini rivojlantirish uchun zarur xulosalar chiqarish, individual baholashlarni shakllantirish va talabalarning tadqiqot loyihaga asoslangan faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, u universitetlari talabalari uchun metodologik tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar royhati

1. Abduqodirov A.A. Umumiy o‘rta ta’limida yangi axborot texnologiyalari: mazmun, vosita va usullar//“Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlari va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2003. – B. 7-14.

2. Ashirova A.,Allaberganova M., Raximov R. Adaptive Learning Program for Developing Professional Competence of Future Computer Science Teachers. International Conference of Young Specialists on Micro/Nanotechnologies and Electron Devices, EDM, pp. 2320 - 2324, DOI: 10.1109/EDM65517.2025.11096760

DEVELOPMENT OF A HYPERMEDIA SYSTEM ADAPTIVE E-LEARNING SPECIAL DISCIPLINES

Anorgul I. Ashirova
Mamun University, Uzbekistan
Email:anorgul76@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3399-7527

Abstract—The modern world dictates its requirements for education. The amount of information increases every day and the process of assimilation becomes more and more difficult. In such conditions, adaptive education becomes quite relevant, largely due to the fact that the main goal of such education is a certain flexibility, which allows you to adapt to the needs and individual characteristics of students, including learning abilities, acceptable pace, level of incoming knowledge, etc. An adaptive learning system must take into account all these parameters, respond flexibly to them and offer an individual educational path for everyone. Also, such a system should be rebuilt in accordance with changes in the condition and needs of students at each stage of training. In modern reality, professional activity must meet many requirements, and the educational process, in order to provide a person with the necessary competencies to increase his competitiveness, must take into account all the changes that occur. This process is implemented in the development of adaptive educational courses and includes correct methodological design and development of adaptive content. The authors of the article developed a software package for adaptive e-learning of special disciplines

Keywords—adaptive learning, e-learning, adaptive testing, online course, differentiated learning, personalized learning

Introduction

Currently, the field of online education is rapidly developing and is becoming more and more in demand every year. Many universities are gradually moving towards a distance learning approach, and more and more massive open online courses are appearing. The availability of educational materials and flexibility in their delivery formats make the learning process more comfortable and often more effective compared to the traditional method. At the same time, with the growing popularity of online education and the massive audience of students of online courses, the issue of building an individual educational trajectory and personalizing educational content has become more relevant than ever. People taking the same course differ from each other both in their initial knowledge and abilities, and in a number of other characteristics, including memory, motivation, the predominant type of information perception, and others. Correct accounting of them can significantly increase the speed and efficiency of learning the material.

In this regard, the task arises of building such electronic educational systems that can independently provide an individual approach to the characteristics of each student and adapt to his changing level of knowledge, to some extent taking on the role of a real teacher. Such systems are called adaptive learning systems and to implement its principles they must be able to:

1. assess the individual qualities of the student, his entry level of training;
2. based on this dynamically updated assessment, provide a personal training plan.

Adaptive learning systems increase the efficiency and speed of learning and eliminate the risks of unconscious incompetence, providing a flexible learning process.

The disadvantage of online education: in the case of classroom classes, the teacher can tailor his lectures to the students: conduct a survey at the beginning of the semester, monitor in class whether everyone understands the material, and even communicate with individual students personally if they have not learned something or, conversely, they want to go deeper into certain topics. Of course, in the case of an online distance course, the teacher's resources for such interaction are not enough, and students find themselves within the strict framework of a linear course without the opportunity to analyze complex tasks in more detail or skip simple ones.

However, there are ways to implement something similar in automatic (mass) mode. These methods can be divided into three main groups:

1. Differentiated learning. The easiest way to adjust the material to the student's level of knowledge: the teacher creates in advance several fixed educational trajectories of varying complexity, and the student chooses the appropriate one for himself and then studies along it in the usual, linear mode. For example, a series of textbooks for different levels of programming knowledge.

2. Personalized learning. In this case, the trajectory is built during the learning process depending on the student's results in intermediate tests. The teacher sets the rules in advance about when to test and what to recommend studying further given different results. It turns out something similar to a decision tree, along which students will go in different ways depending on their success, but the tree itself must be thought out and created by the teacher.

3. Adaptive learning. The most interesting group from the point of view of algorithms. The trajectory is also built during the learning process, but does not require initial markings from the teacher, but uses maximum information about how the student studies the material and how this material was studied before him.

Adaptive courses began to be developed in 1950-1960. such scientists as B.F. Skinner, A.K. Crowder, G. Pask, who proposed various software learning algorithms. They first identified several principles of adaptive learning:

- educational content was presented in small portions;
- testing of the learned material was carried out using optimally selected tasks;
- instant detailed feedback was given.

Professor B.F. Skinner proposed a linear learning algorithm, in which the principles outlined above were supplemented. B.F. Skinner introduced an individual pace for each student, based on this, students spent different time on learning, and the material was divided into minimal blocks with a low degree of complexity. Following Professor Skinner A.K. Klauder proposed his own educational algorithm, which was called branched. Here other principles were developed. The initial stage of training consisted of modules that were quite voluminous and contained complex questions. At the next stage, the student took a test, which also consisted of difficult questions.

If the student did not cope with them, he went through the material again using small modules containing a simpler and more detailed presentation of the same material. For the first time, differentiated learning trajectories were created, when each student moved his own path to the final of the program.

It was Gordon Pask who proposed an adaptive educational algorithm, when an individual level of difficulty was maintained for each student at all stages of learning. By the mid-1970s. The concept of personalization of education has emerged, where the student acts as a subject of the educational process; the way of designing and implementing the educational process with the help of individual educational trajectories and routes depends on him. This means that the student can independently determine the most suitable goals for him, control the pace of learning, choose tasks suitable for achieving his goals, as well as ways to test them [2].

In the 2000s, thanks to Semantic Web technology, it became possible to effectively interact between web-based learning systems. This technology is used, in particular, in the development of educational content and makes it possible to achieve adaptability and flexibility of learning [1–3].

Adaptive educational resources, in turn, contribute to the personalization of learning, which makes it more effective [4, 5].

An important direction in the development of e-learning is the development of adaptive educational systems that take into account students' learning styles [6–8].

Currently, the so-called massive open online courses (MOOCs) are becoming increasingly widespread, but the implementation of an adaptive approach to learning in them is still under discussion [9–11].

STATEMENT OF THE PROBLEM

Educational hypermedia systems, in which the student has a specific learning goal, are a typical application of adaptive hypermedia systems. These systems focus on learner knowledge, which can vary greatly. The state of knowledge changes while working with the system. Thus, correct modeling of changing levels of knowledge, proper updating of the model and the ability to draw correct conclusions based on updated knowledge assessment are the most important components of a hypermedia learning system.

The main goal is to develop a software package for adaptive e-learning for special disciplines, personalization, and increasing the effectiveness of training.

The software package was developed in the PHP programming language using the MySQL database management system.

The work obtained new scientific results:

1. Models of course and student knowledge and methods for monitoring student knowledge have been developed that support system adaptability

2. A model and methods for testing the student's knowledge have been developed, covering well-known approaches and allowing the testing scenario to be generated randomly. The model is based on a developed classification of tests according to the form and depth of the knowledge being tested, as well as their combination into test spaces according to the content of the knowledge being tested.

3. A software package supporting distance learning and intelligent teaching systems has been developed. The environment is focused on supporting distance learning, during which students, solving individual tasks assigned to them, act completely independently, but are constantly provided with the opportunity to receive qualified assistance, starting from the stage of understanding the conditions of the tasks and ending with the stage of assessing the correctness of their solution.

In the developed training system, adaptation occurs at several levels:

1) Adaptation at the level of content of educational material. To implement this property, it is necessary to do a lot of work on the formation of educational content for each discipline with the ability to choose the preferred form of information presentation. This approach requires a serious investment of intellectual work, but as a result, it allows you to obtain a completely new, highly effective training system.

2) Adaptation at the level of knowledge control. The individual characteristics of each student are determined at the initial stage of training using special tests and subsequently serve as learning parameters, the correction of which must be carried out throughout the entire learning process. The peculiarities of perception may change during the learning process, and timely consideration of these changes will also improve the quality of learning.

In training, adaptation involves individualizing the content of training courses and test tasks intended to control knowledge for each student. Adaptation can occur in various parameters, for example, in the volume of the proposed material or in the form of its presentation. The task of adaptive learning systems is to optimize the educational process by providing the student with educational material in the most preferred form. The result of this approach is to improve the quality and efficiency of the educational process.

O.A. Artemenko, K.A. Amelichev's technological foundations for the development of an adaptive automated learning system include the following structural components:

1) a subsystem for presenting information with search functions, i.e. contains theoretical material;

2) a subsystem of training and test tasks - a basic component of an automated training system;

3) administration subsystem, i.e. a set of teacher tools that allows you to create components of the information presentation subsystem, including various types of educational and test tasks;

4) an adaptation subsystem, which contains a set of algorithms that ensures the generation of an individual learning trajectory based on an analysis of the correlation of individual characteristics of users and the learner's model, which is located in the system database;

5) communication subsystem (within the study group, as well as with the teacher);

6) registration subsystem – creates an account for each user. Thanks to the account, records are kept of the implementation of both the individual and group curriculum[13].

In addition, these researchers note that when designing an automated learning system, it is necessary to take into account the principles of behaviorism, which is necessary for the assimilation of theoretical material, cognitive, intended for the practical application of educational material, and the constructivist principle, which is necessary for the practical application of educational material, is also important. The combination of these principles, according to scientists, makes it possible to achieve maximum learning efficiency[14].

METHOD FOR SOLVING THE PROBLEM

Adaptive learning using a software package is made in the form of a recommendation system that advises the user which topic he should study next, depending on his previous actions. While recommendations are given within the framework of the materials of the selected course, in the future recommendations within the framework of an arbitrary topic will also become available. In the future, any topic can be studied in an adaptive mode.

To start learning in adaptive mode, a registered user just needs to click the "Learn" button in the adaptive course.

Having received the material recommended for training (lecture), the user can react to it in one of three ways:

- pass the lecture (solve problems in it),
- mark the lecture as too easy,
- mark the lecture as too difficult.

After receiving a reaction, the student's knowledge and the difficulty of the lecture are updated, and the student receives a new recommendation.

In addition to the complexity of the lecture, we also want to consider the layout of the content by topics. We use the knowledge graph from Wikidata and allow lesson authors to tag them with two types of topics:

- the topics this lesson relates to (which are explained in it),
- topics that are necessary to understand this lesson.

For example, if a student has marked a lecture as too difficult, we can advise him to study the topics that are required for that lecture.

In the software package, each lecture consists of 5 sections: video lecture, presentation, lecture text, assignment and Internet links.

CONCLUSION

Adaptation in adaptive hypermedia systems can be understood as the process of changing educational influences on a student, which is based on the current model, in order to optimally transfer the student to the required state. Adaptive hypermedia systems solve a number of problems that make it possible to adapt various methods of transmitting information, which directly increases the competence of the learner. Currently, there are a large number of adaptive models, the specifics of which depend on their algorithm.

Most modern adaptive learning systems use adaptive principles or multimedia components in training courses. This application of technology is effective and beyond doubt. Adaptive technologies make it possible to automate an individual approach to each student in the process of computerized learning; in particular, multimedia provides ample opportunities in providing information and interacting with students - visibility, interactivity.

The performance indicators of the learning process largely depend on the quality of development of adaptive automated training systems. The method proposed by the authors (based on the use of a

multilayer approach) for assessing the quality of adaptive hypermedia systems is, in our opinion, effective, since for each layer an analysis of existing criteria was carried out and new quality assessment criteria were introduced for each layer. Using this method allows you to improve the quality of developed adaptive hypermedia systems by detecting and correcting shortcomings at the conceptual level of development.

References

[1] R. Mizoguchi, J. Bourdeau. “Using Ontological Engineering to Overcome Common AI-ED Problems,” International Journal of Artificial Intelligence and Education, 11 (2000), pp. 107–121.

[2] L. Aroyo, D. Dicheva. “The New Challenges for E-learning: The Educational Semantic Web,” Educational Technology and Society, 7:4 (2004), pp. 59–69.

[3] C. Pahl, E. Holohan. “Applications of Semantic Web Technology to Support Learning Content Development,” Interdisciplinary Journal of E-learning and Learning Objects, 5:1 (2009), pp. 1–25.

[4] L. Aroyo, P. Dolog, G-J. Houben, M. Kravcik, A. Naeve, M. Nilsson, F. Wild. “Interoperability in personalized adaptive learning,” Educational Technology & Society, 9:2 (2006), pp. 4–18.

[5] E. O’Donnell, S. Lawless, M. Sharp, V. Wade. “A Review of Personalized E-Learning: Towards Supporting Learner Diversity,” International Journal of Distance Education Technologies, 13:1 (2015), pp. 22–47.

[6] C. A. Carver, R. A. Howard, W. D. Lane. “Addressing different learning styles through course hypermedia,” IEEE Transactions on Education, 42:1 (1999), pp. 33–38.

[7] J. Kuljis, F. Liu. “A comparison of learning style theories on the suitability for e-learning,” Proceedings of the IASTED Conference on Web-Technologies, Applications and Services (Calgary, Alberta, Canada, July 4–6, 2005), pp. 191–197.

[8] T.-C. Yang, G.-J. Hwang, S. J.-H. Yang. “Development of an adaptive learning system with multiple perspectives based on students’ learning styles and cognitive styles,” Educational Technology & Society, 16:4 (2013), pp. 185–200.

[9] V. A. Starodubtsev. “Personalized MOOCs in blended learning,” Higher Education in Russia, 10 (2015), p. 133–144.

[10]K. Gynther. “Design Framework for an Adaptive MOOC Enhanced by Blended Learning: Supplementary Training and Personalized Learning for Teacher Professional Development,” The Electronic Journal of e-Learning,14:1 (2016), pp. 15–30.

[11]A. S. Sunar, N. A. Abdullah, S. White, H. Davis. “Personalization in MOOCs: A Critical Literature Review,” Computer Supported Education, CSEDU 2015, Communications in Computer and Information Science, vol. 583, eds. S. Zvacek, M. Restivo, J. Uhomoibhi, M. Helfert, Springer, Cham, 2016, pp. 152–168.

[12]Yu. V. Vainshtein, R. V. Esin, G. M. Tsibulsky. “An adaptive model for constructing individual educational trajectories when implementing blended learning,” Informatics and Education, 2 (2017), p. 83–86.

[13]Artemenko O.A., Amelicheva K.A. Psychological foundations for the development of an adaptive automated learning system // Higher education today. – 2013. – No. 10. – P. 48.

[14]Vorobkalov P.N., Shabalina O.A. Quality management of the development process of adaptive learning systems using a multilayer approach // News of the Vologda State Technical University. – 2007. – No. 2. – P. 76 – 78.

REGRESSIYA TENGLAMASINI DETERMINANTLAR USULLARI ORQALI HISOBLASH METODI

Matkarimova Intizor Atabayevna
Ma'mun universiteti NTM, "Buxgalteriya hisobi"
kafedrasi dotsenti, (PhD)
+998905871951
E-mail: intizor-matkarimova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada oddiy chiziqli regressiya tenglamasining (y = a + bx) parametrlarini aniqlashning determinantlar (Kramer) usuli va Karl Fridrix Gauss usullari batafsil yoritilgan. Eng kichik kvadratlar usulidan kelib chiqadigan normal tenglamalar tizimi matritsali shaklga keltirilib, Kramer qoidasi asosida asosiy determinant (Δ) hamda a va b koeffitsientlari uchun qo'shimcha determinantlar (Δ_a va Δ_b) hisoblanishi ko'rsatilgan. Ushbu usul orqali olinadigan formulalarning klassik EKK formulalari bilan to'liq mosligi isbotlangan va amaliy misollar bilan tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: chiziqli regressiya, eng kichik kvadratlar usuli, normal tenglamalar, Kramer usuli, Gauss usuli, determinantlar usuli, ozod had, regressiya koeffitsientlari, asosiy determinant, statistika tahlili

Kirish. Innovatsion iqtisodiyot iqtisodchi mutaxassislardan ish yuritishning zamonaviy yangi usullarini o'zlashtirishni va ularni amaliyotga qo'llay bilishni talab etadi. Iqtisodiyotdagi ko'pchilik usullar ekonometrik va iqtisodiy matematik usullar hamda modellarga asoslangan. Ularni bilmasdan va amaliyotga qo'llamasdan murakkab iqtisodiy jarayonlarni ilmiy asoslangan holda tahlil qilish va prognozlashda ijobiy natijalarga erishish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 24 may 2024 yildagi PF–81-sonli farmonida "Davlat buyurtmasi bo'yicha kvotalar taqsimotida muhandislik, tibbiyot, aniq va tabiiy fanlar bilim sohalariga ustuvorlik berilganligi mazkur yo'nalishlardagi muhim islohotlar hisoblanadi**.[1]**

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi ham mikro, ham makroiqtisodiyotda tabiy, zaruriy element sifatida matematik modellar va usullarni o'z ichiga oladi. Matematikada iqtisodiyotda foydalanish iqtisodiy o'zgaruvchilar va ob'ektlarning eng muhim, ahamiyatli bog'lanishlarni ajartishga va formal tasvirlashga, iqtisodiyot nazariyasining qoidalari, tushunchalari va xulosalalarini aniq va lo'nda bayon qilishga imkon beradi. Bunda modellar va modellashtirish muhim o'rin tutadi. Ilmiy izlanishlarda modellashtirish qadimgi zamonlardanoq qo'llanila boshlandi va asta sekin ilmiy bilimlarning qurilish va arxitektura, astranomiya, fizika, ximiya, bilologiya va nixoyat, ijtimoiy fanlar kabi tabora yangi sohalarini qamrab ola boshladi. Iqtisodiy matematik modelllarni amaliyotda qo'llash usullari iqtisodiy matematik usullar deb ataladi,

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Regressiya tahlili va uning parametrlarini aniqlash usullari bo'yicha dunyo va o'zbek adabiyotida juda ko'p ishlar mavjud. Biroq determinantlar (Kramer) usuli orqali chiziqli regressiyani hisoblash masalasiga alohida e'tibor berilgan manbalar nisbatan kam hisoblanadi.

Birinchi matematik modellar F.Kene, A.Smit (klassik makroiqtisodiy model), D.Rikardo (xalqaro savdo modeli) tomonidan ishiatilgan. XX asr zamonaviy fanning amalda barcha sohalarida modellashtirish usuliga katta muvaffaqiyatlar va obro' e'tibor keltirdi.Iqtisodiy-matematik usullar (IMU) iqtisodiyotni o'rganish uchun birlashtirilgan iqtisodiy va matematik fanlarning uyushmasidir. Bu tushuncha fanga XX asrning 60-yillarida akademik V.S.Nemchinov tomonidan kiritilgan bo'lib IMU iqtisodiyot, matematika va kibernetikaning tutashishida hosil bo'lgan.

Prognozning metodologik yo'nalishlaridan birini ekonometrik modellar tashkil etadi. Milliy iqtisodiyot va uning quyi tizimlari korrelyatsiya va regressiya turidagi ilk makroekonometrika modellari L.Kleyn**[8]** tomonidan AQShda 1950 yillarda ishlab chiqilgan va milliy iqtisodiyot, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari, pul-kredit tizimi, monopoliyalar, korporatsiyalar va boshqalarning rivojlanishini prognoz qilish uchun muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelingan. Bu ishlar

uchun 1980 yil L.Kleynga Nobel mukofoti laureati unvoni berildi. Prognoz qilish uchun ekonometrik modellarni qo‘llash tajribasidan keyinchalik boshqa mamlakatlarda, jumladan, O’zbekistonda ham shunga o‘xshash modellar ishlab chiqishda foydalanildi.**[9]**

Matematik statistika usullari orqali iqtisodiyotdagi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishda, O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan iqtisodchi olimlardan A.Abdug‘afarov, R.A. Alimov, S.S.G‘ulomov, S.V.Chepel, A.V.Vaxabov, A.A.Mamatov, S.A.Abdullaev, B.M Mahmudov, X. Nabiev, T.Sh.Shodiev, N.M.Soatov, Yo.Abdullaev, B.K.G‘oyibnazarov, B.Berkinov, A.Nabixo‘jaev, N.Soatov, A.R. Qorabaevlarning qo‘shgan hissalarini e’tirof etish lozim.**[2,3]**

O’zbekistonda “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” fanining nazariy va ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq qilishga, ekonometrik yondashuvni iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini tahlil va prognozlashtirishga, iqtisodiy statistikani va ekonometrikaning asoslarini ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullarida tashkil qilishga, shuningdek axborot tizimlarini yaratishga joriy qilish muammolariga Q.Safaeva, B.Salimov, S.H. Sirojiddinov, M.Mamatov, Adirov T, Mamurov Ye, Abdushukurov A.A, Nurmuxamedova N.S, Sagidullaev K.S va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. **[5,6,7]**.Yana bitta O’zbek olimlari A Abdullaev va O Rajabov “Statistika va ekonometrika” nomli darsligida determinant usuli batafsil misol bilan berilgan va O’zbekiston oliy o‘quv yurtlari uchun eng yaxshi manbalardan biri hisoblanadi.

Rossiyalik olimlar Sergey Arutyunovich (Artemievich) Aivazyan (1934 yil 24 iyun — 2019 yil 12 mart) — sovet va rus olimi-iqtisodchisi, L. V. Kantorovich mukofoti laureati (2017) va Mxitaryan V.S “Прикладная статистика и основы эконометрики” darsligida determinantlar usuli qisqacha ko‘rsatilgan, lekin ko‘proq matritsali yondashuvga urg‘u berilgan. Determinantlar usuli “alternativ yechim” sifatida qayd qilingan. Yana bitta rus olimi Borovikov V.P “Популярное введение в программу STATISTICA” darsligida determinant usuli kompyuterda avtomatik hisoblanmaydi, lekin muallif “qo‘lda hisoblashda Kramer usuli eng aniq va xatoni tez topishga imkon beradi” deb yozadi.

Tahlil va natijalar. Regressiya tenglamasini determinantlar usuli (Kramer usuli) orqali hisoblashni ko‘rib chiqsak.

Regressiya tahlilida eng keng tarqalgan vazifa – ikki o‘zgaruvchi (masalan, x va y) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflovchi chiziqli regressiya tenglamasini topishdir:

y = a + bx

Bu yerda:

- **a** – kesib o‘tuvchi nuqta (intercept)
- **b** – nishablik koeffitsienti (slope)

Bu koeffitsientlarni hisoblashning bir necha usuli bor: eng kichik kvadratlar usuli (EKK), matritsali usul, Kramer (determinant) usuli, Karl Fridrix Gauss usullari va boshqalar. Bu maqolaning birinchi misolida biz aynan determinantlar usuli (ya’ni Kramer qoidasidan foydalanib) hisoblashni ko‘rib chiqamiz.

Chiziqli tenglamalar sistemasini Kramer usulida yechish

Eng kichik kvadratlar usuli (EKK) yordamida aniqlanadigan a va b parametrlari odatda tayyor formulalar orqali hisoblanadi. Biroq ushbu formulalarning qanday paydo bo‘lganini chuqur tushunish uchun Kramer (determinantlar) usuli juda qulaydir. Ushbu maqolada aynan shu usulning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanishi batafsil yoritilgan.

$\begin{cases} 3x + 2y = 7 \\ 4x - 5y = 40 \end{cases}$ tenglamalar sistemasidagi x, y noma’lumlarni topish formulasini Kramer usulida yechilishi quyidagicha **1-Misol**

.

$$x = \frac{\Delta_x}{\Delta} = \frac{\begin{vmatrix} 7 & 2 \\ 40 & -5 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} 3 & 2 \\ 4 & -5 \end{vmatrix}},\ y = \frac{\Delta_y}{\Delta} = \frac{\begin{vmatrix} 3 & 7 \\ 4 & 40 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} 3 & 2 \\ 4 & -5 \end{vmatrix}}$$

Oddiy chiziqli regressiyaning normal tenglamalari

Eng kichik kvadratlar usulidan kelib chiqadigan normal tenglamalar quyidagicha:

1. **n·a + b·Σx = Σy**
2. **a·Σx + b·Σx² = Σxy**

Bu yerda:

- n – kuzatuvlar soni
- Σx, Σy – x va y o‘zgaruvchilarining yig‘indilari
- Σx² – x² lar yig‘indisi
- Σxy – x·y ko‘paytmalari yig‘indisi

Bu ikkita tenglama va ikkita noma’lum (a va b) bor liney tenglamalar tizimidir.

Regressiya tahlili statistika va ekonometrikada eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Oddiy chiziqli regressiya modeli quyidagi ko‘rinishga ega:

y = a + b·x + ε

Ushbu ko‘rinishdagi regression model parametrlarini aniqlashda nemis matematigi Karl Fridrix Gauss tomonidan ishlab chiqilgan eng kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi. Bu usulning mohiyati qoldiqlar kvadratlari yig‘indisini minimumlashtirishga asoslangan bo‘lib, minumumlashtirish natijasida normal tenglamalar tizimi hosil bo‘ladi.

Quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini ayirish usuli (Gauss usuli) yordamida yechamiz:

2-Misol

(1) 4x + 3y = 17
(2) 6x − 5y = 23

Maqsad: birinchi ustun ostidagi elementni 0 qilish uchun tenglamalarni ayirib tashlaymiz.

1. Ikkala tenglamani ham bir xil koeffitsientli qilib olamiz (x oldida):

(1)-ni 3 ga ko‘paytiramiz: (1’) 12x + 9y = 51
(2)-ni 2 ga ko‘paytiramiz: (2’) 12x − 10y = 46
Endi ayirib tashlaymiz (1’) − (2’):

12x + 9y = 51
–
12x − 10y = 46
———————————

19y = 5

y = 5/19

2. Endi y ni topib bo‘lganimizdan keyin, uni istagan tenglamaga qo‘yib x ni topamiz. Eng qulaysi – birinchi (asl) tenglama:

4x + 3y = 17
4x + 3·(5/19) = 17
4x + 15/19 = 17
4x = 17 − 15/19 = 323/19 − 15/19 = 308/19

x = (308/19) ÷ 4 = 308/19 · 1/4 = 77/19
x = 77/19

Javob:
x = 77/19 y = 5/19

Tekshirish:
1-tenglama: 4·(77/19) + 3·(5/19) = 308/19 + 15/19 = 323/19 = 17 ✓
2-tenglama: 6·(77/19) − 5·(5/19) = 462/19 − 25/19 = 437/19 = 23 ✓

Shunday qilib, korrelyatsion bog‘lanish regressiyasining to‘g‘ri chiziqli tenglamasi quyidagi ko‘rinishni oladi:
Regressiya tenglamasi: $\hat{y} = 5/19 + 77/19x$

Demak, a_1 regressiya koeffitsienti natijaviy belgi (Y) bilan omil belgi (X) o‘rtasidagi bog‘lanishni belgilab beradi. Bu esa omil belgi bir birlikka ortganda natijaviy belgi necha birlikka oshadi degan savolga javob beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Determinantlar usuli (Kramer usuli)ning avzalligi:
-Chiziqli regressiyaning matematik asosini yaxshi tushuntiradi
-Determinantlar yordamida koeffitsientlarning nimadan kelib chiqishini ko‘rsatadi
-Determinantlar usuli regressiya koeffitsientlarining matematik mohiyatini ochib beradi va talabalarga “bu formulalar qaerdan kelganini” aniq tushuntiradi.
-Ikki o‘zgaruvchili chiziqli regressiyada hisoblash juda qulay va xatolikni tez aniqlash imkonini beradi va 2 o‘zgaruvchili holatda juda tushunarli
-Excel, SPSS, Stata, R da avtomatik hisoblansada, Kramer usulini bilish nazariy bilimni mustahkamlaydi.

Kamchiligi: faqat ikki o‘zgaruvchili chiziqli regressiya uchun qulay. Ko‘p o‘zgaruvchili (multiple) regressiyada determinantlar hajmi juda katta bo‘lib ketadi, shuning uchun u yerda matritsali usullar (inversiya, Gauss va h.k.) afzalroq. Bundan tashqari ko‘p o‘zgaruvchili regressiyada determinant hajmi juda katta bo‘lib ketadi, shuning uchun u yerda matritsani teskarisini topish yoki Gauss usuli afzalroq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda determinantlar usuli asosan sobiq Ittifoq davlati darsliklarida (Kremer, Gmurman, Magnus) va O’zbekistonning so‘nggi darsliklarida (Abdullaev, 2021) saqlanib qolgan. G‘arb adabiyotida bu usul deyarli yo‘q. Shu sababli O’zbekiston talabalari uchun Kramer usulini o‘rgatish nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki ko‘pchilik imtihon va EMRAT ishlarida aynan shu usul talab qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 24 may 2024 yildagi PF–81-sonli farmoni
2.Soatov N.M. “Statistika” . T.: “Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti” , 2003
3.Berkinov B.B “Ekonometrika” .T.: “Fan va texnologiya nashriyoti ” O’quv qo‘llanma , 2015
4.Xashimov A.R., Sotvoldiyev A.I., Xujaniyozova G.S., Xolbozorov Q.X. Iqtisodchilar uchun matematika: Darslik, 1-Modul.T.: “ Nihol print” OK, 2022. 316 bet.
5.Abdushukurov A.A. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, O’zMU, 2010 y.
6.Abdushukurov A.A., Nurmuxamedova N.S., Sagidullaev K.S. Matematik statistika. Universitet, 2013 y.
7.S.H. Sirojiddinov, M.Mamatov. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Toshkent, “O’qituvchi”, 1980 y.
8.Клейн Л.Р., Голдбергер А.С. Эконометрический модель США, 1929—1952, Амстердам, 1955.-256 с.
9.Shodiev T.Sh. Ekonometrika. Darslik. – T., 2020. – 250 b.
10. Matkarimova I.,Otajonova M. Matematik statistika usullari orqali milliy hisoblar tizimidagi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish. “STATISTIKA va uning tadbiqlari”

mavzusidagi VI Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya. Namangan muhandislik- texnologiya instituti. 19-20 oktyabr 2022 yil.

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AXAMIYATI

Abdusattorova Durdona Abdullajon qiz
University of Business and Science
Oliy ta’lim muassasasi magistranti
Telefon.(998944784478)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda xorijiy tajribalarning qiyosiy taxlili bir nechta metodlar va amaliy tajribalar orqali keng doirada yoritilgan. Maqola pedagog va tarbiyachilarga metodik tavsiyalar berish bilan birga amaliy mashg‘ulotlar uchun ham foydalidir.

Kalit so‘zlar. Kognitiv faoliyat, maktabgacha ta’lim, didaktik tizim, bolalarni maktabga tayyorlash, psixologik xususiyatlar, bilish jarayoni, didaktik o‘yinlar, pedagogik metodika

Kirish

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, har bir yosh pedagog uchun muhum poydevor hisoblanadi. Jumladan « O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi» da maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intelektual, ahloqiy va estetik rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish masalasi ustuvor masalalaridan biridir. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi qaror farmonlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘gini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda dasturilamalga aylandi. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» Davlat dasturining xorijiy tajribalariga tayangan holda ishlab chiqilgani ham buning yaqqol na’munasi hisoblanadi.

Asosiy qism.

Xorij tajribalarini chuqur o‘rganish va taxlil qilish orqali ta’lim-tarbiya jarayonlarida qotib qolgan va o‘z ahamiyati hamda dolzarbligini yo‘qotib borayotgan, milliy va mintaqaviy hususiyatlarimizga birmuncha nomutanosib bo‘lgan usullardan halos bo‘lish bilan birga, ularni munosib ravishda yangi bosqichga olib chiqish va katta tajriba manbasiga ega bo‘lamiz. Prezidentimiz yurtimizda malakali kadrlar muammosi mavjudligi, barcha yo‘nalishlardagi islohotlar sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edilar. Ayni shu maqsadda ta’lim tizimida ham chuqur islohotlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanishi maktab ta’limiga puxta zamin bo‘lmoqda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangicha talqinda isloh qilinishi, nodavlat, oilaviy va xususiy-teng sherikchilikdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga asos solinishi, ular o‘rtasidagi sog‘lom raqobat muhiti yaratilishi, ularda xalqaro tajribalarning yo‘lga qo‘yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishi uchun katta maktab vazfasini bajarmoqda.

- Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini ishlab chiqish. -Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish uchun ularni qo‘shimcha pullik xizmatlar ko‘rsatishga rag‘batlantirish tartibini ishlab chiqish. -Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali shaffoflikni ta’minlash. -Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish. - Maktabgacha ta’lim pedagoglarini zarur metodistik materiallar bilan ta’minlash. O’zbekiston Respublikasi Prazidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-aaxloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim? Albatta - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni

paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodlarimiz, degan dav’atularning qalbida qalbida aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga ninaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisoblanadi”, -deya ta’kidlangan

Maktabgacha ta’lim tizimi Germaniyada ham ta’lim tizimining muhim bosqichi hisoblanadi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. 1996- yildan boshlab bolalar bog‘chasiga qatnash uchun huquqiy me’yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog‘chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga qatnash uchun ota- onalardan ularning daromadiga qarab ma’lum miqdorda to‘lov olinadi. Maktabgacha bolalar bog‘chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta’limining birinchi bosqichiga kiradi. Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilar kichik guruh (2-4 yosh), o‘rtaguruh (4-5yosh), katta guruh (5-6 yosh) tarzida tabaqalashtirilgan maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud

Maktabgacha ta’limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili moduli nazariy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg‘ulotlarda xorijiy davlatlaridagi maktabgacha ta’lim sohasidagi dolzarb muammolar va tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini singdirishdan iborat. Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, ―SWOTtahlil yoki ―FSMU metodlari bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Maktabgacha ta’lim. Uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta’sirida maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash borasida rivojlanish o‘rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatkichlari o‘sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o‘rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma’lumotli emasligi, ta’lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo‘ldi. Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta’lim-tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o‘rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta’lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta’lim tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo‘lish, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ham ega bo‘lamiz. Zotan, xozirgi zamon ta’limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a’zolarini yetishtirib berish, bèsh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish hamda o‘rta ta’limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta’lim-tarbiya berishda eng ilg‘or pedagogik vositalarni qo‘llash, ta’limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo‘l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko‘lamdagi islohotlarni o‘z boshidan kechirayotgan bizning ta’limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda chet el ta’limi bo‘yicha ko‘pgina maqolalar, broshyuralar, qo‘llanmalar chop etildi, unga bag‘ishlab seminarlar, anjumanlar, o‘quvlar, uchrashuvlar o‘tkazildi.Bu bizning ta’lim tizimlarimizda, chet ellarda o‘quv tarbiya ishlarining qo‘yilishiga e’tibor va qiziqishning tez sur’atlar bilan o‘sib borayotganligidan dalolatdir.Xalq ta’limi tizimlarida chet el ta’limini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Bu masala bilan Respublika o‘quv-metodika markazida, pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida

maxsus bo‘limlar faoliyat ko‘rsatmoqda, malaka oshirish markaziy institutida bir qator kafedralar ish bilan shug‘ullanmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki maktabgacha ta’lim sohasidagi bilimlarni mustaxkamlashda, albatta xorijiy davlatlarning qiyosiy taxlili chuqur o‘rganilishi va buni amaliyotda qo‘llab ko‘rilishi lozim. Bu orqali bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdagi zamonaviy ta’lim texnalogiyalarini joriy etish yanada samarali natija beradi. Bu faoliyat orqali avvalo bolani bilim darajasini tekshirish, nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28 yanvardagi PF–60-sonli Farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30 sentabrdagi PQ–3305-sonli Qarori.

4. Axmedova.N Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi,Toshkent 2021

5. Vigotiskiy. L , S Pedagogika psixologiya Moskva 1983

6. Qodirova Z va boshqalar Maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti Toshkent 2020

7. Safarova R. G Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar.

8. Abdug‘opirova F.A Maktabgacha ta’limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili O’quv qo‘llanma 2023.

FIZIKA TA’LIMIDA XALQARO BAHOLASH STANDARTLARI (TIMSS, PISA) VA ULARNI MILLIY TA’LIMGA MOSLASHTIRISH

Parpiyev Elmurodjon Halimjonovich
ADTI qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika ta’limida xalqaro baholash dasturlari — TIMSS va PISA talablari, ularning didaktik mohiyati hamda o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini baholashga qo‘yadigan mezonlari tahlil qilingan. Maqolada ushbu tizimlarda o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarga asoslangan fizik mazmundagi masalalarni yechish ko‘nikmasi, tajriba va kuzatishlarga tayangan holda xulosa chiqarish qobiliyati asosiy kompetensiya sifatida ko‘rilishi ta’kidlangan. Shuningdek, O’zbekiston ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llari, xususan darsliklar mazmunini optimallashtirish, kompetensiyaga asoslangan topshiriqlarni qo‘shish, laboratoriya ishlarini takomillashtirish va o‘qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari milliy fizika ta’limi sifatini oshirishda TIMSS va PISA me’zonlarining samarali qo‘llanilishi muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: fizika ta’limi, TIMSS, PISA, xalqaro standartlar, ilmiy savodxonlik, kompetensiya, baholash tizimi, ta’lim islohoti, laboratoriya amaliyoti.

Аннотация: В данной статье рассмотрены требования международных оценочных программ TIMSS и PISA в сфере преподавания физики, а также их дидактическая сущность и критерии оценки научной грамотности учащихся. Подчеркивается, что в этих программах ключевыми компетенциями являются умение решать задачи физического содержания, основанные на реальных жизненных ситуациях, а также способность делать выводы на основе наблюдений и экспериментов. В статье представлены предложения по адаптации системы образования Узбекистана к международным стандартам, включая оптимизацию содержания учебников, внедрение компетентностно-ориентированных заданий, совершенствование лабораторных работ и повышение методической подготовки учителей. Результаты исследования показывают, что эффективное использование критериев TIMSS и PISA способствует повышению качества национального физического образования.

Ключевые слова: физическое образование, TIMSS, PISA, международные стандарты, научная грамотность, компетенции, система оценивания, образовательные реформы, лабораторные работы.

Abstract: This article examines the requirements of international assessment programs—TIMSS and PISA—in the context of physics education, focusing on their didactic principles and the criteria used to evaluate students' scientific literacy. The study highlights that these programs emphasize key competencies such as the ability to solve physics-related problems grounded in real-life situations and to draw evidence-based conclusions through observation and experimentation. The article also proposes several pathways for aligning Uzbekistan's education system with international standards, including optimizing textbook content, integrating competency-based tasks, improving laboratory practices, and enhancing teachers' methodological expertise. The findings indicate that the effective implementation of TIMSS and PISA criteria plays a significant role in improving the quality of national physics education.

Keywords: physics education, TIMSS, PISA, international standards, scientific literacy, competencies, assessment system, educational reform, laboratory practice.

KIRISH.Zamonaviy ta'lim tizimida o‘quvchilarning bilim sifati, ayniqsa, tabiiy fanlar bo‘yicha kompetensiyalari xalqaro miqyosda shakllangan baholash dasturlari orqali aniqlanmoqda. Ulardan eng nufuzlilari bo‘lgan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PISA (Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarning fizik savodxonligini faqat nazariy bilim darajasi bilan emas, balki real hayotiy vaziyatlarda ilmiy yondashuvni qo‘llay olish, tajriba natijalarini tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoni turli nuqtai nazardan baholash kabi amaliy kompetensiyalar bilan o‘lchaydi. Shu bois, ushbu dasturlarning tamoyillari jahonning ilg‘or ta'lim tizimlarida fizika fani o‘qitilishiga chuqur ta'sir ko‘rsatib kelmoqda[1].

So‘nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida ham xalqaro mezonlarga moslashish jarayonlari jadallashdi. Xususan, fizika fanining mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, laboratoriya amaliyotlarini kuchaytirish, dars jarayoniga tajriba va tadqiqot metodlarini integratsiya qilish kabi islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq TIMSS va PISA talablarining to‘liq joriy etilishi uchun darsliklar, baholash tizimi, o‘qitish metodlari hamda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligida hanuz takomillashtirishni talab etadigan jihatlar mavjud[2].

Xalqaro baholash dasturlarining fizika ta'limiga qo‘yadigan yuqori talablari o‘qitishni faqat faktlar va formulalarni yodlashdan iborat jarayon sifatida emas, balki ilmiy fikrlash, kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish va real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan tizim sifatida shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, fizika ta'limini xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat o‘quvchilarning xalqaro reytinglardagi natijalarini yaxshilash, balki ularning kelajakda fan-texnika taraqqiyotida faol ishtirok etuvchi kompetent mutaxassislar bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi[3].

Ushbu maqolada TIMSS va PISA dasturlarining fizika fani bo‘yicha baholash mezonlari chuqur tahlil qilinadi, O'zbekiston ta'lim tizimida mazkur standartlarni joriy etishning imkoniyat va muammolari ko‘rib chiqiladi hamda fizik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

1. TIMSS va PISA dasturlarining fizika ta'limiga qo‘yadigan talablari

Xalqaro baholash dasturlarining umumiy maqsadi — o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotga tatbiq qila olish darajasini o‘lchashdan iborat. TIMSS va PISA fizika bo‘yicha quyidagi kompetensiyalarni ustuvor deb hisoblaydi:

Ilmiy tushunchalar — asosiy fizik qonunlar, kattaliklar, jarayonlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish.

Ilmiy jarayonlar — kuzatish, solishtirish, eksperiment o‘tkazish, o‘lchash, natijalarni qayta ishlash, tahlil qilish.

Hayotiy vaziyatlar asosida fikrlash — energiya tejamkorligi, texnika xavfsizligi, ekologiya, mexanika va elektr hodisalarini kundalik hayotda tatbiq qila olish[4,5].

Muammoni hal qilish — noaniq ma'lumotlar bilan ishlash, grafik va jadvallarni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish.

TIMSS maktab fizika kursida o‘tiladigan an'anaviy mavzularni chuqur o‘zlashtirish darajasini tekshirsa, PISA ko‘proq hayotiy vaziyatlar orqali ilmiy savodxonlikni baholaydi. Har

ikkisi o‘quvchilarning nafaqat nazariy, balki amaliy, funksional ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

2. O’zbekiston fizika ta’limi tizimi va mavjud muammolar tahlili

O’zbekiston fizika ta’limida so‘nggi yillarda bir qator yangilanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, xalqaro talablar bilan qiyoslaganda ayrim kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

Darsliklar mazmuni

- Darsliklarda mantiqiy, tadqiqotga asoslangan masalalar soni kam;
- Nazariy ma’lumotlar ko‘p, amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar yetarli emas;
- Global standartlarda qo‘llaniladigan grafik, modellashtirish, o‘lchash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi vazifalar yetishmaydi.

Laboratoriya ishlari

- Ko‘plab maktablarda jihozlar eskirgan yoki yetarli emas;
- Amaliy mashg‘ulotlar soni kam; ayrim hollarda faqat nazariy shaklda o‘tiladi;
- O’quvchilar mustaqil tajriba o‘tkazish imkoniga ega emas.

O’qituvchilarning metodik salohiyati

- Xalqaro baholash tizimlari uchun mos topshiriqlarni tuzish bo‘yicha yetarli tajriba mavjud emas;
- Raqamli laboratoriya, simulyatsiyalar, onlayn platformalardan foydalanish ko‘nikmalari barcha o‘qituvchilarda shakllanmagan;
- An’anaviy o‘qitish usullari ustuvor, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim yetarlicha joriy etilmagan[6].

3. TIMSS va PISA talablari asosida fizika ta’limini takomillashtirish yo‘llari

O’zbekiston fizika ta’limini xalqaro mezonlarga moslashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Darslik va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish

Fizik jarayonlarni modellashtirishga oid topshiriqlarni ko‘paytirish;

Grafikli, eksperimental va integrativ masalalarni kiritish;

Energiya tejamkor texnologiyalar, kundalik texnik qurilmalarning ishlash prinsiplari bo‘yicha amaliy vazifalarni joriy etish;

Har bir mavzu bo‘yicha hayotiy vaziyatli masalalarni ishlab chiqish.

Laboratoriya amaliyotini kuchaytirish

Maktablarni zamonaviy, xavfsiz va arzon laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash;

Virtual laboratoriyalar (PhET, Labster)dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

O’qituvchilar uchun laboratoriya metodikasi bo‘yicha treninglar tashkil etish;

O’quvchilarning mustaqil tadqiqot loyihalarini muntazam rivojlantirish.

Baholash tizimini xalqaro talablarga moslashtirish

Formativ baholashni kuchaytirish (kundalik izohli baholash, refleksiya, kuzatuv kartalari);

Kompetensiyaviy testlar bazasini yaratish;

TIMSS va PISA tipidagi testlar, kontekstual masalalar, grafik va jadvallarni tahlil qilishga asoslangan topshiriqlarni tatbiq etish[7].

O’qituvchilar malakasini oshirish

Xalqaro standartlar bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini joriy etish;

STEM, STEAM, Inquiry-Based Learning (tadqiqotga asoslangan o‘qitish) metodlarini o‘rgatish;

Raqamli texnologiyalar, sensorlar, mobil o‘lchov vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Maktab va ilmiy muassasalar hamkorligi

Fizika o‘qituvchilarini universitet laboratoriyalariga amaliyotga yuborish;

Fan olimlari ishtirokida eksperimental mashg‘ulotlar, seminarlar o‘tkazish;

O’quvchilarni ilmiy loyihalar va olimpiadalarga keng jalb qilish.

4. Milliy tajribani xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish tamoyillari

O’zbekiston o‘zining milliy ta’lim modeli, an’anaviy o‘quv tajribasi va mavjud metodik maktabini saqlagan holda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

Xalqaro standartlarning bevosita ko‘chirib olinishi emas, milliy sharoitga moslashtirilgan integratsiyasi amalga oshirilishi;

Mahalliy o‘quvchilar mentaliteti, maktab infratuzilmasi va o‘qituvchilar tayyorgarligi hisobga olingan holda bosqichma-bosqich joriy etish;

Fizika ta’limida milliy ilg‘or tajribalarni xalqaro tamoyillar bilan muvofiqlashtirgan kompleks yondashuvni qo‘llash.

Xulosa.O’tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, TIMSS va PISA kabi xalqaro baholash dasturlari fizika ta’limining mazmuni va sifatiga nisbatan yuqori talablar qo‘yadi. Bu dasturlar o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini, ilmiy fikrlash va tadqiqot olib borish qobiliyatini baholaydi. O’zbekiston fizika ta’limi oxirgi yillarda modernizatsiya yo‘nalishida sezilarli qadamlar tashlagan bo‘lsa-da, xalqaro standartlar darajasiga erishish uchun darsliklar, baholash tizimi, o‘qitish metodlari va laboratoriya amaliyotini yanada takomillashtirish zarur.

Fizika ta’limini TIMSS va PISA talablariga moslashtirish o‘quv jarayonini kompetensiyaga yo‘naltirilgan, ilmiy-tadqiqotga asoslangan va amaliy faoliyatga tayangan holda shakllantirishni taqozo etadi. Bu esa dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga, tajriba o‘tkazishga va muammolarni tahliliy hal etishga undaydi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish orqali fizika fanining qiziqarli va amaliy jihatlari yanada kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash mezonlarining fizika ta’limiga tatbiq etilishi O’zbekistonning ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va jahon ta’lim maydoniga integratsiya jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Bu borada darsliklar modernizatsiyasi, o‘qituvchilar malakasini muntazam oshirish, laboratoriya amaliyotlarini takomillashtirish hamda baholash tizimini kompetensiyaga yo‘naltirish dolzarb vazifalar sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., et al. TIMSS 2019 International Results in Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2020.
2. OECD. PISA 2022 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing, 2023.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Umumiy o‘rta ta’lim davlat standartlari” – Toshkent, 2021.
4. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Fizika fanidan o‘quv dasturi (5–11-sinflar)” – Toshkent, 2022.
5. Bybee R. Scientific Literacy and Student Achievement in Science Education. Journal of Science Teaching, 2018.
6. Kaptelinin V., Nardi B. The Role of Hands-on Learning in Science Education. Cambridge University Press, 2019.
7. PhET Interactive Simulations Project. Physics Virtual Labs for Education. University of Colorado Boulder, 2023.
8. Xalimov A., Rahmonov B. Fizika ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O’qituvchi nashriyoti, 2020.
9. Shadiev B., Abdullaeva N. O’zbekiston maktablarida fizika ta’limini modernizatsiya qilish masalalari. “Pedagogika va innovatsiyalar” jurnali, 2022.
10. UNESCO. Improving Science Education through International Assessment Standards. Paris, 2021.

FIZIKA LABORATORIYA TA’LIMIDA XALQARO METODLAR VA ULARNING MAHALLIY SHAROITGA MOS MODELI

Parpiyeva Oysanam Sultonbek qizi
ADTI qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika laboratoriya ta’limiga oid xalqaro metodlar — Inquiry Based Learning (izlanishga asoslangan ta’lim), STEM/STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy laboratoriya amaliyoti va virtual laboratoriya modellari mazmunan tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlarda qo‘llaniladigan zamonaviy eksperimental metodlar o‘quvchilarda mustaqil tadqiqot olib borish, tajriba natijalarini tahlil qilish, fizik qonuniyatlarni real hayot bilan bog‘lash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Shuningdek, O’zbekiston maktablaridagi mavjud laboratoriya imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganilgan. Maqolada xalqaro metodlarni mahalliy sharoitga mos ravishda qo‘llash modeli — soddalashtirilgan jihozlar, mobil texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, loyiha asosida o‘qitish va o‘qituvchilar malakasini oshirish sifatida taklif qilingan. Tadqiqot natijalari mahalliy fizika ta’limining sifatini oshirishda moslashtirilgan laboratoriya modeli samarali natija berishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:fizika laboratoriyasi, xalqaro metodlar, STEM, Inquiry Based Learning, virtual laboratoriya, eksperimental ta’lim, mahalliy model, amaliy ko‘nikmalar, fizika didaktikasi, o‘qitish texnologiyalari.

Аннотация: В статье проанализированы международные методики лабораторного обучения физике, включая Inquiry Based Learning, STEM/STEAM-подход, компетентностный лабораторный практикум и виртуальные лаборатории. Показано, что современные экспериментальные методы, применяемые в зарубежных образовательных системах, формируют у учащихся навыки самостоятельного исследования, анализа экспериментальных данных и установления связи между физическими явлениями и реальной жизнью. Также рассмотрены возможности и проблемы лабораторного обучения в школах Узбекистана. В статье предлагается адаптированная модель внедрения международных методик в национальную образовательную среду, основанная на использовании упрощенного оборудования, мобильных технологий, виртуальных лабораторий и проектного обучения. Полученные результаты подтверждают эффективность локализованной модели для повышения качества физического образования.

Ключевые слова: лабораторное обучение, международные методики, STEM, Inquiry Based Learning, виртуальная лаборатория, экспериментальное образование, локальная модель, практические навыки, дидактика физики, образовательные технологии.

Abstract: This article analyzes international methods of physics laboratory instruction, including Inquiry-Based Learning, the STEM/STEAM approach, competency-based laboratory practice, and virtual laboratory models. It highlights the role of modern experimental methodologies used in developed countries in developing students’ skills in independent research, data analysis, and applying physical principles to real-life contexts. The article also examines the current state and challenges of laboratory education in Uzbekistan’s schools. An adapted model for integrating international laboratory methods into the local educational environment is proposed, emphasizing simplified equipment, mobile technologies, virtual labs, and project-based learning. The findings demonstrate that an appropriately localized laboratory model can significantly enhance the quality of physics education in Uzbekistan.

Keywords: physics laboratory, international methods, STEM, inquiry-based learning, virtual laboratory, experimental education, local adaptation model, practical skills, physics didactics, instructional technologies.

KIRISH.Zamonaviy ta’lim jarayonida fizika fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki fizika nazariy tushunchalar, matematik ifodalar va formulalargagina tayangan holda to‘liq o‘zlashtirilmaydi; aksincha, fan mohiyatini chuqur anglash bevosita kuzatish, tajriba o‘tkazish, o‘lchash va amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Shu bois,

jahonning yetakchi ta’lim tizimlarida laboratoriya ta’limi innovatsion metodlar asosida tashkil etilmoqda. Xususan, Inquiry Based Learning (izlanishga asoslangan ta’lim), STEM yondashuvi, loyiha asosida o‘qitish, virtual laboratoriyalar va kompetensiyaviy laboratoriya amaliyoti bugungi kunda xalqaro standart sifatida joriy etilgan[1].

Rivojlangan davlatlardagi fizika laboratoriyalarida o‘quvchilar nafaqat tayyor tajribalarni takrorlaydi, balki o‘zlari ilmiy savol qo‘yadi, tajriba loyihalaydi, o‘lchashlarni amalga oshiradi, tahliliy xulosalar chiqaradi. Bu jarayon o‘quvchining ilmiy tafakkuri, kreativ fikrlashi va muammoni izlanish orqali hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv XXI asr ko‘nikmalari — tanqidiy fikrlash, hamkorlik, texnik savodxonlik va innovatsion faoliyatning tarkibiy qismidir[2].

O’zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda fizika laboratoriya ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, darslarda nazariyaning haddan ziyod ustunligi, virtual laboratoriyalardan foydalanishning kamligi, hamda o‘qituvchilarning zamonaviy eksperimental metodlar bo‘yicha malakasini oshirish zaruriyati saqlanib qolmoqda. Bu omillar xalqaro metodlarni to‘liq joriy etishning dolzarbligini yanada oshirmoqda[3].

Mazkur maqolada fizika laboratoriya ta’limida qo‘llanilayotgan xalqaro metodlar zamonaviy ilmiy-pedagogik talablardan kelib chiqib tahlil qilinadi, ularning afzalliklari ochib beriladi va O’zbekiston sharoitida amaliyotga moslashtirilgan laboratoriya modeli ishlab chiqiladi. Shuningdek, mahalliy ta’lim jarayonining real imkoniyatlari, mavjud infratuzilma, o‘qituvchilar metodik tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi inobatga olingan holda samarali moslashtirish strategiyalari taklif etiladi.

Fizika ta’limida laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlash, fizik qonuniyatlarni bevosita kuzatish va ilmiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Xalqaro ta’lim amaliyotida laboratoriya ishlari ta’lim jarayonining markaziy elementi sifatida qaraladi, chunki o‘quvchining ilmiy dunyoqarashi aynan tajriba asosida shakllanadi. Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi laboratoriya mashg‘ulotlarini faqat jarayonni takrorlash emas, balki o‘quvchini mustaqil izlanish, tajriba loyihalash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan faol pedagogik yondashuv sifatida talqin qiladi[4,5].

1. Xalqaro laboratoriya ta’limi metodlarining ahamiyati

Dunyo ta’limida laboratoriya ta’limi samaradorligini oshirish uchun turli metodlar joriy etilgan bo‘lib, ular orasida eng ommaboplari — Inquiry Based Learning (izlanishga asoslangan o‘qitish), STEM/STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy laboratoriya amaliyoti hamda virtual laboratoriyalar hisoblanadi.

Inquiry Based Learning (IBL)

IBL metodida o‘quvchi markazda turadi. O’quvchilarga tayyor tajriba ketma-ketliklari berilmaydi, aksincha ular:

- muammoni o‘zlari aniqlaydi,
- tajribani o‘zlari loyihalaydi,
- o‘lchashlar davomida xato va noaniqliklarni aniqlaydi,
- natijalarga ko‘ra ilmiy xulosa chiqaradi.

Bu jarayon o‘quvchini passiv iste’molchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Xalqaro tadqiqotlarda IBL metodining o‘quvchilar fizikaga qiziqishini sezilarli oshirishi isbotlangan[6].

STEM/STEAM yondashuvi

STEM yondashuvi fizika tajribalarini oddiy laboratoriyadan chiqib, real hayotdagi texnologik masalalarga bog‘lash imkonini beradi. Masalan:

- generator yasash,
- issiqlik izolyatorlarini sinovdan o‘tkazish,
- optik tolalar yordamida ma’lumot uzatish tajribasi,
- Arduino asosida fizik o‘lchovlar.

Bunday yondashuv o‘quvchilarda muhandislik fikrlashini rivojlantiradi va xalqaro baholash tizimlarida talab qilinadigan kompetensiyalarni shakllantiradi.

Kompetensiyaviy laboratoriya amaliyoti

Xalqaro standartlarda laboratoriya mashg‘ulotlari faqat tajribani takrorlash emas, balki real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Masalan:

energiya tejamkorligini aniqlash (PISA tipidagi vazifa),

elektr tarmoqlaridagi nosozlik sababini aniqlash,

kuch, tezlanish yoki elektr qarshiligini o‘lchashda texnologik xatoliklarni aniqlash.

Bu yondashuv o‘quvchining funksional savodxonligini oshiradi[7].

Virtual laboratoriyalar

Dunyo bo‘yicha PhET, Labster, PraxiLabs kabi virtual laboratoriyalar ta’limda keng qo‘llanmoqda. Ularning afzalliklari:

- istalgan tajribani xavfsiz muhitda bajarish,
- jihoz yetishmasligi muammosini bartaraf etish,
- murakkab tajribalarni sodda shaklda ko‘rsatish.

Bu laboratoriyalar ayniqsa jihoz yetishmaydigan maktablar uchun juda mos.

XULOSA.O’tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fizika laboratoriya ta’limi o‘quvchilarni ilmiy fikrlashga, amaliy tajriba o‘tkazishga, real hayotiy jarayonlarni tahlil qilishga va muammolarni izlanish orqali hal etishga o‘rgatishda beqiyos ahamiyatga ega. Xalqaro ta’lim amaliyotida keng qo‘llaniladigan Inquiry Based Learning, STEM/STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy laboratoriya mashg‘ulotlari va virtual laboratoriyalar fizika ta’limining samaradorligini oshiruvchi eng muhim metodlar sirasiga kiradi. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilar shunchaki tayyor tajribalarni takrorlashdan ko‘ra, o‘zlari ilmiy savol qo‘y’shaklari, tajriba loyihalashi, natijalarni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi mumkin bo‘ladi.

O’zbekiston maktablarida laboratoriya ta’limi sohasida bir qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsada, aksariyat maktablarda jihozlarning yetishmasligi, darslarning nazariyaga haddan tashqari yo‘naltirilganligi, zamonaviy eksperimental metodlar bo‘yicha o‘qituvchilar malakasining yetarli emasligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli xalqaro metodlarni bevosita ko‘chirib olish emas, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirilgan model asosida joriy etish zarur.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aralash laboratoriya modeli – ya’ni real laboratoriya, virtual tajribalar va mobil texnologiyalarning birgalikda qo‘llanilishi O’zbekiston sharoitida eng maqbul variant hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga jihoz yetishmasa ham tajriba o‘tkazish imkonini beradi, murakkab fizik jarayonlarni sodda ko‘rsatadi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va ilmiy-tadqiqotchilik salohiyatini oshiradi. Shuningdek, mahalliy sharoitda ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan soddalashtirilgan jihozlar, smartfon sensori asosidagi tajribalar va STEM loyihalarining qo‘llanilishi laboratoriya ta’limining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro laboratoriya metodlarini mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etish O’zbekiston fizika ta’limi rivoji uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning funksional savodxonligi, amaliy ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Bybee R. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. National Science Teachers Association Press, 2018.
2. Bell T., Urhahne D., Schanze S., Ploetzner R. Collaborative Inquiry Learning: Models, Tools, and Challenges. International Journal of Science Education, 2010.
3. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. 2023.
4. OECD. Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills. Paris: OECD Publishing, 2020.
5. Labster. Virtual Science Labs for Schools and Universities. 2022.
6. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Fizika fanidan o‘quv dasturi (5–11-sinflar). Toshkent, 2022.
7. Xolmatov K., Abdullayev R. Fizika ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.

8. Nadirova M., Shadiev B. STEM yondashuvi asosida fizika ta’limini modernizatsiya qilish. “Ta’lim texnologiyalari” jurnali, 2022.
9. Hofstein A., Lunetta V. The Role of the Laboratory in Science Teaching: A Historical and Contemporary Perspective. Review of Educational Research, 2004.
10. UNESCO. Transforming Science Education Through Practical and Digital Laboratories. Paris, 2021.

MATEMATIKANI O’QITISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MODELI

Mardankulov Jasur Amirddinovich,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, p.f.f.d., dotsent.

Annotatsiya.
Ushbu maqolada matematika ta’limi jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim modelining mazmuni, didaktik asoslari, qo‘llash mexanizmlari hamda o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari – muammoli vaziyat yaratish, mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish, refleksiv tahlil va o‘quv faoliyatini individuallashtirish – matematika fanini o‘qitishda samarali ekanligi ilmiy xulosalar orqali asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: rivojlantiruvchi ta’lim, matematika o‘qitish, muammoli vaziyat, refleksiya, kompetensiya, didaktik model, ijodiy fikrlash.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, tahlil qila oluvchi va amaliy masalalarni hal etuvchi subyekt sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Matematikani o‘qitish jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim modelidan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, matematik kompetensiyalar, tahliliy yondashuv va kreativlikni shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi L.S. Vygotskiy, P.Ya. Galperin, L.V. Zankov, D.B. Elkonin kabi pedagog-psixologlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan bo‘lib, uning markazida o‘quvchining “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirish g‘oyasi yotadi. Mazkur model matematika darslarida muammoli topshiriqlarni yechish, fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish, o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirish orqali yuqori natijalarga erishishni ko‘zlaydi[2].

Matematikani o‘qitishda rivojlantiruvchi ta’lim modeli misolida: Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi XX asrning birinchi yarmida psixologik va pedagogik tadqiqotlarning yangi bosqichi sifatida shakllangan bo‘lib, uning metodologik asosi avvalo L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga borib taqaladi. Keyinchalik P.Ya. Galperin, V.V. Davыdov, D.B. Elkonin, L.V. Zankov tomonidan ushbu nazariya takomillashtirilib, ta’lim jarayonida o‘quvchining intellektual rivojlanishini boshqaruvchi model sifatida ilmiy jihatdan asoslab berildi[2].

Rivojlantiruvchi ta’limning umumiy tamoyillariga ko‘ra, o‘quvchilar tayyor bilimlarni yod olish orqali emas, balki muammoli vaziyatlar, tahliliy faoliyat, mantiqiy amallarni bajarish, izlanish va mustaqil xulosalarga kelish orqali o‘rgatiladi. Aynan matematika fani bu yondashuvni qo‘llash uchun eng qulay sohalardan biri hisoblanadi, chunki matematik faoliyatning o‘zi – tahlil, sintez, umumlashtirish, modellashtirish, mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash kabi aqliy amallardan iborat.

Vygotskiy nazariyasi. Vygotskiy ta’limni o‘quvchining rivojlanish jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchining “aktual rivojlanish darajasi” (hozirgi bilimlari) va “yaqin rivojlanish zonasi” (o‘qituvchi yordamida erishishi mumkin bo‘lgan daraja) o‘rtasidagi masofani to‘g‘ri tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi. Matematikada bu, masalan, oddiy masaladan murakkab masalalarga o‘tish, abstrakt tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

L.V. Zankov tizimi. Zankov rivojlantiruvchi ta’limning besh asosiy tamoyilini belgilagan:

- o‘quv materialining yuqori murakkablik darajasi;
- o‘quv faoliyatining tez sur’atda olib borilishi;
- nazariy bilimlarning ustuvorligi;
- o‘quv jarayonining muntazam tahlili;
- o‘quvchining o‘quv faoliyatini faol va ongli boshqarishi.

Bu tamoyillar matematika darslarida ayniqsa samarali bo‘lib, masalan, murakkab mantiqiy amallarni erta bosqichdan boshlab o‘rgatish, mavzu ustida chuqur tahliliy ishlash orqali namoyon bo‘ladi.

P.Ya. Galperinning “Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish” nazariyasi. Galperinning fikriga ko‘ra, har qanday bilim va ko‘nikma avval tashqi harakat sifatida bajariladi, keyin asta-sekin ichki aqliy amalga aylanadi. Matematikani o‘qitishda bu yondashuv matematik formulalarni qo‘llash, masalalarni modellashtirish va algoritmlarni bajarishda juda muhimdir.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: **Nazariy tahlil** – rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi, matematik tafakkurni shakllantirish nazariyalari, zamonaviy ta’lim standartlari o‘rganildi. Nazariy tahlil — bu ma’lum bir ilmiy muammo, jarayon yoki hodisaga oid mavjud ilmiy manbalarni, ilmiy g‘oyalarni, nazariy yondashuvlarni, konsepsiyalarni tizimli ravishda o‘rganish, solishtirish va umumlashtirish jarayonidir. U ilmiy tadqiqotning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi va tadqiqot uchun nazariy asos yaratishga xizmat qiladi[3].

Nazariy tahlilning asosiy maqsadi — o‘rganilayotgan mavzuga oid mavjud bilimlar holatini aniqlash, ilmiy qarashlar rivojlanish dinamikasini ko‘rsatish va muammoning ilmiy yechimiga asos bo‘ladigan nazariy xulosalarni shakllantirishdir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Nazariy tahlil — ilmiy tadqiqotning metodologik asosini shakllantiruvchi jarayon bo‘lib, u orqali tadqiqot mavzusining ilmiy holati baholanadi, asosiy g‘oya mustahkamlanadi, kelgusidagi amaliy izlanishlar yo‘nalishi aniqlanadi. Har qanday ilmiy maqola, loyiha yoki dissertatsiyaning sifatli bo‘lishi nazariy tahlilning qay darajada puxta bajarilganiga bog‘liq.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ushbu tadqiqotda matematikani o‘qitishda rivojlantiruvchi ta’lim modelining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, pedagogik kuzatuv metodi yordamida 5–11-sinf matematika darslarida rivojlantiruvchi o‘qitishning asosiy elementlari – muammoli vaziyat yaratish, tahliliy faoliyatni faollashtirish, mantiqiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish, refleksiya jarayonlarini tashkil etish holati tizimli ravishda o‘rganildi va mavjud tajriba tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida eksperimental metod qo‘llanilib, tajriba-sinov darslarida muammoli ta’lim yondashuvi, bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi, ijodiy va mantiqiy topshiriqlardan foydalanish orqali rivojlantiruvchi ta’lim modelining amaliy mexanizmlari sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalarni ishonchli baholash maqsadida statistik tahlil metodi qo‘llanib, o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari, mantiqiy fikrlash darajasi, o‘zlashtirishdagi dinamik o‘zgarishlar matematik-statistik mezonlar asosida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, xulosalarning ishonchliligini va taklif etilgan rivojlantiruvchi ta’lim modeli samaradorligini aniqlashga xizmat qildi[4].

Matematika o‘quv jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim modeli quyidagilar orqali amalga oshiriladi: **Muammoli vaziyat yaratish** - Har bir yangi mavzu o‘quvchini o‘ylashga majbur qiluvchi savol, real hayotiy holat yoki noan’anaviy masala orqali ochiladi. Bu o‘quvchining faolligini oshiradi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tahliliy faoliyatni rivojlantirish - Matematikaning o‘zi tizimli tahlilni talab qiladi. Rivojlantiruvchi ta’limda o‘quvchi nafaqat masalani yechadi, balki yechimning mantiqiy asoslarini izohlaydi, muqobil usullarni taqqoslaydi, xulosa chiqaradi.

Abstraktlashtirish va umumlashtirish - Matematik tushunchalar – son, tenglama, funksiya, hosila, integral va boshqalar – umumlashtirish, modellashtirish va abstrakt fikrlash darajasini talab qiladi. Rivojlantiruvchi ta’lim bu jarayonni boshqaradi va o‘quvchini yuqori darajadagi fikrlashga olib chiqadi.

O’z-o‘zini nazorat va refleksiya - Har bir dars yakunida o‘quvchi nimani o‘rgandi, nimani tushunmadi, qanday savollar tug‘ildi, qanday strategiya samarali bo‘ldi kabi savollarga javob beradi. Bu o‘quvchining metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda rivojlantiruvchi ta’limning ahamiyati - So‘nggi yillardagi pedagogik tadqiqotlar (Rossiya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya ta’lim tajribalari)

rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvi ayniqsa matematik tafakkurni shakllantirishda eng samarali metodlardan biri ekanini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotlar quyidagilarni tasdiqlaydi:

- rivojlantiruvchi yondashuv o‘quvchilarning matematik savodxonligini 20–35% ga oshiradi;
- PISA va TIMSS dasturlaridagi natijalarda sezilarli ko‘tarilish bo‘ladi;
- ijodiy fikrlash va muammoli vazifalarni bajarish samaradorligi oshadi;
- o‘quvchilarning fan bo‘yicha motivatsiyasi va o‘ziga ishonchi kuchayadi.

Rivojlantiruvchi ta’lim modeli matematika darslarida o‘quvchining aqliy faoliyatini faollashtirishga, uni izlanishga undashga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, masalani mustaqil yechishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi[5]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur modelni amaliyotga joriy etishda quyidagi omillar muhim:

- o‘qituvchining metodik mahorati;
- o‘quv materialining muammoli xarakterga ega bo‘lishi;
- topshiriqlarning murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish;
- AKT vositalari yordamida vizuallashtirish;
- o‘quvchilarni “kuzatuvchi” emas, “faol tadqiqotchi” sifatida shakllantirish.

Shuningdek, rivojlantiruvchi ta’limning to‘liq samaradorligi uni mavzuga moslashtirilgan topshiriqlar bilan tizimli qo‘llanganda namoyon bo‘ladi.

Xulosa.

Rivojlantiruvchi ta’lim modeli matematika fanining tabiati – mantiqiy, abstrakt, tizimli fikrlash – bilan to‘liq mos keladi. Ushbu model o‘quvchini faol subyektga aylantiradi, ya’ni u faqat bilim oluvchi emas, balki izlanadigan, tahlil qiladigan, xulosa chiqaradigan shaxs sifatida shakllanadi. Rivojlantiruvchi ta’limning nazariy asoslari (Vygotskiy, Zankov, Galperin, Davыdov) matematika ta’limida qo‘llanilishi uchun ilmiy jihatdan yetarlicha asoslangan.

Matematikani o‘qitishda rivojlantiruvchi ta’lim modelidan foydalanish o‘quvchilarning: mantiqiy, ijodiy, tahliliy, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari mazkur modelni matematika fanini o‘qitishning samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida tavsiya etishga asos bo‘ladi. Rivojlantiruvchi ta’limning to‘g‘ri tashkil etilishi matematika ta’limi sifatini oshirish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari. **www.lex.uz**
2. Azlarov T., Mansurov X. “Matematik analiz”. -T.: “O‘qituvchi”. 1986.
3. Alixonov S. “Geometriya darslarida umumlashtirish” T., “O‘qituvchi”, 1989.
4. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi”. T., “O‘qituvchi” 1992.
5. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi” Qayta ishlangan II nashri. T., “O‘qituvchi” 1997.

O’ZBEK MILLIY KORPUSI UCHUN EKSTRALINGVISTIK PARAMETRLAR TAVSIFI

Yuldashev Aziz Uyg‘un o‘g‘li
ToshDO’TAU tadqiqotchisi
E-mail: yuldashevaziz@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada til korpusi uchun ekstralingvistik teglarni ishlab chiqish va undan foydalanish haqida tadqiqotlar olib borildi. Til korpuslari qidiruv tizimi foydalanuvchiga metama’lumotlar bo‘yicha filtrlarni qo‘llagan holda qidiruv so‘rovlarini berish imkonini yaratadi. Bunday tizimning ishlash prinsipi shuki, foydalanuvchi kiritgan har bir qidiruv so‘rovi uchun dastlab belgilangan ekstralingvistik cheklovlar asosida korpus matnlarining tegishli qismi tanlab olinadi, so‘ngra shu tanlangan matnlar doirasida lingvistik qidiruv (so‘z yoki so‘z shakllarini izlash)

amalga oshiriladi. Aynan metama’lumotlar qidiruv tizimining asosini ekstralingvistik parametrlar tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar: korpus, lingvistik teg, ekstralingvistik teg, metama’lumotlar.

Abstract. In this article, research was conducted on the development and use of extralinguistic tags for language corpora. The language corpus search engine allows the user to provide search queries using metadata filters. The principle of operation of such a system is that for each search query entered by the user, the corresponding part of the corpus texts is selected based on initially established extralinguistic restrictions, then linguistic search (search for words or word forms) is carried out within these selected texts. Extralinguistic parameters form the basis of the metadata search engine.

Keywords: corpus, linguistic tag, extralinguistic tag, metadata.

Аннотация. В данной статье были проведены исследования по разработке и использованию экстралингвистических тегов для языкового корпуса. Поисковая система языковых корпусов позволяет пользователю задавать поисковые запросы с использованием фильтров по метаданным. Принцип работы такой системы заключается в том, что для каждого вводимого пользователем поискового запроса первоначально выбирается соответствующая часть корпусных текстов на основе установленных экстралингвистических ограничений, а затем в рамках этих выбранных текстов осуществляется лингвистический поиск (поиск слов или словоформ). Именно экстралингвистические параметры составляют основу поисковой системы метаданных.

Ключевые слова: корпус, языковой тег, экстралингвистический тег, метаданные.

Foydalanuvchi dastlab qidiruv tizimiga so‘rovni kiritadi va kerak bo‘lsa, interfeysdagi maxsus maydonlar orqali metama’lumot bo‘yicha filtrlar (masalan, muallif nomi, davr oralig‘i, janr va h.k.)ni tanlaydi. Ekstralingvistik teglangan korpus foydalanuvchiga amaliy imkoniyatlarni taqdim etadi. Foydalanuvchi qidiruv so‘rovini aniqroq natija berishi uchun muayyan metama’lumotlar bilan cheklashi mumkin. Masalan, faqat ma’lum janrdagi matnlardan qidirish, yoki faqat muayyan yillarda yaratilgan matnlardan izlash yoxud muallifi ayol bo‘lgan matnlardan qidirish kabi filtrlash mumkin. Natijada, qidiruv natijalari foydalanuvchi tanlagan kriteriyalarga mos kichik to‘plam doirasida qaytariladi. Bu esa ortiqcha ma’lumotlarni chiqarib tashlab, foydali natijalarga tezroq erishish imkonini beradi.

O’zbek tilining milliy korpusi yaratilish jarayonida xorijiy korpuslar tajribasi o‘rganilib, matnlarni tasniflash uchun zarur bo‘lgan metama’lumotlar strukturasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilgan[101]. Har bir matn uchun alohida **“pasport ma’lumotlari”** (metama’lumotlar to‘plami) belgilangan, ular matnning muhim ekstralingvistik parametrlarini qamrab oladi. A.B.Qarshiyev va hammualliflar bergan ma’lumotga ko‘ra, o‘zbek milliy korpusining matnlar bazasida har bir matn fayli tarkibida quyidagi metama’lumotlar saqlanadi[102]:

1. **Matn nomi** – asarning yoki maqolaning sarlavhasi (agar mavjud bo‘lsa).

2. **Muallif** – matn muallifining to‘liq ismi sharifi. Zarur hollarda muallifning jinsi (erkak/ayol) hamda tug‘ilgan sanasi kabi ma’lumotlar ham kiritiladi. Muallif haqida batafsil ma’lumot kiritish, xususan, muallifning yashagan yillari, jinsi, hatto ijtimoiy mavqeyi haqida belgi qo‘yish kelgusida korpusdan sotsiolingvistik izlanishlar uchun ham foydalanish imkonini beradi. O’zbek milliy korpusida adabiyot namunalari uchun muallif ko‘rsatiladi; xalq og‘zaki ijodi yoki muallifi noma’lum matnlarda esa muallif maydoni tegishli qiymat bilan (“anonim”) belgilanishi mumkin.

3. **Yaratilgan sanasi/davr** – matnning yaratilgan yoki nashr etilgan vaqti, sanasi yoki davri. O’zbek milliy korpusini tuzishda matnlarni uch davrga – Jadid davri (1905–1930-yillar), Sovet davri (1930–1990) va Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha) – bo‘lib tasniflash qabul

[101] Toirova, G. (2024). RETRACTED: Creation and importance of language corps in Uzbekistan. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04003). EDP Sciences.

[102] Qarshiyev, A., Karimov, S., & Tursunov, M. (2022). O‘zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minot strukturasi va vazifalari. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).

qilingan[103]. Bunda har bir davr ichida aniq yil koʻrsatilishi ham mumkin (masalan, 1985-yil, 2005-yil kabi). Davr boʻyicha tasnif korpusdan tilning tarixiy rivojlanishini, eski va yangi davr tilini qiyosiy oʻrganishni ta'minlaydi. Masalan, jadid davri matnlarida arabcha va forscha soʻzlar ulushi, Sovet davri matnlarida ruscha oʻzlashma birliklar, Mustaqillik davrida esa yangi siyosiy atamaga oid leksika qanchalik koʻpaygani kabi tendensiyalar aniqlanishi mumkin.

4. **Janr** – matnning adabiy janri yoki turi. Bu parametrlarga badiiy adabiyotda *hikoya, roman, drama, komediya, doston, she'r kabi janrlar*; ilmiy adabiyotda *maqola*, *dissertatsiya*, *tezis, darslik* kabi janrlar; ommaviy axborot materiallarida *xabar, reportaj, intervyu* kabi janrlar kiradi. Masalan, jadid davri adabiy matnlaridan korpusga kiritilganlar orasida 18 ta hikoya, 3 ta roman, 4 ta drama, 5 ta komediya, 1 ta risola va 5 ta ilmiy maqola mavjudligi qayd etilgan[104]. Janr boʻyicha metama'lumot foydalanuvchiga, masalan, faqat hikoya janridagi asarlardan yoki faqat ilmiy maqolalardan iborat tanlama korpus tuzib, ulardagi til xususiyatlarini alohida koʻrib chiqish imkonini beradi.

5. **Uslub** – matnning funksional uslubi, ya'ni til uslublaridan qay biriga mansubligi. Milliy korpusda matnlarning uslubiy tasnifi asosan toʻrtta katta guruhga ajratilgan: *badiiy uslub, ilmiy uslub* (ilm-fan va texnikaga oid matnlar), *publitsistik uslub* (ommaviy axborot vositalari, ommabop adabiyot), va *rasmiy uslub* (rasmiy-huquqiy hujjatlar uslubi)[105]. Ba'zan ogʻzaki nutq uslubi ham alohida koʻrib chiqiladi, biroq ogʻzaki nutq namunalarini korpusga kiritish ishlari hali boshlangʻich bosqichda. Uslub boʻyicha filtrlar yordamida foydalanuvchi, masalan, faqat ilmiy uslubdagi matnlardan yoki faqat rasmiy uslubdagi hujjatlardan ma'lumot qidirishi mumkin. Bu turli funksional uslublardagi til farqlarini ochib berishga xizmat qiladi.

6. **Matn turi** – matnning yozma yoki ogʻzaki ekanligi. Korpus tarkibiga kirgan aksar matnlar yozma manbalardan olingan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan ogʻzaki nutq (transkripsiya qilingan muloqotlar, nutq, intervyu) ham korpusga qoʻshilishi kutilmoqda[106]. Shuning uchun matn turi sifatida *"yozma"* yoki *"ogʻzaki"* belgisi metama'lumotlar tarkibida nazarda tutilgan. Bu parametr, masalan, ogʻzaki matnlarda koʻproq uchraydigan dialogik birliklar, paralingvistik unsurlar (soʻkinish, pauza tutilgan joylar va hokazo)ni alohida ajratib tahlil qilish uchun kerak. Yozma va ogʻzaki matnlarni qiyosiy oʻrganish tilshunoslikda muhim yoʻnalish boʻlib, korpus bunga asos yaratadi.

7. **Mavzu (tematika)** – matnning mavzusi yoki tematika yoʻnalishi. Korpus matnlari keng qamrovli sohalardan tanlangan boʻlib, har bir matnga uning qaysi mavzuda (*"siyosat"*, *"madaniyat"*, *"sport"*, *"adabiyot"*, *"texnika"* va h.k.) ekanini koʻrsatuvchi belgi qoʻyilishi lozim. Mavzu boʻyicha qidiruv, masalan, faqat tibbiyotga oid ilmiy maqolalardagi terminlarni topish yoki faqat iqtisodiy mavzudagi publitsistik matnlarda muayyan soʻz qoʻllanishini aniqlash imkonini beradi. O'zbek milliy korpusida mavzu belgilari ustida ishlar davom etmoqda; hozircha ayrim matnlarning mavzusi kiritilgan, kelgusida toʻliq kiritilishi rejalashtirilgan.

8. **Manba** – matn olingan manba haqida ma'lumot. Bunga asar qaysi nashriyotda yoki jurnalda chop etilgani, yoki veb-saytdan olingan boʻlsa sayti, hamda nashr etilgan yili kiradi[107]. Masalan, korpusdagi matn manbasi *"Xalq soʻzi gazetasining 2018-yil 12-iyundagi soni"* tarzida yoki *"www.ziyouz.com saytidan olingan kitob matni"* tarzida yozilishi mumkin. Manba metama'lumoti qidiruv tizimida foydalanuvchiga matnlarni kelib chiqqan manbasi boʻyicha ham filtrlash imkonini beradi. Bunda faqat gazeta materiallari orasidan qidirish yoki faqat internet

[103] Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.

[104] Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.

[105] https://uzbekcorpus.uz/enSearchPhrase

[106] Qarshiyev, A., Karimov, S., & Tursunov, M. (2022). Oʻzbek tili milliy korpusining dasturiy ta'minot strukturasi va vazifalari. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).

[107] Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.

saytlardan olingan matnlardan qidirish mumkin. Bu, ayniqsa, tilning rasmiy-hujjat uslubini gazeta uslubidan, yoki ilmiy jurnal maqolasini darslik kitobdan farqlashda yordam beradi.

9. **Til** – agar korpus ko‘p tilli bo‘lsa yoki parallel korpus bo‘lsa, matnning qaysi tilda ekanini ko‘rsatadi. O’zbek milliy korpusining asosiy qismi o‘zbek tilidagi matnlardir. Biroq uning ichida parallel korpus (masalan, o‘zbek-ingliz parallel matnlari) mavjud bo‘lgani sababli matn tili ham metama’lumot sifatida belgilangan[108]. Parallel korpusda *“til”* parametri yordamida foydalanuvchi matnni asosiy (chap) yoki tarjima (o‘ng) tomonida qidirishni tanlay oladi. Masalan, foydalanuvchi parallel korpusda *“ilm”* so‘zini faqat inglizcha matnlar orasida yoki faqat o‘zbekcha matnlar orasida izlashni xohlasa, *“til”* filtrini tegishli tarzda sozlaydi. Bundan tashqari, kelgusida korpusga boshqa tillardagi (masalan, qardosh turkiy tillar yoki qadimgi o‘zbekcha matnlar) qo‘shilishi ehtimoli bo‘lsa, til parametri ularni farqlash uchun zarur bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ekstralingvistik parametrlar o‘zbek milliy korpusi metama’lumotlar strukturasining asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy korpusida ekstralingvistik teglar matnning bibliografik, tipologik, mavzuviy va ijtimoiy xususiyatlarini, shuningdek, texnik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu teglar matnning lingvistik tahlilidan tashqari, uning tashqi xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. Bu esa tilshunoslarga til birliklarini kengroq kontekstda, ya’ni ularning qo‘llanilish sharoitlariga bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.
2. https://uzbekcorpus.uz/enSearchPhrase
3. Qarshiyev, A., Karimov, S., & Tursunov, M. (2022). O’zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minot strukturasi va vazifalari. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
4. Toirova, G. (2024). RETRACTED: Creation and importance of language corps in Uzbekistan. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04003). EDP Sciences.

GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNING HAL QILINISHIDA BIOLOGIYANING ROLI

Yuldashev Eldor Ilxomjon o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, e-mail: eldorbek_yuldashev92@mail.ru
Fayzullayeva Solixa Yorqin qizi[1], Jumayev Farrux Yusup o‘g‘li[2], Safarqulov Sardor Umid o‘g‘li[3], Botirov Ashurali Saynavi o‘g‘li[4], Marqayeva Asila Elmurod qizi[5], Sharipova Zulxumor Otabek qizi[6], Tursunova Zuhraxon Hakimjon qizi[7], Abdalimova Lola Dilmurod qizi[8], Abdusalimova Zilola Abduvali qizi[9], Bo‘ronova Husnora Baxriddin qizi[10]
[1-10]CHDPU “Biologiya” yo‘nalishi talabalari

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolar — ekologik inqiroz, biologik xilma-xillikning qisqarishi, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, yuqumli kasalliklar, genetik resurslarning kamayishi va bioxavfsizlik masalalari — butun dunyo davlatlaridan jiddiy ilmiy yondashuv va hamkorlikni talab qilmoqda. Ushbu jarayonda biologiya fanining o‘rni beqiyos bo‘lib, u global muammolarni chuqur o‘rganish, bashorat qilish va ularni bartaraf etishda ilmiy asoslangan yechimlar taklif etadi.

Ekologik muammolarning keskinlashuvi, xususan, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, o‘rmonlarning qisqarishi biologik tizimlarning izdan chiqishiga olib kelmoqda. Biologiya fani ekologiya, bioindikatsiya, bioremediasiya kabi yo‘nalishlari orqali tabiatning holatini monitoring qilish, tirik organizmlardan foydalanib ifloslangan muhitni tozalash hamda barqaror ekotizimlarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar beradi.

[108] Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.

Biologik xilma-xillikning kamayishi butun biosferaga xavf soluvchi global hodisa xisoblanadi. Genetik resurslarning yo‘qolishi ekotizimlarning chidamliligini pasaytiradi, oziq-ovqat zanjiriga ta’sir qiladi va inson salomatligiga bevosita xavf tug‘diradi. Biologiya fani molekulyar genetika, genomika, populyatsion biologiya va konservatsion biologiya yo‘nalishlari orqali noyob turlarni saqlash, ularning genofondini tiklash hamda muhofaza strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqlim o‘zgarishi — zamonaviy global muammolarning eng xavflilaridan biridir. Biologlar iqlim o‘zgarishining o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar populyatsiyalariga ta’sirini o‘rganadi, ekotizimlarning moslashuv mexanizmlarini aniqlaydi va “yashil texnologiyalar”ni taklif etadi. Fotosintezni yaxshilash, karbonat angidridni kamaytiruvchi biologik tizimlar yaratish kabi tadqiqotlar iqlim muammosini yumshatishga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi ham global darajadagi muammo bo‘lib, aholi sonining o‘sishi, yer resurslarining cheklanganligi va iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishni talab qiladi. Biologiya seleksiya, agrobiotexnologiya, genetik modifikatsiya, mikrobiologiya va o‘simlik fiziologiyasi orqali yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli, qurg‘oqchilikka moslashgan nav va zotlarni yaratishda asosiy ilmiy baza vazifasini bajaradi.

Yuqumli kasalliklarning tarqalishi (viruslar, bakteriyalar, parazitlar) global sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Epidemiologiya, virusologiya, bakteriologiya, immunologiya va biotexnologiya yo‘nalishlarining rivojlanishi pandemiyalarning oldini olish, vaksinalar yaratish, tezkor diagnostika tizimlarini ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bioxavfsizlik va biotexnologiya bugungi dunyoda alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Genetik modifikatsiya, sun’iy intellekt bilan boshqariladigan biologik tizimlar, sintetik biologiya kabi sohalar global muammolarga yangi yechimlar taklif qilmoqda. Shu bilan birga, biologik qurollar, bioterrorizm xavfi sabab biologiya fanida xavfsizlik protokollarini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, biologiya fani global muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etishning ilmiy asosini tashkil etadi. Biologiyaning yutuqlari nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki insoniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda, sog‘lom ekologik muhit yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois biologik tadqiqotlar, innovatsion g‘oyalar va ekologik ongni kuchaytirish global muammolarning yechimida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

HELIANTHUS ANNUUS L. TURIGA MANSUB XORIJIY VA MAHALLIY NAMUNALARIDA URUG‘ TARKIBDAGI UMUMIY AZOT VA OQSILLAR MIQDORI

Omonov Orif Xo‘shboqovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, e-mail: **omonovorif1982@gmail.com**
Jumaniyozova Mohira Hamidjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistr
Normurodov Shaxzod Sharof o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi
Mamutxonova Zilolaxon Maqsudxon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi
Aliyeva Shaxzoda Axtam qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi
Beksanarova Anara Bauirjan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya**.** Kungaboqar namunalari urug‘ tarkibidagi umumiy azot va oqsil miqdori ko‘rsatkichi 2021-2023 yillar kesimida tahlil natijalarga ko‘ra, AS 502 (9843; Turkiya) namunasida umumiy azot miqdori bo‘yicha past ko‘rsatkich (2,6-2,9-3,2%) aniqlandi. Bundan tashqari, kungaboqar urug‘ tarkibidagi oqsil miqdori uch yillik ma’lumot bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich Koriya (30837; Avstarliya; 21,6%), Almesson (33673; Fransiya; 21,03%), Stepnyak (9848; Rossiya; 21,13%) namunalarida yuqori bo‘lishi kuzatildi.

Kalit so‘zlar***:*** Hozirgi, dunyo, oqsil, hayvon, kungaboqar,manba, moy, urug‘, solishtirganda, antinutriyasion, globulinlar, albuminlar, eruvchanlikka.

Kirish

Hozirgi vaqtda butun dunyoda hayvonlar va o‘simlik oqsillariga talab ortib bormoqda, ammo hayvonlarning oqsillari bozor narxi va atrof-muhitga ta’siri jihatidan qimmat. O‘simlik oqsillarining boshqa manbalari bilan solishtirganda, kungaboqar urug‘larida antinutriyasion omillarning miqdori past. Kungaboqar urug‘i asosan moy uchun ishlatiladi, lekin boshqa moyli urug‘lar singari, moyni olishdan keyin qolgan mahsulot, oqsil miqdori yuqori bo‘lganligi sababli qimmatli mahsulot hisoblanadi. Kungaboqar oqsili asosan albuminlar va globulinlardan iborat bo‘lib, shuning uchun yuqori eruvchanlikka ega.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot ob’ekti sifatida *H. annuus* turiga mansub xorijiy kolleksiya namunalari Koriya (30837; Avstraliya), Almesson (33673; Frantsiya), As 502 (9843; Turkiya), C 207 (30835; Turkiya), Rodnik (9859; Rossiya), Chakinskiy 321 (9853; Rossiya), Stepnyak (9848; Rossiya) namunalari va mahalliy Jaxongir (O’zbekiston) navidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot uchun tanlangan kungaboqar namunalarni biokimyoviy ko‘rsatkichlaridan urug‘ tarkibidagi umumiy azot va oqsil miqdori 2021-2023 yil natijalari tahlil qilindi. O‘rganilgan kungaboqar namunalarida urug‘ tarkibidagi umumiy azot va oqsil miqdori bir-biridan keskin farq qilishi kuzatilmadi. Jumladan, 2021 yilgi biokimyoviy tahlil natijalariga ko‘ra, urug‘ tarkibidagi umumiy azot miqdori ko‘rsatkichi Koriya (30837; Avstraliya), Almesson (33673; Fransiya), Stepnyak (9848; Rossiya) namunalarida yuqori (3,5%) ko‘rsatkich qayd etilgan bo‘lsa, 2021-2023 yillar kesimida ushbu belgi bo‘yicha past ko‘rsatkich AS 502 (9843; Turkiya) namunasida (2,6-2,9-3,2%) kuzatildi.

O‘rganilgan namunalarda ikkinchi (2022) yilgi biokimyoviy tadqiqot natijalariga ko‘ra, urug‘ tarkibidagi umumiy azot va oqsil miqdori ko‘rsatkichi bo‘yicha analogik holat qayd etildi. 2022 yil natijalari tahlil qilinganda, umumiy azot miqdori belgisi bo‘yicha o‘rtacha 3,2-4,2%, variasiya koeffisienti 8,5-10,3% ni tashkil etdi. Kungaboqar o‘simligini Koriya (30837; Avstraliya) namunasida umumiy azot miqdori belgisi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich 4,2% ni tashkil etdi va shunga mos ravishda variasiya koeffisienti 8,5% ni qayd etilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha nisbatan past ko‘rsatkich AS 502 (9843; Turkiya) namunasida o‘rtacha 3,2%, variasiya koeffisienti 10,3% ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga oqsil miqdori bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich S 207 (30835; Turkiya) namunasida biroz yuqori ko‘rsatkich 21,6% bo‘lishi aniqlandi va ushbu belgi bo‘yicha past ko‘rsatkich Rodnik (9859; Rossiya) namunasida nisbatan past ko‘rsatkich 18,83% ni tashkil etdi.

Uchinchi (2023) yilgi biokimyoviy tadqiqot natijalariga ko‘ra, H.annuus turiga mansub kungaboqar namunalarida urug‘ tarkibidagi umumiy azot va oqsil miqdori ko‘rsatkichi bo‘yicha biroz pasayish holati kuzatildi. Jumaladan, umumiy azot miqdori belgisi bo‘yicha tahlil qilinganda AS 502 (9843; Turkiya) (2,6%), Rodnik (9859; Rossiya) (2,72%), Koriya (30837; Avstraliya) (3,03%), Chakinskiy 321 (9853; Rossiya) (2,8%) namunalarida 2021-2022 yillarga nisbatan pasayish kuzatildi. Mahalliy Jaxongir navida umumiy azot miqdori 3,4% ni tashkil etdi. Bundan tashqari oqsil miqdori bo‘yicha biroz pasayish mahalliy Jaxongir navida (18,9%) kuzatilgan bo‘lsa, oqsil miqdori bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Stepnyak (9848; Rossiya) namunasida 21,2%, variasiya koeffisienti 5,3% ni tashkil etdi.

Xulosa

Olingan biokimyoviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kungaboqar namunalari urug‘ tarkibidagi umumiy azot va oqsil miqdori ko‘rsatkichi 2021-2023 yillar kesimida tahlil natijalarga ko‘ra, AS 502 (9843; Turkiya) namunasida umumiy azot miqdori bo‘yicha past ko‘rsatkich (2,6-2,9-3,2%) aniqlandi. Bundan tashqari, kungaboqar urug‘ tarkibidagi oqsil miqdori uch yillik ma’lumot bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich Koriya (30837; Avstarliya; 21,6%), Almesson (33673; Fransiya; 21,03%), Stepnyak (9848; Rossiya; 21,13%) namunalarida yuqori bo‘lishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bartholomew Saanu Adeleke and Olubukola Oluranti Babalola Oilseed crop sunflower (*Helianthus annuus*) as a source of food: Nutritional and health benefits. // Journal Food Sci Nutrition. 2020. №8(9). P. 4666-4684.

2. Bakhrom Sodikov, Albert Khakimov, Rakhmonov Ubaydulla, Samad Utaganov Soil-borne plant pathogenic fungi biodiversity of sunflower. // Sustainable Management of Earth Resources and Biodiversity. 2022. P. 1-9.

3. Berry S.T., Allen R.J., Barnes S.R., P.D.S. Caligari Molecular marker analysis of *Helianthus annuus* L. 1. Restriction fragment length polymorphism between inbred lines of cultivated sunflower. // Theoretical and Applied Genetics. 1994. P. 435-441.

4. Bruinsma J. The resource outlook to 2050. Expert Meeting on How to Feed the World in 2050 (Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome. 2009. P. 28-34. 5. Bona S., Mosca, G., Vamerali T. Oil crops for biodiesel production in Italy. Renew Energy. 1999, 16, P. 1053-1056.

6. Bipinchandra B. Kalbande, Anita S. Patil. Plant tissue culture independent Agrobacterium tumefaciens mediated In-planta transformation strategy for upland cotton (*Gossypium hirsutum*). Journal of Genetic Engineering and Biotechnology (2016) 14, P. 9-18. 7. Chabert S, Sénéchal C, Fougeroux A, *et al.* Effect of environmental conditions and genotype on nectar secretion in sunflower (*Helianthus annuus* L.). *OCL*. 2020. №27. - P. 51.

8. Connor D.J., Mínguez M.I. Evolution not revolution of farming systems will best feed and green the world. Glob Food Secur 1, 2012. P. 106-113.

HELIANTHUS ANNUUS L. TURIGA MANSUB XORIJIY VA MAHALLIY NAMUNALARIDA O'RTACHA HOSILDORLIK KO'RSATKICHINING SHAKLLANISHI.

Omonov Orif Xo‘shboqovich
***Chirchiq davlat pedagogika universiteti, e-mail:* omonovorif1982@gmail.com**
Jumaniyozova Mohira Hamidjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistr
Matematika ta’limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki matematika faqatgina hisob-kitoblarni o‘rgatib qolmay, balki mantiqiy izchillik, tahliliy yondashuv va turli yechimlarni taqqoslab eng to‘g‘risini tanlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularga nafaqat maktabda, balki hayotda ham mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va o‘z fikrini asoslash imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, matematika darslarini muammoli vaziyatlarga asoslash, guruhiy ishlarni keng qo‘llash, texnologiyalardan samarali foydalanish va loyihaviy topshiriqlar berish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda eng samarali usullardan hisoblanadi. O’zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Davlat ta’lim standartlarida o‘quvchilarning mustaqil izlanishlari, fikr almashishlari va turli metodlarni taqqoslashlari ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida belgilangan. Xulosa qilib aytganda, matematika fanida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishning eng muhim yo‘li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2020.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”. — Toshkent, 2021.
3. G‘ulomov E., Yo‘ldoshev J., Usmonov S. **Pedagogika**. — Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019.
4. Jo‘raev R., Qosimov B. **Matematika o‘qitish metodikasi**. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
5. Shodmonov Q., Qurbonov A. **O’zbekistonda ta’lim tizimi islohotlari**. — Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2020.
6. O’rinboyeva Z. **Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar**. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. O’zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslari: www.natlib.uz
8. Xalilova D. **O’quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish metodlari**. Pedagogika va psixologiya jurnali. — Toshkent, 2022.
9. Mavlonov R., Rasulov A. **Zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish**. — Toshkent: “Noshir”, 2021.
10. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi veb-sayti: www.maktab.uz

XITOYDA MATEMATIKA FANINI O’QITISH TIZIMI

Xoljigitov Dilmurod Xolmurod o‘g‘li
O’zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi
xoljigitovdilmurod93@gmail.com
Vaxobov Shaxzod Sarvar o‘g‘li
O’zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Xitoyda ta’lim tizimi o‘quvchilardan yuqori natija va intizom talab etishi bilan ajralib turadi. Mamlakatda matematika faniga alohida e’tibor qaratilib, o‘qitish jarayonida chuqur nazariy bilim va mustahkam amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga urg‘u beriladi. Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA va TIMSS natijalari ham Xitoy ta’limining samaradorligini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda O’zbekiston ta’lim tizimida ham Xitoy tajribasining ayrim jihatlari, xususan, tizimlilik, natijaga yo‘naltirilganlik va o‘qituvchilar malakasini oshirishga oid yondashuvlar o‘rganilmoqda. Ushbu maqolada Xitoyda matematikani o‘qitish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va ularning amaliyotdagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Xitoy ta’lim tizimi, matematika o‘qitish metodikasi, mastery learning, PISA, TIMSS, o‘quv jarayoni, ta’lim samaradorligi.

Dunyo miqyosida tan olingan Xitoy ta’lim tizimida matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Asosiy xususiyatlari:

• **O’qituvchilarning yuqori tayyorgarligi:** Xitoyda matematika o‘qituvchilari chuqur nazariy bilim va dars o‘tish mahoratiga ega bo‘lishi shart. Ular muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashadilar.

• **Intizom va mehnatsevarlik:** Ta’lim jarayonida tartib-intizom, mehnatsevarlik va natijaga yo‘naltirilganlik asosiy qadriyat hisoblanadi.

• **An’anaviy va tizimli yondashuv:** Darslar qat’iy reja asosida olib boriladi; har bir mavzu o‘quvchi to‘liq o‘zlashtirmaguncha keyingisiga o‘tilmaydi (“mastery learning” prinsipi).

• **Amaliy mashqlarga urg‘u:** O’quvchilar ko‘plab misol va masalalarni yechish orqali bilimni mustahkamlashadi, bu esa aniqlik va tez fikrlashni rivojlantiradi.

• **Yuqori raqobat va baholash tizimi:** Test va imtihonlar o‘quvchilarning bilim darajasini muntazam nazorat qiladi. Natijalar kelgusidagi ta’lim bosqichiga kirishda muhim ahamiyatga ega.

• **Jamoaviy o‘qitish tajribasi:** O’qituvchilar o‘zaro dars kuzatuvi (“lesson study”) orqali tajriba almashib, o‘qitish sifatini doimiy yaxshilab boradilar.

Bu yondashuvning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda mustahkam mantiqiy tafakkur va matematik fikrlash madaniyatini shakllantirish.

Xitoyda ta’lim jarayoni har bir o‘quvchining bilim darajasini chuqurlashtirish va intellektual salohiyatini maksimal rivojlantirishga qaratilgan.

Asosiy xususiyatlari:

• **Nazariy chuqurlik:** Matematika o‘qitishda formulalar va mantiqiy asoslar batafsil tushuntiriladi, o‘quvchilardan aniq va to‘g‘ri yechim topish talab qilinadi.

• **Mashq va takrorlash tizimi:** Har bir mavzu yuzasidan ko‘plab mashqlar bajariladi, bu esa o‘quvchilarda aniqlik va tez fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

• **Dars jarayonining izchilligi:** O’quvchilar yangi mavzuga faqat avvalgisini to‘liq o‘zlashtirgandan so‘ng o‘tadilar (“mastery learning” yondashuvi).

• **Baholash tizimi:** Bilim darajasi testlar, yozma ishlar va yakuniy imtihonlar orqali baholanadi; natijalar o‘quvchining keyingi bosqichdagi o‘qishiga ta’sir qiladi.

• **O’qituvchi roli:** O’qituvchi darsda asosiy yetakchi hisoblanadi, u o‘quvchilarning bilimini nazorat qiladi va xatolar ustida tizimli ishlaydi.

• **Natijalar:** Xitoy o‘quvchilari xalqaro PISA va TIMSS baholashlarida matematik savodxonlik bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan.

Yondashuvning maqsadi: o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahliliy tahlil qilish va murakkab masalalarni bosqichma-bosqich hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Xitoy ta’lim tizimi o‘quvchilarning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ularni yuqori natijaga yo‘naltirishga asoslangan.

Asosiy xususiyatlari:

• **Tizimli yondashuv:** Matematika o‘qitish qat’iy reja asosida olib boriladi; har bir bosqichda avvalgi bilim mustahkam o‘zlashtirilgandan so‘ng yangi mavzuga o‘tiladi.

• **Yuqori talabchanlik:** O’quvchilardan aniq, to‘g‘ri va tez fikrlash kutiladi. Har bir mashq va topshiriq yakuniy natijaga yo‘naltirilgan.

• **Mashq va mustahkamlash:** O’quv jarayonida ko‘plab masalalar va testlar bajariladi, bu o‘quvchilarni aniqlik va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.

• **O’qituvchi roli:** O’qituvchi bilim manbai va nazoratchi sifatida muhim o‘rin tutadi. U dars jarayonida intizom, izchillik va aniqlikni ta’minlaydi.

• **Baholash tizimi:** Imtihonlar va testlar orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi muntazam baholanadi. Natijalar o‘quvchining keyingi bosqichga o‘tishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

• **Natija:** Xitoy o‘quvchilari xalqaro PISA va TIMSS reytinglarida doimiy ravishda yuqori ko‘rsatkichlarni egallab kelmoqda.

Yondashuvning maqsadi: o‘quvchilarda aniq va izchil fikrlashni shakllantirish, matematik muammolarni mantiqiy tahlil qilish, hamda nazariy bilimni amaliy yechimlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

Xitoy ta’lim tizimi o‘quvchilardan intizom, mehnatsevarlik va aniqlikni talab qiladi. Matematika bu tizimning markazida turadi, chunki u mantiqiy fikrlash, tahlil va muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Darslar qat’iy reja asosida olib boriladi, o‘quvchilar har bir mavzuni to‘liq o‘zlashtirgandan so‘nggina keyingi bosqichga o‘tadilar

Xitoyda o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni ham juda jiddiy va tizimli tarzda tashkil etilgan. Matematika o‘qituvchilari oliy ta’lim muassasalarida chuqur nazariy bilim va pedagogik mahoratga ega bo‘lib chiqadilar. Ular muntazam ravishda malaka oshirish dasturlarida ishtirok etadilar, “lesson study” kabi amaliy metodlar orqali o‘z tajribalarini baham ko‘radilar.

Matematika darslarida amaliy mashqlar, nazariy tahlil va test topshiriqlari uyg‘unlashtirilgan. O’quvchilarga ko‘p miqdorda mustaqil mashq bajarish tavsiya etiladi, bu esa ularning aniqlik, tez fikrlash va mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Baholash tizimi o‘quvchilarning umumiy rivojlanish darajasini emas, balki aniq bilim va ko‘nikmalarini o‘lchashga qaratilgan. Testlar, yozma imtihonlar va og‘zaki savollar orqali o‘quvchi

bilimining har bir bosqichi nazorat qilinadi. Natijalar kelgusidagi o‘quv bosqichiga kirishda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, Xitoyda matematika o‘qitish tizimi o‘quvchilarda qat’iy mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va muammolarni bosqichma-bosqich yecha olish salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu tizimda asosiy e’tibor natijadorlik, izchillik va yuqori intizomga qaratiladi.

Natijada, Xitoy matematika ta’limi o‘zining tizimliligi, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyati va o‘quvchilarning yuqori intizomi bilan dunyodagi eng samarali va natijador ta’lim tizimlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Xulosa: Xitoyda matematika fanini o‘qitish tizimi qat’iy intizom, tizimlilik va nazariy bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishiga asoslangan. O’qituvchilarning yuqori tayyorgarligi, muntazam malaka oshirishi va dars jarayonidagi izchillik ta’lim sifatining yuksak darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Bu tizim o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va aniq yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xitoyda matematika fanini o‘qitishda asosiy e’tibor:

• o‘quvchilarning mustahkam nazariy bilimlarini shakllantirishga,

• tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga,

• amaliy mashqlar va testlar orqali bilimni mustahkamlashga,

• o‘qituvchilarning malakasini doimiy oshirishga qaratilgan.

Xitoy tajribasi O’zbekiston ta’lim tizimi uchun ham o‘rganishga arziydigan yo‘nalish bo‘lib, ayniqsa natijaga yo‘naltirilgan o‘qitish, izchillik va o‘qituvchilar tayyorlashdagi yondashuvlar milliy ta’lim sifatini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoljigitov D. et al. Diofont tenglamalarini yechishda zanjirli kasrlar xossalaridan foydalanib yechish usullari //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 282-287.

2. Mamanov S. K. va boshq. biz yashayotgan jamiyatimizda trigonometrik funktsiyalarning amaliy ahamiyati / / eng yaxshi ilmiy tadqiqotlar. – 2023. - T. 2023 yil. 13-17 betlar.

3. Dilmurod X., Jo‘raboyevich R. N., Axborot texnologiyalarining m. v. m. f. o‘qitish jarayonida foydalanishning ahamiyati //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. 708711-sahifa.

4. Qahhorov M., Xoljigitov D. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish //matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 1.

5. Xoljigitov D., Prnazarov S. H. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish / / matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 1.

6. Xoljigitov D., Mantiqiy i. i. g. n. y. masalalarni yechish / / matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 2.

7. Xoljigitov D., Isroilov I. Graflar nazariyasi yordamida mantiqiy masalalarini yechish / / matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 2.

8. Xoljigitov D. Geometriyaning algebraik tenglamalarnigae yechishga bazi tatbiqlari / / matematika va informatika jurnali. – 2021. - Jild 1. – №. 3.

FINLANDIYADA MATEMATIKA FANINI O’QITISH TIZIMI

Xoljigitov Dilmurod Xolmurod o‘g‘li

O’zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi

xoljigitovdilmurod93@gmail.com

Burxonov Javoxir Asqar o‘g‘li

O’zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Finlandiya ta’lim tizimi dunyo bo‘ylab o‘qitish sifatining yuqoriligi bilan mashhur. Xalqaro baholashlarda, xususan, PISA va TIMSS tadqiqotlarida Finlandiya o‘quvchilari yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan. Hozirgi kunda yurtimizda ko‘plab oliygoh va maktablarda

Finlandiya metodlaridan foydalanib kelinmoqda. Ushbu maqolada Finlandiyada matematikani o‘qitish tizimining asosiy tamoyillari, metodik yondashuvlari va amaliyotlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimining asosiy tamoyillari, O’quv materiallari va darsliklar, O’qituvchilarni tayyorlash va malaka oshirish, Sinovlar va baholash tizimi.

Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Matematika o‘qitish ham bu tizimning asosiy tayanchlaridan biridir.

Asosiy xususiyatlari:

- **O’qituvchilarning yuqori malakasi:** O’qituvchilar magistratura darajasida tayyorlanadi va pedagogik metodlarni chuqur o‘rganadilar.
- **Mustaqil o‘qish va tanqidiy fikrlash:** O’quvchilarga mustaqil o‘qish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.
- **Ta’limda tenglik:** Barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy holatiga qarab farq qilmasdan ta’lim olish imkonini ta’minlash.
- **Kontekstual yondashuv:** Matematikani kundalik hayot bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.
- **Muammoga asoslangan o‘qitish:** O’quvchilarni real muammolarni hal qilishga undash, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Yondashuvning maqsadi: O’quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil va muammoni hal etish ko‘nikmasini shakllantirish.

Finlandiya ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan.

Asosiy xususiyatlari:

- **Amaliy yo‘nalish:** Matematika hayotdagi real misollar bilan bog‘lab o‘qitiladi — masalan, bank ishi, muhandislik, statistika.
- **Matematika faniga ajratilgan vaqt:** boshlang‘ich ta’limda 38%ni, o‘rta ta’limda esa 24%ni tashkil etadi.
- **O’qitish metodlari:** Guruhli ishlash, individual shug‘illanish loyiha asosidagi o‘qitish, muammoli vaziyatlar orqali o‘rganish.
- **Baholash tizimi:** Faqat yakuniy test emas, balki yil davomida o‘quvchining faol ishtiroki ham inobatga olinadi.
- **Natijalar:** Finlandiya o‘quvchilari matematik savodxonlik bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarda.

Yondashuvning maqsadi: matematikani kundalik hayotda qo‘llashni o‘rgatish va mantiqiy tahlilni kuchaytirish.

Finlyandiya ta’lim tizimi dunyodagi ko‘plab rivojlangan mamlakatlarnikida farq qiladi. Ta’lim tizimidagi yutuqlarning asosiy sababi o‘ziga xos yondashuvda.

Asosiy xususiyatlari:

- **Moslashuvchan yondashuv:** Matematika darslari o‘quvchilarning individual tezligiga moslab olib boriladi.
- **Stresssiz muhit:** Sinovlar soni juda kam, baholash o‘quvchining rivojlanish jarayoniga asoslanadi.
- **O’yin va amaliy mashg‘ulotlar:** Darslar qiziqarli mashqlar, o‘yinlar, tajribalar orqali o‘tiladi.
- **O’qituvchi roli:** O’qituvchilar yuqori malakali bo‘lishi shart. Har bir o‘qituvchi magistr darajasiga ega.
- **Texnologiya integratsiyasi:** GeoGebra, Smartboard, Desmos kabi interaktiv dasturlar faol qo‘llaniladi.
- **Natija:** Finlyandiya o‘quvchilari xalqaro PISA testlarida matematika bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallab keladi.

Yondashuvning maqsadi: o‘quvchilarga qat’iy mantiqiy asosda fikrlash, tahlil qilish va ilmiy isbotlarni o‘rganish, o‘quvchilarda qat’iy mantiqiy tafakkur, tahliliy fikrlash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Finlyandiya tajribasi o‘quvchini erkin, stresssiz va ijodiy o‘rganishga undaydi. Bu tizimda o‘yinli mashg‘ulotlar va real hayotga bog‘liq vazifalar orqali matematik fikrlash tabiiy shaklda rivojlanadi.

Finlandiyada o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni juda yuqori sifatli va ilmiy asoslangan. O’qituvchi bo‘lish uchun magistratura darajasida ta’lim olish, 60 ECTS pedagogik tayyorgarlik va 120 ECTS asosiy fan bo‘yicha o‘qish talab etiladi.

Finlandiyada matematika o‘qitishida o‘quvchilarning individual rivojlanishiga e’tibor qaratiladi. “Maths Pathway” kabi dasturlar orqali o‘quvchilar o‘z ehtiyojlariga mos ravishda o‘qishadi, o‘qituvchilar esa ma’lumotlarga asoslangan holda darslarni tashkil etishadi.

Finlandiyada matematika o‘qitishida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik usullar keng qo‘llaniladi. “Future Math Classroom” kabi kurslar orqali o‘qituvchilar ICT vositalari, kodlash mashqlari va o‘yinlashtirilgan o‘qitish metodikalarini o‘z darslariga integratsiya qilishadi.

Finlandiyada sinovlar va baholash tizimi o‘quvchilarning haqiqiy bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan. PISA va FINEEC kabi tadqiqotlar orqali o‘quvchilarning matematik kompetensiyasi o‘rganiladi.

Umuman olganda, Finlandiyada matematika o‘qitish tizimi o‘quvchining **mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va amaliy muammolarni yecha olish salohiyatini** shakllantirishga qaratilgan. Bu tizimlarda o‘qitish jarayoni faqat bilim berish emas, balki **shaxsiy rivojlanish va ijodkorlikni** rag‘batlantirish vositasi sifatida qaraladi.

Natijada, finlandiya matematika ta’limida innovatsion yondashuv, texnologik vositalardan foydalanish va o‘qituvchilarning yuqori malakasiga tayanib, dunyoda eng samarali ta’lim tizimlaridan birini shakllantirgan.

Xulosa: Finlandiyada matematika fanini o‘qitish tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va rivojlanishiga asoslangan, innovatsion pedagogik usullar va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan. O’qituvchilarning yuqori malakasi va doimiy professional rivojlanishi ta’lim sifatini ta’minlaydi. Ushbu tizim boshqa mamlakatlar uchun ham o‘rnak bo‘lishi mumkin.

Finlandiyada matematika fanini o‘qitishda asosiy e’tibor:

- o‘quvchining mustaqil fikrlashiga,
- amaliy muammolarni yechishga,
- raqamli texnologiyalarni qo‘llashga,
- o‘qituvchi malakasini oshirishga qaratilgan.

Bu tajribalar O’zbekiston ta’lim tizimi uchun ham foydali yo‘nalishlar bo‘lib, o‘quvchilarda matematik tafakkurni chuqur rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoljigitov D. et al. Diofont tenglamalarini yechishda zanjirli kasrlar xossalaridan foydalanib yechish usullari //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 282-287.
2. Mamanov S. K. va boshq. biz yashayotgan jamiyatimizda trigonometrik funktsiyalarning amaliy ahamiyati / / eng yaxshi ilmiy tadqiqotlar. – 2023. - T. 2023 yil. 13-17 betlar.
3. Dilmurod X., Jo‘raboyevich R. N., Axborot texnologiyalarining m. v. m. f. o‘qitish jarayonida foydalanishning ahamiyati //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. 708711-sahifa.
4. Qahhorov M., Xoljigitov D. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish //matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 1.
5. Xoljigitov D., Prnazarov S. H. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish / / matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 1.
6. Xoljigitov D., Mantiqiy I. I. G. N. Y. masalalarni yechish / / matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 2.

7. Xoljigitov D., Isroilov I. Graflar nazariyasi yordamida mantiqiy masalalarini YECHISH / / matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 2.
8. Xoljigitov D. geometriyaning algebraik tenglamalarnigae yechishga bazi tatbiqlari / / matematika va informatika jurnali. – 2021. - Jild 1. – №. 3.
9. Finlandiya metodlari asosida matematika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish
10. https:school-education.ec.europa.eu
11. https:mathunion.org

TABIIY FANLAR DARSLARIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Muratova Luiza Sanaqul qizi
Jizzax shahar, 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabining birinchi toifali biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlar darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkl etish shakllari va metodlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tabiiy fanlar, PISA, TIMSS, darslik, mashq daftari, amaliy mashg‘ulot

Yurtimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng islohot va o‘zgarishlar kabi ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi jamiyatda o‘z o‘rniga ega, har tomonlama barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Misol tariqasida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari buning yorqin dalilidir: “Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat”.


2021-2022-o‘quv yilidan boshlab Respublikamizda 1-6-sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha barcha tabiiy fanlarni birlashtirgan holda “Tabiiy (Science)” fanlar joriy etildi. Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o‘qitib kelinayotgan 1-2-sinfda “Atrofimizdagi olam”, 3-4-sinflarda “Tabiiy fanlar”, yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar, ya’ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7- sinfdan boshlab) fanlarining asoslarini o‘zida birlashtiradi. Tabiiy (SCIENCE) fanlarining yuzga kelishi, afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, ushbu fan orqali o‘quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko‘nikmalari rivojlanadi. Natijada PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi. Tabiiy (SCIENCE) fanlar - insonni, uning sog‘lig‘ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha tirik va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o‘zgarishini o‘rganadigan fanlardir. Tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko‘rsatadigan ta’sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasi. O’quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy (science) ya’ni, fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va ijtimoiy muhitga ta’sirini tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy fanlarni o‘zaro integratsiya asosida o‘rganish, o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo‘naltirmog‘i lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobiy ta’siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Milliy o‘quv dasturida fanlar, asosan, chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda, ya’ni bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda, nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unlikda olib borilishi ko‘zda tutilgan. Biz buni 5-sinf tabiiy fanlar darsligi misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

5-sinf Tabiiy fanlar darsligida va mashq daftarida nazariy ma’lumotlar bilan birga amaliy va loyiha ishlaridan ham foydalanilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning tadqiqotchilik va ijodkorlik

qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari o‘quvchilarning tushunish, erkin va mantiqiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida turli rasmlar, savollar, o‘yin mashqlari ham darslikdan joy olgan.

1.3-amaliy ish Urug‘larning unib chiqishi



Darslikdagi 1.3-mavzuda o‘simlik urug‘larining unib chiqish uchun suvga ehtiyojini o‘rganish yuzasidan tadqiqot o‘tkazdingiz. Endi urug‘ning unib chiqishiga boshqa omillarning ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot rejasini tuzasiz.

Sizga kerak bo‘ladi:

ikkita plastmassa stakan, suv, tuproq,

marker, to‘rt dona mosh o‘simligi urug‘i.

Kichik guruhda ishlang.

Ishni bajarish tartibi:

1. Urug‘larning unib chiqishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan omillarni yozing.

2. Ro‘yxatdagi bitta omilni tanlang. Ushbu omil ta’sirini qanday tadqiq etish haqida fikr yuriting.

3. O’zingiz tanlagan omilning urug‘ unib chiqishiga ta’sirini o‘rganish yuzasidan tadqiqot rejasini tuzing. Yuqorida berilgan ro‘yxat asosida tadqiqotni amalga oshirish uchun zarur jihozlarni tanlang. Ro‘yxatda keltirilganlardan tashqari qo‘shimcha material va jihozlardan ham foydalanishingiz mumkin.

4. Quyidagi savollarni muhokama qiling:

• Qaysi o‘zgaruvchini o‘zgartirishingiz zarur?

• Qaysi o‘zgaruvchini o‘lchashingiz zarur?

• Qaysi o‘zgaruvchini o‘zgarishsiz saqlashingiz zarur?

• Tadqiqot davomida qanday xavflar yuzaga kelishi mumkin?

• Tadqiqotni amalga oshirishda qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur?

5. Tadqiqotda amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligini yozing

6. Tadqiqot natijalarini bashorat qiling.

7. Tadqiqotni amalga oshiring.

8. Kuzatish natijalarini jadval yoki rasm orqali ifodalang.


9. Tadqiqot natijalarini bashoratingiz bilan taqqoslang.

Bashoratingiz qay darajada tasdiqlandi?

10. Tadqiqot natijalari asosida xulosa chiqaring.

Boshqotirma

Krossvordni yeching.



Bo‘yiga:

1. Gulning changchi va urug‘chi yetilgunga qadar ular atrofini o‘rab, himoya qilib turuvchi qismi.
3. Gulkosachabarglar yig‘indisi.
5. Urug‘chining kengaygan pastki qismi.
7. Urug‘chining chang donachalarini tutib qoladigan qismi.


Eniga:

2. Gulqo‘rg‘onning yorqin rangli gultojibarglardan tashkil topgan ichki qismi.
4. Tugunchaning urug‘ rivojlanadigan qismi.
6. Urug‘chining tumshuqchasi va tugunchasini bog‘lovchi qismi.
8. Gulni poyaga biriktirib turuvchi qism.
9. Gulning chang donachalari yetiladigan qismi.

Bilimlar xaritasi

Quyidagi so‘zlardan foydalanib gaplarni to‘ldiring.

Changdon, urug‘chi, tarqaladi, urug‘lanish, gul, unib chiqishi, hayot sikli, tuguncha, gulqo‘rg‘on, changlanish, changchi, gulli o‘simliklar, tumshuqcha



Amaliy mashg‘ulotni bajarish jarayonida o‘quvhcilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanadi, jamoada va individual ishlash malakalari rivojlanadi. Olingan nazariy ma’lumotlar amaliy topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi.

Takrorlash


1. Gul qismlari to‘g‘ri berilgan tushunchalar guruhi tagiga chizing.

changdon, poya, tuguncha **changdon, tumshuqcha, ildiz**

gultojibarg, changdon, tumshuqcha **gultojibarg, ildiz, tuguncha**

2. Quyidagi sxemada gul tasvirlangan.

a) Gul qismlarini yozing.




b) Changlanish jarayoni qanday sodir bo‘ladi?

_____

_____

Takrorlash orqali gulning turli qismlarini belgilash, changlanish jarayoni qanday sodir bo‘lishini mashq daftariga yozish orqali olingan bilimlar mustahkamlanadi, xotirada uzoq muddatga qolishiga sabab bo‘ladi.

Tabiiy fanlarni o‘rganishda tajriba-amaliy mashg‘ulotlardan ko‘zda tutilgan maqsad ko‘p jihatdan uni o‘tkazish metodikasini o‘quvchilar ishiga maxsus fan o‘qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. O’quvchilar nazariy materialni o‘zlashtirib olganlaridan, o‘rganilayotgan hodisalar jarayonlar bilan tanishganlaridan so‘ng ular bilan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish ancha oson kechadi.



Darslikda berilgan mavzular, amaliy mahg‘ulotlar, loyiha ishlar o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, favqulodda holatlarda harakatlanish qoidalarini shakllantirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PFRQ – 5712-son Farmoni.

2. Aleksandr Grey. Tabiiy fanlar 5-sinf uchun darslik. “Novda Education” Toshkent 2024.

3. Aleksandr Grey. Tabiiy fanlar 5-sinf uchun mashq daftari. “Novda Education” Toshkent 2024.

YOSH AVLODNI VATANPARVAR VA JISMONIY BAQUVVAT QILIB TARBIYALASHDA PEDAGOGNING O’RNI

Ishankulov Axror Burxonovich

Jizzax shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 4-maktabning Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari

Annotatsiya. Maqolada buyuk allomalarning jismoniy tarbiya va sportga oid fikrlari, yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan ishlar, o‘quvchi yoshlarning sport turlariga qiziqishini oshirish kabi masalalar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik tuyg‘ulari, jahon sivilizatsiyasi, ommaviy sport, internet klub, sport inshootlari.

Kirish

Xalqimiz tarbiya jarayonida sharq mutafakkirlarining konseptual-metodologik meroslaridan, xalq pedagogikasi an’analaridan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur va boshqa allomalarning jismoniy tarbiya va sportga oid, hozirgacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan ilmiy asarlaridan samarali foydalanib kelgan. Chunonchi, tibbiyot olamining sultoni Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida “Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug‘ullangan odam hech qanday davolashga muxtoj bo‘lmaydi”,- degan fikrni bildirgan.

Sohibqiron Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da shunday deydi: “qo‘shin tarkibiga yosh navkarlarni olishda uch qoidaga amal qilindi: birinchisi — sog‘lom va baquvvat bo‘lishi, ikkinchisi — qilichdan mohirona foydalanishi, uchinchisi — aql-zakovatiga va barkamolligiga”.

Ulug‘ munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari ham diqqatga sazovordir. Uning “Farzandingiz sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishini istasangiz, uni kichik yoshdan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullantiring va chiniqtiring”,- degan so‘zlarining ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari, ma’naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiya vositalaridan foydalanish, yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish, buyuk tariximiz, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san’at rivojiga qo‘shgan hissalarini o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish har bir pedagogning mas’uliyatli vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 20- yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-18-son farmoni, 2024-yil 15-noyabrdagi “O’quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-393-son qarori shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29- iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son qarorining qabul qilinishi ham, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini bildiradi.

Mamlakatimizning barcha sohalarda har tomonlama yuksalish yuz berayotgani, tub ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar, umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy ehtiyojlari, talablari va manfaatlari birinchi o‘ringa ko‘tarilayotgani, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas.

Ayniqsa, yurtimiz vakillarining Olimpiya o‘yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o‘yinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O’zbekistonning obro‘-e’tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida sport o‘yinlari ommalashib borayotgani, e’tiborlidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida juda muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Bugungi kunda mamlakatimiz shuhratini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilayotgan yosh sportchilarimizu, maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab sport turlariga mehr qo‘ygan bolajonlar va maktab partalarida bilim olayotgan, sportga endigina qiziqa boshlagan navqiron avlod tarbiyasiga alohida e’tibor berilayotganligi quvonarli bir holdir.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritgan futbolchilarga yo‘llagan tabrigi” da sportini rivojlantirish bo‘yicha alohida to‘xtalib, ta’lim va tarbiya ishlarini sport va jismoniy tarbiya bilan uyg‘un ravishda olib borish shart ekanini

ta’kidlagani bejiz emas. Tabrigi davomida, “Hech shubhasiz, milliy sportimiz solnomasiga oltin harflar bilan bitiladigan bunday yorqin natija yurtimizdagi millionlab futbol muxlislari, butun xalqimizning necha yillik orzusi edi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Sizlar professional bilim va malakangiz, tajriba va mahoratingiz, eng muhimi, yuksak irodangiz va g‘alabaga bo‘lgan ishonchingiz bilan ana shunday orzuni real haqiqatga aylantirganingiz har qanday tahsin va tasannoga munosibdir”109,- deya alohida ta’kidlab o‘tdi.

Shu bois ham, yoshlarimizni yuksak bilimli va zakovatli, vatanparvar, jismonan baquvvat insonlar etib kamolga yetkazishning bosh omili - bu sportni rivojlantirish masalasi ekanligi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda bolalar sporti mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylanib, ushbu soha bilan mutanosib ravishda izchil rivojlantirilmoqda. Sababi, sport sog‘likni mustahkamlabgina qolmay, balki hayot sinovlaridan, mardonavor o‘tish yo‘lida mustahkam qalqon bo‘luvchi irodani ham toblaydi.

Sportda muvaffaqiyatga erishish tartib-qoidaga qat’iy amal qilish bilan bog‘liqdir. Ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar darsdan so‘ng biror sport turiga qatnashishni odat qilgan bo‘lsa, u har bir kunini o‘zi uchun rejalashtirib oladi. Chunki bolani sport zali, o‘zi mehr qo‘ygan sport turi bilan bemalol shug‘ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar doimiy harakatga chorlab turadi. Ular sport to‘garagiga qatnayotgani sababli ham boshqa ishlariga o‘z vaqtida ulgurishga harakat qiladilar. Natijada ularda mas’uliyat hissi shakllanadi va mustahkamlanadi. Eng muhimi, sportga oshno bo‘lgan yoshlarning har xil bekorchi ishlarga vaqti bo‘lmaydi, internet klublar yoki boshqa foydasi bo‘lmagan ishlar bilan kunini o‘tkazmaydilar.

Bilamizki, sportdagi har qanday yutuq o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Sport maydonlarida erishiladigan yutuqlar – avvalo shu yo‘lda tinimsiz intilib, kurashib yashaydigan insonning yutug‘i, ayni vaqtda shu insonni tarbiyalab voyaga yetkazgan jamiyatning yutug‘idir.

Sportni rivojlantirish borasidagi ishlarning muvaffaqiyati ushbu sohaga yuqori malakali o‘qituvchi va murabbiy kadrlarni keng jalb etish bilan bog‘liq ekanligi hech kimga sir emas. Avvalo, murabbiylar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha yurtimizda yangi, samarali tizim joriy etilgani bugungi kunda o‘zining amaliy natijasini bermoqda. O’quv muassasalarida esa, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ta’lim olayotgan yoshlarning sport turlariga qiziqishini oshirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib ulgurgan.

Xulosa Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportning maqsad va vazifalari jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu ehtiyoj ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqadi. Bu esa, o‘zida ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni, intellektual salohiyatni, jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, har tomonlama yetuk rivojlangan shaxsni shakllantirish maqsadidan iboratdir. Buni to‘laqonli amalga oshirish siz-u bizning tinimsiz harakatlarimiz va mehnatimizga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 20- yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-18-son farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “O’quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-393-son qarori.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 29- iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son qarori.

4. https://www.gazeta.uz

[109] https://www.gazeta.uz

EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA UNI TA’MINLASH ZARURATI

Xolboyeva Munisxon Mavlanovn*a*
Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi,
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada hozirgi kundagi dolzarb masalalardan bo‘lgan ekologiya, barqaror rivojlanish, tabiatni asrash, ekologik xavfsizlik kabi dolzarb masalalar yoritlgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, tabiatni asrash, barqaror taraqqiyot, Xalqaro iqlim forumi, ekologik xavfsizlik*

Zamonaviy davrda ekologik xavfsizlik masalasi nafaqat alohida davlatlar, balki butun dunyo hamjamiyati uchun eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Jamiyat asta – sekin rivojlana borgani sari insonning tabiatga bo‘lgan ta’siri orta boshladi, buning natijasida, texnikaviy o‘sishning chegarasizligi, demografik muammolar, atmosferaning ifloslanishi, turli xil kimyoviy zavodlardan zaharli chiqindilarning ajralib chiqishi, ichimlik suvi tanqisligi XXI asrning eng muhim ekologik muammolariga aylanib bormoqda.

Ekologik xavfsizlik — bu inson hayoti va salomatligi, shuningdek, atrof-muhitning barqaror holatda saqlanishini ta’minlovchi shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu tushuncha nafaqat tabiiy resurslarni asrash, balki ulardan oqilona foydalanishni ham nazarda tutadi. Asosiy maqsad — tabiat va jamiyat o‘rtasida muvozanatni saqlab qolish, barqaror rivojlanishni ta’minlashdir.

O’zbekiston bugun Markaziy Osiyo mintaqasining dolzarb ekologik muammolarini hal qilishda asosiy davlatga aylandi. Davlatimiz rahbari xalqaro tadbirlarda jamoatchilik e’tiborini atrof-muhit muammolariga qaratib kelmoqda va O’zbekiston bir qator xalqaro anjumanlarga mezbonlik qilgan va qilmoqda. Bunga misol sifatida Samarqandda 2025-yilning 4-5-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan Xalqaro iqlim forumini keltirish mumkin. Ushbu forum O’zbekistonning iqlim muammolarini hal qilishdagi qat’iy pozitsiyasini yana bir bor ko‘rsatadi. Bugun, 4-aprel kuni “Silk Road Samarkand» kongress markazida “Global iqlim muammolari va Markaziy Osiyo – umumiy farovonlik yo‘lida birlashish” mavzusidagi Samarqand iqlim forumining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Forum doirasida iqlim o‘zgarishining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish, suv resurslarini kompleks boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror shahar taraqqiyoti kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha ekspert panellari, yalpi sessiyalar va siyosiy muloqotlar tashkil etildi. Bu tadbir iqlim muammolarini yechishdagi global hamkorlikni mustahkamlashga katta hissa qo‘shishi kutilmoqda. Muhokamaning asosiy mavzularidan biri global miqyosdagi ekologik halokatning yaqqol namunasi bo‘lgan Orol dengizi inqirozidir. Mutaxassislar va hukumat vakillari zarar ko‘rgan hududlarda yerlarni tiklash, cho‘llanishga qarshi kurashish va iqlim o‘zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha barcha mumkin bo‘lgan yechimlarni ko‘rib chiqdilar.

Forumda mintaqadagi eng yirik ekologik inqirozlardan biri bo‘lgan Orol dengizi muammosiga alohida e’tibor qaratildi. Orol dengizining qurishi iqlimning jiddiy o‘zgarishlariga, jumladan, chang bo‘ronlari ko‘payishiga, bioxilma-xillikning yo‘qolishiga va aholi salomatligining yomonlashishiga olib keldi. Orol dengizi ekotizimini tiklash va mintaqa uchun barqaror yechimlarni topish xalqaro darajada muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarni talab qiladi. Forum yakunida iqlim o‘zgarishi sohasida Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy mintaqaviy qarashlarini shakllantirish uchun asos bo‘ladigan “Yashil” rivojlanishning Mintaqaviy konsepsiyasi taqdim etildi. Ushbu hujjat mintaqadagi ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro tashkilotlarning ilg‘or yondashuvlarini aks ettiradi.

Ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillar:

1. Havo ifloslanishi: Sanoat chiqindilari, transport vositalaridan chiqayotgan gazlar.
2. Suv resurslarining ifloslanishi: Chiqindilarni daryolar va ko‘llarga tashlash, sanoat suvlari oqiziqlari.
3. Iqlim o‘zgarishi: Global isish va qutbiy muzlarning erishi.
4. Biologik xilma-xillikning yo‘qolishi: Hayvonlar va o‘simliklarning yo‘q bo‘lib ketishi.

5. Chiqindilar bilan bog‘liq muammolar: Plastmassa chiqindilarining ko‘payishi va ularni qayta ishlashning yetarli emasligi.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishlari

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Huquqiy chora-tadbirlar

Davlat darajasida ekologik qonunlar va qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Ekologik me’yorlarni buzganlarga nisbatan qat’iy chora ko‘rish.

2. Iqtisodiy mexanizmlar

"Yashil texnologiyalar"ni moliyalashtirish va rag‘batlantirish. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonalarga soliq va jarimalar joriy qilish.

3. Texnologik yechimlar

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol) keng foydalanish. Ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etish.

4. Ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar

Aholini ekologik mas’uliyatga o‘rgatish. Ekologiya faniga e’tiborni kuchaytirish va yosh avlodni tabiatni asrashga chaqirish.

4. Amalga oshirilayotgan loyihalar va yechimlar

Hozirgi kunda ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi xalqaro va milliy loyihalar amalga oshirilmoqda:

- Parij kelishuvi: Global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda barcha davlatlar ishtirok etmoqda.
- O’rmonlarni saqlash dasturlari: Deforestatsiyaning oldini olish va yangi daraxtlar ekish bo‘yicha xalqaro tashabbuslar.
- Suv resurslarini tozalash: Suv ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalar va loyihalar.

Joriy yildan boshlab, yo‘l, daryo va kanallarga tutash 2 ming gektar yer 10 ming aholi va tadbirkorlarga ekish uchun ijaraga berildi. “Mening bog‘im” loyihasi doirasida budjetdan 49 milliard so‘m ajratilib, mahallalarda 215 ta yangi bog‘ yaratilayapti.

Bu sa’y-harakatlarni Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi, Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi ijro organi ham e’tirof etmoqda.

Lekin ayrim joylarda shunday xayrli ishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilgani afsuslanarli. Ba’zi tumanlarda sug‘orish tizimi yo‘q yerga ko‘chat o‘tqazilgan yoki kesilgan daraxtlar o‘rniga ekilmagan.

Viloyatlarda “Mening bog‘im” loyihasi bo‘yicha yashil hududlar va jamoat parklari barpo etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Bu maydonlar ekish mavsumigacha “Ochiq budjet” portaliga qo‘yilib, daraxt turlari bo‘yicha tavsiya va ularning narxi ko‘rsatiladi. Bunda parvarishlashda mas’uliyatsizlik qilgan shaxslarni mobil ilova orqali ogohlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

So‘nggi vaqtlarda yurtimizda chang bo‘ronlari tez-tez sodir bo‘layotgani qayd etildi. Bunga global iqlim o‘zgarishi bilan birga daraxtlarning noqonuniy kesilishi, suv kamayishi, chorva tartibsiz boqilishi ham sabab bo‘lmoqda. Cho‘llardagi o‘simliklar turlari ham keskin kamaygan.

Davlatimiz rahbari aholi ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha eng katta zaxira yaylovlar ekanini ta’kidladi.

Shu bois 16 million gektar yaylov yerlarini boshqarish Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga o‘tkazilishi belgilandi. Qo‘mitaga cho‘llarni degradatsiyadan chiqarish bo‘yicha uch yillik dastur tayyorlash topshirildi. 2025 yilda bu maqsadlar uchun dastlab 50 million dollar grant mablag‘lari jalb qilinadi.

Ekologik madaniyat, ekologik tarbiya tushunchalari Sharq xalqlarida qadim-qadimdan ulug‘lanib, kishilar ongiga singdirib kelingan. Xalqimizning ona- tabiatga, uning ne’matlariga, o‘simlik va hayvonlarga mehr- muhabbatini avloddan- avlodga o‘tib kelayotgan pand-nasihatlarida, o‘gitlarida ham ko‘rish mumkin.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash har bir fuqaroning, jamiyatning va davlatning umumiy vazifasidir. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, atrof-muhitni

ifloslanishdan himoya qilish — bu barcha insoniyat uchun hayot-mamot masalasidir. Har bir fuqaro o‘z hayotida kichik bo‘lsa-da, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘sha olishi, ayniqsa o‘quvchilarni bunga o‘rgatishi, ularda bu boradagi zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishi bugungi kunning eng muhim masalalaridan hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas, balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz.” [1]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev, “Xalqaro iqlim forumi” da so‘zlagan nutqidan, Samarqand, 2005-yil, 4—5-aprel kunlari
2. E. O. Turdiqulov, U. E. Turdiqulov, “Markaziy Osiyoda ekologik ta’lim taraqqiyoti” Umumiy o‘rta talim maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun qo‘llanma, Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013 yil
3. “Ekologik xavfsizlik va uni ta’minlash yo‘nalishlari”, o‘quv-uslubiy majmua, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2025-yil

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA KVEST TEXNOLOGIYASI ASISIDA TINGLOVCHILARNING AMALIY KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Usmonov Muzaffar
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida kvest texnologiyasidan samarali foydalanish orqali tinglovchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Kvest texnologiyasining mohiyati, pedagogik imkoniyatlari, bosqichlari va uni malaka oshirish tizimida qo‘llashning afzalliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, kvest texnologiyasi, amaliy ko‘nikma, innovatsion ta’lim, tinglovchi, pedagogik texnologiya, interaktiv metod.

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы формирования и развития практических навыков слушателей в процессе повышения квалификации посредством эффективного использования квест-технологии. Научно обосновано содержание квест-технологии, её педагогические возможности, этапы реализации и преимущества применения в системе повышения квалификации.

Ключевые слова: повышение квалификации, квест-технология, практические навыки, инновационное обучение, слушатель, педагогическая технология, интерактивный метод.

Annotation: This article highlights the issues of developing and enhancing the practical skills of trainees in the process of professional development through the effective use of quest technology. The essence of quest technology, its pedagogical potential, stages of implementation, and advantages of application in the professional development system are analyzed on a scientific basis. In addition, the methodology for organizing quest-based activities using interactive and competence-based approaches is presented.

Keywords: professional development, quest technology, practical skills, innovative education, trainee, pedagogical technology, interactive method.

Hozirgi zamon ta’lim tizimining bosh maqsadlaridan biri yuqori madaniyatli, tizimli fikrlay oladigan, oldinda uchrashi mumkin bo‘lgan murakkab muammolarni echa biladigan, komil insonni tarbiyalash tizimini yaratishdir. XXI asr pedagogi - nafaqat o‘qituvchi, tarbiyachi, avalom bor u – yuqori darajada tizimli fikrlovchi va izlanuvchi pedagogdir.

Dastlabki stansiyalarni bajarish jarayonida turli jamoalarning o‘yin xususiyatlari, ya’ni yangi va noaniq sharoitlarda tez mobilizatsiyalash qobiliyati o‘ziga xos xususiyatlar bilan namoyon bo‘ldi: ba’zi jamoalarda original g‘oyalar soni kamroq bo‘lishi, majburiy liderlik sifatlari paydo bo‘lishi va xulosalarini mantiqan asoslab ifodalashda qiyinchiliklar kuzatildi. Biroq bir nechta stansiyalardan o‘tganidan so‘ng jamoa a’zolari bir nechta javob variantlarini solishtirishga, tahliliy elementlardan foydalanishga harakat qila boshladilar; tashabbus ko‘rsatish, yetakchilik

qobiliyatlarini namoyon qilish, batafsil javoblar berish va refleksiya koʻrsatish sezilarli darajada oshdi. Shu tariqa, kvest oʻyini orqali maktab oʻquvchilarida tadqiqotga yoʻnaltirilgan ijodiy fikrlash bosqichma-bosqich va har tomonlama rivojlandi.

XXI asr global rivojlanishlar davri boʻlish bilan birga, ta'lim va tarbiya sohasida ham ulkan taraqqiyotlarni taqazo qilish bilan birga namoyon boʻlmoqda. Oliy ta'limda, ayniqsa boʻlajak pedagoglarni tayyorlashga ixtisoslashgan oliy oʻquv yurtlarida zamon bilan hamnafas fikrlaydigan, maktab oʻquv faniga oʻquvchilarning qiziqishi uygʻota oladigan, ularda ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan, zamonaviy talablarni qoʻymoqda.

Bu sohada eng katta mas'uliyat tabiiy fanlar mutaxasisslariga qoʻyilgan boʻlib, ular ta'limning barcha bosqichlarida tabiiy bilimlarni, savodxonlik darajasida rivojlantirishlari hamda oʻquvchilarda fanga boʻlgan ehtiyojni qiziqishlar koʻrinishida shakllantirib, qadriyatlar darajasida rivojlantirishga harakat qilishi lozim.

Bugungi kunda tabiiy fanlar boʻyicha bilimlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirish uchun faqat hodisa va jarayonlarni tasvirlashning oʻzi etarli emas, bunda talaba juda ilmiy ma'lumotlar bilan ishlashi, zamonaviy texnologiyalarga ega boʻlishi va soha boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalarini kompetentsiyalarga aylantirgan xolda, haqiqiy hayotda qoʻllay olishi lozim.

M.V.Klarin «innovatsiya» tushunchasini nafaqat 'Yangiliklarni yaratish va tarqatish, balki mazkur 'Yangiliklar bilan aloqador boʻlgan qayta oʻzgarishlarga, faoliyat tarzidagi, fikrlash uslubidagi oʻzgarishlarga ham tegishli ekanligini tasdiqlaydi [86]. Ta'limda innovatsion jarayonlar turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan va uning rivojlanishini belgilab bergan. Kengroq miqyosga ularning rivojlanishi XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya, Germaniya, Fransiya, AQSHda erishilgan.

Innovatsion faoliyat - bu innovatsiyalarni yaratish jarayoni, shu jumladan ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlanmalar, 'Yangi mahsulotni tayyorlash va ishga tushirish, shuningdek innovatsiyalarni yaratishni ta'minlaydigan tadbirlar – ilmiy-texnik xizmatlar, marketing tadqiqotlari, kadrlar tayyorlash, ular malakasini oshirish, qayta tayyorlash jarayonlari bilan bogʻliq tashkiliy va moliyaviy faoliyat.

Ta'lim va tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv innovatika fanining asosiy tadqiqot ob'ekti sanaladi. Ta'limda innovatsion jarayonlar uch bosqichli hususiyatiga koʻra tahlil qilanadi: ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv. Ushbu jihatlar innovatsion jarayonlar oʻtadigan umumiy iqlim va sharoitlarga bogʻliqligi sababli mavjud sharoitlar innovatsion jarayonga hissa qoʻshishi yoki toʻsqinlik qilishi mumkin. Ta'lim tarbiya jarayonining asosiy boʻgʻini Oliy ta'lim tizimi sanalib, unda kechadigan rivojlanishlar ta'lim klasterida oʻz samarasini koʻrsatadi.

Jamiyat ijtimoiy hayotidagi rivojlanishlar ilgʻor ta'lim texnologiyalariga muvofiq rivojlanib bormoqda. Dunyo shu qadar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgani, deyarli sohada fan-texnika yutuqlarini joriy etilganligidan dalolat berib, ta'lim tizimini ham mana shu ilgʻor texnologiyalarga mos ravishda rivojlanishini talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova N. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularni amaliyotda qoʻllash." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Prensky M. *Digital Game-Based Learning.* – New York: McGraw-Hill, 2019.
3. Karimova D. "Malaka oshirish tizimida interfaol metodlardan foydalanish." – *Pedagogika va psixologiya jurnali*, №4, 2022.
4. Usmonova D. "Raqamli ta'lim sharoitida oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish." – Toshkent, 2023.
5. Xodjayev B. "Ta'lim jarayonida kvest texnologiyasining oʻrni." – *UzPFITI Ilmiy axborotlari*, 2024.

BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Xoldaraliyeva Nargiza Bahodirjon qizi
Andijon viloyati PMM, "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakl va sharoitlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning zamonaviy talablari, pedagogik va psixologik omillar, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali yo'llari, o'qituvchi faoliyatini baholash mezonlari hamda metodik ta'minot tizimining takomillashuvi yoritilgan.

Kalit so'zlar: metodik tayyorgarlik, biologiya ta'limi, o'qituvchi kompetensiyasi, ta'lim sifati, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития методической подготовки учителей биологии. Освещены педагогические и психологические условия формирования профессиональной компетентности, современные требования к деятельности учителя, а также пути совершенствования методического обеспечения образовательного процесса.

Ключевые слова: методическая подготовка, преподавание биологии, профессиональная компетентность, качество образования, педагогические инновации.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing methodological training for biology teachers. It discusses the pedagogical and psychological conditions for forming professional competence, modern requirements for teachers, and ways to improve the methodological support system in biological education.

Keywords: methodological training, biology education, teacher competence, education quality, pedagogical innovations.

Zamonaviy ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchisi shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchining tafakkurini, tahliliy fikrlashini, ekologik madaniyatini va ilmiy dunyoqarashini shakllantiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, biologiya o'qituvchisining metodik tayyorgarligi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Metodik tayyorgarlik bu o'qituvchining o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, darsni maqsadga muvofiq rejalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, nazorat va tahlil faoliyatini olib borish malakasidir. Bugungi kunda ushbu tayyorgarlikni rivojlantirish uchun samarali shart-sharoitlar yaratish, o'qituvchining kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va uning uzluksiz ta'limini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Metodik tayyorgarlik tushunchasi va uning ahamiyati

Biologiya fani o'qituvchisining metodik tayyorgarligi bu kasbiy faoliyatning poydevori bo'lib, u o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va pedagogik mahoratining uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Ushbu tayyorgarlik o'qituvchiga o'quv jarayonini samarali boshqarish, fanning mazmunini o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish, o'quvchilarda biologik tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.

Metodik tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Pedagogik tayyorgarlik o'qituvchining didaktik, tarbiyaviy, kommunikativ va psixologik malakalari; Fan sohasidagi tayyorgarlik – biologiya bo'yicha chuqur ilmiy bilimlar; Amaliy tayyorgarlik tajribalar o'tkazish, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish, kuzatuvlar olib borish qobiliyati; Tahliliy tayyorgarlik o'quvchilar natijalarini tahlil qilish va dars sifatini baholash ko'nikmasi.

Metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Biologiya o'qituvchilari uchun metodik tayyorgarlikni samarali rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

Ta’lim muassasasida ilmiy-metodik muhitning mavjudligi. O’qituvchi uchun ilg‘or tajriba almashish, metodik kengashlarda ishtirok etish, innovatsion yondashuvlarni muhokama qilish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

Malaka oshirish tizimining takomillashuvi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlarini (seminarlar, onlayn kurslar, ilmiy amaliyotlar) joriy etish o‘qituvchining metodik salohiyatini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Biologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar o‘qituvchining dars samaradorligini sezilarli oshiradi.

Metodik hamkorlik va tajriba almashish.

Kollektivda o‘zaro tajriba o‘rganish, “mentorlik” tizimi orqali yosh o‘qituvchilarga yordam berish kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi.

Psixologik va motivatsion omillar. Metodik tayyorgarlik faqat nazariy va amaliy jarayon emas, balki shaxsiy motivatsiya bilan chambarchas bog‘liqdir. O’qituvchi o‘z faoliyatidan ma’naviy qoniqish olgan taqdirdagina kasbiy jihatdan o‘sadi. Shuning uchun: ijobiy psixologik muhit yaratish, kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish, pedagogik refleksiya ko‘nikmasini shakllantirish muhim.

Biologiya ta’limida metodik yangilanishlar. Bugungi kunda biologiya ta’limida quyidagi yo‘nalishlarda metodik yangilanishlar amalga oshirilmoqda: muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari; ekologik va sog‘lom turmush tarzi kompetensiyalarini shakllantirish; laboratoriya va tajriba mashg‘ulotlarida eksperimentlarga asoslangan o‘qitish; milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan dars modellari.

O’qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish sharoitlari

O’qituvchi o‘zining metodik salohiyatini muntazam oshirib borishi uchun quyidagi shartlar zarur: ilmiy tadqiqot faoliyatida ishtirok etish; o‘z faniga oid yangi adabiyotlarni muntazam o‘rganish; xalqaro tajriba va metodik tavsiyalarni tahlil qilish; o‘z darslarini tahlil qilib, o‘zini baholash.

Metodik tayyorgarlikni baholash mezonlari O’qituvchining metodik tayyorgarlik darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi: darsni rejalashtirish va tashkil etish sifati; o‘quvchilarda fan kompetensiyalarini shakllantirish darajasi; fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash qobiliyati; o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish.

Biologiya fani o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish bu ta’lim sifatini oshirishning, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning eng muhim omilidir. O’qituvchi o‘z faoliyatida metodik yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘z ustida ishlashi, ilmiy tafakkurini doimiy rivojlantirib borishi zarur. Shu tarzda ta’lim tizimida zamonaviy, ijodkor, metodik jihatdan yetuk biologiya o‘qituvchilari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2023.
2. Qodirov R., “Biologiya ta’limining metodik asoslari”, Toshkent, 2022.
3. Karimova N., “Pedagogik mahorat va o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi”, Toshkent, 2021.
4. UNESCO. Improving Science Education through Teacher Professional Development, Paris, 2020.
5. Abdullaeva M. “Zamonaviy ta’limda biologiya fanining o‘rni va ahamiyati.” — Pedagogika va innovatsiyalar jurnali, №2, 2023.
6. Anderson R. & Krathwohl D. A taxonomy for learning, teaching and assessing. — New York: Longman, 2001.

TABIIY FANLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITNING O'RNI VA AHAMIYATI

Mullajonova Gullola Abduxalilovna
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy fanlarni rivojlantirish jarayonida innovatsion muhitning tutgan o'rni va ta'siri tahlil etilgan. Tabiiy fanlar — fizika, kimyo, biologiya, geografiya kabi sohalar zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining asosi bo'lib, ularning rivoji bevosita texnologik yangilanishlar va innovatsion yondashuvlarning ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot amaliyotiga tatbiq etilishi bilan bog'liq. Tadqiqot davomida innovatsion muhitning ilmiy kashfiyotlar, zamonaviy metodlar, virtual laboratoriyalar va STEAM yondashuvi orqali ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, tabiiy fanlar ta'limida o'quvchilarda ijodiy fikrlash va izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion muhit, tabiiy fanlar, STEAM, ilmiy izlanish, texnologik taraqqiyot, raqamli ta'lim, laboratoriya tajribasi.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль и значение инновационной среды в развитии естественных наук. Естественные науки — физика, химия, биология, география — являются основой современного научно-технического прогресса, и их развитие напрямую связано с внедрением технологических новшеств и инновационных подходов в образование и научно-исследовательскую деятельность. В исследовании раскрыта роль инновационной среды в повышении эффективности обучения посредством научных открытий, виртуальных лабораторий, современных методик и STEAM-подхода. Также обоснована актуальность формирования у учащихся творческого мышления и исследовательских навыков в процессе изучения естественных наук.

Ключевые слова: инновационная среда, естественные науки, STEAM, научное исследование, технологический прогресс, цифровое обучение, лабораторные эксперименты.

Abstract. This article analyzes the role and significance of an innovative environment in the development of natural sciences. Natural sciences — such as physics, chemistry, biology, and geography — form the foundation of modern scientific and technological progress, and their development is directly linked to the integration of technological innovations and modern approaches into education and scientific research. The study highlights the contribution of an innovative environment to enhancing educational efficiency through scientific discoveries, virtual laboratories, updated methodologies, and the STEAM approach. The importance of developing students' creative thinking and research skills in the teaching of natural sciences is also emphasized.

Key words: innovative environment, natural sciences, STEAM, scientific research, technological development, digital education, laboratory experiment.

Kirish. Tabiiy fanlar — insoniyat taraqqiyotining eng muhim intellektual poydevori bo'lib, ular fan-texnika rivoji, ilmiy kashfiyotlar, tibbiyot, energetika, ekologiya, texnologik yangilanishlar va global muammolarni hal etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda iqtisodiy raqobatbardoshlik, milliy xavfsizlik, texnologik mustaqillik kabi omillar ham aynan tabiiy fanlar rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lib bormoqda.

XXI asr ta'limi endi faqat bilim berishga emas, balki ilmiy fikrlovchi, izlanishga qodir, kashfiyotga yo'naltirilgan shaxsni tayyorlashga yo'naltirilgan. Shu bois tabiiy fanlarni an'anaviy usullarda emas, balki innovatsion muhit asosida qayta tashkil etish zaruriyati kuchaymoqda. Innovatsion muhit — bu ilm-fan, ta'lim, texnologiya va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiya yaratiladigan, yangiliklarni vujudga keltirish va joriy etishga sharoit yaratadigan tizimdir.

- O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda tabiiy fanlarni rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar, qarorlar, texnoparklar, ilg'or laboratoriyalar, STEAM markazlar tashkil etilmoqda. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud innovatsion imkoniyatlar hali to'liq ishlamagan, tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim jarayoni ko'proq nazariy yo'nalishda qolmoqda, o'quvchilarda ilmiy izlanish, tajriba olib borish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan.

Shu sababli, tabiiy fanlarni innovatsion muhit sharoitida rivojlantirish, ta’limni ilmiy izlanishga asoslash, o‘quvchi va talabalarni amaliyotga yo‘naltirish bugungi kun ta’lim metodologiyasining markazida turishi lozim.

Innovatsion muhit tushunchasi va uning xususiyatlari

Innovatsion muhit — bu yangi g‘oyalar, texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar va tajriba natijalarining yaratilishi hamda hayotga tadbiq etilishini ta’minlaydigan tashqi va ichki omillar tizimidir. Bunday muhitning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

- tezkor yangilanish va rivojlanish;
- raqobatbardoshlikni ta’minlash;
- yangi g‘oyalarga ochiqlik va kreativlik;
- fan–ta’lim–ishlab chiqarish integratsiyasi;
- ilmiy tadqiqotlarga qulay sharoit yaratish.

Innovatsion muhitning ta’limdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- yangi texnologiyalar va laboratoriyalarni joriy etish;
- pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish;
- o‘quvchilarda ilmiy fikrlashni shakllantirish;
- amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalar orqali real tajriba berish.

Innovatsion muhitning tabiiy fanlarga ta’siri

Innovatsion muhit tabiiy fanlarning rivojlanishiga bir nechta yo‘nalishlarda kuchli ta’sir ko‘rsatadi:

Ilmiy-tadqiqot imkoniyatlarini kengaytiradi – zamonaviy laboratoriyalar, texnopark va startap markazlar tashkil etiladi.

Texnologik taraqqiyotni tezlashtiradi – nanofizika, biotexnologiya, gen muhandisligi kabi yo‘nalishlar rivojlanadi.

Fanlararo integratsiyani kuchaytiradi – biologiya + informatika (bioinformatika), fizika + muhandislik (robototexnika).

Ta’lim sifatini oshiradi – virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyalar, AR/VR texnologiyalar qo‘llaniladi.

Investitsiyalarni jalb etadi – innovatsion loyihalar orqali davlat va xususiy sektor mablag‘i yo‘naltiriladi.

Ijodkorlikni rivojlantiradi – o‘quvchilar nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lab, yangi g‘oyalar ishlab chiqadilar.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion usullar

Tabiiy fanlarda quyidagi innovatsion pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Innovatsion usul	Mazmuni	Natijasi
Interfaol metodlar	“Aqliy hujum”, munozara, guruhli ish	Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi
Loyiha asosida o‘qitish	Tajriba, laboratoriya ishlari, tadqiqot loyihalari	Amaliy ko‘nikma hosil bo‘ladi
STEAM yondashuvi	Fan + texnologiya + muhandislik + san’at + matematika	Fanlararo tafakkur rivojlanadi
AKT vositalari	Virtual laboratoriya, animatsiya, simulyator	Tajribani xavfsiz va aniq bajarish imkoniyati
O’yinli metodlar	Krossvord, viktorina, ilmiy kvest	Fanga qiziqish ortadi

1-jadval

Tabiiy fanlarda ijodiy va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Innovatsion ta’lim muhiti o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- tadqiqot olib borish

- tajriba natijasini tahlil qilish
- ilmiy izoh berish va xulosa chiqarish
- noan’anaviy yechim topish
- jamoada ishlash va taqdimot qilish

Bu jarayon natijasida o‘quvchi iste’molchi emas, ilmiy fikrlovchi shaxsga aylanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlar rivoji innovatsion muhit bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Innovatsion yondashuvlar ta’lim tizimiga nafaqat zamonaviy usullarni, balki ilmiy kashfiyotlarga tayyor bo‘lgan shaxsni shakllantirish mexanizmini olib kiradi. Innovatsion muhit mavjud bo‘lgan ta’lim tizimida:

- tabiiy fanlar nazariy fan emas, tajriba va izlanishga asoslangan faoliyatga aylanadi;
- o‘quvchilar “bilim oluvchi” emas, “kashf qiluvchi va tahlil qiluvchi” subyekt darajasiga ko‘tariladi;
- fan-texnika taraqqiyotiga real hissa qo‘sha oladigan kadrlar yetishib chiqadi;
- davlatning ilmiy-texnik salohiyati ortadi va milliy raqobatbardoshlik kuchayadi.

Demak, tabiiy fanlarni rivojlantirish — bu faqat o‘quv dasturini yangilash emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi innovatsion muhit yaratish demakdir. Shu sababli, ta’lim muassasalarida laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, STEAM markazlari ochish, loyiha va tadqiqot faoliyatini majburiy komponent sifatida kiritish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, ilmiy mentorlik tizimini joriy etish zarur.

Tabiiy fanlarning innovatsion asosda rivojlanishi — O’zbekistonning kelajakdagi ilmiy, texnologik va iqtisodiy taraqqiyoti uchun strategik garov hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Pedagogika va psixologiya asoslari”. — Oliy ta’lim vazirligi nashri.
2. “Umumiy va ijtimoiy pedagogika”. — Toshkent, 2021.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va innovatsiyalar bo‘yicha qarorlari.
4. STEAM ta’limi bo‘yicha xalqaro ilmiy maqolalar to‘plami.
5. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti: www.uzedu.uz
6. Innovatsion ta’lim metodlari bo‘yicha xorijiy ilmiy manbalar.

O‘QUVCHILARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.

Norbekov Doston Keldibekovich
Jizzax viloyati pedagogik mahorat merkazi katta o‘qituvchisi
Tel:+998943418525
e-mail: norbekovdoston@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab ta’limida o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya (AK) va kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha zamonaviy metodologik yondashuvlarni tahlil qiladi. Maqolada nazariy asoslar, samarali o‘qitish uslublari, dars rejalashtirish bo‘yicha tavsiyalar va baholash mexanizmlari keltiriladi. Shuningdek, dars jarayonida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, muammoli va loyiha asosida ta’lim, hamkorlik va baholashning roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi, kognitiv kompetensiya, raqamli ta’lim, loyihaviy yondashuv, muammoli ta’lim, baholash.

Аннотаци: В данной научной статье рассматриваются современные методологические подходы к формированию информационно-коммуникационных и когнитивных компетенций у учащихся. Анализируются особенности цифровой образовательной среды, влияние интерактивных технологий на развитие критического мышления, творческой деятельности и навыков работы с информацией. Особое внимание уделено интеграции проектного обучения, проблемного подхода, геймификации и цифровых ресурсов в учебный процесс. Исследование подчёркивает

важность формирования метакогнитивных навыков, учащихся и системной организации оценивания для повышения качества образования.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные компетенции; когнитивные компетенции; цифровая педагогика; цифровая образовательная среда; проектный метод; геймификация; критическое мышление; метакогнитивные навыки; интерактивные технологии.

Kirish.

XXI asrda ta’limning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda ma’lumotni izlash, tahlil qilish, samarali aloqa o‘rnatish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari (digital literacy, ICT skills) va kognitiv kompetensiyalar (tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, yaratuvchanlik, metakognitsiya) ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Maktab ta’limida ushbu kompetensiyalarni sistematik ravishda rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlarni yangilash va amaliyotga joriy etish zarur.

Maqolaning maqsadi — o‘quvchilarda AK va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy metodologik yondashuvlarni tizimli bayon etish va o‘qituvchilarga amaliy ko‘rsatmalar berish.

Nazariy asoslarga qisqacha sharh

Axborot-kommunikatsiya va kognitiv kompetensiyalarning rivojlanishi pedagogika, psixologiya va media-ta’lim sohalarining kesishmasida joylashadi. Kognitiv yondashuv (Piaget, Vygotsky g‘oyalari asosida), konstruktivizm, sotsial-konstruktivizm va ko‘pintizimli ko‘nikmalar (21st century skills) ramkasi bu mavzuda ishlash uchun nazariy poydevor hisoblanadi. Ta’lim jarayonida interaktivlik, hamkorlik va faol o‘rganishga asoslangan metodlar — samarali hisoblanadi.

Metodologik yondashuvlar va usullar

Quyida AK va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy zamonaviy pedagogik yondashuvlar keltirilgan.

1. Loyihaviy yondashuv (Project-Based Learning)

Loyihaviy ta’lim o‘quvchilarni real hayotga yaqin vazifalarni bajarishga jalb qiladi. Loyihalar axborotni qidirish, tahlil qilish, guruh ichida kommunikatsiya va natija taqdimoti orqali kognitiv va AK ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘qituvchining roli — yo‘naltiruvchi va baholovchi.

Amaliy tavsiya: Mavzuni kichik bosqichlarga bo‘lib, har bosqich uchun aniq baholash mezonlarini belgilang (rubrikalar).

2. Muammoli va masalaga yo‘naltirilgan ta’lim (Problem-Based Learning)

Muammoli yondashuv o‘quvchilarga murakkab savollar yoki real muammolarni beradi. Ular mustaqil yoki guruhda echim izlab, fikrlash texnikalarini (tahlil, sintez, baholash) qo‘llaydi.

Amaliy tavsiya: Muammolarni kontekstga bog‘lang (mahalliy yoki ijtimoiy muammolar) va o‘quvchilarga kerakli axborot manbalarini taqdim eting.

3. Flipped classroom (teskari dars) va blended learning

Nazariy materialni uyga videodars yoki interaktiv material orqali berib, dars vaqtida muammolarni muhokama qilish, amaliy mashqlar va loyihalar ustida ishlash mumkin. Bu o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish va axborotni boshqarish ko‘nikmalarini oshiradi.

Amaliy tavsiya: Videolar 6–12 daqiqadan oshmasin; dars oldi vazifalarini kichik test yoki refleksiya bilan bog‘lang.

4. Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar

O‘yin elementlari (ballar, badges, qiyinchilik darajalari) motivatsiyani oshiradi. Simulyatsiyalar va ta’limiy o‘yinlar murakkab kognitiv jarayonlarni mashq qilishga yordam beradi.

Amaliy tavsiya: O‘yin vazifalari o‘quv maqsadlariga bog‘langan bo‘lsin va baholash tizimi mavjud bo‘lsin.

5. Kompyuter bilan qo‘llab-quvvatlangan hamkorlik (CSCL)

Onlayn platformalarda guruh ishlarini tashkil etish (forumlar, viki, hamkorlikdagi hujjatlar) kommunikatsiya va mas’uliyatni oshiradi. Bu usul o‘quvchilarning yozma va og‘zaki axborot-kommunikatsiya ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Amaliy tavsiya: Guruh rol va vazifalarini oldindan belgilab qo‘ying; baholashda ham jamoaviy, ham individual komponent bo‘lsin.

6. Metakognitiv strategiyalar va refleksiya

O‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonini nazorat qilish, maqsad qo‘yish va o‘z-o‘zini baholashni o‘rgatish kognitiv kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Reflektiv kundalik yoki portfoliolar yordam beradi.

Amaliy tavsiya: Haftalik refleksiya savollari (nima o‘rgandim, qiyin jihatlar, keyingi qadamlar) qo‘llanishi kerak.

7. Raqamli vositalar va resurslar integratsiyasi

Axborot qidirish (qidiruv tizimlari), ma’lumotlarni baholash (manba ishonchliligi), multimediya yaratish (prezentatsiya, video), va kodlash asoslarini o‘rganish AKni rivojlantiradi. Shuningdek, vizualizatsiya vositalari (diagrammalar, infografika) kognitiv yukni kamaytiradi va tushunishni osonlashtiradi.

Amaliy tavsiya: Darslarda ochiq ta’lim resurslari (OER), interaktiv veb-ilovalar va sinf ichidagi texnologiyalarni (tablet, interfaol doska) kombinatsiyalash.

8. Formativ baholash va rubrikalar

Davriy formativ baholash o‘quvchilarning rivojlanishini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Rubrikalar esa aniq mezonlarni belgilab, o‘quvchilarga nimaga erishish kerakligini ko‘rsatadi.

Amaliy tavsiya: Baholash natijalarini o‘quvchilarga tez va konstruktiv tarzda qayta aloqa qilib bering.

Amaliy modul: dars namunasi (misol)

Mavzu: Mahalliy ekologik muammoni axborot manbalari asosida tahlil qilish (9-sinf)

Ma’ruza oldi vazifasi: O‘quvchilar qisqa video va tanlangan maqolalarni tomosha qilib, asosiy ma’lumotlarni yozib kelsin.

Dars davomida:

1. Guruhlarga bo‘linish va muammoni aniqlash.
2. Axborot manbalarini baholash (isботлиlik, mualliflik, sana).
3. Data vizualizatsiya — olingan ma’lumotlardan grafik yoki infografika yaratish (onlayn vositalar yordamida).
4. Loyihani taqdim etish va muhokama.
5. Refleksiya: har bir o‘quvchi 3 narsani yozsin — nimalarni o‘rgandim, qaysi qiyinchilik bo‘ldi, keyingi qadam?

Baholash: Rubrika asosida (manba tanlovi, tahlil chuqurligi, vizualizatsiya sifati, jamoaviy ish).

Kutilayotgan natijalar va baholash

Ushbu metodologiyalar qo‘llanganda o‘quvchilarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin:

Axborotni tanlash va baholash ko‘nikmalari yaxshilanishi.

Muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash darajasi ortishi.

Raqamli kommunikatsiya (online hamkorlik, elektron prezentatsiya) qobiliyati oshishi.

Mustaqil o‘rganish va metakognitiv nazorat (o‘zini baholash) ko‘nikmalari rivojlanishi.

Baholash uchun formativ va summativ usullar kombinatsiyasidan foydalanish tavsiya etiladi: portfoliolar, loyihalar, taqdimotlar, shuningdek standart testlar.

Munozara

Metodologik yondashuvlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish bir qator omillarga bog‘liq: o‘qituvchilarning malakasi, maktabning infratuzilmasi, o‘quv dasturi moslashuvi va

o‘quvchilarning boshlang‘ich darajasi. Shuningdek, raqamli tengsizlik (digital divide) va axborot manbalarining noto‘g‘ri ishlatilishi xavfi mavjud. Shu sababli, metodlarni joriy etishda maktab, ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik muhim.

Xulosa va tavsiyalar

O‘quvchilarda axborot-kommunikatsiya va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ta’lim jarayonining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, mavjud axborotni tanqidiy tahlil qilish, muammolarga ijodiy yondashish va samarali kommunikatsiya olib borish qobiliyatlari nafaqat ta’lim jarayonida, balki real hayotda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirishi, dars jarayoniga integratsiya qilishi va har bir o‘quvchining individual o‘sishiga ko‘maklashishi zarur.

Ta’limning mazkur yo‘nalishda samarali bo‘lishi bir qator omillarga bog‘liq. Avvalo, darslarda loyihaviy yondashuv, muammoli ta’lim, gamifikatsiya va teskari sinf kabi metodlarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning faol qatnashuviga imkon yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini izchil rivojlantiradi. Raqamli resurslardan maqsadli foydalanish, masalan, interaktiv platformalar, vizualizatsiya vositalari, hamkorlikdagi hujjatlar va ochiq ta’lim manbalari dars samaradorligini yanada oshiradi.

Shuningdek, o‘quvchilarning metakognitiv kompetensiyalarini shakllantirish ham juda muhim. O‘z-o‘zini baholash, o‘rganish jarayonini rejalashtirish, yakuniy natijani tahlil qilish va refleksiya yuritish kabi faoliyatlar o‘quvchining ongli va mas’uliyatli ta’lim jarayonini yo‘lga qo‘yishiga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchining vazifasi shunchaki bilim berish emas, balki o‘quvchiga yo‘l ko‘rsatish, uning fikrlash jarayonini faollashtirish, mustaqil izlanishga ilhomlantirishdan iborat.

Baholash tizimi esa barcha jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchi rivojlanishini tizimli ravishda kuzatish, kamchiliklar va yutuqlarni aniqlash imkonini beradi. Rubrikalar, portfoliolar, amaliy loyihalar va muntazam ravishda beriladigan formativ baholash qayta aloqa orqali o‘quvchilarni rivojlanishga undaydi.

Umuman olganda, zamonaviy ta’limda o‘quvchilarda AK va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish uzluksiz rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi samarali hamkorlik orqali eng yuqori natija beradi. Yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi va puxta amalga oshirilishi o‘quvchilarni kelajak kasbiy faoliyati va hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Jo‘rayev, R. (2020). Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Jo‘rayeva, M. (2021). Axborot texnologiyalari va ta’lim metodlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Axmedov, B. (2019). Kognitiv rivojlanish psixologiyasi. Toshkent: Innovatsiya.
4. Raximova, N. (2022). Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish metodikasi. Samarqand: SamDU matbuot.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ergasheva Nigora Erkinovna
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Telefon: +998975240075
E-mail: nigora1ergasheva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darsliklarini takomillashtirishda xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktab darsliklarining tahlili orqali o‘quvchilarda mustahkam matematik bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, matematika, darslik, xorijiy tajriba, o‘qitish metodikasi, ta’lim sifatini oshirish.

Аннотации: В статье рассматриваются вопросы изучения зарубежного опыта совершенствования учебников математики для начальной школы и их адаптации к отечественной системе образования. Также даются рекомендации по формированию прочных математических знаний и практических навыков учащихся на основе анализа школьных учебников

Ключевые слова: начальное образование, математика, учебник, зарубежный опыт, методика преподавания, повышение качества образования

Abstract: This article examines international experience in improving primary school mathematics textbooks and adapting them to the domestic education system. Recommendations are also provided for developing students’ strong mathematical knowledge and practical skills based on an analysis of school textbooks.

Keywords: primary education, mathematics, textbook, international experience, teaching methods, improving the quality of education

Kirish. So‘nggi yillarda ilm-fan sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy qilish, fanni amaliy jihatdan mustahkamlash, yangi ilmiy muassasalar va yo‘nalishlarni tashkil etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O’zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi”. Yoshlarda matematika faniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, iqtidorli bolalarni saralab olish, ixtisoslashtirilgan maktablar va keyinchalik oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish, mazkur fandan yanada qiziqarli hamda mantiqiy fikrlashga undaydigan, fanni hayotga bog‘lagan holda o‘rgatadigan, oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, matematik ongni, kerak bo‘lsa, bog‘chadan boshlab shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Matematika fanini o‘qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili. Barchamizga ma’lumki, matematika fani insonning aqlini o‘stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘zida qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, o‘zidagi algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va eng muhimi, uning tafakkuri kengayadi. Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tassavur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat-umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialni takomillashtirish mamlakat iqtisodiy o‘sishining eng muhim omillari hisoblanmoqda. Mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlari uchun dolzarbdir

Respublikamizda ta’lim tizimini yanada isloh qilish va uni rivojlantirish uchun jahon hamjamiyati namunalarini tahlil qilish va uni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kundagi o‘quv dasturi yosh avlodga uzluksiz ta’lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta’lim tizimi hisoblanadi. Ta’lim tizimining har bir bo‘g‘ini alohida o‘ringa ega. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim mazkur tizimning muhim poydevori hisoblanadi. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi. Shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O’qituvchi darsda yuzaga kelgan masalaning mazkur o‘quv vaziyati uchun eng samarali yechimini tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha ilmiy va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflarda matematika fanini samarali o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu bosqich o‘quvchining tafakkuri, mantiqiy fikrlash qobiliyati va asosiy ilmiy ko‘nikmalarining shakllanish davridir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki,

rivojlangan davlatlar boshlang‘ich ta’limda matematikani o‘qitishga katta e’tibor qaratib, darsliklar mazmunini ilmiylik, soddalik va amaliylik prinsiplari asosida ishlab chiqadilar. Shu bois, O’zbekiston ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy darsliklarga integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Muhokama. Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida dars sifatini yaxshilash, jahon standartlariga javob bera oladigan bilimli, raqobatlasha oladigan o‘quvchilarni tarbiyalash bugungi kunning yetakchi vazifalaridan biridir. Bu borada xorij tajribasiga murojaat qilish asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodiy faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish, shu bilan birgalikda innovatsion ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy mamlakatlar qatoriga yetkazish, yoshlar bilimini xorijiy mezonlar, xorijiy tajriba hamda xorijiy talablar asosida baholash, shu yo‘lda xorijiy tajribalarni o‘rganish va shu asosida xorijiy mamlakatlarda mavjud bo‘lgan tizimni o‘rganish, ularda mavjud bo‘lgan ta’lim muassasalari bilan tanishish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

O’zbekiston Respublikasida „Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori imzolanib, uni amalaga oshirish borasida chora-tadbirlar ko‘rish kuchayib bormoqda. Xalqaro tadqiqotlar quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha olib boriladi:

1. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) –4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun.

2. The Programme for International Student Assessment (PISA) –15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun.

3. The Teaching and Learning International Survey (TALIS) –rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun.

Mamlakatimizda matematika sohasida xorij tajribalarini tadqiq etish ishlari jadal ravishda olib borilmoqda. O’quvchilardagi matematik savodxonlikni oshirish va uni xalqaro tadqiqotlar yordamida baholash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy tajribalarga ko‘ra maktablarda “STEAM – ta’lim” dasturini joriy etish o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, STEAM fanlarining hamda boshqa predmetlarning integratsiyasini ikkita yo‘nalishda amalga oshirish tavsiya etiladi:

-matematika darslarida amaliy-tatbiqiy masalalarni yechish;

-fanlararo loiyhalarni bajarish.

Bunda amaliy-tatbiqiy muammo mohiyatini tushunish va uni tezkor ravishda yechish, matematika yordamida modellashtirish, kompyuter va boshqa vositalardan samarali foydalanish kabi amaliy kompetensiyalar rivojlanadi.

Maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasi imkoniyati o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillar o‘rganiladi.

1. Xorijiy tajribalarni o‘rganishning ahamiyati. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarini takomillashtirish uchun Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya va Estoniya kabi ilg‘or ta’lim tizimiga ega davlatlar tajribasini o‘rganish foydalidir. Ushbu mamlakatlarda:

• Darsliklar vizual materiallarga boy;

• Amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratiladi;

• Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar keng qo‘llaniladi;

• O’quvchilarni izlanishga undovchi topshiriqlar beriladi. Masalan, Singapur darsliklarida "matematik model" konsepsiyasi asosida mavzular bayon qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning faqatgina masala yechish emas, balki fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

2. O’zbekiston darsliklarining mavjud holati. Hozirgi vaqtda O’zbekistonda foydalanilayotgan 1-4-sinf matematika darsliklari zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilmoqda. Biroq, ayrim jihatlar, jumladan:

•Masalalarning hayotiyligi yetarli darajada ta’minlanmagan;

•Mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar kam;

•O’quvchilarning differensial yondashuvga asoslangan rivojlanishi e’tibordan chetda qolgan. Bu muammolarni bartaraf etishda xorijiy tajribalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

3. Taklif va tavsiyalar Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarini takomillashtirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq:

• Tahliliy moslashtirish: Xorijiy darsliklar mazmunini milliy kontekstga moslashtirish orqali foydali usullarni qamrab olish.

• Hayotiylikni oshirish: Masalalar real hayotiy vaziyatlar asosida tuzilishi kerak (bozor, uy-ro‘zg‘or, transport, tabiat holatlari va boshqalar).

• O’yinli yondashuv: O’yinlar, mavzuli krossvordlar va mantiqiy mashqlar orqali darslar qiziqarli va samarali bo‘lishi ta’minlanadi.

• Texnologik integratsiya: Darsliklarga QR-kodlar orqali interaktiv topshiriqlar, animatsiyalar va video-darslar havolalarini kiritish.

Rivojlangan davlatlar (Finlandiya, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya) boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning amaliy fikrlashi, ijodkorligi va mustaqil yechim topish qobiliyatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi.

NATIJALAR. Xorijiy tajribalar dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

a) o‘quv dasturini boyitish. Xorijiy o‘quv dasturlaridan muvaffaqiyatli metod va mashqlarni tanlab olib, milliy dasturga moslashtirish. Masalan, Singapur metodikasidagi “visual-model method” (ko‘rgazmali model asosida yechim topish)ni joriy etish.

b) o‘qituvchilarning malakasini oshirish. O’qituvchilar uchun xorijiy tajribalarni o‘rganishga qaratilgan malaka oshirish kurslari va vebinarlar tashkil etish. Onlayn platformalar orqali xalqaro treninglar, ochiq darslar va masterklasslarda ishtirokni yo‘lga qo‘yish.

c) texnologiyalardan foydalanish. Xorijiy darsliklarda keng qo‘llaniladigan raqamli ilovalar (Khan Academy Kids, Prodigy Math, Mathletics)ni milliy dars jarayoniga integratsiya qilish. Multimediali darslar, animatsiyalar, o‘yin elementlaridan foydalanish orqali bolalarning motivatsiyasini oshirish.

d) o‘quvchilarni faol ishtirok ettirish Yevropa tajribasiga ko‘ra, guruhlarda ishlash, loyiha asosidagi yondashuv, real hayotiy masalalar yechimini topishga qaratilgan topshiriqlar samarali natija beradi. Shuningdek, baholash tizimida formative (rivojlantiruvchi) yondashuvni kengroq tatbiq etish mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, matematika faqat hisob-kitob uchun o‘rganilmaydi. Matematika-yechimlarni mantiqiy hal qilish, tahlil qilish, asosli fikrlash, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘rgatiladi. U chuqur tahliliy mashqlarni, masalalarni yechishga o‘rgatadi. Bu esa faqat darslik orqali emas, balki ularning sifatli va zamon talablariga mos tuzilgan bo‘lishi orqali amalga oshadi.

Xorijiy tajribalarni boshlang‘ich sinf matematika darsliklariga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda mustahkam bilim, amaliy ko‘nikma va ijodiy fikrlashni shakllantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan darsliklar orqali o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini oshirish va ularni mustaqil o‘rganishga undash mumkin. Shuningdek, ilg‘or xorijiy davlatlarda ta’lim-tarbiya tizimida qo‘llanilib, yaxshi natijalar olish imkoniyatini bergan zamonaviy ta’lim berish majburiyatlaridan unumli foydalanish metodlarini ishlab chiqish va o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv jarayoniga uni joriy etishda qanday natijalarga erishamiz? Ushbu yechimni topishga qo‘yilgan maqsadlar, uzluksiz ta’limda faoliyat olib borayotgan har bir ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadigan tarbiyachi, fan

o‘qituvchiari va pedagog olimlar oldidagi eng dolzarb vazifadir. Bu dolzarb vazifalarning yechimini topish va so‘zsiz uzluksiz ta’lim tizimida farzandlarimizni aql-zakovat va ilm ziyosi bilan ta’minlab ularni bilimli va ma’naviyatli kadrlar sifatida shakllantirayotgan pedagog, o‘qituvchilar va tarbiyachilarning kompetentligiga bevosita bog‘liq. Bu vazifani o‘z sohasi bo‘yicha bilimdon va tajribali, to‘g‘ri mulohaza yurita oladigan, o‘zi dars beradigan sohasi bo‘yicha yuqori saviyali, o‘ziga va o‘qitadigan jarayoniga ta’lim-tarbiya berayotgan o‘quvchilariga nisbatan talabchan, ta’lim sifati hamda samaradorligiga, zamon talabiga asosan amalga oshiradigan layoqatli pedagoglar, o‘qituvchilar va tarbiyachilar amalga oshira oladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, yangilanayotgan darsliklar va boshqa o‘quv materiallari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlar esa mamlakatimizning ertangi istiqboli va taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son farmoni va uning 1-ilovasi.

2. Jumayev M. va boshqalar. “Boshlangich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” T-2005 y.

3. Saidova M.J. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2020.

4. “Zamonaviy darsliklar qanday bo‘lishi kerak?” Elektron manba. O’zbekiston Milliy axborot agentligi sayti: http://uza.uz/posts/208815

MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL METODLAR TASNIFI

Mamasoliyev Jasur Axmadaliyevich
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti.

Annotatsiya: Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning tahliliy, mantiqiy va darslarni integrativ modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ularning kompetensiyalari hamda shaxsiy sifat, fazilatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik jihatlarini o‘rganish, o‘quvchilarning zaruriy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, tafakkur, texnologiya, talab, yondashuv, bilim, tajriba, ta’lim, tarbiya, jarayon, darslik, mashg‘ulot.

Annotation: Today, it is of particular importance to clarify the pedagogical and psychological characteristics of the formation of analytical, logical and integrative modeling competencies of future teachers, to develop their competencies and personal qualities. The article discusses the study of the organizational and pedagogical aspects of preparing future teachers for professional practice, and the issues of forming the necessary competencies of students.

Keywords: Competence, mindset, technology, demand, approach, knowledge, experience, education, upbringing, process, textbook, training.

Аннотация: Сегодня особую значимость приобретает выяснение педагогических и психологических особенностей формирования аналитических, логических и интегративно-моделирующих компетенций будущих учителей, развитие их компетенций и личностных качеств. В статье рассматриваются вопросы изучения организационно-педагогических аспектов подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности, вопросы формирования необходимых компетенций у студентов.

Ключевые слова: Компетентность, образ мышления, технология, спрос, подход, знания, опыт, образование, воспитание, процесс, учебник, обучение.

Kirish. Mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligiga erishish orqali har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Chunki, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va innovasion texnologiyalardan keng va oqilona foydalangan holda uzviylikni ta’minlash ta’lim oluvchilarning fan asoslarini chuqur o‘rganishiga va o‘zlari ongli ravishda tanlagan kasb-hunar sirlarini mukammal egallashlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshishini ta’minlaydi. Shuningdek, axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil bilim olishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirgan holda, kundan-kunga axborotlar oqimi ortib borayotgan bir sharoitda ulardan to‘g‘ri va oqlona foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohatlarining asosiy maqsadi ham ana shularga erishishni ta’minlashdan iboratdir.

Tan olish kerak, bunga erishishda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, hozirgi kun o‘qituvchilari o‘z kasbi nazariy asoslarini chuqur egallagan bo‘lishi bilan bir qatorda o‘z pedagogik faoliyatlari jarayonida innovasion texnologiyalar va interfaol metodlar bilan yetarli darajada tanishgan bo‘lishi hamda ulardan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda unumli foydalana olish uchun malaka va ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi ham talab etiladi.

Asosiy qism. Ma’lumki, an’anaviy ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarga bilim berishda o‘qituvchi bilimlar manbai bo‘lib xizmat qilgan. O’z davrida bu yo‘l bilan ham malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlari yetarli bo‘lgan. Nega-ki, u davrda: birinchidan, kundalik axborotlar oqimi yuqori bo‘lmagan; ikkinchidan, ishlab chiqarishni olib qaraydigan bo‘lsak, bir kasb-hunarni yetarli darajada egallagan mutaxassis 20-30 yillab qiynalmasdan shu soha bo‘yicha kasbiy faoliyat yurita olgan. Chunki bu texnologiya 30-40 yildan keyin o‘z o‘rnini boshqa yangi texnologiyaga bo‘shatib bergan.

O’tgan asrning oxirlari, 21-asrning boshiga kelib, fan-texnika taraqqiyoti shu darajada jadallashdiki, natijada kechagi yangi deb atalgan texnologiya o‘rniga bugun undan mukammal va samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalar kirib kelmoqdaki, ular o‘z boshqaruvchisidan yangi bilimlarni egallashni talab qilmoqda. Shunday ekan, hozirgi kunda har bir o‘qituvchi o‘z ta’lim oluvchisini fundamental fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallashiga erishishi bilan bir qatorda ularda uzluksiz ravishda mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish talab etiladi. Demak, bugungi kun o‘qituvchisi ham, ta’lim oluvchisi ham ta’lim jarayonining sub’yektiga aylanishi davr talabi bo‘lib qoldi.

Bunga erishishning eng maqbul yo‘li – zamonaviy ta’lim metodlarini bevosita va bilvosita ta’lim jarayoniga to‘la tatbiq etish hisoblanib, bunda ta’limning zamonaviy metodlari hisoblangan interfaol metodlardan foydalaniladi.

“Inter faol” so‘zi inglizcha “inter” – “o‘zaro”, “act” – “harakat qilmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “birgalikda harakat qilmoq”, degan ma’no anglatadi.

Demak, yangi innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar yordamida pedagogik kadrlarni tayyorlashda ta’lim jarayonini tashkil etishda professor-o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyati orqaligina yuqorida ta’kidlangan ta’lim maqsadlariga erishish mumkinligi kafolatlanadi. Shu asosda tayyorlangan pedagogik kadrlar tomonidan umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etish:

- mashg‘ulot jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga intilishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi;

- ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan yangi bilimlarini ongli ravishda egallashlarini ta’minlaydi va pirovardida ularda o‘rganilayotgan fanga nisbatan doimiy motivatsiyani shakllanishiga olib keladi;

- o‘quvchlarning ongli ravishda kasb-hunar tanlashga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantiradi;

- tabaqalashtirilgan holda, yakka tartibda bilim berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Negaki, ongli ravishda kasb-hunar tanlash darajasiga erishgan ta’lim oluvchida o‘z bilimlarini yanada oshirishga bo‘lgan moyillik yuqori bo‘ladi;

Yuqoridagilarga erishish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yoki oliy ta’lim tizimiga tavakkalchilik asosida yoki faqatgina diplom uchun o‘qishga bo‘lgan intilishni so‘nishga olib keladi, natijada malakali kadrlar tayorlash imkoniyatlari kengayadi.

Klaster - bu “tutam”, “bog‘lam” degan ma’noni anglatib, u ma’lum bir mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir. Bunda, o‘rganilayotgan mavzu yoki ob’yekt to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarga tayangan holda ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan g‘oyalar yig‘iladi.

Ta’lim jarayonida klasterlardan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish ta’lim oluvchilarda bilimlarni faol egallashga bo‘lgan intilishlarini oshiradi va ularning o‘rganilayotgan yangi nazariy yoki amaliy materiallar bo‘yicha egallagan bilimlarini erkin namoyon etishga yordam beradi.

Matematika fanini o‘qitish jarayonida “Klaster” metodidan foydalanish ta’lim oluvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutib, u ta’lim oluvchilarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikr yuritishiga yordam beradi.

Xulosa. Yuqoridagilarga amal qilgan holda ta’lim tizim muammolarini hal qilish kelgusida bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozoridagi raqobatga bardosh bergan holda u yerdan o‘ziga munosib ishchi o‘rnini egallay oladigan raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini oshiradi.

“Innovatsion texnologiya” lar ta’lim oluvchilarning ham, o‘qituvchining ham ichki imkoniyatlarini bir xilda qamrab oladi. Ya’ni ta’lim oluvchilarning fikrlashi, intellektual qobiliyati, shaxsiy intilishlar va boshqalarni shuningdek, o‘qituvchining ta’lim oluvchilarga o‘zaro ta’sir etish usullari, o‘z faoliyatini tashkil etish uslubi, kasbiy xulq-atvori, kasbiy-nazariy tayyorgarligi va boshqalar o‘zaro keng qamrovli bog‘liq bo‘ladi hamda bunday texnologiyalar shaxsga yo‘naltiruvchi hisoblanadi.

Bunday texnologiyada ta’lim oluvchi va o‘qituvchi o‘quv-tarbiya jarayonining sub’yekti sifatida qaralib, ularning o‘zaro ta’sirni tashkil etish va o‘zaro harakat, o‘zaro yordam, ijodkorlik tamoyillari asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda bir xil mas’uliyat yuklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov, M., Tadjibaeva, Z. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.

2. Tadjixanova, D. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2015.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O’quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya markazi, 2021.

4. Qodirov A., Mavlonova R., Qurbonova M. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Azizxo‘jaeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: TDPU, 2010.

MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR HAMDA MILLIY TAJRIBALARNI UYG‘UNLASHTIRISH

Ismatov Utkir Rustamovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o‘qituvchisi
Telefon:+998(93) 230-24-33
E-mail: ismatovutkir89@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aniq fanlar, xususan matematika ta’limi sifatini oshirishda xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты изучения зарубежного передового опыта и его адаптации к отечественной системе образования в целях повышения качества образования в области естественных наук, в частности математики.

Abstract: The article examines the theoretical and practical aspects of studying international best practices and adapting them to the domestic education system in order to improve the quality of education in the natural sciences, particularly mathematics.

Kalit so‘zlar: matematika ta’limi, xorijiy tajriba, milliy ta’lim tizimi, innovatsion metod, raqamli ta’lim, kompetensiya, PISA, STEM.

Ключевые слова: математическое образование, зарубежный опыт, национальная система образования, инновационный метод, цифровое образование, компетентность, PISA, STEM.

Key words: mathematical education, international experience, national education system, innovative method, digital education, competence, PISA, STEM.

Kirish: Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanishi zarur. Xususan, matematika kabi aniq fanlarni o‘qitish jarayonida xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim jarayoniga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va matematika fanini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlarida bu yo‘nalish ustuvor deb belgilangan.

Asosiy qism (xorijiy tajribalar tahlili)

1. Finlandiya tajribasi: Finlandiyada ta’lim tizimi o‘quvchining ijodiy fikrlashiga asoslangan. Matematika o‘qitish jarayoni amaliy misollar orqali tushuntiriladi. O’qituvchining mustaqil metodik yondashuvi qo‘llab-quvvatlanadi.

2. Singapur modeli: Singapurda “Concrete - Pictorial - Abstract” modeli orqali matematika tushunchalari bosqichma-bosqich o‘rgatiladi. Bu metod o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

3. Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreyada matematika fani raqamli texnologiyalar bilan uyg‘un holda o‘qitiladi. Onlayn platformalar, sun’iy intellekt yordamida diagnostika testlari keng qo‘llanadi.

O’zbekiston ta’lim tizimidagi holat: O’zbekistonda matematika ta’limi so‘nggi yillarda sezilarli darajada yangilanmoqda. Xususan:

1. Yangi avlod darsliklari joriy etildi;
2. O’qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi;
3. PISA, TIMSS xalqaro baholash tizimlarida ishtirok etish boshlangan.

Yuqorida keltirilgan yangilanishlar albatta o‘z samarasini beradi, biroq, amaliyotda quyidagi muammolar hozirgacha saqlanib kelmoqda:

1. Metodik qo‘llanmalar yetishmasligi;
2. O’qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash malakasi pastligi;
3. O’quvchilarda motivatsiya va tahliliy fikrlashning sustligi.

Xorijiy va milliy tajribalarni uyg‘unlashtirish masalasining yechimlari quyidagicha:

1. **Integratsiyalashgan ta’lim modeli**: Matematika fanini informatika, fizika va iqtisod bilan integratsiya qilish (STEM).

Matematika fanini informatika, fizika va iqtisod bilan integratsiyalash - bu nafaqat bilimlarni uyg‘unlashtirish, balki o‘quvchilarning **ko‘p yo‘nalishli fikrlash** madaniyatini shakllantiradi.

2. **Raqamli platformalarni joriy etish**: “Khan Academy”, “Coursera”, “Mathematics Online Uzbekistan” kabi manbalarni o‘zbek tilida moslashtirish.

Raqamli ta’lim platformalarini o‘zbek tiliga moslashtirish - bu nafaqat tarjima loyihasi, balki **ta’lim falsafasini milliy sharoitga moslashtirish**dir. Bu jarayon orqali matematikani o‘qitish sifati oshadi, o‘qituvchilarning metodik salohiyati kuchayadi, o‘quvchilarning raqamli savodxonligi rivojlanadi

3. **Metodik innovatsiyalar**: Singapur modeli asosida o‘quvchilarni “masalani tasavvur qilish - tahlil qilish - yechish” bosqichlarida o‘qitish. Bunda o‘quvchilarda tushunchaga asoslangan tafakkur rivojlanadi, murakkab masalalarni vizual modellashtirish orqali oson tushunish, ijodiy va mustaqil yechim topish ko‘nikmasi shakllanadi, o‘qituvchi uchun diagnostik metodika sifatida qulay ya’ni o‘quvchi xatosi qaysi bosqichda sodir bo‘lganini aniqlash mumkin.

4. **Milliy o‘qituvchilar akademiyasi** tashkil etish, xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish. Buning natijasida ta’lim sifatida **barqaror o‘sish mexanizmi** yaratiladi, p**rofessional o‘sish zanjiri**: o‘qituvchi - mentor - trener - milliy ekspert, O’zbekiston o‘qituvchilari xalqaro **kompetensiya xaritasida** o‘z o‘rniga ega bo‘ladi

Xulosa: Matematika ta’limini rivojlantirish - bu faqat o‘quv dasturlarini yangilash emas, balki o‘qitish madaniyatini tubdan o‘zgartirish demakdir. Xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki milliy qadriyatlar, til, psixologik xususiyatlar va ijtimoiy ehtiyojlarga mos holda joriy etish samarali natija beradi.

O’zbekistonning ta’lim islohoti jarayonida xorijiy ilg‘or yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirish aniq fanlar sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ministry of Public Education of Uzbekistan (2021). *Matematika fanini rivojlantirish dasturi.* Tashkent.
2. UNESCO (2020). *Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education.* Paris: UNESCO.
3. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., et al. (2020). *TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science.*
4. World Bank (2022). *Education Modernization in Central Asia.* Washington, DC.
5. Karimov A. (2021). *Matematika ta’limini modernizatsiya qilishning metodik asoslari.* Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali.
6. Abdullayeva N. (2023). *Raqamli texnologiyalar asosida matematika o‘qitish tajribasi.* “Ta’lim va innovatsiya” jurnali.

MATEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARINI YECHISHDA MATEMATIK ANALIZ METODLARIDAN FOYDALANISH

Umarov Xabibullo Raxmatullayevich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
e-mail: umarovhr@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikadan olimpiada masalalarini yechishda matematik analizning ba’zi metodlaridan foydalanish usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: olimpiada masalalari, mantiqiy fikrlash, matematik analiz, differensial hisob, eng katta qiymat, eng kichik qiymat.

Аннотация: В статье рассматриваются использование некоторых методов решения олимпиадных задач по основ математического анализа. Некоторые задачи - подготовительного характера. Работа ориентируется на начинающего математика-студента первых курсов и ученика старших классов средней школы.

Ключевые слова: олимпийские проблемы, логическое мышление, математический анализ, дифференциальное исчисление, наибольшее значения, наименьшее значения.

Annotation: The article shows the use of some methods for solving Olympiad problems on the basics of mathematical analysis. Some of the tasks are preparatory. The work is focused on a beginning mathematician-student of the first year and a student of the upper secondary school.

Key words: Olympic problems, logical thinking, mathematical analysis, differential calculus, largest value, smallest value.

Kirish. Ta’lim muassasalarida matematika o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi yoshlarni vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma’naviy boylikka ega bo‘lish va mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ta’limning insonparvar bo‘lishiga erishish, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olib har bir jamiyat a’zosini mehnat faoliyati va kundalik hayoti uchun zarur matematik bilim, ko‘nikma va malakani berishdan iborat.

So‘nggi yillarda xalqaro olimpiadalarda bilimli, iqtidorli yoshlarimiz muvaffaqiyati yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Biz yoshlarimizni bundan ham yuqori natijalarga erishib, davlatimiz obro‘–e’tiborini yanada oshiradi degan umiddamiz. Bizning maqsadimiz yosh avlodni layoqati, qobiliyati, iqtidorini aniqlash, ochish va ularning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Zero, olimpiada masalalari elementar va oliy matematikaning eng jozibador masalalar to‘plamidir. Olimpiada masalalari o‘quvchini chuqur fikrlashga, o‘z ustida ishlab, iqtidorini-malakasini takomillashtirishga, boy ijodiy tafakkurga ega bo‘lishga, qat’iyatli inson bo‘lishga va qaror qabul qila olishga o‘rgatadi.

Ma’lumki, olimpiada masalalari o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash bilan birga o‘z xulosalarini asoslashga undaydi. Masalalarni yechish davomida o‘quvchilar nazariy bilimlarni takrorlaydi va uni amaliy jihatdan qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Matematikadan olimpiada masalalarini yechishda matematik analiz metodlaridan foydalanishni o‘rganish va ulardan foydalanish yo‘llarini topish o‘quvchilarni matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Ushbu ishda differensial hisobning tatbiqlarini keltirishni maqsad qilib oldik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Mazkur maqola mazmuni va mavzusiga oid dastlabki ma’lumotlarni T.Azlarov, H.Mansurov [3] va Mal Coad va boshqalarning [4] adabiyotlaridan topish mumkin. Matematika analizning metodlaridan foydalanib yechish mumkin bo‘lgan matematik olimpiada misol va masalalarni M.A. Mirzaahmedov, Sh.N. Ismailov [1] va H. Norjigitov, J.A. Bahramovlarning [2] adabiyotlaridan topish mumkin.

Maqola matematikadan olimpiada masalalarini echishda matematik analiz metodlarining roli va o‘rnini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan. Bunda asosiy diqqat differensial hisobning asosiy teoremalariga qaratilgan.

Natijalar

Differensial hisobning asosiy teoremalari yordamida yechiladigan masalalar. Biz bu bandda funksiya hosilasini bir nechta masalalarga tatbiqini keltiramiz.

1-masala. Agar $a \ge 0$, $b \ge 0$, $p \ge 1$ bo‘lsa, $\left(\frac{a+b}{2}\right)^p \le \frac{a^p + b^p}{2}$ bo‘lishini isbotlang.

Isboti. Agar $a = 0$ yoki $b = 0$ bo‘lsa, tengsizlikni tenglik sharti bajariladi. Shuning uchun $a \ge b > 0$ faqat holatni qaraymiz va

$$\left(\frac{a+b}{2}\right)^p \le \frac{a^p + b^p}{2} \Leftrightarrow \left(\frac{\frac{a}{b}+1}{2}\right)^p \le \frac{\left(\frac{a}{b}\right)^p + 1}{2}$$

ekanini inobatga olamiz. Ushbu funksiyani tuzamiz:

$$f(x) = \frac{x^p + 1}{2} - \left(\frac{x+1}{2}\right)^p,\ x \ge 1,\ p \ge 1.$$

U holda $f(0) = 0$, $f'(x) = \frac{p}{2}\left(x^{p-1} - \left(\frac{x+1}{2}\right)^p\right) \ge 0$ bo‘ladi. $f'(x) \ge 0$ bo‘lgani uchun $f(x)$ funksiya o‘suvchi. Shuning uchun $f(x) \ge f(0)$.

Bundan $\frac{x^p + 1}{2} \ge \left(\frac{x+1}{2}\right)^p$ bo‘ladi. $x = \frac{a}{b}$ qilib tanlasak

$$\left(\frac{a+b}{2}\right)^p \le \frac{a^p + b^p}{2}$$

tengsizlikka ega bo‘lamiz.

2-masala. c ning hech bir qiymatida $x(x^2-1)(x^2-10) = c$ tenglama beshta butun yechimga ega bo‘la olmasligini isbotlang.

Isboti. Ushbu funksiyani tuzamiz: $f(x) = x(x^2-1)(x^2-10)$.

Bu funksiya butun sonlar o‘qida aniqlangan va $f'(x)=5x^4-3x^2+10$.

1). $f'(x)=0$ tenglamani yechamiz. Bundan


$$x_1, x_4 = \pm\sqrt{\frac{33+\sqrt{889}}{10}} \text{ va } x_2, x_3 = \pm\sqrt{\frac{33-\sqrt{889}}{10}}$$

kelib chiqadi.

2). $f(x)=0$ tenglamani yechamiz.

$$x(x^2-1)(x^2-10)=0 \Rightarrow x=0,\ x=\pm 1 \text{ va } x=\pm\sqrt{10}.$$

3). Funksiya grafigini yasaymiz. (1-rasm)



1-rasm

Funksiyaning monotonlik oraliqlari beshta:

1) $(-\infty; x_1]$, 2) $[x_1; x_2]$, 3) $[x_2; x_3]$, 4) $[x_3; x_4]$, 5) $[x_4; +\infty)$.

Shuning uchun $y=c$ to‘g‘ri chiziq $f(x)$ funksiyani ko‘pi bilan beshta nuqtada kesishi mumkin. $[x_1; x_2]$ $([x_1; x_2] \subset (-1;1))$ monotonlik oralig‘ida yagona $x=0$ butun son bor.

Demak, $c=0$ bo‘lgandagi $f(x)=c$ tenglama ko‘pi bilan beshta butun yechimga ega bo‘lishi mumkin.

$f(x)=0$ tenglama esa $x=0$ va $x=\pm 1$ butun yechimlarga ega. Bu holat $f(x)=c$ tenglama beshta butun yechimga ega emasligini bildiradi.

Funksiya hosilasini ba’zi murakkab masalalariga tadbiqlari. Ushbu bandda funksiya hosilasining ba’zi murakkab masalalar yechishga tatbiqlarini ko‘rib chiqamiz.

1-teorema. $ABCD$ to‘g‘ri to‘rtburchakda ixtiyoriy M nuqta olingan bo‘lib, $|AB|=a$, $|AD|=b$, $\lambda \geq 1$ bo‘lsa, u holda

a) $\max\left\{|MA|^\lambda + |MB|^\lambda + |MC|^\lambda + |MD|^\lambda\right\} = a^\lambda + b^\lambda + \left(\sqrt{a^2+b^2}\right)^\lambda$;

b) $\min\left\{|MA|^{\lambda}+|MB|^{\lambda}+|MC|^{\lambda}+|MD|^{\lambda}\right\}=4\left(\frac{a^2+b^2}{4}\right)^{\lambda}$


tengliklar o‘rinli bo‘ladi.

Isbot. M nuqtadan $KN\perp AB$, $PQ\perp AD$ kesmalarni o‘tkazamiz (1-chizma). Aytaylik, $|AK|=x$, $|MK|=y$ bo‘lsin. M nuqta to‘rtburchakda bo‘lganligi uchun $0\le x\le a$, $0\le y\le b$ bo‘ladi. Pifagor teoremasiga ko‘ra:

$$|MA|^{\lambda}+|MB|^{\lambda}+|MC|^{\lambda}+|MD|^{\lambda}=\left(x^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left((x-a)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+$$
$$+\left((x-a)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left(x^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}.$$

Ushbu belgilashni kiritib olib, quyidagi ikki holni ko‘rib chiqamiz.

$$P(x,y)=\left(x^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left((x-a)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left((x-a)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left(x^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}$$



2-rasm

1-hol. $y=0$ yoki $y=b$ bo‘lsin. Bu holda

$$P(x,0)=P(x,b)=x^{\lambda}+(a-x)^{\lambda}+\left((x-a)^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left(x^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}$$

bo‘lganligi sababli faqat $P(x,0)$ ni o‘rganish yetarli. $P(x,0)$ funksiyani $(0,a)$ oraliqda x bo‘yicha birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarini hisoblaymiz:

$$P'(x,0)=\lambda\left(x^{\lambda-1}-(a-x)^{\lambda-1}+(x-a)\left((x-a)^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}+x\left(x^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}\right)$$

$$P''(x,0)=\lambda\left((\lambda-1)\left(x^{\lambda-2}-(a-x)^{\lambda-2}\right)+\left((x-a)^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left((\lambda-1)(x-a)^2+b^2\right)\right)+$$
$$+\lambda\left(x^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left((\lambda-1)x^2+b^2\right).$$

$P''(x,0)\ge 0$ bo‘lgani uchun $P'(x,0)$ funksiya $(0,a)$ oraliqda o‘suvchi. Shuning uchun $P'(x,0)=0$ tenglama $(0,a)$ oraliqda ko‘pi bilan bitta yechimga ega bo‘lishi mumkin. $P'\left(\frac{a}{2},0\right)=0$ bo‘lgani sababli, yagona yechim $x=\frac{a}{2}$ dan iborat bo‘ladi. Demak, $P(x,0)$

funksiya $\left[0,\frac{a}{2}\right]$ kesmada kamayuvchi, $\left[\frac{a}{2},a\right]$ kesmada esa o‘suvchi bo‘ladi. Bunga asosan quyidagi tengliklarga ega bo‘lamiz:

$$\max_{0\le x\le a} P(x,0)=P(0,0)=P(a,0)=a^{\lambda}+b^{\lambda}+\left(\sqrt{a^2+b^2}\right)^{\lambda},$$

$$\min_{0\le x\le a} P(x,0)=P\left(\frac{a}{2},0\right)=2\left(\frac{a}{2}\right)^{\lambda}+2\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+b^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}.$$

2-hol. $0<y<b$ bo‘lsin. Bu holda y o‘zgaruvchini tayinlab, $P(x,y)$ funksiyani x bo‘yicha birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarini hisoblaymiz:

$$P'(x,y)=\lambda x\left(x^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}+\lambda(x-a)\left((x-a)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}+$$
$$+\lambda(x-a)\left((x-a)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}+\lambda x\left(x^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1},$$
$$P''(x,y)=\lambda\left(x^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left(x^2(\lambda-1)+y^2\right)+$$
$$+\lambda\left((x-a)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left((x-a)^2(\lambda-1)+y^2\right)+$$
$$+\lambda\left((x-a)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left((\lambda-1)(x-a)^2+(y-b)^2\right)+$$
$$+\lambda\left(x^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left(x^2(\lambda-1)+(y-b)^2\right).$$

Yuqorida qilingan ishlarni takrorlab, ushbu

$$\max_{0\le x\le a} P(x,y)=P(0,y)=P(a,y)=y^{\lambda}+\left(a^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left(a^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+(b-y)^{\lambda}$$

$$\min_{0\le x\le a} P(x,y)=P\left(\frac{a}{2},y\right)=2\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+y^2\right)^{\lambda}+2\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}$$

tengliklarni hosil qilamiz.

Endi ushbu

$$f(y)=y^{\lambda}+\left(a^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+\left(a^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+(b-y)^{\lambda},$$

$$g(y)=2\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}+2\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}}$$

yordamchi funksiyalarni kiritib olamiz. Bu funksiyalar uchun $\max\limits_{0\le x\le b} f(y)$ va $\min\limits_{0\le x\le b} g(y)$ larni hisoblaymiz. Shu maqsadda, $(0,b)$ oraliqda, $f(y)$ va $g(y)$ funksiyalarning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarini hisoblaymiz:

$$f'(y)=\lambda y^{\lambda-1}+\lambda y\left(a^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}+\lambda(y-b)\left(a^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}-\lambda(b-y)^{\lambda-1},$$

$$f''(y)=\lambda(\lambda-1)y^{\lambda-2}+\lambda\left(a^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left(a^2+(\lambda-1)y^2\right)+$$

$$+\lambda\left(a^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left(a^2+(\lambda-1)(y-b)^2\right)+\lambda(\lambda-1)(b-y)^{\lambda-2},$$

$$g'(y)=2\lambda y\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1}+2\lambda(y-b)\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-1},$$

$$g''(y)=2\lambda\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+y^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+(\lambda-1)y^2\right)+$$

$$+2\lambda\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+(y-b)^2\right)^{\frac{\lambda}{2}-2}\left(\left(\frac{a}{2}\right)^2+(\lambda-1)(y-b)^2\right).$$

Bu ifodalardan $0\le y\le b$ bo‘lganida $f''(y)\ge 0$, $g''(y)\ge 0$ va $f'\left(\frac{b}{2}\right)=0$, $g'\left(\frac{b}{2}\right)=0$ kelib chiqadi. Demak, $f(y)$ va $g(y)$ funksiyalar funksiyalar $y=\frac{b}{2}$ nuqtada o‘zining eng kichik qiymatlariga erishadi, kesmaning chetki nuqtalarida esa eng katta qiymatlarga erishadi, xususan

$$\max_{0\le x\le b} f(y)=f(0)=f(b)=a^{\lambda}+b^{\lambda}+\left(\sqrt{a^2+b^2}\right)^{\lambda},$$

$$\min_{0\le x\le b} g(y)=g\left(\frac{b}{2}\right)=4\left(\frac{a^2+b^2}{4}\right)^{\frac{\lambda}{2}}$$

bo‘ladi. Birinchi va ikkinchi hollarni hisobga olsak, a) va b) tengliklar kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.

Natija. Agar $\lambda=1$ bo‘lsa, ushbu

$$\max\{|MA|+|MB|+|MC|+|MD|\}=a+b+\sqrt{a^2+b^2},$$

$$\min\{|MA|+|MB|+|MC|+|MD|\}=2\sqrt{a^2+b^2}$$

Tengliklar, $\lambda=2$ bo‘lsa, quyidagi

$$\max\{|MA|^2+|MB|^2+|MC|^2+|MD|^2\}=2(a^2+b^2),$$

$$\min\{|MA|^2+|MB|^2+|MC|^2+|MD|^2\}=a^2+b^2$$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi.

1-masala. Yuzasi S bo‘lgan $ABCD$ – qavariq to‘rtburchakning AB, BC, CD, DA tomonlarida mos ravishda M, N, P, Q nuqtalar shunday olinganki, bunda

$$\frac{|AM|}{|MB|}=\frac{|BN|}{|NC|}=\frac{|CP|}{|PD|}=\frac{|DQ|}{|QA|}.$$

$MNPQ$ to‘rtburchak yuzasining eng kichik qiymatini toping.

Yechish. Aytaylik, $\frac{|AM|}{|MB|}=\lambda$ bo‘lsin. U holda

$$|AB|=|AM|+|MB|=(1+\lambda)|MB|,\ |BC|=|BN|+|NC|=\frac{\lambda+1}{\lambda}|BN|,$$

$$|AD|=|AQ|+|QD|=\frac{\lambda+1}{\lambda}|QD|,\ |CD|=|CP|+|pD|=\frac{\lambda+1}{\lambda}|PD|$$

bo‘ladi. Bularga asosan quyidagilarga ega bo‘lamiz (2-chizma):

$$S_{PQD}=\frac{\lambda}{(1+\lambda)^2}\cdot S_{ACD},\quad S_{MBN}=\frac{\lambda}{(1+\lambda)^2}\cdot S_{ABC}.$$


Bundan ushbu tenglik kelib chiqadi: $S_{PQD}+S_{MBN}=\frac{\lambda}{(1+\lambda)^2}\cdot S$.

Xuddi shuningdek, $S_{QAM}+S_{NCP}=\frac{\lambda}{(1+\lambda)^2}\cdot S$ tenglikka ega bo‘lamiz.

Demak,

$$S_{MNPQ}=S_{ABCD}-(S_{QAM}+S_{NCP}+S_{MBN}+S_{PDQ})=$$

$$=S-\frac{2\lambda}{(1+\lambda)^2}\cdot S=\frac{\lambda^2+1}{(1+\lambda)^2}\cdot S.$$



3-rasm

Oxirgi ifodaning eng kichik qiymatini topish maqsadida ushbu $f(\lambda)=\frac{\lambda^2+1}{(1+\lambda)^2},\ \lambda>0$ funksiyani kiritib olamiz va uning eng kichik qiymatini topamiz. Buning uchun avvalo uning hosilasini hisoblaymiz:

$$f'(\lambda)=\frac{2\lambda\cdot(\lambda^2+1)-(\lambda^2+1)\cdot 2(\lambda+1)}{(1+\lambda)^4}=\frac{2(\lambda-1)}{(1+\lambda)^3}.$$

Bu ifodaga binoan $f'(\lambda)=0$ tenglamaning yagona yechimi $\lambda=1$ bo‘lib, $(0;1)$ oraliqda $f'(\lambda)<0$ va $(1;+\infty)$ oraliqda $f'(\lambda)>0$ bo‘ladi. Bu esa $f(\lambda)$ funksiyaning eng kichik qiymati $f(1)=\frac{1}{2}$ ga teng ekanini bildiradi. Demak, $MNPQ$ to‘rtburchak yuzasining eng kichik

qiymati $\frac{1}{2}S$ ga teng bo‘lib, bu qiymat yuqoridagi nisbat 1 ga teng bo‘lganda, ya’ni M, N, P, Q nuqtalar to‘rtburchak tomonlarining o‘rtalarida bo‘lganida erishiladi.

2-masala. Agar a,b,c – musbat sonlar bo‘lsa, u holda ixtiyoriy λ,μ, $(\lambda\ge\mu\ge 0)$ sonlari uchun ushbu

$$\frac{a^\lambda}{b^\lambda+c^\lambda}+\frac{b^\lambda}{a^\lambda+c^\lambda}+\frac{c^\lambda}{a^\lambda+b^\lambda}\ge\frac{a^\mu}{b^\mu+c^\mu}+\frac{b^\mu}{a^\mu+c^\mu}+\frac{c^\mu}{a^\mu+b^\mu} \qquad (1)$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Isbot. Quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$f(\lambda)=\frac{p^\lambda}{q^\lambda+1}+\frac{q^\lambda}{p^\lambda+1}+\frac{1}{p^\lambda+q^\lambda},\quad \lambda\ge 0.$$

Bunda p,q $(p\ge q\ge 1)$ – o‘zgarmas sonlar. Bu funksiyaning hosilasini hisoblab, $p\ge q\ge 1$ bo‘lgani uchun $f'(\lambda)\ge 0$ bo‘lishini, ya’ni $f(\lambda)$ funksiya o‘suvchi bo‘lishini topamiz. Demak, har qanday λ,μ, $(\lambda\ge\mu\ge 0)$ – nomanfiy sonlar uchun $f(\lambda)\ge f(\mu)$, ya’ni

$$\frac{p^\lambda}{q^\lambda+1}+\frac{q^\lambda}{p^\lambda+1}+\frac{1}{p^\lambda+q^\lambda}\ge\frac{p^\mu}{q^\mu+1}+\frac{q^\mu}{p^\mu+1}+\frac{1}{p^\mu+q^\mu} \qquad (2)$$

tengsizlik o‘rinli. Umumiylikka zid ish qilmagan holda $a\ge b\ge c$ deb olib, $p=\frac{a}{c}$, $q=\frac{b}{c}$ deb tanlasak, u holda (2) tengsizlik quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\frac{\left(\frac{a}{c}\right)^\lambda}{\left(\frac{b}{c}\right)^\lambda+1}+\frac{\left(\frac{b}{c}\right)^\lambda}{\left(\frac{a}{c}\right)^\lambda+1}+\frac{1}{\left(\frac{a}{c}\right)^\lambda+\left(\frac{b}{c}\right)^\lambda}\ge\frac{\left(\frac{a}{c}\right)^\mu}{\left(\frac{b}{c}\right)^\mu+1}+\frac{\left(\frac{b}{c}\right)^\mu}{\left(\frac{a}{c}\right)^\mu+1}+\frac{1}{\left(\frac{a}{c}\right)^\mu+\left(\frac{b}{c}\right)^\mu}.$$

Bu tengsizlikning chap va o‘ng tomonlarida shakl almashtirishlar bajarib, (1) tengsizlikni hosil qilamiz.

Endi (1) tengsizlikni ba’zi xususiy hollarni keltirib o‘tamiz.

1. Agar $\lambda\ge 0$, $\mu=0$ bo‘lsa, ushbu tengsizlik hosil bo‘ladi:

$$\frac{a^\lambda}{b^\lambda+c^\lambda}+\frac{b^\lambda}{a^\lambda+c^\lambda}+\frac{c^\lambda}{a^\lambda+b^\lambda}\ge\frac{3}{2}.$$

2. Agar $\lambda=2$, $\mu=1$ bo‘lsa, ushbu tengsizlik hosil bo‘ladi:

$$\frac{a^2}{b^2+c^2}+\frac{b^2}{a^2+c^2}+\frac{c^2}{a^2+b^2}\ge\frac{a}{b+c}+\frac{b}{a+c}+\frac{c}{a+b}$$

Muhokama. Ushbu ishda matematikadan olimpiada masalalarini yechishda matematik analiz metodlaridan foydalanishni o‘rganish va ularga doir turli masalalarning yechish uslubiyati ko‘rib chiqildi. Olimpiada masalalarini yechishda matematik analiz foydalanish usullari o‘rganildi va ularni olimpiada masalalarini yechishga tatbiq qilish uslubiyati ko‘rsatib berildi.

Xulosa. Matematikadan olimpiada masalalarini yechishda matematik analiz metodlaridan foydalanishni o‘rganish va ulardan foydalanish yo‘llarini topish o‘quvchilarni matematikaga

bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, matematik analiz fanining o‘quv materialini chuqurroq va kengroq o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ish o‘quvchilarning bilimlarini va matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi hamda o‘quvchilarni matematikadan olimpidaga tayyorlashda to‘garak rahbarliriga bu ishning katta yordami tegadi, degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzaahmedov, M., Ismailov, Sh. (2016). *Matematikadan qiziqarli va olimpiada masalalari*. I qism. Turon-Iqbol.

2. Norjigitov, H., Bahramov, J. (2014). *Matematik olimpiada masalalarini yechish uchun qo‘llanma*.

3. Azlarov, T., Mansurov, H., (2005). *Matematik analiz asoslari.* O’zMU nashriyoti.

4. Mal Coad, (2010). *Mathematics for the international students.* Haese and Harris publocations.

INNOVATSION VA AN’ANAVIY TA’LIM USULLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI O’QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO’LLARI

Sherbo‘tayeva Sevara Sharofiddin qizi
Jizzax shahar 28-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi
+998 93 300 86 47

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida innovatsion va an’anaviy ta’lim usullarini uyg‘un qo‘llashning didaktik imkoniyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy axborot texnologiyalari hamda interaktiv yondashuvlarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal etish va amaliy faoliyatga tayyorlashdagi roli o‘rganilgan. Shu bilan birga, an’anaviy o‘qitish metodlarining o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirishdagi o‘rni yoritilgan. Innovatsion hamda an’anaviy metodlarning integratsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi va faolligini kuchaytirish bilan birga, ularning kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Maqolada pedagoglar uchun dars jarayonida turli metodlarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar:kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, innovatsion metodlar, an’anaviy usullar, metodlar uyg‘unligi, didaktik imkoniyatlar, interaktiv texnologiyalar, o‘quvchilarning rivojlanishi, ta’lim samaradorligi.

Hozirgi davrda ta’lim tizimi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi, mehnat bozori va ijtimoiy hayotning tezkor o‘zgaruvchan talablari ta’sirida yangicha maqsad va vazifalarni ilgari surmoqda. Endilikda ta’lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda olingan bilimlarni amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, samarali muloqot qilish hamda jamoada hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu boisdan kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi zamonaviy ta’lim strategiyalarining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim (KYT) — bu o‘quvchilarning individual salohiyatini namoyon etish, ularni faol, mustaqil va ongli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi ta’lim yondashuvidir. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, mavjud bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish hamda yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. KYTning asosiy maqsadi — o‘quvchining shaxsiy fazilatlari, intellektual salohiyati, bilim, ko‘nikma va malakalarini integrallashgan tarzda rivojlantirishdan iboratdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO) tomonidan ta’lim jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalar qatoriga funksional savodxonlik, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali

foydalanish, kreativ va tanqidiy fikrlash, shuningdek, ijtimoiy hamda madaniy muloqot yuritish ko‘nikmalari kiritilgan.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil) hamda “O’zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va o‘quvchilarda shaxsiy hamda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlarda zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi sifatida o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish talabi ilgari surilgan:

tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati;

axborot bilan samarali ishlash ko‘nikmalari;

muloqot madaniyati va jamoada hamkorlikda faoliyat yuritish malakasi;

hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kompetensiyasi.

Ushbu yo‘nalishlar ta’lim tizimining yangi bosqichda rivojlanishiga asos bo‘lib, o‘quvchilarni zamonaviy hayot talablariga mos raqobatbardosh shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy davr talablaridan kelib chiqib, ta’lim jarayonini faqat an’anaviy metodlar asosida tashkil etish endilikda yetarli bo‘lmay qoldi. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda yuqorida qayd etilgan kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati yuzaga keldi.

An’anaviy o‘qitish usullari — ma’ruza, tushuntirish, savol-javob, amaliy mashqlar, mustahkamlash kabi metodlar — uzoq yillar davomida ta’lim jarayonining asosiy vositasi sifatida samarali qo‘llanib kelgan. Mazkur usullar o‘quvchilarda nazariy bilimlarning poydevorini yaratish, ularni tizimlashtirish, o‘zlashtirilgan materialni mustahkamlash va nazorat qilish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Biroq zamonaviy ta’limning asosiy vazifalari faqatgina bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. U o‘quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy sharoitlarda amaliy qo‘llay bilish, o‘z fikrini asosli tarzda himoya qilish, kreativ va tanqidiy yondashuv asosida muammolarga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Shu sababli, innovatsion pedagogik texnologiyalar — interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning, PBL), kvest va o‘yinli texnologiyalar, shuningdek, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish — bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

Innovatsion metodlarning o‘ziga xos xususiyatlari:

5. O’quvchini bilim oluvchi emas, bilim yaratuvchi sub’ekt sifatida ko‘rish;
6. Faol o‘rganish va muloqotni tashkil qilish;
7. Hayotiy vaziyatlar orqali ta’limiy faoliyatni reallashtirish;
8. Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga rag‘batlantirish.

An’anaviy metodlarning ustunliklari:

4. Mantiqiy tizimlilik va metodik ketma-ketlikni saqlash;
5. Fundamental nazariy bilimlarni shakllantirish;
6. Dars jarayonini qat’iy tartib asosida boshqarish imkoniyati.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy va innovatsion usullarni uyg‘unlashtirib qo‘llash:

7. Darsda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi;
8. O’zlashtirish darajasini oshiradi;
9. O’quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi;
10. Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Masalan, bir mavzuning kirish qismida an’anaviy izohlash va savol-javob usuli qo‘llansa, rivojlantirish bosqichida loyiha usulidan, mustahkamlashda esa refleksiya va amaliy topshiriqlardan foydalanish dars samaradorligini sezilarli oshiradi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvni taqozo etadi.

Bunda ta’limning mazmuni, shakli va metodlari o‘zaro bog‘liq va uyg‘un bo‘lishi shart. Pedagogik nazariyada ta’kidlanishicha (Vygotskiy, Leontev, Bruner va boshqalar), shaxsning rivojlanishi jarayoni faoliyat va muloqot asosida ro‘y beradi. Demak, metodlar ham o‘quvchilarning bilim olishi, muloqotda bo‘lishi va mustaqil faoliyatini ta’minlovchi tarzda tanlanishi kerak.

Keng qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar:

- **Kichik guruhlarda ishlash**
- **Aqliy hujum**
- **Rol o‘ynashli o‘yinlar**
- **Klaster texnologiyasi**
- **Loyiha asosida o‘qitish**
- **Case-study (muammoni hal qilish metodi)**
- Raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish (Quizlet, Kahoot, Moodle va boshqalar).**va boshqalar).**

“Aqli Ta’lim jarayonida har bir metod o‘ziga xos o‘rin tutadi va o‘quvchilarning bilish faoliyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan:

1. Kichik guruhlarda ishlash metodi. 5-sinf tabiiy fanlar darsida “Atmosfera qatlamlari” mavzusi o‘rganilmoqda. O’quvchilar 4-5 kishilik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga atmosfera qatlamlari - troposfera, stratosfera, mezosfera va termosfera - bo‘yicha ma’lumot tayyorlash vazifasi beriladi. Guruh a’zolari birgalikda materialni o‘rganib, mini-prezentatsiya tayyorlaydi va taqdim etadi.

Didaktik maqsad: Hamkorlikda o‘rganish, o‘zaro fikr almashish va faol muloqot orqali bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.

2. “Aqliy hujum” metodi. 8-sinf geografiya darsida “Iqlim o‘zgarishi sabablari va oqibatlari” mavzusida o‘quvchilardan imkon qadar ko‘proq sabablarni sanab o‘tish so‘raladi. Dars jarayonida har bir taklif qabul qilinadi va hech biri tanqid qilinmaydi. Keyinchalik o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, eng muhim va asosiy sabablarni ajratib oladilar.

Didaktik maqsad: Muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, fikr almashish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish.

3. Rolli o‘yinlar metodi. Geografiya darsida “Yer sharining iqlim zonalari bo‘yicha sayohat” mavzusida rolli o‘yin tashkil etiladi. Har bir guruh ma’lum iqlim mintaqasidagi - ekvatorial, mo‘tadil yoki arktik - aholi vakili, dehqon, sayyoh yoki ob-havo mutaxassisi rolini bajaradi. Guruh a’zolari o‘z hududining iqlim sharoiti, kiyim-kechak, turmush tarzi va uchraydigan muammolar haqida ma’lumot beradilar.

Didaktik maqsad: Iqlim zonalarini farqlashni o‘rganish, inson faoliyatini geografik sharoitga moslashtirishni tushunish va muloqot hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.Tabiiy fanlar integratsiyasi: “Tabiatdagi suv aylanishi” O’quvchilar bug‘lanish, kondensatsiya, yog‘ingarchilik, daryo, okean, bulut, quyosh kabi rollarni bajaradi. Ular o‘z o‘rnini tushuntirib, aylanishni jonli ko‘rsatadi. Didaktik maqsad: Suv aylanishi jarayonini tushunish, ekologik tafakkurni shakllantirish va guruhda ishlash kompetensiyasini rivojlantirish.

4. “Klaster” texnologiyasi. Geografiya darsida “Vulqon otilishi” mavzusida o‘quvchilar turli rollarni bajaradilar: magma, lava, yer po‘sti, gazlar, aholi va olim kabi. Sahna jarayonida vulkan faollashuvi, otilishi va uning oqibatlari vizual tarzda namoyish etiladi.

11. **Tabiiy fanlar bo‘yicha umumlashtiruvchi sahna: “Ekotizim ishtirokchilari”.** Har bir o‘quvchi o‘simlik, o‘txo‘r, yirtqich, parazit, qush, mikroorganizmlar, suv yoki quyosh nuri kabi rollarni ijro etadi. Sahna jarayonida ekotizimdagi energiya oqimi, modda aylanishi va tabiiy muvozanat harakatlar va dialoglar orqali jonlantiriladi.

Didaktik maqsad: Ekotizim elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, o‘quvchilarda ekologik fikrlash va tizimli yondashuvni rivojlantirish.

12. Loyiha asosida o‘qitish. 9-sinfda “Ekologik muammolar va ularning yechimlari” mavzusida loyiha tayyorlash. O’quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, o‘z hududidagi ekologik muammo va uni hal qilish bo‘yicha loyiha ishlab chiqadilar. Didaktik maqsad: Mustaqil o‘rganish, muammoni aniqlash va yechim ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. Raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish (Quizlet, Kahoot, Moodle va boshqalar).Ingliz tili darsida o‘qituvchi Kahoot platformasi orqali “Vocabulary quiz” o‘tkazadi. Har bir savol uchun raqobat asosida ball beriladi va g‘oliblar belgilanadi. Didaktik maqsad. Bilimlarni qiziqarli va interaktiv shaklda mustahkamlash.

Mazkur metodlar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, muammoni hal etish va samarali kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular zamonaviy darslarni jonlantirib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Innovatsion va an’anaviy usullarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari yuqori ekanligi aniqlangan. Olingan natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

Ushbu metodlar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, muammoni hal etish va samarali kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular zamonaviy darslarni jonlantirib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion va an’anaviy usullarni uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda o‘quvchilarning kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar, jumladan, klaster texnologiyasi, brainstorming, interaktiv muloqot va raqamli platformalar, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, an’anaviy metodlar — ma’ruza, savol-javob, taqdimotlar — nazariy bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlashda o‘zining ahamiyatini saqlab qoladi.

Innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, faolligini kuchaytirish hamda bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, pedagoglarning moslashuvchanligi va metodlarni darsning maqsadiga hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga muvofiq tanlashi ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Barcha kompetensiyalarning kompleks rivojlanishi (bilimiy, ijtimoiy, kommunikativ, amaliy) uchun innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy va amaliy faolligini oshiradi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning individual o‘rganish sur’ati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta’limda differentsial yondashuvni qo‘llash hamda metodlarni bir-birini to‘ldiruvchi tarzda tanlash - o‘qitishning yuqori samaradorligini ta’minlaydi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratib, ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi. Shu bilan birga, an’anaviy metodlar, mustahkamlash va nazorat vositasi sifatida — bilimlar bazasini yaratishda o‘z ahamiyatini saqlaydi.

Shu boisdan, ta’lim jarayonida eng samarali natijalarga erishish uchun innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘un modellarini ishlab chiqish zarur. Bunday modellarning yanada mukammallashuvi va amaliy tajribalarda keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ko‘nikmalarni to‘liq rivojlantirishga yordam beradi.

Kelgusida, ta’limda innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘unlashtirilgan yondashuvini yanada chuqurroq o‘rganish, uning samaradorligini baholash va takomillashtirish zarur. Buning uchun pedagogik amaliyotda bu metodlarni birlashtirgan holda tajriba o‘tkazish va ularni turli o‘quv guruhlari, turli mavzular asosida sinovdan o‘tkazish talab etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va an’anaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, ta’lim tizimining kelajakdagi rivojlanishining muhim asosidir. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning barcha kompetensiyalarini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi, ta’lim sifatini yanada oshiradi va o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

11. Jo‘raeva G‘. (2019). *Zamonaviy dars: kompetensiyaviy yondashuv asosida.* Toshkent: O’qituvchi nashriyoti.

12. Abduqodirov A. (2020). *Didaktika: Nazariya va amaliyot*. Toshkent: Fan.

13. Karimova D. (2021). “An’anaviy va zamonaviy ta’lim yondashuvlari”, *Ilm-fan va taraqqiyot*, №4, 33–36.

14. Qodirov S. (2022). “Innovatsion metodlar orqali kompetensiya rivoji”, *Ta’lim va innovatsiyalar*, №3, 45–49.

15. OECD (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030.* Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org

16. UNESCO (2021). *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education.* Paris: UNESCO Publishing.

17. Murodova N. (2022). “Kompetensiyaga asoslangan ta’limda dars metodikasining o‘rni”, *Ta’lim texnologiyalari*, №2, 25–30.

18. Shamsiyev B. (2020). *Interaktiv metodlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish.* Toshkent: Yangi asr avlodi.

19. Anderson L. W., & Krathwohl D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives.* New York: Longman.

20. Shodmonova M. (2018). “Didaktik yondashuvlar va ta’lim texnologiyalari”, *Pedagogik izlanishlar jurnali*, №1, 12–18.

TABIIY FANLARNI O’QITISHDA BIOTEXNOLOGIYA MAVZULARINI INTEGRATSIYALASHNING AHAMIYATI.

Tohirova O.S

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filyali o‘qituvchisi,

e-mail: orzigultohirova@gmail.com.

Annotatsiya: Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayoni jahon miqyosida keng rivojlanmoqda. Tez sur’atlarda o‘zgarayotgan zamonaviy davrda tabiiy fanlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu esa o‘quvchi yoshlarning mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, o‘ziga ishonchini mustahkamlash hamda bilim salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining kichik yoshdan “SCIENCE” (tabiiy fanlar) yo‘nalishida biotexnologik jarayonlarni o‘rganishining ahamiyati va bu jarayonning ta’lim samaradorligiga ta’siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: tabiiy fanlar, tabiat, science, biotexnologiya, boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar, biologiya, fizika, astronomiya, geografiya, kimyo.

Abstract: Today, the process of using innovative technologies in the education system is developing widely worldwide. In the rapidly changing modern era, the role and importance of natural sciences are incomparable. This serves to develop independent and logical thinking of young students, strengthen their self-confidence and increase their cognitive potential. This article highlights the importance of schoolchildren studying biotechnological processes in the direction of “SCIENCE” (natural sciences) from an early age and the impact of this process on educational effectiveness.

Keywords: natural sciences, nature, science, biotechnology, natural sciences in primary education, biology, physics, astronomy, geography, chemistry.

Аннотация: Сегодня во всем мире широко развивается процесс использования инновационных технологий в системе образования. В быстро меняющейся современной эпохе роль и значение естественных наук несоизмеримы. Это способствует развитию самостоятельности и логического мышления учащихся, укреплению их уверенности в себе и повышению их познавательного потенциала. В данной статье подчеркивается важность изучения школьниками биотехнологических процессов по направлению «НАУКА» (естественные науки) с раннего возраста и влияние этого процесса на эффективность образования.

Ключевые слова: естественные науки, природа, естествознание, биотехнология, естественные науки в начальном образовании, биология, физика, астрономия, география, химия.



Kirish: Bugungi globallashuv davrida ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadallik bilan kechmoqda. Zamonaviy o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda tabiiy fanlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, “SCIENCE” (tabiiy fanlar) yo‘nalishida kichik yoshdan boshlab biotexnologik jarayonlarni o‘rganish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish va fan-texnika yutuqlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism: Inson hayoti tabiat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik sayyoramizda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Tabiat qonuniyatlarini chuqur o‘rganish genetika, evolyusion ta’limot, matematika, fizika, kimyo, o‘simlik va hayvonot olami sistematikasi, antropologiya, geologiya, geofizika kabi fanlar oldiga qo‘yilgan muhim vazifalarni hal etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tabiiy fanlar bugungi ilm-fan taraqqiyotining asosi, uning “yuragi” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ–4805-sonli “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarga yo‘naltirilgan variativ o‘quv rejalari joriy etilishi belgilangan. Shu asosda birinchi bosqichda 1–6-sinflarda tabiiy fanlarni yagona “Science” fani doirasida o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu yondashuv o‘quvchilarda fanlararo bog‘liqlikni tushunish, mantiqiy fikrlash va ilmiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. 7-sinfdan boshlab esa tabiiy fanlar biologiya, kimyo, fizika va geografiya kabi mustaqil fanlarga ajratilib o‘qitiladi.

Yangi o‘quv fanining joriy etilishi o‘quvchilarni kichik yoshdan tabiiy fanlarga qiziqtirish, ularning olam haqidagi yaxlit tasavvurini shakllantirish imkonini beradi. 1-sinfdan boshlab o‘qitiladigan tabiiy fanlar kursi “Tabiat jismlari”, “O’simlik va hayvonot olami”, “Sog‘ligimizni saqlaymiz” va “Ekologiya” kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dastur nafaqat o‘quvchilarda tabiat go‘zalligi va boyliklariga mehr uyg‘otadi, balki O’zbekiston tabiatining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish imkonini ham beradi.

Dars jarayonida o‘quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratiladi. O’quvchilar topshiriqlarni individual bajarish orqali o‘z kuchi va bilimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bugungi kunda tabiiy fanlar kursida kimyo, fizika va biologiya fanlarining uzviy integratsiyasi amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘quvchilarda “tabiiy fanlar qiyin fan emas, balki qiziqarli fan” degan tushunchani shakllantiradi.

Shuningdek, 5–6-sinf “Tabiiy fanlar” darsliklarida biotexnologiya elementlarini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, qadimiy ajdodlarimizning sutdan qatiq, bug‘doydan non, mevalardan sirka yoki sharob tayyorlash usullarini o‘rganish orqali o‘quvchi biotexnologik, kimyoviy va fizik jarayonlarni qiziqarli shaklda tushunadi. Shu tariqa, mavzuni o‘zlashtirish jarayoni yanada samarali kechadi.

Hozirgi kunda 5–6-sinflar uchun tayyorlangan “Tabiiy fan” darsliklarida ba’zi mavzular takrorlanayotgani kuzatilmoqda. Shu bois, ularda o‘quvchilarda amaliy qiziqish uyg‘otuvchi yangi mavzular — oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiyotda biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit muhofazasida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Masalan, o‘quvchilarga qayta tiklanadigan energiya manbalari, qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan energiya olish, sho‘rga chidamli o‘simliklarni Orolbo‘yi hududida ekish kabi mavzularni o‘rgatish nafaqat fanga qiziqishni oshiradi, balki ekologik muammolarni ilmiy yondashuv orqali hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida biotexnologiya haqida bilim berish — yoshlarning ongli iste’molchi bo‘lib yetishishida, bioxavfsizlik qoidalarini tushunishida va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishida muhim rol o‘ynaydi. Hozirda ko‘plab o‘qituvchilar tabiiy fanlar dasturida biotexnologiyaga ajratilgan vaqtning yetarli emasligini ta’kidlamoqda. Masalan, Turkiya Respublikasida biotexnologiya tabiiy fanlarning bir qismi sifatida 8-sinfdan o‘rgatiladi, O’zbekistonda esa bu mavzu faqat 10-sinfda qisqacha yoritilgan. Shu bois, o‘quv dasturlariga zamonaviy biotexnologiya mavzularini kiritish va bu yo‘nalishga ajratiladigan o‘quv soatlarini ko‘paytirish zarur.

quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida fanlar kesimida ushbu tadbirlarni joriy etish belgilangan. Ushbu tashabbuslar zamonaviy talablar asosida maktab pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning metodik va ilmiy salohiyatini kuchaytirish hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kimyo va biologiya fanlarida o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularni ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi. Shu maqsadda, **5E modeli** — bu o‘quvchilarga yangi kontentni tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradigan, tadqiqot asosida qurilgan o‘quv modeli. Ushbu modelning nomi uning besh bosqichidan kelib chiqadi: Engage (Qiziqtirish), Explore (Tadqiq qilish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Kengaytirish), Evaluate (Baholash). Har bir bosqich o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, SAMR modeli texnologiyalarni dars jarayoniga samarali integratsiyalash orqali o‘quvchilarning kreativ va tadqiqotchilik salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Maqolada kimyo va biologiya fanlarida 5E va SAMR modellarini integratsiyalash orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mavzusi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari, 5E va SAMR modellarining mohiyati, ularning integratsiyalashgan qo‘llanilishi va amaliy natijalari yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi o‘qituvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni, jumladan 5E va SAMR modellarini uyg‘unlashtirishning samaradorligini tahlil qilish va shu asosida tavsiyalar ishlab chiqishdir.

5E modeli – bu o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish, tushunish va amaliyotda qo‘llashga yordam beradigan, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan o‘quv modeli hisoblanadi. Quyidagi bosqichlar o‘quv jarayonini strukturalashtiradi va o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi.

1. Engage (Qiziqtirish). Bu bosqichning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha qiziqish uyg‘otish, ularning oldingi bilimlarini faollashtirish va o‘rganishga motivatsiya berishdir. Bu bosqichi o‘quvchilarda ilmiy savol va qiziqish uyg‘otish orqali yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlaydi. Masalan: Savollar va muammoli vaziyatlar: O’quvchilarga mavzuga oid muhim savollar berish, ularni taxmin qilishga va o‘z fikrlarini shakllantirishga undash.

Vizual materiallar va eksperimentlar: Qiziqarli videolar, rasm va diagrammalar orqali mavzuga kirish, oddiy tajribalar orqali diqqatni jalb qilish. Hikoyalar va real hayot misollari: Fanlar bilan bog‘liq kundalik hayotiy yoki ilmiy voqealarni hikoya qilish. Bu bosqich o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va qiziqishni uyg‘otadi, shuningdek, ilgari olingan bilimlarni faollashtiradi, bu esa keyingi bosqichlarda bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

2. Explore (Tadqiq qilish). Explore bosqichi o‘quvchilarga mavzuni mustaqil ravishda tadqiq qilish imkoniyatini beradi. Bu bosqichda o‘quvchilar amaliy ishlar, laboratoriya tajribalari yoki guruh ishlari orqali yangi bilimlarni kashf etadi. Masalan: Eksperimentlar va tajribalar: O’quvchilar laboratoriyada yoki virtual simulyatsiyalar orqali mavzuni tadqiq qiladi. Guruh ishlari: Guruhlarda muammolarni hal qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni birgalikda taqdim etish. Kuzatish va tahlil: Real voqealarni kuzatish va ularni ilmiy tushunchalar bilan bog‘lash. Bu bosqich o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ilmiy kuzatuv va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiradi. O’quvchilar tajribalar orqali o‘z xulosalarini chiqaradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

3. Explain (Tushuntirish). Explain bosqichi o‘quvchilarga yangi o‘rganilgan bilimlarni tushuntirish, aniqlashtirish va mustahkamlash imkonini beradi. Bu bosqichda o‘qituvchi konseptlarni tushuntiradi va o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifoda etishga yordam beradi. Masalan: Interaktiv taqdimotlar: Diagramma, animatsiya va vizual materiallar yordamida yangi tushunchalarni tushuntirish. Savol-javob: O’quvchilarning savollarini tinglash, tushunmovchiliklarni bartaraf etish. Fikr almashish: O’quvchilar o‘z natijalarini baham ko‘radi va o‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha tushuntirishlar beriladi. Bu bosqich o‘quvchilarda tushunchalarni

chuqurroq anglashni va bilimlarni aniq tasavvur qilishni rivojlantiradi. Shu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning xatoliklarini tuzatadi va ilmiy asoslangan tushuntirishlarni beradi.

4. Elaborate (Kengaytirish). Elaborate bosqichi o‘quvchilarga o‘rganilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash va ilgari olingan bilimlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi. Masalan: Yangi vaziyatlarda qo‘llash: O’quvchilar mavzuni real hayotiy yoki ilmiy muammolarda qo‘llaydi. Fanlararo bog‘lash: O’quvchilar o‘rganilgan bilimlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalashadi. Muammolarni hal qilish: Yangi muammolarni tahlil qilib, amaliy yechimlar topish. Bu bosqich bilimlarni mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi.

5. Evaluate (Baholash). Evaluate bosqichi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash va o‘zlashtirilgan bilimlar asosida xulosa chiqarishni o‘z ichiga oladi. Masalan: Amaliy test va loyihalar: O’quvchilar o‘z bilimlarini loyihalar, laboratoriya ishlar yoki interaktiv testlarda sinovdan o‘tkazadi. Refleksiya: O’quvchilar o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. O’qituvchi baholashi: O’qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasini baholaydi va qo‘shimcha tavsiyalar beradi. Bu bosqich o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘qituvchiga esa dars samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi.

5E modeli konstruktivizm tamoyillari asosida qurilgan bo‘lib, o‘quvchilarning:

- faol ishtirokini rag‘batlantiradi;
- ilmiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi;
- ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

Shu bilan birga, 5E modeli tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga, eksperiment va loyiha asosida faoliyat yuritishiga xizmat qiladi va pedagogga darsni tizimli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

SAMR modelining darajalar o‘qituvchi tomonidan texnologiyani qanday maqsadda va qanday shaklda qo‘llanayotganini aniqlashga yordam beradi. Modelning asosiy maqsadi texnologiyani faqat vosita sifatida emas, balki o‘qitish va o‘rganishni yangi bosqichga olib chiqadigan transformatsion vosita sifatida qo‘llashdir.

1. Substitution (O’zgartirish): Bu bosqichda texnologiya an’anaviy o‘qitish vositalarini faqat almashtiruvchi rolni bajaradi, ammo o‘quv jarayonida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi. Dars mazmuni, maqsadi va metodikasi o‘zgarishsiz qoladi, faqat o‘qituvchi va o‘quvchi raqamli muhitdan foydalanadi.

Misoli: Qog‘ozda yozilgan matn o‘rniga kompyuterda yozish (masalan, Google Docs yoki Microsoft Word dasturida). Bosma testlarni onlayn platformalarda (Google Forms, Kahoot, Quizizz) o‘tkazish. Dars konspektlarini PDF formatida taqdim etish. Bu bosqichning pedagogik ahamiyati shundan iboratki, o‘qituvchi texnologiyani o‘qitish jarayoniga kiritishni boshlaydi, o‘quvchilar esa raqamli vositalardan foydalanishga moslashadi.

2. Augmentation (Kengaytirish): Mazkur bosqichda texnologiya dars jarayonini yaxshilash vositasiga aylanadi. U o‘qituvchi va o‘quvchilarga qulaylik yaratadi, yangi funksional imkoniyatlarni ochadi, ammo o‘rganishning mohiyatini o‘zgartirmaydi. Misoli: Interaktiv taqdimotlar yaratish: Prezi, Google Slides yoki PowerPoint dasturlari orqali video, audio va grafik elementlar bilan boyitilgan darslar tayyorlash. Hamkorlikda ishlash: O’quvchilar Google Docs yoki Padlet platformalarida birgalikda matn yozish yoki loyiha yaratish. Multimedia vositalaridan foydalanish: YouTube, Khan Academy yoki PhET simulyatsiyalaridan o‘rganish jarayonida foydalanish. Bu bosqichda texnologiya o‘quvchilarning vizual, eshitish va interaktiv idrokini faollashtiradi, ularning bilimni o‘zlashtirish jarayonini kengaytiradi.

3. Modification (O’zgartirish): Bu bosqichda texnologiya o‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartiradi, o‘quvchilar uchun ilgari imkonsiz bo‘lgan o‘rganish faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi. O’qituvchi o‘quvchilarni tadqiqot, tahlil va ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi. Misoli**:** Guruhli hamkorlik: Trello, Miro yoki Padlet orqali o‘quvchilar birgalikda g‘oyalar ishlab chiqadi, loyiha yaratadi. Simulyatsiyalar: PhET platformasida virtual tajribalar o‘tkazish, masalan, kimyoviy reaksiya yoki biologik jarayonlarni kuzatish. Ijodiy loyihalar: Canva, Adobe Spark yoki Prezi yordamida o‘quvchilar o‘z taqdimotlari va videolarini yaratadi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z

fikrlarini mustaqil ifodalash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi echimlar topish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

4. Redefinition (Yangi shakllantirish): SAMR modelining eng yuqori bosqichi boʻlib, texnologiya ta'limni butunlay yangi shaklga keltiradi. Endilikda oʻqitish jarayoni global, ijodiy va innovatsion tus oladi. Misoli: Global hamkorlik: O'quvchilar Zoom yoki Google Meet orqali boshqa maktablar bilan ilmiy loyihalar ustida ishlaydi, xalqaro tajriba almashadi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat: VR/AR texnologiyalar yordamida tarixiy joylarga "sayohat qilish" yoki tabiiy fanlardagi jarayonlarni virtual tarzda kuzatish. Ijodiy loyihalar: Flipgrid, Edmodo yoki YouTube orqali oʻquvchilar oʻz videobloglarini yaratib, fan boʻyicha tushunchalarni boshqalar bilan baham koʻrishadi. Bu bosqichda ta'lim jarayoni an'anaviy oʻqitishdan chiqib, innovatsion va tadqiqotga yoʻnaltirilgan faoliyat shakliga aylanadi.

SAMR modelining afzalliklari:

1. Motivatsiyani oshiradi: Interaktiv va raqamli faoliyat oʻquvchilarda fanga nisbatan qiziqish uygʻotadi.
2. Ijodiy yondashuvni ragʻbatlantiradi: Texnologiya orqali oʻquvchilar oʻz fikrlarini yangi shakllarda ifodalash imkoniyatiga ega boʻladi.
3. Hamkorlikni kuchaytiradi: Onlayn muhitda guruhli ishlash, gʻoyalar almashish va fikr bildirish osonlashadi.
4. O'rganish jarayonini chuqurlashtiradi: Multimedia, simulyatsiya va real vaqtli muloqot yordamida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati ortadi.

SAMR modelini qoʻllashda e'tibor qaratiladigan jihatlar:

1. Maqsadni aniq belgilash: Texnologiyaning dars maqsadlariga xizmat qilishi lozim.
2. Resurslarni oqilona boshqarish: Yuqori bosqichlardagi (Modification, Redefinition) faoliyatlar koʻproq tayyorgarlik va texnik resurs talab etadi.
3. O'quvchilarning texnologik tayyorgarligi: O'quvchilar yangi texnologiyalarni samarali qoʻllashni oʻrganishlari kerak.
4. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi: O'qituvchi raqamli vositalardan foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlishi va ularni pedagogik maqsadlarda toʻgʻri tatbiq eta olishi zarur.

SAMR modelining tabiiy fanlarda qoʻllanishi

Kimyo va biologiya darslarida SAMR modeli oʻquvchilarni tajriba asosida oʻrganishga, ilmiy kuzatuvlar olib borishga va oʻz fikrini asosli tarzda ifodalashga undaydi. Masalan: Substitution bosqichi: Biologiya mavzularini elektron hujjatda tahlil qilish. Augmentation bosqichi: YouTube videolari orqali oʻsimliklarning oʻsish bosqichlarini vizual oʻrganish. Modification bosqichi: PhET simulyatsiyasi orqali oʻsimliklarning oʻsishini turli sharoitlarda kuzatish. Redefinition bosqichi: Google Meet orqali boshqa maktabdagi oʻquvchilar bilan tajriba natijalarini taqqoslab, taqdimot yaratish.

Natijada oʻquvchilar nafaqat ilmiy tushunchalarni oʻzlashtiradi, balki texnologik savodxonlik, hamkorlik va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Kimyo fani oʻquvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki tajriba asosida fikrlash, moddalarning xossalari va reaksiyalarini tahlil qilishni talab etadigan murakkab fanlardan biridir. Shu sababli, SAMR modelini kimyo ta'limiga tatbiq etish oʻquvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, amaliy tajriba koʻnikmalarini shakllantirish va raqamli vositalardan samarali foydalanish imkonini beradi. Quyida ushbu modelning har bir bosqichi kimyo fani misolida yoritiladi:

I bosqichi: An'anaviy kimyo darslarida qogʻozdagi formulalar yoki doskada yozilgan reaktsiyalar oʻrniga elektron hujjatlar (masalan, **Google Docs** yoki **Word**)da kimyoviy reaksiyalarni yozish va tahlil qilish. O'quvchilar kompyuterda reaksiyalar tenglamasini toʻgʻrilaydi, modda formulalarini elektron shaklda kiritadi. *Masalan:* $H_2 + O_2 \rightarrow H_2O$ reaksiyasini balanslash jarayonini onlayn muharrirda bajarish.

II bosqichi: O'quvchilar kimyoviy jarayonlarni **multimedia vositalari** yordamida chuqurroq oʻrganadilar. Masalan, **YouTube**, **Khan Academy** yoki **TED-Ed** videolari orqali oksidlanish-qaytarilish, ion almashinish yoki molekulyar tuzilma jarayonlarini vizual kuzatish.

Misol: Metallarning kislotalar bilan reaksiyasi haqidagi videoni tomosha qilib, unda hosil bo‘ladigan gazni aniqlash va tahlil qilish.

III bosqichi: Texnologiya yordamida o‘quvchilar kimyoviy tajribalarni virtual muhitda mustaqil o‘tkazish imkoniga ega bo‘ladilar. **PhET Interactive Simulations**, **ChemCollective** yoki **MolView** kabi platformalarda o‘quvchilar moddalar o‘zaro ta’sirini, haroratning reaksiya tezligiga ta’sirini yoki kislota-asos muvozanatini virtual tajribalar orqali kuzatadilar. *Misol:* “Reaksiya tezligiga haroratning ta’siri” mavzusida PhET simulyatsiyasi orqali tajriba o‘tkazib, natijalarni elektron jadvalga kiritish.

IV bosqichi: Bu bosqichda o‘quvchilar texnologiyalar yordamida ilgari imkonsiz bo‘lgan ilmiy faoliyatni amalga oshiradilar. Masalan, **Google Meet**, **Zoom** yoki **Microsoft Teams** orqali boshqa maktabdagi o‘quvchilar bilan virtual laboratoriya ishlari olib borish, tajriba natijalarini taqqoslab, **Canva**, **Prezi** yoki **PowerPoint** orqali birgalikda taqdimot yaratish. *Misol:* “Kislotalar va asoslar neytrallanish reaksiyasi” mavzusida turli hududlardagi o‘quvchilar bilan birgalikda onlayn tajriba natijalarini tahlil qilib, taqdimot tayyorlash.

Xulosa. 5E va SAMR modellarini integratsiyalash zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 5E modeli o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni tadqiqotchi sifatida shakllantiradi, ilmiy fikrlash va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. SAMR modeli esa raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga maqsadli va transformatsion tarzda tatbiq etish orqali ta’lim mazmunini boyitadi, o‘qitish jarayonini innovatsion va interaktiv shaklga keltiradi.

Kimyo va biologiya fanlarida ushbu modellarni uyg‘unlashtirish o‘qituvchilarga darsni zamonaviy metodlar asosida loyihalash, raqamli vositalardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy va texnologik kompetensiyalarni ham egallaydi.

Shuningdek, 5E va SAMR modellarining integratsiyasi o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga, ularning metodik salohiyatini oshirishga va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga xizmat qiladi. Shu bois, tabiiy fanlar ta’limida ushbu modellar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda chuqur bilim, tahliliy fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aleksandr Grey. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. – 164 b.
2. Aleksandr Grey. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun mashq daftari – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. – 124 b. O’qituvchi uchun metodik qo‘llanma. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf.
3. Duran L.B. The “5E Instructional Model: A Learning Cycle Approach for Inquiry-Based Science Teaching”. The Science Education Review, 3(2), 2004, p.-49-58).
4. Suyarov K.T., Sangirova Z.B., Umaraliyeva M.T., Yuldasheva M.K., Xasanova S.G‘, Hasanova D.T. 6-sinf Tabiiy fanlar darsligi, yangi nashr, Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279 b.

O’SIMLIKLARDA FOTOTROPIZM, FOTONASTIYA, GEOTROPIZM HODISALARINI KUZATISH

Janizakova Feruza Abdurasulovna
Paxtakor tumani 5- maktab Biologiya fani o‘qituvchisi
Kuldasheva Mushtariy Otamurot qizi
Sh.Rashidov tumani 26- maktab Biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘simliklarning tashqi muhit omillariga javoban namoyon etadigan fiziologik harakat turlari — **fototropizm, fotonastiya va geotropizm hodisalari** ilmiy asosda yoritilgan. Ishda har bir hodisaning **biologik mazmuni, mexanizmi, gormonlar (auksin), pigmentlar (fitoxrom) va statolitlar** ishtirokidagi jarayonlari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, har bir hodisani **tajriba asosida kuzatish usullari** keltirilib, ularning o‘simlik hayotidagi **fotosintez jarayonini kuchaytirish, oziqa moddalarning taqsimlanishi va ekologik moslashuvdagi** ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fototropizm o‘simliklarning yorug‘lik manbaiga moslashishiga, fotonastiya ularning biologik ritmlarini boshqarishga, geotropizm esa ildiz tizimi orqali suv va minerallarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu hodisalarni o‘rganish o‘simlik fiziologiyasi, ekologiyasi va agronomiya sohalarida muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: O’simlik fiziologiyasi, fototropizm, fotonastiya, geotropizm, yorug‘lik manbai, auksin, fitoxrom, statolit, tropik harakatlar, nastiyalar, biologik ritm, fotosintez, ekologik moslashuv, ildiz o‘sishi, poya egilishi, yorug‘lik sezuvchanlik, o‘simlik gormonlari.

Abstract. This article discusses the physiological movements of plants in response to environmental factors - phototropism, photonasty and geotropism - on a scientific basis. The work analyzes in detail the biological content, mechanism, processes involving hormones (auxin), pigments (phytochrome) and statoliths of each phenomenon. Also, methods for experimentally observing each phenomenon are presented, and their significance in enhancing the photosynthesis process in plant life, the distribution of nutrients and ecological adaptation is highlighted. The results of the study show that phototropism serves to adapt plants to the light source, photonasty controls their biological rhythms, and geotropism serves to absorb water and minerals through the root system. The study of these phenomena is of significant scientific and practical importance in the fields of plant physiology, ecology and agronomy.

Keywords: Plant physiology, phototropism, photonasty, geotropism, light source, auxin, phytochrome, statolith, tropic movements, nasties, biological rhythm, photosynthesis, ecological adaptation, root growth, stem bending, light sensitivity, plant hormones.

Аннотация. В данной статье на научной основе рассматриваются физиологические движения растений в ответ на факторы окружающей среды – фототропизм, фотонастия и геотропизм. В работе подробно анализируются биологическое содержание, механизм, процессы, связанные с гормонами (ауксином), пигментами (фитохромом) и статолитами каждого явления. Представлены методы экспериментального наблюдения каждого явления и подчёркивается их значение в усилении процесса фотосинтеза в жизни растений, распределении питательных веществ и экологической адаптации.

Результаты исследования показывают, что фототропизм служит для адаптации растений к источнику света, фотонастия контролирует их биологические ритмы, а геотропизм – для поглощения воды и минеральных веществ через корневую систему. Изучение этих явлений имеет важное научное и практическое значение в области физиологии растений, экологии и агрономии.


Ключевые слова: Физиология растений, фототропизм, фотонастия, геотропизм, источник света, ауксин, фитохром, статолит, тропические движения, настии, биологический ритм, фотосинтез, экологическая адаптация, рост корней, изгиб стебля, световая чувствительность, фитогормоны.

Kirish. O’simliklar tashqi muhit omillariga nisbatan juda sezgir bo‘lib, ular atrofdagi yorug‘lik, tortishish kuchi, harorat, namlik va boshqa fizik-kimyoviy ta’sirlarga moslashgan holda o‘sadi va rivojlanadi. Ushbu moslashuvlar o‘simlik fiziologiyasida **harakat hodisalari** deb

yuritiladi. O'simliklarning muayyan ta'sirotga yo'nalgan yoki yo'nalishsiz javob reaksiyasi **tropizm** va **nastiyalar** orqali namoyon bo'ladi. Bu hodisalar o'simliklarning hayot faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki ular fotosintez, suv va oziqa moddalarning taqsimlanishi, hamda o'simlikning ekologik sharoitlarga moslashishida asosiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Fototropizm — bu o'simlik organlarining yorug'lik manbaiga yoki undan qarama-qarshi yo'nalishda o'sish reaktsiyasidir. Bu hodisa o'simlikning yorug'lik energiyasidan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. **Musbat fototropizm** – o'simlik organining (odatda poya yoki barg) yorug'lik manbaiga tomon egilishi, **manfiy fototropizm** esa – ildizning yorug'likdan uzoqlashib o'sishidir.


Ishning mazmuni va metodologiya. Fototropizmning biologik mexanizmi **auksin** nomli o'sish gormoni faoliyati bilan izohlanadi. Auksinlar poyaning soyali tomonida ko'proq to'planadi va bu qismdagi hujayralarning tezroq cho'zilishiga olib keladi. Natijada poya yorug'likka tomon egiladi. Bu mexanizm Charlz Darvin va uning o'g'li Frensis Darvin tomonidan 19-asr oxirida o'rganilgan. Ular o'simlik poyasining uchki qismi yorug'likni sezuvchi markaz ekanligini aniqlashgan.



Kuzatish uchun tajriba: Bug'doy yoki suli urug'lari nihollantiriladi. Nihollar bir xil yorug'lik sharoitida o'stiriladi, keyin ularning bir qismi yorug'lik manbaiga bir tomondan ta'sir ettiriladi. Bir necha soat o'tgach, poyaning yorug'lik tomonga egilganligi kuzatiladi. Bu — musbat fototropizm hodisasi.


Fotonastiya hodisasi. (fotoperiodik nastiya) — o'simlik organlarining yorug'lik o'zgarishiga javoban yo'nalishsiz harakatidir. Tropizmlardan farqli ravishda nastiyalar **ta'sir yo'nalishiga bog'liq bo'lmaydi,** balki o'simlik to'qimalaridagi turli fiziologik jarayonlarning o'zgarishi natijasida yuz beradi. Fotonastiya ko'pincha **gul barglarining ochilishi va yopilishi, barg plastinkasining kun davomida holatini o'zgartirishi** kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, **lola (Tulipa), nilufar (Nymphaea), akatsiya (Acacia), mirabilis** kabi o'simliklar barglari yoki gullari yorug'lik darajasiga qarab ochilib-yopiladi. Bu hodisa o'simlikning biologik ritmlari bilan chambarchas bog'liq.

Fiziologik asos: Fotonastiyalar plazmalemma o'tkazuvchanligi, hujayra turgori, ionlar (ayniqsa, K^+ va Cl^-) harakati bilan bog'liq bo'lib, hujayralararo suv almashinuvi tufayli barg yoki gul organlarining egilishi sodir bo'ladi. Shuningdek, bu jarayonda **fitoxrom** pigmenti muhim rol o'ynaydi. Fitoxrom yorug'likning qizil va uzoq-qizil spektr qismlarini sezadi va bu orqali o'simlikning sirkadiyal ritmlarini boshqaradi.



Geotropizm (gravitropizm) hodisasi. Geotropizm yoki **gravitropizm** — bu o'simlik organlarining Yer tortishish kuchiga nisbatan o'sish yo'nalishidir. Odatda, **ildizlar musbat geotropizm** ko'rsatib, tortishish kuchi yo'nalishiga (pastga) qarab o'sadi, **poyalar esa manfiy geotropizm** namoyon qilib, yuqoriga, ya'ni tortishish kuchiga qarama-qarshi yo'nalishda o'sadi.

Geotropizm hodisasi o'simliklarda **statolitlar** (og'irlikni sezuvchi nişasta donachalari) ishtirokida sodir bo'ladi. Statolitlar maxsus **statotsit** deb ataluvchi hujayralarda joylashgan bo'lib, ular tortishish kuchi ta'sirida pastga siljiydi. Bu hujayralardagi auksinlar taqsimotini o'zgartiradi va natijada o'sish yo'nalishi mos ravishda o'zgaradi. **Kuzatish uchun tajriba:** Fasol urug'lari unib chiqqan nihollar 90° ga egib qo'yiladi. Bir necha soat yoki kunlardan so'ng ildizlar pastga, poyalar esa yuqoriga egila boshlaydi. Bu o'simlikning Yer tortishish kuchiga javob reaktsiyasi — geotropizm ekanini isbotlaydi.



Fototropizm, fotonastiya va geotropizmning ahamiyati. Ushbu hodisalar o'simliklarning

ekologik muhitga moslashuv mexanizmlari hisoblanadi. Fototropizm o‘simlikka fotosintez uchun qulay sharoit yaratadi, fotonastiya esa o‘simlikning biologik ritmlarini muvofiqlashtiradi va ortiqcha energiya sarfini kamaytiradi. Geotropizm esa ildizning tuproqqa chuqur kirishini, suv va mineral moddalarning osonroq so‘rilishini ta’minlaydi.

Quyidagi jadvalda biz olib borayotgan eksperimentlarning nazariy ahamiyatini tushunish mumkin bo‘ladi.

№	Hodisa nomi	Tushunchasi (izohi)	Qaysi o‘simliklarda kuzatiladi yoki qo‘llaniladi	Tajriba mazmuni (kuzatish usuli)
1	**Fototropizm**	O’simlik organlarining yorug‘lik manbaiga yoki undan uzoqlashib o‘sish hodisasi. Auksin gormoni ta’sirida sodir bo‘ladi.	Bug‘doy, suli, no‘xat, loviya, kungaboqar, bug‘doy nihollari.	Nihollarni bir tomondan yorug‘lik bilan yoritib qo‘yiladi. Bir necha soatdan so‘ng poya yorug‘lik tomon egilishi kuzatiladi.
2	**Fotonastiya**	O’simlik organlarining yorug‘lik miqdorining o‘zgarishiga javoban yo‘nalishsiz harakatidir (barg yoki gul ochilishi-yopilishi).	Lola, nilufar, akatsiya, mirabilis, chinnigul.	O’simlikni kun davomida yorug‘lik va qorong‘ilikda kuzatish. Barg va gularning ochilib-yopilishi aniqlanadi.
3	**Geotropizm (gravitropizm)**	O’simlik organlarining Yer tortishish kuchiga nisbatan yo‘naltirilgan o‘sish reaksiyasi.	Fasol, loviya, bug‘doy, makkajo‘xori, suli nihollari.	Nihollarni gorizontal holatda joylashtiriladi. Bir necha soat yoki kun o‘tgach, ildizlar pastga, poyalar esa yuqoriga egilishi kuzatiladi.
4	**Umumiy ahamiyati**	Bu hodisalar o‘simliklarning tashqi muhitga moslashuvi, fotosintezni optimallashtirish va oziqa moddalarning to‘g‘ri taqsimlanishini ta’minlaydi.	Barcha yashil o‘simliklarda.	Turli sharoitlarda (yorug‘lik, gravitatsiya) o‘simlik reaksiyalarini solishtirish orqali aniqlanadi.

Bu jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi tufayli o‘simliklar hayot faoliyatini muvozanatda ushlab turadi, yashash sharoitiga moslashadi va nasl qoldirish imkoniyatini saqlab qoladi.

Xulosa. Fototropizm, fotonastiya va geotropizm hodisalari o‘simliklarning tashqi muhit omillariga fiziologik javoblari bo‘lib, ular o‘sish, rivojlanish va yashovchanlik uchun zarurdir. Ushbu jarayonlarni kuzatish va ilmiy asosda o‘rganish o‘simlik fiziologiyasi, ekologiyasi hamda qishloq xo‘jaligi amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu bilimlar asosida o‘simliklarni samarali parvarishlash, yorug‘lik va joylashuvni to‘g‘ri tanlash orqali hosildorlikni oshirish mumkin.

O’simliklarning fototropizm, fotonastiya va geotropizm hodisalari — ularning tashqi muhit omillariga javoban namoyon etadigan muhim fiziologik reaksiyalaridir. Ushbu jarayonlar o‘simlikning hayot faoliyatida, ayniqsa, fotosintez, oziqa moddalarning harakati, suvning so‘rilishi va ekologik sharoitlarga moslashishida asosiy ahamiyat kasb etadi.

Fototropizm tufayli o‘simliklar yorug‘lik manbaiga yo‘nalib o‘sadi va bu ularning fotosintez jarayonini samarali olib borishiga imkon yaratadi. Fotonastiya esa o‘simlik organlarining (gul, barg va h.k.) yorug‘lik o‘zgarishlariga moslashuvini ta’minlab, biologik ritmlarni tartibga soladi. Geotropizm hodisasi ildizlarning tuproqqa chuqur kirib borishini, suv va mineral moddalarning to‘liq so‘rilishini ta’minlaydi, poyaning esa yuqoriga o‘sib, yorug‘likni maksimal darajada qabul qilishiga yordam beradi.

Shunday qilib, bu uch hodisa o‘simlik organizmining tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini, uning hayotiy jarayonlarini va o‘sish yo‘nalishini boshqaruvchi muhim fiziologik mexanizmlar

hisoblanadi. Ularni kuzatish va ilmiy tahlil qilish orqali o‘simliklarning tabiiy sharoitlarga moslashuv qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, qishloq xo‘jaligi amaliyotida hosildorlikni oshirish yo‘llarini belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://ziyonet.uz;
2. http://psychol.ras.ru;
3. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail

MOYCHECHAKNING AJOYIB XUSUSIYATLARINI BILASIZMI

Shodmonova Rayhona Furqat qizi
Boymurzayeva E’zoza Sohib qizi
Safarova Bahora Bexzod qizi

Qarshi Davlat Universiteti, Kimyo-Biologiya fakulteti, Biologiya va Biotexnologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabalari
Telefon: +998(99)656-63-68, E-mail: shodmonovavazbek848@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada moychechak haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, uning ilmiy nomining kelib chiqishi, gulning tarkibidagi moddalar va ularning xususiyatlari, shuningdek, moychechakning xalq tabobatidagi o‘rni haqida bir qancha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Moychechak, Matricaria chamomilla, flavon glikozidlar, kumarinlar, karotin, S vitamini, alfa-bisabolol moddasi, gastrit, yarali kolit.



Darhaqiqat, moychechak bizning o‘lkalarda yovvoyi holda tog‘larda keng tarqalgan. Madaniy dorivor o‘simlik sifatida ham kishilar tomonidan ekiladi.

Moychechak (Matricaria) — Asteraceae oilasiga mansub bo‘lgan bir yillik oq gullovchi o‘t o‘simlikdir.

Botanik xususiyatiga ko‘ra, moychechak urug‘idan ekilgan birinchi yilidayoq gullaydi. Bu xususiyatiga ko‘ra, xuddi shunday gullaydigan 70 ta gul turiga mansubdir. Moychechakning eng mashhur turi Matricaria chamomilla bo‘lib, mazkur tur dorivorlik xususiyatiga ko‘ra keng qo‘llanilishi bilan birga kosmetik maqsadlarda, atir-upa sanoatida ham keng ishlatiladi.

Moychechakning ilmiy nomi Matricaria deyilishi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “bachadon o‘ti” degan ma’noni bildiradi. Bu esa moychechakning ginekologik kasalliklarni davolashda keng qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Bu nom birinchi marta shveysariyalik botanik va shifokor Albrext fan Xaller tomonidan ishlatilgan.

Moychechak guli oq rangda bo‘lib, savatchalari tarkibida efir moylari, flavon glikozidlar, kumarinlar, karotin, S vitamini, oqsil, oshlovchi, achchiq va shirin moddalar mavjud.

Gulning tarkibi erituvchi va suyuqlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Xususan, guldagi kumarin moddasi organizmdagi quyuqlashgan qonni suyultiradi. Shuningdek, tanadagi sovuqdan paydo bo‘lgan shishni yo‘qotadi. Tuzalishi qiyin bo‘lgan oqma yaralarda (perianal oqma yara, yiringli oqma yaralar va teri hamda shilliq pardalarning yallig‘langan joylarida) foyda beradi. Mushak va asab tizimi jarohatlariga juda yaxshi davo bo‘ladi. Yangi uzilgan gulni hidlash esa asabni tinchlantirib, uyquni yaxshilaydi.

Xalq tabobatida moychechak gullaridan tayyorlangan dorivor vositalar — qaynatma, damlama, malham, sharbat, yog‘ — bosh miya, tish, quloq, ko‘z og‘rig‘ida, shamollash va boshqa kasalliklarda keng qo‘llaniladi.

Moychechak quyidagi turlarga ega: Anthemis altissima, Anthemis chiqa, Anthemis cotula, Anthemis pauciloba, Bellis perennis, Margrit romashka, Matricaria romashka.

Moychechak aralashmasini tayyorlashning bir necha usullari mavjud. Xususan, asab kasalliklarida foydalanishda quyidagicha tayyorlanadi: moychechak, lavanda va mellissa o‘simliklaridan 10 grammdan olinib, aralashtiriladi; 200 ml qaynoq suvga solinadi va 15 daqiqadan so‘ng iste’mol qilinadi.

Xalq tabobatida energiya beruvchi ichimlik sifatida: qahva o‘rniga moychechak damlamasini damlab, asal qo‘shib ichish tavsiya etiladi.



Tomoq og‘rig‘ini davolash uchun quritilgan moychechak gullaridan 4 osh qoshiq olinib, 0,5 litr qaynoq suvga solinadi va 45 daqiqa damlanadi. Tayyor damlama suzib olinib, og‘iz har kuni 4–5 marta shu damlama bilan g‘arg‘ara qilinadi.

Moychechakdan me’da quvvati uchun quyidagicha malham tayyorlanadi: bunda gulning yiringlashni to‘xtatuvchi kuchi e’tiborga olinadi. Masalan, shivit urug‘i, bo‘yimodoron, dalachoy va moychechak guli teng miqdorda aralashtiriladi. Tayyor aralashmaning bir osh qoshiq miqdori 200 ml qaynoq suvga solinadi va 20 daqiqa damlanadi. So‘ng suzib olinadi va 2 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin ichilsa, yallig‘lanishga davo bo‘ladi.

Oshqovoq va zig‘ir urug‘i, dalachoy o‘ti, moychechak guli bilan tayyorlangan damlama buyrak shamollashiga foydali.

Alohida tuyilgan moychechak gullari suvda qaynatilib ichilsa, miya va asablarni mustahkamlaydi, jinsiy quvvatni oshiradi. Shuningdek, shamollash, nafas qisishi, sariq va boshqa kasalliklarga shifo bo‘ladi. Bosh og‘rig‘iga chalinadigan kishilar moychechak guli kukunini 1–2 gramm miqdorda ovqatdan 0,5–1 soat o‘tib ichishlari tavsiya etiladi.

Moychechak yog‘i badanga surtib ishlatilsa, charchoq va toliqishni yo‘qotadi. Bo‘g‘im (umurtqa, bel, oyoq, qo‘l, bo‘g‘im) hamda quloq og‘riqlariga shifo beradi. Moychechak spazmni yo‘qotish, gaz va hayz ko‘rish og‘rig‘ini kamaytirishda foydali ekani ta’kidlangan.

Moychechakdagi alfa-bisabolol moddasi yara bitishiga yaxshi ta’sir qiladi. Azulin yurak urishini tinchlantiradi. Moychechak gastrit va yarali kolitni davolaydi, og‘iz infeksiyalariga shifodir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, moychechak — bu shunchaki choy emas, balki bir butun tabiiy kompleks bo‘lib, uning samadorligi tinchlantiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi va regenerativ ta’sirlarning o‘zaro uyg‘unligidadir. U asablar tinchligi va ichki a’zolar yallig‘lanishini davolashda tabiat tomonidan berilgan bebaho ne’matdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov K., Nabiyev M. O’zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari va ularni muhofaza qilish. Toshkent, 1998.

2. Xojimatov K.M., Olloyorov M., Yuldashev N.M., Shog‘ulomov U.Sh. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham. Toshkent, 1995.

3. Salomatlik sari gazetasi, Toshkent, 25.05.2019.

4. https://share.google/nDV6TPkEa9lLPjeS5

5. http://Shifo.uz

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Sattorov Muzaffar Soatovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, e-mail: sattorovmuzaffar481@gmail.com
Mo'minova Mahfuza Rabbim qizi[1], Salomov Navro'zbek Anvar o'g'li[2], Axmedova Muxtarama Alijon qizi[3], Xayrullayeva Tilla Xolmumin qizi[4], Safarova Mashxura Jamoliddin qizi[5], Asadullayeva E'zozaoy Asadulla qizi[6], Darmonov G'ayrat Azimboy o'g'li[7], Alpomisheva Farangiz Muzaffar qizi[8], Qorjovova Marjona Shuxrat qizi[9], Muxamatova Sitora Ro'ziqul qizi[10].
[1-10]CHDPU "Biologiya" yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Xorijiy davlatlar ta'limida biologiya fanini o'qitishning ilg'or tajribalari sifatida shuni qayd etish mumkinki, fanni o'qitishda o'quvchilarga "tayyor" bilimlarni "berish" dan ko'ra, o'quvchilarning bilimlarni "egallashlari", o'qitishning reproduktiv metodlaridan ko'ra, amaliy, muammoli, tadqiqotchilik metodlari ustunlik qiladi. Fanni o'qitishga bunday yondashuv esa zamon talabi bo'lgan intellektual salohiyati yuqori shaxsni tarbiyalash imkonini yanada oshiradi.


Kalit so'zlar. STEAM, Buyuk Britaniyada Tish, Virus, Ari, AQSh, biologiya, ta'lim, Finlyandiya, kompetentsiya.

Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochiladi, ular STEAM dasturida o'qitishga ixtisoslashgan bo'ladi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, STEAM an'anaviy o'qitishga muqobil yondashuv hisoblanadi [1-2]. Bunda bolalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)ni fanlararo bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar [1-5]. STEAM o'quvchilarning loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshirilishi imkonini beradi.



STEAM ta'limi Amerikada ishlab chiqilgan. Ayrim maktablar o'z bitiruvchilarining keyingi faoliyatini kuzatib, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyalashga qaror qilishdi, shunday qilib, STEM (Science, Technique, Engineering and Math) tizimi yuzaga keldi. Keyinchalik unga san'at (Art) qo'shildi, endilikda STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilarning fikricha, bu fanlardan egallangan bilimlar o'quvchilarning kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlariga yordam beradi[3].

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Bunda o'quvchilar ta'lim jarayonida nafaqat o'z aqlini, balki qo'llarini ham ishlatishga majburdirlar. STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar ko'pchilik fanlarni samarali o'rganishda aqli hamda qo'llaridan foydalanishadi, bilimlarni mustaqil "egallashadi". O'quvchilar o'quv mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, musiqa va filmlarni mustaqil yaratishadi, robotlarni yasashadi, ya'ni o'z g'oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi [4]. Quyida o'quvchilar qo'l mehnati bilan yaslgan biologik obektlar ya'ni o'quvchilar tomonidan o'tilgan mavzular asosida aniq bilim va tasavvurga ega bo'lishi uchun qo'l mehnatida igna, ip va matodan foydalanganlar (1-rasm).

1. Tishning tuzilishi	2. Virusning tuzilishi	3. Ishchi arining tuzilishi
		

1-rasm

STEAM ta’lim muhitida o‘quvchilar egallagan bilimlaridan o‘sha zahotiyoq amalda foydalanishlari sababli ular ulg‘ayib, voyaga yetgach, real hayotda uchraydigan turli muammolarga duch kelishganida, masalan, atrof-muhit ifloslanishi bo‘ladimi, iqlim o‘zgarishimi, shu kabi murakkab muammmolarni yechish uchun faqatgina turli fan sohalari bo‘yicha egallagan o‘z bilimlariga suyanishlari va hamkorlikda ishlashlari zarurligini tushunishadi. Bunda bitta fan doirasidagi bilimlargagina tayanish yetarli bo‘lmaydi [5-6]. Shunga ko‘ra, STEAM yondashuvi fikrlash uslubi hamdir.

Xulosa qilib aytganda, STEAM o‘quvchilarni tajribalar o‘tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag‘batlantiradi. O’qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini samarali chog‘ishtirish imkonini beradi. O’quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 05.09.2018 yildagi № PF-5538 Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 6-aprel 2018 yil 187-son qarori.

3. Mavlonov O. Zoologiya. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2017.

4. Aminov B., Tilavov T. Odam va uning salomatligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2016.

5. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari ta’lim oluvchilari uchun darslik. Toshkent, 2014.

6. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.Ye. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O’quv qo‘llanma. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti. Toshkent, 2017.

BETON QORISHMALARI XUSUSIYATLARINI TARTIBGA SOLISH UCHUN SUPERPLASTIFIKATOR QO’SHIMCHALARIDAN FOYDALANISH

t.f.d. prof. Karimov Mas’ud Ubaydulla o‘g‘li.,
t.f.f.d. k.i.x. Ismailov Feruz Sabirovich.
Toshkent Kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti
ismoilovferuz54@gmail.com
+998912102555

Annotatsiya. Oldingi tadqiqotlarda betonning siqilishdagi mustahkamligiga kimyoviy va mineral qo‘shimchalarning ta’siri ko‘rib chiqilgan, ammo betonning siqilishdagi mustahkamligiga

kam e’tibor berilgan. Biroq, transport maqsadlaridagi monolit betonlar, shu jumladan yo‘l betonlari, cho‘zuvchi yuklar sharoitida ishlaydi, bu esa ularning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun superplastifikatorlar, ayniqsa karboksilat turidagi, shuningdek, mineral qo‘shimchalar va ularning komplekslarining betonning egilishdagi mustahkamligiga ta’sirini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Maqolada karboksilat turidagi superplastifikator, beton maxsulotlarining siqilishdagi mustahkamligiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha sinov o‘tkazilgan. Beton qorishmasiga kimyoviy qo‘shimcha qo‘shish siqilishdagi mustahkamlikni 14% gacha oshirishi aniqlangan. Superplastifikatorlardan foydalanish betonning erta siqilishdagi mustahkamligini 37% gacha, 28 kundan so‘ng esa 20% gacha oshirishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: Beton qorishmasi, suyuq muhit, gazli muhit, qattiq muhit, mustaxkamlik, superplastifikator.

Kirish. Ko‘plab kimyoviy qo‘shimchalar (modifikatorlar) orasida beton qorishmalarining plastifikatorlari va superplastifikatorlari muhim o‘rin tutadi. Superplastifikatorlar beton qorishmasini yotqizishda tebranish vaqtini keskin kamaytirishga imkon beradi va bir qator texnologiyalarda yuqori chastotali tebranishni istisno qilish yoki qorishmaning qolipda taqsimlanishini yaxshilash, energiya sarfi va mehnat sarfini kamaytirish, konstruksiyalar sifatini oshirish uchun uni qisqa muddatli past chastotali ta’sir bilan almashtirish mumkin. Bunda beton qorishmasini yotqizish va zichlashda mehnat sharoitlari tubdan yaxshilanadi. Superplastifikatorlar 550 va 600 markali sementlarni ishlab chiqarish hajmini oshirmasdan yuqori mustahkam beton konstruksiyalarini ishlab chiqarish istiqbolini ochadi, shlak va putssolan portlandsementlarini qo‘llash sohalarini sezilarli darajada kengaytiradi. Barcha plastifikator qo‘shimchalar ham beton qorishmasidagi suv miqdorini bir xil darajada kamaytirmaydi. Ularning samaradorligi kimyoviy tarkibi va aralashmani plastifikatsiyalash mexanizmiga bog‘liq. “Yuqori molekulyar birikmalarning qattiq faza-eritma” tizimidagi o‘zaro ta’sirlar to‘g‘risida yagona nazariyaning yo‘qligi hozirgi kungacha kimyoviy qo‘shimchalarni tanlash empirik yo‘l bilan olib borilishiga olib keldi. Kimyoviy qo‘shimchalar molekulasidagi funksional guruhlarning ko‘rinishi va joylashuvi, radikal tabiati va uning tuzilishi, zanjir makromolekulalarining konformatsion holati sementli gellar va betonlarning xossalariga ta’siri masalalari o‘rganilmagan. Qo‘shimchalarning samaradorligini bashorat qilish uchun mezonlar mavjud emas. Sement kompozitsiyalarida ko‘rsatilgan qo‘shimchalarning ta’sir mexanizmini aniq tushunmasdan, yanada samarali analoglarni maqsadli sintez qilish va shunga mos ravishda betonlarning sifati va chidamliligining yangi darajasiga chiqish mumkin emas.

Adabiyotlar tahlili. Beton tayyorlashning zamonaviy texnologiyasida qo‘shimcha modifikatorlar beton qorishmasining bog‘lovchilar, to‘ldiruvchilar va suv bilan bir qatordagi majburiy komponenti hisoblanadi. Betondagi qo‘shimchalar betonning sifatini yaxshilash, unga o‘ziga xos xususiyatlar berish, qurilish ishlarini tezlashtirish, qurilish jarayonini narxini kamaytirish maqsadida ishlatiladi [1]. Bu qo‘shimchalar beton tarkibidagi suv miqdorini (40% gacha) an’anaviy lignosulfonat, melamin yoki naftalin asosidagi superplastifikatorlarga nisbatan sezilarli darajada kamaytiradi. Suv miqdorining kamayishi g‘ovaklikning pasayishiga olib keladi, bu esa betonning mexanik mustahkamligi va chidamliligini oshiradi. Ushbu qo‘shimchalar betonning harakatchanligi va reologik xususiyatlarini yaxshilaydi, yetib borish qiyin bo‘lgan joylarga quyishni osonlashtiradi hamda armaturani yanada samarali qoplash imkonini beradi [2]. Polikarboksilat qo‘shimchalarining tuzilishi karboksilat va efir guruhlari yon zanjirlari bo‘lgan chiziqli uglevodorod asosidan iborat. Ularning sement zarrachalariga karboksilat guruhlari vositasida adsorbsiyalanishi uzun efir guruhlari zanjirlari hosil qilgan sterik itarilish natijasida sement donachalarini tarqatadi. Shunga qaramay, superplastifikatorlardan foydalanish ko‘p hollarda sement-qo‘shimcha nomuvofiqligi tufayli oquvchanlik, nazoratsiz qotish, anomal reologik xatti-harakatlar va boshqalar nuqtai nazaridan muammolar tug‘dirishi mumkin[3-5]. Asosiy zanjirdagi karboksil guruhlarining zaryadi sement zarrachalarida PKE ning adsorbsiyalanishini ta’minlaydi, uzun yon zanjirlar esa sterik ta’sir orqali sement zarrachalarini tarqatadi. Bu jarayon kam suvli xamirning reologik xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi [6-7].

Metodologiya. Butilakrilat asosida polikarboksilat superplastifkatorini 60°C haroratda suvli eritma sharoitida polimerizatsiya reaksiyasi asosida makromonomer sifatida polioksietilen

izobutil spirti efir va akril kislota, butilakrilat, inisiator va zanjir uzatuvchilardan foydalanib, sopolimer sintez qildik. Polikarboksilat sifati va polimerizatsiya reakisya jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar sifatida makromonomerlarning molekulyar og‘irligi e’tibor qaratildi. Ularni tayyorlash usullari quyidagicha ko‘rsatilgan. Birinchi navbatda 30 g polioksietilen izobutil spirti efirni suvga eritib kolbaga solamiz va qizdirishni boshlaymiz, so‘ngra o‘lchalgan (a) (1.33g,) AA va (0.33g) BA, (b) distillangan suv bilan (0,56g) zanjir uzatish agenti merkaptan kislota yaxshilab aralashtirib, 500 ml uch bo‘yinli tubi dumaloq kolbaga tomdirishni boshlaymiz. Reaksiya haroratni 70°C da aralashtirgich yordamida 300 daqiqa ushlab turiladi. Tomdirgich yordamida aralashmaga inisiator (0,07ml) 45 daqiqaga mo‘ljallab qo‘shiladi. Keyin haroratni 65°C da termostatlangan moy hammomi yordamida olib boriladi. Polikarboksilat superplastifikatorning yakuniy mahsuloti sifatida 24% li suvli eritma olinadi, olingan mahsulotni xona haroratiga sovutilib, 30%li NaOH eritmasi orqali pH~6-7 ga keltiriladi.


Natija va tahlillar.

1- jadval.

Sintez qilingan superplastifikator qo‘shilgan beton namunalarining sinov natijalari.

№	Sement miqdori, gr	Sement massasiga nisbatan qo‘shimcha miqdori, %	Suv/ Sement nisbati	Yoyiluvchanligi, sm.	O’rtacha zichlik, gr/sm^3
1	100	-	0.42	7	38.5
2	100	0.2	0.40	9	39.6
3	100	0.6	0.40	13	40.1
4	100	0.8	0.40	15	40.5
5	100	1	0.40	17	41.2

Beton qorishmasiga suv-sement nisbatining 0.2%-1% gacha polikarboksilat superplastifikatorlar qo‘shiladi. Superplastifikatorni 1% dan ortiq qo‘shilishi beton maxsulotini mustaxkamligini pasayishiga olib keladi. Namunalarda portlant sement 400 markali sement ishlatilgan. Betonning fizik-mexanik xususiyatlaridan mustaxkamligini o‘rganishda suv-sement nisbati 0.40 bo‘yicha olib borildi. Superplastifikatorning 24% suvli eritmasini 1% miqdorda qo‘shib, beton mustaxkamligini oshirishga erishdik. Superplastifikatorning miqdorini oshirish mustaxkamligini pasaytiradi.



1-rasm. PK-1 miqdorining sement qorishmasining oquvchanligiga ta’siri.

1-rasmda turli miqdordagi PK-1 qo‘shimchasi qo‘shilgan sement qorishmasining oquvchanligi ko‘rsatilgan. Natija shuni ko‘rsatadiki, PK-1 miqdori sement og‘irligining 0,1% dan 1,1% gacha oshirilganda oquvchanlik sezilarli darajada ortadi. PK-1 sement og‘irligining 0,9% miqdorida qo‘llanganda oquvchanlik eng yuqori darajaga yetdi. PK-1miqdori 1% dan oshganda, qorishmadan suv ajralishi kamayi kuzatildi. Shu sababli, PK-1 ning eng maqbul miqdori sement og‘irligining 0,9% ini tashkil etadi. Sement qorishmasining oquvchanligi natijalari shuni

koʻrsatdiki, sement qorishmasidagi PK-1 dispersion kuchi sezilarli darajada yuqori. Sababi, PK-1 boʻshliqlarga oʻxshash tarmoqlangan makromolekulalar boʻlib, buning natijasida osonlik bilan sterik toʻsiq paydo boʻladi va kuchli dispersion kuch hosil boʻladi. Qoʻshimchalarning sement gidratatsiyasida kechikishi polikarboksilat qoʻshimchasining miqdorining ortishi bilan kuchayadi. Ushbu aralashma vositasidagi sekinlashtiruvchi ta'sir ham qoʻshimchaning tabiatiga qarab oʻzgarishi kuzatildi va shlakli sementda eng kuchli boʻldi.

Xulosa. PK-1 deb nomlangan polikarboksilatni asosan polioksietilen izobutil spirti efir, akril kislota va butil akrilat asosida sintez qilindi. Olingan natijalar superplastifikator qoʻshilishi bilan betonning sifati yaxshilanishini isbotlandi. Superplastifikator qoʻshimchani sement massasiga nisbatan 1 % beton qorishmasiga qoʻshilishi uning zichligini kamaytirib, gʻovak strukturasini yaxshilash orqali betonining mustaxkamligini oshishiga erishildi. Qoʻshimchalarning sement gidratatsiyasida kechikishi polikarboksilat qoʻshimchasining miqdorining ortishi bilan kuchayadi. Ushbu aralashma vositasidagi sekinlashtiruvchi ta'sir ham qoʻshimchaning tabiatiga qarab oʻzgarishi kuzatildi va shlakli sementda eng kuchli boʻldi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Ismoilov F.S. Karimov M.U., Djalilov A.T., Moʻminov B. S. // Polikarboksilatli superplastifikator sintez qilish va uning samaradorligi. // QarDU xabarlari Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. KIMYO 2024 4(2). https: //qarshidu. uz/oz/page/ ilmiy-jurnal-NEW 128-132 bet.
2. Spiratos N, Page M, Mailvaganam NP, Malhotra VM, Jolicoeur C.//Superplasticizers for concrete fundamentals, technology and practice. //Handy Chemicals, Canada; 2006.
3. Ohta A, Sugiyama T, Tanaka Y. Fluidizing mechanism and application of polycarboxylate-based superplasticizers. In: 5th CANMET/ACI sp 173-19; 1997. p. 359–78.
4. Uchikawa H, Hanehara S, Sawaki D. The role of steric repulsive force in the dispersion of cement particles in fresh paste prepared with organic admixuture. Cem Concr Res 1997; 27:37–50.
5. Yamada K, Takahashi T, Hanehara S, Matsuhisa M. Effects of the chemical structure on the properties of polycarboxylate-type superplasticizer. Cem Concr Res 2000; 30:197–207.
6. Liu X, Wang Z, Zhu J, et al. Colloid Surf A Physicochem Engin Asp 2014; 448: 119.
7. Plank J, Schroefl C, Gruber M, et al. J Adv Concr Tech 2009; 7-5.

AKADEMIK LITSEYLARDA ALGEBRA VA ANALIZ ASOSLARI FANINI O'QITISHDA "ALGEBRAONLINE.UZ" TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Xoliqulov Furqat Tirkashboyevich

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti akademik litseyi matematika fani oʻqituvchisi.

Oʻzbekiston, Samarqand shahri J.Joʻrayev koʻchasi 65-uy. Tel.: +998(93) 738-73-30

E-mail: *furqatxoliqulov1985@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litseylarda algebra va analiz asoslari fanini oʻqitishda raqamli ta'lim texnologiyalari, xususan "algebraonline.uz" platformasidan foydalanish, uning imkoniyatlari va afzalliklari haqida bayon qilingan.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование цифровых образовательных технологий, в частности платформы «algebraonline.uz», ее возможности и преимущества при обучении алгебре и основам анализа в академических лицеях.

Annotation. This article describes the use of digital educational technologies, in particular the "algebraonline.uz" platform, its capabilities and advantages in teaching algebra and fundamentals of analysis in academic lyceums.

Kalit soʻzlar: "algebraonline.uz", raqamli ta'lim, platforma, ChatGPT API, dasturiy vosita.

Ключевые слова: «algebraonline.uz», цифровое образование, платформа, ChatGPT API, программный инструмент.

Keywords: "algebraonline.uz", digital education, platform, ChatGPT API, software tool.

Kirish. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlari ham mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2019-yil 24-dekabrdagi 2020-2025 yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’kidlanishicha: “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini yaxshilash va innovatsion fikrlashni rivojlantirish zarur”[1].

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Matematika fanini nazariylashtirgan holda o‘qitishga yondashishdan voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e’tiborni kuchaytirish – davr talabi [2].

Zamonaviy ta’limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida samara beruvchi ko‘plab kompyuter amaliy dasturlari va pedagogik dasturiy vositalar (masalan, GeoGebra, Matlab, Mathematica, Maple, Wolfram Alpha) mavjud bo‘lib ulardan ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir[3].

Bugungi kunda barcha sohalar kabi ta’lim tizimini ham raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanmaoqada. Akademik litseylar tizimida tahsil olayotgan o‘quvchilarni fanlar bo‘yicha zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashda ba’zi muammolar mavjud. Shunigdek o‘quv adabiyotlarni elektron tizimga birlashtirgan maxsus platformalarni yaratishni dolzarb muammolardan biri sifatida qarash mumkin.

Natija. “algebraonline.uz” - bu zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan algebra va analiz asoslari fanini masofadan turib samarali o‘rganish imkoniyatini beruvchi raqamli ta’lim platformasi hisoblanadi.

Platformaning Backend qismi PHP dasturining Laravel frameworki yordamida ishlab chiqilgan. Laravel framework - bu tezkor, xavfsiz va kengaytirish oson bo‘lgan zamonaviy framework bo‘lib, u orqali modulga asoslangan, izchil va ishonchli tizim yaratish imkoniyati mavjud. Ma’lumotlar bazasi sifatida PostgreSQL tanlangan. PostgreSQL - bu kuchli, tezkor va murakkab so‘rovlarni qo‘llab-quvvatlovchi ochiq manbali ma’lumotlar bazasi bo‘lib, katta hajmdagi o‘quvchi ma’lumotlarini, nazorat natijalarini va yuklangan fayllarni samarali saqlash imkonini beradi.

Platformaning eng muhim qismi bo‘lgan sun’iy intellekt qismi ChatGPT orqali ishlaydi. ChatGPT foydalanuvchi nazorat ishi topshirish jarayonlarida bergan noto‘g‘ri javobni aniqlaydi, admin(o‘qituvchi) tomonidan yuklangan unga tegishli mavzuning Word faylidan noto‘g‘ri javob bergan test savoli bo‘yicha zarur ma’lumotni topadi va aniq hamda tushunarli tarzda unga javob tayyorlaydi. Bu o‘quvchiga bilimini mustahkamlash, mavzuni chuqurroq anglash va xatolarni tezroq tuzatishga yordam beradi.


Platforma barcha operatsion tizimlarda ishlaydi. Unga ixtiyoriy qidiruv tizimi(brauzer)dan https://algebraonline.uz/ linki orqali kirish mumkin [4].

Admin platformadagi barcha jarayonlarni boshqaradi: elektron platformaga o‘z o‘quv fani bo‘yicha zarur ma’lumotlar(nazariy, amaliy mashg‘ulot fayllari, nazorat uchun test savollar to‘plami va taqdimot fayllari kabilar)ni yuklaydi. Ushbu yuklangan fayllarni qayta tahrirlab, yangilanib borish imkoni yaratilgan. Bundan tashqari yangi ma’lumotlar kiritish yoki tahrirlash, o‘tkaziladigan nazorat ishlari, ularning topshirilish muddati, urinishlar soni va unga ajratilgan vaqtni belgilaydi.

Platforma o‘quvchilarga istalgan vaqtda bilim olish imkonini yaratadi. Asosiy maqsad - ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, baholashni adolatli tashkil qilish va o‘quvchilarga bilim olishda sun’iy intellekt yordamida qo‘shimcha ko‘mak berishdir. “algebraonline.uz” platformasi oddiygina onlayn kurs emas, balki akademik litseylarning 1-kurs o‘quvchilari uchun Algebra va analiz asoslari fani o‘quv dasturidagi barcha mavzularni qamrab olgan zamonaviy platforma hisoblanadi. Ushbu platforma orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi, o‘qituvchilar va administratorlar esa jarayonni samarali boshqaradi.

Platformadan istalgan foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tib foydalanishi mumkin. Ta’lim jarayoni semestrlar asosida tashkil etilgan bo‘lib, har bir semestr bo‘limlarga, bo‘limlar esa nazariy va

amaliy mashg‘ulotlarga ajratilgan. Har bir mashg‘ulotni o‘zlashtirib bo‘lgach o‘quvchi joriy nazoratni topshiradi, bo‘lim yakunida oraliq nazoratdan o‘tadi, semestr yakunida esa yakuniy nazoratni topshiradi. Shu tarzda yig‘ilgan ballar avtomatik hisoblab boriladi va o‘quvchining shaxsiy kabinetida muntazam ravishda ko‘rinib turadi (rasmga qarang).



“algebraonline.uz” elektron ta’lim platformasida foydalanuvchi oynasining umumiy ko‘rinishi

Nazorat topshirish jarayonida o‘quvchi noto‘g‘ri javob bergan taqdirda unga sun’iy intellekt yordamida tushuntirish taqdim etiladi. Sun’iy intellekt javoblarni faqatgina administrator tomonidan yuklangan Word fayllardagi ma’lumotlar asosida shakllantiradi, bu esa javoblarning to‘g‘ri, aniq va mavzuga mos bo‘lishini ta’minlaydi. Shu orqali o‘quvchi nafaqat o‘z xatolarini ko‘radi, balki ularni to‘g‘rilash uchun zarur bilimni ham oladi.

Adminlar uchun platformada keng boshqaruv imkoniyatlari mavjud: ular semestr, bo‘lim va darslarni qo‘shishi, mavzuga mos savollarni yuklashi, savollarni sun’iy intellekt orqali tahlil qildirish va ularning javoblarini shakllantirish imkoniga ega. Bundan tashqari barcha nazorat topshiriqlari avtomatik baholanadi, natijalar esa aniq va shaffof ko‘rinishda saqlanadi.

Xulosa. “algebraonline.uz” platformasi akademik litseylarning o‘quvchilari uchun algebra va analiz asoslari fanini raqamli muhitga olib chiqadi, ularga qulay, izchil va samarali o‘qish imkoniyatini yaratadi. O’qituvchilarga esa jarayonni boshqarishda qulaylik beradi. Platformada sun’iy intellektning qo‘llanilishi bilan ta’lim jarayonini yanada interaktiv, tushunarli va zamon talablariga mos bo‘lishiga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. lex.uz - O’zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. N.Bekmurodova. Matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Paris, France-2022. 114-117 bet.
3. M.Abdujalilova, Z.Solijonova. Dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish - matematik ta’limni yangicha tashkil qilishning asosi sifatida. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA. April, 28th 2023. 90-93 bet.
4. “algebraonline.uz” elektron ta’lim platformasi. (O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Guvohnoma raqami DGU №53924, 25.07.2025).

GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA TALABALARDA IJODIY FAOLIYAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Kodirova Maxfuza Maxmudovna
Navoiy davlat universiteti dots. v.b.,
Telefon: +998912503076
E-mail: kodirovamaxfuza7@gmail.com

Annotatsiya. Geografiya ta'limida ijodiy faoliyat tajribasi muammosiga turli xil yondashuvlarning qiyosiy tahlili uni alohida, ya'ni jarayonli (ko'nikmalar), shaxsiy va refleksiv tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab tuzilma, hosila sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Kalit so'zlar. Ta'lim jarayoni, geografiya fanlari, ijodiy faoliyat tajribasi, kognitiv, motivatsiyali, jarayonli va refleksiv tarkibiy qismlar.

Аннотация. Сравнительный анализ различных подходов к проблеме опыта творческой деятельности в географическом образовании позволяет рассматривать его как сложную структуру, производную, состоящую из отдельных, процессных (умений), личностных и рефлексивных компонентов.

Ключевые слова. Образовательный процесс, географические науки, опыт творческой деятельности, когнитивный, мотивационный, процессуальный и рефлексивный компоненты.

Annotation. A comparative analysis of various approaches to the problem of the experience of creative activity in geographical education allows us to consider it as a complex structure, a derivative consisting of separate, process (skills), personal and reflexive components.

Keywords. Educational process, geographical sciences, creative activity experience, cognitive, motivational, procedural and reflexive components.

Kirish. Ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning zaruriy sharti quyidagilarni tashkil qiladi. Axborot hajmining ko'pligi va tezda yangilanib borayotganligi, xususan, zamonaviy ta'lim jarayoniga mos jihozlar, ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalarining taraqqiy etishi, qiziquvchan talabalar uchun imkoniyati yuqori bo'lgan aloqa vositalari, internet, ijtimoiy saytlar va dasturlarning mavjudligi sanaladi. Bunday ta'sirlar bugungi kun dars mashg'ulotlarini zamonga hamohang tarzda tashkil etishni o'tishni talab qiladi.

Asosiy qism. Talabalarda ijodiy yechimlarni talab qiluvchi ijodiy tajribani shakllantirish uchun maxsus pedagogik vaziyatlarni loyihalashtirish muhimdir. Ijodga o'rgatish jamiyatda mavjud va hal qilish usullari avvaldan ma'lum bo'lgan muammolarni loyihalashtirish imkoniyatini beradi. Talabalar o'z kamolotining ma'lum bir darajasini fan o'qituvchisining tashkilotchilik faoliyatiga bog'liq holda yaratishi mumkin. Talabalarning o'quv – bilish faoliyati oldin o'zlashtirilgan, so'ngra mustaqil ravishda orttirilgan yangi hatti-harakatlar majmuini o'z ichiga oladi. Ular mustaqil izlash, o'zi uchun noma'lum narsani yaratish, bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda yangi sharoitlarda qo'llash, tanish vaziyatlarda yangi muammolarni topish, muqobil fikrlash, muammolarni hal qilishning yangi manbalarini izlab topishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotchi N.V.Martilova geografiya ta'limida talabalarning ijodiy faoliyatlari tajribasini shakllantirib borish, muammolarni hal etish, bunda ijodiy faoliyat tajribasi ta'limning asosiy maqsadi-sub'yekt va ta'lim mazmunining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelishi, shaxsning ijodiy faolligini rivojlantirish jarayoni va kreativ ta'lim mahsuli sifatida tavsiflanishi mumkinligi aniqlangan. Tadqiqotchi Yu.V.Mitrofanova ta'kidlashicha, inson o'zi yashab turgan joyning geografiyasini o'rganish davomida yangi pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning shaxsiy ijodiy faoliyati natijalari negizida "ijodiy faoliyatning individual tajribasi – bu talabalarga ijodiy topshiriqlarni bajarish davomida samarali yechimlarni topishga, motivatsiya va refleksiyani faollashtirish asosida yangini yaratish jarayonida shaxsan ishtirok etishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalar majmuidan iboratdir", degan edi.

Muhokama. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, ilgari jahonda geografiya ta'limini modernizatsiya qilishning yangi strategiyalarida ijodiy faoliyat tajribasi va uning shakllantrishga ustuvorlik berilgan. Xususan, Stiven Skoffxem muallifligi va tahriri ostida chop etilgan "Geografiya va ijodkorlik" (Geography and creativity), "Geografiya, ijodkorlik va

kelajak” (Geography, Creativity and the Future), “Geografiyani ijodiy o‘qitish” (Teaching Geography Creatively) kabi ishlarda geografiyani o‘quv fani sifatida ijodiy rivojlantirish mumkinligi va geografiya ta’limidagi ijodkorlik prinsiplari quyidagilarni tashkil qilgan: ijodkorlik obrazli fikrlash yoki xulq-atvorni nazarda tutishi va ijodiy faoliyat maqsadga erishishga qaratilgan va bu jarayonlar qandaydir o‘ziga xos (original) narsalarni yaratishi kerakligi, natija esa maqsadga nisbatan muhim ahamiyatga ega bo‘lishi zarurligi asoslab berilgan.

Natijalar. Biz psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarda, shuningdek yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda keltirilgan ta’riflarni inobatga olgan holda talabalar ijodiy faoliyati tajribasi tuzilmasida kognitiv, motivatsiyali, jarayonli va refleksiv tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatdik. Geografiya ta’limi jarayonida ijodiy faoliyat tajribasining motivatsiyali tarkibiy qismi yetarli faollashtirilishi hisobiga bu tajribaning “individualligi”ga erishiladi. Bunga geografiya ta’limida talabani ijodkorlikka undovchi, rag‘batlantiruvchi motivatsiya xos bo‘lib, bu talabalarning geografiyani bilishga qiziqishi, tabiiy geografiya bo‘yicha ijodiy topshiriqlarni bajarishi orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Mazkur tarkibiy qism talabalarni muammo yechimini izlash vaziyatiga jalb qilishni ta’minlaydi va ularning motivlari, ehtiyojlari, qiziqishlari hamda yosh xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Talabalarning geografik bilim, ko‘nikma va malakalari ijodiy faoliyat tajribasining kognitiv tarkibiy qismi geografiya ta’limi jarayonida va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan faoliyat metodlari va usullarini, shuningdek talabaning o‘z imkoniyati va ijodga qadriyatli munosabati haqidagi tasavvurlarini ham o‘z ichiga oladi. Ijodiy faoliyat tajribasining to‘planishi jarayonida geografik bilimlar, ko‘nikma va malakalarning to‘la-to‘kisligi ijodiy topshiriqlarni amaliy hal etish mantig‘iga asoslangan o‘ziga xos tizimga birlashib, tegishli tartibda uyg‘unlashadi va bir shakldan boshqa shaklga o‘tadi.

Geografiya ta’limida sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish ko‘nikmasini (mahalliy, mintaqaviy va global ko‘lamdagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy ob’yektlar, hodisalar va jarayonlarning vujudga kelishi va o‘zgarishini tushuntirish), inson xo‘jalik faoliyatining mahalliy, mintaqaviy va global ko‘lamdagi tabiiy geografik komplekslarga ta’siri va oqibatlarini oldindan aytib berish ko‘nikmasini, shuningdek, fanga oid ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldindan ma’lum bo‘lgan geografik axborotlar va ish usullarini o‘zaro birlashtirish ko‘nikmasini samarali shakllantirish imkoniyati ham mavjud. O’zaro geografik fikr almashinuv bilan bog‘liq bo‘lgan, ya’ni juftlik va kichik guruhda ishlash ko‘nikmasi ijodkorlikning jarayonli va kommunikativ jihatlariga xos bo‘lib, talabalarning o‘z fikrini shakllantira olishi, o‘rtog‘i tomonidan bildirilgan fikrning mohiyatini anglay olishi, o‘zgalarning g‘oyalarini asosli tanqid qila olishi kabi ko‘nikmalari tegishli ijodiy yechimlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Talabalarda ijodiy faoliyat tajribasining jarayonli tarkibiy qismi ta’lim davomida o‘zlashtirilgan geografik bilim, ko‘nikma va malakalardan mustaqil foydalanishga qaratilgan amaliy, natijaviy jihatlarni belgilaydi. Mazkur tarkibiy qismning amalga oshishi jarayonida aqliy faoliyat metodlarini geografik bilish faoliyati usullari, mexanizmlari bilan birgalikda o‘zlashtirish ta’minlanadi. Demak, ijodiy faoliyat jarayonlari, ya’ni tartib-qoidalari quyidagilar bilan bog‘liq bo‘ladi:

oldin egallangan geografik bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish shart-sharoitlarda mustaqil ravishda qo‘llash;

oldindan tanish bo‘lgan standart vaziyatlarda vujudga kelgan geografik muammolarni aniqlash;

yangi geografik muammoli vaziyatda faoliyatning oldindan ma’lum bo‘lgan geografik usullarini birlashtirish, o‘zgartirish va amalda qo‘llash;

o‘rganish (tekshirish) mumkin bo‘lgan geografik ob’yektning (muammoning) tarkibiy tuzilmasini tushunib etish;

bir-biriga zid, boshqacha geografik yechimlarni yoki uning usullarini aniqlash malakasi;

geografik muammoni hal qilishning oldindan ma’lum bo‘lgan usullaridan farq qiladigan boshqa, alohida geografik usulini yaratish ko‘nikmasi.

Individual ijodiy faoliyat tajribasining refleksiv tarkibiy qismi odamning o‘z ongi va faoliyatini anglashi va o‘rganishi, boshqacha aytganda, shaxsiy fikri va hatti-harakatini chetdan turib tasavvur etishi sifatidagi refleksiya (o‘ylashi, fikr yuritishi) bilan ifodalanadi.

Tahlil qilingan nuqtai nazar va ilmiy fikrlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ijodiy faoliyat tajribasi bu - hodisa va jarayonlar birlashuvida talqin etiladigan integrativ fazilat (yangi bilim va ijodiy ko‘nikmalarni egallash, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish) va shaxsiyat funksiyalarining muhimligi ta’minlangan faoliyat jarayoni va natijasi sifatida aniqlashga imkon beradi.

Xulosa. Hozirgi zamon talablari asosida Geografiya fanini o‘qitishda quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- geografiya ta’limi yo ‘nalishi talabalariga o‘quv fani bo‘yicha puxta va chuqur bilim berish;
- fanning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini ochib berish;
- fanning mazmunini ilg‘or ta’lim texnologiyalari talablariga mos ravishda takomillashtirish;
- fanni o‘qitish jarayonida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;
- Geografiya darslarini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod hamda vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- Geografiya ta’limini innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida tashkil etish;
- talabalarda geografik ko‘nikmalarni shakllantirish orqali ularning kreativlik darajasini yanada rivojlantirish;
- bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining malakali mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun fanning zamonaviy tadqiqot usullarini takomillashtirish va amalda qo‘llash lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, tabiiy fanlar doirasidagi Geografiya fanida ham talabalarning ijodiy faoliyat muammosiga turli xil yondashuvlarning qiyosiy tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, uni jarayonli amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy va refleksiv tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab tuzilma, umumiy sahifa sifatida ko‘rib chiqishga imkon berishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Блаженов В.А. Приемы развивающего обучения географии. – М.: Дрофа, 2006. – 60 с.
2. Мартилова Н.В. Формирование опыта творческой деятельности учащихся на основе изучения прикладного ландшафтоведения в профильном географическом образовании: Автореф. Дисс.. канд. пед. наук. - Нижний Новгород, 2010. - 24 с.
3. Митрофанова Ю.В. Формирование индивидуального опыта творческой деятельности учащихся средствами новых педагогических технологий при изучении географии своей местности: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 26 с.
4. Saydamatov F. R. Maktab Geografiya ta’limida ekologik o‘lkashunoslik vositasida o‘quvchilarning ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish metodikasi. Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati – T.: 2021. – 42 b.

UGAM DARYOSI QUYI OQIMI ALGOFLORASI

Temirov Abdumovlon Abduvaliyevich

CHDPU “Biologiya” kafedrası o‘qituvchisi, dotsent, b.f.n.

Babakulova Farangiz Uktamovna[1], Tuychiyeva Gulmira Kadirovna[2], Rametjanova Shahnoza Shuhratovna[3], Salimboyeva Diyorabonu[4], Xolxujayeva Sevinch[5], Abduxoshimova Dilshoda Rahimjon qizi[6], Abduqodirova Diyora Faxriddin qizi[7], Sadullayeva Ilmira Xurmat qizi[8], Abdihamidova Saygul Asliddin qizi[9], Tog‘murodova Saida Anvar qizi[10].

[1-10]CHDPU “Biologiya” kafedrasi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ugam daryosining quyi oqimidagi algofloraning turlarri tarkibi, biologik xilma-xilligi va ekologik holatini baholangan. Umumiy algologik metodlar asosida yig‘ilgansuv namunalari laboratoriya sharoitida mikroskopmostida o‘rganilib, Cyanophyta, Bacillariophyta va Chlorophyta bo‘limlariga mansub turlar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Ugam daryosi, algoflora, bioindikator, antropogen omillar, biologik xilma-xillik, suv ekotizmi.

Algoflora – suv havzalarining ekologik holatini baholashda muhim bioindikator bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, daryo tizimlarida algofloraning turlari tarkibi, biologik xilma-xilligi va biomassa ko‘rsatkichlari suvning ifloslanish darajasi, oziqlanish rejimi, gidrologik va gidrokimyoviy sharoitlari haqida muhim ma’lumotlarni beradi.

Ugam daryosi Tyan-Shan tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy qismidan boshlanadi va janubiy yo‘nalishda oqib, Humson qishlog‘idan keyin C**horvoq suv omboridan** chiqqan **Pskom** va **Chotqol** daryo suvlari bilan qo‘shilib chirchiq daryosi nomi bilan davom ettiradi.

Daryo havzasida **keskin kontinental iqlim** hukm suradi. Yoz issiq va quruq, qish esa sovuq va qisqa bo‘ladi. Yillik yog‘ingarchilik miqdori 300–500 mm atrofida bo‘lib, asosan, bahor va kuz oylarida yog‘adi. Bu omillar daryodagi suv sathining mavsumiy o‘zgarishlariga olib keladi.

Ugam daryosi, asosan, bahor va yoz oyi boshlarida to‘lib oqadi (aprel–iyun oylarida), bu davrda qor va muzliklar erishi asosiy suv manbai hisoblanadi. Kuz va qishda esa daryo sathi ancha pasayadi. Quyi oqimidagi o‘rtacha suv oqimi **7–15 m³/s** oralig‘ida bo‘lishi mumkin, ammo bu ko‘rsatkich mavsumga qarab keskin o‘zgaradi.

Ugam daryosining quyi oqimidagi algoflorani o‘rganish, ularning biologik xilma-xilligini aniqlash, ekologik holatini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari ekologik monitoring ishlarini takomillashtirish, suv resurslaridan barqaror foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, daryo havzasining bioekologik holatini muhofaza qilish va tiklash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda Ugam daryosining quyi oqimi **antropogen bosim** ta’sirida sezilarli darajada ekologik o‘zgarishlarga uchramoqda. Aholi sonining ortishi, qishloq xo‘jaligi faoliyatining kengayishi, sanoat chiqindilarining filtrlarsiz tashlanishi daryo ekotizimining tabiiy muvozanatini izdan chiqarmoqda.

Suv sifati pasaymoqda – daryo suvi tarkibida azot, fosfor birikmalari va pestitsidlar miqdori ortib bormoqda. Bu esa suv o‘tlari (algalar) tarkibining o‘zgarishiga, ayrim zararli (evtrofikatsiyani chaqiruvchi) turlar ustunligiga olib kelmoqda. Suvo‘tlarni yig‘ishda umumiy algologik metodlardan foydalanildi. Namunalarni yig‘ish vaqtida vaqt, namuna olish joyi, ob-havo sharoitlari, oqim tezligi, suvning tiniqligi va suvning pH muhiti yozib borildi. Probalar yig‘ilgan idishlar etiketkalandi.

Ugam daryosining quyi oqimidagi algoflorani yig‘ish va o‘rganish ishlari 2024-yil sentyabr oyidan 2025-yil sentyabr oyigacha namunalar tahlil qilindi va ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Har bir stansiyada (jami 12 ta) ikkitadan namuna olindi. «Dam olish zonasi» stansiyasida o‘ng va chap qirg‘oqlardan (1–5-stansiyalar) namuna olish chuqurligi 0,5–1,5 m ni tashkil etdi, «Humson» stansiyasida (6 – 10) - 0,2–1 m, «quyilish»da (11–12) - 0,2–1,0 m chuqurlikdan namunalar olindi.

Tadqiqotlar davomida 75 tadan ortiq suv o‘tlari (algologik) namunalar yig‘ildi. Olingan barcha namunalar bentos namunalaridir. Har bir stansiyalardagi chuqurlik 0,2 dan to 1,5 metrgacha bo‘lgan chuqurlikdagi bentosdagi algologik namunalari predmetlarga, tosh yoki betonlarga yopishib o‘sayotgan ipsimon turlarini bevosita qo‘l bilan, diatom suv o‘tlarini toshdan sho‘tkalar orqali qirib olish usulida, sariq-yashil suv o‘tlarini o‘tkir tig‘li pichoq yordamida qirib olish, betonlarda yopishib o‘sayotgan bentoslarni bir tomoni o‘tkirlangan temir qoshiqlarda qirib olish orqali namunalar yig‘ildi va 4%li formalin eritmasi bilan fiksatsiya qilindi.

Yig‘ilgan algologik namunalarni mikroskop ostida kuzatdik va suv o‘tlarni aniqlagich yordamida aniqlaganimizda Cyanophyta, Bacillariophyta va Chlorophyta bo‘limlariga ta’luqli turlar dominant hisolanadi. Yil davomida Bacillariophyta bo‘limi vakillari algologik namunalarni asosiy qismini turlar soni jihatdan ham yetakchi hisoblanadi,

Ugam daryosining quyi oqimidagi algoflora dominantlari

Bo‘lim	***Sinf***	***Tartib***	***Oila***	***Turkum***	***Tur***
Cyanophyta	2	4	**8**	**13**	**30**

Bacillariophyta	2	4	**5**	**20**	**68**
Chlorophyta	3	5	**7**	**9**	**18**

Ugam daryosining quyi oqimidagi algofloraning turlari tarkibi, tarqalish xususiyatlari, son va mavsumiy o‘zgarishi, biomassa ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali daryoning ekologik holatini baholashdan iborat. Tadqiqot davomida algofloraning tabiiy va antropogen omillar ta’sirida qanday o‘zgarishga uchragani, ularning biologik xilma-xilligi va bioindikatorlik ahamiyati o‘rganiladi.

1. **Ugam daryosining quyi oqimida algofloraning zamonaviy holati birinchi marotaba kompleks tarzda o‘rganildi,** bunda fitoplankton, bentos va ob’ektlarga yopishgan (perifiton) suv o‘tlarining tur tarkibi, soni va biomassa ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.
2. **Turli chuqurlikdagi stansiyalarda yig‘ilgan namunalar asosida algofloraning vertikal va gorizontal taqsimoti o‘rganildi**, bu esa daryodagi ekologik zonalarning shakllanishi va ularning o‘ziga xosliklarini aniqlash imkonini berdi.
3. **Daryo suvining fizik-kimyoviy xususiyatlari (harorat, pH, kislorod miqdori, shaffoflik va boshqalar) bilan algoflora tarkibi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi**, bu esa ekologik muvozanatni baholashda bioindikator imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ayrim kam o‘rganilgan yoki ilgari bu hududda qayd etilmagan suv o‘tlarining turlari aniqlanib, ro‘yxatga olindi, bu esa Ugam daryosi quyi oqimining algologik xilma-xilligini boyitdi.

Xulosa: Ugam daryosining quyi oqimi antropogen bosim ta’sirida sezilarli ekologik o‘zgarishlarga uchragan. Shunga qaramay, algofloraning boy turlar tarkibi daryoning hali ham ma’lum darajada ekologik barqarorligini saqlab turganini ko‘rsatadi, Olingan natijalar suv ekotizimlarining bioindikator sifatida ahamiyatini yanada kuchaytiradi va daryo havzasining bioekologik holatini monitoring qilish hamda uni muhofaza qilish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вассер С.П., Кондратьева Н.В., Масюк Н.П., Паламарь-Мордвинцева Г.М., Ветрова З.И. Водоросли. Справочник. – Киев: Наукова думка, 1989.– 509 с.
2. Забелина М. М., Киселев И. А., Прошкйна-Лавренко А. И., Шешукова В.С. Диатомвые водоросли Государственное издателство «Советская наука»Москва Москва— 1951 149-b.
3. Темиров А.А Доминирующие водоросли Кайраккумского водохранилища // Тезисы научной конференции посвященной 75-летию Ташкентского государственного университета. – Ташкент, 1995. – С. 94-95.А.А. Темиров О весенней флоре водорослей Каттасайского водохранилища // Доклады АН РУз. – Ташкент, 1995. – № 5-6. – С. 57-59. 94 – 95-b 57 – 59-b.
4. А.А. Темиров О весенней флоре водорослей Каттасайского водохранилища // Доклады АН РУз. – Ташкент, 1995. – № 5-6. – С. 57-59. 94 – 95-b 57 – 59-b.
5. Темиров А.А. Облобердиева М.О. Экологическая и систематическая характеристика почвенных водорослей города Чирчика. / https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal. - 341 May, 2022.
6. Темиров А.А. Систематическая характеристика порядка ULOTRICHALES верхного и средного течения реки Сырдарья./ Материалы Международной научной конференции «Становление и развитие экспериментальной биологии в Таджикистане» Душанбе: Дониш, 2022, -340 стр.
7. Темиров А.А., Халилов С. Вертикальное распределение фитопланктона в Кайраккумском водохранилище // Доклады АН РУз. – Ташкент, 1995. – № 7-8. – С. 62.
8. Темиров А.А., Халилов С. Развитие и распределение осенного фитопланктона Кайраккумского водохранилища // Доклады АН РУз.– Ташкент, 1994. – № 8. – С. 48-50.
9. Халилов С., Абдукадиров А., Умарова Б. Эвгленовые водоросли в водоемах Узбекистана // Экологический вестник. – Ташкент, 2001. – № 4. – С. 18-19.

10. Халилов С., Р.Ш.Шоякубов Коньюгатные водоросли водоемов и почв Узбекистана // Ботаника, экология, охрана растений: Материалы международной научной конференции. – Андижан, 2007. – С. 158-160.

11. Халилов С., Темиров А.А., Эролова Х.Т. Распределение и общность улотриксовых водорослей Узбекистана с другими флористическими районами Средней Азии, СНГ и мира // Актуальные проблемы альгологии, микологии и гидроботаники: Материалы международной научной конференции. – Ташкент, 2009. – С. 145-147.

EKOTURURISTIK ZONALARNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI O'RNI

Abdurahmonova Shahlo Sherali qizi
Navoiy Davlat universiteti 2-kurs magistratura talabasi,
e-mail; shahloabdurahmonova1301@gmail.com
tel:+998885591499

Annotatsiya: Hozirgi kunda butun dunyoda turli xil ekologik muammolar avj olib bormoqda. Masalan havoning ifloslanishi, atmosferadagi turli xil aerozol gazlarning suzib yurishi yoki issiqxona effektining tobora ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan, har bir mamlakat tabiatni asrash maqsadida o'zining ekoturistik maydonlarini kengaytirishga harakat qilmoqda.

Kalit so'zlar; Aerozol gazlar, issiqxona effekti,UNEP, ekoturistik mashrut,milliy bog'lar, turizm industriyasi, analiz, sintez.

Аннотация: В настоящее время во всем мире обостряются различные экологические проблемы. Например, мы можем наблюдатъ загрязнение воздуха, витание различных аэрозолных газов в атмосфере или усиление парникового эффекта. Поэтому каждая страна старается расщирить зоны экотуризма, чтобы сохранить природу.

Ключевые слова: Аэрозолъные газы, парниковый эффект, ЮНЕП, экотуристический маршрут, национальные парки, туристическая индустрия, анализ, синтез.

Annotation: Nowadays various environmental problems are escalating all over the world. For example, we can see air pollution, the floating of various aerosol gases in the atmosphere, or the increasing greenhouse effect. Therefore, each country is trying to expand its ecotourism areas in order to preserve nature.

Keywords: Aerosol gases, greenhouse effect, UNEP, ecotourism route, national parks, tourism industry, analysis, synthesis

Ushbu maqolaning dolzarbligi ekoturistik zonalar turizm industriyasining muhim qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda antropogen omil uchun ekologik turizm asosiy strategik yo'nalishlar qatoridan joy oldi.

Muhofaza etiladigan hududlar, milliy bog'lar va qo'riqxonalar insoniyat uchun katta qiziqish uyg'otadi. Lekin ular yashash muhitining buzilishi va hayvonlar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ekoturistik zonalarni yaratishda dastlab hudud bo'yicha monitoring olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Atrof-muhit dasturi (UNEP) asosan ekoturizm faoliyati amalga oshiradigan va ijobiy hamda salbiy ta'sirlari eng katta bo'lgan qishloqlarga e'tibor qaratadi. Bugungi kunda ekoturistik zonalarni tashkil etishda analiz, sintez, hamda kuzatish tatqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanish har tomonlama samara beradi.

Tatqiqot natijalari va olingan ilmiy xulosa rejalashtirilgan ekoturstik mashrutlar va ularni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar butun dunyo tabiatini ekoturistik maqsadda foydalanishning tabiiy geografik asosini yaratib berdi.

Butun dunyo mamlakatlari uchun ekoturistik zonalar yetarlicha mablag' olib kelishini, qo'riqlanadigan va tabiiy hududlarda mahalliy ekoturizmni rivojlantirish qo'llanilganda, ular o'rtasida makro va mikro darajada bog'liqlik mavjud ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Turizm industriyasining asosiy qismini ekoturizm tashkil etadi. Ekoturizmning rivojlanish yo'nalishlari tabiat qonunuiyatlari va geotizimlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida deyarli barcha davlatlarda tatqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan,

Rossiyada Stronza va J. Gordillo jamiyatning ekoturizmga qarashlarini o‘rganishdi. A. Maxmudova esa O’zbekiston Respublikasida ekoturizm samaradorligini oshirish bo‘yicha islohatlar olib bordi.

Tatqiqotlar jarayonida ushbu soha bilan individual va jamoviy darajadagi shug‘ullanishlar paydo bo‘ldi. 2001-yil esa Butun jahon bo‘yicha ekoturizmga bag‘ishlangan yil deb nomlandi. Bu esa iqtisodiy, atrof-muhit va ijtimoiy muammolar o‘zaro bog‘liq va integratsiyalashganligini tan oladigan “Uchlik pastki chiziq” deb ataluvchi barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Butun dunyo bo‘yicha ekoturistik loyihalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, asosiy tarkibiy qismida mamlakat asosiy o‘rin tutadi. Jumladan, Indoneziyada Tankahan ekoturizm tashkiloti mahalliy hamjamiyatlar muqobil daromad olish va tabiiy resurslarni himoya qilish uchun ekoturizm faoliyatini qanday boshqarishi mumkinligini ko‘rsatib bergan. Sitompulning fikricha “Ekoturizmni rivojlantirish tamoyillari, tabiatni muhofaza qilish tamoyillari, jamoatchilik ishtiroki tamoyillari, va iqtisodiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi, diqqatni tabiat va uning atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan boshqarish uchun qaratish zarurligini ta’kidlagan.

Ekoturizmni rivojlantirish uchun birqancha muommolar ham uchrab turadi jumladan, ba’zi loyihalar jamiyat ehtiyojlaridan ko‘ra tabiatni muhofaza qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bundan tashqari, barqaror ekoturizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun kadrlar tayyorlash va infratuzilmani yaxshilash zarurat ekanligini ta’kidlashimiz mumkin.

Jahonda ekoturistik tashkilotlarining ko‘payib borishi tabiat va jamiyat uchun qanday ahamiyatlidir. Ushbu sohaning rivojlanib borishi mahalliy sanoat, atrof-muhit uchun imtiyozlar yaratadi va sayyohlik idoralari, sayyohlik agentliklari uchun diqqatga sazovor joylar hamda tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni talab qiladi. Ekoturizm umumiy xalqaro sayohatlarning 20 foizini tashkil etadi va yiliga 20 milliard AQSH dollarini tashkil etadi hamda tabiiy va madaniy muhitni qayta tiklashga yordam beradi.

Ushbu tatqiqotni olib borish jarayoni tajriba bilan chambarchas bog‘liq. Chunki monitoring olib bormasdan turib ekoturizmni tashkil etishning imkoni mavjud emas. Ekoturizm tushunchasi ko‘pincha noto‘g‘ri tushuniladi va turizmning boshqa turlari masalan tabiat yoki sarguzasht turizmi bilan aralashtirib yuboriladi. Aniq ta’rif esa uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun juda muhimdir. Olim D. Weaverning ta’kidlashicha ekoturizm amaliyoti va afzalliklari mintaqalar bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Osiyoda ekoturizm ko‘pincha Tailand va Malayziyadagi kurort turizmi shakllari bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda mazkur tatqiqot antropogen omil uchun muhim hisoblanadi Shuningdek, malakali mutaxassislarning ortib borishi ham ushbu jarayon bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, agar amaliyotchilar tashkiliy o‘ziga xoslik nazariyasini qabul qilsalar, bir-biriga mos keladigan strategik va boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Bu o‘ziga xoslik ekoturistik tashkilotlarning maqsadiga erishishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolaning asosiy qismi quyidagicha tuzilgan:

Birinchidan, ekoturizm sohasini rivojlantirish deyarli barcha davlatlarda yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchidan, ekoturistik manzilgohlar yetarli darajada mablag‘ olib kelishiga qaramasdan, bir qancha muammolarga duch kelishi aniqlandi.

Uchinchidan, global miqyosida ekoturizmni rivojlantirish uchun inson ehtiyojlari emas, balki atrof-muhit birinchi o‘ringa qo‘yildi.

To‘rtinchidan, ekoturizmdan keladigan yillik foyda madaniy muhitni qayta tiklashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, ekoturizmni boshqa turdagi turizmga aralashitrmasdan, aniq mazmunini bilish, sohani yuqori darajadagi muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Oltinchidan, malakali ekoturistlarning yetishib chiqishi tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda turistik infratuzilmalarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun albatta sayyohlik obyektining mavjud holatini o‘rganish, uni baholash va istiqbol rejalarini tuzish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. J. Noregiya “ Ekologik ko‘rsatkichlar’’ – 2020.
2. Ralf.C.Bakli PloSONE 2020

3. D. Weaver “Barqaror rivojlanish xalqaro jurnali” 2002
4. Kamolov.B.X “ Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik xususiyatlari”. 2018.
5. Mo‘minov Doniyor G‘ulomovich “Qishloq joylarining geoekologik-xo‘jalik holati va uni takomillashtirish yo‘llari (Farg‘ona viloyati misolida) 2012.

TURLI EKOLOGIK SHAROITDA O’SAYOTGAN O’SIMLIKLARNING TABIIY SHAROITGA MOSLASHISHLARINI O’RGANISH

Mutalov KarimjanAbduraximovich
Chirchiq Davlat Pedagogika Universitet b.f.n., dotsent,
mutalovkarimzan@gmail.com
Turgunova dilnavoz Azizovna[1],Ro‘zimuradova Marmon Akram Qizi[2], Nosiraliyeva Gulyora Husniddin Qizi[3],G‘aniboyeva Mayramxon Obloberdi Qizi[4], Raxmatullayeva Munisaxon Jamoladdin qizi[5], Abdusattorova Shaxrizoda Umidjon qizi[6],Akramova Azizaxon To‘lqin Qizi[7], Babakulova Farangiz Uktamovna[8], Rametjanova Shahnoza Shuhratovna[9], Tuychiyeva Gulmira Kadirovna[10].
[1-10]CHDPU “Biologiya” kafedrasi talabalari

Kalit so‘zlar:O’simlik to‘qimalari, meristema turlari, trixomalar, trixoblastlar, ekotizm va biologik xilma-xillik.

Ключевые слова: растительные ткани, типы меристем, трихомы, трихобласты, экологическая система и биоразнообразие.

Keywords: Plant tissues, meristem types, trichomes, trichoblasts, ecolojikal and biodiversity.

Anotatsiya:Ushbu maqolada ekologik sharoit ta’siri natijasida o‘simliklarning, barg, poya va boshqa to‘qima xuhayralarida va ular asosida butun o‘simlikda yuzaga keladigan o‘zgarishlarini asosanbargi mikroskop ostida ko‘rib chiqiladi. Bizga ma’lumki o‘simliklarning o‘sish sharoitlariga bo‘lgan moslashish birinchi navbatda uning ichki tuzilishiga –anatomiyasidagi o‘zgarish bilan bevosita bog‘lik. O’simlikning anatonik tuzilishidagi xar qanday o‘zgarish uning morfoligik tuzilishida namoyon bo‘ladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются изменения, происходящие в клетках листьев и других частей растений, под воздействием условий среды а на их основе и в целом растений изучается под микроскопом. Как известно, адаптация растений к условиям произрастания, прежде всего, напрямую связана с изменением их внутренней структуры – анатомии. Любое изменение анатомического строения растения отражается в его морфологической структуре.

Abstract: This article examines the changes that occur in the cells of leaves and other tissues of plants and, based on them, in the whole plant as a result of the influence of environmental conditions under a microscope. As we know, the adaptation of plants to growing conditions is primarily directly related to changes in their internal structure - anatomy. Any change in the anatomical structure of a plant is reflected in its morphological structure. The article provides information on the specialization, development, structure, etc. of tissues

Kirish. Ozbekistonning cho‘l hududda deyarli butun yil davomida 70-120 mm. namlik tushadi. Quyosh radiatsiyasining intensivligi, haroratning yuqoriligi, tuproqga tushayotgan namlikka nisbatan bir necha baravar yuqori bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘sayotgan o‘simliklarda o‘sishi va rivojlanishi uchun bir qancha foydali o‘zgarishlar xosil qilgan bo‘lishi kerak. Jumadan:Qishgi vegetatsiya davrining bo‘lishi, issiq kunlarda yozgi tinim davrining kuzatilishi,ildiz tizimini o‘ziga hos kuchli rivojlanishi,rivojlanish davrining ko‘pincha bahor oylariga to‘g‘ri kelish, tuzilishida kseromorflikni namoyon bo‘lishi, hayotiy shaklning buta, yarim buta, ko‘py illik o‘t. efemeroid va efemer bo‘lishi. Butday moslanishlarni yuzaga kelishi birinchi navbatda ularni uchki va tashqi tuzilishdagi o‘zgarishlari bilan bog‘liq xolatda ekologik muxit sharoitlariga moslashishi xicoblanadi. O’simliklarda meristema to‘qima hujayralari boshqa ixtisoslashgan hujayralardan farq qilib ular mayda, bo‘lib hujayrasining asosiy qismini sitoplazma tashkil etadi. Meristema

xujayralarining yadrosi yirik, hujayra hajmining yarmini tashkil etadi, membranasida juda ko‘p teshikchalari bo‘ladi. Vakuolalari nihoyatda kichkina. Shakllangan plastidalar mavjud emas. Hujayralar o‘zaro zich joylashgan, hujayralararo moddasi kam bo‘ladi, to‘qima xujayralari butun umri davomida o‘zining faol ko‘payishi va fiziologik faolligini saqlab qoluvchi va o‘simlik o‘sishiga - umumiy massasining doimiy ortib borishiga sabab bo‘ladi.

O’simlik hujayralari ixtisoslashgandan so‘ng o‘zining ko‘payish xususiyatini yo‘qotadi, shu bilan birga ular boshqa tipdagi hujayralarga aylana olmaydi. Meristema (nemis olimi *Karl Vilgelm fon Negeli* fanga kiritgan) hujayralari juda oz ixtisoslashgan yoki umuman ixtisoslashmagan bo‘ladi.

To‘qimalar asosiy poydevor, o‘sish va tuzilishi, vazifalari hamda ularning ekologik omillarga moslashuvida muxim o‘rni bor. Shuningdek o‘simlik to‘qimalarining ekologik tizimlardagi o‘rni va kelajakdagi yangi o‘simlik turlarini poydo bo‘lishi va o‘zgaruvchanlikni yuzaga kelishida ekologik axamiyati kattadir. O’simliklarning anatomik va morfologik tuzilishi bir necha million yillar davomida murakkablashib borgan. Evolutsion jaroyonida yangi to‘qimalar (*N.Gryu* fanga kirgan) kelib chiqqan va ularning tarkibiga kiruvchi hujayralarning xillari va soni ortib borgan.

O’simliklarning tashqi muxit sharoitiga moslasuvi birinchi navbarda yuz beradigan morfologik, fiziologik va biokimyoviy o‘zgarishlar, shuningdek, ulardagi turli reaksiyalari orqali atrof-muhit sharoitlariga moslashishi kuzatiladi. Organizmdagi xar qavday o‘zgarishlar o‘simliklarning harorat, yorug‘lik, namlik va tuproq tarkibining o‘zgarishi kabi turli muxit sharoitlarda o‘sish va rivojlanishiga imkon beradi.

Bunday o‘zrarishlarni quyidagi turlarni kuzatish mumkin:

Morfologik o‘zgarishlarga o‘simliklarni tana tuzilishidagi o‘zgarishlar. Masalan: o‘simliklarni suv bug‘latishini meyyorlashtirish uchun barglarini qalin mum g‘ubor bilan qoplanishi, issiq, quruq tuproq sharoitida ildiz tizimini kuchli rivojlanishi;

Fiziologik o‘zgaishlarga: O’simliklarda haroratni o‘zgarishiga, kun uzunligiga va yorug‘lik intensivligiga qarab, fotosintez jarayonini jadallashivi yoki sekinlashuvini quyosh soatiga mos holda tartibga solinishi misol bo‘ladi.


Biokimyoviy o‘zgarishlarga: Baxorda biokimyoviy jarayonlarda barglarda va o‘simlikning boshqa organlarida xlorifil donachalarini xosil bo‘lishi va past xaroratdan ximoya qiluvchi moddalarni sintez qilinishi misol bo‘ladi.

Xulq-atvor: Atrof-muhit sharoitining o‘zgarishiga javoban o‘simlik barglarni to‘kilishi yoki tinim holatiga o‘tishi kabilar. Bundan tashqari ko‘pgina o‘simlikar

nam tanqisligiga moslanislar xosli qilgan. Masalan: Sukkulentlar (kaktuslar, aloe) - suvni poyasida yoki barglarida saqlaydi, ayrim o‘simliklar chuqur tuproq qatlamlaridan namlikni olish uchun kuchli ildiz tizimiga ega bo‘ladi.

Ayrimlari, movsumiy yorug‘lik yetishmasligiga jaoban moslanish xosil gilgan yani, ular fotosintez jadalligini oshiradi yoki susaytiradi. Xaroratning pasayishiga xam moslashishlar xosil qilgan bo‘lib, bu jarayon o‘simliklarda barglarini to‘kishi bilan, qishning sovuq kunlarida tanasida muz kristalchalari xosil bo‘lishidah ximoya qiladi va xokozo.

O’simliklardagi moslsnishlarga cho‘l o‘simligi tresken (Cadoides eversmanniana) misolida kuzatish mumkin. Ushbu o‘simlikni toshkent sharoitida o‘stirilganda barglari yiriklashgan, tuklanishi kamaygan, poyaning yuqorigi barg plastinkasi tuklanish qalinroq bo‘lgan. Kizilqum sharoitida o‘sgan o ‘simlikda esa barg plastinkasi nisbatan qalinlasgan bargning epidermal xujayralari uzaygan, 1 mm^2 barg plastinkasida ustitsalar soni kamaygan va tuklanishi qalinlashgan (1,2 Rrasm)



1-Rasm. Tresken (Cadoides eversmanniana) o‘simligi barg plastinkasi ko‘ndalang kesimi.1-barg plastinkasi;2- bir qavat zich epidermal xujayra;3- ustunsimon zich xujayra



2-Rasm. Tresken (Cadoides eversmanniana) o‘simligi barg plastinkasi orqa tomonida (1) - og‘izchalari va (2)- parenhima xujayrasi ko‘ rinishi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki barcha o‘simliklar tabiatning turli iqlim mintaqalarida o‘z o‘rnini topishi, o‘sib rivojlanib, ko‘payishi va o‘zidan nasl qoldirishi uchun – ma’lum ekologik muhitga turli darajadagi morfologik, anatomik tuzilishida va organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarida xam moslanishlar xosil qilgan, ularni botanika fanidan o‘tkaziladigan laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘simliklarni barg va to‘qimalarini xujayraviy tuzilishini o‘rganayotganda, kuzatib borish va uni tushinib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Икромов М.И., Нормуродов Х.Н., Юлдашев А.С. Ботаника (Анатомия и морфология растений). -Т.: Узбекистан, 2002. -331 с.

2. Ходжанов А.Н., Норбобоева Т., Файзиев В.Б. Ботаника (анатомия и морфология растений) -Т: «Узбекистан», 2022. -118 с.

3. Eshquvatova Adolat Vali Qizi, Mutalov Karimjan Abduraximovich. Piyoz - Allium costatovaginatumning biomorfologik xususiyatlari va ko‘paytirish usullari. International congress on modern sciencesiv "Global prospects for multidisciplinary research and education" chirchik state pedagogical university april 07-10, 2025 / chirchik, uzbekistan.346-348 b

4. Абдрашитова Е.В., Алланазарова И.А. Ботаника /Учебное пособие к лабораторним занятиям по курсу Ботаника «Низшие растения». –Чирчик: «City of book», 2023. -342 с.

5. Kholikova, M.., Babakhanova, D.., Rakhmatullayeva, A.., Khamrayev, R.., Abdrashitova, E.., Xojamkulova, Y.., Egamberdiev, R.., & Rejapova, M. (2024). Evaluation of yield and yield attributes traits of soybean (Glycine max L. Merr.) varieties in Uzbekistan. Journal of Wildlife and Biodiversity, 8(2), 260–268.

https://studfile.net/preview/2069443/page:2/
https://studfile.net/preview/2069443/page:2/

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ И КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ ДОШКОЛЬНИКОВ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Нуриддинова Майсара Икрамовна
Кандидат биологических наук, доцент кафедры методики начального и дошкольного образования Самаркандского государственного педагогического института
maysara57n@gmail.com
Джураева Ассаль Валеревна
Магистр Самаркандского государственного педагогического института
asalya.0707@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматривается роль цифровых образовательных ресурсов в развитии познавательных и коммуникативных навыков дошкольников с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. Раскрываются педагогические и психологические аспекты применения информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения и воспитания детей дошкольного возраста, имеющих различные формы ограниченных возможностей здоровья. Особое внимание уделяется значению цифровых средств обучения для формирования познавательного интереса, активизации мыслительной деятельности, а также для развития речевого общения и коммуникативных способностей детей. В статье также анализируются направления внедрения цифровых ресурсов в дошкольные образовательные организации Республики Узбекистан и подчеркивается их значение в создании доступной образовательной среды.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольники, цифровые образовательные ресурсы, познавательные навыки, коммуникативное развитие, особые образовательные потребности, информационно-коммуникационные технологии.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli ta’lim resurslarining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi, turli xil sog‘liq imkoniyatlari cheklangan bolalar bilan ishlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik va psixologik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, raqamli o‘quv vositalarining bolalarda bilishga qiziqishni shakllantirish, tafakkur faoliyatini faollashtirish hamda nutqiy muloqot va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada O’zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli resurslarni joriy etish yo‘nalishlari tahlil qilinib, ularning ta’lim muhitini yanada qulay va ochiq qilishdagi o‘rni ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, raqamli ta’lim resurslari, bilish ko‘nikmalari, kommunikativ rivojlanish, maxsus ta’lim ehtiyojlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Abstract: This article examines the role of digital educational resources in developing cognitive and communication skills among preschool children with special educational needs in the context of inclusive education. The pedagogical and psychological aspects of applying information and communication technologies in the education and upbringing of preschool children with various forms of disabilities are discussed. Special attention is paid to the importance of digital learning tools in fostering cognitive interest, stimulating thinking activity, and enhancing speech and communication abilities. The article also analyzes the directions of implementing digital resources in preschool educational institutions of the Republic of Uzbekistan and emphasizes their role in creating an accessible and inclusive educational environment.

Keywords: inclusive education, preschool children, digital educational resources, cognitive skills, communicative development, special educational needs, information and communication technologies.

Современное образование все активнее интегрирует цифровые технологии в образовательный процесс, что становится важным условием повышения его качества и

доступности. В условиях инклюзивного обучения цифровые образовательные ресурсы приобретают особое значение, так как они обеспечивают возможность адаптации образовательного материала под индивидуальные потребности каждого ребёнка. Для дошкольников с особыми образовательными потребностями цифровая среда создаёт дополнительные условия для развития познавательных и коммуникативных навыков, способствуя их успешной социализации и личностному росту.

Использование цифровых образовательных ресурсов позволяет педагогу реализовать принципы индивидуализации и дифференциации обучения. Мультимедийные программы, интерактивные игры, обучающие приложения, а также развивающие мультфильмы способствуют активизации познавательных процессов — внимания, памяти, восприятия, мышления и воображения. Дети, испытывающие трудности в усвоении информации традиционным способом, получают возможность воспринимать учебный материал с помощью наглядных, аудиовизуальных и интерактивных элементов, что облегчает понимание и способствует закреплению знаний. Таким образом, цифровые технологии создают условия для формирования у дошкольников познавательного интереса, стремления к исследованию и самостоятельному поиску решений.

Развитие познавательных навыков у детей с особыми образовательными потребностями тесно связано с формированием умений сравнивать, классифицировать, выделять существенные признаки объектов, устанавливать причинно-следственные связи и делать элементарные выводы. Цифровые ресурсы позволяют выстраивать процесс обучения в игровой форме, что особенно важно для дошкольного возраста. Обучающие игры стимулируют активное участие ребёнка, вызывают положительные эмоции, повышают мотивацию и способствуют закреплению учебного материала. Например, использование простых интерактивных упражнений, направленных на развитие внимания и памяти, помогает детям с нарушениями речи или задержкой психического развития лучше усваивать информацию и дольше удерживать её в памяти.

Наряду с познавательным развитием, цифровые образовательные ресурсы играют значительную роль в формировании коммуникативных навыков дошкольников с особыми потребностями. Для многих таких детей общение представляет трудность: они испытывают затруднения в понимании речи, формулировке высказываний, установлении контакта со сверстниками. Цифровые технологии в этом случае выступают в качестве посредника, облегчающего коммуникацию.

Список использованной литературы

1. Искакова Н. Х. Использование цифровых технологий в системе инклюзивного дошкольного образования Узбекистана // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2023. – № 4. – С. 55–62.
2. Саидова М. Р. Инновационные технологии в развитии коммуникативных навыков детей дошкольного возраста // Проблемы современного образования Узбекистана. – 2023. – № 5. – С. 58–63.
3. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Педагогика, 2020. – 144 с.
4. Ершова И. В. Цифровая образовательная среда как средство развития познавательной активности детей дошкольного возраста // Современные проблемы науки и образования. – 2021. – № 2. – С. 35–40.
5. UNESCO. Inclusive Early Childhood Care and Education: Policy Review Guidelines. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 96 p.

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDAGI BIOLOG OLIMLARNING VILOYAT IJTIMOIY – IQTISODIY RIVOJLANISHIGA QO'SHGAN HISSASI

Murodova Saodat Meliyevna
Suyarova Durdona Baxtiyarovna
Jizzax viloyati malaka oshirish kursi tinglovchilari

Annotatsiya: Jizzax davlat pedagogika institutidagi biolog olimlarning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini o'rganish,ularni amaliyotda qo'llash yuqori natijalarga erishishga imkoniyat beradi. Jumladan olimlarning qishloq xo'jaligi soxasiga,tibbiyotga qo'shgan hissasi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy soha,iqtisodiy soha, ilm –fan va ta'lim integratsiyasi, Oliy ta'lim,maktab faoliyati,tibbiyot soxasi,asalarichilik,chorvachilik,oziq-ovqat sohasi.

Аннотация: Изучение вклада ученых-биологов у Джизакского государственного педагогического института в социально-экономическое развитие региона и применение их на практике даёт возможность добиться высоких результатов, среди которых вклад ученных в области сельского хозяйства и медицины это важно.

Ключевые слова: Социальная сфера, экономическая сфера, интеграция науки и образования, высшее образование, школьная деятельность, медицинская сфера, пчеловодство, животноводство, продовольственная сфера.

Abstract: Studying the contribution of biological scientists of the Jizzakh State Pedagogical Institute to the socio-economic development of the region and applying them in practice gives an opportunity to achieve high results. Among them, the contribution of scientists to the field of agriculture and medicine is important.

KEY WORDS: Social sphere, economic sphere, integration of science and education, higher education, school activities, medical sphere, beekeeping, animal husbandry, food sphere.

Hozirgi kunda kafedra "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasi deb atalib 22 nafar professor-o'qituvchilar asosiy shtatda 4 nafari tashqi o'rindosh sifatida faoliyat olib boradi. Shundan 6 tasi ilmiy darajali 4 nafari biologiya fanlari nomzodi Imomova D, Sanaeva L, Qarshiboeva N, Qodirov G', 2 nafari biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Azimova D, Xamraeva N, 4 nafari katta o'qituvchi, 4 nafar professor-o'qituvchi biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilish arafasida. Kafedradagi tashqi o'rindosh professor-o'qituvchilarning 1 nafari akademik, 3 nafari dotsent lavozimida faoliyat yuritmoqda. Ilmiy salohiyat 31,8 % ni tashkil qiladi.

Biologiya o'qitish metodikasi yo'nalishida jami 456 ta talaba bo'lib, shundan 1 bosqichda 184 ta, 2 bosqichda 113 ta, 3 bosqichda 87 ta, 4 bosqichda 72 ta talaba tahsil oladi.

2012-2013 - o'quv yilidan boshlab kafedrada magistratura mutaxassisligi ochildi va 03.00.05- Botanika ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura instituti faoliyat olib bormoqda.

Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriat:

- Zoologiya
- Botanika
- Biologiya o'qitish metodikasi
- Rivojlanish biologiyasi
- Umumiy mikrobiologiya. Biotexnologiya
- Odam anatomiya va fiziologiyasi
- Biologiyadan masala va mashqlar yechish
- Qishloq xo'jaligining biologik asoslari
- Genetika. Evolyutsion ta'limot
- Biolkimyo va molekulyar biologiya
- Biologiya o'qitish texnologiyasi va loyihalash
- Bioxilma-xillik va uni muhofaza qilish
- Biometriya
- Mutaxassis fanlarni o'qitish metodikasi

Kafedra professor o‘qituvchilari

- Azimova Dilnoza Ergashevna – Kafedra mudiri, dotsent
- Imomova Dilfuza Anorovna - b.f.n
- Xamrayeva Nafisa Tirkashevna – b.f.d. (PhD)., Dotsen v/b
- Qarshiboyeva Nasiba Xaydarovna – b.f.n., Katta o‘qituvchi
- Sanayeva Lola Shukurboyevna – b.f.n., Katta o‘qituvchi (tashqi o‘rindosh)
- Umirov Nurilla Usanovich – Katta o‘qituvchi
- Kubakova Klara Karshiboyevna – Katta o‘qituvchi
- Pardaeva Xurshida Olimjonovna – Katta o‘qituvchi
- Aberkulov Egamberdi Abduraimovich – O’qituvchi
- Rasulov Olimjon Murotovich – O’qituvchi
- Ortiqova Lola Soatovna - b.f.n., Katta o‘qituvchi
- Avalboev Olimjon Narqo‘zievich – O’qituvchi
- Maxammadiev Davron Muyassarovich – O’qituvchi
- Abdullaeva Nilufar Sagdullaevna – O’qituvchi
- Soatov Baxrom Baxtiyorovich – O’qituvchi
- Berdiqulov Xudayshukur Keldiyorovich – O’qituvchi
- Siddiqova SHaxnoza – O’qituvchi
- Ishanqulova Dilafruz Ulug‘bek qizi – O’qituvchi
- Xasanova Xilola Muxammad qizi – O’qituvchi
- Imomova Shamsiya Abduvaxobovna – O’qituvchi
- Matmuratova Gulnoza Baxtiyarovna – O’qituvchi
- Mardanov Ziyodullo Abdullayevich – O’qituvchi
- Usanov Ulug‘bek Nurilla o‘g‘li – O’qituvchi
- Qodirov G‘ayrat Uroqboyevich – b.f.n. Dotsent
- Tojiboev Komiljon – b.f.d. akademik
- Esanqulov Alijon - b.f.n
- Turgenov Orzimat - b.f.d. (PhD)., Dotsent

Bakalavriat

5110400 - **Biologiya o‘qitish metodikasi**

Magistratura

5A110401- Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (biologiya)

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar

“Biologiya o‘qitish metodikasi” kafedrasida 25 dan ortiq o‘quv qo‘llanma 6 ta monografiya, 8 ta elektron o‘quv qo‘llanma, 60 dan ortiq xalqaro miqyosdagi jurnallarda maqolalar, 100 ortiq OAK tasarrufidagi jurnallarda ilmiy maqolalar va 300 dan ziyod respublika va xalqaro miqyosdagi tezislar nashr qilingan. Kafedrada 8 ta ixtiro (patent) qo‘llanmalar tayyorlandi. Kafedrada G‘.Qodirov, D.Azimova, O.Avalboevlar 2019-2021 yillarga mo‘ljallangan I-01-2019-43 “Kovrak o‘simligini O’zbekistonning lalmikor va sho‘rxok yerlarida plantatsiyalarini barpo etish agrotexnikasi” mavzusidagi innovatsion loyihada ishtirok etmoqda.

Biologiya o‘qitish metodikasi kafedrasi ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida Zomin davlat qo‘riqxonasi, Zomin milliy bog‘i, Jizzax viloyati ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Jizzax viloyati o‘rmon xo‘jaligi, Shreder Mirzayev bog‘lari Jizzax viloyati bo‘limi, Jizzax viloyati perinatal markazi bilan shartnomalar tuzilgan va hamkorlik ishlari olib borilyapti.

Biologiya o‘qitish metodikasi kafedrasida xalqaro hamkorlik va chet el bilan ilmiy aloqalar rivojlantirish maqsadida Rossiya federatsiyasi Sankt- Peterburg shahridagi V.L.Komarova nomidagi Botanika instituti” va Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti (UFA) va O’zFa “Botanika instituti” bilan ilmiy hamkorlik shartnomalari tuzilgan va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilyapti. Biologiya o‘qitish metodikasi kafedrasining ilmiy hamkorlik shartnomalari asosida Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti (UFA) b.f.d., professor Ishberdin A.R ishtirokida 2019 yil yanvar oyida ilmiy seminar bo‘lib o‘tdi.

Biologiya o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi Imomova SHamsiya Avduvahobovna V.L.Komarova nomidagi Botanika instituti bilan tuzilgan ilmiy hamkorlik shartnomasiga asosan va Buyruq - K – 180 bilan Rossiya federatsiyasi Sankt Peterburg shahriga ilmiy stajirovkaga yuborilgan. Kafedrada ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida akademik K.SH.Tojibaev bilan juda ko‘plab ilmiy seminarlar tashkil qilingan.

2002 yildan boshlab kafedra O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasining yetakchi tashkiloti sifatida ro‘yxatga olinib ilmiy seminar tashkil qilingan va hozirgi kunga qadar 20 dan ortiq dissertatsiyalar muhokama qilinib himoyaga tavsiya qilindi.

2019 yil 14-15 mart kunlari “Biologiya o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori marhum Umarqul Rahmonqulov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan “O’zbekiston bioxilma-xilligi, uni saqlashda o‘simlik va hayvonot dunyosining roli” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi. Unda kafedra prof-o‘qituvchilari tomonidan 40 dan ziyod maqolalar nashr ettirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet manbaalari

2. «Biologiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fani bo‘yicha amaliy va seminar mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. Muallif: katta o‘qituvchi K.K.Kubakova. Taqrizchilar: p.f.d. prof. Sh.Mardonov., katta o‘qituvchi F.Rabbimova.

HAYVONLARNING OZIQLANISHI

Musaboyeva Maftuna Abduvahobovna
Jizzax viloyati malaka oshirish biologiya kursi tinglovchisi

Kirish. Hayvonlar tirik organizmlar bo‘lib, ular yashash, o‘sish, ko‘payish va harakat qilish uchun oziq moddalarga ehtiyoj sezadilar. Oziqlanish — bu hayvonlarning hayotiy faoliyatini ta’minlaydigan eng muhim jarayonlardan biridir. Har bir tur o‘ziga xos oziqlanish usuliga ega. Ba’zi hayvonlar o‘simliklar bilan, boshqalari esa go‘sht bilan yoki aralash oziq bilan oziqlanadi. Shuningdek, hayvonlarning oziqlanish tizimi ularning tuzilishi, yashash muhiti va biologik xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir.

Tabiatda oziq zanjiri (trofik zanjir) orqali barcha tirik mavjudotlar o‘zaro bog‘lanadi. O’simliklar — ishlab chiqaruvchilar, hayvonlar — iste’molchilar, mikroorganizmlar esa parchalaydiganlar sifatida bu zanjirda muvozanatni ta’minlaydi. Shu boisdan hayvonlarning oziqlanish jarayonlarini o‘rganish ekologik barqarorlikni tushunishda ham muhim ahamiyatga ega.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hayvonlarning oziqlanish turlari, ularning biologik va ekologik ahamiyati, oziq zanjiri hamda oziqlanish jarayonining organizm hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqola orqali o‘quvchilar turli hayvonlarning oziqlanish usullari, ular orasidagi farqlar va moslanish mexanizmlarini o‘rganadilar.

Kalit so‘zlar: hayvonlar, oziqlanish, oziq zanjiri, ekologiya, biologiya

Annotation. This article analyzes the types of animal nutrition, their biological and ecological significance, the food chain, and the role of nutrition in animal life. It helps students understand the differences and adaptations in feeding habits among various animals.

Keywords:a nimals, nutrition, food chain, ecology, biology

Аннотация: В данной статье рассматриваются типы питания животных, их биологическое и экологическое значение, пищевая цепь и роль питания в жизни животных. Статья помогает учащимся понять различия и адаптацию в способах питания различных животных.

Ключевые слова: животные, питание, пищевая цепь, экология, биология

Hayvonlarning oziqlanishi ularning hayotiy faoliyatini ta’minlovchi eng muhim

jarayonlardan biridir. Oziqlanish hayvonlar organizmiga energiya va hayot uchun zarur bo‘lgan ozuqa moddalarini yetkazib berish imkonini yaratadi. Hayvonlar turli xil ekologik muhitda yashaydigan bo‘lib, ularning oziqlanish tizimlari va strategiyalari ham turlicha rivojlangan. Hayvonlar oziq moddalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlarining atrof-muhitidan olishadi va bu jarayon

ularning biologik ehtiyojlariga mos ravishda shakllanadi. Hayvonlarning oziqlanishi va uning biologik rolini tushunish, ularning o‘sishi, rivojlanishi va yashash muhitidagi o‘zgarishlarga qanday moslashishini anglashda yordam beradi.

Hayvonlar – geterotrof organizmlar, ya’ni ular tayyor organik moddalar bilan oziqlanadi. Hayvonlarda metabolizm faol kechishi tufayli ularning o‘sishi cheklangan. Evolyutsiya jarayonida har xil organlar funksional sistemasi: muskul, ayirish, nafas olish, qon aylanish, jinsiy va nerv sistemalarining shakllanishi hayvonlar uchun xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Hayvonlar hujayrasi qattiq sellyuloza qobiqning bo‘lishi bilan o‘simliklardan farq qiladi. Biroq hayvonlar bilan o‘simliklar o‘rtasidagi farq nisbiy.

Masalan, bir hujayrali hayvonlarning muskul, nerv va boshqa sistemalari bo‘lmaydi; ko‘p hujayrali hayvonlar orasida ham o‘troq yashaydiganlari ko‘p (masalan, g‘ovaktanlilar, bo‘shliqichlilar, mshankalar, assidiyalar, ko‘p tukli chuvalchanglar). Ayrim organizmlarni oziqlanish usuli (fotosintez) va harakatlanishiga binoan bir vaqtning o‘zida hayvonlarga ham, o‘simliklarga ham kiritish mumkin (masalan, evglenasimonlar, volvokslar va boshqalar). Hayvonlar bilan o‘simliklar o‘rtasida keskin chegaraning bo‘lmasligi ularning kelib chiqishidagi umumiylik bilan bog‘liq. Hayvonlar va o‘simliklarning hujayralardan tuzilganligi, ular tanasida boradigan moddalar almashinuvi jarayonining umumiyligi, irsiyat va o‘zgaruvchanlik qonuniyatlarining o‘xshashligi va boshqa ana shundan dalolat beradi.



Hayvonlarning oziqlanishi ularning turiga, yashash muhitiga va fiziologik ehtiyojlariga qarab farq qiladi. Oziqlanish turlari quyidagicha ajratiladi:

1. O’simlikxo‘r hayvonlar (fitofaglar) — faqat o‘simlik mahsulotlari bilan oziqlanadi. Masalan: sigir, qo‘y, ot, quyon va boshqalar.

2. Go‘shtxo‘r hayvonlar (yirtqichlar, karnivorlar) — boshqa hayvonlarning go‘shti bilan oziqlanadi. Masalan: sher, bo‘ri, yo‘lbars, mushuk.

3. Aralashxo‘r hayvonlar (omnivorlar) — o‘simlik hamda hayvon mahsulotlarini iste’mol qiladi. Masalan: inson, cho‘chqa, ayiq, it.



Har bir hayvonning oziqlanish tizimi uning ovqat hazm qilish organlari tuzilishiga bog‘liq. Masalan, o‘simlikxo‘r hayvonlarda ko‘p bo‘g‘imli oshqozon mavjud bo‘lib, ular murakkab o‘simlik tolalarini hazm qilishga moslashgan. Go‘shtxo‘r hayvonlarda esa kuchli jag‘ mushaklari va o‘tkir tishlar mavjud bo‘lib, ular go‘shtni yirtib yeyishga moslashgan.



Tabiatda va odam hayotida hayvonlar katta ahamiyatga ega. Hayvonlar – barcha ekosistemalarda oziqlanish zanjirining asosiy tarkibiy qismi. Hayvonlar o‘simliklar bilan oziqlanib, o‘zlashtirgan moddalarining yana tuproqqa qaytarilishiga, binobarin o‘simliklarning o‘sishiga imkon beradi. O’simlik va hayvonlar qoldig‘i bilan oziqlanadigan hayvonlar Yer yuzini organik qoldiqlardan tozalab, tabiiy sanitarlik vazifasini bajaradi. Yirtqich hayvonlar tabiatda zararkunanda hayvonlarning sonini cheklab turishga yordam beradi. Hayvonlar odam hayotida ham katta ahamiyatga ega. Oziqlanish jarayonining yana bir muhim jihati — bu energiya almashinuvi. Har bir hayvon oziq orqali energiya oladi va uni hayot faoliyatida sarflaydi. Shuningdek, oziq zanjiri orqali energiya bosqichma-bosqich o‘tadi: o‘simliklardan hayvonlarga, hayvonlardan esa parchalaydigan mikroorganizmlarga.

Xulosa. Hayvonlarning oziqlanishi — ularning yashashi, o‘sishi, rivojlanishi va nasl qoldirishi uchun eng muhim jarayonlardan biridir. Har bir hayvon turi o‘zining tuzilishi va hayot tarzi asosida ma’lum bir oziqlanish turiga moslashgan. O’simlikxo‘r hayvonlar o‘simliklardan, go‘shtxo‘rlar esa boshqa hayvonlarning go‘shtidan, aralashxo‘rlar esa har ikkala manbadan oziq oladi.

Oziqlanish jarayonida hayvonlar tabiatdagi moddalar aylanishida muhim o‘rin tutadi — ular o‘simliklar tomonidan ishlab chiqarilgan organik moddalardan foydalanib, keyinchalik bu moddalarning parchalanishida ishtirok etadilar. Shu tariqa, oziqlanish ekologik muvozanatni saqlashga, tabiatdagi energiya oqimini ta’minlashga xizmat qiladi.

Demak, hayvonlarning oziqlanishi nafaqat ularning hayot faoliyati uchun, balki butun ekotizimning barqarorligi uchun ham zarur bo‘lgan tabiiy jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov S., “Zoologiya asoslari”, Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2021.
2. To‘xtaboyeva N., “Umumiy biologiya”, T.: Fan va texnologiya, 2020.
3. Campbell N. A., Reece J. B., “Biology”, Pearson Education, 2019.
4. Odum E. P., “Ecology: The Link Between the Natural and Human Worlds”, 2004.
5. Internet manbalari: www.biologiya.uz, www.nationalgeographic.com

ZA’FARON (ZA’FARON) O’SIMLIGINING TABOBATDA VA XALQ XO’JALIGIDAGI AHAMIYATI

Abduraxmonova Xumoroy, Qodirova Nodira
Sharof Rashidov tumani 16-maktab Biologiya o‘qituvchisi

Ekma za’faron (Crocus sativus - za’faron posevnoy)ning gulchangchi (rьlsa)si asosiy xomashyo hisoblanib, tibbiyotda dori-darmon vositasi sifatida, oziq-ovqat sanoatida turli xil mahsulotlarga rang, hid va ta’m beruvchi ziravor sifatida foydalaniladi. Za’faronning o‘simligi qadimdan dorivor vosita sifatida xalq tabobatida ishlatilgan.



Ekma za’faron (Crocus sativus)

Za’faron xalq tabobatida bebaho dorivor va xushbo‘y ziravorli giyoh hisoblanib, za’faron o‘simligining inson salomatligi uchun foydali xususiyatlarini sharq mutafakkir olimlari Abu Rayhon Beruniy (1974), Abu Ali ibn Sino (1994) o‘z asarlarida ishlatish uslublarini keltirib o‘tganlar.

Abu Ali ibn Sino «Al-qonun» asarida 900 ga yaqin o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Asarda za’farondan 100 dan ortiq kasalliklarni davolashda foydalanilishini qayd etgan. Abu Ali ibn Sinoning ma’lumotlariga ko‘ra,za’faron burishtiruvchi va erituvchi bo‘lib, burishtirish va elimlash xususiyati bo‘lganligidan etiltiruvchi xususiyati ham bor. Issiqligi mo‘tadil bo‘lganligi uchun tomirdagi har xil tiqilmalar yoki tromblarni davolashda foydalaniladi. Ichki a’zolarni kuchaytiradi, tana terisi rangini chiroyli, ko‘zni ravshan qiladi va yurak faoliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, balg‘am ko‘chishini osonlashtirib, nafas a’zolarining faoliyatini maromga soladi.

Shuningdek, za’faronning o‘simligi, ya’ni gulchangchilari damlab ichilganda tana terisini silliqlashtiradi, terida qizillik va jilo paydo qilish xususiyatiga ega bo‘lib,chiroyni ochadi. shish va jarohat izlarini silliqlashtiradi. Ko‘z a’zolariga ijobiy ta’sir etadi, ko‘zning ko‘rish qobiliyatini oshiradi, ko‘zdan oqadigan har xil ajralmalarni to‘xtatadi. Yurak quvvatini oshiradi, zotiljam xastaligida bemorga hidlatilsa tinchlantiradi va uxlatadi. Ayniqsa, za’faron yog‘i nafas yo‘llarini tozalaydi, nafasni ravonlashtiradi va nafas a’zolari faoliyatini kuchaytiradi. Jigar va oshqozonning quvvatini kuchaytiradi. Jolinus (Galen)ning fikricha, za’faron o‘simligining harorati uning xususiyatiga ko‘ra kuchliroq bo‘lib, yog‘i qizitish xususiyatiga ega. Za’faron organizmdagi barcha tabiiylikni saqlab qoladi va zaiflikning oldini oladi. Ichki a’zolar quvvatini oshiradi. Agar za’faron me’yoridan ortiq iste’mol qilinsa, bosh og‘rig‘I paydo qiladi, uyquni keltiradi, sezishni susaytiradi yoki ko‘ngilni aynitadi. Shuningdek:

- qaynatmasi qon bosimini tushiradi;
- katta dozasi bachadonni qo‘zg‘atadi yoki kichik dozasi qisqartiradi
-- issiq mijozli insonlar ko‘p ishlatsa bosh og‘irlashadi.

Za’faron o‘simligi tarkibida, karotinoidlar (krotsin, pikrorkrotsin), flavonoidlar, efir moylari (za’faronal), V, V2 vitaminlari, yog‘, azotli moddalar, qandlar,kaliy va kalsiy birikmalari mavjud. Rasmiy tibbiyotda za’faronning engil tetiklashtiruvchi, ayollar hayz jarayonlarini mo‘tadillashtiruvchi, tug‘ruqdan keyingi og‘riqni qoldiruvchi, gepatit, qonli ich ketishining oldini olishda va undan tayyorlangan surtma esa tuxumdon shamollashi, gemorroy, tomir tizimining tortishish kasalliklarida, ko‘z kasalliklarida qo‘llaniladi.

O’simlikning suvli eritmasi tinchlantiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, ich ketish, siydik haydovchi antispazmatik, antiseptik xususiyatga ega, bundan tashqari, jigar, oshqozon hamda yurak xastaliklari kasalliklarida keng qo‘llaniladi. Za’faron eritmasi stenokardiya, yurak funksional

kasalliklarida, qon kasalliklarida (leykemiya), jinsiy a’zolar funksiyasini kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Ushbu o‘simlikni kimyoviy va farmatsevtik xususiyatlari borasida keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida o‘simlikning urug‘chisi tarkibida saraton kasalliklarida qo‘llash mumkin bo‘lgan moddalar mavjudligi. Za’faron oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda qadimdan ishlatilib kelingan. O’simlikning gul ustuncha- larida 50 foizdan ortiq bo‘yovchi modda krotsin yoki polixroit,2,7 foiz yog‘, 0,32 foiz efir moyi, shuningdek, V, V2 vitaminlari, azotli moddalar, qandlar, kaliy va kalsiy birikmalari mavjudligi sababli, u qo‘shilgan oziq-ovqat mahsulotlari bir necha kun o‘z sifatini yo‘qotmaydi. Za’faron tarkibi jihatidan shunisi bilan xarakterliki, uning ozgina miqdori, ya’ni 6-7 tomchisi (spirtdagi eritmasi) 1 litr yoki 1 kg ozuqaga rang, ta’m berish xususiyatiga ega. O’simlik o‘ziga xos xushbo‘y hidga ega bo‘lganligi, taomga yorqin rang va ta’m berganligi sababli ularni tayyorlashda tabiiy yoki rasmiy ravishda foydalanilgan.

Qandolat mahsulotlari pechene, keks, pirog, turli bulochka, turli kremlar, muzqaymoq tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, saryog‘, pishloqlarga rang berishda, salqinlantiruvchi ichimliklarga xushbo‘ylik berishda, hatto choy hamda kofeni sifatli va xushxo‘r qilishda ham ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagi 114-sonli yig‘ilish bayonining “Respublikamizda za’faron (shafran) plantatsiyalarini barpo etish, farmatsevtika sanoati ehtiyojlarini ta’minlash va eksportbop dorivor o‘simliklarni ko‘paytirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi EDO-03/1-421-son qarori

2. Abu Ali ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki. Izbrannыe razdelы. V 3-ch. (sostaviteli: Karimov U.I., Xurshut E.U) -Tashkent:MIKO. –Fan, 1994.-1ch. –400 s., 2 ch. –360 s., 3ch. –232 s.

3. AskerovA. Turkiya Respublikasi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100ta kitob”dan iborat to‘plami SHafran. – Baku : Azerneshr, 1934. – 113 s.

4. Garagezov T.G., Gasыmov K.G., Serkerov S.V., Novruzov E.N., Muradov P.Z., SHaxmuradov I.A. Strategiya izucheniya bio- logii Apsheronskoy populyasii shafrana (Crocus sativus L.) // AMEA-nın Xəbərləri (biologiya və tibb elmləri), 2017. - Cild 70.№2. – s.164-173.

5. Zemlinskiy S. E. Lekarstvennыe rasteniya SSSR. – M.: Medgiz, 1958. – 608 s.

6. Mahmudov A.V. Crocus turkumi turlarining O’zbekiston sharoitida introduksiyasi va bioekologik xususiyatlari: Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 44b

MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FIZIKA TA’LIMIDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR

Razzoqov Ilhom Davronovich,
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Axmatqulov Shahzodjon Fayzullo o‘g‘li,
Axborot tizimlari va texnologiyalari ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika ta’limida multimediali texnologiyalarni qo‘llashning xorijiy tajribalari, ularning milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari hamda amaliyotdagi muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, O’zbekiston ta’lim tizimida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish yo‘llari va samaradorlik omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fizika ta’limi, multimediali texnologiyalar, xorijiy tajriba, raqamli ta’lim, interaktiv o‘qitish, muammolar va yechimlar.

Аннотация. В статье анализируется зарубежный опыт использования мультимедийных технологий в преподавании физики, возможности их адаптации к национальной системе образования и практические проблемы. Также рассматриваются пути интеграции современных информационно-коммуникационных технологий в преподавание физики в системе образования Узбекистана и факторы эффективности.

Ключевые слова: преподавание физики, мультимедийные технологии, зарубежный опыт, цифровое образование, интерактивное обучение, проблемы и решения.

Abstract. The article analyzes foreign experience in the use of multimedia technologies in teaching physics, the possibilities of their adaptation to the national education system, and practical challenges. It also examines ways of integrating modern information and communication technologies into the teaching of physics within Uzbekistan's education system and the factors influencing effectiveness.

Keywords: teaching physics, multimedia technologies, foreign experience, digital education, interactive learning, challenges and solutions.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim sohasida multimediali texnologiyalarni qo'llash jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xususan, fizika fanini o'qitishda animatsiyalar, virtual laboratoriyalar, 3D simulyatsiyalar va raqamli darsliklardan foydalanish o'quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, abstrakt tushunchalarni vizuallashtiradi va o'zlashtirish darajasini yuksaltiradi.

Xorijiy davlatlar, xususan, AQSh, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreyada fizika ta'limida "Digital learning", "Flipped classroom", va "STEM-integratsion" yondashuvlar asosida ta'lim jarayonlari yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo amaliyotda multimediali vositalarni samarali qo'llashda metodik, texnik va malaka muammolari mavjud.

Metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Taqqoslama tahlil metodi – xorijiy mamlakatlardagi fizika ta'limidagi multimediali yondashuvlar bilan O'zbekiston tajribasi solishtirildi.

Empirik kuzatish – mahalliy o'quv jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanish holati o'rganildi.

So'rovnoma va intervyu – fizika o'qituvchilari, o'quvchilar va metodistlar orasida o'tkazildi.

Statistik tahlil – o'quvchilarning natijalari va motivatsiya o'zgarishlari qayd etildi.

Natijalar va muhokama

Xorijiy tajribalar tahlili.

AQShda PhET Interactive Simulations (Colorado University) platformasi o'quvchilarga murakkab fizik jarayonlarni interaktiv tarzda tushunishga yordam beradi.



PhET interaktiv simulyatsiya platformasi

Finlyandiyada **"**Inquiry-based learning" modeli asosida multimedia vositalari yordamida o'quvchilar tajriba asosida bilim oladilar.

Koreyada esa Smart Education dasturi doirasida fizika faniga AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) ilovalari keng tatbiq etilmoqda.

Milliy tajribalar.

O’zbekiston ta’lim tizimida “Elektron ta’lim resurslari markazi”, “Ziyonet”, “Eduportal” kabi platformalarda multimediali darsliklar mavjud. Ayrim maktablarda PhET va Algodoo simulyatorlari darslarda qo‘llanilmoqda. Biroq ularning keng qamrovda joriy etilishi uchun texnik infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi hamda metodik qo‘llanmalarning yetarli emasligi aniqlangan.

Asosiy muammolar:

Texnik ta’minotning yetarli emasligi (kompyuter, internet, elektron doska, proyektorlar).

O’qituvchilarning multimediali vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmasi pastligi.

Metodik tavsiyalar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yetishmasligi.

Ta’lim mazmuni va multimedia vositalarining o‘zaro mos kelmasligi.

Takliflar:

Fizika o‘qituvchilari uchun multimediali o‘qitish metodikasi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.

Har bir fizika bo‘limi uchun milliy multimediali simulyatsiya platformasi yaratish.

O’quv jarayonida xalqaro ochiq resurslardan (PhET, CK-12, Khan Academy) keng foydalanish.

Maktablar o‘rtasida virtual laboratoriyalar tarmog‘ini yaratish orqali tajriba almashish tizimini joriy etish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, multimediali texnologiyalarni fizika ta’limiga samarali joriy etish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o‘qitish sifatini yaxshilaydi hamda fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. Xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish jarayonida muammolarni tizimli yondashuv asosida hal etish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder.

2. Ministry of Education of Finland. *Inquiry-based Science Education Framework*, 2022.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarori “Raqamli ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

4. Ziyonet.uz – Ta’limiy elektron resurslar portali.

5. Khan Academy Physics Resources, 2023.

6. A. R. Safarov, “Multimediali ta’lim texnologiyalari va ularning o‘qitish samaradorligiga ta’siri”, *Ta’lim va Innovatsiya jurnali*, 2024.

ELEKTRON DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANIB “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O’QITISH METODIKASI

Majidov Amonjon Baxtiyor o‘g‘li

SamDu Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiy fanlar fakulteti Matematika va Informatika yo‘nalishi 4- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Barakayev Akmal**

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda elektron didaktik materiallardan foydalanishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron materiallar o‘qitish jarayonini interfaol muhitga aylantirib, talabalarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘qituvchilarga dars jarayonini optimallashtirish, vaqtni tejash va individual yondashuvni qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: elektron didaktik material, raqamli ta’lim, interfaol o‘qitish, axborot texnologiyalari, o‘qitish metodikasi.

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations, methodological approaches, and effectiveness of using electronic didactic materials in teaching the subject “Informatics and Information Technologies.” The study reveals that digital resources enhance interactivity in the learning process, develop students’ independent thinking, and help teachers optimize lessons through personalized approaches.

Keywords: electronic didactic material, digital education, interactive learning, information technology, teaching methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы, методические подходы и эффективность использования электронных дидактических материалов при преподавании дисциплины «Информатика и информационные технологии». Результаты исследования показывают, что цифровые ресурсы повышают интерактивность учебного процесса, развивают самостоятельное мышление студентов и помогают преподавателям оптимизировать процесс обучения.

Ключевые слова: электронные дидактические материалы, цифровое образование, интерактивное обучение, информационные технологии, методика преподавания.

Hozirgi raqamli davrda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar va texnologik yangiliklarni qo‘llash o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha bilim berishda elektron didaktik materiallardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda raqamli o‘qitish vositalarining ta’siri, interfaollik darajasi va psixologik- pedagogik jihatdan qulayligi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda [1].

Elektron didaktik materiallar — bu ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun mo‘ljallangan raqamli formatdagi o‘quv resurslari hisoblanadi. Ular o‘z ichiga videodarslar, interfaol testlar, elektron darsliklar, simulyatsion dasturlar va virtual laboratoriyalarni oladi [2].Ta’lim jarayonida bunday vositalarni to‘g‘ri tanlash va metodik jihatdan asoslab qo‘llash o‘quvchi faolligini oshiradi, o‘zlashtirishni mustahkamlaydi va o‘qituvchining mehnatini samarali tashkil etadi. Shu sababli, ushbu maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda elektron didaktik materiallardan foydalanishning metodik asoslari ilmiy tahlil qilinadi.

Tadqiqot 2023–2024 o‘quv yilida Toshkent axborot texnologiyalari universitetida o‘tkazildi. Jami 120 nafar talaba tajribaga jalb qilindi: 60 nafari — eksperimental, 60 nafari — nazorat guruhi. Eksperimental guruh dars jarayonida elektron darslik, videodars, interfaol test va simulyatsion dasturlardan foydalandi. Nazorat guruhi esa an’anaviy metod asosida ta’lim oldi [3].

Pedagogik kuzatish — o‘quv jarayonidagi faollikni baholash uchun [4];

Test nazorati — bilim o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;

So‘rovnoma — talabalarning elektron materiallardan foydalanish haqidagi fikrlarini aniqlash uchun;

Tahlil va solishtirish — natijalarni statistik jihatdan baholash uchun [5].

Eksperiment 16 hafta davom etdi. Har bir mavzuga mos elektron modul ishlab chiqilib, u nazariy, amaliy va test qismlarini o‘z ichiga oldi [6].

Tajriba natijalariga ko‘ra, elektron didaktik materiallardan foydalangan talabalar bilim darajasi bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Eksperimental guruhning o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi 84,5 %, nazorat guruhiniki esa 71,8 % bo‘ldi [7].Talabalar so‘rovnomasida 87% ishtirokchi elektron materiallar ularni mustaqil ishlashga undaganini, 78% esa o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortganini qayd etgan [8].

O’qituvchilar fikricha, elektron vositalar darsni interfaol muhitda tashkil etish, o‘quvchilar bilan teskari aloqa o‘rnatish va vaqtni tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, ayrim texnik muammolar (internet tezligi, dastur yuklanish vaqti) dars samaradorligiga biroz ta’sir qilgan [9].

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq $p < 0.05$ darajasida ishonchli deb topildi [10].

Olingan natijalar elektron didaktik materiallar o‘quv jarayonining sifatini oshirishi, o‘qituvchining ishini avtomatlashtirishi va o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish malakasini shakllantirishini tasdiqlaydi. Bu natijalar Vygotskiy va Bruner nazariyalaridagi “o‘quvchi markazli

yondashuv” tamoyiliga mos keladi [11].Shuningdek, Deci va Ryan’ning “Ichki motivatsiya nazariyasi”ga muvofiq, raqamli o‘qitish vositalari talabalarda o‘zini anglash, qiziqish va shaxsiy javobgarlik hissini kuchaytiradi [12].Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elektron didaktik materiallardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarni maxsus metodik tayyorlash, texnik infratuzilmani yaxshilash va ta’lim platformalarini milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish zarur [13].

Tadqiqot xulosasi:

1. Elektron didaktik materiallardan foydalanish “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida o‘qitish sifatini oshiradi va o‘quvchini faol subyektga aylantiradi.

2. Eksperimental natijalar elektron o‘qitish an’anaviy ta’limga nisbatan 12–15 % yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

3. Raqamli ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil o‘rganish, ijodiy fikrlash va o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. O’qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va elektron resurslarni milliy ta’lim standartlariga integratsiyalash zarur.

5. Ta’limda elektron vositalardan foydalanish — bu nafaqat texnik yangilik, balki zamonaviy pedagogikaning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Karimov, A. (2020). Ta’limda raqamli texnologiyalar. Toshkent: Fan nashriyoti. — B. 25–31.

[2] G‘ulomova, D. (2023). “Elektron ta’lim vositalarining metodik tahlili.” Pedagogika va raqamli texnologiyalar, №4. — B. 102–108.

[3] Shodiyev, M. (2021). Elektron o‘qitish texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti. — B. 28–33.

[4] Raxmatova, N. (2020). “Pedagogik kuzatish metodlari.” O’qituvchi jurnali, №2. — B. 41–45.

[5] Qodirov, D. (2022). Statistik tahlil metodlari. Toshkent: Innovatsiya. — B. 65–70.

[6] Hasanov, I. (2021). Pedagogik eksperiment metodikasi. Toshkent: TDPU. — B. 45–50.

[7] Oripova, M. (2023). “Elektron ta’lim samaradorligi.” Oliy ta’lim jurnali, №2. — B. 90–95.

[8] Nurmatov, D. (2022). “Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish.” Pedagogika va psixologiya, №4. — B. 72–78.

[9] Murodova, Z. (2023). “Elektron o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchi fikrlari.” Ta’lim innovatsiyalari jurnali, №1. — B. 102–109.

[10] Qodirov, D. (2022). Statistik tahlil metodlari. Toshkent: Innovatsiya. — B. 68–73.

[11] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press. — B. 84–91.

[12] Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-determination theory. American Psychologist, 55(1). — B. 68–78.

[13] UNESCO (2021). Digital Learning and Education 2030 Report. Paris. — B. 77–82.

[14] Yuldashev, R. (2022). Axborot texnologiyalari metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti. — B. 56–60.

[15] Bruner, J. (1986). Actual Minds, Possible Worlds. Harvard University Press. — B. 112–118.

БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИНГ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Холова Нодира Ахмедовна

Бухоро давлат техника университети мустақил изланувчиси

Кириш. Глобал рақобат ва саноатнинг рақамли трансформацияси шароитида муҳандислик таълими мазмуни ўзгармоқда. Замонавий муҳандис фақат техник билимларга эмас, балки инновацион фикрлаш, ижодий ечим топиш, жамоада ишлаш, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш каби компетенцияларга ҳам эга бўлиши лозим. Шу боис, бўлажак муҳандисларнинг касбий компетенцияларини шакллантириш

масаласи илмий тадқиқотларда муҳим йўналиш сифатида намоён бўлмоқда. Бугунги кунда жамиятнинг барқарор ривожланиши ва рақобатбардош иқтисодиётни таъминлашда муҳандислик соҳаси етакчи ўрин тутади. Шу сабабли, олий таълим муассасалари олдидаги асосий вазифалардан бири-бўлажак муҳандисларнинг касбий компетенцияларини шакллантиришдан иборат. Компетенциявий ёндашув -бу талабанинг фақат назарий билимга эмас, балки амалиётдаги муаммоларни ҳал қилиш қобилиятига, ижодкорлик ва мустақил фикрлаш салоҳиятига эга бўлишини таъминлайдиган тизимли ёндашувдир. Замонавий муҳандис нафақат техника ва технология соҳасида билимли, балки рақамли саводхон, инновацион фикрлай оладиган ва жамоада самарали ишлайдиган мутахассис бўлиши лозим.

Миллий ва хорижий адабиётлар таҳлили. Ўзбекистон олимлари муҳандислик кадрларини тайёрлаш тизимида компетенцияга асосланган ёндашувни жорий этиш бўйича бир қатор тадқиқотлар олиб борганлар. Абдуллаев Ш. (2021) таълим жараёнида касбий компетенцияни шакллантиришда амалий машғулотлар ва ишлаб чиқариш амалиётининг ролини ёритади. Муаллиф фикрича, назарий билимни амалиёт билан боғлаш -инженер кадр тайёрлашнинг асосий тамойилидир.Рахматов И. (2022) бўлажак муҳандисларда инновацион компетенцияни ривожлантиришда стартап лойиҳалар ва дизайн-тафаккур методини қўллаш самарадорлигини кўрсатади. Саидова Д. (2020) муҳандислик фанларини ўқитишда интеграцияланган таълим технологияларидан (STEAM, CLIL, кейс-технологиялар) фойдаланиш орқали мултидисциплинар компетенцияларни шакллантиришни таклиф этади. Юсупов А. (2019) бўлажак муҳандисларда коммуникатив ва жамоавий ишлаш кўникмаларини шакллантириш усули сифатида лойиҳа фаолияти ва “problem-based learning” (PBL) моделини тавсия этади. Хорижий тадқиқотчилар ҳам муҳандислик таълимида компетенциявий ёндашувнинг методик асосларини кенг ёритганлар. Spencer & Spencer (1993) компетенцияни “муваффақиятли фаолиятни таъминловчи билим, кўникма, шахсий сифатлар ва мотивация мажмуи” сифатида таърифлайди.Tuning Project (European Commission, 2003) муҳандислик таълими учун умумий ва махсус компетенциялар тизимини ишлаб чиқиб, таълим дастурларини компетенция асосида моделлаштиришни таклиф қилган. Felder & Brent (2016) муҳандислик таълимида фаол ўқитиш, жамоавий иш ва танқидий фикрлаш усулларини қўллаш орқали талабаларнинг профессионал компетенцияларини ривожлантиришни асослайди. ABET (Accreditation Board for Engineering and Technology, 2020) муҳандислик таълим дастурларида талабаларда этик масъулият, жамоада ишлаш, муаммо ечиш ва доимий ўрганиш қобилиятини ривожлантиришни асосий компетенциялар сифатида белгилайди.

Таҳлил ва натижалар. Шунинг учун ҳам компетенцияларни шакллантириш усулларини илмий асосда такомиллаштириш долзарб вазифа ҳисобланади. Бўлажак муҳандисда қуйидаги турдаги компетенциялар ривожлантирилиши керак. Касбий компетенцияда техник тизимлар, конструкциялар, ишлаб чиқариш жараёнлари ҳақида чукур билимга эга бўлиш; Ахборот-коммуникация компетенцияси: замонавий дастурий воситалардан фойдалана олиш, рақамли муҳитда ишлаш.

Ижодий ва тадқиқотчилик компетенцияси: муаммоли вазиятларда инновацион ечим топиш қобилияти; Коммуникатив ва жамоавий иш компетенцияси: бошқалар билан мулоқот қилиш ва гуруҳда ишлай олиш. Шахсий ривожланиш ва масъулият компетенцияси: ўз устида ишлаш, етук шахс сифатида қарор қабул қилиш кўникмаси.

Бўлажак муҳандисларнинг компетенцияларини шакллантириш усуллари, бу муҳандислик таълими жараёнида талабаларда касбий, илмий, техник ва шахсий кўникмаларни ривожлантиришга қаратилган педагогик ва амалий усуллар мажмуасидир. Қуйида ушбу жараёнда қўлланиладиган асосий усуллар келтирилади. Бу усуллар талабаларда илмий билимлар, тушунчалар ва назарий асосларни шакллантиради.

Назарий тайёргарлик усуллари. Маърузалар ва семинарлар-фаннинг назарий асосларини ўрганиш, муаммоли ўқитиш-муҳандисликда учрайдиган муаммоларни таҳлил қилиш ва ечим топиш, интерактив усуллар-“мия штурми”, “кластер”, “дебат”, “кейс-стади” каби усуллар орқали фаол тафаккурни ривожлантириш.

Амалий тайёргарлик усуллари. Муҳандис учун амалий кўникма жуда муҳим ва улар қуйидаги усуллардан иборат: лаборатория ишлари-асбоб-ускуналар билан ишлаш, тажриба ўтказиш. Амалиёт ва стажировкалар-ишлаб чиқариш корхоналарида амалий тажриба орттириш. Лойиҳа фаолияти (project-based learning)-ҳақиқий ёки яқин ҳолатдаги инженерлик лойиҳаларини бажариш.

Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ)дан фойдаланиш. Инженерлик дастурлари (AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, Python ва ҳ.к.) билан ишлаш, виртуал лабораториялар ва симуляторлар-тажрибаларни рақамли муҳитда бажариш, онлайн курслар ва платформалар (Coursera, EdX, Udemy) орқали ўз-ўзини ўқитиш.

Тадқиқот ва инновацион фаолият усуллари. Илмий изланишлар олиб бориш, ҳисоботлар ёзиш. Илмий конференция ва стартапларда иштирок этиш. Янги технологиялар бўйича инновацион лойиҳалар тайёрлаш. Бу усуллар уларни инновацион фикрлашга ва илмий ёндашувни амалиёт билан боғлашга ўргатади.

Шахсий ва касбий, ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш усуллари. Тимбилдинг (Inglizcha “team building” so‘zi “jamoa qurish”) ва гуруҳда ишлаш машғулотлари, креатив фикрлаш ва қарор қабул қилиш машқлари, этика, лидерлик ва коммуникация бўйича тренинглар.

Жамоавий иш машғулотлари, лидерлик тренинглари ва касбий этика бўйича семинарлар талабаларнинг шахсий ривожланишига хизмат қилади. Муҳандис шахси нафақат билимли, балки масъулиятли ва мулоқотга очиқ бўлиши зарур.

Рефлексия ва баҳолаш усуллари. Портфолио тузиш (талабанинг индивидуал ютуқларини тўплаш), ўз-ўзини баҳолаш ва жамоавий баҳолаш, менторлик ва тьюторлик орқали фаолиятни таҳлил қилиш. Бу эса доимий ривожланишга туртки бўлади.

Компетенциявий ёндашувнинг самарадорлиги. Компетенциявий ёндашув анъанавий таълимдан фарқли равишда фақат билим бериш билан чекланмай, амалий фаолиятга тайёр мутахассисни шакллантиради. Олий таълим муассасаларида бу усулни жорий этиш натижасида талабаларда мустақил фикрлаш, инновацион ёндашув ва жамоавий иш кўникмалари ривожланмоқда. Бугунги кун талабларига жавоб берувчи муҳандис шахсини тайёрлаш учун таълим жараёнида назария, амалиёт ва илмий тадқиқот фаолияти ўзаро боғланиши зарур.

Хулоса. Бўлажак муҳандисларнинг компетенцияларини шакллантириш бу узлуксиз ва кўп қиррали жараён бўлиб, назарий билим, амалий тажриба, ахборот технологиялари ва шахсий ривожланиш усулларини уйғунлаштиришни талаб қилади. Компетенциявий ёндашув муҳандислик таълимида таълим сифатини оширади, талабаларни меҳнат бозори талабларига мос равишда тайёрлайди ва уларнинг инновацион салоҳиятини ривожлантиради. Бўлажак муҳандисларнинг компетенцияларини шакллантириш учун назария, амалий машғулотлар, инновацион лойиҳалар ва шахсий ривожланиш усулларини интеграция қилган таълим тизими зарур. Бу усуллар талабаларда фақат билим эмас, балки муаммони ҳал қилиш қобилияти, ижодий фикрлаш ва жамоада ишлаш малакасини ҳам шакллантиради. Бўлажак муҳандисларнинг компетенцияларини самарали шакллантириш учун таълим жараёнида инновацион педагогик технологиялар, лойиҳа асосида ўқитиш, рақамли муҳитдан фойдаланиш ва ишлаб чиқариш билан узвий боғлиқ амалий вазифаларни жорий этиш зарур. Компетенциявий ёндашув муҳандислик таълимида нафақат билим, балки амалиётга тайёр, ижодкор ва танқидий фикрлайдиган мутахассисларни етиштириш имконини беради.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев, А. “Инженерлик таълимида компетенциявий ёндашув асослари.” — *Тошкент: Фан, 2022.*

2. Зайниддинов, Ш. “Инновацион таълим технологиялари.” СамДУ нашриёти, 2023.

3. Тожиев, Ф. (2020). “Олий таълимда компетенциявий ёндашувни жорий этишнинг педагогик асослари.” *Педагогика фанлари журнали*, №2.

4. O’rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta’limning afzalliklari. “O’zMU xabarlari”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.

5. O’rinov U.A. Nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda masofaviy ta’lim tizimini tashkil etish prinsiplari. “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari”. Ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent, 2020.№3,196-203b.

6. Kholova N., Abdullaev R. Censuring the durability of foundations of buildings and structures // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – T. 839. – №. 5. – C. 052044.

7. Kholova N. A. Production of Reinforced Concrete Products by Application of Energy Saving Methods is the way of Increasing the Economic Efficiency of National Economy // european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 297 - 298.

PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARBIYASI QIYIN O’QUVCHILARDA O’ZINI O’ZI TARBIYALASH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Jabborov Maqsud Mashrabovich
Jizzax viloyat pedagogik markazi, p.f.f.d. (PhD)
maksudteacher@mail.ru, +998915642023

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik yondashuvlar asosida tarbiyasi qiyin o‘quvchilarda o‘zini o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. XXI asrning ijtimoiy-madaniy muhitida ulg‘ayayotgan o‘quvchilarning psixologik va tarbiyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. B.Ziyomuxammadov, A.Jo‘raev, J.Berry va U.Bronfenbrennerning ilmiy qarashlari asosida tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonining o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalarida o‘qituvchining kommunikativ saviyasi, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va individual yondashuvlarning tarbiyasi qiyin o‘quvchilarda o‘zini o‘zi boshqarish hamda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Abstract: This article is written about the development of self-education skills in difficult-to-educate students through pedagogical approaches. It analyzes the psychological and educational characteristics of students growing up in the socio-cultural environment of the 21st century. Based on the scientific views of B. Ziyomukhammadov, A. Jo‘raev, J. Berry, and U. Bronfenbrenner, the interrelation between education and self-education processes is highlighted. The research findings emphasize the importance of teachers’ communicative competence, cultural-educational activities, and individualized approaches in fostering self-regulation and social adaptation skills among difficult-to-educate students.

Kalit so‘zlar: tarbiyasi qiyin o‘quvchilar, o‘zini o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalari, pedagogik yondashuvlar, kommunikativ saviya, ijtimoiy moslashuv, individual yondashuv, madaniy-ma’rifiy tadbirlar.

Key words: difficult-to-educate students, self-education skills, pedagogical approaches, communicative competence, social adaptation, individualized approach, cultural-educational activities.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlar, xususan, mehnat migratsiyasi oqibatida yuzaga kelgan **migrant oilalar** masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o‘quvchilar ko‘pincha o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy muhitda ulg‘ayadi. Ularning o‘zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z harakatlarini boshqarish va ijtimoiy muhitga moslasha olish kabi ko‘nikmalarini shakllantirish — zamonaviy pedagogik yondashuvni, individual hamda madaniy kontekstga mos tarbiyaviy strategiyalarni talab etadi.

Afsuski, hozirda jamiyatda ushbu ijtimoiy guruh bilan ishlashda yetarli darajada chuqur tahlil va tizimli yondashuv yetishmayapti. Ayniqsa, madaniy-ma’rifiy tadbirlarning o‘quvchilarning axloqiy-ruhiy holatiga va o‘zini o‘zi tarbiyalash ehtiyojiga ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Holbuki, bu yo‘nalishdagi izlanishlar migrant oilalardagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va muhokama

B.Ziyomuxammadov yosh avlodda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali o‘zini o‘zi tarbiyalashning ichki motivatsion omillarini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. [1]

Keywords: Turkish literature, Hafez Khorezm, moral education, pedagogy, spirituality, youth education, innovative education.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, yoshlarning ma’naviy olamida yuzaga kelayotgan bo‘shliq muammosi jiddiy e’tiborni talab etmoqda. Insonning ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l tutishi, madaniy va ma’naviy qadriyatlarga tayanib yashashi — bu har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi omildir. Shu boisdan ham bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, ularni milliy adabiyotimizdagi ezgulik, adolat va insonparvarlik g‘oyalari asosida tarbiyalashdir.

Turkiy adabiyot durdonalari, xususan Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Yusuf Xos Hojib singari allomalarning asarlari o‘z davrida xalqning ma’naviy, axloqiy va estetik qarashlarini ifodalagan. Bu adabiy meros o‘z zamonasida nafaqat badiiy go‘zallik namunasi, balki ta’lim va tarbiyaning eng samarali manbai, insonni komillikka yetaklovchi ma’naviy-ma’rifiy dastur sifatida xizmat qilgan. Allomalar ijodida ilgari surilgan axloqiy, falsafiy va ijtimoiy g‘oyalar inson shaxsini barkamol etish, uni jamiyatdagi o‘rnini anglashga undash, ilm, odob va haqiqat yo‘lida izlanishga ruhlantirishga qaratilgan.

Mazkur adabiy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, zamonaviy ta’lim jarayonida yoshlarni komil inson sifatida shakllantirishda, ularning ma’naviy-

axloqiy dunyoqarashini kengaytirishda va milliy o‘zlikni anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki turkiy adabiyot namunalarida ifodalangan fazilatlar – halollik, sabr, adolat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va ilmga intilish – nafaqat o‘tmish avlod, balki bugungi yoshlar uchun ham hayotiy dasturamal bo‘lib xizmat qiladi.

Zero, mustaqillik yillarida milliy o‘zlikni tiklash, ma’naviyat va qadriyatlarni yangicha talqinda o‘rganish jarayonida adabiyotning tarbiyaviy kuchi qayta kashf etildi. Shu bois, “Mustaqillikdan keyin e’lon qilingan falsafiy adabiyot, darslik va qo‘llanmalarda esa axloq bir necha ming yillik tarixga ega ekanligi, u Sharqda “Ilmi ravish”, “Ilmi axloq”, “Axloq ilmi”, “Odobnoma” kabi xilma-xil nomlar bilan atalib kelinganligi aniq dalillar asosida bayon etilgan!” (Sher Abdulla, 1: 76; Normatova, 2011: 12). Bu esa, xalqimiz tafakkurida axloq masalasi doimo markaziy o‘rinda bo‘lganini, axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy ongning asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotlarda adabiy merosni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali shaxs kamolotiga erishish, axloqiy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish masalalari markaziy o‘rin egallaydi.

Jumladan, A.A.Bolibekov ilmiy izlanishlarida adabiy asarlarni diniy-axloqiy manbalar bilan uyg‘un qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi(Bolibekov, 2008). Muallif o‘quvchilarda ezgulik, halollik, sabr-toqat, vafo, shukronalik kabi fazilatlarni shakllantirishda hadislar bilan boyitilgan adabiy materiallarning o‘rni beqiyosligini ilmiy asosda isbotlaydi. M.Q.Zaripova esa axloqiy tarbiya masalasi zamonaviy pedagogik modelda tahlil qilinadi(Zaripova, 2022). Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda integrativ yondashuvning afzalliklari, ta’lim jarayonida ma’naviyat va axloqni texnologik, innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab berilgan. R.Sh. Rustamova o‘zining “Talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari” nomli tadqiqotida (Rustamova, 2008) yoshlarning ma’naviy o‘sishida madaniy muhit va ijtimoiy faoliyatning ta’siri chuqur tahlil etilgan. Muallif ta’kidlaganidek, o‘quvchi va talabalarda axloqiy ongni shakllantirish uchun darsdan tashqari tadbirlar – teatr, adabiy kechalar, ma’naviyat soatlari va milliy bayramlar kabi shakllar nihoyatda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turkiy adabiyotning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini o‘rganish yo‘nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar xilma-xildir va ular adabiyot, pedagogika hamda falsafa yo‘nalishlarini o‘zaro boyitadi.

Xususan, turkiy adabiyot namoyandalari qatorida Hofiz Xorazmiy ijodi ham alohida o‘ringa ega. U turkiy adabiyotda ishq-muhabbat mavzusi doirasida axloq, sadoqat, muhabbat, adolat va insoniylik g‘oyalarini badiiy shaklda ifoda etgan, didaktik ruhdagi qit’alari orqali yoshlarga hayotiy saboqlar bergan. Bugungi kunda Hofiz Xorazmiyning bunday axloqiy-ma’naviy qarashlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish — yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy madaniyati va ma’naviy immunitetini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotlar, asosan, pedagogika sohasini qamrab olgan bo‘lib, yoshlarning axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim jarayonining o‘rni va metodologiyasini ochib beradi. Ammo Hofiz Xorazmiy ijodining badiiy-falsafiy ahamiyati, uning didaktik talqinlari borasidagi izlanishlar yurtimiz bilan bir qatorda xorijiy turkiy mamlakatlarda ham davom ettirilmoqda. Zero, “klassik adabiyotimiz tarixida Navoiyga qadar XIV asr oxiri va XV asr boshlarida o‘z adabiyotida birinchi o‘laroq mukammal devon tartib etgan shoir Hofiz Xorazmiy bo‘lgan deyishimizga to‘la asos bor” (Hofiz Xorazmiy 1-kitob, 1981: 7). Bu fakt Hofiz Xorazmiyning nafaqat she’riyatda, balki o‘z davrining ilmiy va axloqiy tafakkurida ham yangilik yaratgan ijodkor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Hofiz Xorazmiy shaxsi va ijodini ilmiy jihatdan tahlil qilgan yurtimiz olimlarining hissasi ham beqiyosdir. Xususan, H. Sulaymonov, F. Sulaymonova, S. Hasanov, M. Sulaymonov kabi adabiyotshunos olimlar Hofiz Xorazmiyning badiiy merosini, poetik tafakkuri va ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tahlil qilganliklari alohida e’tirofga loyiq (Kurbanova, 2024: 312).

Ayniqsa, M. Sulaymonovning “Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyati rivoji” (Sulaymonov, 1996) hamda keyingi yillardagi izlanishlarida shoir ijodining badiiy-falsafiy

mohiyati, didaktik ruhdagi she’rlarining tarbiyaviy g‘oyaviy mazmuni chuqur tahlil etilgan. Olim tadqiqotlari shoir devonida didaktik yondashuvlar, odob-axloq masalalari qanday shaklda yoritilganini ochib beradi.

Shuningdek, Sh.Ye. Kurbanova o‘zining “Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari va uning pedagogik ahamiyati” (Kurbanova, 2025) nomli uslubiy qo‘llanmasida shoir merosini zamonaviy ta’lim amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini yoritadi. U Hofiz Xorazmiy devonidagi axloqiy g‘oyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil qilib, ularni ta’lim jarayonida shaxs tarbiyasiga tatbiq etish bo‘yicha aniq metodik tavsiyalarni ilgari suradi.

Turkiyalik tadqiqotchilardan professor Rejep Toparli (Sulaymonov, 2015), Ahat Ustuner (Üstüner, 2014) va boshqa olimlarning izlanishlari alohida e’tiborga loyiq. Ularning tadqiqotlarida Hofiz Xorazmiy ijodi nafaqat turkiy adabiyot tarixining muhim bosqichi, balki turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosi sifatida tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlar shoir ijodini faqat adabiy yodgorlik sifatida emas, balki turkiy ma’naviyat, til va tafakkur tarixining yuksak namunasiga aylantiradi.

Hofiz Xorazmiy ijodi o‘zining didaktik mohiyati, chuqur falsafiy ma’nolari va inson ruhiyatiga singdirilgan axloqiy g‘oyalari bilan turkiy adabiyotda alohida o‘rin egallaydi. Shoirning quyidagi qit’asi esa so‘zning kuchi, so‘zlash madaniyati va insoniy mas’uliyatni badiiy-falsafiy asosda yoritadi:

“Garchi so‘z kon-i maoniy ko‘runur olamda
Kim, aning ichra erur turlu javhar maktum,
So‘zlamaslik sanga yaxshi ko‘runur so‘zlardin,
Har necha so‘zlar esang so‘zni chu durr-i manzum.
Ko‘ngling toshu yo ohanu po‘lod erur,
So‘zlamaslikning o‘ti birla bo‘lur ul chun mo‘m.
So‘z manimdur teyu so‘zungni xaloyiqg‘a sotib,
Zulm aylab o‘zungga, qolmag‘il oxnr mazlum.
Hofizo, so‘z eyasiman teyu o‘tma o‘zungni,
Bo‘lmadi odibat-i kor so‘z ila ma’lum.” (Hofiz Xorazmiy 2-kitob, 1981: 289).

Mazkur satrlar so‘zning qadri, uning ma’nodagi “**javhar**” — ya’ni ruhiy, axloqiy mohiyatini anglashga chorlaydi. Shoir “**so‘z**”ni ma’naviy kon deb biladi, unda turfa “javharlar”, ya’ni bilim, tajriba, hikmat va saboqlar yashiringan. Bu fikr orqali Hofiz Xorazmiy inson tafakkurining eng yuksak ko‘rinishini — so‘z orqali fikrni ifodalash madaniyatini yuksak qadriyat sifatida talqin etadi. So‘z – insonni hayvondan ajratgan, tafakkurga eltuvchi eng muhim vositadir. Ammo shoir shuni uqtiradiki, so‘zlash ham, sukut saqlash ham mas’uliyat talab qiladi: “**So‘zlamaslik sanga yaxshi ko‘runur so‘zlardin**” – bu satr insonni fikrda ehtiyotkorlik, mantiqiy aniqlik va axloqiy o‘lchovga undaydi.

Shoirning “**Har necha so‘zlar esang, so‘zni chu durr-i manzum**” misrasi so‘zning ijobiy ta’siri faqat u “**durr-i manzum**” – ya’ni marjondek tartibli, ma’noli va foydali bo‘lgandagina namoyon bo‘lishini bildiradi. Bu o‘rinda Hofiz Xorazmiy so‘zning estetik va axloqiy uyg‘unligi g‘oyasini ilgari suradi. Bunday qarash o‘z navbatida bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchi-yoshlarni nutq madaniyati, fikrni aniq va odobli ifodalash, muloqotda ma’naviy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.

Shoir so‘zni inson ko‘nglining holati bilan bog‘laydi:

“Ko‘ngling toshu yo ohanu po‘lod erur,
So‘zlamaslikning o‘ti birla bo‘lur ul chun mo‘m.”

Bu yerda Hofiz Xorazmiy axloqiy va ruhiy tarbiyaning nozik nuqtasini ochadi — inson yuragi qanchalik qattiq bo‘lmasin, sukut va tafakkur orqali u mo‘m (ya’ni yumshoq, kechirimli, insonparvar) bo‘lishi mumkin. Bu fikrni pedagogik nuqtai nazardan talqin etganda, shoir yoshlarni ichki tafakkur madaniyati, o‘zini tahlil qilish, sokinlik va sabr bilan fikr bildirish fazilatlariga chaqirmoqda.

Hofiz Xorazmiy uchun so‘z – ijtimoiy mas’uliyatdir. U quyidagi satrlarda insonning so‘zdan noto‘g‘ri foydalanishi o‘ziga zulm ekanini ta’kidlaydi:

“So‘z manimdur deyu so‘zungni xaloyiqg‘a sotib,
Zulm aylab o‘zungga, qolmag‘il ohir mazlum.”

Bu satrlar bugungi axborot asrida yanada dolzarb ma’no kasb etadi. So‘z — axborot, g‘oya, fikr, tahlil yoki ijtimoiy ta’sir shaklida inson ongiga kiradi. Agar so‘z ma’nosiz, salbiy yoki yolg‘on bo‘lsa, u nafaqat boshqalarga, balki so‘zlovchining o‘ziga ham zarar keltiradi. Shu nuqtai nazardan, shoir yosh avlodni axborot madaniyati, so‘z etikasi va ma’naviy javobgarlik ruhida tarbiyalash zarurligini o‘gitlaydi.

So‘nggi baytda esa shoir o‘z so‘zi va amali o‘rtasidagi uyg‘unlikni axloqiy mezon sifatida ko‘rsatadi:

“Hofizo, so‘z eyasiman deyu o‘tma o‘zungni,
Bo‘lmadi odibat-i kor so‘z ila ma’lum.”

Bu fikrlar bugungi zamonaviy pedagogika uchun ham muhim metodologik g‘oyani ifodalaydi — ya’ni insonning axloqiy barkamolligi faqat so‘zda emas, balki amalda, xatti-harakatda namoyon bo‘ladi. Bu qarash zamonaviy ta’lim jarayonida “**so‘z va amal birligi**”, “**so‘zda sadoqat**” tamoyillarini tarbiyaviy asos sifatida mustahkamlaydi.

Mazkur tahlillar natijasida aniqlanadiki, Hofiz Xorazmiy qit’alari o‘z mohiyatiga ko‘ra nutq madaniyati, axloqiy tarbiya, fikrni nazorat qilish, sabr va tafakkur singari fazilatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ular bugungi yoshlar tarbiyasida zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi. Ayniqsa, “**so‘z – axloq mezoni**” yoki “**so‘z — inson ma’naviyatining ko‘zgusi**” tamoyili asosida o‘quvchilarda ma’naviy mas’uliyat, tanqidiy fikrlash, odobli muloqot, so‘zda rostlik fazilatlarini shakllantirish mumkin. Mazkur g‘oya bugungi ta’lim jarayonida yoshlarning so‘zga mas’uliyatli munosabatini tarbiyalash, ijobiy fikrlash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham adabiy merosni o‘rganish orqali o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, ularning insoniy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash ta’limning maqsadli natijalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Pedagogik ta’lim tizimida Hofiz Xorazmiy ijodini o‘quv dasturlariga chuqur singdirish, ularning axloqiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy ta’lim metodikasi bilan uyg‘unlashtirish ma’naviy tarbiya samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, bu jarayonda kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, ya’ni “bilim — ko‘nikma — qadriyat” zanjirida axloqiy tajribani shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Zero, Hofiz Xorazmiy merosini zamonaviy ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish o‘tmish ma’naviyatini bugungi avlod tafakkurida qayta jonlantirish, yoshlarni komil inson sifatida shakllantirish, ularning ichki dunyosini go‘zallashtirishga xizmat qiluvchi milliy-ma’naviy modelni yaratish yo‘lida muhim qadamlardan biridir. Bunday yondashuv yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, insoniylik, mas’uliyat, sabr-toqat, halollik va adolat kabi umuminsoniy fazilatlarni mustahkamlab, ularni jamiyatning faol, ma’rifatparvar va axloqan yetuk a’zolariga aylantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bolibekov, A.A. Adabiy ta’lim orqali o‘quvchilar axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda xadislardan foydalanish yo‘llari: Ped. fanlari nomzodi … diss. – Toshkent: 2008. - 156 b.
2. Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob. – T.: O’zKPMK, 1981. - 304 b.
3. Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 2-kitob. – T.: O’zKPMK, 1981. - 312 b.
4. Kurbanova, Sh. Ye. Hofiz Xorazmiyning shaxsi va uning ijodi. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №4 (8), 2024. - 309-313 b.
5. Kurbanova, Sh.Ye. Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari va uning pedagogik ahamiyati. - Urganch: Quvanchbek-Mashxura, 2025. - 36 b.
6. Normatova, D.E. Axloqiy merosning shaxs ma’naviy yuksalishidagi o‘rni: Falsafa fanlari nomzodi … diss. – Toshkent: 2011. - 140 b.

7. Rustamova, R.Sh. Talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari: Ped. fanlari nomzodi … diss. – Toshkent: 2008. - 132 b.
8. Sulaymonov, M.Yu. Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyatining rivoji: Filol. fanlari nomzodi … diss. – Toshkent: 1996. - 160 b.
9. Sulaymonov, Mo‘minjon. Hofiz Xorazmiy devonining anqara nashri. // Sharq mash’ali. 3-4 son. 2015. - 67-70 b.
10. Zaripova, M.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish: Ped. fanlari bo‘yicha f.d.(PhD) … diss. – Toshkent: 2022. - 188 b.
11. Sher Abdulla. Axloqshunoslik. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. - 253 b.
12. Üstüner, Ahat. Hârezmli Hâfız Divanında Türk Adı. // International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 9/6 Spring 2014, p. 1107-1116, ANKARA-TURKEY

TARBIYANING ZAMONAVIY QIYOFASI: QADRIYAT VA ONG UYG‘UNLIGI

Xamrayeva Sunbula Dilshod qizi
Abdumannobova Dilshoda Abdurauf qizi
Sobirjonov Baxromboy Abdurashid o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi 2-kurs talabalari
Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
abdullayevaozoda1107@gmail.com

Annotatsiya: maqolada tarbiyaning zamonaviy kontekstdagi mohiyati, uning qadriyatlar tizimi va inson ongidagi uyg‘unlik bilan o‘zaro aloqadorligi tahlil etiladi. Maqolada mavzuga mulohazakor yondashuv asosida savol-javob shaklidagi fikr yuritish usuli qo‘llanilib, tarbiyaning nafaqat ta’lim jarayoni, balki shaxsning ichki ma’naviy olami va jamiyat hayoti bilan bog‘liqligi asosli ravishda yoritilgan. Maqolada mahalliy pedagog olimlar qarashlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy talablarga mos ilmiy yondashuvlari namoyon etilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, qadriyat, ong, shaxs tarbiyasi, ma’naviyat, zamonaviylik, ta’lim-tarbiya, jamiyat, o‘zlik, madaniyat.

Аннотация: в статье проводится научно-теоретический анализ сущности воспитания в современном контексте, с акцентом на его взаимосвязь с системой ценностей и гармонией человеческого сознания. Исследование основано на рефлексивном подходе и построено в форме вопросов и ответов, что позволяет рассмотреть воспитание не только как педагогический процесс, но и как явление, тесно связанное с внутренним духовным миром личности и общественной жизнью. В работе проанализированы взгляды отечественных педагогов и представлены их научные подходы в соответствии с современными требованиями образования. **Ключевые слова:** образование, ценности, сознание, личностное образование, духовность, современность, образование, общество, идентичность, культура.

Abstract: the article provides a scientific and theoretical analysis of the essence of education in the modern context, emphasizing its interrelation with the system of values and the harmony of human consciousness. The study employs a reflective approach through a question–answer framework to explore education not only as a pedagogical process but also as a phenomenon closely connected with the individual’s inner spiritual world and social life. The article analyzes the views of local pedagogical scholars and highlights their scientific approaches in accordance with modern educational requirements.

Keywords: education, values, consciousness, personal education, spirituality, modernity, education, society, identity, culture.

Kirish

Jamiyatimizning ma’naviy yangilanishi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan, demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezoni sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek: “Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma’naviyat olami yangi ma’no-mazmun bilan boyib boradi.

Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot — bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllanishida o‘ziga xos ta’sir o‘tkazadi” [1].

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Mana shu ma’noda bugungi mustaqillik sharoitida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro‘yobga chiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim-tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini yuragiga tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va matodologiya. Umumiy ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim masala umuminsoniy va milliy qadryatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g‘oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Shu o‘rinda

Birinchi Prezidentimiz “Tafakkur” jurnali muxbiri bilan bo‘lgan suhbatda shunday degan edilar: “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O’zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Kelajakda O’zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qildirishi lozim. Donolarning aytishicha, inson o‘z umri davomida uch yumushni bajarishi:ko‘chat o‘tkazishi, uy qurishi, farzand tarbiyalashi kerak. Lekin men oxirgi yumushni, albatta, birinchi o‘ringa qo‘ygan bo‘lar edim. Ko‘chat o‘tkazish mumkin, uy qurish mumkin, ammo o‘zingdagi eng yaxshi xususiyatlarni farzandlaringga singdirsang va ular sendan ko‘ra yaxshiroq va aqlliroq bo‘lishi uchun hamma ishni qilsang, bu maqsadni har qancha hurmat qilsa arziydi, deb hisoblayman“ [2].

Savol tug‘iladi: nima uchun bugungi zamonda tarbiya faqat bilim berish bilan tugamaydi?

Chunki tarbiya — bu qadriyatni shakllantirish va ongni uyg‘unlashtirish jarayoni. Tarbiya o‘quvchiga faqat “nimani bilish” kerakligini o‘rgatmaydi, balki “kim bo‘lish” kerakligini ham shakllantiradi. Menimcha, shaxsni tarbiyalashda aynan “kim bo‘lish” savoli eng muhimidir — u insonning o‘zini, maqsadini va jamiyatdagi o‘rnini anglashga yo‘naltiradi.

Tarbiya — bu shaxsni shakllantirish jarayoni, uning ongini, ruhiyatini, ijtimoiy hamda axloqiy fazilatlarini tarbiyalash vositasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarbiya qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, oilada tarbiyalanayotgan bola oilaviy qadriyatlarni (“mehr-muhabbat”, “birlik”, “shukr”, “halollik”) ichiga singdiradi. Jumladan, o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy qadriyat va tarbiya o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqur tahlil qilingan [3].

Qadriyat va ong: zamonaviy kunda nega undan chekinib bo‘lmaydi?

Zamonaviy dunyo raqamli, tezkor, global jarayonlarga boy — lekin shu bilan birga, qadriyatlar va ong bo‘lmasa, shaxsiy va ijtimoiy barqarorlikka xavf tug‘iladi. Darhaqiqat, “jamiyat tahdidbardoshligini ta’minlashda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yuksaltirish” bugungi kunda strategik masaladir [4]. Menimcha, qadriyat bo‘lmagan joyda tarbiya ham ildizsiz daraxtga o‘xshaydi. Shunday ekan, tarbiya = qadriyat + ong.

Muhokama

Tarbiya jarayonida “ong uyg‘unligi” deganda nima tushuniladi?

“Ong uyg‘unligi” deganda shaxs ichida turli fazilatlarning — axloqiy, estetik, ijtimoiy va kognitiv — bir-biriga moslashuvi tushuniladi. Misol uchun, tarbiya jarayonida o‘qituvchi nafaqat fan o‘qitadi, balki “axloq”, “hurmat”, “majburiyat” va “ijobiy fazilatlar”ni ham uyg‘un ravishda rivojlantiradi. Bu jihat, “Tarbiyaviy va o‘qitish uyg‘unligida ta’limga zamonaviy yondashuv” maqolasida ham alohida ta’kidlangan [5].

Shubhasiz, inson ongidagi uyg‘unlik — bu faqat intellektual emas, balki ma’naviy uyg‘unlikdir. Chunki ong tarbiyalanmasa, bilim ma’nosiz bo‘lib qoladi.

Texnologiyalar jamiyatida tarbiya qanday bo‘lishi kerak?

Raqamli asrda tarbiya eski shakllar bilan cheklanib qolayotgani yo‘qmi? Qadriyatlar va global tendensiyalar qarama-qarshi bo‘lishi mumkinmi? Tarbiya shu qarama-qarshilikni qanday yengadi?

Bu savollar bejiz emas. Shaxsni tarbiyalash jarayonida “o‘zlik” va “globallik”ni uyg‘unlashtirish — zamon talabi. Menimcha, tarbiya shu ikki qutb o‘rtasidagi muvozanatni topish san’atidir.

Tarbiya shaxsning ichki jarayoni bo‘lsa-da, u ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyat o‘z qadriyatlari orqali tarbiyaning yo‘lini belgilaydi. Masalan, “Inson qadri, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish” mavzusidagi izlanishlarda tarbiya va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy-madaniy bog‘liqlik asoslab berilgan [6].

Natija

Shunday ekan, tarbiya — jamiyatning “tovushsiz inqilobi”, ya’ni ongli o‘zgarishlar harakati sifatida qaralishi mumkin.

Pedagogik jihatdan qaraganda, tarbiya jarayoni tizimli bo‘lishi kerak: maqsad, mazmun, usul, natija. “Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv” nomli tadqiqotda bu fikr mahalliy olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan [7]. Agar tarbiya tizimi mexanizmsiz bo‘lsa, uning natijasi noaniq bo‘ladi.

Menimcha, tarbiya so‘zsiz amalga oshmaydi — u ongli harakat, izchil tizim va ichki mas’uliyat mahsulidir.

Modomiki tarbiya tashqi sharoitlar bilan cheklanmaydi, balki shaxsning ichki kurashi, o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq, u holda bu “o‘zini tarbiyalash” deyiladi. Tarbiya shaxsga o‘zini anglashni, maqsad qo‘yishni, idealiga yetishni ta’minlaydi. Bu jihat “Ta’lim va tarbiyaning nazariy va amaliy asoslari” maqolasida ham yoritilgan [8].

Bugungi davrda tarbiya ko‘p hollarda onlayn va raqamli makonlarda amalga oshmoqda. Bu esa “tarbiya metodlari”ni qayta ko‘rib chiqishni zarur qiladi. Savollarga ochiq javoblar, o‘zaro dialog, ko‘ngilli faoliyat — bularning barchasi tarbiyaning yangi formatini tashkil etadi. Savol tug‘iladi: tarbiya raqamli dunyoda qayerda joy egallaydi?

Qanday qilib tarbiyaning klassik shakllarini yangi muhitga moslashtirish mumkin?

Darhaqiqat, ma’naviyat so‘zi tarbiyada markaziy o‘rin egallaydi. “Developing spiritual awareness in raising young people to be spiritual and complete individuals” nomli maqolada ta’kidlanganidek, tarbiya ma’naviyatga xizmat qilmasa, u o‘z ma’nosini yo‘qotadi [9].

Xulosa qilib aytganda, tarbiyani yangicha anglash va his qilish vaqti keldi. Menimcha, tarbiya — dars emas, hayotdir. U nafaqat so‘z, balki amaldir. Shubhasiz, tarbiya — insonni inson qiluvchi eng buyuk kuchdir. Darhaqiqat, agar har bir inson o‘zini tarbiyalasa, butun jamiyatni kim tarbiyalaydi degan savol o‘z javobini topadi - o‘zini tarbiyalagan inson — jamiyatning tarbiyachisiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: „Ma’naviyat“, 2008, — 40, 41-b.
2. Karimov I. A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: 2000- y.
3. To‘xtayev O.X. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: “Qamar Media”, 2022. — 78 b.

4. Hasanov B., Jo‘rayev Z. Tarbiyaviy va o‘qitish uyg‘unligida ta’limga zamonaviy yondashuv. — “Pedagogik izlanishlar” jurnali, 2021.
5. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari. Toshkent: “O’zbekiston”, 2020.
6. Raxmatullayev S. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv. — “Xalq ta’limi” jurnali, 2021.
7. Xolmurodova N. Ta’lim va tarbiyaning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: TDPU, 2019.
8. Bell R. Developing spiritual awareness in raising young people to be spiritual and complete individuals. — Journal of Educational Studies, 2020.

TA’LIMDAGI EKOLOGIK TARBIYANING O’ QUVCHILARDA AHAMIYATI.

Perdesheva Nargiza Esenbayevna
Toshken viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ibragimova Charosxon
Toshken viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Bovomirzayev Oybek
Toshken viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Abduvaliyeva Pokiza Abdurashid qizi

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarida ekologiyaga doir ijobiy munosabatlarni shakllantirish mazmuni, uning shakl va metodlari, nazariy va amaliy ahamiyati, talaba o‘quvchilarida ekologik tafakkur, inson faoliyati va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi ilmiy manbalarni singdirish borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat, munosabat, tushuntirish, ekologik tarbiya, o‘quvchilarda, ekologik tafakkur, mutafakkir, ta’lim, shakl, metod, foydalanish, meros, manba, o‘qiti

Abstract. The article discusses the methodology for developing attitudes towards ecology in students, its form and practical significance, theoretical and practical significance, its personal life and nature, its personal activity and the specific characteristics of nature.

Keywords: nature, attitude, production, ecological education, demand in students, ecological thinking, thinker, education, form, method, development, heritage, source, teaching.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ta’lim-tarbiya sohasida to‘laqonli huquqiy-me’yoriy baza yaratilgan. Jumladan, yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega”, 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” deb ko‘rsatib qo‘yilganligi, shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlar sohaga doir boshqa qator hujjatlar ekologik ta’lim-tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu borada o‘tkazilgan tahlil natijalari yoshlarni tarbiyalashda ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish zaruratining mavjudligini hamda aholining ekologik madaniyatini rivojlantirishda kompleks yondashuv va strategia rejalashtirishni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda Mazkur huquqiy-meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalari talabalarining ekologik tarbiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri – talabalarda ekologik kompetentlikni, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish bilan birga, ularning o‘z hududlarini obodonlashtirish, ko‘chat – daraxtlar ekish va ularni o‘z vaqtida parvarish qilish, ko‘l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalashda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlariga beg‘araz yordam ko‘rsatishni taqozo etadi. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingan bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog‘liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. O’quvchilarda insonning tabiatdagi o‘rnini, ona shahri yoki qishlog‘i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko‘l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtayi nazarning dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo‘naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning mohiyati, g‘oyaviy mazmuni, uning qonuniyatlari, samaradorlik shartlari, ekologik ta’lim mezonlarining falsafiy va madaniy kontekstini samaradorlik omillari orqali ishlab chiqish kun tartibidagi masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, har bir davlat va jamiyat ekologiya va atrof-muhitga yondashuv pozitsiyalarni qayta ko‘rib chiqishi: bunda inson omilining mohiyati, uning tabiat va jamiyatdagi o‘rni, maqsad va vazifasi, burch va majburiyati, madaniy ongi va ijtimoiy faolligining rivojlanish tendensiyalari, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar hamda o‘zaro ta’sir doirasining natijasi va oqibatini inobatga olish kerak bo‘ladi.

Ekologik ta’lim - kishini hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun unga tegishli, tizimlashgan, muddatli ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya berish vositasi. Uning maqsadi – kishilarni, jumladan, O’zbekiston fuqarolarining hayotiy faoliyat xavfsizligini ta’minlash uchun ularga ekologik bilimlarni berish, ularda tegishli ko‘nikmalar va malakalarini hosil qilishdir.

«Ekologik ta’lim» - uzluksiz o‘qitish jarayoni bo‘lib, atrof muxitnimuxofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan maxsus bilimlarga ega bo‘lish, qadriyatlarni va hulq normalarini shakllantirish, shu jumladan o‘zo‘zini o‘qitish, tajriba orttirish va shaxsni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir.

Ekologik madaniyatni shakllantirish elementi ;

Maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’lim, professional va oliy professional ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kasbiy tayorgarlik va malakani oshirishni o‘z ichiga olgan tizim.

Buning uchun ta’lim oluvchi:

• ekologiya va atrof-muhtni muhofaza qilishning zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini bilishi;

• ekologik xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;30

• olgan bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash kompetentligini egallash;

• ekologiya va atrof-muhtni muhofaza qilishning zamonaviy ilmiynazariy

va amaliy asoslarini bilishi;

• ekologik xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

• olgan bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash kompetentligini egallash;

• boshqalarni ekologik talablarga rioya qilishini nazorat qilish (fuqarolik

burchini bajarish), jamoaga yetkazish, tashviqot va targ‘ibot qilish malakalarini hosil qilishi kerak.

Ekologik ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishishi va o‘zaro uyg‘unlikni shakllantirishi mumkin. Tabiat bilan uyg‘un yashash, inson uning bir bo‘lagi, degan tushuncha va gumanistik g‘oyalarni singdiruvchi ta’limning dasturiy tizimi bugungi kunda o‘zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Shunday davrlar ham bo‘ldiki, insonlar ongida tabiat bitmas-tuganmas resurslar manbai sifatida qaraldi. Tabiiy resurslar haqidagi noto‘g‘ri tushunchalarning paydo bo‘lganligi, tugab-bitmas manba degan yondashuvning ustunlik qilishi va tabiiy elementlarning odamga xayolan bo‘ysundirishga bo‘lgan intilishning hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo‘q qilishga asos bo‘lib qolmoqda.

Ekologik ta’lim va tarbiya orqali kishilar, jumladan, yoshlar koinotdagi yagona hayot mavjud bo‘lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlarga,

o‘z yashash muhiti to‘g‘risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va

insonlarni o‘zaro uzviy bog‘langanlik haqidagi ilmiy- nazariy dunyoqarashlarga ega bo‘lishi, o‘z o‘lkasi va vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo‘lishi, evolyusion rivojlanishi, antropogen o‘zgarishi, makon va maydon bo‘yicha tarqalish qonuniyatlarini bilishi kerak bo‘ladi.

Turli xil mamlakatlarning ekologik ta’lim soxasidagi xarakatlarini BMTning ta’lim, fan va madaniyat soxasidagi tashkiloti muofiqlashtiradi (YUNESKO). F. Mayor, aytganidek «… barcha o‘quv dasturlari markaziga global ekologik tarbiyani qo‘ymoq kerakdir:maktabgacha tashkilotlardan tortib, oliy o‘quv yurtlari va kadrlarni qayta tayorlash tizimigacha».

O’zbekiston Respublikasida ”Ekologik ta’limni rivojlantirishkonsepsiyasi

to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori ekologik ta’limni rivojlantirishdagi muxim qadamlardan bo‘ldi. 2017 — 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari.

• tabiatni muhofaza qilishga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish;

• go‘zallik tuyg‘usini, uni tabiatda topish va ko‘rish qobiliyatini tarbiyalash;

• sayyoradagi barcha tirik mavjudotlar o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida tushunchani shakllantirish;

• tabiatga tajovuzkor va halokatli ta’sirga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish;

fikrlash doirasini kengaytirish.

Umuman olganda, ekologik ta’limning vazifalari o‘quvchilar va o‘qituvchining birgalikdagi bilim, tarbiyaviy va atrof-muhit faoliyati orqali bola shaxsining uyg‘un ekologik rivojlanishiga hissa qo‘shadigan samarali sharoitlarni yaratishdir.

Yoshlar va talabalarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyat doirasi juda **keng bo‘lishi mumkin:**

• ilmiy ijodkorlik (diplom, insholar yozish, tadqiqot ishlarini bajarish);

• aholi o‘rtasida ekologik bilimlarni tarqatish va ekologik qonunchilikni targ‘ib qilish (ma’ruzalar o‘qish, suhbatlar o‘tkazish);

• tezkor ish (reydlar-atrof-muhit to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioyaeyetilishini tekshirish, ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish).

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning tubdan o‘zgarishini inson ishlab chiqaruvchiga aylanib, tabiiy muhitni o‘zgartirish mumkinligini anglagan neolit inqilobi bilan bog‘lashadi. Keyingi sanoatgacha bo‘lgan bosqich qishloq xo‘jaligining asta-sekinlik bilan o‘sishi, hunarmandchilikning rivojlanishi, oddiy tovar ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan holda, sanoat inqilobining ilmiytexnik taraqqiyoti, texnogen sivilizatsiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi oqibatida insonning texnikaviy tafakkur kuchi tabiat kuchlaridan ustun kelishiga olib kelgan holda ushbu taraqqiyot natijasi o‘laroq inson o‘zini o‘zi yo‘q qilish jarayoniga ham yo‘l ochdi. Insonning barqaror taqdiri va istiqbolli kelajagi uchun tabiat bilan o‘zaro munosabatlarning zamonaviy pedagogik metodlariga tayangan fan dasturlarini tayyorlash va ijtimoiy falsafiy g‘oyalar bilan to‘yintirilgan madaniy yondashuvlarni yoshlar va insonlar hayotining ajralmas qismiga aylantirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlar salmog‘i va samaradorligini oshirish davr talabidir.

Bugungi globallashuv sharoitida barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o‘zaro bog‘liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo‘nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

birinchisi, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish;

ikkinchisi, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta’lim – tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirishdir. Bu yo‘nalishlarni umuminsoniy ma’nfaatlar negizida uyg‘un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o‘ynaydi.

Tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta’lim – tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyotda qo‘llash, ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta’lim-tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg‘un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, aholining ziyoli qatlamini, soha mutaxassislarini, oliy ta’lim muassasalari talabalarini ekologik kompetentli qilib rivojlantirish, ta’lim maqsadlari mazmuni, vosita va metodlarini belgilash, valeologik, ekologiyaga oid bilimlarini kengaytirish, ilmiy asoslangan o‘quv materiallari

va qo‘llanmalarni ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy etish dolzarb pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, bunday harakat doimiy, muntazam, uzluksiz tarzda oilada, mahallalarda, ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani, madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan o‘quv kurslari va o‘quv modullari mazmuniga ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, bu boradagi mavjud muammolar, ularning yechimi, bu jarayonda har bir shaxsning, jumladan, talabalarning mas’uliyati, tabiatga, uning ne’matlariga oqilona munosabati, pirovard natijada insonning hayoti mobaynida ekologik jihatdan qulay muhitda yashashini ta’minlash masalalarini yoritib beruvchi mavzular va ma’lumotlarni singdirish, o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o‘qitish uslublarini takomillashtirish, mustaqil talimga, shuningdek, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir turli tadbirlar, davra suhbatlari, intelektual o‘yinlar, tanlovlar, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi ekomarofonlar, sport musobaqalari, tabiat qo‘yniga sayr, sayohatlar tashkillash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2020 y., 41-son, 543-modda.

3. O’zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021 y., *O’RQ-683-son, 1-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son*

4. Avesto. Tarixiy - abadiy yodgorlik / Tarjimon: A. Mahkamov. - T.: Sharq, 2001. - 384 b.

5. Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. …diss. - T.:2003. - 320 b.

6. Az - Zamaxshariy, Abu-l Qosim Mahmud. Nozik iboralar. - T.: Kamalak, 1992. - 80 b.

SIR GAWAIN AND THE GREEN KNIGHT: A STUDY IN HONOR AND TEMPTATION

Rustamova Dilbar Umid qizi
Student, Chirchiq State Pedagogical University
rustamovadilbar90@gmail.com
Scientific adviser: **Khamitov Eldorbek**
Teacher, Chirchik State Pedagogical University
khamitoveldorbek@gmalil.com

Abstract. This research examines Sir Gawain and the Green Knight as a profound exploration of the medieval ideals of honor, virtue, and human frailty. Through the protagonist’s moral trials and temptations, the poem portrays the tension between knightly perfection and human imperfection. Using textual and thematic analysis, this study investigates how the anonymous 14th-century poet integrates Christian ethics with the chivalric code. The findings reveal that Gawain’s journey symbolizes the universal struggle between moral duty and human weakness, ultimately suggesting that true honor lies in honesty and repentance rather than flawless virtue.

Key words: Sir Gawain, Middle English literature, chivalry, Christian ethics, temptation, morality, honor

Introduction. Sir Gawain and the Green Knight, one of the most remarkable works of Middle English literature, presents a moral adventure rooted in the Arthurian tradition. The poem tells the story of Sir Gawain, one of King Arthur’s knights, who accepts a mysterious challenge from a supernatural figure—the Green Knight. Throughout his journey, Gawain faces physical danger, moral temptation, and spiritual testing. The narrative reflects the medieval belief that a knight’s honor was not only measured by courage in battle but also by moral integrity and faith. This study explores how the poem combines Christian morality with chivalric ideals to depict the complexity of human virtue.

Methods. This research uses literary analysis and historical contextualization. The study examines the poem's language, symbolism, and narrative structure, referencing major scholarly interpretations. Primary focus is given to key scenes—the beheading challenge, the temptation in Bertilak's castle, and Gawain's final confession. The analysis draws on secondary sources that discuss medieval chivalry, Christian ethics, and allegory. The approach combines close reading of the text with contextual insights into 14th-century moral values to show how honor and temptation coexist in Gawain's journey.

Results. The analysis reveals that Sir Gawain and the Green Knight presents honor as both an external and internal code. Gawain's bravery and courtesy initially demonstrate his loyalty to Arthur's court. However, the Green Knight's challenge exposes deeper conflicts between social expectations and personal morality. When tempted by Lady Bertilak, Gawain struggles between his vow of chastity and the natural desire for survival. His acceptance of the green girdle—an act of self-preservation—marks his moral weakness. Yet, when he confesses his failure, the poem celebrates his honesty and humility. Thus, true honor is achieved not through perfection, but through recognition of human imperfection and repentance.

Discussion. The poem ultimately redefines heroism. While Gawain appears to fail the test of absolute virtue, his moral awareness elevates him above mere pride or hypocrisy. The Green Knight's forgiveness transforms the story from a tale of punishment to one of redemption. This moral structure reflects the Christian view that grace and confession outweigh sin and pride. The poem also criticizes the superficiality of chivalric reputation, suggesting that real honor resides in truth and moral sincerity. By blending Christian theology with the ideals of knighthood, Sir Gawain and the Green Knight emerges as a timeless meditation on the limits of human virtue and the power of self-knowledge.

References

1. Sir Gawain and the Green Knight. Translated by J. R. R. Tolkien and E. V. Gordon. Oxford University Press, 1925.

2. Burrow, J. A. A Reading of Sir Gawain and the Green Knight. London: Routledge, 1965.

3. Benson, Larry D. Art and Tradition in Sir Gawain and the Green Knight. Rutgers University Press, 1965.

4. Putter, Ad. An Introduction to the Gawain-Poet. London: Longman, 1996.

5. Spearing, A. C. The Gawain-Poet: A Critical Study. Cambridge University Press, 1970.

THE RISE OF SECULAR WRITING IN MEDIEVAL ENGLAND

Rustamova Dilbar Umid qizi
Student, Chirchiq State Pedagogical University
rustamovadilbar90@gmail.com
Scientific adviser: **Khamitov Eldorbek**
Teacher,Chirchik State Pedagogical University
khamitoveldorbek@gmalil.com

Abstract. This paper examines the emergence and development of secular writing in Medieval England, a period traditionally dominated by religious literature. It analyzes the factors that led to the growth of non-religious themes in English writing between the 12th and 15th centuries, including social change, urbanization, and the influence of humanism. The study argues that the rise of secular writing marked a significant shift in English culture, laying the foundation for modern literary expression.

Key words: Medieval England, secular literature, humanism, social change, Middle English, culture

Introduction. Medieval English literature was initially deeply rooted in religious belief and church tradition. Most writing was produced by monks or clerics, who focused on scripture, morality, and spiritual salvation. However, beginning in the 12th century, English society

underwent significant transformation. The growth of towns, the rise of universities, and the influence of foreign cultures led to a broader interest in human life and experience.

This new social energy gave birth to secular writing — works that dealt with human emotions, adventures, love, humor, and everyday life rather than purely religious subjects. Writers such as Geoffrey Chaucer, William Langland, and the unknown authors of ballads and romances began to portray humanity in more realistic and earthly terms. This shift represented a cultural movement from spiritual authority to human experience.

Methods.

The research uses a **historical and literary analysis method** to explore the development of secular writing in Medieval England. The following approaches were used:

Historical contextualization – studying the social and political changes of the 12th to 15th centuries that encouraged individual expression.

Textual analysis – examining representative works such as *The Canterbury Tales*, *Piers Plowman*, and popular ballads.

Thematic study – identifying common secular themes like love, humor, moral satire, and human folly.

Cultural interpretation – analyzing how humanism and everyday life influenced literary production.

This multidimensional method allows a deeper understanding of the secularization process in Medieval English literature.

Results.

The study reveals several significant results:

Shift from religious to human themes: While early Medieval writing was dominated by religious topics, by the 14th century many authors focused on human nature, society, and moral questions outside of church doctrine.

The influence of social change: The growth of the middle class and literacy created a new audience interested in stories of love, humor, and social commentary. This led to the popularity of ballads, romances, and satires.

The role of Chaucer and his contemporaries: Geoffrey Chaucer's *The Canterbury Tales* exemplified the secular spirit of the age, presenting a diverse range of characters and everyday experiences with realism and wit. Similarly, Langland's *Piers Plowman* and the Robin Hood ballads reflected social and ethical concerns rather than strict religious morality.

Foundation for modern literature: By combining human experience with artistic imagination, Medieval secular writers set the stage for the Renaissance and the rise of individualism in English literature.

Discussion.

The rise of secular writing in Medieval England marked a major transformation in literary and cultural history. It signaled a move from divine to human perspectives, reflecting a changing worldview in which people began to value earthly experience as well as spiritual faith.

Rather than rejecting religion, these writers brought balance — celebrating both the sacred and the worldly. The blend of humor, realism, and social criticism found in Chaucer and the ballad tradition demonstrated a new literary freedom. This evolution helped English literature become more diverse, dynamic, and accessible to ordinary people.

Therefore, the development of secular writing in Medieval England was not just a literary trend but a cultural awakening that prepared the way for the humanist values of the Renaissance.

References

Burrow, J. A. *Medieval Writers and Their Work: Middle English Literature and Its Background.* Oxford: Oxford University Press, 1982.

Blake, N. F. *The English Language in Medieval Literature.* London: Routledge, 1992.

Daiches, David. *A Critical History of English Literature, Vol. I.* London: Secker & Warburg, 1960.

Chaucer, Geoffrey. *The Canterbury Tales.* Ed. Larry D. Benson. Oxford: Oxford University Press, 1987.

Langland, William. *Piers Plowman.* Ed. Derek Pearsall. London: Arnold, 1978.Burke, Peter. *Popular Culture in Early Modern Europe.* Aldershot: Ashgate, 1994.

KING ARTHUR LEGENDS: FACT AND FICTION

Rustamova Dilbar Umid qizi
Student, Chirchiq State Pedagogical University
rustamovadilbar90@gmail.com
Scientific adviser: Khamitov Eldorbek
Teacher ,Chirchik State Pedagogical University
khamitoveldorbek@gmalil.com

ABSTRACT

This research explores the enduring legend of King Arthur, one of the most fascinating figures in British mythology. The study distinguishes between historical evidence and literary invention, examining how fact and fiction intertwine to create the Arthurian myth. By analyzing early chronicles, medieval romances, and later adaptations, the research identifies the cultural, moral, and national ideals reflected in the legend. The results demonstrate that while the historical Arthur remains uncertain, his mythical representation has profoundly shaped British literature and identity.

Key words: King Arthur, mythology, medieval literature, Arthurian legend, chivalry, British identity

INTRODUCTION

The legend of King Arthur has captivated generations for over a millennium, blending history, myth, and moral imagination. Stories of Arthur, his knights, and the utopian court of Camelot continue to inspire literature, film, and popular culture. However, debates persist about whether King Arthur truly existed or was a fictional creation. This study investigates the origins of the Arthurian legend, tracing its transformation from possible historical figure to symbolic hero. The aim is to explore how historical fragments evolved into an elaborate body of legend representing the ideals of chivalry, leadership, and national unity.

METHODS

This research employs a historical-literary analysis. Primary sources include Historia Regum Britanniae by Geoffrey of Monmouth, Le Morte d'Arthur by Sir Thomas Malory, and early Welsh tales such as Culhwch and Olwen. Secondary sources include modern historical and literary studies focusing on the evolution of the Arthurian myth. The study compares textual narratives to archaeological and historical findings to evaluate the extent of factual basis within the legend. The method also involves thematic and symbolic analysis to understand how fiction has preserved moral and cultural values across centuries.

RESULTS

Findings suggest that King Arthur may have originated from a real leader who defended Britain against Saxon invasions around the 5th or 6th century. However, most details about Arthur's life—such as the Round Table, Excalibur, Merlin, and the Holy Grail—are products of medieval imagination. Geoffrey of Monmouth's Historia Regum Britanniae (12th century) established Arthur as a national hero, blending limited historical data with mythic elements. Later authors, especially Chrétien de Troyes and Malory, expanded the legend to reflect Christian morality and chivalric ideals. Thus, the Arthurian narrative became less about history and more about moral symbolism and national identity.

DISCUSSION

The coexistence of fact and fiction in the Arthurian tradition illustrates the cultural power of storytelling. While historians continue to question the existence of an actual King Arthur, the literary figure remains central to Western imagination. The blending of historical memory with creative invention allowed the legend to adapt to different eras—serving medieval audiences as a

model of knighthood, and later readers as a metaphor for ideal leadership and justice. The Arthurian myth demonstrates how societies construct heroes to embody collective dreams and virtues. In essence, the legend's endurance lies not in its factual truth, but in its emotional and cultural resonance.

REFERENCES

1. Geoffrey of Monmouth. Historia Regum Britanniae. 1136.
2. Malory, Sir Thomas. Le Morte d'Arthur. 1485.
3. Chrétien de Troyes. Arthurian Romances. 12th century.
4. Loomis, Roger Sherman. The Development of Arthurian Romance. London: Hutchinson, 1963.
5. Ashe, Geoffrey. The Discovery of King Arthur. London: Guild Publishing, 1985.
6. Barber, Richard. King Arthur: Hero and Legend. London: Boydell Press, 1986.

PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN O'QITISH TEXNALOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Egamnazarov Murod Yusupovich
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti

Anatatsiya: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatini shakillantirish mexanizmlari v atexnalogiyalari yoritilgan va bu maqolada oqitish texnalogiyalarining izohlanadi.

Анатация: В статье описаны механизмы и технологии формирования коммуникативных способностей студентов посредством личностно-ориентированных технологий обучения в организации педагогической деятельности, а также даны разъяснения технологий обучения.

Anatation: This article describes the mechanisms and technologies of formation of students' communicative abilities through person-centered learning technologies in the organization of pedagogical activity, and this article explains the teaching technologies

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat, shaxs faoliyati, o‘qitish texnalogiyalari, kommunikativ qobiliyat, o‘quv hamkorligi.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, личностная деятельность, технологии обучения, коммуникативные навыки, учебное сотрудничество.

Key words: pedagogical activity, personal activity, teaching technologies, communication skills, educational cooperation

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim deb ataladi.

Shu o‘rinda aytishimiz lozimki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmonini alohida ta'kidlab o‘tish lozim. Farmonda mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish vazifalari belgilangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o‘tishda oliy ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishda ustuvor vazifalar qo‘ydi. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirar ekan: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz",- deb ta'kidlaydi Prezident [1].

Pedagog olimlar tomonidan ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilardan iborat:

– shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;
– hamkorlik pedagogikasi;
– adaptiv muloqot pedagogik texnologiyasi;
– o‘yin texnologiyasi;
– rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi;
– muammoli o‘qitish texnologiyasi;
– differensial o‘qitish;
– individual o‘qitish texnologiyasi [2].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’lim-tarbiya asosida shaxsning intensiv rivojlanishi, moddiy-ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida amalga oshadi.

Bugungi kunda ta’lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlilikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etishda shaxsning ijtimoiy-kasbiy bilimdonligining rivojlanishi bilan bog‘liq ehtiyojlar va intilishlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qitish sifatini o‘quv faoliyatining turli yo‘nalishlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi belgilaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish turli pedagogik texnologiytalar hamda zamonaviy uslublarning qo‘llash orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi jarayonlarni hisobga olish ustuvor vazifa hisoblanadi

1. Hamkorlik pedagogikasi- bu jarayon asosan XX asirning 80-yillarida rivojlana boshladi va bu jarayon asosan o‘qitish texnologiyasida juda ko‘plab imkoniyatlarni yaratib berdi xususan talabalarning kommunikativ qobiliyat salohiyatini oshirdi.

- O’z ustida ishlashga nisbatan ehtiyojlarning paydo bo‘lishi
- Muloqot tizimida samarali va maqsadli mulohazalarning yaratilishi
- Suhbatdoshining imkoniyatlari, hissiy kechinmalari, yo‘nalganlik darajalari, xoxish istraklari va mayillarini tushunish borasidagi mulohazalar
- Ijtimoiy foydalilik darajasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish
- Layoqatlilik darajalarining kashf etilishi va rivojlantirilishi

2. Pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnalogiya – bu jarayonda shaxsiy fazilatlari va ehtiyojlatini ijobiy taraflama shakillantirish orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini shakillantirish ko‘zda tutiladi bu texnalogiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilarni qamrab oladi

- Har bir o‘quv faoliyatining masadi sifatida insonparvarlikka asoslangan holda tushunchalarini shakillantirish
- Shaxs ehtiyojlari va jamiyat ehtiyojlarini birlashtirish. Shaxs va jamiyat birligini taminlash. Jamiyatda shaxsga bo‘lgan hurmat tuyg‘usi va shaxsda jamiyatga hurmat tuyg‘usini rivojlantirish.
- Talaba shaxsining bilishga bo‘lgan intilishini hisobga olgan holda ta’lim texnalogiyalarini joriy etish. Xususiy tushunchalarni umumiy tushunchalarga moslashtirish.
- Talabalarda malakni shakillantirishda shaxsiy yondashuvlari orqali. Ijtimoiy yondashuv muammolarini yaratish, o‘zaro tajriba almashinishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish.
- Talabalarning faoliyati jarayonida o‘z-o‘ziga bahoning yuzaga kelishi va rivojlanishi.

3. O’quv materiallarini sxemalar va modellar ishorasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnalogiyasi – bu texnalogiya orqali talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi bu texnalogiyada asosan o‘qitish suratining tezlashishi maqsad sifatida qaraladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilarda o‘z aksini topadi.

- Takrorlash va takrorlash orqali mustahkamlashga erishish.

- Bosqichma bosqich nazoratni taminlash. Qaysi ma’lumot qaysi ma’lumotning tarkibida rivojlanayotganligini sodda shakilda ifodalash va tushuntirish
- Bahs munozaraga asoslangan mavzuli muammolarni yarata olish ijodiy va shaxsiy fikirlash orqali ilmiy fikirlash daradalarini rivojlantirish.
- Amaliyotga qo‘llash darajasini birgalikda o‘rganib chiqish yagona fikrlarni yaratish.
- Asosiy fikr mulohazalarning markaziy o‘rni sifatida shaxs va shaxs manfaatlariga xizmat qilishini taminlash.

4. O’quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnalogiya – bu texnalogiya orqali talabalarning kommunikativ faoliyatini faollashtirish va maqsadli faollikni yuzaga keltirish orqali ijtimoiy jamiyatdagi mavqeyini yuzaga keltirish bu jarayonda quyidagi omillar nazarda tutiladi.

- O’quv jarayonini shaxs manfaatlari bilan birlashtirib yagona shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni yuzaga keltirish.
- O’quv va jarayonining shaxs ijtimoiy hayotiga aloqadorligini talaba ongiga yetkaza olish.
- O’quv faoliyatini tashkillashtirishda individual xususiyatlarini o‘rgangan holda jamoaviy ishlash jarayonini yuzaga keltirish.

5. O’qitishni individuallashtirish texnologiyasi

- Shaxsiy o‘zlashtirishning yuqori darajaga chiqishi
- Pedagogik faoliyatning samarali yo‘lga qo‘yilishi va yangicha jabhalarning kashf etilishi
- Individual qirralarning kashf etilishining jadallashuvi jarayoni
- O’quvchi va o‘qituvchi muloqot tizimining samarali yo‘lga qo‘yilishi
- Birgalikda ishlash har ikki tarafning aniq maqsadlarini tushunish va shu maqsadlar asosida yangi o‘qitish mexanizimini yaratish

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda ta’lim mazmuni takomillashtirish, qo‘llanma va tavsiyalarni yaratish bilan bir qatorda ta’lim jarayonini faollashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining dastlabki bosqichida mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda har bir ta’lim muassasi, har bir o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida u o‘zining amaliy tabdiqini topmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ” Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. T, 2017. 197-bet

2. “Umumiy pedagogika”, o‘quv qo‘llanma. O.Musurmanova, X.Ibraimov va b. –Toshkent, “Navruz” nashriyoti, 2019 yil. 86 bet

IRRATSIONAL TENGLAMALARNI YECHISHNING GEOGEBRA DASTURI YORDAMIDAGI TAHLILI.

Solayeva Mehribon Norimonovna
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
“Tizimli tahlil va matematik modellashtirish kafedra katta o‘qituvchisi.”
m.solayeva@uwed.uz, mehribon.solayeva@bk.ru**.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada, matematika fanining bitta bo‘limi bo‘lgan Irratsional tenglama va tengsizliklar bobining, Irratsional tenglamalar mavzusiga boshlang‘ish tushunchalari va mavzuning kirish qismiga oid bir nechta misollar tahlili ko‘rib chiqiladi va bundan tashqari shu misollarning geogebra dasturi yordamidagi tahlillari ko‘rib chiqiladi.

Ushbu mavzuning tahlilidan maqsad, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilariga, irratsional tenglamalarni yechishda e’tibor berishi lozim bo‘lgan boshlang‘ich tushunchalarning mazmuni va ahamiyatini misollar va chizmalar yordamida tushuntirib berish.

Kalit so‘zlar: irratsional sonlar, irratsional tenglamalar, aniqlanish soxa, zamonaviy metodlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются начальные понятия темы *«Иррациональные уравнения»* раздела *«Иррациональные уравнения и неравенства»* как части курса математики. Анализируются несколько примеров, относящихся к введению в данную тему, а также их исследование с помощью программы GeoGebra. Цель анализа данной темы — с помощью примеров и чертежей объяснить учащимся общеобразовательных школ содержание и значение начальных понятий, на которые необходимо обращать внимание при решении иррациональных уравнений.
Ключевые слова: иррациональные числа, иррациональные уравнения, область определения, современные методы.

Annotation. This article examines the basic concepts of the topic *“Irrational Equations”*, which is a part of the section *“Irrational Equations and Inequalities”* in mathematics. It analyzes several examples related to the introduction of this topic, as well as their examination using the GeoGebra software. The purpose of this analysis is to explain, through examples and diagrams, the meaning and importance of the fundamental concepts that students of general secondary education should pay attention to when solving irrational equations.
Keywords: irrational numbers, irrational equations, domain of definition, modern methods.

Kirish. Bugungi kunga kelib maktab matematika kursining rivojlanishiga bo‘lgan talabning oshishi bilan bir qatorda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari oldiga maktab matematika kursi darslarini sifatli, samarali va o‘quvchilarni fandan zerikishlarni oldini olib darslarni tashkil qilish masalalari dolzarb muammo sifatida turibdi [4,5,6].

Shu o‘rinda Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlarini aytib o‘tadigan bo‘lsak, uning fikricha, ta’lim oluvchilarga ta’lim berishda quyidagilarga e’tibor berish kerak,

- Ta’lim oluvchini zeriktirmaslik.
- Bilim berishda bir hil narsalarni yoki bir hil fanni o‘rgatavermaslik.

Shularni inobatga olgan holda ushbu maqola umumiy o‘rta taelim maktab 10-sinf o‘quvchilari uchun matematika fanining “Sodda irrotsional tenglamalar va ularning sistemalari” mavzusi va uni o‘qitishda bir qator qulayliklar va kamchiliklar tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Aniqlanish sohasini topish orqali yechim topish yoki mavjud emasligini isbotlashga oid misollar:

Misol 1: $\sqrt{2x-3}+\sqrt{1-x}=5$ tenglamani yeching [1,2,8].

Yechish: $\sqrt{2x-3}+\sqrt{1-x}=5$

tenglama berilgan bo‘lsin. Bu tenglamaning yechimini topishdan oldin aniqlanish sohasini topamiz.

$$\begin{cases} 2x-3\geq 0 \\ 1-x\geq 0 \end{cases} \Rightarrow\ x\geq 3,\ x\leq 2$$




1 1.5

Yuqoridagi chizmadan hamda topilgan aniqlanish sohasidan ham ma’lumki ushbu tenglamaning yechimi mavjud bo‘lgan soha mavjud emas.

Endi ushbu tenglamani ikkita funksiyaning o‘zaro tengligi sifatida qarab, bu funksiyalar kesishadimi degan savolga javobni Geogebra dasturi yordamida tekshirib ko‘ramiz. Buning uchun eng avval tenglamani

$$\sqrt{2x-3}=5-\sqrt{1-x}$$

Ko‘rinishda yozib olib, $y=\sqrt{2x-3}$, $y=5-\sqrt{1-x}$ funksiyalar deb qaraymiz va grafiklarini dastur yordamida chizamiz.



Haqiqatdan grafiklardan ko‘rinib turibdiki bu ikki funksiya o‘zaro kesishmaydi va bu tenglamaning yechimi bo‘sh to‘plam bo‘ladi.

$\sqrt{f(x)} = g(x)$ ko‘rinishdagi tenglamalar va ularni yechishga oid misollar:

Misol 7: $2\sqrt{x+5} = x+2$ tenglama yechimini toping [1,6].

Yechish: Ushbu tenglama yechimini topish uchun avval tenglamaning aniqlanish sohasini topamiz.

$$\begin{cases} x+2 \geq 0 \\ x+5 \geq 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x \geq -2 \\ x \geq -5 \end{cases}$$

Endi tenglamaning har ikki tomonini kvadratga oshiramiz.

$$2\sqrt{x+5} = x+2$$

$$4x+20 = x^2+4x+4$$


$$x^2 = 16$$

$$x_{1,2} = \pm 4$$

Tenglamaning aniqlanish sohasiga ko‘ra tenglamaning yechimi $x = 4$ ga teng bo‘ladi.

Endi ushbu tenglamani ham yechish uchun huddi yuqoridagi kabi ikki funksiya tengligi sifatida qaraymiz va geogebra dasturi asosida grafik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

$$\begin{cases} y = 2\sqrt{x+5} \\ y = x+2 \end{cases}$$



Foydalanilgan adabiyotlar:

1) Solayeva M.N. Irratsional tenglamalar mavzusiga kirishga oid bir nechta misollar tahlili. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №7. B.344–349. https://researcher.uz/docs/irratsional-tenglamalar-mavzusiga-kirishga-oid-bir-nechta-misollar-tahlili-326625

2) M.I.Skanaviy. Matematikadan masalalar to‘plami. “Bilim va intellectual salohiyat” Toshkent-2018 nashri.

3) A. U. Abduhamidov, H.A. Nasimov, U.M. Nosirov, J. H. Husanov. Algebra va matematik analiz asoslari: Akad. litseylar uchun darslik, – T.: «O’qituvchi» NMIU, 2008. Q.I. – 400 b.

4) M.A.Mirzaaxmedov, Sh.N.Ismoilov, A.Q.Amanov. “Matematika 10-sinf darslik” I qism Toshkent 2017.

5) M.N.Solayeva. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlararo bog‘liqlik. Academic research in educational sciences, 315-320. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0PndwbAAAAAJ&citation_for_view=0PndwbAAAAAJ:LkGwnXOMwfcC

6) M.Solayeva. Dars jarayonlarini samarali tashkil qilishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni. «Science and innovation». 24-27. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0PndwbAAAAAJ&citation_for_view=0PndwbAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC.

7) М.Н.Солаева, З.А.Наримбетова, Умумий ўрта мактабларида илдизли ифодаларни ҳисоблашда педагогиканинг тажриба усулини тадбиқ этиш. FIZIKA MATEMATIKA va INFORMATIKA. 22-26 b https://scholar.google.com/scholar?cluster=13552606659221496490&hl=en&oi=scholarr

8) M.N.Solayeva. IRRATSIONAL IFODALARNI TAXMINIY HISOBLASH USULLARI. Экономика и социум 2023. 731-734 b. https://cyberleninka.ru/article/n/irratsional-ifodalarni-taxminiy-hisoblash-usullari

YANGI O’ZGARUVCHI KIRITIB YECHISHGA OID TURLI TIPDAGI IRRATSIONAL TENGLAMALAR VA ULARNI YECHISH USULLARINING TAHLILLARI.

Solayeva Mehribon Norimonovna
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
“Tizimli tahlil va matematik modellashtirish kafedra katta o‘qituvchisi.”
m.solayeva@uwed.uz, mehribonsolayeva28@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, “Irratsional tenglamalar” mavzusining yangi o‘zgaruvchi kiritib yechish (yoki belgilash kiritib yechishga) oid bir nechta misollar tahlili va uning matematik dasturiy paketlar orqali yechimlarini topish ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari irratsional tenglamalarni yechishda, yangi o‘zgaruvchi kiritish orqali berilgan tenglamani oddiyroq ko‘rinishga keltirib olish hamda tenglamaning yechimini oson topishni ko‘rsatishdir.

Kalit so‘zlar: irratsional tenglamalar, aniqlanish soxa, yangi o‘zgaruvchi kiritish, ifodani belgilab olish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются несколько примеров решения иррациональных уравнений с введением новой переменной (или путем обозначения выражения) и нахождения их решений с использованием математических программных пакетов. Кроме того, показано, как при решении иррациональных уравнений введение новой переменной позволяет привести данное уравнение к более простому виду и тем самым облегчить нахождение его решения.

Ключевые слова: иррациональные уравнения, область определения, введение новой переменной, обозначение выражения.

Annotation: This article examines several examples of solving irrational equations by introducing a new variable (or by substituting an expression) and finding their solutions using mathematical software packages. In addition, it is shown that when solving irrational equations,

introducing a new variable makes it possible to transform the given equation into a simpler form, thereby facilitating the process of finding its solution.

Keywords: irrational equations, domain of definition, introduction of a new variable, expression substitution.

Kirish. Bugungi kunga kelib maktab matematika kursining rivojlanishiga bo‘lgan talabning oshishi bilan bir qatorda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari oldiga maktab matematika kursi darslarini sifatli, samarali va o‘quvchilarni fandan zerikishlarni oldini olib darslarni tashkil qilish masalalari dolzarb muammo sifatida turibdi.

Shu o‘rinda **Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ta’lim va ilm olish usullari haqida:**

Beruniyning fikricha, ilmiy bilimlarni egallashda **o‘quvchining tabiiy qiziqishi, ruhiy holati va tafakkuri** muhim rol o‘ynaydi. Uning asarlarida quyidagi metodik yondashuvlar ilgari surilgan:

- **Ta’lim oluvchini zeriktirmaslik:***Beruniyga ko‘ra, ta’lim jarayoni o‘quvchini charchatmasligi va bir maromda davom etmasligi kerak. Agar dars bir xil uslubda, qiziqarsiz o‘tsa, o‘quvchining tafakkuri to‘xtaydi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq so‘nadi.*

Shularni inobatga olgan holda ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun matematika fanining “Irrotsional tenglamalar” mavzusida “Tenglamalarni yangi o‘zgaruvchi kiritib yechishga oid misollar” ning turli ko‘rinishlari va uni o‘qitishda bir qator qulayliklar va kamchiliklar tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Tenglamalarni yangi o‘zgaruvchi kiritib yechishga oid misollar:

Misol 1: $x^2-4x+6=\sqrt{2x^2-8x+12}$ tenglamani yeching.[2,3]

Yechish: $x^2-4x+6=\sqrt{2x^2-8x+12}$ tenglamaning yechish uchun yangi o‘zgaruvchi kiritib olamiz. Ya’ni

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=t$$

kabi belgilash kiritib olamiz. Bundan

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=t \Rightarrow 2x^2-8x+12=t^2 \Rightarrow x^2-4x+6=\frac{t^2}{2}$$

bo‘lishi kelib chiqadi va tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$\frac{t^2}{2}=t \;\Rightarrow\; t^2=2t \;\Rightarrow\; t^2-2t=0 \;\Rightarrow\; t_1=0,\; t_2=2$$

yechimlar hosil bo‘ladi. Endi topilgan yechimlarni belgilangan ifodaga qo‘yib, qayta tenglama tuzamiz va yechim topamiz.

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=0 \;\Rightarrow\; 2x^2-8x+12=0 \;\Rightarrow\; x^2-4x+6=0$$

Tenglama hosil bo‘ladi, ammo bu tenglama haqiqiy yechimga ega emas.


$$\sqrt{2x^2-8x+12}=2 \;\Rightarrow\; 2x^2-8x+12=4 \;\Rightarrow$$

$$x^2-4x+6=2 \;\Rightarrow\; x^2-4x+4=0 \Rightarrow (x-2)^2=0 \;\Rightarrow\; x=2$$

Bo‘lishi kelib chiqadi. Bu esa tenglama yagona haqiqiy $x=2$ yechimga ega ekanligini ko‘rsatadi.


Endi ushbu tenglama yechimini topish uchun Maple dasturidan foydalanamiz, ya’ni Maple dasturiga kirib, dasturning oynasining chap qismidan «Выражения» bo‘limidan $\sqrt{a}$ ni tanlab, tenglamani yozib olamiz. Keyin dastur oynasining o‘ng qismida tenglamaning yechimi paydo bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki Maple dasturi tenglamaning barcha yechimlarini hosil qiladi, ya’ni tenglamaning haqiqiy va kompleks sonlardagi yechimlarini.



Endi [1] maqoladagi kabi, yuqoridagi tenglamaning har ikki qismini funksiyalar deb qarab, bu funksiyalarning grafiklarini Geogebra dasturidan foydalanib chizamiz.

Quyidagi chizmadan ko‘rinib turibdiki, bu ikki funksiya haqiqiy tekislikda faqat bitta $x=2$ nuqtada kesishadi.



Misol 2: $\sqrt{x^3+8}+\sqrt[4]{x^3+8}=6$ tenglamani yeching. [2,4]

Yechish: $\sqrt{x^3+8}+\sqrt[4]{x^3+8}=6$ tenglamaning yechimini toppish uchun huddi yuqoridagi misoldagi kabi belgilash kiritib olamiz. Ya’ni ushbu misolda eng katta darajali ildizdagi ifodani belgilab olamiz.

$$\sqrt[4]{x^3+8}=t \Rightarrow \sqrt{x^3+8}=t^2$$

bo‘lib, tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.


$$t^2+t=6 \Rightarrow t^2+t-6=0,$$

kvadrat tenglama hosil bo‘ladi va bu tenglamani yechib, $t_1=-3,\ t_2=2$ javoblarni hosil qilamiz. Yuqoridagi belgilashlarga ko‘ra, biz juft darajali ildizni $\sqrt[4]{x^3+8}=t$ belgilab olgan edik, oldingi maqolada ta’kidlab o‘tganimizdek [1] irratsional ifodalarning aniqlanish sohasiga ko‘ra juft darajali ildizdagi ifoda manfiy songa teng bo‘la olmaydi. Shuning uchun $t_1=-3$ yechimni olmaymiz va $t_2=2$ yechimni belgilangan ifoda o‘rniga qo‘yib qayta tenglama tuzamiz.

$$\sqrt[4]{x^3+8}=2 \Rightarrow x^3+8=16 \Rightarrow x^3=8 \Rightarrow x=2$$

yechimga ega bo‘lamiz. Ko‘rinib turibdiki ushbu tenglama ham huddi yuqoridagi kabi yagona $x=2$ yechimga ega bo‘ladi.

Endi ushbu misolni ham Maple dasturidagi tahlilini ko‘rib chiqamiz.



Yuqoridagidan ko‘rinib turibdiki, Maple dasturiga kirib kerakli buyruqlar orqali tenglamani yozilsa yuqoridagi moil kabi, ushbu tenglamaning ham barcha haqiqiy va kompleks yechimlari kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

9) Solayeva M.N. Irratsional tenglamalarni yechishning geogebra dasturi yordamidagi tahlili. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.17452728

10) Solayeva M.N. Irratsional tenglamalar mavzusiga kirishga oid bir nechta misollar tahlili. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №7. B.344–349. https://researcher.uz/docs/irratsional-tenglamalar-mavzusiga-kirishga-oid-bir-nechta-misollar-tahlili-326625

11) M.I.Skanaviy. Matematikadan masalalar to‘plami. “Bilim va intellectual salohiyat” Toshkent-2018 nashri.

12) A. U. Abduhamidov, H.A. Nasimov, U.M. Nosirov, J. H. Husanov. Algebra va matematik analiz asoslari: Akad. litseylar uchun darslik, – T.: «O’qituvchi» NMIU, 2008. Q.I. – 400 b.

13) M.A.Mirzaaxmedov, Sh.N.Ismoilov, A.Q.Amanov. “Matematika 10-sinf darslik” I qism Toshkent 2017.

14) M.N.Solayeva. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlararo bog‘liqlik. Academic research in educational sciences, 315-320.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0PndwbAAAAAJ&citation_for_view=0PndwbAAAAAJ:LkGwnXOMwfcC
15) M.Solayeva. Dars jarayonlarini samarali tashkil qilishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni. «Science and innovation». 24-27. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0PndwbAAAAAJ&citation_for_view=0PndwbAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC.
16) М.Н.Солаева, З.А.Наримбетова, Умумий ўрта мактабларида илдизли ифодаларни ҳисоблашда педагогиканинг тажриба усулини тадбиқ этиш. FIZIKA MATEMATIKA va INFORMATIKA. 22-26 b https://scholar.google.com/scholar?cluster=13552606659221496490&hl=en&oi=scholarr
17) M.N.Solayeva. IRRATSIONAL IFODALARNI TAXMINIY HISOBLASH USULLARI. Экономика и социум 2023. 731-734 b. https://cyberleninka.ru/article/n/irratsional-ifodalarni-taxminiy-hisoblash-usullari

O’RTA TOLALI G‘O’ZA NAVLARI F_1 DURAGAYLARIDA BARGLARDAGI UMUMIY SUV MIQDORI BELGISINING IRSIYLANISHI VA O’ZGARUVCHANLIGI

Ҳ. Х. Матниязова[1,2], Z.I.Kurbanova[1], N.A.Axmadqulova[1], S.D.Bozorboyeva[1], J.SH.Bozorova[1], Z.A.Fayzullayeva[1], B.U.Muxiddinov[1], D.D.Rasulov[1], D.B.Ataxanov[1], Z.B.Xudoyberdieva[1].
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti,
O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti
Email: matniyazova@mail.ru

Annotatsiya:Turli suv ta’minoti sharoitlarida, jumladan, tuproq qurg‘oqchiligi holatida o‘rganilgan o‘rta tolali g‘o‘zaning ota-ona va F_1 duragay genotiplarida barglardagi umumiy suv miqdori kabi muhim fiziologik belgilarning o‘zgarishi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, g‘o‘za o‘simliklarining gullash va hosil to‘plash davrida suv tanqisligiga uchrashi ularning suv almashinuvi jarayonlarini izdan chiqaradi hamda fiziologik faoliyatning pasayishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: *Gossypium hirsutum* L., qurg‘oqchilik, suv rejimi, g‘o‘za, F_1 duragaylar, umumiy suv miqdori, transpiratsiya, genotipik ta’sirchanlik, moslashuvchanlik.

Аннотация: В условиях различного водообеспечения, в том числе при засушливости почвы, проведён анализ изменений таких важных физиологических признаков, как общее содержание воды в листьях у родительских форм и гибридов F_1 средневолокнистого хлопчатника. Результаты исследования показали, что водный дефицит в период цветения и формирования урожая приводит к нарушению процессов водообмена и снижению физиологической активности растений хлопчатника.

Ключевые слова: Gossypium hirsutum L., засуха, водный режим, хлопчатник, гибриды F_1, общее содержание воды, транспирация, генотипическая чувствительность, адаптивность.

Abstract: The study analyzed the variation of important physiological traits such as total water content in the leaves of parental and F_1 hybrid genotypes of medium-fiber cotton under different water supply conditions, including soil drought. The results showed that water deficit during the flowering and boll formation stages of cotton plants disrupts water exchange processes and leads to a decrease in physiological activity.

Keywords: *Gossypium hirsutum L.*, drought, water regime, cotton, F_1 hybrids, total water content, transpiration, genotypic sensitivity, adaptability.

Kirish. Qurg‘oqchilik — dunyoning iliq va quruq mintaqalarida ekinlar hosildorligini keskin cheklovchi asosiy ekologik stress omillaridan biridir [9]. Iqlim o‘zgarishlari natijasida bu holatning kuchayishi va davomiyligi ortib bormoqda [3]. Shu sababli, ekinlarning suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda sug‘orish muhim omil bo‘lib qolmoqda [1].

Suv tanqisligi o‘simliklarda morfo-fiziologik va biokimyoviy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa hujayra faoliyatining buzilishi, fotosintez tezligining pasayishi, barg og‘izchalarining yopilishi va o‘simliklarning qurishiga sabab bo‘ladi [10]. Leila [5] fikricha, qurg‘oqchilik o‘simliklarning o‘sish bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tuproq namligi yetishmaganda fotosintez, transpiratsiya va xlorofill miqdori kamayadi [13]. Qurg‘oqchilikka chidamlilik — bu nav yoki turning suv tanqisligiga moslasha olish qobiliyatidir [8]. Ayrim o‘simliklarda suv tanqisligiga javoban barglar pozitsiyasi o‘zgaradi yoki suv yo‘qotilishini kamaytirish mexanizmlari ishga tushadi [10], [5]. Shuningdek, ildiz tizimining kuchli rivojlanishi suvni so‘rish samaradorligini oshiradi [12].

Barglar suv tanqisligida tartibga soluvchi mexanizm сифатида to‘kilishi ham o‘simlikning adaptiv reaksiyasi hisoblanadi [7]. Sharma va boshq. [11] tadqiqotlariga ko‘ra, suv tanqisligi sharoitida qovun navlarining suv potensiali turlicha o‘zgaradi, bu esa genotiplarning stressga nisbatan o‘ziga xos javobini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar. Optimal suv bilan ta’minlangan sharoitda barglardagi umumiy suv miqdori eng yuqori Ishonch navida (78,8±0,3%) qayd etildi. Eng past qiymat esa Elastik navida (71,5±2,7%) aniqlandi. F_1 duragaylar orasida Farovon × Ishonch (85,8±1,5%) va Listopad × Elastik (80,5±1,8%) kombinatsiyalari eng yuqori suv miqdoriga ega bo‘ldi.

Barglardagi umumiy suv miqdori irsiylanish tahliliga ko‘ra, ayrim kombinatsiyalarda belgi ijobiy o‘ta dominantlik, boshqalarida esa salbiy o‘ta dominantlik shaklida ifodalandi. Masalan, Listopad × 108-RF duragayida hp = 21,0 bo‘lib, ijobiy o‘ta dominantlik kuzatildi; Farovon × Listopad duragayida esa hp = –27,0 bo‘lib, salbiy o‘та dominantlik qayd etildi.

Suv tanqisligi sharoitida barcha nav va duragaylarda barglardagi suv miqdori kamaydi. Eng yuqori natija Ishonch (72,9±2,8%) va Farovon (70,0±0,9%) navlarida, eng past esa Listopad (61,1±1,6%) navida kuzatildi.

Duragaylarda ham shunga o‘xshash farqlar qayd etildi: Farovon × Ishonch, Elastik × Ko‘paysin va Listopad × Farovon kombinatsiyalari 70% atrofidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi, Farovon × Ko‘paysin kombinatsiyasida esa 48,6±1,3% ga teng bo‘lib, eng past natija qayd etildi.

Suv tanqisligi sharoitida barglardagi umumiy suv miqdori navlarda 7,5–19,9%, F_1 duragaylarda esa 1,1–31,2% gacha kamaydi. Bu natijalar suv rejimi bilan bir qatorda genotipik tarkibning ham ta’sirini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari suv tanqisligida barglardagi suv miqdori va fiziologik jarayonlar sezilarli darajada buzilishini ko‘rsatdi. Biokimyoviy va fiziologik o‘zgarishlar, jumladan, fotosintezning pasayishi, o‘simlik o‘sishi va hosildorlikning kamayishiga olib keldi [11]. Bu holat adabiyotlarda qayd etilgan ma’lumotlar bilan to‘liq mos keladi.

Xulosa. Turli suv rejimi sharoitida G. hirsutum L. turiga mansub g‘o‘za navlari va ularning F_1 duragaylarida barglardagi umumiy suv miqdori fiziologik belgi sifatida yuqori o‘zgaruvchanlik ko‘rsatdi.

Suv tanqisligi sharoitida bu belgi irsiylanishi genotipik tarkib va suv bilan ta’minlanish darajasiga bog‘liq holda turlicha ifodalandi.

Shunday qilib, go‘zaning suv stressiga chidamli navlarini tanlashda barglardagi umumiy suv miqdorini baholash muhim fiziologik mezon sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bhattarai, B., Singh, S., West, C.P., Ritchie, G.L., Trostle, C.L., (2020). Water depletion pattern and water use efficiency of forage sorghum, pearl millet, and corn under water limiting condition. Agric. Water Manag. 238, 106206.

2. Ebarhart S.A, Russel W.A. (1966). Stability parameters for comparing parameters. // Crop. Sci, V. 6. – P. 36-40.

3. Jones, E., van Vliet, M.T., (2018). Drought impacts on river salinity in the southern US: implications for water scarcity. Sci. Total Environ. 644, 844–853.

4. Kresovic B., Gajic B.A., Tapanarova. A. and Dugalic G. (2017). Yield and chemical composition of soybean seed under different irrigation regimes in the Vojvodina region. Plant Soil Environ., 63: 34–39.

5. Leila, R. (2007). Response of Tunisian autochthonous peral millet to drought stress induced by polethylene glycol 6000. African Journal of Biotechnology. 6: – P. 1102-1105.
6. Lu C, Zhang J. (1999). Effects of water stress on photosystem II photo-chemistry and its thermostability in wheat plants // J Exp Bot. 50: – P. 1199–1206.
7. Maleki. A., Naderi, R., Naseri, A., Fathi,A., Bahamin. S and R. Maleki. (2013). Physiological Performance of Soybean Cultivars under Drought Stress. Bull. Env. Pharmacol // Life Sci., Vol 2 (6): – P. 38-44.
8. Mohsenzadeh S, Malboobi MA, Razavi K, Farrahi-Ashtiani (2006). Physiological and molecular responses of Aeluropus lagopoides (poaceae) to water stress // Environ Exp Bot. 56: – P.314-322.
9. Porudad, S.S., and Beg, A., Safflower. (2003). Asuitable oil seed for dryland areas of Iran. // In: proceeding of 7 thinternational conference on development of drylands.. Sep. – P.14-17.
10. Rahmani, N. (2006). Effect of irrigation and nitrogen application on the quantity and quality of medicinal plant Marigold (Calendula Officinalis L.) // Master Thesis Agronomy, University of Pakestan Branch. responses of plants to drought stress. J. African. Agri. Res., Vol. 6(9): – P. 2026-2032.
11. Sharma, S., Leskovar, D., Crosby, K., (2019). Genotypic differences in leaf gas exchange and growth responses to deficit irrigation in reticulatus and inodorus melons (Cucumis melo L). Photosynthetica 57, 237–247.
12. Zare'ian, J. (2004). Effects of drought on the different stages of growth, and growth traits, varieties of winter canola // MS Thesis Agronomy, Faculty of Agriculture, - Islamic Azad University of Khorasgan. – P. 735-739.
13. Wijewardana C, Henry WB, Reddy KR. (2017).Evaluation of drought tolerant maize germplasm to induced drought stress // Miss Acad Sci. 62: – P. 316–329.

EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISHDA EKOSAVODXONLIK VA EKOMADANIYAT

Sirojiddin Qorayev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Raimberdiyeva Sevara, Muhidinova Zebo, Samandarova Sarvinoz, Saparbayeva Nilufar, Shokirova Bekzoda, Sidikxojaveva Shaxzoda
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Ekologiya" yo'nalishi talabalari.

Barqaror rivojlanish qoidalariga rioya etish 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida, Oliy Majlisning 2011 yil 26 martdagi 181-II-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining "2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risidagi" 212-sonli qarorlarida ham aks ettirilgan. Lekin barqaror rivojlanish nima? Rivojlanish-mi, yoki taraqqiyot-mi? Uning tushunchasi, mazmuni va mohiyati nimalardan iborat? O'zbekiston uchun u qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi, kabi o'rinli savollarga hanuzgacha aniq javob topa olinmayapti.

«Barqaror rivojlanish» nima ekanligini uning tarixidan boshlaymiz. Mazkur kontseptsiyani yaratilish tarixiga chuqur nazar tashlaydigan bo'lsak, u aynan xalqaro hamjamiyatning atrof-muhitni muhofaza qilishga oid harakatlardan boshlanganligiga iqror bo'lamiz.

XX asrning 60-yillarida, ya'ni «sovuq urush» ayni avjiga chiqqan davrda, butun insoniyat va xalqaro hamjamiyatning diqqat e'tibori asosan yadroviy to'qnashuvning oldini olishga qaratilgan edi. «Karib inqirozi» deb nom olgan sobiq SSSR va AQSh o'rtasidagi mojarodan so'ng yadro quroliga ega bo'lgan «katta» davlatlar bir narsaga-atom, neytron, vodorod qurollarining oz miqdorda bo'lsa ham ishlatilishi nafaqat dushmanga, balki o'z uyining ham barbod bo'lishiga olib kelishi mumkinligiga iqror bo'lishdi. Ommaviy qirg'in keltiruvchi qurollarning qo'llanilishi va uchinchi jahon urushining boshlanishi Yerdagi hayotning tugashi ekanligini butun insoniyat tushunib yetdi. Bu urushda na mag'lublar va na g'oliblarning bo'lmasligi isbot talab qilmaydigen

aksiomaga aylanib qoldi. Global miqyosdagi yana bir muammolardan bo'lmish-yoppasiga tarqalgan kasalliklar fan va texnika yutuqlari tufayli sekin va astalik bilan orqaga chekina boshladi.

Ammo aynan fan va texnikaning jadal suratlarda rivojlanishi hamda insonlarning talab darajasining o'sishi boshqa global muammoni yuzaga keltirdi. Bu muammo «sovuq urush»dan yoki vabo kabi kasalliklardan farqli ko'zga ko'rmaydigan, aksariyat hollarda yashirin tarzda kechadigan, lekin oqibati atom bombasidan ham xavfliroq-ekologik muammo edi. Chunki XX asrning 70-yillariga kelib insoniyat o'zining nisbatan qisqa (besh million yillik) tarixiy bosqichi davomida Yer kurrasidagi o'rmonlarning 3/2 qismini kesib, 6 mlrd ga unumdor tuproqlarni qishloq xo'jalik oborotidan chiqazib, kuniga biron-bir turdagi hayvonot yoki o'simlik dunyosi yo'qotib yuborayotgan, 70 foizdan ortiq suv manbalarini ifloslantirib, atmosfera havosida esa is gazi miqdorini 20 mln. tonnaga oshirib, ozon tuynugini AQShdek katta mamlakat yer maydoniga teng bo'lgan kenglikda ochib qo'ygan edi. Natijada, odamlar orasida yangi turdagi-allergiya, SPID(OITS), yuqumli va surunkali o'pka yo'li va rak kasalliklarini yuzaga kelishiga olib keldi. Tug'ilayotgan nozik bolalarda mutanlik xususiyatlari, ya'ni normal(tipik) insonlarga xos bo'lmagan quloq va burunlarning turli shaklda bo'lishi, qo'shaloq chaqaloqlarning tug'ilishi, o'pka qo'shaloqligi, sochsizlik, yuz qiyshiqligi, qing'ir-qiyshiq qo'l va oyoqli bolalarning tug'ilishi tabiiy holga aylanib qoldi.

Yangi barqaror rivojlanish kontseptsiyasida Inson va tabiatning garmonik rivojlanishi uchun quyidagi asosiy qoidalar nazarda tutilgan:

-Davlatlarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi suveren huquqi boshqa, milliy yurisdiktsiyasi kirmaydigan davlatlar va mintaqalarning atrof muhitiga zarar qilmasligi kerak. Mazkur qoida 1945 yilda qabul qilingan BMTning Nizomiga to'la muvofiq keladi;

- davlatlar yoki alohida bir transkontinental kompaniyalarning rivojlanish huquqi hozirgi va kelajak avlodlarning atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ehtiyojlarini adekvat darajada qondirishi lozim;

- barqaror rivojlanishda atrof-muhit muhofazasi taraqqiyot jarayonining bir qismi hisoblaniladi va undan ajralgan tarzda muhokama qilinmasligi kerak;

- davlatlar Yer ekotizimlarini saqlash, muhofaza qilish hamda uning tozaligi va butunligini tiklash maqsadida global miqyosdagi sherikchilik ruhida hamkorlik qilishlari lozim;

- har bir davlat atrof-muhit holati uchun javobgardir;

- rivojlangan mamlakatlar xalqaro doirada barqaror rivojlanishni ta'minlashda mas'uldirlar, mazkur davlatlar jamoasi Yer sayyorasining muhitiga yetgazgan zararini ulardagi texnologik va moliyaviy resurslardan kelib chiqqan holdagi javobgarligini tan olmoqlari lozim;

- tabiiy resurslardan foydalanishi mo''tadil-lashtirish maqsadida davlatlar o'z demografik siyosatlarini muvofiqlashtirishlari zarur;

- tabiiy xom ashyoni ishlab chiqarish, qazib olish va qayta ishlash ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi va ushbu jarayonlarda ilg'or texnologiyalarni qo'llash lozim;

- ekologik muammolarni barcha manfaatdor fuqarolar ishtirokida va turli darajada: milliy miqyosda-har bir fuqaro atrof-muhitga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lishlari; davlatlar esa bunday masalalarni hal etishda keng ma'lumotlar berish yo'lini rivojlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari zarur; ekologik zararlarni qoplashda sud orqali himoyalanish vositalarini qo'llash va ma'muriyat ishilarini ularda ko'rib chiqishni ta'minlash;

- davlatlar atrof-muhit muhofazasiga doir qonun hujjatlariga, ekologik qatьiy o'rnatilgan me'yorlarga (standartlarga) ega bo'lmoqlari lozim, xo'jalik faoliyatining maqsadi va ustuvorligi atrof muhitni muhofaza qilish vazifalariga muvofiq kelishi kerak;

- davlatlar maqbul va ochiq xalqaro ekologik tizimni tashkil qilishda hamkorlik qilishlari kerak, bu esa atrof-muhit holatiga doir muammolarni yanada ham samarali hal qilishga olib kelishi lozim;

- savdo siyosati sohasida atrof muhitni muhofaza qilish maqsadida ko'rilayotgan choralar ixtiyoriy yoki asossiz ravishda diskriminatsiya qilish yoki xalqaro savdoning yashirin cheklash vositasi bo'lmasligi lozim;

- atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan chegaralararo yoki global ekologik muammolarning yechish yo'llari xalqaro konsensus (murosaga)ga asoslangan bo'lishi kerak;

- milliy qonunlar davlatlarda ham, ularning tashqarisida ham tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplashni hisobga olmog'i lozim;

- davlatlar atrof tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi moddalarning harakatlanishi va tashilishining oldini olish uchun samarali ravishda hamkorlik qilishlari kerak;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ekologik harajatlarni ifloslanish bilan bog'liq bo'lgan ekologik vositalardan foydalanishni baynalminallashtirish orqali rejalashtirishlari lozim;

- ekologik oqibatlarni baholash vakolatli milliy organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak;

- davlatlar, halqaro miqyosda yordam berish maqsadida, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har qanday ofat yoki boshqa favqulodda vaziyat haqida darhol o'zga mamlakatga axborot yetkazishlari kerak;

- ayollar atrof-muhit unsurlaridan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishda hayotiy muhim rolь o'ynaydilar, shuning uchun ham ularning turli ekologik tadbirlarda har tomonlama ishtiroklarini ta'minlash zarur;

- davlatlar yoshlarning bunyodkorlik qobiliyatlarini, istiqbolli maqsadlarini va jasurliklarini ekologik muammolarni hal etishga jalb qilmog'i kerak;

- davlatlar atrof-muhitga bo'lgan an'anaviy munosabatlarini tan olishlari kerak, mahalliy aholi va uning jamoalarining tarixiy tajribasini ishlatmog'i lozim;

- davlatlar urushlarni (qurolli to'qnashuvlarni), ekotizim-larning bir butunligining parchalanishini oldini oluvchi xalqaro huquqiy me'yorlarni hurmat qilmog'i kerak ;

- tinchlik, rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'zaro bog'langan va ajralmasdir;

- davlatlar ekologiya sohasidagi nizolarni va masalalarni tinch yo'l bilan tegishli vositalar yordamida BMT Nizomiga muvofiq ravishda hal qilmog'i kerak;

- davlatlar, xalqlarni barqaror rivojlanishi uchun, ekologik talablarni bajarishda yaxshi niyat va sherikchilik ruhida hamkorlik qilishga majburdir.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi, yuqorida keltirilgan atrof-muhitni muhofaza qilishga oid printsip-qoidalar tufayli, xalqaro huquq talablariga to'la javob beradi, u jamiyat va tabiat uyg'unligini oshiradi. Ushbu ekologik printsip-qoidalarga rioya qilish, shubhasiz, xalqaro hamjamiyatning hamkorligiga va bir maromda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ekologik muammolarni hal qilishning o'ziga xos xususiyati – hukumat, boshqaruv, xalqaro tashkilotlar va aholi barcha qatlamlarini atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish va ularni birgalikda hal etishdadir. Atrof tabiiy muhitda hamma narsa o'zaro uzviy bog'langan, mahalliy ekotizimdagi salbiy jarayonlar yoki hodisalar regional ekotizimlarda aks etadi, ular o'z navbatida yig'ilib global ekotizimlar fojiasiga aylanishi mumkin. Ekolog-olim N.F.Reymers «Atrofdagilarni xavfsizlantirmasdan turib, o'z uyingizning xavfsizligini ta'minlay olmaysiz», deb to'g'ri aytgan edi.

BMT ma'lumotlari bo'yicha har yili Dunyo okeaniga 30 mlrd tonna neftь mahsulotlari, 50 ming t pestitsidlar va 5ming t simob tashlanadi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqava suvlarni tozalash muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sanoatda juda ko'p miqdorda suv ishlatiladi. Masalan, 1 tonna po'latni eritish uchun 200 m3, 1 tonna qog'oz ishlab chiqarish uchun 100 m3, 1 tonna sintetik ipak tayyorlash uchun esa 2500 dan 5000 m3 gacha suv sarf qilinadi.

BMT ma'lumoti bo'yicha dunyo aholisining 1/4 qismi toza ichimlik suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emas, qolgan 1/3 qismi esa sifatsiz suvdan foydalanishga majbur. Butun dunyo bo'yicha oqava suvlarning faqat 10%i oldindan tozalanadi. Janubiy Amerika va Afrika davlatlarida esa bu ko'rsatkich faqat 2%, xolos. Bularning barchasi yer osti suvlari holatida aks etmoqda.

Yoqilg'ining yonishi natijasida har yili atmosferaga 20 mlrd tonna atrofida karbonat angidrid gazi tashlanmoqda. Gazlarning atmosferadagi miqdori sekin-asta ko'payib bormoqda, oxirgi 100 yil ichida bu ko'rsatkich 10% dan oshdi. Karbonat angidrid gazi kosmik fazoga issiqlikning tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda, bu esa Yer harorati isib ketishiga olib kelmoqda. Iqlimshunoslarning ma'lumotlari bo'yicha XX1 asrning o'rtalariga borib u 2-50 gradusni tashkil

etishi mumkin. Gazlarning atmosferaga chiqarilishi ulьtrabinafsha nurlardan Yerning asosiy himoyachisi bo'lgan ozon qatlamining 9 foizi yo'q qildi. «Ozon tuynigi» ning umumiy maydoni AQSh hududiga teng bo'lgan maydonni ishg'ol qildi.

Avtomobilь transporti, elektrostantsiyalar, qora va rangli metallurgiya korxonalari, nefть va gazni qayta ishlash, kimyo va o'rmon sanoatlari atmosfera havosini sezilarli darajada iflos qilmoqda. Atmosfera havosidagi zararli moddalarning katta qismi avtomobillardan chiqqan gazlar hisobiga to'g'ri kelib, ularning roli muntazam ravishda oshib bormoqda

Ekologik muammolarning miqyosi haqidagi tassavvurlarga ega bo'lgan holda, uni keltirib chiqargan asosiy sababchilaridan bo'lmish - iqtisodiy yuksalish darajasiga murojaat qilamiz. Iqtisodiy yuksalish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi ziddiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchilarning aksariyati ekologik muammolarni iqtisodiy sabablar bilan bog'lashga urunmoqdalar va bunda «jon» bor, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi O'RQ-637- son Qonuni. Toshkent sh.,2020, Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi, 1313-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari togrisida",Toshkent, PQ-2909-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik talimni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq talimini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qoshimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son.

5.Peter Rellero, Dinah Zike. Ecology. USA, Glencoe. 2005.

6.Toxtaev A. Ekologiya. T.: Oqituvchi. 1998., 2001.

7. Xojanazarov O., Mirsovurov M., Norbobayeva T. Ekologiya va barqaror taraqqiyot talimi. T. Navroz.2014.

8. Malikova A.R. Talabalar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish // Fan, talim, integrasiya va ishlab chiqarish:Respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami.

9. Bozorova N.Sh. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari (oliy oquv yurtlari misolida). T.: 2006. – 21 b.

10. Environmental ethics, law and education to determine which plays the most critical role in environmental enhancement and protection. Environment, Development and Sustainability, p. 1069-1080.

11. Hsing Yun. Protecting Our Environment. Buddhism in Every Step. – Buddhas Light Publishing, 2011. – 19 p.

12. Gray M. Geodiversity. Valuing and Conserving Abiotic Nature. John Wiley & Sons Ltd, Chichester. 2004. – p 434.

13. Harding R., Ecologically sustainable development: origins, implementation and challenges. Desalination, 2006. 187(1-3):p. 229-239.

14. Blackman. A., Can Voluntary Environmental Regulation Work in Developing Countries: Lessons from Case Studies.Policy Studies Journal, 2008. 36(1):p.119- 141.

15. O'zbekiston milliy ensiklopeiyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hayati azolari: M.Aminov va b. – T."O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

16. www.slayd.arxiv.uz

17. www.arxiv.uz

18. www.google.uz

EKOLOGIK TA’LIM TARBIYADA MUOMMO VA Y ECHIMLAR

Sirojiddin Qorayev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Turg‘unboyeva Xumpra, Yolchiyeva Gulnur, Mirzaboyeva Sevinch, Sharofiddinova Malikabonu, Begaliyeva Mexruza, Abloqulova Shabbona
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Ekologiya”yunalishi talabalari.

8. Google* Cloud. Quantum Computing Services. – URL: https://cloud.google*.com/

ROMANTIC POETRY: WORDSWORTH AND COLERIDGE'S LYRICAL BALLADS

Isroilova Tursuntosh
Chirchiq Davlat Pedagogika Unibersiteti
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi
Kamilberdiyeva Barnoxon Xusniddin qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Annotation. This article examines the significance of *Lyrical Ballads* (1798), a collaborative work by William Wordsworth and Samuel Taylor Coleridge, as a foundational text of the English Romantic movement. The study highlights how the collection challenged the neoclassical poetic tradition by emphasizing emotion, individual perception, and the importance of nature and imagination. Wordsworth's poetic theory of using the "language of ordinary men" and his focus on rural simplicity are analyzed alongside Coleridge's exploration of the supernatural and the concept of the "willing suspension of disbelief." Despite their differing approaches, both poets shared a vision of poetry as a means of expressing deep emotional truths. The article concludes that *Lyrical Ballads* played a decisive role in redefining poetic language and themes, marking a turning point in the development of modern literary thought.

Key Words: Romanticism; *Lyrical Ballads*; William Wordsworth; Samuel Taylor Coleridge; poetic language; imagination; nature; emotional expression; supernatural elements; literary transformation.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uilyam Uordsvort va Samuel Teylor Kolerij tomonidan yaratilgan *Lyrical Ballads* (1798) to'plamining ingliz romantizm adabiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot to'plamning neoklassik poeziya an'analariga qarshi chiqib, hissiyot, shaxsiy idrok va tabiat hamda tasavvurning ahamiyatini oldinga surganini ko'rsatadi. Maqolada Uordsvortning "oddiy odamlar tili"dan foydalanish haqidagi poetik nazariyasi hamda uning qishloq hayoti va soddalikni madh etishi, Kolerijning esa g'ayritabiiylik va "ishonchni ixtiyoriy ravishda to'xtatib turish" g'oyalarini poetik ifodasi yoritiladi. Mualliflar yondashuvlari turlicha bo'lishiga qaramay, poeziyani chuqur hissiy haqiqatlarni ifodalash vositasi sifatida birlashtirganliklari ta'kidlanadi. Xulosa sifatida, *Lyrical Ballads* zamonaviy adabiy tafakkurning shakllanishida burilish nuqtasi bo'lgan asar sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Romantizm; *Lyrical Ballads*; Uilyam Uordsvort; Samuel Teylor Kolerij; poetik til; tasavvur; tabiat; hissiy ifoda; g'ayritabiiylik unsurlari; adabiy o'zgarish.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение сборника *Lyrical Ballads* (1798), созданного Уильямом Вордсвортом и Самюэлем Тейлором Кольриджем, как ключевого произведения английского романтизма. Подчёркивается, что сборник бросил вызов неоклассической поэтической традиции, акцентируя внимание на эмоциях, индивидуальном восприятии, а также роли природы и воображения. Анализируется поэтическая теория Вордсворта об использовании «языка простых людей» и его интерес к сельской простоте наряду с исследованием Кольриджем сверхъестественного и понятием «добровольного приостановления недоверия». Несмотря на различие художественных подходов, оба поэта рассматривали поэзию как средство выражения глубоких эмоциональных истин. В заключение утверждается, что *Lyrical Ballads* стало поворотным моментом в развитии современной литературной мысли.

Ключевые слова: Романтизм; *Lyrical Ballads*; Уильям Вордсворт; Самуэль Тейлор Кольридж; поэтический язык; воображение; природа; эмоциональное выражение; элементы сверхъестественного; литературная трансформация.

Introduction. The publication of *Lyrical Ballads* in 1798, a collaborative work by William Wordsworth and Samuel Taylor Coleridge, marks a transformative moment in the history of English literature. The volume signaled the beginning of the Romantic movement, challenging the

neoclassical emphasis on reason, order, and elite cultural references. Instead, Wordsworth and Coleridge proposed a new poetic philosophy grounded in emotion, personal experience, ordinary life, and the imaginative engagement with nature and the supernatural. Through their shared yet distinct approaches, the poets redefined the themes, language, and purpose of poetry, influencing not only their contemporaries but also subsequent generations of writers and thinkers.

Before the emergence of the Romantic movement, eighteenth-century English poetry was characterized by rationality, formal diction, and strict poetic structures, as exemplified by poets such as Alexander Pope and John Dryden. [110]Their works reflected Enlightenment ideals in which nature was seen as a system to be explained rationally, and poetry served as a means to express universal truths through elevated language. *Lyrical Ballads* rejected these conventions. Wordsworth and Coleridge believed that poetry should be accessible to ordinary people and should reflect genuine human emotions rather than artificial poetic style. Their objective was not merely to entertain, but to transform the reader's perception of the world and restore a sense of emotional depth to language and experience.

Wordsworth's contributions to *Lyrical Ballads* center primarily on the everyday and the natural world. In his celebrated preface to the second edition (1800), Wordsworth articulated his poetic principles: poetry should be written in "the real language of men" and should depict ordinary situations to reveal universal truths about human life. He believed that rural life, being closer to nature and less influenced by the corrupting forces of urban society, provided the purest source of emotional and moral experience. For Wordsworth, nature was not simply scenic beauty; it was a living presence capable of shaping the human mind. His poems such as "*Lines Composed a Few Miles above Tintern Abbey"* demonstrate this view. In the poem, Wordsworth reflects on the power of memory and nature to restore tranquility and strengthen one's sense of identity. He suggests that nature is a moral teacher, capable of nurturing sympathy, self-awareness, and spiritual insight.

Moreover, Wordsworth frequently explored childhood as a period of innocence, imagination, and sensitivity to the natural world. In "*We Are Seven*," [111]Wordsworth portrays a child's view of death, showing how children maintain emotional bonds that transcend physical separation. The poem illustrates Wordsworth's belief that children possess a wisdom often lost in adulthood. Through such works, Wordsworth challenged readers to reconsider their assumptions about life, emotion, and the meaning of human experience.

In contrast, Coleridge contributed to *Lyrical Ballads* a different but complementary vision of poetry. While Wordsworth emphasized realism and simplicity, Coleridge explored the supernatural, the mysterious, and the psychological. His most famous contribution, "*The Rime of the Ancient Mariner*," [112]tells the story of a sailor who commits a senseless act—killing an albatross—and is punished by supernatural forces. The poem is rich with gothic imagery, symbolic meaning, and moral ambiguity. Yet, despite its fantastical events, Coleridge aimed to evoke authentic emotional responses. He believed that the imagination could elevate the mind beyond ordinary experience, allowing poetry to explore the depths of the human spirit. To achieve this, he introduced the concept of the "willing suspension of disbelief," in which the reader temporarily accepts the impossible for the sake of emotional truth.

Coleridge's approach therefore highlights the Romantic interest in the imagination as a source of creativity and spiritual insight. Whereas Enlightenment thinkers prioritized logical reasoning, Romantics argued that logic alone could not express the full complexity of human consciousness. Imagination became a powerful means of accessing emotional realities and unseen dimensions of existence.

---

[110] Abrams, M. H. (1999). *A Glossary of Literary Terms* (7th ed.). Harcourt Brace College Publishers.

[111] Wordsworth, W. (2005). *Selected Poems*. Penguin Classics. (Preface to the 1800 edition of *Lyrical Ballads* included).

[112] Coleridge, S. T., & Wordsworth, W. (1988). *Lyrical Ballads and Other Poems*. Dover Publications

Despite their differences, Wordsworth and Coleridge were united by several core Romantic principles. First, both rejected the mechanistic view of the world promoted by Enlightenment rationalism. They believed that human experience was emotional, spiritual, and subjective, and that poetry must reflect this complexity. Second, both poets stressed the importance of personal feeling and introspection. Poetry, in their view, originated from deep emotional reflection and was meant to evoke emotional responses in the reader. Third, both poets highlighted the significance of nature, though in different ways. For Wordsworth, nature was a moral and emotional guide; for Coleridge, it was a source of mystery and imaginative wonder.

The influence of *Lyrical Ballads* extended far beyond its initial publication. It inspired other Romantic poets such as Percy Bysshe Shelley, John Keats, and Lord Byron, who continued to develop the themes of individuality, emotional intensity, and the sublime power of nature. The collection also contributed to a broader cultural shift in which the subjective experience of the individual became central to artistic expression. Poetry was no longer expected to reflect universal reason; instead, it embraced personal reflection, emotional complexity, and linguistic accessibility.

CONCLUSION

Lyrical Ballads stands as a foundational work of Romantic literature that reshaped the direction of English poetry. Wordsworth's focus on simplicity, rural life, and emotional sincerity, combined with Coleridge's imaginative exploration of the supernatural and the psychological, produced a groundbreaking collaboration that challenged classical poetic ideals. Their shared commitment to emotion, nature, and the human imagination created a new poetic paradigm that continues to influence literary study and artistic expression. Through *Lyrical Ballads*, Wordsworth and Coleridge not only redefined the role of poetry but also transformed the cultural understanding of human experience itself.

REFERENCES

1. Abrams, M. H. (1999). *A Glossary of Literary Terms* (7th ed.). Harcourt Brace College Publishers.
2. Coleridge, S. T. (1997). *The Rime of the Ancient Mariner*. Oxford University Press. (As originally published in *Lyrical Ballads*, 1798).
3. Coleridge, S. T., & Wordsworth, W. (1988). *Lyrical Ballads and Other Poems*. Dover Publications.
4. Day, A. (1996). *Romanticism*. Routledge.
5. Furneaux, H. (2009). *Romantic Writing and Pedestrian Travel*. Oxford University Press.
6. Gill, S. (2003). *William Wordsworth: A Life*. Oxford University Press.
7. McGann, J. (1983). *The Romantic Ideology: A Critical Investigation*. University of Chicago Press.
8. Sanders, A. (1994). *The Short Oxford History of English Literature*. Oxford University Press.
9. Watson, J. R. (1992). *English Poetry of the Romantic Period, 1789–1830*. Longman.
10. Wordsworth, W. (2005). *Selected Poems*. Penguin Classics. (Preface to the 1800 edition of *Lyrical Ballads* included).

O'SIMLIKLARNING VEGETATIV KO'PAYISHINI O'RGANISH

Urolova Sharofat Ummatqulovna
Axadova Dilnoza Toshtemitovna
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi biologiya kursi tinglovchilari

Annotatsiya: **Vegetativ ko'payish** - vegetativ organlar yoki ularning bir qismidan yangi organizm paydo bo'lishi; ko'p hujayralilar uchun xos. Vegetativ ko'payishda ham bir hujayralilarning jinsiy ko'payishi singari klonlar — genetik jihatdan bir xiddagi individlar guruhi vujudga keladi. Bu bizning mikrodars ishlanmamizdagi "Osimliklarning vegetativ ko'payishi"mavzusi haqida qisqacha ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Ildiz, poya, vegetativ, payvandtag, bachki, piyozbosh,payvandust.

O’simliklarda vegetativ ko‘payish tallom ixtisoslashmagan qismining ajralishi (ko‘pchilik suv o‘tlari va yuksak zamburug‘lar) yoki tallomdan ixtisoslashgan qismlar ajralishi (harasimon suv o‘tlarida tuganaklar, sfatsellyariya suv o‘tida bachki kurtaklar, lishayniklarda sorediyalar va izidiyalar, zamburug‘larda sporalar) orqali ko‘payishdir. Yuksak o‘simliklarda vegetativ ko‘payish regeneratsiya qobiliyatidan, moxsimonlarda esa ona organizmning bir necha bo‘lakka bo‘linishidan iborat. Plaunlar, ochiq urug‘li yoki gulli o‘simliklarda vegetativ ko‘payish yer ustki o‘rmalovchi yoki yotib o‘suvchi poya qismining bir bo‘lagi hisobiga amalga oshadi. Ixtisoslashgan vegetativ ko‘payish rivojlanayotgan yosh organizmlar va ularning boshlang‘ichi (tushib ketadigan kurtaklar, barg yoki ildizdagi qo‘shimcha kurtaklar), novdadan hosil bo‘ladigan ixtisoslashgan qismlar (tuganak, piyozboshi, bachki ildizlar) orqali sodir bo‘ladi. Vegetativ ko‘payish har yili yoki ikki yilda bir marta, ko‘p yillik o‘simliklarda esa bir necha yilda bir marta ro‘y beradi. Vegetativ ko‘payish vegetativ organ hujayralarining ko‘payib ketishi va paydo bo‘ladigan yangi individlarning yangi maydonni egallashidan iborat. Vegetativ ko‘payish xiliga qarab hosil bo‘ladigan har xil tipdagi klonlardan o‘simliklar seleksiyasida foydalaniladi. Asosiy Vegetativ organlarga barg va poyali novda hamda ildiz kiradi. Barg fotosintez, ildiz suv va mineral moddalarni shimib olish vazifasini bajaradi. Evolyutsiya jarayonida Vegitativ organ o‘simliklar quruqlikka chiqishi bilan tuzilishining mukammallashuvi tufayli paydo bo‘lgan. Tuban ko‘p hujayrali % O’simliklar (suv o‘tla-ri) va zamburug‘larning vegetativ tanasi (tallomi) birmuncha sodda va bir xilda tuzilgan bo‘lib, organlarga bo‘linmaydi (ipsimon va ayrim plastinkasimon suv o‘tlari, zamburug‘lar mitselleysi). Ko‘pchilik yirik yashil va qo‘ng‘ir suv o‘tlarining tashqi ko‘rinishi yuksak o‘simliklar organlariga o‘xshaydi, ya’ni bargsimon, poyasimon yoki iddizsimon bo‘ladi, lekin to‘qima tuzilishiga ega bo‘lmagan qismlarga bo‘linadi. O’simliklarda vegetativ ko‘payishi tallom ixtisoslashmagan qismining ajralishi yoki tallomdan ixtisoslashgan qismlar ajralishi orqali ko‘payish deb ham ta’riflasak bo‘ladi. Yuksak o‘simliklarda vegetativ ko‘payish regeneratsiya xususiyatidan, moxsimonlarda esa ona organizmning bir necha bo‘laklarga bo‘linishidan iborat.Tabiiy va sun’iy vegetativ ko‘payish. Bunday ko‘payish ko‘pincha urug‘dan ko‘payishi qiyin bo‘lgan o‘simliklarda uchraydi. Bu jarayon ko‘pyillik o‘simliklar orasida (o‘t.chala buta, daraxt) tez-tez ko‘rinadi. Ko‘pincha o‘rmonzorlarda daraxtlarning ostida o‘sishga moslashgan o‘tchil urug‘lari deyarli pishib yetilmaydi, Bunga asosiy sabab yorug‘likning yetarli bo‘lmasligi hamda changlatuvchi hasharotlarning ozligidir, Shuning uchun bu xildagi usimliklar sr osti ildizpoyasi, ildiztugunak, piyozboshlar yordamida juda ham tez ko‘payadi va ko‘plab yosh o‘simliklar o‘sib chiqadi (landish, qizilmiya (shirinmiya),lola va boshqalar), o‘simliklar bolalovchi o‘simliklar deb ataladi.

O’simliklarning vegetativ ko‘payishi o‘simlikning bir qismidan (poya, ildiz, barg) yangi o‘simlik hosil bo‘lishidir, bu jinsiy ko‘payishdan farqli o‘laroq, urug‘dan ko‘payish emas. Bu ko‘payish turi o‘simlikning genetik xususiyatlarini saqlab qolishga imkon beradi, chunki yangi o‘simlik ona o‘simlik bilan bir xil genetik tarkibga ega bo‘ladi.

O’simliklarning vegetativ ko‘payish usullari

Poya orqali ko‘payish: Bu usulda o‘simliklar novdalar, qalamchalar yoki ildizpoyalari orqali ko‘payadi. Masalan, uzum, qulupnay, kartoshka kabi o‘simliklar shu yo‘l bilan ko‘payadi.

Ildiz orqali ko‘payish:

Bu usulda o‘simliklar ildizlari yordamida yangi o‘simliklar hosil qiladi. Masalan, qrim gul, shaftoli kabi o‘simliklar ildizdan chiqqan bachkilar orqali ko‘payadi.

Barg orqali ko‘payish:

Bu usulda o‘simliklar barglari yordamida ko‘payadi. Masalan, begemot va qarg‘a kabi o‘simliklar bargidan chiqqan tomchi qizchalar orqali ko‘payadi.

Vegetativ ko‘payishning afzalliklari

Genetik xususiyatlarni saqlab qolish: Yangi o‘simliklar ona o‘simlik bilan bir xil genetik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu esa o‘simlikning sifatini yaxshilash va uni saqlab qolish imkonini beradi.

Tezlik: Vegetativ ko‘payish jinsiy ko‘payishga nisbatan tezroq amalga oshadi.

Murakkab shakllar: O’simliklar jinsiy ko‘payishga o‘ta olmaydigan murakkab shakllar ham vegetativ ko‘payish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

1. **Ildizpoyalar yordamida ko‘payish.** Ko‘p yillik o‘t o‘simliklarning ildizpoya orqali tez ko‘payishi ma’lum. Masalan yovvoyi o‘simliklardan ajriq, g‘umay, qirqbo‘g‘im, qamish, salomalaykum, bambuk, shirinmiya kabi o‘simliklar shular jumlasidandir.

2.Tugunaklar yordamida ko‘payish. Bunday ko‘payishni madaniy ekinlardan kartoshka, topinambur, kartoshkagul kabi o‘simliklarda uchratamiz. Tabiiy sharoitda esa siklomen, burmaqora, salomaleykum va boshqalar shu yo‘l bilan ko‘payadilar. Salomaleykumning bir tupi yuzgacha tugunak hosil qiladi.

3.Piyozboshi yordamida ko‘payish Asosan cho‘l, chalacho‘l, shuningdek, tog‘o‘simliklari orasida ko‘proq uchraydi. Ko‘p yillik piyozboshli o‘simliklar (lola, chuchmoma) mayday yosh piyozchalarni hosil qilib, katta maydonlarni qamrab oladi. Madaniy o‘simliklardan piyoz, lola, sarimsoq, nargis, giatsent, ilongul kabi o‘simliklar piyozchalari bilan ko‘payatiriladi. Tabiatda ham lolalar, boychechak, za’faron, chuchmomalarni uchratamiz. Ayrim o‘simliklar barg qo‘ltig‘ida yoki to‘pgullarida piyozchalar hosil qiladi. Shu piyozchalar to‘kilsa, undan yangi o‘simliklar hosil bo‘ladi. Bunday ko‘payishni sarimsoqda ko‘rish mumkin.

4. Ildiz bachkilari yordamida ko‘payish. Ildiz bachkilari ildizda endogen yo‘li bilan qo‘shimcha kurtakning rivojlanishidan hosil bo‘ladi. O’simliklar ildiz bachkilari yordamida tez ko‘payib, katta-katta maydonlarni egallaydi. Har qaysi novda o‘zining qo‘shimcha ildizlariga ega, shuning uchun ular alohida ekilsa ham nobud bo‘lmaydi. Bunday o‘simliklarga daraxtlar, butalar va ba’zi o‘simliklar: olcha, gilos, terak, akatsiya, do‘lana, zirk, maymunjon, pechak, kakra, qizilmiya, bo‘ztikan va boshqalar misol bo‘ladi.

Sun’iy vegetativ ko‘payishning ham bir necha usullari ma’lum.

1. Parxish qilib ko‘paytirish. O’simlik novda va shohlari yoysimon shaklda yerga egiladi hamda novdasining uchi yerdan chiqib turadigan qilib ko‘miladi. Ma’lum vaqtdan so‘ng novdaning ko‘milgan qismidan qo‘shimcha ildizlar paydo bo‘ladi, shundan keyin parxeshni ona osimlikdan ajratib, boshqa joyga ko‘chirish mumkin. Parxish qilinadigan novdanong

tilinishi tez ildiz otishiga yordam beradi. Parxish asosan erta bahor yoki kuzda qilinadi. Tut, anor, tot, tok,qoraqat, anjir va ba’zi bir chinniguldoshlar, dratsenalar parxish qilib ko‘paytiriladi.

2. Qalamchalar yordamida ko‘paytirish. Ona o‘simlikdan qirqib olingan, vegetativ ko‘payish uchun xizmat qiluvchi o‘simlikning bir qismiga qalamcha deyiladi. Ildiz, poya va barg qalamchalari ajratiladi. Qalamchalar ko‘pincha o‘simlikning novdalaridan tayyorlanadi. Tok, terak, tol va anorlar novda qalamchasi; olcha, atirgul, siren ildizlari bilan; begoniyaning ayrim turlari, binafsha va gloksiniyalar esa bargi orqali ko‘payadi. Qalamchalar uzunligi o‘simlik turiga qarab turlicha (8-25-45 sm) bo‘ladi.

3. Payvandlash. Payvandlash (transplantatsiya) deganda, bir o‘simlikning ma’lum qismini ikkinchi o‘simlikka turli usullar bilan o‘rnatish bilan qo‘shilib o‘sib ketishiga aytiladi. Payvandlash usuli kishilik jamiyati rivoji va dexqonchilik tarixi bilan bog‘liq. Antik davr tabiatshunoslari Aristotel, Teofrast, Platon, Pliniy va ularning shogirdlari payvandlashning turli ususllarini yozib qoldirgan. Payvandlashning juda ko‘p usullari bor (kurtak,iskana va naycha). O’tqaziladigan o‘simlik (kurtak yoki qalamcha) payvandust, payvandlanadigan o‘simlik payvandtag deb ataladi. Payvandlash usuli bilan asosan qo‘shimcha ildiz chiqarishi qiyin bo‘lgan mevali daraxt, rezavor va manzarali o‘simliklar ko‘paytiriladi. Payvandlashning eng ko‘p tarqalgan turi kurtak payvanddir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O ‘. Pratov, A.To‘xtayev va boshqalar Biologiya. 5-sinf darslik. Toshkent 2020 y
2. Karimov A., Raxmatova D. — Biologiya (7–8-sinflar uchun darslik). Toshkent: O’qituvchi nashriyoti, 2022.
3. Tursunov M. — Umumiy biologiya asoslari. Toshkent, 2021.
4. Shodmonov O. — Hayotiy jarayonlar biologiyasi. Toshkent, Fan nashriyoti, 2019.

BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA EKOLOGIK TA'LIM TARBIYA BERISH

Xalbayeva Dilafruz Baxtiyorovna
Berdikulova Nargiza Qo'shboq qizi
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi biologiya kursi tinglovchilari

Annotatsiya: Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichidan pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: Ekologiya,atrof-muhit,gigiyena,ifloslanish, tabiat,tozalik,tabiiy resurslar.

Hozirgi zamon ekologik muammolar dunyo miqyosida jiddiy e'tibor talab qilmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar insoniyat uchun katta tahdid solmoqda. Bu jarayonda ekologik madaniyatni shakllantirish, ayniqsa, yosh avlodning ongida ekologik qiymatlar va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyat hissini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ekologik ongni shakllantirish uchun pedagogik yondashuvlar samarali bo'lishi kerak. Dars jarayonida ekologik masalalarni muhokama qilish, ekologik loyihalar yaratish va o'quvchilarga atrof-muhit haqida amaliy bilimlar berish kabi usullarni qo'llash mumkin. Shuningdek, ekologik bilimlarni o'rgatishda interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar, tabiatni o'rganishga qaratilgan ekskursiyalar va ta'lim dasturlari samarali bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga ekologik jarayonlar va ularning tabiatga ta'sirini tushuntirishda real hayotdagi misollar va holatlar bilan ishlash muhimdir.

Maktab biologiyasining asosiy ekologik bilimlari tizimiga muhit va muhit omillari, organizmlar ekologiyasi, populyatsiyalar ekologiyasi, biogeotsenologiya, ijtimoiy (inson va biosfera) ekologiya kabilar kiradi.

Quyida botanika o'quv fani bilan uzviy bog'liq holda o'quvchilarga berilgan ekologik bilimlar tizimi mazmuni keltiriladi:

-o'simliklarning yashash muhiti va unga moslanganligi;

-ekologik omillar, ularning o'simliklarga ta'siri;

-o'simliklar hayotidagi mavsumiylik, ularning sabablari;

-o'simliklarning yashash muhitiga antropogen omillar ta'siri;

Biologiya darslarida ekologik ta'lim elementlarini singdirish yo'llari

1. Dars mazmuniga ekologik yo'nalishli mavzularni kiritish. Har bir biologiya mavzusi ekologik mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Masalan: "Fotosintez" mavzusida — o'simliklarning havo tozalashdagi ahamiyati;

"Hayvonlarning yashash muhiti" mavzusida — inson faoliyatining hayvonlarga ta'siri;

"Biosfera" mavzusida — global ekologik muammolar (issiqxona effekti, chiqindilar);

"Odam fiziologiyasi" mavzusida — sog'lom muhit va inson salomatligi bog'liqligi.

2. Interfaol metodlardan foydalanish

O'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlar juda samaraqli:

"Aqliy hujum" – muammoli ekologik vaziyatlarga yechim izlash;

"Debat" – "Texnologik taraqqiyotmi yoki ekologik xavfmi?" kabi bahslar;

"Loyiha usuli" – chiqindilarni kamaytirish, suvni tejash, daraxt ekish loyihalari

"Kuzatish" – o'simlik va hayvonlar hayotini bevosita o'rganish orqali ekologik bilimni mustahkamlash.

3. Tabiat qo'ynidagi darslar (ekskursiyalar) Tabiatda o'tkaziladigan darslar ekologik ta'limning eng samarali shaklidir. Masalan: O'quvchilar bilan mahalliy bog', ariq yoki dala hududlarini kuzatish; Biologik xilma-xillikni aniqlash, ifloslanish darajasini baholash; Ekologik tozalash aksiyalarida qatnashish.

4. Ekologik burchak va ko'rgazmalar tashkil etish

Maktabda "Yashil burchak", "Ekologiya markazi" yoki "Tabiat burchagi" tashkil etish orqali o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish mumkin.

U yerda: o'simliklarni parvarish qilish, chiqindilarni saralash, suv tejash, energiyani tejash kabi tadbirlar o'tkaziladi.

5. Fanlararo integratsiya

Ekologik ta’limni faqat biologiya bilan cheklab bo‘lmaydi. U boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi:

Geografiya – iqlim o‘zgarishlari, tabiiy zonalar;

Kimyo – havo va suv ifloslanishining kimyoviy sabablari;

Fizika – energiya manbalari, ularning ekologik ta’siri;


Informatika – ekologik loyihalarni raqamli shaklda taqdim etish.

6. Ekologik axloqiy qadriyatlarni singdirish

Dars davomida o‘quvchilarga quyidagi g‘oyalar berib boriladi: tabiatga zarar yetkazmaslik, jonivorlarga shafqatli bo‘lish, chiqindilarni kamaytirish, suv va elektrni tejash, daraxt ekish odatini singdirish.

7. Amaliy mashg‘ulotlar va kichik tadqiqotlar

O’quvchilar “Maktab atrofi florasi” yoki “Hudud hayvonot olami” bo‘yicha mini-tadqiqotlar olib boradi. Olingan natijalar sinfda taqdimot tarzida namoyish etiladi.



Natijada o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

1. Ekologik muammolarni tahlil qilish va ularga yechim taklif etish.

2. Tabiatni asrash va muhofaza qilish bo‘yicha amaliy harakatlar qilish

3. Mana shu ekologik bilimlar tizimi mazmuniga ko‘ra o‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari zarur:

Yashash muhiti va ekologik omillarning mohiyatini, o‘simliklarning yashash muhitiga moslanganligini tushuntira bilish ;

1. O’simliklar hayotidagi mavsumiy o‘zgarishlarni, inson faoliyatining yashash muhitiga ta’siri va uning oqibatlarini tasavvur qila olish :

2. Tabiatdagi mavsumiylikni, odam faoliyati ta’sirida yashash muhiti va o‘simlik hamjamoalaridagi o‘zgarishlarni kuzatish va uning natijalarini qayd etib borishni bilish ;

3. O’simliklarni parvarishlashda ekologik omillar haqida bilimlarni qo‘llay bilish va ularni turli omillarining zararli ta’siridan saqlash tadbirlarini bilish zarur.

Biologiya darslari va darsdan tashqari ekologik ta’lim –tarbiya berish imkoniyatidan samarali foydalanish va o‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish uchun quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarur:

-o‘quvchilarda tabiatni, uning rivojlanish qonunlarini bilishga, shu kungi dolzarb ekologik muammolarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish;

-o‘quvchilarni eng muhim ekologiya oid nazariybilimlarni ongli o‘zlashtirib olish va ulardan Amaliy faoliyatlarida foydalana bilishga o‘rgatish;

-egallangan bilimlar asosida o‘z o‘lkalarida vujudga kelgan ekologik vaziyatni to‘g‘ri baholay bilish va yaxshilashga oid o‘vuv malakalarni tarkib toptirish;

-o‘z o‘lkalari tabiatini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalana bilishga oid amaliy malakalarini shakllantirish;

-tabiiy boyliklarni talon –taroj qiluvchilarga qarshi murosasiz kurashuvchi, ekologik e’tiqodli shaxslarni tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. “Ekologik ta’lim konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.
3. Raximov A., Qodirova N. Umumiy biologiya. – Toshkent: O’qituvchi, 2018.
4. Norqobilov S. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.



Chiqindilarni ko‘mib tashlash joylari chiqindilar bilan to‘lgach, ularni ko‘mish uchun qo‘shimcha yer maydonlari kerak bo‘ladi.

ВИДЫ ЗАГРЯЗНЕНИЙ

Шукуруллаева Ситора Баходир кизи
Учитель биологии 5- среднее-общеобразовательной школы г.Джизак
Тулкинова Мухлиса Руслановна
Учитель биологии 1-среднее- общеобразовательной школы г Джизак

Аннотация: В статье рассматриваются основные виды загрязнений окружающей среды, их источники и последствия для экосистем и здоровья человека. Особое внимание уделено классификации загрязнений по характеру воздействия — химическому, физическому, биологическому и радиационному.

Ключевые слова: загрязнение окружающей среды, виды загрязнений, экология, охрана природы, антропогенное воздействие, устойчивое развитие, природоохранные технологии.

Введение: Загрязнение как нарушение биологического равновесия

С биологической точки зрения, загрязнение — это не просто «мусор на улице». Это любое внесение в окружающую среду веществ, энергий или организмов в таких количествах или концентрациях, которые выходят за рамки естественных колебаний и нарушают сложившиеся в экосистемах трофические цепи, биохимические циклы и процессы саморегуляции. Результатом становится снижение биологического разнообразия, деградация экосистем и прямая угроза для здоровья человека, который, как мы часто забываем, является частью этой самой природы. Для систематизации столь масштабного явления загрязнения принято классифицировать по нескольким ключевым параметрам: среде, в которую происходит выброс, природе загрязнителя и масштабам его воздействия.

1. Классификация по среде распространения

Это наиболее очевидное и наглядное разделение, которое, однако, лишь подчеркивает взаимосвязь всех компонентов биосферы.

А) Загрязнение атмосферы

Атмосфера— это газовая оболочка планеты, источник кислорода и регулятор климата. Основные загрязнители делятся на:

· Парниковые газы (CO_2, CH_4, N_2O): Продукты сжигания ископаемого топлива, промышленности и сельского хозяйства. Они нарушают энергетический баланс планеты, приводя к глобальному потеплению и изменению климата.

· Разрушающие озоновый слой вещества (ХФУ, фреоны): Хотя их использование сейчас ограничено, эти долгоживущие газы продолжают разрушать стратосферный озон, который защищает все живое от жесткого ультрафиолетового излучения.

· Кислотные оксиды (SO_2, NO_x): Выбрасываются ТЭЦ, заводами и транспортом. Растворяясь в атмосферной влаге, они образуют кислотные дожди, которые закисляют почвы и водоемы, вызывая гибель лесов и водных организмов.

· Взвешенные частицы (пыль, аэрозоли, PM2.5/PM10): Продукты неполного сгорания топлива, промышленных процессов. Несут на своей поверхности токсины и, проникая глубоко в легкие, вызывают серьезные респираторные и сердечно-сосудистые заболевания.

Б) Загрязнение гидросферы

Вода— основа жизни. Ее загрязнение приводит к катастрофическим последствиям для водных и наземных экосистем.

· Химическое: Сточные воды промышленных и сельскохозяйственных предприятий несут тяжелые металлы (ртуть, свинец, кадмий), нефтепродукты, поверхностно-активные вещества (из моющих средств), пестициды и удобрения (нитраты, фосфаты). Последние вызывают эвтрофикацию — бурное размножение водорослей, которые, отмирая и разлагаясь, поглощают весь кислород в воде, вызывая заморы рыбы и превращая водоем в «мертвую зону».

· Биологическое: Патогенные микроорганизмы (бактерии, вирусы, простейшие), попадающие в воду с неочищенными бытовыми стоками, являются причиной массовых вспышек инфекционных заболеваний (холера, брюшной тиф, гепатит).

· Физическое: Тепловое загрязнение от ТЭЦ и АЭС, а также загрязнение твердыми бытовыми отходами (пластик, который образует в океане целые «мусорные острова»).

В) Загрязнение литосферы (почв)

Почва— это не просто грязь под ногами, а сложнейший живой организм, от плодородия которого зависит продовольственная безопасность человечества.

· Накопление агрохимикатов: Длительное и бесконтрольное использование пестицидов и гербицидов убивает не только вредителей, но и полезную почвенную микрофлору и фауну, нарушая процессы гумификации и естественного плодородия.

· Загрязнение тяжелыми металлами: Поступают из выбросов промышленных предприятий, автомобильных выхлопов и неочищенных стоков. Они обладают кумулятивным эффектом, накапливаясь в растениях и по пищевой цепи доходя до человека.

· Захоронение отходов: Несанкционированные свалки и даже официальные полигоны становятся источниками токсичных фильтратов, отравляющих грунтовые воды, и метана — мощного парникового газа.

Классификация по природе загрязнителя

А) Химическое загрязнение

Самый распространенный и разнообразный тип.Включает в себя все вышеперечисленные вещества: от пестицидов и пластификаторов до диоксинов и других суперэкотоксикантов. Их опасность в способности накапливаться в тканях (биоаккумуляция) и увеличивать свою концентрацию на каждом уровне пищевой цепи (биомагнификация). Яркий пример — накопление ДДТ в организме хищных птиц, приводящее к истончению скорлупы их яиц.

Б) Физическое загрязнение

· Тепловое: Сброс подогретых вод ведет к снижению растворимости кислорода в воде и изменению видового состава экосистемы.

· Радиоактивное: Наиболее долгоживущее и опасное. Радионуклиды (цезий-137, стронций-90) сохраняются в окружающей среде столетиями, вызывая лучевую болезнь, мутации и онкологические заболевания.

В) Биологическое загрязнение

Сюда относится непреднамеренное или намеренное внедрение чужеродных видов-вселенцев(инвазивных видов), которые, не имея естественных врагов на новой территории,

начинают бесконтрольно размножаться, вытесняя аборигенные виды. Пример — распространение колорадского жука в Евразии или водоросли-убийцы Caulerpa taxifolia в Средиземном море. Сюда же относится и неконтролируемый сброс неочищенных стоков.

• Синергетический эффект и глобальные последствия

Важно понимать, что в природе не существует изолированных проблем. Загрязнители разных типов действуют синергетически, то есть их совместный эффект многократно превышает простую сумму отдельных воздействий. Кислотный дождь, вызванный загрязнением атмосферы, повышает подвижность тяжелых металлов в почве, усиливая их токсичность. Пластиковый мусор в океане не только физически травмирует животных, но и абсорбирует на свою поверхность растворенные в воде пестициды, становясь мощным источником химического загрязнения.

Результатом этого комплексного воздействия становятся глобальные кризисы:

· Изменение климата

· Сокращение биоразнообразия (шестое массовое вымирание)

· Разрушение озонового слоя

Как биолог, я не могу не подчеркнуть: природа обладает колоссальным запасом прочности и способностью к самовосстановлению. Однако антропогенная нагрузка приблизилась к критической отметке, за которой могут последовать необратимые изменения. Борьба с загрязнением — это не вопрос комфорта, а вопрос выживания человечества как биологического вида, зависящего от здоровья своей экосистемы.

Решение лежит не только в развитии технологий очистки и переходе на «зеленую» энергетику. Оно требует фундаментального пересмотра нашей парадигмы потребления, осознания себя не хозяевами, но частью биосферы. Только комплексный, научно обоснованный подход, учитывающий все многообразие видов загрязнения и их взаимосвязь, позволит нам сохранить хрупкий баланс нашей общей планеты для будущих поколений

Список литературы:

1. Баренбаум, А. А. Экология и устойчивое развитие: основы теории и практики. — М.: Наука, 2019.

2. Одум, Ю. Экология: в 2 томах. — М.: Мир, 1986.

3. Моисеенко, Т. И. Загрязнение окружающей среды и охрана природы. — М.: Академия, 2020.

4. Гуреев, В. А. Экологические проблемы и пути их решения. — СПб.: Питер, 2018.

5. Доклад Программы ООН по окружающей среде (UNEP). Глобальная экологическая перспектива – GEO-6. — Найроби, 2019.

KLASSIK DARVINIZMNING UMUMBIOLOGIK AHAMIYATI

Nazarov Jamshid Xudoyberdiyevich

G‘allaorol tuman 77-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Haydarov Zokir Donyorovich

Zomin tumani 67-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada klassik darvinizm ta’limotining biologiya fanidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Charlz Darvin tomonidan ilgari surilgan tabiiy tanlanish, yashash uchun kurash hamda o‘zgaruvchanlik g‘oyalari tahlil qilinadi. Maqolada darvinizmning biologiya fanlari tizimiga, xususan, anatomiya, genetika, ekologiya va sistematika sohalariga ta’siri haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, klassik darvinizmning evolyutsion nazariyalar rivojiga qo‘shgan hissasi, uning neodarvinizm bilan bog‘liqligi va hozirgi zamon biologiyasidagi o‘rni ham ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola biologiyaning ilmiy asoslarini anglashda darvinizmning umumbiologik ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Darvinizm, tabiiy tanlanish, evolyutsiya, o‘zgaruvchanlik, irsiyat, yashash uchun kurash, biologik xilma-xillik, neodarvinizm, moslashuv, umumbiologik ahamiyat.

Abstract. This article discusses the role and significance of the classical Darwinian doctrine in biology. The ideas of natural selection, the struggle for existence, and variation put forward by Charles Darwin are analyzed. The article provides information about the influence of Darwinism on the system of biological sciences, in particular, on the fields of anatomy, genetics, ecology, and systematics. It also shows the contribution of classical Darwinism to the development of evolutionary theories, its connection with neo-Darwinism, and its role in modern biology. The article is aimed at revealing the universal biological significance of Darwinism in understanding the scientific foundations of biology.

Keywords: Darwinism, natural selection, evolution, variation, heredity, struggle for existence, biological diversity, neo-Darwinism, adaptation, universal biological significance.

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение классического дарвинизма в биологии. Анализируются идеи естественного отбора, борьбы за существование и изменчивости, выдвинутые Чарльзом Дарвином. В статье представлена информация о влиянии дарвинизма на систему биологических наук, в частности, на анатомию, генетику, экологию и систематику. Также показан вклад классического дарвинизма в развитие эволюционных теорий, его связь с неодарвинизмом и роль в современной биологии. Цель статьи – раскрыть универсальное биологическое значение дарвинизма для понимания научных основ биологии.

Ключевые слова: дарвинизм, естественный отбор, эволюция, изменчивость, наследственность, борьба за существование, биологическое разнообразие, неодарвинизм, адаптация, универсальное биологическое значение.

Kirish. Darvinizm — bu ingliz olimi Charlz Darvin tomonidan ilgari surilgan evolyutsion ta’limot bo‘lib, u tirik organizmlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini tabiiy jarayonlar orqali tushuntiradi. Darvinning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, barcha tirik mavjudotlar o‘z ajdodlaridan asta-sekinlik bilan o‘zgarib, yangi turlarga aylangan.

Darvin ta’limotining markazida **“yashash uchun kurash”** va **“tabiiy tanlanish”** tushunchalari turadi. Tabiatda har bir turning yashab qolishi uchun zarur sharoitlar cheklangan: oziq-ovqat, suv, yashash joyi va boshqa resurslar yetarli emas. Shu sababli har bir turning vakillari o‘z hayotini saqlab qolish uchun o‘zaro kurashadi. Bu kurashda eng moslashgan, kuchli, muhit sharoitiga eng yaxshi mos organizmlar omon qoladi, moslasha olmaganlar esa yo‘qoladi.

Tabiiy tanlanish jarayoni natijasida tirik mavjudotlar asta-sekin o‘z muhitiga moslashadi. Masalan, qutb ayiqlari sovuq iqlimda yashash uchun qalin yog‘ qavati va oq mo‘yna hosil qilgan, cho‘l jonivorlari esa suvni tejash va issiqqa bardosh berish xususiyatlarini rivojlantirgan.

Darvinning bu g‘oyalari biologiya fanida inqilob yasadi. U tiriklikni tushuntirishda diniy yoki afsonaviy qarashlardan voz kechib, ilmiy asosda izoh berdi. Hozirgi zamon biologiyasi, genetika va ekologiya fanlari ham Darvinning evolyutsion qarashlariga tayangan holda rivojlanmoqda.

Asosiy qism. Klassik darvinizm — bu ingliz olimi Charlz Darvin tomonidan XIX asrda yaratilgan evolyutsion ta’limot bo‘lib, u tirik organizmlarning kelib chiqishi va rivojlanishini tabiiy jarayonlar orqali tushuntiradi. Darvinning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, barcha tirik mavjudotlar tabiiy tanlanish yo‘li bilan o‘z muhitiga moslashib, avloddan-avlodga o‘zgarib boradi.

Asosiy jihatlar	Mazmuni (ta’rifi)	Ahmiyati (biologiyadagi o‘rni)	Misollar / Izoh
1. Tabiiy tanlanish g‘oyasi	Eng moslashgan turlar yashab qoladi va nasl qoldiradi.	Evolyutsiya jarayonining asosiy mexanizmi sifatida tan olingan.	Qoplon tez yuguradi — o‘lja tutadi, sekinlari esa yo‘qoladi.
2. Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi	Organizm atrof-muhit sharoitlariga moslashib boradi.	Biologik xilma-xillikning shakllanishini tushuntiradi.	Sahro hayvonlarining suvni tejash qobiliyati.
3. Turlar kelib	Barcha turlar umumiy	Biologik tizimlarda	Inson va

Asosiy jihatlar	Mazmuni (ta’rifi)	Ahmiyati (biologiyadagi o‘rni)	Misollar / Izoh
chiqishi	ajdodlardan kelib chiqqan.	genetik va evolyutsion bog‘liqlikni ko‘rsatadi.	maymunlarning umumiy ajdodi haqidagi nazariya.
4. Evolyutsion tafakkur shakllanishi	Hayotning statik emas, balki o‘zgaruvchanligi isbotlandi.	Biologiyada dinamik qarashlarni shakllantirdi.	Biotsenozlarning tarixiy rivojlanishini o‘rganish.
5. Biologik klassifikatsiyada yangi yondashuv	Turlar qarindoshligi asosida tasnif qilinadi.	Sistematikani evolyutsion asosda qurish imkonini berdi.	Filogeniya, kladistika yondashuvlari.
6. Insonning tabiiy evolyutsion o‘rni	Inson tabiatning ajralmas qismi sifatida ko‘rildi.	Antropologiya va etologiyada ilmiy yondashuvni keltirib chiqardi.	“Inson tabiatdan ustun emas, uning bir qismi.”
7. Eksperimental biologiyaga turtki	Evolyutsiya jarayonlarini ilmiy asosda tekshirish zarurati tug‘ildi.	Genetika, ekologiya, molekulyar biologiya rivojlanishiga sabab bo‘ldi.	Mendel qonunlari va genetik evolyutsiya nazariyalari.

Darvinizm biologiya fanida tub burilish yasagan ta’limot hisoblanadi. U tiriklikning xilma-xilligini ilohiy kuch yoki tasodif bilan emas, balki **tabiiy tanlanish**, **irsiyat** va **o‘zgaruvchanlik** qonuniyatlari bilan izohladi. Shu tariqa, Darvin tirik organizmlarning rivojlanishini yagona tabiiy qonuniyatlarga bo‘ysundirdi.

Xulosa. Klassik darvinizmning umumbiologik ahamiyati shundaki, u barcha biologik fanlar uchun yagona nazariy asos yaratdi. Evolyutsion yondashuv biologiyaning barcha sohalariga — anatomiya, fiziologiya, genetika, ekologiya va sistematika fanlariga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, turlarning o‘xshash va farqli belgilarini o‘rganishda, yangi turlarni tasniflashda yoki organizmlarning muhitga moslashuvini tushuntirishda darvinizm g‘oyalari asosiy metodologik yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Darvinning evolyutsion qarashlari keyinchalik genetika yutuqlari bilan boyitildi va **neodarvinizm** ta’limoti shakllandi. Biroq klassik darvinizmning asosiy tamoyillari — tabiiy tanlanish, yashash uchun kurash va o‘zgaruvchanlik — hozirgi kunda ham biologiyaning poydevori bo‘lib qolmoqda.

Klassik darvinizm nafaqat tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va rivojlanishini tushuntirishda, balki biologiya fanining nazariy asoslarini yaratishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. U biologiyani yagona, yaxlit ilmiy tizim sifatida shakllantirgan buyuk nazariya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://ziyonet.uz;
2. http://psychol.ras.ru;
3. .https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail;

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI O’QITISHDA O’QUVCHILARNING IJODIY VA TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

O’rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti v.b.dotsenti
Ummataliyeva Nilufar
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Fizika darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta’lim, loyiha va

kvest metodlari, STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechim topish ko‘nikmalari rivojlantirilishining samarali usullari tahlil qilingan. Maqolada o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi interaktiv topshiriqlar, laboratoriya tajribalari hamda virtual ta’lim muhitining afzalliklari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fizika ta’limi, ijodiy fikrlash, tadqiqotchilik qobiliyati, muammoli ta’lim, kvest texnologiyasi, loyiha metodi, STEAM yondashuvi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития творческих и исследовательских способностей учащихся в процессе преподавания физики в общеобразовательных школах. Анализируются эффективные методы формирования креативного мышления и исследовательских навыков через использование инновационных педагогических технологий, проблемного обучения, проектного и квест-методов, а также подхода STEAM. В статье представлены научно обоснованные рекомендации по применению интерактивных заданий, лабораторных экспериментов и виртуальной образовательной среды для активизации исследовательской деятельности учащихся.

Ключевые слова: обучение физике, творческое мышление, исследовательские способности, проблемное обучение, квест-технология, проектный метод, STEAM-подход.

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of developing students’ creative and research abilities in the process of teaching physics in general education schools. It analyzes effective methods for fostering independent thinking and problem-solving skills through innovative pedagogical technologies, problem-based learning, project and quest methods, and the STEAM approach. The paper also provides scientifically grounded recommendations on the use of interactive tasks, laboratory experiments, and virtual learning environments to enhance students’ research activity and creativity in physics education.

Keywords: physics education, creative thinking, research skills, problem-based learning, quest technology, project method, STEAM approach.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmon va qarorlar, xususan, “O’zbekiston – 2030” strategiyasida ham innovatsion fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtira oladigan yoshlarni tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Fizika — nafaqat tabiat qonuniyatlarini o‘rganishga, balki o‘quvchilarda mantiqiy, tahliliy va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi fan hisoblanadi. U real hayotdagi hodisalarni o‘rganish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tajribalar o‘tkazish va ilmiy xulosalar chiqarish orqali o‘quvchini izlanishga, tahlil qilishga va yangilik yaratishga yo‘naltiradi. Shu boisdan, fizika darslarida an’anaviy ta’lim shakllaridan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyiha ishlari, kvest topshiriqlar, muammoli ta’lim, hamda STEAM yondashuvi kabi metodlarni joriy etish o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik salohiyatini oshiradi [1].

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘quvchilar faqat tayyor bilimni egallovchi emas, balki yangi bilimlarni mustaqil izlab topuvchi, ularni amaliyotda qo‘llay oluvchi sub’ekt sifatida shakllanishi zarur. Shu maqsadda fizika fanini o‘qitishda darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etish, laboratoriya ishlarini ijodiy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning ilmiy loyihalarda ishtirokini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Fizika fanining o‘ziga xosligi shundaki, u tajriba va nazariyaning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali o‘quvchini kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, modellashtirish va yangi g‘oyalar ilgari surishga o‘rgatadi. Shu sababli, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va ijodiy muhit yaratuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Maqolada aynan shu masalaga e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda umumta’lim maktablarida fizika darslarida o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, didaktik vositalar hamda amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy fikrlash madaniyatini shakllantirish va zamonaviy o‘qitish strategiyalarini qo‘llashning samaradorligi ilmiy asosda yoritib beriladi [2,3].

O’quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi jahon ta’lim tizimida doimo dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan. Turli tadqiqotchilar bu borada o‘quvchi shaxsining kognitiv, emotsional va ijodiy rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilib, ta’lim jarayoniga turlicha metodologik yondashuvlarni taklif etganlar.

Xususan, J. Gilford, E. Torrens, G. Altshuller va E. Fromm kabi xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida ijodiy fikrlashning psixologik asoslari, tafakkur operatsiyalarining turlari hamda ularni rivojlantirish usullari yoritilgan. Gilford o‘zining “Intellekt tuzilmasi nazariyasi”da ijodkorlikni intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etgan bo‘lsa, Torrens “Ijodiy fikrlash testlari” orqali o‘quvchilarning divergent fikrlash darajasini aniqlash imkonini bergan. Altshuller esa TRIZ (Teoriya resheniya izobretatelskix zadach) tizimi orqali o‘quvchilarda muammolarni noan’anaviy yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llarini asoslab bergan [4,5].

J. Dyui va D. Kolb asarlarida esa o‘rganish jarayoni tajriba asosida kechishi, bilimning amaliy faoliyatda shakllanishi g‘oyasi ilgari surilgan. Aynan shu yondashuv bugungi kunda fizika ta’limida muhim metodologik asoslardan biri sifatida qo‘llanilmoqda.

MDH davlatlari olimlari orasida L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, P. Ya. Galperin, V. A. Krutetskiy kabi pedagog va psixologlar o‘quvchi shaxsining tafakkur faoliyatini, motivatsiyasini va bilish jarayonlarini chuqur o‘rganib, ularni ta’limda ijodiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari surganlar. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi fizika fanini o‘qitishda differensial yondashuvni amalga oshirish, o‘quvchining imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini beradi[6].

Xulosa. Ushbu natijalar bog‘cha yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, tezkorligi va motorik qobiliyatlari ikki turdagi bog‘chada deyarli tengligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu testlar bolalarning individual rivojlanishini kuzatishda samarali vosita hisoblanadi. 10 metrga yugurish testi bolalarning tezkorlik va chidamliligini aniq o‘lchash imkonini beradi, bu esa ularning umumiy jismoniy tayyorgarligi va motorik ko‘nikmalarini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Tapping testi esa qo‘l tezligi va refleks aniqligini baholashda samarali bo‘lib, bolalarning nozik motorikasi va koordinatsiyasini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki test birgalikda bolalarning jismoniy rivojlanishini kompleks baholash imkonini yaratadi.

Shuningdek, olingan ma’lumotlar bog‘cha pedagoglari va murabbiylariga individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi. Testlar yordamida bolalarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, bu esa ularga shaxsiy mashg‘ulotlar rejasi tuzish va jismoniy ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, ikki bog‘chadagi bolalar o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq yo‘q, bu bog‘cha yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida testlar bilan aniqlangan ko‘rsatkichlar umumiy standartlarga muvofiq ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, 10 metrga yugurish va tapping testlari bog‘cha yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini aniqlash, ularning motorik qobiliyatlarini baholash va individual rivojlanish rejasini shakllantirishda samarali va ilmiy asoslangan vositalardir. Ushbu testlar bolalar sog‘lom rivojlanishini kuzatishda doimiy monitoring va pedagogik tadbirlar sifatida qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гинзбург, Е.А. **Детская физиология и физическое воспитание**. — Москва: Просвещение, 2015. — 256 с.
2. Иванова, Н.В. **Методы оценки физического развития детей дошкольного возраста**. — Санкт-Петербург: Питер, 2018. — 192 с.
3. Барсукова, Л.М. **Психомоторика и развитие координации у детей 3–6 лет**. — Москва: Наука, 2016. — 210 с.
4. Malina, R.M., Bouchard, C., Bar-Or, O. **Growth, Maturation, and Physical Activity**. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2004. — 400 p.
5. Armstrong, N., Welsman, J. **Young People and Physical Activity: Challenges and Opportunities**. — London: Routledge, 2017. — 320 p.
6. Gabbard, C. **Lifelong Motor Development**. — New York: McGraw-Hill Education, 2020. — 480 p.

7. Кузнецова, О.А. **Физическое воспитание и спорт в дошкольных учреждениях**. — Москва: Академия, 2019. — 180 с.
8. Bailey, R. **Physical Education and Sport in Early Childhood**. — London: Sage, 2018. — 256 p.
9. Аулик И. В. Определение физической работоспособности в клинике и спорте / Москва. – Изд–во «Медицина», 1990. – С.34–56.
10. Баканов И.М. Гигиеническое обоснование двигательного режима учащихся начальных классов школ полного дня // Диссертация к.мед.н. – Москва, 2007. – 199 с.

QON AYLANISH SISTEMASINING ODAM ORGANIZMIDAGI O'RNI

Nomazov Sardor Jumadulla o‘g‘li.
Baxmal tumanu 20 maktab biologiya fani o‘qituvchisi
Rasulov Akram Eshpo‘latovich.
Baxmal tumanu 70 maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qon aylanish tizimi va uning inson organizmidagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi. Qon aylanish tizimi organizmning barcha hujayralariga kislorod, oziq moddalar va boshqa zarur moddalarning yetkazilishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, u metabolik chiqindilarni chiqarish va immun tizimini qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi. Maqolada qonning tarkibi, qon aylanish yo‘llari, yurak va qon tomirlarining vazifalari, shuningdek, qon aylanish tizimining sog‘liqdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qon aylanish tizimi, qon, yurak, qon tomirlari, kislorod almashinuvi, metabolizm, immunitet, inson organizmi.

Abstract. This article provides a detailed analysis of the circulatory system and its role in the human body. The circulatory system plays an important role in delivering oxygen, nutrients, and other essential substances to all cells of the body. It also performs functions such as removing metabolic waste and supporting the immune system. The article extensively covers the composition of blood, circulatory pathways, functions of the heart and blood vessels, and the importance of the circulatory system in health.

Keywords: Circulatory system, blood, heart, blood vessels, oxygen metabolism, metabolism, immunity, human body.

Аннотация. В данной статье представлен подробный анализ системы кровообращения и её роли в организме человека. Система кровообращения играет важную роль в доставке кислорода, питательных веществ и других необходимых веществ ко всем клеткам организма. Она также выполняет такие функции, как удаление продуктов метаболизма и поддержка иммунной системы. В статье подробно рассматриваются состав крови, кровеносные пути, функции сердца и кровеносных сосудов, а также значение системы кровообращения для здоровья.

Ключевые слова: Система кровообращения, кровь, сердце, кровеносные сосуды, кислородный обмен, метаболизм, иммунитет, организм человека.

Kirish. Inson organizmi murakkab va mukammal tizimlardan tashkil topgan. Har bir tizimning o‘ziga xos vazifasi mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un ishlashi organizmning normal faoliyatini ta’minlaydi. Shu tizimlar orasida qon aylanish tizimi alohida o‘rin tutadi. U nafaqat hujayralar va to‘qimalarni oziqlantiruvchi moddalar bilan ta’minlaydi, balki organizmdagi metabolik jarayonlarni tartibga soladi, toksinlarni chiqarishga yordam beradi va immun tizimini qo‘llab-quvvatlaydi. Qon aylanish tizimi samarali ishlamasa, organizmning barcha tizimlari yetarli darajada faoliyat ko‘rsata olmaydi.

Asosiy qism. Qon aylanish tizimi ikki asosiy qismdan iborat: yurak va qon tomirlari tizimi. Yurak organizmning markaziy nasos vazifasini bajaradi, u qonning butun organizm bo‘ylab aylanib chiqishini ta’minlaydi. Qon tomirlari esa qonning yurakdan barcha organ va to‘qimalarga yetkazilishida yo‘l ko‘rsatadi. Bu tizimning ishlash mexanizmi murakkab bo‘lishiga qaramay, uning asosiy vazifalari aniq: hujayralarni oziqlantirish, kislorod bilan ta’minlash, metabolik chiqindilarni chiqarish va immun himoyasini ta’minlash.

Qon aylanish tizimining tarkibi va vazifalari. Qon inson organizmida turli moddalarni tashuvchi transport vositasi sifatida xizmat qiladi. Qon tarkibiga qizil qon hujayralari (eritrotsitlar), oq qon hujayralari (leykotsitlar), trombotsitlar va plazma kiradi. Eritrotsitlar kislorodni tashishda, leykotsitlar esa organizmni kasalliklardan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Trombotsitlar qon ivishida ishtirok etadi, plazma esa hujayralararo moddalarni tashishda yordam beradi.

Yurakning asosiy vazifasi qon aylanishini ta’minlashdir. U to‘rtta bo‘limdan iborat: ikki atriyum va ikki ventrikul. Yurakning qisqarishi qonning tomirlar orqali organlarga yetib borishini ta’minlaydi. Qon tomirlari esa arteriyalar, venalar va kapillyarlardan tashkil topgan. Arteriyalar kislorodga boy qon yurakdan organlarga yetkazadi, venalar esa kislorodga boy bo‘lmagan qon va metabolik chiqindilarni yurakga olib keladi. Kapillyarlar esa qon va to‘qima hujayralari o‘rtasida modda almashinuvini amalga oshiradi.

Tarkibiy qism	Vazifalari	Izohlar
Qon	Hujayralarni oziqlantirish, kislorod yetkazish, metabolik chiqindilarni chiqarish, immunitetni ta’minlash	Eritrotsitlar (kislorod tashuvchi), Leykotsitlar (himoya), Trombotsitlar (qon ivishi), Plazma (modda tashish)
Yurak	Qon aylanishini ta’minlash, tomirlarga qon yetkazish	To‘rtta bo‘limdan iborat: 2 atriyum, 2 ventrikul; qattiq mushakdan tashkil topgan
Arteriyalar	Kislorodga boy qon yurakdan organlarga yetkazadi	Qalin mushak qavati tufayli yuqori bosimga chidamli
Venalar	Kislorodga boy bo‘lmagan qon va metabolik chiqindilarni yurakga olib keladi	Venalarda klapanlar mavjud, qonning orqaga oqishini oldini oladi
Kapillyarlar	Qon va to‘qima hujayralari o‘rtasida moddalar almashinuvini amalga oshiradi	Juda mayda qon tomirlari, kislorod va oziq moddalar almashinuvi aynan shu yerda sodir bo‘ladi

Qon aylanish tizimining ahamiyati. Qon aylanish tizimi organizmning barcha tizimlari bilan uzviy bog‘liq. Kislorod va oziq moddalar yetishmasligi hujayralarning normal ishlashini to‘xtatadi, metabolik chiqindilarning to‘planishi esa turli kasalliklarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shuningdek, qon aylanish tizimi immunitetni qo‘llab-quvvatlaydi, organizmni mikroblar va viruslardan himoya qiladi. Yurak yoki qon tomirlarining buzilishi esa nafaqat yurak-qon tomir tizimiga, balki butun organizmning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Qon aylanish tizimi inson organizmida hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab va muhim tizimdir. U hujayralarni oziqlantirish, kislorod yetkazish, metabolik chiqindilarni chiqarish va immunitetni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi. Yurak va qon tomirlari tizimi o‘zaro uyg‘un ishlash orqali organizmning barcha tizimlariga hayotiy moddalarni yetkazadi. Shu sababli qon aylanish tizimi sog‘liqni saqlash va kasalliklarni oldini olishda markaziy rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

16.http://ziyonet.uz;
17.http://psychol.ras.ru;
18.https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail;

GEOGRAFIYA TA’LIMIDA MUOMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Xalilova Zarina Djamolovna
Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografiya ta’lim jarayonida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanishning mazmun-mohiyati, didaktik afzalliklari hamda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari amaliy misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Maqolada geografiya darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muammoli topshiriqlar, savollar, kichik loyihalar va interaktiv metodlar tahlil qilinadi hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli asoslab beriladi.

Kalit so‘z: Geografiya ta’limi, muammoli ta’lim texnologiyasi, pedagogik innovatsiyalar, muammoli vaziyat, interaktiv usullar, o‘quvchi faolligi, mustaqil fikrlash, kompetensiyalar, ta’lim samaradorligi, didaktik yondashuv.

Аннотация: В статье рассматриваются сущность, дидактические преимущества и значение использования технологии проблемного обучения в процессе преподавания географии для формирования знаний, умений и компетенций учащихся. На практических примерах показаны методы развития самостоятельного мышления, анализа, логических выводов и навыков научного исследования учащихся посредством создания проблемных ситуаций. В статье анализируются проблемные задания, вопросы, небольшие проекты и интерактивные методы, которые могут быть использованы на уроках географии, и обосновывается их роль в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: Географическое образование, технология проблемного обучения, педагогические инновации, проблемная ситуация, интерактивные методы, активность учащихся, самостоятельное мышление, компетенции, эффективность обучения, дидактический подход.

Abstract: This article discusses the essence, didactic advantages and importance of using problem-based learning technology in the process of geography education in the formation of students’ knowledge, skills and competencies. Methods for developing students’ independent thinking, analysis, logical conclusions and scientific research skills by creating problem situations are shown on the basis of practical examples. The article analyzes problem tasks, questions, small projects and interactive methods that can be used in geography lessons and justifies their role in increasing educational effectiveness.

Keywords: Geography education, problem-based learning technology, pedagogical innovations, problem situation, interactive methods, student activity, independent thinking, competencies, educational effectiveness, didactic approach.

Geografiya fanini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasi (yoki muammoli o‘qitish) o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularni tanqidiy fikrlashga va muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga o‘rgatish maqsadida qo‘llaniladi. Bu texnologiya geografiya darslarida o‘quvchilarni o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga, mustaqil o‘rganishga, shuningdek, jamoaviy fikrlash va muhokama qilishga undaydi. Muammoli ta’lim texnologiyasining geografiya o‘qitishidagi o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Real hayotdagi muammolarni o‘rgatish: Muammoli ta’lim texnologiyasida darslar real hayotdagi muammolarni o‘rganish, tahlil qilish va ularni yechish orqali o‘tadi. Geografiya darslarida bu turdagi yondashuv, o‘quvchilarga amaliy muammolarni ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Xususiyatlar: Geografiya fanida real hayotdagi masalalar, masalan, iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, global isish, suv resurslari taqchilligi kabi masalalar asosida o‘qish olib boriladi.

- O’quvchilar bu masalalarni o‘rganish jarayonida o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

O’quvchilarga masalalarni hal qilishda turli xil yondashuvlarni (ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy) ko‘rib chiqish vazifasi beriladi.

Geografiya darslarida foydalanish yo‘li:

Iqlim o‘zgarishining ta’siri: O’quvchilarni iqlim o‘zgarishining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini tahlil qilishga undash.

Suvi taqchilligi va uni hal qilish usullari: O’quvchilarga suv resurslari muammosi haqida tadqiqot olib borish va yechimlar taklif qilish.

2. Muammoni hal qilish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni faqat javoblarni eslab qolishga emas, balki muammoni yechish jarayonida tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarda turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqish, tanqidiy tahlil qilish va yechim izlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu orqali o‘quvchilar turli geografik muammolarni hal qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishadi. Shuningdek, ular mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, yangi xulosalar chiqarish va muammoning turli jihatlarini ko‘rib chiqish qobiliyatlarini o‘zlashtiradilar. Eng asosiysi geografiya darslarida o‘quvchilar ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda masalalarga yechim taklif etadilar.

Geografiya darslarida muommoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish yo‘llari:

- Ekologik muammolarni tahlil qilish: O’quvchilarga biror ekologik ofat (masalan, o‘rmonlarning yo‘qolishi) bilan bog‘liq ma’lumotlar beriladi va ular bu masalani tanqidiy tahlil qilishadi.
- Tabiiy resurslardan foydalanish: O’quvchilar turli mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini baholaydilar.

3. O’quvchilarning mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirilishi.

Dars jarayonida quydagi keltirilgan metod qo‘llash orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, ijodiy va tanqidiy fikrlarshni, o‘quvchilar nutqi, muommila madaniyati shakllanadi. Jumldan quydida keltirilgan muommoli texnologiya nomlanadi. Mashg‘ulotning o‘tkazish tartibi:

O’qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni mos o‘rinlarga joylashtirgandan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalarini va talablarini tushuntiradi, ya’ni u mashg‘ulotni bosqichli bo‘lishini va har bir bosqich o‘quvchilarni maksimum diqqat-e’tibor talab qilishini, mashg‘ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o‘quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi va qiziqish uyg‘otadi. Mashg‘ulot o‘tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg‘ulot boshlanadi.





Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo‘llari va sizning harakatlaringiz
Toza ichimlik suvining tanqisligi.	1. Suvning sun’iy ifloslanish manbalari. 2. Suvni tabiat ham ifloslamoqdi.	1. Tabiat va suvni saqlashga oid tadbirlar o‘tkazish. 2. Atrofdagi ariq, kanal, soy suvini toza saqlash choralarini topish.

O’qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi; - tarqatilgan qog‘ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a’zosi o‘zini qiziqtirgan muammoni birini tanlab oladi; - o‘qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a’zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarga mustaqil ravishda ma’lumot to‘plash, analiz qilish va yechimlar topish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

O’quvchilar muammo yechimini izlashda mustaqil ishlashga undaladi.

- Dars jarayonida o‘quvchilarga o‘z fikrlarini bildirish va turli manbalardan foydalanish uchun imkoniyat yaratiladi.
- O’quvchilar o‘z ishini taqdimot qilish yoki yozma tarzda himoya qilish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi.

Geografiya darslarida foydalanish yo‘li:

- Geografik tadqiqotlar: O’quvchilar geografik masala bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib borishadi, masalan, biror hududning iqtisodiy rivojlanishi yoki iqlimi haqida.
- Kengaytirilgan tadqiqot vazifalari: O’quvchilarni biror geografik hududni o‘rganishga va o‘zlarining fikrlarini asoslangan ravishda izohlaydigan prezentatsiya yoki hisobotlar tayyorlashga rag‘batlantirish.

4. Interaktiv va jamoaviy ishlash

Muammoli ta’lim texnologiyasida o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va guruhlarda birgalikda ishlashga undaladi. Bu jarayon o‘quvchilarni o‘z bilimlarini boshqalarga etkazish va boshqalarning fikrlarini eshitishga rag‘batlantiradi.

Xususiyatlar:

- Guruh bo‘lib ishlash, muammolarni hal qilishda o‘quvchilar bir-biriga yordam beradi, fikrlarini almashadi va jamoa sifatida yechimlar ishlab chiqadi.
- O’quvchilar o‘rtasida interaktiv muloqot va samarali hamkorlikka asoslangan o‘qish jarayoni yuzaga keladi.
- O’quvchilar bir-biriga o‘z bilimlarini tushuntirish orqali o‘z tushunchalarini mustahkamlashadi.

Geografiya darslarida foydalanish yo‘li:

- Jamoaviy geografik tadqiqotlar: O’quvchilarni guruhlarga bo‘lib, geografik muammolarni (masalan, aholi zichligi yoki ekologik muammolar) hal qilishga undash.

Simulyatsiyalar: O’quvchilar bir-birlariga turli geografik masalalar bo‘yicha savollar berishadi va jamoa sifatida yechim topishga harakat qilishadi.

5. Ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni shakllantirish

Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni nafaqat akademik bilimlar bilan, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni ham rivojlantiradi. Geografiya darslarida bu masalalar juda muhimdir, chunki ular o‘quvchilarni global va mahalliy ekologik muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Xususiyatlar: O’quvchilarni o‘z atrof-muhitiga, jamiyatga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishga undash. O’quvchilarni ekologik va ijtimoiy masalalarni yechishda o‘z hissasini qo‘shishga rag‘batlantirish.

Geografiya darslarida foydalanish yo‘li: Ekologik muammolarni hal qilish: O’quvchilarni iqlim o‘zgarishi yoki ekologik barqarorlik haqida o‘ylashga undash va bu masalalarga yechim taklif qilish. Global ijtimoiy masalalar: Geografiya darslarida ijtimoiy tengsizlik yoki qashshoqlik kabi muammolarni muhokama qilish va o‘quvchilarga ularning yechimi uchun fikrlar bildirishni topshirish.

Xulosa: Geografiya muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil o‘rganish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yo‘naltiradi. Bu texnologiya o‘quvchilarda geografik va ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga va global masalalarga mas’uliyat bilan yondashishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan abdabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov, A., & Jo‘rayev, M. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: Fan, 2020.
2. G‘ulomov, S. *Geografiya o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: O’qituvchi, 2018.
3. To‘xtayev, A. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.* – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
4. Ziyayeva, D. “Geografiya ta’limida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari.” *Ta’lim va Innovatsiya*, №4, 2022.
5. Xolmatova, S. “Muammoli ta’limning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati” *Pedagogik izlanishlar jurnali,* №1, 2021.
6. Jonibekov, R. *Geografiya darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish usullari.* – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2019.
7. Mavlonov, A. “Muammoli vaziyat yaratish texnikasi va uning o‘quv jarayonidagi o‘rni” *Uzluksiz ta’lim*, №3, 2020.
8. Polat, E.S. *Innovatsion o‘qitish texnologiyalari.* – Moskva: Akademiya, 2019.

ADIR ZONASINI TIZIMLI RAQAMAMLASHTIRISH ORQALI HOLATINI STATISTIK USULDA BAHOLASH

Qarshiboyev Zuhriddin Sanjar o‘g‘li
G‘allaorol tumani 42-maktab biologiya o‘qituvchisi
Jonzoqov Xurshid Komiljon o‘g‘li
G‘allaorol tumani 90-maktab biologiya o‘qituvchisi

Tuproq unumdorligi: Adir zonasiga tegishli bo‘lgan tuproq turlari bilan solishtiriladi.Bunday tuproq turlariga oddiy bo‘z tuproq, to‘q tusli bo‘z tuproq, tipik bo‘z tuproq, jigarrang va qo‘ng‘ir o‘rta tog‘ tuproq.

Yaylovdan olingan tuproq quyidagi jadvalga solib tuproqdagi chirindi miqdori solishtiriladi. Bunda tuproq turiga qaraladi.

Oddiy bo‘z tuproq	Chirindi miqdori: 1.5-2.5%
To‘q tusli bo‘z tuproq	Chirindi miqdori: 3-4%
Tipik bo‘z tuproq	Chirindi miqdori: 0.8-2.5%
Jigarrang va qo‘ng‘ir o‘rta tog‘ tuproqlari	Chirindi miqdori:1.5-4%

Olingan natija jadvaldagi raqamlarga qiyoslanganda o‘xshash yoki yuqori bo‘lsa yaylovning holati chirindi standartiga mos deb topiladi. Agar olingannatija jadvaldagi raqamlardan kichik bo‘lsa olingan natija salbiy deb topiladi va ushbu yaylov hududiga tegishli choralar ko‘riladi.

Chirindi miqdorini hajmiy xromli usuldaaniqlash ***(I.V.Tyurin usuli)***

Usulning mohiyati. Mazkur usul chirindi tarkibidagi uglerodni kaliy bixromat (K2Cr2O7) ning 0,4 n li eritmasi bilan oksidlashga asoslangan. Ushbu eritma kuchli sulfat kislotasi asosida tayyorlanib suvda 1:1 nisbatda suyultirilgan bo‘ladi. Juda kuchli kislotali muhitda (kaliy bixromat eritmasiga kuchli sulfat kislota qo‘shilganda) quyidagi tenglama bo‘yicha kislorod ajralib chiqadi:

2K2 Cr2O7 +8H2SO4=2Cr(SO4)3+2K2SO4+8H2O+3O2

Ajralib chiqayotgan kislorod tuproqdagi organik moddalar uglerodini oksidlaydi: 3C+3O2=3CO2

Ammo ma’lum miqdorda olingan xromli aralashmadagi kislorodning hammasi ham chirindi uglerodini oksidlashga sarflanmaydi. Bevosita chirindini oksidlashga sarflanmagan kislorodning ortiqcha qismi Mor tuzi FeSO4.(NH4)2SO4.6H2O tarkibiga kiruvchi temir chala oksidi (zakisi) tuzining oksidlanish darajasiga qadar aniqlanadi. Bunda xromli aralashma eritmasini oshiqcha qismini Mor tuzining 0,2N eritmasi bilan qayta titrlash olib boriladi.

Reaksiya ushbu tenglama bo‘yicha kechadi:

6 FeSO4 (NH4)2 SO4 + K2Cr2O7 + 7H2SO4=Cr2(SO4)3 +3Fe2(SO4)3 +

$6(NH_4)_2SO_4 + K_2SO_4 + 7H_2O$

Titrlashning borishi va oxiri difenilamin indikatori yoki fenilantranil kislotasi asosida olib boriladi. Reaksiyaning tugaganini aniqroq bilish uchun, eritmaga difenilamindan tashqari, 85 % fosfor kislota ham qo‘shiladi. Titrlanayotgan eritmaning qo‘ng‘ir rangdan ko‘kimtir yashil tusga o‘tishi chirindini oksidlashga sarflanmagan xromli aralashmadagi ortiqcha kislorodning hammasi Mor tuzi tarkibidagi temirning chala oksidi (zakisi) ni oksidlashga sarflanganligini ko‘rsatadi. Tahlil boshlanishidan oldin yoki undan keyin, ana shu tahlil uchun olingan ma’lum hajmdagi xromli aralashmadagi kislorodning umumiy miqdorini aniqlab olishimiz kerak. Buning uchun tuproq chirindisini oksidlash maqsadida olingan hajmdagi xromli aralashmani Mor tuzining eritmasi bilan titrlanadi. Bunga quruq (tuproqsiz) titrlash deyiladi. Ish tartibi. 1.Ko‘zlarining o‘lchami 0,25 mm bo‘lgan elakdan o‘tkazilgan tuproq namunasidan 0,1 dani 0,5 g gacha tuproq olinadi (qancha olinishi tuproqdagi chirindi miqdoriga bog‘liq). 0,0002 g gacha aniqlik bilan tortib olingan tuproq namunasi daftarga yozib qo‘yiladi (H).

2.Tuproq namunasi 100 ml sig‘imli konussimon kolbachaga solinadi.

3.Kolbachaga byuretkadan 10 ml xromli aralashma quyiladi. Kolbachadagi tuproq va suyuqlik ehtiyotlik bilan yaxshilab aralashtiladi. Tahlil davomida xromli aralashma ishlatayotganda xavfsizlik choralariga rioya qilish zarur.

4.Kolbacha bo‘g‘ziga kichkina voronka qo‘yiladi, u aralashma qaynayotgan chog‘da sovitkich vazifasini o‘taydi.

5.Kolbacha elektr plita yoki asbest to‘r bilan qoplangan gorelka ustiga qo‘yiladi va suyuqlik qaynaguncha isitiladi. Qaynash boshlash vaqti yozib qo‘yiladi va aniq 5 minut davomida bir maromda qaynatiladi. Agar kolbachadagi qaynatilayotgan

suyuqlik yashil rangga kirsa (bu hol uglerodni oksidlantirish uchun xromli aralashma kamligini bildiradi) kolbachani olib, sovitish va unga yana 10 ml xromli aralashma qo‘shish kerak.

6.Besh minut qaynatilgandan so‘ng kolbacha olinadi va sovitiladi.

7.Soviganidan keyin kolbacha ichidagi aralashma katta konussimon kolbaga o‘tkaziladi. Bu kolbaga taxminan 100 ml distillangan suv quyiladi va uning ustiga kichik kolbachadagi aralashma quyiladi. Kolbachani suv bilan bir necha marta chayib, katta kolbaga solinadi. Bunda katta kolbadagi eritmaning umumiy hajmi 250-300 mldan oshib ketmasligi lozim. Suv miqdorini o‘lchamasa ham bo‘ladi, chunki u tahlilning borishiga ta’sir qilmaydi.

8.Katta kolbadagi eritmaga 85 % li fosfor kislotadan 10 tomchi va difenilamindan 10 tomchi yoki fenilantranil kislotasidan 5-8 tomchi tomizilib yaxshilab aralashtiriladi.

9.Katta kolba ichidagi eritmani Mor tuzi bilan titrlashga kirishiladi. Bunda to‘q qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangli eritma asta-sekin dastlab intensiv zangori, keyin esa xira binafsha rangga kiradi. Ana shu paytdan boshlab ehtiyotlik bilan titrlash lozim, shu paytdan boshlab Mor tuzini bir tomchidan tomizish va kolba ichidagi eritmani yaxshilab aralashtirib titrlash zarur. Reaksiyaning tugaganligini eritmaning xira binafsha rangdan to‘q ko‘k yashil tusga o‘tishidan bilish mumkin. Eritmaning yorqin yashil rangga o‘tishi Mor tuzining ko‘p quyilganini ko‘rsatadi va tahlil natijalari noto‘g‘ri chiqadi.

10.Titrlash tugagach, bunga necha millilitr Mor tuzi ketganligi yozib qo‘yiladi.

11.Quruq (tuproqsiz) xromli aralashmani titrlash natijalarini (a) odatda Mor tuzi solingan idish- butilkalar ustiga yozib qo‘yish qabul qilingan (10 ml xromli aralashmaga odatda taxminan 20 ml 0,2 n miqdorda Mor tuzi sarflanadi). Buning uchun boshqa bir kolbachaga 10 ml xromli aralashma olinib (tuproqsiz) avvalgidek tartibda qaynatilib Mor tuzi bilan titrlanadi.

12.Olingan natijalar quyidagicha yozib boriladi: 1) quruq (tuproqsiz) 10 ml xromli aralashmani titrlashga sarflangan Mor tuzining miqdori, ml (a);2) oksidlangandan keyin qolgan ortiqcha kislorodni titrlashga ketgan Mor tuzining miqdori, ml (v); (xrom aralashmasi bilan tuproq uchun olib borilgan titrlash); 3) gumus miqdorini aniqlash uchun olingan tuproq namunasining og‘irligi, g (N); 4) 1 ml 0,2 n Mor tuziga 0,0010362 g gumus mos kelishi ko‘plab tajribalar asosida aniqlangan (Ishcheryakov koeffisiyenti); 5) gigroskoplik koeffisiyenti GK;

$A(gumus\%)=(a-b)*0,0010362*100*GK/P$

Masalan :a-22,5 ml, b-10,5 ml, 0,0010362g, R-0,5 g,GK-1,02, bo‘lsa,tuproqdagi chirindi miqdori 2,53%ga teng.

X=(22.5-10,5)*0,0010362*100*1,02/0,5=2,53%

Tuproq zichligi:

Tuproqning zichligi 1.2-1.3 gr/sm3 bo‘lganda o‘simliklar yaxshi o‘sadi. Bu minimum holatda deb olinadi.

Tuproqning zichligini ko‘rsatgichi asosida tuproqdagi fizik shart sharoitlari haqida ancha aniq tasavvur olish mumkin. Hajm massa tuproqning zichligi dala sharoitida tabiiy tuzilishidagi buzilmagan holda maxsus metal silindirlar yordamida aniqlanadi.

Silindirlar yog‘och bolg‘a bilan tuproqqa urib kirgiziladi va shu tarzda tuproq tuzilishining buzmagan holda kerakli hajmda namuna olinadi. Tuproq quritiladi tarozida tortilib zichligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

dv=m/V

Bu yerda:

dv-tuproqning zichlig gr/sm3,

m-quruq tuproqning massasi gr,

V-silindr (halqaning) hajmi.

Yaylovdagi zaharli o‘simliklar foizini aniqlash.

Yaylov zonasi maydonlarida tarqalgan o‘simliklar orasida zaxarli va kam yeyiladigan turlar ko‘paymoqda. Bu o‘rinda ushbu o‘simliklar yaylov sifatini buzadi. BUnday o‘simliklarga *uchlama, ayiqtovon, isparak, qizg‘aldoq, ko‘knori, achchiqmiya, isriq, oqquray* va boshqalari kirib ushbu turlar shu mintaqalarda uchraydi. Bunday o‘simliklarni umumiy biomassadagi ulushini aniqlash lozim. Bunda 5 ta hududdagi, 10 m^2 maydondagi barcha yer usti qismlari yig‘ib olinadi. Keyin ular orasidan keraksiz turlar ajratib olinadi va umumiy biomassaga nisbatan aniqlanadi.

Keraksiz biomasssa : $\frac{Zaharli\ o'simliklarni\ biomassasi}{umumiy\ biomassa}=$

Bu foiz ko‘rsatkichlar asosan ketma – ket yillar orasida o‘lchanib foiz oshirish holati salbiy hisoblanadi.

Yaylovlarning sifat ko‘rsatkichini aniqlash.

Bunda yaylovlarning umumiy biomassasi turlarga mos ravishda tartibdagi ozuqa birliklari hisoblanib chiqiladi. Bunday yaylovda uchraydigan barcha turlardan foydalaniladi. (Albatta zaharli va kam yeyiladigan turlar bundan mustasno). Buni aniqlash eng murakkabidir. Buning uchun mintaqada uchraydigan turlar olinadi. Masalan, *rang, yaltirbosh, ajriq, qo‘ngir bosh, arpahon, chitir, kovrak, karrak, selen, kovul, yantoq, ajriq* kabilardir.

Olinadi ularning o‘rtacha miqdori aniqlanadi. Ular quidagi jadval asosida hisoblanib topiladi.

O’simlik nomi	**ozuqa birligi**	**yalpi energiyasi**	**almashinuvchi energiya MDJ**	**hazimlanuvchan protoinlar.G.**
Efemer va efemeroidlar.				
1. Rang	0,39	10,83	2,76	28,9
2. Qo‘ngirbosh	0,37	10,62	3,63	35,3
3. Iloq	0,45	9,95	4,2	39,4
4. Yaltirbosh	0,3	9,8	3,15	38,7
5. Arpaxon	0,4	10,3	4,4	45
6. No‘xotak (qashqa)	4,29	11,2	2,9	29,5
7. yungichqa	0,36	10,3	3,05	48
8. Chitir	0,32	0,8	3,27	33
9. Qora moshoq	0,35	12	4,1	70,05

Dag‘al poyalar				
1. Kovrak	0,23		2,5	20
2. karrak	0,34	11,8	3,3	37
3. Selin	0,29	10,3	2,27	18,5
4. Kovul	0,32			34,5
5. yantoq	0,23	12	2,86	28
6. ajriq	0,34		36,1	26,8

Bu ishda maqsad yaylov sifatlarini aniqlab olish uchun kerak. Bu ko‘rsatkich yaylovlardan aynan qaysi vaqtlarda foydalanish kerakligini ko‘rsatadi.

Yaylovning umumiy biomassasini aniqlash.

O’rganayotgan maydonimizdagi umumiy yer ustki biomassalarini aniqlash (kam yeyildigan va zaxarli o‘simliklardan tashqari.

Buning uchun 20 dan ortiq siyrak, qalin, baland, past, jar yoqalari, toshloq yerlaridan 10 m^2 dan jami yer ustki qismlari yig‘ib o‘lchanadi. Bu raqamlar mos ravishda meyyoriy qismlar bilan taqqoslanadi. Chiqqan natija oldingi yo‘llar bilan taqqoslanadi va xulosa chiqariladi.

Umumiy biomassa = $\frac{(x+x)*10}{200m2}$

Yaylovda boqiladigan chorva soni bu eng muhim omildir. Chunki o‘rganilayotgan maydonimiz yaylov inqiroziga asosiy sabab hisoblanadi. Chorvaning katta miqdorda tarqalishi natijasida o‘simliklar urug‘ berishga ulgurmayapti, ko‘p yillik o‘tlar ham o‘ziga oziq yig‘masdan yer ustki qismi yeyilib ketadi. O’simliklar qoplamining siyraklashishi natijasida zaharli o‘simliklar ko‘payib ketgan.

Biz hayvon soniga misol qilib qo‘ylardan foydalanamiz. Bu sxema bo‘yicha hohlagan hayvon yaylov maydonida topishimiz mumkin.

Malumki bahorda 1 bosh qo‘y uchun sutkasiga 3 kg ketadi. Bizning hududimiz maydoni malum bo‘lsa, unga qancha chorva kiritishimiz mumkin.

Bahor - 3 kg (90 kun)
Yoz – 2,5 kg (138 kun)
Kuz – 2,5 kg (81 kun)
Qish – 3 kg (58 kun)

$$N = \frac{A}{B}$$

N – yalpi qoy soni
A – ajratishgan yaylovda ozuqa miqdori kg
B – Bir bosh qo‘yning yillik ehtiyojiga

$$B = \frac{(3*90)+(2,5*138)+(2,5*81)+(3+58)}{365} = 2,7\ kg$$

Bir kunlik o‘rtachasi 2,7 kg ekan. 2,7 * 366 = 998 kg kerak bo‘larkan.

Yuqori umumiy biomassa topilgach formula orqali yaylovga (hohlagan biomassa asosida) qancha chorva (qo‘y boqish mumkinligini aniqlash mumkin. Bu meyyoriy miqdor chorva sonining oshish bilan bog‘liq muammolar kelib chiqishining oldini oladi. Bularni hisoblashda biomassaning 75% ni hisobga olish lozim (taxminiy miqdorda).

Yaylovdan mavsumiy foydalanish usuli :

Yaylovda turlar tarqalishi undagi foydali o‘simliklar kamayib ketmasligi uchun uni almashlab foydalanish eng qulayi hisoblanadi.

Efemer o‘tli adir yaylovlari 4 dalalari yaylov almashinuv sxemasi.

yillar	yaylov	almashinuv dullari		
	1	2	3	4
1-3.	Bahor	Yoz	kuz	qish

4-6.	qish	Yoz	kuz	bahor

Yaylovning davomiyligi.

Bu asosan o‘simlik turlari orqali aniqlanadi. Yani olingan yaylov tarkibidagi turlar orasida (turlarning) ko‘p yillik va butalarning (qisman daraxtlarning) xili ko‘pligi va ularning egallagan maydoni hisobiga olinadi. Misol uchun bir olgan yaylovda *ajriq, bug‘doyiq*, kabi ko‘p yilliklar bo‘lsa, ular yana va yana unib chiqadi. Urug‘ining yerga to‘kilmay yoyilishidan ham, uncha zarar ko‘rmaydi. Qayta unib chqishi mumkin. Agar bunday turlar ham bo‘lsa maydon yaylovlarining davomiyligi ham bo‘ladi. Yani mol boqish kuchayib ketsa, urug‘lar yerga to‘kilmay qolsa, o‘simliklar soni kamayib ketadi va ular qayta unib chiqmaydi. Buni aniqlash uchun yaylovdagi ko‘p yilliklarning miqdori va egallagan maydoni hisobga olinadi. Bu davomiylik oldingi yilga nisbatan baland foizni tashkil etsa dash uchun narmal ko‘rsatkich hisoblanadi va bu yaylov kelajagi qoniqarli hisoblanadi.

AYOLLARDA KO’KRAK BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASH

Ochilova Saodat
Jizzax shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga
qarashli 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
biologiya fani o‘qituvchisi

Dunyo bo‘yicha ayollarning 12% iga kasallik ta’sir qiladi. Barcha saraton kasalliklarining taxminan 22,9% ko‘krak bezi saratoniga to‘g‘ri keladi.Hozirda 40 yoshdan oshgan ayollar o‘rtasida ko‘p uchrab turuvchi kasallik hisoblanadi.Kasallikni davolashdan ko‘ra uni oldini olish yoki kasallikni (aniqlangan vaqtda) erta aniqlash orqali davo choralarini qo‘llash lozim.

Ko‘krak saratoni- bu ko‘krak to‘qimalaridan rivojlanadigan saraton. Uning aniq sabablari mavjud emas. Biroq yoshning o‘sishi, oilada yaqin qarindoshlarda ko‘krak bezi saratoni bilan og‘riganlar bo‘lishi sabab bo‘lishi mumkin. Oddiy ko‘krak hujayralari DNK dagi mutatsiyar tufayli saratonga aylanishi mumkin. Har bir ayol bu kasallikni belgilarini bilishi lozim.Belgilari: ko‘krakni paypaslaganda sezilarli bo‘laklar bo‘lishi, og‘riqsiz bo‘lishi, ko‘krak hajmi kattalashishi, shakli va ko‘rinishi o‘zgarishi. Davolash usullari: jarrohlik, dori-darmon, radiatsiya.Ayollar har doim o‘z tanasini nazorat qilib borishi lozim.

1. Ko‘krakni tez-tez paypaslab ko‘rish(palpatsiya).
2. UZI yoki mamomgrafiya tekshiruvidan o‘tib turish.
3. Kuchli stress holatlardan himoyalanish.
4. Sog‘lom turmush tarzida hayot kechirish.
5. Kasallikni ilk belgilari aniqlangan holda tushkunlikka tushmaslik.

Muhim eslatmalar:

* Har bir ayol uchun skrining jadvali va usuli shifokor bilan maslahatlashib aniqlanishi kerak.

* Saraton kasalligini erta aniqlash uni davolash imkoniyatini oshiradi.

* Skriningning foydalari, cheklovlari va potentsial zararlari haqida shifokoringiz bilan suhbatlashish tavsiya etiladi.

* Ko‘krak bezi saratonidan himoyalanish va sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish

Ko‘krak bezi saratonining oldini olish va sog‘lom turmush tarzini saqlash har bir ayol uchun muhimdir. Quyidagi tavsiyalar:

1. Sog‘lom ovqatlanish

- Meva va sabzavotlarni ko‘p iste’mol qilish.
- Donli mahsulotlar va oqsilga boy ovqatlar (baliq, tuxum, loviya) tanovul qilish.
- Qizil go‘sht va yog‘li, qayta ishlangan mahsulotlarni kamaytirish.
- Shakarli ichimliklar va konfetlarni cheklash.

2. Jismoniy faollik

- Haftasiga kamida 150 daqiqa o‘rta intensivlikdagi mashqlar (yurish, suzish, velosiped) qilish
- Mushaklarni mustahkamlovchi mashqlarni haftasiga 2 marta bajarish

- Faol harakatlar ko‘krak bezi saraton xavfini kamaytiradi.

3. Sog‘lom vazn saqlash

- Ortiqcha vazn va semizlik ko‘krak saratoni xavfini oshiradi.
- Tana massasi normal diapazonda bo‘lishi uchun parhez va jismoniy faollikni uyg‘unlashtirish lozim.

4. Alkogol va chekishdan saqlanish

- Alkogolni imkon qadar cheklash yoki umuman ichmaslik.
- Chekish saraton va boshqa kasalliklarning asosiy xavf omili hisoblanadi.

5. Stressni boshqarish va uyqu


- Kundalik stressni kamaytirish uchun meditatsiya, nafas mashqlari yoki yoga bilan shug‘ullanish.
-,Sifatli uyqu (7-9 soat) sog‘lom immun tizimini saqlashga yordam beradi.

6. Skrining va tibbiy kuzatuv

- 40 yoshdan oshgan ayollar har yili mammografiya topshirishlari tavsiya etiladi.
- Ko‘krakni o‘z-o‘zini tekshirish va shifokor tomonidan klinik tekshiruvdan o‘tish kerak.
- Oilaviy tarix yoki yuqori xavf omillari bo‘lsa, qo‘shimcha skrining usullarini ham foydali bo‘ladi.

7. Suyuqlik va suvsizlanishdan saqlanish

- Kuniga kamida 1,5–2 litr suv ichish.



Rasm ayollarga ko‘krak bezi saratoni qanday paydo bo‘lishi, qanday o‘sishi va qanday alomatlar bilan namoyon bo‘lishini sodda va aniq ko‘rsatadi.



Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu kasallik bilan og‘rigan barcha doimiy sog‘lom turmush tarziga ripoya qilishlari lozim. Shu sababli foydali mahsulotlarni iste’mol qilish muhimdir.

Statistik ma’lumotlar

AQShda 2014–2020 yillarda aniqlangan hollarga ko‘ra: “lokalizatsiyalangan” bosqichda (o‘simta faqat ko‘krakda, boshqa joylarga tarqamagan) — 5 yillik nisbatan omon qolish• > 99%.

“Regional” bosqichda (yaqin limfa tugunlariga yoki yaqin to‘qimalarga tarqalgan) — 5 yillik omon qolish ~ 87%.

(masofaviy metastazlar bilan) bosqichda — 5 yillik omon qolish ~ 32%.

Butun bosqichlar bo‘yicha (ayollar) — 5 yillik omon qolish ~ 90-91%.

Yuqori daromadli davlatlarda 1980-yillardan 2020-gacha o‘lim darajasi taxminan 40% ga kamaygan suyuqlik yetishmasligi organizmning normal ishlashiga va toksinlarni chiqarishga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasallik qancha erta aniqlansa va ushbu kasallikka chalinmaslik uchun sog‘lom turmush tarzini hayotga tatbiq etilsa, kasallik bilan og‘rish xavfi kamayadi va davolash ham shuncha yaxshi natija beradi.

NAFAS OLISH ORGANLARI SISTEMASI TUZILISHI VA AHAMIYATI

Abirova Mohira Ilhom qizi
Xolbekova Dilnoza Shuxrat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola inson organizmida nafas olish tizimi va uning a’zolarining tuzilishi haqida umumiy ma’lumotlar beradi. Maqolada, nafas olish tizimining asosiy komponentlari, ularning tuzilishi, funktsiyalari va organizm uchun ahamiyati keltirilgan. Nafas olish tizimi, birinchi navbatda, havoni tanaga kiritish va undan chiqarish, oksigenni qonni ta’minlash va karbonat angidridni chiqarib yuborish jarayonlarini amalga oshiradi. Maqolada nafas olish tizimi organlarining: burun, og‘iz, tomoq, nafas yo‘llari, bronxlar, o‘pka va alveollarining tuzilishi va ularning organizmdagi roli batafsil yoritilgan. Nafas olish tizimining har bir a’zosi o‘zining maxsus tuzilishiga ega bo‘lib, birgalikda nafas olish jarayonini samarali tarzda ta’minlashga yordam beradi

Kalit so‘zlar: Nafas olish,o‘pka,bronxlar,alveolalar,traxeya,kekirdak,taqshqi nafas olish,ichki nafas olish,havo,gaz,karbonat,angidrid

Nafas organlari - organizm bilan tashqi muhit (suv yoki havo) o‘rtasida gaz almashinuvi uchun ixtisoslashgan organlar. Hayvonlarda tana qoplag‘ichi yoki ichagi devorining botib kirishi yoki bo‘rtib chiqishi tufayli vujudga kelgan. Ko‘pchilik umurtqasiz hayvonlar (g‘ovaktanlilar, bo‘shliqichlilar, chuvalchanglar, tuban qisqichbaqasimonlar, ignaterililar)da nafas organlari bo‘lmaydi. Umurtqalilar orasida teri orqali nafas olish kam harakatlanadigan va mayda hayvonlar

— ayrim baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar uchun xos. Nafas organlari dastlab chuvalchanglarda jabralar shaklida paydo bo‘lgan. Kislorod tanqis bo‘lgan, oqmaydigan loyqa suvlarda yashaydigan ayrim baliklarda atmosfera havosi bilan nafas oladigan organlar — o‘pkalar, labirint apparat rivojlangan. Orqa ichakning ayrim qismlari orqali sodir bo‘ladigan gaz almashinuvi ichak orqali nafas olish deyiladi (ayrim laqqasimon va boshqa baliklar).

Quruqlikda yashaydigan hayvonlarning asosiy nafas organlari traxeyalar yoki o‘pkalar hisoblanadi. Ontogenezda nafas organlari o‘zgarishi mumkin. Masalan, ko‘pchilik baliklar embrionlari dastlab tana yuzasi orqali nafas oladi; keyinroq ularda sariqlik xaltasida sariklik nafas olish sistemasi yoki suzgichlar (anal, orqa, dum) nafas olish sistemasi paydo bo‘ladi. Keyinchalik lichinkalarda tashqi jabralar, so‘ngra jabra apparata rivojlanadi. Amniotlar embrionida nafas olish vazifasini dastlab sariklik xaltasi, keyinroq allan-tois bajaradi.Odamda Nafas organlari havo o‘tkazuvchi yo‘llar (burun bo‘shlig‘i, hiqildoq, kekirdak va bronxlar) hamda o‘pkadan iborat.

Nafas olish tizimi kislorod va karbonat angidrid almashinuvi uchun javob beradigan inson tanasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, hayotni ta’minlovchi muhim jarayondir. U atrof—muhitdan kislorod olish va hujayra nafas olishining chiqindi mahsuloti bo‘lgan karbonat angidridni olib tashlash uchun birgalikda ishlaydigan organlar, to‘qimalar va tuzilmalarning murakkab tarmog‘idan iborat.

Nafas olish funktsiyalari

Nafas olish: Nafas olish tizimining asosiy vazifasi gazlar almashinuvini osonlashtirishdir. Nafas olish havodan kislorodning qon oqimiga kirishiga imkon beradi, ekshalasyon (nafas olish) esa metabolizm jarayonida hujayralar tomonidan ishlab chiqarilgan karbonat angidridni chiqaradi.


Kislorodni tashish:

Karbonat angidridni olib tashlash:

Hujayralar kislorodan foydalanishi va karbonat angidrid ishlab chiqarishi natijasida nafas olish tizimi bu chiqindi gazni nafas chiqarish orqali tanadan chiqarib yuboradi.

Kislota-baz muvozanatini saqlash:

Nafas olish tizimi qondagi karbonat angidrid miqdorini sozlash orqali organizmning pH muvozanatini tartibga solishga yordam beradi. Bu tananing to‘g‘ri ishlashini ta’minlash uchun juda muhimdir.



Nafas olish organlari salomatligining ahamiyati

Sog‘lom nafas olish tizimini saqlash umumiy farovonlik uchun juda muhimdir. Nafas olish tizimining yomonligi nafas olish yo‘llari infektsiyalari, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (KOAH), astma va o‘pka saratoni kabi bir qator muammolarga olib kelishi mumkin. Nafas olish organlari salomatligini mustahkamlash uchun odamlar:

O’pka kasalliklari uchun asosiy xavf omillari bo‘lgan chekish va ikkinchi qo‘l tutuniga ta’sir qilishdan saqlaning.

Nafas olish mushaklarini kuchaytirish va o‘pka hajmini yaxshilash uchun muntazam ravishda mashq qiling. Nafas olish yo‘llari infektsiyalari xavfini kamaytirish uchun qo‘l yuvish kabi yaxshi gigiyena qoidalariga rioya qiling. Umumiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash uchun yaxshi muvozanatli dietani saqlang.

Nafas olish sistemasining tuzilishi va ularning vazifalari.

Nafas olish organlarining tuzilishi va vazifasi:

1. Umumiy tushuncha

Nafas olish tizimi (respirator sistema) — bu organizmni kislorod bilan ta’minlaydigan va karbonat angidridni tashqariga chiqaradigan organlar majmuasidir.

Nafas olish jarayoni ikki asosiy bosqichdan iborat:

1. Tashqi nafas olish — havodan kislorodning o‘pkaga kirishi va karbonat angidridning chiqishi.

2. Ichki (to‘qima) nafas olish — o‘pka orqali qonga o‘tgan kislorodning hujayralarga yetkazilishi va u yerdan karbonat angidridni olib chiqish jarayoni.

Bu tizim nafaqat gaz almashinuvini, balki ovoz hosil bo‘lishi, havo haroratini va namligini muvozanatda ushlab turishni ham ta’minlaydi.

2. Nafas olish organlarining asosiy qismlari

Nafas olish tizimi shartli ravishda yuqori va quyi nafas yo‘llariga bo‘linadi.

A) Yuqori nafas yo‘llari:

1. Burun bo‘shlig‘i.

Tuzilishi: Burun ikki teshik orqali tashqi muhit bilan bog‘langan bo‘lib, ichi shilliq qavat bilan qoplangan. Unda mayda qon tomirlari va tukchalar mavjud.

Vazifasi: Havo kirganda uni tozalaydi (chang, mikroblarni ushlab qoladi). Havoni isitadi va namlaydi. Hid sezish retseptorlari yordamida hidlarni sezish imkonini beradi. Havo o‘pkaga kirishdan oldin uni organizm uchun qulay holatga keltiradi.

2. Halqum.

Tuzilishi: Halqum hazm qilish va nafas yo‘lining umumiy qismidir.

Vazifasi: Havo oqimini burundan traxeyaga o‘tkazadi. Nutq paytida ovoz rezonansini hosil qilishda yordam beradi. Yutish paytida havo yo‘liga oziq moddalarning tushishiga to‘sqinlik qiladi.

3. Hiqildoq.

Tuzilishi: Hiqildoq tog‘aylardan tashkil topgan bo‘lib, eng yiriklari qalqonsimon va halqasimon tog‘aylardir. Ichida ovoz paychalari joylashgan.

Vazifasi: Nafas yo‘lini ochiq holda saqlaydi. Ovoz paychalari orqali ovoz hosil qiladi. Hiqildoq ustidagi “epiglottis” tog‘ayi yutish paytida oziqning havo yo‘liga tushishiga yo‘l qo‘ymaydi.

B) Quyi nafas yo‘llari:

4. Traxeya (havo nayi)

Tuzilishi: Taxminan 10–12 sm uzunlikdagi nay bo‘lib, halqasimon tog‘aylardan iborat. Uning ichki devori shilliq qavat va tukchalar bilan qoplangan.

Vazifasi: Havo o‘pka tomon harakatlanishini ta’minlaydi. Tukchalar yordamida kirgan chang va mikroblarni yuqoriga surib, chiqarib tashlaydi. O’pka oldidan havo haroratini muvofiqlashtiradi.

Xulosa

Nafas olish tizimi inson hayotining asosi hisoblanadi. Chunki inson tanasining har bir hujayrasi faqat kislorod ta’sirida faoliyat yuritadi. Agar nafas olish jarayoni to‘xtasa, inson hayoti ham

to‘xtaydi. Shu bois nafas tizimini sog‘lom saqlash, toza havoda yashash va zararli odatlardan uzoq turish har bir insonning burchidir.

Nafas tizimi organlari – burun bo‘shlig‘i, halqum, traxeya, bronx va o‘pka – o‘zaro chambarchas bog‘liq holda ishlaydi. Har bir organning o‘ziga xos vazifasi bor. O’pkadagi alveolalar orqali gaz almashinuvi amalga oshadi, bu esa hayotning davomiyligini ta’minlaydi.

Nafas olish tizimi ajoyib va murakkab tizim bo‘lib, u karbonat angidrid chiqindilarini olib tashlash bilan birga tanani doimiy kislorod bilan ta’minlashni ta’minlaydi. Uning tuzilishi va funksiyalarini tushunish nafas olish salomatligining ahamiyatini tushunish uchun juda muhimdir. Sog‘lom turmush tarzi odatlarini qabul qilish va kerak bo‘lganda tez tibbiy yordam so‘rash orqali odamlar o‘zlarining nafas olish farovonligini saqlash va yaxshilash uchun faol choralar ko‘rishlari mumkin. Nafas olish tizimi ajoyib va murakkab tizim bo‘lib, u karbonat angidrid chiqindilarini olib tashlash bilan birga tanani doimiy kislorod bilan ta’minlashni ta’minlaydi. Uning tuzilishi va funksiyalarini tushunish nafas olish salomatligining ahamiyatini tushunish uchun juda muhimdir. Sog‘lom turmush tarzi odatlarini qabul qilish va kerak bo‘lganda tez tibbiy yordam so‘rash orqali odamlar o‘zlarining nafas olish farovonligini saqlash va yaxshilash uchun faol choralar ko‘rishlari mumkin.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. X. X. Xolmatov, “Inson anatomiyasi va fiziologiyasi”, Toshkent, 2021.
2. Jasvinder K. Randhava, Natasha Mehta “Tabiiy fanlar 6-sinf darslik”, Toshkent, 2024.
3. O’zbekiston Respublikasi XTV, “Biologiya o‘qituvchisi uchun metodik qo‘llanma”, 2023.
4. N. M. Karimova, “Inson salomatligi va ekologiya asoslari”, Toshkent, 2020.
5. Internet manbalari:
www.ziyonet.uz
www.biologiya.uz

DAVRIY TAHLILGA ASOSLANGAN VAQT QATORLARNI BASHORATLASHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

Normatova Malika Norqulovna
Guliston davlat universiteti doktoranti,
Tel: +998997234143
normatova.2989@gmail.com

Abstract: This article studies the methods of analysis and forecasting of time series based on periodic structures. Using modern statistical and neural networks, in particular ARIMA, SARIMA and LSTM models, the possibilities of identifying and forecasting periodic and sensitive changes in the economy and tax system of Uzbekistan are analyzed. The article emphasizes the importance of the periodic characteristics of tax collections and their application in forecasting.

Key words: Time series, periodic structures, ARIMA, SARIMA, neural networks (LSTM), forecasting, big data and artificial intelligence.

Аннотация: В статье рассматриваются методы анализа и прогнозирования временных рядов на основе периодических структур. С использованием современных статистических и нейронных сетей, в частности моделей ARIMA, SARIMA и LSTM, анализируются возможности выявления и прогнозирования периодических и чувствительных изменений в экономике и налоговой системе Узбекистана. В статье подчеркивается важность периодических характеристик налоговых поступлений и их применение в прогнозировании.

Ключевые слова: Временные ряды, периодические структуры, ARIMA, SARIMA, нейронные сети (LSTM), прогнозирование, большие данные и искусственный интеллект.

Annotatsiya: Ushbu maqola vaqt qatorlarini davriy strukturalarga asoslangan tahlil va bashorat qilish metodlarini o‘rganadi. Zamonaviy statistik va neyron tarmoqlari, ayniqsa, ARIMA, SARIMA va LSTM modellari yordamida, O’zbekiston iqtisodiyoti va soliq tizimidagi davriy va

sezgir o‘zgarishlarni aniqlash va prognoz qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada, soliq yig‘imlarining davriy xususiyatlari va ularning bashorat qilishda qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Vaqt qatorlari, davriy strukturalar, ARIMA, SARIMA, Neyron tarmoqlari (LSTM), prognoz, Big data va Sun’iy intellekt.

Kirish. Vaqt qatorlari tahlili va bashorat qilish sohasida davriy strukturalar va davriy o‘zgarishlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatda olib borilgan izlanishlar va amaliy yondashuvlar bilan, davriy tahlil va sun’iy intellekt texnologiyalarining soliq va iqtisodiy boshqaruvdagi roli muhum ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tish lozim. Zamonaviy algoritmlar va texnologiyalar yordamida vaqt qatorlarining davriy xususiyatlarini aniqlash va bashorat qilish jarayonlari samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu maqolada davriy tahlilga asoslangan vaqt qatorlarini bashoratlash uchun eng ilg‘or algoritmlar va texnologiyalar muhokama qilinadi. Maqolaning maqsadi — davriy strukturalarga asoslangan bashorat metodlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatish.

Vaqt qatorlari (time series) – bu ma’lumotlarning ketma-ketlikda vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ifodalovchi statistik ma’lumotlar to‘plamidir. Ular iqtisodiyot, moliya, energetika, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, davriy (sezonal) harakatlarni hisobga olgan holda bashorat qilish muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada davriy tahlilga asoslangan vaqt qatorlarini bashoratlash uchun eng samarali algoritmlar va texnologiyalar muhokama qilinadi.

Annotatsiya: O’zbekiston geografik o‘rniga ko‘ra ancha janubiy kengliklarda joylashgan. Shu sababli quyosh uni uzoq vaqt yoritib va isitib turadi. Hudud iqlimining vujudga kelishida uning geografik o‘rni va u bilan bog‘liq quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulatsiyasi, relyefi, yer yuzasining holati (yer yuzasi nimalar bilan qoplanganligi) va kishilarning xo‘jalik faoliyatlari (antropogen) ta’sir etadi. Chirchiq shaxrining iqlimi bir xil emas. Chirchiq shaxrining iqlimi Chirchiq-Ohangaron tabiiy okrugi iqlimidan kelib chiqib baholanadi. Uning tekislik qismiga ko‘proq Arktikaning sovuq hamda g‘arbdan esadigan iliq va nam havo massalarining oqimi kirib keladi.

Toshkent viloyati hududidagi tekisliklarda bo‘z tuproq, tog‘ etaklarida (500-600 m balandlikkacha) tipik bo‘z tuproq, undan balandroqda chimqo‘ng‘ir, yuqoriroqda o‘tloqidasht tuproq, yer osti suvi yuza joylashgan hududlarda o‘tloqi va botqoq tuproq, daryo vodiylarida allyuvial tuproqlardan iborat [2]. Chirchiq shahri hududi tuproqlari och bo‘z tuproqlar tarqalgan bo‘lib juda zichlashgan va ancha ekstremal rejimini keltirib chiqaradi, bu esa tuproq hosil bo‘lishida va unumdorligida aks etgan. Chirchiq shahri hududida tarqalgan tuproqlar profilining qizg‘ish - qo‘ng‘ir tusliligi, yirik chang va loyqa fraksiyalari ko‘p bo‘lgan holda mexanik tarkibining og‘irligi, gumus (1-1,2 %) va oziq moddalar (NPK) miqdorining ozligi, karbonatliligi, profilining zichlanganligi, g‘ovakligi, Mg va suv sindiruvchanligining pastligi va o‘simliklar o‘zlashtira oladigan namlikning kam miqdorda bo‘lishi xususiyatlari bilan liyoss yotqiziqlarda shakllangan tuproqlardan keskin farq qiladi. Bu tuproqlar ko‘pincha keng to‘lqinsimon va tog‘ va tog‘ oldi mintaqalarga mansub, yer yuzasining nishabliklari, gumusning ozligi, bahorgi kuchli yog‘inlar, shuningdek, chorva mollarini tartibsiz yaylovlatib boqish, lalmi va sug‘oriladigan yon bag‘irlik yerlardan noto‘g‘ri foydalanish eroziya jarayonlari rivojlanishga yordam beradi. O’z navbatida eroziya tuproqning kimyoviy, agrokimyoviy, agrofizik, biologik va morfologik ko‘rsatgichlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, unumdorligini keskin pasaytiradi. Subtropik zonaning asosiy tuproqlari bo‘lgan qizil tuproqlar (profilida temir va marganetsning yirik qora konkretsiya yaralmalari qizil rang beradi) qizg‘ish tusli tuproqlardan yuqori qatlamlarida gumus (6-9 % gacha) va azot (0,2-0,4) miqdorining ko‘pligi hamda tuproq fizik xossalarining ancha yaxshiligi, ayniqsa, suvga chidamli strukturaning ko‘pligi, eroziyaga qarshi tura olishi va suv o‘tkazuvchanligi bilan farq qiladi [1].

Hudud iqlimining vujudga kelishida uning geografik o‘rni va u bilan bog‘liq quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulatsiyasi, relyefi, yer yuzasining holati (yer yuzasi nimalar bilan qoplanganligi) va kishilarning xo‘jalik faoliyatlari (antropogen) ta’sir etadi [3].

O’zbekiston geografik o‘rniga ko‘ra ancha janubiy kengliklarda joylashgan. Shu sababli quyosh uni uzoq vaqt yoritib va isitib turadi. Lekin O’zbekiston hududi shimoldan janubga 925 km cho‘zilganligi tufayli quyoshning nuri uning hamma qismiga bir xil tushmaydi. Agar shimoliy qismiga yozda (22- iyunda) quyosh 71-72° burchak hosil qilib tushsa, janubida 76° ni tashkil etadi. Binobarin, shimolda quyosh yiliga 2500 - 2800 soat nur sochib tursa, janubda 3000-3100 soat nur sochib turadi. Shu sababli O’zbekistonni «serquyosh o‘lka» deb yuritiladi. O’zbekistonning yil davomida har bir sm^2 yuza qismi quyoshdan shimolda 130, janubda 160 kkal radiatsiya (issiqlik energiyasi) oladi. O’zbekiston hududiga yiliga o‘rtacha tushayotgan quyosh energiyasining miqdori 30 mlrd tonna ko‘mir ekvivalentiga teng. O’zbekiston iqlimining vujudga kelishida atmosfera sirkulatsiyasining ahamiyati katta. Qishda O’zbekiston hududiga shimoli-sharqdan Sibir antisiklon havo massalari, shimoldan Arktika havo massalari kirib kelib, uning janubiy qismlarigacha yetib boradi. Natijada havo ochiq bo‘ladi, lekin harorat pasayib, sovib ketadi.

Toshkent viloyatining iqlimi keskin kontinental. Qishi nam, nisbatan iliq, yozi uzoq, issiq va quruq. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi -1,3°, -1,8°, eng past temperatura −34° (tekislikda), −38° (tog‘ etaklarida), iyulning o‘rtacha tempaturasi 26,8°, eng yuqori temperatura 43-47°. Tekislik qismida yiliga 250 mm, tog‘ oldilariga 350-400 mm, tog‘larda 500 mmgacha yog‘in yog‘adi. Yog‘inning ko‘p qismi bahor va qishda yog‘adi. Qor tog‘lardagina uzoqroq saqlanadi. Vegetatsiya davri tekislik qismida 210 kun.

Chirchiq shaxrining iqlimi bir xil emas. Chirchiq shaxrining iqlimi Chirchiq-Ohangaron tabiiy okrugi iqlimidan kelib chiqib baholanadi. Uning tekislik qismiga ko‘proq Arktikaning sovuq hamda g‘arbdan esadigan iliq va nam havo massalarining oqimi kirib keladi. Uning yozi issiq va quruq aksincha, tog‘li qismi nisbatan salqin va namroq. Yozning eng issiq kunlarida harorat tekislik qismida +44°C gacha, tog‘larda esa undan past. Qish yanvarning o‘rtacha harorati tekisliklarda –1 – 2°C, eng sovuq harorat –30°C atrofida bo‘ladi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Холматов Х.Х., АхмедовУ.А. Фармакогнозия. – Тошкент: Ибн-Сино, 1995. – 525 б.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_viloyati.
3. https://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/142-chirchiq-ohangaron-tabiiy-geografik-okrugi.html
4. Тожибаев К.Ш. Флора Юго-Западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан). Дис....докт.биол. наук. – Ташкент, 2010. – 178 с.

BIOLOGIYA DARSLARIDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI (8-sinf misolida)

Atabayeva Damira Turdibekovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kefedrasi
katta o‘qituvchisi
Qo‘zimurodova Mushtariy Akbaraliyevna
Hayitboyeva Shoira Alisher qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi 3-kurs talabalari
Telefon: +998998693584
Email:atabayeva1982@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada 8-sinf biologiya darslarida xorijiy tajribalarni qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy-uslubiy tahlil qilingan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan konstruktivistik yondashuv, STEAM integratsiyasi, tadqiqotga asoslangan ta’lim (Inquiry-based learning) hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi metodlar o‘quvchilar bilimlarini chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi. Mazkur tajribalarni 8-sinf biologiya kursiga tatbiq etish, ayniqsa murakkab bo‘lgan yurak, qon aylanish tizimi, nafas olish va

o‘simliklarda fotosintez jarayonlarini o‘quvchilar tomonidan oson va ko‘rgazmali tarzda o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, darslarda virtual laboratoriya, 3D animatsiyalar, mikroskop simulyatorlari va amaliy loyihalardan foydalanish o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlash, tajriba o‘tkazish va ilmiy xulosa chiqarishga yo‘naltiradi. Maqolada ushbu jarayonning afzalliklari, amaliy misollari va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, 8-sinf biologiya, xorijiy tajriba, STEAM yondashuvi, konstruktivistik ta’lim, tadqiqotga asoslangan o‘qitish, Inquiry-based learning, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriya, 3D animatsiya, o‘quvchi faolligi, amaliy ko‘nikmalar, ta’lim samaradorligi, innovatsion metodlar, biologiya darslari.

Аннотация. В данной статье представлен методический и аналитический обзор эффективности использования зарубежного педагогического опыта на уроках биологии в 8-м классе. Современные образовательные подходы, применяемые в развитых странах, такие как конструктивистское обучение, интеграция STEAM, обучение на основе исследования (Inquiry-based learning), а также использование цифровых технологий, играют важную роль в углублении понимания учащимися биологических процессов. Внедрение данных методов в программу биологии 8-го класса особенно эффективно при изучении сложных тем, таких как сердце, система кровообращения, дыхательная система и процесс фотосинтеза. Применение виртуальных лабораторий, 3D-анимаций, симуляторов микроскопа и проектной деятельности повышает интерес учащихся к предмету, способствует развитию самостоятельного мышления, умению проводить эксперименты и делать научные выводы. В статье рассмотрены преимущества данного подхода, приведены практические примеры и предложены рекомендации по совершенствованию преподавания биологии на основе лучших мировых практик.

Ключевые слова: биологическое образование, биология 8 класса, зарубежный опыт, подход STEAM, конструктивистское обучение, исследовательское обучение (Inquiry-based learning), цифровые технологии, виртуальная лаборатория, 3D-анимация, вовлечённость учащихся, практические навыки, эффективность обучения, инновационные методы, уроки биологии.

Annotation. This article provides a methodological and analytical overview of the effectiveness of incorporating international educational practices into 8th-grade biology lessons. Modern teaching approaches used in developed countries—such as constructivist learning, STEAM integration, inquiry-based learning, and the application of digital technologies—play a significant role in deepening students’ understanding of biological concepts. Implementing these approaches in the 8th-grade biology curriculum is particularly beneficial for teaching complex topics such as the heart, circulatory system, respiratory system, and photosynthesis processes. The use of virtual laboratories, 3D animations, microscope simulators, and project-based activities enhances students’ interest in the subject, encouraging them to think independently, conduct experiments, and draw scientific conclusions. Integrating foreign teaching practices into the local educational process leads to noticeable improvements in students’ knowledge quality, competencies, and practical skills. This article highlights the advantages of such integration, provides practical examples, and offers recommendations for improving the teaching and learning of biology through global best practices.

Keywords: biology education, 8th grade biology, foreign experience, STEAM approach, constructivist teaching, inquiry-based learning, digital technologies, virtual laboratory, 3D animation, student engagement, practical skills, learning effectiveness, innovative methods, biology lessons.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim sohasida ilg‘or jahon tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, biologiya fanini o‘qitishda xorijiy metodikalar, zamonaviy texnologiyalar, interfaol yondashuvlar hamda xalqaro baholash tizimlari (PISA, TIMSS, Cambridge tizimi)dan o‘rganilgan usullar o‘quvchilarning fanlarni chuqur anglashiga, mantiqiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. 8-sinf biologiya kursi murakkab mavzularni

o‘z ichiga olgani sababli, bu bosqichda xorijiy tajribalarni joriy etish ayniqsa samarali natijalar beradi.

Adabiyatlar tahlili va metodologiyasi

Biologiya ta’limida xorijiy tajribalarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar — AQSh, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Germaniya ta’lim tizimida konstruktivistik yondashuv, STEAM integratsiyasi, raqamli laboratoriyalar hamda tadqiqotga asoslangan ta’lim usullari keng qo‘llaniladi [1][2]. Piaget [3], Vygotskiy [4], Bruner [5] kabi pedagog olimlarning konstruktivizmga oid qarashlari biologiya darslarida o‘quvchi faoliyatini kuchaytirish, bilimni mustaqil izlanish orqali egallashga undashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha chop etilgan hisobotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha yuqori natija ko‘rsatgan mamlakatlarda ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan metodlar asosiy o‘rin tutishi qayd etiladi [6]. Xususan, Singapur ta’limi bo‘yicha ilmiy maqolalarda “Inquiry-based learning” modeli o‘quvchilarni savol berish, eksperiment o‘tkazish va tahlil qilishga undashi bilan samarali ekani ta’kidlanadi [7].

Biologiya fanini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish bo‘yicha Xalqaro Ta’lim Tadqiqotlari Markazi (ICER) nashrlarida fanlararo integratsiya o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirib, murakkab jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam berishi ilmiy asoslangan [2]. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar (virtual mikroskoplar, 3D animatsiyalar, simulyatorlar)ning qo‘llanishi dars motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasini oshirishini tasdiqlovchi ko‘plab tadqiqotlar mavjud [6].

Xorijiy tajribalarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etishning asoslari


1. Konstruktivistik yondashuv (AQSh, Kanada tajribasi) Ushbu yondashuvda o‘quvchi dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. O’qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Biologiya darslarida bu yondashuv quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tajriba va eksperimentlar o‘tkazish;
- muammoli vaziyatlar yaratish;
- o‘quvchilarni kichik guruhlar orqali izlanishga yo‘naltirish.

Samarasi: o‘quvchilar mavzuni mustaqil izlanish orqali o‘zlashtiradi, bu esa chuqur va barqaror bilimlar shakllanishiga olib keladi.

2. STEAM conative (Finlyandiya, Koreya modeli)


Biologiya fanini texnologiya, muhandislik, matematika va san’at bilan integratsiya qilish orqali chuqur tushuncha hosil qilinadi (1-rasm).




1-rasm. STEAM

Masalan, 8-sinfda “Yurak va qon aylanish tizimi” mavzusini o‘rganishda:

-yurak modeli yasash (E – engineering), qon aylanish jarayonini raqamli grafiklarda tahlil qilish (T va M – technology & math), jarayonni vizual dizaynlar orqali ifodalash (A – art). Quyida keltirilgan rasmda qo‘l mehnatidan foydalanib yurak va qon aylanish sitemasining modeli keltirilgan (2-rasm).





2-rasm. Yurak va qon aylanish sitemasining modeli

Samarasi: fanlararo bog‘liqlik kuchayadi, o‘quvchilarda murakkab biologik jarayonlarni tizimli anglash qobiliyati oshadi.

3. “Inquiry-based learning” – tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim (Singapur modeli). Bu modelda har bir mavzu tadqiqot savoli orqali boshlanadi. Masalan, “Nima uchun yurak urish tezligi jismoniy mashqda oshadi?” kabi savollar o‘quvchilarni tajriba o‘tkazishga undaydi.

Samarasi: o‘quvchilarda ilmiy izlanish, tajriba loyihalash va natijani tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

4. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash (Yaponiya, Germaniya tajribasi)

8-sinf biologiya kursida quyidagilar samarali:

3D animatsiyalar (organlar tuzilishi), virtual laboratoriyalar (mikroskop tajribalarini onlayn bajarish), simulyatorlar (nafas olish, qon aylanish jarayonlari), mobil ilovalar orqali test va mashg‘ulotlar.

Samarasi: murakkab jarayonlar aniq, ko‘rgazmali va qiziqarli bo‘ladi, dars motivatsiyasi oshadi.

Xorijiy tajribalarni qo‘llashning 8-sinfdagi natijalari

1. Bilimlar samaradorligining oshishi

Tajriba o‘tkazilgan sinflarda o‘quvchilarning biologiya fanidan o‘zlashtirish darajasi 20–30% ga ortgani kuzatilgan (kuzatuv ma’lumotlari asosida). Xususan:

organlar tizimlari mavzulari chuqurroq o‘zlashtiriladi; laboratoriya ishlarining mazmunini tushunish yengillashadi; test natijalari yaxshilanadi.

2. Qiziqish va motivatsiyaning oshishi

Interfaol metodlar va texnologiyalar orqali biologiya fani o‘quvchi uchun ko‘rgazmali, qiziqarli va hayotiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

3. Amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi

O’quvchilar: mikroskopda ishlash, eksperiment rejalashtirish, natija chiqarish, raqamli vositalardan foydalanish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

4. Tanqidiy va mantiqiy fikrlash shakllanadi

Xorijiy tajribalar o‘quvchilarni faqat eslab qolishga emas, balki tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Xulosa. Xorijiy tajribalarni 8-sinf biologiya darslariga tatbiq etish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarni faollashtiradi, fanlarni tizimli anglashga undaydi, raqamli ko‘nikmalarni shakllantiradi va o‘quvchilarda real ilmiy tadqiqotga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Shunday ekan, o‘qituvchilar tomonidan jahonning ilg‘or metodikalarini mahalliy o‘quv jarayoniga moslashtirish zamon talabi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner, J. (1960). The Process of Education. Harvard University Press.

Bybee, R. W. (2013). The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. Arlington: NSTA Press.
2. Piaget, J. (1970). Science of Education and the Psychology of the Child. New York: Viking Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Lind, K., & Morrison, J. (2016). Teaching Science Through Inquiry and Technology. Routledge.
5. TIMSS & PISA Reports. (2015–2023). International Assessments of Student Achievement in Science. Boston College, IEA.
6. Singapore Ministry of Education. (2017). Inquiry-based Learning in Science. Singapore: MOE.
7. Raxmonov, Sh. (2020). Biologiya ta'limida STEAM integratsiyasi. Toshkent: Fan.
8. Jalilov, A. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalar biologiya darslarida. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANIB BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH

Atabayeva Damira Turdibekovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kefedrasi
katta o'qituvchisi
Hayitboyeva Shoira Alisher qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi
Telefon: +998998693584
Email:atabayeva1982@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada biologiya ta'limida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish jarayonidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari yoritilgan. Shuningdek, milliy ta'lim tajribasini boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: biologiya ta'limi, STEM innovatsion texnologiyalar, xorijiy tajriba, milliy tajriba, kompetensiya, ta'lim sifati.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Biologiya fani — o'quvchilarda tabiatni anglash, ekologik madaniyatni shakllantirish va ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda asosiy fanlardan biri sifatida — innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularni milliy ta'lim sharoitlariga moslashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Asosiy qism. Dunyoning rivojlangan davlatlarida biologiya ta'limida quyidagi yondashuvlar keng qo'llanadi:

- STEAM yondashuvlari orqali fanlararo integratsiyani ta'minlash;
- Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) usuli yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish;
- Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari orqali tajriba ishlarini onlayn shaklda bajarish imkoniyati;
- O'quvchilarda kritik tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan dars metodlari. Masalan, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Germaniya ta'lim tizimlarida biologiya fanida ko'proq interaktiv laboratoriya ishlari, ekologik loyihalar, dala amaliyotlari keng joriy etilgan. O'qituvchi bu jarayonda yo'lboshchi va maslahatchi rolini bajaradi.

Muammolar va ularning yechimlari

Muammo yechim

Laboratoriya jihozlarining yetishmasligi virtual laboratoriyalar va onlayn simulyatorlardan foydalanish. Biologiya darslarining nazariy yo‘nalishga og‘ib ketishi, loyiha asosida o‘qitish, dala mashg‘ulotlari tashkil etish. O’qituvchilarning xorijiy metodikalardan xabardorligi pastligi, malaka oshirish dasturlariga xalqaro tajribalarni kiritish. O’quvchilarning motivatsiyasi pastligi interaktiv o‘yinlar, gamifikatsiya va muammoli ta’lim usullarini joriy etish.

7-sinf biologiya fani misolida STEAM yondashuvlari orqali fanlararo integratsiyani ta’minlash haqida batafsil tushuntirish beraman.

STEAM – bu Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at, ijodkorlik) va Mathematics (matematika) sohalarini birlashtirgan ta’lim yondashuvidir.

Ularning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda fanlararo bog‘liqlikni anglash, muammoni kompleks yechish ko‘nikmalarini shakllantirish, va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir.

7-sinf biologiya fani misolida fanlararo integratsiya

7-sinf biologiya kursida asosan inson va hayvon organizmi, o‘simliklarning tuzilishi, hujayra, fiziologik jarayonlar kabi mavzular o‘rganiladi. Shu mavzular asosida STEAM integratsiyasi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

Mavzu: “Fotosintez jarayoni”

Fanlararo bog‘lanish:

S (Science): O’simlik barglarida fotosintez jarayonining mohiyati o‘rganiladi.

T (Technology): Internetdan foydalanib, fotosintez modellarini animatsiya orqali tahlil qilish (masalan, PhET simulatsiyasi).

E (Engineering): “Mini issiqxona” yoki “yorug‘lik filtrlari” loyihasini yaratish - o‘simlik o‘sishini kuzatish uchun.

A (Art): Fotosintez jarayonining vizual modeli, plakat yoki 3D maketini chizish.

M (Math): Yorug‘lik intensivligi bilan o‘simlik o‘sish tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisoblash.

Natija: o‘quvchilar fotosintezning nazariy mexanizmini nafaqat tushunadi, balki uni tajriba asosida tahlil qiladi, natijalarni o‘lchaydi va ijodiy ifodalaydi.

Mavzu: “Inson qon aylanish tizimi”

Fanlararo bog‘lanish:

S: Yurak va qon tomirlarning tuzilishi, qon aylanish jarayonini o‘rganish.

T: Virtual laboratoriyada yurak urishi modellarini kuzatish, raqamli stetoskoplardan foydalanish.

E: “Yurak maketi” yoki “qon oqimi modeli”ni konstruksiyalash (oddiy materiallardan).

A: Yurak faoliyatini ifodalovchi infografika yoki 3D san’at ishi yaratish.

M: Yurak urish tezligi, qon bosimi, puls va ularning o‘zgarishini grafikda ifodalash.

Natija: o‘quvchilar inson organizmidagi jarayonlarni tahlil qiladi, texnologiya va matematika yordamida biologik hodisalarni o‘lchash va modellashtirishni o‘rganadi.

Mavzu: “Ekotizimlar va ularning barqarorligi”

Fanlararo bog‘lanish:

S: Ekotizimlarning turlari, oziq zanjiri, modda aylanishi.

T: Kompyuter dasturida ekotizim modelini yaratish (masalan, “Ecosystem simulator”).

E: Ekologik muammolarni hal etuvchi maket (filtratsiya tizimi, suv tozalash modeli).

A: Ekotizimdagi organizmlarni vizual tarzda tasvirlash, ekologik postyer tayyorlash.

M: Populyatsiya soni, energiya oqimi yoki modda aylanishini foiz va grafiklarda ifodalash.



1-rasm. Okean ekosistemasi

Natija: o‘quvchilar ekologik muammolarni ilmiy asosda hal qilish yo‘llarini taklif etadi, tabiatni muhofaza qilish g‘oyalarini ijodiy shaklda ifodalaydi.

Fanlararo integratsiyaning afzalliklari

Afzallik tavsif:

- Amaliy fikrlash - o‘quvchi nazariy bilimni hayotiy vaziyatda qo‘llaydi
- Ijodiy yondashuv - har bir loyiha san’at va dizayn orqali ijodiy ifodalanadi
- Jamoaviy ish o‘quvchilar guruhda loyiha yaratish orqali hamkorlikni o‘rganadi
- Analitik ko‘nikma - hisoblash, kuzatish, tajriba va tahlil ko‘nikmalari shakllanadi

Xulosa. 7-sinf biologiya darslarida STEAM yondashuvlarini qo‘llash o‘quvchilarda fanga qiziqishni oshiradi, ularni ilmiy, texnologik va ijodiy fikrlashga undaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni kelajakda ekolog, biolog, muhandis, texnolog yoki dizayner sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Biologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, virtual laboratoriyalar, loyihaviy faoliyat va ekologik ta’lim komponentlarini uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini, ekologik mas’uliyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shunday qilib, xorijiy va milliy tajribalarni uyg‘un qo‘llash ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

9. Bequette, J. W., & Bequette, M. B. (2012). A Place for Art and Design Education in the STEM Conversation. Art Education, 65(2), 40–47.
10. Raxmonov, Sh. (2020). Biologiya ta’limida STEAM integratsiyasi. Toshkent: Fan.
11. Jalilov, A. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalar biologiya darslarida. Toshkent: O’qituvchi nashriyoti.

LANDSHAFTLAR VA ULARNING TARKIBIY QISMILARI

Toshov Xudoynazar Ramazonovich

Muxammadova Mahliyo Hafiz qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya” kafedrasi professori g.f.n va o‘qituvchisi

Annotatsiya: Landshaftshunoslik fani kishilik jamiyatining amaliy talablariga bog‘liq holda shakllandi va rivojlanib kelmoqda. Hozirgi vaqtda bu fan inson bilan tabiat orasidagi o‘zaro aloqalar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish va rosmana madaniy landshaftlarni barpo qilishning muhim qoida va usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanmoqda. Landshaft

haqidagi ta’limot esa geografiya fanining eng muhim nazariy fikrlar majmuasi sifatida, uning eng asosiy qismi sifatida tabiiy geografiyaning amaliy hayotga kirib borishiga sharoit yaratib berdi hamda ilmiy nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: Landshaflar, landshaftlarning tarkibiy qismlari, joy, urochishe, fatsiya,

Kishilik jamiyati rivojlanib borgani sayin uning tabiatga, atrof-muhitga ta’siri, tabiiy boyliklardan foydalanish me’yori, tabiatni o‘zgartirish imkoniyati ortib boradi. Buning oqibatida tabiatning inson hayotiga va uning xo‘jalikdagi faoliyatiga qiladigan teskari ta’siri ham namoyon bo‘la boshlaydi. Jamiyat bilan tabiat o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikda yuzaga keladigan nomutanosiblik ayrim hollarda salbiy oqibatlarga, hatto ekologik tanazzulga olib keladi. Bunday hollar dastavval kichik hududlarda, keyinchalik katta hududlarda namoyon bo‘lib, oxir-oqibat dunyoviy tus olishi ham mumkin. Natijada mavjud tabiiy resurslardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish, ularni ifloslanish va zaharlanishdan oldini olish, inson yashab turgan muhitni har tomonlama yaxshilash va samaradorlashtirish masalasi yuzaga keladi. Bu masala har tomonlama o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan, murakkab va juda serqirra bo‘lgan masaladir. Uni ijobiy hal qilish, har jihatdan ham, mustahkam ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Ana shu ilmiy asosni ishlab chiqishda turli-tuman fanlar qatorida kichik hududlar tabiiy geografiyasi, ya’ni landshaftshunoslikning ham ahamiyati kattadir. Insonning xo‘jalikdagi faoliyati, u yerni haydab ekin ekadimi, daraxtzorlar barpo etadimi, yo‘llar, kanallar, suv omborlari, sanoat obyektlari yoki shaharlar quradimi, aynan ana shu kichik hududlarda olib boriladi. Shuning uchun ham N.A.Solntsev (1963) kichik hududlarni tabiiy geografik jihatdan o‘rganishning xalq xo‘jalik nuqtayi nazaridan ahamiyati nihoyatda katta ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Kichik hududlarni, ya’ni landshaft va uning morfologik qismlarini tadqiq qilish, albatta, dalada izlanishlar olib borishni talab qiladi. Bunday izlanishlar natijasida to‘plangan ma’lumotlar va ayniqsa, tuzilgan landshaft xaritalari keyinchalik turli-tuman maxsus amaliy xaritalarni yaratishda, tabiat muhofazasi va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning chora-tadbirlarini ishlab chiqishda aniq va ishonchli ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, O’zbekistonning ekologik xaritasi va O’zbekistonning tabiatini muhofaza qilish xaritasini tuzishda (A.A.Rafiqov va b., 1992, 2003) landshaftlar xaritasidan foydalanilgan. Masalan, epimorfa (R.I.Abolin, 1914), elementar landshaft (B.B.Polinov,1915), mikrolandshaft (I.V.Larin,1926), epifatsiya (L.G.Ramenskiy, 1938), biogeosenoz (V.N.Sukachev, 1948) va fatsiya (L.S.Berg, 1945; N.A.Solntsev, 1949). Bu atamalardan landshaftshunoslar tomonidan e’tirof etilib, foydalanib kelinayotgani fatsiyadir. "Fatsiya" atamasi landshaftshunoslikka L.G.Ramenskiy (1935) va L.S.Berg (1945) tomonidan kiritilib, lotincha "facies", ya’ni "tashqi qiyofa" ma’nosini anglatadi. Nemis olimlari (Neef, 1963; Xaaze, 1971) ko‘proq "top" atamasidan foydalanadilar. Bu atama "topos", ya’ni "joy", degan ma’noni anglatib, fatsiya atamasini to‘ldiradi. Fatsiya dala sharoitida aniqlab, xaritaga tushirib olish unchalik qiyin bo‘lmagan, nisbatan oddiy tuzilgan eng kichik geotizimdir. Shuning uchun fatsiyani ba’zan "geografik molekula"ga, landshaftlar "atomlari"ga, yoki "tirik organizmdagi hujayra"ga o‘xshatishadi. Fatsiyalar boshqa tabiiy hududiy komplekslarga bo‘linmaydi. Bo‘lingan taqdirda ham ular tabiiy hududiy kompleksning elementlarigagina bo‘linishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda uchraydigan "elementar landshaft", "biogeosenoz turi", "landshaftning elementar bo‘lagi" kabi atamalar ham fatsiyaning sinonimlaridir. M.A.Glazovskaya (1988) ham fatsiyani "Eng oddiy (elementar) landshaft − geokimyoviy tizim", deb ataydi va uning ichki tuzilishini quyidagi shaklda tasavvur qiladi. Har bir fatsiya hududida ustki tog‘ jinslarning litologik tarkibi bir xil, relyef xarakteri va namlanishi bir xil bo‘lib, mikroiqlimda va tuproqlarida tafovut bo‘lmasligi hamda bitta biostenoz bilan tavsiflanishi kerak. Ya’ni landshaftning morfologik birligi sifatida ajratiladigan fatsiyaning eng asosiy xususiyati shundaki, uni hosil qiluvchi komponentlariga xos bo‘lgan belgilari (ular, albatta, o‘zaro aloqador va bog‘liq ekanligini nazarda tutgan holda) bir xilligi bilan tavsiflanadi. Fatsiyalar geotizimlar ichida eng ochig‘i hisoblanadi va faqat qo‘shni fatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi sharoitidagina shakllanadi, rivojlanadi va dinamikada bo‘ladi. Ularning dinamik holati boshqa geotizimlardagidan kuchliroq bo‘ladi. Shuning uchun landshaftning tabiiy komponentlari va morfologik qismlari orasida ro‘y beradigan modda va energiya almashinishi jarayonini faqat fatsiyalar miqyosidagina emas, balki landshaft doirasida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan fatsiyalar tizimi miqyosida o‘rgangan

ma’qul. Fatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u o‘zidan katta bo‘lgan boshqa geotizimlarga nisbatan tashqi kuchlar ta’siriga beriluvchan va tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Buning sababi shundaki, fatsiya doirasida uning komponentlari orasidagi aloqadorlik va bog‘liqlik boshqa geotizimlardagidan 90 ko‘ra mo‘rtroq, tez shikastlanuvchan, tashqi omillar ta’siriga chidamsizroq ekanligidadir. Shuning uchun ham insonning xo‘jalikdagi faoliyatini geotizimlarga ta’siri va uning o‘ziga xos oqibatlari dastavval fatsiyalar miqyosida ro‘y beradi. Jumladan, bunday o‘zgarishlar fatsiyalarning eng harakatchan, o‘zgarishga moyilroq bo‘lgan biotik komponentlarida ko‘zga tashlanadi va keyinchalik ularning boshqa xususiyatlari: mikroiqlimi, namlanishi, issiqlik tartibi kabilarni o‘zgarishiga olib keladi. Geologik geomorfologik shart-sharoitlari ko‘pincha o‘zgarmay qoladi. Shu sababli fatsiyalarga bo‘ladigan inson ta’siri to‘xtatilsa, o‘zgargan fatsiyalar yana o‘zining avvalgi holatiga qaytishga harakat qiladi. Fatsiyalar, odatda, yirik miqyosdagi landshaft xaritalaridagina aks ettirilishi mumkin. Ammo landshaftlarning morfologik tuzilishini qaysi miqyosda o‘rganilishidan qat’i nazar, baribir fatsiyalarni tadqiq qilishga alohida e’tibor berilishi kerak. Chunki har qanday landshaftning paydo bo‘lishi, yashashi va rivojlanishida fatsiyalarning va ularda ro‘y beradigan modda va energiya almashinishini bilishning ahamiyati kattadir. Fatsiyalar tabiatda son jihatidan juda ko‘p bo‘lganligi uchun ularning har birini alohida-alohida hamda mukammal tadqiq qilishining iloji bo‘lmay qoladi. Natijada ularni tasnif qilish zaruriyati tug‘iladi. Fatsiyalar tasnifi bilan shug‘ullanganlardan biri B.B.Polinovdir (1956). U kimyoviy unsurlarning migratsiyasi shart-sharoitlarini tahliliga asoslagan holda fatsiyalarning uchta asosiy turini ajratadi. Bular: elyuvial, superakval, subakval fatsiyalardir. Elyuvial fatsiyalar asosan relyefning do‘ng joylariga, atrofdan ko‘tarilib turgan suvayirg‘ich yerlarga to‘g‘ri keladi. Bunday fatsiyalarda tuproq hosil bo‘lish jarayoni, o‘simliklar hayoti, moddaning fatsiyaga kirib kelishi, asosan, atmosfera orqali bo‘lib, yer osti suvlarining ishtirokisiz o‘tadi. Subakval fatsiyalar, asosan, relyefning pastqam joylarida suv to‘planib qolishi natijasida hosil bo‘lgan katta-kichik suv havzalarining ostida shakllanadi. Bunday fatsiyalarda ham moddaning kelishi ketishidan ustun bo‘ladi. Subakval fatsiyalarda o‘simlik va hayvonlarning alohida o‘ziga xos yashash shakllari kuzatiladi. Suv havzalarida tevarak-atrofdagi baland joylardan yuvilib kelgan kimyoviy unsurlar ichida eng harakatchanlarining ustunligi kuzatiladi. B.B.Polinov tomonidan ishlab chiqilgan bu tasnifning ko‘rinishi turli landshaftlar sharoitida ishlatilishi mumkin bo‘lgan umumiy ko‘rinishdagidek bo‘lib, har bir o‘ziga xos mahalliy sharoitda oraliq fatsiya turlari bilan to‘ldirilishi va aniqlashtirilishi mumkin. Masalan, M.A.Glazovskaya (1964) yonbag‘irlarning yuqori qismida transelyuvial, yonbag‘irlarning quyi qismida elyuvial-akkumlyatsiya, pastqam, ammo yer osti suvlari chuqur bo‘lgan joylarda akkumlyativ-elyuvial fatsiyalarni ajratishni hamda superakval fatsiyalarni 92 superakval va transsuperakval fatsiyalarga, subakval fatsiyalarni esa akval va transakval fatsiyalarga ajratishni taklif etadi. Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng asosiylaridan yana biri urochishedir. Urochishe bir mezorelyefda joylashgan tabiiy hududiy kompleks bo‘lib, genetik va dinamik jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lgan fatsiyalar tizimidan iboratdir. Landshaftlarning alohida urochishelarga bo‘linishida uning litogen asosi − relyef hamda tog‘ jinslarining litologik tuzilishi asosiy ahamiyatga egadir. Urochishelar landshaftda egallagan maydoni va tarqalishiga qarab asosiy (yoki hukmron) hamda ikkinchi darajali urochishelarga bo‘linadi. Asosiy urochishelar landshaftlarning morfologik strukturasini belgilab berishi bilan birga keng ko‘lamda tarqalganligi bilan, ikkinchi darajali urochishelar esa tarqalish ko‘lami kamligi bilan tavsiflanadi. Urochishelar o‘zining ichki tuzilishiga qarab oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Oddiy urochishelarda mezorelyefning har bir qismi faqat bitta fatsiya bilan band bo‘ladi. Murakkab urochishelar tarkibida esa mezorelyefning bir qismida fatsiyalar tizimi yoki urochishecha (podurochishe) joylashgan bo‘ladi. Urochishecha oraliq birlik bo‘lib, asosan mezorelyefning bir qismida joylashgan fatsiyalar to‘yimli moddalar, namlik va issiqlik taqsimlanishidagi jarayonlarning umumiyligi bilan bir-biriga bog‘liqdir. Masalan, urochishechalar bir urochishening ichida turlicha ekspozitsiyaga ega bo‘lgan hollarda ajratilishi mumkin. Urochishelar ham fatsiyalar yoki landshaftlar kabi yer yuzasida keng tarqalganligi sababli ularni ham ma’lum guruhlarga yoki sinflarga birlashtirish, ya’ni tasnif qilishga to‘g‘ri keladi. Urochishelarning dastlabki tasnifini Y.N.Seselchuk (1963) bajargan. To‘rt pog‘onalik bu tasnif tur-kichik tur-xil kichik xil ko‘rinishida

bo‘lib, eng katta birlik sifatida urochishe turi ajratilishi kerakligini ko‘rsatadi. Urochishe turlari mezorelyef shakllarining kelib chiqishi, dinamikasi hamda mexanik va biokimyoviy rivojlanishi yo‘nalishidagi 93 o‘xshashliklar asosida ajratiladi. Keyingi birlik − kichik tur ham shu asosida, ammo yanada aniqlashtirilgan holda ajratiladi. Urochishelarning keyingi tasnif birligi – xildir. Xillar asosan urochishelarni tashkil qiluvchi tub fatsiyalarning tuproq-o‘simlik qoplamidagi o‘xshashliklarga asosan aniqlanadi. Kichik xillar esa urochishelardagi tuproq-o‘simlik qoplamining shakllanishidagi azonal (zonal bo‘lmagan) omillardagi o‘xshashliklar asosida aniqlanadi. Urochishelar tasnifining yanada mukammalroq ko‘rinishdagisini A.A.Vidina (1973) tavsiya etgan. U O’rtarus balandligining g‘arbiy yonbag‘ridan oqib tushadigan ikki daryo (Vitebeta va Nugra) havzalarida joylashgan 950 ta urochishe va urochishechalarni aniqlab xaritaga tushirgan va tasnif qilgan. U bajargan urochishelar tasnifi 6 ta jadval ko‘rinishida bo‘lib, ularda urochishe va urochishechalar eng avval morfogenetik jihatdan tutgan o‘rniga ko‘ra 5 ta katta guruhga, keyin geomorfologik belgilar asosida 48 ta variantga va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning xususiyatlari asosida yana 50 ta variantga bo‘lib tashlangan. Mazkur tasnif, asosan, urochishe va urochishechalarning muhim xususiyatlarini belgilab beradigan geologik, geomorfologik, gidrologik va tuproq omillarini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘lib, ayrim hollardagina geobotanik omilga e’tibor berilgan. A.G.Isachenko (1965) fikricha, urochishelarni tasnif qilayotgan vaqtda ularning zonal va provinsial xususiyatlari hisobga olinishi va har bir tur yoki xilga mos bo‘lgan fatsiyalar majmuasiga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Umuman olganda, urochishelar tasnifi xuddi fatsiyalar tasnifi kabi puxta va har tomonlama mukammal ishlab chiqilmagan. Buning asosiy sababi landshaftlarning morfologik qismlarini xaritaga tushirish tajribasi ham kam ekanligidadir. Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng kattasi joy (mestnost) deb ataladi. Joy deganda, ma’lum landshaft uchun xos bo‘lgan urochishelar yig‘indisining alohida varianti tushuniladi.

Geografik adabiyotda "joy turi" degan atama ham tez-tez uchrab turadi (F.N.Milkov, 1956). Joy turlari landshaftlarning morfologik qismi hisoblanmaydi-ku, ammo u ham xo‘jalikda foydalanishi nuqtayi nazaridan qaraganda, nisbatan bir xil bo‘lgan yirik tabiiy hududiy kompleksdir va urochishelarning majmuidan iboratdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. SH.S.Zokirov, X.R.Toshov “Landshaftshunoslik” Toshkent-2016. 251b
2. Назаров И. Қ., Тошов Х. Р. Чўл ландшафтларини таснифлашнинг асосий тамойиллари. // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. − Т., № 32. 2008.
3. Назаров И.К. География фанининг асосий муаммолари. (ўқув қўлланма) Тошкент: Муҳаррир, 2013. − 212 б.

GEOGRAFIK LANDSHAFTLAR VA ULARNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI.

Toshov Xudoynazar Ramazonovich,
Muxammadova Mahliyo Hafiz qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya” kafedrasi professori g.f.n va o‘qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqola yosh avlodni geografik landshaftlar haqidagi bilimlarini oshirishga va tabiiy geografiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish va talaba yoshlar g‘oyalarini tadbiq qilishini o‘rganishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Landshaftlar, geografik landshaftlar, tarkibiy-genetik yo‘nalish, funksional-dinamik yo‘nalish, landshaftlar geokimyosi, landshaftlar geofizikasi.

Landshaft so‘zi aslida nemischa bo‘lib, (Land yer va schaft o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni aks ettiruvchi suffiks), umumadabiy tilda manzara, joyning ko‘rinishi degan ma’noni anglatadi.

Landshaft atamasi geografiyaga dastavval deyarli bir vaqtda A.A.Borzov, L.S.Berg, L.M.Krasheninnikov, L.F.Morozovlarning ilmiy ishlari orqali tabiiy geografik kompleks so‘zining sinonimi sifatida kirib keldi.

Landshaftshunoslik fanining taraqqiyoti bilan qiziqqan kishi bu fanda bir qator ilmiy yo‘nalishlar hosil bo‘lganligini payqamay qolmaydi. Bu yo‘nalishlardan dastlabkisini **tarkibiy-**

genetik yo‘nalish deb atasa bo‘ladi. Uning namoyondalari asosan landshaftlarni aniqlash, xaritaga kiritish, ularning komponentlari va komponentlararo aloqadorliklarini hamda landshaftlarning morfologik tuzilishi va morfologik qismlararo o‘zaro ta’sir va aloqadorliklarni o‘rganish bilan, ya’ni ularning vertikal va gorizantal tuzilishini ochib berish bilan shug‘ullanganlar. Landshaftshunoslikdagi ushbu yo‘nalish landshaftlar o‘ziga xos tabiiy geografik kompleks sifatida o‘zidan kichikroq bo‘lgan komplekslar bog‘lamidan iboratdir, degan g‘oyaga asoslanadi.

Landshaftshunoslikdagi ikkinchi bir ilmiy yo‘nalish bu **funksional dinamik yo‘nalishdir.** Bu yo‘nalish asosan XX asrning 60-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarning asosiy mazmuni landshaftlarning vaqt mobaynida o‘zgarishiga, landshaftlarning o‘z funksiyasini, ya’ni maxsus faoliyatini bajarish jabhalariga e’tibor berishdan iboratdir. A.A.Krauklis (1979) ta’biri bilan aytganda, landshaftshunoslikdagi tarkibiy-genetik yo‘nalish tabiiy geografik rayonlashtirish bilan birgalikda landshaftlarni o‘rganishga "makroskopik" yondashish bo‘lsa, funksional-dinamik yo‘nalish esa "mikroskopik" yondashishdir. Ularning birinchisida, landshaftlar aniqlanadi, xaritaga tushiriladi, morfologik tuzilishi o‘rganiladi va tavsiflanadi. Ikkinchisida esa, landshaftlarning ichida ro‘y beradigan jarayonlarni, ham makonda, ham zamonda o‘zgarishini, landshaftlararo, ularning morfologik qismlariaro hamda komponentlariaro modda va energiya almashinishini o‘rganishga ko‘proq e’tibor beriladi. Bu yo‘nalishning yuzaga kelishi bilan landshaftshunoslikka landshaftning holati, landshaftning dinamikasi, landshaft invarianti, landshaftning o‘z maxsus faoliyatini bajarishi kabi yangi tushunchalar kirib keldi. Landshaftlardagi modda va energiya almashinish jarayoniga bo‘lgan qiziqish boshqa bir qator yangi yo‘nalishlarni hosil bo‘lishiga olib keldi. Shular qatorida landshaftshunoslik va geokimyo fanlari orasida landshaftlar **geokimyosi yo‘nalishi** shakllandi. Bu yo‘nalishning eng asosiy xususiyati landshaftshunoslikning obyektini geokimyo fani tadqiqot usullar bilan o‘rganishdir.

Landshaftlar geokimyosidagi yetakchi ilmiy g‘oyalarning shakllanishi "geokimyoviy landshaft" tushunchasining muallifi va landshaftlar geokimyosi ilmiy maktabining asoschisi B. B.Polinovning bir qator maqolalari bilan bog‘liq bo‘ldi. Uning tushunchasida, geokimyoviy landshaft kimyoviy moddalarning migratsiya xususiyatlari bo‘yicha ajratilgan yerning bir qismidir. Ushbu olim V.V.Dokuchayevning tabiat zonalari haqidagi ta’limoti hamda Vernadskiyning tirik organizmlarning geologik ahamiyati haqidagi ta’limoti asosida landshaftlar geokimyosining metodologiyasini yaratdi.

Landshaftlar geokimyosi yo‘nalishining keyingi taraqqiyoti asosan A.1.Perelman va M.A.Glazovskayalarning ilmiy izlanishlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Ularning muallifligida tayyorlangan bir qator monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalar ko‘pchilikka yaxshi tanish. Ana shu qo‘llanmalar asosida ko‘pgina universitetlarda landshaftlar geokimyosi bo‘yicha maxsus kurslar o‘rgatila boshlandi. Chunki, xalq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlarida, jumladan foydali qazilmalarni izlab topishda, yangi yerlarni o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirishda, tabiat muhofazasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etishda landshaftlarning geokimyoviy xususiyatlarini o‘rganishning ahamiyati katta ekanligi ayon bo‘lib qolgan edi. Bu yo‘nalish landshaftshunoslikning amaliyot bilan yaqinlashishida juda qo‘l keldi. Masalan, geologiya-qidiruv ishlarida landshaftlarga insonning xo‘jalikdagi faoliyati ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Landshaftlar geokimyosining eng asosiy vazifalardan biri landshaflar orasida, ularning komponentari orasida va morfologik qismlari orasida ro‘y beradigan kimyoviy jarayonlarni, kimyoviy unsurlarning ko‘chib yurishi, tarqalishi yoki jamlanishini o‘rganishdan iborat. Kimyoviy unsurlarning almashinish jarayoni landshaftlarning hosil bo‘lishi, tuzilishi, maxsus faoliyati va taraqqiyoti kabi mahim xususiyatlarini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Landshaftlar geofizikasi ham landshaftlar geokimyosi kabi landshaftshu-noslikdagi katta bir ilmiy yo‘nalishdir. Landshaftlar geofizikasi landshaftlarga xos bo‘lgan eng umumiy fizikaviy jarayonlar va hodisalarni o‘rganadi. Bu jarayon va hodisalarning o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlik qonuniyatlarini aniqlash ham ushbu yo‘nalishning asosiy vazifalaridan biridir. Landashaftlarni o‘rganishda geofizika tadqiqot usullaridan foydalanish landshaftlarning hozirgi holatda

dinamikasiga va rivojlanishiga xos bo‘lgan xususiyatlarini aniqlashda yaxshi natijalar beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tabiatni kuzatib turish (geografik monitoring), muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish masalalarini hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Landshaftlar uchun umumiy bo‘lgan va fizika fani o‘rganadigan fizikaviy xossalarga massa, ichki energiya, optikaviy va radiofizikaviy xossalarni, ularning makon va zamonga taalluqli xususiyatlarini misol keltirish mumkin. Shu xossalarni o‘rganish orqali landshaftlarni o‘zinigina emas, balki ularning komponentlarini ham ta’riflab bersa bo‘ladi. Masalan, havo, suv yoki o‘simlikning optikaviy va radiofizikaviy xususiyatlarini o‘rganish kabi. Ammo, landshaftlarga xos bo‘lgan fizikaviy xususiyatlar va jarayonlar shu landshaftlarni va ularning komponentlarini yanada kichikroq yoki tuzilishi jihatidan yanada oddiyroq bo‘lgan qismlarga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi.

Xulosa: Tabiat bilan jamiyat orasidagi o‘zaro ta’sir va aloqadorlik nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, u dastavval kichik hududlarda landshaft, urochishe va fatsiya kabi tabiiy geografik komplekslarda, ularning tabiiy resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan holda kechadi. Shuning uchun ham kichik hududlar tabiiy geografiyasi yoki landshaftshunoslikning asosiy vazifalari hisoblanmish landshaft va uning morfologik qismlarini aniqlash, xaritaga tushirish, ularning strukturasini, ichki aloqadorliklarini, dinamikasini, rivojlanishi va barqarorligini tadqiq qilish, kichik hududlarni xalq xo‘jaligi nuqtayi nazaridan baholash, ichki imkoniyatlarini aniqlash va samaradorligini oshirish va hokazolar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda tabiiy landshaftlar inson faoliyati natijasida shunday tashqi ta’sirga duch kelmoqdaki, bu o‘z navbatida tabiiy geografiya va uning bir qismi bo‘lgan landshaftshunoslik oldiga yangi-yangi ilmiy va amaliy muammolarni qo‘ymoqda. Ularning ichida eng muhim va dolzarb hisoblanganlari landshaftlarning turli tashqi ta’sirlarga barqarorligini aniqlash, ularni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida foydalanish nuqtayi nazaridan baholash, ularning inson ta’sirida o‘zgarishini va bu o‘zgarish qaysi yo‘nalishda ro‘y berishini oldindan aytib berish, ya’ni prognozlash, o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan landshaftlarni haqiqiy madaniy landshaftlarga aylantirish va ularning samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish kabilardir.

Landshaftlar ham, ularning morfologik qismlari ham, xuddi ekologik tizimlar kabi tabiiy tizimlardir. Ular ham komponentlari o‘zaro aloqador va bog‘liq bo‘lgan bir butun tabiiy hosilalar sifatida o‘rganilishi lozim. Bu o‘z navbatida landshaft tadqiqot ishlarida eng asosiy vazifalardan biri sifatida ularning strukturasini, dinamikasini va rivojlanishini, maxsus faoliyatini, inson faoliyati ta’sirida o‘zgarganlik darajasi va ilmiy tahlil qilib berish kerakligini ko‘rsatadi.

Inson bilan tabiat aloqadorligi muammolarini ijobiy hal etishda ekologiya fani biologik fanlar ichida qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, landshaftshunoslik fani ham geografik fanlar tizimida shunday ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Geografik tadqiqot ishlarida landshaftshunoslikda ishlab chiqilgan tadqiqot metodlaridan foydalanish esa eng asosiy metodlardan biri universitetlarda geografiya, hisoblanadi. Shuning gidrometeorologiya, kartografiya kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar landshaftshunoslikdan puxta bilimga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Sh.S.Zokirov, X.R.Toshov “Landshaftshunoslik” Toshkent-2013. 110 bet.
2. Sh.S.Zokirov “Landshaftshunoslik asoslari”.-T:, Universitet, 1994
3. M.H.Muhammadova monografiya “Geografik atlaslarda landshaft xaritasi va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati. 2023y

КРАТКИЙ ОБЗОР О ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ РАСТЕНИЙ РОДА FRAGARIA

Собирова Зулхумор Шариповна[1*]
[1]Чирчикский государственный педагогический университет,
email:sobirovazulxumor7@gmail.com
Султонназирова С.О[2], Шанасирова М.Х[3], Аскарова З.Р[4], Уролбоева Г[5], Бозорбоева Д.Н[6], Бахтиярова З.Л[7], Мамбетова О[8], Мирахмедова Ф.Р[9], Уктамова Д.У[10], Тулкинова С.Л[11].
[2-7]Чирчикский государственный педагогический университет, магистры
[8-11]Чирчикский государственный педагогический университет, студенты бакалавриата

Аннотация. Вирусные заболевания клубники (Fragaria spp.) представляют серьезную угрозу для производства ягод во всем мире, снижая урожайность и качество плодов. В данной статье рассматриваются современные методы выявления фитовирусов, поражающих растения рода Fragaria, включая серологические и молекулярно-биологические подходы. Особое внимание уделяется наиболее распространённым вирусам: Strawberry mottle virus (SMoV), Strawberry crinkle virus (SCV), Strawberry mild yellow edge virus (SMYEV) и другим. Обсуждаются факторы распространения, меры контроля и значение ранней диагностики.

Ключевые слова: Fragaria, фитовирусы, диагностика, ПЦР, вирусные заболевания растений.

Введение. Растения рода *Fragaria* (земляника и клубника) подвержены широкому спектру инфекционных заболеваний грибной, бактериальной и вирусной природы, которые существенно снижают урожайность и качество продукции. Наиболее распространённые грибные болезни — серая гниль (*Botrytis cinerea*), белая и бурая пятнистости листьев (*Mycosphaerella fragariae, Marssonina fragariae*), вертициллёзное увядание (*Verticillium dahliae*) и фитофтороз (*Phytophthora fragariae*). Среди бактериальных заболеваний важное значение имеют бактериальное увядание (*Xanthomonas fragariae*) и бактериальный ожог (*Pseudomonas syringae*). Вирусные инфекции, такие как карликовость и мозаика листьев, вызывают деформацию растений и снижение их продуктивности. Эффективная защита растений рода *Fragaria* включает использование здорового посадочного материала, соблюдение севооборота, санитарную обработку насаждений и применение устойчивых сортов.

Растения рода Fragaria, к которому относится клубника, являются экономически важными культурами в странах с умеренным климатом. Однако их продуктивность и устойчивость существенно ограничиваются фитовирусами, инфицирование которыми может протекать латентно или вызывать выраженные симптомы (Martin, 2012). Вирусы передаются насекомыми, нематодами или при вегетативном размножении и сохраняются в посадочном материале (Tzanetakis *et al.,* 2010).

Симптомы на листьях

Пожелтение листьев, часто по краям или между жилками: хлороз. Полосатость жилок: Светлые или желтые полосы вдоль жилок (характерно для SVBV),(рис.1). Деформация листьев: скручивание, морщинистость, волнистость листовой пластинки. Мозаичность: Нерегулярное чередование светло- и тёмно-зелёных участков. Нарушения роста: замедление роста, отставание в развитии то есть карликовость. Задержка цветения: Цветение может быть слабым или опаздывать. Отсутствие усов: Уменьшение или прекращение образования столонов (усов).

3.M.N.O'lmasova –Fizika:Optika,Atom va yadro fizikasi.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Temirov Isoq Bosimovich
Zarbdor tumani 5-maktabning kimyo fani o'qituvchisi,
+998971356909, e-mail: best_teacher@gmail.com
Eshqulova Sodiqa Olim qizi
G'allaorol tumani 81-maktabning kimyo fani o'qituvchisi, +998970642070, e-mail: chem_teacher@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari yoritiladi. 4K — kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya va kritik fikrlash yondashuvi asosida kimyo darslarini tashkil etishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, PISA va TIMSS talablari bo'yicha kimyoviy savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan metodik yechimlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kimyoviy savodxonlik, kreativ fikrlash, 4K yondashuvi, PISA, TIMSS, metodologiya.

Abstract

This article explores the theoretical foundations and practical approaches to developing students' competencies in the process of teaching chemistry in general education schools. It analyzes effective methods of organizing chemistry lessons based on the 4C approach — creativity, communication, collaboration, and critical thinking. In addition, methodological solutions aimed at fostering chemical literacy in accordance with PISA and TIMSS requirements are presented.

Key words: competence, chemical literacy, creative thinking, 4C approach, PISA, TIMSS, methodology.

1. Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asosiy prinsip sifatida e’tirof etilmoqda. Kimyo fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni kundalik hayotda qo‘llash, tahlil qilish, tajribalar orqali xulosa chiqarish, ekologik muammolarni kimyoviy nuqtayi nazardan baholash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

XXI asr ko‘nikmalaridan biri bo‘lgan **kimyoviy savodxonlik** PISA va TIMSS kabi xalqaro baholashlarda alohida o‘rin egallaydi. Bu o‘quvchilardan murakkab jarayonlarni tushunish, kimyoviy hodisalarni talqin qilish, madaniy, ekologik va iqtisodiy kontekstda qarorlar qabul qila olishni talab etadi.

Ushbu tadqiqot kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yondashuvlarini o‘rganishni maqsad qiladi.

2. Metodlar (Methods)

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

2.1. Pedagogik kuzatuv

Kimyo darslarini kuzatish orqali o‘quvchilarda kreativ, tanqidiy va amaliy kompetensiyalarning shakllanish jarayoni o‘rganildi.

2.2. Tajribaviy metodlar

Laboratoriya mashg‘ulotlari asosida o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish, kimyoviy jarayonlarni modellashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari baholandi.

2.3. 4K modeli asosida dars loyihalashtirish

Kimyo mavzulari bo‘yicha kreativ topshiriqlar, jamoaviy loyihalar va tanqidiy tahlilga doir mashqlar ishlab chiqildi.

2.4. Komparativ (taqqoslov) metod

Singapur, Finlandiya va Estoniya kabi rivojlangan mamlakatlarning kimyo ta’limi tajribalari o‘rganildi.

3. Natijalar (Results)

3.1. Kreativ fikrlashning rivojlanishi

O’quvchilar kimyoviy hodisalarga noan’anaviy yondashuvlar taklif qildi. Masalan:
– “Metallar reaktivligini kundalik hayot misollarida talqin qilish”,
– “Atmosfera ifloslanishiga kimyoviy yechimlar”.

3.2. Amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi

Laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning:

- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish,
- tajribani rejalashtirish,
- kimyoviy tenglamalarni to‘g‘ri tuzish,
- natijalarni tahlil qilish

ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirdi.

3.3. Kollaboratsiya (hamkorlik) ko‘nikmasi

Jamoaviy "mini-laboratoriya" ishlari natijasida o‘quvchilarning birgalikda yechim topish bo‘yicha faolligi oshdi.

3.4. Tanqidiy fikrlashning rivojlanishi

O’quvchilar kimyo masalalarini ekologik va iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilishni o‘rgandilar.

3.5. PISA kompetensiyalariga moslashuv

Masalalar real hayotiy kontekstda tuzilganda o‘quvchilarning qiziqishi oshganligi aniqlandi.

4. Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kimyo fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish:

- o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni uyg‘otadi,
- mustaqil izlanish va tahlil qilishga undaydi,
- jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi,
- laboratoriya madaniyatini shakllantiradi,
- ekologik tafakkurni kuchaytiradi.

4K yondashuvining kimyo faniga tatbiq etilishi — ayniqsa amaliy topshiriqlar, tadqiqot laboratoriyalari, tajriba asosida o‘qitish formatida yuqori natija beradi.

Kimyo fanida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun:

- ochiq yakunli savollar,
- tadqiqotga asoslangan laboratoriya ishlari,
- loyihaviy faoliyat,
- real hayot muammolaridan kelib chiqadigan topshiriqlar

eng samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Xulosa

Kimyo ta’limini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish XXI asr ta’limi talablariga to‘liq javob beradi. 4K yondashuvi kimyoviy savodxonlikni rivojlantirishning asosiy mezoni bo‘lib, o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqot kimyo fanida kreativ fikrlash, tanqidiy yondashuv, hamkorlik va kommunikativlikni rivojlantirish o‘quvchilarni xalqaro baholashlarga tayyorlashda muhim omil ekanini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hennessey, B., & Amabile, T. (2010). Creativity. Annual Review of Psychology, 61, 569–598.
2. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi (2021). **Kreativ fikrlashni baholash**.
3. Tuksanova, Z., & Nazarov, E. (2020). Effective use of innovative technologies in the education system. *Интернаука*, №16 (145), 30–32.
4. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov A., Pardaev A. (2010). **Tarbiyada innovatsion texnologiyalar**. T.: Iste’dod.
5. PISA 2022 Chemical Literacy Framework. OECD Publishing.

HAVODAGI CHANG VA UNING SALBIY OQIBATLARI

Ergashev Orifjon Ungarovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

tel. +998995576690

Annotatsiya. Ushbu maqolada havodagi changning inson salomatligi, tabiat ekotizimlari va iqtisodiy-ijtimoiy hayotga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirlari atroflicha tahlil qilingan. Chang zarralarining (PM2.5, PM10) nafas olish tizimiga zarar yetkazishi, yurak-qon tomir kasalliklarini kuchaytirishi, immunitetni susaytirishi hamda bolalar va qariyalarda kasallanish xavfini oshirishi. Shuningdek, changning o‘simliklar fotosintezi, tuproq va suv havzalarining holati, hayvonot olamiga ta’siri kabi ekologik oqibatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada changlanishning iqtisodiy va ijtimoiy yo‘qotishlari sog‘liqni saqlash tizimiga yukning ortishi, mehnat unumdorligining pasayishi va turizmning qisqarishi kabi omillar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. changlanish, atmosfera havosi, PM2.5, PM10, ekologik xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy yo‘qotishlar, fotosintez, ifloslanish, ekologik muammo, texnologik modernizatsiya, yashil hududlar, ekologik madaniyat

Hozirgi vaqtda global iqlim o‘zgarishlariga sabab bo‘layotgan asosiy omillar qatoriga atmosferadagi chang miqdorini ko‘payishini ham kiritish mumkin. Asosan chang-to‘zonli va chang-qumli bo‘ronli dovullar qurg‘oqchil iqlimli hududlarda ko‘proq kuzatilmoqda. Chang aerodinamik siste’ma bo‘lib, dispersion muhitni havo, dispers fazani esa qattiq zarrachalar tashkil etadi. Chang inson organizmida doim ta’sir etib turuvchi omillar turkumiga kiradi va ma’lum sharoitlarda organizmga ta’sir ko‘rsatadi. O’simlik bilan qoplanmagan maydonlardan ko‘plab miqdorda chang ko‘tarilib, atmosferada to‘planishi natijasida iqlimning keskin o‘zgarishi va hosildor yerlarning sahroga aylanishiga sabab bo‘lmoqda.

Mutaxassislarning aniqlashicha, kuchli chang oqimlari atmosferani haddan tashqari ifloslantirib, uning optik xossalarini o‘zgartiradi, bu tabiiyki iqlimga albatta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Keyingi yillarda atmosfera qatlamida olib borilgan tadqiqotlar natijasida chang bulutlarining

koʻlami, tarqalishi, tuzilishi, harakati hamda manbalari haqida aniq ma’lumotlar olindi. Ma’lum boʻlishicha, atmosfera changi asosan qavat-qavat tuzilishga ega boʻlib qavatlanish 10-15 km balandlikdan 20 km balandlikdagi Yunga deb ataluvchi qatlam sathida va undan yuqorida ham yaqqol koʻzga tashlanib turadi.

Atmosferaga koʻtarilayotgan chang miqdorini aniqlash maqsadida mutaxassilar turli hududlarda turlicha usullarni qoʻllashgan. Masalan, ekologik tanglik kuzatilayotgan Orol dengizi boʻyi hududlarida har yili 15-75 mln tonnalik chang buluti paydo boʻlib, 200-400 km masofagacha choʻzilishi aniqlangan. Mutaxassislar atmosferaga qancha chang koʻtarilganligini hisoblab chiqish uchun sun’iy yoʻldoshlardan olingan “yer yuzasi atmosfera” tizimining yorugʻligini oʻlchash natijasida, yoki atmosfera koʻrinishi va yorugʻligini yerdan oʻlchash orqali hisob-kitob qilishadi.

Respublikamizda havoning chang bilan ifloslanishi nafaqat tabiiy xususiyatlar (quruq iqlim, qumli va qumloq tuproqlar), balki antropogen ifloslanish (avtomobil chiqindilari, sanoat, qurilish, issiqlik elektr stansiyalari) bilan ham bogʻliq.

Shahardagi atmosfera boʻshligʻining past shamollatilishi, shahar transportining koʻpligi, yoʻllarning tirbandligi, keng koʻlamli qurilishlar, shuningdek, daraxtlarni kesish, maysazorlar va magistral yoʻllarning keng koʻlamda sugʻorilishining mavjud emasligi - bularning barchasi meteorologik sharoitlar va antropogen yuklanishga, havoning yuqori ifloslanishiga olib keladi.

2021-2023 yillarda bir necha barotaba kuchli shamol natijasida chang boʻronli kunlar kuzatildi, aynan ushbu jarayon Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlarida keskin tus oldi. Koʻrish darajasi 500-1000 metrgacha pasaydi. Buning oqibatida tuproqning juda quruq ustki qatlami koʻtarilib, atmosfera havosidagi chang miqdori me’yordagidan 30 barobargacha ortishiga olib keldi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotiga koʻra, havo ifloslanishi koʻrsatkichlari orasida salomatlik uchun eng katta xavf tugʻdiradigani aynan PM-2,5 dispers zarralaridir.

Shifokorlarning ma’lumotlariga koʻra bunday hodisa oqibatida inson organizmida turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Changning asosiy ta’siri eng avvalo nafas olganda vujudga keladi. Changli havo bilan nafas olish asosan nafas organlarining zararlanishi: bronxit, pnevmokonioz yoki umumiy zararlanish rivojlanishini vujudga keltirishi mumkin. Ba’zi bir changlar qoʻshimcha kasalliklarni keltirib chiqarishi xususiyatiga ega. Bularga yuqori nafas yoʻllari, koʻzning shilliq qavati, teri qoplami kasalliklari kiradi. Changning oʻpka yoʻliga kirishi pnevmoniya, sil, oʻpka rakining kelib chiqishiga sharoit yaratishi mumkin.

Demak, atmosfera havosida chang boʻronlarini hosil boʻlishida asosiy sabab boʻlayotgan jarayonlarning oldini olish choralarini ishlab chiqish, oʻsimliksiz ochiq maydonlarda oʻsimlik qoplamini tiklash uchun koʻkalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish zarur. Har bir kishi chang boʻronli kunlarda oʻzini himoya qilish va turli xil kasalliklarning oldini olish maqsadida maxsus niqoblar va koʻzoynaklardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, bugun yurtimizda toza havo masalasi juda dolzarb va bu borada zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Agar bu jiddiy muammoga qarshi kurashishga biroz kechiksak, kun sayin ifloslanayotgan havo ekotizim uchun dahshatli xavf-xatarlar tugʻdirishi mumkin.

Havodagi changning inson salomatligiga ta’siri Atmosfera havosida uchraydigan chang zarralari, ayniqsa diametri 10 mikrondan (PM10) va 2.5 mikrondan (PM2.5) kichik boʻlgan mayda dispers zarrachalar inson salomatligiga jiddiy xavf tugʻdiradi. Ushbu zarralar nafas olish jarayoni orqali oʻpkaga kirib, hatto alveolalar darajasigacha yetib boradi. Natijada nafas olish tizimida bir qator ogʻir patologik holatlar — bronxit, astma, surunkali obstruktiv oʻpka kasalligi (XOBL) hamda oʻpka saratoni kabi kasalliklarning rivojlanish xavfi ortadi. Mayda changning oʻpkada toʻplanishi yalligʻlanish jarayonlarini kuchaytirib, surunkali kasalliklar rivojlanishiga zamin yaratadi.

Havo tarkibidagi yuqori darajadagi chang yurak-qon tomir tizimiga ham bevosita ta’sir koʻrsatadi. Ilmiy tadqiqotlar changning yuqori kontsentratsiyasi yurak urish ritmining buzilishi, qon bosimining oʻzgarishi, qonning quyuqlashishi, shuningdek, yurak ishemik kasalliklari xavfini oshirishini koʻrsatmoqda. Chang zarralari qon aylanish tizimiga kirishi natijasida tomirlarda yalligʻlanish kuchayadi, bu esa infarkt va insult kabi ogʻir holatlarga olib kelishi mumkin.

Uzoq muddat davomida chang bilan ta’sirlanish insonning umumiy immun tizimini susaytiradi. Immunitetning pasayishi turli yuqumli kasalliklarga tez chalinish, organizmning tiklanish jarayonining sekinlashishi hamda surunkali kasalliklarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Organizmning himoya mexanizmlarining zaiflashishi, ayniqsa, ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholida yanada tez namoyon bo‘ladi.

Mayda chang zarralarining ta’siri aholi orasida ayniqsa bolalar, homilador ayollar va keksalar uchun juda xavflidir. Bolalarning nafas yo‘llari kattalarga nisbatan sezgir bo‘lgani uchun chang ta’siridan kelib chiqadigan bronxit, allergik reaktsiyalar va astma kabi kasalliklar ularda tez-tez uchraydi. Keksalarda esa surunkali kasalliklar mavjudligi tufayli changning salbiy ta’siri yanada kuchayadi. Homilador ayollar uchun esa changning uzoq muddatli ta’siri nafaqat ularning sog‘ligiga, balki homila rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, havo sifatining yomonlashuvi va changning me’yoridan ortiqcha bo‘lishi jamiyat salomatligi uchun jiddiy ekologik muammo bo‘lib, uni bartaraf etish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish zarur.

Havodagi changning tabiatga ta’siri, havodagi chang nafaqat inson salomatligi, balki tabiatning barcha tarkibiy qismlariga - o‘simliklar, hayvonot olami, suv va tuproq tizimlariga ham jiddiy zarar yetkazadi. Atmosferada uzoq vaqt saqlanib turuvchi mayda chang zarralari ekologik muvozanatning buzilishiga, tabiiy jarayonlarning sekinlashishiga va biosferada qayta tiklanishi qiyin bo‘lgan o‘zgarishlarga olib keladi.

Birinchidan, changning o‘simliklar hayotiy faoliyatiga ta’siri juda kuchli bo‘lib, barg yuzalarining chang bilan qoplanishi fotosintez jarayonining sustlashishiga sabab bo‘ladi. Barglar yuzasini qoplagan chang quyosh nuri kirib borishini kamaytiradi, natijada o‘simlikning o‘sish sur’ati pasayadi, uning barqaror rivojlanishi buziladi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ekinlarida changning ko‘pligi hosildorlikning kamayishiga, o‘simlik kasalliklariga chidamlilikning pasayishiga va biologik mahsuldorlikning izdan chiqishiga olib keladi. Chang zarrachalari o‘simliklarning stoma (nafas teshiklari)larini berkitib qo‘yishi ularning nafas olishini ham qiyinlashtiradi.

Ikkinchidan, havodagi chang suv va tuproqning ifloslanishiga ham sabab bo‘ladi. Chang tarkibida og‘ir metallar, sulfatlar, nitratlar, organik toksik moddalar va sanoat chiqindilarining qoldiqlari bo‘lishi mumkin. Yog‘ingarchilik vaqtida ushbu zararli moddalar bilan to‘yingan chang yerga tushib, tuproq qatlamini ifloslantiradi, suv havzalariga yuvilib kiradi. Natijada tuproq unumdorligi kamayadi, suvning kimyoviy tarkibi o‘zgaradi, biologik xilma-xillikka xavf tug‘iladi. Bunday holat ekotizimlarning tabiiy muvozanatini buzib, o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar yashash sharoitini keskin yomonlashtiradi.

Uchinchidan, havodagi chang hayvonot olamiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mayda chang zarralarining nafas orqali organizmga kirishi yovvoyi hayvonlar, parrandalar va chorva mollari uchun nafas olish tizimi kasalliklarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Chang bilan ifloslangan o‘tloqlar va suvlar orqali hayvonlar turli toksik moddalarni iste’mol qilib qo‘yishi natijasida ularning immuniteti susayadi, zaharlanishlar kuzatiladi, hatto ayrim populyatsiyalarda sonning kamayishiga olib kelishi mumkin. Migratsiya jarayonidagi qushlar uchun esa chang ko‘pligi parvoz vaqtida qo‘shimcha stress va nafas yetishmovchiligini yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, havodagi changning ko‘pligi tabiiy ekotizimlarning barcha bo‘g‘inlariga zarar yetkazib, ekologik barqarorlikni buzadi. Shuning uchun changlanish darajasini kamaytirish, atmosfera havosini tozalash va sanoat chiqindilarini nazorat qilish ekologik xavfsizlikning eng muhim vazifalaridan biridir.

Changning iqtisodiy va ijtimoiy salbiy ta’sirlari Atmosferadagi changning ko‘pligi nafaqat ekologik muammolarni kuchaytiradi, balki iqtisodiyot va jamiyat hayotiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mayda dispers chang zarralari (PM2.5, PM10) tufayli kelib chiqadigan kasalliklar sonining ko‘payishi, mehnat unumdorligining pasayishi, turizmning qisqarishi va xizmat ko‘rsatish sohalarining inqirozi milliy iqtisodiyot uchun katta yo‘qotishlar keltirib chiqaradi.

Birinchidan, changning yuqori darajasi sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha yuk soladi. Chang bilan bog‘liq nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir muammolari, allergiyalar va

surunkali kasalliklar sonining ortishi tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Buning natijasida shifoxonalardagi navbatlar ko‘payadi, dori-darmon sarfi ortadi, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari uchun xarajatlar keskin oshadi. Tibbiy tizimda qo‘shimcha moliyalashtirish zarurati paydo bo‘lib, bu davlat byudjetiga ham salbiy bosim qiladi.

Ikkinchidan, changning ko‘pligi mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi. Changli muhitda yashovchi yoki ishlovchi odamlar tez charchaydi, bosh og‘rig‘i, nafas yetishmovchiligi kabi belgilar tez-tez kuzatiladi, buning natijasida ular ko‘proq kasallik ta’tiliga chiqadi. Ishchilarning sog‘lig‘i yomonlashgani sari ishlab chiqarish jarayonlarida kechikishlar yuzaga keladi, mahsulot sifati pasayadi va umumiy iqtisodiy samaradorlik tushadi. Ba’zi tarmoqlarda chang yuqori bo‘lgan hududlarda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish uchun qo‘shimcha texnik xarajatlarni talab etadi, bu esa korxonalar uchun qo‘shimcha moliyaviy yukdir.

Uchinchidan, changning ortishi turizm sohasiga ham bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ekologik muhitning yomonlashuvi, chang bosgan shaharlarning havosining noxushligi va ko‘rinishning yomonlashuvi turistik hududlarning jozibadorligini kamaytiradi. Sayyohlar sog‘lig‘iga xavf bo‘lgan hududlarga borishni afzal ko‘rmaydi, natijada turizm oqimi qisqaradi, mehmonxonalar, transport, xizmat ko‘rsatish sohasi va madaniy maskanlar daromadi kamayadi. Bu jarayon uzoq muddat davom etsa, butun hududning iqtisodiy rivojlanish sur’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, changning iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlari keng ko‘lamli bo‘lib, sog‘liqni saqlashdan tortib ishlab chiqarish va turizmga qadar ko‘plab sohalarda yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun changlanish darajasini kamaytirish, ekologik monitoringni kuchaytirish va atmosfera sifatini yaxshilash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Chang ifloslanishining oldini olish yo‘llari. Atmosfera havosining chang bilan ifloslanishi ekologik barqarorlikka, inson salomatligiga va iqtisodiy rivojlanishga jiddiy xavf tug‘diradi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv, kuchli qonunchilik, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va aholining ekologik ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, chang ifloslanishining oldini olishda qonunchilik va nazorat tizimining mustahkam bo‘lishi zarur. Ekologik talablar, atmosfera havosining sifatiga oid me’yorlar, sanoat korxonalarining chiqindi emissiyasiga qo‘yilgan cheklovlar qat’iy ravishda ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi kerak. Amaldagi qonunlar bo‘yicha sanoat korxonalarida chang ushlovchi filtrlar o‘rnatilishi, chiqindi gazlarning tozalanishi va monitoring jarayonlarining shaffof yuritilishi shart. Davlat ekologiya inspeksiyasining muntazam nazorati va samarali jazo mexanizmlarining mavjudligi chang chiqindilarining kamayishiga sezilarli darajada yordam beradi.

Ikkinchidan, yashil hududlarni ko‘paytirish changlanishni kamaytirishning eng samarali tabiiy yo‘llaridan biridir. Daraxtlar va turli yashil o‘simliklar chang zarralarini o‘z barglari orqali ushlab qoladi, atmosferadagi zararli moddalarni filtrlaydi va havo sifatini yaxshilaydi. Shu sababli shahar va sanoat hududlarida ko‘chat ekish, yashil hududlarni kengaytirish, bog‘ va xiyobonlar barpo etish ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Yashil hududlarning ko‘pligi nafaqat chang miqdorini kamaytiradi, balki shahar mikroiqlimini yumshatadi, aholining sog‘lom turmush tarziga zamin yaratadi.

Uchinchidan, texnologik modernizatsiya sanoat va transport sohalarida chang ifloslanishini kamaytirishning asosiy mezonlaridan biridir. Sanoat korxonalarida zamonaviy chang ushlovchi filtrlar, ventilyatsiya tizimlari va gaz-tozalash qurilmalarini joriy etish atmosferaga chiqarilayotgan chang zarralarini sezilarli miqdorda kamaytiradi. Transport sohasida esa ekologik toza vositalar elektromobillar, gibrid avtomobillar, velosiped va jamoat transporti ulushini oshirish changlanish darajasini pasaytiradi. Avtomobillarda yengil boshqaruv tizimlari, texnik xizmat ko‘rsatish madaniyatini yaxshilash ham havodagi zarrachalar chiqarilishini kamaytirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ongli harakat qilishi ham muhim omil hisoblanadi. Changning inson salomatligiga va atrof-muhitga zararli ta’siri haqida muntazam ravishda targ‘ibot ishlari olib borilishi, aholiga himoya vositalaridan (niqob, respirator), uy va ish joylarida tozalikni saqlash hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish bo‘yicha tavsiyalar

berilishi lozim. Ekologik ongli jamiyat shakllantirilsa, har bir shaxs changlanishni kamaytirishga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

Umuman olganda, chang ifloslanishining oldini olish siyosiy, iqtisodiy, texnologik va ma’rifiy choralar uyg‘unligida amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv orqali atmosferaning tozaligi, fuqarolarning sog‘ligi va ekotizimlarning barqarorligi ta’minlanadi.

Xulosa. Havodagi changning ortishi ekologik muvozanatga, inson salomatligiga, iqtisodiy barqarorlikka va jamiyat farovonligiga jiddiy tahdid solmoqda. Chang zarralari (ayniqsa PM2.5 va PM10) nafas olish tizimi, yurak-qon tomir tizimi va umumiy immunitetga kuchli zarar yetkazishi tufayli sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha yuk tushadi, aholining mehnat unumdorligi pasayadi va turmush sifati yomonlashadi. Ushbu muammoni bartaraf etish bugungi kunda global ekologik xavfsizlikning asosiy vazifalaridan biridir. Davlat, jamiyat va sanoatning birgalikdagi sa’y-harakati, ilmiy asoslangan yondashuv va texnologik modernizatsiya orqali havoning tozaligi, aholining salomatligi va ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin. Shu bois chang ifloslanishiga qarshi kurashning har bir bosqichi milliy rivojlanish strategiyasida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2021.
2. O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hisobotlari. - Toshkent, 2022–2024.
3. Axmedov, N. va boshq. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. -Toshkent: Fan, 2020.
4. Ortiqboyeva G. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning oqibatlari // Ekologiya va barqaror rivojlanish jurnali. - 2022. - №4. - B. 45–52.
5. Karimov, A. Atrof-muhit monitoringi: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Universitet, 2021.
6. Bobojonov, M. Shahar ekologiyasi va havo sifati boshqaruvi. - Toshkent: Innovatsiya, 2023.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida chet tilini o‘rganish samaradorligi

Xusanova Aziza Abduqayum qizi
E-mail: azizakhusanova111@gmail.com
+998887031310
Bachelor of Foreign Language and Literature(English) at the Faculty of Tourism third course
Chirchik State Pedagogical University
Scientific supervisor: **Turonboyeva Xilola Erkiyor qizi**
E-mail: hilolaerkiyorovna@gmail.com
+998887751122

Kirish. Globalizatsiya va raqamli inqilob sharoitida chet tillarini o‘rganish insonning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Bugungi kunda til bilish nafaqat o‘zaro muloqot vositasi, balki bilim olish, malaka oshirish va xalqaro maydonga chiqishning ham asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi natijasida ta’lim sohasida, xususan, chet tillarini o‘rgatish va o‘rganishda tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Zamonaviy texnologiyalar — bu mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar, interaktiv vositalar va multimediya resurslaridir. Mazkur texnologiyalar til o‘rganish jarayonini yanada qulay, tezkor va interaktiv holga keltirib, an’anaviy o‘quv uslublariga samarali muqobil bo‘la olyapti. O’quvchilar hozirda istalgan joyda va istalgan vaqtda mustaqil ravishda til o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lib, individual o‘rganish sur’atlarini belgilash, o‘z bilim darajasini real vaqt rejimida nazorat qilish, shuningdek, tinglab tushunish, yozma va og‘zaki ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyatiga egadirlar. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning chet tilini o‘rganishdagi o‘rni, ularning samaradorlik darajasi,

afzallik va cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologiyalardan foydalangan holda til o‘rganishning ilg‘or usullari va amaliy tavsiyalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: chet tili, zamonaviy texnologiyalar, raqamli ta’lim, sun’iy intellekt, onlayn ta’lim, mobil ilovalar, til o‘rganish samaradorligi.

Asosiy qism. Zamonaviy texnologiyalar chet tilini o‘rganish jarayonini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ular nafaqat o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi an’anaviy muloqotni kengaytirdi, balki o‘z-o‘zini o‘qitish imkoniyatini ham yaratdi. Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan texnologik vositalar o‘z ichiga mobil ilovalar, onlayn ta’lim platformalari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar, multimedia resurslari, hatto virtual haqiqat texnologiyalarini ham oladi. Ularning har biri til o‘rganishning muayyan jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, masalan, so‘z boyligini oshirish, grammatikani mustahkamlash, eshitish, o‘qish va so‘zlashuv ko‘nikmalarini shakllantirish.Eng ommalashgan texnologik vositalardan biri bu mobil ilovalardir. Masalan, **Duolingo** – foydalanuvchilarga ingliz, ispan, fransuz, nemis kabi ko‘plab tillarni o‘yinlashtirilgan darslar orqali o‘rganish imkonini beradi. Har kuni yangi mashqlar beriladi, foydalanuvchi yutuqlari baholanadi va rag‘batlantiriladi. **Memrise** esa ko‘proq vizual tasvirlar va eslab qolish usullari orqali yangi so‘z va iboralarni tezda yodlashga yordam beradi. **Babbel** platformasi foydalanuvchini real hayotdagi suhbatlar asosida til o‘rganishga yo‘naltiradi. **Busuu** esa til o‘rganuvchilarga butun dunyo bo‘ylab boshqa foydalanuvchilar bilan yozma yoki og‘zaki muloqot qilish imkonini taqdim etadi.Onlayn ta’lim platformalari esa chuqurroq va tizimli bilim olishga yordam beradi. Masalan, **Coursera** va **edX** kabi platformalarda dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan ishlab chiqilgan ingliz tili yoki boshqa xorijiy tillar kurslari mavjud. Bu kurslar odatda video darslar, testlar, yozma topshiriqlar va yakuniy sertifikatlash tizimini o‘z ichiga oladi. **Udemy** platformasida esa tajribali ustozlar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus kurslar orqali har kim o‘ziga mos til o‘rganish uslubini tanlashi mumkin.Sun’iy intellekt asosida ishlovchi texnologiyalar ham til o‘rganishda katta yordamchi vositaga aylangan. Masalan, **ChatGPT** kabi AI-assistentlar yordamida foydalanuvchilar yozma matnlar tuzish, tarjima qilish, grammatik xatolarni aniqlash va hatto ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. **Grammarly** – ingliz tilida yozilgan matnlarni grammatik, uslubiy va imlo jihatdan tahlil qilib, takliflar beradi**. Google Translate** va **DeepL** esa matnlarni turli tillarga tezda tarjima qilib beruvchi vositalar bo‘lib, ayniqsa yangi so‘z va iboralarni o‘rganishda foydalidir. Bu texnologiyalar real vaqt rejimida ishlaydi va foydalanuvchining darajasiga mos tahlil berishga qodir. Multimedia vositalar ham til o‘rganishning ajralmas qismiga aylanmoqda. **YouTube** kabi platformalarda mavjud bo‘lgan **BBC Learning English, EnglishClass101, Learn English with Emma** kabi kanallar orqali ingliz tilini oson va tushunarli tarzda o‘rganish mumkin. **Podkastlar** orqali esa eshitish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin, buning uchun **The English We Speak, Espresso English, The Daily English Show** kabi audio dasturlar tavsiya etiladi. **Audiokitoblar** esa, ayniqsa talaffuz, intonatsiya va eshitish orqali o‘rganishda samarali vositadir. Masalan, **Audible** yoki **LibriVox** platformalarida mavjud bo‘lgan asarlar tinglab o‘rganish uchun qulaydir. So‘nggi yillarda rivojlanayotgan texnologiyalardan biri bu **virtual haqiqat (VR)** va **aralash haqiqat (AR)** texnologiyalaridir. Bu vositalar yordamida o‘rganuvchi o‘zini chet tilida so‘zlashiladigan real vaziyatga tushgandek his qiladi. Masalan, **Mondly VR** ilovasi foydalanuvchini virtual restoran, aeroport yoki do‘konga olib kiradi va u yerda sun’iy xaridorlar bilan muloqotda bo‘lish orqali tilni mashq qiladi. **ImmerseMe** kabi platformalar esa foydalanuvchiga turli ssenariylar asosida til o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar, ayniqsa so‘zlashuvda ishonchsizlik sezadiganlar uchun foydali bo‘lib, jonli suhbat muhiti orqali tilni faol qo‘llashga undaydi.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar chet tilini o‘rganish jarayonini nafaqat qulaylashtirdi, balki uni yanada tezkor, interaktiv va shaxsiylashtirilgan shaklga keltirdi. Har bir texnologiyaning o‘ziga xos afzalliklari bor – kimdir mobil ilovalar orqali so‘z boyligini oshirsa, boshqalar sun’iy intellekt yordamida yozma ishlarini tahlil qiladi, yoki podcast tinglab eshitish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Muhimi, o‘rganuvchi o‘z ehtiyojlari, maqsadlari va mavjud resurslariga qarab texnologiyani to‘g‘ri tanlab, uni an’anaviy o‘quv metodlari bilan uyg‘unlashtira olishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida chet tilini o‘rganish jarayoni ko‘plab qulayliklar yaratgan bo‘lsa-da, bu jarayon biryoqlama emas — u o‘zida nafaqat afzalliklarni, balki ma’lum kamchilik va cheklovlarni ham mujassamlashtiradi. Shuning uchun texnologiyalardan foydalanishda ularning kuchli va zaif tomonlarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, ularni qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligini aniqlash muhimdir.Avvalo, texnologiyalarning afzalliklariga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi navbatda ularning **moslashuvchanlik va erkinlik** yaratishini qayd etish kerak. Mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamida o‘quvchi istalgan joyda va istalgan vaqtda til o‘rganishi mumkin. An’anaviy darslar vaqt va makon bilan cheklangan bo‘lsa, texnologik vositalar bu cheklovni bartaraf qiladi. Masalan, bir foydalanuvchi ertalab avtobusda ketayotib Duolingo ilovasi orqali yangi so‘zlarni yodlashi, boshqasi esa kechqurun uyda YouTube orqali ingliz tilidagi darslikni tomosha qilishi mumkin. Bu esa til o‘rganishni kundalik hayotga integratsiyalash imkonini beradi.Shuningdek, texnologiyalar **individual yondashuv** imkonini ham yaratadi. Har bir o‘rganuvchi o‘z bilim darajasiga mos kurs yoki ilovani tanlab, shaxsiy o‘rganish tezligi va shakliga mos tarzda harakat qilishi mumkin. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar foydalanuvchining xatolarini aniqlab, darhol to‘g‘rilaydi va unga mos maslahatlar beradi. Masalan, Grammarly ilovasi foydalanuvchining yozgan matnidagi grammatik va uslubiy xatolarni ko‘rsatib, takomillashtirish yo‘llarini tavsiya qiladi.Bundan tashqari, texnologiyalar ta’limni **qiziqarli va interaktiv** holga keltiradi. O’yin shaklidagi mashqlar, testlar, viktorinalar va vizual materiallar yordamida o‘rganish jarayoni zerikarli bo‘lib qolmaydi, aksincha, foydalanuvchini o‘ziga jalb etadi. Ayniqsa, yosh o‘rganuvchilar yoki motivatsiyasi past bo‘lganlar uchun bu uslublar juda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, multimedia vositalari orqali tinglab tushunish, talaffuzni to‘g‘rilash va eshitish malakalarini kuchaytirish mumkin.Biroq, zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq ayrim **kamchiliklar va cheklovlar** ham mavjud. Ulardan biri — **jonli muloqot yetishmasligi.** Har qancha ilg‘or bo‘lmasin, sun’iy intellekt yoki dasturiy yordamchi haqiqiy inson bilan bo‘ladigan muloqot o‘rnini bosa olmaydi. Til o‘rganishda suhbatdosh bilan bevosita muloqot qilish, fikr almashish, ijtimoiy kontekstda so‘zlashish juda muhim. Texnologiyalar bu jihatdan cheklangan imkoniyatga ega.Yana bir muhim muammo — **doimiy nazorat va tashqi turtkining yo‘qligi.** Texnologiyalar yordamida o‘qish mustaqillikni talab qiladi. Ko‘pchilik foydalanuvchilar bir necha kun faol bo‘lib, keyinchalik qiziqishini yo‘qotadi yoki mashg‘ulotlarni to‘xtatib qo‘yadi. Bunda motivatsiyaning pasayishi, texnologiyalar bilan ishlashda maqsadsizlik, yoki o‘quv rejasi yo‘qligi asosiy sabab bo‘lishi mumkin.Bundan tashqari, texnologiyalar **internetga va texnik jihozlarga to‘liq bog‘liq.** Kuchli internet aloqasi bo‘lmagan hududlarda onlayn darslar yoki ilovalar to‘liq ishlamasligi mumkin. Yana bir muammo — ba’zi texnologik vositalarning sifati va ishonchliligi past bo‘lishi. Masalan, avtomatik tarjima vositalari (Google Translate yoki DeepL) ba’zida grammatik yoki semantik xatolar qilishi mumkin. Foydalanuvchi bunday xatolarga tayanib, noto‘g‘ri bilimlarni o‘zlashtirib olishi ehtimoli bor.Shunday bo‘lsa-da, texnologiyalardan **samarali foydalanish yo‘llari** mavjud. Eng avvalo, o‘rganishni maqsadli va rejalashtirilgan shaklda olib borish kerak. Har kuni ma’lum vaqt ajratish, bosqichma-bosqich yondashish va o‘z taraqqiyotini kuzatib borish foydalanuvchining barqarorlikka erishishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, texnologiyalarni **an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashtirish** ham juda muhim. Masalan, mobil ilovalar yordamida so‘z yodlang, YouTube orqali eshitish ko‘nikmalarini rivojlantiring, lekin shu bilan birga daftar tuting, grammatikani kitob orqali mustahkamlang, yozma ishlarga e’tibor bering va imkon bo‘lsa, jonli suhbatlarda ishtirok eting. Yana bir foydali yondashuv — **texnologiyalarni kombinatsiyalab ishlatish**. Ya’ni, bir vaqtning o‘zida bir nechta vositadan maqsadli tarzda foydalanish. Masalan, Duolingo ilovasida so‘zlarni o‘rganish, ChatGPT yordamida yangi iboralardan gap tuzish, Grammarly orqali yozgan matnlaringizni tahrir qilish va YouTube’da real suhbatlarni tinglash orqali to‘liq til muhiti yaratish mumkin. Bu esa tilni biryoqlama emas, balki kompleks tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa. Zamonaviy texnologiyalar chet tilini o‘rganishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular ta’limni erkin, interaktiv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan shaklga olib chiqdi. Biroq, texnologiyalarni samarasiz qo‘llash yoki ularga haddan tashqari tayanish o‘rganish jarayonining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, texnologiyalardan oqilona, muvozanatli

va maqsadli tarzda foydalanish, ularni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish til o‘rganishda eng to‘g‘ri yondashuv sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Oxford, R. (2017). *Teaching and Researching Language Learning Strategies***. Routledge.** “Bu kitob chet tilini o‘rganishda strategiyalar va metodik yondashuvlar haqida fundamental nazariy asos beradi.”

2. **Godwin-Jones, R. (2018). “Mobile-Assisted Language Learning” in** *Language Learning & Technology***, 22(3), 104–120.**
“ Mobil texnologiyalar orqali til o‘rganish samaradorligi va ularning afzalliklari bo‘yicha ilmiy maqola.”

3. **Warschauer, M., & Kern, R. (2000).** *Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice***. Cambridge University Press.**
“ Onlayn va tarmoq texnologiyalaridan foydalanib til o‘rgatish bo‘yicha chuqur tahlil qilingan manba.”

4. **Grammarly.com, Duolingo.com, Coursera.org, ChatGPT YouTube Learning Channels (BBC Learning English va boshqalar)**
“Real foydalanishdagi texnologik platformalarning imkoniyatlari va yondashuvlari amaliy manba sifatida ishlatilgan.”

LOGARIFMIK FUNKSIYANING XOSSALARI TATBIQIGA OID BA’ZI MASALALAR

Soatov Ulugbek Abdukadirovich
Jizzax politexnika instituti dotsenti, f-m.f.n.
Telefon:+998945731768
ulugbeksoatov595@gmail.com
Qosimova Xilola Alijon qizi
Arnasoy politexnikumi matematika fani o‘qituvchisi
Telefon:+998940280901
qosimovah39@gmail.com

Annotatsiya: Logarfmik funksiyaning xossalarini yaxshi bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olish, bu funksiya qatnashgan tenglamalarga oid murakkabroq masalalarni yechish imkonini beradi. Bunda mavjud metodlar va almashtirish formulalarini qo‘llash orqali qaralayotgan tenglamani algebraik tenglamaga keltirish muhim masaladir. Ushbu maqolada mavzu doirasida murakkablik darajasi yuqoriroq logarfmik tenglamalar va ularni yechish usullari qaralgan.

Tayanch so‘zlar: logarfmik funksiya, teskari funksiya, aniqlanish sohasi, monotonlik, simmetriya, taqqoslash metodi, logarifmlash, potensirlash, shakl almashtirish, algebraik tenglama, asos, ildiz, yechim.

Аннотация: Знание свойств логарифмической функции и умение их правильно применять позволяет решать более сложные задачи, связанные с уравнениями, содержащими эту функцию. При этом важно свести рассматриваемое уравнение к алгебраическому, используя существующие методы и формулы подстановки. В данной статье рассматриваются уравнения более высокого уровня сложности и методы их решения.

Ключевые слова: логарифмическая функция, иррациональная функция, область определения, монотонность, симметрия, метод сравнения, логарифмирование, потенцирование, преобразование форм, алгебраическое уравнение, основание, корень, решение.

Abstract: Knowing the properties of the logarithmic function and being able to use them correctly allows you to solve more complex problems involving equations involving this function. In this case, it is important to reduce the equation under consideration to an algebraic equation using existing methods and substitution formulas. This article considers logarithmic equations of higher complexity and methods for solving them.

Keywords: logarithmic function, sphere definition, monotonicity, symmetry, simplification, comparison method, logarithm, editing, form replacement, algebraic equation, base, root, solution.

Ta’lim oluvchilarning turli xil misol va masalalarni yechish metodlaridan ratsi-onal foydalana olishlari ular matematik qobiliyati va madaniyatini shakllantirib borishga, matematika mashg‘ulotlarida olgan bilim va ko‘nikmalarni takomillash-tirishga yordam beradi.

Ushbu maqolada ijodiy faollik, mustaqil fikrlash orqali bilimlarni rivojlanti-rishga qaratilgan murakkablik darajasiga ko‘ra qiyinroq bo‘lgan logarifmik tenglama-larni yechish masalalari va usullarini o‘rganish maqsad qilindi. Turli xil mazmundagi murakkablik darajasi yuqori bo‘lgan matnli masalalar, tenglamalar, tengsizliklar va ularni yechish usullari [1-5] va boshqa ishlarda ham o‘rganilgan.

1-masala. Tenglamani yeching

$$\sqrt{\log_x \sqrt{3x}} \cdot \log_3 x = -1$$

Yechish: Ushbu tenglamani yechish uchun logarifmning quyidagi xossalaridan foydalanamiz:

$\log_a (b \cdot c) = \log_a b + \log_a c$ (1) $\log_a b^n = n \log_a b$ (2)

$\log_a a = 1$ (3) $\log_a b = \dfrac{1}{\log_b a}$ (4)

Berilgan tenglamada dastlab ildiz ostidagi ifodani yoyib chiqamiz:

(1) tenglikga asosan $\sqrt{\log_x (\sqrt{3} \cdot \sqrt{x})} \cdot \log_3 x = -1$, $\sqrt{\log_x \sqrt{3} + \log_x \sqrt{x}} \cdot \log_3 x = -1$ yoki $\sqrt{\log_x 3^{\frac{1}{2}} + \log_x x^{\frac{1}{2}}} \cdot \log_3 x = -1$ ni hosil qilamiz. Bundan (2) tenglikga ko‘ra $\sqrt{\frac{1}{2}\log_x 3 + \frac{1}{2}\log_x x} \cdot \log_3 x = -1$ va bunda (3) xossadan foydalansak, $\sqrt{\frac{1}{2}\log_x 3 + \frac{1}{2}} \cdot \log_3 x = -1$ yoki $\sqrt{\frac{1}{2}\log_x 3 + \frac{1}{2}} = -\frac{1}{\log_3 x}$ ni hamda (4) ga asosan $\sqrt{\frac{1}{2}\log_x 3 + \frac{1}{2}} = -\log_x 3$ tenglamaga ega bo‘lamiz.

Oxirgi tenglamada $\log_x 3 = a$ deb belgilash kiritsak, $\sqrt{\frac{1}{2}(a+1)} = -a$ irratsional tenglama hosil bo‘ladi. Uni yechamiz: $\frac{1}{2}(a+1) = a^2$, $a^2 - \frac{1}{2}a - \frac{1}{2} = 0$, bundan $a_1 = 1$ va $a_2 = -\frac{1}{2}$ ni topamiz. Natijada, $\log_x 3 = a$ belgilashga ko‘ra $\log_x 3 = 1$ va $\log_x 3 = -\frac{1}{2}$ tenglamalarni yechib (bunda $\begin{cases} x \neq 1 \\ x > 0 \end{cases}$), qaralayotgan tenglamaning $x_1 = 3$ va $x_2 = \frac{1}{9}$ ildizlarini topamiz.

Endi berilgan tenglama x ning qanday qiymatlarida ma’noga ega bo‘lishini

$$\begin{cases} \log_x \sqrt{3x} > 0 \\ \log_3 x < 0 \\ x > 0 \\ x \neq 1 \end{cases}$$

sistemani yechish orqali aniqlaymiz.

a) $\log_x \sqrt{3x} > 0$, $\log_x \sqrt{3} + \log_x \sqrt{x} > 0$ va yuqoridagidek almashtirishlar bilan $\frac{1}{2}(\log_x 3 + 1) > 0$ yoki $\log_x 3 > -1$ ni hosil qilamiz. Bu tengsizlik $0 < x < 1$ bo‘lganda $3 < \frac{1}{x}$ yoki $x < \frac{1}{3}$ bo‘lib, yechim $x \in (0; \frac{1}{3})$, $x > 1$ bo‘lganda $3 > \frac{1}{x}$ yoki $x > \frac{1}{3}$ bo‘lib yechimi $x \in (1; \infty)$;

b) $\log_3 x < 0$ da yechim $0 < x < 1$. Demak umumiy holda sistema yechimi ya'ni tenglamaning aniqlanish sohasi $(0;\frac{1}{3})$ Javob: $x = \frac{1}{9}$.

2-masala. $\log_4(6+\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right|) = 0,5+\log_2\left|\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right|\right|$ tenglamani yeching.

Yechish: Berilgan tenglamani yechish uchun quyidagi belgilashni kiritamiz: $\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| = a$. U holda $\log_4(6+a) = 0,5+\log_2|a|$ tenglamani hosil qilamiz.

Bu tenglamani yechish uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz.

$$\log_{a^n} b = \frac{1}{n}\log_a b = \log_a b^{\frac{1}{n}} \quad (5) \qquad \log_a b - \log_a c = \log_a(\frac{b}{c}) \quad (6)$$

Dastlab tenglamani (5) tenglikdan foydalanib yozamiz:

$\log_{2^2}(6+a) = 0,5+\log_2|a|$, $\log_2(6+a)^{\frac{1}{2}} = 0,5+\log_2|a|$ yoki $\log_2\sqrt{a+6}-\log_2|a| = 0,5$. Bu yerda (6) tenglikdan foydalansak,

$$\log_2\frac{\sqrt{a+6}}{|a|} = 0,5 \text{ yoki } \frac{\sqrt{a+6}}{|a|} = \sqrt{2}, \text{ bundan } \sqrt{a+6} = \sqrt{2}|a|.$$

Oxirgi tenglikning ikki tamonini kvadratga ko'tarib, $a+6 = 2a^2$ yoki $2a^2-a-6 = 0$ kvadrat tenglamani hosil qilamiz. Uning ildizlari $a_1 = 2$ va $a_2 = -\frac{3}{2}$.

Endi $\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| = a$ belgilashga ko'ra $\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| = 2$ va $\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| = -\frac{3}{2}$ irratsional tenglamalarni hosil qilamiz.

1) $\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| = 2$ yoki $\left|\sqrt{x}-2\right| = \sqrt{x}-2$ bundan $\sqrt{x}-2 \ge 0$ va $x \ge 4$;

2). $\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| = -\frac{3}{2}$ yoki $\left|\sqrt{x}-2\right| = \sqrt{x}+\frac{3}{2}$. Ma'lumki tenglamaning yechimi $x = \frac{1}{16}$.

Berilgan tenglamaning aniqlanish sohasini qaraymiz:

$$\begin{cases} 6+\sqrt{x}-\left|\sqrt{x}-2\right| > 0 \\ x \ge 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \left|\sqrt{x}-2\right| < 6+\sqrt{x} \\ x \ge 0 \end{cases}.$$

Bu sistema x ning istalgan musbat qiymatida o'rinli. Demak aniqlanish sohasi $x \in [0;\infty)$. U holda 1) - 2) va $x \in [0;\infty)$ larga asosan berilgan tenglamaning yechimi $\left\{\frac{1}{16}\right\} \cup [4;\infty)$ to'plamdan iborat ekanligini topamiz.

Javob: $\left\{\frac{1}{16}\right\} \cup [4;\infty)$.

3- masala. $\sqrt{2\log_8(-x)}-\log_8\sqrt{x^2} = 0$ tenglamani yeching.

Yechish: Dastlab berilgan tenglamaning aniqlanish sohasini qaraymiz.

$$\begin{cases} 2\log_8(-x) \ge 0 \\ -x > 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x \le -1 \\ x < 0 \end{cases} \Rightarrow x \le -1.$$

Endi berilgan tenglamaning yechimini topamiz. Ma'lumki, $\sqrt{x^2} = |x|$. Bundan $\sqrt{2\log_8(-x)}-\log_8|x| = 0$. Tenglamaning aniqlanish sohasi $x \le -1$ edi. Shuning uchun $|x| = -x$ bo'lib, tenglamani $\sqrt{2\log_8(-x)}-\log_8(-x) = 0$ ko'rinishda yozish mumkin. $\log_8(-x) = a$ belgilashni kiritsak, $\sqrt{2a}-a = 0$ yoki $a = \sqrt{2a}$ bo'lib, kvadratga ko'tarsak $a^2 = 2a$ bundan $a_1 = 0$

va $a_2 = 2$ kelib chiqadi. Demak, masala $\log_8(-x) = 0$ va $\log_8(-x) = 2$ tenglamalarni yechishga keltirildi. Bularni yechib, $x_1 = -1$ va $x_2 = -64$ larni topamiz.

Javob: $x_1 = -1$ va $x_2 = -64$

4-masala. Tenglamani yeching: $\sqrt{x-2\sqrt{x-1}} + \sqrt{x+2\sqrt{x-1}} = \log_{\frac{1}{2}}(x-1)$.

Yechish: Avvalo tenglamaning aniqlanish sohasini qaraymiz.

$\begin{cases} x-2\sqrt{x-1} \geq 0 \\ x+2\sqrt{x-1} \geq 0 \\ x-1>0 \end{cases}$ Hosil bo‘lgan sistema $x>1$ bo‘lganda doimo o‘rinli. Demak tenglamaning aniqlanish sohasi: $x>1$

Endi tenglamaning chap tamonini, ya’ni $(1;+\infty)$ dagi ifodani soddalashtiramiz:

$$\sqrt{x-1-2\sqrt{x-1}+1} + \sqrt{x-1+2\sqrt{x-1}+1} = \sqrt{(\sqrt{x-1}-1)^2} + \sqrt{(\sqrt{x-1}+1)^2} =$$

$$\left|\sqrt{x-1}-1\right| + \left|\sqrt{x-1}+1\right| = \left|\sqrt{x-1}-1\right| + \sqrt{x-1}+1$$

Modul ostidagi $\sqrt{x-1}-1$ ifoda $x>2$ da $\sqrt{x-1}-1$ ga, $1<x<2$ da esa $1-\sqrt{x-1}$ ga teng bo‘ladi. Shuning uchun tenglamani ikkita holat bo‘yicha ko‘ramiz.

1) $1<x<2$ bo‘lsa, $1-\sqrt{x-1}+\sqrt{x-1}+1 = \log_{\frac{1}{2}}(x-1)$, bundan $\log_{\frac{1}{2}}(x-1) = 2$ va $x = \frac{5}{4}$;

2) $x>2$ bo‘lsa, $\sqrt{x-1}-1+\sqrt{x-1}+1 = \log_{\frac{1}{2}}(x-1)$, bundan $\log_2(x-1) = -2\sqrt{x-1}$ bo‘lib,

aniqlanish sohasiga ko‘ra doimo $x>1$ bo ‘lishi kerak, tenglamaning o‘ng tamoni esa doimo manfiy son bo‘ladi. Shuning uchun bu tenglama yechimga ega emas.

Demak, tenglama yagona $x = \frac{5}{4}$ yechimga ega ekan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maqolada logarifmik funksiya xossalari tatbiqiga oid ba’zi murakkabroq logarifmik tenglamalarni yechish masalalari o‘r-ganildi. Bu kabi masalalarni yechish natijasidagina ko‘nikma va malakalarni yuqo-ri darajaga oshirish mumkin. Maqolada qaralgan masalalardan va [1-4] ishlardan matematika fani to‘garaklarida tayyor material sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soatov U. A., Djonuzoqov U.A., "Problems of geometry with the help of joint application of basic theorems and formulas". Scientific-methodical journal of Physics, Mathematics and Informatics", (4(40)), (2018).

2.Soatov Ulugbek Abdukadirovich, & Dzhonuzokov Ulugbek Abduganievich About the issues of geometrical inequalities and the methods of their solution. European science, (7 (56)), 5-10. (2020).

3.Abdukadirovich, S. U., & Abduganievich, D. U. (2021, June). On some problems of extreme properties of the function and the application of the derivative and methods for their solution. In *Archive of Conferences* (pp. 113-117).

4.Soatov, U. A. (2022). Tenglamalarni yechishning grafik usuli haqida. *Science and Education*, *3*(8), 7-12.

5. Soatov U.A., Djonizaqov U.A.,Tenglamalar sistemalarini tuzish va ularni yechishga oid ba’zi masalalar haqida., FMI ilmiy-uslubiy jurnali, 2018, №5

BIR JINSLI TOR TEBRANISHI TENGLAMASI UCHUN KOSHI MASALASINING YECHIMI

Usmonov Baxtiyor Zoxirovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filialai

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir jinsli tor tebranishi tenglamasi uchun Koshi masalasi ko‘rib chiqilgan. Masalaning fizik mazmuni, matematik modeli, analitik yechim usuli va natijalarning fizik talqini tahlil qilinadi. Dalamber formulasi asosida tor tebranishining umumiy yechimi keltiriladi va dastlabki shartlarning ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: tor tebranishi, Koshi masalasi, to‘lqin tenglamasi, Dalamber formulasi, analitik yechim.

Аннотация: В статье рассматривается задача Коши для уравнения однородного колебания струны. Анализируются физическое содержание задачи, математическая модель, метод аналитического решения и физическая интерпретация результатов. На основе формулы Даламбера дано общее решение уравнения колебания струны и изучено влияние начальных условий.

Ключевые слова: колебание струны, задача Коши, волновое уравнение, формула Даламбера, аналитическое решение.

Abstract: This article considers the Cauchy problem for the equation of homogeneous string vibration. The physical content of the problem, the mathematical model, the analytical solution method, and the physical interpretation of the results are analyzed. Based on the D’Alembert formula, a general solution of string vibration is given and the effect of initial conditions is studied.

Keywords: string vibration, Cauchy problem, wave equation, D’Alembert formula, analytical solution.

Kirish: Tebranish jarayonlari fizikaning ko‘plab sohalarida — mexanika, akustika, elektrotexnika va hatto kvant nazariyalarida muhim rol o‘ynaydi. Tor tebranishi masalasi esa bu hodisalarning eng sodda, ammo tushunarli modelidir.

Ikki uchi mahkamlangan yoki bir uchi mahkamlangan tor tebranish haqidagi masalani yechishdan oldin osonroq bo‘lgan masalani ya’ni cheksiz tor tebranishi haqidagi masalani ko‘raylik.

Quyidagi

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \tag{1}$$

birjinsli tor tebranish tenglamasining

$$\left.\begin{aligned} u(x,t)\big|_{t=0} &= f(x) \\ \left.\frac{\partial u}{\partial t}\right|_{t=0} &= F(x) \end{aligned}\right\} \tag{2}$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish kerak. Bundagi *f(x), F(x)* lar $(-\infty,\infty)$ oraliqda berilgan funksiyalardir. Noma’lum *u(x,t)* funksiyaga hech qanday chegaraviy shart qo‘yilmagan. (1) tenglamaning (2) boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasi Koshi masalasi deyiladi.

Metodologiya: Bu masalani yechish usuli Dalamber usuli deyiladi. (1) ning umumiy yechimi

$$u(x,t) = \varphi(x-at) + \psi(x+at) \tag{3}$$

bo‘lishligini ko‘rsatamiz. Bunda φ, ψ funksiyalar ikki marta differensiallanuvchi funksiyalardir.

Haqiqatan ham

$$u'_x=\varphi'(x-at)+\psi'(x+at), u''_{xx}=\varphi''(x-at)+\psi''(x+at)$$
$$u'_t=-a\varphi'(x-at)+a\psi'(x+at), u''_{tt}=a^2\varphi''(x-at)+a^2\psi''(x+at)$$
$$u''_{tt}=a^2\varphi''+a^2\psi''=a^2(\varphi''+\psi'')=a^2u''_{xx}$$
$$u''_{tt}=a^2u''_{xx}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Demak, (3) (1)ning umumiy yechimi bo‘ladi.

Endi (2) boshlang‘ich shartlardan foydalanib, noma’lum φ,ψ funksiyalarni topamiz. (2), (3) dan:

2. Забелина М. М., Киселев И. А., Прошкйна-Лавренко А. И., Шешукова В.С. Диатомвые водоросли Государственное издателство «Советская наука»Москва Москва— 1951 149-b.

3. Темиров А.А. Облобердиева М.О. Экологическая и систематическая характеристика почвенных водорослей города Чирчика. / https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal. - 341 May, 2022.

4. Темиров А.А. Систематическая характеристика порядка ULOTRICHALES верхного и среднего течения реки Сырдарья./ Материалы Международной научной конференции «Становление и развитие экспериментальной биологии в Таджикистане» Душанбе: Дониш, 2022, -340 стр.

5. Халилов С., Р.Ш.Шоякубов Коньюгатные водоросли водоемов и почв Узбекистана // Ботаника, экология, охрана растений: Материалы международной научной конференции. – Андижан, 2007. – С. 158-160.

6. Халилов С., Темиров А.А., Эролова Х.Т. Распределение и общность улотриксовых водорослей Узбекистана с другими флористическими районами Средней Азии, СНГ и мира // Актуальные проблемы альгологии, микологии и гидроботаники: Материалы международной научной конференции. – Ташкент, 2009. – С. 145-147.

ZOOLOGIYA AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA INNOVATSION O’QUV-USLUBIY TA’MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

D.B.Saidova[1], Z.Sh.Jumanazarova[2], Z.M.Mamatxonova[3], X.D. Ergasheva[4], G.R.Nazarboyeva[5], S.B.Ibrohimova[6], F.M. Xurramova[7], U.M. Turdiyev[8]

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 111700. Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104 uy.

Dilnavozsaidova577@Gmail.Com

Anotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarni qisqa muddatda zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashning dolzarbligi yoritiladi. Ta’lim sifati, o‘quv jarayonining samaradorligi hamda o‘quvchilarda fan asoslarini puxta egallashni ta’minlaydigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan davr talablari asosida innovatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatilib, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, innovatsion metodlar, o‘quv jarayoni samaradorligi, kompetensiya, bilim sifatini oshirish, pedagogik yondashuv, talaba faolligi.

Аннотация. В данной тезисной работе раскрывается актуальность обеспечения студентов необходимыми знаниями и навыками в сжатые сроки в условиях современного образовательного процесса. Анализируются качество образования, эффективность учебного процесса и педагогические подходы, обеспечивающие прочное усвоение фундаментальных основ учебных дисциплин. Показаны преимущества применения инновационных методов в соответствии с требованиями стремительно развивающейся эпохи, а также представлены практические предложения, направленные на повышение интеллектуального потенциала подрастающего поколения.

Ключевые слова: современное образование, инновационные методы, эффективность учебного процесса, компетентность, повышение качества знаний, педагогический подход, активность студентов.

Annotation. This thesis highlights the relevance of equipping students with essential knowledge and skills within a short period in the context of modern education. It analyzes the quality of education, the effectiveness of the learning process, and pedagogical approaches that ensure solid mastery of fundamental academic concepts. The advantages of using innovative methods in accordance with the demands of a rapidly developing era are demonstrated, and

practical recommendations aimed at enhancing the intellectual potential of the younger generation are presented.

Keywords: modern education, innovative methods, learning process effectiveness, competence, improvement of knowledge quality, pedagogical approach, student engagement.

Kirish. Mamlakatimizda Milliy ta’lim siyosati va dasturiy islohotlar yildan-yilga zamonaviy uslublarga va ilg‘or pedogogik texnologiyalarga asoslangan o‘quv uslubiy ta’minotlar bilan boyib bormoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi oliy va umumta’lim tizimlarida biologiya fanlarini, xususan amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar va ishchi rejalar ishlab chiqildi. Keyingi yillarda kimyo va biologiya yo‘nalishlarini o‘qitish tizimini takomillashtirish, laboratoriya jihozlari bo‘yicha yangi talablarni ishlab chiqish va o‘quv laboratoriya ishlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha rasmiy qaror va topshiriqlar mavjud. Ushbu tashabbuslar amaliy mashg‘ulotlarni zamonaviy jihozlar va standartlarga moslashtirish, shuningdek o‘quv uslubiy materiallarni yangilashga yo‘naltirilgan. Natijada davlat darajasidagi hujjatlar amaliy mashg‘ulotlar infratuzilmasini modernizatsiyalashga rasmiy asos yaratildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda O’zbekistonda maktab va universitet darajasida virtual laboratoriyalar ishlab chiqish bo‘yicha loyihalar paydo bo‘ldi. Bu boradagi nazariy va amaliy tadqiqotlar virtual laboratoriyalar o‘quv jarayonini boyitishi, xavfsizlik va resurs samaradorligini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ayniqsa dastlabki bosqichlarda pedagogik qo‘llanmalar va 3D-modellar yordamida talabalar biologik jarayonlarni modellashtirish orqali o‘rganmoqda. Virtual laboratoriyalarning tarqalishi amaliy mashg‘ulotlarga yangi imkoniyatlar beradi, ammo ularning sifatli ishlashi uchun dasturlarni milliy ta’lim standartlariga moslashtirish, lokal kontent yaratish muhim sanaladi. O’zbek olimlari bugungi kunda biologiya va zoologiya o‘qitish metodikasi, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlar bo‘yicha ko‘plab nashrlar chop etmoqda. Bu tadqiqotlar amaliy mashg‘ulotlarni loyiha asosida tashkil etish, muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish va dizayn fikrlash yordamida oliy ta’limda samaradorlikni oshirishni taklif qiladi. Mahalliy tadqiqotlar uslubiy bazani boyitadi, ammo ularni kengaytirish uchun amaliy turdagi tajribalar (multiuniversity pilot loyihalar, dala monitoringlari, virtual-lab sinovlari) va ularning samaradorligini baholovchi statistik ma’lumotlar zarurdir [1].

Muhokama. Shu o‘rinda o‘quv-uslubiy ta’minot tushunchasi va uning ahamiyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim deb bilamiz. O’quv-uslubiy ta’minot – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan barcha metodik vositalar, qo‘llanmalar, ko‘rgazmali materiallar, elektron resurslar va amaliy ko‘rsatmalarning majmuasidir.

Zoologiya fanida bu ta’minot quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

- darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;
- laboratoriya ishlari uchun metodik ko‘rsatmalar;
- preparatlar, kolleksiyalar, mulyajlar va tasviriy materiallar;
- elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va 3D-modellar;
- ekologik kuzatuv natijalari asosida tuzilgan ma’lumot bazalari;
- test topshiriqlari va baholash mezonlari.

Mazkur uslubiy vositalarning takomillashib borishi, ularning zamonaviy talablarga moslashishi talabaning faolligini oshiradi, bilimlarni mustaqil egallash jarayonini yengillashtiradi hamda ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Bugungi kunda zoologiya fanini o‘qitishda yangi o‘quv-uslubiy ta’minot yaratishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Uslubiy vositalarning takomillashib borish zarurati quyidagi omillarga asoslanadi:

- *Ilmiy yangiliklarning tezkor kirib kelishi* – hayvonot dunyosi bo‘yicha yangi ma’lumotlar, genetik tadqiqotlar, ekologik muammolar ta’lim dasturlariga o‘z vaqtida tatbiq etilishi kerak.
- *Axborot texnologiyalarining keng qo‘llanishi* – virtual mikroskoplar, elektron atlaslar, onlayn laboratoriyalar amaliy mashg‘ulotlarni samaraliroq tashkil etish imkonini bermoqda.
- *Kredit-modul tizimi joriy etilishi* – talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirish, amaliy topshiriqlarni individuallashtirishni taqozo etmoqda.

➢ *Ekologik barqarorlik masalalari* – talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun dala sharoitidagi amaliy mashg‘ulotlarni metodik jihatdan takomillashtirish zarur.

Shunday qilib, zoologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning o‘quv-uslubiy ta’minotini takomillashtirish nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki talabalarni kelajakdagi ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud muammolarni tahlil qilgan holda, biz tomonimizdan tadqiqotlarimiz davomida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va talabalarni amaliy mashg‘ulot darslarida kompetentligini oshirish maqsadida bir nechta o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar hamda amaliy mashg‘ulot darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan talaba ish daftarlari nashr qilindi. Shuningdek, ushbu nashrlar amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar beradi va pedagogik texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiradi[2,3,].

Biz tadqiqotlarimizning tegishli muddatlarida Zoologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni sifatli va samarali tashkil etish maqsadida bir nechta o‘quv va o‘quv uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqdik va nashr etdik. jumladan, Zoologiya fanidan amaliy mashg‘ulot darslariga oid bo‘lgan va so‘nggi 10 yillikda nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalar tahlil qilindi. Ushbu qo‘llanmalarda mavjud kamchilklar va zamonaviy yondashuvlarni hisobga olgan holda Oliy ta’lim muassasalarining Biologiya ta’lim yo‘nalishlari uchun “Zoologiya” (amaliy mashg ‘ulotlar uchun) o‘quv qo‘llanma nashr etildi. O’quv qo‘llanmada Zoologiya fanining hozirgi amaldagi fan dasturida keltirilgan mavzular to‘liq qamrab olindi. Shuningdek o‘quv qo‘llanma ham amaliy mashg‘ulot darslari va ham laboratoriya mashg‘ulotlarini olib boorish va tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilar va talabalar uchun qulay holatda shakllantirildi. Bunda talaba amaliy mashg‘ulot darslarida qatnashish va jarayonni tashkil etish bilan bir vaqtda laboratoriya mashg‘ulotlariga oid bo‘lgan ma’lumotlar bilan ham bevosita yaqindan tanishib boradi hamda zamonaviy kompetensiyalarga muvofiq ko‘nikmalari ortib boradi.

O’quv qo‘llanmada har bir mavzuga oid bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar to‘liq yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarga qulaylik yaratish maqsadida mavzularga oid amaliy mashg ‘ulotlarni bajarish uchun kerakli jihozlar, amaliy mashg ‘ulotni bajarilish tartibi va mavzuga oid asosiy tushunchalar kabi qismlar alohida tartibda shakllantirilgan. Bu qulaylik talabalarda dars davomida tartibli va ketma-ketlikda bilimlarni eslab qolishi va talaba tomonidan ma’lumotlarni sifatli tarzda o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Qo‘llanmada har bir mavzu so‘nggida mavzuga oid savol va topshiriqlar berilgan. Ushbu savollar mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan mavzular doirasida ishlab chiqilgan. Talabalar dars maboynida qolaversa mustaqil ta’lim shaklida biriktirilgan savollarga tayyorgarlik ko‘radi va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni semsestr davomida bajaradi. Shuningdek amaliy mashg ‘ulot darslarining har bir mavzusi doirasida virtual laboratoriyalar va xalqaro darajadagi bilimlarning uyg‘unlashgan shakliga ko‘ra zamonaviy rasmlar va video materiallar QR kod ko‘rinishida berilgan. Talabalar mobil telefonlari orqali ushbu QR kodlarni skanerlaydi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan yaqindan tanishadi. Shu bilan birga har bir mavzuga oid rangli rasmlar berilgan. Bunda talabalar rasmlardan foydalanib hayvonlarning ichki va tashqi tuzilishiga oid bilimlarni o‘zlashtiradi.

Quyida ushbu o‘quv qo‘llanmada keltrilgan mavzuga oid ma’lumotlarni va o‘quv qo‘llanmada aks ettirilgan ma’lumotlarni berib o‘tamiz (Mavzu: Infuzoriyalar *(Ciliophora)* tipi. 7-amaliy mashg‘ulot misolida).

7-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Kiprikli infuzoriyalar *(Ciliata)* **sinfi. Vakili: Tufelka** *(Paramecium caudatum).*

Kerakli jihozlar: *Lupa, mikroskop, tufelkali pichan ivitmasi,tomizgich, qoplagich oynalar,oz miqdorda kongo bo‘yog‘i, infuzoriya tufelkaning tashqi va icnli tuzilishi tasvirlangan rasmlar, plakatlar.*

Ishning maqsadi: Kiprikli infuzoriyalar *(Ciliata)* sinfi vakillari, infuzoriya tufelka *(Paramecium caudatum)*ning tashqi va ichki tuzilishi, harakatlanishi, ko‘payishini kuzatish, o‘rganish,

Asosiy tushunchalar: Infuzoriya tufelkaning taksonomiyasi:

Tip: Infuzoriyalar *(Ciliophora)*

Sinf: Kiprikli infuzoriyalar *(Ciliata)*

Turkum: Gimenostomatalar (Hymenostomata)

Tur: Tufelka *(Paramecium caudatum).*

Kiprikli ivfuzoriyalar sinfiga mansub hayvonlar ancha yirik hayvonlar bo‘lib, kattaligi 30-40 mkm dan 1mm gacha bo‘ladi.Sitoplazmasini ikkita: tashqi- ektoplazma va ichki – endoplazma o‘rab turadi.Ektoplazma tashqi tomondan pellikula(elastil va pishiq qavat) bilan qoplangan.Pellikuladagi tolalar tayanch-skelet vazifasini bajarib, infuzoriya tanasining ma’lum shaklni belgilab beradi.


Infuzoriyalar sinfining ko‘pchilik vakillari ektoplazmasida trixosistalar(tayoqcha shakldagi tanachalar) bo‘ladiva ular himoya vazifasini bajaradi.

Infuzoriyalarning oziqlanishi ancha murakkab hisoblanadi. Ko‘pchilik infuzoriyalar suvdagi o‘simlik chirindilari,bakteriyalar, suv o‘tlari bilan oziqlanishadi.Tanasining yon (qorin) tomonida peristo‘m(og‘iz oldi chuqurchasi) tubida og‘zi joylashgan. Og‘zi halqum (sitofarinks) va u orqali endoplazma bilan tutashadi.Og‘iz atrofidagi kipriklar o‘zaro birikib membranellalarga aylanadi,ular esa tebranib oziqni og‘iz trshigi tomonga haydaydi. Tufelka halqumining tubida suv oqimi bilan kirgan zarrachalar cho‘kishidan hazm vokuolasi shakllanadi.Vokuola oziqqa to‘lgach halqumdan ajraladi va sitoplazma oqimi bilan tanada aylanib yuradi.Har 1,5-2 daqiqada hazm vokuolalari hosil b’lib turadi. Endoplazmadan ajralgan fermentlar ta’sirida vokuoladagi ozuqa hazm boladi, hazm bo‘lmagan qismi esa maxsus teshikcha- poroshitsa orqali sitoplazmadan tashqi muhitga chiqarib yuboriladi.Ko‘pchilik tufelkalarda ikkitadan qisqaruvchi vokuolasi bo‘lib, ular tananing oldingi va orqa tomonida joylashgan.Har bitta vokuola asosiy rezervuar va uning yonida joylashgan 5-7 ta naychalardan tuzilgan.Naychalarda to‘plangan suyuqlik rezervuarlarga, undan keyin esa, vokuola qisqargarishi natijasida tashqariga chiqarib turiladi.Galma- galdan qisqarib turuvchi vokuolalar osmoregulyatsiya vazifasini bajaradi.

Infuzoriyalarda 2 xil yadro bo‘lib:kattasi- makronukleus, kichigi- mikronukleus deyiladi. Infuzoriyalar jinssiz yol bilan ko‘payadi,bunda infuzoriya tanasi ko‘ndalangiga teng ikkiga bo‘linadi. Ko‘pchilik infuzoriyalarda ko‘p marta jinssiz bo‘linganidan keyin konyugatsiya deb ataladigan jinsiy ko‘payish codir bo‘ladi. Bu jarayon natijasida infuzoriyalarning soni oshmaydi,balki ikkita individ o‘zaro irsiy belgilari almashinadi. Infuzoriyalilar sinfi vakillari turki – tuman sharoitda yashashga moslashgan bo‘lib, erkin yashovchililari ham parazit formalari ham uchraydi.

Kiprikli infuzoriyalar bir nechta kenja sinflarga bo‘linadi:

1. Teng kipriklilar (Holotricha) kenja sinf vakillari: Endodiniomorfa,ixtiofitirus.
2. Spiral kipriklilar (Srirotricha) kenja sinf vakillari: Bursariya, stilonixiya.
3. Doira kipriklilar (Peritricha) kenja sinf vakillari: Suvoyka, zoothamnium arbuskula.



9-rasm: Infuzoriya tufelkaning (Paramecium caudatum) tuzilishi: 1-Qisqaruvchi vokuola; 2-hazm vokuolasi; 3-makronukleus; 4-kiprikchalar; 5-og‘iz tarnovi; 6-mikronukleus; 7-protoplazma;8-poroshitsa; 9-ektoplazma; 10-endoplazma;

Ishning borish tartibi: a) Infuzoriya tufelkali ivitmadan buyum oynachasiga bir tomchi tomizib, mikroskopning kichik ob’ektivida so‘ngra esa katta ob’ektivida kuzatiladi. Ingnfuzoriya tanasining oldingi- to‘mtoq va orqa- ingichka tomonlari farqlanadi.

b) Ingnfuzoriya tufelkaning harakatlari kuzatiladi.Tufelka to‘mtoq tomoni bilan,kipriklarini tebratib oldinga harakatlanishiga e’tibor beriladi.

d) Tufelkaning oziqlanishini kuzatisg uchun tufelkali ivitmaga kongo bo‘yog‘idan solinadi.Bo‘yoq rangi ozuqa bilan birga hazm qilish vokuolalariga o‘tayotganligini kuzatish mumkin.

e) Ingnfuzoriya tufelkalining makronukleus va mikronukleuslarini, trixosistalarining otilib chiqishini kuzatish uchun buyum oynachasiga bir tomchi tufelkali aralashma tomizilib, unga sirka kislota bilan metil bo‘yog‘i aralashmasi tomiziladi so‘ngra qoplag‘ich oyna bilan yopilib mikroskopda kuzatiladi.

f) Tufelkaning jinsiy(konyugatsiya) va jinssiz ko‘payishi tasvirlangan rasmlardan foydalanib daftarga chizib olish tavsiya etiladi.

j) QR koddagi tufelkaning rasmidan foydalanib, organoidlarining nomlarini yozish tavsiya etiladi.

Topshiriqlar:

1. Infuzoriya tufelka qanday muhitda yashashga moslashgan?
2. Makronukleus va mikronukleuslar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Ovqat hazm qilish vokuolasining hosil bo‘lish jarayonini gapirib bering.
4. IngnIfuzoriya tufelkaning qisqaruvchi vokuolalari nimalardan tuzilgan?
5. Tufelkaning og‘iz oldi chuqurchasi qanday ataladi?
6. Infuzoriya tufelka *(Paramecium caudatum)* qaysi kenja sinfga mansub?
7. Trixosistalar nima va ular qanday vazifani bajaradi?
8. IngnIfuzoriya tufelkaning sitoplazmasi nima bilan qoplangan va u qanday tuzilishga ega?

8-video. Tyfelkaning harakatlanishi

Tufelkaning tuzilishi

Tyfelkaning ko‘payishi

Shuningdek bugungi kunda ta’lim sifatining samaradorligiga qaratilgan jihatlarni inobatga olgan holda hamda Dunyoning nufuzli ta’lim muassasalarining tajribalaridan kelib chiqqan holda Biz tomonimizda yuqoridagi o‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzularga muvofiq “Talaba ish daftari” ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Talaba ish daftari o‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzularni to‘liq qamrab oladi va talabaning bilim olish va kompetevligini yuqori samaradorlikka erishishga sabab bo‘ldi. Biz tadqiqotlarimiz davomida so‘nggi uch yil davomida talabalardagi bilim va ko‘nikmalarni samaradorlik natijalariga nisbatan tahlil qilganimizda talabalarni ushbu ish daftar bilan ishlashi natijasida guruhlardagi har bir talabaning bilim va o‘zlashtirsh ko‘rsatkichlari ijobiy va samarali holati qayd etildi.

Ish daftarining qulayligi shundaki, talabalarning o‘quv adabiyotlari bilan ishlash mexanizmi soddalashadi. Talaba o‘quv adabiyotini o‘qish maboynida shakllangan bilimlarini ish daftarida amaliy mashg‘ulotlar darsida bajaradi va o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Shuningdek ushbu jarayonlar davomida talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘qituvchi tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinishiga va tegishli tartibda baholanishiga sabab bo‘ladi. Bilamizki, talabaning bilim va ko‘nikmalari odatda oraliq va yankuniy nazoratlarda baholanadi. Vaholanki, talabani joriy baholash ham mavjud bo‘lib, bunda talaba amaliy mashg‘ulot darslarida ma’lum bir vazifalarni bajarishi

talab etiladi. Guruhda o‘rtacha talabalar soni 25-30 nafar ekanligini inobatga olganimizda, mazkur dars davomida (80 daqiqa) o‘qituvchi tomonidan ko‘pi bilan 5-6 nafar talabaning o‘zlashtirish darajasini baholashi mumkin bo‘ladi. Ish daftarining yana bir qulayligi shundaki, o‘qituvchi mashg‘ulot davomida har bir talaba bilan ishlashga muvaffaq bo ‘ladi hamda guruhdagi har bir talabaga vaqti yetadi, shuningdek hech bir talaba e’tibordan chetda qolmaydi va har biri talaba baholanishga erishiladi.

Ish daftar o‘z ichiga mavzuga oid ma’lumotlarni yozish uchun (konspekt) qoldirilgan bo ‘sh joylar, mavzuga oid rangli rasm hamda QR kodli rasm va video materiallari, mavzuga oid savollar va testlarni qamrab oladi. Talaba o‘quv adabiyotlari va ma’ruza darslarida o‘zlashtirgan bilimlari va mavzuga oid ma’lumotlarni qisqa va lunda ko‘rinishda konspekt uchun qoldirilgan joyga yozadi. Bunda amaliy mashg ‘ulotlarni bajarish uchun zarur jihozlar, ishning borish tartibi va mavzuga oid asosiy tushunchalar alohida tartibda kletiriladi. Undan so‘ng talaba mavzuga oid berilgan rangli rasmlar bilan ishlaydi. Rasmlarda (ba’zilarida) hayvonlarning ichki va tashq tuzilishiga oid atamalar chet tillarida (rus, ingliz) berilgan bo‘lib, talaba ushbu atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Bundan asosiy maqsad bugungi kundagi har bir sohada xalqaro va zamonaviy kadrlarni tayyorlashda bevosita chet tiliga qaratilgan mamlakatimiz tomonidan belgilangan kadrlar tayyorlashdagi muhim vazifalarning ijrosi sifatida amalga oshirilgan.

Talabalar ish daftarida QR kodli materiallar bilan tanishadi va amalda bajarilishi biroz murakkab bo‘lgan laboratoriya mashg ‘ulotlariga oid jarayonlarni virtual holda kuzatishga muvaffaq bo‘ladi. Chunki yilning turli mavsumlarida har doim ham zoologik laboratoriya ishlarida zarur bo‘lgan obyektlarni topish imkonsiz bo‘ladi. Ushbu muammoli vaziyatlarga virtual holda keltirilgan mavzuga oid video materiallar yechim bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, talabalar ish daftarida mavzuga oid savollarga javob yozadi va testlarni ishlash orqali ushbu mavzuni mustahkamlaydi.

Quyida ish daftarida keltirilgan mavzulardan birini misol tariqasida berib o‘tamiz.

Sana:_____
kun, oy, yil

7-Amaliy mashg‘ulot


Mavzu: Infuzoriyalar *(Ciliophora)* tipi. Kiprikli infuzoriyalar *(Ciliata)* sinfi.
Vakili: Tufelka *(Paramecium caudatum)*.

Kerakli jihozlar: _____
_____

Ishning maqsadi:_____
_____

Asosiy tushunchalar:_____
_____
_____

Ishning borish tartibi:_____
_____
_____



Tufelkani tuzilishini raqamlarga moslab yozing:

1._____
2._____
3._____
4._____
5._____
6._____
7._____
8._____
9._____
10._____

Tufelkaning harakatlanishi

Savol – javob:

1–savol. Makronukleus va mikronukleuslar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
Javob: _____

2-savol. Tufelkaning og‘iz oldi chuqurchasi qanday ataladi?
Javob:_____

3-savol. Infuzoriya tufelkaning qisqaruvchi vokuolasri qanday vazifani bajaradi?
Javob: _____

Mavzuga oid test

1. *Tufelka tanasida qaysi organoidlari ikkitadan bo‘ladi?*

A) yadro va qisqaruvchi vakuolalar

B) yadro va hazm vakuolalari

3. *Tufelkaning katta yadrosi qanday shaklga ega?*

A) loviyasimon B) ovalsimon

C) yumaloqsimon D) ipsimon

4. *Tufelkaning qisqaruvchi*

C) hazm va qisqaruvchi vakuolalar

D) yadro, qisqaruvchi vakuolalar va mitoxondriya

2. *Tufelkaga xos bo‘lmagan belgini aniqlang.*

A) tanasi kipriklar bilan qoplangan

B) halqum va chiqaruvchi teshigi mavjud

C) kuydiruvchi tanachalar mavjud

D) ektoderma qavatida xivchinli hujayralar mavjud

vakuolasidan qaysi mahsulot chiqarib yuboriladi?

A) hazm bo‘lmagan mahsulotlar;

B) gametalar;

C) suv va moddalar almashinuvining mahsulotlari;

D) kislorod va jinsiy hujayralar;

5. Tufelka qaysi tipga mansub?

A) soxta oyoqlilar; B) xivchinlilar;

C) infuzoriyalar; D) sodda hayvonlar;

Test javoblari:

№	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**
Javob					

Talabaning darsga qatnashish holati bo‘yicha fan o‘qituvchisi xulosasi:

a’lo (5) ***yaxshi (4)*** ***qoniqarli (3)*** ***qoniqarsiz (2)***

Natijalar. Keltirib o‘tilganidek, har bir mavzu so‘nggida amaliy mashg‘ulot o‘qituvchisi tomonidan talabalarning darslardagi faolligi va bilim darajalarini rag‘batlantirish maqsadida shakllantirilgan baholash qismiga dars maboynida baholanadi. Hozirgi dars jarayonlarida talabani har bir darsda baholash keltirilmagan, bu esa talabalarda darslarga bo‘lgan ma’suliyatini biroz kamayishiga olib keladi. Biz tadqiqotlarimizda talabalarda ushbu ma’suliyatni oshirish maqsadida har bir talabani har bir darsda va har bir mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga undovchi omil sifatida ushbu baholash tizimini ishlab chiqdik. Ishlab chiqilgan ushbu baholash shakli biz tadqiqot olib borgan davrda tadbiq etildi va talabalarda fanni o‘zlashtirishga nisbatan samaradorlikda ijobiy natijalarga erishildi[4,5,6].

Xulosa: Zoologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ta’lim jarayonida o‘quv-uslubiy ta’minotning zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tashkil etilishi zarurligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda joriy etilgan virtual laboratoriyalar, 3D-modellar, elektron resurslar va QR-kodli materiallar amaliy mashg‘ulotlarning mazmunini boyitib, talabalarning mustaqil va faol o‘quv jarayoniga jalb qilinishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida yaratilgan **o‘quv qo‘llanma** va **talaba ish daftari** amaliy mashg‘ulotlarni tizimli, izchil va metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam berib, talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganligi aniqlandi. Ushbu vositalar talabalarga nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish, jarayonlarni kuzatish, virtual tajribalarni bajarish va kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy mashg‘ulotlarda o‘quv-uslubiy ta’minotni yangilash, uni xalqaro tajribalar bilan boyitish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlash talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga erishadi hamda ularni kelajakdagi ilmiy va professional faoliyatga samarali tayyorlaydi. Shu bois mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-uslubiy ishlarni yanada kengaytirish, tajribalarni ko‘p bosqichli baholash va ularni ta’lim standartlariga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5847-son qarori. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.2020.
2. Abdullayev, A. “Zoologiya fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv.” Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2021.b 45–51.
3. Niyozov Q.A. Zoologiyadan kolleksiya va preparatlar tayyorlash o‘quv qo‘llanma. Namangan.2009. 6-bet.
4. Qulmamatov A. *Umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv dala amaliyoti: o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: TIIAME nashriyoti, 2004. – 56 b.
5. Хусанов А. К. *Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar: o‘quv qo‘llanma*. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2021. – 72 b.
6. Sh. Omonov, M.Askarova,D.Saidova, Zoologiya (Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi) O’quv qo‘llanma.Toshkent “City of book”, 2023.178 bet.

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA TA’LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Perdeshova Nargiza Yesenbayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedra o‘qituvchisi
Mehmonova Muxlisa Baxtiyor qizi, Nishonboyev Shohro‘z Umid o‘g‘li, Omonov Abdulaziz Abdimo‘min o‘g‘li, Sherovatova Shabbona G‘olib qizi, Ro‘zimboyeva Go‘zal Qudrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti; Kimyo yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek ma’rifatparvar adibi, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy hayoti va uning pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Avloniyning ta’lim va tarbiya sohasidagi qarashlari, zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri hamda “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Maqolada Avloniyning milliy maktab, o‘qituvchi va tarbiyachining jamiyatdagi o‘rni haqidagi fikrlari ham o‘z ifodasini topgan.

Аннотация. В данной статье анализируется жизнь и педагогическая деятельность узбекского просветителя, писателя и общественного деятеля Абдуллы Авлони. Рассматриваются взгляды Авлони на образование и воспитание, его влияние на современную систему образования, а также воспитательное значение его произведения «Туркий гулистон ёхуд ахлок» («Туркестанский Гулистан или Этика»). В статье также отражены мысли Авлони о роли национальной школы, учителя и воспитателя в обществе.

Annotation. This article analyzes the life and pedagogical activity of the Uzbek educator, writer, and public figure Abdulla Avloni. It discusses Avloni’s views on education and upbringing, his influence on the modern education system, as well as the educational significance of his work “Turkiy Guliston yoxud axloq” (“Turkic Gulistan or Ethics”). The article also reflects Avloni’s ideas about the role of national schools, teachers, and educators in society.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, pedagogika, axloq, maktab, milliy qadriyat.

Kirish. XX asr boshlarida O’rta Osiyoda milliy uyg‘onish harakati kuchaygan bir davrda, o‘zbek xalqining ma’naviy-ma’rifiy hayotida yangi sahifa ochildi. Bu davrda jadidchilik harakati vakillari millatni jaholatdan qutqarish, zamonaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish va yosh avlodni ilm-ma’rifatga chorlashni bosh maqsad qilib qo‘ygan edilar. Shunday ziyolilardan biri – Abdulla Avloniy bo‘lib, u o‘zining butun umrini xalqni ilmli qilish, ma’naviy jihatdan uyg‘otish ishiga bag‘ishladi.

Avloniyning pedagogik qarashlari, asosan, inson tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, milliy qadriyatlar va ma’rifat orqali taraqqiyotga erishish g‘oyalariga asoslangan. U o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’lim va tarbiyani jamiyatning eng muhim omili sifatida talqin etadi.

Asosiy qism

1. Abdulla Avloniyning hayoti va ma’rifatparvarlik faoliyati

Abdulla Avloniy (1878–1934) Toshkent shahrida tug‘ilgan. U dastlab eski maktabda, keyinchalik rus-tuzem maktabida ta’lim olgan. Yoshligidan adabiyot va teatr san’atiga qiziqqan Avloniy, o‘z davrining ilg‘or fikrli ziyolilari safida jadidchilik g‘oyalarini faol targ‘ib etgan.

1904-yilda Toshkentda “Turon” nomli yangi usuldagi maktabni tashkil etib, o‘quvchilarga zamonaviy fanlardan dars bergan. Shu bilan birga, o‘quvchilar uchun darslik va qo‘llanmalar yozdi. Uning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” kabi o‘quv qo‘llanmalari o‘zbek pedagogik tafakkurida yangicha yondashuv namunasi bo‘ldi.

Avloniy o‘z faoliyati davomida o‘qituvchi shaxsining tarbiyadagi o‘rniga katta e’tibor bergan. Uning fikricha, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki inson qalbini tarbiyalovchi ma’naviy yo‘lboshchidir.

2. Avloniyning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari

Abdulla Avloniy ta’limni millatning yashash garovi deb bilgan. U “ilm – hayot chirog‘i, jaholat – o‘lim qorong‘usi” deb ta’kidlab, har bir insonning ma’rifatli bo‘lishi shart, degan g‘oyani ilgari surgan.

Avloniyning qarashlariga ko‘ra, ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Ta’limsiz tarbiya yoki tarbiyasiz ta’lim jamiyatni komillikka olib bora olmaydi. Shu bois u maktablarda ilm bilan bir qatorda axloqiy tarbiyaga ham katta e’tibor berilishini zarur deb bilgan.

U “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida insonni yetuk shaxs sifatida shakllantirish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor beradi:

-insonparvarlik,

-halollik,

-mehnatsevarlik,

-vatanparvarlik,

-odob-axloq,

-millat va tilga hurmat.

Avloniy o‘z asarlarida yoshlarni milliy g‘urur, vatanga muhabbat, ilmga chanqoqlik ruhida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan.

3. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining pedagogik ahamiyati

Avloniyning 1913-yilda yozilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘zbek pedagogik fikrining eng muhim manbalaridan biridir. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, unda inson axloqi, tarbiya masalalari, jamiyatdagi odob me’yorlari haqida fikr yuritilgan.

Muallif axloqni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin etadi. U bolalarni yoshlikdan odobli, halol, mehribon va mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatish zarurligini uqtiradi. Avloniy shuningdek, maktabda o‘qitish usullari haqida ham to‘xtaladi. Uningcha, o‘quvchi mustaqil fikrlay olishi, o‘rganilgan bilimni amalda qo‘llay bilishi lozim. U bu borada o‘qituvchining faol, jonli va ibratli bo‘lishini talab qiladi.

4. Avloniy qarashlarining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati

Bugungi kunda O’zbekiston ta’lim tizimida Abdulla Avloniyning g‘oyalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Inson qadri uchun” g‘oyasi, “yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash” siyosati aynan Avloniy ilgari surgan pedagogik tamoyillarga hamohangdir.

Zamonaviy ta’limda ham Avloniy asarlaridagi axloqiy tarbiya, milliy g‘urur, ona tiliga hurmat, Vatanga muhabbat kabi g‘oyalar asosiy o‘rin egallaydi. Bugungi o‘qituvchilar ham Avloniyning “o‘qituvchi – millat kelajagini tarbiyalovchi inson” degan fikridan ibrat olishlari lozim.

Xulosa

Abdulla Avloniy nafaqat adabiyot, balki pedagogika sohasida ham o‘zbek xalqining faxrli siymolaridan biridir. Uning pedagogik faoliyati xalq ma’rifatini yuksaltirish, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qildi. Avloniyning asarlari, ayniqsa “Turkiy guliston yoxud axloq” o‘zbek ta’lim tizimining ma’naviy poydevoriga aylangan.

Uning qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, mustaqil O’zbekiston ta’lim siyosatining g‘oyaviy asoslaridan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3. Qodirov A., Jo‘rayev M. O’zbek pedagogika tarixi. – Toshkent: Fan, 2004.

4. G‘ulomov N. O’zbek jadidchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011.
5. Avazov A. Milliy tarbiya va pedagogika asoslari. – Toshkent: Noshir, 2018.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. – 2020-yil 6-noyabr

O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI

Perdeshova Nargiza Yesenbayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedra o‘qituvchisi
Perdeshova Nargiza Yesenbayevna, Nuraliyeva Sadoqat Sherali qizi, Tuliganova Diana Baxtiyor qizi, Uzoqova Muslima Shaxriyor qizi, Umaraliyeva Dilshoda Sheraliyevna, Yunusova Oygul Sherali qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchining innovatsion faoliyatining mohiyati, asosiy jihatlari va shakllanishida muhim bo‘lgan shart-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, pedagogga yaratilishi lozim bo‘lgan muhit va institutsional infratuzilma ko‘rib chiqiladi. Maqola o‘qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini ochish, yangicha yondashuvlarni sinab ko‘rishga rag‘batlantirish orqali sifatli ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan takliflarni o‘z ichiga oladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность инновационной деятельности учителя, её основные аспекты и важные условия и мероприятия, способствующие её формированию. Также анализируются механизмы поддержки инновационной деятельности, а также институциональная инфраструктура и среда, которые необходимо создать для педагога. В статье представлены предложения, направленные на развитие качественного образования путём раскрытия творческого потенциала учителей и стимулирования их к испытанию новых подходов.

Annotation. This article analyzes the essence of the teacher’s innovative activity, its main aspects, and the important conditions and measures in its formation. It also examines the mechanisms for supporting innovative activity and the institutional infrastructure and environment that should be created for teachers. The article includes proposals aimed at developing quality education through encouraging teachers to reveal their creative potential and to experiment with new approaches.

Kalit so‘zlar;innovatsion faoliyat, pedagog innovatsiyasi, shart-tadbirlar, ijodkorlik, motivatsiya, pedagogik muhit, ta’lim infratuzilmasi.

Kirish Bugungi kunda ta’lim sohasida o‘zgarishlar juda tez kechmoqda: raqamli texnologiyalar, yangi pedagogik metodlar, global kommunikatsiya vositalari ta’lim jarayonlarini tubdan transformatsiya qilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchidan nafaqat dars berish, balki yangicha metod va uslublarni izlab topish, sinovdan o‘tkazish va takomillashtirish talab etiladi. Bu kontekstda pedagogning innovatsion faoliyati – yangilik yaratish, uni amaliyotga tatbiq etish va natijasini tahlil qilish zanjiriga ega faoliyat sifatida talablarga javob beradi.O’qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish muhim, chunki:Bu ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradi;O’quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi va o‘qish motivatsiyasini oshiradi;Pedagoglar o‘z kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda yangilab boradi;Ta’lim muassasalari innovatsion rivojlanishga tayyor bo‘ladi.Shu sababli, o‘qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirishga doir shart-tadbirlarni aniqlash va tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

1. Innovatsion faoliyat tushunchasi va xususiyatlari

1. Innovatsion faoliyatning mohiyati

Innovatsion faoliyat — pedagogik jarayonda yangicha g‘oyalar, metodlar, vositalarni yaratish, sinab ko‘rish va joriy etish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish faoliyatidir (o‘qituvchining innovatsion faoliyati). Bu faoliyat ijodkorlik, intellektual izlanish va tizimli yondashuvga asoslanadi.

1.2. Innovatsion faoliyatning tarkibiy elementlari

Innovatsion faoliyat quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin:

Muammo aniqlash va innovatsion g‘oya shakllantirish;

G‘oyani rejalashtirish va loyihalashtirish

Natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish;

Tarqatish va keng qo‘llash (disseminatsiya).

Innovatsion faoliyat darajalari ham farqlanadi: — reproduktiv (ega bo‘lgan tajribani qayta ishlatish), modifikatsion (mavjud metodni yangicha uslub bilan o‘zgartirish), transformatsion (butunlay yangi yondashuv yaratish).

1.3. Innovatsion pedagogning xususiyatlari

Innovatsion pedagog quyidagi sifat va qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak: ijodkorlik, yangilikka ochiqlik, sinovchanlik, tanqidiy fikrlash, o‘rganishga tayyorlik, pedagogik va texnologik kompetensiya, refleksiya (o‘zini tahlil qilish).

2. Innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlari

Quyida o‘qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bu shartlar bir-biri bilan uyg‘un bo‘lishi muhimdir.

2.1. Motivatsiya va ichki intilish

Pedagogning innovatsion faoliyatga bo‘lgan ichki motivatsiyasi muhim omil hisoblanadi. Qiziqish, kasbiy rivojlanish ehtiyoji, o‘z ishi orqali ta’sir ko‘rsatish istagi — bular pedagogni yangi yondashuvlarni izlashga undaydi.

2.2. Professional malaka va doimiy ta’lim

Innovatsion faoliyatda texnologik, metodik va pedagogik yangi bilimlarni egallash muhim. Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari, seminarlar, trenerlik dasturlari bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni boshqa tajribalarni o‘rganishga rag‘batlantirish kerak.

2.3. Avtonomiya va ijodiy erkinlikO’qituvchilarga yangicha metodlar, vositalar bilan tajriba o‘tkazish uchun mustaqillik berilishi lozim. Ular o‘z kontekstiga mos innovatsiyalarni joriy etish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

2.4. Institutsional qo‘llab-quvvatlash va madaniyat

Maktab yoki ta’lim muassasasi doirasida pedagoglar o‘z innovatsiyalarini bo‘lisha oladigan muhit, qo‘shma faoliyat, tajriba almashish an’analari bo‘lishi kerak. Innovatsion madaniyat – hamkorlik, ochiqlik va xatolardan o‘rganish muhiti yaratish – shart.2.5. Resurslar va infratuzilma

Zarur texnika, uskunalar, mablag‘, internet va axborot-kommunikatsiya vositalari bo‘lishi muhim. Shuningdek, laboratoriya, media-markazlar, innovatsion zonalar kabi infratuzilma mavjud bo‘lishi kerak.

2.6. Moliyaviy rag‘batlantirish

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish (grantlar, stipendiyalar, mukofotlar) pedagoglarni yangicha ishlashga undaydi. Innovatsion faoliyat uchun mablag‘ ajratilishi va rag‘bat esquvilari bo‘lishi kerak.

2.7. Huquqiy va siyosiy qo‘llab-quvvatlash

Innovatsion faoliyat davlat siyosati doirasida qo‘llab-quvvatlanishi, normativ-huquqiy bazaning mavjudligi zarur. Davlat strategiyalari va ta’lim siyosatida innovatsiyalarga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

2.8. Baholash va monitoring tizimi

Innovatsion faoliyat natijalarini baholaydigan indikatorlar, monitoring va refleksiya mexanizmlari bo‘lishi lozim. Bu pedagogga o‘z ishini takomillashtirish imkonini beradi.

3. Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar

1. Ta’lim muassasalarida pedagoglarning innovatsiyalarini taqdim etish, tajriba almashish platformalarini tashkil etish.

2. Innovatsion loyihalar uchun tanlovlar va grantlar e’lon qilish.

3. Doimiy malaka oshirish kurslarini innovatsion metod va texnologiyalar bo‘yicha yangilab borish.

4. Rahbarlar tomonidan pedagoglarning yangicha g‘oyalari va sinovlarini qo‘llab-quvvatlash siyosatini olib borish.

5. Maktabda “ideya laboratoriyasi”, innovatsion zonalar tashkil qilish.

6. Baholash va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, pedagoglarning innovatsion faoliyati bo‘yicha indikatorlar ishlab chiqish.

Xulosa

O’qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish — murakkab, ammo muhim jarayon. Bu jarayon samarali bo‘lishi uchun pedagogga ichki motivatsiya, professional tayyorgarlik, avtonomiya, institutsional qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma, moliyaviy rag‘bat, qonuniy asos va baholash tizimi kerak. Agar yuqoridagi shartlar birgalikda bajarilsa, pedagoglar yangicha metodlar va g‘oyalarni sinab ko‘rishga intiladi va ta’lim sifatida izchil o‘sish yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’qituvchining innovatsion faoliyati (Arxiv.uz)

2. O’qituvchining innovatsion faoliyati — CyberLeninka

3. Zamonaviy o‘qituvchi innovatsion faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, Xakimova D. 4. Ta’lim jarayonida pedagogning innovatsion kasbiy faoliyati va xususiyatlari

6. Determinants of the Innovation Behaviour of Teachers in Higher Education

7. Innovation in teacher education: towards a critical re-conceptualization

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DAVLAT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Abdimitalov Davronbek Abdug‘ani o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Anotatsiya: **T**ezis davlat xizmatlarining samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqot jarayonida raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni avtomatlashtirish kabi ilg‘or texnologiyalar yordamida davlat xizmatlari samaradorligini oshirish usullari o‘rganildi. Shuningdek, tezisda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, jarayonlarni optimallashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarni tizimli joriy etish davlat idoralarining operatsion samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, davlat xizmatlari, raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, samaradorlik, fuqarolarga xizmat ko‘rsatish.

Kirish: Davlat xizmatlarini samarali va barqaror rivojlantirish har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va fuqarolarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatining oshishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim masaladir. XXI asrda globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi davlat xizmatlarini tashkil etish va boshqarish tizimlarida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat idoralarining ish samaradorligini oshirish, byurokratik jarayonlarni optimallashtirish, resurslarni tejash va korrupsiyaga qarshi kurashish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatlari va innovatsion texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasida davlat xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish masalalari alohida o‘rin tutadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat ichki ishlar va ma’muriy jarayonlar optimallashtiriladi, balki fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchi ham oshadi. Masalan, elektron hukumat (e-Government) tizimlari, onlayn xizmat portallari, sun’iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari davlat xizmatlarining shaffofligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi[1]. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar fuqarolar bilan muloqotni soddalashtiradi va davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini qulaylashtiradi. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida davlat xizmatlarida innovatsion yondashuvlarni joriy etishning bir qator muhim yo‘nalishlari aniqlanmoqda. Ularga raqamli ma’lumotlar bazalarini yaratish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil

qilish (Big Data), bulutli texnologiyalarni qo‘llash, blokcheyn texnologiyalari orqali ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash kiradi. Ushbu yo‘nalishlar davlat idoralarining ichki jarayonlarini optimallashtirish va fuqarolarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Estoniya tajribasida elektron hukumat tizimi orqali deyarli barcha davlat xizmatlari onlayn tarzda taqdim etilib, fuqarolarning xizmatlardan foydalanish vaqti va xarajatlari sezilarli darajada kamaytirilgan[2]. Innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilish jarayonida ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, texnologik yangilanishlar nafaqat samaradorlikni oshirish, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatlari tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ikki asosiy maqsadga yo‘naltiriladi: birinchisi, idoralararo hamkorlik va ichki jarayonlarni optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish; ikkinchisi, fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, shaffoflikni ta’minlash va korrupsion xatarlarni kamaytirish. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va ularning faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlari yordamida xizmat ko‘rsatish jarayonlari monitoring qilinadi, samaradorlik ko‘rsatkichlari baholanadi va xizmat sifatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan tizimlar inson omilini kamaytirib, xatolik va korrupsion xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida, albatta, bir qator muammolar ham mavjud[3]. Ularning ichida texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, kadrlar malakasining pastligi, qonunchilik va regulyativ bazaning eskirganligi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, davlat xizmatlarini rivojlantirishning muvaffaqiyatli strategiyasi faqat texnologik yangilanishni emas, balki inson resurslarini rivojlantirish, qonunchilikni modernizatsiya qilish va fuqarolarni raqamli savodxonlikka o‘rgatishni ham o‘z ichiga olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga joriy etish multidisipliner yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda informatika, menejment, huquqshunoslik va iqtisodiy tahlil sohalarining ilmiy metodlari birlashtiriladi. Masalan, davlat xizmatlarini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, raqamli transformatsiya jarayonlarini modellashtirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining samaradorligini baholash va innovatsion yechimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini tahlil qilish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, global tajriba ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish mamlakatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Innovatsion yondashuvlar yordamida davlat xizmatlari fuqarolarga yanada tez, shaffof va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa oxir-oqibatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi[4]. Ushbu tezis doirasida innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari, samaradorlikni oshirish mexanizmlari, raqamli transformatsiya tajribalari va muammolar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, davlat xizmatlari tizimini modernizatsiya qilishning ilg‘or metodologik yondashuvlari ham ko‘rib chiqiladi, bu esa tezisning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilish sohasida bir qator xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavjud. Ularning ilmiy ishlari davlat xizmatlarini raqamlashtirish, samaradorlikni oshirish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqotda mualliflar elektron hukumat tizimlarining xavfsizligini va maxfiyligini ta’minlash uchun blokcheyn texnologiyasining qo‘llanilishini o‘rganadilar. Tadqiqotda blokcheyn asosida markazlashmagan elektron hukumat tizimi ramkasi taklif etilgan bo‘lib, bu tizim davlat xizmatlarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi[5]. Mualliflarning fikricha, blokcheyn texnologiyasi orqali davlat xizmatlari jarayonlari shaffof va xavfsiz bo‘lishi mumkin, bu esa fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotda davlat sektori innovatsiyasini rag‘batlantirish uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati ta’kidlangan. Tadqiqotda GovTech hamkorliklari orqali davlat sektori muammolariga yechim topish, raqamli yechimlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Mualliflar davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida samaradorlikni oshirish va resurslarni tejash uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydilar[6]. Ushbu ikki tadqiqotning natijalari shuni

koʻrsatadiki, davlat xizmatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qoʻllash samaradorlikni oshirish, fuqarolarga xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash va davlat idoralari faoliyatini shaffoflashtirishga xizmat qiladi. Blokcheyn texnologiyasi orqali davlat xizmatlarining xavfsizligi va ishonchliligi ta'minlanishi mumkin boʻlsa, GovTech hamkorliklari orqali raqamli yechimlarni ishlab chiqish va tatbiq etish imkoniyatlari yaratiladi. Bu yondashuvlar davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega boʻlib, ularni samarali va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda davlat xizmatlarini samarali va sifatli tashkil etish, fuqarolarga xizmat koʻrsatish jarayonlarini optimallashtirish va davlat idoralarining operatsion samaradorligini oshirish global darajada dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi va innovatsion texnologiyalar yordamida modernizatsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data), blokcheyn va bulutli texnologiyalar, davlat xizmatlarining shaffofligini oshirish, fuqarolarga tez va qulay xizmat koʻrsatish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatini yaratadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli transformatsiya va innovatsion yechimlar nafaqat ishlab chiqish, balki joriy etish va keng tatbiq etish jarayonida davlatning barcha tizimlari uchun samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratadi. Misol uchun, elektron hukumat tizimlari yordamida davlat xizmatlaridan foydalanish jarayoni soddalashtiriladi, vaqt va xarajatlar kamayadi, fuqarolarning davlat organlariga boʻlgan ishonchi ortadi, shuningdek korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar tatbiq etiladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilish jarayoni nafaqat texnologik yangilanish, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik omil sifatida qaraladi. Shuningdek, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va innovatsion texnologiyalar orqali modernizatsiyasi ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, raqamli platformalar orqali barcha fuqarolar, hududiy yoki iqtisodiy farqidan qat'iy nazar, teng va shaffof xizmat olish imkoniyatiga ega boʻladi[7]. Bu esa davlat boshqaruvi tizimining ishonchliligini oshirish va fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga joriy etish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlari ham mavjud. Bu nafaqat byurokratik xarajatlarni kamaytiradi, balki davlat xodimlarining ish samaradorligini oshirish va xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Global miqyosda ushbu jarayonlar rivojlangan mamlakatlarning tajribasida allaqachon oʻz samarasini koʻrsatgan: masalan, Estoniya va Singapur elektron hukumat tizimlari orqali barcha davlat xizmatlarini raqamlashtirib, fuqarolarga tez va qulay xizmat koʻrsatishni ta'minlagan[8]. Dolzarb muammo shundaki, texnologik yangilanishlar faqat mavjud jarayonlarni optimallashtirish bilan cheklanmasdan, ularni strategik rivojlantirish, ilgʻor texnologiyalar yordamida kelajakdagi ehtiyojlarni oldindan prognozlash va fuqarolarning talablari asosida moslashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash boʻyicha asosiy ilmiy va amaliy yoʻnalish sifatida qaraladi. Ushbu mavzu nafaqat ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan, balki amaliy va strategik jihatdan ham dolzarb boʻlib, davlat boshqaruvi tizimining raqamli transformatsiyasini, innovatsion texnologiyalarni integratsiyalashni va fuqarolarga xizmat koʻrsatish sifatini tubdan yaxshilashni ta'minlashga qaratilgan. Shu sababli, innovatsion texnologiyalar asosida davlat xizmatlarini rivojlantirish yoʻllarini oʻrganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim va dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biridir.

Soʻnggi oʻn yilliklarda davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish sohasida global va mahalliy miqyosda keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi davlat idoralari faoliyatining samaradorligini oshirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarga xizmat koʻrsatish sifatini tubdan yaxshilashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi jarayonida markaziy oʻrin tutadi. Birinchi navbatda, elektron hukumat (e-Government) tizimlari keng joriy etildi. Masalan, Estoniya tajribasida barcha davlat xizmatlari

onlayn portallar orqali taqdim etilib, fuqarolar bir martalik identifikatsiya orqali barcha xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo‘lishdi[9]. Shu orqali ma’muriy jarayonlar soddalashtirildi, hujjat aylanishi tezlashdi va inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamaytirildi. O’zbekistonning so‘nggi yillarda amalga oshirgan “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” kabi loyihalari ham shu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishning yorqin misolidir. Ikkinchi asosiy yo‘nalish – sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data) texnologiyalarini davlat xizmatlarida qo‘llash. Ushbu texnologiyalar yordamida fuqarolarga xizmat ko‘rsatish jarayonlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi, muammoli sohalar aniqlanadi va xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Misol uchun, davlat idoralari ichki jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ish samaradorligini oshiradi, fuqarolarning murojaatlarini tezkor qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar tatbiq etiladi. Uchinchi yo‘nalish – blokcheyn texnologiyalarini qo‘llash orqali ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va shaffoflikni oshirish. Blokcheyn yordamida barcha davlat xizmatlari tranzaksiyalari markazlashmagan tizimda saqlanadi, bu esa ma’lumotlar buzilishining oldini oladi va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda ishonchlilikni oshiradi[10]. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy, mulkiy va ma’muriy jarayonlarni optimallashtirishda ham keng qo‘llanilmoqda. To‘rtinchi yo‘nalish – kadrlarni tayyorlash va ularning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha islohotlar. Innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish uchun davlat xodimlarining malakasini oshirish, yangi texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bir qator mamlakatlarda davlat xodimlari uchun maxsus treninglar, onlayn kurslar va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, islohotlar doirasida qonunchilik va regulyativ bazani modernizatsiya qilish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun qonunchilikni moslashtirish, maxfiylik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha yangi tartiblarni ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, elektron hukumat tizimlarining samarali ishlashi uchun regulyativ mexanizmlar doimiy monitoring qilinadi va optimallashtiriladi. Ushbu islohotlar natijasida davlat xizmatlari tizimida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Fuqarolar xizmatlardan tez va qulay foydalanish imkoniga ega bo‘ldi, jarayonlar shaffoflashdi va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, davlat idoralari samaradorligi oshdi, resurslar tejaldi va innovatsion yondashuvlar asosida yangi xizmat turlari yaratildi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan innovatsion islohotlar davlat xizmatlarini rivojlantirishda muhim bosqichni tashkil etadi va bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish va davlat idoralarining samaradorligini oshirishga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilish sohasi bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilish jarayoni nafaqat texnologik yangilanish, balki fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, davlat idoralarining samaradorligini ta’minlash va byurokratik jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladigan strategik yo‘nalish sifatida ahamiyatga ega. Elektron hukumat tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish mexanizmlari, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari davlat xizmatlarining shaffofligi, xavfsizligi va tezkorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali fuqarolarga xizmat ko‘rsatish jarayonlari soddalashadi, resurslar samarali taqsimlanadi va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar tatbiq etiladi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va raqamli savodxonligini rivojlantirish, qonunchilik va regulyativ bazani modernizatsiya qilish jarayonlari innovatsion transformatsiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy olimlar tadqiqotlari va global tajribalar shuni ko‘rsatadiki, elektron hukumat tizimlari va GovTech hamkorliklari yordamida davlat xizmatlarini raqamlashtirish samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta’minlash va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Blokcheyn va sun’iy intellekt texnologiyalari esa jarayonlarni xavfsiz va tezkor amalga oshirish imkonini yaratadi, davlat

idoralari faoliyatini monitoring qilish va prognoz qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilish ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga hissa qo‘shadi, chunki raqamli platformalar orqali barcha fuqarolar, hududiy yoki iqtisodiy farqidan qat’iy nazar, teng va shaffof xizmat olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa davlat boshqaruvi tizimining ishonchliligini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish va byurokratik jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha eng samarali strategik vosita hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy islohotlar davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasini yanada chuqurlashtirish, davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хабибуллаева Д. Давлат хизматлирин кўрсатишда инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизмлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 105-108.
2. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Respublikamizda maktabgacha ta’limda yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 221-228.
3. Нишанов А., Саидрасулов Ш. Электрон давлат хизматлари //digital transformation and artificial intelligence. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 112-119.
4. Abdusattarovna, O. R. X., & Shohbozbek, E. (2025). Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 175-182.
5. Эркинов И. Э. Ў. Давлат хизматлари кўрсатиш тизимини ислоҳ қилиш ва унинг ўзига хос хусусиятлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 700-708.
6. Diloram, M., & Shohbozbek, E. (2025). O’zbekistonda yoshlarning ma’naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Global Science Review, 4(5), 207-215.
7. FM M., Odiljonovich S. N. Davlat xizmatlarini rivojlantirishda sun’iy intellektning o ‘rni //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – С. 118-123.
8. Ергашбаев, Ш. (2025). O’zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
9. Muzaffar o‘g‘li E. X. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi: e-gov tizimi va aholiga qulayliklar //«ЗА НАИВЫСШИЕ ЗАСЛУГИ». – 2024. – Т. 1. – №. 1.
10. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). O’zbekistonda ma’naviy va ahvoqiy qadryatlarda maktabgacha ta’limning ro‘li. Global Science Review, 3(2), 246-253.

TA’LIM JARAYONI INSON FAROVONLIGINING OMILI SIFATIDA.

Kadirova Xurshida Abdixalilovna CHDPU dotsenti
Kadirova Aziza Abdixalilovna Amaliy fanlar universiteti magistranti
O’razbayeva Sevinch Pedagogika fakulteti 3-kurs talabalari

Annatasiya: Maqolada ta’lim sifati inson faravonligi yo‘llari shak metodalari haqida gap borgan

Kalit so‘zlar: shakl, shaxs, tahlil, menejment vazifalarini, mazmunini, texnologiya vositalar

Ta’lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to‘g‘ri tanlash muhim. Har bir mashg‘uloti ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o‘quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Mashg‘ulot sifati o‘qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas’uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta’lim oluvchilarga yetkazishga

qaratilgan mahorati, mashg‘ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo‘lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog‘langanligini tushuntira olsa, ma’lum maqsadgaO’zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta’lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta’lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Ta’lim sifati har qanday davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba’zan bir-biriga zid ma’noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xususiyatlar, o‘ziga xosliklar; shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma’naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi. Ba’zi olim va amaliyotchilar uni ta’lim tizimining o‘zlashtirish sifatiga erishishga intilishi; boshqalar o‘qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi; to‘rtinchilar, oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o‘rta ta’lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko‘payishi; beshinchilar oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta’lim sifati va uni ta’minlovchi omillar: ta’lim mazmunining fundamentalligi, ma’lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog‘liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta’lim sifati – bu nafaqat ta’lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta’lim sifatini boshqarish (ta’lim sifati menejmenti) ta’limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan va amalda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O’z o‘rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta’lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o‘zi, bajarish yo‘llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta’lim sifatini ta’minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov SH, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: “Turon-Iqbol”, 2006. 592 b.

2. Total Quality Management – всеобщее управление качеством. – Журнал “Директор-Иваново”, № 1-2 (120-121), январь-февраль 2011 г.

3. Maqsudjon Yuldashev, Ta’lim sifati va uni boshqarish.

ZAMONAVIY O'QUVCHI SHAXSIDA KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Kadirova Xurshida Abdixalilovna CHDPU dotsent,
Kadirova Aziza Abdixalilovna Amaliy fanlar universiteti magistranti
Qodirova Munira Peedagogika fakulteti 3-kurs talabalasi

Annatasiya: Ushbu maqolada dunyo rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning oid asarlarini ahamiyati, kryativ qobiliyatlarni ruvojlantirish yoritilgan.

Zamonaviy o‘quvchi shaxsini ma'naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida tahlil etilib, kreativ qobiliyat, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, intellektual-ijodiy qobiliyat, ijodiy tasavvur, intellektual-ijodiy jarayon, faoliyat kabi tushunchalar ilmiy-pedagogik jihatdan talqin etilgan.

Intellektual-ijodiy qobiliyatlar shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to‘g‘risida keng ma'lumotlarga ega bo‘lishligi, tafakkur o‘zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o‘ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o‘z fikriga ega bo‘lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o‘z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo‘lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyat garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir.

Kreativ qobiliyatning asosiy mezonlarini egiluvchanlik (aqliy tafakkur), tezkorlik (vaqt birligidagi g‘oyalar soni), o‘ziga xoslik (tafakkur, yangi g‘oyalar), metafora (g‘ayrioddiylik, g‘aroyiblik), g‘oya va tafsilotlarni idrok qilish, sezuvchanlik, qiziquvchanlik (hayratlanish qobiliyati, sinchkovlik, ochiqlik), aniqlik (aniq fikrlash qobiliyati), takomillashtirish, ijod mahsuliga tugallanganlikni baxsh etish, dadillik kabilarni tashkil qilib, ular zarur motivatsiya asosidagina rivojlanadi. U faol idrok qilish faoliyati asosida intellekt (aqliy qobiliyatlar tuzilmasi, aqliy operatsiyalar, dadil mulohazalar tizimi) bilan bog‘liq holda rivojlanadi hamda vaziyatlarga samarali individual yondashuvlarda namoyon bo‘ladi.

Kreativ qobiliyatga xos asosiy xususiyatlar qatoriga o‘ziga xos tafakkur, mustaqil, dadil, shaxsiy fikr; muayyan masala yechimini topishda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni boshqalarini hal etishga ko‘chirish; ob'yektni uning qismlarining birligida, yaxlitlikda idrok qilish; tahlil qilish va sintezlash qobiliyati; kerakli axborotni zarur paytda uzatish; turlicha idrok qilish, kuzatish, tekshirib borish; o‘xshatish, ichki tuyg‘uni (intuisiyani) ishga solish; ajrata bilish, talqin qilish; ijodiy taxmin qilish va tasavvur etish; yakuniga yetkazish, takomilllashtirish; aks ettirish, tubdan o‘zgartirish kabilarda ham namoyon bo‘ladi**.**

Motivatsiya, relaksatsiya, o‘quvchilarda ijodiy izlanish mavjudligini rag‘batlantirish kabi usullarni qo‘llab, ularning shaxsiy faolligini oshirishga, me'moriy yodgorliklarning badiiy va estetik xususiyatlarini anglashga qaratilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlardagi intellektual-ijodiy faoliyatni jarayon sifatida baholab, o‘quvchi shaxsida o‘quv va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish hamda uning faol, anglangan-motivasion, aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan, ehtiyojlariga asoslangan, metodik, natijali-bashoratlangan, intellektual-ijodiy muloqotlarini ta'limning amaliy va nazariy shakllari, innovasion didaktik metodlarini qo‘llash asosida takomillashtirish o‘quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish maqsadida ularning psixologik yosh o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda suhbat, anketa, test, savolnoma va boshqa diagnostik vositalar orqali mavjud kreativ qobiliyatni tashxislash, unda mavjud bo‘lgan va rivojlana boshlagan kreativ qobiliyatni, jumladan, fikrlash va ijod qilish bilan bog‘liq tafakkur darajasini aniqlashni zarur deb topdik**.**

O'quv jarayonida milliy-madaniy meros idrok qilinibgina qolinmay, balki, intellektual-ijodiy nuqtai nazardan o‘rganilishi zarur. Chunki intellektual-ijodiy kreativ idrok qilish va uni ijodiy faoliyat jarayoniga joriy etishni, zarur kommunikativ munosabatlarni amalga tatbiq qilishni sinfdan tashqari sharoitlarda to‘liq amalga oshirish mumkin. O'quvchilari bilan amalga oshiriladigan intellektual-ijodiy ishlar tizimi va sifatiga quyidagi talablar qo‘yiladi

Mashg‘ulotlar mavzusi va mazmunning mutanosibligi; variativlik va majmua; tarixiy-madaniy materialni o‘rganish davomiyligi va murakkablashganligi; o‘quvchida kreativ qobiliyati rivojlantira olish; ularni o‘z-o‘zini kreativ rivojlantirishga yo‘naltirish.

Kreativ qobiliyatni o‘stirishga qaratilgan faoliyat (idrok qilish, axborot materiallarini ijodiy tayyorlash, ularning turli o‘quv auditoriyalarida ijtimoiylashtirilishi*)* o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ularning ehtiyojlariga mos keladigan, ahamiyatli, zarur o‘quv faoliyati hisoblandi. Bunday faoliyat, ayniqsa, o‘quvchilarini o‘ziga jalb qiladi. Bu yosh davri idrok qilish, ijodiy faollik, shakllangan intellekt, ijodiy potensial, ijtimoiy-kommunikativ faoliyatga intilish, intellektual-ijodiy rivojlanish, takomillashishga intilishning kuchliligi bilan ajralib turadi. O’smirda nafaqat ijodiy-intellektual, balki muloqot qilish, ijtimoiy faoliyatga intilish, ommaviy axborot vositalari, milliy va jahon madaniyatiga qiziqish, o‘z bilimlari bilan o‘rtoqlashish kabi ijtimoiy-komunikativ qobiliyatlar shakllanadi. Unda oldindan sezish, rejalashtirish, mas’uliyat, qat’iyat, o‘z-o‘zini boshqarish, nazorat qilish kabi emosional, intellektual va irodaviy xususiyatlar faollashadi. Ushbu tadqiqot O’zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini ijodiy o‘rganish bo‘yicha sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning mujassamlangan axborotlarni anglashga qaratilgan intellektual-ijodiy faoliyatiga tayanib, ularda kreativ-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga harakat qildik. O’quvchilarning emosional-irodaviy xususiyatlari (ularning qiziqishi, istagi, ehtiyoji) motivatsiyaviy omil sifatida faollashtirildi. Ushbu jarayon samaradorligiga o‘quvchi kreativ qobiliyatini rivojlantirish orqali erishildi.

Foydalan adabiyotlar

1.Umumiy pedagogogika nazariyasi va amaliyoti. Xadjayev B.X. 2017 yil.
2.Kryetiv pedagogika Ernazarova G.O. 2024 yil.
3. https://ommalashtirish.uz
4. https://library.tsdi.uz
5. https://uz.wikipedia.org
6. https://cyberleninka.ru

JADID NAMOYONDALARINING ASARLARIDA TA’LIMIY-AHLOQIY QARASHLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Kadirova Xurshida Abdixalilovna CHDPU dotsenti,
Kadirova Aziza Abdixalilovna Amaliy fanlar universiteti magistranti,
Samandarova Ruxshona CHDPU. Pedagogika fakulteti 3-kurs talabalari

Annatasiya: Ushbu maqolada dunyo rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning oid asarlarini ahamiyati, jadidlarning o‘rni, pedagagik qarashlari yoritilgan. *XX asr o‘zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. «Usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan shuxrat* topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qilganlar. Shular birinchi bo‘lib zamonaviy oliy maktab g‘oyasini ilgari surdilar, o‘nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan-qancha yoshlarni taraqqiy qilgan Evropa mamlakatlariga o‘qishga yuborishga muvaffaq bo‘ldilar. O’zbek teatrining birinchi g‘ishtini qo‘ygan, nashru matbuotini boshlab bergan ham shulardir. Jadidlar o‘z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHo‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, Xamza, Sadriddin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o‘nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar. Behbudiy o‘z uyida ochilgan *“usuli jadid”* maktabining butun moddiy xarajatlarini o‘z gardaniga oladi. «Padarkush»ning sahnaga qo‘yilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlardagi *“usuli jadid”* maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o‘zi «Muntaxabi jo‘g‘rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo‘g‘rofiya»), «Madxali jo‘xrofiya umro-qiy» («Ahli jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo‘g‘rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi

islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o‘z mablag‘iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo‘llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham uning hisobidan chiqqan edi.

XX asr o‘zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. «Usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan shuxrat topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qilganlar. Shular birinchi bo‘lib zamonaviy oliy maktab g‘oyasini ilgari surdilar, o‘nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan-qancha yoshlarni taraqqiy qilgan Evropa mamlakatlariga o‘qishga yuborishga muvaffaq bo‘ldilar. O’zbek teatrining birinchi g‘ishtini qo‘ygan, nashru matbuotini boshlab bergan ham shulardir. Jadidlar o‘z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHo‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, Xamza, Sadriddin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o‘nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar. Behbudiy o‘z uyida ochilgan *“usuli jadid”* maktabining butun moddiy xarajatlarini o‘z gardaniga oladi. «Padarkush»ning sahnaga qo‘yilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlardagi *“usuli jadid”* maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o‘zi «Muntaxabi jo‘g‘rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo‘g‘rofiya»), «Madxali jo‘xrofiya umro-qiy» («Ahli jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo‘g‘rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o‘z mablag‘iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo‘llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham uning hisobidan chiqqan edi. **MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXON O’G‘LI** (1878—1931) ham *«usuli savtiya»* maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o‘lkasidagi aholini qanday ma’naviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab ta’lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog‘liqligini to‘g‘ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi: mana shu maqsad yo‘lida Toshkentda ilg‘or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat *«Turon» jadidlar jamiyatini tashkil etdi.*

*Abdulla Avloniy. D*astlabki paytlarda madaniy-ma’rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug‘ildi. U maktab va madrasada ta’lim olib, o‘z zamonining ma’rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o‘lkada ta’lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1907-yil ‘‘Shuhrat’’ gazetasiga asos soldi. O’zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun ‘‘Birinchi muallim’’, ‘‘Ikkinchi muallim’’, ‘‘Turkiy guliston yoxud axloq’’ kabi darsliklarni yaratdi. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma’rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do‘konlari ochdilar. Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma’rifatparvar kishilar edi.

Ma’rifatparvarlar keng ma’noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma’noda ma’rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma’rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakka hukmronligi (absolyutizm)ga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar. Turli mamlakatlarda ma’rifatchilik harakatlari o‘ziga xos, milliy xususiyatlarga ega bo‘lgan, ammo ularning mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlar Turkiston jadidlari faoliyatida ham namoyon bo‘ldi. Jumladan, ular mavjud tuzum, uning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalardagi barcha salbiy ko‘rinishlariga va kamchiliklariga qarshi kurashish; maorif, erkinlik, hayotning insoniy-madaniy jihatlarini shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish,

ma’naviy va axloqiy me’yorlarni takomillashtirish; xalq manfaatlarini himoya qilish, farovonligini oshirishga sidqidildan intilish yo‘lidan bordilar. Jadidlar Turkistonda azaldan mavjud bo‘lgan, ya’ni Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalangan holda Turkistonda demokratik va taraqqiyparvar g‘oyalarni davom ettirdilar. Turkiston ilg‘or ziyolilari erishgan yutuqlari orasida eng salmoqlisi hukmron mafkuradan mustaqil bo‘lgan xalq ta’limi tizimining yaratilishi sabab bo‘ldi. Jadidlar merosini yoshlarga ko‘proq yetkazish uchun jadidlarning asarlari va jadidchilikka bag‘ishlangan asarlarni minglab nusxada chop etish, jadidlar haqida multfilmlar, badiiy va hujjatli filmlar hamda seriallar yaratish, shahar va qishloqdagi ko‘chalarga, maktablarga, oliy ta’lim muassasalariga ularning nomini berish, ular tug‘ilib o‘sgan shahar va qishloqlarga yodgorlik lavhlari o‘rnatish, maktab darsliklarida jadidchilik tarixiga ko‘proq soatlar ajratish, oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘qitiladigan O’zbekiston tarixi fanida jadidlarni alohida mavzu sifatida o‘qitish, tarix yo‘nalishi talabalariga jadidchilik tarixini maxsus fan sifatida o‘qitishni joriy qilish kerak, deb hisoblayman. Milliy o‘zlik, milliy ruh va birdamlikni jadidlarning ibratli hayot yo‘li va asarlari orqali yetkazish, ularga munosib bo‘lishga o‘rgatish keng jamoatchilikning muhim vazifasiga aylanishi kerak

Foydalan adabiyotlar

1. Pedagogika tarixi K.Xoshimov 2007 yil.
2.Pedagogika tarixi K.Xoshimov 2005 yil.
3. https://ommalashtirish.uz
4. https://library.tsdi.uz
5. https://uz.wikipedia.org
6. https://cyberleninka.ru

МАСАЛЛАРДА УМИД-ИСТАК МОТИВИ ВА БАДИИЙ ПСИХОЛОГИЗМ: ГУЛХАНИЙ МАСАЛЛАРИДА ТАҲЛИЛ

Джалалетдинова Фотима Таджитдиновна
Альфраганус университети, Филология факультети

Аннотация. Мақолада Гулханийнинг масалларида умид ва истак мотивлари таҳлил қилинади. Масалнинг архитектоникасида персонажлар тақдири, уларнинг хислатлари ва ички руҳияти орқали ҳаёт ҳақиқати бадиий усулда ифода этилади. Кордон ва Турумтой каби қаҳрамонлар орқали инсон иродаси, орзулар ва шахсий интригалар шакллантирилади. Шу билан бирга масал тарзидаги композицион ёндошув ва ретроспектив усуллар бадиий сюжетнинг уйғунлигини таъминлайди.

Калит сўзлар: масал, умид, истак, бадиий психологизм, композиция, сюжет, Гулханий.

Abstract. This article analyzes the motifs of hope and aspiration in Gulkhaniy’s fables. The structure of the fables portrays the characters’ destinies, personalities, and inner life, reflecting life truths through artistic methods. Characters like Kordon and Turumtoy illustrate human will, desires, and personal intrigues. Moreover, the narrative techniques, including the fable style and retrospective methods, contribute to the cohesion and harmony of the artistic plot.

Keywords: fable, hope, aspiration, artistic psychologism, composition, plot, Gulkhaniy.

Аннотация. В статье анализируются мотивы надежды и стремления в баснях Гулханий. Архитектоника басен отражает судьбы персонажей, их характеры и внутренний мир, позволяя художественно показать жизненные истины. Персонажи, такие как Кордон и Турумтой, демонстрируют человеческую волю, желания и личные интриги. Композиционные приёмы, включая стиль басни и ретроспективные элементы, обеспечивают целостность и гармонию сюжета.

Ключевые слова: басня, надежда, стремление, художественный психологизм, композиция, сюжет, Гулханий.

Масалда умид-истак мотиви. Масалнинг архитектоникасида шу қадар тиғиз бир фалсафий-эстетик ақида мавжудки, шоир буларни ҳаёт билан тенг муқояса қилган ҳолда ифодалайди. Яъни Бойўғлининг Гунаш бону исмли қизининг кўнглида қандайдир “яширин”

сир йўқ. У бойнинг қизи. Унинг қўли хоҳлаган томонга етади. Масалда ретроспектив – орқага қайтиб ҳикоя қилиш, усули мавжуд. Эътибор берган бўлсангиз, масал бошида Бойўғлининг қизи Гунаш бону бўйи етиб, ақли тиниқлашиб, онасининг айтганига тескари сўз айтадиган, шаддод бўлиб ўсяпти мазмунид Гулханий ёзиб кетади. Демак, эркатой қизнинг тақдири ҳам, тадбири ҳам олам-олам умидлар, бахту иқболдан масрур туйғулари билан баркамоллашади. Ҳаёт ҳақиқатини англашга катта ёрдам беради. Дунё адабиётида шуни ҳам оргинал тасвирлаш ҳаммани ҳам қўлидан келавермайди. Мумтоз анъаналар синтези – масалнависликнинг ягона эстетик марказда уюшувини далолатлайди.

Ҳар қандай инсон дунёга келаркан, умид, орзу ва рангин хаёллар билан ҳаёт кечиришни ичтайди. Истак ва умид, орзулар ота онанинг ҳам муҳим хоҳишлари, иродасининг бутунлигидан далолатдир. Чунки умид қилиш, ҳар бир мантиққа қулоқ тутиш, ҳаётни теран англашга имкон беради, Бойўғли ҳам қизи Гунаш бону сиймосида ягона орзу ҳаваси шу қизидан эканлигини тўғри англаб турибди:

Бойўғли билан ўзаро мулоқот қилган Кўркуш тўйга тараддуд кўриш учун, қалин мол топиш маслаҳати билан Япалоққуш ҳузурига жўнайди. Масал-қисса шу зайлда ривожланиб, воқеалар бир-бирини тўлдириб, сюжет ва композицияни янада ривожлантириб боради:

“Алқисса, Кўркуш бу навбат фараҳ афзони эшитиб, хурсанд бўлиб, Япалоқ биби манзилиға етди. Бойўғлининг анчаким, муҳим хайрға рағбати бор эрди, баён қилди (Йўлчиев, 2021, б. 67).

Алқисса, Япалоққушнинг бир Қарға дўсти бор эрди: Шўранул, қушлар кўзига гўл, ишиға пишиқ, ҳаромзодаи таррор, ўғри мишиқ, (Йўлчиев, 2021, б. 67) ҳариф айёр солор, давлатмандлар аснофида мумсик беор, ҳар мурда устида тайёр, йигирманинг бешини мустаҳақага бериб, ўн бешини қўйниға урган, тумшуғи шоҳ Зокирбой кагшфурушнинг тумшуғига ўхшар экан. Ўшал диёрда Малики Шоғинки, қушларнинг шоҳлиғи анга мансуб ерди ва Кулонкир султон анга дангалнишин паҳлавон эрди”, (Йўлчиев, 2021, б. 67) Шўранулни Малик Шоҳин жанобиға севинчиға чоптурди. Манозил ва мароҳил тай қилиб; Малик Шоҳнинг боргоҳига келиб, таъзим ва таъвози бирла салом қилиб, Япалоққушнинг руқъасини узатди. Малик Шоҳин нома мазмунини англаб, бир замон тавақкуф айлаб айтдики: “Сени юбормаса бўлмасмуди?” (Йўлчиев, 2021, б. 67).

Анда Шўранул айди:

“Сарнавишти аҳли маъно чун қалам бошад сиёҳ” (Йўлчиев, 2021, б. 67).

Келтирилган лавҳада Япалоққушнинг Шўранул билан мулоқоти яна сюжетнинг тезлашувига таъсир кўрсатади. Малик Шоҳни хазинабони Кордондан ёрдам сўраши ва у вазиятни тўлиқ ўрганиб бўлиб, тўйга катта ёрдам бериши мумкинлигини айтиш ҳақида қисса келтиради. Ушбу масалда жуда кўплаб характерлар очиб берилади. Кордон эса Бойўғлининг ҳаёти, яшаши, нимага муҳтожу нимага муҳтож эмаслигини чинакм билиб кейин хулоса қилиш тадбирини ўйлаб топади. Масал композициясида ана шу мезон ҳар бир эпизодга мос тушади. Демак, Гулханийнинг асл мақсад сари ҳар қандай вазият ва ҳолатни ўрганиши, одамлар тақдирига муқояса қилишида умуминсоний мушоҳадаларни тушуниб оламиз. **Масал** изидан – **масал** тарзида баёнга ихчамлик ва оргиналлик бағишлашида янада жозибадор сюжет чизиқлари қабариб кўринади.

“Ёзувчи қайси жанрда ижод қилмасин, асар яратмасин, у объектив ҳаётга мурожаат қилади. Лекин объектив воқелик, яъни ҳаётий материал қандай бўлса, ёзувчи шундай тасвирламайди. Башарти шундай қилинса, бадиий асар бўлмайди. Ёзувчи уни қайта яратади, ўзидан қўшади, ўрни келганда “камайтиради”. Бу “қўшиш” ва “камайтириш” ҳаётий ҳақиқатларга зид бўлмаслиги, ёзувчи асарда илгари сурган бадиий мақсад-концепцияга муафиқ бўлиши керак. Демак, ижодкор воқеликка суянган ҳолда яратган асардаги концепция ўз замонасининг долзарб масаласи билан алоқадор бўлса унинг қалбида гўзаллик, эзгулик ҳисларини ёки нафрат туйғусини уйғота олса, ана ўшандагина ўз вазифасини адо этган бўлади” (Каримов, 2018, б. 143) Гулханий бадиий изланишларида ҳам мифопоэтик талқин руҳи устуворлик қилгани билан жамият ҳаётидаги реал воқеаларни бадиий ҳақиқатга

айлантиради. Оқибатда, ўзига хос поэтик конструкция ижодий яхлитлик билан уйғунлашади. Аслида, бу каби қарашлар ҳаётнинг чуқур ўрганишлари эвазига содир бўлади:

“Алқисса Кордон камари ҳимматни ғаравдек (Каримов, 2018, б. 143) нечаердин боғлади. Сўнгра замон тафаккурга бориб айдиким: “Авлороқ улким, ўзим бориб Бойўғлига учрасам, ҳар на тилаган маҳрининг тараддудида бўлсам, ўз қулоғим бирла эшитсам, анга яраша тўй тараддудида бўлсам, Харжи исроф бўлмағудек бўлсун”,– деб борурға азм қилди(Каримов, 2018, б. 143).

Кордоннинг жойидин Бойўғлининг маскани узоқ эрди, балки муддати сафар эрди. Сафар яроғини беками кўс қилмоқ керак... Бурунғилар дебдурлар: “Тўйға борсанг, тўйиб бор, тўрқа тўнинг кийиб бор”, уйдин ғамланиб чиқмоқ керак(Бобохонов, 2014, б. 43). нечунким: “Уйдаги сўз бозорға рост кетмас”, Уён Бойўғлининг уйи бўлса, сичқон суягидин бошқа нимарса бўлиши зоҳир ва маълум эмас” (Каримов, 2018, б. 143).

Келтирилаган парчада Кордоннинг характери тинқроқ очиб берилади. Уни Турумтой образи гавдалантиради. Масалда ана шундай бир-бирини тўлидрувчи қаҳрамонлар борки, шу зайлда асар концепцияси ўзига хос тарзда ифодаланиб, сюжет чизиқларини бир-бирига пайвандланшга хизмат қилади. Масалнинг композицион бирликлари “ҳикоя ичида ҳикоя тарзида суратланиб, ўқувчининг битта маъни атрофида бирлашиш ғоясини яхлитлаштиради. Кордоннинг шумликлари, хазинадаги бор бойликни ўзи учун ҳам ўзлаштириш итагни Турумтойнинг сезгилари туфайли очиб берилади.

Проф. М.Бобохонов қайд этишича: “Адабиётни “руҳийлаштириш” инсон маънавий-руҳий жиҳатларини муносиб ёритишга ёзувчиларга зарур бўладиган бадиий воситаларнинг кашф этилиши ва улардан самарали фойдаланишга олиб келади. Бу жараёнда шакл ва усулларни бир жойга тўплаш, психологик воситалар адабий палитрасининг кўринишлари ўзгараётганини қайд этишнинг ўзи етарли эмас. Бойиб бориш фақатгина янги ресуруслар (симол, миф, “онг оқими” техникаси, макон-замон экспериментлари ва ҳ.к.) эвазига юз бераётгани йўқ, психологизмнинг метауслубга айланиб бораётганлиги кузатилмоқда. Н.С.Лейтеснинг ҳақли мулоҳазасига кўра, “психологизм бугун ўзининг нафақат шахс ички дунёсини ёки унинг маънавий жараёнларини очадиган, балки сюжетни белгилайдиган ва структура ташкил этадиган таъсирчан омил эканлигини маълум қилмоқда”. Яъни, “дунё суратини руҳийлаштиришдан” бутун романий маконни руҳийлаштиришга ўтилмоқда” (Бобохонов, 2014, б. 43). Дарҳақиқат, мазкур иқтибосдан қуйидагича учта хусусиятни ўзбек масалчилигида рўй бераётган сифат ўзгаришларига муқояса қилиш мумкин: биринчидан, ўзбек масалчилиги руҳий таҳлил ва ёзувчи полифоник нутқи характерни янада мураккаб равишда яратишга қўл келмоқда, иккинчидан, руҳий бўлиқ жамият ҳаётида кузатилса-да, шахс ички оламида яшашда давом этмоқда, шоирлар ана шу шахс иродасини синовдан ўтказишга катта эътибор билан ёндошмоқда, учинчидан, “руҳийлаштириш” масаласи сюжетнинг муҳим қисмларини яхлитликда намоён қилишга ўзига хос тасвир усулидирки, бусиз ёзувчи бирор мақсадни, ижодий концепциясини ҳам тўлақонли амалга оширишда қийналади. Гулханий масалда Кордон ва Турумтойнинг аччиқ мулоҳазаларини келтирар экан, бири-иккинчисининг характер руҳиятини мақол ва маталлар ёрдамида чизиб беришга интилади. Бу бир восита негизида Турумтой ҳам ундан бўш келмайди. Аниқ мақоллар, масаллар билан Кордоннинг нафси ҳакалаклигини ҳам кўрсатишга эришади. Композицион қолиплаш Турумтой воситасида юзага чиқаркан, адиб ҳар иккала қуда ва анда бўлувчи персонажларнинг руҳий-ижтимоий аҳволини чамалашга ёрдам беради:

“Кордон айди: “Сунган бўйунни қилич кесмас”, – дебдурлар, гуноҳингни ўтдим. Сенинг ҳолингга мулоҳиза қилсам(Бобохонов, 2014, б. 43), кам сафарликдин бу сўзларни айтдинг, сафарда кўп тажриба ҳосил бўлур, магар сен “Калила ва Димнадин бехабар ўхшарсанки, Бозанда ва Навозанда қиссаларини сенга баён айлай”.

Турумтой айди: “Оғзингдан ўргулай, тўрам, баён қилинг!”

Кордон айди: “Илгари айёмда икки кабутар бор эди, бирини Бозанда, бирини Навозанда дер эдилар ва иккови кеча-кундуз бир ошиёнда дамсоз ва бир кошонада ҳамроз эдилар. Бир куни Навозанда Бозанданинг юзига боқди, осори маломат андуҳ пешонасидан

мутолаа қилди”. Айди: “Эй кўзимнинг нури ва эй маҳзун кўнглимнинг сурури, замиринг кўзгуси хира, юзинг шои тийра кўринур, айём нофаржомдин нелар кўрдунг ва нелар тегди” (Бобохонов, 2014, б. 43).

Анда бозанда айди: Бурунғилар сўзидурки: “Арзон кира шаҳардин овора қилур”. (Бобохонов, 2014, б. 43).Ҳеч зод ва роҳила менда йўқ(Бобохонов, 2014, б. 43).Сафар қилмоқ дағдағаси бошимға тушубдур. Жон тўтиси тан қафасидин парвоз қилур” (Бобохонов, 2014, б. 43).

Масалдаги Кордон ва Турумтойнинг совчилик сабаб Бойўғлининг уйига сафарга тайёргарлик кўриши ўзаро ишончли ҳамкор зарурлигини тақозолайди. Кордон ҳам ақл билан иш тутиб, Бойўғлининг нимага зарурлигини, қандай шартлари борлигини билишга ўзида катат ишонч ҳосил қилади. Демак, Кордоннинг хазинадан маҳрага берилдаиган бойлик, пул ва бошқа-да буюмларни аниқ сонини ёзиб олса, Япалоққушга Малик шоҳининг ҳимматини бериши тайин. Гулханий битта оиланинг қуда-анда бўлиши учун қанчадан-қанча қушлару ҳайвонларнинг ҳисса қўшиши, хизмат этишини очиқ ойдин тасвирлайди. Ҳасадгўйлик, бахиллик ва камтарлик сахийлик қилган қушларни характерини ўзига хос тарзда очиб беради. Бу хусусияти билан Гулханий зарбулмасал бадииятини янада жозибадорлигини таъминлайди. Шу боисдан ҳам, масал ичидаги масалларда ҳаёт концепцияси ижодкор бадиий нуқтаи назари билан тўйинтирилади.

Қўлланилган адабиётлар рўйхати

1. Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. – Т.: “Bayoz”, 2014. – Б. 43.
2. Йўлчиев Қ. *Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати*. – Т.: “Маърифат битиклари”, 2021. – Б. 67.
3. Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70–80-йиллар). – Т.: Yangi nashr, 2018. – Б. 143.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С АНГЛИЙСКОГО НА РУССКИЙ

Файзуллоева Зилола
Старший преподаватель Самаркандского
государственного института иностранных языков
Email:fajzullaevazilola566@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена рассмотрению основных лингвистических и культурологических факторов, влияющих на перевод английских фразеологизмов на русский язык. Особое внимание уделяется типам соответствий, семантическим и прагматическим аспектам передачи идиом, а также стратегии выбора оптимального варианта перевода. Материал основан на исследованиях современной фразеологии и практиках художественного и литературного перевода.

Ключевые слова: фразеологические единицы, идиоматичность, образность, **переносное значение,** функциональный аналог, стилистическая адекватность, п**олные фразеологические эквиваленты,** денотативное значение.

Введение. Фразеологические единицы (ФЕ) представляют собой устойчивые словосочетания с целостным значением, не выводимым из значений отдельных компонентов. Устойчивость формы, идиоматичность и образность делают их одним из наиболее сложных объектов перевода. По мнению А.В. Кунина, фразеологизм «является знаковым комплексом, функционирующим как целостная номинативная единица» [1]. При переводе с английского языка на русский переводчик сталкивается с целым рядом культурных, семантических и структурных несоответствий, требующих особых стратегий.

Обзор литературы и методология

Главной трудностью при переводе фразеологизмов является их **переносное значение**, не совпадающее с буквальным. Так, выражение *to kick the bucket* невозможно передать дословно, поскольку его истинный смысл («умереть») не связан напрямую со значением слов. Как отмечает П. Ньюмарк, идиомы требуют «культурного пересоздания в целевом

языке» [4]. Таким образом, переводчик должен интерпретировать глубинный смысл, а не формальную структуру выражения.

Существенная часть английских фразеологизмов связана с реалиями британской или американской культуры: спортом, историческими событиями, традициями. Например, выражение *the ball is in your court* отражает спортивную (теннисную) метафорику. Для русского языка более естественным является функциональный аналог: «теперь всё в твоих руках».

По словам Г. Л. Колшанского, «культурная специфика является определяющим фактором при выборе переводческой стратегии» [2].

Полные фразеологические эквиваленты сохраняют как образность, так и смысл. Например: ***to cast pearls before swine*** — «метать бисер перед свиньями». Наличие полного соответствия упрощает перевод и поддерживает целостность образа.

В частичных эквивалентах значение совпадает полностью, но образ несколько отличается. Пример: ***to add fuel to the fire*** — «подливать масла в огонь».Разница в элементах образа не влияет на интерпретацию смысла.

Обсуждение

Фразеологические аналоги используются в случаях, когда в русском языке существует идиома с близким значением, но другой образностью. Например: *when pigs fly* — «когда рак на горе свистнет». Дословный перевод оправдан, когда образ прозрачен или уже вошёл в литературный обиход. Пример: *lost in translation* — «потерянный при переводе».

Однако чрезмерное калькирование может нарушить естественность текста. Данный метод применяется при отсутствии эквивалентов или непонятности метафоры. Например: *to eat humble pie* — «смириться и признать свою неправоту». Это наиболее точный, но наименее экономичный способ передачи фразеологизмов.

Фразеологизмы обладают не только денотативным значением, но и **стилистической окраской**: разговорной, официальной, ироничной. Например, *to be in hot water* имеет разговорный характер, что требует соответствующей передачи: «попасть в переделку», «иметь неприятности». Если же переводчик выбирает нейтральное выражение, стилистический эффект оригинала теряется.

Результаты

Литературовед Р. Миньяр-Белоручев подчёркивает: «стилистическая адекватность является основой коммуникативного равенства оригинала и перевода» [3].

Многие фразеологизмы являются **многозначными**. Например, выражение *to break the ice* может означать как «разрядить обстановку», так и «начать знакомство». Поэтому контекст выступает главным критерием выбора переводческого решения. Неправильная интерпретация контекста приводит к искажению смысла и нарушению коммуникативных намерений автора текста.

Заключение

Перевод фразеологизмов с английского на русский требует комплексного подхода, включающего учёт идиоматической специфики, культурного фона, семантики, прагматики и стилистики. Оптимальный перевод достигается путем сочетания лингвистической компетенции, культурной осведомлённости и творческого мышления переводчика. Использование различных стратегий — от эквивалентов до описательного перевода — обеспечивает возможность адекватной передачи образности и коммуникативного эффекта оригинальных английских фразеологизмов.

Список использованной литературы

1. Кунин А. В. *Курс фразеологии современного английского языка.* — М.: Высшая школа, 1996.

2. Колшанский Г. Л. *Контекст и значение.* — М.: Наука, 1980.

3. Миньяр-Белоручев Р. К. *Теория и методы перевода.* — М.: Московский университет, 1996.

4. Newmark P. *A Textbook of Translation.* — New York: Prentice Hall, 1988.

AXBOROT JINOYATLARIGA QARSHI KURASH USULI

Tursunov Nodirbek Raximjonovich
G‘allaorol tuman 49-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Informatika va AT fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning mavzusi axborot jinoyatlariga qarshi kurashish usullarini o‘rganishdir. Menimcha, bunday tadqiqotlar dolzarbdir, chunki shaxslarga, jamiyatga va davlatga ham ma’naviy, ham moddiy zarar yetkazadigan axborot jinoyati mamlakatimizda (va, albatta, butun dunyoda) barqaror ravishda o‘sib bormoqda. Axborot jinoyatlari axborot texnologiyalari dunyosida paydo bo‘ldi va bir vaqtning o‘zida rivojlandi, bu esa shaxslar, jamiyat va davlatga turli xil muhim ma’lumotlarni iste’mol qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada axborot jinoyatlariga qarshi kurashishning hozirgi paytda mavjud bo‘lgan eng samarali va samarali usullari aniqlangan.Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, internet platformalari, ta’lim, GeoGebra, ta’lim jarayoni.

Kalit so‘zlar: Axborot jinoyati; xavfsizlik; kiberterrorchilar; dasturiy ta’minot va matematik tizimlar; axborot texnologiyalari.

Kirish. Oxirgi besh yilda O’zbekistonda kiberjinoyatlar soni 68 baravarga ortdi. Tahlillarga ko‘ra, bank kartalari bilan bog‘liq o‘g‘rilik va firibgarlik holatlari kundan-kunga avj olmoqda. Bu haqda 29-may kuni IIV Kiberjinoyatlar markaziga tashkil etilgan press-turda ma’lum qilindi.

Bunga qarshi kurashish usullarini aniqlash uchun bir nechta muammolarni hal qilish kerak:

 Jinoyatchilar tomonidan hujumga uchragan va himoya qilinishini talab qiladigan axborotning xususiyatini aniqlash;

Annotatsiya: Globallashuv sharoitida fan va ta’lim mahalliy hodisa bo‘lishdan chiqib, xalqaro standartlar tobora muhim rol o‘ynayotgan transmilliy sohalarga aylandi. Ushbu standartlar, ilmiy nashrlar va aspirantura dasturlarini baholash mezonlaridan boshlab, ta’lim muassasalarini akkreditatsiya qilish va talabalar mobilligigacha bo‘lgan barcha narsalarni qamrab oladi, milliy tizimlarning solishtirish imkoniyati, sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan. Biroq, ularni joriy etish va qo‘llash bir qator dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Asosiy qiyinchilik xalqaro standartlarning umumiy talablari va milliy tizimlarning madaniy, tarixiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqadigan o‘ziga xos jihatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdadir. Bu esa mahalliy darajada qarshilikka, ularning mohiyatini chuqur tushunmasdan rasmiy talablarga yuzaki rioya qilishga, shuningdek, fan va ta’limda milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfiga olib keladi. Muammolar ularni ishlab chiqish va joriy etish mexanizmlarining takomillashmaganligi, o‘zlashtirish uchun resurslarning yetishmasligi, shuningdek, xodimlarning xalqaro me’yorlar sharoitida ishlashga yetarlicha tayyor emasligi kabi ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish ko‘r-ko‘rona taqlid qilish emas, balki ongli o‘zlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Global tendensiyalar va milliy manfa’atlar o‘rtasida muvozanat topish eng muhimdir. Mahalliy realliklarni hisobga olish imkonini beruvchi moslashuvchan joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim. Bular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: milliy tizimlarning xalqaro standartlar bilan chuqur qiyosiy tahlilini o‘tkazish, asosiy ziddiyatlarni aniqlash va o‘zlashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash; bosqichma-bosqich yondashuv va resurs ta’minotini hisobga olgan holda xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha milliy yo‘l xaritalarini ishlab chiqish; standartlarni muhokama qilish, ishlab chiqish va o‘zlashtirish jarayoniga milliy ilmiy va pedagogik jamoatchilikni faol jalb etish, bu esa konsensusga erishish va qabul qilish darajasini oshirish imkonini beradi; milliy malakalar va ilmiy yutuqlarni o‘zaro tan olish mexanizmlarini rivojlantirish, bu esa xalqaro akademik mobillik uchun to‘siqlarni kamaytiradi; xalqaro standartlarni joriy etish va qo‘llash uchun mas’ul mutaxassislar uchun qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish tizimini yaratish, shuningdek, joriy etilgan qarorlarning samaradorligini monitoring qilish va baholash, keyinchalik strategiyani takomillashtirish. O’zlashtirish yo‘llari muloqot, hamkorlik va o‘zaro boyitish tekisligida yotadi. Olimlar, davlat vakillari, ta’lim va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ochiq munozara zarur bo‘lib, bu orqali milliy fan va ta’lim tizimlariga o‘zlarining noyobligi va o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda jahon ilmiy va ta’lim makoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashish imkonini beruvchi optimal yechimlarni ishlab chiqish mumkin.

Kalit so‘zlar: xalqaro standartlar, fan, ta’lim, muammolar, yechimlar, moslashish, milliy tajriba, globallashuv, sifat, integratsiya, o‘ziga xoslik, joriy etish, dialog, hamkorlik.

Введение: пути адаптации лежат в сфере открытого, честного диалога, продуктивного сотрудничества и взаимного обогащения. Настоятельно необходима открытая, конструктивная дискуссия между ведущими экспертами, представителями государственных

органов, образовательных и научных организаций, ориентированная на выработку таких оптимальных решений, которые бы позволили национальным системам науки и образования не только успешно интегрироваться в мировое научно-образовательное пространство, но и обогатить его своим уникальным опытом, сохранив при этом свою неповторимую индивидуальность и самобытность. В XXI веке, ознаменованном стремительным развитием информационных технологий и углублением процессов глобализации, наука и образование перестали быть изолированными национальными пространствами. Они стали неотъемлемыми компонентами глобальной сети знаний, где международные стандарты выступают в роли универсального языка, призванного обеспечить сопоставимость, качество и конкурентоспособность достижений на мировой арене. Эти стандарты, охватывающие широкий спектр аспектов — от методологии научных исследований и критериев оценки публикаций до требований к образовательным программам, системам аккредитации и признания квалификаций — формируют основу для эффективного международного сотрудничества, академической мобильности и трансфера знаний. Их цель — создать единое, открытое и прозрачное пространство, где талант и достижения могут быть оценены по достоинству независимо от географического положения. Однако, несмотря на очевидные преимущества, процесс внедрения и адаптации международных стандартов в национальных системах науки и образования является сложным и многоаспектным. Фундаментальная проблема заключается в естественном несоответствии между унифицированными, зачастую универсальными требованиями международных норм и уникальной спецификой каждой национальной системы. Эта специфика формировалась веками под влиянием культурных, исторических, социальных, экономических и политических факторов, создавая неповторимые образовательные традиции, научные школы и методологические подходы. Применение международных стандартов без учёта этой национальной самобытности может привести к ряду негативных последствий: от сопротивления на местах и формального, поверхностного выполнения требований без понимания их сути, до риска утраты национальной идентичности, девальвации уникальных научных достижений и искажения образовательных приоритетов. Кроме того, внедрение стандартов может столкнуться с такими препятствиями, как недостаточное ресурсное обеспечение, несовершенство механизмов их разработки и имплементации, а также недостаточная подготовка кадров к работе в новых условиях. В этом контексте, настоящее исследование ставит своей целью глубокий анализ существующих проблем, связанных с применением международных стандартов в науке и образовании, исследование возможных решений и выработку конкретных путей адаптации этих стандартов к национальному опыту. Мы стремимся не просто констатировать трудности, но и предложить конструктивные подходы к их преодолению, ориентированные на достижение оптимального баланса между интеграцией в мировое научное и образовательное пространство и сохранением национальной уникальности. Наш анализ будет охватывать вопросы разработки и внедрения стандартов, их влияние на качество образования и научные исследования, а также роль диалога и сотрудничества в процессе адаптации. Мы будем исследовать, как можно трансформировать глобальные требования, сохраняя их суть, чтобы они способствовали развитию, а не ограничению потенциала национальных систем. Особое внимание будет уделено поиску гибких механизмов, позволяющих учитывать специфику каждой страны, обеспечивая при этом высокую степень сопоставимости и конкурентоспособности. Предполагается, что настоящее исследование послужит основой для выработки стратегических рекомендаций, направленных на более эффективное и гармоничное внедрение международных стандартов в науке и образовании. Мы будем стремиться к тому, чтобы наши выводы способствовали формированию подходов, которые позволят национальным системам науки и образования не только соответствовать мировым требованиям, но и обогащать их своим уникальным опытом, сохраняя свою самобытность и внося ценный вклад в развитие мирового научного и образовательного сообщества.

Вывод: Проведенный анализ проблем, связанных с внедрением и адаптацией международных стандартов в науке и образовании, а также рассмотрение путей их решения, позволяет сделать ряд ключевых выводов. Очевидно, что международные стандарты являются неотъемлемой частью современной глобальной научно-образовательной экосистемы. Они выполняют критически важные функции по обеспечению качества, сопоставимости, прозрачности и конкурентоспособности национальных систем, способствуя обмену знаниями, академической мобильности и эффективному международному сотрудничеству. Без их существования и применения интеграция в мировое научно-образовательное пространство была бы невозможна, а национальные достижения оставались бы изолированными и трудно оцениваемыми. Однако, как показал анализ, прямое и механическое копирование международных стандартов без учета национальной специфики является не только неэффективным, но и потенциально деструктивным. Основные проблемы связаны с фундаментальным несоответствием между универсальными требованиями и уникальным культурным, историческим, экономическим и социальным контекстом каждой страны. Это несоответствие порождает ряд сложностей, начиная от сопротивления на местах и поверхностного следования формальным предписаниям, заканчивая риском утраты национальной идентичности, девальвации самобытных научных школ и методологий, а также снижением эффективности образовательного процесса. Недостаток ресурсов, несовершенство механизмов внедрения и недостаточная подготовленность кадров лишь усугубляют эти проблемы. Ключевым решением, как мы установили, является переход от парадигмы слепого копирования к стратегии осознанной адаптации. Это требует глубокого понимания как сути международных стандартов, так и уникальных особенностей национальной системы. Важно найти золотую середину, балансируя между стремлением к глобальной интеграции и сохранением национального своеобразия. Такой подход подразумевает: глубокий диагностический анализ, прежде чем внедрять стандарты, необходимо провести тщательный сравнительный анализ национальной системы с международными нормами, выявить ключевые расхождения, сильные и слабые стороны, а также определить приоритетные области для адаптации; разработку гибких и контекстуализированных механизмов имплементации, международные стандарты должны рассматриваться как основа, которую необходимо адаптировать к местным реалиям, это может включать разработку национальных версий стандартов, дополнение их специфическими требованиями, а также применение дифференцированного подхода в зависимости от типа образовательного учреждения или научной области; активное вовлечение национального сообщества, успешная адаптация невозможна без широкого участия научного и педагогического сообщества, экспертов, представителей заинтересованных сторон, диалог, консультации и совместное формирование решений способствуют лучшему пониманию, принятию и эффективному внедрению стандартов; целенаправленное ресурсное обеспечение, адаптация международных стандартов требует значительных инвестиций в человеческие ресурсы, инфраструктуру, обучение и информационные системы, национальные правительства должны обеспечить адекватное финансирование и поддержку этих процессов; развитие системы взаимного признания, для облегчения академической мобильности и международного сотрудничества необходимо создавать и совершенствовать механизмы взаимного признания национальных квалификаций, научных степеней и достижений, основываясь на сопоставимости национальных систем, но учитывая их специфику; непрерывный мониторинг и оценку, внедрение стандартов – это не разовый акт, а непрерывный процесс, необходима регулярная оценка эффективности применяемых решений, их влияния на качество науки и образования, с последующей корректировкой стратегий и механизмов адаптации. В конечном итоге, успешная адаптация международных стандартов к национальному опыту означает не подчинение глобальным нормам, а разумное использование их потенциала для собственного развития.

Список использованной литературы:

[1] Мавлонов А. А., Абдуқодиров А. А. (ва бошқалар). "Таълимни модернизация қилиш ва халқаро стандартларга мослаштириш муаммолари". – Тошкент, 2021.

[2] Ишмуҳамедов Р. Ж., Абдуқодиров А. А., Пардаев А. Х. "Таълим менежменти ва сифати". – Тошкент: Фан, 2018.

[3] Саидов А. Х. "Ўзбекистон Республикасида таълим сифатини оширишнинг долзарб муаммолари". – Тошкент, 2020. (Монография).

[4] Абдуллаев Б. Н. "Олий таълим тизимида халқаро стандартларни жорий этишнинг педагогик ва ташкилий асослари". – Педагогика фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2022.

[5] "Замонавий таълим" журнали. (Журналнинг тегишли сонларидаги халқаро стандартлар, таълим сифати, академик мобилликка оид мақолалар).

TAQSIMOTNING NOMA’LUM PARAMETRLARINI BAHOLASH USULLARINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI

G‘aniyeva Dilrabo Aliyevna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti Amaliy matematika kafedrasi magistranti

Telefon: +998(91) 565 25 45

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqsimotlarning noma’lum parametrlarini baholashning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishiga oid yondashuvlar batafsil tahlil qilinadi. Maximum ehtimollik metodi, momentlar metodi va Bayes baholash usullarining matematik mohiyati, afzalliklari, cheklovlari hamda xalqaro standartlarga mosligi o‘rganiladi. Shuningdek, O’zbekistonning statistik amaliyotida mazkur metodlarning qo‘llanilish xususiyatlari va ularni milliy tajribaga moslashtirish yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. parametrlarni baholash; statistik taqsimot; maksimum ehtimollik; momentlar metodi; Bayes yondashuvi; xalqaro standartlar; milliy amaliyot.

Kirish. Taqsimotlarning noma’lum parametrlarini baholash statistik tahlil va modellashtirishning asosiy bosqichlaridan biridir. Har qanday statistik modelning aniqligi ko‘p jihatdan parametrlarning qanchalik to‘g‘ri baholanganiga bog‘liq. Xalqaro statistik standartlar baholash jarayonida konsistentlik, samaradorlik va yodlilik kabi mezonlarga asoslanishni talab qiladi. Mazkur maqolada ana shu baholash metodlarining nazariy jihatlari va amaliy qo‘llanilish tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Parametrlarni baholash bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda bir nechta asosiy yondashuvlar mavjud. Eng keng tarqalgan usullar – maksimum ehtimollik metodi (MLE), momentlar metodi va Bayes baholashidir. MLE usuli statistika fanida eng kuchli metodlardan biri bo‘lib, katta tanlanmalarda yuqori aniqlik beradi. Momentlar metodi esa hisoblash qulayligi bilan ajralib turadi. Bayes baholashi esa ehtimollik taqsimotlari orqali parametrlar bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni hisobga olish imkonini beradi. Ushbu bo‘limda metodlarning nazariy asoslari taqqoslanadi.

Maximum ehtimollik metodida maqsad – tanlanma asosida tuzilgan ehtimollik funksiya maksimumga erishadigan parametrni topishdir. Bu usul bir qator yaxshi xossalarga ega: konsistent, asimptotik samarador va deyarli yodli. Momentlar metodi esa nazariy va empirik momentlarni tenglashtirish orqali parametrlarni topadi, ammo ba’zan aniqligi past bo‘lishi mumkin. Bayes metodida esa parametrlar tasodifiy miqdor sifatida qaraladi va oldindan berilgan taqsimot orqali ehtimollik qayta taqsimlanadi. Mazkur usul kichik tanlanmalarda samarali natija beradi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, parametrlarni baholashda yagona universal metod yo‘q. Har bir metod ma’lumotlar hajmi, taqsimot shakli va tahlil maqsadidan kelib chiqib tanlanishi lozim. Amaliyotda MLE ko‘plab sohalarda eng yaxshi natijani beradi, Bayes esa murakkab modellar uchun qulay, momentlar metodi esa tez hisoblash talab qilinadigan vaziyatlarda afzal hisoblanadi. O’zbekiston amaliyotida MLE va momentlar metodi ko‘p qo‘llaniladi, biroq Bayes yondashuvi ham bosqichma-bosqich kirib kelmoqda.

Ushbu tadqiqot taqsimotlarning parametrlarini baholash usullarining nazariy va amaliy jihatlarini taqqoslab berdi. Xalqaro standartlarga mos holda baholash mezonlarini joriy qilish, metodlarni milliy statistika amaliyotiga moslashtirish va ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni keng qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Casella G., Berger R. Statistical Inference.
2. Wasserman L. All of Statistics.
3. Robert C. Bayesian Choice.
4. Robert C., Casella G. Monte Carlo Statistical Methods.
5. Gelman A., et al. Bayesian Data Analysis. CRC Press.
6. Feller W. An Introduction to Probability Theory.
7. Mood A., Graybill F., Boes D. Introduction to the Theory of Statistics.
8. Karimov B., Amaliy matematika va statistic modellar.
9. Raxmonov T., Abdullayev A., Statistika asoslari.

TA’LIM MUASSASASI UCHUN DAVOMATNI MONITORING QILISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Usmanov Shuxrat Shavkat o‘g‘li

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 3-umumta’lim maktabi Informatika fani o‘qituvchisi

+(998)99 557-01-09

E-mail: shuxratinfo97@gmail.com

Annotatsiy. Hozirgi vaqtda ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan onlayn tadbirlar bo‘yicha monitoring va statistika to‘plash qiyin vazifadir. Ushbu maqolada Microsoft dasturiy ta’minotidan foydalangan holda ushbu muammoni hal qilishning namunasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Microsoft Teams, masofaviy ta’lim, ta’lim muassasasi, API, Azure, Ilovalar xizmati rejasi, Funktsiya ilovasi, statistika.

Zamonaviy ta’limda masofaviy o‘qitish qo‘llanilayotgani sir emas. Bu esa darslarga qatnashishni monitoring qilish va statistikani tashkil qilishni talab qiladi. Microsoft Teams foydalanuvchilarga qo‘ng‘iroqlar tarixini kerakli ma’lumotlar bilan ko‘rish imkonini beradi, ammo butun maktab bo‘yicha davomat statistikasini ko‘rib chiqishda barcha ma’lumotlarni olish, uni uzoq muddatli saqlash va hisobot berish uchun foydalanish qiyinchilik tug‘diradi. Mavjud alternativa - bu Microsoftning admin.teams veb-portali bo‘lib, u faqat so‘nggi 30 kun uchun siqilgan statistikani taqdim etadi.

Microsoft Teams - bu onlayn uchrashuvlar uchun o‘quv guruhlarini yaratishga imkon beruvchi Microsoft vositasi.

Microsoft shuningdek, Microsoft xizmatlari sohasidagi har qanday ma’lumotlarni olish va ular bilan ishlash uchun turli xil xizmatlar va texnologiyalarni birlashtirish orqali muammolarni hal qilish uchun Microsoft Graph bulut xizmatini ishlab chiqdi.

Microsoft Azure - bu mavjud dasturiy ta’minotni joylashtirish va uning ishlab chiqilishini soddalashtirish imkonini beruvchi keng qamrovli bulutli platforma.


Azure bilan ishlashni sozlash mavjud tashkiliy hisobni yaratish yoki sozlash va barcha kerakli xizmatlarni, jumladan, quyidagilarni ulashni o‘z ichiga oladi:

- Microsoft Teams (qo‘ng‘iroq ma’lumotlarini Microsoft Graphga yuboradi)
- Azure funksiyalari (Graphdan olingan ma’lumotlarni qabul qiladi va qayta ishlaydi)
- Cosmos DB (qo‘ng‘iroqlar yozuvlari saqlanadigan ma’lumotlar bazasi)
- Ilova xizmat ko‘rsatish rejasi (so‘rovlar sonini hisoblaydi va bulut infratuzilmasidan foydalanish uchun tarifni shakllantiradi).

Ushbu vositalar tizimning ishlashi uchun qo‘shimcha vositalar va konfiguratsiyalarni sozlash uchun bitta resurs guruhida yaratiladi.


Ma’lumotlar real vaqt rejimida Microsoft Graph xizmatiga obuna orqali qabul qilinadi, bu xizmat har safar tizimga qo‘ng‘iroq haqida asosiy ma’lumotlar bilan veb-so‘rov yuboradi. Keyin

olingan ma’lumotlar qayta ishlanadi va to‘liq qo‘ng‘iroq yozuvini yaratish uchun to‘ldiriladi. Ta’lim muassasasi bilan integratsiya onlayn tadbir haqidagi haqiqiy va rejalashtirilgan ma’lumotlarni yagona ob’ektga birlashtirishni talab qiladi. Bu muassasaning jadvallarni yig‘ish tizimlarini integratsiyalash uchun infratuzilma yechimlarini taqdim etishni talab qiladi. Tizimning asosiy funksiyasi bulut infratuzilmasi va turli server imkoniyatlariga kirishni ta’minlaydigan Azure funksiyalaridan iborat Function App hisoblanadi. 1 va 2-rasmlarda qo‘ng‘iroq ma’lumotlarini qabul qilish va saqlash uchun dasturiy ta’minotni amalga oshirish ko‘rsatilgan.



```
[FunctionName("new-call")]
0 references | Alexandr Zaikin, 11 days ago | 1 author, 2 changes
public static async Task Run([TimerTrigger("0 */5 * * * *")] TimerInfo myTimer, ILogger log)
//public static async Task<IActionResult> Run([TimerTrigger("0 30 * * * *")] TimerInfo myTimer, ILogger log)
{
    log.LogInformation("C# HTTP trigger function processed a request.");
    try
    {
        //Искусственно создаём запись о звонке которая в теории должна прийти от подписки на callRecord тенанта
        var storageAccount = CloudStorageAccount.Parse(GetEnvironmentVariable("AzureWebJobsStorage"));
        var tableClient = storageAccount.CreateCloudTableClient(new TableClientConfiguration());
        var table = tableClient.GetTableReference("itneriszaikinvkrsandboxtable");
        var newCallRecord = new TableCallRecord
        {
            Attempts = 0,
            EndDateTime = DateTimeOffset.UtcNow.AddMinutes(-90),
            StartDateTime = DateTimeOffset.UtcNow,
            Organizer = null,
            OrganizerId = null,
            ParticipantsCount = 0,
            Participants = null,
            JoinURL = "url",
            Type = "GroupCall",
            OrganizerName = null,
            OrganizerEmail = null,
            Id = Guid.NewGuid().ToString(),
            Created = DateTimeOffset.UtcNow,
            PartitionKey = Guid.NewGuid().ToString(),
            RowKey = Guid.NewGuid().ToString()
        };
        TableOperation insertOperation = TableOperation.Insert(newCallRecord);
        await table.ExecuteAsync(insertOperation);
    }
```

1-rasm. "Qo‘ng‘iroq ma’lumotlarini olish"



```
[FunctionName("call-details")]
0 references | Alexandr Zaikin, 3 days ago | 1 author, 3 changes
public static async Task Run([TimerTrigger("0 0 */3 * * *")] TimerInfo myTimer, ILogger log)
//public static async Task Run([TimerTrigger("0 * * * * *")] TimerInfo myTimer, ILogger log)
{
    log.LogInformation($"C# Timer trigger function call-details executed at: {DateTime.Now}");
    //Запрос к azure таблице для обработки записей
    var storageAccount = CloudStorageAccount.Parse(GetEnvironmentVariable("AzureWebJobsStorage"));
    var tableClient = storageAccount.CreateCloudTableClient(new TableClientConfiguration());
    var callRecordsTable = tableClient.GetTableReference("itneriszaikinvkrsandboxtable");
    var tableQuery = callRecordsTable.CreateQuery<TableCallRecord>();
    var callRecordsForDetails = tableQuery
        .Where(c => c.EndDateTime > DateTime.Now.AddDays(-5) && c.Attempts < 4)
        .Take(50)
        .ToList();
    try
    {
        //Main
        await SetDetails(callRecordsForDetails, callRecordsTable, log);
    }
    catch (Exception ex)
    {
        await ExceptionLog(null, ex);
        log.LogError($"Exception: { ex.Message }");
    }
}
```

2-rasm. "Azure jadvalidagi yozuvlarni olish uchun so‘rov"

Ushbu kodni bajargandan so‘ng, biz o‘tkazilgan onlayn tadbir haqida barcha batafsil ma’lumotlarni olamiz, ulardan ushbu tadbir haqida hisobot yaratish uchun foydalanish mumkin.

Ushbu maqolada ta’lim muassasasida masofaviy davomatni monitoring qilish jarayonini avtomatlashtirish imkonini beruvchi tizim taqdim etilgan.

Ish jarayonida tizim talablari aniqlandi, texnik yechimlar tanlandi va tizim loyihalashtirildi, joriy etildi va nosozliklar bartaraf etildi, so‘ngra hujjatlashtirildi. Ushbu ish ta’lim muassasasida masofaviy davomatni monitoring qilish zamonaviy vositalar va texnologiyalar yordamida tez va nisbatan oson avtomatlashtirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv vazifaning ko‘p mehnat talab qiladigan xususiyatini kamaytiradi va ma’lumot olish, qayta ishlash va saqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI KOLLAKATSIYA METODI BILAN ISHLASH

Anorbayev Madamin Maxmud o‘g‘li
Guliston davlat universiteti matematika kafedrasi o‘qituvchisi
Bahodirova Zuxra Sanjar qizi
Guliston davlat universiteti matematika yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.

Ba’zi bir tatbiqiy masalalarni yechishda to‘r usulini emas, balki yechimni, taqribiy bo‘lsada, analitik ko‘rinishda topish talab etiladi. Bunday hollarda yechimning aniqligi darajasi yuqori bo‘lishligi talab qilinmaydi, ammo aniq yechim o‘rniga shunday funksiyani qurish talab etiladiki, u chegaraviy shartlarni qanoatlantirishi kerak hamda differensial tenglamaga bog‘liq bo‘lgan qandaydir munosabatlarning bajarilishini talab etadi. Yuqoridagi talablarga javob beruvchi funksiya taqribiy ravishda differensial tenglamani ham qanoatlantiradi. Bu munosabatlarni hosil qilishda qo‘yiladigan talablarga qarab turli metodlar hosil bo‘ladi.

Faraz qilaylik, quyidagi

$$L(y) \equiv y''(x) + p(x)y'(x) + q(x)y(x) = f(x) \qquad (1)$$

$$l_y \equiv \alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = A, \quad |\alpha_0| + |\alpha_1| \neq 0 \qquad (2)$$

$$l_b(y) \equiv \beta_0 y(b) + \beta_1 y'(b) = B, \quad |\beta_0| + |\beta_1| \neq 0 \qquad (3)$$

chegaraviy masala berilgan bo‘lsin.Bu masalaning taqribiy yechimini

$$y_n(x) = \varphi_0(x) + \sum_{k=1}^{n} c_k \varphi_k(x) \qquad (4)$$

ko‘rinishida izlaymiz,bu yerda $\varphi_k(x)$ $(k = 0,1...,n)$ ma’lum funksiyalar bo‘lib,ular hozircha

$$l_a(\varphi_0) = A, \quad l_b(\varphi_0) = B, \quad l_a(\varphi_k) = l_b(\varphi_k) = 0 \quad k = 1,2,...,n$$

shartlarni qanoatlantirishi talab qilinadi. U holda ixtiyoriy c_k $(k = 0,1...,n)$ lar uchun $y_n(x)$ (2), (3) chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi, ammo u differensial tenglamani qanoatlantirmasligi mumkin, ya’ni

$$L_n(y) \neq f(x)$$

$y_n(x)$ (1) ning aniq yechimi $y(x)$ bilan aynan bir xil bo‘lgan hol bundan istisno. $L(y_n) = f(x)$ tenglikni $[a,b]$ ga tegishli turli $x_1, x_2, ..., x_n$ nuqtalarda bajarilishini talab qilsak, noma’lum c_k $(k = 0,1...,n)$ parametrlarni topish uchun

$$\sum_{k=1}^{n} c_k L(\varphi_k(x_i)) = f(x_i) - L(\varphi_0(x_i)), \quad i = 1,2,...,n \qquad (5)$$

ko‘rinishga ega chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz.Bu tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega bo‘lishi uchun $\varphi_k(x)$ $(k = 1,2,...,n)$ lar quyidagi shartlarni qanoatlantishi kerak:

1) Bu funksiyalar chiziqli bog‘liqsiz bo‘lishi kerak;

2) $p(x), f(x), q(x)$ funksiyalar $[a,b]$ da uzluksiz bo‘lsa, $\varphi_k(x) \in C_2[a,b]$ bo‘lishi kerak;

3) $\varphi_k(x)$ $(k = 1,2,...,n)$ funksiyalar yordamida hosil qilingan sistema $L(\varphi_k(x))$ $(k = 1,2,...,n)$ ixtiyoriy va turli x_i $i = 1,2,...,n$ nuqtalar uchun Chebishev sistemasini tashkil qilish kerak.

Ta’rif. Agar $[a,b]$ ga tehishli turli x_i $(i = 1,2,...,n)$ nuqtalar uchun

$$\begin{vmatrix} \varphi_1(x_1) & \varphi_2(x_1) & ... & \varphi_n(x_1) \\ \varphi_1(x_2) & \varphi_2(x_2) & ... & \varphi_n(x_2) \\ ... & ... & ... & ... \\ \varphi_1(x_n) & \varphi_2(x_n) & ... & \varphi_n(x_n) \end{vmatrix} \neq 0$$

bo‘lsa, $\varphi_k(x)$ $(k=1,2,...,n)$ funksiyalar sistemasi $[a,b]$ da Chebishev sistemasini tashkil etadi deyiladi.

Endi (5) ni yechib, noma’lum parametr c_k $(k=1,2,...,n)$ larni topamiz va (1) - (3) chegaraviy masalalar yechimini

$$y_n(x)=\varphi_0(x)+\sum_{k=1}^{n}c_k\varphi_k(x)$$

ko‘rinishida topgan bo‘lamiz.

Shuni eslatib o‘tamizki, bu metoddagi

$$L\left(y_n(x)\right)|_{x=x_i}=L(\varphi_0(x))|_{x=x_i}+\sum_{k=1}^{n}c_kL(\varphi_k(x))|_{x=x_i},\quad i=1,2,...,n$$

shartlarni bajarilishi $L(y_n(x))$ ning $L(\varphi_k(x))$ funksiyalar sistemasi bo‘yicha x_i $(i=1,2,...,n)$ nuqtalarda interpolyatsiyalanishini anglatadi.Bunday interpolyatsiyalash mumkin va yagona bo‘lishi uchun $[a,b]$ da $L(\varphi_k(x))$ funksiyalar sistemasi Chebishev sistemasidan iborat bo‘lishi kerak.

Misol.

$$y''(x)+2xy'(x)-2y(x)=2$$
$$y'(0)=-2$$
$$y(1)+y'(1)=0$$

chegaraviy masalani n=2 da kollakatsiya metodi bilan yeching.

Yechish. $\varphi_0(x)$ ni $\varphi_0(x)=b+cx$ ko‘rinishida izlaymiz:

$$\varphi_0'(x)=c,\varphi_0^1(0)=-2\Rightarrow c=-2.$$
$$\varphi_0'(1)+\varphi_0'=0\Rightarrow b+c+c=0\Rightarrow b=4.$$

Demak, $\varphi_0(x)=4-2x.$ $\varphi_k(x)$ $(k=1,2,...,)$ funksiyalar

$$\varphi_k'(0)=0$$
$$\varphi_k(1)+\varphi_k^1(1)=0$$

shartlarni qanoatlantirishi kerak.

$\varphi_k(x)=b_k+x^{k+1}$ desak, b_k koeffitsiyentni ikkinchi tenglamadan topamiz:

$$1+b_k+(k+1)=0\Rightarrow b_k=-(k+2),\varphi_k(k)=x^{k+1}-(k+2).$$

Yechimni $y_2(x)=4-2x+c_1(x^2-3)+c_2(x^3-4)$ ko‘rinishida izlaymiz.

$L(\varphi_0(x)),L(\varphi_1(x)),L(\varphi_2(x))$ larni hisoblab, $R(x,c_1,c_2)$ ni

$$\varphi_0(x)=4-2x,\varphi_0'(x)=-2,\varphi_0''(x)=0,$$

topamiz: $L(\varphi_0(x))=\varphi_0''(x)+2x\varphi_0'(x)-2\varphi_0(x)=-4x-8+4x=-8,$

$$\varphi_1(x)=x^2-3,\varphi_1'(x)=2x,\varphi_1''(x)=2,$$
$$L(\varphi_1(x))=\varphi_1''(x)+2x\varphi_1'(x)-2\varphi_1(x)=2+2x\cdot 2x-2(x^2-3)=2x^2+8$$

$\varphi_2(x) = x^3 - 4, \varphi_2'(x) = 3x^2, \varphi_2'' = 6x,$

$L(\varphi_2(x)) = \varphi_2''(x) + 2x\varphi_2'(x) - 2\varphi_2(x) = 6x + 2x \cdot 3x^2 - 2x^3 + 8 = 4x^3 + 6x + 8,$

$R(x, c_1, c_2) = L(\varphi_0(x)) - f(x) + c_1 L(\varphi_1(x)) + c_2 L(\varphi_2(x)).$

Kollokatsiya nuqtalarini $x_1 = \frac{1}{4}, x_2 = \frac{3}{4}$ deb olaylik, u holda quyidagilar hosil bo‘ladi.

$L(\varphi_0(x_1)) = -8, L(\varphi_0(x_2)) = -8, f(x_1) = f(x_2) = 2,$

$L(\varphi_1(x_1)) = 2 \cdot \frac{1}{16} + 8 = 8\frac{1}{8},$

$L(\varphi_1(x_2)) = 2 \cdot \frac{9}{16} + 8 = 9\frac{1}{8},$

$L(\varphi_2(x_1)) = 4 \cdot \frac{1}{64} + 6 \cdot \frac{1}{4} + 8 = 14\frac{3}{16}.$

Natijada

$$\frac{65}{8}c_1 + \frac{153}{16}c_2 = 10$$

$$\frac{73}{8}c_1 + \frac{227}{16}c_2 = 10$$

tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz, bunda $c_1 = 1,6510$, $c_2 = -0,3570$ ekanligini aniqlaymiz va taqribiy analitik yechim

$$y_2(x) = 4 - 2x + 1,6510(x^2 - 3) - 0,3570\ (x^3 - 4)$$

ko‘rinishda topilgan bo‘ladi.

POTENSIAL ENERGIYA

Yuldasheva Mamlakat Ikromovna
Jizzax shahar 14-umumta’lim maktabi fizika fani o‘qituvchisi
Raimjonova Dilnoza Farhodovna
Jizzax shahar 17-umumta’lim maktabi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ishda jismning holati va o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladigan potensial energiya tushunchasi,uning fizik va matematik ifodasi,hamda tabiatdagi o‘rni yoritilgan.Potensial energiyaning gravitatsion,prujinali va elektr maydonidagi ko‘rinishlari nazariy jihatdan tahlil qilinib,ularni ifodalovchi asosiy formulalar keltirilgan.Shuningdek,potensial energiyaning kundalik hayotdagi namoyon bo‘lishi,texnika va muhandislik sohalaridago qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilgan.Ushbu material o‘quvchilarga energiyaning turlari,ularning o‘zaro bog‘liqligi va mexanik tizimlardagi rolini chuqur anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Potensial energiya,gravitatsion energiya, prujinali energiya, energiyaning saqlanish qonuni,deformatsiya,mexanik energiya, konservativ kuchlar.

Kirish. Zamonaviy fizikada energiya tushunchasi fundamental o‘rinni egallaydi. Har qanday jism yoki tizimning holatini to‘liq ifodalashda uning energiyasi, ayniqsa potensial energiyasiga muhim ahamiyat kasb etadi. Potensial energiya moddiy jismlarning fazoviy joylashuvi, ularning o‘zaro ta’siri va kuch maydonlaridagi holati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tushuncha mexanika, molekulyar fizika, elektr va magnit hodisalari hamda atom va yadroviy fizikada keng qo‘llaniladi.

Fizikaning eng asosiy qonunlaridan biri bo‘lgan **energiya saqlanish qonuni** potensial energiya tushunchasisiz to‘liq izohlanmaydi. Jismning potensial energiyasi uning holatiga, ya’ni maydondagi koordinatasiga bog‘liq bo‘lib, harakat jarayonida kinetik energiyaga aylanishi mumkin, yoki aksincha. Bu holat mexanik sistemalarning dinamikasi, masalan, soddalashtirilgan

tebranishlar, gravitatsion harakatlar yoki deformatsiyalanuvchi jismlar tahlilida muhim rol o‘ynaydi.

Potensial energiyaning ilmiy tadqiqoti klassik mexanika davridan boshlab, rivojlangan I. Nyutonning mexanika qonunlari, keyinchalik Lagrange va Gamilton formalizmlari bu tushunchani yanada chuqur tahlil qilish imkonini bergan. Bugun kunda potensial energiya nafaqat mexanik tizimlarni, balki elektr zaryadlarning maydondagi o‘zaro ta’sirini, atomlarning molekulalar tarkibidagi energetik spektrini tavsiflashda ham qo‘llaniladi.

A. Eynshteyn materiya va energiya o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariyasini ilgari surdi. Boshqacha qilib aytganda, u materiya energiyaga aylanishi mumkin ekanligini isbotladi. Bu atrofimizdagi dunyo haqidagi tassavurimizni o‘zgartirdi. Materiya ikkilamchi bo‘lib chiqdi, dunyodagi eng muhim omil esa energiya ekani ma’lum bo‘ldi.

Energiya o‘zi nima? Energiya –ma’lum bir ishni bajarish qobiliyati. Bu kuchlarning mavjud bo‘lishiga imkon beradigan kuch tushunchasi ortida turgan narsa.Potensial energiya tushunchasi fizikaning deyarli barcha bo‘limlarida markaziy o‘rinda turadi. Zamonaviy texnika, energetika, mexanika, elektronika va hatto nano texnologiya sohalarida har qanday jarayon energiyaning turli ko‘rinishlarining o‘zaro aylanishi bilan bog‘liq. Shuning uchun potensial energiyaning fizik mohiyatini chuqur tushunish –zamonaviy ilm-fan va texnika rivojining nazariy asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda energiya manbalarini tejash va qayta tiklanadigan energiya turlaridan foydalanish global muammo sifatida dolzarb bo‘lib turubdi. Potensial energiya bu jarayonlarda, xususan, suv omborlari, elastik tizimlar, akkumulyatorlar gravitatsion va va mexanik qurulmalarda energiya zaxirasining asosiy shakli hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida potensial energiyani o‘rganish o‘quvchilarda **energiya saqlanish qonuni, kuch maydonlari, mexanik tebranishlar va energetik o‘zgarishlar** haqidagi tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, potensial energiya hodisasini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, uni o‘qitish metodikasini takomillashtirish va amaliyot bilan bog‘lashda bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir. Jism va jismlarning kuch maydonlaridagi holatiga bog‘liq energiya holatini, ya’ni potensial energiya tushunchasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, uning fizik va matematik ifodasini ochish, hamda amalliy qo‘llanilishini chuqur o‘rganishdan iborat.

1. Potensial energiya haqidagi nazariy asoslarni o‘rganish.
2. Og‘irlik kuchi va prujina potensial energiyasining fizik mazmunini tahlil qilish.
3. Energiya saqlanish qonunida potensial energiyaning rolini aniqlash.
4. Potensial energiyaning amaliy qo‘llanilishi va uni o‘qitish metodikasini yoritish.

Energiya-bu jism yoki jismning ish bajarish qobiliyatini ifodalovchi fizik kattalikdir. Energiya mavjudligi orqali jismlar o‘zaro ta’sir qiladi, harakatlanadi yoki deformatsiyalanadi. Energiya tushunchasi klassik fizika davridan Nyuton qonunlari bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy fizika uni kengaytirib, kvant va relativistik tizimlarga ham qo‘llaydi.

Energiya turlari:

- **Kinetik energiya-**jismlarning harakat energiyasi. Masalan, harakatlanayotgan avtomobilning kinetik energiyasi.
- **Potensial energiya-**jismlarning pozitsiyasiga,holatiga yoki o‘zaro ta’siriga bog‘liq energiya.Masalan,balandlikdagi jismning gravitatsion energiyasi (Yer yuzasidan balandlikda turgan jismning saqlagan energiyasi,ob’ektning massasi va balandligiga bog‘liq,masalan,tog‘ tepasidagi toshning energiyasi) elastik prijinaning deformatsiyalangan holatidagi energiyasi,cho‘zilgan yoki siqilgan elastik jism (masalan, prujina yoki rezinka) saqlagan energiya.Bu energiya jism o‘zining dastlabki holatiga qaytishga urunayotganda ajralib chiqadi.
- **Ichki energiya-**jismlarning atom va molekulalar harakati, o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lgan energiya.
- **Kimyoviy energiya-**moddalar tarkibidagi kimyoviy bog‘lanish energiyasi. Kimyoviy reaksiyalar jarayonida bu energiya ajralib chiqishi yoki so‘rilishi mumkin.

- **Elektr energiyasi**-zaryadlangan jismlar maydonidagi energiya. Bu atrof muhitni isitish shaklida ko‘rsatilgan energiya turi. Yorug‘lik energiyasiga misol: yonayotgan lampochka, chiroq, quyosh kabilarni keltirish mumkin. Quyosh eng katta yorug‘lik energiyasidir.

Energiya-ma’lum bir ishni bajarish qobiliyati. Bu kuchlarning mavjud bo‘lishiga imkon beradigan kuch tushunchasini ortida turgan narsa. Atamani tushunish uchun misol tariqasida mashinani olaylik.

Motorni harakatga keltirish uchun kuch ishlatish kerak. Uni biron bir narsadan olish kerak. Kerakli narsa-energiya. Energiya qaerdan olinadi? Benzindan, uning silindrlarida yonishi paytida olinadi. Ushbu energiya harakatni mashina mexanizmiga yetkazadigan ma’lum kuchlarni harakatga keltiradi. Natijada motor ishlaydi va bu energiya tufayli amalga oshiriladi. Shuningdek, dunyodagi eng muhim narsa ham energiya. Isbot sifatida oddiygina elektr energiyasini keltirishimiz mumkin. Shu keltirilgan misolimizda energiya turlarini ko‘rib chiqamiz.

Energiyaning ikki turi mavjud potensial va kinetik energiya. Keling, avval potensial energiyani ko‘rib chiqamiz. Benzinda elektr kuchlari molekulalarni bir-biriga tortib turadi. Energiya ushbu molekulalarda saqlanadi bu **potensial energiya.** Benzin yonganida aynan shunday energiya ajralib chiqadi. Yana bitta misolni ko‘rib chiqaylik.Potensial energiyaga yana misol,biror joyga osib qo‘yilgan yuk.Energiya ushbu yukda saqlanadi,yuk tusha boshlaganda esa biz uni biroz bo‘shatib qo‘yishimiz mumkin.Shuningdek,sharshara chetidagi yoki to‘g‘on tepasidagi suv ham potensial energiyaga ega bo‘ladi.Endi yukni qo‘yib yuboramiz, yoki sharsharadan tushayotgan suvni kuzatamiz.Ular ma’lum bir tezlikda tushib,harakatni amalga oshiradilar va bu **kinetik energiya** deb ataladi.Ushbu energiya ma’lum bir tezlikda harakatlanayotgan jismdan olinadi.Tushayotgan jism potensial energiyasi yo‘qotib,kinetik energiyaga aylanadi.Ikki turdagi energiyaning qiymati o‘zaro teng.Energiya ishlab chiqarishda biz suv,ko‘mir,atom energiyasidan foydalanamiz,ya’ni energiyaning bir turini boshqasiga aylantiramiz. Kinetik energiya mavjud bo‘lishi uchun jism harakatda bo‘lishi kerak, harakat energiyasi sifatida tanilgan.Energiya ish tushunchasi bilan ham yaqin aloqada. Fizikada ish (A) bajarilishi energiyaning bir turidan boshqa turiga o‘tishi bilan ifodalanadi. Masalan, jismlarni ko‘tarish orqali kinetik energiya potensial energiyaga aylanadi:

$$\mathbf{A = \Delta E}$$

Energiya saqlanish qonuni: Energiya hech qayerga yo‘qolmaydi va hech qayerdan paydo bo‘lmaydi, u faqat bir turdan boshqasida o‘tadi. Kundalik hayotimizdan energiya saqlanish qonuniga bir nechta misollar keltiramiz.

1. **Suv shishasi va to‘g‘ri tushish:**

Agar suv bilan to‘ldirilgan shisha stol ustidan yerga tushsa, uning potensial energiyasi kinetik energiyaga aylanadi. Shisha yerga urilganda,esa bu energiya issiqlik va tovush energiyasiga aylanadi.

2. **Velosiped tormozlash:** Velosiped harakatlanayotganda, unung kinetik energiyasi tormoz ishga tushganda, issiqlik energiyasiga aylanadi va velosiped sekinlashadi.

3. **O’qning kamondan uchishi:** Kamondagi o‘q tortilganda potensial energiya kamon cho‘zilgan holatda kinetik energiyaga aylanadi va o‘q harakatlanadi.

4. **Elektr qozondagi suvni qizdirish:** Elektr energiyasi suv molekulalarining harakatiga aylanadi, ya’ni issiqlik energiyasiga o‘tadi, suv qiziydi.

5. **Sirlashgan trombopolin:** Trombopolinda sakraganimizda, tananing kinetik energiyasi trambolin elastik tolalarini cho‘zilishga potensial energiyaga aylanadi. So‘ngra u yana kinetik energiyaga qaytadi va yana odamni yuqoriga tashlaydi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turubdiki, energiyalar bir turdan boshqa turga aylanibdi.

Potensial energiya-jismning tizim ichidagi holatiga bog‘liq bo‘lgan energiya u jismning pozitsiyasiga, deformatsiyasiga yoki tortishish kuchiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.Potensial energiya faqat konservativ kuchlar (masalan gravitatsiya yoki elastik kuchi) da mavjud bo ‘ladi.

Oddiy so‘z bilan aytganda jism “holatiga” qarab energiya saqlaydi.

Misol: Massasi m bo‘lgan jism balandligi h da turganda uning gravitatsion potensial energiyasi

$$E_p = mgh$$

m-massa, kg
g-gravitatsion tezlanish
h-balandlik, m
Masala: Massasi 2 kg bo‘lgan kitob stol ustida 1.5m balandlikda tursa,
qanday potensial energiyaga ega bo‘ladi?
Berilgan: Formulasi: Yechish:
m=2kg
h=1.5m $E_{p=mgh}$ E=2*1.5*9.8 =29.4 J

E=?

Gravitatsiya potensial energiya shunchaki tushuncha emas,u biz hisoblay oladigan kattalikdir. Mantiqan olganda,sportning alpinism turi mashqlarini Oyda oson bo‘lishi mumkin.U yerdagi tortishish kuchi yerdagidan ancha kichik.Chunki Oyning massasi Yernikidan 81 marta kichik. Shuning uchun Oyda Yerdagidan ko‘ra uzoqroqqa sakrash mumkin.Oy sirtidagi gravitatsiya maydonning kuchlanganligi Yer sirtidagiga nisbatan 6 marta kichik.Oydagi tajribalarning ko‘rsatishicha,bir xil kuch bilan golf to‘pini uzoqroq masofaga uchurib yuborish mumkin. Demak, jismning gravitatsiya potensial energiyasi ikkita kattalikka bog‘liq.

- mg jismning og‘irligi –uning og‘irligi qanchalik katta bo‘lsa, gravitatsiya potensial energiyasi shuncha katta bo‘ladi.
- h jismning yer sirtidan balandligi –uning balandligi qanchalik katta bo‘lsa, gravitatsiya potensial energiyasi shuncha katta bo‘ladi.

1.Mavzuni oddiy qoidalar bilan tushuntirish:

- Balandlik ortsa – energiya ortadi
- Massasi ortsa – energiya ortadi, potensial energiya shuncha katta bo‘ladi.
- Prujina qanchalik cho‘zilsa –energiya shunchalik ortadi

Hayotiy savollar bilan potensial energiyani tushuntirish.

1. Kometalar do‘stmi yoki dushmanmi?

Kometalar orbitalari juda elliptik (siqilgan aylanalar shaklida) bo‘lganligi uchun ular Yer sayyorasi orbitasini kesib o‘tishi (hatto yer bilan to‘qnashishi) mumkin.Yerning Quyosh atrofida egallagan o‘z orbitasidagi tezligi deyarli o‘zgarmas bo‘lib, bu orbita deyarli aylana shaklida,kometaning tezligi esa o‘zgarib turadi.Kometa Quyoshga yaqinlashganda gravitatsiya potensial energiyasining katta qismi kinetik energiyaga aylanadi,shu boisdan ham uning tezligi ortadi.Quyoshdan uzoqlashgan sari kinetik energiyasining bir qismi gravitatsiya potensial energiyaga aylanadi va u sekinlashadi.

2. Rogatka yordamida toshchani masofaga uloqtirish.

Mayda toshni rogatkadan otganga, elastik energiyaning kinetik energiyaga uzatilishi kuzatiladi. Agar tosh vertikal yuqoriga qarab otilsa, kinetik energiya kamayib, potensial energiyaga aylanib boradi. Nihoyat, u yuqoriga qarab harakatlanishdan to‘xtaydi va tusha boshlaydi. Endi gravitatsiya potensial energiyasi kinetik energiyaga aylanadi.

3.Energiya manbalarini solishtirish, ularning atrof-muhitga ta’siri

Qayta tiklanuvchi: Ma’lumki,qazib olinadigan yoqilg‘i zahiralari cheklangan.Bu yadro yoq’ilg‘isi hisoblangan uran uchun ham taalluqli.Biroq toriy kabi muqobil yadroviy yoqilg‘ining zaxiralari ham mavjud va ko‘p.Ayrim manbalar, shuningdek Quyosh nurlanishi bilan kechadigan energiya manbalari qayta tiklanuvchi manbalardir.Qayta tiklanuvchi manbalarning eng muhim afzalligi shundaki,ular ekologik toza.Quyosh panellarining narxi sotib olish uchun qimmat,lekin yoqilg‘i uchun hech qanday xarajat qilinmaydi, quyosh nurlari tekin!

Fransiyada elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojning taxminan 75 % ini yadro energiyasi hisobidan qondiriladi. Norvegiyada esa yog‘ingarchilik va tog‘ ar ko‘p bo‘lganligi sababli, elektr energiyasining 95 % ini gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Islandiya esa mahalliylashgan geotermal energiyadan foydalanadi.

Issiq, serquyosh o‘lkalarda Quyoshdan kelayotgan nurlanish energiyasini to‘plash uchun quyosh panellaridan foydalaniladi. Quyosh nurlari uylarning tomlariga o‘rnatilgan panellarga

tushadi, panellar quyosh nurlarini yutadi va uning ichidagi suv qiziydi. Isigan suvdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi. Tushunchaviy fikrlasni rivojlantiradi. Tajriba va kuzatish asosida o‘rganiladi.Energiya haqidagi umumiy tushunchani shakllantiradi (kinetik energiya, ish, quvvat, energiya saqlanish qonuni)

Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish mumkin (LED ekran, video, annimatsiya yoki simulyatsiyalar orqali.)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Habibullayev,P. Boydedayev, A. Bahromov, A. Burxonov, Fizika 7-sinf darsligi. Toshkent-2017

2.Fizika. 7-sinf. Darslik. David Sang, SheilaTarpey, Kusharbay Suyarov
Toshkent-2023

3. A.X.Axmedov va boshqalar.Umumiy fizika kursi.Toshkent-2024

4.N.A. Matkarimov.Fizika asoslari. TDIU nashriyoti

Elektron ta’lim resurslari

1. https://phet.colorado.edu-PhET simulyatsiyalari/

2.Canva, Prezi, PowerPoint-taqdimot yaratish uchun xizmatlar

.

JAHON TAJRIBASIDA "ELEKTRON HUKUMAT"NING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.

Homidov Xurshid Asad o‘g‘li

Jizzax viloati Sharof Rashidov tumani 24-maktab informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi

Tel: +998 (97) 437 19 73

Email: homidovxurshid681@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron hukumatning global tajribasi ko‘rib chiqiladi. Elektron hukumatning bir nechta ta’riflari mavjud bo‘lib, ularning har biri asosan bir xil ma’noni anglatadi, ammo biroz boshqacha nuqtai nazarni taklif qiladi.

"Elektron hukumat"ni yaratishning global tajribasiga kelsak, "elektron hukumat" va elektron demokratiya g‘oyasi birinchi marta Qo‘shma Shtatlar (bundan keyin Qo‘shma Shtatlar deb yuritiladi) va Buyuk Britaniya olimlari tomonidan taklif qilingan bo‘lib, ularga ko‘ra yangi AKT fundamental demokratik qadriyatlarni, birinchi navbatda, fuqarolarning hukumat va davlat boshqaruvi qarorlarini qabul qilish jarayonida ishtirok etishini himoya qiladi va rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: global tajriba, elektron hukumat, smart-kartalar, internet, AKT.

Аннотация. В даной статье рассматривается мировой опыт электронного правительства. Существует несколько определений электронного правительства, означающих почти одно и то же, но имеющих несколько иной взгляд на него. Если говорить о мировом опыте создания «электронного правительства», то идея «электронного правительства» и электронной демократии впервые была предложена учеными США (далее – США) и Великобритании, в соответствии с которыми новые ИКТ защищают и развивают базовые демократические ценности и в первую очередь для участия граждан в процессе принятия решений органами государственной власти и государственного управления.

Ключевые слова: мировой опыт, электронного правительства, смарт-карты, интернет, икт.

Abstract. This article examines the world experience of e-government. There are several definitions of e-government that mean almost the same thing, but have a slightly different view of it. If we talk about the global experience of creating "e– government", then the idea of "e-government" and e-democracy was first proposed by scientists from the USA (hereinafter referred to as the USA) and the UK, according to which new ICTs protect and develop basic democratic values and, first of all, for the participation of citizens in the decision-making process by public authorities and public administration.

Keywords: *world experience, e-government, smart cards, internet, ict.*

Kirish. Davlat boshqaruvini axborotlashtirish zarurati har doim boshqaruvda muhim masala bo‘lib kelgan. Masalan, M.J. Rixterning "Rivojlanayotgan texnologiyalarga qo‘llanma" maqolasida ushbu jarayondagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqida umumiy ma’lumot berilgan. Ular orasida muallif videokonferensiyalar, aqlli kartalar, ovozni aniqlash, sun’iy intellekt va tarmoq texnologiyalarini tilga olgan. Ushbu vositalar ham hukumat apparatining unumdorligini, ham uning ishi haqida jamoatchilikning xabardorligini oshiradi. Axborot xavfsizligini boshqarishni rivojlantirishdagi so‘nggi tendentsiya elektron hukumat shaklida amalga oshiriladi.

Elektron hukumatning bir nechta ta’riflari mavjud, ular deyarli bir xil ma’noni anglatadi, ammo biroz boshqacha nuqtai nazarni taklif qiladi. Elektron hukumatga asosiy yondashuvni quyidagicha ta’riflash mumkin: Internetdan foydalangan holda, elektron hukumat tobora mahalliylashib borayotgan siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish va hal qilish uchun ishlatilishi mumkin: kelib chiqish nuqtasiga yaqin. Shuning uchun elektron hukumat ma’muriy xarajatlarni kamaytiradigan samaraliroq va fuqarolarga yo‘naltirilgan hukumatni yaratadi. Elektron hukumat texnik vositalar va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda ma’muriy vazifalar va jarayonlarni amalga oshirish sifatida tushuniladi.

Elektron hukumatning bir ta’rifi ma’muriy va demokratik jarayonlar bilan bog‘liq barcha narsalarni qamrab oladi. Ushbu yondashuvda elektron hukumat elektron boshqaruv va elektron demokratiyaga bo‘linadi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda elektron hukumat zamonaviy jamiyat va ochiq hukumatni qurishda asosiy element hisoblanadi. Elektron hukumat fuqarolarga davlat amaldorlari bilan bevosita muloqot qilmasdan ijtimoiy ahamiyatga ega savollarga o‘z vaqtida javob olish imkonini beradi, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda barcha mumkin bo‘lgan ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etadi va rasmiy ma’lumotlarga kirishni osonlashtiradi.

"Elektron hukumat" - bu davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish, davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini oshirish va ichki biznes jarayonlarini takomillashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali davlat organlarining ichki va tashqi aloqalaridagi o‘zgarishdir.

Elektron hukumatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

AKTdan foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish;

Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasini oshirish;

Davlat xizmatining ichki samaradorligini oshirish.

"Elektron hukumat"ni yaratish g‘oyasi birinchi marta Qozog‘istonda Prezident Nursulton Nazarboyev tomonidan ilgari surilgan. Nazarboyev buni 1997-yilda "Qozog‘iston-2030" davlat dasturi doirasida ko‘targan edi. Qozog‘istonda "elektron hukumat"ni joriy etish fuqarolar va tashkilotlarga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarining sifatini oshirish va o‘z vaqtida bajarilishini qisqartirishga, turli davlat ma’lumotlar bazalariga kirishni ta’minlashga, davlat idoralari faoliyatini kuzatib borish imkoniyatiga hamda samarali va maqbul davlat apparatini yaratishga qaratilgan.

Bugungi kunga qadar Qozog‘istonda "elektron hukumat"ni rivojlantirishning ko‘plab dastlabki vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi, AKTni rivojlantirish sohasidagi davlat dasturlarida davlatning tegishli qonun hujjatlari belgilandi. Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 10-noyabrdagi 1471-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan, Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2007-yil 30-noyabrdagi 1155-1-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2005-2007-yillar uchun "Qozog‘iston Respublikasida elektron hukumat"ni rivojlantirish Davlat dasturi va Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 8-yanvardagi 414-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Axborot Qozog‘iston 2020" Davlat dasturi "elektron hukumat"ning bosqichma-bosqich shakllanishi va rivojlanishiga hamda elektron va davlat xizmatlarini joriy etishga hissa qo‘shdi. Shuningdek, "Axborot Qozog‘iston 2020" davlat dasturi loyihasi ishlab chiqilmoqda, bu esa o‘z navbatida Qozog‘istonda AKT sohasini takomillashtirishning asosiy strategik vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Qozog‘iston Respublikasining 2003-yil 7-yanvardagi "Elektron hujjatlar va elektron raqamli imzolar to‘g‘risida", 2004-yil 5-iyuldagi "Aloqa to‘g‘risida" va 2015-yil 24-noyabrdagi "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi qonunlari "elektron hukumat" arxitekturasini umuman bayon qiladi.

"Elektron hukumat"ni yaratishdagi global tajribaga kelsak, "elektron hukumat" va elektron demokratiya g‘oyasi birinchi marta Qo‘shma Shtatlar (bundan keyin Qo‘shma Shtatlar deb yuritiladi) va Buyuk Britaniya olimlari tomonidan taklif qilingan bo‘lib, unga ko‘ra yangi AKT fundamental demokratik qadriyatlarni, birinchi navbatda, fuqarolarning davlat organlari va davlat boshqaruvi organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishini himoya qiladi va rivojlantiradi.

Metodlar

1. Taqqoslash (komporativ) metodi

Elektron hukumatning turli davlatlardagi shakllanishi va rivojlanish jarayonini solishtirish uchun eng asosiy metod.

Qo‘llanishi:

Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSH kabi ilg‘or davlatlar tajribasini taqqoslash;

Qaysi davlatda qaysi model samaraliroqligini aniqlash;

O’zbekiston tajribasini boshqa davlatlar bilan solishtirish.

2. Tarixiy-metodik yondashuv

Elektron hukumatning evolyutsiyasi, bosqichma-bosqich shakllanishi va rivojlanishini o‘rganadi.

Qo‘llanishi:

Rivojlangan davlatlarda elektron hukumatning paydo bo‘lishi;

Bosqichlar: e-axborot → e-interaktivlik → e-tranzaksiya → e-demokratiya;

Texnologik rivojlanish bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar.

3. Tizimli tahlil (sistemali yondashuv)

Elektron hukumatni yagona tizim sifatida o‘rganish: texnologiya, huquq, boshqaruv, axborot xavfsizligi, kadrlar.

Qo‘llanishi:

Elektron hukumat tizimining komponentlarini tahlil qilish;

Jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish;

Muammolarni aniqlab, yaxlit yechim ishlab chiqish.

4. Statistik va iqtisodiy tahlil metodlari

Elektron hukumatning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv samaradorligini aniqlash.

Qo‘llanishi:

Raqamli xizmatlardan foydalanish statistikasi;

Byurokratiya qisqarishi, vaqt va xarajat tejalishi;

E-hukumatning iqtisodiy samarasi.

5. Ekspert baholash metodi

Soha mutaxassislari — IT mutaxassislar, hukumat xodimlari, analitiklar fikriga tayangan holda baholash.

Qo‘llanishi:

Elektron hukumatning rivojlanish darajasini aniqlash;

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari;

Yangi islohotlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

6. Sotsiologik tadqiqot metodlari (anketa, intervyu)

Aholi va tadbirkorlarning elektron xizmatlarga munosabatini o‘rganish.

Qo‘llanishi:

Qaysi xizmatlar ko‘proq talab qilinishi;

Qaysi hududlarda raqamli savodxonlik pastligi;

Foydalanuvchi qoniqish darajasini o‘lchash.

7. SWOT tahlil

Elektron hukumatning kuchli va zaif tomonlarini baholash.

Qo‘llanishi:

Kuchli jihatlar (S) – masalan, tezkorlik, shaffoflik

Zaif jihatlar (W) – texnik kamchiliklar, kadrlar yetishmasligi

Imkoniyatlar (O) – yangi texnologiyalar, xalqaro tajriba

Tahdidlar (T) – axborot xavfsizligi, kiberxavf

8. Case-study (amaliy holatlarni o‘rganish)

Muayyan davlatning elektron hukumatdagi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz tajribasini chuqur o‘rganish.

Qo‘llanishi:

Estoniya ID-karta tizimi

Singapur Smart Nation modeli

Koreyaning e-participation loyihalari

Xulosa

“Elektron hukumat”ni o‘rganishda metodlarni kompleks qo‘llash — taqqoslash, tizimli yondashuv, statistik tahlil va case-study — eng samarali natija beradi. Bu usullar xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va O’zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zholaman KD Davlat va huquq nazariyasi / K.D. Zholaman, A.K. Muxtarova, A.N. Taukelev. - Olmaota: Qozog‘iston Davlat Universiteti nashriyot markazi, 1999. - 154 b.

2. Samarali davlat boshqaruvi: III Akademiya simpoziumi materiallari. (Ostona, 2011-yil 25-noyabr). - Ostona: Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat akademiyasi, 2011. - 101 b.

3. Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 954-sonli "Viloyat, respublika ahamiyatidagi shaharlar, poytaxt markaziy davlat va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini yillik baholash tizimi to‘g‘risida"gi Farmoni [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: http://akorda.kz/.

4. Kaparov SG Qozog‘istonda davlat xizmatini takomillashtirish / S.G. Kaparov. - Ostona: Alem – Ostona, 2010. - 184–185-betlar.

5. Qozog‘iston Respublikasida davlat xizmatining holati bo‘yicha milliy hisobot [Elektron resurs]. - Kirish rejimi:

http://kyzmet.gov.kz/.6. Gravanova Yu.S. Elektron hukumatdan mobil va undan keyingi aloqaga - keng polosali aloqaga [Elektron resurs] / Yu.S. Gravanova. - Kirish rejimi: http://cnews.ru/reviews/free/gov2012/.

6. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi [Elektron resurs]: 30.11.1994 yildagi Rossiya Federatsiyasining 51-FZ-sonli qonuni. - "ConsultantPlus" ma’lumotnoma-huquqiy tizimidan kirish.

7. Grigoriev PV "Elektron hukumat" tushunchasiga asosiy yondashuvlar [Elektron resurs] / PV Grigoriev //

eGOV 2.0. - Kirish rejimi: http: http://open-gov.ru/2010/09/19/poghod-egov.

HOZIRGI KUNDAGI ILM-FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI

Jumanova Hilola Akbarovna

G‘allaorol tumani, 16-sonli umumiy

o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Agzamova Dilfuza Akbarovna

G‘allaorol tumani, 51-sonli umumiy

o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida ilm-fan va ta’lim integratsiyasining ahamiyati, uning mazmun-mohiyati, raqamli transformatsiya sharoitida integratsiyaning rivojlanish omillari hamda ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligining o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, ta’lim, integratsiya, innovatsiya, STEAM, raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati.

Hozirgi davrda ilm-fan va ta’lim integratsiyasi ta’lim jarayonining sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladigan eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahonda sodir

bo‘layotgan ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsion jarayonlarning tezlashuvi va raqamli transformatsiya sharoitida o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash qobiliyati, ilmiy fikrlash va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Integratsiya jarayonining markazida ilmiy g‘oyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish, o‘quv jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish, fanlararo uzviylikni ta’minlash hamda o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirish kabi vazifalar turadi. Shu maqsadda ilmiy izlanishlar va ta’lim jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, o‘quvchilarni faqat ma’lumot egasi sifatida emas, balki tadqiqotchi, ijodkor va muammolarni tahlil qila oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Bugungi kunda STEAM yondashuvi ilm-fan va ta’lim integratsiyasining eng samarali modeli sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga muhandislik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, loyihalar orqali real hayotdagi muammolarni tahlil qilish va ularni amaliy yechimlar bilan hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga STEAM ta’limi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, analitik tahlil, jamoada ishlash va innovatsion yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantirib, ularni kelajak kasblariga tayyorlaydi. Loyihaviy ta’lim orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ushbu bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, texnologik yechimlar ishlab chiqish va natijalarni baholash imkoniga ega bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida integratsiyani yanada kuchaytiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari murakkab jarayonlarni xavfsiz va samarali modellashtirishga, o‘quvchilarning eksperimentlarni mustaqil bajarishiga, xatolarini tahlil qilish va o‘rganishga imkon beradi. Shu tarzda o‘quvchilar nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini anglab, fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ilmiy faoliyatga jalb qilinadi. Raqamli vositalar orqali ta’lim jarayonini individualizatsiyalash, o‘quvchilarning o‘zlashtirish sur’atlarini kuzatish va baholash imkoniyati yuzaga keladi, bu esa integratsiyaning samaradorligini oshiradi.

Bunday sharoitda o‘qituvchining roli ham tubdan o‘zgaradi. Endilikda o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini yo‘naltiruvchi, loyihalarni koordinator sifatida boshqaruvchi, shuningdek, raqamli va innovatsion vositalardan samarali foydalanishni ta’minlovchi mentor sifatida maydonga chiqadi. Shu bilan birga o‘qituvchi doimiy ravishda malakasini oshirishi, yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni o‘zlashtirishi, o‘quvchilarning kreativ va innovatsion ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirishi zarur.

Integratsiyaning rivojlanishida ta’lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etilayotgan texnoparklar, startap inkubatsiyalari, ilmiy laboratoriyalar va innovatsion markazlar o‘quvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Bu esa yoshlarni real ishlab chiqarish vazifalari bilan tanishtirish, amaliy loyihalarni yaratish va innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish orqali kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash imkonini beradi. Shu tarzda ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoshlarni nafaqat bilim egasi, balki real dunyo muammolarini hal qila oladigan malakali mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Shunga qaramay, ilm-fan va ta’lim integratsiyasining to‘liq amalga oshishiga bir qator omillar to‘sqinlik qilmoqda. Jumladan, zamonaviy laboratoriya jihozlarining yetarli emasligi, malakali STEAM o‘qituvchilarining kamligi, fanlararo dars modullarining to‘liq ishlab chiqilmaganligi va ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi grant dasturlarining cheklanganligi integratsiya jarayonining sekinlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois ta’lim sohasida modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, o‘qituvchilarning raqamli va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish, fan va texnologiya asosida yangi avlod darslarini yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ilm-fan va ta’limning uzviy bog‘lanishi natijasida zamonaviy bilimlarga ega, kreativ fikrlovchi, muammolarni tahlil qila oladigan va innovatsion yechimlar taklif qila oladigan yoshlar yetishib chiqadi. Bu esa jamiyatning intellektual salohiyatining oshishiga, mamlakatning ilmiy-texnik taraqqiyotiga va global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga

bevosita hissa qo‘shadi. Shu tariqa ilm-fan va ta’lim integratsiyasi nafaqat ta’lim sifatini yaxshilash, balki yosh avlodni kelajakning murakkab muammolariga tayyorlash, jamiyatning texnologik va intellektual rivojlanishini ta’minlash borasida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida qaraladi. Integratsiyani izchil amalga oshirish orqali raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, fanlararo uzviylikni ta’minlash va ta’lim hamda ishlab chiqarish o‘rtasidagi samarali hamkorlikni mustahkamlash zarur, bu esa mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2021.

2. O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. *Innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi.* — Toshkent, 2020.

3. Hasanov, A. *Ta’lim va fan integratsiyasining nazariy asoslari.* — Toshkent: Fan, 2022.

4. Xodjayev, M. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.* — Toshkent: O’qituvchi, 2020.

5. Tursunov, B. & Jo‘rayev, S. *Pedagogik innovatsiyalar va integratsion yondashuv.* — Buxoro davlat universiteti nashri, 2021.

6. Abdug‘aniyeva, Z. “STEAM ta’limi: nazariya va amaliyot”. // *Pedagogika va innovatsiya jurnali*, №3, 2022. — B. 45–52.

WOMEN’S INFLUENCE ON THE GROWTH OF ENGLISH LITERATURE

Turayeva Ayajan Yerali qizi[1]

Email: ayajanyeraliqizi@gmail.com

[1]Third year student at Chirchik State Pedagogical University, [1]Bo‘stonlik district, Yangiaul, Kora Tepa 50

Isroilova Tursuntosh[2]

[2]Teacher at the Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This paper explains how the position of women in English literature has changed over the centuries. In the beginning, stories were written by men, and women only appeared as characters. Later, women became authors and started to share their own ideas and experiences. The article focuses on three main stages: early times when women had no voice, the 18th and 19th centuries when female writers became active, and the modern period when women’s writing showed independence and equality.

Keywords: women, literature, female writers, feminism, development

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz adabiyotida ayollarning o‘rni asrlar davomida qanday o‘zgarganini tushuntiradi. Dastlab asarlar erkaklar tomonidan yozilgan va ayollar faqat obraz sifatida tasvirlangan. Keyinchalik ayollar ham yozuvchi sifatida maydonga chiqib, o‘z g‘oyalari va tajribalarini ifodalay boshladilar. Maqolada uch asosiy bosqich ko‘rib chiqiladi: ayollar ovoziga ega bo‘lmagan dastlabki davrlar; XVIII–XIX asrlarda ayol yozuvchilarning faol bo‘lishi; hamda zamonaviy davrda ayollar ijodida mustaqillik va tenglik g‘oyalarining kuchayishi.

Kalit so‘zlar: ayollar, adabiyot, ayol yozuvchilar, feminizm, rivojlanish

Аннотация. В данной статье рассматривается, как изменилось положение женщин в английской литературе на протяжении веков. Первоначально произведения создавались мужчинами, а женщины присутствовали только как литературные персонажи. Позднее женщины стали авторами и начали выражать собственные идеи и жизненный опыт. В статье выделены три основных этапа: ранний период, когда у женщин не было собственного голоса; XVIII–XIX века, когда активизировались женщины-писательницы; и современный этап, в котором женское письмо отражает идеи самостоятельности и равенства.

Ключевые слова: женщины, литература, женщины-писательницы, феминизм, развитие

Introduction. In earlier centuries, English literature mostly reflected men’s thoughts, and women were rarely given an active role. They were often described as gentle, obedient, or ideal

figures. Over time, women received better education and began to express their feelings and opinions through writing.

The goal of this article is to show how women's roles in English literature have changed — from being just figures in men's stories to becoming creative writers who helped shape literary history.

Methodology

This research uses a historical and literary study method. It explores the development of women's roles in literature from medieval times to the present. Both male and female authors are analyzed to see how they represented women. Examples include the works of Geoffrey Chaucer, Jane Austen, the Brontë sisters, and Virginia Woolf. This method helps explain how women's voices and characters became stronger and more independent in English literature.

Results

The findings show three main changes:

1. In the early period, women were not authors; they were only characters written by men.
2. In the 18th and 19th centuries, many women started writing novels, such as Jane Austen's Pride and Prejudice and Charlotte Brontë's Jane Eyre.
3. In the modern age, women like Virginia Woolf and Sylvia Plath used writing to express their emotions and fight for women's rights.

These results prove that women slowly became equal voices in the literary world.

Discussion. The role of women in English literature has changed greatly through different historical periods. At first, women were mostly seen as silent and weak characters, but later they became strong writers who shared their thoughts, feelings, and experiences with the world. This section discusses three important stages in this development: the early period, the 18th and 19th centuries, and the modern period.

Early Period: Women Without a Voice

In the early stages of English literature, women did not have many rights or chances to express themselves. Most books were written by men, and female characters were often shown as queens, saints, or romantic figures. For example, in Geoffrey Chaucer's The Canterbury Tales, the "Wife of Bath" is a rare example of a woman who speaks openly and confidently. However, she is still written by a male author, which means her story reflects a man's view of women. In this time, writing and education were limited mostly to men, so women's real voices were rarely heard.

18th and 19th Centuries: Women Become Writers

In the 18th and 19th centuries, society started to change. Women gained more access to education, and some of them began to publish their own books. This was an important step because women could finally write about their own experiences and emotions. Writers like Jane Austen, Charlotte Brontë, and Emily Brontë became famous for creating strong and intelligent female characters. Austen's Pride and Prejudice shows a woman, Elizabeth Bennet, who values independence and intelligence. Charlotte Brontë's Jane Eyre presents a woman who wants respect and equality. These writers helped change people's opinions about women. They showed that women could think deeply, make decisions, and have moral strength. This period gave women confidence to continue writing in the future.

Modern Period: Freedom and Feminism

The 20th century brought more freedom for women, and their writing became more personal and experimental. Virginia Woolf, in her famous essay A Room of One's Own (1929), said that every woman needs money and her own space to write freely. She believed that social and economic independence are necessary for creativity. Later, writers like Sylvia Plath and Doris Lessing explored deeper psychological and emotional problems faced by women. They wrote about identity, mental health, and equality. At the same time, feminist movements around the world encouraged women to express their real-life struggles. Literature became a mirror of women's lives — not just romantic or domestic, but also intellectual and political.

The Influence of Women's Writing

Through these centuries, women's literature has influenced both readers and society. Their books helped people understand women's emotions, rights, and social positions. Many male authors were also inspired by female writers' honesty and sensitivity. Today, women are among the leading voices in English literature. Their works are studied in schools and universities, proving that women have become equal creators in the literary world.

Conclusion. Women have greatly influenced the history of English literature. At first, they were silent figures, but with time they became respected authors. Their works discuss emotions, social life, and equality, helping literature become more human and diverse. Today, women continue to play a major role in expressing the voice of society through their writing.

References

1. Chaucer, G. (2003). The Canterbury Tales. London: Penguin Classics.
2. Austen, J. (1813). Pride and Prejudice. London: T. Egerton.
3. Brontë, C. (1847). Jane Eyre. London: Smith, Elder & Co
4. Woolf, V. (1929). A Room of One's Own. London: Hogarth Press.

KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Usmanova Maftuna G'anisher qizi –
Jizzax shahar 21-maktab kimyo fani o'qituvchisi
+998931329891
Abdusaidova Shahnoza Qo'chqorovna –
Sh.Rashidov tumani 38-maktab kimyo fani o'qituvchisi
+998911881812

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida kimyo darslarida innovatsion texnologiyalaridan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va qulayliklari yoritib berilgan.

Bundan tashqari kimyoni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib hozirgi vaqtda qo'llaniladigan va kelajakda qo'llanilishi mumkin bo'lgan dasturlar, dasturlar bo'yicha ishlash haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, Innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, davriy jadval, animatsiya, video qo'llanma, You tube, video laboratoriya, qiziqarli tajribalar, rasm, grafik va jadvallar.

Kirish. Zamonaviy kimyo o'qituvchisi quyidagilarni: a) kimyo fanini o'qitishda ta'lim bilan tarbiyaviyani o'quvchilar ongida rivojlantirish; b) maktab va litsey hamda kasb-hunar kollejlarining o'quv dasturlari, darsliklari, o'quv-rnetodik qo'llanmalarini; d) kimyo o'qitish metodikasining nazariy asoslari, jumladan, kimyo o'qitish rnetodlarini, o'qitish natijalarini nazorat qilishni, kimyo xonasining o'quv jihozlarini, laвoratoriyada ishlash vaqtidagi xavfsizlik texnikasini, kimyoviy moddalardan foydalanish, saqlash qoidalarini, bajarish texnikalarini o'rganish; e) Pedagog turli xildagi o'quvchilar muloqot qilaolish, ularga ta'lim berish, psihologik jihatdan ham ularni qo'llay olishi kerak. Bundan tashqari har bir kimyo o'qiyuvchisi kimyoviy masalalarni ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi shart.

Bugungi kunda ta'lim sohasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan pedagogik jarayonda interaktiv yondashuvlarga asoslangan zamonaviy o'qitish modellariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shulardan biri — 5E modeli bo'lib, u kimyo fanini samarali o'qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu model o'quvchini bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, fan mohiyatini chuqur tushunishga zamin hozirlaydi.

Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida darsliklar "4K" modeli asosida tayyorlanmoqda. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir.

Metodlar:

Interfaol ta’lim (inglizcha. - ”interakt” o‘zaro harakat qilmoq) – talaba-o‘quvchilarning bilim, ko’nikma va malaka sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatlarini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

Interfaol ta’lim quyidagi imkoniyatlarga ega:


1. O’quvchilarda bilimlarni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishni uyg‘otadi;
2. Dars jarayonining har bir o’quvchisini rag‘batlantiradi;
3. Har bir o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi;
4. Dars puxta o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
5. O’quvchilarda mavzular bo‘yicha fikr hamda munosabatni uyg‘otadi;
6. O’quvchilarda hayotiy zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi;
7. O’quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirilishini taminlaydi.

“ASSESMENT” metodi

“Assesment” ingliz tilidan olingan va “baholash”, “baho” ma’nolarini anglatadi. Assesment metodi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, holis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, talim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshirig‘i, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi.

Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo‘llash mumkin. Bu metoddan uyga vazia berishda ham foydalansa bo‘ladi.

“ASSESMENT”

Test. Temirning zanglashi qanday jarayon hisoblanadi? A) Mexanik yemirilish B) Elektr o‘tkazuvchanlik jarayoni C) Kimyoviy oksidlanish jarayoni D) Eritma hosil bo‘lish jarayoni Quyidagi metallar orasida **eng yengil** metall qaysi? A) Temir (Fe) B) Mis (Cu) C) Litiy (Li) D) Kumush (Ag)	**Muammoli vaziyat.** Bir sanoat korxonasida suv o‘tkazuvchi temir quvurlar bir necha oy ichida zanglab, suv oqishiga sabab bo‘lmoqda. Texnik xodimlar quvurlarni almashtirgan bo‘lsa ham, yangi quvurlar ham qisqa muddatda korroziyaga uchramoqda. • Nima uchun temir quvurlar tezda zanglayapti? • Qanday metall yoki qoplama ishlatish bu muammoni kamaytiradi? • Qanday sharoitda korroziya tezlashadi yoki sekinlashadi?
Simptom. Metall panjarasida erkin elektronlar mavjudligi uchun …….yuqori bo‘ladi. **Tarkibida temir (Fe)** asosiy komponent bo‘lgan metall va qotishmalar guruhi…….deb ataladi	**Amaliy ko‘nikma.**  Rasmda qaysi elementlar qolib ketgan?

“Do‘stingni top” metodi

Bu metodda har bir o‘quvchilarga bir rasmni ikkiga bo‘lingan holatda tarqatiladi va u rasmni bir tomonida savol, ikkinchi tomonida javobi bo‘ladi. O’quvchilar savollarga javob berish orqali do‘stlarini topishadi. Bu jarayonda tezkorlik ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi, kim birinchi do‘stini topadi topshirig‘ini qo‘yamiz.



„Xatoni ovla” metodi

O’quvchilarga jadval asosida moddalar ko‘rastiladi. Bu jadvalda moddalar notartib joylashgan bo‘ladi, o‘quvchilar esa u moddalar orasidan o‘tilgan mavzuga mos kelmaydigan moddalarni topib belgilashadi. Metod manashu taribda amalga oshiriladi, bu orqali o‘quvchilarning mavzuni qanday tushinganliklarini va e’tiborli ekanligini aniqlash mumkin.

Al	Br	Ni	Hg	Cu	Pt
Fe	Na	Pb	Ba	S	Mn
Zn	K	Si	Os	Ag	C
Cl	Au	Sn	Cr	Li	W

Ta’lim tizimda AKT vositalaъarining keng joriy etilishi va kompyuter dasturlaridan foydalanish:

-Fanning hamma sohalarini axborotlashtirishni;

-Integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

-Ta’lim tizimini boshqarishni takomillashuviga olib keladi.

Hozirgi kunda dars jarayonlariga, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarni joriy qilmasdan, ta’lim metodikasi bilan bog‘liq boshqa innovatsiyalardan foydalanmasdan turib, maktab oldida turgan vazifalarni hal qilib bo‘lmaydi.

Masalan: “Accelrys Accord ChemExplorer”, “ACD ChemSketch”, “ChemCalc”, “Chemistry lab”, “ChemOffice”, “Chemistry Crocodile”, “BlueStacks” kabi 100 dan ortiq kimyo faniga oid dasturlar mavjud, ushbu dastrlardan foydalanish uchun o‘qituvchi va o‘quvchidan ingliz tilini bilish talab etiladi. Chunki dasturlar ingliz tilida yaratilgan.




Masalan, *Universal Chemistry* dasturi orqali Davriy jadvalda mavjud barcha elementlarning fizik va kimyoviy xossalarini o‘rganish mumkin. Odatda kimyoviy reaksiya vaqtida reaksiyada qatnashayotgan moddalarning boshqa moddalarga aylanishidagi molekula tuzilishini kuzatish imkoni yo‘q, lekin bu dastur orqali reaksiya vaqtida molekulaning dinamikasini kuzatish mumkin. Bu dastur orqali katalitik reaksiyalarni katalizator ishtirokida va katalizatorsiz amalga oshirib o‘rganish mumkin, reaksiya mexanizmini kuzatish va eng asosiysi bu ishlarni xavfsiz bajarish mumkin.




Universal Chemistry dasturining ishchi oynasi

Bundan tashqari *wordwall* dasturidan ham keng foydalansak bo‘ladi, uning qulaylik taraflari shundaki, unda turli animatsiyalar va qiziqarli vazifalarni ham bajarishimiz mumkin.



5-rasm. wordwall dasturining ishchi oynasi

Biz ham bu dasturdan unumli foydalangan holda o‘quvchilarni baholash uchun metallar mavzusiga oid ajoyib topshiriq yaratdik.



https://wordwall.net/ru/resource/102004126

Xulosa.

Umumta'lim maktablarida dars jarayonida kimyo fanini o'qitish dolzarb masala bo'lganligi uchun, o'quvchilarga kimyo fanini o'qitish, fanda yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llash masalalari bo'yicha, adabiyotlar, milliy o'quv dasturi, qo'llanmalar, maqolalar, internet ma'lumotlari va darsliklar o'rganildi va tahlillar o'tkazildi.

Kimyo darslarida zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan muvaffaqiyatli foydalanishning muhim shartli ta'lim-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish, yani o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, ularning javoblaridagi tipik xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq holda dars ishlanmalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, ularni takomillashtirish sanaladi.

Ushbu bitiruv ishida metallar haqida tushuncha, ularning turlari, metallarni olinish usullari, tabiatda tarqalishi, ahamiyati berilgan. Bundan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalaridan maqsadli fodalanish imkoniyatlar ochib berilgan.

Kimyo darslarida yangi pedagogik texnologiyalar, xususan "Do'stingni top", "Assesment", "Xatoni ovla" didaktik o'yinlaridan foydalangan holda dars loyihalari ishlab chiqildi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kimyo darslarini faollashtiradi, o'quvchilarni o'rganishga qiziqtiradi va mustahkam bilimlarni shakllantiradi. Bu yondashuv orqali nafaqat fanni o'zlashtirish, balki ilmiy fikrlash, kuzatish va mantiqiy tahlil qilish kabi muhim ko'nikmalar rivojlanadi.

FOYALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. S. Masharipov, I. Tirkashev KIMYO. Toshkent"O'qituvchi", 2002 159-165-b.
2. M.M.Abdulxayeva, O'.M.Mardonov Kimyo. Toshkent-"O'zbekiston"-2002, 509-b.
3. H.R.To'xtayev, R.Arstanbekov va boshqalar Anorganik kimyo. Toshkent "Noshir"-2011
4. N. Parpiyev, A.Muftaxov, H.Rahimov "Umumiy kimyo". Toshkent "O'zbekiston"- 2000
5. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnlogiyalar.-T.: Moliya, 2003.
6. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.-T.: 2016
7. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish metodlari.-Toshkent: O'qituvchi, 1990.-230 b.
8. http://zienjournals.com
9. www.Pedagog.uz
10. www.chemistry.ru

MIKROSEFALIYA VA HUJAYRA RIVOJI: HAYOT MEXANIZMLARIDAGI NOZIK RITMLARNING BUZILISHI.

Alijonova Dilorom Azamjonona – FarDu o‘qituvchisi
Rustamova A’loxon Ulug‘bek qizi – FarDu talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mikrosefaliya kasalligining etiologiyasi, patogenezi klinik ko‘rinishlari, kelib chiqish sabablari, davolash usullari hamda profilaktik choralari yoritilgan.

Annotation: This article discusses the etiology, clinical manifestations, cause, treatment methods, and prevente measures of microcephaly.

Аннотация: В статье рассматриваются этиология, патогенез, клинические проявления, причины, методы лечения и меры профилактики микроцефалии.

Kalit so‘zlar: genetika, gipoksiya, mutizm, inklyuziv, MRT, KT, zika, rubella, reabilitatsiya, integratsiya.

Keywords: genetics, hypoxia, mutism, inclusive, MRI, CT, zika, rubella, rehabilitation, integrative.

Ключевые слова: генетика, гипоксия, мутизм, инклюзивный, МРТ, КТ, зика, краснуха, реабилитация, интегративный.

Mikrosefaliya- bu bosh suyagi hajmining yosh va jins me’yorlariga nisbatan kichik bo‘lishi bilan tavsiflanadigan nevrologik kasallik bo‘lib, miya hajmi hamda neyronlarning yetarli rivojlanmasligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat miya yarimsharlari, miya ustuni va bosh miya nervlari faoliyatiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Mikrosefaliya turlari va tavsifi:

1. Birlamchi (irsiy yoki genetik) mikrosefaliya – bu turda miya o‘sishining buzilishi genetik sabablar bilan bo‘liq bo‘ladi. Homila rivojlanishining erta davridayoq bosh miya hujayralari yetarlicha ko‘paymaydi yoki to‘g‘ri joylashmaydi. Bunda homila tashqi jihatdan deyarli sog‘lom ko‘rinadi, ammo bosh miya kichik bo‘ladi.

2. Ikkilamchi (orttirilgan) mikrosefaliya – bu turda miya normal rivojlana boshlaydi, biroq onaning surunkali kasalliklari, alkagol yoki dorilar ta’siri, kislorod tanqisligi, tug‘ruq travmalari ta’siri natijasida o‘sish jarayoni to‘taydi.

Mikrosefaliyaning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lib, quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Genetik sabablari 700 dan ortiq genetik mutatsiyalar mikrosefaliya rivojlanishiga sabab bo‘lishi aniqlangan. Ayrim hollarda xromosoma soni yoki tuzilmasidagi nuqsonlar sabab bo‘ladi. Masalan: Daun sindromi (21-xromosoma trisomiyasi), Edvards sindromi (18-xromosoma trisomiyasi), Patau sindromi (13-xromosoma sindromi). Shunngdek, autosom-retsessiv mikrosefaliya deb ataluvchi maxsus irsiy shakli ham mavjud. Bundan tashqari, ASPM, MCPH1, WDR62 kabi genlardagi mutatsiyalar miyaning o‘sishini sekinlashtiradi. Agar ota-onada irsiy mikrosefaliya kuzatilgan bo‘lsa, bolada ham shu kasallik rivojlanish xavfi ortadi.

2. Infeksion omillar. Homiladorlik davrida ona organizmiga tushgan ba’zi viruslar va parazitlar homilaning miya hujayralariga zarar yetkazadi. Eng ko‘p uchraydigan infeksiyalar quyidagilardir:

- zika virusi- miyaning o‘sishini to‘xtatadi, tug‘ma mikrosefaliyaning asosiy sababi hisoblanadi;
- qizamiq- homiladorlikning ilk trimestrida yuqtirilsa, miya, yurak va ko‘rish organlariga zarar yetkazadi;
- sitomegalovirus- asab hujayralarini zararlab, miya po‘stlog‘ining rivolanishini to‘xtatadi;
- toksoplazmos- mushuklar orqali yuqadigan parazit infeksiya bo‘lib, homilada miya va ko‘z nuqsonlarini chaqiradi.

3. Metabolik va tibbiy sabablar. Oqsil, folat, vitamin B9 va B12 yetishmovchiligi ham miya rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Homiladorlik va tug‘ruqdagi asoratlar. Homiladorlik vaqtida homilaning gipoksiyasi (kislorod yetishmasligi), plasenta qon aylanishinig buzilishi, homiladorlikning erta tugashi (muddatidan oldin tug‘ruq) kabi holatlar mikrosefaliya kasalligiga sabab bo‘ladi.

Mikrosefaliyaning klinik ko‘rinishlari bolaning yoshiga, miya yetishmovchilik darajasiga va sababiga bog‘liq. Eng ko‘p uchraydigan belgilar quyidagilar:

bosh hajmining kichikligi – peshona qismi tor, bosh orqa qismi yassi bo‘ladi;

aqliy rivojlanish kechikishi – bola o‘rganishga, gapirishga, tushunishga qiynaladi;

nutq va eshitish buzilishlari – ayrim hollarda mutizm (so‘zlamaslik) kuzatiladi;

harakat koordinatsiyasi sustligi – bola yurishni kech o‘rganadi, muvovazanatni saqlay olmaydi;

epileptik tutqanoqlar – ko‘p hollarda miya po‘stlog‘i shikastlanganligi sababli kuzatiladi;

emotsional beqarorlik – bola yez yiglaydi, asabiy yoki befarq bo‘lishi mumkin.

O’rtacha yoki o‘g‘ir darajadagi mikrosefaliyada bola o‘z- o‘ziga xizmat qila olmaydi, doimiy nazorat va parvarish talab etadi.

Mikrosefaliya tashxisi quyidagilarga asoslanadi:

O’lchov – bosh atrofi perimetrini yosh me’yorlari bilan solishtirish

Prenatal diagnostika – ultratovush orqali homila bosh o‘lchovini aniqlash.

Nevrosonografiya, MRT yoki KT – miya tuzilmasidagi o‘zgarishlarni baholash.

Laborator tahlillar – infeksiyalar (zika, CMV, rubella va.b) ni aniqlash.

Oldini olish : Mikrosefaliyani oldini olishning eng samarali yo‘li – homiladorlikdan oldingi va homiladorlik davridagi tibbiy nazoratni kuchaytirishdir.

Davolash: Afsuski, mikrosefaliya to‘liq davolanmaydi, chunki miya rivojlanishining yetishmasligi qaytarilmaydigan jarayondir. Biroq erta tashxis va realibilitatsiya orqali bola hayot sifatini yaxshilanishi mumkin.

Yaqinlari uchun tavsiyalar.

Mikrosefaliya bilan yashovchi insonlarning yaqinlari uchun parvarish jarayonida bir necha ilmiy asoslangan vazifalar juda muhim hisoblanadi. Avvalo, tadqiqotlar bunday oilalarda stress va ruhiy charchoq yuqori bo‘lishini ko‘rsatgani uchun ota-onalar psixolog bilan suhbatlashib turishi, dam olish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlaridan foydalanishi tavsiya etiladi. Ba’zi bolalarda ovqatni chaynash yoki yutish qiyin bo‘lishi mumkin, shuning uchun pediatr yoki diyetolog tavsiyasiga ko‘ra moslashtirilgan, energiya va oqsilga boy parhezni ta’minlash hamda suyuqlik iste’molini kuzatish zarur. Emotsional muhit mikrosefaliya rivojiga sezilarli ta’sir qilgani uchun yaqinlar bolaning his-tuyg‘ularini sabr bilan qabul qilishi, kamsitish va qo‘pollikdan qochishi, kichik yutuqlarini ham maqtashi lozim. Jismoniy jazo va qo‘rqitishdan butunlay voz kechish ilmiy jihatdan eng to‘g‘ri yondashuvdir. Shuningdek, bolaning ijtimoiy moslashuvi uchun inklyuziv ta’limga yordam berish, tengdoshlar bilan o‘ynashiga sharoit yaratish va uy ishlarida kichik mas’uliyatlar berish foyda beradi. Parvarish jarayoni ota-onada charchoqni kuchaytirishi mumkin bo‘lgani sababli o‘z sog‘ligini asrash, dam olishga vaqt ajratish va kerak bo‘lganda yordam so‘rash ham juda muhimdir.

Mikrosefaliya – jiddiy nevrologik kasallik bolib, asosan miya rivojlanishining buzilishi natijasida yuzaga keladi. To‘liq davolash imkoniyati mavjud bo‘lmasa-da, erta tashxis va reabilitatsiya choralari orqali bolaning ijtimoiy va intellektual rivojlanishini yaxshilash mumkin. Jamiyatda mikrosefaliyaga chalingan bolalarni ijtimoiy integratsiya qilish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabyotlar

4. M.Ayubova Lagopediya.- Toshkent, 2007
5. Paramonova L.G Lagopediya. – Piter, 2004
6. “Tug‘ma rivojlanish nuqsonlari va ularni erta aniqlash bo‘yicha qo‘llanma” O’zbekiston Respublikasi SSV, T, 2019

Qo‘shimcha adabiyotlar

3. “Pediatriya” – Toshkent 2018
4. A. Akramova, SH.Rasulova. Homila rivojlanishidagi tug‘ma nuqsonlar va ularning etiologiyasi.- Toshkent 2020

COURAGE AND LONELINESS IN ERNEST HEMINGWAY’S THE OLD MAN AND THE SEA

Lenara Dlyaverovna Mustafayeva
Student, Chirchik State Pedagogical University
lenaramustafayeva2410@gmail.com
Scientific adviser: **Diana Valeryevna Abduramanova**
Head of the English theory and practice department, Chirchik State Pedagogical University
diana1207saliyeva@gmail.com

Annotation: This article explores how *The Old Man and the Sea* portrays the dual themes of courage and loneliness through the figure of Santiago, an aging fisherman. It examines how his solitary struggle on the sea becomes a proof of moral and physical courage while also exposing deep isolation and existential solitude. The study argues that the novella positions loneliness not only as a limitation but also as a condition under which true courage is revealed.

Keywords: courage, loneliness, Santiago, exile, struggle, endurance, solitude, nature, dignity

Аннотация: В данной статье анализируется, как в повести «Старик и море» раскрываются темы мужества и одиночества через образ старика Сантьяго, пожилого рыбака. Рассматривается, как его одиночная борьба на море становится доказательством морального и физического мужества, но также обнажает глубокое чувство изоляции и экзистенциального одиночества. Исследование утверждает, что повесть показывает одиночество не просто как недостаток, а как условие, при котором проявляется истинное мужество.

Ключевые слова: мужество, одиночество, Сантьяго, изгнание, борьба, выносливость, уединение, природа, достоинство

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qari baliqchi va dengiz” (“The Old Man and the Sea”) asarida jasorat va yolg‘izlik mavzulari qari baliqchi Santiagoning obrazida qanday tasvirlanganligi tahlil qilinadi. Uning toj-qoyilmas dengizdagi yolg‘iz kurashi axloqiy va jismoniy jasorat namoyishi sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga, chuqur izolyatsiya va ekzistensial yolg‘izlikni ham ochib beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, asarda yolg‘izlik faqat kamchilik sifatida emas, balki haqiqiy jasoratga yo‘l ochadigan muhit sifatida tasavvur etiladi.

Kalit so‘zlar: jasorat, yolg‘izlik, Santiagio, chetlanish, kurash, chidamlilik, yakka-yolg‘izlik, tabiat, qadr-qimmat

INTRODUCTION

In *The Old Man and the Sea,* Hemingway portrays the aging fisherman Santiago who ventures far into the Gulf Stream, battling a giant marlin and then sharks, mostly alone. His ordeal is not simply about physical struggle; it also embodies moral courage and existential isolation. The themes of courage and loneliness intertwine: Santiago‘s solitude magnifies his bravery, and his courage elevates his isolation into meaningful action. The aim of this article is to investigate how the novella uses loneliness as a context for courage, and how courage is shaped by solitude, nature and human dignity.

METHODOLOGY

This study employs a qualitative literary-analysis method, combining thematic review with textual illustration.

Theoretical framing: Drawing on scholarship about courage (virtue ethics, endurance) and loneliness (existential isolation, alienation).

Textual observation: Identifying key passages in the novella that reveal Santiago‘s solitary condition, his courageous acts, his relationship with nature and self.

Comparative synthesis: Linking how loneliness and courage operate together in the narrative, and what this tells us about human condition and literary representation. Thus the method allows us to explore how the thematic pair functions not just independently but relationally—how solitude shapes courage, and how courage redeems solitude.

RESULTS

Loneliness as Condition

Santiago is fundamentally isolated: he has gone eighty-four days without a catch, his fellow fishermen consider him unlucky, his shack is modest, and he ventures into the sea alone. The sea becomes not only his workplace but his existential milieu—vast, indifferent, hosting both his challenge and his solitude. The novella shows that loneliness here is not just physical but psychological: he talks to himself, to his left hand, to the fish, the sea, the birds.

Courage in the Face of Nature and Fate

Santiago‘s courage manifests when he hooks the marlin and endures a multi-day battle with it despite his age, fatigue, pain and the sharks that follow. He holds fast to the belief that “a man can be destroyed but not defeated,” showing moral courage amidst defeat.

Interrelation of Loneliness and Courage

The study finds that loneliness and courage are interlinked. Santiago‘s solitude removes distraction and companionship—forcing him into confrontation with himself and nature. In that isolation his courage becomes more evident. The loneliness also deepens his respect for nature and his dignity in struggle. Nature is both adversary and companion; his recognition of the marlin as “brother” reveals his loneliness turned into kinship.

Dignity and Endurance

Despite losing the marlin’s meat to the sharks, Santiago returns with the skeleton. Though materially defeated, he retains dignity. His courage in solitary struggle transforms defeat into moral victory—loneliness thereby becomes part of his heroic condition rather than simply a weakness.

ANALYSIS

The findings show that loneliness in the novella is not merely an obstacle but a field where courage is displayed and tested. Santiago‘s isolation forces him into raw confrontation—with nature, fate, his own aging body. In this stark solitude his courage is purified; there is no external applause, no waiting companions, only himself and his will. Motifs of nature intensify this: the sea as indifferent, the marlin as noble adversary, the sharks as predatory destruction.
The narrative form—sparse prose, repetition, internal monologue—mirrors the isolation and endurance of the protagonist. The quiet of the boat, the vastness of the sea, the slow motion of struggle—all contribute to a sense of courage in stillness and loneliness in action.
Culturally, the theme resonates with modern man’s alienation and quest for meaning. Santiago is cut off from his younger apprentice (Manolin), from community respect, yet his courage affirms his human worth. The story suggests that courage is not about companionship or triumph but about enduring alone, holding dignity when the world is absent.
Thus the novella proposes a model: true courage may require loneliness; and loneliness, when embraced rather than rejected, may reveal dignity.

CONCLUSION

In conclusion, *The Old Man and the Sea* presents loneliness and courage not as opposed states but as entwined. Santiago‘s solitude amplifies his courageous feat, and his courage gives meaning to his isolation. The novella invites readers to reconsider loneliness—not just as suffering but as the space in which human dignity and moral strength may emerge. It suggests that one’s worth is not measured solely by external success or company, but by the resilience of spirit in solitude, the unspoken struggle with nature, and the choice to endure. For contemporary readers, this narrative remains powerful: in an era of connectivity yet inner isolation, the story reminds us that courage often stands alone—and in that aloneness, we discover the depth of our humanity.

REFERENCES

1. Ghimire, D. P. (2023). *Santiago‘s alienation and authenticity in The Old Man and the Sea.* International Research Journal of Parroha Multiple Campus, 2(1).

2. Wajdi, M., Darlina, L., Suka Sanjaya, I N., & Susanto, B. (2024). *A Self-Confident Profile: An Analysis of The Old Man and the Sea.* Journal of Language and Literature.
3. “What is the relationship between The Old Man and the Sea?” (2022). *Open Journal of Social Sciences*, 3, 196-199.
4. “What Themes of Isolation Are Explored in ‘The Old Man and the Sea’?” (2025). GoodNovel.
5. “‘The Old Man and the Sea’: Theme Analysis.” NovelGuide. (n.d.).
6. “Analysis — The Old Man and the Sea.” BookAnalysis. (n.d.).
7. “A Thematic Study of Ernest Hemingway’s ‘The Old Man and the Sea’.” John Foundation Journals. (2024).
8. John Foundation Journals: “The intricate balance between human activities and natural environment — Loneliness and Isolation.” (n.d.).
9. Scribd document: “Notes Novel Old Man and Sea | Loneliness | Courage.” (n.d.).
10. “The Old Man and the Sea: A Lesson in Courage.” Centro de Libros de Autoayuda. (n.d.).

O‘quvchilar so‘z boyligini aniqlashning psixologik asoslari

Qayumova Ozoda Botir qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
ozodaqayumova63@gmail.com

Annotatsiya. Maktab o‘quvchilari so‘z boyligini aniqlash – pedagogik, psixologik va metodik muammo. O’quvchilarning lug‘at boyligini aniqlash tashqi muhitning ta’siri, intellektual rivojlanish darajasi, shaxsning individual xususiyatlari kabi psixologik omillar bilan bog‘liq. So‘z boyligi va nutq rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik jarayonlar qatoriga xotira, tafakkur hamda diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz shakllari kiradi. Mazkur jarayonlar o‘quvchining yangi leksik birliklarni qabul qilishi, ularni eslab qolishi va faol nutqda qo‘llay olishini ta’minlaydi. Shu bois, o‘quvchilarning lug‘at boyligini aniqlash va rivojlantirishda ushbu psixologik omillarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda o‘rganish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Aktiv lug‘at, passiv lug‘at, psixodiagnostik eksprement, tafakkur, xotira, lug‘at boyligi, diqqat

Abstract. Determining the vocabulary of school students is a pedagogical, psychological, and methodological problem. The assessment of students’ vocabulary is linked to psychological factors such as the influence of the external environment, the level of intellectual development, and the individual characteristics of the personality. The main psychological processes affecting vocabulary and speech development include memory, thinking, as well as the voluntary and involuntary forms of attention. These processes ensure the student’s ability to perceive new lexical units, retain them and actively use them in speech. Therefore, the scientific study of the correlation of these psychological factors is an important pedagogical task in determining and developing students’ vocabulary.

Keywords: Active vocabulary, passive vocabulary, psychodiagnostic experiment, thinking, memory, vocabulary, attention.

Аннотация. Определение словарного запаса школьников является педагогической, психологической и методической проблемой. Диагностика словарного запаса учащихся связана с такими психологическими факторами, как влияние внешней среды, уровень интеллектуального развития и индивидуальные особенности личности. К основным психологическим процессам, влияющим на развитие словарного запаса и речи, относятся память, мышление, а также произвольная и непроизвольная формы внимания. Эти процессы обеспечивают усвоение учащимся новых лексических единиц, их запоминание и способность активно использовать их в активной речи. Следовательно, научно обоснованное изучение взаимосвязи данных психологических факторов является важной педагогической задачей в процессе определения и развития словарного запаса школьников.

Ключевые слова: Активный словарь, пассивный словарь, психодиагностический эксперимент, мышление, память, словарный запас, внимание.

Kirish. Insonning yil o‘tgan sari bilim darajasi, dunyoqarashi, tafakkuri hamda lug‘at boyligi ham kengayib boradi. O’quvchilarning so‘z boyligini aniqlash jarayonida ularning so‘z o‘zlashtirish imkoniyatini sinflar kesimida o‘rganish va ularga shu asosda dars jarayonida topshiriqlar hamda turli metodlarni tanlash lozim. Bola tilga nisbatan faol munosabatda bo‘lgani sababli til hodisalarini o‘zi anglamagan holda doimiy ravishda tahlil qiladi. A.Leontev bolaning nutqiy rivojlanish jarayoni uning lug‘ati va so‘zlar miqdorining o‘zgarishi emas, balki sifat jihatdan o‘zgarishidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishida so‘zning barcha vazifalarini o‘z ichiga oladigan haqiqiy rivojlanish jarayoni ekanligini ta’kidlaydi. Nutq genezisini bunday tushunish psixologik, pedagogik, lingvistik tadqiqotlarda nutqiy rivojlanish jihatlarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

- **Biologiya + Fizika**: mikroskop optikasi, diffuziya, osmotik jarayonlarni aniqlash;
- **Biologiya + Tibbiyot**: qon tahlili, yurak urish tezligi, reflekslarni o‘rganish.

NRC (2019) laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning ilmiy savodxonligi va analitik fikrlashini kuchaytirishini ta’kidlaydi **[5]**.

3. Raqamli texnologiyalar — STEM integratsiyasiga asoslangan yondashuv [4]

STEM modeli biologiya ta’limida raqamli vositalar, bioinformatika va virtual simulyatsiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- **Simulyatsiyalar**: evolyutsiya, genetika, populyatsiya o‘sishini virtual modellashtirish;
- **Bioinformatika**: DNK ketma-ketliklarini tahlil qilish, gen mutatsiyalarini o‘rganish;
- **AR/VR**: 3D hujayra modeli, organlar anatomiyasini virtual ko‘rish;
- **Onlayn laboratoriyalar**: fotosintez, nafas olish, harakat jarayonlarini sensorlar orqali o‘lchash.

Xalqaro tadqiqotlar raqamli texnologiyalar o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi (Zacharia, 2021) **[4]**.

Natijalar:

Integratsiya qilingan darslar samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tahlillar **OECD** va **UNESCO** ta’lim hisobotlariga asoslanadi **[1][2]**. Ushbu tashkilotlarning 2020–2024 yillardagi ma’lumotlariga ko‘ra:

- fanlararo o‘qitish modeli talabalarning **murakkab biologik jarayonlarni tushunish darajasini 25–35%** ga oshiradi;
- integratsiyalangan yondashuvda o‘qitilgan talabalar **muammoli vaziyatlarni hal qilish** va **analitik fikrlash** bo‘yicha an’anaviy darslarga qaraganda sezilarli yuqori natija ko‘rsatadi;
- biologiya darslarini kimyo, ekologiya, informatika va tibbiyot fanlari bilan bog‘lab o‘qitish talabalarda **tadqiqot olib borish**, **ilmiy tajribalarni rejalashtirish**, **raqamli vositalardan foydalanish** ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;
- UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, integratsiya asosida o‘qigan talabalarning **fanlararo kompetensiyalari 40% tez shakllanadi**, bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalangan darslar nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiradi, balki biologiya fanini chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladigan kuchli metodika sifatida o‘zini namoyon etadi.

Xulosa:

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanini **fanlararo integratsiya** asosida o‘qitish — zamonaviy ta’limning eng samarali strategiyalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha **[1][3][4][6]**:

- integratsiya biologiya fanini real hayotdagi jarayonlar bilan bog‘lash imkonini beradi;
- talabalarda XXI asr kompetensiyalari — **tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik, raqamli savodxonlik, muammolarni hal qilish** kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi;
- biologiya fanining kimyo, tibbiyot, ekologiya, informatika bilan bog‘lanishi kelajakdagi o‘qituvchilarga fanlararo loyihalar yaratish imkonini beradi;
- integratsiyasi kuchli ta’lim tizimlarida talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishi, laboratoriya ishlari sifati va PBL (Project-Based Learning) natijalari sezilarli oshgani isbotlangan;
- raqamli texnologiyalarni qo‘llagan integratsiya darslari o‘quv jarayonining samaradorligini yanada kuchaytirib, murakkab biologik tushunchalarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, fanlararo integratsiyaga asoslangan biologiya ta’limi — ta’lim sifatini oshiruvchi, xalqaro standartlarga mos keluvchi va bo‘lajak pedagoglarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlovchi kuchli metodik yondashuvdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

[1] OECD. (2022). *Interdisciplinary Teaching and Learning in Higher Education.*
[2] UNESCO. (2023). *Reimagining Science Education for Sustainable Development.*
[3] Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University.*
[4] Bybee, R. (2013). *The Case for STEM Education.*
[5] National Research Council (USA). (2015). *Science Education Standards.*
[6] Hmelo-Silver, C. (2004). *Problem-Based Learning: What and How Students Learn.*
[7] Финляндия Ta’lim Vazirligi (2021). *Phenomenon-Based Learning Guidelines.*

LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI BAHOLASH MEZONLARI: AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sodiqova Iroda Ilhomjon qizi
Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Chet tillarni o‘qitishda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish bilan birga, uni ishonchli va valid baholash masalasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. An’anaviy baholash tizimlarida, asosan, leksik-grammatik bilimlar va reproduktiv ko‘nikmalar baholangan bo‘lib, tilning madaniyatlararo funksiyasi ko‘pincha e’tibordan chetda qolgan. Ushbu tezisda lingvomadaniy kompetensiyani baholash bo‘yicha an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar

taqqoslanadi, mezonlarning tarkibi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy manbalar tahlili, qiyosiy yondashuv va pedagogik modellashtirish metodlari qo‘llanib, bilim, ko‘nikma va munosabat komponentlarini qamrab oluvchi integrativ baholash modeli taklif etiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, faqat til tizimiga doir testlar bilan cheklangan baholash lingvomadaniy kompetensiyaning haqiqiy darajasini aks ettira olmaydi; zamonaviy yondashuvlar esa vaziyatli topshiriqlar, rubrikalar, portfoliolar va refleksiv baholash vositalari orqali talabaning madaniyatlararo kommunikativ tayyorgarligini ko‘p tomonlama namoyon etishga imkon yaratadi. Xulosada O’zbekiston ta’lim tizimi sharoitida lingvomadaniy kompetensiyani baholash mezonlarini yangilash bo‘yicha metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy kompetensiya, baholash mezonlari, an’anaviy baholash, zamonaviy baholash, rubrika, portfolio, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Global kommunikatsiya sharoitida chet tilini bilish darajasi endilikda faqat grammatik to‘g‘rilik va lug‘at boyligi bilan emas, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali, mos, etnik va madaniy jihatdan sezgir muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan o‘lchanmoqda. Lingvomadaniy kompetensiya aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda til bilimlari, madaniyatga oid bilimlar, kommunikativ strategiyalar va shaxsiy munosabatlarning murakkab sintezini ifodalaydi. Ammo bu kompetensiyaning shakllanishi haqidagi ilmiy ishlanmalarga nisbatan uni baholash masalasi hali ham ko‘plab bahs va izlanishlarni talab qilmoqda. Amaldagi baholash tizimlarida lingvomadaniy komponent ko‘pincha “qo‘shimcha” yoki “ikkinchi darajali” ko‘rsatkich sifatida qaralishi natijasida, talabaning haqiqiy madaniyatlararo tayyorgarligi yetarlicha aniqlanmaydi.

An’anaviy yondashuvlarda baholash, odatda, nazorat ishlari, grammatik testlar, tarjima va reproduktiv yozma ishlar orqali amalga oshiriladi; bu jarayonda talaba ma’lum madaniy faktlarni eslab qolishi yoki tayyor dialoglarni takrorlashi mumkin, lekin real madaniyatlararo vaziyatlarda qanday harakat qilishini ko‘rsatib bera olmaydi. Zamonaviy yondashuvlar esa lingvomadaniy kompetensiyani funksional nuqtai nazardan talqin etib, real yoki modellashtirilgan kommunikativ vaziyatlarda til birliklarining madaniy ma’nolarini to‘g‘ri talqin qilish, stereotiplardan xoli pozitsiya egallash hamda bag‘rikeng munosabatni namoyon etish qobiliyatini baholashni taklif etadi. Shu bois lingvomadaniy kompetensiyani baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish, an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish va ularni O’zbekiston ta’lim tizimi talablariga moslashtirish ilmiy-amaliy zaruratga aylangan.

Tadqiqotning nazariy asosini lingvomadaniy kompetensiya va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy olimlar ishlari tashkil etadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, madaniyatlararo kompetensiya modellari va baholash nazariyalariga oid manbalar tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida lingvomadaniy kompetensiyani baholashda qo‘llanib kelayotgan mezonlar tarkibi, ularning kognitiv, operatsion va aksiologik komponentlarni qamrab olishi darajasi aniqlashtirildi.

Metodologik jihatdan tezisda qiyosiy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi, bunda an’anaviy baholash vositalari (reyting tizimi, yozma va og‘zaki imtihonlar, testlar) zamonaviy baholash vositalari (analitik rubrikalar, portfoliolar, loyihaviy ishlar, vaziyatli topshiriqlar, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash) bilan solishtirildi. Pedagogik modellashtirish metodi yordamida lingvomadaniy kompetensiyani baholashning integrativ mezonlari ishlab chiqildi, ularda til va madaniyatga oid bilimlar, kommunikativ strategiyalar hamda munosabatlar izchil tizimda ifodalandi. Shuningdek, ayrim oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan baholash shakllari kontent-tahlil usuli orqali ko‘rib chiqilib, lingvomadaniy komponentning baholashdagi ulushi qayd etildi. Bu ma’lumotlar asosida amaldagi amaliyot va zamonaviy ilmiy qarashlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar aniqlanib, takomillashtirish yo‘nalishlari belgilandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy baholash tizimida lingvomadaniy kompetensiya, asosan, “mamlakatshunoslik” yoki “madaniyatshunoslik” bo‘limlaridagi faktologik bilimlarni o‘zlashtirish darajasi orqali baholanadi. Talaba ma’lum tarixiy sanalar, geografik nomlar, milliy bayramlar yoki adabiy asarlar haqida ma’lumot berishi mumkin, biroq bu bilimlar real muloqotda madaniy ma’nolarni to‘g‘ri talqin qilish va mos kommunikativ strategiyani tanlash qobiliyatini to‘liq aks ettirmaydi. Shuningdek, an’anaviy testlar ko‘pincha yopiq savollarni o‘z ichiga olganligi

sababli, talabadan ijodiy, refleksiv, tanqidiy yondashuvni talab qilmaydi va uning shaxsiy madaniyatlararo tajribasi baholash doirasiga kiritilmaydi.

Zamonaviy yondashuvlar esa lingvomadaniy kompetensiyani baholashda uning strukturasini hisobga oladi. Kognitiv komponent doirasida talabadan til birliklarining madaniy shartlanganligini tushunishi, madaniy realiyalarni izohlashi va o‘z hamda begona madaniyatni qiyosiy o‘rganishi kutib olinadi. Operatsion komponent madaniyatlararo vaziyatlarda mos til birliklarini tanlash, monologik va dialogik nutqda madaniy konnotatsiyalarga e’tibor qaratish va noverbal signallarni hisobga olgan holda muloqot yuritish ko‘nikmalarini baholashni nazarda tutadi. Aksiologik komponent esa talabani bag‘rikenglik, empatiya, stereotiplarga nisbatan tanqidiy munosabat, madaniy relativizm va o‘z madaniyatini hurmat asosida ifodalash qobiliyati nuqtai nazaridan baholashni taqozo etadi. Zamonaviy baholash vositalari, jumladan, analitik rubrikalar, talabaning til va madaniyatga oid bilimlarni qanday integratsiyalashini, real kommunikativ vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini batafsil mezonlar orqali ko‘rsatishga xizmat qiladi. Portfoliolar esa talabaning yozma refleksiyalari, loyihaviy ishlari, madaniyatlararo muloqot tajribalari va ularning tahlilini jamlab, lingvomadaniy kompetensiya dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Olingan natijalar shuni anglatadiki, lingvomadaniy kompetensiyani baholashda faqat an’anaviy bilimga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash talabaning madaniyatlararo tayyorgarligi haqida to‘liq tasavvur bermaydi.

Zamonaviy yondashuvlar lingvomadaniy kompetensiyani jarayon sifatida talqin etib, baholashni ham uzluksiz, formatting xarakterga ega bo‘lgan faoliyat sifatida tashkil etishni taklif qiladi. Analitik rubrikalar yordamida o‘qituvchi talabaning lingvomadaniy nutqini turli parametrlar bo‘yicha (madaniy kontekstni tushunish, mos strategiya tanlash, noverbal signallarni hisobga olish, stereotiplardan xoli nutq) baholashi mumkin. Bu jarayonga o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash elementlarini qo‘shish talabaning refleksivlik darajasini oshiradi, o‘z madaniy pozitsiyasini anglash va uni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Portfoliolar esa o‘quvchi yoki talabaning lingvomadaniy rivojlanishini vaqt mobaynida hujjatlashtirib boradi, bu esa baholashni bir martalik nazorat emas, balki kompetensiyaning bosqichma-bosqich o‘sishini kuzatish vositasiga aylantiradi.

O’zbekiston ta’lim tizimida ham lingvomadaniy kompetensiyani baholash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni joriy etish borasida dastlabki qadamlar tashlanmoqda, biroq ko‘plab darsliklar va o‘quv dasturlarida baholash mezonlari hanuzgacha, asosan, til tizimi komponentlariga yo‘naltirilgan. Shuning uchun baholash tizimi islohotlarini o‘qitish maqsadlari va mazmuni modernizatsiyasi bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni lingvomadaniy baholash bo‘yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarur.

Tezisda lingvomadaniy kompetensiyani baholash mezonlari an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, faqat faktologik bilimlar va grammatik ko‘nikmalar asosida baholash talabaning real madaniyatlararo kommunikativ salohiyatini aks ettira olmaydi. Zamonaviy baholash yondashuvlari lingvomadaniy kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarning integratsiyasi sifatida ko‘rib, vaziyatli topshiriqlar, rubrikalar, portfoliolar hamda refleksiv baholash vositalari orqali uni ko‘p tomonlama aniqlashni taklif etadi.

O’zbekiston ta’lim tizimi sharoitida lingvomadaniy kompetensiyani baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘quv dasturlari va baholash tizimlari o‘rtasida izchillikni ta’minlash hamda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarur. Shuningdek, talabalarning shaxsiy madaniyatlararo tajribalarini baholash jarayoniga kiritish, ularning refleksiv yozuvlari, loyihaviy ishlari va real muloqot tajribalarini tizimli ravishda hujjatlashtirish tavsiya etiladi. Bunday integrativ yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani nafaqat deklarativ maqsad sifatida, balki o‘lchanadigan va rivojlantiriladigan natija sifatida namoyon etishga yordam beradi hamda talabalarning global madaniy makonda samarali muloqot yuritish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

2. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – T. 10, № 3. – P. 241–266.

3. Fantini A. Exploring and Assessing Intercultural Competence. – St. Louis: Washington University, Center for Social Development, 2007. – 68 p. Garaeva A. Development of university students' linguocultural competence // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Vol. 152. – P. 1095–1100.

4. Tulusina E. A. Linguocultural competence as a basis for foreign language teaching // XLinguae. – 2021. – Vol. 14, № 3. – P. 77–86.

5. Muminova D. Linguocultural competence and philological education // Oriens. – 2024. – № 1. – P. 113–115.

6. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

7. Karimova B. Development of students' linguocultural competence in EFL classrooms // European Journal of Interactive Education. – 2023. – Vol. 5, № 2. – P. 45–59.

RAQAMLI MEDIA MUHITIDA PARALINGVISTIKA: EMOJILAR, GIF-LAR VA REAKSIYALAR ORQALI MAZMUN YARATISH MEXANIZMLARI

Asqaraliyeva Xayotxon Akbarali qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Raqamli kommunikatsiyaning jadal rivojlanishi emodzi, GIF fayllar va reaksiyalar tugmalari kabi vizual hamda interaktiv vositalarni onlayn muloqotning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Ushbu semiotik vositalar an'anaviy noverbal ishoralarni to‘ldiradi yoki qisman ularning o‘rnini bosadi hamda messenjerlardan tortib ijtimoiy tarmoqlargacha bo‘lgan platformalarda foydalanuvchilar emotsiyalarni, munosabat va o‘zaro aloqadorlik ma'nolarini qanday shakllantirishini belgilaydi. Ushbu tadqiqotda hozirgi raqamli media makonida emodzi, GIFlar va reaksiyalar mazmun yaratish jarayoniga qanday mexanizmlar orqali hissa qo‘shishi tahlil qilinadi. Multimodal diskurs tahlili hamda kommunikatsiya va media tadqiqotlaridagi mavjud empirik ishlar asosida har bir resursning funksional rollari aniqlanadi, ularning verbal matn bilan o‘zaro ta'siri ko‘rib chiqiladi, shuningdek noaniqlik, haddan tashqari standartlashuv va affekt ustidan platformalarning nazorati bilan bog‘liq xatarlar muhokama qilinadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu paralingvistik elementlar xabarlarni faqat bezash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy ishtirokni, identiklikni konstruktsiyalash jarayonini va affektiv jamoatchiliklarni shakllantiradi; bularning barchasi raqamli kommunikativ savodxonlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: paralingvistika, emodzilar, GIFlar, reaksiyalar, raqamli media, multimodalitet, kompyuter vositasidagi kommunikatsiya.

Paralingvistika jestlar va mimika an'anaviy tarzda paralingvistik vositalar bilan bog‘lanadi. Raqamli muhitda esa tana tiliga oid ko‘plab signallar GIFlar, emodzilar va reaksiyalar tugmalari kabi vizual hamda interaktiv belgilar bilan almashtiriladi yoki ular orqali to‘ldiriladi. Emodzilar va shunga o‘xshash grafik resurslar kompyuter vositasidagi kommunikatsiyada noverbal ishoralarning yo‘qligini qisman kompensatsiya qiluvchi shakllanib borayotgan "vizual til"ning tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinmoqda. Empirik tadqiqotlar emodzilar va ulardan avvalgi emotikonlar ovoz ohangi va jestlar bo‘lmagan sharoitda emotsional nozikliklarni ifodalashni yengillashtirishi va kommunikativ niyatni aniqlashtirishini ko‘rsatadi.

Animatsiyali GIFlar va qisqa takrorlanuvchi videolar matn bilan birgalikda qo‘llanadigan, jismoniy jestlarga o‘xshash murakkab multimodal ishoralar sifatida standart reaksiyalar shakliga aylandi. So‘nggi tadqiqotlarda GIFlar «ijtimoiy tarmoqlar paralangajisi» sifatida tavsiflanib, yozma til bilan uyg‘unlashuvi orqali nutq subyektining pozitsiyasi, istehzosi yoki kuchaytirilgan emotsional intensivlikni ifodalashdagi roli alohida ta'kidlanadi. Facebook kabi platformalarda reaksiyalar tugmalari foydalanuvchilarga oldindan belgilangan emotsional javoblarni tanlash imkonini beradi va bu javoblar yig‘indisi kollektiv emotsional uyg‘unlik ko‘rsatkichlari sifatida tahlil qilinadi.

Metodologik yondashuv ijtimoiy semiotika va kompyuter vositasidagi kommunikatsiya konsepsiyalarini uyg‘unlashtiradi. Ijtimoiy-semiotik multimodal tahlil emodzi va GIFlar yozma

matn bilan integratsiyalashganda munosabat, hamfikrlik/pozitsion uyg‘unlik va jalb etilganlik kabi shaxslararo ma’nolarni qanday ifodalashini ochib beradi. Shu bilan birga, emotikon va emodzilarni noverbal ko‘rsatkichlar sifatida o‘rganuvchi kommunikatsiya tadqiqotlari raqamli diskursda affektni tartibga solish, noaniqlikni kamaytirish va munosabatlar dinamikasini tushuntirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayoni emodzi, GIF va reaksiyalarning tipik joylashuv andozalarini aniqlashni, ularning verbal xabarlar bilan ketma-ket bog‘lanishini tahlil qilishni hamda ayni kontekstlarda bajaradigan funksional rollarini izohlashni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, vizual ishora matnning illokutsion kuchini o‘zgartiradigan, tushunmovchiliklarni kamaytiradigan yoki umumiy madaniy bilimlarga ishora qiladigan holatlarga alohida e’tibor qaratiladi, chunki ular raqamli mediada paralingvistik xulq-atvorning muhim tarkibiy qismidir.

Tahlil natijalari emodzilarni asosan mikro darajadagi affektiv regulyatorlar sifatida ko‘rsatadi: ular matnning emotsional ohangini o‘zgartiradi va muloqot ishtirokchisining boshqasiga nisbatan his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Masalan, tabassum yoki yurak shaklidagi emodzi bilan kelgan sodda tasdiq xabari qo‘llab-quvvatlovchi va yaqinlikni bildiruvchi sifatida idrok etiladi, xuddi shu matn emodzidan holi bo‘lsa, ko‘proq neytral yoki hatto sovuqqon ohangda qabul qilinishi mumkin. Bu emodzilar yuz ifodasining ayrim elementlarini taqlid qiluvchi paralingvistik signallar sifatida raqamli kommunikatsiyada iliqlik va ijtimoiy ishtirok hissini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

GIFlar esa odatda yanada murakkab va kontekstga kuchli bog‘liq paralingvistik vazifalarni bajaradi. Reaksion GIFlar tanish tana harakatlari, kino sahnalari yoki mashhur obrazlarning qisqa vizual fragmentlarini takrorlanuvchi kadrlar ko‘rinishida taqdim etib, ko‘pincha so‘zdan ko‘ra tana reaksiyasini ifodalaydi. Ularning ma’nosi madaniy kontekst va manba material haqidagi umumiy bilimlarga tayanadi, shu bois talqin uchun nisbatan ochiq qoladi. Reaksiya tugmalari esa interfeys darajasida ishlaydigan paralingvistik resurs bo‘lib, “love”, “angry”, “sad” kabi variantlar emotsional javoblarni oldindan tuzib beradi va ularni miqdoriy qayd etishni osonlashtiradi; natijada ma’lum postlar bilan bog‘liq kollektiv affektiv naqshlarni aniqlash imkonini yaratadi.

Alohida foydalanuvchi nuqtai nazaridan, reaksiya tanlash matnli javob yozishdan tezroq, biroq bu jarayon o‘zini ifoda etishni oldindan belgilangan cheklangan emotsiyalar to‘plami bilan chegaralaydi va ko‘pincha his-tuyg‘ularning to‘liq spektrini aks ettira olmaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli mediada paralingvistik ma’no vizual signallar, matnli kontent va platforma imkoniyatlarining o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi. Emodzilar, GIFlar va reaksiyalar odatda yozma til bilan qo‘shilib, har bir modal qatlam boshqasining talqin doirasini o‘zgartiradigan multimodal tuzilmalarni hosil qiladi; bu kompleks birliklar istehzo, o‘yinchanlik, birdamlikni ifodalash va faqat matn qo‘llanganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Natijalar raqamli mediada paralingvistik strategiyalar faqat “bezak” emas, balki onlayn ijtimoiy ishtirok va munosabatga oid ma’nolarni yaratishning ajralmas qismi ekanini tasdiqlaydi. Emodzilar oddiy “emotsiya yorliqlari”dan kengroq funksiyaga ega bo‘lib, hazil qilish, tanqidni yumshatish, yaqinlikni kuchaytirish kabi vaziyatlarda nutq aktining illokutsion kuchi va munosabatga oid pozitsiyasini (“relational stance”) ko‘rsatadi. Ularning ayniqsa yosh, raqamli tarmoqlashgan foydalanuvchilar orasida keng tarqalganligi “vizual prosodiya”dan foydalanish zamonaviy raqamli savodxonlikning muhim komponentiga aylanganini ko‘rsatadi.

GIFlarga asoslangan paralangaj ushbu vizual prosodiyaga hikoyaviy va performativ o‘lcham qo‘shadi: kinofilmlar, seriallar yoki ommabop madaniyatdan olingan tanish sahnalar orqali foydalanuvchilar o‘zlarini umumiy madaniy repertuarlar bilan bog‘laydi va reaksiyalarini oddiy matn bera olmaydigan shaklda “sahnalashtiradi”. Shu bilan birga, GIFlarga tayanuvchi muloqot kerakli madaniy bilim va platformaga xos kodlarni bilmaydigan foydalanuvchilarni chetda qoldirishi ham mumkin; GIF ma’nosining turlicha talqin qilinishi, ayniqsa turli madaniy yoki avlod vakillari muloqotida, tushunmovchilik va kommunikativ ziddiyatlar xavfini oshiradi.

Reaksiya tugmalari raqamli mediada paralingvistikaning rivojlanishida platforma dizayni va biznes mantiqi qanday rol o‘ynayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Ular foydalanuvchilarga hissiy munosabatni tez ifoda etish imkonini berish bilan birga, vizual kommunikatsiya jarayonlari, lenta

algoritmlari, maqsadli reklama va raqamli muloqotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan yirik hajmdagi affektiv ma’lumotlarni ham yig‘ib boradi. Affektni cheklangan miqdordagi reaksiyalar turlariga standartlashtirish foydalanuvchi idrok etadigan emotsional spektrni qisqartirib, eng oson aniqlanadigan va o‘lchanadigan hissiyotlarni ustun qo‘yadi. Bu esa platforma tomonidan loyihalashtirilgan paralingvistik tizimlarning foydalanuvchi ifodasi va raqamli muhitda ularga “taklif etilayotgan” emotsional tajribalar shakllanishiga ta’siri haqida savollarni yuzaga keltiradi.

Emodzilar, GIFlar va reaksiyalarning birgalikda qo‘llanilishi raqamli paralingvistikaning bir necha darajada faoliyat yuritishini ko‘rsatadi: mikro darajada ishtirokchilar o‘zaro munosabatlarini va “yuz saqlash” strategiyalarini muvofiqlashtiradilar; mezo darajada hamjamiyatlar ma’lum belgilarni qo‘llash bo‘yicha o‘z normalarini shakllantiradilar; makro darajada esa platforma infratuzilmalari his-tuyg‘ularni ifodalash imkoniyatlari va ko‘rinadigan emotsional rejimlarni belgilaydi. Shu bois ushbu ko‘p qirrali dinamikani hisobga olish zamonaviy raqamli media makonida kommunikativ kompetensiyani o‘qitish va baholashga oid yondashuvlar uchun muhimdir. Tadqiqotda emodzilar moslashuvchan affektiv va munosabatga oid ko‘rsatkichlar, GIFlar madaniy jihatdan ixtisoslashgan tana reaksiyasi ifodalari, reaksiyalar esa emotsional javoblarni normalashtiruvchi va o‘lchash imkonini beruvchi infratuzilmaviy paralingvistika shakli sifatida namoyon bo‘ldi. Ular birgalikda individual xabarlar darajasidagina emas, balki kengroq platforma arxitekturalari va raqamli madaniyatlar kontekstida ham tahlilni talab qiladigan murakkab semiotik tizimni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Danesi M. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. London: Bloomsbury Academic, 2016. 208 p.
2. Evans V. The Emoji Code: The Linguistics Behind Smiley Faces and Scaredy Cats. London: Michael O’Mara Books, 2017.
3. Derks D., Bos A. E. R., von Grumbkow J. Emoticons and social interaction on the Internet: The importance of social context // Computers in Human Behavior. 2007. Vol. 23, No. 1. P. 842–849.
4. Geboers M., Stolero N., Scuttari A., van Vliet L., Ridley A. Why Buttons Matter: Repurposing Facebook’s Reactions for Analysis of the Social Visual // International Journal of Communication. 2020. Vol. 14. P. 1564–1585.
5. Jiang J. A., Fiesler C., Brubaker J. R. “The Perfect One”: Understanding communication practices and challenges with animated GIFs // Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction. 2019. Vol. 3 (CSCW). P. 1–25.
6. Logi L., Zappavigna M. GIFs as Social Media Paralanguage // Language@Internet. 2024. (Online).

O‘ZBEK TILINI O’RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

Xayrullina Parizod

Chirchiq davlat pedagogika universtiteti o‘qituvchisi

Tojixonova Sarvinoz Dauranjon qizi, Qurbonboyeva Hulkaroy

Saparboyeva Zulfizar, Shorasulova Dilobar, Hamroyeva Mohinur

Chirchiq Davlat Pedagogika Universtiteti Aniq fanlar fakulteti matematika talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarning o‘rni, ularning ta’lim sifati va samaradorligiga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish tajribalari tahlil qilinadi. Maqolada ilg‘or pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari yoritiladi**.**

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, innovatsion ta’lim, pedagogik texnologiya, AKT, raqamli ta’lim, interfaol metod, kompetensiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiya, interfaol metod, raqamli ta’lim, pedagogik jarayon, samaradorlik.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi tubdan yangilanish bosqichini boshdan kechirmoqda. O’zbekiston Respublikasida ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, o‘zbek tilini o‘rgatishda raqamli vositalardan foydalanish, ta’limni shaxsga yo‘naltirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish kabi vazifalar zamonaviy o‘qituvchidan yuqori malaka va ijodkorlikni talab etadi.

O’zbek tili – xalqimizning madaniyati, ma’naviyati va milliy o‘zligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Shu bois uni o‘qitish jarayonini takomillashtirish, ilg‘or tajribalarni tatbiq etish, o‘quvchilarni tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Pedagogik innovatsiyalar — bu o‘quv jarayoniga yangicha metodlar, texnologiyalar va ta’lim vositalarini kiritish orqali natijadorlikka erishish demakdir. Zamonaviy texnologiyalar esa bu jarayonda o‘qituvchiga qulay sharoit yaratadi, o‘quvchilarga esa mustaqil o‘rganish imkonini beradi. O’quvchi faol ishtirokchi bo‘lgan interfaol darslar ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish — til ta’limining samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Quyida o‘zbek tili ta’limida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari hamda amaliy tajribasi tahlil qilinadi.

Til o‘qitish — bu faqat grammatikani o‘rgatish emas, balki muloqot, madaniyat, tafakkur va nutq madaniyatini shakllantirish jarayonidir. Shu sababli zamonaviy ta’limda an’anaviy dars uslublarini innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Yangi texnologiyalar yordamida o‘quvchilar darsga faol jalb qilinadi, o‘z fikrini erkin ifoda etadi va tilni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

Asosiy qism

Zamonaviy texnologiyalarning o‘zbek tili ta’limidagi o‘rni

O’zbek tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish — bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan eng muhim vositalardan biridir. Chirchiq davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan darslarda interaktiv doska, multimedia taqdimotlar, elektron lug‘atlar va onlayn platformalar keng qo‘llanmoqda.

Masalan, Wordwall, Quizizz, LearningApps kabi platformalar orqali talabalar grammatik mashqlarni, so‘z boyligini oshirish topshiriqlarini bajarishadi. Bu esa o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va o‘z bilimini sinab ko‘rishga o‘rgatadi.

Zamonaviy texnologiyalar darslarni jonlantiradi, talabalarda til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi va o‘qituvchining mehnatini yengillashtiradi.

O’zbek tili ta’limida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati

Zamonaviy o‘qitish jarayonida an’anaviy metodlar asta-sekinlik bilan o‘z o‘rnini innovatsion yondashuvlarga bo‘shatmoqda. O’zbek tili darslarida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Blits-so‘rov”, “Insert”, “Fishbone”, “Bumerang”, “Venn diagrammasi” kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faol fikrlashga, dars jarayonida o‘z fikrini mustaqil ifodalashga o‘rgatadi.

O’qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish tajribasi

Hozirda ko‘plab o‘zbek tili o‘qituvchilari o‘z dars jarayonida “Blended learning” (aralash ta’lim) yoki “Flipped classroom” (teskari sinf) texnologiyalarini tatbiq etmoqda. Bunday metodlar o‘quvchilarning mustaqil ishlash, internet resurslaridan foydalanish, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O’zbek tilini o‘rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. “Google Classroom”, “Quizizz”, “Kahoot”, “LearningApps” kabi onlayn platformalar yordamida o‘zbek tili darslarini yanada jonli, interaktiv va raqamli muhitga mos shaklda tashkil etish mumkin.

Innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni

Zamonaviy darsda o‘quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishi lozim. O’qituvchi interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy, axborot va madaniy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Pedagogik innovatsiyalarning amaliy qo‘llanilishi

Pedagogik innovatsiyalar o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida talaba markazli yondashuvni shakllantiradi. Darslarda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rolga kirish”, “Munozara” kabi metodlardan foydalanish talabalarning nutq faoliyatini rivojlantiradi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida o‘qituvchilar o‘z darslarida modul asosida o‘qitish, rag‘batlantiruvchi test tizimlari, video-tahlil kabi innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishmoqda. Bu usullar talabalarda mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash va o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Natijada, o‘zbek tili darslari oddiy nazariy o‘quv mashg‘ulotidan ijodiy va faol o‘rganish maydoniga aylanmoqda.

Amaliy tajribalar va natijalar

Universitetda olib borilgan kuzatuvlarga ko‘ra, o‘zbek tili darslarida texnologik vositalardan foydalanish talabalar ishtirokini sezilarli oshirgan. Onlayn mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 15–20 foizga yuqori bo‘lgan.

Talabalarning fikriga ko‘ra, interaktiv mashg‘ulotlar va multimedia vositalari darsni qiziqarli qiladi, o‘rganilgan materialni eslab qolishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, pedagogik innovatsiyalar talabalarning o‘z fikrini erkin bayon etish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O’zbek tilini o‘qitishda texnologik va innovatsion yondashuvlar uyg‘unlashgan taqdirda, o‘quv jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayon o‘quvchilarda tilni chuqur o‘rganish, ijodiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O’qituvchining zamonaviy yondashuvi, texnologiyalarni o‘rinli qo‘llay bilishi ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Kelajakda o‘zbek tili ta’limini to‘liq raqamlashtirish, virtual dars muhitini kengaytirish, sun’iy intellekt asosidagi til o‘rganish dasturlarini joriy etish bu sohada yangi bosqichni boshlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. Hasanov A., Jo‘rayev M. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
3. Qodirova D. O’zbek tili ta’limida zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent, 2023.
4. Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘quv-metodik markazi materiallari, 2024.
5. Mahmudov N., Karimov Sh. O’zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2021.
6. www.edu.uz – O’zbekiston Respublikasi Ta’lim portali.
7. www.ziyonet.uz – Elektron ta’lim resurslari tarmog‘i.
7. www.arxiv.uz – Ilmiy maqolalar va tajriba almashish platformasi.

Telefon raqam: 97 -878-03-96

THE BRONTË SISTERS: INNOVATORS OF THE VICTORIAN NOVEL

Rahimova Xolida
Student ChSPU Department English language and theory
e-mail: rahimova xolida37@gmail.com
Scientific advisor: **Tursuntosh Isroilova**
e-mail: isroilova.tursuntosh@gmail.com

Annotation. The Brontë sisters—Charlotte, Emily, and Anne—played a significant role in shaping the Victorian novel with their bold themes and emotional intensity. Their works challenged social conventions, explored individual identity, and depicted deep psychological conflicts. Novels such as Jane Eyre, Wuthering Heights, and The Tenant of Wildfell Hall introduced innovative narrative techniques and strong, independent characters. The Brontë sisters' contributions left a lasting impact on English literature and continue to influence writers and readers worldwide.

Annotatsiya. Brontë opa-singillari — Sharlotta, Emili va Enn — Viktoriya davri roman janrining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan yozuvchilardir. Ularning asarlarida jamiyat qoidalariga qarshi fikrlar, kuchli shaxsiy his-tuyg'ular va ichki ruhiy ziddiyatlar tasvirlangan. Jane Eyre, Wuthering Heights va The Tenant of Wildfell Hall romanlari yangi uslub, mustaqil xarakterlar va chuqur psixologik tasvirlar bilan ajralib turadi. Brontë opa-singillarining ijodi ingliz adabiyotida katta iz qoldirgan va bugungi kunda ham o'quvchilar va yozuvchilarga ilhom bermoqda.

Аннотация. Сёстры Бронте — Шарлотта, Эмили и Анна — сыграли важную роль в формировании викторианского романа. Их произведения бросали вызов общественным нормам, исследовали личную идентичность и внутренние психологические конфликты. Такие романы, как Джейн Эйр, Грозовой перевал и Арендатор Уайлдфелл-Холла, отличаются новаторскими повествовательными приемами и сильными независимыми героями. Наследие сестёр Бронте имеет огромное значение для английской литературы и продолжает влиять на читателей и писателей во всём мире.

Keywords: Victorian Literature, Romanticism,Psychological Realism, Gothic Elements,Female Identity,Social Critique.

The Brontë sisters—Charlotte (1816–1855), Emily (1818–1848), and Anne (1820–1849)—occupy a distinctive place in the history of English literature. Emerging from the isolated and rugged landscapes of Haworth in Yorkshire, they transformed the Victorian novel by introducing new thematic depths and bold narrative structures that challenged the literary conventions of their time. During the Victorian era, literature was often guided by strict moral codes and a strong emphasis on social propriety. However, the works of the Brontë sisters defied these norms by placing individual emotion, internal psychological conflict, female autonomy, and passionate human experience at the center of the narrative. Despite living in a patriarchal society where women writers faced severe limitations, the Brontës published their early works under male pseudonyms—Currer, Ellis, and Acton Bell—in order to avoid prejudice and to be taken seriously in the literary marketplace. Their novels, including Jane Eyre (Charlotte), Wuthering Heights (Emily), and The Tenant of Wildfell Hall (Anne), confronted issues such as inequality, gender oppression, class conflict, spiritual struggle, and the darker complexities of human nature. Each sister approached literature with her own distinct voice: Charlotte with psychological realism and moral reflection, Emily with emotional intensity and Gothic imagination, and Anne with social critique and progressive views on women's rights. The Brontë sisters' innovation lies not only in their thematic concerns but also in their narrative techniques. They introduced layered narration, fragmented perspectives, and emotionally-driven characterization that anticipated Modernist literary forms. Their heroines—strong-willed, self-reliant, and intellectually independent—served as early models of feminist consciousness, challenging conventional portrayals of women as passive figures. Today, the Brontë legacy continues to resonate in literary studies, feminist scholarship, and popular culture, confirming their status as pioneering voices in the evolution of the English novel.

The Brontë sisters wrote during the Victorian era, a period marked by strict moral values, social hierarchy, and strong gender expectations. Women were generally confined to domestic

roles, and their participation in intellectual or artistic work was often discouraged. The Brontës grew up in the remote village of Haworth, surrounded by moorlands that later became central to the atmosphere and symbolism in their novels. Their father, Patrick Brontë, provided them with access to education and encouraged reading, which was unusual for girls of the time. However, the sisters' personal lives were marked by isolation, illness, and early death, experiences that deeply shaped the emotional depth and existential intensity of their writing. Their use of male pen names—Currer, Ellis, and Acton Bell—reflects the limited acceptance of female authors in 19th-century England. This act was both a strategic decision and a silent rebellion against gender-based literary discrimination. Their works challenged the Victorian belief that women should be modest, obedient, and passive. Instead, the Brontës portrayed women as intelligent, emotionally strong, spiritually complex, and capable of resisting social constraints.

Charlotte Brontë's most influential work, Jane Eyre (1847), introduced a new form of psychological depth in fiction. The novel centers on the inner experiences of its heroine, tracing her emotional development, moral struggles, and personal search for identity. Jane is not portrayed as a stereotypical romantic heroine, but as a strong, rational, and self-respecting woman who refuses to sacrifice her principles for love or social acceptance. Charlotte's writing explores the tensions between individual freedom and societal norms. She uses the first-person narrative to grant readers access to Jane's inner world, allowing them to experience her anger, loneliness, pride, and longing directly. This intense focus on interiority was groundbreaking and influenced later developments in psychological narrative fiction. Charlotte Brontë's work thus represents the emergence of the modern novel centered on selfhood, moral autonomy, and emotional authenticity.

Emily Brontë's Wuthering Heights (1847) stands apart for its dark romanticism, mythic energy, and unconventional narrative structure. Set against the bleak Yorkshire moors, the novel portrays the obsessive and destructive love between Heathcliff and Catherine Earnshaw. Emily rejected sentimental portrayals of love and instead depicted passion as a powerful, elemental force capable of both creation and destruction.Her narrative technique is complex, employing multiple narrators and shifting perspectives to create ambiguity and psychological intensity. The characters are driven by instinct rather than reason, which challenged Victorian moral assumptions about human nature. Emily Brontë's work reveals the raw emotional undercurrents that lie beneath polite social behavior, suggesting that human identity is shaped not only by society but also by primal desires and spiritual yearning.

Anne Brontë's work is often more realistic and socially progressive compared to her sisters'. Her novel The Tenant of Wildfell Hall (1848) directly addresses issues such as alcoholism, marital abuse, and women's legal rights—a bold subject matter for the Victorian period. Through the character of Helen Huntingdon, Anne portrays a woman who leaves her abusive husband to protect her child, asserting her moral and personal independence.Anne criticizes oppressive marriage laws that gave husbands legal control over their wives' bodies, income, and social identity. Her novel was considered controversial, even scandalous, because it questioned patriarchal power and advocated for women's autonomy and dignity. For this reason, many scholars today consider Anne Brontë one of the earliest feminist novelists in English literature.

The Brontë sisters collectively reshaped the English novel by expanding its emotional, psychological, and ideological range. Their works influenced the development of feminist thought, narrative experimentation, and psychological characterization in literature. Later authors such as Virginia Woolf, Thomas Hardy, D.H. Lawrence, and modern feminist theorists drew inspiration from the Brontës' exploration of individual subjectivity and gender oppression. Today, the Brontë novels remain widely read and studied for their literary innovation and emotional power. They continue to resonate because they address universal human struggles: the desire for love, the search for identity, the confrontation with suffering, and the quest for freedom.

In Conclusion The Brontë sisters stand among the most influential figures of Victorian literature, not only for their artistic talent but also for their cultural and ideological significance. Their works boldly challenged the dominant values of 19th-century England by giving voice to individual emotion, female autonomy, and psychological depth in ways that had rarely been seen

before. Charlotte Brontë's psychological realism offered readers an unprecedented insight into the inner struggles of the self; Emily Brontë's Gothic romanticism exposed the raw forces of passion and spiritual longing; and Anne Brontë's socially conscious prose confronted the injustices faced by women within patriarchal society. Together, they expanded the thematic and stylistic boundaries of the English novel, paving the way for later movements in modern, feminist, and psychological fiction. Despite the difficulties they faced as women writers in a restrictive environment, the Brontës succeeded in creating literature that has endured across centuries. Their characters remain iconic, their narrative techniques remain influential, and their voices continue to resonate with readers who seek authenticity, independence, emotional truth, and intellectual depth. The legacy of the Brontë sisters is a testament to the transformative power of literature to question norms, challenge authority, and express the complexity of human existence. Their contributions mark a turning point in the evolution of the novel and affirm their place as innovators who permanently reshaped the literary landscape.

References

1. Brontë, Charlotte. Jane Eyre. London: Smith, Elder & Co., 1847.
2. Brontë, Emily. Wuthering Heights. London: Thomas Cautley Newby, 1847.
3. Brontë, Anne. The Tenant of Wildfell Hall. London: Thomas Cautley Newby, 1848.
4. Abrams, M.H. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2015.
5. Alexander, Christine. The Brontës: Tales of Glass Town, Angria, and Gondal. Oxford University Press, 2010.
6. Gilbert, Sandra & Gubar, Susan. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. Yale University Press, 1979.
7. Eagleton, Terry. Myths of Power: A Marxist Study of the Brontës. Routledge, 2005.
8. Frank, Joseph. The Brontës. Cambridge University Press, 2008.
9. Peters, Catherine. The Brontë Sisters: A Biography. Phoenix Press, 2013.
10. Stoneman, Patsy. Bronte Transformations: The Cultural Dissemination of the Brontë Sisters. Prentice Hall, 1996.
11. Showalter, Elaine. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. Princeton University Press, 1999.
12. Hardy, Barbara. The Appropriate Form: Essays on the Novel. Ohio University Press, 1968.
13. Langland, Elizabeth. Anne Brontë: The Other One. St. Martin's Press, 2000.
14. Wallace, Catherine. The Female Reader in the Victorian Novel. Oxford University Press, 2015.
15. Newman, Beth. "Narratives of Power in Brontë Fiction." Studies in English Literature, vol. 32, no. 4, 1992.

THE DEVELOPMENT OF ENGLISH BALLADS: FOLK TRADITIONS AND THEMES

Student of ChSPU
Department English language and theory
Rahimova Xolida
e-mail: rahimova xolida37@gmail.com
Scientific advisor: **Tursuntosh Isroilova**
e-mail: isroilova.tursuntosh@gmail.com

Abstract. The development of English ballads reflects the evolution of oral tradition, social experience, and artistic expression in Britain. Originating from medieval folk culture, ballads were passed down orally, preserving the voice and values of ordinary people. They often focused on universal human themes such as love, betrayal, heroism, tragedy, and justice. Over time, these songs evolved from anonymous folk tales into literary compositions, influencing later poets and writers like Wordsworth and Coleridge. The ballad form, with its rhythmic simplicity and emotional

depth, became a bridge between popular tradition and literary art, shaping the foundation of English narrative poetry and national identity.

Annotatsiya. Ingliz balladalari taraqqiyoti xalq ogʻzaki ijodi, ijtimoiy hayot va badiiy ifoda evolyutsiyasining yorqin ifodasidir. Oʼrta asr xalq madaniyatidan kelib chiqqan balladalar avloddan avlodga ogʻzaki tarzda oʻtib, oddiy xalqning his-tuygʻusi va qadriyatlarini saqlab kelgan. Ular odatda sevgi, xiyonat, jasorat, fojea va adolat kabi umuminsoniy mavzularni yoritgan. Vaqt oʻtishi bilan balladalar anonim xalq qoʻshiqlaridan yozma adabiyot namunalariga aylangan va Wordsworth hamda Coleridge kabi shoirlarga ilhom manbai boʻlgan. Oddiy ritm va chuqur hissiyotga ega ballada shakli xalq anʼanasi bilan adabiy sanʼatni bogʻlab, ingliz sheʼriyatining va milliy ongining asosini yaratgan.

Аннотация. Развитие английских баллад отражает эволюцию устной традиции, общественного опыта и художественного самовыражения в Британии. Возникнув из средневековой народной культуры, баллады передавались устно, сохраняя голос и ценности простого народа. Они затрагивали вечные человеческие темы — любовь, измену, героизм, трагедию и справедливость. Со временем эти песни превратились из анонимных народных преданий в литературные произведения, оказав влияние на поэтов, таких как Вордсворт и Колридж. Благодаря ритмической простоте и эмоциональной выразительности, форма баллады стала связующим звеном между народной традицией и литературным искусством, сыграв важную роль в формировании английской поэзии и национального самосознания.

Keywords: English ballads, folk tradition, oral literature, themes, medieval poetry, cultural heritage

English ballads occupy a unique and essential place in the history of English literature. They originated in the Middle Ages as part of the rich oral culture that flourished among the common people of Britain. In an age when few could read or write, ballads served as both entertainment and social commentary, carrying news, moral lessons, and emotional stories through song and rhyme. The term “ballad” itself comes from the Old French word ballare, meaning “to dance,” which reflects the musical and rhythmic origins of these compositions. Folk ballads were not written for elite audiences but for the common folk — farmers, sailors, soldiers, and villagers — who shared them at fairs, gatherings, and family events. Because they were passed down orally, ballads naturally changed over time, with each singer adapting them to local dialects, settings, or moral values. Despite these variations, most English ballads share certain defining features: a simple stanzaic structure, repetition, dialogue, and strong emotional appeal. These qualities made them easy to remember and deeply resonant across generations. As English society developed through war, migration, and industrial change, so too did its ballads, transforming from purely oral folk art into a written literary tradition that inspired many of the greatest poets of later centuries.

2. Fisher, M. (2009). *The Oxford English Dictionary and Semantic Change.* Oxford University Press.

3. Haspelmath, M. (2003). *The emergence of grammatical categories.* Language Typology and Syntactic Description, 3(1), 19-40.

4. Lexical Change in English. (2011). *The Cambridge History of the English Language*. Cambridge University Press.

5. Smith, J. (2015). *Language Evolution and Semantic Shifts.* Cambridge: Cambridge University Press.

6. Clark, H. (2009). *Cognitive Linguistics: An Introduction.* Cambridge: Cambridge University Press

PREDICTIVE MODELING OF SAT AND GRE OUTCOMES THROUGH DYNAMIC KNOWLEDGE GROWTH EQUATIONS

Author: **Dushabayeva Diana Baxtiyorovna**
Jizzakh State Pedagogical University named after Abdulla Qadiri
Email: dusabaevadiana70@gmail.com

Abstract. This paper introduces an advanced mathematical framework for forecasting student results on globally recognized standardized examinations such as the SAT and GRE. Unlike conventional predictive approaches that rely primarily on static correlations or machine-learning black boxes, this study conceptualizes learning as a continuously evolving system governed by differential knowledge-growth equations. The proposed model incorporates parameters of instructional quality, forgetting dynamics, and nonlinear cognitive development. By transforming the evolving knowledge state into score predictions, the approach provides an interpretable and mathematically rigorous foundation for understanding how preparation strategies influence final performance. The findings demonstrate that dynamic learning equations offer more realistic and flexible predictions compared to traditional statistical models, making them highly applicable for educators, curriculum designers, and test-preparation programs.

Keywords. SAT prediction, GRE forecasting, knowledge growth equation, dynamic learning models, differential equations in education, learning analytics, standardized testing, cognitive modeling, instructional effectiveness, forgetting curve, performance prediction, mathematical modeling, educational data science, test preparation optimization

1. Introduction. The SAT and GRE serve as essential gateways for university admissions across the world, making accurate score prediction an influential component of educational planning. Traditional forecasting relies heavily on regression models, diagnostic test performance, or machine-learning techniques. Although these methods yield useful estimations, they frequently treat learning as a static snapshot rather than a cumulative, time-dependent process.

However, knowledge acquisition is inherently dynamic. Students progress through phases of rapid improvement, temporary stagnation, and eventual plateauing. Their progress depends on multiple interacting factors such as prior academic background, instructional quality, cognitive constraints, intensity of study sessions, and exam-specific skill requirements. Capturing such complexity requires a model that evolves over time rather than one that operates with fixed, discrete indicators.

This research presents a differential-equation-based approach for predicting SAT and GRE outcomes. The model describes how knowledge grows, stabilizes, or decays during preparation and how these phases translate mathematically into final exam scores.

2. Conceptual Background

2.1 Limitations of traditional prediction models

Most existing predictive frameworks include:

- linear or nonlinear regression,
- big-data-based machine learning,

- psychometric factor models.

Although statistically powerful, these approaches often:

1. ignore time as a variable of learning,
2. provide limited interpretability,
3. fail to capture fluctuations in study intensity,
4. do not incorporate forgetting dynamics.

2.2 Learning as a dynamic process

Human learning rarely follows a straight line. It is:

- nonlinear,
- saturating,
- sensitive to practice frequency,
- influenced by cognitive load.

Research in cognitive science demonstrates that learning curves follow exponential or logistic patterns. These findings motivate the use of differential equations to model academic growth.

2.3 Dynamic models in education

Existing dynamic models, such as:

- Ebbinghaus forgetting functions,
- logistic learning models,
- Bayesian Knowledge Tracing,

highlight the need for **continuous modeling**. Yet, nearly no studies apply differential knowledge growth functions directly to large-scale standardized exams like the SAT and GRE.

3. Methodological Framework

The proposed model assumes that the level of exam-relevant knowledge at time ttt is described by a function $K(t) \in [0,1]$. The evolution of this knowledge level depends on two competing forces:

1. **learning rate** — accumulation of new skills;
2. **forgetting rate** — natural decay of previously mastered skills.

The baseline dynamic equation is:

$$\frac{dK(t)}{dt} = \alpha(K(t)) - \beta K(t)$$

where:

- α — learning efficiency coefficient,
- β — forgetting coefficient.

Interpretation

- When a student knows little, the potential for rapid learning is high.
- As knowledge increases, gains become smaller.
- Simultaneously, forgetting affects already acquired skills.

4. Solution and Educational Interpretation

Solving the equation yields:

$$K(t) = \frac{\alpha}{\alpha + \beta}(1 - e^{-(\alpha+\beta)t})$$

This expression produces a curve that:

- rises steeply during early study phases,
- slows down after the midpoint,
- saturates near an upper learning limit.

This behavior mirrors real SAT/GRE preparation patterns: initial rapid progress, followed by stabilization.

Adjustment for instructional quality

Let $q \in [0,1]$ represent teaching quality:

$$\alpha = \alpha_0(1 + q).$$

Higher-quality instruction increases effective learning speed.

Adjustment for study duration

Let $s(t)$ denote daily study time:

$\alpha(t) = \alpha_0 ln(1 + s(t))$

This accounts for diminishing returns in prolonged study sessions.

5. Score Projection Model

The predicted score $S(t)$ is obtained by transforming knowledge into measurable performance:

where:

- $\gamma > 1$ — exam difficulty parameter,
- $For\ SAT: Smin = 200, Smax = 800$
- $For\ GRE: Smin = 130, Smax = 170$

Higher values of γ correspond to more challenging exams, producing steeper score requirements for high achievement.

$S(t) = Smin + (Smax - Smin)K(t)^{\gamma}$

6. Model Simulation and Interpretation

Assume:

- baseline efficiency: $\alpha_0 = 0.12$,
- forgetting: $\beta = 0.03$,
- instructional quality: $q = 0.4$,
- study time: $s(t) = 2$ hours/day.

Then the predicted knowledge values are:

- $K(30) \approx 0.54$
- $K(60) \approx 0.75$
- $K(90) \approx 0.86K$

Predicted scores

SAT:

$\approx 670 - 680\ points$

GRE:

$\approx 162 - 163\ points$

These estimates align with actual global performance trends for dedicated learners.

7. Educational Applications

The model can be used to:

1. Predict student performance early

Teachers can identify whether a student is on track to reach target SAT/GRE scores.

2. Evaluate the effectiveness of study programs

By modifying parameters $\alpha, \beta, q,$ institutions can simulate the impact of various teaching methods.

3. Detect learning plateaus

The saturation effect highlights when students stop making meaningful progress without intervention.

4. Personalize preparation trajectories

Students can receive individualized timelines based on their predicted knowledge curves.

8. Strengths and Limitations

Strengths

- mathematically interpretable,
- dynamic and flexible,
- integrates forgetting and instructional effects,
- improves prediction accuracy,
- adaptable to both SAT and GRE.

Limitations

- requires calibration with real student data,
- assumes consistency in study behavior,
- does not consider emotional or psychological factors.

9. Conclusion

Dynamic learning equations offer a substantially deeper and more realistic method for forecasting SAT and GRE outcomes than traditional static models. By mathematically capturing how knowledge develops, stabilizes, and decays throughout preparation, this framework brings new clarity to standardized test prediction. The approach not only improves forecasting accuracy but also provides practical insights for educators, test centers, curriculum designers, and policymakers seeking to optimize learning outcomes.

KOMPYUTER AXBOROTLARINI MODELLASHTIRISH

Abdullayeva Muhayyo Husanovna
G‘allaorol tumani 73-maktab informatika fani o‘qituvchisi
+998(97) 794-58-80
***E-mail*:** amuhayyo3@gmail.com

Аннотация. В данной статье предоставлена информация о компьютерном информационном моделировании, его значении в информатике, а также его использование для предсказывания поведения объекта моделирования, для принятия управляющих решений. Журнал «Интернаука» № 44 (267), 2022 г. 18 ABSTRACT This article provides information about computer information modeling, its importance in computer science, as well as its use for predicting the behavior of the modeling object, for making control decisions.

Ключевые слова: Информатика, информационная модель, объект моделирования, компьютерная форма.

Keywords: Computer science, information model, modeling object, computer form.

Kompyuter modellashtirish - bu turli xil tizimlar va prototiplarning xatti-harakatlari va javobini simulyatsiya qilish uchun mavhum model yaratish jarayoni.

Ushbu texnologiya fizika fanlari, tibbiyot va arxitekturada dizayn jarayoniga yordam berish uchun qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda kompyuter modellashtirish dasturlarining sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Har qanday kompyuter modellashtirish dasturi uchta asosiy jihatga ega: hisoblash quvvati, ko‘p o‘lchamli va modellashtirish mantig‘i. Ushbu turdagi texnologiya akademiyada ko‘p yillar davomida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, kompyuterni qayta ishlash xarajatlarining pasayishi sanoatda ushbu turdagi vositaning mashhurligini oshirdi. Kompyuter modellashtirish dasturi odatda katta miqdordagi xotira, protsessorlar va o‘tkazish qobiliyatini talab qiladi. Potentsial yechimning bir nechta versiyalari odatda yaratiladi, ularning barchasini tiklash uchun saqlash kerak.

Uch o‘lchovli modellashtirish muhandislik, arxitektura va tibbiyotda standart talab hisoblanadi. Ushbu funksionallik model aniqligini sezilarli darajada yaxshilaydi va modelning xavflari va foydalari haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Ushbu turdagi dasturiy ta’minotdan foydalanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ma’lumotlarni boshqarish, dizayn va ilg‘or dasturlash mantig‘ini o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, dasturiy ta’minot foydalanuvchi o‘z sohasida malakali mutaxassis ekanligini taxmin qiladi.

Har bir dasturda turli xil mantiqiy modellashtirish so‘rovlari mavjud. Shablonlar keng tarqalgan vaziyatlar uchun ishlatiladi va dasturiy ta’minotning asosiy auditoriyasiga qarab farq qiladi. Masalan, kompyuter yordamida arxitektura modellashtirish dasturi yangi binolar, turar-joy loyihalari va konstruktiv dizaynlar uchun shablonlarga ega bo‘ladi. Ba’zi dasturlar qo‘shimcha funktsiyalarni o‘z ichiga oladi, masalan, modeldan batafsil sxemalar yaratish.

Kompyuter modellashtirishning maqsadi:

1) raqamli fotosuratlar va videolarni yaratish
2) elektron hujjatlar yaratish
3) uch o‘lchovli elektron obyektlarni yaratish

4) raqamli ma’lumotlarni grafik vizualizatsiya qilish

5) raqamli hisob-kitoblarni avtomatlashtirish

6) matematik o‘zgarishlarni avtomatlashtirish.

Modellashtirish ham dunyoni tushunishning bir usuli hisoblanadi. Modellar moddiy yoki axborot bo‘lishi mumkin. Moddiy modellarga misollar sifatida globus (Yer modeli), maneken (inson tanasi modeli) va boshqalarni keltirish mumkin.

Zamonaviy kompyuter fanining asosiy vositasi kompyuterdir. Shuning uchun, kompyuter fanida axborot modellashtirish turli fan sohalaridagi obyektlarga qo‘llaniladigan kompyuter modellashtirishdir. Kompyuter olimlarga kompyuterdan oldingi davrlarda o‘rganish imkonsiz yoki qiyin bo‘lgan axborot modellari bilan ishlash imkonini berdi.

Kompyuter modellashtirishning katta afzalliklaridan biri bu bir nechta stsenariylar va dizaynlarni juda tez sinab ko‘rish imkoniyatidir. Kompyuter dasturi mavjud modelni olib, kichik yoki katta o‘zgarishlar kiritishi mumkin. Bu o‘zgarishlar dizaynerga boshqa variantlarni o‘rganish, yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish va nazariyalarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Kompyuter modelisiz har bir kontseptsiya noldan yaratilishi kerak bo‘ladi, bu esa katta vaqt, kuch va energiya talab qiladi. Ko‘pincha axborot modellashtirish modellashtirilgan obyektning xatti-harakatlarini bashorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishlatiladi. Kompyuter axborot modellarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ulardan real vaqt rejimida, ya’ni natijaga erishish uchun vaqt cheklovlarini kuzatish bilan foydalanish mumkin. Kompyuter modellashtirish quyidagilarga imkon beradi: 1) tadqiqot obyektlari doirasini kengaytirish - takrorlanmaydigan hodisalarni, o‘tmish va kelajak hodisalarini, real sharoitlarda takrorlanmagan obyektlarni o‘rganish mumkin bo‘ladi; 2) har qanday tabiatdagi obyektlarni, shu jumladan mavhum obyektlarni tasavvur qilish; 3) hodisalar va jarayonlarni ularning ochilish dinamikasida o‘rganish; 4) vaqtni boshqarish (tezlashtirish, sekinlashtirish va boshqalar); 5) modelning bir nechta sinovlarini o‘tkazish, har safar uni asl holatiga qaytarish; 6) obyektning turli xususiyatlarini raqamli yoki grafik shaklda olish; 7) sinov nusxalarini yaratmasdan obyektning optimal dizaynini topish; Kompyuter modellashtirish dasturini tanlashda batafsil texnik xususiyatlarni ko‘rib chiqish uchun vaqt ajrating. Ushbu ma’lumot dastur qanday ishlashi, cheklovlari va har bir paketning afzalliklari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Dasturiy ta’minotdan qanday foydalanishni xohlayotganingiz haqida o‘ylang va barcha asosiy talablaringiz bajarilganligiga ishonch hosil qiling.

Yakunlandi. Shuningdek, kelajakdagi kengaytirish rejalarini ko‘rib chiqing va ushbu rejalarni qo‘llab-quvvatlash uchun vositalar mavjudligiga ishonch hosil qiling.

Shunday qilib, axborot modeli ma’lumotlarga, ya’ni modellashtirilayotgan obyekt haqidagi ma’lumotlarga asoslanadi.

Har qanday real dunyo obyekti cheksiz miqdordagi turli xil xususiyatlarga ega. Uning axborot modelini yaratish uchun faqat kerakli xususiyatlarni tanlash kerak.

Modellashtirish maqsadi nuqtai nazaridan, bu maqsad modellashtirish jarayoni boshlanishidan oldin aniq shakllantirilishi kerak. Ko‘pincha, axborot modellashtirish modellashtirilayotgan obyektning xatti-harakatlarini bashorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishlatiladi. Kompyuterga asoslangan axborot modellarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ulardan real vaqt rejimida, ya’ni natijalarni olish uchun vaqt cheklovlari doirasida foydalanish mumkin.

Список литературы:

1. Персональный сайт Иванова А.М. [Электронный ресурс] - Форма доступа: https://ивановам.рф/informatika_11_sim/informatika_plan_zanytii_11 (дата обращения 01.10.2022 г.).\

2. Информатика. Базовый уровень: учебник для 11 класса/ И.Г. Семакин, Е.К. Хеннер, Т.Ю. Шеи на. - 3-е изд. - М. : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. - 224 с. : ил.

3. Компьтерное моделирование [Электронный ресурс]: Википедия. Свободная энциклопедия. – Форма доступа: https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Компьютерное_моделирование (дата обращения: 13.10.2022)

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA O’YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mirzacho‘l tumani 20- umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Omarova Sevara Rozamatovna
Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani 20- umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

O’yin - inson faoliyatining qadimiy va eng tabiiy turlaridan biridir. U bolalarning hayotida markaziy o‘rin tutadi, chunki o‘yin jarayonida bola atrof-muhitni o‘rganadi, ijtimoiy munosabatlarni sinab ko‘radi, mustaqil fikrlaydi va o‘zini namoyon etadi. Pedagogika fanida o‘yin - bu shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi, deb e’tirof etiladi. O’yin faoliyati bolaning bilish jarayonlarini (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) faollashtiradi, uning ruhiy dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘yin texnologiyalarining maqsadi:

O’yin texnologiyasi - bu dars jarayonini o‘yin shaklida tashkil etish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodik yondashuvdir. O’yin texnologiyalarining asosida o‘qish jarayonini o‘yin orqali o‘zlashtirish tamoyili yotadi. Didaktik o‘yinlar o‘quv materialining mazmuniga singdirilgan holda, o‘quvchilarda bilimni mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. O’yinli darslarda o‘quvchilar faol ishtirokchi sifatida o‘zlarini erkin his qiladilar, bu esa ularning o‘z-o‘zini ifodalashiga imkon yaratadi. O’quv jarayonini qiziqarli, faol va samarali qilish, bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir. Quyidagi asosiy maqsadlar shular hisoblanadi:

1. O’quvchilarda bilimga qiziqishni uyg‘otish - o‘yin orqali bola dars jarayonida faol qatnashadi, bilimni bevosita amaliy harakat bilan o‘zlashtiradi.

2. Fikr va ijodkorlikni rivojlantirish - o‘yinlarda bolalar mustaqil fikrlash, topqirlik, muammoli vaziyatni hal etish ko‘nikmalarini hosil qiladilar.

3. Nutq, tafakkur va muloqot madaniyatini shakllantirish - rolli, didaktik va ijodiy o‘yinlar bolalarni o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatadi.

4. Hamkorlikda ishlashni o‘rgatish - jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar bir-birini tinglash, yordam berish, mas’uliyatni bo‘lishishni o‘rganadilar.

5. Psixologik qulay muhit yaratish - o‘yin bolada ijobiy hissiyot uyg‘otadi, darsni zo‘riqishsiz o‘tkazishga yordam beradi.

6. Ta’lim mazmunini mustahkamlash - o‘yinlar orqali o‘rganilgan mavzularni mustahkamlash, takrorlash va amaliyotda qo‘llash osonlashadi. Boshlang‘ich ta’lim darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini aniqlash, o‘yin orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘yin texnologiyalarining vazifalari:

- O’yin texnologiyalarining pedagogik va psixologik asoslarini o‘rganish;
- Boshlang‘ich sinflarda o‘yinli o‘qitishning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish;
- Turli fanlarda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish shakllarini aniqlash;
- O’yin asosida tashkil etilgan dars ishlanmasi misolida metodik yondashuvni ishlab chiqish;
- O’yin texnologiyalari yordamida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot madaniyatini rivojlantirishga doir tavsiyalar berish;
- Bolalarning mustaqil fikrlash, eng oddiy vazifalarni tashqaridan yordamisiz hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- Maktab jamoasidagi har bir o‘quvchi tomonidan mavzu bo‘yicha materialni to‘liq o‘zlashtirishiga erishish;
- Ta’lim jarayonida bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini asrash;

Har bir tur o‘ziga ma’lum bir vazifani qo‘yadi. O’quv o‘yini davomida bola ilgari bilmagan ma’lumotlarni bilib oladi. O’yin ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan, bo‘lada yangi qobiliyatlarni ochib berish. Bunday darslarda o‘qituvchi bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinlar – o‘quv materialiga asoslangan, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan o‘yinlar. Didaktik o‘yinlar, bu o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini

mustahkamlash, ularni faol fikrlashga, ijodiy ishlashga undovchi o‘yin shaklidagi ta’limiy mashg‘ulotlardir. Ya’ni, bu o‘yinlar o‘qitish va o‘rganish jarayonini qiziqarli qilib tashkil etish vositasidir.

Harakatli o‘yinlar – Boshlang‘ich sinflarda harakatli o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lomlashtirish, jamoada ishlash, chaqqonlik va topqirlik kabi sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘yin faoliyatidir. Ular dars jarayonida yoki tanaffusda, shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llaniladi. Harakatli o‘yinlarning maqsadi: O’quvchilarning sog‘ligini mustahkamlash, to‘g‘ri jismoniy rivojlanishini ta’minlash. Harakat faoliyati orqali koordinatsiya, muvozanat, tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish, jamoada ishlash, o‘zaro yordam va intizomni tarbiyalash. O’yin orqali o‘quvchilarda ijobiy hissiyot, quvonch va faol kayfiyatni uyg‘otish.

Rol o‘ynash o‘yinlari – o‘quvchilar ma’lum rollarni bajarish orqali ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadilar. Boshlang‘ich sinflarda rolli o‘yinlar,bu o‘quvchilarning ma’lum bir vaziyat yoki hayotiy holatda turli rollarni bajarish orqali o‘rganish, fikrlash, muloqot va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o‘yin shaklidir. Rolli o‘yin bu o‘quvchilar muayyan shaxslar (o‘qituvchi, shifokor, sotuvchi, haydovchi, ertak qahramoni va boshqalar) rolini bajarib, o‘sha shaxsning harakati, nutqi va munosabatini ifodalovchi didaktik o‘yindir. Rolli o‘yinlarning maqsadi: O’quvchilarni faol o‘qitish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Nutq madaniyati, muloqot, ifodali so‘zlash va tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish. Hayotiy tajriba orttirish va ijtimoiy rollarni anglash. Ijodkorlik, topqirlik va sahnalashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ijodiy o‘yinlar – o‘quvchilarning tasavvur va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (ertak to‘qish, sahnalashtirish). Boshlang‘ich sinflarda ijodiy o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkurini, tasavvurini, ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi.

1. So‘z va hikoya o‘yinlari Maqsad: O’quvchilarning tasavvur va nutq qobiliyatini rivojlantirish. Misollar: “Hikoya yaratish” – o‘quvchilarga bir nechta tasodifiy so‘z yoki rasm beriladi va ular ushbu elementlar asosida qisqa hikoya yaratadi. “So‘z o‘yinlari” – har bir o‘quvchi ketma-ket so‘z qo‘shib, umumiy hikoya tuzadi.

2. Rassomchilik va vizual ijod o‘yinlari Maqsad: Ranglar, shakllar, tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish. Misollar: “Rangli mozaika” – o‘quvchilar biron bir mavzuni rangli qog‘oz, bo‘yoq yoki bo‘laklar yordamida ifodalaydi. “Sirli rasm” – o‘qituvchi rasmning bir qismini ko‘rsatadi, qolgan qismini o‘quvchilar o‘z tasavvuri bilan chizadi.

3. Rolli o‘yinlarni maqsadi: Ijtimoiy ko‘nikmalar va fantaziyani rivojlantirish. Misollar: “Kimman men?” – o‘quvchi bir belgi yoki hayvon rolini o‘ynaydi, boshqa o‘quvchilar esa u kimligini topishga harakat qiladi. “Mini-sahna” – kichik sahna yoki voqeani guruh bo‘lib sahnalashtirish.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biridir. Chunki o‘yin faoliyati bolaning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, u orqali bola nafaqat bilim oladi, balki uni mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. O’yin orqali o‘quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, berilgan topshiriqlarga qiziqish bilan yondashadi va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon eta oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik jihatdan oyinga moyil bo‘lib, ular uchun o‘yin – bu o‘qishning tabiiy shaklidir. Shuning uchun o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ta’limni qiziqarli, jonli va samarali qiladi.

KIMYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Shakarboyeva Hulkar Eshonqulovna
G‘allarol tumani 54-maktab kimyo fani o‘qituvchisi
+998973277183
Sayilova Ozoda Suliboyevna
Zafarobod tumani 20-maktab kimyo fani o‘qituvchisi
+998945720751

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo ta’limida nostandart testlardan foydalanishning asosiy jihatlari, ularning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni hamda xalqaro tadqiqotlar (PISA, TIMSS, PIRLS)ga tayyorgarlik jarayonida tutgan o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, nostandart topshiriqlar o‘quvchilarning bilimni qo‘llash, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Аннотация (RU): В статье раскрывается использование нестандартных тестов в химическом образовании, их роль в повышении качества обучения и подготовке к международным исследованиям.

Abstract (ENG): This article discusses the use of non-standard tests in chemical education, their role in improving the quality of learning and preparing students for international assessments.

Kirish (Introduction)

So‘nggi yillarda O’zbekiston ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari — **PISA, TIMSS, PIRLS** kabi loyihalarda ishtirok etish jarayonlari boshlab yuborildi. 2022-yil PISA natijalari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlardan bilimlarni **qo‘llash**, **tahlil qilish**, **mantiqiy fikrlash** ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi.

Kimyo fani bo‘yicha o‘quvchilarning topshiriqlarga juda qisqa vaqt ajratib, yuzaki yondashishi, mas’uliyatning pastligi va bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llashdagi qiyinchiliklar kuzatildi. Bunday holatlar kimyo ta’limida nazoratning zamonaviy shakllariga ehtiyoj mavjud ekanligini tasdiqlaydi.

Shu sababli nostandart testlar — tasvirli, ko‘p bosqichli, mantiqiy va tahliliy topshiriqlar kimyo ta’limi sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Metodlar (Methods)

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Pedagogik tahlil

Pedagogik texnologiyalar, nostandart testlarni tuzish va baholash mezonlari bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar o‘rganildi.

2. Taqqoslash va diagnostika

Nostandart testlar va an’anaviy testlar samaradorligi taqqoslanib, o‘quvchilarning bilim sifati bo‘yicha diagnostik kuzatishlar amalga oshirildi.

3. Amaliy tajriba

Kimyo darslarida turli tipdagi nostandart testlar qo‘llanib, ularning o‘quvchilar bilim faoliyatiga ta’siri sinovdan o‘tkazildi.

4. Misollar tahlili

Maqolada organik kimyo bo‘yicha nostandart test topshiriqlari namunasi berilib, ularning baholash imkoniyatlari yoritildi.

Natijalar (Results)

1. Nostandart testlar o‘quvchilarning bilim sifatini oshirdi

Tajriba natijalariga ko‘ra, nostandart testlardan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning:

- tushunish darajasi 25–30 % ga,
- tahlil qilish va taqqoslash ko‘nikmalari 40 % ga,
- real vaziyatlarda bilimni qo‘llash ko‘rsatkichlari esa 35 % ga oshgani kuzatildi.

2. O’quvchilarning mantiqiy fikrlashi va vizual tahlil qilish qobiliyati yaxshilandi

Rasmli, strukturali, ko‘p javobli topshiriqlar o‘quvchilarda:

- molekulalarni farqlash,
- funksional guruhlarni aniqlash,
- reaksiyalarni tanlash,
- kimyoviy jarayon mohiyatini tushuntirish ko‘nikmalarini shakllantirdi.

3. Kimyo fanida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nostandart testlar quyidagicha tasniflandi

- **Rasmli testlar**
- **Tartiblash (matching) topshiriqlari**
- **Ha/yo‘q tipidagi mantiqiy savollar**

- **Yarim ochiq (qisman erkin) topshiriqlar**
- **Sifat reaksiyasini aniqlash savollari**

4. Tadqiqot davomida tuzilgan nostandart testlardan namunalar

1-topshiriq. Rasm asosida organik birikmalarni aniqlash:

O’quvchi funksional guruhni topadi, tasniflaydi va ta’riflaydi.

2-topshiriq. Juftlash topshirig‘i (moslashtirish):

Masalan, to‘yingan uglevodorod — B: qo‘shbog‘ yoki uchbog‘siz.

3-topshiriq. Ha/yo‘q tipidagi mantiqiy savollar:

Misol:

- Metan yonadimi? — Ha
- Etilen to‘yingan uglevodorodmi? — Yo‘q

4-topshiriq. Qo‘shbog‘ga xos sifat reaksiyasini aniqlash:

Masalan,

$CH_2=CH_2 + Br_2 \rightarrow$ qo‘shbog‘ borligini isbotlaydi.

Natijalar o‘quvchilarning tushunish va qo‘llash darajasi oshganini ko‘rsatdi.

Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nostandart testlar:

- o‘quvchilarda **kritik, kreativ va funksional fikrlash** ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- PISA va TIMSS talablariga javob beruvchi topshiriqlarni bajarish malakasini oshiradi;
- kimyo darslarini jonli, qiziqarli va mazmunli qiladi;
- o‘quvchilarning faolligini kuchaytiradi.

Ushbu testlar orqali baholash jarayoni aniq, haqqoniy va shaffof tarzda amalga oshiriladi. O’quvchi nafaqat faktlarni eslaydi, balki ularni **tahlil qiladi**, **solishtiradi**, **amaliy vaziyatlarda qo‘llaydi**.

Bu esa zamonaviy kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimining asosiy talablaridan biridir.

Xulosa (Conclusion)

Kimyo ta’limida nostandart testlardan foydalanish:

- o‘quvchilarning bilish jarayonini faollashtiradi;
- mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni yaxshilaydi;
- ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bois har bir kimyo o‘qituvchisi nostandart testlar tuzish metodikasini bilishi va ularni dars jarayoniga muntazam tatbiq etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmetova M., Qulimov A.K. Kimyo ta’limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirish omili sifatida. Qarshi, 2020. 92–95 b.
2. Asqarov I.R., Isayev Y.T., Mahsumov A.G., Qirg‘izov Sh.M. Organik kimyo. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.
3. Yusupov D., Turobjonov S. Organik kimyoning boshlang‘ich asoslari. Toshkent, 2011.
4. Petrov A.A., Balyan X.V., Troshchenko A.T. Organicheskaya ximiya. Moskva: Vыsshaya shkola, 1973.
5. Kulimov A.K. Organik kimyodan nostandart testlar tuzish metodikasi (iSpring dasturi asosida). Urganch, 2019.

XALQARO TADQIQOTLAR DOIRASIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR KIMYO TOPSHIRIQLARI

Husanova Sevara Abduxalil qizi –
Jizzax shahar 3-maktab kimyo fani o'qituvchisi
+998971907170 sevarahusanova00@gmail.com
Qurbonova Pokiza To'lqin qizi –
Sharof Rashidov tumani 49-maktab kimyo fani o'qituvchisi
+998938440960 pokiza1912@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida kimyo darslari jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni loyihalash tamoyillari, xalqaro tadqiqotlar (ayniqsa, PISA) mezonlari asosidagi yondashuvlar va o'quv jarayonida kreativlikni shakllantirishning samarali metodlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, kimyo topshiriqlari, PISA, hayotiy ko'nikmalar, kompetensiya, innovatsion metodlar.

Abstract. This article examines the principles of designing chemistry tasks aimed at developing students' creative thinking skills in general secondary education. It highlights approaches based on international assessments (particularly PISA), as well as effective methods for fostering creativity in chemistry learning activities.

Key words: creative thinking, chemistry tasks, PISA, life skills, competency, innovative learning methods.

Аннотация. В статье рассматриваются принципы разработки заданий по химии, направленных на развитие творческого мышления учащихся. Освещены подходы, основанные на международных исследованиях (в частности, PISA), а также эффективные методы формирования креативности на уроках химии.

Ключевые слова: творческое мышление, задания по химии, PISA, жизненные навыки, компетентность.

Kirish. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va ilm-fanning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobining harakatlantiruvchi kuchi sifatida kreativ fikrlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kimyo fani esa o'zining tajriba va amaliyotga yo'naltirilganligi bilan kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun eng qulay ilmiy maydon hisoblanadi.

Kimyo darslarida kreativlikni shakllantirish—faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quvchining muammoni turli nuqtai nazardan ko'ra olishi, noodatiy yondashuvlarni ishlab chiqishi, yangi g'oyalar taklif qila olishi bilan belgilanadi.

Xalqaro tadqiqotlar, jumladan *PISA 2022 Creative Thinking* baholashlari, o'quvchilarning noodatiy fikrlashga tayyorligi bo'lgan mamlakatlarda dars jarayonida ochiq, ko'p yechimli, real hayotga mos topshiriqlardan faol foydalanilayotganini ko'rsatdi. Shu bois kimyo ta'limida kreativ fikrlashni shakllantirish dolzarb ilmiy-metodik masala hisoblanadi.

2. Metodlar (Methods)

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

2.1. PISA mezonlariga asoslangan tahlil

- "Creative Expression" (ijodiy ifodalash)
- "Knowledge Creation & Creative Problem Solving" (bilim yaratish va kreativ muammo hal qilish)

Mazkur domenlar kimyo darslari uchun moslashtirilib, o'quvchilarning mazmunli tajriba o'tkazish, tahlil qilish va noodatiy yechimlar taklif etish qobiliyatlarini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi.

2.2. Didaktik tahlil

- Kimyo darsliklaridagi mavjud topshiriqlar tahlil qilindi.
- Amaldagi metodik ko'rsatmalardagi kamchiliklar qayd etildi.

2.3. Pedagogik kuzatish

6–9-sinf kimyo darslarida kreativ topshiriqlarning qo‘llanishi va o‘quvchilarning reaksiyasi kuzatildi.

2.4. Eksperimental-tajriba metodlari

- Ochiq muammoli vaziyatlar
- Kimyoviy jarayonlarga mantiqiy-hayotiy yondashuv
- Kreativ savol-javob, brainstorming
- Kimyoga oid real hayotdagi hodisalarni tahlil qilish

3. Natijalar (Results)

Tadqiqot jarayonida kimyo fanida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarning quyidagi turlari samaradorlik ko‘rsatdi:

3.1. Ochiq (yagona javobsiz) kimyo topshiriqlari

Misol:

“Har qanday metallning suv bilan reaksiyasidan energiya olish jarayonini qanday takomillashtirish mumkin? 3 xil yechim taklif qiling.”

Bu topshiriqlar:

- turli yondashuvlarni rag‘batlantiradi,
- o‘quvchini izlanishga undaydi.

3.2. Real hayotga bog‘langan muammo-topshiriqlar

Misol:

“Qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlardan noto‘g‘ri foydalanish tuproq kimyoviy tarkibiga qanday ta’sir qiladi? Ekologik xavfsiz 2 ta alternativ yechim yarating.”

3.3. Modellashtirish va bashoratga asoslangan topshiriqlar

Misol:

“Atmosferadagi CO_2 miqdori ikki baravar oshsa, karbonat angidridning suvdagi eruvchanligi qanday o‘zgaradi? Qanday oqibatlar yuzaga keladi?”

3.4. Kreativ laboratoriya ishlari

Oddiy laboratoriya ishlariga qo‘shimcha “KREATIV VAZIFA” qo‘shildi:

“Temirning oksidlanish tezligini biror omil bo‘yicha oshirish yoki kamaytirish bo‘yicha 3 ta g‘oya ishlab chiqing.”

Natija:

- o‘quvchilarning taxmin qilish, modellashtirish ko‘nikmalari keskin oshdi,
- darsda motivatsiya va faollik kuchaydi.

4. Muhokama (Discussion)

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kimyo darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish:

- o‘quvchida mustaqil izlanish kompetensiyasini shakllantiradi;
- kimyoviy jarayonlarga stereotipdan holi, noodatiy yondashuvni kuchaytiradi;
- PISA talablariga mos ravishda ochiq muammolarni yechish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- fanlararo integratsiyani (biologiya, ekologiya, fizika, texnologiya) mustahkamlaydi.

An’anaviy metodlar ko‘pincha reproduktiv (takroriy) bilimlarni mustahkamlaydi. Kreativ topshiriqlar esa:

- yangi g‘oya yaratishga,
- alternativ yechimlarni topishga,
- hayotiy vaziyatlarda kimyoviy bilimlarni qo‘llashga majbur qiladi.

Bu esa zamonaviy kimyo ta’limining asosiy maqsadi hisoblanadi.

5. Xulosa (Conclusion)

O’tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kimyo darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish xalqaro talablarga mos ta’limning muhim qismidir.
2. Ochiq, ko‘p javobli, real hayotga bog‘langan topshiriqlar ijodiy fikrlashni keskin kuchaytiradi.

3. PISA mezonlariga moslashtirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy, tadqiqotchi, izlanishga moyil shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

4. Kimyo laboratoriya ishlarini kreativlashtirish—fanning amaliy mazmunini boyitadi.

5. Kimyo o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligiga kreativ pedagogika elementlarini kiritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Sharifxodjayev, D. Norboyeva. *PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi.* – Toshkent, 2020.
2. A. A. Ismailov va boshq. *Kreativ fikrlashni baholash.* – Toshkent, 2021.
3. A. B. Radjiev va boshq. *Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchi savodxonligi.* – Toshkent, 2019.
4. OECD. *PISA Assessment and Analytical Framework.* 2013.
5. PISA yangiliklar portali.
6. Avdeenko N.A. va boshq. *Kreativlik uchun sharoit yaratish.* – 2018.
7. *Framework for the Assessment of Creative Thinking in PISA-2021*. 2019.

Internet resurslari:

1.http:/www.markaz.tdi.uz – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti

2.@milliy markaz_aloqabot – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi telegram boti.

3.htths://uza.uz/uz/hosts/ta’lim-baholash-mohiyatiga-nazar.

4. http://markaz.tdi.uz

SODDA TENGSIZLIKLARNI ISBOTLASH

Sharipova Gavhar Mustafaqulovna
Jizzax shahar 10-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998996090002
sharipovagavhar1@gmail.com
Ummatova Nigora Davronovna
G‘allaorol tumani 26-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998932987984

Annotatsiya. Ushbu maqolada sodda tengsizliklarni isbotlash shaxsning mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ularga yechim toppish qobiliyatini shakllantirishning afzalliklari va o‘quv jarayonidagi o‘rni ilmiy uslubda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Tengsizlik, sodda tengsizlik, tengsizlikni isbotlash, tengsizlikning isboti, grafik usul, matematik mantiq, mantiqiy fikrlash.

Аннотация. В статье рассматриваются преимущества доказательства простых неравенств в формировании логического мышления человека, умения анализировать проблемы и находить решения, а также их роль в научном образовательном процессе.

Ключевые слова: Неравенство, простое неравенство, доказательство неравенства, графический метод, математическая логика, логическое мышление.

Abstract. This article discusses the advantages of proving simple inequalities in the formation of a person’s logical thinking, ability to analyze problems and find solutions, and their role in the educational process in a scientific manner.

Keywords. Inequality, simple inequality, proof of inequality, proof of inequality, graphical method, mathematical logic, logical thinking.

Sonli tengsizliklar matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, ular yordamida sonlarning o‘zaro taqqoslanishi va chegaralanishi ifodalanadi. Tengsizliklarni isbotlash esa, berilgan mulohaza yoki xulosaning to‘g‘riligini mantiqiy asoslash jarayonidir.

Sodda tengsizliklarni isbotlashning dolzarbligi ularning kundalik hayotda va turli ilmiy-texnikaviy muammolarni hal qilishda keng qo‘llanishidadir. Maqsadi esa shaxsning mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Vazifasi esa tengsizlikning isboti uchun zarur bo‘lgan qadamlarni aniqlash, xususan,asosiy xossalardan foydalanish, tengsizlikning ikkala tomonini alohida ko‘rib chiqish, grafik usullardan foydalanish va soda misollar yechishdan iborat.

Qobiliyatlarni rivojlantirish: Sodda tengsizliklarni isbotlashning asosiy maqsadi shaxsning mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ularga yechim toppish qobiliyatini shakllantirishdir.

Matematik savodxonlik: bu jarayon matematik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishga va matematik usullardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Xossalardan foydalanish: Tengsizliklarni isbotlashda tengsizlikning asosiy xossalaridan foydalaniladi, masalan, har ikki tomonga bir xil sonni qo‘shish yoki ayirish,bir xil musbat songa ko‘paytirish yoki bo‘lish.

Grafik usullar: Ba’zi hollarda tengsizlikning yechimini grafik ko‘rinishda ifodalash va uning isbotini vizual ravishda ko‘rsatish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Sodda misollar yechish: Boshlang‘ich qadam sifatida soda misollarni yechish orqali tengsizliklarni isbotlash usullarini o‘rganish, keyinchalik murakkabroq tengsizliklarni isbotlashga tayyorgarlik ko‘rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematika inson tafakkurini o‘stiradigan, mantiqiy fikrlashni shakllantiradigan fandir. Uning asosiy bo‘limlaridan biri-algebra, unda tenglamalar va tengsizliklar muhim o‘rin tutadi. Tengsizliklar atrofimizdagi ko‘plab jarayonlarni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Masalan, vaqt, masofa, tezlik yoki iqtisodiy o‘sishkabi holatlar orasidagi nisbatni ko‘rsatish uchun tengsizliklardan foydalaniladi. Shu sababli soda tengsizliklarni isbotlash va ularni yechish usullarini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi.Tengsizlik-bu ikki son yoki algebraik ifoda o‘rtasidagi “katta” (>), “kichik” (<) belgilar bilan ifodalanuvchi munosabatdir. Sodda tengsizlik esa bitta noma’lumni o‘z ichiga olgan eng oddiy ko‘rinishdagi tengsizlikdir.

Tengsizliklarni isbotlashda turli usullar qo‘llaniladi. Ular orasida :

1. Bevosita ta’rifga asoslangan isbot
2. Avval isbotlangan tengsizliklardan foydalanish
3. Teskarisidan faraz qilish usuli
4. Geometrik yoki algebraik ifodalardan foydalanish

Tengsizlik — bu ikki son yoki algebraik ifoda o‘rtasidagi: $>$, $<$, $\geq$, $\leq$ kabidagi munosabatlardan birini bildiradi.

Misol: $7 > 3$, $2x + 1 \leq 9$.

Tengsizliklarni isbotlashning asosiy usullari

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri isbot Misol: $x>2 \Rightarrow x^2 > 4$ Isbot: $x>2$ bo‘lsa, $x^2 > 2x > 4$.
2. O’rinboshlash usuli Misol: $x \geq 0 \Rightarrow x + 3 > 2$ Isbot: $x + 3 \geq 3 > 2$.
3. Tenglama asosida isbotlash Misol: $3x - 4 > 2$ Isbot: $3x > 6 \Rightarrow x > 2$.
4. Moddiy (qarama-qarshilik) usuli Misol: $x^2 \geq 0$ Faraz qilamiz: $x^2 < 0$. Bu mumkin emas, demak $x^2 \geq 0$.

Asosiy xossalar

Ikkala tomonga bir xil son qo‘shish: $a > b \Rightarrow a + c > b + c$

Musbat songa ko‘paytirish: $a > b$, $c > 0 \Rightarrow ac > bc$

Manfiy songa ko‘paytirish: $a > b$, $c < 0 \Rightarrow ac < bc$

Kvadratlash (musbat sonlar): $a > b > 0 \Rightarrow a^2 > b^2$

Misol 1: $|x| \geq 0$, isbot: Absolyut qiymat har doim $x \geq 0$.

Misol 2: $1/a > 0 \Rightarrow a > 0$, isbot: kasrning maxraji musbat. Misol 3: $2x - 5 < 7$, isbot: $2x < 12 \Rightarrow x < 6$.

Tengsizliklarni isbotlashda quyidagi usullar muhim:

1. Algebraik o‘zgartirishlar (kvadratlarni ajratish, kasrlarni qisqartirish).
2. Ma’lum tengsizliklardan foydalanish (o‘rta arifmetik-geometrik tengsizlik).
3. Teskarisidan faraz qilish (ziddiyatga olib kelish).

Tengsizliklar – bu ikki son yoki algebraik ifodaning kattalik jihatidan o‘zaro solishtirishini bildiradigan matematik munosabatdir. Ular $>$, $<$, $\leq$, $\geq$ belgilaridan foydalaniladi.

Tengsizlikning asosiy maqsadi- ma’lum bir shartni qanoatlantiradigan sonlar to‘plamini toppish. Ya’ni bitta javob emas, balki cheksiz ko‘p yechimlar bo‘lishi mumkin.

Tengsizliklarda amallar- qo‘shish,ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish odatdagidek bajariladi, faqat manfiy songa ko‘paytirilganda yoki bo‘linganda belgi teskarilanadi.

Tengsizliklar yechimi sonlar to‘plami bo‘lib, ko‘pincha sonlar to‘g‘ri chizig‘ida interval ko‘rinishda ko‘rsatiladi.

Tengsizliklar sistemasi bir necha tengsizliklarning umumiy yechimlar to‘plamidir. Ularni yechishda har ikki shartni bir vaqtning o‘zida bajaradigan qiymatlar olinadi.

Tengsizliklar real hayotdagi chegaralarni ifodalaydi. U yordamida miqdorlarni solishtirish, qiymatlar oralig‘ini aniqlash va matematik jarayonlarda chegaralar qo‘yish amalga oshiriladi. Tengsizliklar-faqat bitta emas, balki ko‘p sonli yehimlarni ifodalovchi qudratli vositadir.

Sodda tengsizliklarni isbotlash uchun ularni solishtirish, o‘zgartirish va tengsizlik xossalaridan foydalanish kerak. Boshqa tengsizliklar bilan solishtirish yoki grafigi chizish ham yechimni topshga yordam beradi.

Sodda tengsizlikni isbotlash tengsizlikni soddalashtirish va uning to‘g‘riligini tekshirish. Tengsizlikning har ikki tomoniga biror sonni qo‘shish yoki ayirish va ikki tomonni musbat songa ko‘paytirish yoki bo‘lish orqali isbotlash.

O’rta maktabda sonli tengsizliklardan boshlab to funksional tengsizliklargacha ularning xossalari va yechish usullari bayon qilinadi. Tengsizliklargacha o‘rta maktab dasturida yetarlicha soatlar ajratilgan bo‘lishiga qaramasdan o‘quvchilarning bu sohada qiziqishi kamroqdek. Ko‘p hollarda tengsizliklarni xuddi tenglamadek yechib qo‘yishadi.

Tengsizliklarni yechishda uning yechimi nima bo‘lishini o‘quvchi yaxshi tasavvur qilishi kerak. Tengsizlikni qanoatlantiradigan qiymatlar to‘plami tengsizlikning yechimi deyiladi. Shuning uchun bu to‘plamni doimo yechim deb atashadi. O’zgaruvchini biror to‘plamdagi yechimi tushuniladi.

Sonli tengsizliklarni isbotlash matematikaning zarur qismi bo‘lib, u mantiqiy fikrlashni mustahkamlaydi. Tengsizliklarni to‘g‘ri isbotlash uchun xossalarni bilish, algebraik o‘zgarishlarni izchil bajarish, qarama-qarshilik usulidan foydalana olish va shartlarni to‘g‘ri tahlil qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhamedov, M.A.Miirzaahmedov. “Algebra” 9-sinf darslik, Toshkent-2019.

2. M.Usmonov Matematikadan misol va masalalar to‘plami. Navro‘z. Toshkent-2022

3. M.A.Mirzaahmedov J.A.Qo‘yjonov D.D.Aroyev “Algebra va analiz asoslari” 10-sinf darslik. Toshkent-2022.

4. M.A.Mirzaahmedov Sh.N.Ismailov A.Q.Amanov “Algebra va analiz asoslari” 11- sinf darslik. Toshkent-2018.

KVADRAT TENGSIZLIKLARNI KVADRAT FUNKSIYA GRAFIGI YORDAMIDA YECHISHNING NAZARIY ASOSLARI

Yuldosheva Feruza Baxtiyorovna
Zomin tuman 69-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998911989080
feruzayuldasheva21021980@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kvadrat tengsizliklarni yechishda grafik metodning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanishi, hamda funksiyaning signallanishiga asoslangan yondashuv tahlil qilinadi. Grafik yondashuvning afzalliklari va o‘quv jarayonidagi o‘rni ilmiy uslubda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Tengsizlik, kvadrat tengsizlik, grafik metod, grafik usul, funksiya, matematik mantiq, kvadrat funksiya, kvadrat tenglama.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы графического метода решения квадратных неравенств, его практическое применение и подход, основанный на

сигнализации функции. В научной форме освещаются преимущества графического метода и его роль в образовательном процессе.

Ключевые слова. Неравенство, квадратное неравенство, графический метод, графический метод, функция, математическая логика, квадратичная функция, квадратное уравнение.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the graphical method for solving quadratic inequalities, its practical application, and the approach based on the signaling of the function. The advantages of the graphical approach and its role in the educational process are highlighted in a scientific manner.

Keywords. Inequality, quadratic inequality, graphical method, graphical method, function, mathematical logic, quadratic function, quadratic equation.

Algebrada tengsizliklarni yechish bo‘yicha metodlar orasida grafik usul o‘quvchilarda vizual tasavvurni shakllantirish, funksiyaning xatti-harakatini chuqur tushunish va matematik mantiqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kvadrat tengsizliklar, odatda,

$$ax^2+bx+c>0,$$
$$ax^2+bx+c<0,$$
$$ax^2+bx+c\geq 0,$$
$$ax^2+bx+c\leq 0,$$
$$bu\ yerda\ \ a\neq 0$$

ko‘rinishida bo‘ladi. Ularni grafik yordamida yechish kvadrat funksiyaning parabola shaklidagi grafigini va uning nol nuqtalarini tahlil qilishga asoslanadi.

Kvadrat funksiya grafigi yordamida kvadrat tengsizlikni yechish algoritmi.

1. Nol o‘ng tomonda qolishi uchun barcha shartlarni chap tomonga o‘tkazing.
2. Tengsizlikning chap tomonini nolga tenglashtiring, kvadrat tenglamaning ildizlarini toping.
3. Olingan ildizlarni koordinata chizig‘ida belgilang.
4. Ushbu nuqtalar orqali sxematik parabola tuzing, shoxlarning yo‘nalishini hisobga oling.
5. Tengsizlik belgisiga qarab intervallarni tanlang va yozing.

1. Kvadrat funksiyaning grafigi

Kvadrat funksiya $y = ax^2 + bx + c$ grafigi parabola bo‘lib, uning yo‘nalishi a ning ishorasiga bog‘liq:

- $a > 0$ – parabola yuqoriga ochiladi;
- $a < 0$ – parabola pastga ochiladi.

Parabolaning nol nuqtalari (ildizlari) tenglama $ax^2 + bx + c = 0$ bo‘yicha topiladi.

2. Tengsizliklarni grafik asosida yechish tamoyillari

2.1. Tengsizlik turi: $f(x) > 0$

Funksiya grafigi x-o‘qidan yuqorida joylashgan barcha oraliqlar yechim bo‘ladi.

2.2. Tengsizlik turi: $f(x) < 0$

Grafigi x-o‘qidan pastda joylashgan oraliqlar yechimni tashkil etadi.

2.3. Tengsizlik turi: $f(x) \geq 0, f(x) \leq 0$

Bu holatda x-o‘qi bilan kesishgan nuqtalar (ildizlar) ham yechimga kiradi.

3. Ildizlar va oraliqlarni aniqlash

Agar tenglama ildizlari, $\frac{1}{x}$ va, $\frac{2}{x}$ bo‘lsa (, $\frac{1}{x}$<, $\frac{2}{x}$), unda parabola quyidagicha signallanishga ega:

- $a > 0$ (yuqoriga ochiladi):

$(-\infty, \frac{1}{x})$ — musbat

$(\frac{1}{x}, \frac{2}{x})$ — manfiy

$(\frac{2}{x}, +\infty)$ — musbat

- $a < 0$ (pastga ochiladi): signallar aksincha.

4. Grafik usulning afzalliklari

1. Vizualizatsiya – o‘quvchi funksiyaning haqiqiy shaklini ko‘radi.

2. Chuqur tushunish – musbatlik va manfiylik oraliqlari sabablarini ko‘rish orqali mantiq shakllanadi.

3. Universallik – murakkab tengsizliklar tizimida ham qo‘llash mumkin.

4. O’qitishda samaradorlik – grafik orqali analiz qilish sonli usullarga qaraganda tezroq tushuniladi.


Shunday qilib, kvadrat tengsizlikni grafik yordamida yechish uchun:

1) kvadrat funksiya birinchi koeffisiyentining ishorasi bo‘yicha parabola tarmoqlarining yo‘nalishini aniqlash;

2) tegishli kvadrat tenglamaning haqiqiy ildizlarini topish yoki ularning yo‘qligini aniqlash;

3) kvadrat funksiyaning *Ox* o‘qi bilan kesishish nuqtalari yoki urinish nuqtasidan (agar ular bo‘lsa) foydalanid, kvadrat funksiya grafigining eskizini chizish;

4) grafik bo‘yicha funksiya kerakli qiymatlarni qabul qiladigan oraliqlarni aniqlash kerak.



Tengsizlikni grafik yordamida yeching:

$$2x^2 - x - 1 \le 0.$$

$y = 2x^2 - x - 1$ kvadrat funksiyaning grafigi – tarmoqlari yuqoriga yo‘nalgan parabola.

Bu parabolaning *Ox* o‘qi bilan kesishish nuqtalarini topamiz. Buning uchun $2x^2 - x - 1 = 0$ kvadrat tenglamani yechamiz. Bu tenglamaning ildizlari:

$$x_{1,2} = \frac{1 \pm \sqrt{1+8}}{4};\ x_1 = 1, x_2 = -\frac{1}{2}$$

Demak. Parabola *Ox* o‘qini $x_1 = 1, x_2 = -\frac{1}{2}$ nuqtalarda kesadi. $2x^2 - x - 1 \le 0$ tengsizlikni *x* ning funksiya nolaga teng bo‘lgan yoki funksiyaning qiymatlari manfiy bo‘lgan qiymatlari qanoatlantiradi, ya’ni *x* ning shunday qiymatlariki, bu qiymatlarda parabolaning nuqtalari *Ox* o‘qida yoki shu oq’dan pastda yotadi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, bu qiymatlar kesmadagi barcha sonlar bo‘ladi.

Javob: $-\frac{1}{2} \le x \le 1$

Bu funksiyaning grafigidan berilgan tengsizlikdan faqat ishorasi bilan farq qiladigan boshqa tengsizliklarni yechishda ham foydalanish mumkin. Rasmdan ko‘rinib turibdiki:

1) $2x^2 - x - 1 < 0$ tengsizlikning yechimlari $-\frac{1}{2} < x < 1$ intervaldagi barcha sonlar;

Kalit so'zlar: Tabiiy fanlar, STEM, raqamli ta'lim, CLIL, integratsiya, virtual laboratoriya, innovatsiya, kompetensiya, metodika, texnologiya.

Abstract. In this article, advanced pedagogical technologies, digital teaching aids, modern teaching methods, as well as effective systems such as STEAM, CLIL, and a competency-based approach, used in developed countries of the world in the education of exact and natural sciences, are deeply analyzed. National experience in the education system of Uzbekistan, existing curricula, methodological manuals, teacher qualifications, and technical and base capabilities were also studied.

Keywords: Natural sciences, STEM, digital education, CLIL, integration, virtual laboratory, innovation, competence, methodology, technology.

Dunyo bo'yicha ta'lim tizimida kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti, raqamlashtirish jarayonlari, sun'iy intellektning hayotning deyarli barcha jabhalariga kirib kelishi, big data, robototexnika, biotexnologiya, nanotexnologiya kabi yangi ilmiy yo'nalishlarning jadal rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Bu jarayonlar ta'lim oldiga yangi talablar va vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, tabiiy fanlar fizika, kimyo, biologiya, geografiya – zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimining strategik asosiga aylanmoqda. Chunki ushbu fanlarda o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy, analitik va algoritmik fikrlash qobiliyatlari, ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalari shakllanadi. Global raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida aynan shu fanlarni mukammal o'zlashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimlarida tabiiy fanlarni o'qitishga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy bilim berish modelidan amaliyotga yo'naltirilgan, kompetensiya asosidagi, tajribalar va loyihalar orqali o'rgatish tizimiga o'tilmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda dars jarayoniga raqamli laboratoriyalar, virtual simulyatorlar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari, robototexnika va dasturlash vositalari keng joriy etilmoqda. Bu esa o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribalarni ham shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Milliy o'quv dasturining qabul qilinishi, ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilishi, raqamli ta'lim platformalarining (EduMarket, Kundalik, Elektron ta'lim tizimlari va b.) joriy etilishi, zamonaviy metodik qo'llanmalar va elektron resurslarning yaratilishi ta'lim sifatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. STEM, STEAM, CLIL kabi xalqaro pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga

oshirilmoqda. Shu bilan birga, “Bir million dasturchi”, “Raqamli maktab”, “Informatika fanini 1-sinfdan o‘qitish” kabi tashabbuslar o‘quvchilarni global axborot maydoniga integratsiyalashga xizmat qilmoqda.

Biroq xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O’zbekiston ta’lim tizimida hali ham qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda fizika va kimyo laboratoriyalarining zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanganligi yetarli emas; biologiya va geografiya fanlarida amaliy mashg‘ulotlar ulushi past; ayrim maktablarda informatikani o‘qitishda zamonaviy kompyuterlar yetarli emas; o‘qituvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha kasbiy kompetensiyalari turlicha darajada; metodik yondashuvlar o‘rtasida uyg‘unlik yetarli emas. Bularning barchasi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuning uchun tabiiy fanlarni o‘qitishda xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim jarayoniga moslashtirish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, fanlar bo‘yicha amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar va loyihalar ulushini oshirish zarur. Ayniqsa, o‘quvchilarni xalqaro baholash tizimlari – PISA, TIMSS, PIRLS kabi dasturlarga tayyorlashda o‘quv jarayonini xalqaro mezonlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu dasturlarda o‘quvchilarning bilimlarini emas, balki bilimlardan amalda foydalanish, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, modellashtirish, grafik va jadvallar bilan ishlash kabi kompetensiyalari baholanadi.

Bugungi global o‘zgarishlar sharoitida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishni rivojlantirish nafaqat ta’lim tizimining, balki mamlakatning iqtisodiy va innovatsion rivojlanishining strategik omilidir. Xorijiy metodlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib emas, balki milliy ta’lim muhitiga moslashtirgan holda joriy etish, o‘qituvchilar malakasini muntazam oshirib borish, laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish va raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

AQSH, Yaponiya, Koreya modeli: -STEM asosida integratsiyalashgan o‘qitish; -Arduino, Lego, VEX kabi robototexnika vositalari bilan dars o‘tish; -loyihaviy ta’lim; -laboratoriya va virtual tajribalar.

Finlyandiya modeli: -shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim; -nazariya emas, amaliyot markazda; -fanlar yillik bloklar ko‘rinishida integratsiyalashadi.

Singapur va Estoniya modeli: -informatika va AT o‘qitilishi 1-sinfdan; -kuchli raqamli maktablar; -o‘quvchilarda algoritmik fikrlashni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar.

Buyuk Britaniya modeli: -CLIL (Content and Language Integrated Learning); -tabiiy fanlarning ingliz tilida o‘qitilishi; -eksperimentlarga boy dars jarayoni.

O’zbekiston ta’lim tizimida: -Milliy o‘quv dasturi (2023) asosida darsliklar modernizatsiya qilindi; -“Raqamli maktab”, “Bir million dasturchi”, “STEAM markazlari” loyihalari yo‘lga qo‘yildi; -o‘quv dasturlariga kompetensiya va amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar kiritildi; -o‘qituvchilar uchun “onlayn trening – attestatsiya – malaka oshirish” tizimi yaratilmoqda.

Tizimda quyidagi kamchiliklar mavjud: Ko‘plab maktablarda kimyo va fizika laboratoriyalari yetarli emas; tajribalarni o‘tkazish uchun moddiy baza qoniqarsiz; informatika xonalarida kompyuterlar soni kam; o‘qituvchilarning aksariyati zamonaviy IT vositalaridan yetarlicha foydalana olmaydi; o‘quvchilarda amaliy kompetensiyalar past. Fanlar bo‘yicha o‘quv yuklamasi notekis. Amaliy mashg‘ulotlar ulushi past. O’qituvchilarning AKT savodxonligi yetarli emas. Qishloq maktablarida internet tezligi past. O’quvchilarning fundamental tayyorgarligi bir xil emas. Xorijiy metodlarni to‘liq tatbiq etish uchun moliyaviy resurslar yetarli emas.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlarni o‘qitishda: **amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘quvchini tadqiqotchi sifatida shakllantirish, AR/VR texnologiyalar**dan foydalanish, **o‘quv jarayonining individuallashtirilishi, raqamli kontentning ko‘pligi, fanlararo integratsiya** asosiy o‘rinda turadi.

Milliy ta’limda bu jarayon sekin bo‘lsa-da, bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki **milliy sharoitga mos tarzda** qo‘llash kerak. Chunki: har bir davlatning iqtisodiy imkoniyati boshqacha; o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy tayyorgarligi turlicha; o‘qituvchilarning kompetensiyalari farq qiladi. Shu sababli, har bir xorijiy metod milliy modeli yaratilib, so‘ng amaliyotga joriy etilishi lozim.

Xorijiy metodlarni moslashgan holda joriy etish o‘quvchilarni: analitik fikrlashga, tadqiqot olib borishga, muammoni hal qilishga, raqamli kompetensiyaga ega bo‘lishga yetaklaydi. Ta’lim sifatini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Ismoilov, X.J.Daminov, Z.A.Kosimova, G.A.Primov. Kreativ fikrlashni baholash. -T., -2021 y.
2. Ismoilov A.A. va b. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. T. Sharq. 2019 y.
3. X.B.Alimova, B.R.Ramazonov. “O’quvchi-o‘quvchiga ustoz” tamoyili asosida tabiiy fanlar darslarini tashkil etishda muammolar. Academic research in educational sciences, 2021.
4. G.N.Ibragimova. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish. Monografiya. –T.: Fan va texnologiyalar, 2016 y.
5. www.pedagog.uz

MATEMATIKA FANIDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING JORIY ETILISHI: MAVJUD MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR

Parpiyev Sodiqjon Abdujalil o‘gli
ADPI dotsent v.b.
Abdulhayev O’ktamjon Iqboljon o‘g‘li
ADPI talabasi
+998(93) 290-10-27
Oktamjonabdulhayev7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot matematika fanida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish jarayonini tahlil qiladi. Asosiy maqsad – o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni real hayotda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishdir. Ishda bu jarayonda yuzaga kelayotgan asosiy muammolar, xususan, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetishmasligi va an’anaviy baholash tizimining nomukammalligi ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: Данное исследование анализирует процесс внедрения компетентностного подхода в преподавание математики. Основная цель работы — сформировать у учащихся не только теоретические знания, но и умение применять их в реальных жизненных ситуациях. В исследовании рассматриваются ключевые проблемы, возникающие в этом процессе, в частности недостаточная методическая подготовленность учителей, слабая практическая направленность учебного процесса и несовершенство традиционной системы оценивания, не полностью соответствующей современным требованиям.

Annotation: This study analyzes the process of implementing a competency-based approach in mathematics education. The main goal is to develop not only students’ theoretical knowledge but also their ability to apply it in real-life situations. The research highlights key challenges encountered in this process, including insufficient methodological training of teachers, the weak practical orientation of the teaching process, and the shortcomings of the traditional assessment system, which does not fully meet modern requirements.

Kalit So‘zlar: Matematika ta’limi, Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, Raqamli resurslar, Baholash tizimi, Kompetensiyaga asoslangan baholash.

Ключевые слова: математическое образование, компетентностный подход, цифровые ресурсы, система оценивания, компетентностное оценивание.

Keywords: Mathematics education, Competency-based approach, Digital resources, Assessment system, Competency-based assessment.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablari ta’lim tizimi oldiga yangicha vazifalarni qo‘ymoqda. An’anaviy ta’lim tizimi, asosan, nazariy bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo‘lib, bitiruvchilarning o‘rgangan bilimlarini real hayotiy, kasbiy va

ijtimoiy muammolarni yechishda qo‘llash qobiliyati ba’zan cheklangan bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim sohasida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish dolzarb ehtiyojga aylandi. Matematika fanini o‘qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish nafaqat amaldagi o‘quv dasturlarining samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, mantiqiy xulosalar chiqarish kabi matematik kompetensiyalarni shakllantirishni ko‘zlaydi bu Davlat ta’lim standartlarida ham belgilab berilgan. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari A.V. Xutorskoy kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ta’lim natijasi sifatida nafaqat bilimlarni, balki ularni qo‘llay olish malakasini (kompetensiyani) ustuvor deb hisoblaydilar.[4. 12-b]. Xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan PISA tadqiqotlari (OECD) natijalari esa aynan shu matematik savodxonlik (kompetensiya) darajasini baholash orqali, mamlakatimizda o‘quvchilarning real hayotiy muammolarni yechish qobiliyatini yanada oshirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda. Bu esa ta’lim jarayoniga tub o‘zgarishlar kiritishni, shuningdek, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularga innovatsion yechimlar taklif qilishni talab qiladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – matematika fanida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish jarayonidagi mavjud tizimli va metodik muammolarni chuqur tahlil qilish, shu asosda ushbu yondashuvni samarali amalga oshirishga qaratilgan innovatsion metodlar va texnologiyalar modelini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili:Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy manbalarning tahlili matematika ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha olib borilgan ishlarning kengligini ko‘rsatadi. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim paradigmasi rivojida A.V. Xutorskoy va I.A. Zimnyaya kabi olimlarning ishlari fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’lim natijasi sifatida faqat bilimlarni emas, balki ularni real vaziyatlarda qo‘llay olish malakasini (kompetensiyani) ustuvor deb hisoblaydilar. Ushbu nazariy manbalar matematik kompetensiyaning mohiyatini belgilashga xizmat qiladi.[3. 12-b]. Kompetensiyani amaliyotda baholash masalasi PISA tadqiqotlari (OECD) doirasida keng yoritilgan bo‘lib, PISA natijalari bilimlarni real hayot kontekstlarida qo‘llash qobiliyatini o‘lchaydi va O’zbekiston kabi mamlakatlarda matematik savodxonlikni oshirish zaruriyatini isbotlaydi.[5. 27-b]. Milliy ta’lim tizimidagi vaziyatni tahlil qilish uchun M.E. Jumayev va boshqa mahalliy tadqiqotchilarning ishlari, shuningdek, amaldagi Davlat ta’lim standartlari (DTS) tahlil qilinadi.[2. 11-b]. Bu manbalar darsliklar mazmunini amaliy yo‘naltirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi va normativ jihatdan kompetensiya talablari mavjud bo‘lsada, ularni amalga oshirish mexanizmlarida metodik bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Xulosa shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan va uning samaradorligi xalqaro miqyosda tasdiqlangan bo‘lsada, mavjud adabiyotlar uni amaliyotga joriy etishda metodik muammolar davom etayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotning asosiy bo‘shlig‘i — aynan mana shu aniqlangan muammolarni hal qilishga qaratilgan kompleks va integratsiyalashgan innovatsion yechimlar modelini taklif qilishdan iborat.

Metodologiya: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishdagi muammolarni aniqlash va ularga innovatsion yechimlar ishlab chiqishdan iborat bo‘lganligi sababli, tadqiqot aralash metodologiya (Mixed Methods Approach) asosida olib boriladi, ya’ni ham kualitativ (sifatli) ham kvantativ (miqdoriy) yondashuvlar uyg‘unlashtiriladi. Tadqiqot dizayni diagnostik-loyihaviy xarakterga ega bo‘lib, muammolarni diagnostika qilish, yechimlarni loyihalash va ularning samaradorligini baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Kualitativ usullar sifatida amaldagi Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini kompetensiya talablariga mosligi nuqtai nazaridan chuqur hujjatlar tahlili o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘qituvchilar, metodistlar va ma’murlar bilan kompetensiyani joriy etishdagi qiyinchiliklar bo‘yicha intervyu va fokus guruhlar tashkil etiladi. Kvantativ usullar esa keng miqyosda o‘tkaziladigan so‘rovnomalar orqali o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatlari va tayyorgarligi, hamda maxsus tuzilgan diagnostik testlar orqali o‘quvchilarning kompetensiya darajasini o‘lchashni o‘z ichiga oladi. To‘plangan miqdoriy ma’lumotlar SPSS yordamida statistik tahlil qilinadi, bunda korrelyatsion tahlil va T-test qo‘llaniladi. Tadqiqot ma’lumotlari O’zbekistonning turli hududlaridagi umumta’lim maktablari va akademik litseylaridagi matematika

o‘qituvchilari hamda o‘quvchilarini qamrab oladi. Natijalarning ishonchliligi kualitativ ma’lumotlarda triangulyatsiya, kvantativ ma’lumotlarda esa Cronbach’s Alpha koeffitsienti yordamida ta’minlanadi. Ushbu metodologiya tadqiqotning maqsad va vazifalariga erishish hamda amaliyotga joriy etish uchun asoslangan innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, matematikada kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishda nazariya (DTS) va amaliyot o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. Intervyu va kuzatuvlar asosida aniqlangan asosiy muammo — bu o‘qituvchilarning innovatsion metodik kompetensiyasi (STEAM, PBL) yetishmasligi va an’anaviy baholash tizimining ta’siridir. Kvantativ tahlil o‘quvchilarning PISA turidagi real muammolarni yechishda qiynalayotganini tasdiqladi, bu baholash uslubini o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatadi. Muammoni hal etish uchun taklif qilingan innovatsion yechimlar modeli (STEAM, PBL, raqamli resurslar integratsiyasi) bir-birini to‘ldirib, amaliy kompleks yechimni taqdim etadi. Kelajakda bu modelni keng miqyosda sinovdan o‘tkazish talab etiladi.

Natijalar: Olib borilgan aralash metodologiyaga asoslangan tadqiqotlar natijasida matematika fanida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishga oid quyidagi asosiy natijalar aniqlandi: O’qituvchilarning 78% i rasman kompetensiyaga asoslangan darslarni o‘tishlarini bildirgan bo‘lsalar-da, darslarni bevosita kuzatish (kualitativ tahlil) shuni ko‘rsatdiki, darslarning qariyb 70% i hali ham an’anaviy ma’ruzaviy usulda o‘tilmoqda, bu esa Nazariya (DTS) va Amaliyot o‘rtasidagi sezilarli tafovutni tasdiqlaydi. O’qituvchilarning atigi 15% i STEAM metodikasini matematik muammolarni yechishda muntazam qo‘llashini bildirgan, 65% i esa bu usullardan mutlaqo foydalanmasligini yoki ularni qanday qo‘llashni bilmasligini ta’kidlagan. Bu holat o‘qituvchilarning innovatsion metodik kompetensiyasi jiddiy darajada yetishmasligini ko‘rsatadi. O’qituvchilarning 85% dan ortig‘i baholashda asosan yozma nazorat (javoblarning to‘g‘riligini tekshirish) va og‘zaki so‘rovdan foydalanishini ma’lum qildi; Kompetensiyaga asoslangan baholash usullari (rubrikalar, portfoliolar) amalda deyarli joriy etilmagan. Maxsus tuzilgan diagnostik testlar (PISA formatiga yaqin) natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning faqat 25% i real hayotiy vaziyatdagi muammoni to‘g‘ri matematik modelga aylantira olgan. Bu o‘quvchilarning nazariy bilimlarni bilishlari, ammo ularni amalda qo‘llash (kompetensiya) qobiliyati past ekanligini ko‘rsatadi. Intervyu va so‘rovnomalar yakunida, o‘qituvchilarning 90% i muammolarni hal qilish uchun Muammoga asoslangan o‘qitish (PBL), STEAM va raqamli resurslarni birlashtirgan, amaliy mashg‘ulotlarga boy, yangi metodologik qo‘llanmalarga ehtiyoj borligini bildirishgan. Ushbu natijalar kompetensiyaga asoslangan ta’limga o‘tish uchun nafaqat normativ o‘zgarishlar, balki o‘qituvchilarning amaliy malakasini oshirish va baholash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ilmiy asoslab berdi.[1. 54-b].

Xulosa

Tadqiqotimiz matematika ta’limida kompetensiyaga o‘tish jarayonida katta muammolar mavjudligini tasdiqladi. Asosiy ziddiyat nazariy talablar va amaliyot o‘rtasida yuzaga kelmoqda. Bu, avvalo, o‘qituvchilarning innovatsion metodikalarni yetarli darajada o‘zlashtirmaganligi va eski baholash tizimining kompetensiya shakllanishiga to‘sqinlik qilishi bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni hal qilish uchun, biz integratsiyalashgan innovatsion yechimlar modelini taklif qilamiz. Faqat shu kompleks yondashuv orqali bitiruvchilarning matematik bilimlarini real hayotda qo‘llash qobiliyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1.Bikbayeva N.U. va boshqalar. Matematika fanining Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2021.

2.Jumayev M. E. Matematik kompetensiyalarni shakllantirish muammolari va ularni hal etish yo‘llari. Pedagogik ta’lim ilmiy-nazariy jurnali. Toshkent 2023.

3.Zimnyaya I.A. Klyuchevыe kompetensii – novaya paradigma rezul’tata obrazovaniya. Vыsshee obrazovanie segodnya. 2003.

4.Xutorskoy A.V. Klyuchevыe kompetensii i elementы soderjaniya obrazovaniya. Narodnoe obrazovanie. 2008.

5.OECD. PISA 2022 Results: Learning to Live Our Lives: Mathematical, Scientific, and Financial Literacy (Volume I). – Paris: OECD Publishing, 2023.

FIZIKA DARSLARIDA "JISM OG‘IRLIGINING HARAKAT TURIGA BOG‘LIQLIGI" MAVZUSI

Nishanov Botir Urazaliyevich
Jizzax viloyati Zomin tumani 26- umumta’lim maktabi fizika fani o‘qituvchisi
Tuyakov Bekzod Anarbayevich
Jizzax viloyati Zomin tumani 7- umumta’lim maktabi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jism og‘irligining fizik ma’nosi, uning harakatga bog‘liq holda o‘zgarishi, tezlanish, erkin tushish, ko‘tarilish, aylanma harakat kabi holatlarda og‘irlikning qanday o‘zgarishi ilmiy asosda tahlil qilingan. Amaliy misollar, tajribalar va dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodik yondashuvlar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: og‘irlik, og‘irlik kuchi, tezlanish, inertsiya, erkin tushish, aylanma harakat, ko‘tarilish, dinamometr.

Kirish. Fizika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan jism og‘irligi kundalik hayotimizda ham, texnika va ilm-fan sohalarida ham muhim o‘rin tutadi. Ko‘p hollarda og‘irlikni jismning massasi bilan bir xil tushunchadek qabul qilinadi, ammo aslida og‘irlik jismning ma’lum sharoitda tayanchga yoki osma qurilmaga ko‘rsatadigan bosimi hisoblanadi. Ushbu bosim esa jismning qanday holatda harakatlanayotgani yoki harakatlanmayotgani bilan chambarchas bog‘liqdir.

Harakat turlari — tekis harakat, tezlanish bilan yuqoriga yoki pastga yo‘nalgan harakat, hamda erkin tushish — jism og‘irligining turlicha namoyon bo‘lishiga olib keladi. Masalan, inson lift yuqoriga tezlanib ko‘tarilayotganda o‘zini “og‘irroq”, pastga tushayotganda esa “yengilroq” his qilishi bu hodisaning yorqin ko‘rinishidir. Erkin tushish vaqtida esa og‘irlik mutlaqo yo‘qolib, jism “og‘irliksiz holat”ga tushadi. Bu hodisalar nafaqat fizik qonuniyatlar, balki kosmik texnologiyalar, aviatsiya, mashinasozlik va sport sohalarida ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur mavzu o‘quvchilarda atrofdagi fizik jarayonlarni chuqur anglash, ularni tahlil qilish va real hayot misollarida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, gravitatsiya, inertsiya, kuchlar ta’siri kabi fizik qonuniyatlarni bir-biri bilan bog‘lash va o‘zaro ta’sirini tushunishga yordam beradi. Mavzuni chuqur o‘rganish orqali o‘quvchilar jism og‘irligining doimiy emasligi, u harakat sharoitiga qarab o‘zgarishi mumkinligini bilib oladilar. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashi, kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Shu bois “Jism og‘irligining harakat turiga bog‘liqligi” mavzusi nafaqat fizika kursining muhim bo‘limlaridan biri, balki insonning kundalik faoliyatida uchraydigan ko‘plab real holatlarning ilmiy asosini tushuntirib beruvchi dolzarb masaladir.

Harakat turlari va ularning jism og‘irligiga ta’siri.

Jismning og‘irligi uning harakat turiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu hodisani kundalik hayotimizdagi turli misollarda kuzatish oson. Jism tinch turgan paytda uning og‘irligi odatdagi qiymatda bo‘ladi. Lekin jism harakatlana boshlasa, uning og‘irligi sezilarli darajada o‘zgaradi.

Tekis harakat. Jismning og‘irligi uning harakat turiga bog‘liq bo‘ladi. Agar jism tekis harakat qilsa, ya’ni tezligi o‘zgarishsiz harakat qilsa, uning og‘irligi odatdagi holatdagidek bo‘ladi. Tekis harakat — bu jismning tezligi vaqt davomida bir xil bo‘lgan harakatdir, ya’ni u tezlanmaydi va sekinlamaydi.

Misol uchun, transport vositasida stulga o‘tirgan odamni olaylik. Agar avtomobil to‘xtamagan holda bir tekis tezlik bilan harakat qilsa, odam o‘zini og‘irroq yoki yengilroq his qilmaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, tekis harakat og‘irlikka hech qanday qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatmaydi.

Shuningdek, tekis harakatda jismga ta’sir qiluvchi kuchlar muvozanatda bo‘ladi. Jism oddiy holatda turgandagi bosimni yuzaga keltiradi, lekin uning og‘irligi hech qanday qo‘shimcha kuchlar yoki tezlanish sababli oshmaydi yoki kamaymaydi. Shu sababdan, tekis harakatda jism og‘irligini aniqlash oddiy va osondir.

Kundalik hayotdan misol: liftdagi odam lift sekin va tekis tezlik bilan harakat qilsa, u o‘zini odatdagidek sezadi; samolyot parvozida havo tezligi barqaror bo‘lsa, yo‘lovchilar og‘irlikning o‘zgarishini sezmaydi.

Tekis harakatda jism og‘irligi doimiy va odatdagidek bo‘ladi. Tezlanish bo‘lmagan holatda og‘irlik faqat jismning massasi va tortishish kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, tekis harakat holatida jism og‘irligini o‘lchash va kuzatish eng oddiy va barqaror bo‘ladi.

Tezlanish bilan yuqoriga va pastga harakatdagi og‘irlik. Jismning og‘irligi faqat uning massasi va joylashgan joyidagi tortishish kuchiga bog‘liq emas, balki harakat turiga ham bog‘liq bo‘ladi. Agar jism tezlanish bilan harakat qilsa, uning og‘irligini sezish odatdagidan farq qilishi mumkin.

Yuqoriga tezlanish. Agar jism yuqoriga harakat qilsa va tezlanayotgan bo‘lsa, odam yoki jism o‘zini og‘irroq his qiladi. Misol uchun, lift yuqoriga ko‘tarilayotgan paytda oyoqlaringizga biroz ortiqcha bosim tushadi va siz o‘z og‘irligingizni sezganingizdan ko‘proq his qilasiz. Buning sababi shundaki, tezlanish jism va uning yuzasi o‘rtasidagi bosimni oshiradi. Shu tarzda jismning ko‘rinadigan og‘irligi ortadi va u odatdagidan og‘irroq ko‘rinadi.

Pastga tezlanish. Aksincha, agar jism pastga harakat qilsa va tezlanayotgan bo‘lsa, odam yoki jism o‘zini yengilroq his qiladi. Masalan, lift pastga tushayotganda oyoqlaringizga tushadigan bosim kamayadi, shuning uchun siz o‘zingizni yengilroq his qilasiz. Tezlanish pastga qarab bo‘lganligi sababli, jismning ko‘rinadigan og‘irligi kamayadi.

Kundalik hayot misollari. Lift: yuqoriga ko‘tarilganda og‘irroq, pastga tushganda yengilroq his qilamiz.

Attraksionlar: roller-coaster kabi hayajonli aylanishlarda yoki tez tushish va ko‘tarilish paytida og‘irlik sezimi o‘zgaradi.

Samolyot parvozlari: qo‘nish va ko‘tarilish paytida yo‘lovchilar og‘irlikning o‘zgarishini sezadi.

Shunday qilib, tezlanish bilan yuqoriga harakatda jism og‘irligi ortadi, pastga harakatda esa kamayadi. Bu hodisa og‘irlik kuchi harakat turiga bog‘liq ekanligini amalda ko‘rsatadi. Kundalik hayotda lift, transport vositasi yoki attraksionlarda biz bu o‘zgarishni sezamiz. Shu sababli jismning og‘irligi doimiy bo‘lmaydi; u harakat sharoitiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin.

Erkin tushish holatidagi og‘irliksiz holat. Jism harakatining yana bir qiziqarli holati — bu erkin tushish holatidir. Erkin tushish — bu jismga faqat tortishish kuchi ta’sir qilayotgan va boshqa kuchlar (masalan, stul yoki yuzaning bosimi) ta’sir qilmayotgan holatdir.

Erkin tushishdagi jism o‘zini og‘irliksiz his qiladi. Buning sababi shundaki, jism va u bilan birga harakatlanayotgan muhit bir xil tezlik va yo‘nalishda tushadi. Shu bois jismning yuzaga bosimi yo‘qoladi va tarozi yoki boshqa o‘lchov asboblari nol ko‘rsatadi. Bu holat biz kundalik hayotda kamdan-kam kuzatamiz, lekin ayrim vaziyatlarda uni his qilish mumkin.

Kundalik hayot va misollar. Lift kabeli uzilib tushsa: odam erkin tushish holatida bo‘ladi va o‘zini og‘irliksiz his qiladi.

Kosmosdagi kosmonavtlar: orbitada harakatlanayotgan kosmik kemada kosmonavtlar va jihozlar birgalikda erkin tushish holatida bo‘ladi, shuning uchun ular og‘irlikni sezmaydilar.

Attraksionlarda qisqa muddatli tushishlar: ba’zi attraksionlar tez tushish paytida yo‘lovchi og‘irliksiz holatni his qiladi.

Og‘irliksiz holatning fizik ma’nosi. Og‘irliksiz holatda jism tarozi ko‘rsatadigan kuchni sezmaydi, lekin tortishish kuchi hali mavjud bo‘ladi. Ya’ni, jism hali ham Yer tomonidan tortiladi, lekin bu kuch jismlar bilan yuzaga keladigan bosim orqali sezilmaydi. Shu sababdan, erkin tushish holati jism og‘irligini sezmaslik bilan tavsiflanadi.

Erkin tushish — bu jismning faqat tortishish kuchi ta’sirida harakat qilishi va boshqa qo‘shimcha kuchlar yo‘qligida yuzaga keladigan holatdir. Bunday holatda jism og‘irliksiz bo‘lib, odam yoki jismlar o‘zini yengil his qiladi. Kosmosdagi kosmonavtlar yoki attraksionlardagi qisqa vaqtli tushishlar bizga og‘irliksiz holatni yaqqol his qilish imkonini beradi. Shu bilan erkin tushish og‘irlik kuchi va harakatning bog‘liqligini amalda ko‘rsatadi.

Aylana bo‘ylab harakat. Aylana bo‘ylab harakat qiluvchi jismlarda ham og‘irlik sezimi o‘zgaradi. Masalan, karuselda yoki attraksionda aylanganda odam o‘zini ba’zi paytlarda og‘irroq, ba’zi paytlarda esa yengilroq his qiladi. Bu o‘zgarish jismning aylana bo‘ylab harakati va tezligiga bog‘liq. Shuning uchun tez harakatlanayotgan aylana jismga ta’sir qiluvchi kuchlar normal og‘irlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Kundalik hayotdagi misollar. Lift yuqoriga yoki pastga harakat qilganda odam og‘irligini sezadi.

Samolyot parvozida yoki qo‘nish paytida og‘irlik sezimi ortadi yoki kamayadi.

Aylana bo‘ylab harakatlanadigan attraksionlarda qisqa vaqtli og‘irliksiz holatlar yuz beradi.

Kosmosda orbitada harakat qiluvchi jismlar va kosmonavtlar og‘irliksiz holatda bo‘ladi.

Jismning og‘irligi faqat uning massasi bilan belgilanmaydi; harakat turi va tezlanishi ham og‘irlikni sezilarli darajada o‘zgartiradi. Tekis harakatda og‘irlik odatdagidek bo‘lsa, tezlanish yoki aylana bo‘ylab harakatda og‘irlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Erkin tushish va kosmik orbitada esa og‘irlik umuman sezilmaydi. Shu bilan jism harakati va og‘irlik o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjudligi kundalik hayot va ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

“Jism og‘irligining harakat turiga bog‘liqligi” mavzusini o‘rganish orqali har qanday jismning og‘irligi faqat uning massasi bilan emas, balki jismning qanday harakatlanayotgani bilan ham bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tinch holatda jism odatdagi og‘irlikka ega bo‘lsa, tezlanayotgan holatda u ortadi, sekinlashayotgan yoki erkin tushish holatida esa kamayadi yoki butunlay yo‘qoladi. Bu hodisa jismga ta’sir etayotgan kuchlarning o‘zaro ta’siri bilan tushuntiriladi.

Mavzu orqali o‘quvchilar og‘irlik tushunchasi nisbiy ekanligini, u jismning harakati o‘zgarganda har xil bo‘lishini, ijobiy va salbiy tezlanish og‘irlik qiymatiga bevosita ta’sir qilishini anglab oldilar. Ushbu bilimlar kundalik hayotdagi ko‘plab jarayonlar mohiyatini ochib beradi: lift harakati, attraksionlarda seziladigan og‘irlik o‘zgarishi, tez yurayotgan mashina tormozlanganda yuzaga keladigan holatlar, samolyotning uchishi va qo‘nishidagi bosim o‘zgarishlari shular jumlasidandir.

Mavzu o‘quvchilarda fizik hodisalarni sabab–natija bog‘liqligida tahlil qilish, kuzatish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ularning ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, atrofdagi hodisalarga ilmiy yondashuv paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turdiyev, N.Sh. — Fizika, 10-sinf va o‘rta maxsus kasb-hunar muassasalari uchun; nashriyot: Niso Poligraf, 2017.

2. Xudayberdiyeva, A.I. — Fizika (Elektr va magnetizm); nashriyot: O’zbekiston, 2019.

3. Abduraxmanov, Q., Xamidov, V., Axmedova, N. — Fizika (texnika yo‘nalishi uchun); nashriyot: Aloqachi, 2017.

4. Ulug‘murodov, N.X., Sodiqova, N.B., Tursunova, Z.B. — Fizika (tibbiyot yo‘nalishi darsligi); nashriyot: O’zbekiston, 2020.

KORPORATIV BREND VA UNGA XOS STIL. KORPORATIV BRENDGA XOS STILGA MUOVIQ HUJJAT TAYYORLASH USULLARI

Berdiqulov Abdulatif Xayrullayevich
Jizzax viloyati Yangiobod tumani 5-maktab o‘qituvchisi
+99899-470-95-02
Email: abdulatifberdiqulov218@gmail.com
Abdualimov Ikrom Ulug‘bek o‘g‘li
Jizzax viloyati Zomin tumani 33-maktab o‘qituvchisi
+99895-369-25-25
Email: aliikrom094@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola korporativ brendning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, brend identifikatsiyasi va korporativ stilning zamonaviy biznesdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Asosan

korporativ brendga xos stilni yaratish, takomillashtirish, uni kompaniya kommunikatsiyalarida qo‘llash, xususan, rasmiy hujjatlar, tashkiliy yozishmalar, marketing materiallari va ichki boshqaruv hujjatlari dizaynida aks ettirish jarayonlari yoritiladi. Korporativ stilga muvofiq hujjat tayyorlash usullari, metodologik yondashuvlar, brend-buk (brand book), guide-line, vizual identifikatsiya tamoyillari hamda hujjat yaratishda shrift, rang, format va mazmun izchilligi kabi unsurlar chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari korporativ brendni mustahkamlashda hujjat dizaynining o‘rni va amaliy qo‘llanmalar bo‘yicha xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: Korporativ brend, brend identifikatsiyasi, korporativ stil, brend-buk, vizual identifikatsiya, brend kommunikatsiyasi, korporativ hujjatlar, dizayn standartlari, hujjatlashtirish, imidj, korporativ madaniyat.

Kirish

Zamonaviy global bozor sharoitida korporativ brendning ahamiyati benihoya ortib bormoqda. Raqobatning kuchayishi kompaniyalardan nafaqat sifatli mahsulot yoki xizmat, balki o‘ziga xos imidj, barqaror brend stili, mustahkam kommunikatsiya strategiyasini talab qiladi. Brend bu – kompaniyaning iste’molchiga bergan va’da va shu va’daning bajarilish darajasi, ya’ni kompaniya qanday ko‘rinadi, qanday tovushda gapiradi, qanday hujjatlar bilan ishlaydi va o‘zini qanday namoyon qiladi.

Korporativ brend nafaqat marketing materiallarda, balki har bir rasmiy hujjatda, ichki hujjatchilikda, ish jarayonidagi har bir yozma murojaatda aks etishi lozim. Aynan hujjatlar kompaniyaning tashqi olamga taqdim etiladigan eng ko‘p uchraydigan kommunikatsiya shakllaridan biridir.

Shu sababli korporativ brendga xos uslubda hujjat tayyorlash – kompaniyaning professional imijini yaratish, ishonchni mustahkamlash, ichki tizimlarda tartib o‘rnatish va tashqi kommunikatsiyalarni samarali boshqarishning eng muhim vositalaridan biri sanaladi.

1. KORPORATIV BREND TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI.

1.1. Brend tushunchasining rivojlanishi

Brend konsepsiyasi dastlab mahsulotni raqobatchilardan ajratish vazifasini bajaruvchi belgilar, ramzlar va logotiplar tizimi sifatida paydo bo‘lgan. Bugungi kunda esa brend – bu ancha keng tushuncha bo‘lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- kompaniyaning qadriyatlari,
- missiyasi,
- maqsadi,
- vizual uslubi,
- xizmat ko‘rsatish sifati,
- iste’molchi ongidagi tasavvurlar.

Brend bu – kompaniyaning jamiyatdagi o‘ziga xos identifikatsiyasidir.

1.2 Korporativ brendning asosiy elementlari

Korporativ brend quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- **Brend identifikatsiyasi**

– logotip, ranglar, shriftlar, belgilar va boshqalar.

- **Brendning ovoz ohangi (tone of voice)**

– kompaniyaning gapirish uslubi, xabar berish tili va kommunikatsiya ohangi.

- **Brend qadriyatlari**

– halollik, innovatsiya, ishonchlilik, sifat va boshqalar.

- **Brend strategiyasi**

– kompaniyaning bozorga chiqish strategiyasi, umumiy rivojlanish yondashuvi.

- **Brendning vizual komponenti**

– dizayn, grafik elementlar, uslublar va tasvirlar.

1.3. Korporativ brendning tashkilot faoliyatidagi roli

Brend kompaniya uchun quyidagi ustunliklarni beradi:

- Mijozlar ishonchini oshiradi.
- Kompaniyani raqobatchilardan ajratadi.

- Ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi.
- Korporativ kommunikatsiyalarni soddalashtiradi.
- Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga asos yaratadi.

2. KORPORATIV STILNING MOHIYATI VA UNSURLARI

2.1. Korporativ stil (Corporate Style) nima?

Korporativ stil – kompaniyaning yagonaligini ta’minlaydigan vizual va mazmuniy elementlar majmuasi. U odatda quyidagi komponentlardan tarkib topadi:

- logotip,
- rang sxemasi,
- shriftlar va matn uslubi,
- grafik elementlar,
- hujjatlar dizayni,
- reklama materiallari uslubi.

2.2. Korporativ stilning vazifalari

Korporativ stil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Kompaniyaning yagona vizual qiyofasini yaratadi.
- Hujjatlar va materiallarda izchillikni ta’minlaydi.
- Brendni tanish oson bo‘ladi.
- Mijozlarga professional tasavvur uyg‘otadi.
- Kompaniyaning ichki madaniyatini mustahkamlaydi.

2.3. Vizual identifikatsiya elementlari

Korporativ brendning vizual identifikatsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Logotip** – kompaniyaning yuzi.
- **Korxona ranglari** – kompaniyani anglatadigan asosiy ranglar.
- **Shakl va grafiklar** – brend kayfiyatini aks ettiruvchi tasvirlar.
- **Tipografiya** – shriftlar, harf o‘lchamlari, bo‘sh joylar.
- **Foto va video uslubi** – qanday turdagi tasvirlar ishlatilishi.

3. KORPORATIV BRENDGA XOS STILGA MUVOFIQ HUJJAT TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

3.1. Hujjat kommunikatsiyasi sifatida brendning aks etishi

Hujjat — bu kompaniyaning eng keng tarqalgan rasmiy kommunikatsiya vositasi. Shuning uchun har bir hujjatda brendning uslubi aks etishi kerak.

Korporativ hujjat quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

- rasmiylik,
- izchillik,
- aniqlik,
- brendga moslik,
- dizayn va matn uyg‘unligi.

3.2. Brend-buk va guideline’larning ahamiyati

Brend-buk (brand book) korporativ stilni rasmiylashtiruvchi asosiy hujjatdir. Unda quyidagilar belgilab qo‘yiladi:

- logotipdan qanday foydalanish,
- ranglarning asosiy va yordamchi variantlari,
- shrift standartlari,
- korporativ elementlar,
- hujjatlar shablonlari.

Guideline esa brend elementlaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha amaliy qo‘llanma bo‘lib, xodimlar tomonidan oson qo‘llaniladi.

3.3. Brendga mos hujjatning umumiy tamoyillari

- **Tizimli yondashuv** — barcha hujjatlar bir xil formatda tayyorlanadi.
- **Brend elementlarini to‘g‘ri joylashtirish** — logotip, ranglar, shriftlar.
- **Mazmuniy aniqlik** — matn sodda, tushunarli, rasmiy bo‘lishi lozim.

- **Standartlashtirish** — shrift o‘lchami, satr oralig‘i, sahifa maydoni bir xil bo‘ladi.
- **Professional dizayn** — vizual charchatmaydigan, zamonaviy ko‘rinish.

4. KORPORATIV HUJJATLARNING TURLARI VA ULARDA STILNI QO’LLASH

4.1. Ichki korporativ hujjatlar

Ichki hujjatlar:

- buyruqlar,
- xizmat yozishmalari,
- majlis bayonnomalari,
- hisobotlar,
- iltimosnomalar.

Bunda brend elementlari minimal, ammo aniq bo‘lishi kerak:
logotip, rasmiy shrift, kompakt dizayn, rang elementlarining yumshoq ishlatilishi.

4.2. Tashqi korporativ hujjatlar

Bular:

- tijorat takliflari,
- hamkorlarga xatlar,
- shartnomalar,
- kompaniya taqdimotlari,
- reklama materiallari.

Bu hujjatlarda brendning **ko‘rinishi, dizayni va ovoz ohangi to‘liq namoyon bo‘lishi** zarur.

4.3. Marketing va PR hujjatlari

- broshyuralar,
- bannerlar,
- vizitkalar,
- taqdimotlar,
- kataloglar.

Bu turdagi hujjatlar brendni to‘liq ko‘rsatadigan eng muhim materiallardir.

5. HUJJAT TAYYORLASHDA BRENDGA MOS DIZAYN UNSURLARI

5.1. Logotip bilan ishlash qoidalari

- Logotip doimo yuqori chap yoki pastki o‘ng qismda joylashadi.
- Logotip atrofida “himoya maydoni” bo‘ladi.
- Logotip ranglari brend-bukda belgilangan bo‘lishi shart.

5.2. Rangsxema

Har bir kompaniya uchun asosiy rang va yordamchi ranglar mavjud.

- Asosiy rang: sarlavhalar, bo‘lim bo‘lishlarida ishlatiladi.
- Yordamchi rang: bezak uchun.
- Fon ranglari: odatda oq yoki yorqin bo‘lmagan ranglar.

5.3. Shrift standartlari

Hujjatlarda odatda 2 ta shrift ishlatiladi:

- Sarlavhalar uchun.
- Asosiy matn uchun.

Juda ko‘p shrift ishlatish professional ko‘rinmaydi.

5.4. Grafik elementlar

- To‘g‘ri chiziqlar, geometrik shakllar.
- Minimalizm tamoyili.
- Tasvirlar brend ohangiga mos bo‘lishi zarur.

6 KORPORATIV HUJJATLAR SHABLONINI YARATISH BOSQICHLARI

- **Tahlil qilish** — kompaniya missiyasi, maqsadi, brend qadriyatlari o‘rganiladi.

- **Brend-bukdan kelib chiqib dizayn loyihalash** — logotip, ranglar, shriftlar tanlanadi.
- **Hujjat maketini tayyorlash** — bosh sahifa, matn sahifalari, grafiklar.
- **Elementlarni standartlashtirish** — sarlavhalar, matn o‘lchamlari.
- **Tasdiqlash** — rahbariyat, marketing bo‘limi bilan muvofiqlashtirish.
- **Joriy etish** — xodimlarga tarqatish, foydalanishni o‘rgatish.

7. KORPORATIV BRENDGA MOS HUJJAT YARATISHNING AMALIY METODLARI

7.1. Matnni brend ovoz ohangida yozish

Matn quyidigicha bo‘lishi kerak:

- rasmiy va samimiy,
- ortiqcha so‘zlarsiz,
- kompaniya qadriyatlarini aks ettiruvchi,
- izchil va mantiqli.

7.2. Strukturali matn usuli

Hujjat quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- kirish,
- asosiy qism,
- xulosa,
- ilovalar.

7.3. Vizual izchillik

Har bir sahifa bir xil dizayn elementlari asosida tayyorlanadi.

8. BRENDGA MOS HUJJAT TAYYORLASHDA YO’L QO’YILADIGAN XATOLAR

- Logotipni noto‘g‘ri formatda ishlatish.
- Juda ko‘p ranglardan foydalanish.
- Rasmiy hujjatda norasmiy tilda yozish.
- Shriftlarni almashtirib yuborish.
- Hujjatlarning bir xil bo‘lmasligi.

Xulosa

Korporativ brend va unga xos stil kompaniya imidjini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega. Brendga mos hujjat tayyorlash bu — kompaniyaning tashqi ko‘rinishi, madaniyati va professional yondashuvining yorqin ko‘rinishidir. To‘g‘ri tashkil etilgan brend-buk, hujjat shablonlari, izchil dizayn va rasmiy til standartlari tashkilotning ichki va tashqi aloqalarini mustahkamlaydi, mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni yaratadi va korporativ kommunikatsiyalarni bir xilda boshqarishga imkon beradi.

Natijada, korporativ brendga mos ravishda tayyorlangan hujjatlar kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi, barqaror tasavvur yaratadi va korporativ imidjni mustahkamlaydi.

MODERN APPROACHES AND CHALLENGES IN ASSESSING FOREIGN LANGUAGE COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION

Xamidova Sevinch
Student at Chirchik State Pedagogical University
Phone:+998 88 010 14 31
E-mail: shamidova005@gmail.com
Scientific supervisor: **Akmalxonov Saidfozil**

Annotation: This article examines modern methods for assessing foreign language competence in higher education, highlighting teacher preparation, student engagement, and creative assessment strategies. It reflects on challenges such as repetitive tasks, teacher readiness, and student disengagement. By integrating performance-based tasks, collaborative projects, and digital tools, the study emphasizes a balance between efficiency and enjoyment, offering recommendations to make assessment both meaningful and motivating.

Keywords: assessment, teacher training, student motivation, creativity, performance-based tasks, digital tools, engagement

Аннотация: Статья рассматривает современные методы оценки иноязычной компетенции в высшем образовании, уделяя внимание подготовке преподавателей, мотивации студентов и креативным методам оценки. Обсуждаются проблемы: повторяющиеся задания, недостаточная подготовка преподавателей и потеря интереса у студентов. Исследование показывает, как выполнение практико-ориентированных заданий, групповые проекты и цифровые инструменты могут повысить вовлечённость и мотивацию студентов.

Ключевые слова: оценка, подготовка преподавателей, мотивация студентов, креативность, практико-ориентированные задания, цифровые инструменты, вовлечённость

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’limda chet tili kompetensiyasini baholashning zamonaviy usullari tahlil qilinadi, o‘qituvchilar tayyorligi, talabalar motivatsiyasi va ijodiy baholash metodlari e’tiborga olinadi. Takroriy topshiriqlar, o‘qituvchilarning past malakasi va talabalar qiziqishining pasayishi kabi muammolar ko‘rib chiqiladi. Amaliy topshiriqlar, guruh loyihalari va raqamli vositalarni qo‘llash orqali baholash samarali va qiziqarli bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: baholash, o‘qituvchilarni tayyorlash, talaba motivatsiyasi, ijodiylik, amaliy topshiriqlar, raqamli vositalar, faol ishtirok

Introduction. Foreign language assessment in higher education should not be about memorizing rules or filling out multiple-choice tests. Too often, I’ve seen students zone out during repetitive grammar exercises, their notebooks open but minds elsewhere. Some are forced into these classes, they don’t want to study languages; they’re there because the system requires it. Others start motivated but quickly get tired of monotony.

In my view, assessment should reflect real communication skills and spark curiosity. Students should feel challenged and engaged, not drained. This article explores how creative, performance-based, and collaborative assessments, supported by digital tools, can improve learning while reigniting motivation—especially in contexts like Uzbekistan, where teacher proficiency and resources vary.

Literature review and methodology. Modern research emphasizes that language assessment must capture not just grammar and vocabulary but practical communication and strategic skills (Bachman, 1990; Canale & Swain, 1980). CEFR and ACTFL frameworks stress real-world use, while recent studies suggest digital tools and AI feedback can personalize learning (Fulcher & Davidson, 2007).

Performance-based tasks—like role-plays, group projects, and presentations—help students practice authentic communication. Research shows that even students who seem disengaged can excel and find motivation when allowed to perform and collaborate.

This article uses qualitative analysis of classroom experiences, Uzbek case studies, and international frameworks. Observations focus on:

a. Teacher preparedness for digital and performance-based assessments
b. Student engagement and motivation patterns
c. How creative, collaborative, and authentic assessments impact learning outcomes

Many teachers in Uzbekistan face real challenges: they often lack strong English proficiency, struggle with new digital tools, and rely on traditional testing methods. I’ve observed classrooms where teachers hesitate to try innovative assessments because they fear making mistakes or don’t fully understand the technology. Without well-prepared teachers, even the best assessment methods fail. Students may get feedback that is either delayed, unclear, or too mechanical destroying both engagement and confidence. Students respond best when they feel agency and creativity.

For example:

- Role-playing scenarios make shy students speak actively and creatively
- Group presentations or collaborative projects allow students interested in art, drama, or performance to shine

- ❖ Interactive digital portfolios track progress and encourage self-reflection

Even students who were "forced" into language courses or bored by repetition show motivation when tasks feel meaningful and playful. Learning becomes less about grades and more about discovery and self-expression. Digital tools, online quizzes, and AI-assisted feedback offer instant results and flexible tracking. But teacher competence is crucial: if teachers cannot confidently use the tools, students see little benefit. Also, technology access varies across schools, which must be considered in implementing solutions. Assessment shouldn't just be efficient—it should be fun and engaging. Students need tasks that challenge them but also allow expression. Repetitive worksheets and rote exercises may measure knowledge, but they kill motivation. Blending traditional, digital, and performance-based assessments achieves balance: students learn effectively *and* enjoy the process.

Findings

- ➢ Performance-based tasks improve real-life communication and creativity.
- ➢ Teacher training and confidence directly impact assessment success.
- ➢ Collaborative and interactive assessments increase engagement.
- ➢ Digital tools are effective only with proper guidance and infrastructure.
- ➢ A balanced approach combining traditional, digital, and interactive methods is most effective.

Conclusion. From my research and classroom experience, here's my take: Assessment should be human-centered, it must value creativity, participation, and real-life application. Students who are bored, forced, or disengaged can rediscover motivation through interactive and performance-based tasks. Teacher competence is key: invest in professional development to make digital tools and innovative assessments work. Learning should feel like discovery, not punishment. Grades alone don't inspire students; experiences do. If I could redesign assessment in Uzbekistan, I'd prioritize creative, collaborative, and student-led methods, supported by digital feedback, while keeping some traditional evaluation to maintain structure. Assessment should motivate and energize learners, not drain them.

References

1. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford University Press.
2. Brown, H. D. (2004). *Language Assessment: Principles and Classroom Practices* Pearson.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). "Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing." *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
4. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*.
5. Fulcher, G., & Davidson, F. (2007). *Language Testing and Assessment*. Routledge.
6. Weir, C. (2005). *Language Testing and Validation*. Palgrave Macmillan.

PARABOLIK TIPDAGI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI TO'R USULI BILAN YECHISH.

Anorbayev Madamin Maxmud o'g'li
Guliston davlat universiteti matematika kafedrasi o'qituvchisi
Quzibekova Odina Habibullo qizi
Guliston davlat universiteti matematika yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Faraz qilaylik, $\Gamma = \{0 < x < 1, 0 < t < T\}$ sohada ushbu

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + f(x, y) \qquad (1)$$

Parabolic tenglamaning (issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasining)

$$u(x, 0) = \varphi(x) \qquad (2)$$

boshlang‘ich shart va

$$u(0,t)=\psi_0(t) \qquad u(1,t)=\psi_1(t) \tag{3}$$

chegaraviy shartlarini qanoatlantiruvchi yechimini topish talab qilinsin. Bu yerda $\varphi(x)$, $\psi_0(t)$, $\psi_1(t)$ - berilgan funksiyalar. (1)-(3) masalaning yechimi mavjud, yagona yechim $u(x,t)$ esa kerakli tartibgacha hosilalarga ega deb hisoblaymiz.

Ayirmali sxema qurish uchun Γ soha x va t koordinatalar bo‘yicha mos ravishda $h=\frac{1}{N}$, $\tau=\frac{T}{K}$ qadamli to‘g‘ri to‘rtburchak to‘r bilan almashtiramiz. (x_i,t_j) $i=0,1,...,N$, $j=0,1,...,K$ nuqtalar to‘plamini *to‘r sohaning tugunlari* deymiz.

Quyidagi (x_i,t_0), $i=0,1,...,N$, (x_0,t_j) va (x_N,t_j), $j=0,1,...,K$ tugunlari to‘r sohaning chegaraviy tugunlari, qolganlari esa to‘r sohaning *ichki tugunlari* deyiladi.

Endi (1) ni (x_i,t_j) nuqtada approksimatsiya qilish uchun $\frac{\partial u}{\partial t}$ va $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ hosilalarni

$$\left(\frac{\partial u}{\partial t}\right)_{(x_i,t_j)} \cong \frac{u_{ij+1}-u_{ij}}{\tau} \tag{4}$$

$$\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}\right)_{(x_i,t_j)} \cong \frac{u_{i+1j}-2u_{ij}+u_{i-1j}}{h^2} \tag{5}$$

taqribiy formulalar bilan almashtiramiz. (4) va (5) ni (1) ga qo‘yamiz, hamda (2) va (3) ning approksimatsiyasini yozamiz, natijada quyidagi ayirmali masalani hosil qilamiz:

$$\frac{u_{ij+1}-u_{ij}}{\tau}=\frac{u_{i+1j}-2u_{ij}+u_{i-1j}}{h^2}+f_{ij} \quad i=0,1,...,N-1, \quad j=0,1,...,K-1 \tag{6}$$

$$u_{i0}=\varphi_i, \quad i=0,1,...,N \tag{7}$$

$$u_{0j}=\psi_{0j}, \quad u_{Nj}=\psi_{1j}, \quad j=0,1,...,K-1 \tag{8}$$

(6), (7), (8) chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi bo‘lib, tenglamalar soni noma’lumlar soniga tengdir. Agar j-qatlamdagi yechimning qiymatlari ma’lum bo‘lsa, (j+1)-qatlamdagi yechimning qiymati $u_{ij+1}=u_{ij}+\frac{\tau}{h^2}(u_{i+1j}-2u_{ij}+u_{i-1j})+\tau f_{ij}, \qquad i=0,1,...,N-1$

(9)

formula bilan aniqlanadi. u_{0j+1} va u_{Nj+1} lar mos ravishda ψ_{0j+1} va ψ_{1j+1} ga teng. Shuning uchun (6), (7), (8) sxema *oshkor* deyiladi.

Quyida ayirmali sxemaning turg‘unligi va yaqinlashishi uchun zaruriy shartni chiqaramiz. Xususan, (6), (7), (8) sxemani $\tau \le 0{,}5h^2$ shart o‘rinli bo‘lsagina qo‘llash mumkinligini ko‘rsatamiz. Buning uchun (6) ga mos

$$\frac{u_{kj+1}-u_{kj}}{\tau}=\frac{u_{k+1j}-2u_{kj}+u_{k-1j}}{h^2} \tag{10}$$

bir jinsli tenglamani ko‘ramiz. (10) ning xususiy yechimini

$$u_{kj}^{(\varphi)}=q^j e^{ikh\varphi} \tag{11}$$

ko‘rinishida izlaymiz, bu yerda i – mavhum bir, φ – ixtiyoriy haqiqiy son va q – aniqlanishi lozim bo‘lgan noma’lum son. (11) ni (10) ga qo‘yib va $e^{ikh\varphi}$ ga qisqartirib

$$\frac{q-1}{\tau}=\frac{e^{ih\varphi}-2+e^{ih\varphi}}{h^2}$$

ni hosil qilamiz, bundan

$$q=1-4\alpha\sin^2\frac{h\varphi}{2},\quad \alpha=\frac{\tau}{h^2} \tag{12}$$

ekanligini topamiz. (11) ko‘rinishdagi yechim uchun mos $u_{k0}(\varphi)=e^{ikh\varphi}$ boshlang‘ich shartlar chegaralangan. Agar φ ning qandaydir qiymatida (11) dagi *q* moduli bo‘yicha birdan katta bo‘lsa, u holda $j\to\infty$ da (11) cheksiz o‘suvchi bo‘ladi. Bunday holda (10) ayirmali tenglama noturg‘un deyiladi, chunki yechimning boshlang‘ich shartlarga uzluksiz bog‘liqligi buziladi. Agar $|q|\le 1$ bo‘lsa, (11) ko‘rinishdagi yechimlar j ning ixtiyoriy qiymatida chegaralangan bo‘lgani uchun (10) ayirmali tenglama turg‘un deyiladi. (10) tenglama uchun $|q|\le 1$ shart ixtiyoriy φ uchun faqat $\alpha\le 0.5$ bo‘lgandagina bajariladi. Demak, (6), (7), (8) ayirmali sxemani $\tau\le 0,5h^2$ shart bajarilgandagina qo‘llash mumkin. Bunday ayirmali sxema *shartli turg‘un* deyiladi.

Endi oshkormas sxemani ko‘ramiz. Buning uchun (x_{i+1},t_{j+1}), (x_i,t_{j+1}), (x_{i-1},t_{j+1}) nuqtalarni (1) ni approksimatsiya qilish uchun jalb etamiz va natijada

$$\frac{u_{ij+1}-u_{ij}}{\tau}=\frac{u_{i+1j+1}-2u_{ij+1}+u_{i-1j+1}}{h^2}+f_{ij+1},\ i=0,1,...,N-1,$$
$$j=0,1,...,K-1$$
$$u_{i0}=\varphi_i \qquad i=0,1,...,N$$
$$u_{0j+1}=\psi_{0j+1},\ \ u_{Nj+1}=\psi_{1j+1},\ \ j=0,1,...,K-1. \tag{13}$$

ko‘rinishidagi oshkormas sxemaga ega bo‘lamiz. Bu sxema τ bo‘yicha birinchi, h bo‘yicha ikkinchi tartibli approksimatsiyaga ega. (13) ni quyidagicha yozamiz:

$$\alpha u_{i+1j+1}-(1+2\alpha)u_{ij+1}+\alpha u_{i-1j+1}=\tau f_{ij},$$
$$i=0,1,...,N-1,\quad j=0,1,...,K-1 \tag{14}$$
$$u_{0j+1}=\psi_{0j+1},\ u_{Nj+1}=\psi_{1j+1},\quad j=0,1,...,K-1$$

(14) chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi, uning matritsasi uch diagonalli, uni haydash usuli bilan yechish mumkin, chunki diagonal elementlari salmoqli.

(14) ayirmali sxema turg‘unligining zaruriy shartini chiqaramiz. Buning uchun

$$\frac{u_{ij+1}-u_{ij}}{\tau}=\frac{u_{i+1j}-2u_{ij}+u_{i-1j}}{h^2}$$

bir jinsli tenglamaning xususiy yechimini (11) ko‘rinishda izlaymiz va natijada

$$q=\left(1+4\alpha\sin^2\frac{h\varphi}{2}\right)^{-1},\ \ \alpha=\frac{\tau}{h^2}$$

ga ega bo‘lamiz. Demak, ixtiyoriy φ,τ, h larda $|q|\le 1$, ya’ni (13) ayirmali sxema absolut turg‘un. Absolut turg‘un sxemaning afzalligi shundaki, to‘r qadamlariga hech qanday shartning yo‘qligidir. Bu, o‘z navbatida, hisoblashdagi talab qilingan aniqlikni ta’min qilish uchun h va τ larni tanlash imkonini beradi.

Misol.

$\Gamma = \{0 < x < 1, 0 < t < 0.025\}$ sohada

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \qquad (1)$$

$$u(x,o) = \sin \pi x, \qquad (2)$$

$$u(x,o) = \sin \pi x \qquad (3)$$

differensial masalani to‘r metodi bilan $h = 0.1, \quad \alpha = 0.5$ bo‘lganda oshkor sxemadan foydalanib yeching.

Yechish. $\alpha = 0.5$ bo‘lganligi uchun $\tau = 0.005$ bo‘ladi. Berilgan masalani ayirmali masalaga o‘tkazamiz, u quyidagicha :

$$u_{i,j+1} = \frac{u_{i-1,j} + u_{i+1,j}}{2}, \quad i = 1,2,...,9, \quad j = 0,1,2,3,4 \qquad (1')$$

$$u_{i0} = \sin \pi x_i = \sin \pi \cdot 0.1i, \; i = 1,2,\ldots,10, \qquad (2')$$

$$u_{0j} = u_{10j} = 0, \qquad j = 0,1,2,3,4,5 \qquad (3')$$

Jadvalga boshlang‘ich va chegaraviy qiymatlarni yozamiz. Ularning simmetriyasidan foydalanib jadvalni faqat x=0; 0.1; 0.2; 0.3; 0.4; 0.5 lar uchun to‘ldiramiz. Yechimni birinchi qatlamidagi qiymatlarini (1’) da $j = 0$ desak,

$$u_{i,1} = \frac{u_{i-1,0} + u_{i+1,0}}{2}$$

formula bilan hisoblaymiz. Buning qiymatlarini jadvalning ikkinchi yo‘liga joylashtiramiz.

Endi (1’) da $j = 2$ deb,

$$u_{i,2} = \frac{u_{i-1,1} + u_{i+1,1}}{2}$$

formula bilan yechimning ikkinchi qatlamdagi qiymatlarini topamiz va jadvalning uchinchi yo‘liga yozib qo‘yamiz. Shu tariqa *t* ning 0.005; 0.010; 0.015; 0.020; 0.025 qiymatlari uchun yechimning qiymatlarini aniqlaymiz.

j	*X* / *t*	0	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5
0	0	0	0.3090	0.5878	0.8090	0.9511	1.0000
1	0.005	0	0.2939	0.5590	0.7699	0.9045	0.9511
2	0.010	0	0.2795	0.5316	0.7318	0.8602	0.9045
3	0.015	0	0.2658	0.5056	0.6959	0.8182	0.8602
4	0.020	0	0.2528	0.4808	0.6619	0.7788	0.8182
5	0.025	0	0.2404	0.4574	0.6294	0.7400	0.7788

NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM JARAYONIDAGI O’RNI

Xodjamqulov Umid Negmatovich
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika fakulteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi professori
Abdixodirova Go‘zal Erali qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika fakulteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada neyropedagogik texnologiyalarning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning o‘quvchilarning bilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari hamda pedagogik amaliyotga integratsiyalash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida neyropedagogika tamoyillari asosida qurilgan dars jarayonlarining o‘quv motivatsiyasi, diqqat barqarorligi va axborotni qayta ishlash samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, neyropedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib, kognitiv yukni optimallashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va metabilim ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot yakunida ushbu texnologiyalarni O’zbekiston ta’lim tizimiga mos holda joriy etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, ta’lim texnologiyalari, kognitiv jarayonlar, kognitiv yuk, metabilim, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В статье анализируется роль нейропедагогических технологий в современном образовательном процессе, их потенциал в поддержке когнитивного развития учащихся и механизмы интеграции в педагогическую практику. В ходе исследования изучено влияние уроков, построенных на нейропедагогических принципах, на учебную мотивацию, устойчивость внимания и эффективность переработки информации. Полученные данные показывают, что нейропедагогические технологии служат значимым инструментом повышения результативности обучения, оптимизации когнитивной нагрузки, индивидуализации подхода и формирования метакогнитивных навыков. В завершение представлены рекомендации по внедрению данных технологий в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: нейропедагогика, образовательные технологии, когнитивные процессы, когнитивная нагрузка, метакогниция, эффективность обучения.

Abstract. This article analyzes the role of neuropedagogical technologies in the modern educational process, their potential to support students’ cognitive development, and mechanisms of integration into pedagogical practice. The study investigates the impact of lessons designed according to neuropedagogical principles on learning motivation, attention sustainability, and information-processing efficiency. The findings demonstrate that neuropedagogical technologies are significant tools for enhancing learning outcomes, optimizing cognitive load, promoting individualized instruction, and developing metacognitive skills. The article concludes with recommendations for implementing these technologies within the educational system of Uzbekistan.

Keywords: neuropedagogy, educational technologies, cognitive processes, cognitive load, metacognition, learning effectiveness.

1. Kirish (Introduction)

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi inson miyasi faoliyatini o‘rganishga asoslangan metodlarga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda. Neyropedagogika – neyrobiologiya, kognitiv psixologiya va pedagogika chorrahasida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, o‘quv jarayonini miya faoliyatining tabiiy mexanizmlari bilan moslashtirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv ta’limning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi va kognitiv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda neyropedagogik texnologiyalardan foydalanish – o‘quvchilar diqqatini boshqarish, xotira jarayonlarini rivojlantirish, o‘rganishning neyrofiziologik qonuniyatlariga asoslangan dars modellarini ishlab chiqish bilan bog‘liq holda jadal rivojlanmoqda.

O’zbekistonda bu yo‘nalishning shakllanishi 2018–2025 yillarda kuchaydi va pedagogik jarayonda raqamli vositalar bilan uyg‘unlashgan neyropedagogik yondashuvlarga talab oshmoqda.

Maqolaning maqsadi – neyropedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlash, ularning o‘quvchilarning bilish faoliyatiga ta’sirini baholash hamda amaliy tatbiq etish mexanizmlarini taklif etishdir.

2. Metodlar (Methods)

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

2.1. Nazariy-tahliliy metodlar

- neyropedagogika bo‘yicha xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarni tahlil qilish;
- kognitiv psixologiya va ta’lim texnologiyalari nazariyalarini solishtirish;
- ta’lim jarayonida kognitiv yuk nazariyasi, metabilim va diqqat jarayonlarini o‘rganish.

2.2. Empirik metodlar

Tadqiqot Toshkent va Samarqand shaharlaridagi 4 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘tkazildi.

Ishtirokchilar:

- 6–8-sinf o‘quvchilaridan iborat 312 nafar respondent.

Tajriba tashkiloti:

- Eksperimental guruh (N = 156) – neyropedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda qatnashdi.
- Nazorat guruhi (N = 156) – an’anaviy dars texnologiyalari asosida o‘qitildi.

O’lchov vositalari:

- “Selective Attention Test”;
- “Cognitive Load Rating Scale”;
- motivatsiya indeksi so‘rovnomasi;
- dars jarayonining xronometraji.

Statistik tahlil: Student t-testi, Pearson korrelyatsiyasi.

3. Natijalar (Results)

3.1. Diqqat barqarorligi

Eksperimental guruhda diqqat testlari natijasi nazorat guruhiga nisbatan **18,6%** yuqori bo‘ldi ($p < 0,01$). Bu neyropedagogik darslarda multisensor yondashuv va ritmik faoliyatlardan foydalanish bilan izohlanadi.

3.2. Kognitiv yuk darajasi

Eksperimental guruhda kognitiv yuk balli o‘rtacha **22% kamaygan**, bu o‘quv materiali miyaning axborot qayta ishlash imkoniyatlariga moslashtirilganini ko‘rsatadi.

3.3. O’quv motivatsiyasi

Motivatsiya indeksi eksperimental guruhda **1,4 baravar** yuqoriroq bo‘ldi ($p < 0,05$). O’quvchilar darsni “qiziqarli”, “oson tushunarli”, “faol ishtirokni talab qiladi” deb baholashdi.

3.4. Akademik natijalar

Bir oylik sinovdan so‘ng umumiy akademik ko‘rsatkichlar eksperimental guruhda **15–19%** yuqori bo‘ldi.

4. Muhokama (Discussion)

Natijalar neyropedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonida sezilarli ijobiy ta’sirga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ular, avvalo:

1. **kognitiv yukni optimallashtiradi** – murakkab axborotni kichik bloklarga bo‘lish, vizual tayanchlardan foydalanish, aqliy faoliyat ritmini sozlash;
2. **diqqatni boshqarishga yordam beradi** – multisensor stimullar, harakatli faoliyatlar, ritmik o‘yinlar;
3. **motivatsiyani kuchaytiradi** – o‘quvchini faol subyekt sifatida jalb etish;
4. **metabilim ko‘nikmalarini shakllantiradi** – o‘z o‘rganish jarayonini kuzatish, baholash, tuzatish.

Shuningdek, tadqiqot O’zbekiston ta’limi uchun muhim bo‘lgan bir qancha xulosalarni ko‘rsatadi: texnologiyalarni o‘qituvchilarga o‘rgatish, ilmiy asoslangan metodik qo‘llanmalar yaratish, neyromiflarning oldini olish, dars jarayonini miya fiziologiyasi bilan uyg‘unlashtirish.

5. Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot neyropedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini optimallashtirishda, o‘quvchilar bilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashda va dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Keltirilgan natijalar ularni O’zbekistonning ta’lim tizimida keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

EMOTSIONALLIKNING LINGVISTIK TALQINI

Rakhmonova Amira Ulfatovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages
E-mail address: amirarakhmonova9128@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsionallikning lingvistik talqini, uning til tizimidagi funksiyalari, ifoda vositalari va ko‘p qatlamli semantik tabiati tahlil qilinadi. Mazkur maqola doirasida leksik, grammatik, fonetik va stilistik darajalarda emotsionallikni ifodalovchi birliklar keng misollar bilan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, turli nutq janrlaridan olingan misollar asosida emotsional bo‘yoqlangan til vositalarining kommunikativ, ekspressiv va baholoviy funksiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: emotsionallik, lingvistik talqin, kognitiv-emotiv mexanizmlar, emotsional semantika, stilistik vositalar, ekspressivlik, konnotativ ma’no, diskursiv emotsionallik, badiiy nutq, personaj hissiyotlari, emotiv birliklar, emotsional intensifikatsiya

Kirish

Tilshunoslikda emotsionallik tushunchasi og‘zaki yoki yozma nutqda ekspressivlikning asosiy ko‘rinishi sifatida baholovchi, hissiy bo‘yoqdor til birliklari yordamida namoyon bo‘ladi. L. A. Novikov “Matn semantikasi va stilistika” asarida emotsional vositalarni tilning ekspressiv semantik qatlamiga mansub va sub’ektiv munosabatni bildiruvchi vositalar qatoriga qo‘shadi (Novikov, 1992). Bunday birliklarning tadqiqi tilning nafaqat mantiqiy-informatsion, balki hissiy-kommunikativ tabiatini ham anglashga ko‘maklashadi. Emotsional birliklar yordamida ma’lum bir individual shaxs o‘z kayfiyati, munosabati, bahosi yoki psixologik holatini nutq sathida ifodalay oladi.

Tilshunoslikning eng muhim sohalaridan biri leksik qatlamda emotsionallik bo‘lib, so‘zlarning semantik, konnotativ va ekspressiv xususiyatlari orqali insonning hissiy munosabatini ifodalash imkoniyatlarini o‘rganadi. Leksik emotsionallik til tizimining barcha darajalarida kuzatilishi mumkin, lekin aynan leksik birliklar—so‘zlar, iboralar, frazeologizmlar—insonning his-tuyg‘ularini bevosita aks ettiruvchi vositalar sifatida o‘rganiladi.

Tilshunoslar leksik emotsionallikni uchta asosiy kategoriya orqali sharhlashadi:

1. denotativ ma’no – so‘zning asosiy lug‘aviy mazmuni;
2. konnotativ ma’no – hissiy, baholovchi yoki uslubiy qo‘shimcha ma’no;
3. ekspressivlik – so‘zning kuchaytiruvchi, ta’sirchanlik darajasi.

Shuning uchun, Shaxovskiy (1987) emotsional leksikani “denotativ mazmuni neytral bo‘lishi mumkin, ammo konnotativ qatlami kuchli bo‘lgan birliklar tizimi” sifatida ifodalaydi. Demak, “achchiq”, “yovuz”, “muloyim”, “muhabbat” kabi so‘zlar o‘z shaklida hissiy komponentni o‘z ichiga oladi.

Leksik emotsionallik masalasida ingliz tilshunosligida K. Palmer, D. Crystal, G. Leech, P. Wierzbicka kabi olimlar ham muhim ahamiyatga molik nazariy yondashuvlarni taklif qilishgan. Masalan, Leech (1981) konnotativ semantikaning emotsional, baholovchi va stilistik komponentlarini ajratib chiqib, emotsional (hissiy) ma’no “tilning ijtimoiy-psixologik funksiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri” ekanini haqida to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, u konnotativ ma’noni “emotional, evaluative and stylistic shading” deb ataydi. Bunda so‘zning denotativ neytral bo‘lishiga qaramay, uning emotsional konnotatsiyasi kuchli bo‘lishi mumkinligi kuzatiladi.

Masalan, *home* — faqat ‘uy’ emas, balki “iliqlik, xavfsizlik, yaqinlik” semalarini bildiradi. *Ona, yurt* — o‘zbek tilida kuchli emotsional-assotsiativ qiymatga ega.

Leksik emotsionallik tilning semantik tizimida alohida o‘rin egallagan murakkab lingvistik hodisa bo‘lib, so‘zlarning nafaqat denotativ mazmuni, balki ularning konnotativ, baholovchi va ekspressiv qatlamlari orqali namoyon bo‘ladigan hissiy bo‘yoqdorlikni talqin qiladi. So‘zning emotsional kuchi uning semantikasida, madaniyatning belgilarida va muloqot jarayonida vujudga keladi. Shu bois emotsionallikni o‘rganishda lingvistik, kognitiv, psixolingvistik va pragmalingvistik yondashuvlar uyg‘unlashadi.

Roland Barthes (1977) konnotatsiyani madaniy va psixologik kodlarning birikmasi sifatida talqin qilib, emotsional ma’no so‘zning jamiyatdagi kishilar ongida shakllangan qo‘shimcha ma’nolar ko‘lami” ekanini uqtiradi. Shaxovskiy (1987) esa emotsional leksikani “so‘zning hissiy reallikka nisbatan munosabatini aks ettiruvchi semalar majmui” sifatida izohlaydi. Keyinchalik, Wierzbicka (1999) konnotativ-emotiv semantikani “madaniy jihatdan xos konseptlar” sifatida izohlaydi. Masalan,

- *shame - or-nomus*,
- *pride - g‘urur*,
- *love - muhabbat.*

Bu birliklar denotativ mazmunga ega bo‘lish bilan birga, chuqur madaniy-assotsiativ qatlamni o‘zida mujassamlashtiradi.

Leksik emotsionallikning nazariy asoslari ko‘p yoqlama tadqiq qilingan bo‘lib, ushbu hodisa semantik, pragmatik stilistik yondashuvlar kesishgan joyida rivojlanadi. So‘zning emotsional ta’siri uning ichki semantik tuzilmalaridan tortib, madaniy kodlar, stilistik registr, nutq vaziyati va muloqot maqsadigacha bo‘lgan butun tizimga bog‘liqdir.

Aytish mumkinki, ekspressivlik bu so‘zning stilistik ta’sirchanligidir. U kuchaytirgichlar va stilistik vositalar bilan chambarchas bog‘liq. M. Vinogradov (1972) ekspressivlikni “so‘zning emotsional ohangini kuchaytiruvchi omil” deb ta’riflaydi. Misol uchun, ingliz tilida: *terribly happy, absolutely wonderful, utterly destroyed*. O’zbek tilida: *behad quvonch, o‘ta xavfli, behad go‘zal*. Ko‘pincha, ekspressivlik epitetlar, metaforalar kabi stilistik vositalar yordamida shakllanadi.

Emotsionallikning grammatik talqini tilning morfologik va sintaktik vositalari yordamida kodlash jarayonini anglatadi. O’zbek tilida grammatik emotsionallik, dastlab, affiksal mexanizmlar yordamida shakllanadi. Misol uchun, *“bolaginam”* -gin(a)/-kin(a) (mehr, erkalash), *“voy bechora-ku”* -voy/-ey (hayrat, achinish), -ku/-da (kuchli ta’kid) kabi qo‘shimchalar nutq subyektining hissiy kayfiyatini grammatik shaklga yuklaydi. Ingliz tilida esa affiksal emotsionallik deyarli rivojlanmagan bo‘lib, grammatik emotsional ma’no asosan modal fe’llar (*must, may, can’t*) orqali subyektiv munosabatni ifodalashi mumkin. Yordamchi fe’lning ta’kidlovchi shakli *“I do care!”* va exclamatory constructions *“How wonderful!”, “What a pity!”* orqali yuzaga chiqadi.

Sintaktik darajada o‘zbek tilidagi undov gaplar va ritorik murojaatlar jumladan, *“Ey azizlar!”, “Nega bunday bo‘ldi axir?!”* kabi birikmalar hissiy ekspressivlikni kuchaytiradi. Ingliz tilida esa exclamative sentences (undov gaplar) va rhetorical questions (ritorik savollar) kommunikativ-emotsional ta’sirni shakllantiradi. Har kkala tilda emotsionallik grammatik jihatdan ifodalanishi mumkin bo‘lsa-da, bu jarayon tillarning tipologik farqlariga mos ravishta amalga oshishini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni o‘zbek tili agglutinative bo‘lib affiksal vositalarga tayansa, ingliz tili analitik strukturalangan hisoblanib sintaktik qurilmalarga ko‘proq tayanadi. Bu holat grammatik emotsionallik universal xususiyatga ega bo‘lsa-da, har bir til o‘z tizimiga xos farqlanishini ko‘rsatadi.

Emotsionallikning fonetik talqini nutq subyektining hissiy kayfiyatini fonetik vositalar orqali ifodalashni anglatadi. O’zbek tilida bu hodisa asosan intonatsiya, ritm, urg‘u va affiksal fonemalar yordamida yuzaga chiqadi; masalan, undov va murojaat konstruktsiyalari *“Ey azizlar!”* yuqori ohang bilan auditoriyada diqqat va hayrat uyg‘otadi, shuningdek, suffikslar (*-gin(a), -voy, -ku*) samimiylik va mehrni aks ettiradi (Kohestanov, 2019). Ingliz tilida esa fonetik emotsionallik intonatsiya, eksklamativ gaplar, modal fe’llar va ritmik strukturalar orqali ifodalanadi: Winston Churchillning nutqidagi *“We shall never surrender!”* qat’iyat va hayajonni fonetik jihatdan

kuchaytiradi, Virginia Woolfning *“How wonderful life is!”* jumlasi esa hayrat va quvonchni aks ettiradi (Austin, 1962; Wierzbicka, 1999). Shunday qilib, o‘zbek tilida emotsionallik ko‘proq affiksal va intonatsion vositalar bilan ifodalanadigan bo‘lsa, ingliz tilida u sintaktik struktura va modalitet orqali shakllanadi, bu esa fonetik emotsionallikning universal funksiyasi va tilga xos mexanizmlarini ko‘rsatadi (Huddleston & Pullum, 2002; Palmer, 2001).

Emotsionallikning stilistik talqini nutq yoki matnning leksik, morfologik va sintaktik vositalari orqali hissiy rangini shakllantirish jarayonidir. O’zbek tilida badiiy va siyosiy diskurslarda bu hodisa epitetlar, metaforalar, undovlar va takrorlar orqali yuzaga chiqadi; masalan, Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida *“jonajon Vatanimiz”* yoki *“aziz xalqimiz”* kabi birikmalar auditoriyada mehr, faxr va birdamlik hissini uyg‘otadi (Mirziyoyev, 2017). Ingliz tilida esa stilistik emotsionallik epitet, metafora, eksklamativ gap va ritmik takrorlar orqali ifodalanadi; masalan, Winston Churchillning *“These are not dark days; these are great days”* jumlasi auditoriyaga ruhlantiruvchi va optimistik kayfiyat beradi, Franklin D. Rooseveltning *“The only thing we have to fear is fear itself”* jumlasi esa salbiy emotsiyani kuchaytirish orqali ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi (Austin, 1962; Wierzbicka, 1999). Shunday qilib, o‘zbek va ingliz tillarida stilistik emotsionallik bir xil funksiyani bajaradi — auditoriyada hissiy ta’sir yaratish va nutqning ekspressivligini oshirish — ammo ifodalanish vositalari tilning leksik-stilistik va madaniy xususiyatlariga mos ravishda farqlanadi (Huddleston & Pullum, 2002; Palmer, 2001).

Xulosa. Emotsionallik til tizimining barcha darajalarida — leksik, grammatik, fonetik va stilistik qatlamlarda — o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladigan murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. Leksik sathda u so‘zlarning denotativ mazmunidan tashqari konnotativ, baholovchi va ekspressiv komponentlari orqali yuzaga chiqsa, grammatik darajada affiksal vositalar (o‘zbek tilida) va sintaktik-modallik konstruktsiyalari (ingliz tilida) orqali kodlanadi. Fonetik sathda intonatsiya, urg‘u, ritm kabi prosodik vositalar hissiy yukni kuchaytiradi, stilistik talqinda esa epitet, metafora, takror, undov kabi badiiy-uslubiy birliklar orqali emotsional ta’sirga erishiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili emotsionallikni asosan affiksal, intonatsion va murojaat shakllari orqali ifodalashga moyil bo‘lsa, ingliz tili sintaktik qurilmalar, modalitet va ritmik strukturalarga tayanadi. Shunga qaramay, har ikki tilda emotsional birliklarning asosiy funksiyasi bir xil — nutq subyektining hissiy munosabatini yetkazish, kommunikativ ta’sirchanlikni oshirish va muloqot jarayonida baholovchi ohang yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press.
2. Barthes, R. (1977). *Image-Music-Text.* London: Fontana Press.
3. Churchill, W. (1940). *Speeches of Winston Churchill*. London: Cassell & Co.
4. Huddleston, R., & Pullum, G. (2002). *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Kohestanov, Q. (2019). *O’zbek tilida emotiv birliklar semantikasi*. Toshkent: O’zMU nashriyoti.
6. Leech, G. (1981). *Semantics: The Study of Meaning.* London: Penguin Books.
7. Mirziyoyev, Sh. (2017). *Nutqlar va murojaatlar.* Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
8. Novikov, L. A. (1992). *Matn semantikasi va stilistika.* Moskva: Nauka.
9. Palmer, F. R. (2001). *Mood and Modality*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Rahmanova, A. (2021). O ‘. HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA BADIIY PERSONAJLARNING ICHKI HISSIYOTLARINI NAMOYON ETISHDA METAFORANING O’RNI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, *2*(3).
11. Rakhmonova, A. (2021). Stylistic Peculiarities of Expressing Inner Emotions of Personages in Uzbek and English Novels. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.
12. Rakhmonova, A. U. (2017). Some common-faced lingual problems in learning English language by Uzbek students. *Ученый XXI века*, 37.
13. Rakhmonova, A., & Abduhakimova, Z. (2024). Pragmalinguistic aspects of emotiveness in English language. *Pedagogs*, *51*(1), 167-170.

14. Raxmonova, A. U. (2021). POSITIVE AND NEGATIVE CLASSIFICATION OF EMOTIONS. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (8-1), 12-17.
15. Roosevelt, F. D. (1933). *Inaugural Address, March 4, 1933.* Washington, D.C.: US Government Printing Office.
16. Sayfullayeva, R. & Mengliyev, B. (2017). *Hozirgi o‘zbek tili: Morfologiya.* Toshkent: Fan nashriyoti.
17. Shaxovskiy, I. (1987). *Emotsionalnaya leksika v russkom yazyke*. Moskva: Vysshaya Shkola.
18. Vinogradov, M. (1972). *Russkaya stilistika.* Moskva: Nauka.
19. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions Across Languages and Cultures.* Cambridge: Cambridge University Press.
20. Woolf, V. (1925). *Mrs Dalloway*. London: Hogarth Press.

KIMYO FANIDA O’QUVCHILAR BILIMINI MONITORING QILISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ismoilov Qurbon Quvvatovich
Sh.Rashidov tuman 1-maktab
Mardanov Ravshan Abdullayevich
G‘allaorol tumani 79-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo ta’limida o‘quvchilar bilimini monitoring qilish jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Google Classroom, Google Forms, Google Docs va Google Drive kabi xizmatlarning kimyo fanida testlar, virtual laboratoriyalar, topshiriqlar va laboratoriya hisobotlarini real vaqt rejimida baholashga qaratilgan funksiyalari yoritiladi. Bulutli texnologiyalar ta’lim jarayonini raqamlashtirish, o‘quvchilar faoliyatini individual kuzatish va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi samarali axborot almashinuvini ta’minlashga xizmat qilishi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: bulutli texnologiyalar, kimyo ta’limi, bilim monitoringi, Google Classroom, Google Forms, virtual laboratoriya, raqamli pedagogika, AKT.

Abstract: This article analyzes the advantages and effectiveness of using cloud technologies in monitoring students’ knowledge in chemistry education. The study highlights the functional capabilities of Google Classroom, Google Forms, Google Docs, and Google Drive in administering tests, conducting virtual laboratory activities, assigning tasks, and evaluating laboratory reports in real time. The findings demonstrate that cloud services contribute to the digitalization of the learning process, enable individualized student tracking, and enhance teacher–student communication in chemistry instruction.

Key words: cloud technologies, chemistry education, knowledge monitoring, Google Classroom, Google Forms, virtual laboratory, digital pedagogy, ICT.

Kirish. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa kimyo fanida virtual laboratoriyalar, onlayn tajribalar, simulyatorlar va bulutli servislar o‘quvchilar bilimini aniq baholashda katta imkoniyatlar yaratmoqda. “Bulutli texnologiyalar” — bu tarqatilgan ma’lumotlarni internet orqali qayta ishlashga imkon beruvchi xizmatlar bo‘lib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Internet tarmog‘ining tezligi ortishi klient-server modelidan bulutli hisoblash modeliga o‘tishga imkon berdi va bugungi kunda o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham bulutli xizmatlardan oson foydalanmoqda.

Kimyo fani o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tahlil qilish, tajriba natijalarini solishtirish, haqiqiy kimyoviy jarayonlarni modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois bulutli texnologiyalardan foydalanish kimyo fanida bilim monitoringini samarali tashkil etishning eng qulay vositasiga aylandi.

Metodlar (Methods)

Maqolada kimyo fani o‘qituvchilari tomonidan bulutli texnologiyalar asosida tashkil etiladigan monitoring jarayonlarini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqot Google ilovalari —

Google Classroom, Google Forms, Google Docs, Google Drive, YouTube, Google Calendar kabi xizmatlardan foydalanishning samaradorligini tahlil qilishga asoslangan.

Bulutli texnologiyalarning uch asosiy modeli o‘rganildi:

- **SaaS** — tayyor dasturlar asosida kimyo testlari, virtual laboratoriyalar yaratish.
- **PaaS** — kimyo jarayonlarini modellashtiruvchi mini-dasturlarni joylashtirish.
- **IaaS** — katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlari, video-tajribalar, laboratoriya natijalarini saqlash.

Kimyo o‘qituvchilarining Google Classroom asosida kurs yaratishi, topshiriqlar berishi, tahliliy jadval shakllantirishi va o‘quvchi natijalarini Monitoring qilish jarayoni amaliy asos sifatida tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bulutli texnologiyalar kimyo fanida o‘quvchilar bilimini baholash sifatini sezilarli darajada oshiradi:

1. Google Forms orqali testlar

- real vaqt rejimida avtomatik tekshiruv;
- xatolar bo‘yicha tezkor tahlil;
- o‘quvchining individual o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish imkoniyati.

2. Google Classroom yordamida topshiriqlar monitoringi

- har bir o‘quvchining bajarilgan laboratoriya ishlari alohida papkalarda saqlanadi;
- muddat belgilangan topshiriqlar;
- bajarilmagan ishlar avtomatik qayd etiladi.

3. YouTube orqali video-laboratoriyalar

- xavfsiz kimyo tajribalarini masofadan o‘rganish;
- tajriba jarayonlarini takror-takror ko‘rib chiqish imkoniyati;
- o‘quvchilarda amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

4. Google Docs va Google Drive

- guruh bo‘lib kimyoviy masalalarni yechish;
- umumiy laboratoriya hisobotini birgalikda tayyorlash;
- o‘qituvchi tomonidan real vaqt baholash imkoniyati.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bulutli texnologiyalar kimyo fanida tezkor teskari aloqa (feedback) yaratadi, o‘quvchilar faolligini oshiradi va individual o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Muhokama va Xulosa

Kimyo fanida bulutli texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilar bilimini monitoring qilishni, balki ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil etishni ta’minlaydi. Google ilovalari yordamida o‘quvchilar mustaqil izlanishga, o‘z natijalarini solishtirishga, laboratoriya ishlari va tajribalarni virtual tarzda bajarishga o‘rganadilar.

Bulutli xizmatlarning qulayliklari:

- bepul va barcha qurilmalarda ishlaydi;
- qog‘ozsiz ta’lim tizimini yaratadi;
- kimyoviy jarayonlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot yaratadi;
- individual yondashuv imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, bulutli texnologiyalar kimyo ta’limida o‘quvchilar bilimini sifatli monitoring qilish, real vaqt rejimida baholash va kimyoviy jarayonlarning virtual modellaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori. 19.02.2018 y. №PQ–5349.

2. Delov T.E. “Bulutli texnologiyalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent: TATU, 2020. — 217 b.
3. www.ziyonet.uz
4. www.kitob.uz
5. www.tdpu.uz

CULTURE OF INFORMATION DISSEMINATOIN IN THE MEDIA SPACE

Yuldasheva Ziyada Tulqin qizi
Student of the “Applied mathematics” department of Chirchik State Pedagogical University
yuldashevaziyoda445@gmail.com
+998913760106

Annotatsiya. Media maydonida axborot tarqatish madaniyati jamoatchilik ongini shakllantirish, shaffoflikni ta’minlash, axloqiy jurnalistikani targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi. Raqamli asrda axborotning tez tarqalishi noto‘g‘ri ma’lumotlarning oldini olish uchun axloqiy me’yorlarga qat’iy rioya qilishni, aniqlik va ishonchlilikni talab qiladi. Ushbu maqolada axborotni tarqatish tamoyillari, ommaviy axborot vositalari etikasining jamiyatga ta’siri va raqamli transformatsiya bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, unda OAV faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazalar va ularning axborot yaxlitligini saqlashdagi roli qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: media madaniyati, axborotni tarqatish, jurnalistika etikasi, raqamli media, ommaviy axborot vositalarini tartibga solish, axborot yaxlitligi.

Аннотация. Культура распространения информации в медиапространстве играет ключевую роль в формировании общественного сознания, обеспечении прозрачности и продвижении этической журналистики. В цифровую эпоху быстрое распространение информации требует строгого соблюдения этических стандартов, точности и надежности для предотвращения дезинформации. В данной статье рассматриваются принципы распространения информации, влияние этики СМИ на общество и проблемы, возникающие в связи с цифровой трансформацией. Также в ней дается краткий анализ нормативно-правовых рамок, регулирующих деятельность СМИ, и их роли в поддержании целостности информации.

Ключевые слова: медиакультура, распространение информации, журналистская этика, цифровые СМИ, регулирование СМИ, целостность информации.

Abstract. The culture of information dissemination in the media space plays a key role in shaping public awareness, ensuring transparency, and promoting ethical journalism. In the digital age, the rapid spread of information requires strict adherence to ethical standards, accuracy, and reliability to prevent misinformation. This article examines the principles of information dissemination, the influence of media ethics on society, and the challenges posed by digital transformation. It also provides a brief analysis of regulatory frameworks governing media activities and their role in maintaining information integrity.

Keywords: media culture, information dissemination, journalism ethics, digital media, media regulation, information integrity.

Introduction. In the modern digital era, the culture of information dissemination in the media space has undergone profound transformations. The rapid development of digital platforms has democratized content creation and distribution, allowing individuals and organizations to reach global audiences instantly. However, this democratization has also introduced challenges in ensuring the accuracy, reliability, and ethical standards of disseminated information.

- *The Role of Social Media in Information Dissemination*

Social media plays a crucial role in the spread of information. According to a Pew Research Center study, 54% of U.S. adults regularly or occasionally obtain news from social media, highlighting its growing influence on news consumption. Platforms like Facebook and YouTube are the leading sources, with nearly one-third of American adults relying on them for news. Instagram

(20%) and TikTok (17%) are also emerging as significant news sources among younger demographics.

- *Age-Dependent Information Consumption*

Different age groups show significant variations in how they consume information. For example, 52% of TikTok users get news from the platform, a sharp increase from 43% in 2023 and 22% in 2020. This growth reflects TikTok's rising role as a primary news source for younger audiences.

- *Decline of Traditional Media*

Traditional media, particularly cable television, has experienced a decline in viewership among younger audiences. During the 2024 U.S. presidential elections, new media platforms such as podcasts, TikTok, and social media outperformed traditional television and newspapers. Notably, **Donald Trump**'s interview on the **Joe Rogan** podcast attracted millions of viewers, underscoring the growing dominance of alternative media.

- *Ethical Considerations in Information Dissemination*

Ethical information dissemination remains a cornerstone of responsible journalism. Adhering to principles of accuracy, fairness, and accountability is essential for maintaining public trust and supporting democratic processes. However, challenges such as the spread of misinformation and the economic pressures on traditional media persist. The rapid circulation of false information on social media can shape public opinion in harmful ways, emphasizing the need for stronger ethical guidelines and regulatory frameworks.

- *Future Predictions*

The rise of digital platforms is expected to continue, bringing new challenges and opportunities for the culture of information dissemination. For instance, TikTok's user base is projected to reach 1.2 billion in 2024, a significant increase from 800 million in 2021. This trend underscores the platform's growing influence among younger audiences.

- *Conclusion*

The culture of information dissemination is evolving under the influence of digital platform growth, shifting audience behaviors, and ethical considerations. Understanding these dynamics is crucial for fostering informed citizenship and developing a media environment that encourages constructive public discourse.

Literature analysis. The dissemination of information within the media landscape has been extensively studied, with a focus on the dynamics introduced by digital platforms. A comprehensive literature review reveals several key themes influencing information dissemination:

- *Social Media's Role in Information Dissemination*

Social media platforms have democratized information sharing, allowing individuals to bypass traditional media gatekeepers. This shift enables users to share personal narratives and perspectives directly. For instance, during the Arab Spring, platforms like Twitter and Facebook were instrumental in organizing protests and disseminating real-time updates, highlighting the power of social media in mobilizing societal change.

- *Challenges of Misinformation*

The rapid spread of information on social media also facilitates the dissemination of misinformation. Sensational or false content often garners significant attention, exacerbated by algorithms prioritizing engaging material. This environment can lead to echo chambers, where users are predominantly exposed to information reinforcing their existing beliefs, thereby limiting exposure to diverse perspectives.

- *User Influence in Information Dissemination*

User influence significantly affects information dissemination on social media. Users with substantial followings can mobilize their networks to rapidly spread information. Research indicates that influential users can have a pronounced impact on the reach and speed of information dissemination, particularly during public health emergencies.

- *Government Use of Social Media*

Government entities utilize social media to disseminate information and engage with the public. Studies show that government ministries primarily direct users to internal Facebook pages rather than official websites. Content such as operations, events, and symbolic acts containing visual elements like photos or videos tend to generate higher engagement levels.

- *The Streisand Effect*

Attempts to suppress information can inadvertently lead to increased public attention, a phenomenon known as the Streisand Effect. Efforts to hide or censor information often result in greater dissemination, driven by human curiosity and psychological reactance. This underscores the importance of transparency in information management.

Methodology. To analyze the culture of information dissemination in the media space, a mixed-methods approach was employed, integrating quantitative data analysis with qualitative content examination.

➢ Quantitative Analysis

Data was collected from various social media platforms to assess patterns in information dissemination. Metrics such as share rates, user engagement levels, and the influence of user demographics were analyzed to identify trends and correlations. For example, the sharing rate was used as a measure of information dissemination effectiveness, considering factors like content relevance and feedback mechanisms.

➢ Qualitative Content Analysis

A content analysis of government social media posts was conducted to understand the characteristics of highly engaging content. This involved examining the types of content posted, the presence of visual elements, and the nature of the messages conveyed. The analysis aimed to identify content strategies that effectively engage the public and promote information dissemination.

➢ Case Studies

Specific instances, such as the Arab Spring and the Streisand Effect, were analyzed to understand the real-world implications of information dissemination strategies. These case studies provided insights into how information spreads in different contexts and the consequences of attempts to control or suppress information.

➢ Statistical Tools

Advanced statistical tools and software were utilized to analyze the collected data. Techniques such as regression analysis and network analysis helped identify patterns and relationships within the data, providing a comprehensive understanding of information dissemination dynamics.

By employing this multifaceted methodology, the study aims to provide a nuanced understanding of the factors influencing information dissemination in the modern media landscape, considering both the opportunities presented by digital platforms and the challenges they pose.

Results. The study of information dissemination culture within the media landscape reveals several significant trends, reflecting the evolving dynamics of news consumption, platform preferences, and public engagement.

1. Declining Interest in News and Politics

Recent data indicates a notable decrease in public interest in news and political affairs. Across 12 tracked markets, interest in news has declined from 66% in 2018 to 49% in 2024. Similarly, political interest has fallen from 45% to 30% over the same period. In the United Kingdom, interest in news has nearly halved, dropping from 70% in 2015 to 38% in 2024.

2. Rise in News Avoidance

There is an increasing trend of selective news avoidance among audiences. Approximately 39% of respondents now report sometimes or often avoiding the news, up from 36% in the previous year and 29% in 2017. This phenomenon is particularly pronounced in countries like Brazil, Spain, Germany, and Finland. In the UK, news avoidance has nearly doubled, rising from 24% in 2017 to 46% in 2024.

3. Shifts in Platforms for News Consumption

The platforms through which audiences consume news are undergoing significant changes:

Decline of Facebook: Weekly usage of Facebook for news has decreased from 36% in 2014 to 26% in 2024 across 12 countries.

Rise of Video Platforms and Messaging Apps: Platforms such as YouTube, Instagram, and WhatsApp have seen increased usage for news consumption. Notably, TikTok, a relatively new entrant, has achieved a weekly news usage rate of 8%, approaching Twitter's 11%.

4. *Demographic Variations in Platform Usage*

Younger adults are increasingly turning to platforms like TikTok for news. As of 2024, 39% of U.S. adults under 30 regularly get news from TikTok, compared to 19% of those aged 30 to 49, 9% of those aged 50 to 64, and 3% of those 65 and older.

5. *Impact of Misinformation and Fragmentation*

The proliferation of misinformation and the fragmentation of information sources have contributed to political polarization and the formation of information bubbles. This fragmentation leads to different groups encountering divergent versions of reality, exacerbating ideological divides and democratic dysfunction.

6. *Political Engagement through Digital Strategies*

Political entities are adapting to the changing media landscape by employing new digital strategies. For instance, the Democratic Party in the United States has collaborated with online influencers and content creators to enhance engagement, aiming to resonate with audiences increasingly reliant on social media for news. This approach seeks to boost online interaction, reflecting a shift towards modern digital campaigning.

7. *Media Literacy Initiatives*

Efforts to address media literacy are emerging as a response to the challenges posed by media manipulation and misinformation. Literary works, such as Suzanne Collins' "Sunrise on the Reaping," explore themes of media manipulation and propaganda, emphasizing the importance of critical media consumption and the recognition of persuasive communication techniques.

Discussion. The evolution of information dissemination within the media landscape presents a multifaceted and intricate scenario, characterized by technological advancements, shifting user behaviors, and emerging ethical considerations.

1. *Transition from Public to Private Sharing*

Recent trends indicate a significant shift from public to private sharing on social media platforms. Despite platforms like TikTok boasting over a billion monthly users and Facebook logging over two billion daily users, the nature of user interaction has evolved. Users, particularly teenagers, are increasingly favoring private messages over public posts due to concerns about privacy, professional repercussions, harassment, and data misuse. This shift has led to increased usage of private messaging platforms such as WhatsApp, Messenger, and Telegram, as well as the rise of discussion spaces like Facebook groups and Discord servers. Consequently, users are becoming more passive consumers of content, with influencers dominating public postings, resembling a new form of digital television where few create content and many spectate.

2. *The Streisand Effect and Information Suppression*

The Streisand Effect illustrates how attempts to suppress information can inadvertently amplify its dissemination. This phenomenon is driven by human curiosity and psychological reactance, where individuals become more interested in information perceived as forbidden. Social media platforms exacerbate this effect by enabling rapid dissemination of suppressed content, often as acts of resistance. This underscores the importance of transparent handling of sensitive information to avoid unintended amplification.

3. *Influence of Algorithms and Filter Bubbles*

Social media algorithms curate content based on user behavior and preferences, enhancing user experience but also creating filter bubbles. These filter bubbles limit exposure to diverse perspectives, reinforcing existing biases and potentially spreading misinformation. This phenomenon underscores the need for media literacy programs to equip users with critical thinking skills necessary to navigate the digital information landscape effectively.

4. *Social Media as a Tool for Propaganda*

The role of social media in disseminating propaganda has become increasingly evident. For instance, Tenet Media, a Tennessee-based network producing content for right-wing influencers, was allegedly funded by Russia's state-backed RT to spread Kremlin-approved disinformation via social media. This case highlights how social media platforms can be exploited to influence public opinion and underscores the necessity for stringent digital media regulations to safeguard democratic processes.

5. *Public Concerns About Misinformation*

A survey conducted by **the International Panel on the Information Environment** (IPIE) among 412 academic researchers identified social media platform owners, politicians, and governments as primary threats to a trustworthy online news environment. Concerns were raised about the control over content distribution and moderation policies, which significantly affect information quality and integrity. Additionally, about two-thirds of respondents expect the information environment to deteriorate, particularly with the rise of AI-generated content, emphasizing the need for measures like promoting independent media, digital literacy campaigns, and fact-checking to combat misinformation.

6. *Regulatory Measures and the Future of Digital Media*

The increasing prevalence of misinformation and fragmented media has led to calls for better regulation of digital media. Former President **Barack Obama** highlighted the risks of an "epistemological crisis" where fragmented media and an absence of shared reality undermine democracy. The UK's Online Safety Act serves as a starting point for stringent digital media regulation, aiming to safeguard democracy by addressing the unchecked spread of disinformation and hate speech on social media platforms.

In conclusion, the culture of information dissemination in the media space is undergoing significant transformations, influenced by technological advancements, user behavior shifts, and ethical challenges. Addressing these issues requires a multifaceted approach, including enhancing media literacy, implementing effective regulatory frameworks, and promoting transparency to ensure the integrity of information in the digital age.

References:

- Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) (2014). Climate Change 2014: Mitigation of Climate Change.
- International Center for Digital Research and Communication (ICDRC) (2024). The Impact of Social Media on Information Dissemination. Retrieved from icdrc.org.
- International Energy Agency (IEA) (2016). Energy Technology Perspectives 2016.
- Le Monde (2024). Has the Reign of Social Media Ended? Retrieved from lemonde.fr.
- Pew Research Center. (2024). Social Media and News Fact Sheet. (disa.org)
- The Guardian (2024). Social Media Owners Survey Highlights Misinformation Concerns. Retrieved from theguardian.com.
- The Guardian (2024). The Case for Better Digital Media Regulation. Retrieved from theguardian.com.
- The Wall Street Journal. (2024). Trump's Win Cemented It: New Media Is Leaving the Old Guard Behind. (wsj.com)
- Toxigon. (2024). Social Media Statistics 2024: Key Trends and Insights. (toxigon.com)
- United States Environmental Protection Agency (EPA). Urban Runoff: Effects on Water Quality.
- Verywell Mind (2024). The Streisand Effect: How Censorship Backfires. Retrieved from verywellmind.com.
- Wired (2024). Right-Wing Influencer Network Tenet Media Allegedly Spread Russian Disinformation. Retrieved from wired.com.

- World Health Organization (WHO) (2016). Ambient Air Pollution: A Global Assessment of Exposure and Burden of Disease.
- World Health Organization (WHO) (2020). Ambient Air Pollution: A Global Assessment of Exposure and Burden of Disease.

BIOLOGIYA TA’LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Abduraxmonova Mujassam Oribjon qizi
mujassamahmedova866@gmail.com
+998500736575

Ma’lumki, XXI asrda biologiya ta’limi global ta’lim siyosatining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida inson kapitalini shakllantirishda, ekologik ongni yuksaltirishda hamda bioiqtisodiyotga asoslangan innovatsion taraqqiyotning poydevorini yaratishda muhim o‘rin tutmoqda. Juda kO’p xalqaro tashkilotlar, jumladan, OECD, UNESCO, World Bank va PISA kabilarning ta’lim standartlari biologiyani faqat faktologik bilimlar majmuasi emas, balki tahliliy fikrlash, ilmiy tadqiqot olib borish kompetensiyalari, ekologik madaniyat va hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi fan sifatida rivojlantirishni talab qilmoqda.

Shu sababli, O’zbekistonda so‘nggi yillarda biologiya ta’limining mazmunini yangilash, ilmiy-bioinnavatorlarni joriy etish, STEAM yo‘nalishlarini kengaytirish hamda tadqiqotga asoslangan pedagogik yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ularni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarning yetishmasligi, laboratoriya infratuzilmasining hududlar bo‘yicha farqi, o‘qituvchilarning innovatsion metodlar bo‘yicha malakasi hamda raqamlashtirish darajasi bO’yicha tajribasining kamligi kabi muammolar mavjud.

Maqolaning maqsadi — ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy biologiya ta’limi bilan qiyosiy o‘rganish, dolzarb muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlarni taklif qilishdan iborat.

Biologiya ta’limi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dunyo miqyosida zamonaviy ta’lim tizimi quyidagi bir nechta asosiy tendensiyalarga tayanadi:

-*Inquiry-Based Science Education (IBSE)* – o‘quvchini mustaqil izlanishga undovchi tadqiqot metodlari;

-*Project-Based Learning (PBL)* – biologik muammolarni yechishga qaratilgan loyiha ishlari;

-*STEAM integratsiyasi* – biologiyani matematika, texnologiya, muhandislik va san’at bilan bog‘liq holatda o‘qitish;

-*Virtual va AR/VR laboratoriyalar* – tajribalarni xavfsiz, arzon va samarali tashkil etish;

-Ekologik monitoringga asoslangan dala mashg‘ulotlari – biologiyani real hayot jarayonlari bilan bog‘lash.

Avvalo, **Inquiry-Based Science Education (IBSE)** modeli o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil tadqiqot olib boruvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv Yevropa Ittifoqi, AQSh va Singapur kabi mamlakatlarda ilmiy savodxonlikni oshirishning asosiy strategiyasi sifatida qo‘llanilib, eksperimentlarni o‘quvchining o‘zi rejalashtirishi va xulosalashi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, **Project-Based Learning (PBL)** metodikasi biologiyani real hayotdagi muammolar bilan bog‘lash imkonini beradi. Xalqaro amaliyotda PBL ekologiya, genetika, sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarda, masalan, o‘quvchilarning mahalliy ekologik muammolarni o‘rganish, mikrobiologik jarayonlarni modellashtirish orqali chuqur fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv ayniqsa Finlyandiya va Janubiy Koreya ta’lim tizimlarida muvaffaqiyatli tatbiq etilganligini kO’rishimiz mumkin.

STEAM integratsiyasi esa biologiyani matematika, texnologiya, muhandislik va san’at fanlari bilan uyg‘un holda o‘qitishni nazarda tutadi. AQSh, Yaponiya va Avstraliya maktablarida STEAM biologiyani o‘rganishda ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishda asosiy platformalardan biridir.

So‘nggi yillarda **virtual laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalari** ta’limda alohida o‘rin egallamoqda. Ular tajribalarni xavfsiz, arzon va yuqori aniqlikda o‘tkazish imkonini yaratadi. Virtual mikroskopiya, VR orqali anatomik tuzilmalarni uch o‘lchamli ko‘rish, molekulalar modellarini manipulyatsiya qilish kabi jarayonlar Koreya, Germaniya va Kanada ta’lim tizimlarida keng qo‘llanilmoqda.

KO’pchilikka ma’lumki, biologiyani amaliyotga yaqinlashtirishda **ekologik monitoring va dala mashg‘ulotlari** muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro amaliyotda dala darslari bioxilma-xillikni o‘rganish, suv havzalarining sifatini baholash, o‘simlik va hayvonot populyatsiyalarini kuzatish kabi jarayonlarga asoslanadi. Ayniqsa, Skandinaviya davlatlari va Yangi Zelandiya maktablarida dala mashg‘ulotlari ekologik xavfsizlik va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishning samarali usuli sifatida e’tirof etilgan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar kompleks qo‘llanildi:

1.Qiyosiy tahlil metodi. Singapur, Finlandiya, Estoniya va Janubiy Koreya kabi ilg‘or ta’lim tizimlariga ega davlatlarning biologiya ta’limi bo‘yicha tajribalari O’zbekiston ta’lim modeli bilan tizimli ravishda solishtirildi. Bu orqali o‘quv dasturlarining tuzilishi, o‘qitish texnologiyalari va baholash mexanizmlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, samarali elementlar ajratib olindi.

2.Kontent-analiz metodi. Biologiya faniga oid o‘quv dasturlari, amaldagi Davlat ta’lim standartlari, xalqaro metodik tavsiyalar (OECD, UNESCO, TIMSS/PISA hujjatlari) hamda baholash tizimlari mazmun jihatdan tahlil qilindi. Ushbu yondashuv innovatsion ta’lim kontseptsiyalarining qamrovi va ularning amaliy talablardagi aksini baholash imkonini berdi.

3.Ekspert so‘rovi. Empirik ma’lumotlarni aniqlashtirish maqsadida 42 nafar umumta’lim maktablari biologiya o‘qituvchilari, 9 nafar hududiy metodist va 6 nafar oliy ta’lim muassasalari mutaxassislari o‘rtasida ekspert so‘rovi o‘tkazildi. Olingan fikrlar orqali biologiya ta’limidagi amaldagi muammolar, ehtiyojlar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlab olindi.

4.Analitik–interpretativ yondashuv. Xalqaro ilg‘or tajribalar milliy ta’lim tizimi sharoitlari bilan uyg‘unlikda qayta ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv innovatsion metodlarni mahalliy amaliyotga moslashtirish, ularning samaradorligini baholash va milliy model uchun optimal takliflarni shakllantirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot davomida xalqaro ta’lim tizimlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, biologiya o‘qitish metodikasi global miqyosda kompetensiyaga yo‘naltirilgan, amaliy faoliyatga asoslangan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan shaklga o‘tmoqda. Singapur va Janubiy Koreya tajribasida biologiya fani o‘quvchining ilmiy tadqiqot olib borish salohiyatini rivojlantirishga qaratilgani, o‘quv jarayonida metafan (metacognitive) strategiyalar keng qo‘llanilgani kuzatildi. Finlandiyada esa biologiya o‘qitish tabiatshunoslik fanlarining integratsiyasi, loyihaviy yondashuv va ekologik barqarorlik kompetensiyalariga tayangan holda tashkil etiladi.

Estoniya tajribasi raqamli laboratoriyalar, sensor qurilmalar va onlayn monitoring tizimlaridan foydalanish orqali o‘quvchilar tajribaviy faoliyatini kengaytirib, o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishayotganini tasdiqladi. Ekspertlar fikrlariga ko‘ra, O’zbekiston ta’lim tizimi uchun aynan ushbu jihatlar — ya’ni raqamli laboratoriyalar, AR/VR platformalar, tadqiqotga asoslangan ta’lim va dala mashg‘ulotlari integratsiyasi — eng dolzarb yo‘nalishlar hisoblanadi.

Kontent-analiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi dasturlarda nazariy mazmunning ulushi nisbatan yuqori, laboratoriya ishlari esa metodik qo‘llanmalarga qaramlik sabab yetarli darajada differensiallashmagan. Shu bois, xalqaro tajribalarni milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning sonini oshirish, o‘quvchining muammo yechishga yo‘naltirilgan faoliyatini rag‘batlantiruvchi topshiriqlar ulushini ko‘paytirish zarur.

Ekspertlar so‘rovining tahlili biologiya o‘qituvchilari kompetensiyasini yangilashga ehtiyoj yuqori ekanini ko‘rsatdi. Xususan, respondentlarning aksariyati zamonaviy laboratoriyalar, virtual simulyatorlar va ekologik monitoring texnologiyalari bo‘yicha metodik tayyorgarlik yetarli emasligini ta’kidladi. Bu esa malaka oshirish tizimida yangi modullar joriy etishni talab qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy natijalarga erishildi:

Xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili biologiya ta’limida IBSE, PBL, STEAM va AR/VR texnologiyalar asosiy rivojlanish vektorlarini belgilab berganini tasdiqladi.

O’zbekiston biologiya ta’limi dasturida amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish, tajribaviy laboratoriyalarni takomillashtirish va dala mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish zarurligi aniqlandi.

Ekspertlar so‘rovi o‘qituvchilarning axborot texnologiyalari, ekologik monitoring, virtual laboratoriyalar va loyihaviy ta’lim bo‘yicha metodik kompetensiyalarini yangilash eng muhim ehtiyoj ekanini ko‘rsatdi.

Analitik-interpretativ yondashuv asosida xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi: raqamli laboratoriyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, STEAMga asoslangan fanlararo loyihalarni tatbiq etish, maktablarda ekologik kuzatuv stansiyalarini tashkil etish.

Yakuniy tahlillar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, biologiya ta’limida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish nafaqat fan o‘zlashtirish sifatini oshirishi, balki o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirib, ularni real ekologik muammolarni tahlil qilishga tayyorlashini ko‘rsatdi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, biologiyani samarali o‘qitish uchun o‘quvchi faol ishtirok etadigan muhit, raqamli va fizik laboratoriyalar uyg‘unligi, o‘qituvchining metodik kompetensiyasi va fanlararo integratsiya asosiy omillar hisoblanadi.

O’zbekiston ta’lim tizimi uchun xalqaro tajribalarni tanlab, milliy sharoitga moslashtirish orqali biologiya ta’limining mazmuni, texnologiyalari va baholash tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha muntazam tayyorlash va maktablarda amaliy-biologik muhitni kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolaveradi. Ushbu tadqiqot natijalari biologiya ta’limini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim nazariy-amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar rO’yxati:

1. OECD. *Education for 2030: The Future of Education and Skills.* Paris: OECD Publishing, 2021.
2. UNESCO. *Reimagining our futures together: A new social contract for education.* Paris: UNESCO, 2021.
3. Hmelo-Silver, C. E. “Problem-Based and Inquiry-Based Learning: A Review of Research and Practice.” *Educational Psychology Review*, 2019.
4. Bybee, R. *The BSCS 5E Instructional Model: Personal Reflections and Contemporary Implications*. Colorado Springs: BSCS Science Learning, 2020.
5. Singapur Ministry of Education. *Science Curriculum Framework*. Singapore, 2020.
6. Finnish National Agency for Education. *National Core Curriculum for Basic Education.* Helsinki, 2016.
7. Estonian Ministry of Education and Research. *Digital Competence Framework in Education.* Tallinn, 2020.
8. Korean Institute for Curriculum and Evaluation (KICE). *Science Education Standards*. Seoul, 2019.
9. Thomas, J. W. *A Review of Research on Project-Based Learning*. San Rafael: The Autodesk Foundation, 2020.
10. Milliy o‘quv dasturi. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022.

THE ROLE OF TASK-BASED LEARNING IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS IN EFL CLASSROOMS

Rajabova Hilola Oybek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
e-mail: hilolarajabova675@gmail.com
Axmedov Hasan Uzairovich
e-mail: h.axmedov@cspi.uz

Annotation. This article examines the role of Task-Based Learning (TBLT) in developing speaking skills among EFL learners in Uzbekistan. Drawing on several empirical studies conducted in local universities and schools, it explores how TBLT enhances learners’ fluency, accuracy,

pronunciation, and confidence in oral communication. The findings reveal that task-based approaches such as story retelling and role-playing activities significantly improve students' communicative competence and motivation. Despite these advantages, challenges such as insufficient teacher training, large class sizes, and limited curriculum flexibility still hinder the effective implementation of TBLT. The paper concludes that with adequate methodological support and classroom adaptation, Task-Based Learning can serve as an effective pedagogical framework for improving English-speaking proficiency in Uzbek EFL contexts.

Key words: Task-Based Learning (TBLT); Speaking Skills; EFL Classrooms; Communicative Competence; Uzbekistan; Language Teaching; Role-Play; Fluency; Motivation; Teacher Training.

Recent studies conducted in Uzbekistan reveal that Task-Based Learning (TBLT) plays a crucial role in improving students' speaking proficiency in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. For instance, Abduganiyeva Nozima Maqsadbekovna's research demonstrated that the use of "story-retelling" tasks with pre-intermediate learners aged 15–17 significantly enhanced their vocabulary range, speaking fluency, and self-confidence (*Abduganiyeva, 2023*). Similarly, Mansurov Olmas Fazliddinovich conducted an eight-week quasi-experimental study comparing TBLT and traditional grammar-based teaching. The results showed that the group taught through TBLT achieved higher progress in speaking fluency and motivation, while also reducing anxiety when speaking in English (*Mansurov, 2023*). Another classroom-based study by Dildora Mukhammadjonova at the Uzbekistan State World Languages University revealed that incorporating role-play tasks into TBL lessons significantly improved students' fluency, accuracy, and communicative confidence (Mukhammadjonova, 2024). Moreover, research by Oysha Mirag'zamova among advanced university students confirmed that task-based role-playing activities led to noticeable progress in pronunciation, fluency, and self-expression (*Mirag'zamova, 2024*).

Overall, these findings indicate that TBLT effectively develops multiple dimensions of speaking competence—such as fluency, vocabulary richness, grammatical accuracy, and pronunciation—while fostering psychological readiness and learner engagement. Students perceive TBLT as an interactive, practical, and enjoyable method that encourages real-life communication and reduces fear of making mistakes (*Mansurov, 2023*).

However, several challenges have been noted in implementing TBLT in Uzbekistan. These include insufficient teacher training in task-based methodology, limited time and resources within fixed curricula, and the difficulty of managing communicative tasks in large classrooms (*Science & Technology Journal, 2023*). In addition, traditional assessment systems often focus more on grammatical accuracy and less on communicative performance, which can hinder the full potential of TBLT. Some learners, especially beginners, also report anxiety and hesitation during oral interaction tasks (*Mansurov, 2023*).

To overcome these barriers, researchers recommend providing professional development for teachers on TBLT techniques, integrating communicative tasks into the official curriculum, allocating more time for interactive speaking practice, and designing balanced assessment criteria that combine both fluency and accuracy. Furthermore, creating a supportive classroom atmosphere and treating errors as part of the learning process are considered essential for maximizing the benefits of TBLT (*Mansurov, 2023; Abduganiyeva, 2023*).

In conclusion, empirical research from Uzbekistan strongly supports the effectiveness of Task-Based Learning as a method for developing EFL learners' speaking skills. It not only enhances linguistic performance—especially fluency, vocabulary, and pronunciation—but also strengthens students' confidence, motivation, and communicative competence. Nevertheless, successful implementation depends on adequate teacher preparation, task design, and institutional support to ensure that both form and meaning are integrated into the speaking classroom.

References.

1. Abduganiyeva, N. M. (2023). Story-Retelling Tasks in Enhancing Speaking Skills of Uzbek EFL Learners. Scientific Journal of Uzbekistan, scientific-jl.com/uuc/article/view/13764.

2. Mansurov, O. F. (2023). A Quasi-Experimental Study of Task-Based Learning and Traditional Grammar-Focused Teaching in Uzbek EFL Classrooms. International Journal of Advanced Innovations, in-library.uz/article/view/115086.
3. Mukhammadjonova, D. (2024). Improving Speaking Fluency and Accuracy through Role-Play Tasks in Task-Based Learning. Pedagogical Studies Journal, scientific-jl.com/ped/article/view/5219.
4. Mirag‘zamova, O. (2024). The Effect of Role-Play Tasks on Advanced EFL Students’ Pronunciation and Fluency in Uzbekistan. Modern Methodology Journal, scientific-jl.com/mod/article/view/4354.
5. Science & Technology Journal. (2023). Challenges in Implementing Communicative Language Teaching and TBLT in Uzbekistan. science-technology.uz/article/download/111/102/204.

INTEGRATING TASK-BASED AND COMMUNICATIVE APPROACHES FOR EFFECTIVE LANGUAGE LEARNING

Rajabova Hilola Oybek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
e-mail: hilolarajabova675@gmail.com
Axmedov Hasan Uzairovich
e-mail: h.axmedov@cspu.uz

Annotatsiya. This article explores the integration of Task-Based Language Teaching (TBLT) and Communicative Language Teaching (CLT) as complementary approaches to enhance effective language learning. It argues that combining these methods encourages learners to use the target language meaningfully through interaction, collaboration, and authentic communication. The study highlights how structured task design in TBLT supports the communicative goals of CLT, leading to improved fluency, accuracy, and pragmatic competence. Furthermore, it discusses the pedagogical benefits of teacher facilitation, learner autonomy, and contextualized language use in EFL classrooms. The findings indicate that merging task-based and communicative approaches creates a more dynamic and effective environment for developing real-world communication skills.

Kalit so‘zlar: Task-Based Language Teaching (TBLT); Communicative Language Teaching (CLT); Language Learning; Speaking Skills; Communicative Competence; EFL Classrooms; Learner Autonomy; Interaction; Authentic Communication; Pedagogical Integration.

In recent years, there has been a growing emphasis on combining Task-Based Language Teaching (TBLT) and Communicative Language Teaching (CLT) to enhance language learning effectiveness. Both approaches share the fundamental goal of promoting meaningful communication and learner-centered instruction. While CLT emphasizes interaction and real-life language use, TBLT provides structured tasks that require learners to use the target language purposefully to achieve specific outcomes.

The integration of these two methods creates a balanced and dynamic classroom environment. Learners not only develop grammatical accuracy but also gain fluency and pragmatic competence through task completion and communication-driven activities.This synergy encourages authentic language use, peer collaboration, and problem-solving—key factors in achieving communicative competence.

Research suggests that combining CLT and TBLT helps bridge the gap between language knowledge and actual language use. In practice, teachers design tasks such as role-plays, information-gap activities, and real-world problem-solving tasks that reflect authentic communication scenarios. These tasks encourage students to negotiate meaning, express opinions, and engage in spontaneous interaction, thus improving both their linguistic and sociolinguistic abilities (*Ellis, 2017; Richards, 2006*).

Moreover, integrating these approaches supports learner motivation and autonomy, as students take active roles in their learning process. Teachers act as facilitators rather than sole providers of knowledge, guiding learners through communicative situations that mirror real-world contexts. Despite some challenges, such as large class sizes or limited resources, the blended use of

TBLT and CLT remains one of the most effective ways to develop well-rounded communicative skills in EFL classrooms.

In conclusion, the combination of Task-Based and Communicative Approaches provides a comprehensive pedagogical framework for language educators. By merging structured task design with communicative interaction, teachers can foster both fluency and accuracy, ensuring that language learning becomes an interactive, authentic, and effective process.

References.

1. Ellis, R. (2017). Task-Based Language Teaching: Theory and Practice. Cambridge University Press.
2. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press.
3. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning. Longman.
4. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
5. Skehan, P. (1998). A Cognitive Approach to Language Learning. Oxford University Press.

TASK-BASED LANGUAGE LEARNING (TBLT) AS A TOOL FOR COMMUNICATIVE COMPETENCE

Rajabova Hilola Oybek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
e-mail: hilolarajabova675@gmail.com
Ahmedov Hasan Uzairovich
e-mail: h.axmedov@cspi.uz

Annotation. This paper explores the role of Task-Based Language Teaching (TBLT) in fostering communicative competence among English language learners. It argues that traditional language teaching methods, which mainly focus on grammar and memorization, often fail to develop real communicative ability. In contrast, TBLT engages students in meaningful tasks that reflect real-life communication, encouraging them to express ideas, solve problems, and interact naturally. The approach supports learners' fluency, confidence, and independence by integrating language use with authentic contexts. Findings suggest that TBLT effectively enhances communicative competence and contributes to more successful language learning outcomes.

Key words: Task-Based Language Teaching, Communicative Competence, Language Learning, Interaction, Motivation,Fluency, Autonomy

In recent years, communicative competence has become one of the central goals of modern language education. The concept, first introduced by Dell Hymes in the 1970s, emphasizes not only knowing the grammatical rules of a language but also being able to use it appropriately in real-life social contexts. Communicative competence involves several components — grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic competence — which together enable learners to express themselves accurately, fluently, and effectively in various communicative situations.

Traditional language teaching methods, which focused mainly on grammar and translation, often failed to develop learners' ability to communicate meaningfully. As a response, Task-Based Language Teaching (TBLT) emerged as a powerful pedagogical approach that centers on the use of real-world tasks to promote meaningful communication. TBLT can be viewed as an evolution of the Communicative Language Teaching (CLT) approach, but it places a stronger emphasis on tasks as the main unit of instruction.

A "task" in TBLT refers to an activity where learners use language to achieve a specific goal or outcome, such as solving a problem, sharing information, or giving an opinion. The focus of the task is primarily on meaning rather than form. According to Jane Willis, one of the key proponents of TBLT, an effective task cycle includes three stages: pre-task, task cycle, and language focus. During the pre-task stage, learners are introduced to the topic and the necessary language input. The task cycle involves performing the task in pairs or groups, followed by planning and reporting

stages, where students present their outcomes. Finally, the language focus stage allows reflection and feedback on linguistic accuracy and communicative strategies.

One of the strongest arguments for TBLT is its potential to enhance communicative competence through active interaction. Tasks create authentic communication needs, encouraging learners to negotiate meaning, clarify ideas, and reformulate sentences to be understood by others. This process helps develop not only linguistic knowledge but also pragmatic and discourse competence. Furthermore, TBLT integrates all four language skills — listening, speaking, reading, and writing — within a single communicative framework, providing learners with opportunities to use language holistically.

Another important feature of TBLT is learner autonomy. Since tasks allow learners to select linguistic resources based on their communicative needs, they become more independent and confident users of the language. Research shows that students engaged in TBLT-based classrooms display higher motivation, increased participation, and better fluency in communication. For example, a study conducted in Colombia demonstrated that tenth-grade students who learned through TBLT significantly improved their ability to express opinions and sustain real-life conversations in English. Similarly, research in China and Vietnam revealed that TBLT improved learners' fluency, accuracy, and confidence when using English in academic and social contexts.

Despite its many advantages, TBLT is not without challenges. Some teachers find it difficult to design suitable tasks or to assess communicative performance effectively. Large class sizes, time limitations, and a lack of teaching materials can also hinder the successful implementation of TBLT. Moreover, traditional examination systems often prioritize grammatical accuracy over communicative ability, which may discourage teachers from fully adopting this method. However, these challenges can be mitigated by providing teacher training, using digital tools for task delivery, and developing assessment rubrics that measure both fluency and communicative success.

In conclusion, Task-Based Language Teaching offers a highly effective way to develop communicative competence in language learners. By shifting the focus from grammar-centered instruction to meaning-based interaction, TBLT encourages learners to use the language creatively, purposefully, and authentically. As numerous studies confirm, this approach not only improves linguistic performance but also builds learners' confidence and motivation to communicate. Therefore, integrating TBLT into language classrooms can significantly contribute to producing more competent and communicatively capable speakers of English.

References.

1. Mudinillah, A. (2024). Task-Based Language Teaching: A Systematic Review. LinguEducA Journal, 5(2), 112–130. Retrieved from https://www.journal.ypidathu.or.id

2. Quiroz Canchala, J. A. (2020). TBLT to Develop Communicative Competence. Universidad de Nariño. Retrieved from https://sired.udenar.edu.co

3. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning. London: Longman.

4. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press.

5. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.

6. ResearchGate. (2025). Exploring the Role of Task-Based Language Teaching in Enhancing Communicative Competence. Retrieved from https://www.researchgate.net

7. ERIC. (2016). Improving 10th Graders' English Communicative Competence through Task-Based Learning. Retrieved from https://eric.ed.gov

8. Science-Gate. (2025). The Effectiveness of Task-Based Language Teaching in Improving Communicative Competence. International Journal of Advanced and Applied Sciences, 12(1), 33–45

9. Wikipedia. (2025). Task-Based Language Teaching. Retrieved from https://en.wikipedia.org/wiki/Task-based_language_teaching

O’ZBEKISTON SHAROITIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TA’LIMINING RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Yusupov Ahmad Abdivaitovich
Qarshi davlat universiteti dasturiy injiniring yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston sharoitida axborot texnologiyalari ta’limining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga mosligi, pedagoglar malakasi va ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari batafsil tahlil qilinadi. Mavjud muammolar chuqur o‘rganilib, xalqaro tajribaga asoslangan amaliy yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari ta’limi, raqamli texnologiyalar, malaka oshirish, ta’lim islohotlari, dasturlash, kadrlar tayyorlash, AKT integratsiyasi.

Аннотация: В статье подробно раскрываются проблемы развития IT-образования в Узбекистане, соответствие учебных программ современным требованиям, квалификация педагогов и цифровизация учебного процесса. На основе анализа предлагаются практические рекомендации по совершенствованию данной сферы.

Ключевые слова: IT-образование, цифровые технологии, повышение квалификации, реформы в сфере образования, программирование, подготовка кадров, интеграция ИКТ.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the development of IT education in Uzbekistan, the relevance of curricula, teacher competence, and digital integration. Key challenges are identified, and practical solutions are proposed drawing on international best practices.

Keywords: IT education, digital technologies, professional development, educational reforms, programming, workforce training, ICT integration.

Global miqyosda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan yangicha yondashuvni, xususan, axborot texnologiyalari (AT) yo‘nalishida malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda. So‘nggi yillarda O’zbekistonda AKT sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bunda raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shunga qaramay, AT ta’limi tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, mavjud infratuzilma, o‘quv dasturlarining mazmuni, o‘qituvchilar malakasi va amaliyotga yo‘naltirilganlik darajasi bo‘yicha sezilarli kamchiliklar mavjud. Ushbu maqolada mazkur masalalarning har biri batafsil ko‘rib chiqiladi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

So‘nggi yillarda dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarida AT yo‘nalishi bo‘yicha metodikalar amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish, individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish, STEAM yondashuvi, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) kabi usullarga asoslanmoqda. Xalqaro tashkilotlar – UNESCO, OECD, BMT Taraqqiyot dasturi ta’limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqqan.

O’zbekiston tajribasida esa so‘nggi yillarda “One Million Uzbek Coders”, IT-park, AKT vazirligi tashabbuslari orqali e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, bu jarayonlar hali tizimli darajada faoliyat yuritishi uchun ko‘p jihatdan takomillashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida taqqoslama tahlil, me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, o‘quv jarayonlarini kuzatish va amaliy muammolarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

1. Infratuzilma bilan bog‘liq muammolar

Ko‘plab umumta’lim maktablarida kompyuterlar soni yetarli emas, mavjud texnika eskirgan, internet sifati past. Bu holat o‘quvchilarning axborot texnologiyalaridan amaliy foydalanishini cheklaydi. Ayrim ta’lim muassasalarida hatto bitta sinf uchun ham yetarli texnik baza mavjud emas.

2. O’quv dasturlarining zamon talabidan ortda qolishi

Amaldagi AT fanlari bo‘yicha darsliklar va dasturlar ko‘p hollarda nazariy ma’lumotlarga boy, biroq zamonaviy dasturlash tillari, algoritmik fikrlash, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt kabi yo‘nalishlar yetarli darajada qamrab olinmaydi. Ta’lim mazmunining bozorda talab qilinadigan ko‘nikmalarga mos hali to‘liq moslashmagani seziladi.

3. Pedagoglar malakasi bilan bog‘liq masalalar

Maktablarda AT fanlarini o‘qitayotgan o‘qituvchilarning bir qismi zamonaviy texnologiyalar bilan yetarlicha ishlay olmaydi. Malaka oshirish kurslari mavjud bo‘lsa-da, aksariyat hollarda ular umumiy mazmunga ega, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi.

4. Amaliyot va loyihaviy ishlarga e’tiborning pastligi

AT sohasi ko‘nikmalarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirishni talab qiladi. Ammo maktab va kollejlarning aksariyatida real loyiha asosida ta’lim yo‘lga qo‘yilmagan. O’quvchilar hackathonlar, robototexnika musobaqalari, startaplar bilan yetarli darajada shug‘ullanishmaydi.

5. Xalqaro sertifikatlash tizimining sustligi

Dunyo bo‘yicha tan olingan IT sertifikatlari — Cisco, Google, Microsoft, Oracle kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim muassasalarida muntazam kurslar mavjud emas. Bu esa o‘quvchilarni global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini cheklaydi.

4. Natijalar

Tahlil asosida quyidagi yo‘nalishlar AT ta’limini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi:

–ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar, interaktiv vositalar, maxsus laboratoriyalar bilan ta’minlash;

–o‘quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish va amaliyotga yo‘naltirilgan modullar qo‘shish;

–o‘qituvchilar uchun doimiy, chuqurlashtirilgan va amaliy malaka oshirish tizimini yaratish;

–maktablar va kollejlar faoliyatiga startaplar, hackathonlar, robototexnika to‘garaklarini integratsiya qilish;

–o‘quvchilar uchun xalqaro IT sertifikatlari bo‘yicha bepul yoki imtiyozli kurslar ochish;

–universitetlar, IT-parklar, xususiy kompaniyalar va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

O’zbekistonda AT ta’limini rivojlantirish – raqamli iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun asosiy omillardan biridir. Tizimli yondashuv, o‘qituvchilar malakasini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish orqali mamlakatda yuqori malakali AT mutaxassislarini yetishtirish imkoniyati yanada kengayadi. Taklif etilgan yechimlarning amaliyotga joriy etilishi AT sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — T.: O’zbekiston, 2017.
2. “Digital Uzbekistan – 2030” davlat dasturi materiallari.
3. UNESCO. ICT in Education Report, 2022.
4. OECD. Digital Competence Framework, 2021.

INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENTS AND INTERNATIONAL EXPERIENCES IN THE CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS

Axrorova Shodiya Ulug‘bekovna
Student of CSPU “English language theory and practice” department
e-mail: axrorovashodiya1@gmail.com
Telephone:+998930089737
Scientific advisor: **Axmedov Hasan Uzairovich**
e-mail: hasanahmedov1100@gmail.com

Abstract: This article examines the significance of information-educational environments in the continuous professional development of teachers, the impact of digital technologies on teaching, and advanced international practices. The study highlights digital platforms that support lifelong learning, online professional development programs, open educational resources, and global competency frameworks. Recommendations are provided for enhancing educators’ professional growth and improving teaching quality through modern information-educational tools.

Keywords: information-educational environment; continuous professional development; teachers; international experience; digital pedagogy

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida axborot-ta’lim muhitining ahamiyati, raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga ta’siri hamda ilg‘or xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda uzluksiz rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan raqamli platformalar, onlayn kasbiy rivojlanish dasturlari, ochiq ta’lim resurslari va xalqaro kompetensiya standartlari asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-ta’lim muhiti; uzluksiz kasbiy rivojlanish; pedagog kadrlar; xalqaro tajriba; raqamli pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение информационно-образовательной среды в непрерывном профессиональном развитии педагогов, влияние цифровых технологий на учебный процесс и передовой международный опыт. Представлены цифровые платформы, программы онлайн-повышения квалификации, открытые образовательные ресурсы и международные стандарты компетенций, направленные на повышение профессионального роста педагогов.

Ключевые слова: информационно-образовательная среда; непрерывное профессиональное развитие; педагогические кадры; международный опыт; цифровая педагогика

Introduction. Continuous professional development (CPD) of teachers is a critical factor in maintaining and improving the quality of education. With the rapid advancement of digital technologies, information-educational environments have become central to enhancing teacher skills, introducing innovative pedagogical approaches, and fostering modern professional competencies. Digital learning platforms, online courses, virtual laboratories, and CPD models aligned with international standards support teachers in lifelong learning. This article explores how digital environments and international best practices contribute to the sustained professional growth of educators.

Methods. This study employed a qualitative and comparative research design. Reports and frameworks from international organizations such as UNESCO, OECD, and the World Bank were analyzed. The study also examined scientific research on digital pedagogy and professional development programs in countries such as Finland, Singapore, South Korea, and the United Kingdom. Key themes such as digital competence, online professional learning, collaborative platforms, and international standards for teacher competencies were identified. A conceptual framework for integrating information-educational environments into CPD was developed.

Results. Information-educational environments support multiple aspects of teachers’ continuous professional development:

- **Digital Learning Platforms:** Platforms such as MOOCs, professional development portals, and learning management systems provide accessible, flexible training opportunities for teachers worldwide.
- **International Competency Standards:** Frameworks like UNESCO’s ICT Competency Framework for Teachers and OECD teaching standards guide CPD programs and ensure alignment with global best practices.
- **Online Collaborative Communities:** Virtual networks allow teachers to exchange experiences, share teaching materials, and engage in peer mentoring.
- **Virtual Simulations and Labs:** Teachers can practice and explore innovative teaching methods in virtual environments, enhancing both technical and pedagogical skills.
- **Inclusive and Personalized Learning:** AI-driven and adaptive learning tools allow CPD programs to cater to individual teacher needs, helping them improve in specific competency areas.

Analysis of international examples shows that countries with robust digital and collaborative CPD systems—such as Finland and Singapore—achieve higher teacher retention, engagement, and student outcomes.

Discussion. Information-educational environments significantly enhance the effectiveness of CPD by providing flexible, scalable, and globally informed training opportunities. However, successful implementation depends on several factors:

- **Digital Literacy of Teachers:** Teachers need adequate digital skills to fully utilize online platforms and resources.
- **Infrastructure and Access:** Unequal access to technology can limit CPD participation in rural or under-resourced areas.
- **Policy Support and Standards:** National policies should support CPD, provide funding, and adopt international competency frameworks.
- **Ethical and Data Considerations:** Protecting teachers' data and ensuring privacy in digital platforms is critical.

Despite these challenges, integrating information-educational environments into CPD ensures professional growth is continuous, personalized, and aligned with global educational trends.

Conclusion. Information-educational environments and international best practices are key to sustaining the professional development of teachers. Digital platforms, online courses, collaborative networks, and global competency standards enhance accessibility, quality, and relevance of CPD programs. Governments and educational institutions should invest in infrastructure, training, and policies to integrate these tools effectively. Doing so ensures that teachers remain skilled, innovative, and capable of delivering high-quality education in a rapidly evolving global landscape.

References

1. Zhao, Y., & Watterston, J. (2021). *The changes we need: Education post COVID-19.* Journal of Educational Change, 22(1), 3–12.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education.* Pearson.
3. OECD. (2020). *The Impact of AI on Learning, Teaching, and Education.* OECD Publishing.
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Center for Curriculum Redesign.
5. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education.* Polity Press.
6. UNESCO. (2021). *AI and Education: Guidance for Policy-Makers.* UNESCO Publishing.
7. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). *Educational data mining and learning analytics.* In Learning Analytics (pp. 61–75). Springer.
8. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). *Artificial intelligence for the real world.* Harvard Business Review, 96(1), 108–116.
9. Huang, R. H., et al. (2020). *Handbook on Facilitating Flexible Learning During Educational Disruption.* Smart Learning Institute of Beijing Normal University.
10. Ferguson, R. (2012). *Learning analytics: Drivers, developments, and challenges.* International Journal of Technology Enhanced Learning, 4(5/6), 304–317.

TENGSIZLIKLARNI YECHISHDA INTERVALLAR USULI

Imomov Shavkat Abdumannon o‘g‘li
G‘allaorol tumani 12-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998975213161
imomovshavkat10@gmail.com
Mirzabekov Abdurahmon Boymurotovich
G‘allaorol tumani 25-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998507171912

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Tengsizliklarni yechishda intervallar usuli” mavzusi muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish qobiliyatini shakllantirishning afzalliklari va o‘quv jarayonidagi o‘rni ilmiy uslubda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Tengsizliklar, oraliqlar, musbat oraliqlar, manfiy oraliqlar, javoblarni olish.

Аннотация. В данной статье в научном стиле освещаются преимущества формирования умения анализировать проблемы и находить решения по теме «Метод интервалов при решении неравенств», а также его место в учебном процессе.

Ключевые слова: Неравенства, интервалы, положительные интервалы, отрицательные интервалы, получение ответов.

Abstract. This article presents, in a scientific style, the advantages of developing the ability to analyze problems and find solutions within the topic “The interval method in solving inequalities,” as well as its role in the educational process.

Keywords. Inequalities, intervals, positive intervals, negative intervals, obtaining solutions.

Har sohada rivojlanib borayotgan texnologiya asrida nafaqat butun dunyo balki yurtimiz O’zbekiston ham jadal suratlarda rivojlanib bormoqda.Qaysi sohaga nazar solmaylik u raqamli texnologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, san’at yoki shu kabi bir qator sohalar negizida matematikani poydevor sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Mana shunday rivojlanib borayotgan mustaqil vatanimizda yoshlarimizning egallaydigan matematik bilimlari deyarli hamma sohadajuda katta ahamiyat kasb etadi.

Matematikaning muhim mavzularidan biri bu — Tengsizliklarni yechishda oraliqlar usuli bo‘lib, bu mavzu yuzasidan 9-sinf algebra kursida 2-soatga rejalashtirilgan.Matematikada tengsizliklarni yoki tengsizliklarga keltirilib ishlanadigan misol va masalalarni yechishda ko‘pincha oraliq(interval)lar usuli qulay usul hisoblanadi.Tengsizliklarni yechishda intervallar usuli mavzusi xususan 9-sinf darsligida dars soatlari boshqa ayrim mavzulariga nisbatan kamroq soat ajratilgan bo‘lsada muhimligi jihatdan matematikaning eng asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. O’quvchilar tengsizliklarni yechishda intervallar usulidan maktab matematika kursining 10-sinfi va 11-sinflarida ham trigonometrik tengsizliklarni yechishda, funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini topishda, fizik va iqtisodiy mazmunli masalalar yechishda keng foydalanadilar. Agar biz asosiy urg‘uni ya’ni 9-sinf algebra darsligidagi “Tengsizliklarni yechishda intervallar usuli” mavzusini o‘quvchilarga tushunarli, qiziqarli, ko‘rgazmali va o‘quvchilar xotirasiga yaxshi muhrlay olsak o‘quvchilar kelajakda juda ko‘p misol va masalalarni yechishda qiynalmay bajaradilar. O’quvchilar tengsizliklar mavzuni o‘rganishda nafaqat nazariy matematikaning asosiy qismlaridan biri, balki fizika, geometriya, astronomiya, muhandislik va hatto iqtisodiyotda ham keng qo‘llaniladi.

Qobiliyatlarni rivojlantirish: Tengsizliklarni yechishda intervallar usulining asosiy maqsadi shaxsning mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish qobiliyatini shakllantirishdir.

Matematik savodxonlik: bu jarayon matematik masalalarni yechishda matematik usullardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Tengsizliklarni yechishda intervallar usuli

Tengsizliklarni yechishda ko‘pincha intervallar usuli qo‘llaniladi. Bu usulni misollar yordamida tushuntiramiz.

1-masala. x ning qanday qiymatlarida x^2-4x+3 kvadrat uchhad musbat qiymatlar,qanday qiymatlarida esa manfiy qiymatlar qabul qilishini aniqlang.

Δ $x^2 - 4x + 3 = 0$ tenglamaning ildizlarini topamiz:

$x_1 = 1$, $x_2 = 3$.

Shuning uchun:

$x^2 - 4x + 3 = (x - 1)(x - 3)$.

$x = 1$ va $x = 3$ nuqtalar son o‘qini uchta oraliqqa bo‘ladi:



$x < 1$, $1 < x < 3$, $x > 3$. 1-rasm

$1 < x < 3$ oralig‘i singari $x < 1$, $x > 3$ oraliqlar ham *intervallar* deyiladi.

Son o‘qi bo‘ylab o‘ngdan chapga harakat qilib, $x > 3$ intervalda

$x^2 - 4x + 3 = (x - 1)(x - 3)$ uchhad musbat qiymatlar qabul qilishini ko‘ramiz, chunki bu holda ikkala $x - 1$ va $x - 3$ ko‘paytuvchi ham musbat.

Keyingi $1 < x < 3$ intervalda shu uchhad manfiy qiymatlar qabul qiladi va, shunday qilib, $x = 3$ nuqta orqali o‘tganda ishorasini o‘zgartiradi.

Bu hol shuning uchun ham sodir bo‘ladiki, $(x - 1)(x - 3)$ ko‘paytmada $x = 3$ nuqta orqali o‘tganda $x - 1$ ko‘paytuvch ishorasini o‘zgartirmaydi, ikkinchi $x - 3$ ko‘paytuvchi esa ishorasini o‘zgartiradi.

$x = 1$ nuqta orqali o‘tganda uchhad yana ishorasini o‘zgartiradi, chunki

$(x-1)(x-3)$ ko‘paytmada birinchi $x-1$ ko‘paytuvchi ishorasini o‘zgartiradi, ikkinchi $x - 3$ ko‘paytuvchi esa o‘zgartirmaydi.

Demak, son o‘qi bo‘ylab o‘ngdan chapga qarab harakat qilib bir intervaldan qo‘shni intervalga o‘ta borganda $(x - 1)(x - 3)$ ko‘paytmaning ishoralari almasha boradi.

Shunday qilib, $x^2 - 4x + 3$ kvadrat uchhadning ishorasi haqidagi masalani quyidagi usulbilan yechish mumkin.

$x^2 - 4x + 3 = 0$ tenglamaning ildizlarini son o‘qida belgilaymiz:

$x_1 = 1$, $x_2 = 3$. Ular son o‘qini uchta intervalga ajratadi (1-rasm). $x > 3$ intervalda $x^2 - 4x + 3$ uchhadning musbat bo‘lishini aniqlab, uchhadning qolgan intervallardagi ishoralarini almashinuv tartibida belgilaymiz. (2-rasm).

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki,

$x < 1$ va $x > 3$ bo‘lganda: $x^2 - 4x + 3 > 0$

$1 < x < 3$ bo‘lganda: $x^2 - 4x + 3 < 0$

Qarab chiqilgan usul intervallar usuli deyiladi. Bu usuldan kvadrat tengsizliklarni va ba’zi boshqa tengsizliklarni yechishda foydalaniladi.

Masalan, 1-masalani yechganda biz aslida $x^2-4x+3>0$ va $x^2-4x+3<0$ tengsizliklarni intervallar usuli bilan yechdik.

2- masala. $x^3-x<0$ tengsizlikni yeching. x^3-x ko‘phadni ko‘paytuvchilarga ajratamiz:

$x^3-x = x(x^2-1)=x(x-1)(x+1)$.


Demak, tengsizlikni bunday yozish mumkin:

$(x + 1)(x-1)<0$.


Son o‘qida -1,0 va 1 nuqtalarni belgilaymiz. Bu nuqtalar son o‘qini to‘rtta intervalga ajratadi (2-rasm):

$x<1$,$-1<x<0$, $0<x< 11$, $x>1$.

2-rasm.



$x>1$ bo‘lganda $(x+1)(x-1)$ ko‘paytmaning hamma ko‘paytuvchilari musbat, shuning uchun $x>1$ intervalda $(x+1)(x-1)>0$ bo‘ladi. Qo‘shni intervalga o‘tishda ko‘paytma ishorasining almashishini e’tiborga olib, har bir interval uchun $(x+1)(x-1)$ ko‘paytmaning ishorasini topamíz (3-rasm).



3-rasm.

Shunday qilib, tengsizlikning yechimlari x ning $x<-1$ va $0<x<1$ intervallardagi barcha qiymatlari bo‘ladi. (3-rasm.)

Javob: $x<-1, 0<x<1$

3- masala. $(x^2-9)(x+3)(x-2) > 0$ tengsizlikni yeching.


Berilgan tengsizlikni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$(x+3)^2(x-2)(x-3) > 0.(1)$$

Barcha $x\neq -3$ da $(x+3)^2 > 0$ bo‘lgani uchun $x\neq -3$ da (1) tengsizlikning yechimlari to‘plami tengsizlik yechimlari to‘plami bilan ustma-ust tushadi.

$x=-3$ qiymat (1) tengsizlikning yechimi bo‘lmaydi, chunki -3 bo‘lganda tengsizlikning chap qismi 0 ga teng.

(2) tengsizlikni intervallar usuli bilan yechib, $x<2$, $x>3$ ni hosil qilamiz(4-rasm).



4-rasm.

$x = -3$ berilgan tengsizlikning yechimi bo‘lmasligini e’tiborga olib, oxirida javobni bunday yozamiz:


$x < -3, -3 < x < 2, x > 3.$

4-masala. Ushbu tengsizlikni yeching:

$$\frac{x^2+2x-3}{x^2-3x-4} \geq 0$$

Δ Kasrning surat va maxrajini ko‘paytuvchilarga ajratib quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{(x+3)(x-1)}{(x+1)(x-4)} \geq 0$$



Son o‘qida kasrning surat yoki maxraji nolga aylangan -3; -1; 1; 4 nuqtalarni belgilangiz. Bu nuqtalar son to‘g‘ri chizig‘ini beshta intervalga ajratadi. $x>4$ bo‘lganda kasrning surat va maxrajidagi barcha ko‘paytuvchilar musbat va shuning uchun kasr musbat.

Bir intervaldan keyingisiga o‘tishda kasr ishorasini o‘zgartiradi, shuning uchun kasrning ishoralarini chizmalardan foydalanib aniqlash mumkin. $x=-3$ va $x=1$ qiymatlar tengsizlikni qanoatlantiradi, $x = -1$ va $x = 4$ bo‘lganda esa kasr ma’noga ega emas. Shunday qilib, berilgan tengsizlik quyidagi yechimlarga ega:

$x \leq -3, -1 < x \leq 1, x > 4.$

Xulosa qilib aytganda “Tengsizliklarni yechishda intervallar usuli” mavzusida dars davomida intervallar usuli tushunchasi, sonli oraliqlarga bo‘lishni, ishoralarini aniqlashni va kerakli javoblarni topib to‘gri va aniq yoza olish o‘rganadi. Shu bilan birga kerakli vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhamedov, M.A.Miirzaahmedov. “Algebra” 9-sinf darslik, Toshkent-2019.

2. M.Usmonov Matematikadan misol va masalalar to‘plami. Navro‘z. Toshkent-2022
3. M.A.Mirzaahmedov J.A.Qo‘yjonov D.D.Aroyev “Algebra va analiz asoslari” 10-sinf darslik. Toshkent-2022.

ZAMONAVIY TA’LIMDA O’YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna
JDPU, Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, ularning turlari hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Gamifikatsiya va raqamli o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasi, ijodkorligi va faol ishtirokini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalarini to‘g‘ri qo‘llash ta’lim sifatini oshiradi va XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘yin texnologiyalari, gamifikatsiya, interaktiv ta’lim, motivatsiya, innovatsion pedagogika.

Аннотация. В статье анализируется роль игровых технологий в современном образовательном процессе, их виды и значение в повышении эффективности обучения. Освещены вопросы развития мотивации, креативности и активности обучающихся с помощью геймификации и цифровых игр. Результаты исследования показывают, что грамотное использование игровых технологий повышает качество образования и способствует формированию навыков XXI века.

Ключевые слова: игровые технологии, геймификация, интерактивное образование, мотивация, инновационная педагогика.

Abstract. This article analyzes the role of game technologies in the modern educational process, their types and their importance in increasing educational efficiency. The issues of developing motivation, creativity and active participation of students using gamification and digital games are highlighted. The results of the study show that the correct use of game technologies increases the quality of education and serves to form the skills of the 21st century.

Keywords: game technologies, gamification, interactive education, motivation, innovative pedagogy.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi kadrlar intellektual salohiyatini rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaralmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarning faolligini to‘liq ta’minlay olmaydi, shuning uchun innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shunday yondashuvlardan biri — o‘yin texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishdir. O’yin — bu insonning tabiiy o‘rganish shakli bo‘lib, u orqali bilim, malaka va ko‘nikmalar qiziqarli hamda samarali tarzda egallanadi. Zamonaviy pedagogikada o‘yin texnologiyalari ta’limni interaktiv, motivatsion va amaliyotga yo‘naltirilgan holga keltiradi.

Metodlar. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

Nazariy tahlil: o‘yin texnologiyalariga oid ilmiy manbalar, maqolalar va metodik qo‘llanmalar o‘rganildi. Kuzatuv va tajriba: umumta’lim maktabida 6–9-sinflar o‘quvchilari bilan dars jarayonida o‘yin elementlari qo‘llanildi (Quizizz, Wordwall, jamoaviy o‘yinlar). So‘rovnoma usuli: o‘quvchilarning o‘yinli darslarga munosabati va motivatsiya darajasi o‘rganildi. Tajriba davomida darslar an’anaviy (nazorat guruhi) va o‘yin texnologiyalari asosida (tajriba guruhi) olib borildi.

Zamonaviy texnologiyalar orasida o‘yin texnologiyasi usuli alohida o‘rin tutadi. O’yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o‘quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O’yin-olimlar tadqiqotlariga ko‘ra, mehnat va o‘qish bilan birgalikdagi faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O’yinli faoliyat muayyan vazifalarini bajarishiga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- kommunikativlik;

- tashxis;
- ijtimoiylashuv.

O’yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakter “ijod maydoni”ga ega bo‘ladi. Tadqiqotchilar o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydi. O’yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta’lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llaniladi.

O’yinning didaktik maqsadi – bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko‘nikmalarni qo‘llash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O’yinning tarbiyaviy maqsadi - mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma’naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi - diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o‘xshashni topish, xayol, ijodiy qobiliyat, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv maqsadi – jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish va muloqatga o‘rgatishni nazarda tutadi. Pedagogik o‘yinlar asosida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullarni vujudga keltirish yotadi.

O’quvchilarni aqliy tarbiyalash jarayonida o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchlarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli o‘quvchlarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o‘yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o‘yin faoliyati orqali shaxsning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi;
- o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya’ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi;
- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchlarning aqliy tarbiyalanganlik va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O’qituvchi-pedagog avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchlar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Natijalar va muhokama.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni ko‘rsatdi:

O’quvchilar faolligi oshdi. O’yin shaklidagi mashg‘ulotlarda ishtirok etgan o‘quvchilarning darsdagi faolligi oshdi. Motivatsiya kuchaydi. Gamifikatsiya elementlari (ball, badge, reyting) o‘quvchilarda musobaqalashish va o‘zini ko‘rsatish istagini kuchaytirdi. Bilimlarni eslab qolish samaradorligi oshdi. O’yinli yondashuvda o‘rganilgan mavzularni test orqali tekshirishda o‘rtacha natija yuqoriga ko‘tarildi. Ijtimoiy-psixologik muhit yaxshilandi. Jamoaviy o‘yinlar o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni mustahkamladi.

Muhokamaga koʻra, oʻyin texnologiyalarining samaradorligi ularning maqsadli tanlanishi, dars mazmuniga mosligi va oʻqituvchining boshqaruviga bogʻliq. Ayniqsa raqamli oʻyin platformalari (Kahoot, Quizizz, Mentimeter) oʻquvchilarni raqamli muhitda faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa. O'yin texnologiyalari zamonaviy ta'limning muhim innovatsion yoʻnalishidir. Ular oʻquvchilarning bilim olishga boʻlgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va ijodiy yondashuv koʻnikmalarini rivojlantiradi. Gamifikatsiya elementlarini toʻgʻri qoʻllash orqali ta'lim samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Kelgusida oʻyin texnologiyalarini har bir fan metodikasiga moslashtirish va raqamli vositalarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy yoʻnalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Turgʻunov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-Standart", 2012 – 100 b.
2. Prensky, M. (2001). Digital Game-Based Learning. New York: McGraw-Hill.
3. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan.
4. Abduvaliyeva, N. (2022). Zamonaviy ta'limda oʻyin texnologiyalarining oʻrni. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №3.
5. Xoʻjayev, A. (2023). O'yinli ta'lim metodikasi va uning afzalliklari. Pedagogik innovatsiyalar, №2.
6. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari". Toshkent, O'zPFITI nashriyoti – 2015 yil

XORIJIY TILNI O'QITISH PLATFORMASINING READING BAZAVIY MODULLARINING MODELI VA ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

Axmedova Feruza Gʻayrat qizi
Телефон:+998(90) 090-30-22 E-mail: axmedovaferuza2004@gmail.com
Aliyev Javohir Jaxongir oʻgʻli
Телефон:+998(97) 524-08-04 E-mail: javoxiraliy08@gmail.com
Zoirova Guli Jamshid qizi
Телефон:+998(88) 067-77-83 E-mail: zguli7291@gmail.com
Yoʻldosheva Madina Salim qizi
Телефон:+998(90) 090-30-22 E-mail: yuldoshevamadina45@gmail.com
Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oz'bekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Amlaiy matematika fakulteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tilni oʻqitish uchun moʻljallangan elektron platformalarda Reading (oʻqib tushunish) bazaviy modullarini yaratish metodlari, ularning funksional modeli va ishlash algoritmlari yoritiladi. Tadqiqotda matnni murakkablik darajasiga koʻra avtomatik baholash, foydalanuvchi darajasiga mos kontent tanlash, adaptiv topshiriqlarni shakllantirish hamda oʻqish koʻnikmasini rivojlantiruvchi interaktiv mexanizmlarni tashkil etish boʻyicha ilmiy-metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, modulning algoritmik tuzilishi, ma'lumotlar oqimi, baholash mezonlari va foydalanuvchi faoliyatini qayd etuvchi komponentlar batafsil tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim platformalarini loyihalashda, elektron darsliklar yaratishda va xorijiy tilni oʻrgatishga doir raqamli yechimlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: elektron ta'lim, reading modul, algoritm, adaptiv tizim, matn tahlili, CEFR, ta'lim platformasi.

Annotation. This article explores the methods for developing Reading (reading comprehension) base modules in digital platforms designed for foreign language learning. The study presents functional models and algorithms that support text difficulty evaluation, adaptive content selection, automatic task generation, and interactive mechanisms enhancing reading skills.

The algorithmic structure, data flow, assessment parameters, and user activity tracking components of the module are analyzed in detail. The results of the research can be applied in designing educational platforms, creating digital textbooks, and developing digital solutions for foreign language instruction.

Keywords: e-learning, reading module, algorithm, adaptive system, text analysis, CEFR, educational platform.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы разработки базовых модулей Reading (чтение и понимание текста) в электронных платформах для изучения иностранного языка. В работе представлены функциональная модель и алгоритмы, обеспечивающие автоматическую оценку сложности текста, подбор адаптивного контента, генерацию заданий и интерактивные механизмы развития навыков чтения. Подробно анализируются алгоритмическая структура модуля, поток данных, параметры оценивания и компоненты фиксации активности пользователя. Результаты исследования могут быть использованы при проектировании образовательных платформ, создании цифровых учебников и разработке цифровых решений для обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: электронное обучение, модуль чтения, алгоритм, адаптивная система, анализ текста, CEFR, образовательная платформа.

Kirish. Zamonaviy raqamli ta’lim jarayonida xorijiy tilni o‘rganish uchun elektron platformalar keng qo‘llanilmoqda. Ularning samaradorligi o‘quvchilarning individual o‘qish tezligi, darajasi va o‘rganish uslubiga moslashuvchanlik darajasiga bog‘liq. Ayniqsa, til o‘rganishning asosiy ko‘nikmalaridan biri bo‘lgan Reading (o‘qib tushunish) ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bazaviy modullar o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda xorijiy tilni o‘rgatishga mo‘ljallangan ko‘plab platformalar (Duolingo, BBC Learning English, LingQ, ReadTheory va boshqalar) o‘quvchilarning reading ko‘nikmalarini baholash va rivojlantirishga qaratilgan turli algoritmlarga ega. Biroq, mavjud platformalarning aksariyati ingliz tilida yaratilgan bo‘lib, ularning algoritmik tuzilishi va interaktiv modullari mahalliy ta’lim tizimiga to‘liq mos kelmaydi. Shu sababli, mahalliy platforma foydalanuvchilari uchun adaptiv, interaktiv va samarali Reading bazaviy modulini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

- Maqolada quyidagi masalalar o‘rganiladi:
- Xorijiy tilni o‘qitish platformasi uchun Reading modulining funksional modeli;
- Moduldagi algoritmik jarayonlar va adaptiv tizimlarning ishlash prinsiplari;
- Matn murakkabligini baholash, foydalanuvchi darajasiga mos kontent tanlash va interaktiv topshiriqlarni yaratish metodologiyasi;
- O’quvchi faoliyatini qayd etish va natijalarni tahlil qilish mexanizmlari.

Kirish qismida ham nazariy asoslar, ham amaliy ehtiyojlar ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari elektron platformalarni loyihalash, o‘quv jarayonini optimallashtirish va xorijiy tilni o‘qitish sifatini oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy tilni o‘qitishda o‘qib tushunish (Reading) ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy tadqiqotlar asosan uch asosiy yo‘nalishda olib borilgan: metodik yondashuvlar, raqamli ta’lim tizimlarining texnologik imkoniyatlari, va algoritmik modellarni qo‘llash.

Birinchi yo‘nalish bo‘yicha ilmiy manbalarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda matnning mazmuniy mosligi, o‘quvchi lug‘aviy zaxirasiga mos ravishda tanlanishi va topshiriqlarning bosqichma-bosqich murakkablashuvi muhimligi ta’kidlanadi. Anderson va Pearson tomonidan ilgari surilgan schema theory o‘quvchining mavjud bilimlari matnni tushunishda asosiy rol o‘ynashini ko‘rsatadi. CEFR (Common European Framework of Reference) tizimi esa matn murakkabligini darajalarga ajratish va o‘quvchi bilan moslashtirishda standart metodika sifatida qo‘llanadi.

Ikkinchi yo‘nalish – elektron platformalar orqali o‘qitish texnologiyalari – bo‘yicha ko‘plab xalqaro tadqiqotlar mavjud. Duolingo, ReadTheory, LingQ, Reword va QR-based e-learning platformalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar interaktivlik, gamifikatsiya, adaptiv topshiriqlar va foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish kabi funksiyalar o‘qish ko‘nikmasiga samarali ta’sir

koʻrsatishini namoyish etadi. Masalan, Chen raqamli platformalarda matnni avtomatik tahlil qilish algoritmlari yordamida oʻquvchilarga mos qiyinchilik darajasini tanlash oʻqish samaradorligini sezilarli oshirishini qayd etadi.

Uchinchi yoʻnalish – algoritmik modellar – oʻquv jarayonini avtomatlashtirishda muhim oʻrin tutadi. Natural Language Processing (NLP) asosida matn murakkabligini baholash (Lexile, Flesch–Kincaid, Coh–Metrix), kontekstga asoslangan lugʻat tanlash, shuningdek, foydalanuvchi faoliyatiga qarab darajani moslashtiruvchi adaptiv algoritmlar oʻqish modulining asosiy ilmiy negizi sifatida qaraladi. Sun'iy intellektning BERT, GPT kabi modellaridan foydalanish oʻquvchilar uchun avtomatik savollar yaratish, testlarni generatsiya qilish va kontekst boʻyicha tavsiyalar berishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Mahalliy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, O'zbekistonda ham ingliz tilini oʻrgatishda oʻqib tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishga doir tadqiqotlar mavjud (Kamalova, 2025; Mamatqulov, 2023; Astonova, 2025 va boshq.). Biroq ularning aksariyati metodik yondashuvlarga qaratilgan boʻlib, platforma modeli va algoritmik yechimlarni ishlab chiqish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mazkur yoʻnalishda ilmiy boʻshliq mavjudligini koʻrsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot xorijiy tilni oʻqitish jarayonida Reading (oʻqish koʻnikmasi) boʻyicha bazaviy modullarni raqamli platforma koʻrinishida ishlab chiqish, uni algoritmlashtirish va dasturiy modellashtirishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yondashuvlarni oʻz ichiga oladi:

1. Dasturiy injiniring yondashuvi

Tadqiqot jarayonida oʻqitish platformasi modulli arxitektura asosida loyihalashtirildi. Bu yondashuv quyidagi bosqichlarni qamrab oldi:

1.1. Talablarni tahlil qilish (Requirements Analysis)

CEFR boʻyicha A1–B1 darajadagi Reading kompetensiyalari oʻrganildi.

Cambridge, Oxford Reading Explorer, Duolingo Reading kabi platformalarning funksional talablari solishtirilib, optimal metodik yondashuv belgilandi.

Foydalanuvchi guruhlari:

- oʻquvchi,
- oʻqituvchi,
- administrator.

1.2. Arxitektura loyihasi (System Design)

Platforma modulli (Modular Architecture) tamoyili asosida ishlab chiqildi:

- Lexical Module
- Grammar-Support Module
- Reading Skill Assessment Module
- Adaptive Difficulty Engine
- Progress Tracker Module

Bu yondashuv modullar orasida boʻlinish, kodning qayta foydalanish imkonini kengaytiradi.

2. Algoritmik yondashuv

Tadqiqotning asosiy oʻziga xos jihati — Reading modulining algoritmik yechimlarini ishlab chiqishdir.

2.1. Matn murakkabligini avtomatik baholash algoritmi

Tadqiqotda quyidagi matematik koʻrsatkichlardan foydalangan holda matn darajasini aniqlash algoritmi ishlab chiqildi:

- Flesch–Kincaid readability formula
- Average Sentence Length (ASL)
- Average Word Length (AWL)
- Vocabulary Frequency Index (VFI)

Algoritmning soddalashtirilgan koʻrinishi:

Input: text

Tokenize text into sentences and words
Calculate ASL = words_count / sentence_count
Calculate AWL = characters_count / words_count
Check VFI based on CEFR word lists
Output: CEFR text level (A1, A2, B1)

2.2. Adaptiv murakkablikni oshirish algoritmi (Adaptive Engine)

Foydalanuvchi natijalariga qarab tizim quyidagilarni moslashtiradi:

- savollar soni
- matn uzunligi
- leksik birlik darajasi
- qo‘shimcha izohlar berish

Moslashtirish Item Response Theory (IRT) asosida qurilgan.

3. Ta’lim texnologiyalari yondashuvi

Tadqiqotda quyidagi didaktik yondashuvlar qo‘llandi:

3.1. Bloom taksonomiyasi asosida bosqichma-bosqich modellashtirish

Reading topshiriqlari quyidagi darajalarga bo‘lindi:

- Remember → asosiy so‘zlarni anglash
- Understand → matn mazmunini tushunish
- Apply → kontekst asosida so‘z ma’nosini chiqarish
- Analyze → matn ichidagi mantiqiy bog‘liqliklarni topish
- Evaluate → muallif pozitsiyasini baholash

3.2. SCORM va LMS integratsiyasi

Modullar Moodle, Google Classroom kabi tizimlarga ulanishi uchun SCORM *1.2 talablari bo‘yicha strukturalandi.*

4. Empirik tadqiqot yondashuvi

Reading modulining samaradorligi real tajribalar orqali tekshirildi.

4.1. Eksperimental guruhlar

60 nafar o‘quvchi 2 guruhga bo‘lindi:

- Eksperimental (platformadan foydalangan)
- Nazorat (an’anaviy metod asosida)

4.2. O’lchov usullari

- Pre-test va post-test natijalari
- CEFR descriptorlari asosida baholash
- O’quvchi faoliyati loglarini tahlil qilish

4.3. Statistik tahlil

Student T-test orqali guruhlar o‘rtasidagi farq aniqlandi
Z-test orqali platformaning ta’siri baholandi

5. Ma’lumotlarni qayta ishlash va NLP texnologiyalari

Tadqiqot davomida Python asosida kichik NLP modullar yaratildi:

- Word frequency extractor
- Stop-word remover
- Lemmatizer
- CEFR dictionary matcher

Bu vositalar matnni avtomatik tahlil qilishga yordam berdi.

Natijalar

Ushbu tadqiqot xorijiy tilni o‘qitish platformasi uchun Reading bazaviy modullarini ishlab chiqish, ularni algoritmik jihatdan modellashtirish va platformada sinovdan o‘tkazishga qaratildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda baholandi:


1. Matn murakkabligini avtomatik aniqlash algoritmi natijalari

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan CEFR Text-Level Classifier algoritmi 300 ta test matni asosida sinovdan o‘tkazildi.

1.1. Aniqlik ko‘rsatkichlari

- A1 matnlarni aniqlash: 92%
- A2 matnlarni aniqlash: 87%
- B1 matnlarni aniqlash: 84%
- O’rtacha aniqlik: 87.6%

Bu koʻrsatkichlar hech boʻlmaganda oʻrta darajadagi NLP algoritmlari samaradorligiga yaqin natija ekanini koʻrsatadi.



1-rasm. CEFR matn aniqligi grafigi

1.2. Muhokama

Algoritmning yuqori aniqligi koʻproq:


- Flesch-Kincaid indikatorlarining qoʻshilishi,
- CEFR lugʻaviy bazasidan foydalanish,
- word-frequency tahlilini integratsiya qilganimiz bilan bogʻliq.

Biroq B1 matnlarni aniqlashda aniqlikning pasayishi murakkab gap strukturalari, idiomatik birliklar va matnning kontekstual murakkabligi bilan izohlanadi.

2. Adaptiv murakkablik (Adaptive Engine) samaradorligi

Eksperimental platformada avtomatik moslashtirish algoritmi kiritildi. Foydalanuvchilar 10 ta modul boʻyicha kuzatildi.

Natijalar: O’quvchilarning 78% da 3-moduldan boshlab murakkablik darajasi oshib bordi. 22% da murakkablik pasaytirildi (bu moslashtirish algoritmi toʻgʻri ishlashini koʻrsatadi). Adaptiv savollardan foydalanganda test natijalari 17% ga oshdi. *Muhokama*: Adaptiv tizimning mavjudligi oʻquvchi qiyinchiliklarini real vaqt rejimida aniqlash va darajani moslashtirish imkonini berdi. Bu yondashuv Duolingo, Coursera kabi platformalarda qoʻllaniladigan IRT modelining lokal versiyasi sifatida oʻzini oqladi.



2-rasm. Adaptiv murakkablik o‘zgarishi grafigi

3. Empirik sinov natijalari (Eksperiment)

Tadqiqotda 60 nafar o‘quvchi 2 guruhga bo‘linib sinovdan o‘tkazildi:

Pre-test natijalari

- Eksperimental guruh: 41.2%
- Nazorat guruhi: 40.7%

Ikki guruh deyarli teng darajada boshlanganini ko‘rsatadi.


Post-test natijalari

- Eksperimental guruh: 78.4%
- Nazorat guruhi: 62.1%

O’sish farqi

- Eksperimental: +37.2%
- Nazorat: +21.4%

Muhokama Bu farq raqamli platformaning samaradorligini tasdiqlaydi. Eksperimental guruhda o‘qish tezligi, leksik boylikni anglash va asosiy mazmunni ajratish ko‘nikmalari sezilarli ravishda oshgan.



3-rasm. Pre va Post test taqqoslannishi grafigi

4. Foydalanuvchi faoliyati loglari bo‘yicha tahlil

Platforma backendida yig‘ilgan loglar quyidagilarni ko‘rsatdi:

4.1. O’quvchilar uchun eng qiyin bo‘lgan bloklar

- ❖ Contextual Guessing (so‘z ma’nosini kontekstdan topish)
- ❖ Inference Questions (xulosa chiqarish savollari)
- ❖ Long-Text Reading (300+ so‘zli matnlar)

4.2. Eng oson bo‘lgan bloklar

- ❖ Matching tasks
- ❖ True/False savollar
- ❖ Basic vocabulary

4.3. Muhokama O’quvchilarning qiyinchiliklari ko‘proq yuqori kognitiv bosqich (Bloom taksonomiyasi bo‘yicha Analyze, Evaluate) bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu esa platformani takomillashtirish uchun aniq yo‘nalishlar beradi.

5. Dasturiy platforma samaradorligi Texnik ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

5.1. Performance natijalari

- ❖ O’rtacha matn yuklanish tezligi: 0.2–0.4 sekund
- ❖ Savol-generatsiya modulining ishlash vaqti: 80–120 ms
- ❖ Adaptiv daraja yangilanishi: instant (kechikishsiz)

5.2. Muhokama Modulli arxitektura va yengil algoritmlar platformaning maksimal tez ishlashini ta’minladi. Ayniqsa, Python backendidagi pre-kompilyatsiya qilingan CEFR lug‘atlari samaradorlikni oshirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

ishlab chiqilgan platforma o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi; algoritmik modellar (readability, adaptiv engine, NLP preprocessing) metodikaning ilmiy asoslanganligini ta’minladi; platforma texnik jihatdan yuqori samaradorlikka ega; raqamli modul an’anaviy o‘qitish usullaridan 1.7 baravar samaraliroq bo‘ldi.

Muhokama Ushbu tadqiqotda xorijiy tilni o‘qitish platformasi uchun ishlab chiqilgan Reading bazaviy modullarining modeli va algoritmi amaliy va nazariy jihatdan baholandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, taqdim etilgan modul nafaqat matnlarni darajalash, balki o‘quvchining o‘qish kompetensiyasini moslashuvchan ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, algoritmik yondashuv asosida ishlab chiqilgan matn murakkabligini avtomatik baholash modeli (CEFR A1–B1 darajalari doirasida) o‘rtacha 84–92% aniqlik ko‘rsatdi. Bu natija mavjud ilmiy ishlarda qo‘llanilgan an’anaviy statistik usullarga nisbatan ancha barqaror va tezkor ekanligini ko‘rsatadi. Diagrammada aks ettirilganidek, A1 darajasi uchun yuqori aniqlik kuzatildi, bu sodda grammatika va cheklangan leksik birliklar bilan izohlanadi; murakkablik oshgani sari (B1) aniqlik biroz pasaygan bo‘lsa-da, barqaror diapazonda qolgan.

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan adaptiv baholash algoritmi o‘quvchining vaqt real (real-time) ko‘rsatkichlariga asoslangan holda matn murakkabligini dinamik tarzda boshqarib bordi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 78% holatda tizim murakkablikni to‘g‘ri oshirib, faqat 22% holatda ortiqcha soddalashtirish yoki murakkablashtirish kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich adaptiv o‘qitish tizimlarining pedagogik samaradorligi haqidagi xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi.

Uchinchidan, platformaning samaradorligi o‘quvchilar ishtirokida o‘tkazilgan pre–post testlar orqali baholandi. Eksperimental guruhda o‘rganilgan modullar qo‘llanganda natija 41.2% dan 78.4% gacha oshgan, bu esa 37.2 foizli o‘sish demakdir. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 21.4% o‘sish bilan cheklangan. Bu farq modulning ta’siri sezilarli ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, modullarni ishlab chiqishda qo‘llanilgan NLP (Natural Language Processing) metodlari — tokenizatsiya, sintaktik tahlil, lug‘at chastotasi, readability indekslari — o‘zini amaliy natijalar bilan oqladi. Ayniqsa, matnning leksik murakkabligini baholashda word2vec va TF-IDF kombinatsiyasi an’anaviy Flesch-Kincaid kabi ingliz tili uchun mo‘ljallangan formulalarga nisbatan ancha mos natija berdi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan model o‘quvchi bilimini hisobga olgan holda individual ta’lim yo‘lini shakllantira oladi. Aynan shu jihat zamonaviy raqamli ta’lim platformalarining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Reading bo‘limini avtomatlashtirish orqali xorijiy til o‘qitishning sifatini oshirish imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Taklif etilgan algoritm va model asosida

platformaning Listening, Speaking, Writing bo‘limlarini ham integratsiya qilish mumkin, bu esa kelgusida to‘liq adaptiv E-learning ekotizimini yaratish uchun zamin yaratadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda xorijiy tilni o‘qitish jarayonida Reading bazaviy modullarining modeli va algoritmini ishlab chiqish masalasi kompleks ravishda o‘rganildi. Amaliy tajribalar, algoritmik prototiplar va dasturiy modullarni sinovdan o‘tkazish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- ❖ Taklif etilgan model CEFR asosida matn murakkabligini avtomatik baholashda yuqori aniqlikni ta’minladi. A1–B1 darajalari uchun aniqlik ko‘rsatkichlari 84–92% bo‘lib, mavjud o‘qitish platformalari bilan solishtirilganda yuqori natijalar qayd etildi. Bu ko‘rsatkich ishlab chiqilgan algoritmlarning lingvistik moslashuvchanligini tasdiqlaydi.
- ❖ Adaptiv o‘qitish algoritmi o‘quvchi ko‘rsatkichlariga mos ravishda matn murakkabligini real vaqt rejimida o‘zgartira oldi. Sinov natijalariga ko‘ra, 78% holatda algoritm to‘g‘ri qaror qabul qilgan, bu esa tizimning o‘quvchini individual tarzda qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshiradi.
- ❖ Eksperimental guruhda o‘quv natijalari sezilarli darajada yaxshilandi. Pre–post testlar asosida o‘qish kompetensiyasi 41.2% dan 78.4% gacha oshgani kuzatildi, bu esa yaxshilanishning 37% dan ortiq ekanligini ko‘rsatadi. Nazorat guruhidagi natijalar past bo‘lgani algoritm asosidagi yondashuvning samaradorligini yanada tasdiqladi.
- ❖ NLP texnologiyalari qo‘llanilishi modullarni ilmiy asoslangan, aniqligi yuqori va barqaror tizimga aylantirdi. Tokenizatsiya, sintaktik tahlil, TF-IDF va word2vec modellaridan foydalanish matnlarni darajalash jarayonini sezilarli ravishda optimallashtirdi.
- ❖ Ishlab chiqilgan model va algoritmlar xorijiy til o‘qitishning raqamli muhitda yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Platformaga integratsiya qilingan taqdirda, Reading bo‘limidan tashqari sistemaning Listening, Speaking va Writing modullarini ham adaptiv tarzda shakllantirish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot xorijiy tilni o‘qitishning avtomatlashtirilgan, moslashuvchan va individual yondashuvga asoslangan zamonaviy yechimini taklif etadi. Shuningdek, kelgusida modullarni kengaytirish, algoritmlar aniqligini oshirish va real platformaga joriy qilish bo‘yicha izlanishlar davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
2. Beatty, J. (2019). Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning. London: Routledge.
3. Behan, C. (2014). Learning to escape: Prison education, rehabilitation and the potential for transformation. Journal of Prison Education and Reentry, 1(1), 1–12.
4. Bird, S., Klein, E., & Loper, E. (2009). Natural Language Processing with Python. O’Reilly Media.
5. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction. Wiley.
6. Davis, L. M., et al. (2013). Evaluating the Effectiveness of Correctional Education. RAND Corporation.
7. Godwin-Jones, R. (2020). Emerging Technologies: AI and language learning. Language Learning & Technology, 24(2), 1–17.
8. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and Language Processing. Pearson.
9. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile-assisted language learning (MALL): Current trends and future directions. ReCALL, 32(3), 261–281.
10. Li, Y., & Wang, Z. (2023). Adaptive learning systems powered by AI in foreign language education. International Journal of Educational Technology, 20(4), 45–61.
11. Qayumov, O. A. (2023). Interfaol intellektual elektron ta’lim resurslarini yaratish modeli. Jizzax filiali “Informatika va dasturlash” kafedrasi jurnali, 12(3), 45–53.
12. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

AI-POWERED ASSESSMENT AND FEEDBACK SYSTEMS IN LANGUAGE LEARNING

Babaxanova Iroda Mansur qizi
Chirchik State Pedagogical University 3rd Year Student, Faculty of Tourism, Foreign Language and Literature
irodababxanova279@gmail.com
Scientific Adviser: **Ruzmetova Diana Kamilovna**
PhD Teacher, Chirchik State Pedagogical University
d.ruzmetova@cspu.uz

Abstract. Artificial Intelligence (AI) has rapidly transformed language learning and assessment practices in the last decade. AI-powered systems offer automated feedback, immediate scoring, adaptive learning pathways, and data-driven evaluation across multiple language skills, including speaking, writing, listening, and reading. This research investigates the impact of AI-based assessment systems on learner performance, teacher workload, and overall teaching efficiency. The study also evaluates the challenges, ethical concerns, and limitations associated with the integration of AI tools in language education. The findings indicate that AI-powered assessment tools enhance learner autonomy, accuracy, and motivation while providing reliable and consistent evaluation that complements traditional teacher-led assessment.

Keywords. Artificial Intelligence, Language Assessment, Automated Feedback, Educational Technology, Speaking Evaluation, Writing Scoring, Adaptive Learning, Machine Learning, NLP, EdTech.

Introduction. Assessment is a core component of language teaching and learning. It helps teachers understand learners' proficiency levels, identify learning needs, and plan appropriate instruction. Traditionally, assessments have relied heavily on teachers' manual grading and feedback, which require significant time and may sometimes result in subjective evaluation. With the growth of digital technologies, Artificial Intelligence (AI) has emerged as a powerful tool capable of assisting teachers and improving learners' outcomes.

AI-based assessment systems use machine learning, deep learning, and natural language processing (NLP) to evaluate language performance. They analyze grammar, vocabulary, coherence, pronunciation, fluency, and comprehension automatically. Tools such as Grammarly, QuillBot, Write&Improve, ELSA Speak, Duolingo English Test AI scoring, and ChatGPT-powered feedback systems have become widely used in educational contexts.

AI does not replace the teacher; instead, it enhances traditional assessment by providing fast, objective, personalized, and highly detailed feedback. As a result, learners receive continuous support, while teachers can focus on instructional strategies rather than repetitive grading tasks.

This paper explores the potential, effectiveness, and challenges of AI-powered assessment and feedback systems in language learning.

Methods

This research is based on a qualitative methodology using the following approaches:

1. Literature Review

More than 30 scholarly studies published between 2018 and 2025 were analyzed. The review included journal articles, conference papers, and academic reports about AI use in language learning.

2. Comparative Analysis of AI Tools

The study compared several widely used AI tools:

Writing feedback tools: Grammarly, QuillBot, Write&Improve

Speaking feedback tools: ELSA Speak, Google Speech Recognition, Speechelo

Adaptive platforms: Duolingo, LinguaLeo, Busuu, Memrise

AI scoring systems used in standardized tests: Duolingo English Test, TOEFL automated writing scoring, Pearson PTE AI scoring

Each tool was evaluated based on accuracy, usability, feedback clarity, learner improvement, and teacher support.

3. Classroom Observation

Several published reports from Uzbek and international universities were analyzed to understand how AI feedback is used in real classrooms.

4. Learner Outcomes Analysis

The research used data from experimental studies that compared student performance with and without AI feedback systems.

The methodology focused on four key skill areas:

Speaking

Writing

Reading

Listening

Results

The results of the study are categorized below:

1. Improvement in Writing Quality

AI writing tools significantly improved learners' grammar, vocabulary, and coherence. Students who used AI feedback platforms showed:

60–70% fewer grammatical errors

Better paragraph organization

Improved lexical variety

Increased self-editing skills

Automated writing evaluation (AWE) helped students understand their weaknesses and improve accuracy faster than traditional teacher feedback alone.

2. Significant Enhancement in Speaking Skills

Speech-recognition AI systems such as ELSA Speak improved:

Pronunciation

Stress and intonation

Fluency rate

Sound accuracy

Students could listen to model pronunciation and receive detailed feedback instantly, which is difficult to achieve in a crowded classroom.

3. Personalized and Adaptive Learning

Adaptive AI systems adjusted learning materials to the learner's level. When a student made frequent mistakes, the system provided easier tasks. When the student improved, the system gave more difficult tasks. This increased:

Motivation

Engagement

Autonomy

4. Reliable and Objective Assessment

AI systems reduced teacher bias and provided consistent scoring. Automated scoring was:

Faster

More accurate

More standardized

Teachers benefited from reduced workload, especially in large groups.

5. Increased Learner Motivation

Immediate feedback encouraged learners to engage more actively with the learning material. Motivation increased because:

Feedback was instant

Mistakes were corrected immediately

Students could track their progress

6. Support for Teachers

Teachers reported that AI tools saved time in:

Checking homework

Evaluating essays

Assessing pronunciation
Preparing individualized tasks
This allowed them to focus on creative and interactive teaching methods.

Discussion

The findings clearly show that AI-powered assessment systems significantly improve language learning. However, the discussion also highlights several challenges and considerations:

1. AI is not always 100% accurate
AI sometimes misinterprets:
cultural expressions
non-standard accents
creative writing structures
mixed-language inputs
Teachers must supervise AI feedback and combine it with human judgment.

2. Overreliance on AI
Students may become dependent on AI tools for:
grammar correction
idea generation
translation
writing organization
Teachers need to balance AI use with independent thinking activities.

3. Ethical and Data Privacy Issues
AI systems collect user data. Schools must ensure:
Data protection
Responsible AI use
Transparency in algorithms

4. Teacher Training is Essential
Not all teachers know how to use AI tools effectively. Professional development is crucial for integrating AI into the curriculum.

5. Technological Barriers
In some regions, students may lack:
internet access
smartphones
laptops
These limitations must be addressed for successful AI implementation.

Despite these challenges, AI remains a powerful tool for enhancing assessment quality, personalizing learning, and supporting both teachers and students.

Conclusion. AI-powered assessment and feedback systems have revolutionized language teaching and learning. They offer immediate, personalized, and accurate evaluation across all language skills. Students benefit from increased motivation and autonomy, while teachers gain valuable support and reduced workload.

However, AI should be used responsibly, ethically, and under teacher supervision. When integrated wisely, AI becomes a strong partner in modern language education, improving outcomes and making learning more efficient and enjoyable.

References

1. Burstein, J., & Chodorow, M. (2021). Automated Writing Evaluation in Language Education. Routledge.

2. Li, Z., & Ni, X. (2020). AI-Assisted Language Assessment: Opportunities and Challenges. TESOL Quarterly, 54(4), 1122–1140.

3. Wang, Y. (2022). Speech Recognition Technologies in EFL Classrooms. Computer Assisted Language Learning, 35(7), 1450–1468.

4. Oxford, R. (2023). Digital Feedback in Modern Language Learning. ELT Journal, 77(3), 301–312.
5. Heift, T., & Schulze, M. (2019). Errors and Intelligence in Computer-Assisted Language Learning. Routledge.
6. Duolingo Research Report (2024). AI-Driven Testing and Scoring. Duolingo.
7. Satar, M. (2021). Learner Engagement with AI-Based Feedback. Journal of Language Education, 10(2), 45–62.

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA INTERAKTIV RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Juraxujayev Davronxo'ja Daverxo'ja o'g'li
Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: ddjuraxujayev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografiya fanini samarali o'qitishning vositasi sifatida interaktiv raqamli resurslardan, xususan "Edukaplay" platformasidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda platformaning imkoniyatlari, afzalliklari hamda geografiya darslaridagi o'rni yoritilib, 10-sinf darslarida undan foydalanish bo'yicha tavsiyalar va misollar keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilarda interaktiv mashqlar orqali mustaqil fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты использования интерактивных цифровых ресурсов, в частности платформы «Edukaplay», как эффективного средства преподавания географии. Освещены возможности, преимущества и роль платформы в учебном процессе по географии, приведены конкретные рекомендации и примеры её применения на уроках географии в 10-м классе. Кроме того, показаны возможности развития у учащихся самостоятельного мышления и аналитических навыков посредством интерактивных упражнений.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of using interactive digital resources, particularly the "Edukaplay" platform, as an effective tool for teaching geography. The paper highlights the platform's features, advantages, and its role in geography education, providing specific recommendations and examples of its application in 10th-grade geography lessons. Furthermore, it demonstrates the potential of interactive exercises in developing students' independent thinking and analytical skills.

Kalit so'zlar: geografiya, ta'lim, raqamli resurs, Edukaplay, interaktiv, xarita, test, krossvord, o'quvchi, o'qituvchi.

Ключевые слова: география, образование, цифровой ресурс, Edukaplay, интерактивность, карта, тест, кроссворд, ученик, учитель

Keywords: geography, education, digital resource, Edukaplay, interactive, map, test, crossword, student, teacher

Kirish. Zamonaviy dunyoda texnologiyaning jadal rivojlanishi barcha sohalar, jumladan, ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. XXI asr axborot va raqamli texnologiyalar asri bo'lib, an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda yangi, interaktiv metodlarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon nafaqat global miqyosda, balki mamlakatimizda ham dolzarb bo'lib bormoqda. Yuqori sifatli ta'lim tizimiga ega mamlakatlar, xususan, Finlandiya, AQSH, Janubiy Koreya va Singapur, o'quv jarayoniga virtual reallik, sun'iy intellekt, interaktiv xaritalar va onlayn platformalarni keng joriy etmoqda [3]. Bu esa o'quvchilarning bilim olish qobiliyatini oshirish, ularning fikrlash, tahlil qilish va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Interaktiv raqamli resurslar tarkibiga virtual laboratoriyalar, interaktiv xaritalar, onlayn testlar, videolar, 3D modellar va boshqa ko'plab vositalar kiradi. Shu kabi platformalardan biri – "Edukaplay" (www.edukaplay.com), xalqaro o'yinlashtirilgan ta'lim platformasi sifatida o'quv jarayonini jonlantirish imkonini beradi. Platforma turli xil faoliyat turlarini taqdim etadi, masalan, xaritalar, testlar, krossvordlar, slayd-shoular, dialoglar va videolar

orqali mashqlar yaratish mumkin [2, 6]. Edukaplay o‘qituvchiga maxsus dasturlash bilimisiz material yaratish imkonini beradi, mobil ilovasi orqali o‘quvchilar uyda yoki yo‘lda mashg‘ulotlarni bajarishi mumkin, natijalarni avtomatik baholaydi va individual yoki guruhli ishlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Afzalliklari sifatida platforma o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, vizual, eshitish va harakatchan sezgi organlarini faollashtiradi, faol o‘rganish metodologiyasini ta’minlaydi va individual yondashuv imkonini beradi. Shu bilan birga, internetga bog‘liqlik, bepul versiyada resurslar sonining cheklanganligi va texnik muammolar platformaning kamchiliklari sifatida qayd etilishi mumkin [1, 4]. Geografiya fanida Edukaplay interaktiv xaritalar yordamida mamlakatlarning joylashuvi, relyefi, iqlimi, aholisi va iqtisodiyotini o‘rganish, krossvord va testlar orqali geografik atamalar va tushunchalarni mustahkamlash, slayd-shoular va videolar orqali tabiiy hodisalar hamda madaniy landshaftlarni vizual ko‘rsatish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan olib qaralganda, 10-sinf geografiya fanining “Yevropa mamlakatlari” mavzusini o‘qitishda Edukaplay platformasi asosida tuzilgan topshiriqlardan foydalanish dars jarayonining “atmosferasi”ni oshirib, o‘quv muhitini yanada interaktiv va samarali tashkil etishga imkon beradi. Darsga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi mavzu doirasida interaktiv xaritalar, poytaxtlar va davlat bayroqlariga oid mashqlar, shuningdek, krossvordlar va test topshiriqlarini yaratadi. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar planshet yoki smartfon orqali platformaga kirib, topshiriqlarni individual yoki guruhiy shaklda bajaradilar. Edukaplay tizimi natijalarni avtomatik baholab, reyting jadvalini shakllantiradi hamda yuqori ko‘rsatkichga erishgan o‘quvchilarni aniqlash va rag‘batlantirish imkonini beradi.

1-rasmda mazkur mavzu bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning ayrimlari uchun QR kodli havolalar namunaviy tarzda taqdim etilgan. Platforma imkoniyatlarini yanada to‘liq anglash uchun mobil qurilmalar yordamida ushbu QR kodlarni skanerlab, topshiriqlarni bevosita amalda bajarib ko‘rish tavsiya etiladi.



1-rasm. *Yevropa mamalakatlari mavzusi bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarning QR kodli havolasi: a) 1-topshiriq; b) 2-topshiriq; d) 3-topshiriq.*

Xulosa. Edukaplay platformasidan maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish geografiya fanining o‘qitilishida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirib, dars jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu platforma orqali yaratilgan interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning bilim darajasi va fazoviy tafakkurini rivojlantirishga, geografik jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni anglashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, o‘yinlashtirilgan va multimediya asosidagi mashqlar o‘quvchilarda mustaqil izlanish, mantiqiy tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kabi muhim kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Baque C. J. S. et al. Educaplay Una Plataforma Multimedia Para Crear Actividades Educativa Educaplay A Multimedia Platform To Create Educational Activities //Ciencia Latina Revista Científica Multidisciplinar. – 2023. – Т. 7. – №. 5. – С. 3997-4028.

2. Juraxujayev D.D. Geografiya darslarida zamonaviy baholash vositasi sifatida Plickers texnologiyasidan foydalanish // Tabiiy fanlar: dolzarb muammolar va ularning yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (7-8-may, 2025-yil)-Samarqand: O’z-FinPI, 2025.

3. Журахужайев Д. Роль проблемного обучения в формировании современных навыков у учащихся //Предпринимательства и педагогика. – 2023. – Т. 5. – №. 4. – С. 127-134.
4. Soares N. A. V. Use of the educaplay platform in the context of professional education //Revista e-TECH: Tecnologias para Competitividade Industrial-ISSN-1983-1838. – 2025. – Т. 18. – №. 1.
5. Soledispa E. D. R. B. et al. Aplicaciones educativas Kahoot y Educaplay //Latam: revista latinoamericana de Ciencias Sociales y Humanidades. – 2024. – Т. 5. – №. 6. – С. 67.
6. Taylor L. Educaplay //The School Librarian. – 2018. – Т. 66. – №. 4. – С. 214.

VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI MAKTAB VA OTM O'QUV JARAYONINI INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI

Urunova Muqaddas Allamuradovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi magistri
Oqnazarov To'lqin Jalilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti, PhD
Телефон:+998(93) 724-70-62
E-mail: tulqinjalilovich@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada virtual laboratoriyalar yordamida maktab va OTM o'quv jarayonini integratsiyalash imkoniyatlari, ularning didaktik samaradorligi va o'quvchilar faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: virtual laboratoriya, maktab va OTM integratsiyasi, fizika ta'limi, raqamli ta'lim, eksperiment ko'nikmalari, adaptiv o'qitish, o'quv faoliyati.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности интеграции учебного процесса школ и вузов с использованием виртуальных лабораторий, их дидактическая эффективность и влияние на учебную деятельность студентов.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, интеграция школ и вузов, обучение физике, цифровое обучение, экспериментальные навыки, адаптивное обучение, учебная деятельность.

Abstract: The article analyzes the possibilities of integrating school and university learning processes through virtual laboratories, their didactic effectiveness, and impact on students' learning activities.

Keywords: virtual laboratory, school and university integration, physics education, digital learning, experimental skills, adaptive teaching, student engagement.

1. Kirish. So'nggi yillarda raqamli ta'lim va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim jarayonini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ayniqsa fizik fanlarni o'qitishda virtual laboratoriyalar o'quvchilarning eksperiment ko'nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash va individual o'quv trajektoriyasini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'quv jarayonini integratsiyalash — uzviy bilim uzatish, eksperiment ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quvchilarni ilmiy faoliyatga tayyorlashning asosiy shartidir. Virtual laboratoriyalar ushbu integratsiyani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunki ular har ikki ta'lim darajasida bir xil raqamli platformalar orqali mashqlar va tajribalarni o'tkazish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi — virtual laboratoriyalar yordamida maktab va OTM o'quv jarayonini integratsiyalash imkoniyatlarini tahlil qilish, innovatsion metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini o'rganishdir.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

2.1. Adabiyotlar tahlili

Jahon tajribasida virtual laboratoriyalar fizik fanlarni o'qitishda keng qo'llaniladi:

PhET Interactive Simulations (University of Colorado, 2023) – fizik tushunchalarni vizualizatsiya qilish va amaliy mashqlarni o'tkazish uchun keng qo'llaniladigan platforma.

Labster (Labster.com, 2023) – oliy ta'lim muassasalarida virtual laboratoriya tajribalarini olib borish imkonini beradi.

Go-Lab (European Commission, 2022) – maktab va OTM uchun adaptiv, interaktiv va masofaviy laboratoriya muhitini taqdim etadi.

OECD (2023), PISA 2022 Results – raqamli va interaktiv vositalar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Koedinger & Corbett (2006) – AI va adaptiv repetitor tizimlari yordamida o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish samaradorligi.

2.2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

Eksperimental tadqiqot – 10–11-sinf o‘quvchilari va bir qator OTM talabalari bilan virtual laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

Integratsion model – PhET va Labster platformalari yordamida maktab va OTM o‘quv jarayonini uzviylashtirish.

Nazorat va tahlil – o‘quvchilarning eksperiment ko‘nikmalari va nazariy bilimlari virtual laboratoriya orqali baholandi.

Statistik tahlil – natijalar t-test yordamida solishtirildi.

O’quvchilarning fikr-mulohazalari – kontent-tahlil orqali o‘rganildi.

3. Muhokama

3.1. Virtual laboratoriyalar orqali uzviy integratsiya modeli

Integratsion model quyidagi bosqichlardan iborat:

Nazariy tayyorgarlik – maktab va OTM kurslarida bir xil mavzu bo‘yicha nazariy bilimlar.

Virtual tajribalarni o‘tkazish – PhET yoki Labster orqali bir xil eksperimentlar.

Natijalarni tahlil qilish – AI vositalari yordamida o‘quvchilarning natijalari tahlil qilinadi.

Refleksiya va baholash – o‘quvchi natijalarni baholab, nazariy bilim bilan bog‘laydi.

3.2. Amaliy tajriba natijalari

Eksperimental va nazorat guruhlarida quyidagi natijalar kuzatildi:

O’quvchilarning eksperiment ko‘nikmalari 38% ga yaxshilandi.

Nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lash qobiliyati 42% ga oshdi.

O’quvchilar o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli deb baholadi (73%).

Maktab va OTM o‘quv jarayoni orasidagi bilim uzatilishi samarali bo‘ldi.

3.3. O’qituvchi va instruktor roli

Virtual laboratoriyalar o‘qituvchining rolini kengaytiradi:

O’quvchilarning natijalarini real vaqt rejimida kuzatadi.

Shaxsiy yondashuv va qo‘shimcha mashqlarni ishlab chiqadi.

Maktab va OTM dasturlari o‘rtasida uzviy bilim uzatishni ta’minlaydi.

4. Natijalar. Virtual laboratoriyalar maktab va OTM o‘quv jarayonini uzviylashtirish imkonini beradi.

Eksperiment ko‘nikmalari va nazariy bilimlarning integratsiyasi sezilarli darajada oshadi.

AI va adaptiv tizimlar o‘quv jarayonini individualizatsiya qiladi.

O’quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishi ortadi.

Integratsion model fizika ta’limini samaraliroq va interaktiv qiladi.

5. Xulosa. Virtual laboratoriyalar orqali maktab va OTM o‘quv jarayonini integratsiyalash — fizika fanini o‘qitishda innovatsion va samarali yondashuvdir. Bu yondashuv eksperiment ko‘nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash va o‘quvchilarning shaxsiy o‘rganish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va instruktorlar rolini kengaytiradi va o‘quv jarayonini interaktiv qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Koedinger, K. R., & Corbett, A. (2006). *Cognitive Tutors in Math and Science Education*. Cambridge Handbook of the Learning Sciences. Cambridge University Press.

2. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu

3. Labster Virtual Labs. https://www.labster.com

4. Go-Lab Project. European Commission. https://www.go-lab-project.eu

5. OECD (2023). *PISA 2022 Results*. OECD Publishing.
6. Woolf, B. P. (2010). *Building Intelligent Interactive Tutors*. Morgan Kaufmann.

FIZIKA FANIDA VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI EKSPERIMENTLARNI OSONLASHTIRISH: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

Urunova Muqaddas Allamuradovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi magistri
Телефон:+998(93) 724-70-62
E-mail: tulqinjalilovich@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada virtual laboratoriyalar yordamida fizika fanida eksperimentlarni osonlashtirish, ularning xalqaro va milliy tajribasi hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: virtual laboratoriya, fizika ta’limi, eksperimentlarni osonlashtirish, xalqaro tajriba, milliy tajriba, interaktiv ta’lim, o‘quv ko‘nikmalari.

Аннотация: В статье анализируются возможности упрощения проведения физических экспериментов с использованием виртуальных лабораторий, международный и национальный опыт, а также влияние на знания и навыки учащихся

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, обучение физике, упрощение экспериментов, международный опыт, национальный опыт, интерактивное обучение, учебные навыки

Abstract: The article analyzes how virtual laboratories simplify physics experiments, explores international and national experiences, and examines their impact on students’ knowledge and skills.

Keywords: virtual laboratory, physics education, experiment simplification, international experience, national experience, interactive learning, student skills.

1. Kirish. So‘nggi yillarda fizik fanlarni o‘qitishda virtual laboratoriyalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar murakkab eksperimentlarni osonlashtirish, xavfsiz va interaktiv muhit yaratish, shuningdek, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Xorijiy mamlakatlarda PhET, Labster va Go-Lab kabi platformalar muvaffaqiyatli ishlatilmoqda, O’zbekiston ta’lim tizimida esa virtual laboratoriyalarning integratsiyasi yangi metodik imkoniyatlar yaratadi. Maqolaning maqsadi — virtual laboratoriyalar yordamida fizika fanida eksperimentlarni soddalashtirish bo‘yicha xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qilish va ularning samaradorligini aniqlashdir.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

2.1. Adabiyotlar tahlili

PhET Interactive Simulations (University of Colorado, 2023) – fizik tushunchalarni vizualizatsiya qilish va amaliy mashqlarni o‘tkazish uchun keng qo‘llaniladi.

Labster (Labster.com, 2023) – oliy ta’limda virtual laboratoriya tajribalarini olib borish imkonini beradi.

Go-Lab Project (European Commission, 2022) – maktab va OTM o‘quv jarayonida adaptiv va interaktiv laboratoriya muhitini taqdim etadi.

OECD (2023). PISA 2022 Results – interaktiv va raqamli vositalar o‘quvchilarning fizik bilimini oshirishda samarali ekanini ko‘rsatadi.

Hohenwarter, M., et al. (2018). Teaching Mathematics and Physics with GeoGebra – vizualizatsiya va interaktiv tajribalar orqali tushunchalarni osonlashtirish.

2.2. Tadqiqot metodologiyasi

Virtual laboratoriyalar orqali tajriba mashg‘ulotlarini tashkil qilish (PhET va Labster).

Eksperimental va nazorat guruhlarida o‘quvchilar bilimini baholash.

Statistika va tahlil: t-test yordamida natijalarni solishtirish.

O’quvchilarning fikr-mulohazalarini kontent-tahlil orqali o‘rganish.

Xalqaro va milliy platformalarni solishtirish.

3. Muhokama

3.1. Xalqaro tajriba

PhET: interaktiv simulyatsiyalar yordamida murakkab fizik tushunchalarni vizual tarzda osonlashtiradi.

Labster: OTMlarda virtual tajribalarni xavfsiz va arzon muhitda amalga oshirish imkonini beradi.

Go-Lab: maktab va universitet o‘quvchilari uchun adaptiv va masofaviy laboratoriyalar yaratadi.

3.2. Milliy tajriba

O’zbekiston maktablarida virtual laboratoriyalar sinov tariqasida qo‘llanmoqda.

Milliy dasturlar orqali fizik fanlarda interaktiv mashg‘ulotlar ishlab chiqilmoqda.

Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning eksperiment ko‘nikmalarini sezilarli oshiradi.

3.3. Amaliy natijalar

Virtual laboratoriya yordamida o‘quvchilarning murakkab tushunchalarni tushunish darajasi 35–40% ga oshdi.

Eksperimentlarni xavfsiz va tez bajarish imkoniyati yaratildi.

Interaktiv va vizualizatsiya yordamida o‘quvchilarning qiziqishi 70% ga ko‘tarildi.

4. Natijalar. Virtual laboratoriyalar fizik fanlarda eksperimentlarni osonlashtiradi.

Xalqaro tajriba O’zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin.

Vizualizatsiya, interaktivlik va adaptiv tizimlar o‘quvchilarning tushunishini oshiradi.

Eksperiment ko‘nikmalarini rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash mumkin.

5. Xulosa. Virtual laboratoriyalar yordamida fizik fanlarni o‘qitishda murakkab tushunchalarni osonlashtirish va eksperiment ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi va xavfsiz, interaktiv o‘quv muhitini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu
2. Labster Virtual Labs. https://www.labster.com
3. Go-Lab Project. European Commission. https://www.go-lab-project.eu
4. OECD (2023). *PISA 2022 Results*. OECD Publishing.
5. Hohenwarter, M., et al. (2018). *Teaching Mathematics and Physics with GeoGebra*. International Journal of Science and Math Education.
6. Woolf, B. P. (2010). *Building Intelligent Interactive Tutors*. Morgan Kaufmann.

MATEMATIKA FANI MAZMUNINING O’ZIGA XOSLIGINING AKSIOMATIK YONDASHUVI

Urazova Sadoqat Raximberdi qizi
Sh.Rashidov tumani 35-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998933002046
Nuraliyeva Nafosat Abdurazzaqovna
Sh.Rashidov tumani 35-maktab fizika fani o‘qituvchisi
+998943479055

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika fani mazmunining o‘ziga xosligi maktab o‘quvchilarga matematika va geometriya fanlarini aksiomalar va teoremalar, masala va misollar, qoidalar va formulalar, algoritmlar va qonunlar asosida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib dars samaradorligini oshirish.

Kalit so‘zlar: formulalar, teoremalar, algoritmlar, ta’lim metodi, tariflar, ta’lim texnologiyalari.

Matematika fani mazmunining o‘ziga xosligidir. Inson moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning mohiyatini, tabiat va jamiyat qonunlarini murakkab aqliy faoliyatlari yordamida bilib oladi. Biz ta’lim deyilganda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi ongli va maqsadga yo‘naltirilgan aktiv faoliyatni tushunamiz. Haqiqatdan ta’lim o‘z oldiga uchta maqsadni qo‘yadi. O’qituvchilar ongida dastur asosida o‘rganilishi lozim bo‘lgan zarur bilimlar sistemasini shakllantirish. O’qituvchilarning aqliy rivojlanishlarini, qobilyatlarini yuqori darajaga ko‘tarish. Insoniy qadriyatlarni ulug‘lay bilish. Ta’lim jarayonida ana shu uch maqsad amalga oshishi uchun o‘qituvchi har bir o‘rganilayotgan tushunchani psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida tushunishi kerak. Buning natijasida o‘qituvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo‘ladi. Bilishning hissiy va mantiqiy bosqichlari mavjud. Insonning hissiy bilishi uning sezgi, idrok, tasavvurlarida o‘z ifodasini topadi. Inson sezgi ahzolar vositasida real dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Bilish jarayonida sezgilar bilan idrok ham ishtirok etadi. Sezgilar vositasida narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aks etadi, idrok qilish protsessida shu narsa va hodisalar yaxlid holda aks etadi. Narsa va hodisalarning inson ongida butunicha aks etishi idrok deyiladi. Tashqi olamdagi narsa va hodisalar inson miya po‘stlog‘ida sezish va idrok qilish orqali ma’lum bir iz qodiradi. Oradan ma’lum bir vaqt o‘tgach, ana shu izlar aktivlanishi va biror narsa yoki hodisaning sub’ektiv obrazi sifatida katta tiklanishi mumkin. Ana shu ob’ektiv olmaning sub’ektiv obrazining ma’lum vaqt o‘tgandan keyin qayta tiklanish jarayoni tasavvur deb ataladi. Mantiqiy bilish (tushuncha, hukm va xulosa) har qanday mantiqiy bilish hissiy bilish orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham har bir o‘rganilayotgan matematik ob’ektdagi narsalar seziladi, abstrakt nuqtai nazardan idrok va tassavur qilinadi. So‘ngra ana shu ob’ektdagi narsa to‘g‘risida ma’lum bir matematik tushuncha hosil bo‘ladi. Matematik ob’ektdagi narsalarning asosiy xosalarni aks ettiruvchi tafakkur to‘plamasiga matematik tushuncha deyiladi. Har bir matematik tushuncha o‘zining ikki tomoni, ya’ni mazmuni va hajmi bilan xarakterlanadi. Tushunchaning mazmuni deb ana shu tushunchasi ifodalanuvchi asosiy xossalarining to‘plamiga aytiladi. Masalan, to‘g‘ri to‘rtburchak tushunchasini olaylik. To‘g‘ri to‘rtburchak tushunchasining mazmuni quyidagi asosiy xossalar to‘plamidan iboratdir:

1. To‘rtburchak dioganali uni ikkita uchburchakka ajratadi.
2. Ichki qarama – qarshi burchaklarining yig‘indisi ga teng.
3. Diagonallari bir nuqtada kesishadi va shu nuqtada teng ikkiga bo‘linadi.

Tushunchaning hajmi deb, ana shu tushunchaga kirgan barcha ob’ektlar to‘plamiga aytiladi. Masalan, to‘rtburchak tushunchasining hajmi shu to‘rtburchak tushunchasiga kirgan barcha to‘rtburchak turlaridan ya’ni parallelogramm, kvadrat, romb va trapetsiyadan iborat bo‘ladi. Bizga hajmi jihatdan keng va mazmun jihatdan tor bo‘lgan tushunchani jins tushunchasi, aksincha esa hajm tor va mazmuni keng bo‘lgan tushunchani tur tushunchasi deb yuritilishi psihologiyadan ma’lum.

Misol. Ko‘pburchak tushunchasini olaylik. Bu tushunchadan ikkita qavariq va botiq ko‘pburchak tushunchalari kelib chiqadi. Bu yerda ko‘pburchak tushunchasi qavariq va botiq ko‘pburchak tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi deb yuritiladi, chunki uning hajmi qavariq va botiq ko‘pburchaklar hajmidan kattadir. Qavariq va botiq ko‘pburchaklar esa ko‘pburchak tushunchasiga nisbatan tur tushunchalari deb yuritiladi, chunki ulardan har birining hajmi ko‘pburchak tushunchasining hajmidan kichik ammo mazmunlari ko‘pburchak tushunchasining mazmunidan katta. Har bir fanda bo‘lgani kabi matematika fanida ham ta’riflanmaydigan va ta’riflanadigan tushunchalar mavjud. Maktab matematika kursida, shartli ravishda, ta’riflanmaydigan eng sodda tushunchalar qabul qilinadi. Jumladan, arifmetika kursida son tushunchasi va qo‘shish amali, geometriya kursida esa tekislik, nuqta, masofa va to‘g‘ri chiziq tushunchalari ta’riflamaydigan tushunchalardir. Bu tushunchalar yordamida boshqa matematik tushunchalar ta’riflanadi. Ta’rif degan so‘zning ma’nosi shundan iboratki bunda qaralayotgan tushunchalarning boshqalaridan farqlashga, fanga kiritilgan yangi termin mazmunini oydinlashtirishga imkon beruvchi tushuncha bilan ta’riflovich tushunchalar orasidagi munosabatdan hosil bo‘ladi. Tushunchaning ta’rifi inglizcha difinitsiya (dinito) so‘zidan olingan bo‘lib, chegaradegan yoki biror narsaning oxiri degan ma’noni bildiradi.

Tushunchalarning ta’rifi quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Real ta’rif.** Bunda qaralayotgan tushunchaning gruppadagi tushunchalar farqi ko‘rsatib beriladi. Bunda tahriflovchi va tahriflanuvchi tushunchalarning teng bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi.

Masalan: Aylana deb tekislikning biror nuqtasidan berilgan masofadan katta bo‘lmagan masofa yotuvchi nuqtalar to‘plamiga aytiladi. Bu yerda ta’riflanuvchi tushuncha aylana tushunchasidir, ta’riflovchi tushunchalar esa tekislik, nuqta, masofa tushunchalaridir.

2. **Klassifikatsion ta’rif.** Bunda ta’riflanayotgan tushunchaning jins tushunchasi va uning tur jihatidan farqi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Masalan: Kvadrat barcha tomonlari teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakdir. Bu ta’rifdan to‘g‘ri to‘rtburchak tushunchasi kvadratning jins tushunchasini, barcha tomonlari teng esa tur jihatidan farqini ifoda qiladi.

3. **Genetik ta’rif yoki induktiv ta’rif.** Bunda asosan tushunchaning hosil bo‘lish jarayonini ko‘rsatuvchi ta’rif genetik ta’rif deyiladi.

Bizga psixologiya kursidan ma’lumki, genetika so‘zi grekcha genesis so‘zidan olingan bo‘lib, kelib chiqishi yoki manba degan ma’noni bildiradi.

Masalan: 1) to‘g‘ri burchakli uchburchakning bir kateti atrofida aylanishdan hosil bo‘lgan jismni konus deyiladi;

2) teng yonli trapetsiyaning balandligi atrofida aylanishdan hosil bo‘lgan jismni kesik konus deyiladi;

3) doiraning diametri atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jism shar deyiladi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tushunchalarni ta’riflashda har bir tushunchaning mazmuni beriladi, bu degan so‘z tushunchaning asosiy alomatlari yoki muhim belgilarini sanab ko‘rsatish demakdir.

Demak, ta’rifda faqat ta’riflanadigan tushunchani boshqa turdagi tushunchalardan ajratib turadigan muhim belgilaringna ifodalaydi.

Maktab matematika kursida tushunchalarning ta’rifi ikki usil bilan tuziladi:

A. Berilgan tushunchalarning hajmicha ko‘ruvchi barcha ob’ektlar to‘plamiga asoslanadi. Masalan: Tekislikning (masofalar o‘zgartirilmagan holida) o‘z-o‘ziga akslanishi sijitish deyiladi. Bu yerda o‘q va markazi simmetriya, parallel ko‘chirish va nuqta atrofida burish tushunchalari siljitish tushunchalarining ob’ektiga kirituchvi tushunchalaridir.

B. Berilgan tushunchaning aniqlovchi alomatlar to‘plamiga asoslaniladi. Bunday ta’rifni to‘zishda tushunchaning barcha muhim alomatlari sanab o‘tilmaydigan, ammo ular tushunchaning mazmunini yechib berishi yetarli bo‘lishi kerak.

Masalan: parallelogrammning muhim alomatlari quyidagilardan iborat:

A) to‘rtburchak;

B) qarama – qarshi tomonlari o‘zaro teng va parallel;

C) diagonallari kesishish nuqtasida teng ikkiga bo‘linadi;

D) qarama – qarshi burchaklari teng.

Parallelogrammni ta’riflashda A) va C) alomatlar orqali quyidagi ta’rifni tuzish mumkin. Qarama – qarshi tomonlari o‘zaro parallel va teng bo‘lgan to‘rtburchak parallelogramm deyiladi. Endi A) va C) alomatlar orqali ta’rif tuzaylik: Diagonallari kesishib, kesishish nuqtasida teng ikkiga bo‘linuvchi to‘rtburchak parallelogramm deyiladi. Aytilganlardan ma’lum bo‘ladigan, tushunchani ta’riflashda tanlanadigan muhim alomatlar soni yetarlicha bo‘lgandagina ta’riflanayotgan tushuncha haqidagi ta’rif to‘g‘ri chiqadi. Tushunchalarning ta’rifiga bo‘lgan ilmiy pedagogik o‘quvchilar va tushunchani ta’riflash qoidalari o‘qishda yangi kiritilayotgan matematik tushunchalarning ta’rifi ustida olib boriladigan ishlarning bosqichlarini, ya’ni ta’rifini o‘quvchilarga bayon qilish metodikasini ishlab chiqishga imkon beradi.

O’quvchilarni matematik tushunchalarning ta’riflari bilan tanishtirishning ikki yo‘li mavjud:

1. **Abstraktiv – deduktiv yo‘l.** Bunda ta’rif ko‘rinishda olingan konkret misol va namunalar yordamida tushuntirilmasdan kiritilgan.

2. **Konkret – induktiv yo‘l.** Bunda o‘quvchilar avval o‘qituvchining topshiriqlarini bajargan holda, o‘rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchining rahbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilalar.

Yangi ta’rif kiritishning bu yo‘li ayniqsa quyi sinflarda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Bu yo‘l o‘quvchilarning matematik ta’rif yuqori darajada ko‘tarishga imkon yaratadi. Konkret – induktiv yo‘l o‘qitishda muammoli vaziyatning vujudga kelishiga sharoit to‘ldiradi. Analiz va sintez, abstraktsiyalash va umumlashtirish kabi mantiqiy jarayonlar yordami bilan yangi tushuncha hosil qilinadi. Shu munosabat bilan, matematik, xususan geometrik tushunchalarni shakllantirishdan muammoli yondashishni e’tiborga olgan holda o‘quvchilarni ta’riflar bilan tanishtirshning konkret – induktiv metodidan keng ko‘lamda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizning dalili sifatida 7-sinfda o‘rgatiladigan paralel to‘g‘ri chiziqlar tushunchasini konkret – induktiv yo‘l orqali kiritish usulini ko‘rib o‘taylik. Bunda o‘rganiladigan matematik tushuncha uchun tahrif tayyor urinishda oldindan konkret misol va masalalar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi.

Masalan, 8-sinfda o‘tiladigan to‘la kvadrat tushunchani abstrakt – deduktiv metod orqali quydagicha kiritiladi.

1. Kvadrat tenglama tushunchasiga ta’rif beriladi.

Ta’rif. $ax^2+bx+c=0$ ko‘rinishdagi tenglamalar to‘la kvadrat tenglama deyiladi. Bu yerda o‘zgaruvchi, ixtiyoriy o‘zgarmas sonlar

2. Kvadrat tenglamaning xususiy hollari ko‘rib chiqiladi. Buni jadval tarzida bunday ifodalash mumkin.


Jadval 1. 3. Hosil qilingan keltirilgan va chala kvadrat tenglamalarga aniq misollar keltiriladi. Masalan, va hakoza

$$2x^2-3x-4=0,\quad x^2-5x-6=0,\quad 3x^2+5=0,\quad 2x^2+7x=0,\quad 5x^2=0$$

$$x_{1,2}\ \frac{3\pm\sqrt{9+16}}{4}=\frac{3\pm\sqrt{25}}{4}=\frac{3\pm5}{4}\qquad x_1\ \frac{3+5}{4}=\frac{8}{4}=2$$

$$x_2\ \frac{3-5}{4}=\frac{-2}{4}=-\frac{1}{2}$$

To‘la kvadrat tenglama. Jadval 1



4. Kvadrat tenglama tatbiqiga doir xayotiy misollar keltirish kerak. Masalan. $S=\frac{gt^2}{2}$, formula fizika kursidan bizga ma’lum, bu tenglamani yechish ko‘rinishdan bizga ma’lum, bu tenglamani ko‘rinishidagi chala kvadrat tenglama holiga keltirilib so‘ngra yechiladi.

5. Kvadrat tenglamaning ildizlarini hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz:

$$ax^2+bx+c=a\left(x^2+\frac{b}{a}x+\frac{c}{a}\right)=a\left(\mathrm{x}^2+2\cdot\frac{b}{2a}x+\frac{c}{a}\right)=a\left(\mathrm{x}^2+2\frac{b}{2a}x+\frac{b^2}{4a^2}-\frac{b^2}{4a^2}+\frac{c}{a}\right)=$$
$$=\left[\left(\mathrm{x}^2+2\frac{b}{2a}x+\frac{b^2}{4a^2}\right)-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=a\left[\left(\mathrm{x}+\frac{b}{2a}\right)^2-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=0:$$

$$ax^2+bx+c=a\left(x^2+\frac{b}{a}x+\frac{c}{a}\right)=a\left(\mathrm{x}^2+2\cdot\frac{b}{2a}x+\frac{c}{a}\right)=a\left(\mathrm{x}^2+2\frac{b}{2a}x+\frac{b^2}{4a^2}-\frac{b^2}{4a^2}+\frac{c}{a}\right)=$$
$$=\left[\left(\mathrm{x}^2+2\frac{b}{2a}x+\frac{b^2}{4a^2}\right)-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=a\left[\left(\mathrm{x}+\frac{b}{2a}\right)^2-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=0:$$

Maktab geometriya (planimetriya) kursining aksiomatik tuzilishi bizga ma’lumki, geometriya fani aksiomalar sistemasi asosida qurilgandir. Geometriya fanining mantiqiy asosda qurilishini yaratish uchun aksiomalarning bo‘lishligi haqida fikr Gretsiyada bundan ming yil avval paydo bo‘lgan edi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida geometriya fanining turli bo‘limlarida aksiomalar chuqur o‘rganildi va rivojlantirildi. Geometriya kursidagi aksiomalar sistemasi asosan quyidagi uchta talabga javob berishi kerak.

1. Aksioma sistemasi ziddiyatsiz bo‘lishi kerak. Bu degan so‘z, biror aksiomadan chiqarilgan natija shu aksioma yordamida hosil qilingan boshqa natijaga yoki boshqa aksiomadan chiqarilgan xulosaga zid kelmasligi kerak.

2. Aksiomalar sistemasi mustaqil bo‘lishi kerak, yahni hech bir aksioma ikkinchi bir aksiomadan kelib chiqadigan bo‘lmasligi kerak.

3. Aksiomalar sistemasi shu fanga oid istalgan bir yangi tushunchani isbot etish uchun etarli bo‘lishi kerak, ya’ni biror matematik jumlani isbotlashda hech qachon o‘z-o‘zidan tushunilishiga yoki tajribaga tayanilmaydi, bu matematik jumla boshqa teoremalar bilan, oxirida aksiomalar bilan asoslanishi kerak bo‘ladi.

Maktab geometriya kursida quyidagi aksiomalar sistemasi mavjud.

1. Tegishlilik aksiomasi:

a) har qanday to‘g‘ri chiziq nuqtalar to‘plamidan iboratdir;

b) har qanday ikki nuqtadan bitta va faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin;

c) har qanday to‘g‘ri chiziqni olmaylik, shu to‘g‘ri chiziqqa tegishli bo‘lgan va tegishli bo‘lmagan nuqtalar mavjud.

2. Masofa aksiomasi:

a) har bir kesmaning uzunligi shu kesmaning har qanday nuqtasi ajratgan masofalar uzunliklarining yig‘indisiga teng:

b) A nuqtadan B nuqtagacha bo‘lgan masofa B nuqtadan A nuqtagacha bo‘lgan masofaga teng: $|AB| = |BA|$.

c) Ixtiyoriy uchta A, B, C nuqta uchun A dan C gacha bo‘lgan masofa A dan B gacha va B dan C gacha bo‘lgan masofalar yig‘indisidan katta emas: $|AC|\leq|AB|+|BC|$

3. Tartib aksiomasi:

a) To‘g‘ri chiziqdagi uchta nuqtadan bittasi va faqat bittasi qolgan ikkitasi orasida yotadi.

b) To‘g‘ri chiziq tekislikni ikki yarim tekislikka ajratadi.

4. Harakat aksiomasi:

a) Agar $|AB|$ masofa musbat bo‘lib, u $|A_1B_1|$ masofaga teng bo‘lsa, A nuqtani A_1 nuqtaga va B nuqtani B_1 nuqtaga akslantiruvchi faqat ikkita siljitish mumkin.

5. Paralellik aksiomasi: Berilgan nuqtadan to‘g‘ri chiziqqa bitta va faqat bitta parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin. Teorema, uning turlari va ularni isbotlash metodlari Teorema so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi qarab chiqaman yoki o‘ylab ko‘raman demakdir, shuning uchun ham maktab matematika kursida teoremaga quyidagicha tahrif berilgan: Isbotlashni

talab etadigan matematik hukm teorema deyiladi. Maktab matematika kursida teoremalarning quyidagi turlari mavjuddir:

1. To‘g‘ri teorema.
2. Teskari teorema.
3. To‘g‘ri teoremaga qarama-qarshi teorema.
4. Teskari teoremaga qarama-qarshi teorema.

Maktab geometriya kursida shunday teoremalar borki, ularning shartidan xulosasining to‘g‘riligi va aksincha, xulosasidan shartining to‘g‘riligi kelib chiqadi. Endi to‘g‘ri va teskari teoremalarning berilishi hamda ularni isbotlash uslubiyatini ko‘rib chiqaylik.

To‘g‘ri teorema: “Agar uchburchakning biror tomoni katta bo‘lsa, u holda ana shu katta tomon qarshisida katta burchak yotadi”.

Teskari teorema: “Agar uchburchakning biror burchagi katta bo‘lsa, u holda ana shu katta burchak qarshisida katta tomon yotadi”.

Isbotlash - deduktiv xulosa chiqarish zanjiri, demakdir.

Har qanday isbotlash jarayoni quyidagi uch qismni o‘z ichiga oladi:

1. Teoremaning bayoni - isbot talab etiladigan holat.
2. Argumentlar - teoremani isbotlash jarayonida ishlatilgan matematik hukmlar.
3. Isbotlash - deduktiv xulosa chiqarish orqali teorema xulosasida topish talab qilingan noma’lumni uning shartlari hamda avvaldan ma’lum bo‘lgan argumentlardan foydalanib keltirib chiqarish. Teoremani isbotlashga kirish va uni isbotlash jarayonida o‘qituvchi yordamida o‘quvchilar quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka ega bo‘lgan bosqichlarni bajarishlari kerak:

1) Teoremaning sharti va uning xulosasi nimadan iborat ekanligini to‘la tushunib olishlari kerak.

2) Ana shu teoremani shart va xulosasida qatnashayotgan har bir matematik tushunchaning ma’nosini bilishlari kerak.

3) Teoremaning shart va xulosa qismlarini matematik simvollar orqali ifodalashlari kerak.

4) Teoremaning shartida qatnashayotgan ma’lum parametrlar teorema xulosasidagi noma’lumni aniqlay oladimi yoki yo‘qmi bilishlari kerak.

5) Teoremani isbotlash jarayonida teoremadagi shartlardan teorema xulosasining to‘g‘riligini ko‘rsatuvchi natijalar keltirib chiqarishi kerak.

6) Teoremani isbotlash jarayonidagi mantiqiy mulohazalarda teoremaning shartidan to‘la foydalanishlari kerak.

7) Teorema isbot qilib bo‘lingach, isbotlashda qo‘llanilgan metodni ko‘zdan kechirish va imkoni bo‘lsa, isbotlashning boshqa usullarini qidirib topish kerak.

Maktab matematika kursidagi teoremalarni isbotlash ikki usulda amalga oshiriladi.

1) Bevosita isbotlash usuli (to‘g‘ri isbotlash usuli);

2) Bilvosita isbotlash usuli (teskarisidan faraz qilish usuli);

Bevosita isbotlash usuli jarayonida teoremaning shartida qatnashayotgan ma’lum va parametrlardan hamda avvaldan mahlum bo‘lgan aksioma, ta’rif va teoremalardan foydalangan holda mantiqiy mulohaza yuritib, teorema xulosasida talab qilingan noma’lumlarni topiladi. Teoremalarni bunday isbotlash analiz va sintez orqali amalga oshiriladi. Noma’lumlardan ma’lumlarga tomonga izlash metodi analiz deyiladi. Psixologik olimlar analiz metodini quyidagicha tahriflaydilar: analiz - bu butunlardan bo‘laklarga tomon izlash demakdir. Ma’lumlardan noma’lumlarga tomon izlash metodiga sintez deyiladi. Psixologik nuqtai-nazardan sintez metodi bo‘laklardan butunlarga tomon izlash metodi demakdir.

Bilvosita isbotlash usuli (teskaridan faraz qilish orqali isbotlash usuli). Teoremaning xulosasidagi no‘malumlarni topish unga zid bo‘lgan jumlani inkor qilish orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, uni bilvosita isbotlash usuli deyiladi.

Xulosa shuki yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinadiki, isbotlashning bilvosita usulida biz oldin teorema tasdiqlagan fikrga qarama-qarshi fikrni to‘g‘ri deb faraz qilamiz. Shundan keyin aksiomalar va oldin isbotlangan teoremalarga asoslanib mulohazalar yuritish yo‘li bilan teorema shartiga zid keladigan yoki biror aksiomaga yoki ilgari isbotlangan biror teoremaga zid keladigan

xulosaga kelamiz. Shunga ko‘ra farazimiz noto‘g‘ri bo‘ladi. Natijada teoremadagi yoki berilgan masaladagi da’vo to‘g‘ri degan xulosaga kelamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R., Mirzaahmedov M. Algebra. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-sinflari uchun darslik.–T.: O’qituvchi, 2017.

2. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R., Mirzaahmedov M. Algebra. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 8-sinflari uchun darslik.–T.: O’qituvchi, 2014.

3. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R., Mirzaahmedov M. Algebra. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinflari uchun darslik.–T.: O’qituvchi, 2014.

4. Azamov A. Xaydarov B., Kuchkarov A., Sariqov Ye., Sag‘diyev U. Geometriya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7- sinfi uchun darslik. –T.: —Yangiyo‘l poligraf servis, 2017.

IKKINCHI DARAJALI TENGLAMA QATNASHGAN ENG SODDA SISTEMALARNI YECHISH

Mavlonov Sharof Raxmanovich
Zafarobod tumani 10-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998997500274
Abdumajidov Zarfulla Abduraxmonovich
G‘allaorol tumani 19-maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998938222237

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinchi darajali tenglama qatnashgan eng sodda sistemalarni o‘rniga qo‘yish, qo‘shish va ayirish usullarining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanishi, hamda o‘rniga qo‘yish, qo‘shish va ayirish usullarining afzalliklari va o‘quv jarayonidagi o‘rni ilmiy uslubda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Tenglama, ikkinchi darajali tenglama, sistema, sistemalarni yechish, sistemalarni o‘rniga qo‘yish, qo‘shish va ayirish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическое применение методов подстановки, сложения и вычитания простейших систем квадратных уравнений, а также преимущества методов подстановки, сложения и вычитания и их роль в учебном процессе с научной точки зрения.

Ключевые слова: Уравнение, квадратное уравнение, система, решение систем, подстановка, сложение и вычитание систем.

Abstract. This article discusses the theoretical foundations and practical application of the methods of substitution, addition and subtraction of the simplest systems involving quadratic equations, as well as the advantages of the methods of substitution, addition and subtraction and their role in the educational process in a scientific manner.

Keywords. Equation, quadratic equation, system, solving systems, substitution, addition and subtraction of systems.

Ikkinchi darajali tenglamaning matematik ta’rifi, uning asosiy ko‘rinishi $\begin{cases} x^2 + y = 7 \\ x + y = 3 \end{cases}$ Ikkinchi darajali tenglamani yechish usullari haqida chuqur va to‘liq bilim hosil qilish.

Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishning turli usullarini (masalan, o‘rniga qo‘yish, qo‘shish, ayirish usullarini) o‘zlashtirish.

1. Ikkinchi darajali tenglama qatnashgan eng sodda sistemalarni yechish:

1-masala To‘g‘ri burchakli uchburchakning gipatenuzasi $\sqrt{13}$ sm ga teng, uning yuzi esa 3 sm^2 Uchburchakning katetlarini toping.

Yechilishi:

Uchburchakning katetlari x va y sm ga teng bo‘lsin. Pifagor teoremasi va to‘g‘ri burchakli uchburchakning yuzi fo;rmulasidan foydalanib, masala shartini bunday yozamiz:

$$\begin{cases} x^2+y^2=13 \\ \frac{1}{2}xy=3 \end{cases}$$

Sistemaning birinchi tenglamasiga 4 ga ko‘paytirilgan ikkinchi tenglamasini qo‘shib, quyidagini hosil qilamiz:

$$x^2+y^2+2xy=25$$

Bundan $(x+y)^2$ =25 yoki $x+y=\pm 5$. *x* va *y* lar musbat sonlar bo‘lgani uchun $x+y=5$ bo‘ladi. Bu tenglamada *y* ni *x* orqali ifodalaymiz va (1) sistema tenglamalaridan biriga, masalan ikkinchi tenglamaga qo‘yamiz:

$$y=5-x, \frac{1}{2}x(5-x)=3$$

Hosil qilingan tenglamani yechamiz

$$5x-x^2=6\ x^2-5x+6=0\ x_1=2\ x_2=3$$

Bu qiymatlarni $y=5-x$ fo‘rmulaga qo‘yib $y_1=3$ $y_2=2$ ni topamiz. Ikkala holda ham katetlardan biri 2 sm, ikkinchisi esa 3 sm.

Javob: 2 sm, 3 sm

2-masala. Tenglamalar sistemasini yeching

$$\begin{cases} x+y=3 \\ xy=-10 \end{cases}$$

Viyet teoremasiga teskari teoremaga ko‘ra x va y sonlar

$$z_2-3z-10=0$$

Kvadrat tenglamaning ildizlari bo‘ladi. Bu tenglamani yechib quyidagini hosil qilamiz: $z_1=5$ $z_2=-2$ Demak sistemaning yechimlari quyidagi sonlar juftliklari bo‘ladi $x_1=5$ $y_1=2$ va $x_2=2$ $y_2=5$

Javob: (5;-2), (-2;5)

Bir tenglamadan bir o‘zgaruvchini ifodalab olib uni ikkinchi tenglamaga qo‘yamiz

Misol:

$$\begin{cases} y=2x+1 \\ x^2+y^2=25 \end{cases}$$

Yechish

1. Birinchi tenglamadan y allaqachon ifodalangan

$$y=2x+1$$

2. Shu ifodani ikkinchi tenglamaga qo‘yamiz

$$x^2+(2x+1)^2=25$$

3. Kvadratni ochamiz

$$x^2+4x^2+4x+1=25$$

$$5x^2+4x-24=0$$

4. Ikkinchi darajali tenglamani yechamiz

$$x=\frac{-4\pm\sqrt{4^2-4.5.(-24)}}{2.5}=\frac{-4\pm\sqrt{16+480}}{10}=\frac{-4\pm 22}{10}$$

$x_{1=1.8}$ $x_{2=-2.6}$

5. Har bir x qiymatiga mos y ni topamiz

Agar $x=1.8$:y=2(1.8)+1=4.6

Agar $x=2.6$:y=2(-2.6)+1=-4.2

Natija: (x,y)=(1.8 ; 4.6) yoki (-2.6 ; -4.2)

O’rniga qo‘yish, qo‘shish va ayirish usullarining afzalliklari.

1. Vizualizatsiya – o‘quvchi ikkinchi darajali tenglama qatnashgan eng sodda sistemani to‘liq ko‘rinishini bilib oladi.

2. Chuqur tushunish – O’rniga qo‘yish, qo‘shish va ayirish usullarini qaysi birini qo‘llasa misol osonroq ishlanishini tushunib yetadi.

3. Universallik – qaysidir usulni qo‘llab misolni yecha olish mumkun.

4. O’qitishda samaradorlik – usullardan qaysi birini qo‘llab misolni tezroq va samarali yechish tushuniladi.

Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish usullarini tushuntirish va yechishni o‘rgatish. Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishning turli usullarini (masalan, o‘rniga qo‘yish, qo‘shish, ayirish usullarini) o‘zlashtirish.

Berilgan ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini to‘g‘ri va samarali yechishga qodir bo‘lish, mustaqil ravishda murakkabroq masalalarni yechish uchun olingan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash. Matematik modelni tuzish va uni yechish orqali amaliy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Matematika. 9-sinf uchun darslik. Sh. A. Alimov, O. R. Xolmuhamedov
2. Matematika. 8-sinf uchun darslik. M. A. Mirzaahmedov
3. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy metodik qo‘llanmalari – Algebra fanidan metodik ko‘rsatmalar, 2020–2024.

ELASTIK KUCHI MAVZUSIGA DOIR MASALALARNI YECHISH METODIKASI

Sattarova Nigora Yaxshiboyevna
Sharof Rashidov tumani 14-maktab fizika fani o‘qituvchisi
Ulikova Shoxista Temirovna
Do‘stlik tumani 5-maktab fizika fani o‘qituvchisi

Annotatasiya. Mazkur maqolada Elastik kuchiga doir masalalar yechishning umumta’lim maktablarida o‘qitish metodikasi yoritilgan. Elastik kuchining mohiyatini o‘quvchilarga tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazib berish usullari keltirilgan. Dars mashg‘ulotlari davomida foydanilsa bo‘ladigan usullardan foydalanishning samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Deformatsiya, elastik kuchi, Guk qonuni, elastik jismlar.

Bu maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida Elastik kuchi mavzusida faydalanish metodikasi yoritilgan. Maqolada Elastik kuchining nazariy asoslari, uning amaliy ahamiyativa o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishlarining ortishi, intefaol metodlardan foydalanish usullari yoritilgan. Darsning samaradorligini yanada oshirish uchun innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

O’quvchilarda elastik kuchi, guk qonunining mohiyatini anglash ko‘nikmasini shakllantirish har bir qonunni formulalar orqali ifodalsh va masalalarda qo‘llashni o‘rganish. Deformatsiya, jismning elastikligi va o‘zaro ta’sir tushunchalarini izohlash va bog‘lash.

Umummadaniy kompitensiyasi shakllanib o‘quvchilarni ona vatanga sadoqat, mehr-muruvvat ruhida tarbiyalab borish. O’quvchilarga elastik kuchi haqidagi bilimlarni berish, o‘rni muhimligini tushuntirish, ular haqidagi tarixiy ma’lumotlar, va vatandoshlarimizning shu sohadagi faoliyati haqida tanishtirish, o‘quvchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

O’quvchilarning kuzatish va tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirish. Nazariy bilimlarini hayotga tadbiq qila olish malakasini shakllantirish

Elastiklik kuchi fizikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, ko‘plab hodisalarni tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Elastiklik - jismga ta’sir etuvchi kuchlar olinganda uning avvalgi geometrik o‘lchamlarini tiklash xususiyati. Jismlarning elastiklikgi ularni tashkil qiladigan atomlar (molekulalar) ning ta’sir kuchlari (ichki kuchlar) mahsulidir. Elastiklik kuchining ta’rifi va mohiyati Elastiklik kuchi jismning deformatsiyalanishi va tashqi kuchlarning ta’siri to‘xtatilgandan so‘ng asl shakliga qaytganda paydo bo‘ladi. Materiallarning elastiklik deb ataladigan bu xususiyati ularning mexanik kuchlarga ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Bu kuchlar deformatsiyaga sababchi ta’sir to‘xtatilgach, jismning boshlang‘ich shakli va o‘lchamlarini tiklashni ta’minlaydi.

Deformatsiyalanadigan jismda vujudga kelib,tashqi kuchga qarshilik ko‘rsatadigan va unga qarama-qarshi yo‘nalgan kuch elastik kuch deb ataladi.

Guk qonuni

1.Elastiklik kuchining kattaligi abdolyut deformatsiyaga to‘g‘ri proporsional;

2.Deformatsiyalar kichik (elastik tabiatiga ega) bo‘lgan holda mexanik kuchlanish nisbiy deformatsiya qiymatiga to‘g‘ri proporsional.

Guk qonuni – qattiq jismning elastik deformatsiyasi bilan shu jismga qo‘yilgan mexanik kuchlanish orasidagi chiziqli munosabatni ifodalaydigan qonun. Robert Guk kashf qilgan. Kuchlanish ta’sirida jism cho‘zilishi yoki siqilishi mumkin.

Guk qonuning formulalari $F_{el} = -k\Delta x$

$F_{el} = -k\Delta l$ Bu yerda:

$$\Delta l = \frac{F_{el} l_0}{ES}$$

F_{el} – Elastiklik kuchi

k – Bikrlik


Δl – Sterjenning boshlang‘ich va oxirgi nuqtasi ($\Delta l = \Delta x$)

S– Sterjenning ko‘ndalang kesim yuzasi

E– Sterjen materiali va temperaturaga bog‘liq bo‘lgan kattalik (Yung moduli)

l_0 – Sterjenning boshlang‘ich uzunligi

Nisbiy deformatsiya birga teng bo‘lgandagi mexanik kuchlanishga miqdor jihatdan teng bo‘lgan kattalikka Yung moduli yoki elastiklik moduli deyiladi. U lotin E harfi bilan belgilanadi va birligi Paskal E= [1Pa]



Bikrlik – prujina yoki sterjenning elastik xususiyatini xarakterlovchi skalyar kattalik bo‘lib, prujina yoki sterjenni uzunlik birligiga siqish yoki cho‘zish uchunkerak bo‘ladigan kuchga son jihatdan teng va birligi k= [1 N/m] = [1 kg /s ^{2}]

Elastik kuchi tashqi kuch ta’siridagi deformatsiya kattaligiga to‘g‘ri proparsional.

1-masala. Uzunligi 4m, kesimi 10 mm^2 bo‘lgan po‘lat simni 2 mm ga cho‘zish uchun qancha kuch qo‘yish kerak? Po‘lat uchun elastiklik moduli 190 GPa.

l_0 = 4 m

S = 10 mm^2 = 10^{-5} m^2

Δl =2 mm = $2 \cdot 10^{-3} m$

E = 190 GPa = $1{,}9 \cdot 10^{11}$ Pa

Topish kerak: F = ?

F = $E\frac{\Delta l}{l_0}$ S

Formula hosil bo‘ladi.Birligi tekshiriladi:

F = $\frac{N}{m^2}\frac{m}{m}$m^2 = N

To‘g‘riligi tekshirilgach berilganlarni o‘rniga qo‘yamiz:

F= $\frac{1{,}9\cdot 10^{11} \cdot 10^{-5} \cdot 2\cdot 10^{-3}}{4} N = 950\,N$

Javob: F=950 N

2-**masala**.Osmaga mahkamlangan simga og‘irligi 300 N bo‘lgan jism osilgan.Jismning og‘irlik kuchi ta’sirida sim 0,5 mm ga uzaygan bo‘lsa,uning bikrligini toping.

Berilgan:

F_{el} =300 N

Δl =0,5 mm=0,0005m

k =?

Yechish: $F_{el} = -k\Delta l$ shundan $k = F_{el}/\Delta l$

$$k = \frac{300}{0{,}0005} = 600000\frac{N}{m}$$

Shundan so‘ng yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar beriladi.

Franklin piramidasi metodi. Bu metod o‘quvchilarning fizikadan masalalar yechish ko‘nikmalarini hosil qiladi va formulalardan to‘g‘ri foydalanish jarayonini yanada osonlashtiradi.Sodda masalalarni yechish ko‘nikmalarini hosil qilgach,murakkab masalalarni yechishga o‘tiladi.Shu tariqa o‘quvchi piramida cho‘qqisini asta sekin zabt eta boshlaydi.Bu kabi innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va qo‘yilagan maqsadga erishish uchun tog‘ri yo’naltirib boradi.

Piramidaning har bir qatoriga masalaning javobi yozib boriladi. Eng cho‘qqisiga yechilgan masalalar javobining yig‘indisi yozib qo‘yiladi,lekin o‘quvchilarga ko‘rsatilmaydi. Qaysi guruh o‘sha raqamni to‘g‘ri topsa g‘olib bo‘ladi.Raqamni to‘g‘ri topish uchun masalalar to‘g‘ri yechilgan bo‘lishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ma’lumotlarni qabul qilishida, elastiklik kuchi va Guk qonuni mexanikada jismlarning deformatsiyaga javob reaksiyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Guk qonunidan shuni ko‘ramizki jismlar kichik deformatsiyalarda tashqi ta’siriga nisbatan chiziqli tarzda javob beradi. Guk qonuni yordamida turli mexanik jismlarni tuzish, ularga yuklama tushganda vujudga keladigan kuchlarni hisoblash imkoniyati yaratiladi. Umumiy holatda, bu qonun tabiiy jarayonlarni modellashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Fizika 9-sinf Habibullayev P.,Boydedayev A.,Bahromov A.,Burxonov S. Toshkent-2017

2.Ilm-fan va innovatsiya olmiy-amaliy konferensiyasi jurnali 2021 yil

3. Fizika 10-sinf. Tursenmetov K.A Usmonov SH.N Rahmatov.J.A Hamidov.D.B Toshkent 2022

4. Tursunov Q.Sh. “Fizikadan darslarni revojlantirish” (IX sif) Metodik qo‘llanma 1994 yil

5. T.Rizayev. V.Ibragimov “Fizikadan masalalar yechish metodikasi” Toshkent 2015 yil

6. Usmonov M.M, “Fizikadan savol va masalalar to‘plami” –T. Navro‘z,2014 yil

WHY TRADITIONAL TEACHING METHODS NEED TO CHANGE IN THE MODERN WORLD

Muyassarova Dilnoza
Student of CSPU
Email: jobirziyodulloyev192@gmail.com
Scientific advisor: **Ruzmetova Diana Komilovna**
Act.assoc.prof(PhD) of Chirchik state Pedagodical University

Abstract. This article analyzes the limitations of traditional teaching methods in the modern world and emphasizes the need to replace them with innovative pedagogical approaches. It discusses how interactive learning, project-based education, and the use of technology can enhance students’ creativity, problem-solving abilities, and collaboration skills.

Keywords. Traditional teaching, modern pedagogy, interactive learning, project-based education, educational technology, creative thinking, problem-solving, student skills

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy dunyoda an’anaviy o‘qitish usullarining cheklovlarini tahlil qiladi va ularni yangi pedagogik yondashuvlar bilan almashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Matnda interaktiv o‘qitish, loyiha asosidagi ta’lim va texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: An’anaviy o‘qitish, zamonaviy pedagogika, interaktiv ta’lim, loyiha asosidagi

ta’lim, texnologiyalardan foydalanish, ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, talabalar ko‘nikmalari

Аннотация. В данной статье анализируются ограничения традиционных методов обучения в современном мире и подчеркивается необходимость их замены инновационными педагогическими подходами. Рассматривается, как интерактивное обучение, проектная деятельность и использование технологий могут развивать у студентов творческое мышление, навыки решения проблем и умение работать в команде.

Ключевые слова: Традиционное обучение, современная педагогика, интерактивное обучение, проектное обучение, использование технологий в обучении, творческое мышление, решение проблем, навыки студентов

Traditional teaching methods have been around for centuries and are still used in many schools and universities around the world. Typically, the teacher is the center of the classroom, and students are expected to listen, take notes, and memorize information. Exams and tests often measure how well students can recall facts, rather than how creatively or critically they can think. This method has worked in the past when information was scarce, and learning mainly meant acquiring knowledge from textbooks or teachers.

However, the modern world is very different. Technology has changed the way people access information, communicate, and solve problems. Students can now find answers online in seconds, watch tutorials, and even participate in virtual classrooms. The job market today requires more than memorization; it demands problem-solving skills, collaboration, adaptability, and creative thinking. Traditional methods don’t always prepare students for these real-world challenges.

Interactive learning, project-based education, and digital tools can make learning more engaging and effective. Students can explore subjects they are genuinely interested in, experiment, make mistakes, and learn from them. Group projects and discussions encourage teamwork and communication, which are crucial skills in modern workplaces.

Because of this, many educators believe that old-fashioned teaching methods need to evolve. It is not enough for students to just know facts; they must be able to apply knowledge, think critically, and adapt to new situations. The future of education is more dynamic, flexible, and student-centered, allowing young people to develop the skills they need to succeed in a rapidly changing world.

In today’s rapidly changing world, traditional teaching methods are increasingly being challenged. While conventional classrooms often rely on lectures, rote memorization, and rigid curricula, modern students face an environment that values adaptability, creativity, and lifelong learning. Information is no longer confined to textbooks; it is constantly updated online, available through videos, podcasts, forums, and interactive platforms. This shift means that students must learn to filter, evaluate, and apply knowledge rather than simply store it.

Moreover, the pace of technological advancement has made interdisciplinary skills more important than ever. Modern problems often require combining knowledge from science, technology, arts, and humanities. Traditional teaching methods, which separate subjects and emphasize standardization, rarely encourage such integration. Collaborative platforms and project-based learning, on the other hand, allow students to tackle complex challenges, experiment with ideas, and learn from failures in a low-risk environment.

Another limitation of conventional methods is their lack of personalization. Every student has a unique learning style, pace, and interest. Standardized teaching can leave many students disengaged or struggling. Adaptive learning technologies, such as AI tutors and interactive simulations, provide tailored experiences that help students master concepts at their own speed. They also offer instant feedback, which accelerates understanding and builds confidence.

Critical thinking and problem-solving are increasingly valued in modern careers, but they are often neglected in traditional classrooms. Inquiry-based approaches, debates, and real-world projects cultivate these skills, giving students opportunities to question assumptions, analyze evidence, and make decisions independently. Furthermore, global connectivity has made cross-

cultural communication essential. Students need to collaborate with peers worldwide, understand diverse perspectives, and navigate multicultural environments—skills rarely addressed in conventional methods.

Conclusion: In conclusion, while traditional teaching has historical value, it is insufficient for preparing students for today's dynamic, interconnected, and technology-driven world. Education must evolve toward more flexible, personalized, and experiential approaches. By embracing innovation, encouraging creativity, and prioritizing skills over rote memorization, modern education can equip students to thrive in unpredictable and complex future landscapes.

List of used literature:

1. Brown, H. D. (2014). Principles of Language Learning and Teaching. 6th Edition. Pearson Education.
2. Fullan, M. (2013). The New Meaning of Educational Change. 5th Edition. Teachers College Press.
3. Prensky, M. (2010). Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. Corwin Press.
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). Cooperation and the Use of Technology in the Classroom. Interaction Book Company.
5. Hattie, J. (2012). Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. Routledge.
6. Papert, S. (1993). The Children's Machine: Rethinking School in the Age of the Computer. Basic Books.
7. OECD. (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing.
8. Darling-Hammond, L. (2010). The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. Teachers College Press.

KOMPANIYA BIZNES JARAYONLARI UCHUN AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQOTLAR

G‘aniyev Bobomurod Eshnazar o‘g‘li
Jizzax viloyati Baxmal tumani 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Informatika fani o‘qituvchisi
Tel:+998990712795
Email: bobomurodganiyev34@gmail.com
Shabbozov Obidjon Umarovich
Jizzax viloyati Baxmal tumani 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Informatika fani o‘qituvchisi
Tel:+998996503285
Email: obidjonumarovich756@gmail.com

Kirish. Bugungi iqtisodiy sharoitda biznes jarayonlarini boshqarish uchun axborot ta’minotini yaxshilashni ko‘rib chiqish juda muhim. Kompaniyalarning mijozlar bazasining kengayishi mijozlar bilan ishlash jarayonlarining ahamiyatini oshiradi, ammo ko‘plab kompaniyalar texnik jihatdan yomon joriy etilishi va mijozlar bilan ishlash biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning yo‘qligi tufayli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, bu esa turli xil yo‘qotishlarga olib keladi. Axborot tizimi - bu ma’lumotlarni foydalanuvchilarga qulay formatda to‘plash, uzatish, qayta ishlash va namoyish qilish imkonini beruvchi komponentlar to‘plami.

Biznes jarayoni - bu ma’lum bir texnologiyadan foydalangan holda kirish ma’lumotlarini iste’molchiga qiymat beradigan chiqish ma’lumotlariga aylantiradigan o‘zaro bog‘liq faoliyatlar to‘plami. Avtomatlashtirilgan biznes jarayonlarini boshqarish tizimi - bu ma’lumotlar funktsiyalarini yoki umuman biznes jarayonlarini avtomatik boshqarish, nazorat qilish va qayta ishlashni ta’minlaydigan apparat va dasturiy ta’minot komponentlari majmuasi. Ushbu tizim shuningdek, manipulyatorlar, liftlar, robotlar va boshqalar kabi apparat modullarini o‘z ichiga olishi mumkin va asosan mahsulot hayot aylanishi jarayonlarini boshqarish va monitoring qilish uchun mo‘ljallangan. Biznes jarayonlarini boshqarish (BPM) muvaffaqiyatli biznes uchun juda muhimdir, chunki u kompaniyaning ichki jarayonlarini oson yaratish, bajarish va takomillashtirish imkonini beradi. Axborot tizimlari nafaqat biznes operatsiyalarini avtomatlashtiradi, balki ma’lumotlarni

to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi. SAP, ORACLE, Microsoft, 1C va avtomatlashtirilgan bank tizimlari kabi turli sohalarda qo‘llaniladigan ko‘plab turli xil axborot tizimlari mavjud.

Asosiy qism. Axborot tizimi funktsiyalari

Modellashtirish. BPM korxona ichida buxgalteriya hisobi va nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan axborot muhitini yaratish uchun modellashtirishdan foydalanadi. Bu funksiyani biznes jarayonlarini loyihalash deb ham atash mumkin.

Bajarish. Operatsiya yaratilgandan so‘ng, u platforma serveriga qo‘shiladi va bo‘ysunuvchilar uchun ko‘rsatmalar va kartalar sifatida paydo bo‘ladi.

Kompaniya xodimlarining ish sharoitlari uchun cheklovlarni sozlash, shuningdek, ko‘rsatmalarning bajarilishini kuzatish mumkin.

Monitoring. BPM barcha kompaniya ma’lumotlarini yagona axborot bazasiga to‘playdi va ba’zi tizimlar olingan ma’lumotlarni tahlil qilishi va avtomatik hisobotlarni yaratishi mumkin. Ushbu yondashuv korxona rahbariyatiga kompaniyaning alohida elementlarining ishlashini osongina kuzatib borish va ushbu ma’lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Biznes jarayonlarini boshqarish tizimining asosiy modullari quyidagilar:

Tahlilchilarga jarayonni ish jarayoni, biznes qoidalari va axborot nuqtai nazaridan tasavvur qilish imkonini beruvchi grafik modellashtirish moduli;

Biznes jarayoni modelini harakatda tasavvur qilishga yordam beradigan dinamik modellashtirish moduli. Bu jarayondagi to‘siqlar va resurslar cheklovlarini aniqlashga yordam beradi, modellashtirish bosqichida o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi;

Dastur ishlab chiquvchiga foydalanuvchi interfeyslari, dialog shakllarini yaratish va boshqa biznes ilovalari va axborot tizimlari bilan integratsiya qilish uchun zarur vositalarni taqdim etadigan ilovalarni ishlab chiqish moduli;

Ish jarayoni, axborot va hujjatlarni boshqarishni amalga oshiradigan ish jarayoni va biznes qoidalarini boshqarish moduli. Modul shuningdek, belgilangan biznes qoidalariga rioya qilinishini ta’minlaydi;

Foydalanuvchilarga berilgan vazifalarni ko‘rish va bajarish imkonini beruvchi jarayon interfeysi moduli;

Jarayonlarni kuzatish, jarayon ko‘rsatkichlarini olish, ularni tahlil qilish va ushbu ma’lumotlar asosida hisobotlar yaratish imkonini beruvchi jarayonlarni boshqarish moduli. Jarayonlarni monitoring qilish biznes jarayonlarini optimallashtirish va sozlashga yordam beradi;

Dasturiy ta’minotni sozlash, kirish huquqlarini o‘rnatish va apparat vositalarini kuzatish imkonini beruvchi BPM tizim boshqaruv moduli.



1-rasm. Kompaniyaning biznes jarayonlarining tavsifi



2-rasm. Biznes jarayonlarini boshqarish uchun tizimlar va dasturiy ta’minot

Axborot tizimining tasviri uning biznes-jarayonlarining tavsifi orqali uning xattiharakatlarini tavsiflash sifatida belgilanishi mumkin. Biznes-jarayon modeli axborot tizimining funktsional va axborot modellariga asoslangan. Axborot tizimini loyihalash jarayonida modellashtiriladigan biznes-jarayonlar to‘plami odatda IDEF0 yoki DFD diagrammalarida yakuniy darajalarda tasvirlangan funktsiyalar yoki jarayonlar bilan belgilanadi. Biroq, ba’zi hollarda, optimallashtirish maqsadida tashkilotning biznes-jarayonlarining kengroq doirasini yaratish foydali bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda biznes jarayonlarini tavsiflash uchun oqim sxemalari eskirgan deb hisoblanadi va bu maqsadda EPC va BPMN notalari qo‘llaniladi.

IS tahlili va dizaynidagi biznes jarayonlari. Biznes jarayonlariga asoslangan tahlil tashkilot faoliyatini tavsiflash va tizim talablarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Axborot tizimi uchun talablarni ishlab chiqish jarayonida rasmiylashtirish qiyin bo‘lgan vazifa paydo bo‘ladi va bu bosqichdagi xatolar mijozlarning noroziligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, talablar ishlab chiqiladigan va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan dastlabki bosqichlar juda muhimdir. Biznes jarayonlari kompaniya faoliyatining asosi bo‘lib, ularning mazmuni tashkilotning maqsadlari va vazifalariga bog‘liq. Biznes jarayonlari tovarlarni ishlab chiqarish, sotish yoki yetkazib berish bilan bog‘liq turli xil faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi va boshlanishi, tugashi, interfeyslari va boshqa jarayonlar bilan aloqalari aniq belgilangan. Jarayon yondashuvi tashkilot faoliyatining barcha turlarini uning maqsadlari va vazifalari kontekstida tavsiflash imkonini beradi va ishlatilgan modellarning xususiyatlarini ularni takomillashtirish va integratsiyalash jarayonida saqlashni nazarda tutadi. Tashkilot faoliyatiga biznes-jarayonlarga asoslangan yondashuvni qo‘llash uch turdagi kompaniya modellarini ishlab chiqish imkonini beradi:

strategik;

umumlashtirilgan;

batafsil.

Biznes-jarayonlarga asoslangan strategik modellar tashkilot faoliyati va uning faoliyatining asosiy xususiyatlarini tavsiflaydi. Ushbu modellar, shuningdek, tashkilot faoliyati va biznes-jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ammo axborot tizimlarini rivojlantirishda muhim bo‘lgan elementlarni ham o‘z ichiga oladi. Strategik modellarni yaratish tashkilot faoliyatini tavsiflashning birinchi bosqichidir. Strategik modellarning maqsadlari quyidagilardir:

tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilash;

biznes-jarayon modellarini yaratish.

Kompaniya modellarining strategik tizimini ishlab chiqishda asosiy e'tibor tashkilot tuzilishiga emas, balki kompaniya ichida va tashqarisida sodir bo'ladigan ish jarayonlariga qaratiladi. Jarayon yondashuvi kompaniyaning operatsiyalarini, jumladan, bo'limlar, vakolatlar va ierarxiyalarni emas, balki ichki va tashqi biznes jarayonlarini umuman ko'rib chiqadi. Birinchidan, tashkilot va uning faoliyatining asosiy xususiyatlarini tavsiflovchi strategik modellar tizimi yaratiladi. Ishlab chiquvchilar ushbu modellarni yaratish uchun kompaniyaning yuqori menejerlari va hujjatlarining tajribasidan foydalanadilar, ular keyinchalik maxsus loyiha omborida saqlanadi. Keyin boshqa modellar tashkilotning bo'lim darajasidagi faoliyatini o'rganish asosida quriladi. Ushbu modellar ham parallel ravishda quriladi va loyiha omborida saqlanadi.

Tashkiliy modellarning keng qamrovli tizimini yaratishda asosiy biznes jarayonlari kompaniyaning haqiqiy tuzilishiga proyeksiyalanadi, bu ularning tarkibi va xususiyatlarini aniqlaydi. Kompaniya so'rovi bo'limlar tomonidan bajariladigan funktsiyalarni aniqlashga va bo'limlar bo'yicha biznes jarayonlari va funktsiyalari ro'yxatini aniqlashtirishga yordam beradi.

Tashkiliy modellarning batafsil tizimi kontseptual ma'lumotlar modelini va har bir kompaniya bo'limining ishini, jumladan, funktsiyalar, ma'lumotlar, hujjatlar, ish tartiblari, kadrlar ishi va boshqalarni tavsiflovchi funktsional tashkiliy modelni o'z ichiga oladi. Har bir bo'limning so'rovi uning funktsiyalarini aniqlash va biznes jarayonlari o'rtasida taqsimlash imkonini beradi. Shunday qilib, bo'limlarning funktsiyalari mazmun bilan to'ldiriladi va axborot oqimlari, kirish va chiqish hujjatlari, xodimlarning rollari va boshqalar yordamida batafsil bayon qilinadi. Umuman olganda, jarayonga asoslangan yondashuv kompaniyadagi har bir funktsiya kim tomonidan, qachon va qanday bajarilishini, shuningdek, qanday ma'lumotlar talab qilinishini va u qaerdan kelib chiqishini aniqlash usulidir. Tashkiliy modellar tizimidan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

axborot tizimi (AT) uchun talablarni aniqlash;

optimallashtirish uchun tashkiliy faoliyatni tahlil qilish (muhandislik yoki qayta muhandislik orqali);

axborot tizimi hayot aylanishining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan strategik rejani ishlab chiqish.

Jarayonga asoslangan yondashuv, shuningdek, AT talablarini tavsiflash uchun modellar tizimini yaratishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu tizimni yaratishdan maqsad, tashkiliy tavsif modelidan axborot tizimi tavsifi modeliga o'tishdir, bu muayyan loyiha elementlarini (masalan, ma'lumotlar bazalari, ilovalar, dasturiy ta'minot, apparat vositalari va boshqalar) tavsiflaydi. AT tavsifi shuningdek, tashkilotning maqsad va vazifalarini aks ettirishi kerak.

Ushbu o'tishni amalga oshirish uchun AT talablarini tavsiflovchi modellar tizimini yaratish va keyin bu talablarni loyihalashtirilayotgan komponentlar bilan bog'lash kerak. Keyin qo'shimcha iteratsiya amalga oshiriladi, uning davomida AT arxitekturasi, ma'lumotlar, interfeys, foydalanuvchi protseduralari, funktsiyalari va tizimni boshqarish uchun asosiy talablar ishlab chiqiladi. AT talablari modellari tizimi, shuningdek, mavjud AT va ma'lumotlar bazalarini yangi tizimga integratsiya qilish talablarini ham o'z ichiga oladi. Modellar tizimini yaratish natijasi tashkilotning maqsadlari, vazifalari va rivojlanish strategiyasiga mos keladigan AXni yaratish, joylashtirish, texnik xizmat ko'rsatish va rivojlantirish rejasi bo'lishi kerak.

Biznes jarayonlarini boshqarish tizimi quyidagi printsip asosida ishlaydi: korxonaning biznes jarayonlari kompyuter tizimiga yuklanadigan va bajariladigan vizual diagrammalar yordamida modellashtiriladi.

BPMS BPMning evolyutsiyasi bo'lib,jarayonga asoslangan yondashuv, ish oqimi va elektron hujjatlarni boshqarish tizimlari, biznes jarayonlarini modellashtirish va qayta loyihalash, muvozanatli ballar jadvali va KPIlar hamda ilovalar integratsiyasini o'z ichiga oladi. BPM tamoyillari va ta'sirini amalga oshirish uchun modellashtirish, bajarish, monitoring va takomillashtirish vositalari qo'llaniladi. BPM biznes jarayonlarini modellashtirish, BPMN notatsiyasi va BPEL standartini qo'llash uchun ish oqimi sinfi vositalaridan foydalanadi. Biznes jarayonlarini bajarish veb-serverga grafik jarayon diagrammasini yuklash bilan boshlanadi, u yerda

jarayon boshlanadi, shu jumladan jarayon bosqichlari orqali avtomatik ravishda o‘tish va jarayonlarni boshqarish.

BPM tizimlarida monitoring jarayonlarning borishini tezda kuzatib borish va biznes jarayonlarining ishlashi va samaradorligini tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Biznes jarayonlarini takomillashtirish muvaffaqiyatli tashkilotning muhim qismidir va ba’zi BPMSlar ular amalga oshirilgandan so‘ng jarayonni o‘zgartirishga imkon beradi. Masalan, ELMA tizimida foydalanuvchilar yaxshilanishlarni taklif qilishlari mumkin, keyin ular o‘zgarishlarni amalga oshirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadigan jarayonda ko‘rib chiqiladi. BPMS mustaqil tizim emas, balki ilovalar bilan ishlaydigan odamlarni bog‘laydigan integratsiya vositasidir. U hamkorlikda ishlab chiqish, jarayonlarni modellashtirish va avtomatlashtirish, jarayonlarni boshqarish va boshqarish, biznes qoidalarini boshqarish, jarayonlarni qayta ishlatish, simulyatsiya, sinovdan o‘tkazish, hujjatlashtirish, instantizatsiya, versiyalarni boshqarish va ishlashni monitoring qilish kabi ko‘plab standart xususiyatlarni taklif etadi.

Xulosa. Tahlilga asoslanib, biz zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimlari an’anaviy axborot tizimlariga nisbatan shunchaki moliyaviy foydadan tashqari sezilarli afzalliklarni taqdim etadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Biznes jarayonlarini boshqarish uchun ixtisoslashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish menejerlarga biznes jarayonlaridagi o‘zgarishlar haqida tezroq qarorlar qabul qilish va tashkiliy faoliyatlarni ishlarning haqiqiy holatidan yuqori darajada xabardorlik bilan amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, samarali xarajatlarni nazorat qilish biznes jarayonlarini bajarishni tezlashtiradi, ularning xarajatlarini kamaytiradi va sifatini yaxshilaydi. Bu afzalliklar bizga biznes jarayonlarini takomillashtirish ta’sirini o‘lchash va ularni takomillashtirish va avtomatlashtirishning afzalliklarini aniq namoyish etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Petrova E.S., Rodyukov A.V.: Korxona biznes jarayonlarini boshqarish uchun axborot texnologiyalari.
2. Axborot tizimlari hayot aylanishini boshqarish (2018).
3. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish (2014).
4. Andrey K.: Biznes jarayonlarini boshqarish uchun axborot tizimlari.
5. Korxona biznes jarayonlari va axborotni boshqarish. Tizim sinflari ta’riflari va ularning funksionalligi (2004).
6. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish uchun axborot tizimlari (2019).
7. Zinina L.I., Rusanova M.O.: Kompaniya biznes jarayonlarini boshqarish uchun axborot tizimini shakllantirish.
8. Pyatkova A.N.: Ko‘p funksiyali Bitrix24 tizimini joriy etish orqali kompaniya biznes jarayonlarini optimallashtirish (2020).

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ:ПРОБЛЕМЫ,РЕШЕНИЯ И ПУТИ АДАПТАЦИИ К НАЦИОНАЛЬНОМУ ОПЫТУ

Баротова Шохсанам Бахтиёр кизи
Ассистент Самаркандского государственного педагогичнского института
shohsanambarotova@gmail.com
Парманова Умида Мухиддиновна
Студентка Самаркандского государственного педагогичнского института
umidaparmanova2@gmail.com
Саидова Нилуфар Улугбек кизи
Студентка Самаркандского государственного педагогичнского института
niluskasaidova@gmail.com

Аннотация: Статья рассматривает значение международных стандартов в науке и образовании, анализирует проблемы их внедрения и пути адаптации к национальной системе. Подчеркивается необходимость поэтапного внедрения, развития качества,

международного сотрудничества и учета локальных особенностей при интеграции глобальных требований

Ключевые слова: Международные стандарты, образование, наука, адаптация, качество, Болонский процесс, сотрудничество, мобильность, оценка, внедрение, ЮНЕСКО, ресурсы, компетенции

Annotatsiya:Maqolada ilm-fan va ta’lim sohasida xalqaro standartlarning ahamiyati, ularni milliy tizimga joriy etish jarayonidagi muammolar va yechimlar yoritiladi. Standartlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish, sifatni oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar:Xalqaro standartlar, ta’lim, ilm-fan, adaptatsiya, sifat, hamkorlik, mobilitet, baholash, UNESCO, malaka, resurslar.

Annotation: The article examines the importance of international standards in science and education, highlighting key challenges in their implementation and ways to adapt them to national contexts. It emphasizes the need for gradual integration, quality improvement, capacity building, and international cooperation to ensure effective alignment with global requirements.

Keywords: International standards, education, science, adaptation, quality, cooperation, mobility, assessment, UNESCO, qualifications, resources.

Внедрение международных стандартов в национальные системы образования и науки направлено на повышение качества, обеспечение сопоставимости квалификаций и развитие академической мобильности. Однако этот процесс сталкивается с рядом вызовов, требующих систематического подхода и эффективных решений. Проблемы внедрения международных стандартов. Разнообразие культурных и образовательных контекстов: Универсальные стандарты могут не учитывать локальные особенности, культурные ценности и специфику национальных систем образования. Неравенство ресурсов: Между учреждениями и странами существует значительное неравенство в доступе к ресурсам (финансовым, технологическим, кадровым), необходимым для соответствия высоким международным стандартам. Сопротивление изменениям: Внедрение новых стандартов часто сталкивается с сопротивлением со стороны преподавателей, административного персонала и других заинтересованных сторон, привыкших к устоявшимся практикам. Несогласованность политики и нормативно-правовой базы: Национальные нормативные акты и политика могут не соответствовать требованиям международных стандартов, требуя сложных и длительных процедур реформирования. Измерение и оценка: Отсутствие единого подхода к оценке результатов обучения и научных достижений затрудняет объективное сравнение и подтверждение соответствия международным критериям. Эффективная имплементация международных стандартов требует комплексных и целенаправленных мер: Адаптация, а не копирование: Вместо прямого копирования стандартов необходимо их творческое приспособление к местным условиям с сохранением ключевых принципов качества и прозрачности. Это позволяет учитывать локальную специфику без ущерба для глобальной сопоставимости. Наращивание потенциала и обучение: Инвестиции в профессиональное развитие и обучение педагогов и научных сотрудников являются критически важными. Программы повышения квалификации помогают освоить новые методики и подходы, предусмотренные международными стандартами. Поэтапное внедрение и пилотные проекты: Вместо немедленного повсеместного введения изменений целесообразно использовать пилотные проекты для тестирования и отладки новых подходов, что снижает риски и сопротивление. Развитие систем обеспечения качества: Создание и совершенствование внутренних и внешних систем оценки качества (например, на основе руководств Болонского процесса или стандартов ISO) помогает обеспечить соответствие установленным критериям. Международное сотрудничество и обмен опытом: Активное участие в международных программах (таких как PISA, TIMSS) и сетевое взаимодействие между университетами и научными центрами способствуют обмену лучшими практиками и совместному поиску решений возникающих проблем. Информационная поддержка и разъяснительная работа: Важно проводить широкую информационную кампанию среди всех участников

образовательного и научного процесса, разъясняя цели, преимущества и механизмы внедрения международных стандартов. В конечном счете, успешное внедрение международных стандартов в науке и образовании — это непрерывный процесс, требующий политической воли, скоординированных усилий и готовности к постоянному совершенствованию.

Рисунок 1.




График построен выше — он показывает рост всех ключевых компонентов читательской грамотности.

На графике показано, как изменился уровень развития читательской грамотности у учащихся 2–3 классов в период 2019–2025 годов после внедрения элементов стандарта PISA.

По всем шести направлениям — разнообразие текстов, понимание смысла, работа с информацией, критическое мышление, анализ структуры текста и задания формата PISA — наблюдается значительный рост.

Особенно сильный прогресс виден в таких областях, как:

включение разнообразных текстов,

развитие умения понимать смысл,

появление заданий международного уровня (PISA).

График показывает переход от традиционного чтения (уровни 0–2) к современному читательскому развитию (уровни 4–5), что отражает обновление учебников и методов обучения в 2025 году.

Международные образовательные стандарты — это рамочные условия, определяющие уровень качества образования в разных странах. Эти стандарты помогают устанавливать общие критерии для оценки учебных программ и квалификаций, облегчая процесс признания дипломов и сертификатов по всему миру. В условиях глобализации образования, когда студенты всё чаще стремятся учиться за границей, наличие международных стандартов становится особенно актуальным. Они позволяют обеспечить согласованность и сопоставимость образовательных программ, что имеет решающее значение для развития международной мобильности студентов и исследователей. Существуют различные организации, которые занимаются разработкой и внедрением этих стандартов, чтобы гарантировать, что образовательные учреждения соответствуют высоким критериям качества и актуальности. Стандарты охватывают все уровни образования — от школьного до высшего, обеспечивая качественное обучение для всех категорий обучающихся. Важно отметить, что эти стандарты не только способствуют профессиональной подготовке, но и формируют личностное развитие, мышление и культурное богатство студентов. Одной из самых влиятельных организаций в сфере образования является ЮНЕСКО, которая разрабатывает и внедряет международные образовательные стандарты. Она активно участвует в глобальных

инициативах, направленных на расширение доступа к образованию, улучшение его качества и содействие инклюзивному обучению. Наряду с ЮНЕСКО, Всемирный банк также играет заметную роль в формировании образовательных стандартов. Он предоставляет финансирование и техническую помощь странам, стремящимся реформировать свои образовательные системы, и разрабатывает инструменты оценки и мониторинга, которые помогают правительствам отслеживать прогресс и определять области для улучшения. Международная ассоциация университетов (IAU) является еще одной ключевой организацией, работающей над стандартизацией высшего образования. IAU активно продвигает лучшие практики и помогает университетам улучшать качество образовательных программ и услуг, обмениваться опытом между собой и с другими заинтересованными сторонами. Кроме того, существуют и другие региональные и международные организации, такие как Европейская ассоциация университетов, Ассоциация классических университетов и многие другие, которые также вносят вклад в разработку образовательных стандартов. Эти организации работают над повышением качества образования, обеспечивая соответствие учебных программ мировым стандартам и создавая возможности для международной мобильности студентов и преподавателей. Все эти организации совместно работают над созданием единой системы международных стандартов, которая является основополагающим элементом современного образования и обеспечивает понимание и уважение культурных различий между странами.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. UNESCO. Education for Sustainable Development: Goals and Guidelines. Paris: UNESCO Publishing, 2020.

2. World Bank. Improving Education Systems: Global Monitoring Report. Washington, DC: World Bank, 2019.

3. European Association of Universities. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area. Brussels, 2021.

4. International Association of Universities (IAU). Global Higher Education Outlook. IAU Publishing, 2020.

5. Болонский процесс: Основные принципы и механизмы реализации. — М.: Просвещение, 2018.

6. ISO. Quality Management Systems in Education: International Standards Overview. Geneva: ISO, 2022

TABIATGA MUNOSABAT MADANIYATI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ismoilova Gulbaxor Azamovna
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ismoilovag352@gmail.com
Berdialiyeva Kifoyatxon Ne’matjon qizi
QDU Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
+998(93) 210-78-01
kifoyatxonberdaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiatga munosabat madaniyati shakllanishining pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda ekologik ong, ekologik tarbiya va ekologik madaniyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinib, ta’lim jarayonida ekologik qadriyatlarni rivojlantirishning samarali metodlari asoslab berilgan. Shuningdek, ekologik tarbiyada amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv usullar, loyiha faoliyati hamda oila–maktab–jamiyat hamkorligining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tabiat, tabiatga munosabat, ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические основы формирования культуры отношения к природе. Анализируется взаимосвязь понятий «экологическое

сознание», «экологическое образование» и «экологическая культура», обосновываются эффективные методы формирования экологических ценностей в образовательном процессе. Показывается значение практических занятий, интерактивных методов, проектной деятельности и взаимодействия семьи, школы и общества в экологическом воспитании.

Ключевые слова. Природа, отношение к природе, экологическое сознание, экологическое образование, экологическая культура, экологическая компетентность

Abstract. This article discusses the pedagogical foundations of the formation of a culture of attitude to nature. The study analyzes the interrelationship of the concepts of ecological awareness, ecological education and ecological culture, and substantiates effective methods for developing ecological values in the educational process. It also shows the importance of practical exercises, interactive methods, project activities and family-school-society cooperation in ecological education.

Key words. Nature, attitude to nature, ecological awareness, ecological education, ecological culture, ecological competence

Kirish. Tabiat — inson hayotining asosi, barcha moddiy va ma’naviy boyliklar manbaidir. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat jamiyat taraqqiyoti, madaniyat va ma’naviyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Odamning tabiatga bo‘lgan mas’uliyatli munosabati ekologik madaniyatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u uzluksiz ekologik tarbiya jarayonida shakllanadi. Tabiatga munosabat madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ekologik xavfsizlik, iqlim o‘zgarishi, resurslardan oqilona foydalanish kabi global muammolarning oldini olishda muhim omil sanaladi. Shu bois ta’lim tizimida ekologik ma’rifatni kuchaytirish, shaxsning ekologik ongini, xulq-atvorini tarbiyalash pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir [1, 23].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tabiatga munosabat madaniyatining shakllanishida ekologik ta’lim-tarbiya, shaxsni tabiat bilan uyg‘unlikda tarbiyalash, tabiatga sevgi va mas’uliyatni singdirish, hamda atrof-muhitni asrashga qaratilgan bilimlarni berish kabi pedagogik asoslardan iborat. Pedagogik yondashuvda o‘quvchilarning tabiatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, ularni tabiatning bir qismi ekanligini tushuntirish va tabiatga g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatish asosiy maqsad hisoblanadi.

Tabiatga munosabat madaniyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik kompetensiya tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. V.A.Skakun ekologik ongni shaxsning tabiatni anglash va baholash qobiliyati deb ta’riflaydi [3, 41]. N.F.Reimers esa tabiatga mas’uliyatli munosabatni insonning ekologik xulq-atvori bilan bog‘laydi va uni tarbiyalashning tizimli yondashuvini taklif qiladi [4, 112].

Ekologik ta’lim-tarbiya va madaniyatni shakllantirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ekologik madaniyatning pedagogik asoslari va uni shakllantirish metodikasi Y.B.Aydarov, Z.Abdullaev, Y.Sh.Shodimetov, K.Yunusov, T.Djarlepesov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Z.Abdullaev “Ekologik munosabatlar va ekologik ong” asarida ekologik ong va dunyoqarashning shakllanish jarayonini tahlil qilib, “agar dunyoqarash insonning dunyoga, o‘ziga va o‘zining atrof-muhit bilan munosabatlariga qarashli bo‘lsa, endigi dunyoqarash insonning, atrof dunyoning, bir so‘z bilan aytganda “olam-inson” tizimining yaxlitligini tushunish yo‘nalishida qayta ko‘rib chiqishni shartlab qo‘yadi”, - deb ta’kidlaydi [8, 23]. Ye.B.Aydarov o‘zining “O’quvchi yoshlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish” maqolasida yoshlar ma’naviy-ahloqiy qiyofasining ekologik madaniyat bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi: “Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi asosan ularning ekologik bilim darajasi, tabiatni asrash va muhofaza qilishga bag‘ishlangan dunyoqarashi va tafakkur doirasining kengligi asosida ekologik madaniyati shakllanadi. O’quvchi yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlari asosan inson shaxsining ruhiy-ma’naviy-axloqiy va ekologik tarbiya jihatlarini ham o‘z ichiga oladi” [1, 65]. Pedagogik tadqiqotlarda ekologik tarbiya jarayoni shaxsda ekologik bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish, ijtimoiy-axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. O’zbekistonlik olimlar — Sh.Sharopov, I.Qodirovlar ekologik madaniyatning negizida ta’lim muassasalarida o‘quv faoliyati bilan birga, oila va jamiyatning hamkorlikda olib boradigan tarbiyaviy ishlari yotishini ta’kidlaydi [5, 56].

Maqolani tayyorlashda tahliliy yondashuv asosida ekologik madaniyatning nazariy asoslari bo‘yicha pedagog olimlarining qarashlari o‘rganildi. Pedagogik tahlil qilish asoasida ta’lim jarayonida ekologik tarbiyani tashkil etish shakllari va metodlari o‘rganildi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga doir samarali pedagogik omillar tizimlashtirildi.

Muhokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabiatga munosabat madaniyati faqat ekologik bilimlar berilishi bilan shakllanmaydi. Bu jarayon kompleks yondashuvni talab qiladi. O’quv jarayonida ekologik qadriyatlar integratsiyasi, ekologik faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ko‘paytirish shaxsning ekologik kompetensiyasini oshiradi.

Shuningdek, oila va jamiyatning ekologik tarbiya jarayoniga faol jalb etilishi natijadorlikni ta’minlaydi. Maktabdagi ekologik darslar amaliy faoliyat bilan mustahkamlanmasa, o‘quvchilarda barqaror xulq-atvor shakllanmaydi. Shu bois ekologik tarbiyada innovatsion yondashuvlar — raqamli texnologiyalar, virtual tabiat maktablari, ekologik simulyatorlar qo‘llanilishi zamonaviy ta’limning dolzarb talabi bo‘lib bormoqda [7, 92].

Natijalar. Ekologik ong shaxsning tabiat bilan o‘zaro aloqalarni anglash, ekologik jarayonlarni baholay olish qobiliyatidir. Uni rivojlantirish o‘quv jarayonida ekologik bilimlarning tizimli berilishi, tabiat qonuniyatlari asosida fikrlash ko‘nikmasining shakllanishi hamda ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar berilishi kabi omillarga bog‘liq

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar (ekotizimlarni kuzatish, tajribalar), ekskursiyalar va dala mashg‘ulotlari tabiat ob’ektlarini o‘rganish hamda interaktiv metodlardan foydalanish lozim. Masalan, klaster, keys-stadi, ekologik muammo tahlili. Shuningdek, “Yashil maktab”, “Zero waste” kabi loyiha metodlari samarali hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarda ekologik mas’uliyat, ekologik muammolarga befarq bo‘lmaslik, faol ekologik pozitsiyani shakllantiradi.

Oila ekologik madaniyatning birlamchi manbai bo‘lib, bolaga tabiatga mehr, tozalikka rioya qilish, resurslarni tejash madaniyatini singdiradi. Jamiyatda olib boriladigan “Yashil makon”, “Obod qishloq” kabi ekologik tashabbuslar ta’lim muassasalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganda, ekologik tarbiya samaradorligi ortadi [6, 77].

Xulosa. Tabiatga munosabat madaniyati shaxsning ekologik ongiga, qadriyatlariga hamda amaliy xulq-atvoriga asoslanadi. Uni shakllantirish ta’lim, oila va jamiyatning uzviy hamkorligini talab qiluvchi kompleks pedagogik jarayondir. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda ekologik bilimlarni tizimli berish, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv metodlar, loyiha faoliyati va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Oila, maktab va jamiyatning birgalikdagi ekologik tashabbuslari esa o‘quvchilarda tabiatga mas’uliyatli munosabat, ekologik xulq-atvor va barqaror ekologik qarashlar shakllanishini ta’minlaydi. Shu bois ekologik tarbiya uzluksiz va amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi, ta’lim jarayonida ekologik qadriyatlar milliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aydarov Ye.B. O’quvchi yoshlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish. Zamonaviy ta’lim / sovremennoe obrazovanie, 2019, 8(81). –B.65
2. Nazarov A. Ekologik tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 120 b.
3. Skakun V.A. Ekologicheskoe myshlenie lichnosti. – Moskva, 2019. – 180 s.
4. Reimers N.F. Ekologiya: lyudi i priroda o‘zaro ta’siri. – Moskva, 2018. – 256 s.
5. Qodirov I., Sharopov Sh. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent, 2021. – 140 b.
6. Karimova N. “Oila va maktabda ekologik tarbiya tizimi.” // Ta’lim va rivojlanish jurnali, 2022, №4.
7. Jo‘rayev D. “Raqamli ekologik ta’lim: imkoniyat va istiqbollar.” // Pedagogika va innovatsiya, 2023, №2.
8. Ergashev A.E., Rudenko I., Davletov C. Osnovi ekologii. —Tashkent: Uzbekiston, 1996. — C. 13—23.

IJTIMOIY TARMOQLARDA MEDIASAVODXONLIK VA SHAXSIY XAFSIZLIK.

G‘ulomoav Ruxsora Buriyevna
Xo‘jamurodova Nilufar

Shaxrisabiz davlat pedagogika instituti

Anotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida mediasavodxonlikning ahamiyati hamda shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash yo‘llari tahlil qilinadi. Internetda tarqalayotgan soxta ma’lumotlardan himoyalanish, shaxsiy ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va raqamli madaniyatni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqola yoshlar orasida ongli axborot iste’molini shakllantirish va kiberxavfsizlik madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Mediasavodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, raqamli madaniyat, soxta ma’lumotlar, maxfiylik, internet gigiyenasi.

Keywords. media literacy, social networks, personal security, cybersecurity, digital culture, fake news, privacy, internet hygiene.

Abstract. This article explores the importance of media literacy and personal security in the use of social networks. It focuses on protecting users from fake information, safeguarding personal data, and promoting digital culture. The study aims to raise awareness among young people about responsible information consumption and to strengthen cybersecurity practices in the digital environment**.**

Абстрактный. В данной статье рассматривается значение медиаобразованности и личной безопасности при использовании социальных сетей. Особое внимание уделяется защите от фейковых новостей, сохранению личных данных и развитию цифровой культуры. Цель работы — формирование осознанного потребления информации среди молодежи и укрепление культуры кибербезопасности.

Ключевые слова. медиаобразованность, социальные сети, личная безопасность, кибербезопасность, цифровая культура, фейковые новости, конфиденциальность, интернет-гигиена.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida har kuni milliardlab inson ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilmoqda. Jahonda, mamlakatimizda, qolaversa, yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lish, o‘zimizni qiziqtiradigan har qanday qo‘shimcha ma’lumotni soniyalar ichida qidirib topish, istalgan mahsulotni tez va oson xarid qilish – bularning barchasi endilikda internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan kundalik hayotimizning mazmuniga aylandi.

Bir qarashda ijtimoiy tarmoqlar inson uchun beqiyos qulayliklar eshigini ochdi. Masofadan turib dars olish, tibbiy xizmatlarga navbatsiz yozilish, hatto bozorga chiqmasdan kundalik ehtiyojlarni sotib olish… Ko‘rinishidan, ijtimoiy tarmoqlar odamzot hayotini misli ko‘rilmagan darajada yengillashtirdi. Ammo har qanday texnologik taraqqiyot singari, bu sohada ham ikkinchi taraf bor, ya’ni oddiy inson uchun xavfli, xatarli tarafi ham mavjud.

Asosiy qisim. Yoshlar va oddiy foydalanuvchi – asosiy nishonda O’zbekistondagi internet foydalanuvchilarining eng katta qismi – bu yoshlar, ya’ni o‘quvchilar va talabalardir. Ular juda ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishadi. Boshqalarga qaraganda ma’lumotlarni ko‘proq hajmda “iste’mol” qilishadi. Mutaxassislarning fikricha, aynan mana shu toifa “internet fitnasi”ning eng oson nishonlaridan biriga aylanmoqda Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan zararli axborotlar, jumladan, iqtisodiy va moliyaviy firibgarlik, diniy ekstremizm va siyosiy manipulyasiyalar oddiy foydalanuvchilar uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Mutaxassislar ta’kidlashicha, yoshlar va axborotga tanqidiy yondashish ko‘nikmalari yetarli bo‘lmagan shaxslar bu kabi tahdidlarga nisbatan ko‘proq osonlikcha ta’sirlanadi. O’zini bank xodimi deb tanishtirib, odamlardan shaxsiy ma’lumotlarni so‘rayotgan firibgarlar, soxta xabarlar orqali adashtiruvchi feyk akkauntlar, vahimali axborotlar bilan odamlarni ruhiy bosimga olayotgan kimsalar – bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Eng xavflisi esa – yoshlar orasida diniy va siyosiy ekstremistik g‘oyalarning tarqalishi, ularni g‘arazli guruhlar tomonidan “mafkuraviy qurol” sifatida ishlatishga urinishlaridir.

Masalaga jahon miqyosida yondashuv: nimalar qilinmoqda? Bir qancha rivojlangan davlatlarda bu masalaga strategik darajada yondashilmoqda. Masalan**:** **Finlyandiyada** har bir maktab o‘quvchisi axborot manbalarini tahlil qilishni o‘rganadi. Ular axborot qanchalik ishonchli ekanini mustaqil baholay oladi. Ushbu mamlakat media savodxonlikni milliy ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2019 yili qabul qilingan “Media Literacy in Finland” siyosatiga muvofiq, media ta’lim maktabgacha ta’limdan boshlab barcha darajalardagi ta’lim dasturlariga kiritilgan. Bu orqali talabalar axborot manbalarini tahlil qilish, feyk yangiliklarni aniqlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Germaniyada “Ijtimoiy tarmoqlarda nafratga qarshi kurash” qonuni qabul qilingan bo‘lib, uni buzgan platformaga juda katta jarima solinadi. 2017 yili qabul qilingan “Network Enforcement Act” (NetzDG) qonuni ijtimoiy tarmoqlarda nafrat nutqi va soxta yangiliklarga qarshi kurashishni maqsad qilgan. Ushbu qonunga muvofiq, ijtimoiy tarmoqlar 24 soat ichida “ochiqdan-ochiq noqonuniy” kontentni o‘chirishi shart, aks holda 50 million yevrogacha jarimaga tortilishi mumkin. Bu choralar ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontentni kamaytirishga qaratilgan.**Yaponiyada** hatto kichik yoshdanoq internet xavfsizligi asoslari o‘rgatiladi – bu o‘quv dasturiga kiritilgan. Eng qizig‘i, maktab darslariga o‘quvchi telefon bilan qo‘yilmaydi.

O’zbekistonda ham bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Aholining media va axborot savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, keng aholi qatlamlarining media savodxonligini oshirish maqsadida 2024 yili ilk bor umummiliy axborot kampaniyasi muvaffaqiyatli tashkil etildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi shafe’ligida “Yangi media ta’lim markazi” nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan axborot kampaniyasi doirasida qator universitetlar professor-o‘qituvchilari, talabalari, milliy va mahalliy OAV vakillari, yetakchi blogerlar va inflyuenserlar, hatto taniqli tibbiyot xodimlari faol ishtirok etib, dezinformatsiya va feyk yangiliklarning oldini olish haqidagi media tadbirlarda, davra suhbatlarida qatnashdilar.

Shuningdek, boshqa qator tashabbuslar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025 yil 3 mart kuni YuNESKO tomonidan tashkil etilgan ko‘p tomonlama seminarda hukumat, universitetlar, OAV va fuqarolik jamiyati vakillari ishtirok etdi. Tadbirda axborotni tanqidiy baholash va feyk kontentni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari batafsil muhokama qilindi.Ijtimoiy tarmoqlardagi zararli axborotlarga qarshi kurashish faqatgina davlat organlari yoki tegishli tashkilotlarning vazifasi emas. Bu jarayonda ta’lim muassasalari, OAV, fuqarolik jamiyati va har bir foydalanuvchining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Axborotga tanqidiy yondashish, manbalarni tekshirish va media savodxonlikni oshirish orqali jamiyatda axborot xavfsizligini ta’minlash mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun hamkorlik.2025 yil 17-18 aprel kunlari Qozog‘istonning Kaskelen shahridagi SDU universitetida “O’zgarayotgan dunyoda Markaziy Osiyo: agentlik, huquqiy muammolar va OAV manzarasi” nomli xalqaro ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda dunyoning turli mintaqalaridan kelgan yetakchi olimlar va ekspertlarning ma’ruzalari tinglandi, har bir plenar va trek sesiyalaridan keyin ko‘tarilgan bitta mavzu atrofida ilmiy bahs-munozaralar, tortishuvlar bo‘ldi.Anjuman dasturiga muvofiq, biz ham “Dezinformatsiyaga qarshi kurashda nodavlat tashkilotlarning roli: O’zbekiston tajribasi” mavzuida ma’ruza qildik. Hamkasblarimizni bu borada qiziqtirgan savollar, xususan, aholining media va axborot savodxonligini oshirish va bu borada mamlakatimizda erishilayotgan natijalar haqida atroflicha ma’lumot berdik.Ma’ruzachilardan yana biri Germaniyadagi Vismar amaliy fanlar universitetining professori, huquqshunos, doktor Xans-Yoaxim Shrammning chiqishi bizda juda katta qiziqish uyg‘otdi va uni tanaffus paytida suhbatga tortdik:– Hozirgi taqdimotigizdan ma’lum bo‘ldiki, Yevropa Ittifoqida internet va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga soluvchi juda ko‘p qonunlar qabul qilingan ekan. Ularning orasida 2016 yilgi “Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi nizom (General Data Protection Regulation)dan boshlab, to 2024 yili qabul qilingan “Sun’iy itellekt qonuni” (AI Act) kabi hujjatlargacha bor. Ayting-chi, aynan mana shu qonunlarning qabul qilinishi Yevropa mamlakatlarida qaysidir ma’noda oddiy fuqarolarning so‘z erkinligini biroz

cheklab, yoki umuman bo‘g‘ib qo‘ymayaptimi?– Bizda haqiqatan ham bu kabi qonunlar, boshqa davlatlarga nisbatan, xususan, AQShga qaraganda ancha ko‘p. Amerikada ijtimoiy tarmoqlar sabab bir jiddiy holat sodir bo‘lsa, masalan, biron-bir ekstremistning yozishmalari aniqlangan bo‘lsa, keyin u bilan jiddiy shug‘ullanishni boshlashadi. Biz esa bu kabi salbiy natijani keltirib chiqaruvchi sababni aniqlash va imkon qadar uning oldini olishga ko‘proq e’tibor qaratamiz. Xususan, ularning ijtimoiy tarmoq vositasida axborot olish, foydalanish va tarqatish huquqlari haqidagi sizning shaxsiy bahoyingiz juda muhim. Masalan, bu boradagi bugungi real holatni 1 dan 10 gacha necha baho bilan baholagan bo‘lardingiz?– Afsuski, bu masalaga aniq baho qo‘yoolmayman. Har holda u ijobiy emas. Bu borada qilinadigan ishlarimiz hali juda ko‘p. Masalan, 2024 yili qabul qilingan “Sun’iy itellekt qonuni”ning 5-moddasida odamlarni manipulyasiya qilish muammosi, ijtimoiy baholash, bashoratli tahlil qilish, identifikatsiyalash dasturidan foydalanish maqsadida sun’iy intellekt tizimi, har bir holatda ijro etish sohasidagi istisnolar haqida aniq yozib qo‘yilgan. Biroq ularning hayotda to‘g‘ri ijro etilayotgani hozircha bahsli masala bo‘lib qolmoqda.

Xulosa-Takliflar. Ijtimoiy tarmoqlarning xavfiga qarshi kurashish – faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishi bo‘lib qolmasligi kerak. Bu – butun jamiyat mas’uliyatidagi masaladir. Ayniqsa, ta’lim tizimi, OAV va fuqarolik jamiyati bu jarayonda faol ishtirok etishi kerak. Quyida bir necha takliflarni keltirish mumkin:birinchidan, media savodxonlik bo‘yicha darslarni joriy etish – maktab va kollejlarda “Axborot xavfsizligi” yoki “Media tahlil” fanini kiritish va buni amaliy darslar bilan boyitish; ikkinchidan, o‘qituvchi va ota-onalar uchun treninglar – bolalarni internet xavflaridan himoya qilishga qaratilgan ma’lumotlarni yetkazish, muloqot madaniyatini shakllantirish; uchinchidan, fuqarolik jamiyatining ishtiroki – nodavlat tashkilotlar orqali ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on va zararli axborotlarga qarshi axborot kampaniyalarini o‘tkazish; to‘rtinchidan, qonunchilikni kuchaytirish – Internetdagi iqtisodiy firibgarlik va mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali yuridik mexanizmlarni, oddiy ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisining himoyasini ta’minlovchi qonunchilikni ishlab chiqish va hayotga joriy etish. Ijtimoiy tarmoqlar – bu qulaylik. Lekin uning ortida turgan xatarlardan xabardor bo‘lmasak, har qanday foydalanuvchi, ayniqsa, yoshlar – o‘zini himoya qilish imkonidan mahrumligicha qolaveradilar. Himoyaning eng kuchli vositasi esa – bilimdir. Axborotga tanqidiy qarash, uni tekshirish, tahlil qilish – bu bizning yangi axborotlashgan dunyodagi asosiy qurolimiz bo‘lmog‘i shart.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.SH.Mirziyoyev. "Yoshlar – kelajak umidi". Tashkent: "O’zbekiston" nashriyoti.(2021).
2.I.Karimov. "O’zbekistonning istiqboli va yoshlar tarbiyasi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘llari". Tashkent: O’zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.(2010).
3.I.Salimov. "Axborot xavfsizligi va uning ta’limdagi o‘rni". Tashkent: O’zbekiston Milliy Universiteti.(2018).
4.P.Medvedev. "Raqamli xavfsizlik va yoshlar: dunyo tajribalari". Moscow: Digital World Publications.(2020).
Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KOMPYUTERDA VIZUALLASHTIRUVCHI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI

Ochilov Faxriddin Muhammad o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti Registrator ofisi xizmat ko‘rsatish (front office) bo‘lim boshlig‘i
+998 93 306 44 52
E-mail: faxriddinochilov1993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompyuterda vizuallashtiruvchi raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari

yoritilgan. Vizuallashtiruvchi texnologiyalar ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, ijodiy fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada kasbiy tayyorgarlik modelining tarkibiy qismlari, bosqichlari hamda ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, vizuallashtirish, kasbiy tayyorgarlik, oliy ta’lim, pedagogik model, innovatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы использования визуализирующих цифровых технологий в процессе подготовки студентов к профессиональной деятельности в системе высшего образования. Подчеркивается роль визуальных технологий в формировании профессиональных компетенций, развитии творческого мышления и интеграции теоретических знаний с практическими навыками. В работе проанализированы структура и этапы модели профессиональной подготовки студентов на основе цифровых инструментов визуализации.

Ключевые слова: цифровые технологии, визуализация, профессиональная подготовка, высшее образование, педагогическая модель, инновации.

Abstract: The article examines the use of computer-based visualizing digital technologies in preparing university students for professional activities. It highlights the importance of visualization tools in linking theory and practice, developing creative thinking, and forming professional competencies. The structure, stages, and pedagogical significance of the proposed professional training model based on visualization technologies are analyzed.

Keywords: digital technologies, visualization, professional training, higher education, pedagogical model, innovation.

Zamonaviy raqamli transformatsiya davrida oliy ta’lim tizimining asosiy vazifasi — talabalarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan kompyuterda vizuallashtiruvchi raqamli vositalar asosida shakllantirishdir. Globallashuv sharoitida mehnat bozori raqobatbardosh, ijodkor, raqamli kompetensiyaga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida raqamli pedagogik muhitni yaratish, o‘qitish jarayonida vizual texnologiyalarni keng qo‘llash dolzarb masalaga aylandi. Vizuallashtiruvchi texnologiyalar o‘quv jarayonini ko‘rgazmali, interfaol va samarali tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Mazkur maqolada talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda kompyuterda vizuallashtiruvchi raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan modelning mohiyati, tuzilishi va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Hozirgi davrda raqamli transformatsiya ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga chuqur kirib kelmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuterda vizuallashtiruvchi vositalarning o‘rni beqiyosdir. Bunday texnologiyalar talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularni mehnat bozorining talablariga mos mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O’zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish jarayoni “Raqamli ta’lim – 2030” konsepsiyasi asosida faol amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ta’lim sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalarni o‘quv dasturlariga keng joriy etish imkonini bermoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuterda vizuallashtiruvchi dasturiy vositalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. XXI asrda har bir mutaxassis o‘z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun raqamli savodxonlik, axborot madaniyati va vizuallashtirish texnologiyalaridan samarali foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shu boisdan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda raqamli texnologiyalar vositalarini joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Kompyuterda vizuallashtiruvchi texnologiyalar — bu o‘quv jarayonida nazariy materiallarni, tajribalarni yoki ishlab chiqarish jarayonlarini virtual, grafik yoki 3D muhitda ifodalash imkonini beruvchi dasturiy vositalardir. Ular yordamida talabalarda ko‘rgazmali fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, modellashtirish va ijodiy yondashuv shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan,

raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan o‘quv modeli nafaqat bilim berish, balki kasbiy faoliyatga tayyorlashning kompleks tizimini yaratadi.

Pedagogik adabiyotlarda “model” tushunchasi o‘quv jarayonining muayyan qirrasini ifodalovchi, tizimli, takrorlanadigan va natijaga yo‘naltirilgan tuzilma sifatida talqin qilinadi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli esa o‘quv faoliyati jarayonida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga asoslanadi. Ushbu model quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Motivatsion–maqsadli bosqich.
2. Axborotli–amaliy bosqich.
3. Refleksiv–ijodiy bosqich.
4. Nazorat–baholash bosqichi.

They assume any verb can generate an agent noun because Uzbek *-chi* attaches freely to nearly any root. Uzbek *-lik* = quality, state, abstraction, container for adjectives and nouns [Rasulova 2022: 100]. Learners therefore create:

- *****rapidité for "speed" (instead of *vitesse*)
- *****fortité (instead of *force*)
- *****petité (instead of *petitesse*)

The underlying cognitive pattern is: *To express a quality, add an abstract suffix, just like -lik.* This leads to widespread overextension of *-ité* and *-tion*. Uzbek affectionate forms (e.g., *opajon*) prompt learners to create French forms such as:

- *****sœurette for polite address
- *****mamette as a general affectionate term

However, in French such diminutives are:

- stylistically limited
- contextually marked (children's speech, informal playfulness)
- often considered archaic or overly sentimental

Uzbek learners do not realize that French relies on lexical strategies (e.g., *chère mère*, *petite sœur*, intonation) rather than suffixation to express closeness. A common misconception is that each French suffix corresponds to exactly one Uzbek suffix.

Learners map:

- *-iste* ↔ *-chi*
- *-ité* ↔ *-lik*
- *-eur* ↔ "agent noun"
- *-ette* ↔ "diminutive"

But these parallels are only superficial. The divergences are structural, semantic, and pragmatic. French learners must understand that derivational suffixes in French are not interchangeable slots but part of the lexicon. Uzbek learners internalize morphological composition early: a root + suffix chain is perceived as the "normal" linguistic operation. This leads to:

- projection of L1 schemas onto L2 lexicon;
- automatic search for "appropriate" French suffixes;
- resistance to memorizing French derivational idiosyncrasies.

Thus, French derivation is incompatible with their morpho-cognitive expectations. French classroom input rarely highlights derivational morphology explicitly. As a result:

- learners encounter derived words as unanalyzed wholes;
- they attempt to infer patterns through analogy;

- analogies fail due to etymological irregularities.

Lack of morphological awareness training exacerbates errors. Learners transfer not only suffixes but derivational categories [Ringbom, 2007]:

- noun of profession
- abstract noun of quality
- instrument noun
- diminutive noun
- affective noun

If French does not provide a direct morphological equivalent, learners still attempt to generate one based on L1 categories. Uzbek uses suffixation to encode respect (*-lar*), affection (*-jon*), diminutiveness (*-cha*). French does not. Thus, learners incorrectly assume French must also embed pragmatic values in morphology, leading to hyperderivation in attempts to sound polite or affectionate [Roché, 2011]. Teachers must systematically present contrasts between Uzbek and French derivation:

- productive vs. non-productive suffixes
- semantic load of each suffix
- blocked forms and irregular patterns
- pragmatically marked suffixes in both languages

Tables highlighting "false equivalences" (e.g., *-lik* ≠ *-ité* in many cases) are essential. Students should be trained to:

- detect derivational morphemes in input;
- identify permissible vs. impermissible derivations;
- notice semantic shifts (*légal* → *légalité*, not *loi* → **loité*).

Awareness leads to reduced experimentation and more caution. Provide learners with incorrect forms and ask them to:

1. identify the suffixal logic;
2. explain why it does not work in French;
3. propose acceptable alternatives.

This method strengthens metalinguistic insight. Uzbek speakers need explicit instruction that in French:

- politeness = pronouns, modals, discourse markers
- affection = lexical choice, intonation, diminutive *petit*
- respect = titles, honorific address forms

Replacing morphological pragmatics with syntactic/lexical pragmatics reduces transfer. A corpus of authentic French texts helps learners to observe real derivational patterns; to distinguish frequent from rare suffixation; to avoid "inventing" forms based on intuition. Under guidance, learners notice derivation clusters (*création, créatif, créateur*) without overgeneralizing. Learners must memorize high-frequency derivatives as independent lexical items. French derivation cannot be acquired purely through rules; it requires lexicalization-driven learning. Suffixal interference among Uzbek-speaking learners of French is structurally motivated, cognitively reinforced, and pragmatically compounded. The typological gap between the two languages makes derivational transfer almost inevitable at A2–B1 stages. However, with systematic contrastive instruction, explicit morphological awareness, and pragmatic retraining, learners can gradually develop native-like sensitivity to French derivational norms.

References:

1. Booij, G. (2005). The grammar of words: An introduction to linguistic morphology. Oxford University Press.
2. D.B.Narzulloyeva (2025). Interlinguistic barriers in teaching french: interlingual influence and its pedagogical solutions. Строительство и образование, 4 (2), 187-193.
3. Cross-linguistic influence in French vocabulary acquisition by Uzbek learners. Foreign Language Education Review, 6(1), 89–104.

4. Ringbom, H. (2007). Cross-linguistic similarities in foreign language learning. Multilingual Matters.
5. Roché, M. (2011). Les suffixes en français contemporain: productivité et contraintes. Langue Française, 171(3), 27–45.

BIOLOGIYA TA’LIMIDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYA QILISH

Karomatov Axliddin Xamzayevich
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi bosh mutaxassisi
Tel: +998 99-623-53-59
Email: axliddinkaromatov79@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya ta’limini modernizatsiya qilish jarayonida xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etishning afzalliklari, amaliy muammolari va yechimlari tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlar — Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya va Germaniyaning aniq va tabiiy fanlar, xususan, biologiya ta’limidagi ilg‘or metodlari o‘rganilib, O’zbekistondagi ta’lim amaliyoti bilan qiyoslangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar, STEAM-model, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, laboratoriya amaliyotlari va raqamli resurslar biologiya ta’limi samaradorligini sezilarli oshiradi. Maqola biologiya ta’limini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, xorijiy tajriba, milliy ta’lim, STEAM, kompetensiya, laboratoriya, innovatsion metodlar, raqamli ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности применения зарубежного опыта в процессе модернизации преподавания биологии, преимущества и возникающие проблемы. Изучены передовые методики Финляндии, Сингапура, Японии, Южной Кореи и Германии в области естественных наук, сопоставленные с национальной практикой образования Узбекистана. Результаты исследования показывают, что внедрение инновационных педагогических технологий, STEAM-подхода, компетентностной модели, лабораторных работ и цифровых ресурсов значительно повышает эффективность обучения биологии. Статья завершена практическими рекомендациями по совершенствованию биологического образования.

Ключевые слова: биологическое образование, зарубежный опыт, национальная система образования, STEAM, компетенции, лаборатория, инновационные методы, цифровизация.

Abstract: This article analyzes the possibilities of integrating foreign experience into the modernization of biology education in Uzbekistan, highlighting its advantages, challenges, and solutions. Advanced practices from Finland, Singapore, Japan, South Korea, and Germany in the teaching of natural sciences were studied and compared with national educational approaches. The research results demonstrate that the implementation of innovative teaching technologies, the STEAM model, competency-based learning, laboratory practices, and digital resources significantly enhances the effectiveness of biology education. The article concludes with practical recommendations for further improving biology education in Uzbekistan.

Keywords: biology education, international experience, national education, STEM, competence, laboratory practice, innovation, digital learning.

Kirish. O’zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda biologiya fanini o‘qitish mazmunini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Aniq va tabiiy fanlar, xususan, biologiya — ekologik tafakkurni shakllantirish, biologik xavfsizlikni ta’minlash, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish va zamonaviy kasbga yo‘naltirishda alohida ahamiyatga ega.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biologiya ta’limining samaradorligi ko‘proq laboratoriya amaliyotlari, integratsion yondashuv, tadqiqot metodologiyasi, raqamli texnologiyalar va STEAM-integrasiya darajasiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan O’zbekiston ta’lim

tizimida ham xorijiy tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va moslashtirish strategik zaruratga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili. STEAM -real hayot talablaridan kelib chiqqan holda akademik ilmiy-texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda o‘qitishdir. Bu ta’lim tizimi yangicha metodika va ishlanmalarga boy bo‘lgan tizim. Bu tizim bilan o‘quvchilarimizni texnologiyalar bilan hamnafas bo‘lgan holda tarbiyalash, qiziqtirishini texnolgiya, muhandislik, san’at, matematika fanlari bilan birga uyg‘un holatda o‘qitishni takomillashtirishdir.

M.Abjalova umumta’lim maktablarida sinf-dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyotda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo‘llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi.Ta’lim jarayoniga STEAM ta’lim tizimining joriy etilishi natijasida kelajakda innovatsion iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo‘lgan kasblarni egallashga zamin yaratilishini namoyon etish va kreativlik mohiyatini anglatishi aytib o‘tilgan.

D.Kojuxarova ta’limning mohiyati va unda axborot texnologiyalarining o‘rni ko‘rib chiqib, axborot texnologiyalari bo‘yicha dars o‘tish uchun taklif qilingan variant STEAM yondashuvi orqali amalga oshirilganligi ta’kidlab o‘tilgan

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari alohida belgilab berilgan. Shu sababli ham biologiya fani o‘qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, “2021–2023-yillarda xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha milliy dastur”da ham ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida nazariy metodlar (ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, analitik, induktiv va deduktiv yondashuvlar), empirik metodlar (pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, testlar, tajriba-sinov ishlari, statistik tahlil) hamda matematik metodlar (statistik ma’lumotlarni qayta ishlash) qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni talab etmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi yuqori sinf o‘quvchilarini STEAM ta’lim texnologiyalari biologiyani boshqa fanlar bilan birlashtirib o‘qitishni ta’minlaydi. Bu orqali o‘quvchilar biologik jarayonlarni tushunishda matematik va texnologik konsepsiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Genetika va seleksiya boblari mavzularini o‘qitish jarayonida amaliy va loyiha ishlarini bajarish orqali biologiyaning nazariy jihatlarini hayotga tatbiq etish imkoniyati beriladi.

biologiya fanlarini o‘qitishda STEAM yondashuvini qo‘llash orqali o‘quvchilarda biologiya faniga bo‘lgan qiziqishni yanada uyg‘otish va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa. Xulosa shundan iboratki, xorijiy tajribalarni biologiya ta’limiga joriy qilish O’zbekiston ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Finlyandiya, Singapur, Yaponiyaning ilg‘or metodlari — tadqiqotga asoslangan o‘qitish, laboratoriya amaliyoti va raqamli texnologiyalarni qo‘llash — milliy ta’lim tizimiga moslashtirilsa, o‘quvchilarning kompetensiyasi, ilmiy dunyoqarashi va amaliy ko‘nikmalari sezilarli ravishda oshadi. Taklif etilgan yechimlar biologiya ta’limining zamonaviy modelini shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Education in Finland: Best Practices in Natural Science Teaching. – Paris, 2019.
2. Ministry of Education Singapore. Biology Curriculum Framework. – Singapore, 2020.
3. STEM Education in South Korea. Seoul National University, 2018.
4. Japan Science and Technology Agency. Life Science Education Report, 2017.
5. Abjalova. M See discussions, stats, and author profiles for this publication at: Presentation February 2021 DOI: 10.13140/RG.2.2.28787.66084

6. Kozhuharova, D. (2022). STEAM in Information Technology Education. Педагогически Форум, 10(4), 22–28

RUHIY JAROHATLAR VA MIGRANT OILALARDA ULG‘AYAYOTGAN TARBIYASI QIYIN O‘QUVCHILARNING XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Jabborov Maqsud Mashrabovich
Jizzax viloyat pedagogik markazi, p.f.f.d. (PhD)
maksudteacher@mail.ru , +998915642023

Annotatsiya: Ushbu maqolada ruhiy jarohatlarning mazmuni va ularning turlari tahlil qilinib, tarbiyasi qiyinlashayotgan o‘quvchilarda kuzatiladigan xulqiy muammolarning shakllanishida bolalik davrida olingan psixologik shikastlar hamda migrant oilalarga xos ijtimoiy-psixologik omillarning ta’siri ilmiy jihatdan yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание и виды психологических травм, а также научно рассматривается влияние полученных в детстве психологических повреждений и социально-психологических факторов, характерных для семей мигрантов, на формирование проблемного поведения у учащихся с трудностями в воспитании.

Kalit so‘zlar: ruhiy jarohatlar, tarbiyasi qiyin o‘quvchilar, tarbiya, bolalikdagi psixologik shikastlar, migrant oilalar, xulqiy muammolar, ijtimoiy-psixologik omillar.

Ключевые слова: психологические травмы, трудные учащиеся, воспитание, детские психологические повреждения, семьи мигрантов, поведенческие проблемы, социально-психологические факторы.

KIRISH

Jamiyat rivojlanishining inqirozli davrlarida inson oila va oilaviy baxtning qadrini chuqurroq anglash va his qilish tabiiy hol hisoblanadi. Bu fikr A.M. Gendin va boshqa olimlarning sotsiologik tadqiqotlarida ham tasdiqlangan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari nafaqat mehnat jamiyatlariga, balki oilalarga va alohida shaxslarga ham qo‘shimcha yuk bo‘lib tushadi. Inqiroz sharoitida oilaviy va shaxslararo munosabatlarda sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Matbuot xabarlariga ko‘ra, bir qator G‘arb mamlakatlarida suitsid holatlari sezilarli darajada ko‘paymoqda. Gendin oilani inson hayotining eng muhim va xavfsiz maskani, qiyin davrlarda yashirin panoh ekanligini ta’riflaydi. Masalan, Gollandiyada qadimdan bir an’ana mavjud bo‘lgan: ish faoliyatidan uyga qaytganda odam poyabzallarini darvozadan tashqarida qoldirib kirgan; bu esa ishdagi tashvishlarni uyga olib kirilmasligining belgisi sifatida qaralgan.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda ruhiy jarohatlar va ularning tarbiyasi qiyin o‘quvchilarga ta’siri masalasi ko‘plab pedagogik va psixologik tadqiqotlarda o‘rganilgan. A.M. Gendin (2005) ruhiy jarohatlar oilaviy muhitda shakllanishi va bolalik davrida olingan psixologik travmalarning o‘quvchilarning xulq-atvoriga ta’siri haqida keng ma’lumot beradi. U oilani inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy maskan sifatida ko‘radi va inqirozli sharoitlarda oilaviy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Bolotov va Petrov (2018) migrant oilalarda o‘sayotgan bolalarning tarbiyaviy muammolarini o‘rganib, ularning ruhiy jarohatlar natijasida xulq-atvori va ijtimoiy moslashuviga qanchalik ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, migrant oilalardagi ijtimoiy-psixologik omillar bolalarning o‘zini tutishi, akademik natijalari va sinfdoshlar bilan munosabatlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar ham shu yo‘nalishda olib borilgan. Masalan, Evans va Hamblin (2020) o‘quvchilarda psixologik travmalar va ularning xulq-atvorga ta’sirini tahlil qilib, ruhiy jarohatlar va oilaviy muhit o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ruhiy shikastlar va stressning o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik faoliyatiga salbiy ta’siri amaliy misollar bilan tushuntirilgan.

O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar (Jabborov, 2023) ruhiy jarohatlar bilan bir qatorda migrant oilalardagi bolalar xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarni ham o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar va ota-onalar o‘quvchilarning ruhiy holatini chuqur anglab, individual yondashuvni qo‘llashlari muhimdir.

O‘smirlarning fiziologik, psixologik, aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda uning jamiyatdagi maqomi (statusi) ham o‘zgarib boradi. Bu omillar natijasida o‘smirlarning oilada ijtimoiylashuv jarayoni sof tarbiya sifatida emas, ko‘plab tendensiyalar va o‘zaro munosabatlar natijasi sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Lekin bu farzandga ijtimoiylashuv ta’siridagi rejalilik va stixiyalilik nisbati o‘z-o‘zidan stixiyalilik foydasiga o‘zgarishi kerak, degani emas. Aksincha, ta’sir nozikroq, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, oilaning boshqa a’zolari taqdiri bilan qiziqish shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun sharoitlar yaratadi. Bunday oilalarda ota-ona ham, farzand ham (ayniqsa, shaxs sifatida shakllanib bo‘lganlar) birontasini tarbiyalayotganliklarini yoki tarbiya ta’siriga tushib qolganliklarini aniq-tiniq his etmaydilar. [2]

METODOLOGIYA VA NATIJALAR

Kundalik hayotimizda biz aziyat chekadigan oddiy ruhiy jarohatlar

Har safar yo‘talganimizda, biror yerimizni shilib olganimizda yoki qornimiz og‘rib qolganda shifokor huzuriga yugurib bormaymiz. Bu kabilarni, odatda, uyda o‘zimiz davolaymiz. Albatta, agar yaxshi bo‘lavermasak, ba’zida shifokorga borishga zarurat tug‘ilishi mumkin, ammo aksariyat vaqtlarda professional tibbiy ko‘riksiz ham o‘z sog‘lig‘imizni qayta tiklash qobiliyatiga egamiz. Kichik ruhiy jarohatlar ham bundan istisno emas. Ruhiy jarohat olganimizda birinchi hissiy-emotsional yordam ko‘rsata olsak, ruhiy salomatlik bo‘yicha soha mutaxassisi ko‘magisiz ham ruhiy salomatligimizni qayta tiklay olishimiz mumkin.

Quyida emotsional birinchi yordam zaruriyati tug‘ilishi mumkin bo‘lgan oddiy ruhiy jarohatlar sanab o‘tilgan:

1. Rad etilish: Uchrashuvga chiqqanda notanish inson, ish beruvchilar, do‘stlarimiz va umr yo‘ldoshimiz tomonidan doimo rad etilamiz. Rad javoblarini kundalik hayotning mayda tana jarohatlariga qiyoslash mumkin.

2. Mag‘lubiyat: Biz tez-tez o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish yo‘lida qoqilamiz; maktabda nazorat savollarini yechishda, o‘z oldimizga qo‘ygan va tugallash umidida bo‘lgan vazifalarda. Muvaffaqiyatsizliklar hissiy-emotsional shamollashga o‘xshaydi, davosiz qoldirilsa, u psixopnevmoniyaga aylanishi mumkin.

3. Yolg‘izlik: Yolg‘izlik hech birimizga yot emas, xuddi mavjud munosabatlarimiz hissiy ehtiyojlarimizga munosib emasdek. Muammo shundaki, qancha o‘zimizni yolg‘iz va yakkalangan his etsak, “munosabat mushaklarimiz” shuncha zaiflashib boradi.

4. Ajralish va yo‘qotishlar: Hayotda vaqti-vaqti bilan yo‘qotishlarni boshdan kechiramiz; qarindoshlarimiz vafot etganda, do‘stimiz shahardan ko‘chib ketganda, farzandlarimiz uyni tark etganlarida yoki sevimli jonivorimiz o‘lib qolganda. Ajralishdan so‘ng hayotimizni qay yo‘sinda barpo etishimiz bu sinovdan emotsional jihatdan kuchliroq yoki ruhiy zaifroq bo‘lib chiqishimizni aniqlashi mumkin.

5. Shilqim va yopishqoq fikrlar: Shilqim va yopishqoq fikrlar girdobiga o‘ralashib qolish oson, ma’yus yoki norozi hislarni qayta-qayta o‘ylagmiz kelaveradi va fikrlarimizni o‘zgartirishga qiynalamiz. Biroq bunday qilish hissiy yaralarmizni yulib olishga o‘xshaydi - bu ularning bitib ketishiga imkon bermaydi.

6. Aybdorlik: Biz haftada bir necha soatni kichik va o‘rtacha kattalikdagi aybdorlikni his qilishga sarflaymiz, agar bu uzoq vaqt davom etsa, diqqatmizni o‘g‘irlashi va ish hamda zarur vazifalarga e’tiborimizni jamlash qiyin kechishi mumkin. To‘xtovsiz aybdorlik hissi eng yaqin munosabatlarimizni zaharlashi va ba’zida butun oilaga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

7. O‘ziga bo‘lgan hurmatning pastligi: Biz tez-tez o‘zimizga bo‘lgan hurmatni yo‘qotib qo‘yamiz - bunday kunlarda ozimiz va qobiliyatlarimizni o‘ta past baholaymiz va ularni kamsitamiz. O‘zini past baholash xuddi kuchsizlangan immun tizimiga o‘xshaydi - u bizni yanada zaiflashtiradi va boshqa ruhiy jarohatlarni olishimiz ehtimolligini yanada oshiradi.

Bir ruhiy jarohat boshqasini chaqiradi

Bu hissiy “jarohatlar”ning har biri ruhiy salomatligimizga va ayniqsa, bu jarohat uzoq vaqt qarovsiz qoldirilsa, hattoki jismoniy salomatligimizga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Bilakning lat yeyishi bizni ortiqcha urinishga va natijada yelkamizni ham jarohatlab olishga olib kelishi mumkin, bu esa orqa mushaklarimizni oyoqda yurishga qiynalish darajasidagi zo‘riqishiga sabab bo‘lishi mumkin. [3]

Ruhiy jarohatlar ham bir-birining ahvolini xuddi shu tarzda tanglashtiradi. Rad etilish davolanmasa, u o‘zimizga beriladigan bahoga zarar yetkazishi mumkin, bu esa o‘z navbatida o‘z himoya qobig’imizga kirib olib, odamlarni o‘zimizdan itarishga olib kelishi va yanada yakkalanib qolishimiz hech gap emas, shu pallada o‘zimizni yolg’iz va qanday qilib do‘stlarmiz bizdan yuz o‘girgani haqidagi mislsiz o‘ylar girdobida his qilamiz, bu esa to‘liq rivojlangan depressiyaga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Ruhiy jarohatlar paydo bo‘lgan kezdayoq, ularni davolash kasallikning rivojlanib ketishini to‘xtatib qolishi va mayda jarohatlarning yig’ilib borish va yiriklashib ketish ehtimolini kamaytiradi.

Garchi biz sodiq va yordamga shay do‘stlar davrasida bo‘lsak ham, vaziyatni o‘z qo‘limizga olish zarar qilmaydi; bular o‘z jarohatimizni bog’lab qo‘yish, o‘zimizni yupatish, boshimizda aks sado berib aylayotgan zararli o‘y-xayollar girdobiga barham berish yoki o‘zimizga beradigan bahoni qaytadan tiklash kabilardan iborat bo‘lishi mumkin. Eng asosiysi, ogoh bo‘lish, sizga ruhiy jarohat yetganida vaziyatni qo‘lga olish vaqti yetganini anglashdir.

Bora-bora uzoq yillarga mo‘ljallangan va farzandlaringiz hamda oila a’zolaringiz bilan ham ulasha oladigan — shaxsiy psixologik dori qutichangizni yaratib olasiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Z.K.Ismoilova. Pedagogika. - Toshkent: Intellekt, 2021 y. -B 67.

2. M.Jabborov. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish. // Maktab va hayot. №8 2023. 25-27 b.

3. https://azizapulatova.medium.com/

SINGAPUR TA’LIM YONDASHUVIDAN FOYDALANIB UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLAR AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Jabborov Maqsud Mashrabovich
Jizzax viloyat pedagogik markazi, p.f.f.d. (PhD)
maksudteacher@mail.ru , +998915642023

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon ta’lim tizimi tajribalari, xususan Singapur ta’lim tizimi tahlil qilingan. Singapurda tabiiy fanlarni o‘qitish usullari, tabiiy fanlar o‘quv dasturi hamda ularning samarali qo‘llanilishi o‘rganilib, bu tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Abstract: This article examines the experiences of the world education systems, with a particular focus on the Singapore education system. The teaching methods and curriculum of natural sciences in Singapore were studied, and the best practices for their effective application in the educational system of Uzbekistan were analyzed.

Аннотация: В данной статье рассматриваются мировые образовательные системы, с особым вниманием к системе образования Сингапура. Изучены методы преподавания и учебная программа по естественным наукам в Сингапуре, а также проанализированы лучшие практики для их эффективного применения в системе образования Узбекистана.

KIRISH

Tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, fizika, geografiya) ahamiyatini fan-texnika va texnologiya rivoji, ishlab chiqarish sohalari hamda kundalik hayotdagi roli bilan aniqlash mumkin. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitish o‘quvchilarda hayotiy tasavvurlarni shakllantirish, amaliy faoliyat orqali bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 29 aprelda tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 48 ta maqsadli ko‘rsatkichni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan. Masalan, 2030 yilga borib o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi etakchi 30 ta mamlakat qatorida bo‘lishi rejalashtirilgan.

- Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa horij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir, degan edilar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev.

ADABIYOTLARNI TAHLILI

Ayrim olimlar maorif ishining rivojlanishi bilan tanishish uchun boshqa mamlakatlarga bordilar. Bu sayohatlarning natijalarini nashr etib, muallimlar o‘z milliy maktabini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatdilar. Mamlakatimizda N.Usmonov, N.Salimova, P.Jo‘raev, Yu.Erxanova kabilar xorijiy mamlakatlar ta‘lim tizimi masalalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Singapur XX asrgacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lib, 1959-yildagina mustaqilligini qo‘lga kiritdi. O‘sha kezlari aholining 95 foizini xitoy, hind va malay xalqlari tashkil etgani bois darslar ularning ona tilida o‘tilgan. Ingliz tilida esa faqat yevropaliklar so‘zlashgan. Bunday vaziyatda yangi jamiyatni shakllantirish uchun, avvalo, yangi ta’lim tizimini joriy etish zarur edi. Natijada Singapur ta’limi bugungi kunga qadar 3 bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqich — 1959–1979-yillarda barcha ta’lim dasturlari standartlashtirildi. Maktablarda o‘qitish uchun asosiy til etib ingliz tili tanlandi. Shu yillari ta’limni rivojlantirish dasturi doirasida 83 ta maktab qurilib, davlat tomonidan moliyalashtirildi. Oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

1979-yildan 1997-yilga qadar davom etgan ikkinchi bosqichda esa ta’lim sifatini oshirishga urg‘u berildi. Maktablarda sinflar bolalarning qobiliyatiga ko‘ra ixtisoslana boshladi. 1992-yili texnik ta’lim instituti tashkil etilib, maktablarda maxsus texnik ta’lim joriy qilindi.

1997-yildan ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni ko‘proq mablag‘ evaziga yaxshiroq ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, 2008-yildan maktablardagi ommaviy ta’lim bekor qilinib, fuqarolar butun hayoti davomida olishi mumkin bo‘lgan individual ta’lim dasturlariga yo‘l ochildi.

Nima uchun Kembrij ta’limiy yondashuvi?


Ta‘lim olish Singapurda - jamiyat siyosatida etakchi o‘rinlarda turadi. Singapur Ta‘lim Vazirligining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarning iqtidorini aniqlashga, ular potensiallarini amalga oshirishga, butun hayoti davomida bilimlarni olishga intilish va qiziqishni rivojlantirishga ko‘mak berishdan iborat. Singapur ta‘lim tizimi – ***Ta’lim bu-hayotga tayyorlash emas, balki hayotning o‘zi*** tamoyili asosida qurilgan.

Tabiiy fanlar darsliklari majmuasining so‘nggi nashri Kembrij Boshlang‘ich tabiiy fanlar o‘quv dasturi asosida yaratilgan. Ushbu o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqilgan va fanda asosiy g‘oyalar, amaliyotlar va qadriyatlar, axloq va munosabatlarni o‘zlashtirish o‘rtasidagi muvozanat zarurligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, mavzular asosida texnologik ixtirolar, ijtimoiy ta’sirlar va fanning qimmatli jihatlari o‘zaro bog‘langan tarzda bayon etilgan. Shuningdek, u tabiiy dunyoda fundamental tushunchalarning keng qamrovini ochib beradi.

Bu turkumning o‘ziga xos jihati shundaki, u har ikki dunyo Buyuk Britaniyadan Kembrij o‘quv dasturi, shuningdek, Singapurdan sinovdan o‘tgan metodologiyalarni taklif etadi.

Singapur tabiiy fanlar o‘quv dasturi asosi ilmiy izlanish ruhi va amaliyoti asosida tuzilgan hamda fan amaliyoti uchun muhim bo‘lgan uchta ajralmas sohani belgilaydi: bilim,tushunish va qo‘llash; ko‘nikmalar va jarayonlar; qadriyat va munosabatlar. O‘quv dasturi o‘quvchilarga fanga intilish mazmunli va foydali ekanligini tushunishga imkon beradi, chunki u fanning kundalik hayotda, jamiyatda va atrof-muhitdagi orni bilan bog‘liq bilimlar, muammolar va savollarga asoslangan. Bu bog‘liqlik model orqali ifodalangan (1-rasm). 2019 yilgi Singapur fan o‘quv dasturi doirasida jarayonlar ko‘nikmalari fan amaliyotining muhim qismidir. Ko‘rish, taqqoslash, tasniflash va boshqalar kabi turli xil jarayon ko‘nikmalari mavjud. Ushbu o‘quv

dasturi o‘quvchilarga hayot, o‘rganish, fuqarolik va ish uchun fan bo‘yicha mustahkam poydevor qo‘yish uchun Singapurdagi fan ta’limining yo‘nalishini qamrab oluvchi qayta ko‘rib chiqilgan. Fan o‘quv dasturiga asoslangan. Singapurdagi fan ta’limining uchta “IN” - Inspire, Inquire va Innovate bilan ifodalangan qarashlariga o‘quvchilarda ilmiy bilimlar, amaliyotlar va qadriyatlarda kuchli asoslarnirivojlantirish orqali erishish mumkin(1-rasm).



1-rasm. *O‘quv dasturi asosi*

Qayta ko‘rib chiqilgan fan o‘quv dasturi asosi (1-rasm) Singapurdagi tabiiy fanlar ta’limining yo‘nalishini o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarga fan bo‘yicha hayot, o‘rganish, fuqarolik va mehnat uchun mustahkam poydevor qo‘yishni ta'minlaydi.

Markazdagi “Hayot va jamiyat uchun fan” tabiiy fanlar ta’limi maqsadlarining mohiyatini aks ettiradi. O‘quvchilarning shuningdek, muammolarni ijodiy hal qilish, qaror qabul qilish va tekshirish kabi ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Practices of Science – Tabiiy fanlarda amaliyot. Amaliyotlar uchta komponentdan iborat:

(a) Fanda fikrlash va harakat qilish usullarini ko‘rsatish (WOTD);
(b) Ilmiy bilimlarning mohiyatini tushunish (NOS);
(c) Fan, texnologiya, jamiyat va atrof-muhit bilan bog‘liqligi (STSE).

Tabiiy fanlar amaliyotining tarkibiy qismlari

Tabiiy fanlar amaliyotining 3 ta tarkibiy qismiga quyidagilar kiradi:

1) O‘ylash va tabiiy fanlarni o‘rganish usullarini namoyish etish;
2) Ilmiy bilimlarning mohiyatini tushunish;
3) Tabiiy fanlarni texnologiya, jamiyat va atrof muhit bilan bog‘lash.

Amaliyotlar

O‘qituvchilar o‘quvchilarni fan amaliyotiga jalb qilishlari va ilmiy bilimlarning izlanishlar orqali qanday rivojlanishini tushunishlariga yordam berishlari tavsiya etiladi. Fan amaliyotining tarkibiy qismlaridan biri fikrlash va harakat qilish usullaridir. U o‘quvchilarga savol berish orqali o‘rganishida yordam beradi, turli ko‘nikmalar va jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Fikrlash va harakat qilish usullari orasida ustuvorlikning aniq ketma-ketligi yo‘q.

Masalan, ma’lumotlarni tahlil qilish va sharhlash yoki tajriba/tadqiqot o‘tkazishda savollar berish va muammolarni aniqlash jarayonida savollar paydo bo‘lishi mumkin.

Xususan, imkoniyatlar yaratish ko‘nikmasi o‘quvchilar savollar berish va muammonianiqlash bilan shug‘ullanayotganda yoki tushuntirish uchun reja tuzishda, yechimlarni loyihalashda foydalanish mumkin.

XULOSA

Hozirgi kunda tabiiy fanlarni o‘qitishda an’anaviy nazariy yondashuvlardan, ya’ni o‘quvchilarga tayyor materiallarni berishga asoslangan metodlardan ma’lum darajada voz kechish va amaliy, tajribaga yo‘naltirilgan ta’limga e’tibor qaratish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning kundalik hayotida tabiiy fanlarga oid bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish salohiyatini shakllantirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat berish lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Bundan tashqari, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham shuni tasdiqlaydi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA – o‘quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari o‘zbek ta’lim tizimi uchun muhim indikator sifatida e’tiborga molikdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash darajasi ularning global reytingdagi o‘rniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha 2025 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyada ham o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish, amaliy yondashuvlarni tatbiq etish, PISA xalqaro dasturi reytingida yuqori o‘rinlarni egallashga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Shu tariqa, umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, STEAM yondashuvi va amaliy mashg‘ulotlarni keng joriy etish orqali o‘quvchilarning ilmiy fikrlash, tahlil va yaratish salohiyatini rivojlantirish rejalashtirilgan. 2025 yilga kelib, o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari xalqaro standartlar darajasiga yetkazilishi, amaliy yondashuvlar orqali ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish salohiyati sezilarli darajada oshirilishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishidagi nutqidan.

2. Anvar Xo’jaev, Singapur ta’lim tizimi: jahon maorifida yetakchi brendga aylangan, Ma’rifat gazetasi,11.01.2019

3. Mashrabovich J. M. WAYS TO DEVELOP SELF-EDUCATION SKILLS IN STUDENTS RAISED IN MIGRANT FAMILIES //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – Т. 3. – №. 7. – С. 357-364.

3. https://www.mceducation.com – Marshall Cavendish Education | Education Solutions Provider | MCE – Marshall Cavendish Education Pte Ltd -Singapur ta’lim nashriyoti platformasi

4. https://www.mceducation.com.hk/jsci_res/simulation/JS_sim10_1_EE/

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALAR SALOMATLIGI VA ULARNING O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARI: IJTIMOIY-PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLAR

Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligi va ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va psixologik aspektlarini tizimli tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida talabalar sog‘lig‘iga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining akademik va shaxsiy muvaffaqiyat bilan bog‘liqligi ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Maqolada talabalar salomatligini saqlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik strategiyalari, metodik tavsiyalar va innovatsion uslublar yoritilgan. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar natijalari oliy ta’lim tizimida psixologik xizmatlar va sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari amaliy va nazariy jihatdan oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini takomillashtirish hamda talabalar o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Talabalar salomatligi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, oliy ta’lim, ijtimoiy-pedagogik omillar, psixologik yordam, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik strategiyalar.

Kirish: Oliy ta’lim tizimida talabalar salomatligi va ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri sifatida ajralib turadi. Bu masala nafaqat biologik va fiziologik jihatlarni, balki ijtimoiy, psixologik, va pedagogik kontekstlarni ham qamrab oladi. Talabalik davri insonning shaxsiy va professional rivojlanishida keskin o‘zgarishlar davri bo‘lib, shu bilan birga stress, psixologik zo‘riqish va sog‘liq bilan bog‘liq xavflar bilan ham tavsiflanadi. Shu sababli, talabalar salomatligini ta’minlash va ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish oliy ta’lim muassasalarining strategik vazifalaridan biriga aylangan. Salomatlik konsepsiyasini ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan belgilangan “salomatlik – bu faqat kasallik yoki nuqson yo‘qligi emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati” degan ta’rif talabalar kontekstida ham o‘z aksini topadi[1]. Bu esa o‘z navbatida talabalarning akademik faoliyatining samaradorligi, o‘quv jarayoniga motivatsiyasi, ijtimoiy integratsiyasi va psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, salomatlikni saqlash va rivojlantirish jarayonida talabalar o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular o‘z vaqtini rejalashtirish, stress bilan samarali kurashish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va o‘quv vazifalarini o‘z-o‘zidan boshqarish orqali shaxsiy salomatlik va akademik muvaffaqiyatni uyg‘unlashtiradilar. O‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) kontseptsiyasi psixologik adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, uning tarkibiy elementlari orasida motivatsiya, maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvor, e’tibor va vaqtni boshqarish, stressga chidamlilik, shuningdek, o‘z harakatlarini tahlil qilish va tuzatish qobiliyati mavjud. Talabalik faoliyati doirasida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish individual va ijtimoiy kontekstlarni, shuningdek pedagogik muhitni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak[2]. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv va innovatsion metodlarni, mentorlik tizimini, psixologik treninglar va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi dasturlarni samarali deb biladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning salomatligi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Masalan, ruhiy barqarorlik va stressni boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan talabalar akademik jarayonlarda yuqori natijaga erishadi va sog‘lom turmush tarzini olib borishga moyil bo‘ladilar. Shu bilan birga, talabalar salomatligini saqlashning kompleks tizimi faqat jismoniy mashqlar yoki oziqlanish bilan cheklanmaydi, balki psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy maqsadlarni belgilash va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi[3]. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligini qo‘llab-quvvatlash tizimi bir qator ijtimoiy-pedagogik omillarga bog‘liq. Jumladan, o‘quv muhitining pedagogik shaffofligi, o‘qituvchilar va psixologlarning metodik ko‘magi, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantiruvchi

dasturlar, talabalikning ijtimoiy integratsiyasi va universitetning sog‘liqni saqlash infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etadi[4]. Bu omillar talabaning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ularni akademik va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola talabalarning salomatligini saqlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tizimli tarzda o‘rganishni maqsad qilgan. Tadqiqot doirasida salomatlikni belgilovchi ichki va tashqi omillar, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari, pedagogik va psixologik vositalar, shuningdek innovatsion metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola natijalari oliy ta’lim muassasalarining pedagogik faoliyatini takomillashtirish, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish va ularning salomatligini saqlash uchun ilmiy asos yaratadi[5]. Kirish bo‘limi xulosasida shuni ta’kidlash joizki, talabalik davri nafaqat bilim olish jarayoni, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashish va psixologik barqarorlikni shakllantirish davri sifatida ham ahamiyatga ega. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning salomatligi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Ushbu yondashuv talabaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini birlashtirgan kompleks tizimni shakllantirishga xizmat qiladi va zamonaviy ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Oliy ta’lim tizimida talabalar salomatligi va ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan dolzarb masala sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy ta’lim muassasalari globalizatsiya, texnologik inqilob, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi va shaxsiy rivojlanish talablari bilan bog‘liq murakkab muhitda faoliyat yuritmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalik davri o‘quv jarayonidan tashqari, shaxsiy, ijtimoiy va psixologik barqarorlikni shakllantirish davri sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Dolzarblikning birinchi asosiy sababi – talabalik davrida yuzaga keladigan stress va psixologik zo‘riqishlar bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining yuqori intensivligi, imtihonlar, akademik talablar va ijtimoiy moslashuv vazifalari talabalarda ruhiy zo‘riqish, uyqusizlik, konsentratsiya pasayishi va motivatsiyaning susayishiga olib keladi. Bularning barchasi bevosita talabalarning sog‘lig‘i va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Shu sababli, salomatlikni saqlash va o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarini shakllantirish oliy ta’lim tizimida dolzarb pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Ikkinchi sabab sog‘lom turmush tarzining talabalik davrida yetarlicha rivojlanmaganligi. Ko‘plab talabalar o‘z vaqtini samarali rejalashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va uyqu tartibini saqlash borasida yetarli ko‘nikmalarga ega emas[6]. Bu holat nafaqat jismoniy, balki ruhiy sog‘liqka ham salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalari talabalarga psixologik yordam, mentorlik va o‘z-o‘zini boshqarish treninglarini tashkil etish orqali sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirishga majburdir. Uchinchi sabab talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari zamonaviy jamiyatda shaxsiy muvaffaqiyat, ijtimoiy integratsiya va kasbiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan talabalar vaqtini samarali rejalashtiradi, stressga chidamlilikni oshiradi, o‘quv va ijodiy jarayonlarda muvaffaqiyatga erishadi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini qo‘llay oladi. Shu bilan birga, oliy ta’limda talabalar salomatligini saqlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish kompleks tizimi ijtimoiy barqarorlik va jamiyat sog‘lomligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. To‘rtinchi sabab global tendensiyalar va pandemiya davrida aniqlanishicha, talabalar orasida ruhiy va jismoniy salomatlik muammolari keskin oshgan. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim, ijtimoiy izolyatsiya va kommunikatsiya cheklovlari talabalarning psixologik barqarorligini susaytirgan, depressiya va stress holatlarini kuchaytirgan. Shu sababli, talabalarning salomatligini saqlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim strategik vazifa sifatida dolzarb ekanligi yanada oshdi[7]. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayon talabalarning akademik muvaffaqiyati, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatini mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, salomatlikni saqlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish oliy ta’lim tizimida

strategik, dolzarb va amaliy ahamiyatga ega masala sifatida koʻriladi. Shu munosabat bilan, ushbu maqola talabalarning salomatligi va oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, bu masala zamonaviy ta’lim tizimida har tomonlama ijtimoiy, pedagogik va psixologik ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Tadqiqot doirasida salomatlikni belgilovchi ichki va tashqi omillar, oʻz-oʻzini boshqarish strategiyalari, pedagogik va psixologik vositalar tizimli tarzda tahlil qilinadi, bu esa oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Oliy ta’lim tizimida talabalar salomatligi va ularning oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirish masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyatga ega boʻlib, turli mamlakatlarning tajribasi bu yoʻnalishning nazariy va amaliy jihatlarini boyitadi. Xususan, Yevropa va Shimoliy Amerika oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligini saqlash va ularning oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirish tizimli yondashuvlar bilan amalga oshiriladi. Masalan, AQShning bir qator universitetlarida talabalar markazlari faoliyati nafaqat tibbiy xizmatlar, balki psixologik maslahat, stressni boshqarish treninglari va oʻz-oʻzini boshqarish boʻyicha individual va guruh treninglarini ham oʻz ichiga oladi[8]. Ushbu tajriba shuni koʻrsatadiki, talabalarning jismoniy va ruhiy farovonligini saqlash ularning akademik muvaffaqiyati bilan bevosita bogʻliq boʻlib, psixologik koʻmak va rejalashtirish koʻnikmalarini rivojlantirish universitetning strategik vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida, xususan Germaniya va Finlyandiya universitetlarida, talabalarning oʻzini boshqarish koʻnikmalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan mentorlik va coaching tizimlari keng tatbiq etiladi[9]. Bu yondashuv talabalarni oʻz vaqtini samarali rejalashtirish, akademik va shaxsiy maqsadlarni uygʻunlashtirish, stress va emotsional zoʻriqishlarni boshqarish imkoniyatlari bilan ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ushbu dasturlar talabalarning oʻz-oʻzini boshqarish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi va ularning sogʻligʻini mustahkamlaydi, bu esa oʻz navbatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xorijiy tajriba shuni koʻrsatadiki, talabalar salomatligini saqlash tizimi nafaqat universitet darajasida, balki milliy va hududiy siyosat bilan ham mustahkam bogʻlangan. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida oliy ta’limda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va psixologik yordam koʻrsatish dasturlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi, shuningdek, talabalarni ruhiy va jismoniy barqarorlikni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan kompleks strategiyalar ishlab chiqilgan. Bu esa talabalarning oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir koʻrsatadi va ularning akademik faoliyatini samarali qiladi. Shu bilan birga, xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalik davrida salomatlikni saqlash va oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy, psixologik va pedagogik aspektlarini tizimli yondashuv orqali oʻrganish zarurligini ta’kidlaydi. Masalan, Zimmerman va Schunkning (2001) oʻz-oʻzini boshqarish nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar talabalarning motivatsiyasi, stressga chidamliligi va akademik muvaffaqiyatini uzviy bogʻlashni koʻrsatgan boʻlsa, Duckworth va kadrlar (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa psixologik chidamlilik va oʻz-oʻzini boshqarish qobiliyati yuqori boʻlgan talabalar orasida sogʻlom turmush tarzi va ijtimoiy moslashuv koʻrsatkichlarining ham yaxshilanganligini isbotlaydi[10]. Xorijiy tajriba shuni ham koʻrsatadiki, talabalarning salomatligini saqlash va oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlar, psixologik treninglar, mentorlik va sogʻlom turmush tarzini ragʻbatlantiruvchi dasturlar eng samarali vositalardan hisoblanadi. Bu yondashuvlar nafaqat individual salomatlikni mustahkamlaydi, balki akademik muvaffaqiyat va ijtimoiy integratsiyani oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, xorijiy tajriba Oʻzbekiston oliy ta’lim tizimi uchun ham muhim pedagogik model sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalar salomatligi va ularning oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tizimli tarzda oʻrganildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, talabalik davri nafaqat akademik bilimlarni egallash, balki shaxsiy rivojlanish, psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuvni shakllantirish davri sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Salomatlik va oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik oliy ta’lim muassasalarida talabalarning muvaffaqiyatli va samarali faoliyat yuritishini

